Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 646 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir:
Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreа, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farxod, O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
Eshov Mansur Po‘latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
Karimov Norboy G‘aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o‘qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To‘lqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o‘rni 7
Dehqonov Burxon Rustamovich, tayanch doktorant
Qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo‘llari 11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi, assistent
Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish 15
Alimov Murodkosim Achilovich, mustaqil izlanuvchi
“Yashil iqtisodiyot”da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili 20
Umarov Faxriddin Umar o‘g‘li, katta o‘qituvchi
Yoqilg‘i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati 26
Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Tog‘li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi 31
Abduvakil Alimov Komil o‘g‘li, tayanch doktorant
Ta’lim turizmining nazariy asoslari va O‘zbekistondagi tendensiyalari 38
Maxmudova Nodira O‘ktamovna, tayanch doktorant
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari 43
Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li, tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari 46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich, dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi 51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, dotsent, PhD
Turizmni rivojlantirishda “Tourism 4.0” konsepsiyasini joriy etish masalalari 57
Yuldasheva Dilnoza Ulug‘bekovna, mustaqil tadqiqotchi
Davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish 62
Ollokulova Feruza Mansurovna, PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid o‘g‘li,** magistrant
Перспективные направления “Зелёной химии” для Республики Узбекистан 66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич
O‘zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi 73
Usmonov Botir, magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish 78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi, tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili 82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich, PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds 87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev, the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies 92
Shakhzod Saydullaev, PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi 101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o‘g‘li, mustaqil tadqiqotchi
O‘zbekistonda to‘lov tizimining raqamli transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari 105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normo‘minovna,** o‘qituvchi
Tijorat banki xizmatlarida ta’lim kreditining o‘rni va uni takomillashtirish masalalari 110
Eldor Uskanov, mustaqil tadqiqotchi
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish 114
Maxmudov Nosir Maxmudovich, professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash masalalari 120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich, PhD
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muammo va yechimlar 125
Ermatov Musojalil Komilovich, kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o‘qituvchi
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach 132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization 138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi, asisstent
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities 141
Alimova Guzal Alisherovna, PhD in economics, docent

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari 146
Jo‘rayeva Sevara Zakirovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli 152
Kamilova Iroda Xusnitdinovna, PhD
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability 156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna, Professor
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari 163
Maxmudov Rahimjon Xamid o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Barqaror iqtisodiy o‘sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta’siri 170
Nabiyev Ulug‘bek Mirodiljon o‘g‘li, tayanch doktorant
The potential advantages of implementing the Total Quality
Education Management (TQEM) concept 175
Otakulov Makhamadjon, PhD
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari 181
Raximova Kizlarxon Ne’matjon qizi
Jamg‘armalar investitsiyalar manbasi sifatida 185
Sadikova Ra’no Abdullayevna, i. f. n., dots.
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish 188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o‘rni 191
Sherjonov Sherjon Alijan o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari 196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li, dekan o‘rinbosari
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari 203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich, dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o‘rni 206
Aliyev Ma’ruf Komiljon o‘g‘li, mustaqil izlanuvchisi
Использование методов управления для повышения
эффективности производства на предприятиях 212
Алиева Надирахон Абдумаликовна, PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish 217
Z. G. Allaberganov, kafedra dotsenti
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta’siri va uni takomillashtirish 222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich, i. f. n., professor
O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari 228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna, kafedra o‘qituvchisi
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari 232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna, kafedra dotsenti
Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda biznes jarayonlarini boshqarish 236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich, mustaqil izlanuvchi
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning
ekonometrik modellashtirish ko‘rsatkichlari 242
Berdiyev Akram O‘ktamovich, mustaqil izlanuvchi
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi 253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari 258
Botirov Erkinjon Xayitovich, kafedra dotsenti
O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali
investitsion salohiyatni oshirish 263
G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich, kafedra dotsenti v. b.
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish 269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna, PhD
Soliq ma’muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo‘llari 272
Ibragimov Bobursho Bohodir o‘g‘li, i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan
moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish 278
Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda
asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari 284
Qurbonova Shaxrinoz, tayanch doktorant
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar 288
Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna, kafedra doktoranti
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari 292
Mamirjon Jalollidinov, mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала 297
Муминов Шохжахон Суюнович, ассистент кафедра
Необходимость развития предпринимательской и
страховой деятельности риски на рынке Узбекистана 302
Муятдинов Махмуд Жалелович, независимый исследователь
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны 307
Назарова Гузал Баходировна
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari 312
Nozima Abdullayeva, mustaqil tadqiqotchi
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga
ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili 316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich, kafedra dotsenti v. b.
Современное решение, которое положительно влияет на
логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках 326
Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович, кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili 333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich, kafedra dotsenti, i. f. n.
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан 339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович, DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli 345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari 349
To'rayeva Nafisa Odilovna, mustaqil izlanuvchi
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей
и задач устойчивого развития 355
Турсун Мухитович Ахмедов, и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике 359
Уринов Бобур Насиллоевич, заведующий кафедрой
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari 366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich, kafedra dotsenti
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari 374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc.
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning
ayrim fundamental masalalari 382
Xayriddinov Sh. B., mustaqil izlanuvchi
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari 385
Xolov Nabijon Qaxramonovich, PhD.
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari 391
Xusanov Otabek Nishonovich, PhD, mustaqil izlanuvchi
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari 396
Elbusinova Umida Xamidullayevna, kafedra dotsenti
Особенности методики проведения аудита затрат на производство 401
Хилола Икрамова Ровшан кизи, базовый докторант
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni 407
Bekdavlat Aliyev
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari 412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi, kafedra dotsenti
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari 416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich, mustaqil izlanuvchi
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va
Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik 420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich, falsafa fanlari doktori (PhD)
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari 424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для
содействия устойчивому экономическому росту в
Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития 431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна, аспирант
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari 440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari 446
Bobirjon Aktamov, mustaqil tadqiqotchi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ... 454
Axmedov Sayfullo Normatovich, t. f. n., mustaqil tadqiqotchi
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ... 459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari ... 464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan ... 472
Tulkin Imomqulov, PhD Associate Professor
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari ... 478
Karimova Shirin Zoxid qizi, tayanch doktorant
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili ... 483
Saodat Toshaliyeva Toxirovna, PhD
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович, DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash ... 497
J. Y. Isakov, i.f.d., prof.
The Securities Transactions of Commercial Banks ... 502
Iskandar Sulaymonov, assitant teacher
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli ... 507
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, PhD
Soliq ma'muriyatchiligi: nazariya, rivojlanish, taklif ... 511
Isroilov Bohodir Ibragimovich, i. f. d., professor; **Ibragimov Bobursho Bohodir o'g'li,** PhD
Yangi O'zbekiston jamiyat hayotining joni va ruhi ma'naviyatdir ... 516
Davletova Muxabbat Narimanovna, mustaqil izlanuvchi
Moddiy-texnik resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi ... 519
Halimova Dilora Olimboyevna, mustaqil izlanuvchi
Хлопково-текстильная промышленность государства ... 523
Халиков Талибжон Луптуллаевич, ассистент кафедры
Directions of Sustainable Development of Tourism: A Case of top Developed Countries ... 527
Khusniddin Egamnazarov
Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ... 534
Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich, siyosiy fanlar doktori (DSc.)
Xorijiy investitsiyalar oqimini obligatsiyalar orqali oshirish istiqbollari ... 542
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, kafedra dotsenti v.b.
Tarmoq va sohalarning ehtiyojiga ko'ra aholi bandligini oshirish imkoniyatlari ... 547
Xayitov Abdimannon Buxarovich, iqtisod fanlari nomzodi, professor v.b.
Oliy ta'lim muassasalarini boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim tizimidagi islohotlar ... 552
Gafurov Anvar, PhD
Iqtisodiyotni globallashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'larini xalqaro va mahalliy uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish ... 560
Nurmanov Ulugbek Anorbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlik ko'rsatkichlarini prognozlashning zamonaviy modellari: nazariy yondashuv ... 564
Hakimjon Hakimov, tadqiqotchi
Sug'urtada innovatsiyalar: asosiy dunyo trendlari ... 570
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, PhD
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi ... 576
S. Qulmatova, PhD
Foydani soliq obyekti sifatida shakllantirish zaruriyati ... 586
Bobomurotova Manzura Panji qizi, mustaqil tadqiqotchi
O'zbeklarning ijtmoiy-iqtsodiy va maishiy turmushi an'analari ... 590
Yuldasheva Gulnora Komilovna, tarix fanlari nomzodi
Iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samarali tadbirlariga kreativ yondoshuv xususida ... 593
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich, mustaqil izlanuvchi
Intellektual rivojlanish sari – O'zbekistonda akademik mustaqillik va ilm-fan taraqqiyoti ... 593
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li, tayanch doktorant
Qimmatli qog'ozlar bozori: mazmuni va rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlari ... 602
Ibodullayev Abrorjon Axrorjonovich, PhD, **Muxtorov Ilxom Avazjon o'g'li,** talaba

Развитие зелёной экономики в современных условиях Республики Узбекистан 609
Тураева Адиба Икрамовна, старший преподаватель кафедры
Quantifying the Effectiveness of Green Construction Practices
on Business R&D Investment Outcomes in Project Management 615
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova, DSc
Mintaqa va hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy maktablari 620
Abdullayev Farxod Ozodovich, mustaqil tadqiqotchi
Aksiyadorlik jamiyatlariga kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish mexanizmi va uning amaldagi holati tahlili 624
Muydinov Shohruh Najmiddin o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Aholini tadbirkorlikka yo‘naltirishda hokim yordamchilari institutini roli va ahamiyati 630
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich
Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo‘llari 634
Eshqo‘ziyev Oxunjon Oybek o‘g‘li, tayanch doktorant
Raqamli iqtisodiyotning shakllanish bosqichlari va rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlari 640
Raxmonov Lochin To‘xtamishovich, mustaqil izlanuvchi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ICHKI TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI

Dehqonov Burxon Rustamovich
TDIU Turizm kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ichki turizm deganda madaniyatlar almashinuvi, qo‘shimcha bilimlar olish va asosan salomatlikni tiklash imkoniyatlari tushuniladi. Dunyoning turli burchaklaridan turizm maskanlariga tashrif buyuruvchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning urf-odatlarini o‘rganish va turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu almashinuv nafaqat istiqbollarni kengaytiradi, balki turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, mahalliy turizm barqaror iqtisodiyotni rag‘batlantiradi. Ko‘pgina yo‘nalishlar hali ham tashrif buyuruvchilarni jalb qilish bilan birga o‘zlarining tabiiy resurslarini saqlab qolish haqida bilim oldilar. Sayyohlik yo‘llari yoki yovvoyi tabiatni muhofaza qilish loyihalari kabi ekologik toza tadbirlarni targ‘ib qilish orqali yo‘nalishlar o‘z atrof-muhitini himoya qilish va sayyohlarga noyob tajribalarni taqdim etishi mumkin.

Kalit so‘zlar: UNWTO, Iqtisodiyot, ichi turizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, madaniy meros obyektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari.

Abstract: Domestic tourism means exchange of cultures, opportunities to gain additional knowledge, and mainly to restore health. Visitors to tourist destinations from different parts of the world will have the opportunity to communicate with local residents, learn about their customs and lifestyle. This exchange not only broadens perspectives, but also strengthens mutual understanding and respect between different cultures.

In addition, local tourism promotes a sustainable economy. Many destinations have learned how to preserve their natural resources while still attracting visitors. By promoting eco-friendly activities such as hiking trails or wildlife conservation projects, destinations can protect their environment and offer unique experiences to tourists.

Key words: UNWTO, Economy, domestic tourism, organizational-economic mechanisms, objects of cultural heritage, active population flow, tourist expenses.

Аннотация: Внутренний туризм – это обмен культурами, возможности получить дополнительные знания, а главное – поправить здоровье. Посетители туристических направлений из разных уголков мира получат возможность пообщаться с местными жителями, узнать об их обычаях и образе жизни. Этот обмен не только расширяет перспективы, но и укрепляет взаимопонимание и уважение между различными культурами.

Кроме того, местный туризм способствует устойчивой экономике. Многие направления научились сохранять свои природные ресурсы, одновременно привлекая посетителей. Продвигая экологически чистые мероприятия, такие как пешеходные маршруты или проекты по сохранению дикой природы, дестинации могут защитить свою окружающую среду и предложить туристам уникальные впечатления.

Ключевые слова: UNWTO, Экономика, внутренний туризм, организационно-экономические механизмы, объекты культурного наследия, активный поток населения, туристские расходы.

KIRISH

Mahalliy turizmning asosiy afzalliklaridan biri uning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’siridir. Turistlar biror joyga tashrif buyurganlarida, odatda, turar joy, oziq-ovqat, esdalik sovg‘alari va transport uchun pul sarflashadi. Sayyohlik xarajatlarining bunday oqimi mahalliy biznesga sezilarli turtki berishi, ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Turizm mintaqaning madaniy merosini saqlash va namoyish etishga yordam beradi. Ichki turizmda faol aholi tarixiy diqqatga sazovor joylarni o‘rganishga va madaniy tadbirlarga borishga undash orqali jamoalar o‘zlarining an’analari haqida xabardorlik va bilimlar olishi mumkin. Bu tarixiy joylarni, an’anaviy hunarmandchilikni va mahalliy xalqlarning urf-odatlarini saqlash bo‘yicha sa’y-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga qaraydigan bo‘lsak, jamiyatda ish yuritishni yoki iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoniga o‘tkazish ichki turizmni rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni yoki davlat

tomonidan ishlab chiqiladigan qonun hujjatlarga xalq munosabatini bildirish maqsadida yagona interaktiv portalini yaratganligi bir misol bo‘ladi. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan hujjatlarni portalga joylab xalq fikri bilan bevosita ishlashni tashkil etish, bu turizmni rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratishdir. Bu ishlab chiqilgan funksiya iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

Ichki turizmni rivojlanishini tartibga solish quyidagi funksiya turizm sohasini tadbirkor yoki turist faoliyatini nazoratga olish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamiz turizm salohiyati juda boyligi, hali qilinmagan ishlari va rivojlantirmoqchi bo‘layotgan sektorlari juda ko‘p. Bizni asosiy yondashuvimiz ichki turizm asosida ikki tomonlama yondashuv ya’ni, tangani ikki tomoni bo‘lgani kabi ichki turizmni mohiyatini ochishda turistik biznes vakillari va davlat tomonidan ichki turizmga yaratilgan sharoitlarni hisobga olish kerak.

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 30-aprelda “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qaror imzolandi. Qarordan maqsad inson qadri uchun uni maroqli dam olishini ta’minlashdan iboratdir. Iqtisodiyotni rivojlantirish va yaxshi natijalarga erishishda inson omili sifatida dam olish, sog‘liqqa e’tibor berish juda muhim o‘rin tutadi. Shu jumladan, 2022-yil 1-iyundan boshlab “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” dasturi davlat tomonidan ishlab chiqildi. Bevosita birga dastur doirasida respublika hududlari bo‘ylab ichki sayohatlarni amalga oshirish uchun ko‘makchi daturlar yoki loyihalar tayyorlandi. “Yoshlar turizmi oyligi”, “Yoshlar turizmi haftaligi”, “Yoshlar turizmi”, “Yosh sayyoh”, “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli”, “Vatanimning tarixini o‘rganaman” va “Moziyga sayohat”, “Toshkent gullar festivali” va “Toshkent simfonika festivali” hamda iyun oyida bo‘lish rejalashtirilgan “Gastronomik festival”, “Tourist hospitality”, “Kinokarvon”, “Ziyorat turizmi”, “Turizm ko‘chalari” shular jumlasidandir.

Maxsus dasturlarni ishlab chiqishda xorij tajribalarini o‘rgangan holda amaliyotga tatbiq etish muhim.

Xorij tajribasi nimaga e’tibor beradi?

Misol qilib Xitoy tajribasini ko‘rib chiqamiz. Xitoy o‘z dasturini ishlab chiqishda e’tiborini qishloq turizmiga qaratdi. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida maxsus dastur nomlariga e’tibor berdi. Dastur nomini eshitgan turist qalbida shu joyga borish istagi yoki shu taomni iste’mol qilish xohishi, umuman olganda, mavjud xizmatdan totib ko‘rish istagini uyg‘otish bilan ijodiy yondoshdi. Misol uchun “Shanxay Mishlen yulduzli restoranidan tortib mahalliy oila dasturxonida guruch sharobini ichishgacha” dasturini ko‘rishimiz mumkin. Demak, biz umumiy ma’noga ega bo‘lgan dasturlardan qochishimiz kerak bo‘ladi. O‘zbekiston ichki turizmini rivojlantirishda “Qishloq turizmi”ni oladigan bo‘lsak, dasturni noodatiy bo‘lishi uchun ozgina sayqallash lozim. Misol uchun, “Qishloq tekin sog‘lomlashtirish maskani” yoki “Qishloq turizmi taomlari” shular jumlasidandir.

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rnini ichki turizmni rivojlantirishda yaratib berilayotgan imkoniyatlar turizmni rivojlanishiga yetarli deb hisoblaymizmi? Ilmiy ish davomida davlat, turist va tadbirkor haqidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotni rivojlantiruvchi mexanizmini ko‘rib chiqamiz.

Bu yerda savol tug‘iladi, ichki turizm deganda faqat turist tushuniladimi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 07-fevraldagi PQ–3514-son qaroriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturida turistlarga va tadbirkorlarga bir qator imtiyozlar berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu qatorda turistlar va tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlarni (1-rasm) ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy qatlamga e’tibor berishdan boshlangan ishlanmada bir qator tadbirkorlarga ham imkoniyatlar berilgan.

Dasturda berilgan asosiy vazifalar ko‘proq turistga va tadbirkorga emas, turizmga bevosita ta’siri bor yoki turizmni rivojlantirishga xizmat ko‘rsatadigan davlat idoralariga yuklatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Nuroniy jamg‘armasi, Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini integratsiyalangan usulda ichki turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlari huquqiy tomondan puxta ishlab chiqilmoqda. Dasturda rivojlantirishga hududiy e’tibor berish muhimdir. Qishloq ichki turizmini rivojlantirish va shahar ichki turizmini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Qishloqda shahar ichki turizmiga qaraganda rivojlanish jarayoni ancha sekin, shuningdek, ichki turizmni rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qonunda belgilangan dasturlar ijrosi nazorati muhimdir.

Qishloq joylarda aholini ichki turizmga jalb qilishda dasturda keltirilgan:

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari;
- tashkilotlar xodimlari uchun;
- yetim bolalar, kam ta’minlangan oilalar farzandlari;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari;
- faol xotin-qizlar;
- mahalla faollari va yosh oilalarga tegishli tashkilotlar tomonidan to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplab berish tartibi doim ishlab turishini ta’minlash kerak.

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari;
- tashkilotlar xodimlari uchun;
- yetim bolalar, kam ta’minlangan oilalar farzandlari;
- nogironligi bo‘lgan shaxslar;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari;
- faol xotin-qizlar;
- mahalla faollari va yosh oilalarga tegishli tashkilotlar tomonidan to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlarni qoplab berish.

- festivallar o‘tkazish;
- chiptalar chegirmalari;
- chegirmalar uchun diskont kartalarni faoliyati;

DYHX bepul kuzatib borish xizmatini ta’minlanishi.

o‘lkashunoslik, tarix, ekologiya to‘garaklarini tashkil etilishi.

turizm grandlari va beg‘araz moliyaviy yordamlar ajratilishi.

turistik (mehmonxona) yig‘imlarini olishdan tushgan mablag‘lar daromad solig‘i (yagona soliq to‘lovi) va boshqa majburiy yig‘imlar va to‘lovlarga tortilmaydi.

turistlar uchun ekskursiya sayohatlari qilish imkonini beruvchi Samarqand shahrida, keyinchalik esa respublikaning boshqa shaharlarida ham ikki qavatli avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish.

madaniy-ko‘ngilochar va ommaviy-sport tadbirlarining (umumrespublika festivallari, xalq sayllari, bayramlar, karnavallar, milliy o‘yinlar haftaligi, har xil sport turlari bo‘yicha sport tadbirlari va boshqa ommaviy tadbirlar) yagona kalendar kunini shakllantirish tartibini tasdiqlash.

folklor-etnografik guruhlarga buyurtma berish asosida xo‘jalik hisobidagi xizmatni tashkil etish, shuningdek, folklor-etnografik guruhlar (shu jumladan, baxshi, maqom va boshqalar) bilan birga asosiy ijrochi va ishtirokchilari, respublika va hududlardagi teatrlar vakillari, raqqoslar, qo‘shiqchilar va boshqalar bazasini shakllantirish.

jismoniy shaxslarga, jumladan, chet el fuqarolariga notarial rasmiylashtirmasdan va ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazmasdan ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan avtotransport vositalarini qisqa muddatga (30 kungacha) (RENT-CAR) ijaraga (prokat) berish tartibi

umumiy ovqatlanish punktlari, klublar, ko‘ngilochar muassasalar va boshqa shunga o‘xshash muassasalarning soat 00.00 ga qadar ishlash tartibi va shartlarini tasdiqlash.

do‘konlari tarmog‘ini tashkil etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq va boshqa imtiyozlar hamda preferensiyalar taqdim etish



qishloq joylaridagi mehmon uylariga kredit mablag‘i ajratish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

turizm sohasida faoliyat ko‘rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan xarajatlari (ichki turizm rivojlantirishda marketing faoliyatiga qarab) summasiga kamaytiriladi.

mehmonxona, mehmon uylari, kempinglar, motellar va boshqa joylashtirish vositalari, tematik xiyobonlar, muzeylar, galireyalar va boshqa inshootlar qurish uchun tadbirkorlik subyektlari hamda potensial investorlarga yerlar ajiratiladi.

“Eng yaxshi mehmonxona” (darajalar bo‘yicha), “Eng yaxshi mehmon uyi”, “O‘tovli eng yaxshi lager”, “Eng yaxshi turoperator” va “Eng yaxshi gid” (yo‘nalishlar bo‘yicha), “Eng yaxshi transport tashkiloti”, “Eng yaxshi umumiy ovqatlanish punkti”, “Eng yaxshi bloger”, “Eng yaxshi jurnalist” va boshqa alohida nominatsiyalar bo‘yicha har yili “Uzbekistan Tourism Industry Awards” mukofotini tashkil etish va o‘tkazilishi.

turistik zonalar va tog‘ klasterlarini rivojlantirish doirasida turli ekskursiyalar, tomosha dasturlari (chiroqli shoular, teatr tomoshalari, folklor ansambllari va estrada artistlarining konsertlari), bouling, bo‘sh vaqtlarda sport-sog‘lomlashtirish bilan shug‘ullanish va sayr-tomoshaning boshqa turlarini taqdim etuvchi katta madaniy-ko‘ngilochar komplekslar har bir viloyatda (shaharlarda va rekreatsion zonalarda) bosqichma-bosqich tashkil etishni ta’minlash.

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o‘rni muhim, yuridik va jismoniy shaxslarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga imkoniyatlar yaratib berishi va qo‘llab-quvvatlashi shart. Aks holda iqtisodiyotni rivojlanishi sekin kechadi. Har bir soha rivojlanishida uning ilmiy rejasi ishlab chiqariladi va amaliyotga tatbiq qilinadi. Misol uchun ma’lum soha rivoji uchun ishlab chiqilgan maxsus prinsiplarni olamiz. Ilmiy tadqiqotimizda ichki turizmni rivojlanishida asos bo‘ladigan prinsiplar vizual ko‘rinishi modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotimiz davomida tayanch ma’lumotga tayangan holda UNWTOning turizmni barqaror rivojlanishi prinsiplaridan[1] foydalanilgan bo‘lib, quyidagilar misol bo‘ladi:

- mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish;
- manfaatdor tomonlar va jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar;
- xodimlarni tayyorlash;
- marketing turizmi mas’uliyat bilan;
- tadqiqot o‘tkazish;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- ortiqcha iste’mol va chiqindilarni kamaytirish;
- biologik xilma-xillikni saqlash;
- turizmni rejalashtirishga integratsiyalashuvi;
- mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash;

Maxsus ishlab chiqilgan bu prinsiplar turizmni rivojlanishiga xizmat qilibgina qolmay, balki ekologiyani barqaror ushlab turilishi, madaniy meros obyektlariga zarar yetkazmasdan faoliyat olib borish, ish o‘rinlari yaratilishi, xalqlar o‘rtasida o‘zaro madaniyat almashinuvini yo‘lga qo‘yish, diplomatik aloqalarni mustahkamlanishi, turizmda marketing va reklamalarni, yarmarka ko‘rinishida savdo sotiqni rivojlanishiga, ilmiy tomondan turizm sohasini tadqiq etishga bo‘lgan harakatlarni qo‘llab quvvatlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha iste’mol va chiqindilarni nazoratga olish, biologik xilma-xillikni saqlash, turizmni rivojlantirishda rejalashtirishni davlatlar o‘rtasida integratsiyalashuvini yo‘lga qo‘yish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-son qarori “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www. unwto. org/sustainable-development
5. B. R. Dehqonov. “Ichki turizmni ta’riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar”, Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №4–1 (88), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2022. – 81-b.
6. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.

1 https://www. unwto. org/sustainable-development

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUG‘ORISH TIZIMLARI BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI



Mirjamilova Hulkar Nurali qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada global iqlim o‘zgarishi natijasida suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida mamlakatimizda suv resurslarini oqilona boshqarish, ularning hisobi va hisobotini yuritish, shuningdek, kelgusida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirish, suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirish yoritilgan, shuningdek, suvdan oqilona foydalanish, suv tanqisligi sharoitida iste’molchilarga suv taqsimoti, suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: global iqlim o‘zgarishi, suv ta’minotining pastligi, suv resurslarini boshqarish, suv hisobi va hisoboti, ekologik muammolar, suv resurslariga bo‘lgan talab, tomchilatib sug‘orish, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi.

Abstract: In this article, in order to mitigate the negative impact of water scarcity as a result of global climate change, the management of water resources in our country, their accounting and reporting, as well as, the implementation of large-scale reforms in the future, the improvement of the water management system, as well as, the, rationalization of water use, distribution of water to consumers in conditions of water shortage, proposals and recommendations aimed at improving relations between water users have been developed.

Key words: global climate change, water scarcity, water management, water accounting and reporting, environmental issues, water demand, drip irrigation, drip irrigation technology.

Аннотация: В данной статье в целях смягчения негативного воздействия дефицита воды в результате глобального изменения климата, управление водными ресурсами в нашей стране, их учет и отчетность, а также реализация масштабных реформ в будущем, по совершенствованию системы водного хозяйства, а также по рационализации водопользования, распределения воды потребителям в условиях водного дефицита, разработаны предложения и рекомендации, направленные на улучшение взаимоотношений между водопользователями.

Ключевые слова: глобальное изменение климата, дефицит воды, управление водными ресурсами, учет и отчетность по воде, экологические проблемы, спрос на воду, капельное орошение, технология капельного орошения.

KIRISH

Suv tanqisligi bugungi kunga kelib butun yer yuzida ro‘y berayotgan ekologik muammolardan biri va dolzarbligi jihatidan ahamiyatlisi sanaladi. Suv inson salomatligi, uning munosib hayot kechirishi va oziq-ovqat ishlab chiqarishning birlamchi manbalaridan biridir. Suv iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy elementi ekanligini hisobga olsak, suvga tabiiy va noyob resurs sifatida qarash kerak. Hech qaysi resurs bu borada suv bilan taqqoslanishga qodir emas. Suvni tabiiy holatda saqlash juda qiyin, u so‘rilib, bug‘lanishga intiladi. So‘nggi o‘n yillikda suv mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar soni biroz oshdi, buni, o‘z navbatida, suv tanqisligi bilan bog‘liq vaziyatning yanada yaxlit tasavvurini shakllantirishga yordam beradigan yangi kontsepsiyalarni ishlab chiqish uchun sabab, deb hisoblash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘rganilayotgan mavzu doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5858 Farmoni [1], “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6024 Farmoni [2] asosida malakatimiz qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha 10 yillik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. N. J. Mamanazarova maqolasidan [3] Qishloq xo‘jaligi vazirligining Qashqadaryo viloyati uchun qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sohasini rivojlantirishni tizimli tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari ma’lumotlari [4],S Safoyevna [5], Z. S. Shoxo‘jayeva va H. N. Mirjamilovalarning [6] maqolalaridan esa suv xo‘jaligini rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish, Qashqadaryo viloyatida joriy yilda tatbiq etish rejalashtirilgan suv tejovchi texnologiyalar, iqlim o‘zgarishining O‘zbekistonga olib keladigan suv tanqisligi, mamlakatimizdan oqib o‘tadigan transchegaraviy daryolar sathining qisqarishi va uning mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’siri kabilar o‘rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoni o‘rganishda kuzatish, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi yarim asr ichida qo‘shni respublikalarda muzliklar 30 foizga qisqarishi kuzatildi. Haroratning 20°C ko‘tarilishi bilan muzliklar hajmi 50% ga, 40°C isishi esa 78% ga qisqarishi taxmin qilinmoqda. Respublikamizning yagona davlat suv fondi sirasiga Respublika hududidagi daryolar, ko‘llar, suv omborlari, boshqa yer usti havzalari, kanal va hovuz, yer osti suvlari va muzliklar taalluqlidir. Mamlakatimizga chegaradosh davlatlar: Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlaridan transchegaraviy Sirdaryo va Amudaryo daryolari suvlari mamlakatimiz hududidan oqib o‘tadi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu suv manbalaridan foydalanishni davlatlararo bitim-shartnomalarda belgilanishini taqozo etadi. Shu bilan birgalikda aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi[1]. Hisob-kitoblarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida esa 15 foizga qisqarishi kutilmoqda.

O‘zbekistonda 2015-yilgacha umumiy suv tanqisligi 3 milliard kub metrdan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 7 milliard kub metr, 2050-yilga kelib esa 15 milliard kub metrga yetishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda suv tanqisligini yanada kuchaytiradi, qurg‘oqchilikning davomiyligi va chastotasini, masalan, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillarda ko‘paytiradi va iqtisodiyotning suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Viloyatimizda keyingi 10 yilda suv tanqisligi holatining yil sayin yomonlashishi natijasida suv miqdori 12 foizdan 15 foizga kamaygan.

Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln. gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90–91 foizi qishloq xo‘jaligida foydalaniladi[2]. O‘zbekiston uchun suv resurslari nafaqat aholi, sanoat va sug‘orma dehqonchilik hayotini ta’minlovchi manba, balki butun mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ekologik muvozanatni saqlashning muhim omili hisoblanadi. Sir emaski, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida sug‘orishda sizib chiqish, bug‘lanish va ortiqcha suv sarfi natijasida katta miqdorda suv yo‘qotilmoqda. Ba’zi hollarda bu ko‘rsatkich 65–70 foizni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, sug‘orishda suvdan foydalanish koeffitsiyentini 90–95 foizga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir[3].

Paxta va g‘alla yetishtirish uchun elektr energiyasi va suv sarfi ham qimmat. Xususan, yiliga 2,5 million gektar maydonni sug‘orish uchun 5 mingdan ortiq nasoslardan foydalanilib, 8 milliard kilovatt-soat energiya hamda 2,4 trillion so‘m byudjet mablag‘lari sarflanmoqda. Nasoslar yordamida har gektar yerni suv bilan ta’minlash uchun byudjetdan o‘rtacha 800 ming so‘m mablag‘ sarflanmoqda. Haddan tashqari sug‘orish natijasida dalalarga taxminan 5–6 milliard kub metr yoki 20 foiz suv yo‘qotilmoqda. Qolaversa, qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llashni kengaytirish bugungi kunda talab darajasida. Bu, o‘z navbatida, an’anaviy sug‘orishga nisbatan bir necha barobar ko‘proq suv tejash imkonini beradi. Ushbu texnologiyadan foydalanganda tuproqning yuvilishi va qayta sho‘rlanishi keskin kamayadi. Shuningdek, tabiiy chuqurliklarda

1 O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5858 Farmon.

2 “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6024 Farmon.

3 N. J. Mamanazarova. “Ways to improve the management of water systems in the conditions of digitalization of agriculture” Central European Management Journal 2022.

to‘plangan katta hajmdagi sho‘r suvlarni tozalash va ulardan qishloq xo‘jaligida foydalanishni taqozo etadi. Bu katta yer maydonlarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, eng muhimi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning janubiy hududlaridan bo‘lmish Qashqadaryo viloyatida ham suv resurslaridan samarali foydalanish, suvni tejash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Suv tejamkor texnologiyalarni joriy qilish tamoyillariga tayanadigan bo‘lsak, bunday texnologiyalar avvalambor, nasos stansiyalari va sug‘orish quduqlariga bog‘langan maydonlarga, suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan hududlarga hamda lalmi va yaylov yerlarga birinchi navbatda joriy etiladi.

Quyidagi jadvalda Qashqadaryo viloyati suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq qilish bo‘yicha joriy yil uchun prognoz ko‘rsatkichlar tumanlar kesimida tahlil qilingan. Unga ko‘ra, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning eng yuqori ko‘rsatkichi Nishon tumaniga (5666 ga) hamda eng past ko‘rsatkichi Kitob tumaniga (1030 ga) to‘gri kelib, jami viloyat bo‘yicha bu ko‘rsatkich 38586 ga yetishi kutilmoqda. Shundan 22520 ga maydon tomchilatib sug‘orish texnologiyasi bilan, qolgan 2166 ga va 1500 ga maydonlar mos ravishda yomg‘irlatib sug‘orish hamda diskret tizimida sug‘orish texnologiyasi asosida amalga oshiriladi. Suv tejovchi texnologiyalardan tomchilatib sug‘orish usuli bugungi kunda yuqori samaradorligi bilan boshqa sug‘orish usullaridan farq qiladi.

1-jadval: 2023-yilda Qashqadaryo viloyatida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar[4]

Tumanlar nomi	Umumiy reja, ga	Shu jumladan		
		tomchilatib sug‘orish, ga	yomg‘irlatib sug‘orish, ga	diskret tizimida paxtada, ga
G‘uzor	1 448	635	113	
Qarshi	3 467	2 098	169	
Koson	4 388	2 960	328	
Qamashi	3 003	1 646	157	
Kitob	1 030	950	80	
Mirishkor	4 166	2 684	382	
Muborak	1 951	1 239	112	
Nishon	5 666	2 543	223	900
Kasbi	5 523	2 751	172	600
Chiroqchi	2 172	1 514	58	
Ko‘kdala	1 818	1 141	77	
Shahrisabz	1 486	732	154	
Yakkabog‘	2 468	1 627	141	
JAMI:	38 586	22 520	2 166	1 500

Umuman olganda, so‘nggi besh yilda respublikamizda 891,4 ming gektar maydonda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etildi. Shu bilan birga, birgina 2021-yilning o‘zida lazer uskunalari bilan jihozlangan rejalashtiruvchilar 186,8 ming gektar yerni tekislashdi. Klasterlar tomonidan 3 ming gektardan ortiq ekin maydonlari lazer yordamida tekislanib, suv sarfini 20–25 foizga, o‘g‘itlarni esa 15 foizga tejab, hosildorlikni kamida 10 foizga oshirish imkonini berdi[5].

Shuningdek, 2019-yildan boshlab suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va uni boshqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi – subsidiyalar ajratish mexanizmi fermer va klaster tashkilotlari uchun katta rag‘bat bo‘lmoqda. Suv yo‘qotilishiga sabab bo‘layotgan yana bir muammo shundaki, bugungi kunda 3000 dan ortiq suv o‘lchash moslamalarining atigi 2 foizi, 400 ta yirik suv omborining 2,5 foizi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega. Buning uchun joriy yilda viloyatda lazer uskunalari yordamida 9800 gektar maydonni tekislash rejalashtirilgan.

4 Qishloq xo‘jaligi vazirligining Qashqadaryo viloyati uchun qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sohasini rivojlantirishni tizimli tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari.

5 Z. S. Shoxo‘jayeva. “Qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari”. Volume 4. Sam TSAU Conference 2023.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish, ularni hisobga olish va hisobotini yuritish, shuningdek, suv xo‘jaligi tizimini yanada takomillashtirish, suvdan oqilona va oqilona foydalanish borasida global iqlim o‘zgarishi natijasida suv tanqisligining salbiy oqibatlarini yumshatish uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Biroq quyi oqimdagi suv resurslarini boshqarish, suv tanqisligida suvni foydalanuvchilarga taqsimlash, suv hisobi va hisobotini yuritish, suvdan foydalanish samaradorligi pastligicha qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini yuritish, suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash bo‘yicha quyidagilarni taklif qilmoqchimiz:

Quyi darajadagi suv resurslarini boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida:

a) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va aholini suv resurslari bilan ishonchli ta’minlash;
b) irrigatsiya tizimlari va irrigatsiya tarmoqlarini, shuningdek ulardagi gidrotexnika inshootlarini doimiy texnik holatda saqlash;
d) yirik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni suv resurslarini boshqarishga jalb qilish va ularni o‘z hududida taqsimlash;
e) suv ta’minoti bo‘yicha davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy etish;
f) inson omiliga minimal bog‘liq bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizimlar orqali suv hisobi va hisobotini boshqarishni yo‘lga qo‘yish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5858 Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6024 Farmoni.
3. N. J. Mamanazarova. “Ways to improve the management of water systems in the conditions of digitalization of agriculture” Central European Management Journal, 2022.
4. Qishloq xo‘jaligi vazirligining Qashqadaryo viloyati uchun qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sohasini rivojlantirishni tizimli tashkil etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari.
5. Z. S. Shoxo‘jayeva “Qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari”. Volume 4 Sam TSAU Conference, 2023.
6. S. Safoyevna, M. Utkirovna. Efficiency of formation and use of water resources in irrigated agriculture of the Republic of Uzbekistan. Am J Interdiscip Innov Res. 2020. №7. 99–113.
7. Z. S. Shokhujayeva, H. N. Mirjamilova. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management. №5, 2022.
8. Shoxojayeva Zebo Safoyevna, Mamanazarova Nasiba Jurayevna. Economic efficiency of modernization and development of water facilities in agriculture. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal №8, 2020. Page 195–201.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA O‘SIMLIKLAR KARANTINI TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Alimov Murodkosim Achilovich
Qishloq xo‘jaligi vazirligi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida o‘simliklar karantini davlat xizmati faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy rivojlantirishga oid amalga oshirilgan ishlar va tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar karantini, fitosanitar nazorat, karantin nazorati ostidagi mahsulot, iqtisodiy samaradorlik, jamg‘arma, rag‘batlantirish, fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnoma, eksport, import, zararkunanda, bakteriya, virus, kasallik.

Аннотация: В статье представлены работы и результаты исследований, связанные с совершенствованием и экономическим развитием государственной службы карантина растений в условиях нового Узбекистана.

Ключевые слова: Карантин растений, фитосанитарный контрол, подкарантинные продукция, экономический эффективност, фонд развития, стимулирования, фитосанитарный сертификат, карантинная разрешения, экспорт, импорт, вредитель, бактерия, вирус, болезни.

Abstract: The article presents the work and research results related to the improvement and economic development of the plant quarantine state service in the conditions of the new Uzbekistan.

Key words: Plant quarantine, phytosanitary control, regulated products, economic efficiency, development fund, incentives, phytosanitary certificate, quarantine permits, export, import, pest, bacterium, virus, diseases.

KIRISH

O‘zbekiston meva-sabzavot ishlab chiqarishda ulkan imkoniyatlarga ega. Aholi farovonligini doimo oshirib borishda xalqimiz turmush tarziga eng yaqin va tez natija beradigan yo‘nalish qishloq xo‘jaligida yuqori daromadli intensiv ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Bog‘dorchilik tarmog‘i va issiqxona xo‘jaliklarida boshqaruv tizimini yaxshilash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, qishloq xo‘jaligida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, oziq-ovqat sanoatini jadal sur’atlarda rivojlantirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shunday bo‘lsada, jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlar savdosi 205 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bir paytda, respublikaning mazkur bozordagi ulushi bir foizga ham yetmayapti. Ushbu mahsulotlarning mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi esa atigi 7 foizni tashkil qiladi.

Ma’lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Eksportbop mahsulotlar hajmini ko‘paytirish, ularni sifatini yaxshilash borasida O‘simliklar karantini davlat xizmati tizimini takomillashtirish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Karantin fitosanitar nazoratini O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi amalga oshiradi. Fitosanitar nazorat qilishdan maqsad mamlakat hududiga o‘simliklar, hayvonlar va aholi salomatligi va mavjud bioxilmaxillikka salbiy ta’sir qiluvchi zararli organizmlarning (o‘simlik mahsulotlari kasallik va hasharotlari, nematodalar hamda zararli begona o‘tlar) kirib kelishini o‘z vaqtida aniqlash va tarqalishining oldini olish.

Karantin fitosanitar chora-tadbirlar, me’yorlarning qo‘llanilishi bir tomondan mamlakatda o‘simlik dunyosini, ekotizim va oziq ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladigan bo‘lsa, boshqa tomondan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xalqaro savdo aylanmasida keraksiz to‘siqlar qo‘yishning oldini olishga xizmat qiladi. O‘zbekiston kabi yirik hajmdagi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar uchun bu alohida iqtisodiy va amaliy ahamiyatga ega.

2017-yil 30-avgust O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5174-sonli farmoni va PQ–3249-sonli qarorlari mamlakatimizda O‘simliklar karantini va fitosanitar holatini ta’minlash yuzasidan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish va O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyati bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilishiga asos bo‘ldi.

Ushbu qarorga asosan O‘simliklar karantinini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi.

Quyidagilar Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilandi:

- urug‘liklar, o‘simliklar va o‘simlik mahsulotlarini import qilish uchun karantin ruxsatnomalarini rasmiylashtirish uchun olinadigan to‘lovlar;
- tarkibida urug‘lar, o‘simliklar va o‘simlik mahsulotlari bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bo‘yicha olib o‘tilayotgan yuklarga karantin ruxsatnomasini rasmiylashtirishdan olingan to‘lovlar;
- urug‘lar, o‘simliklar va o‘simlik mahsulotlarini eksport qilishda fitosanitariya sertifikatlarini rasmiylashtirish uchun olinadigan to‘lovlar;
- eksport va import qilinayotgan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning namunalarini laboratoriya ekspertizasidan o‘tkazilishi uchun olinadigan to‘lovlar;
- eksport va import qilinayotgan o‘simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni zararsizlantirish bo‘yicha fumigatsiya ishlari o‘tkazilganligi uchun olinadigan to‘lovlar;
- karantindagi yuklarni O‘zbekiston Respublikasi hududi ichida karantin fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirganlik va taqdim etganlik uchun olinadigan to‘lovlar;
- o‘simliklar karantini sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlik uchun qonunchilikka muvofiq undiriladigan jarimalar;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvar 65-sonli qarori bilan Fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnomasi, transport birligini ochish uchun karantin ko‘rigi dalaolatnomasini rasmiylashtirish va boshqa xizmat turlari uchun narxlar belgilandi.

2018-yil 28-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘simliklar karantini bo‘yicha jahon tashkilotining karantin organizmlar ro‘yxatida 335 ta zararli organizm ro‘yxatga olingan. “Respublikada karantindagi zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari va begona o‘tlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan O‘simliklar karantinidagi zararli organizmlar A1 ro‘yxatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi hududida karantin hisoblangan hasharotlar 88 ta, nematodalar 7 ta, kasalliklar 56 ta, shundan zamburug‘li kasallikllar 16 ta, bakterial kasalliklar 14 ta, virusli kasalliklar 26 ta, begona o‘tlar 36 tani tashkil etadi.

O‘zbekiston respublikasi hududida tarqalgan va cheklangan miqdorda tarqalgan karantin organizmlar ro‘yxati A2 da 7 ta hasharot, 3 ta begona o‘t va 1 ta virusli kasallik kiritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inspeksiya va o‘simliklar karantini hududiy inspeksiyalari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlaridan kelib tushadigan davlat boji va yig‘imi ko‘rinishidagi tushumlar jamg‘armaga 80 foiz miqdorida, shu jumladan, Inspeksiya xodimlarining moddiy rag‘batlantirilishiga jamg‘armaga kelib tushadigan mablag‘larning 10 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdori yo‘naltirilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvar 65-sonli qarori bilan Fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnomasi, transport birligini ochish uchun karantin ko‘rigi dalaolatnomasini rasmiylashtirish va boshqa xizmat turlari uchun narxlar belgilandi.

1-jadval: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-sonli qaroriga asosan xizmat ko‘rsatish uchun belgilangan to‘lov miqdorlari

№	Xizmat ko‘rsatish turi	Yuk miqdori	To‘lov miqdori B. h. mning % i
1	fitosanitar sertifikatini olish (qo‘l yuki)	40 kg gacha	15
2	bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun	500 kg gacha	20
3	bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun	1000 kg gacha	25
4	bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun	1000 kg dan ortiq	100
5	bir transport birligiga reeksport fitosanitar sertifikati uchun	1000 kg dan ortiq	100
6	Karantin ruxsatnomasi berish uchun arizani ko‘rib chiqish		100

2018-yil 28-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorda ushbu sohadagi ishlarning ahvolini o‘rganish fitosanitar xavfsizlikni to‘laqonli ta’minlashga hamda chet el mamlakatlari, kompaniya va korporatsiyalar bilan qishloq xo‘jaligi shuningdek, mevasabzavot mahsulotlari bilan tashqi savdo aloqalarini kengaytirishga, eksport salohiyatini oshirish, mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko‘rsatilib ularni bartaraf etish bo‘yicha vazifalar belgilandi va Inspeksiyaga qo‘shimcha 176 shtat birligini, shu jumladan, 121 o‘simliklar karantini bo‘yicha tuman va shahar inspektorlarini, 99 avtomobil yo‘llari, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar, daryo portidagi o‘simliklar karantini bo‘yicha chegara punktlari hamda pochtamtdagi punkt inspektorlari shtatlari ajratildi.

2018–2020-yillarda O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi hamda 2019-yil 1-dekabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda karantin laboratoriyalarining tashkil qilinishini hamda ularning karantin tadbirlarini amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan barcha zarur laboratoriya uskunalari va texnik vositalar bilan jihozlanishi ta’minlandi.

2018-yil 1-maydan o‘simliklar karantini bo‘yicha tuman va shahar inspektorlari, avtomobil yo‘llari, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar, daryo portidagi o‘simliklar karantini bo‘yicha chegara punktlari hamda pochtamtdagi punkt inspektorlariga, qonun hujjatlarida belgilangan ustama va qo‘shimcha to‘lovlardan tashqari, jamg‘arma mablag‘lari hisobidan har chorak yakuni bo‘yicha mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishganligi uchun inspeksiya boshlig‘i tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan faoliyatni baholashning reyting tizimiga muvofiq belgilanadigan quyidagi miqdorlardagi rag‘batlantiruvchi to‘lovlar joriy qilingan:

2-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Qo‘shimcha ish haqqi
1	70 balldan 80 ballgacha to‘plagan inspektorlarga	lavozim maoshiga 50 foizgacha
2	80 balldan 90 ballgacha to‘plagan inspektorlarga	lavozim maoshiga 100 foizgacha
3	90 balldan 100 ballgacha to‘plagan inspektorlarga	lavozim maoshiga 150 foizgacha belgilandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgust PQ–3249 sonli va 2018-yil PQ–3626-sonli qarorlarida ko‘rsatilgan vazifalar va ularni bajarish, shuningdek, O‘simliklar karantini davlat xizmati tizimini moddiy texnik ta’minotini rivojlantirish, laboratoriya qurilishi va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash yuzasidan bir qancha tashkiliy iqtisodiy ishlar amalga oshirildi.

Transport vositalari va maxsus avtomobillar bilan ta’minlash yuzasidan ma’lumotlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: O‘simliklar karantini davlat xizmatini 2018–2020-yillarda maxsus va xizmat avtotransport vositalari bilan ta’minlash (mln. sum)

Avto va mototransportlar nomi	Bahosi (bir dona)	Jami		Yillar bo‘yicha:					
				2018		2019		2020	
		soni	summa	soni	summa	soni	summa	soni	summa
Tuman va shahar o‘simliklar karantini inspektorlari uchun mototsikllar	3,5	169	591,5	169	591,5				
Fumigatsiya otryadlari uchun “Damas VAN” Avtomobillari	65	15	975	5	325	5	325	5	325

O‘simliklar karantini chegara maskanlari uchun “Damas” Avtomobillari	62	58	3596	10	620	24	1488	24	1488
Karantin laboratoriyalari uchun maxsus “Damas” ko‘chma laboratoriyalar	68	15	1020	5	340	5	340	5	340
O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalari uchun xizmat avtomobillari	70	30	2100	10	700	10	700	10	700
O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalari uchun navbatchi xizmat avtomobillari	45	15	675	5	225	5	225	5	225
Jami		302	8 958	204	2 802	49	3 078	49	3 078

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi farmon va qarorlariga asosan 2020-yil oxirigacha jadvalda keltirilgan avtotransport vositalari bilan to‘liq ta’minlangan. 2018–2022-yillarda o‘simliklar karantini davlat xizmatini rivojlantirishga oid 1 ta farmon va 5 ta qaror qabul qilingan. Ular xorijiy davlatlar, xorijiy firmalar manfaati va mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashqi-savdo iqtisodiy faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyektlari manfaatlariga zid kelmaydigan holatda, ochiqlik va demokratik tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Davlat rahbari va hukumatimizning o‘simliklar karantinini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida jamg‘arma mablag‘lari hajmi deyarli 10 baravar ortgan.

4-jadval: O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning 2017–2022-yillardagi qiymati to‘g‘risida m’lumot

№	Ko‘rsatilgan xizmatlar	2017-yilgi summasi (ming so‘m)	2018-yilgi daromad (ming so‘m)	2019-yilgi daromad (ming so‘m)	2020-yilgi daromad (ming so‘m)	2021-yilgi daromad (ming so‘m)	2022-yilgi daromad (ming so‘m)
1	Karantin ruxsatnomasi	567 247	2 318 006	2 480 309	36 505 407	24 614 219	32 752 470
2	Fitosanitar sertifikat	3 119 837	6 508 011	9 391 145	10 834 753	42 684 498	46 264 890
3	Ichki fitosanitar sertifikat	231 639	569 444	717 296	717 296	3 644 723	3 646 363
4	Tranzit yuklarni ochmasdan transport birligiga ko‘rik dalolatnoma	113 677	384 354	405 841	405 841	181 153	341 724
5	Transport birligini ochish dalolatnomasi	3 542 701	10 194 186	13 900 828	15 985 952	19 779 016	23 382 458
6	Fumigatsiya xizmatlari	3 491 441	31 221 113	46 816 670	62 422 230	61 241 630	35 435 000
	jami	11 066 542	51 195 114	73 712 088	126 871 478	152 145 239	140 587 905

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O‘simliklar karantini xizmati o‘simlik va o‘simlik mahsulotlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda, mamlakat eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqiladigan mahsulot sifatini va eksportbop mahsulotlar hajmini ko‘paytirish, kasallik, hasharot va begona o‘tlar hamda boshqa xavfli zararli organizmlarga qarshi kurashda iqtisodiy xarajatlarni kamaytirib, Importer mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi va meva-sabzavot eksport mahsulotlariga bo‘lgan talablari asosida xalqaro me’yorlar va standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash orqali mahsulot yetishtiruvchi va eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari daromadlarini oshirish orqali har bir viloyat va mamlakat eksport salohiyatini rivojlantiradi.
2. Mavjud o‘simliklar karantini xizmati faoliyati qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda eksportbop mahsulotlar hajmi va turini ko‘paytirishga ijobiy ta’sir etadi. Bu esa, o‘simliklar karantin tadbirlarni muntazam va tizimli ravishda o‘simliklar karantin xizmati bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar, eksport-import faoliyatini tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi xo‘jalik subyektlari bilan bog‘liqlikda

ish olib borishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan o‘simliklar karantini xizmatlari va karantin tadbirlar hamda eksport-import faoliyatlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, birining faoliyati ikkinchisiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. O‘simliklar karantini xizmatlarini takomillashtirish va meva-sabzavot eksport-importini rivojlantirishni o‘zaro bog‘liqlikda olib borish, zarur infratuzilmalarni shakllantirishni talab qiladi. Ushbu xizmatlar va tadbirlarning samaradorligini bog‘liqlikda oshiruvchi infratuzilmalarni asosan beshta yo‘nalishda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ular innovatsion ta’minot, kadrlar ta’minoti, texnologik ta’minot, axborot ta’minoti va ushbu jarayonlarning moliyaviy ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi infratuzilmalardan iborat.
4. Qishloq xo‘jaligi va meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda va eksport-import faoliyatini tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi xo‘jalik subyektlari bilan o‘simliklar karantini davlat xizmati hamkorlikda ish olib borishi, eksportbop mahsulot yetishtirishda uni ekishdan toki yig‘ishtirib olishgacha bo‘lgan davrda eksportga salbiy ta’sir etadigan mahsulot sifatini pasaytiradigan yoki uni eksportga yo‘naltirishga salbiy ta’sir etadigan karantindagi va boshqa zararli organizmlarga qarshi kurash tadbirlarini birgalikda, o‘z vaqtida olib borish tavsiya etiladi. Ushbu jarayonda agronom inspektorlar dala nazoratini o‘tkazishini doimiy tashkil qilish, mahsulot yetishtirishda ximiyaviy moddalar bilan ishlashda belgilangan meyorlarga amal qilinishi- mahsulot sifatini yaxshilash va uning eksportbopligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Meva-sabzavotchilikni yanada rivojlantirish va eksportini oshirish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan nutqi. 05.11.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5174-sonli Farmoni. 30.08.2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3249-sonli qarori. 30.08.2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 65-sonli qarori. 29.01.2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 68-sonli qarori. 31.01. 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3626-sonli qarori. 28.03.2018.

“YASHIL IQTISODIYOT”DA ENERGETIKA SOHASINI INVESTITSION HOLATINING STATISTIK TAHLILI

Umarov Faxriddin Umar o‘g‘li
Toshkent moliya instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiya kiritishning ahamiyati tadqiq etilgan. “Yashil iqtisodiyot”ning energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarining jahondagi hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, iqtisodiy prognoz.

Abstract: This article explores the importance of investments in the green economy, especially renewable energy, in achieving sustainable economic growth. The current state of green economy investments in the energy sector in the world is analyzed and development trends are identified.

Key words: green economy, renewable energy sources, green investments, green bonds, economic forecast.

Аннотация: В данной статье исследуется важность инвестиций в “зеленую экономику”, особенно в возобновляемые источники энергии, в обеспечении устойчивого экономического роста. Проанализировано современное состояние инвестиций “зеленой экономики” в энергетический сектор в мире и выявлены тенденции развития.

Ключевые слова: зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, зеленые инвестиции, зеленые облигации, экономический прогноз.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotining barcha yo‘nalishlari: qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurulish sohalari va barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasidan –taraqqiyot strategiyasi sari” mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohang ekanini ta’kidlab o‘tdi [1]. “Harakatlar strategiyasi”da mo‘ljallangan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalar belgilangan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e’tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o‘tkazish tartibini qayta ko‘rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A. Abdug‘aniyev fikricha, “Iqtisod fanlarida “samaradorlik” va “iqtisodiy samaradorlik” tushunchalari – mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo‘nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo‘yicha aniqlanishi mumkin [3].

Iqtisodchi olim I. Q. Rajabov fikricha, “Samaradorlik tushunchasi bu ishlab chiqarish jarayoni pirovard natijalarini o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida tushunilishi lozim. Iqtisodiy samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar o‘rtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yo‘lida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar o‘rtasidagi arifmetik nisbatgina bo‘lmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama...” hisoblanadi [4].

Ushbu korxona samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili borasida, iqtisodchi olim Y. V. Lapin “Investitsiyaning asosiy maqsadi sifatidi aksiyadorlar tomonidan quyilgan maqsadga intilish. Samaradorlikning umumiy mezoni sifatida esa “kapital samaradorligi” ko‘rsatkichidan foydalanish to‘g‘ri emas. Bozorda samarali ishlash va korxonaning yuqori raqobatbardoshligi buxgalteriya foydasi bilan emas, balki tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida qoplash uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari bilan tavsiflanadi”.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida respublikamizda investitsiya samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sirini hisoblash yo‘llarining ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishning ba’zi jihatlari yoritilgan. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullariga ta’sir etuvchi omillar asosida rivojlanish yo‘llarini tadqiq etish va ularni moliyaviy ta’minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha chuqur tadqiqotlarni amalga oshirishni, bularni mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq qilib investitsiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishni rivojlantirish va takomillashtirish lozimligini talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiya samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sirining joriy holati tahlil qilinib, investitsiyalarning korxona moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Elektr energetika tarmog‘i insoniyat hayotida doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Jamiyat faoliyatining barcha turlari energetikaga bo‘lgan talab bilan chambarchas bog‘liqlikda rivojlanib keladi. Insoniyatning evolyutsion rivojlanishida suv va shamol tegirmonlari, suv charxpalaklari, o‘z harakati uchun shamol kuchidan foydalanuvchi kemalardan foydalangan holda o‘z ehtiyojlari qondirish yo‘lida ulkan harakatlarni amalga oshirgan. Jamiyatning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda insonlar o‘z ehtiyojlarini samarali va tez qondirishga bo‘lgan talab qanchalik oshib borgan bo‘lsa, xuddi shunday insonlarning elektr energetikaga bo‘lgan talabi ham parallel ravishda oshib bormoqda.

Energetika vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishning 7 yillik ko‘rsatkichlarini e’lon qildi. 2022-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 15,3 mlrd kVt/soatga yoki 25,9 foizga ko‘paygan. 2016–2022-yillarda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari: 2016 yil – 59,0 mlrd kVt/soat; 2017-yil – 60,7 mlrd kVt/soat; 2018-yil – 62,8 mlrd kVt/soat; 2019-yil – 63,6 mlrd kVt/soat; 2020 yil – 66,4 mlrd kVt/soat; 2021-yil – 71,3 mlrd kVt/soat; 2022-yil – 74,3 mlrd kVt/soatni tashkil etgan (1-jadval).

Shuningdek, 2022-yilda iste’molchilarga yetkazib berilgan elektr energiyasi hajmi 2016-yilga nisbatan 16,7 mlrd kVt/soatga yoki 36,5 foizga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. 2016–2022-yillarda O‘zbekistonda iste’molchilarni elektr energiyasi bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari: 2016-yil – 45,7 mlrd kVt/soat; 2017-yil – 47,4 mlrd kVt/soat; 2018-yil – 50,5 mlrd kVt/soat; 2019-yil – 52,7 mlrd kVt/soat; 2020-yil – 55,8 mlrd kVt/soat; 2021-yil – 59,1 mlrd kVt/soat; 2022-yil – 62,4 mlrd kVt/soatni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: Hududlar kesimida elektr energiyasi ishlab chiqarish (mln. kVt. s)

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	59 100,5	60 820,1	62 896,6	63 531,6	66 500,7	71 364,6	74 269,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 632,7	3 446,1	3 855,9	3 786,1	4 392,4	5 233,9	5 373,9
Andijon	647,9	847,4	769,5	623,6	372,6	489,2	791,4
Buxoro	6,8	9,3	6,5	5,5	6,2	7,4	1 578,3
Jizzax	0,01	0,5	-	-	-	-	-
Qashqadaryo	7 344,3	13 014,0	13 860,2	13 052,3	9 770,7	13 349,7	8 499,0
Navoiy	9 259,7	8 542,6	8 249,3	9 786,3	11 776,8	11 117,5	11 541,6
Namangan	0,4	2,5	-	456,1	5 624,6	7 083,9	6 694,0
Samarqand	6,3	11,7	75,2	80,2	73,5	70,0	38,8
Surxondaryo	94,4	103,8	87,7	51,1	82,4	180,8	232,3
Sirdaryo	17 373,5	15 535,8	16 189,1	14 974,5	15 249,1	16 139,1	16 991,0
Toshkent	19 379,5	17 716,3	18 991,1	19 470,0	18 228,0	16 653,4	19 570,8
Farg‘ona	321,2	315,5	286,2	251,0	264,4	395,8	393,7
Xorazm	443,8	604,2	136,3	564,1	209,5	162,9	651,7
Toshkent sh.	570,2	636,3	384,1	399,1	433,5	480,6	1 912,2

O‘zbekiston aholisi uchun elektr energiyasidan foydalanishi borasida vaziyat butunlay boshqacha bo‘lib, tarifga ko‘ra (1 kVt/soat uchun 295 so‘m), respublika Yevropaning 42 ta mamlakati kiritilgan reytingda shartli ravishda 24-o‘rinni egallashi mumkin. Bu, Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda, O‘zbekiston aholisi uchun elektr energiyasining maqbulligi o‘rtacha darajada deganidir. Agar 1 kVt/soat elektr energiyasi narxi, hukumat rejalashtirayotganidek, 480 so‘mgacha oshadigan bo‘lsa, O‘zbekiston ushbu reytingda faqatgina Albaniya va Moldovani ortda qoldirib, eng oxirgi o‘rinlardan birini ya’ni 41-o‘rinni egallashi mumkin.

Energiya resurslariga bo‘lgan ichki talab iqtisodiy rivojlanishning kutilayotgan dinamikasi, iqtisodiyot tuzilishining o‘zgarishi va uning o‘ziga xos energiya intensivligi darajasi bilan belgilanadi (1-rasm).



1-rasm: Elektr energiya ta’minoti (mln. kVt/soat)

Unga ko‘ra elektr energiya ta’minoti 2016-yilda 57605,2 mln. kVt/soatni tashkil qilgan bo‘lsa, bu 2022-yil yakuniga kelib 76543,3 mln. kVt/soat yoki 75,3 %ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 2030-yilga kelib respublika iste’moli 120.8 mlrd. kVt/s bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 21,9 mlrd. kVt/s, iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 85,0 mlrd. kVt/s bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror taraqqiyot dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishni uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi [4]. Barqaror

taraqqiyot–2030 dasturi yangi 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM) dan, yoki global maqsadlardan iborat bo‘lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo‘nalishlarini belgilab beruvchi dasturdir.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlari bajarilishini ta’minlash, iqtisodiyotning bazaviy tarmoklari energiya samaradorligini oshirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi [5].

Iqtisodiyot va jamiyatni salbiy o‘zgarishlarga bardosh turadigan hamda ularning oqibatlaridan tezda tiklana oladigan barqaror rivojlanish konsepsiyasini, barcha turdagi resurslardan (suv, energetika va va h. k.) samarali foydalanish masalalarini birinchi o‘ringa chiqardi. Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasini evolyutsiyasi “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini yaratilishiga sababchi bo‘ldi va jamiyat hamda iqtisodiyot tabiiyat tizimlari bilan birga ham ohang tarzda bo‘lishi qayd etila boshlandi[6]. Keyinchalik “Global yashil yangi kurs” konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (2009 yil) taklif etildi [7].

Uning asosiy mazmuni investitsiyalarni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirish va rag‘batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo‘llashga, energosamaradorlikni ta’minlashga va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan.

Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot” istiqbolda barqaror rivojlanishning asosi sifatida qaralmoqda va uni harakatga keltiruvchi kuch “yashil” texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, chiqindilarni qayta ishlash, umuman iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishga hamda insoniyatning ekologik xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Mazkur masalaning kulminatsion cho‘qqisi 2015-yilda Fransiyaning parij shahrida o‘tkazilgan BMTning iqlim isishiga bag‘ishlangan konferensiyasida 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini 2° selsiy darajasida ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi. Ushbu konferensiyada 147 mamlakat o‘zining “yashil iqtisodiyot” bo‘yicha rejalarini muhokama qildi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha dasturlarni taklif qildi, 167 mamlakat iqlim imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘z energiya samaradorligini oshirish tavsiyalarini taqdim etgan bo‘lsa, 2022-yil 6-noyabr kuni Sharm ash-Shayxda ochilgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha 27-konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyada 190 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etdilar. Konferensiyada global tahdidlar, masalan, pandemiyalar, tabiiy ofatlar, iqlim ofatlari masalalari to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Senati Raisi Tanzila Narbayeva boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etganligini alohida ta’kidlash lozim. Parlament yuqori palatasi raisi o‘z nutqida birgalikdagi sa’y-harakatlar bilangina oqibatlari Markaziy Osiyoda ham yaqqol kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishi muammosiga qarshi turish mumkinligini ta’kidladi.

Parij bitimi doirasida O‘zbekiston 2030-yilgacha YaIM birligiga parnik gazlar chiqarishni 35 foizga kamaytirish majburiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirish boshlandi.

2026-yilga kelib “yashil” energetika ulushini 8 ming MVtga etkazishni rejalashtirilmoqda, bu esa karbonat angidrid gazi chiqarishni 5 mln tonnaga kamaytirish imkonini beradi. 2030-yilga kelib iqtisodiyotning energiya samaradorligini ikki baravar oshirish, qayta tiklanadigan energiya ulushini esa kamida 25 foizga yetkazish rejalashtirilgan. O‘zbekiston Orol dengizi inqirozi bilan bog‘liq muammolarni hal etish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rmoqda. So‘nggi besh yilda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 mln gektardan ortiq o‘rmon plantatsiyalari barpo etilgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkich 2,5 mln. gektargacha yoki hududning qariyb 80 foizini tashkil etadi. BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan Orolbo‘yi mintaqasi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilinganligini ta’kidlab o‘tildi.

Prognozlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2040-yilga kelib dunyo yalpi ichki mahsulotining energiya sig‘imkorligi 0,93 kVt/dollarga, jon boshiga to‘g‘ri keluvchi energiya iste’moli 22,32 mVt/kishiga, jami energiya iste’moli 204408,88 mln. mVt ga yetadi. Mamlakatlarning an’anaviy energiya manbalaridan foydalanishni kamaytirib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ko‘proq e’tibor qaratishlariga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan texnologik jarayonda foydalanish hisobiga narx raqobatining o‘sishi;
- mazkur sektor rivojlanishi uchun ijobiy siyosiy tashabbuslar;
- moliyalashtirishdagi nisbatan erkin sharoitlar;
- energetik va ekologik muammolarni hal qilish masalasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘sib borayotan iqtisodiyotining energiyaga ortib borayotgan talabi;
- energiyani barchaga birdek mavjudligini ta’minlash va energetik qashshoqlikdan qutulish.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan energiya resurslari zaxiralariga bog‘liq. Hozirgacha dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zaxiralari energiya iste’molining bugungi kun darajasida iste’mol qilinsa, 54 yil davomida energiyaga bo‘lgan ehtiyojimizni qondirish imkonini beradi, xolos. Biroq ma’lumki, jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishi bir joyda to‘xtab turmaydi. Rivojlanish va iqtisodiy o‘sish energiyaga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi va energiya tanqisligi muammosi vujudga kelishi xavfini tug‘diradi. 2040-yilga kelib jahon YaIM energiya sig‘imkorligi 0,08 t. n. e./ming dollarga yetishi kutilmoqda. shu bois an’anaviy energiya manbalari zaxiralarining kamayib borishi sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalarining inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va dolzarbligi ortib bormoqda

Yildan yilga ayrim mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga investitsiya kiritish darajasi pasayganiga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini investitsiyalashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat maqsadli dasturlari ishlab chiqilmoqda, bunday mamlakatlar qatoriga Hindiston, Argentina, Misr va BAAni kiritish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda quyosh energiyasiga investitsiyalar miqdori 57,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 58,6 milliard dollarga teng bo‘ldi. Investitsiyalardagi bunday katta ulushni quyosh energetikasi samardorligining boshqalariga nisbatan yuqoriligi va boshqa tiklanadigan energiya manbalariga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlarining kamligi bilan tushuntirish mumkin. “Yashil investitsiyalar” tarkibiy ulushining keyingi o‘rnini shamol energiyasiga bo‘lgan investitsiyalar egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 59,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 50,7 milliard dollarga teng bo‘ldi. Ahamiyatli jihati shundaki, jahonda quyosh energiyasidan foydalanishni investitsiyalash ulushining yuqori bo‘lishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda “yashil investitsiya”lar ko‘proq shamol energiyasiga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa quyosh energiyasiga yo‘naltirilgan. Buni ushbu mamlakatlar geografik va iqlimiy sharoitlari bilan bog‘liq omillar orqali tavsiflash mumkin. Biomassa, bioyoqilg‘i, kichik gidrostansiyalar, geotermal va dengiz energiyalari kabi boshqa tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar ulushi jamiga nisbatan juda kam bo‘lib, 2021-yilda rivojlangan mamlakatlarda 8,2 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7,31 milliard dollarga teng bo‘ldi.

- Tarmoqlar bo‘yicha energiya almashinuviga global investitsiyalar.
- Qayta tiklanadigan energiya va elektrlashtirilgan transport eng katta ikki toifani tashkil etdi. 2021-yilda shamol va quyosh kabi yangi rekordlar o‘rnatish va elektr transport vositalari savdosi o‘sdi.
- Kompaniyalar, hukumatlar va uy xo‘jaliklari yangi qayta tiklanadigan energiyaga 366 milliard dollar sarmoya kiritdi, quvvati esa 2021-yilga nisbatan 6,5 foizga oshgan.
- Shuningdek, ular elektr energiyasiga 273 milliard dollar sarfladilar, transport vositalari va tegishli quvvatlash (zaryadlash) infratuzilma obyektlari 77% ga o‘sdi. Hozirgi tendensiyalar bo‘yicha elektrlashgan trasport sektori qayta tiklanadigan energiyadan o‘zib ketishi kerak.
- Xarajatlarning keyingi eng yirik tarmoqlari elektrlashtirilgan issiqlik – 53 milliard dollar va yadroviy energetika – 31 mlrd dollar bo‘ldi.
- Birgalikda, toza quvvat va elektrlashtirish (qayta tiklanadigan energiya, yadro, energiya saqlash va elektrlashtirilgan transport va issiqlik)ga investitsiyalarning katta qismini ya’ni 731 milliard dollarga teng ulushni vodorod, uglerodni saqlash va barqaror materiallar tashkil etdi.

XULOSA

1. Global darajada yashil iqtisodiyotga o‘tish katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larni talab etadi. Xalqaro energetika agentligining 2050-yilgacha CO_2 emissiyasini ikki baravarga kamaytirish bo‘yicha turli senariylari shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga qo‘shimcha investitsiyalar miqdori dunyo YaIMning 1–2,5% darajasida bo‘lishi talab etiladi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur investitsiyalarning katta qismi qurilish va transport sohasini “yashillashtirish” uchun yo‘naltirilishi kerak bo‘ladi.
2. Moliyaviy, bank va sug‘urta investitsiyalari “yashil iqtsodiyot”ga kiritilayotgan xususiy investitsiyalarning bosh manbasiga aylanmoqda. Moliyaviy xizmatlar va investitsion sektorda katta miqdorda kapital aylanadi va bu “yashil iqtisodiyot”ga investitsiyalar kiritishning potensial manbalari sifatida qaralishi mumkin. Bugungi kunda “yashil iqtisodiyot”ga investitsiyalar kiritishga davlat va xususiy sektorning institutsional investorlari, banklar va sug‘urta kompaniyalari ekologik, ijtimoiy va boshqaruv risklarini kamaytirish maqsadini ko‘zlagan holda “yashil texnologiyalar”dan foydalanishga o‘z qiziqishlarini bildirishmoqda. Mikromoliyalashtirish jamoat va qishloq darajasidagi loyihalar uchun salohiyatli, muhim o‘rin egalaydi. U past daromadli aholiga o‘z mablag‘larini resurs va energiya tejashga joriy qilish imkonini hamda ushbu faoliyatning xavfxatar darajasini pasaytirish imkonini beradi.
3. “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektor uchun davlat tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi siyosiy, moliyaviy va soliq dastaklarini qo‘llashi samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. http://www. press-service. uz
2. Rustamovich S. Z., Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National
3. Economy into the Global Economy. International Journal of Research, 6 (3), 2019. 451–458-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar. № 19 (7521). 1–2-betlar.
5. Прогноз развития энергетики мира и России 2022. / под ред. А. А. Макарова, Л. М. Григорьева, Т. А. Митровой; ИНЭИ РАНАЦ при правительстве РФ. – Москва, 2022.
6. Odinayev D. Sh. Jahonda "Yashil iqtisodiyot" ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalari // Ekonomika i finansi (Uzbekistan). – 2018. – №. 7.
7. Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF. 2022. Global Trends in Renewable Energy Investment.
8. Nurov, M. X. Rajabova. "Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasining iqtisodiy-investitsion holati va rivojlanish tendensiyalari. Passport: http://sjifactor. com.

YOQILG‘I-ENERGETIKA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INVESTITSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar, investitsion faoliyatning shart-sharoitlari, moliyaviy barqarorlik va investitsion faoliyat tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, yoqilg‘i-energetika kompleksidagi ishlarning holati, moliyaviy natijalar, korxonalarga tatbiq etilgan dasturlarning ko‘rsatikichlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: neft va gaz sanoati, gaz konlari, energiya resurslari, moliyaviy sog‘lomlashtirish, investitsion faoliyat, “O‘zbekneftgaz” AJ, monitoring tizimi, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные с совершенствованием финансирования инвестиционной деятельности предприятий ТЭК, условия инвестиционной деятельности, научно-теоретические взгляды на понятие финансовой устойчивости и инвестиционной деятельности, состояние дел в ТЭК. комплекс, финансовые результаты, показатели программ, применяемых на предприятиях.

Ключевые слова: нефтегазовая отрасль, газовые месторождения, энергетические ресурсы, финансовая консолидация, инвестиционная деятельность, АО “Узбекнефтегаз”, система мониторинга, финансовая устойчивость.

Abstract: This article analyzes the issues related to the improvement of the financing of investment activity of fuel and energy enterprises, the conditions of investment activity, scientific and theoretical views on the concept of financial stability and investment activity, the state of affairs in the fuel and energy complex, financial results, indicators of the programs applied to enterprises.

Key words: oil and gas industry, gas fields, energy resources, financial consolidation, investment activity, “Uzbekneftgaz” JSC, monitoring system, financial stability.

KIRISH

Neft va gaz sanoati, neft va gaz konlarini qidirish, burg‘ulash, qazib chiqarish, uglevodorodlarni qayta ishlash, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, neft-kimyo va kimyo usunalarini ishlab chiqarish va iste’molchilarni neft mahsulotlari bilan ta’minlashgacha bo‘lgan barcha neft va gaz operatsiyalarini qamrab oladi. Neft va gaz sanoatida 30 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, ular, avtobenzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin va har xil turdagi moylar, mazut, bitum, har xil turdagi polietilen, tovar holdagi tabiiy va suyultirilgan gaz, neftkimyo va kimyo uskunalari, suyultiriligan gaz uchun ballonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. So‘nggi yillarda yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini kompleks rivojlantirish hamda energiya resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojni ta’minlashning muhim omili bo‘lgan energiya manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish, neft va gaz xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy sog‘lomlashtirilishini ta’minlash, sog‘lom raqobatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish maqsadida xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ–4388-son “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] qaroriga muvofiq bugungi ushbu sohada tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Neft va gaz sanoatining investitsiya siyosati, avvalo sohani diversifikatsiya qilish va neft va gaz resurslarini chuqur qayta ishlashni ta’minlash uchun yuqori texnologiyalar bilan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik tushunchasi to'g'risida chet el va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar, kitoblar va ta'riflar berilgan. Iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda "moliyaviy barqarorlik", mazmun-mohiyatining turlicha tavsiflari mavjud.

Moliyaviy barqarorligni ta'minlashda investitsion faoliyat to'g'risida ham olimlarning ilmiy izlanishlari va qarashlari mavjud.

Investitsion faoliyat va uning korxona faoliyatiga ta'siri tug'risida xorij olimlaridan Dj. Robert, U. Sharp, L. Gitman, L. I. Yuzvovich, Antipova O. M, S. Abramov, V. Babushkin, N. Baturina, V. Bocharov, D. Endovitskiy, E. Xazanovich, E. Mixaylova, L. Orlova, A. Neshitoy, Y. Orlova, L. Igonina, G. Podshivalenko, D. Shevchuk, L. Valinurova, A. Ivasenko [2] va boshqalarning asarlarida keng ta'rif berilgan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan N. Qo'ziyevaning doktorlik dissertatsiyasi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari, N. Karimovning ham ishi iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolariga qaratilgan. Bundan tashqari, S. Nuriddinov, N. Oblomurodov, D. Rustamova, N. Kenjayev, M. Raimjanova, H. Imomov, R. Saidov, S. Umarov, V. Golishev, G. Mahmudova, D. Xo'jamqulov, F. Hamidova, M. Sultonboyevalarning nomzodlik dissertatsiyalarida esa investitsion muhitni yaxshilash va jozibadorligini oshirishning moliyaviy asoslari, korxona va jamiyatda investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish masalalari, xususiylashtirilgan korxonalarda portfelli investitsiyalarni jalb qilish yo'llari, uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish yo'nalishlari, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish masalalari, investitsion siyosatni faollashtirish omillari, agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish yo'nalishlari, investitsiya faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish, O'zbekiston iqtisodiyotining nodavlat sektorida investitsiyalarni moliyalashtirish, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorij investitsiyalarini jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, O'zbekiston Respublikasida investitsion fondlarni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish, O'zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llariga doir va ma'lum darajada, investitsion faoliyatni moliyalashtirishga daxldor bo'lgan muammolar ham ko'rib chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari o'rganilgan holda, yoqilg'i-energitika sohasida investitsiyalar va investitsion faoliyatni amalga oshirish orqali moliyaviy jihatdan barqarorlikni ta'minlovchi manbalar va ko'rsatkichlar tahlili o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarimizning ko'rsatishicha, respublikamiz iqtisodiyotining xususiy sektorida investitsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi takomillashib, investitsiyalash shakl va manbalarining ko'payishi kuzatilmoqdaki, bu holatni ijobiy tendensiya sifatida baholash lozim. Shuni e'tiborga olib, bozor munosabatlari sharoitida investitsion faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishning asosiy, qulay shart-sharoitlari, fikrimizcha, quyidagi, ya'ni:

- bo'sh turgan pul mablag'larini jamlash va ularni investitsion faoliyatga jalb qilish orqali investitsiyalar bilan bog'liq talab va taklifni muvofiqlashtiradigan investitsion bozorning shakllantirish;
- investitsion faoliyatni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlovchi manbalarning sezilarli darajada ko'payishi;
- xususiy kapitalning davlat kapitali ustidan ustuvorligining oshib borishi;
- investitsion faoliyatda ishtirok etuvchi mulkchilikning turli shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyekt va obyektlar sonining muttasil o'sish sur'atiga ega bo'layotganigida o'z ifodasini topadi.

Neft-gaz korxonalarida investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilayotgan paytda,eng avvalo, o'ziga xos fundament rolini o'ynovchi "investitsiyalar", "investitsion faoliyat", "investitsion siyosat" va "investitsion faoliyatni moliyalashtirish" xususida aniq pozitsiyaga ega bo'lmoq lozim. Shu munosabat bilan bu o'rinda quyidagilardan kelib chiqish maqsadga muvofiq:

1. Foyda (daromad, naf) yoki boshqa foydali samara olish maqsadida subyektlar tomonidan xarajatlar tarzida nisbatan uzoqroq muddatlarda joylashtiriluvchi turli ko'rinishlarga ega bo'lgan mablag'lar investitsiyalar deyiladi.

2. Foyda (daromad, naf) olishni yoki boshqa foydali samaraga erishishni ko‘zda tutib, nisbatan uzoq davom etadigan va turli mablag‘lardan foydalangan holda investitsiyalashtirish yoki investitsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat investitsion faoliyat deb ataladi;
3. Investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida amaldagi tartib qoidalarga muvofiq moliyalashtirishni ochish, kredit taqsimlovchilarga resurslarni berish, pul mablag‘larining maqsadli va iqtisod qilib samarali sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish investitsion faoliyatni moliyalashtirish deyiladi.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi uning muhim xarakterli belgilarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

Investitsiyalarning xarakterli belgilari

Foyda yoki boshqa foydali samara olishga qaratilganlik va hamma vaqt ham iqtisodiy foydalilikka muvofiq kelmaslik	Turli ko‘rinishlarga (moddiy, nomoddiy, moliyaviy, intellektual, boylik va h. k.)ega bo‘lgan mablag‘lardan iborat ekanlik	Mablag‘larning sarflanishini taqozo etish va ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilganlik	Mablag‘larning xarajatlar ko‘rinishini olishi va ularda kapitalni joylashtirish riskiningmavjudligi	Nisbatan uzoqroq muddatda joylashtirilishni talab etishi va ular uchun individuallikning xosligi

1-rasm: Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi xarakterli belgilar

Hozirgi kunda investitsion faoliyat yuritish uchun mavjud sharoitlarning yuqori darajadagi noaniqligi prognoz ma’lumotlari asosida hisob-kitoblarning ishonchliligini pasaytiradi va statik ko‘rsatkichlardan foydalanish investitsiya salohiyatidagi o‘zgarishlar (o‘sish, pasayish) tendensiyalari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Sanoat tarmog‘ining investitsion salohiyatini baholashda investitsion salohiyatni amalga oshirish natijasida investitsion resurslar ko‘rsatkichlari, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari va tarmoqdagi investitsion faollik ko‘rsatkichlarini kiritish maqsadga muvofiq. Investitsion resurslar indikatori sanoatning sanoat mahsuloti birligini investitsiya resurslari bilan ta’minlash haqida tasavvur beradi. Umumiy holatda, investitsiya resurslarini inson, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslar bilan cheklash maqsadga muvofiq.

1-jadval: Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi[1] (qabul qilingan mablag‘lar) (jami foizda)

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	47,5	42,9	44,0	42,1	42,4	43,8	45,6	52,7	58,0	70,7	59,2	62,0	59,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	42,7	38,7	51,5	44,7	62,4	72,2	64,8	37,2	62,1	65,7	60,9	60,1	62,0
Andijon	22,2	26,6	28,1	28,7	31,8	33,2	32,4	34,4	52,2	61,8	52,4	62,6	63,9
Buxoro	70,3	65,6	64,7	62,5	58,9	48,2	60,5	79,4	64,5	71,1	61,7	69,0	67,4
Jizzax	29,8	28,8	33,2	45,7	41,2	41,6	37,1	44,6	55,7	77,5	79,1	67,8	66,6
Qashqadaryo	36,3	31,4	42,1	42,8	36,8	39,0	46,5	60,9	66,4	77,8	78,4	67,3	61,7
Navoiy	58,1	44,3	46,4	35,8	27,1	39,2	50,0	53,5	62,9	84,3	74,2	71,4	61,2
Namangan	27,9	27,0	30,1	36,7	42,3	44,5	49,1	50,1	70,3	70,6	58,1	63,3	61,6
Samarqand	22,1	24,7	27,0	27,3	29,5	26,9	23,7	31,6	42,5	61,5	47,0	59,0	67,5
Surxondaryo	44,0	32,5	36,6	42,4	37,9	38,8	41,3	50,0	65,1	84,3	76,3	70,6	67,0
Sirdaryo	44,1	42,5	52,0	57,7	55,7	58,8	58,8	61,3	65,1	79,6	70,1	80,4	89,2
Toshkent	47,2	51,8	37,8	42,5	48,8	46,4	41,4	48,6	49,0	61,4	48,4	54,6	53,5
Farg‘ona	38,4	43,2	50,7	44,7	37,1	36,2	38,2	32,1	53,9	65,3	56,7	58,3	62,0
Xorazm	36,6	44,5	36,7	41,6	36,9	32,5	29,5	35,5	50,9	67,2	58,8	54,2	51,7
Toshkent sh.	58,6	51,3	48,4	37,1	34,6	35,6	43,9	47,2	50,3	63,4	46,0	55,3	44,9

Iqtisodiyot rivojlanishi turlicha bo‘lganligi bois, benchmarking usulini qo‘llash tahlil natijalarini yanada aniqlashtirishga, optimal qarorlarni qabul qilishga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston Respublikasida 2010–2022-yil davomida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy

1 https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/investments

kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi hududlar kesimida ko‘rsatilgan bo‘lib, jadvaldagi ma’lumotlar asosida Respublikada o‘zlashtirilgan investitsiyalarda o‘sish sur’ati aks etganini kurishimiz mumkin. So‘nggi yillarda Respublikada neft-gaz korxonalari investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishni va korxonlarning moliyaviy barqarorligi ta’minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan hukumatning tegishli qaroriga asosan “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufidagi konlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, monitoring tizimini joriy qilish hamda hisob tizimini tezkor amalga oshirish, shuningdek, konlardan tabiiy gazni qazib chiqarish va uzatish texnologik jarayonlarida “E-kon” loyihasini bosqichma-bosqich tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur pilot loyihasi doirasida Sho‘rtan, Muborak va Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida umumiy 203 bosim o‘lchov, 110 harorat o‘lchov va 11 aloqa chiqaruv vositalari o‘rnatilgan. Shuningdek, sentyabr oyida “Janubiy Tandircha”, “Sho‘rtan”, “Sharqiy Berdax”, “Shimoliy Berdax”, “Dengizko‘l”, “Somontepa”, “Tegirmon” konlariga jami 666 bosim o‘lchov va 333 harorat o‘lchov vositalari o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

“E-kon” loyihasida ko‘zlangan konsepsiyani amalga oshirish borasida dasturiy ta’minot ishlab chiqilmoqda. Pilot doirasida Sho‘rtan, Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida o‘rnatilgan o‘lchov vositalaridan radio aloqa orqali kelayotgan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish funksiyalari dasturiy ta’minotda test rejimida ishlatib ko‘rilmoqda.

Xususan, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli “Sho‘rtan” konidagi 20, 24-sonli gaz yig‘uv punktlariga tegishli quduqlar ko‘rsatkichlarini onlayn dastur “E-kon” loyihasi orqali kuzatish tizimi sinov tariqasida tashkil etildi. “E-kon” tizimini joriy etilishi natijasida uzog‘i bilan yarim soat ichida konlardagi muammo haqida tezkor tahliliy ma’lumotlarni jamlash va kon nazoratchilariga yetkazish imkoni yaratilgan. Bu esa vaqtdan yutish va gaz sarfini me’yorida ushlab turishni ta’minlamoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, kelgusida 1 ming 500 ta quduqda bosim va harorat o‘lchov vositalari o‘rnatilib, “online” tarzda ma’lumot yig‘ish imkoniyati yaratiladi. 80 ta gaz yig‘uv joyida tabiiy gazni tayyorlash va uning sarfini o‘lchash qurilmalari o‘rnatiladi. Operatorlar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Barcha o‘rnatilgan qurilma va o‘lchov asboblaridan olinayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqarish uchun yagona dasturiy ta’minot ishlab chiqiladi. Buning natijasida qazib chiqarish jarayonlarida inson omili aralashuvi kamaytiriladi, raqamlashtirish darajasi oshiriladi. Qazib chiqarish “online” rejimda tezkor boshqaruv ta’minlanadi. Ma’lumotlarni qayta ishlashda yangi dasturiy mahsulotlardan foydalanish ta’minlanadi. Geologik-texnik chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish orqali tabiiy gaz qazib chiqarish oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishda o‘z investitsiya manbalari yetishmasligi kuzatiladi. Moliyaviy natijalarining yaxshi bo‘lmasligi natijasida korxonalarning moliyaviy ahvoli yomonlashadi, natijada ular investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tashqi moliyalashtirish (kredit) manbalariga ehtiyoj sezadi. Yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishga mablag‘larni jalb qilish shartlaridan biri investitsion hamkorlik sohasida orttirilgan tajribani hisobga olgan holda investitsiyalarning tabiiy oqimini ko‘paytirish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kundagi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining ahvoli, ko‘p jihatdan, yoqilg‘i-energetika kompleksidagi ishlarning holati bilan belgilanishi hech kimga sir emas. Chunki aynan ular davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi rollardan birini o‘ynaydi. Shuningdek, valyuta tushumlarining katta qismi ham shu korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bir vaqtning o‘zida, ular mamlakatimiz savdo balansining asosiy hajmini tarkib toptirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, mamlakatimiz yoqilg‘i-energetika korxonalarida investitsion jarayonlarni faollashtirish va ularning moliyaviy ahvolini yaxshilashning muhim omili.

Gaz ta’minoti tizimida investitsiyalar jalb qilish orqali yangi dasturlar joriy qilish. Ushbu sohaga gaz yetkazib beruvchi va iste’molchi o‘rtasida gaz uskunalariga profilaktik va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solish va ularni naqd pulsiz amalga oshirishga imkon beruvchi va abonentning shaxsiy ma’lumotlari, xonadon geolokatsiyasi va telefon raqami, xizmat sifatini baholashni o‘z ichiga olgan dastur yaratish orqali sohaning xizmat ko‘rsatish sifat darajasi va moliyaviy tejamkorlikga erishish imkonini beradi.

Soliq tizimini takomillashtirish. Korxonalarga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosati, fikrimizcha, tarmoq korxonalarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga yetarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsata olmayapti. Buning asosiy sababi shundaki, neft va gazning murakkab va qiyin qazib olinuvchi zaxiralarini ishlab chiqarishga jalb qilishning strategik vazifasi nafaqat qimmat turadigan texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishini, balki uni hal qilish (yechish uchun) qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan soliq rejimining bo‘lishini ham talab qiladi.

Korxonalarida investitsion loyihalarini moliyalashtirishda innovatsion vositalarini foydalanish va ularni amalga oshirish.

Samarali tashkil etilgan investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmgina korxonaning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa, bunday tizim korxonaning oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishishga va ularni amalga oshishiga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 09.07.2019-yildagi PQ–4388-sonli qarori. https://lex. uz/docs/4410278.
2. Роберт Дж. Х. Инвестирование. – М.: АГАТА, 2005. – 288 с.
3. Гитман Л., Лоренц Дж. Основы инвестирования: учебное пособие. Пер. с англ. – М.: ДЕЛО, 1997. – 1008 с.;
4. Шарп У. Инвестиции. Пер с англ. – М.:ИНФРА-М, 2006. – 744 с.
5. Абрамов С. И. Инвестирование. – М.: "Экономика", 2000. – 440 с.
6. Бабушкин В. А., Батурина Н. А. Анализ инвестиционной привлекательности организаций: учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 376 с.
7. Бочаров В. В. Инвестиции. 2-ое издание. – СПб.: Питер, 2010. – 384 с.
8. Ендовицкий Д. А.,Хазанович Э. С. Инвестиционная стратегия: учебное пособие.
9. Э. С. Хазанович, А. М. Ажлуни, А. В. Моисеев. –М.: КНОРУС, 2010. – 304 с.
10. Михайлова Э. А., Орлова Л. Н. Экономическая оценка инвестиций: Учебноепособие. – Рыбинск: РГАТА, 2008. – 476 с.
11. Нешитой А. С. Инвестиции. –М.: Дело, 2008. – 316 с.
12. Орлова Е. Р. Иностранные инвестиции в России: учебное пособие / Е. Р. Орлова, О. М. Зарянкина. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Изд-во "Омега", 2009. – 204 с.
13. Игонина Л. Л. Инвестиции. – М.: Экономист, 2005. – 478 с.
14. Подшиваленко Г. П. Инвестиции: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2004. – 208 с.
15. Шевчук Д. А. Организация и финансирование инвестиций. – М.: Высшее образование, 2006. – 272 с.
16. Kuziyeva N. R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2008.
17. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
18. https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/investments.

TOG‘LI HUDUDLARDA TURIZM BIZNESINING RIVOJLANISHI

Abduvakil Alimov Komil o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda tog‘ turizmining rivojlanishiga turtki bo‘lgan asosiy omillarni ko‘rib chiqadi. Tog‘ turizmi sayyohlik industriyasini takomillashtirish biznesning muhim yo‘nalishi bo‘lib, u umuman mamlakatni takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi zamonda asosiy ko‘rsatkichlardan biri turizm bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish va turizm konsepsiyasini ishlab chiqishdir.

Kalit so‘zlar: turizm, tog‘ turizmi, Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy, YUNESKO, O‘ZBEKTURIZM, turizm to‘g‘risidagi qonun.

Abstract: This article examines the primary factors that contributed to the growth of mountain tourism in Uzbekistan. The improvement of the travel industry is a significant area of the business, which is firmly connected with the improvement of the country in general. One of the main indicators in this day and age is the organization of tourism-related services and the development of a tourism concept.

Key words: tourism, mountain tourism, Chimgan,Bbeldersay, Amirsay, UNESCO, UZBEKTOURISM, law on tourism.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные факторы, способствующие развитию горного туризма в Узбекистане. Улучшение туристической отрасли – важное направление бизнеса, которое тесно связано с благоустройством страны в целом. В настоящее время одним из основных показателей является организация услуг, связанных с туризмом, и разработка концепции туризма.

Ключевые слова: туризм, горный туризм, Чимган, Бельдерсай, Амирсой, ЮНЕСКО, УЗБЕКТУРИЗМ, закон о туризме.

KIRISH

O‘zbekistonda tog‘ turizmi nisbatan yangi, lekin tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sohadir. Bularga chang‘i uchish, toqqa chiqish, tog‘ g‘orlariga tashrif buyurish va to‘rtta zamonaviy kurort majmualaridan birida ajoyib tog‘ manzaralari bo‘ylab sayr qilish kiradi. Bu qoyatosh rasmlari ko‘p ming yilliklarga oid bo‘lib, ularda Ahamoniylar (miloddan avvalgi 6–4-asrlar) va Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 4-asr) tomonidan qurilgan qadimiy tog‘ qal’alari tasvirlangan. Balandligi 3000 dan 4000 metrgacha bo‘lgan tog‘larning panoramali ko‘rinishi hayratlanarli.

Odamlari do‘stona bo‘lgan uzoq an’anaviy tog‘li qishloqda bu ko‘rinish ayniqsa ajoyib. Noyob o‘simliklar, yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlar, go‘zal sharsharalar, tog‘ ko‘llari, shiddatli tog‘ daryolari shular jumlasidandir. Alpinizm, tog‘ turizmi va qoyalarga ko‘tarilish bilan shug‘ullanadigan odamlar O‘zbekiston tog‘larini juda jozibali deb hisoblashadi. Tekisliklar mamlakat yerining ko‘p qismini egallaydi, biroq mamlakatning ko‘p joylarida g‘arbdan sharqqa tomon Tyan-Shan va Pomir tog‘ tizmalarining uzun zanjiri o‘tadi. O‘zbekistonning eng baland cho‘qqisi bo‘lgan Katta Chimyon tog‘lari joylashgan Chimyon tog‘lari sayyohlar uchun mashhur joy hisoblanadi. Bu mintaqa ko‘plab toqqa chiqish yo‘llari, toqqa chiqish kurslari, qoyaga ko‘tarilish, ot minish kurslari, chang‘i yo‘llari va boshqalarning boshlanishi sifatida to‘ldiriladi. Bu yerda uchta tog‘-chang‘i kurorti – Chimyon, Bildirsoy va Amirsoy mavjud bo‘lib, ular turli qishki sport turlari muxlislarini o‘ziga jalb etmoqda. Chang‘i mavsumi qisqa, dekabr oyining oxiridan mart oyining o‘rtalarigacha davom etadi. Chang‘i uchish uchun ideal vaqt fevral oyidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tog‘lar muammolari bo‘yicha global ahamiyatlikni oshirish bo‘yicha sekin, ammo barqaror harakat qilinmoqda. So‘nggi yillarda tog‘ muammolari ko‘plab milliy va xalqaro agentliklar va hukumatlarning siyosat kun tartibida birinchi o‘ringa chiqdi (Godde va boshq. 2000). Tog‘lar va turizm muammolari haqida global ahamiyat-

lilikni oshirishga javob sifatida 2002-yil Xalqaro tog‘lar yili, shuningdek, Xalqaro ekoturizm yili deb e’lon qilindi. Tog‘lar o‘zining ajoyib manzarasi, mahobatli go‘zalligi va o‘ziga xos qulaylik qadriyatlari bilan sayyohlar uchun eng mashhur yo‘nalishlardan biridir[1].

Tog‘ turizmi sanoati butun dunyo bo‘ylab ilgari uzoqda joylashgan va qishloq xo‘jaligining tirikchilik shakllariga tayangan jamoalarda bandlik va rivojlanishning qimmatli manbayi sifatida paydo bo‘ldi (Beedie & Hudson, 2003; Boujrouf, Bruston, Duhamel, Knafou va Sacareau, 1998; Boumaza, 1996; Cousquer, 2014; Godde, Price, & Zimmermann, 2000; Sacareau, 2009). Ikkita alohida tog‘ mutaxassislari bugungi kunda ushbu sohada o‘zlarini ko‘rsatdilar: Xalqaro tog‘li lider (IML) va Xalqaro tog‘ yo‘riqnomasi shaxsiyatlarining paydo bo‘lgan va rivojlanayotgan tabiati muhokama qilinmoqda va hudud, o‘ziga xoslik va kapital uchun davom etayotgan kurashni aks ettiradi[2].

Turistik turizm birinchi marta 1939-yilda Poserda paydo bo‘lgan: “Der Fremdenverkehr im Riesengebirge”. Bu yerda Pozer turizmning bir necha turlarini ajratadi: tranzit turizm, yozgi dam olish, qishki sport turlari, qisqa masofali dam olish.

Hunziker va Krampf, 1941-yilda turizmning bir nechta turlari va shakllarini ajratib ko‘rsatdilar: dam olish va davolanish uchun sayohat, ziyorat va ilmiy bilimlar va boshqalar.

1965-yilda Jülg, Ruppert va Maier 1970-yilda turizmning olti turi mavjudligini aytib o‘tishgan: turistik dam olish, terapiya, tashrif, qisqa masofali dam olish, turizm orqali tranzit va professional turizm[3].

Fransiyada birinchi bo‘lib R. Blanshar (1920) Alp tog‘ida turizm xo‘jaligi va turistik marshrutlarni tashkil etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar o‘tkazdi. Shu davrda Italiyada A. Mariotti turizmning tarixiy bosqichlarini ajratdi va shu asosda uni o‘rgandi. Bundan tashqari, 1930–40-yillarda ko‘pgina davlatlar olimlari turizm va turizm geografiyasining ayrim qirralariga oid ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, Germaniyada, Fransiyada, Shvetsariyada, Yaponiya hamda AQSH da turizmning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy turistik resurslardan foydalanish va ularning imkoniyatlari to‘g‘risida ilmiy asarlar yaratilgan (Erdavletov, 2000. – 97-b.)[4].

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Toza havoda va katta shaharlardan uzoqda sport bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radiganlarni O‘zbekiston kutib oladi. Qulay iqlim deyarli butun yil davomida sportning aksariyat turlari bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Klassik qishki sport turlari bilan shug‘ullanish uchun to‘rtta tog‘ kurorti mavjud: Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy va Yangiobod. Ularning soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston o‘zining keng va rang-barang landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi, garchi bu sport turlari mamlakatda hali yangi bo‘lsa-da. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ekstremal chang‘i, snoubord;
2. Mototsikl poygasi, ralli, motokros;
3. Skeytbord, tog‘ velosipedi, qoyaga chiqish, kanyon va paraplanda uchish.

O‘zbekistonda tog‘ turizmi kichik, ammo faol rivojlanayotgan sohadir. Mamlakatning keng tog‘li hududlari, ayniqsa, jozibali. Go‘zal tog‘lar manzarasi bo‘ylab piyoda sayr qilish, toqqa chiqish, qoya g‘orlariga tashrif buyurish, to‘rtta zamonaviy dam olish majmualaridan birida qishki chang‘i sporti, Ahamoniylar davridagi (miloddan avvalgi 6-4-asrlar) qadimiy tog‘ qal’alariga sayohatlar va Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 4-asr) va ko‘p ming yillik qoyatosh rasmlari. 3000 dan 4000 metrgacha bo‘lgan tog‘larning hayratlanarli panoramik manzaralari. Mehmondo‘st aholisi bo‘lgan uzoq an’anaviy tog‘li qishloqlarda dam olish maskanlari. Noyob flora, endemik va kamdan-kam yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar, go‘zal sharsharalar, tog ‘ko‘llari va shiddatli tog‘ daryolari.

O‘zbekiston dengiz yoki okeanga chiqish imkoniyati bo‘lmagan kam sonli davlatlardan biri, ammo suv turizmi uchun juda ko‘p joylar mavjud – G‘arbiy Tyan-Shan etaklarida joylashgan Chorvoq chuqur suv ombori, son-sanoqsiz shiddatli daryolar va Aydarko‘l, Sudok va Toshkent dengizi kabi ulkan, dengizga o‘xshash ko‘llar.

Dam olish vaqtida siz shabada bilan skuter minishingiz yoki katamaranda atrofni kashf qilishingiz mumkin. Ekstremal dam olishni yaxshi ko‘radiganlar uchun ko‘plab tur operatorlar Chotqol, Pskent, Ugom, Sirdaryo va boshqa ko‘plab joylar bo‘ylab rafting sayohatlarini taklif qilishadi.

O‘zbekistonda yilning deyarli istalgan vaqtida paraplanda uchishingiz mumkin, faqat yomg‘ir buni cheklashi mumkin, chunki paraplan qanoti matodan qilingan. Yilning eng mashhur vaqti – yoz va mamlakatning tog‘ tizmalari uchish uchun eng yaxshi joy. Paraplanda uchish uchun eng mashhur joy Toshkentdan 60 km

1 Sanjay K. Nepal and Raymond Chipeniuk, “Mountain Tourism: Toward a Conceptual Framework”.
2 Glen Olivier Cousquera and Simon Beames “Professionalism in mountain tourism and the claims to professional status of the International Mountain Leader”, Journal of Sport & Tourism, 2013.
3 Senior Lecturer Cornelia Elena Tureac, PhD “Danubius” University of Galati and Associate Professor Turtureanu Anca, PhD “Danubius” University of Galati “Types and Forms of Tourism”.
4 M. R. Usmonov “Turizm geografiyasi” o‘quv qo‘llanma, 2020, Samarqand.

uzoqlikda joylashgan Chorvoq suv ombori yaqinida joylashgan. Siz professional uchuvchi bilan yoki maxsus tayyorgarlik o‘tib parvoz qilishingiz mumkin.

O‘zbek tog‘lari alpinizm, tog‘ turizmi va qoyalarga ko‘tarilish kabi faol dam olishni yaxshi ko‘radiganlar uchun juda jozibali. Mamlakat hududining ko‘p qismini asosan tekisliklar egallaydi, ammo mamlakatning ko‘plab mintaqalarida Tyan-Shan va Pomirning g‘arbiydan sharqiy qismiga tog‘ tizmalarining uzun zanjiri o‘tadi. O‘zbekistonning juda mashhur tog‘li hududi Chimyon tog‘lari bo‘lib, unda balandligi 3309 m bo‘lgan Katta Chimyon cho‘qqisi hukmron. Bu hududda ko‘plab alpinizm yo‘llari, piyoda yurish, qoyaga chiqish, ot yo‘llari, chang‘i yo‘llari va boshqalar mavjud.

Qishki sport turlari muxlislarini tobora ko‘proq jalb etadigan Chimyon, Bildirsoy va Amirsoy tog‘-chang‘i kurortlari mavjud. Chang‘i mavsumi unchalik uzoq emas – dekabr oyining oxiridan mart oyining o‘rtalarigacha. Chang‘i uchish uchun ideal vaqt fevral oyidir.

O‘zbekistonning keng tog‘li hududlari asosan alpinizm, qoyaga ko‘tarilish va muzga chiqish uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston alpinizm va toqqa chiqish federatsiyasi o‘z saytida O‘zbekistonning 34 ta tog‘li hududida balandligi 3099 dan 4326 m gacha o‘zgarib turadigan 74 ga yaqin marshrutlarni eslatib o‘tadi. Ulardan o‘n beshtasi 4a yoki 4b qiyinchilik darajasiga ega, to‘qqizta marshrut 5a yoki 5b qiyinchilik darajasiga ega va faqat bitta marshrutning qiyinchilik darajasi 6a ga etadi.

Tog‘ sayyohlari uchun O‘zbekiston nafaqat go‘zal tog‘ landshaftlari, balki asrlar davomida deyarli o‘zgarmagan tog‘ qal’alari, qadimiy sug‘orish tizimlari va qishloqlar (qishloqlar) ko‘rinishidagi tarixiy o‘tmish bilan uchrashuvni ham taklif etadi.

Qiziqarli manzarali piyoda yurish yo‘llari Nurota tog‘lari orqali o‘tib, an’anaviy tog‘li qishloqlarni kesib o‘tadi. Boysun tog‘li hududi ham piyoda sayohatlar uchun mashhur joy hisoblanadi. Sayohatchilar Navoiy yaqinidagi Sarmishsoy darasi va Chimyondagi Gulkam daralarida betakror manzaralarni tomosha qilishlari mumkin va bu mamlakatning o‘zgarmas tog‘li yo‘nalishlarining kichik bir qismidir.

Ushbu sayyohlik yo‘llarining ko‘pchiligida 4000 dan ortiq tasvirlar topilgan Sarmishsoy darasida bo‘lgani kabi ko‘plab qadimiy qoyatosh tasvirlari (petrogliflar) bilan qoplangan.

O‘zbekistonga mashhur zotdor o‘zbek otlarini ko‘rish, milliy ot sporti musobaqalarini tomosha qilish, zotdor ot minishning beqiyos zavqini his qilish maqsadida O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan sayyohlar safi tobora kengaymoqda. Miloddan avvalgi II asrdayoq Xitoy imperatori armiyasi uchun Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab Farg‘ona vodiysidan jangovar otlar olib ketilgan.

Toshkent shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda, go‘zal vodiyda, Katta va Kichik Chimyon etagidagi 1600 metr balandlikda ot sporti muxlislari uchun mo‘ljallangan “Chimyon Oromgohi” kurort majmuasi joylashgan.

Bu yerda siz go‘zal kurort hududlarida sayr qilishingiz mumkin. Tajribali ustozlar yangi o‘rganuvchilarni otlarni boshqarishga o‘rgatishadi va mohir chavandozlar o‘z mahoratlarini oshirishlari mumkin.

Chotqol va Ko‘ksu daryolari bo‘ylab Bildirsoy tizmasi bo‘ylab ot minish ham mumkin. Tajribali chavandozlar uchun eng mashhur yo‘nalishlardan biri bu Ugom tizmasining shimoliy yon bag‘irlari bo‘ylab, bo‘ronli tog‘ daryosi Pskent qirg‘oqlari bo‘ylab marshrutdir. Ot safarining davomiyligi 7–10 kun. Ot minish o‘simlik va hayvonot dunyosi xilma-xil va o‘zgaruvchan qo‘riqlanadigan hududlarda amalga oshiriladi.

Shuningdek, Chotqol milliy bog‘ining Po‘latxon Ugom platosi yaqinida, G‘arbiy Tyan-Shan tog‘larida, Nurota tizmasi va Aydarko‘l ko‘li hududlarida bir necha kunlik ot sayohatlari o‘tkaziladi.

Hisor tizmasi tog‘larida ot yo‘llari qiziqarli. Ular Qashqadaryo viloyatining kichik tog‘ qishloqlaridan boshlanib, Surxondaryo vodiysida tugaydi. Marshrutlarning eng baland nuqtalari 4000 m ga yetishi mumkin. Yo‘lda sayyohlar baland tog‘li belbog‘lar, archa o‘rmonlari, Alp o‘tloqlari, tog‘ tundralari va ba’zi yo‘nalishlarda – ko‘p yillik qor va muzliklar kamarini kesib o‘tadilar.

Tog‘lar bo‘ylab sayohat taassurotlari, u yerda musaffo havo, son-sanoqsiz o‘simlik va gullarning xushbo‘y hidiga to‘lib-toshgan, cheksiz yulduzlar to‘plangan tubsiz tog‘ osmoni ostidagi gulxanda kechki romantik ovqat xotirangizda uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Mamlakatimizdagi 15 dan ortiq ot sporti to‘garaklari sayyohlarni hayratda qoldiradi. Ular Toshkent va uning atrofida, Farg‘ona, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarda joylashgan.

Alpinizm, qoyaga chiqish va muzga chiqishning asosiy yo‘nalishlari asosan G‘arbiy Tyan-Shan hududlarida joylashgan: Maydantol, Pskent va Chotqol tizma tog‘lari. Bu yerda har yili alpinizm va qoyaga ko‘tarilish bo‘yicha O‘zbekiston ochiq musobaqalari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston 2019-yilda jami yetti million sayyohni qabul qildi va mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha dunyoda 30-o‘rinni egalladi. Mamlakat hajmini kiritmagan holda, bunday reyting ro‘yxati unchalik mazmunli bo‘lmasligi mumkin. Sayyohlar sonini O‘zbekiston aholisiga nisbatan qo‘yadigan bo‘lsak, natija ancha taqqoslanadigan ko‘rinishga ega: har bir aholiga 0,19 sayyoh to‘g‘ri keladi va O‘zbekiston dunyoda 91-o‘rinni egalladi. Markaziy Osiyoda esa 2-o‘rinni egalladi.

2020-yilda O‘zbekiston birgina turizm sohasidan 395,00 million dollarga yaqin daromad ko‘rdi. Bu uning yalpi ichki mahsulotining 0,57 foizini va Markaziy Osiyodagi barcha xalqaro turizm tushumlarining qariyb 31 foizini tashkil etadi.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonda turizm ulkan salohiyatga ega. Vaqt o‘tishi bilan bu sohaga kam e’tibor qaratilayotganiga qaramay, so‘nggi yillarda mamlakat juda ko‘p o‘zgardi va hozirda ushbu spektr qanday rivojlanayotganiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda eng daromadli sohalardan biri turizmdir. Dunyo bo‘ylab xalqaro sayyohlar sonining yildan yilga o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Xalqaro turistik tushumlar – bu xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari, shu jumladan xalqaro tashish uchun milliy tashuvchilarga to‘lovlar. Ushbu kvitansiyalar belgilangan mamlakatda olingan tovarlar yoki xizmatlar uchun oldindan to‘langan boshqa har qanday boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Ular, shuningdek, bir kunlik tashrif buyuruvchilarning kvitansiyalarini ham o‘z ichiga olishi mumkin, bundan tashqari, alohida tasnifni asoslash uchun etarlicha muhim bo‘lgan holatlar bundan mustasno. Ba’zi mamlakatlar uchun ular yo‘lovchi tashish tovarlari uchun kvitansiyalarni o‘z ichiga olmaydi. Ma’lumotlar joriy AQSh dollarida.



1-chizma: O‘zbekiston turizm statistikasi

Jumladan, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 1,4 milliardga yetdi, dam oluvchilar savdosi esa 1,7 trillionga AQSH dollariga yetdi. Natijada, turizm salohiyatiga ega bo‘lgan davlat o‘zining turizm sohasini kengaytirishi kerak. Tabiiyki, O‘zbekiston ham ana shunday xalqlardan biridir. Chunki yurtimiz an’anaviy tog‘ turizmidan tortib, “Ipak yo‘li” turizmigacha bo‘lgan turizmning barcha turlari ravnaq topadigan maskandir. O‘zbekistonda sanoatni tubdan isloh qilish jarayoni endigina boshlandi. Uning maqsadi turizmni mamlakat rivojlanishining strategik yo‘nalishiga aylantirish, natijada mintaqaviy rivojlanishni tezlashtirishdan iborat. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Turizmni rivojlantirish, sohaga sarmoya jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish”ni 2019-yilda ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berdi.



2-chizma

Manba: Jahon banki.

Topshiriqni amalga oshirish, shuningdek, sayyohlik sohasini takomillashtirish uchun katta shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sayyohlik industriyasi hududini rivojlantirish g‘oyasi taklif etildi va ma’qullandi. Sayyohlik industriyasi sohaning asosiy maqsadlarini belgilaydi, biznesni rivojlantirish bosqichlari va yo‘nalishlarini tavsiflaydi.

O‘zbekiston turizm rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatda 7400 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Xuddi shunday, mamlakatda 11 ta jamoat to‘xtash joyi va shtat stendlari, 12 ta do‘kon, 106 ta galereya va dam oluvchilarni jalb qiladigan ko‘plab turli xil maqolalar mavjud. WTTC ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sanoati O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotiga bevosita 0,9 foiz yoki 2,22 trln. so‘mni, jami: 6,7 trln. yoki 2,8%. so‘mni tashkil etadi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga 5,2 million xorijiy fuqaro turizm maqsadida kelgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 million kishiga yoki 2,8 barobarga oshgan.

2-jadval: 2022-yilda O‘zbekistonga qaysi davlat fuqarolari turizm maqsadida eng ko‘p tashrif buyurgan?

Qozog‘iston	1551.1 ming
Tojikiston	1447.8 ming
Qirg‘iz Respublikasi	1356.9 ming
Rossiya	567.7 ming
Turkiya	75.6 ming
Janubiy Koreya	19.9 ming
Germaniya	17.7 ming
Hindiston	16.8 ming
AQSH	13.1 ming
Fransiya	11 ming
Buyuk britaniya	10.5 ming
Ozarbayjon	10.4 ming
Italiya	8.8 ming
Ispaniya	6.3 ming
Xitoy	5.4 ming

2022-yilda O‘zbekistonga xorijiy davlatlardan 5,2 million sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2021-yilga nisbatan (1,8 million) qariyb 3 barobar ko‘pdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jumladan, 2022 yili qo‘shni davlatlardan jami 4364,8 ming sayyoh kelgan, bu 2021-yilga nisbatan 283 foizga ko‘pdir. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining qolgan davlatlaridan mamlakatimizga 606,4 ming nafar sayyoh kelgan (yilga nisbatan 291 foizga ko‘p). 2021 yil), MDHdan tashqari davlatlardan – 261,6 ming kishi (2021-yilga nisbatan 198% ko‘p).

Jumladan, Turkiyadan 75,5 ming (2021 yilga nisbatan 171 foizga ko‘p), Janubiy Koreyadan 19,9 ming (2021 yilga nisbatan 347 foizga ko‘p), Germaniyadan 17,7 ming kishi (2021 yilga nisbatan 257 foizga ko‘p), AQShdan 13,1 ming kishi (242 foizga ko‘p) 2021 yilga nisbatan), Fransiyadan 11 ming (2021 yilga nisbatan 372 foizga ko‘p), Buyuk Britaniyadan 10 5 ming (2021 yilga nisbatan 264 foiz ko‘p) sayyohlar mamlakatimizga tashrif buyurdi.

Ta’kidlash joizki, 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarning 49,6 foizi, ya’ni 2 million 593 ming 400 nafari 31 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Shuningdek, 723,3 ming nafar xorijiy sayyohlar – 18 yoshgacha, 846,5 ming nafari – 19 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar va 1069,6 ming nafari – 50 yoshdan oshganlardir.

Konsepsiyaning turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini chuqurroq ko‘rib chiqish va natijalarini o‘rganish mumkin. Mamlakatimizda sayyohlik sanoati uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda, turli hududlarda ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda alpinizm, ot minish, tuya minish, velosport, off-road sayohati, baliq ovlash, rafting, geoturizm, ta’lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo‘nalishlari

tobora ommalashib bormoqda. Qisqa vaqt ichida 16 huquqiy me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini maksimal darajada oshirish niyatida. Ushbu hujjatlar asosida turizm tashkilotlari ko'plab imtiyozlar, jumladan, katta soliq va bojxona imtiyozlariga ega bo'ldilar. Mamlakatimiz sayyohlik sanoati Global Normalizatsiya Assotsiatsiyasi (ISO) talablariga javob berishini ta'minlash uchun sayyohlik industriyasining matnlari va mehmonxonalar farovonligi uchun zarur bo'lgan 2 ta yangi davlat ko'rsatmalari yaratildi va ro'yxatga olindi. 2016-yil bu boradagi faol ishlarning boshlanishi bo'ldi. O'shandan buyon 55 dan ortiq turli qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularning barchasi sohaning umumiy tiklanishiga xizmat qildi. Birinchi navbatda "O'zbekturizm" MKni Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Vasiylik kengashi tarkibiga 9 ta hududiy bo'linma va 4 ta sayohat sanoatini rivojlantirish bo'limi kiradi. Bundan tashqari, sanoatning yagona rivojlanishiga erishish va turizmga bo'lgan talabning mavsumiy tebranishlarini yumshatish maqsadida ichki va xalqaro turizmning o'sishini tezlashtirish bo'yicha dasturlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda butun turizm rivojlanishining muhim bo'g'ini bu sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish va xalqaro standartlarni qo'llashdir. Mazkur soha rivojidan bevosita manfaatdor bo'lgan mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan "Turizm to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi qonunchilik bazasini izchil takomillashtirishning birlamchi natijasi bo'ldi. Yangi qonun turizm sohasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi 45 moddadan iborat bo'lib, uning avvalgi tahrirga nisbatan dolzarbligini ko'rsatadi. 77 davlat fuqarolariga 59 mingdan ortiq elektron vizalar allaqachon berilgan, 86 davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim o'rnatilgan. Joriy yilning atigi sakkiz oyida bu chora-tadbirlar sayyohlar sonini 57 foizga oshirish imkonini berdi. Shu tariqa, O'zbekiston notanish sayohatchilar uchun shubhasiz ochiq va jozibali maqsadga aylanib bormoqda. Biroq, qonunchilik sohasidagi sezilarli va foydali yutuqlarga qaramay, hali ham hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab muammolar mavjud. Bizningcha, bu davlat-xususiy sheriklik mexanizmini kengaytirishga taalluqlidir. Zero, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha qonunchilik bazasi shakllantirilsa, investitsiya jarayonlarida faolroq ishtirok etadi. Mamlakat rahbariyatining mazkur ustuvor yo'nalishni rivojlantirishdan manfaatdorligidan dalolat sifatida Prezidentimizning 05.01.05 yildagi farmoni bilan investor tomonidan mehmonxona qurilishi va jihozlash uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash mexanizmi belgilandi.

Respublikamizning barcha hududlarida sayyohlarning talab va istaklaridan kelib chiqqan holda turizm infratuzilmasi va tegishli infratuzilmani rivojlantirish turizmni rivojlantirishning ikkinchi muhim jihati hisoblanadi. Mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylar soni dinamikasini tahlil qilib, ularning deyarli barqaror o'sishi haqida gapirish mumkin. Butun dunyoda keng tarqalgan kovid (pandemiya) tufayli 2019 va 2020 yillardagi oldingi yillarga nisbatan faqat manfiy raqamlar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston turizm industriyasining kengayishi yagona milliy brendni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Forumlar, tematik festivallar, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish mamlakatning xalqaro miqyosda mashhur bo'lishiga xizmat qilmoqda. Xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonga oid nashrlar tez-tez chop etilayotgani bu yo'nalishni yanada rivojlantirish obyektiv zarurligidan dalolatdir. "Wanderlust" jurnalining "Eng tez rivojlanayotgan sayyohlik yo'nalishi", National Geographic Traveler jurnalining "Gastronomik turizm" nominatsiyasi, yolg'iz sayyohlar uchun eng xavfsiz mamlakatlar beshligiga kiritilgani kabi qator mukofotlarga erishilgani ham bu boradagi salmoqli yutuqlardir. Bundan tashqari, turizm mahsulotini ham ichki, ham tashqi bozorga targ'ib qilishni davom ettirish zarur. Shuningdek, turizmni rivojlantirish maqsadida respublikaning har bir hududiga xos tadbirlar tashkil etamiz. Madaniy, ko'ngilochar, sport va boshqa tadbirlarning yillik yagona taqvimi, dayjest va taqdimot videolari mamlakatimiz bo'ylab turizmni kengaytirishda samarali strategiya bo'lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimovich D. I., O'zbekistonning turizm salohiyati. Lucrările Seminarului Geografik "Dmitrie Cantemir", 40. 2015. – 125–130-betlar.
2. Sobirov B., O'zbekistonda turizmning innovatsion rivojlanishi. American Journal of Economics and Business Management, 1(1). 2018. – 60–74-betlar.
3. Haydarov, N. (2021). O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANISHNING XALQARO TAJRIBASI. Integratsiyada. Эволютция. Устойчивост: пути развития социал-экономическич системю – 159–163 с.
4. Patterson, I. R., Tureav, H. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi ishlanmalar. Turizmshunoslik jurnali, 6(2). 2020. – 201–219-betlar.
5. Usmonov Y. M. O'., Jo'rayeva Z. Sh. O'zbekistonda turizmning shakllanishi va uning rivojlanishi. Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali, 1(3). 2021. – 197–201-betlar.
6. Raimqulov M., Juraturg'unov X., Ahn Y. J., O'zbekistonda ipak yo'li turizmida yo'nalish jozibadorligi va unutilmas sayohat tajribalari. Barqarorlik, 13(4). 2021.

7. Nosirov B., Baratova G., Raimbayev A. O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish yo‘llari. Biznesni boshlash va ochiq jamiyat Yevropa jurnali, 2(3), 2022. – 20–24-betlar.
8. Safarov B., Al-Smadi H. M., Buzrukova M., Janzakov B., Ilieş A., Grama V., ... Dávid L. D. O‘zbekistonda turistik xizmatlar hajmini prognozlash. Barqarorlik, 14(13). 2022.
9. Tulkinovna M. R., Ugli Z. S. T., O‘zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirishning innovatsion va an’anaviy yo‘llari. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(2). 2023. – 116–120-betlar.
10. Anorboyeva R., Kristina, I. O‘zbekistonda yoshlar va bolalar turizmining rivojlanishi va istiqbollari. Fan, tadqiqot va ishlanmalardagi eng yaxshi innovatsiyalar jurnali, 2(4). 2023. – 111–114-betlar.
11. Убайдуллаев С., Арипова А., Истамов Н., Туризм в Узбекистане //- Central Asian Journal of Innovations on... 2021.
12. Истамов Н., Убайдуллаев С., Махмудхужаев Ж… Туризм – как ведущий сектор мировой экономики // – Central Asian Journal of Innovations on..., 2021.

TA’LIM TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI VA O‘ZBEKISTONDAGI TENDENSIYALARI

Maxmudova Nodira O‘ktamovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim turizmining nazariy mohiyati va uning O‘zbekiston turizmidagi o‘rni o‘rganilgan. Muallif ta’lim turizmi tushunchasiga turli mualliflar fikrini tahlil qilgan holda, o‘zining farqli yondashuvini ta’lim turizmi ta’rifida aks ettirgan. Shuningdek, O‘zbekiston turizm sohasida ta’lim turizmi ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilinib, joriy tendensiyalar bo‘yicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ta’lim turizmi, ta’lim turizmi evolyutsiyasi, O‘zbekistonda turizm, turizmning rivojlanish tendensiyalari.

Abstract: This article examines the theoretical essence of educational tourism and its place in the tourism of Uzbekistan. The author analyzed the opinions of different authors on the concept of educational tourism and presents her approach to the concept of educational tourism. The dynamics of changes in indicators of educational tourism in the tourism sector of Uzbekistan are also analyzed, and the main trends are identified.

Key words: tourism, educational tourism, evolution of educational, tourism in Uzbekistan, trends in tourism development.

Аннотация: В данной статье изучена теоретическая сущность образовательного туризма и его место в туризме Узбекистана. Автор проанализировал мнение разных авторов о понятии образовательного туризма и приводит свой подход к понятию образовательного туризма. Также проанализирована динамика изменения показателей образовательного туризма в сфере туризма Узбекистана, определены основные тенденции.

Ключевые слова: туризм, образовательный туризм, эволюция образовательного туризма, туризм в Узбекистане, тенденции развития туризма.

KIRISH

Turizm bugungi kunda xaridorlar uchun turli yo‘nalishlar va tur mahsulot taklifi mavjud bo‘lgan, o‘sish tendensiyasiga ega global sanoatdir. Turistik oqimlardan iqtisodiy o‘sish katalizatori sifatida foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turizm mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim variantlaridan biri hisoblanadi. Sayohatlar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch bo‘lishi qatorida sayohatchilarning dunyoqarashni kengaytiradi, insoniy qadriyatlar, shaxsiy tajriba, hissiyotlarni rivojlantirishga ham undaydi. Turizmning ushbu ikki jihatini sodda texnologiyalar asosida birlashtiruvchi shakli ta’lim turizmidir.

XXI asrda xalqaro ta’lim turizmining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi va xususiyatlari bilan bog‘liq. Hayotning tez sur’atlari, vaqt tanqisligi va moliyaviy imkoniyatlarning xilma-xilligi sharoiti, shuningdek, faol sog‘lom turmush tarzi bo‘sh vaqtga muqobil yo‘nalish sifatida ta’lim turizmining ahamiyatini belgilab berdi.

Ta’lim turizmi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tarixiy jihatlariga ko‘ra, taraqqiyotning turli bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Ushbu maqolada ta’lim turizmining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish qatorida, statistik ma’lumotlar tahlili natijasida ta’lim turizmining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yevropada ta’lim maqsadlarida xalqaro sayohatlar an’anasi 9-asrda universitetlar sonining ko‘payib borishi natijasida shakllangan. 12-asrdan boshlab, akademik va talabalar almashinuvi rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘la boshadi[1]. Buyuk mutafakkirlar (J. Lok, J. J. Ruso va boshqalar) g‘oyalari ta’sirida 17-asr oxiri va 18-asrning

1 Maxmudova Nodira O‘ktamovna. Ta’lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 414–421-betlar.

birinchi yarmida Yevropaning bir qancha ta'lim muassasalari o'z o'quvchilari uchun ilmiy ekskursiya va ekspeditsiyalarni tashkillashtirishni yo'lga qo'ydilar[2]. 19-asrning o'rtalaridan Yevropa va Amerikada yangi shakldagi oliy o'quv yurtlarining tashkil etilishi va ularning ixtisoslashuvi, talabalarning xalqaro harakati dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Taxminan shu davrlarda Rossiyaning yetakchi pedagoglari ta'lim turizmining targ'ibotchilari va tashkilotchilari sifatida namoyon bo'lishdi.

Turistik sayohatni maxsus ta'lim dasturlari, dam olish, ishlash va sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda vaqtdan oqilona foydalanish imkoniyati hamda va foydalilik o'rtasidagi ratsional muvozanat sifatida qabul qilinadi. Dunyo bo'ylab sayohatchilarning 70% ga yaqini aynan shunday "foydali dam olish" ni tanlaydi[3].

Turizm va ta'limga oid zamonaviy lug'atlar va o'zbek tilining izohli lug'atlarining tahlili "ta'lim turizmi" tushunchaning alohida talqini mavjud emasligini ko'rsatadi.

Qator xorijiy adabiyotlarda ta'lim turizmi tushunchasining mohiyati bilim olish va o'rganish maqsadi mavjud bo'lgan ekskursant va tunab qoladigan mehmonlarning faoliyatida aks etadi deb yoritilgan. Bunda madaniy, ekologik va kattalar uchun ta'lim turizmi dasturlari nazarda tutilgan[4]. Aslida, bilim olish sayohatning asosiy maqsadidan iborat bo'lgan shunday segment mavjuddir. Bir qator xorijiy mualliflar fikricha, ushbu segmentga universitetda, til o'rgatuvchi maktablarda tahsil olish va maktablardagi turli ekskursiyalar kiradi. Boshqa segmentlardga esa turizm birlamchi hisoblanib, ta'lim olish, yangi bilimlarni o'zlashtirish ikkinchi darajali maqsad sifatida qaraladi.

"Ta'lim turizmi" atamasi "madaniy turizm", "ta'lim turizm", "madaniy va ekskursion-kognitiv turizm" kabi turizm turlaridan kelib chiqqan[5]. Ayrim adabiyotlarda, ta'lim turizmi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida qaralgan ilmiy ishlarda ta'lim turizmi tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar "bir tomonlama yondashuvga ega, ya'ni turistik xizmatni alohida ishlab chiqarish bosqichlari aks ettirilmagan" deb tanqid qilingan. Olimlar fikricha, ta'lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko'lamda o'z ichiga oladi6. Bu ta'lim turizmi kontsepsiyasini belgilashga iqtisodiy yondashuv deb ataladi.

Fikrimizcha, ushbu ta'riflarda ta'lim turizmining barcha xususiyatlari tilga olinmagan, chunki sayohatlarning asosiy maqsadi har doim turizm turini belgilab bergan. Ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyekt ishonchli va tegishli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis yoki manba bo'lishi darkor.

Xorijiy va mahalliy mualliflarning yuqoridagi barcha ta'riflarini tahlil qilgan holda "ta'lim turizmi" tushunchasiga biz quyidagicha ta'rif beramiz:

"Ta'lim turizmi ilm-fan, tarix, madaniyat, sport va boshqa sohalarda ma'lumot, bilim, mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida bir yilgacha bo'lgan muddatda mamlakat hududida yoki tashqarisida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan turizm shakli bo'lib, unda obyekt bo'yicha ma'lumot mutaxassis yoki raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etiladi".

Keltirilgan ushbu ta'rifning bosqa ta'riflardan asosy farqi ta'lim turizmiga xos bo'lgan xususiyatlar kengroq ko'lamda qamrab olinganligi hamda bugungi tendensiyalardan kelib chiqqan holda xizmatni taqdim etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ham nazarda tutishi bilan ajralib turadi. Bu yerda ma'lumotning raqamli texnologiyalar vositasida taqdim etilishi onlayn platformalar, virtual reallik moslamalari, 3D tasvirlar, QR-kodli ma'lumotlar kabi zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida turizm sohasi maxsus drayver sifatida qabul qilinib, ta'lim turizmining mamlakat iqtodiyotiga ta'siri bir qator statistik ko'rsatkichlar tahlili asosida baholanadi.

Ma'lumki, turizm sohasining rivojlanishi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini belgilovchi daromadlar, bandlik hamda valyuta tushumlari kabi bandlarga bevosita ta'sirga ega. Turizm turli soha xizmatlarining integratsiyasi natijasi bo'lib, uni rejalashtirish, tahlil qilish hamda iste'moli murakkab sanaladi. Turistik xizmatlarni alohida "sektor" sifatida baholash tashrif buyuruvchilar uchun taqdim etiladigan barcha tovar va xizmatlar to'plamida namoyon bo'ladi.

2 Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.

3 Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. – 2011. – 82(3). – P. 217–252.

4 Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.

5 Maxmudova Nodira O'ktamovna. Ta'lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 415–416-betlar.

6 Дойл П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жилцов. – 3-е изд. – СПб: Питер, 2002. – 538 с.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda 2022-yilda turistik xizmatlar eksporti 1,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2020–2021-yillar ko‘rsatkichlari bilan solishtirganda keskin o‘suvchi xarakterga ega (1-chizma).



1-chizma: O‘zbekistonda xorijiy sayyohlar soni hamda turisrik xizmatlar eksportining 2020–2023-yillarda o‘zgarish dinamikasi[7]

Covid–19 pandemiyasidan so‘ng jahon bozori konyukturasi beqarorligi, davlatlar iqtisodiyotidagi muammolar, xalqaro logistika xizmatlaridagi uzilish kabi holatlar global iqtisodiyotni faoliyatida salbiy ega bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga nazar tashlasak, 2022-yilda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 2021-yilga nisbatan 5,7 %ga oshgan, inflyatsiya ko‘rsatkichi 2022-yilda 12,3 % bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 2,3 % ko‘pdir.

Yil yakunlaridan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ijobiy ko‘rsatkichlar qayd etildi, ammo global iqtisodiyotdagi salbiy o‘zgarishlar(Covid–19 pandemiyasi, siyosiy nizolar...) o‘sish sur’atlarini sekinlatib, inflyatsiya darajasini nisbatan oshirdi.

2022-yilda O‘zbekistonga 5,2 mln. xorijiy sayyoh tashrif buyurib, oldingi yilda nisbatan (2021-yilda 1,8 mln) deyarli 3 marta oshganini kuzatish mumkin (2-chizma). Turizm xizmatlari eksporti 2022-yilda 1,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilda 422,1mln AQSh dollari ko‘rsatkichidan qariyb to‘rt karra o‘sishni qayd etdi. “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘ridasida”gi Prezident farmonida[8] turizm xizmatlari eksportini 2025-yilda 2,170 mlrd. AQSh dollariga yetkazish vazifasi belgilangan.



2-chizma: O‘zbekistonda xorijiy sayyohlar soni va turistik xizmatlar eksporti ko‘rsatkichlari[9]

7 O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF–5611-sonli farmoni. https://lex. uz/docs/4143188.
9 O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida ta’lim turizmi maqsadida chet elga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 143,6 ming kishi bo‘lib, muayyan safar maqsadlari bilan ketgan turistlarning umumiy sonidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etdi hamda 2021-yilga nisbatan –24% ga o‘zgarish kuzatildi (3-chizma).



3-chizma: O‘zbekistonda chiqish va kirish ta’lim turizmining yosh bo‘yicha klassifikatsiyasi, ming kishi[10]

Mazkur chizmada chiquvchi ta’lim turizmida O‘zbekiston 19–30 yosh oralig‘idagi yoshlari xalqaro ta’lim turizmini amalga oshiruvchi asosiy segment ekanligi va hissasi deyarli 75 %ga yetganini kuzatish mumkin. Ular asosan talabalar, mustaqil til o‘rganuvchilar, ilmiy ta’tillar asosida o‘quv dasturlarini o‘tuvchilar hisoblanadi. Keyingi o‘rinda 18 yoshgacha bo‘lganlar ulushi 14,3 %ni tashkil etgan. Ular, asosan, maktab o‘quvchilari va bitiruvchilar hisoblanib, turli xalqaro olimpiada, tanlovlar, konferensiya ishtirokchilari, til o‘rganuvchilar hamda turli o‘quv kurslarini o‘z ichiga olgan xalqaro oromgohlar qatnashchisi hisoblanadi.

O‘zbekistonga ta’lim turizmi maqsadida tashrif buyuruvchilar chiquvchilarga nisbatan bir necha marta kamligini kuzatish mumkin. Kiruvchi turistlarning aksariyati 19–30 yoshdagi talabalar bo‘lib, ular asosan MDH davlatlaridan kelishgan.

2022-yil davomida o‘qish maqsadida asosan Qirg‘iz Respublikasi 52,8 ming kishi, Tojikistonga 49,9 ming kishi va Rossiyaga 13,7 ming kishi chiqqan.

O‘zbekistonga ta’lim turizmini amalga oshiriladigan sayyohlarning asosiy maqsadlari:

- ish beruvchi yo biror tashkilot tomonidan qisqa muddatli kurslarga qatnash;
- oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish;
- tillarni o‘rganish;
- kasbiy yo farqli maxsus kurslarda o‘qish, muayyan malakaga ega bo‘lish kabilar sanaladi.

O‘zbekistonga kirish ta’lim turizmida asosiy uzatuvchi davlatlar qatorida Hindiston, Pokiston va Tojikiston o‘rin olgan[11]. O‘zbekistonga Hindiston (3,8 ming) va Pokiston (1,2 ming) davlatlaridan asosan bilim olish maqsadida, jumladan, tibbiyot oliygohlarida tahsil olish maqsadida talabalar kelishmoqda. Ularning hissasi, ayniqsa, 2022–2023-o‘quv yili davomida sezilarli bo‘ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlardan O‘zbekistonda ta’lim turizmi joriy holatida quyidagi tendensiyalarni kuzatish mumkin:

O‘zbekistonda turistik xizmatlar eksporti oxirgi yillarda dinamik o‘suvchi xarakterga ega bo‘lib, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb to‘rt karra oshgani e’tiborga molik.

Ta’lim turizmi maqsadida O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar orasida asosan MDH davlatlari, jumladan, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Rossiya davlatlari yetakchilik qiladi.

Yuqorida qayd qilingan ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati Chegara qo‘shinlarining mamlakatimizga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida, asosan ta’lim xizmatlarining eksporti va importiga asoslangan bo‘lib, ichki ta’lim turizmi ko‘rsatkichlari aks etmagan. Keyingi yillarda ta’lim tizimida keskin o‘zgarishlar bo‘lib, turli yo‘nalishlarda xususiy hamda xalqaro ta’lim muassasalari faoliyati shakllantirilmoqda va kengaymoqda. Shuningdek, ayrim davlatlardagi siyosiy beqarorlik hamda pandemiya ta’siri O‘zbekiston ta’lim turizmida ham iste’mol talabining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

10 O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

11 Stat. uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mamlakatimizda ta’lim xizmatlari importi eksport ko‘rsatkichidan bir necha marta yuqori, bu esa ushbu qabul qiluvchi ta’lim turizmi infrastrukturasini rivojlantirish, diversifikatsiya qilish zarurligidan dalolat beradi.

Ta’lim turizmini O‘zbekiston hududida ommalashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – onlayn ta’lim rolini oshirishdir. Zamonaviy texnologiyalar masofadan ta’lim olish, shuningdek, O‘zbekiston tarixi, madaniyati va o‘zbek tilini o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bu esa O‘zbekistonga kelish uchun reklama, motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir zaruriyat O‘zbekiston ta’lim turizmi bozorida yuqori malakali gid va tarjimonlar yetarli emasligidir. Bu esa xorijiy turistlarga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini asoslangan turpaketlar ishlab chiqish va taklifi borasida kamchiliklarga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarining ta’lim turizmi imkoniyatlari va afzalliklari haqida yetarlicha axborotga ega emasligi asosiy muammo sanaladi. Ko‘pgina maktab va oliy ta’lim dargohlari ushbu turizm turi potensialini to‘la anglamagani uchun talabalarga mos ta’lim dasturlarini taklif eta olmaydilar, bu esa, o‘z navbatida, sifatli ta’lim turizmi turlarini tashkil etishni murakkablashtiradi.

Yana bir muammo ta’lim turizmi dasturlarining yetarlicha moliyalashtirilmaganligidadir. Sifatli ta’lim turizmi dasturlarini tayyorlash va tashkil etish mahalliy darajada ham juda katta mablag‘ talab etadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonda ta’lim turizmini rivojlantirish salohiyati yuqori. Yangi ta’lim dasturlari ishlab chiqish, turistik yo‘nalishlar assortimenti kengaytirishi, yashash va o‘qish sharoiti yaxshilash hamda davlat ushbu turizm turini rivojlantitrish turli grantlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali ta’sir etishi mumkin.

Mamlakatimizda ta’lim turizmi taraqqiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbolli ta’sirga ega. Bugungi kunda mamlakat diqqatga sazovor joylari bilan tanishish, sayohatini rejalashtirish uchun turli mobil ilovalar mavjud. Bunday ilovalardan ta’lim berish maqsadida, jumladan, virtual ekskursiya yoki o‘quv darslarini tashkil etishda, turli ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar va talabalarning o‘zaro bilim, malaka, tajriba almashinuvida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals. // Society. Integration. Education – Proceedings of the International Scientific Conference. Volume IV, May 27th –28th, 2016. – P. 245–255. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2016.
2. Дойл П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жилцов. – 3-е изд. – СПб: Питер, 2002. – 538 с.
3. Maxmudova N. O‘. Ta’lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari/ / “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№ 00059). – 415–416-betlar.
4. Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. – 2011. – 82(3). – P. 217–252.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF–5611-son farmoni. www. lex. uz/docs/4143188.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sahifasi. www. stat.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sahifasi. www. uzbektourism.uz.

TURIZMGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH SHART SHAROITLARI

Po‘latov Ma’murjon Murodjon o‘g‘li
TDIU Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Turizm industriyasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish sayyohlar uchun umumiy sayohat tajribasini sezilarli darajada oshirishi va turizm biznesi faoliyati samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va qabul qilinishini ta’minlash uchun ularni amalga oshirishdan oldin muayyan shartlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu annotatsiya turizm sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy shartlarni o‘rganadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan oldin mustahkam infratuzilmaga ega bo‘lish juda muhim. Bunga ishonchli internet ulanishi, yetarli quvvat manbayi va tegishli apparat va dasturiy ta’minot tizimlari kiradi. Kuchli infratuzilma bo‘lmasa, yangi texnologiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa samarasizlikka yoki hatto muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: UNWTO, Iqtisodiyot, ichi turizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, madaniy meros obyektlari, faol aholi oqimi, sayyohlik xarajatlari.

Abstract: The introduction of innovative technologies into the tourism industry can significantly improve the overall travel experience for tourists and improve the efficiency of tourism business operations. However, to ensure successful integration and adoption of these technologies, it is important to consider certain conditions before implementing them. This abstract examines the main conditions that should be considered when introducing innovative technologies in the tourism industry.

It is important to have a solid infrastructure before implementing innovative technologies. This includes a reliable internet connection, an adequate power supply, and appropriate hardware and software systems. Without a strong infrastructure, implementation of new technologies can be hindered, leading to inefficiency or even failure.

Key words: UNWTO, Economy, domestic tourism, organizational-economic mechanisms, objects of cultural heritage, active population flow, tourist expenses.

Аннотация: Внедрение инновационных технологий в туристическую отрасль может значительно улучшить общий опыт путешествий для туристов и повысить эффективность операций туристического бизнеса. Однако для обеспечения успешной интеграции и внедрения этих технологий важно учитывать определенные условия перед их внедрением. В данном реферате рассмотрены основные условия, которые следует учитывать при внедрении инновационных технологий в туристическую отрасль.

Прежде чем внедрять инновационные технологии, важно иметь надежную инфраструктуру. Это включает в себя надежное подключение к Интернету, достаточный источник питания, а также соответствующие аппаратные и программные системы. Без сильной инфраструктуры внедрение новых технологий может быть затруднено, что приведет к неэффективности или даже провалу.

Ключевые слова: ВТО, Экономика, внутренний туризм, организационно-экономические механизмы, объекты культурного наследия, активный поток населения, туристские расходы.

KIRISH

Turizmda innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat organlari, turizm tashkilotlari, texnologiya provayderlari va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligini talab qiladi. Qarorlar qabul qilish jarayoniga barcha tegishli tomonlarni jalb qilish, ularning ehtiyojlari va muammolari hal etilishini ta’minlash juda muhimdir. Manfaatdor tomonlar hamkorligi, shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etish va qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan yordam va resurslarni to‘plashga yordam beradi.

Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va qabul qilishni rag‘batlantirish uchun foydalanuvchiga yo‘naltirilgan dizayn ustuvor bo‘lishi kerak. Texnologiyalar foydalanish qulayligi va ijobiy foydalanuvchi tajribasini ta’minlash uchun oxirgi foydalanuvchilarning ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Potensial foydalanuvchilarni foydalanuvchi testlari, fikr-mulohazalarni to‘plash va takroriy takomillashtirish orqali dizayn jarayoniga jalb qilish ularning kutganlariga javob beradigan yechimlarni yaratishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Jumladan, turizmga innovatsiyon texnologiyalar mavzusida ko‘plab olimlar va amaliyotchilar tadqiqotlar olib borgan va kitoblar, maqolalar chop etishgan. Quyida shu olimlar va amaliyotchilarni ko‘rib chiqamiz.

1. **Dimitrios Buxalis:** U turizm professori va Bornmut universitetida eTourism laboratoriyasi direktori. Uning tadqiqotlari turizmda innovatsion texnologiyalarni, jumladan, aqlli turizm yo‘nalishlari, kengaytirilgan reallik, robototexnika va sun’iy intellekt kabi mavzularni qo‘llash va ta’siriga qaratilgan.
2. **Ulrike Gretzel:** U Surrey universitetining mehmondo‘stlik va turizm menejmenti fakulteti professori. Uning ilmiy qiziqishlari texnologiya takomillashtirilgan turizm tajribasi, sayohatdagi ijtimoiy media va aqlli turizm yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.
3. **Daniel Fesenmaier:** Florida universitetining turizm, dam olish va sport menejmenti kafedrasi professori. Uning tadqiqotlari turizm marketingi va menejmentida axborot texnologiyalaridan foydalanishga, jumladan, maqsadli veb-saytlar, onlayn sharhlar, mobil ilovalar va virtual haqiqat kabi mavzularga qaratilgan.
4. **Juxo Pesonen:** Sharqiy Finlyandiya universiteti Turizm tadqiqotlari markazining katta ilmiy xodimi. Uning ilmiy qiziqishlari orasida turizmda raqamlashtirish, aqlli turizm yo‘nalishlari, texnologik platformalar orqali birgalikda yaratish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish kiradi.
5. **Zheng Xiang:** Pensilvaniya shtat universiteti mehmondo‘stlikni boshqarish fakultetining dotsenti. Uning tadqiqoti mehmondo‘stlik va turizm sohalarida texnologiyalarni joriy etishga, jumladan, mobil ilovalar, ijtimoiy media marketingi, onlayn obro‘ni boshqarish va katta ma’lumotlar tahlili kabi mavzularga qaratilgan.

Bu olimlar sayyohlik tajribasini oshirish va destinatsiyalarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni qanday qo‘llash mumkinligini tushunishimizga katta hissa qo‘shdilar.

Innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish turistlar uchun ham, turizm mutaxassislari uchun ham tegishli tayyorgarlik va ta’limni talab qiladi. O‘quv dasturlari sayyohlar o‘zlarining sayohat tajribasi davomida yangi texnologiyalarga asoslangan xizmatlar yoki ilovalardan samarali foydalanishlari uchun raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Xuddi shunday, turizm mutaxassislari ushbu texnologiyalarni samarali ishlatish va saqlash bo‘yicha treningga muhtoj.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizmda texnologiyalardan tobora ko‘proq foydalanish bilan ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muhim muammolarga aylandi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish sayyohlar uchun ham, sayyohlik biznesi uchun ham maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qat’iy choralarni o‘z ichiga olishi kerak. Sayyohlarning ishonchini saqlab qolish va ularning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga, shifrlash usullariga va xavfsiz saqlash tizimlariga rioya qilish ta’minlanishi kerak.

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda ularning barqarorlikka ta’sirini hisobga olish juda muhimdir. Uglerod chiqindilarini kamaytirish yoki resurslarni iste’mol qilishni minimallashtirish kabi barqaror amaliyotlarni targ‘ib qiluvchi texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalarning uzoq muddatli ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelishini ta’minlash uchun baholanishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. **Bozor talabi:** Turizm sohasida innovatsion texnologiyalarga aniq bozor talabi bo‘lishi kerak. Bu texnologiyaga ehtiyoj bor-yo‘qligini va mijozlar uni qabul qilishga tayyormi yoki yo‘qligini aniqlash uchun bozor tadqiqotlari va tahlillari orqali aniqlanishi mumkin.
2. **Muvofiqlik:** innovatsion texnologiya turizm industriyasidagi mavjud infratuzilma, tizimlar va jarayonlarga mos kelishi kerak. Uni joriy operatsiyalarga integratsiya qilish uchun katta o‘zgartirishlar yoki investitsiyalar talab qilinmasligi kerak.
3. **Iqtisodiy samaradorlik:** Innovatsion texnologiyalarni joriy etish turistik korxonalar uchun aniq xarajatlarni ta’minlashi kerak. U xarajatlarni kamaytirishi, samaradorlikni oshirishi yoki investitsiyalarni oqlaydigan tarzda mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashi kerak.

4. **Foydalanuvchi uchun qulaylik:** Innovatsion texnologiya turistik industriyada ham xodimlar, ham mijozlar uchun qulay va foydalanish uchun qulay bo‘lishi kerak. Ishlash uchun keng ta’lim yoki texnik ko‘nikmalar talab qilinmasligi kerak.
5. **Masshtablilik:** texnologiya kengayish potentsialiga ega bo‘lishi kerak, ya’ni u o‘z samaradorligini yo‘qotmasdan turizm sanoatining bir nechta joylari yoki korxonalarida osongina kengaytirilishi yoki takrorlanishi mumkin.
6. **Xavfsizlik va maxfiylik:** Turizmda joriy etilgan innovatsion texnologiyalar biznes va mijozlarning xavfsizligi va shaxsiy hayotiga oid masalalarni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. U ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga muvofiq bo‘lishi va mijozlar ma’lumotlarining xavfsiz saqlanishi va boshqarilishini ta’minlashi kerak.
7. **Barqarorlik:** innovatsion texnologiyalarni joriy etish turizm sanoatidagi barqaror amaliyotlarga mos kelishi kerak. Bu atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish va mas’uliyatli turizm amaliyotlarini targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi.
8. **Manfaatdor tomonlarning ishtiroki:** Turizmda innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun turizm korxonalari, davlat idoralari, sanoat assotsiatsiyalari va mahalliy hamjamiyat kabi asosiy manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki va yordami bo‘lishi kerak.
9. **Infratuzilmaning mavjudligi:** Turizm sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash uchun ishonchli internet aloqasi, elektr ta’minoti va jismoniy infratuzilma [masalan, elektr transport vositalari uchun quvvatlash (zaryadlash) stansiyalari] kabi yetarli infratuzilma mavjud bo‘lishi kerak.
10. **Normativ-huquqiy baza:** Turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qo‘llab-quvvatlovchi me’yoriy-huquqiy baza muhim ahamiyatga ega. Muvofiqlikni ta’minlash, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday huquqiy yoki axloqiy muammolarni hal qilish uchun aniq ko‘rsatmalar va siyosatlar mavjud bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIF

Turizm industriyasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ko‘p foyda keltirishi mumkin, ammo muayyan shart-sharoitlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Tegishli infratuzilma, manfaatdor tomonlarning hamkorligi, foydalanuvchiga yo‘naltirilgan dizayn, o‘qitish va ta’lim, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik choralari va barqaror yondashuv turizm sektorida ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyasi va joriy etilishini ta’minlash uchun muhim omillardir. Ushbu shartlarni faol ravishda hal qilish orqali turizm sanoati mijozlar tajribasini yaxshilash va operatsion samaradorlikni oshirish uchun texnologiya yutuqlaridan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ–3514-sonli qarori “O‘zbekiston bo‘ylab sayyohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://www. unwto. org/sustainable-development
5. Dehqonov, B. R., “Ichki turizmni ta’riflashda bo‘lgan qarashlar va turizm shakllarini o‘z ichiga olgan bog‘liqliklar” Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. – №4–1(88), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2022-y. – 81-b.
6. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28–33.
7. Norchayev, A. N. “Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o‘zgarishlar va imkoniyatlar”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 1-son (2019).
8. Aliyeva M. T., Xo ‘jayev O‘. X., Norchayev A. N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006. – 214 b.

MINTAQAVIY INVESTITSION LOYIHALARNING JOZIBADORLIGI TAHLILLARI MASALALARI

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich
Farg‘ona Politexnika Instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i. f. n.

Annotatsiya: Maqolada investitsiya loyihalarining tahlil etish muhimligi asoslangan, inflyatsiya jarayonlari va tavakkalchilik nuqtayi nazaridan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishning nazariy va uslubiy masalalari bayon etilgan. Mintaqaviy rivojlanish dasturlari bilan bog‘liq investitsiya loyihalarini baholash usullari, ularni tahlil qilish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya loyihalari, loyihalarni tahlil qilish turlari, iqtisodiy jozibadorlik, mintaqaviy rivojlanish dasturlari.

Abstract: The article substantiates the importance of analyzing investment projects, describes the theoretical and methodological issues of analyzing the economic efficiency of investment projects from the point of view of inflationary processes and risk. Methods for evaluating investment projects related to regional development programs, the features of their analysis are considered.

Key words: investment projects, types of project analysis, economic attractiveness, regional development programs.

Аннотация: В статье обоснована важность анализа инвестиционных проектов, описаны теоретические и методологические вопросы анализа экономической эффективности инвестиционных проектов с точки зрения инфляционных процессов и риска. Рассмотрены методы оценки инвестиционных проектов, относящихся к программам регионального развития, особенности их анализа.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, виды анализа проектов, экономическая привлекательность, программы регионального развития.

KIRISH

Iqtisodiy adabiyotlarda nisbatan yaqinda “investitsiya” atamasi keng qo‘llanila boshlandi va mashhurlikka erisha boshladi. Shuning bilan bir qatorda globallashuv jarayonlarining rivojlanishi, integratsiya aloqalarining kengayishi “investitsiya” tushunchasini bir qator yangi ma’nolar bilan to‘ldirdi va faoliyatning turli sohalarida qo‘llanila boshlanishiga asos bo‘ldi. “Investor” tushunchasi omonatchi, “investitsiya” esa kapital qo‘yilmalarni joylashtirish sifatida talqin qilinadi. Investorning faoliyati har xil turdagi aktivlarga resurslarni investitsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ularni sotib olish uning asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarurdir. Daromadlilik darajasini oshirish uchun investor vaqtincha bo‘sh resurslarni daromad keltiradigan, lekin asosiy faoliyatda qatnashmaydigan aktivlarning har xil turlariga investitsiya qilishi mumkin.

Investor (kapital egasi) nuqtayi nazaridan investitsiya qilishning mohiyati “ertaga” olinadigan foyda uchun “bugun” olinadigan foydadan voz kechishdir. Ushbu turdagi operatsiyalar bank tomonidan kredit berishga o‘xshaydi. Shunga ko‘ra, kapitalni uzoq muddatli investitsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun u yoki bu darajada ikkita asosiy taxminni tasdiqlovchi ma’lumotlarga ega bo‘lish kerak:

- investitsiya qilingan mablag‘lar to‘liq qoplanishi kerak;
- investitsiya qilingan mablag‘lar natijasida olingan foyda miqdori ushbu foydadan foydalanishdan vaqtinchalik voz kechish imkonini berishni, shuningdek, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavflarni qoplash uchun yetarli darajada bo‘lishi kerak.

Binobarin, investitsiya qarorini qabul qilish muammosi – bu rejaning mazmuni va uni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan oqibatlari kutilayotgan natijaga qanchalik mos kelishi nuqtayi nazaridan taklif etilayotgan voqealarni rivojlantirish rejasini baholash va shu asosda investitsiya loyihasini ishlab chiqish [1].

Investitsion loyihalarning shakllari va mazmuni juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: yangi korxona qurish rejasidan, ko‘chmas mulkni sotib olishning maqsadga muvofiqligini baholashgacha. Barcha holatlarda, investitsiya boshlangan paytdan va loyihaning foyda keltira boshlagan payti o‘rtasida vaqt omili mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli ularning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga, ishlab chiqarish va aholi bandligi hajmiga ta’sirida, alohida hududlar va iqtisodiy faoliyat sohalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi tarkibiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan investitsiyalarning jismoniy hajmi bilan belgilanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, investitsiyalarning taxminan har 3% o‘sishi YaIMning 1% o‘sishini anglatadi [2].

Jahon iqtisodiyotida integrasion jarayonlar, globallashuv ko‘lamlarining ortib borishi va pirovard natijada iqtisodiyot tarmoqlariga investisiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish muammolari bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda bir qator iqtisodchi olimlar turli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Jumladan, xorijlik olimlardan Zvi Bodi, Aleks Keyn, Alan Markus, K. R. Makkonnell i S. L. Bryu, T. K. Rutkauskas [3–5] va MDH mamlakatlari olimlaridan A. Y. Kovalevskaya, L. I. Yuzvovich, S. A. Degtyarev, Y. G. Knyazeva va boshqalar [6–7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. V. Vaxabov, G. X. Razikova, Z. Sabirova, D. Y. Xo‘jamqulova va boshqalarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin [8–9].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarini e’tiborga olgan holda, bugungi kunda investision faoliyat, uni mintaqalar darajasida faollashtirish, jalb etish va moliyalashtirish masalalari hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy muammolarini yetarli darajada va kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni olib borish talab qilinmoqda. Bular esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning oldiga qo‘yilayotgan yuqori sur’atlarda rivojlanish, innovasion rivojlanishni investisiyalashning asoslarini takomillashtirish bo‘yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, investitsiya jarayonlarini boshqarish muammolariga bag‘ishlangan ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va guruhlash, tarixiylik va mantiqiylik yondashuvlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo iqtisodiyotida kechayotgan siyosiy jarayonlar hamda kuchli raqobat sharoitida savdo va investisiya oqimlari yo‘nalishlari tez o‘zgarib bormoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli ularning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga, ishlab chiqarish va aholi bandligi hajmiga ta’sirida, alohida hududlar va iqtisodiy faoliyat sohalarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi tarkibiy o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, mamlakatimizda “agar 2016-yilda o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investisiyalar va kreditlar 1197,7 mln. dollar miqdorida bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 10037,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Birgina joriy yilning 1-choragida 2300,8 mln. AQSH dollari miqdorida chet el investisiyalari jalb etildi” [10].

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining sakkizinchi moddasiga muvofiq “Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir.

Barpo etilishi va foydalanilishi qonunchilikda belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablariga va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya qilish taqiqlanadi” [11].

Shuningdek, mazkur qonunning to‘qqizinchi moddasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari – rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma’muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir” [11].

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish maqsadida investitsiya resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha investitsiya jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning eng maqbul variantini topishdan iborat. Investitsiyalar qator muhim funksiyalarni bajaradi, iqtisodiyotning o‘sishini belgilaydi, ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ya’ni boshqacharoq aytganda, investitsiyalar foyda (daromad) olish maqsadida xususiy yoki davlat kapitalining milliy yoki xorijiy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli qo‘yilmasi hisoblanadi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi, ularsiz har qanday davlat iqtisodiyotining va xususan, mintaqaviy iqtisodiyotning normal rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mintaqaviy miqyosda investitsiyalar takror ishlab chiqarishni kengaytirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, mahalliy mahsulotlar sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlash, hudud iqtisodiyotini

tarkibiy o‘zgartirish va uning barcha tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish, sanoat uchun zarur moddiy baza va xomashyo resurslarini yaratish siyosatini amalga oshirishning asosi hisoblanadi. Ular korxonalarning normal ishlashini, barqaror moliyaviy holatini va tadbirkorlik subyektlarining foydasini maksimal darajada oshirishni ta’minlash uchun zarurdir. Investitsiyalarsiz: ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta’minlash, asosiy fondlarning eskirishi va jismoniy eskirish oqibatlarini bartaraf etish, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va boshqa korxonalarning aktivlariga investitsiya kiritish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda o‘ziga xos muammolar paydo bo‘ladi.

Mintaqaviy darajadagi investitsiyalar quyidagilar uchun asos bo‘ladi:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini amalga oshirish;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, hududiy, demak, mahalliy mahsulotlar sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlash;
- ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va hududlarning tarmoq infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish;
- hududning zarur ishlab chiqarish tuzilmasini yaratish;
- ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishsizlik bilan bog‘liq muammolarni yumshatish yoki kamaytirish;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish va boshqalar.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida korxonalar, turli biznes darajalari vakillarining o‘zlari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanishning eng samarali usullarini izlashlari kerak. Bunday sharoitda investitsiyalarni qabul qiluvchi tomonlar, jumladan, mintaqaviy hokimiyatlar uchun birinchi navbatda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini tanlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan iqtisodiy dasturlardan kelib chiqib, investitsiya dasturlari shakllantiriladi, loyihalar amalga oshirilishining ahamiyati va ustuvorligi darajasiga ko‘ra saralanadi. Ayniqsa, bu ishlab chiqarish ijtimoiy va boshqa tuzilmalarning rivojlanish darajasi sezilarli darajada farq qiladigan hududlar uchun muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun investitsiya qarorlarining sifati va investitsiya yo‘nalishlarining asosliligi to‘g‘ri va samarali o‘tkazilgan investitsiya tahlillariga bog‘liq.

Investitsion loyihalarni tahlil qilish har bir mintaqa uchun alohida ishlab chiqilgan texnik, texnologik, ijtimoiy va boshqa loyihalarga investitsiya qilishning mumkin bo‘lgan variantlarini solishtirish va aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirish dasturlarini samarali amalga oshirish uchun ko‘rib chiqilayotgan qarorlar bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar to‘plamini puxta professional tahlil qilish va hududlarning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda investitsiya loyihalari bo‘yicha mas’uliyatli strategik qarorlar qabul qilish ayniqsa muhimdir. Loyihaviy qarorlarni asoslash uchun loyiha tahlili xarajatlar va natijalarni taqqoslash asosida loyihalar samaradorligini baholash uchun uslubiy vositalar to‘plami sifatida ishlatiladi. Bunday tahlilning tartibi va usullari muammoni hal qilishning muqobil variantlarini – dizayn va investitsiyalarni ilgari surishga, ularning har biri uchun noaniqlik darajasini aniqlashga va ma’lum ishlash mezonlari bo‘yicha taqqoslashga qaratilgan.

An’anaviy ravishda investitsiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- **real (to‘g‘ridan to‘g‘ri) investitsiyalar** – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi korxonalarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga xususiy yoki davlat kapitalining kiritilishi.
- **moliyaviy (portfel) investitsiyalar** – uzoq muddatli moliyaviy aktivlarga kapital qo‘yilmalar – xususiy kompaniyalar yoki davlat tomonidan chiqarilgan aksiyalar, pay ulushlari, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlari.
- **intellektual investitsiyalar** – patentlar, lisenziyalar, nou-xaularni olish, ilmiy ishlanmalarni o‘tkazish, mutaxassislarni kurslarda tayyorlash, tajriba o‘tkazish.

Loyihalarning xilma-xilligiga qaramay, ularni tahlil qilish odatda umumiy sxema bo‘yicha amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

1. Dastlabki tahlil.
2. Moliyalashtirish manbalari bilan kelishilgan texnik-iqtisodiy asoslash.
3. Loyiha samaradorligini joriy baholash.

Tanlangan ko‘rsatkichlar asosida loyihaning dastlabki tahlili amalga oshiriladi. Buning uchun odatda quyidagi ekspert tizimi qo‘llaniladi:

birinchi bosqich – loyihaning muvaffaqiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash;
ikkinchi bosqich – omillar ustuvorlikning kamayishi tartibida joylashtiriladi;
uchinchi bosqich – sanab o‘tilgan omillarning har birining darajasini baholash. Barcha omillarning darajalari yig‘indisi birga teng bo‘lishi kerak;
to‘rtinchi bosqich – bitta loyihaning loyihalari yoki variantlari har bir baholash omillari (mezonlari) bo‘yicha baholanishi kerak. Ushbu bosqichda loyihaga ta’sir etuvchi har qanday omillar uchun maksimal 100 bal, minimal 0 ball olish mumkin;

beshinchi bosqich – har bir omil ta'sirining ekspert bahosi har bir omilning ahamiyat vaznini (og'irligini) har bir variant uchun ushbu omilning ta'sir etish bahosiga ko'paytirish orqali olinadi. Loyiha variantlari ustuvorligining integral ekspert bahosi barcha nuqtalarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Agar loyiha qo'shimcha ko'rib chiqishga loyiq bo'lsa, loyihaning texnik, moliyaviy, iqtisodiy, tijorat, ijtimoiy, ekologik, xavf tahlili va institusional maqsadga muvofiqligini baholovchi maxsus bo'limlarni o'z ichiga olgan keyingi bosqichga o'tish mumkin.

Loyihani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun loyihaning butun hayotiy sikli davomida uning barcha jihatlarini ko'rib chiqish kerak.

Investitsiya loyihasini umumiy baholashning ma'nosi qaror qabul qiluvchiga investitsiyaning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradigan loyiha haqida barcha ma'lumotlarni taqdim etishdir. Investitsion loyihaning jozibadorligining umumiy mezonlari qanday? Bu mezonlar ikkiga bo'linadi: qisqacha ularni "moliyaviy to'lov qobiliyati" va "samaradorlik" deb ta'riflash mumkin.

Bu ikkala yondashuv ham bir-birini to'ldiradi. Birinchi holda, loyihani amalga oshirish jarayonida uning likvidligi (to'lov qobiliyati) tahlil qilinadi. Ikkinchi holda, investitsiya qilingan mablag'larning xarid qiymatini saqlab qolish va ularning o'sishining yetarli sur'atlarini ta'minlash uchun loyihaning potensial qobiliyatiga e'tibor qaratiladi [12].

Mintaqaviy darajada investitsiya faoliyatini boshqarish va tahlil qilish potensial investorlar uchun ham, mintaqaviy hokimiyat organlari uchun ham muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Boshqaruv, aniqrog'i, investitsiya faoliyatini birgalikda boshqarish quyidagi vazifalarni hal etilishini ta'minlashi kerak:

1. Samarali investitsiya faoliyati orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlash. Bu vazifa ishlab chiqilgan hududiy rivojlanish dasturlariga muvofiq hal etiladi.
2. Investorni ham (foydani ko'paytirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va shunga o'xshash), hududlarni ham (yangi texnologiyalarni jalb qilish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy byudjetlarga soliq imtiyozlari va boshqalar) qo'yilgan vazifalarni investitsiya faoliyati evaziga hal etilishini ta'minlash.
3. Investitsiyalar bilan bog'liq risklarni minimallashtirish.
4. Mintaqaviy dasturlar doirasida investitsiya faoliyati jarayonida investorlarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini oshirish. Investitsion faoliyat moliyaviy resurslarni keng miqyosda va, qoida tariqasida, uzoq muddatga yo'naltirish bilan bog'liq. Bu joriy xo'jalik operatsiyalarida investorlarning to'lov qobiliyatining pasayishiga, sheriklar, davlat byudjeti va ularning boshqa turlari oldidagi to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslikka olib kelishi mumkin va pirovard natijada bankrotlik holati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi mumkin. Shu bois, hududlar bo'yicha investitsiya dasturlarini ishlab chiqishda hududiy hokimliklar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda turli sharoitlarda, jumladan, fors-major holatlarida investorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetarli tashkiliy-moliyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turli imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishlari zarur.
5. Hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirishni jadallashtirish yo'llarini birgalikda belgilash. Investitsion dasturlarni amalga oshirishning muhim elementlaridan biri investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat qilish funksiyasini hisoblanadi. Investitsion loyihalarni boshqarishda nazorat qilish funksiyasi belgilangan maqsadlarga erishish uchun boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonidagi o'zgarishlarni monitoring qilish, baholash, nazorat qilish va tahlil qilish tizimini o'z ichiga oladi. Nazorat funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun loyihaning dastlabki bosqichlarida boshqaruv tizimini tashkil etish lozim bo'ladi. Samarali nazorat tizimini yaratishning asosiy tamoyillari aniq rejalarning mavjudligi, ochiq va aniq hisobot tizimi, real ko'rsatkichlar va tendensiyalarni tahlil qilishning va zarur hollarda samarali ta'sir choralarini qo'llash tizimini o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakuniy o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mintaqaviy investitsiya siyosati davlatning investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida mintaqalarning investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha maqsadli faoliyatini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, ularning aksariyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelish imkonini beradi va pirovardida ularning barchasi nafaqat investitsiya faoliyatiga, balki butun mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy darajadagi investitsiyalarni boshqarish yoki investitsiya menedjmenti o‘z funksiyalarini samarali amalga oshirishi kerak, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- har bir investitsiya dasturini amalga oshirishning yuqori sur’atlari butun mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga yordam berishi kerak;
- investitsiya dasturini amalga oshirish muddatini qisqartirish investitsiyalardan foyda ko‘rinishidagi qo‘shimcha pul oqimlarini shakllantirish tezligini belgilaydi;
- investitsiya dasturlarini amalga oshirishni jadallashtirish kredit resurslaridan foydalanish shartlarini qisqartiradi;
- investitsiya dasturlarini tezkorlik bilan amalga oshirish investitsiya bozoridagi noqulay o‘zgarishlar bilan bog‘liq investitsiya risklarini kamaytirishga yordam beradi.
- investorlar uchun investitsiya faoliyatining strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- hududlarning investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- individual real loyihalarning Investitsion jozibadorligini izlash va baholash hamda ulardan eng samaralisini tanlash;
- investitsiya portfelini shakllantirish va uni rentabellik, risk va likvidlik mezonlari bo‘yicha baholash;
- investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirishni joriy rejalashtirish va operativ boshqarish;
- investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirish monitoringini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеева Т. В. Интернет – курс по дисциплине “Проектный анализ”, - Москва: 2010, 142 с.
2. Инвестиционный анализ: краткий курс лекций для студентов направления подготовки 38. 03. 02 Менеджмент/ Кондак В. В., Зеленкина Е. В. // ФГБОУ ВО Саратовский ГАУ. – Саратов, 2016. – 30 с.
3. Зви Боди, Алекс Кейн, Алан Маркус. Принципы инвестиций. Essentials of Investments. – М.: “Вильямс”, 2004. – 984 с.
4. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы проблемы и политика. – М.: Республика, 1992. – Т. 2. – С. 388.
5. Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций : учебное пособие / Т. К. Руткаускас [и др.] ; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т. К. Руткаускас. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. – 316 с.
6. Ковалевская А. Ю. Анализ инвестиционных проектов. Учебное пособие. – Иркутск: издательство БГУ, 2018. – 118 с.
7. Юзвович Л. И., Дегтярев С. А., Князева Е. Г. Инвестиции. Учебник. - Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та. 2018. - С. 259.
8. Вахабов А. В. Разыкова Г. Х. Модернизация экономики. Учебное пособие. - Т.: “Iqtisod-moliya”, 2014. - 200 с.
9. Сабирова Л. Ш., Хужамкулов Д. Ю. Инвестиция. Учебное пособие. – Т.: Экономика и финансы, 2019. – 254 с.
10. Sh. Nazarov. Investitsiya – mamlakat taraqqiyotining bosh manbayi, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 13-iyul, №143 (8456).
11. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr, Toshkent sh.: O‘RQ–598-son.
12. Davlyatshayev A. A. O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiya risklarini boshqarish samaradorligini oshirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. –2023. -№3 (3). –78–87-betlar.

YASHIL IQTISODIYOTNING TIJORAT BANKLARIDAGI AHAMIYATI VA ULARNING RAQAMLASHUVI

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi
Bank ishi va investitsiyalar kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda an'anaviy iqtisodiy tizimni o'rnini jadal sur'atlar bilan egallayotgan yashil iqtisodiyotning tijorat va raqamli banklarga, shuningdek, investitsion salohiyatga ta'siri o'rganilgan. Xorij tajribasida yashil iqtisodiyotning tutgan o'rni keltirilgan. O'zbekiston iqtisodiy sektorida mazkur tizimning joriy etilishi bo'yicha takliflar berilgan. Yashil iqtisodiyotning raqamli banklar bilan o'zaro integratsiyalashuvi yoritilgan va xulosa keltirilgan. Shuningdek, bank sektoridagi yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar salmog'ini oshirish va ularning raqamlashuvini ta'minlash bo'yicha fikr yuritilingan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, integratsiya, raqamli bank, an'anaviy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, samaradorlik, yashil banklar, yashil energiya kreditlari.

Abstract: In this article is examined the impact of the green economy, which is rapidly replacing the traditional economic system, on commercial and digital banks, as well as on investment potential. The role of green economy in foreign experiences are given. Proposals have been made for the introduction of this system in the economic sector of Uzbekistan. The negative aspects of the mutual integration of the green economy with digital banks are highlighted and a conclusion is given. It was also discussed how to increase the weight of investments directed to the green economy in the banking sector and ensure their digitization.

Key words: green economy, integration, digital banking, traditional economy, economic development, efficiency, green banks, green energy loans.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние зеленой экономики, быстро заменяющей традиционную экономическую систему, на коммерческие и цифровые банки, а также на инвестиционный потенциал. Приведена роль зеленой экономики в зарубежном опыте. Внесены предложения по внедрению данной системы в экономический сектор Узбекистана. Выделены негативные аспекты взаимной интеграции зеленой экономики с цифровыми банками и дан вывод. Также обсуждалось, как увеличить вес инвестиций, направленных на зеленую экономику, в банковском секторе и обеспечить их цифровизацию.

Ключевые слова: зеленая экономика, интеграция, цифровой банкинг, традиционная экономика, экономическое развитие, эффективность, зеленые банки, зеленые энергетические кредиты.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, iqtisodiyotga klassik yondashuv asosida qarash yetarli emasligi yaqqol seziladi, ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tabiatni qurbon qilish o'rnini yangi tendensiyalar orqali uni qayta barpo etish egallamoqda. Bu shuni anglatadiki, maydonga "yashil iqtisodiyot" kirib keldi. Foyda olish uchun global iqtisodiy o'yin qoidalari o'zgarmoqda, ya'ni uch kuch: iqtisodiyot, jamiyat va tabiat birlashgan nuqtada barqarorlik vujudga kelmoqda. Shuning uchun ham yashil iqtisodiyot va uning tamoyillarini to'laqonli iqtisodiy sektorda aks ettirilishini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda.

Atrof-muhitning buzilishi va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini global miqyosda faqat jamoaviy iqtisodiy yechimlar oldini olishi keng tarqalgan. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va resurslarning kamayishi, jiddiy ekologik degradatsiyaga qarshi kurashish uchun yanada samarali, ekologik toza va resurslarni tejovchi texnologiyalarga tubdan o'tishni ifodalaydi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, shuningdek, milliy, mintaqaviy va xalqaro amalga oshirish rejalari ishlab chiqilganda, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va 2015-yildan keyingi rivojlanish kun tartibi maqsadlari o'rtasidagi o'ziga xos qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni ta'minlash imkoniyatini berib kelmoqda.

Yashil iqtisodiy tamoyillarni O‘zbekiston iqtisodiy tizimiga ham joriy etilishi zarurligini bir qancha muammolarda o‘z aksini topadi. Iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirish talab etiladi. Shu munosabat bilan iqlim o‘zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo‘naltirilgan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Demak, bugungi biznes va yangi loyihalarni amlaga oshirishda yashil iqtisodiyotni ananaviy iqtisodiyotning o‘rnini egallashi yuqori natijali maqsadlarga erishish kaliti hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda investitsion harakatlarni ham aynan yashil iqtisodiyotga tayangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir va bu o‘rinda bank sektori yuqori o‘rinni egallaydi. Investitsion shuningdek raqamli loyiha va maqsadlar uchun aynan banklarni qo‘llab-quvvatlash choralarini yashil iqtisodiyot sohasida amalga oshirishning ijobiy natijalari, tahlillari va bu chet el davlatlarida o‘z natijasini berayotganiligi quyida tahlillarimiz orqali yoritib beramiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot – ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatlarni birlashtirish orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. Bu iqtisodiy o‘sishni oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradigan iqtisodiy faoliyatni tashkil etish usulidir. Yashil iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib[2], ba’zida Yashil O‘sish (Green Growth) atamasi bilan ham birga ishlatiladi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bir necha o‘n yillar davomida mavjud bo‘lib kelganiga qaramasdan, u 2000–2010-yillardagi moliyaviy inqiroz va atorf-muhit degradatsiyasiga oid ortib borayotgan muammolarga yechim sifatida ommalashdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ommalashtirishda, xususan, 2011-yilda e’lon qilingan “Yashil iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va kambag‘alikka barham berish yo‘llari” ma’ruzasi orqali muhim ro‘l o‘ynadi. UNEP xulosasiga ko‘ra, inson farovonligi, ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavf va tanqislikni sezilarli darajada kamaytirish usuli – bu yashil iqtisodiyot. Shundan buyon yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ko‘plab hukumatlar, davlatlar va biznes egalari tomonidan barqaror rivojlanishga yordam berish usuli sifatida qabul qilinib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda loyihalarni moliyalashtirishning turli manbalari mavjud. Masalan, A. Y. Nikulina loyiha (Arktikada neft va gazni rivojlantirish) uchun quyidagi investitsiya manbalarini ko‘rib chiqadi:

- kompaniyaning o‘z mablag‘lari;
- o‘z mablag‘lari konsorsiumi(tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi) a’zolari mablag‘lari;
- davlat mablag‘lari, kompaniyaning o‘z mablag‘lari bo‘yicha;
- mahsulot taqsimoti to‘g‘risidagi shartnoma asosida, qarz mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar;
- obligatsiyalar chiqarish[3].

Xalqaro bank hamjamiyati, iqtisodiy rivojlanish manfaatlarini integratsiyalashuv jarayonida ishtirok etish va ekologik sanitariya asosida faoliyat yuritish tobora kuchayib bormoqda. Bu investitsion kreditlashning kengayishida o‘z ifodasini topmoqda, ya’ni ekologik harakatlarga yo‘naltirilgan tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ekologik muammolar va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishning muayyan istiqbollari bilan bog‘liq ekologik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishda bank ishtiroki rivojlanib bormoqda[4].

Ba’zi nazariyotchilarning fikriga ko‘ra, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish konsepsiyasining barcha yutuqlarini o‘z ichiga oladi – bu yutuqlar umumiy inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tengsizlikni va ekologik ofatlarning soni va hajmini kamaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlar bilan kengaytiriladi (Szabo, 2016).

Innovatsion sohadagi texnik, texnologik va iqtisodiy tadqiqotlar ishlab chiqarishdagi mas’uliyatsiz xatti-harakatlarning ta’sirini tahlil qilish va oqibatlarini oldindan ko‘rish uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Buning ko‘plab sabablari bor: tuproqning degradatsiyasi, iqlim o‘zgarishi, GHG

1 https://lex. uz/docs
2 http://m. xabar. uz/uz/tahlil
3 Nikulina, A. Y. Evaluation and Selection of investment solution for oil and gas development in the Arctic. Arctic: Ecology and Economy. Research and Information-Analytical Magazine, 2(22). 2016. – P. 51–55.
4 Impact investment of project financing: opportunity for banks to participate in supporting green economy: Khaliun Ganbat, Inessa Popova, Ivan Potravnyy.

(Greenhouse gas emission – issiqxona gazlarini chiqarish) emissiyasi va kelajakka yoki hatto global darajada omon qolishga tahdid solishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa faoliyat (Golushin va boshq., 2012)[5].

Dekarbonizatsiya, moliya va bank muassasalari tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tishning birinchi va eng muhim jihati energiya samaradorligi hisoblanadi. Energiya samaradorligi banklarning raqobatbardoshligi va rentabelligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga tarmoqqa qo‘shimcha energiya ishlab chiqarish quvvatlarini o‘rnatish bosimini minimallashtiradi yoki oldini oladi (Xalqaro moliya korporatsiyasi, 2016). Rivojlanayotgan bozorlardagi korxonalar yanada samaradorlik standartlarini joriy etish bilan jihozlar va jarayonlarni modernizatsiya qilish va takomillashtirishni davom ettiradilar, bu jarayon katta miqdordagi kapitalni talab qiladi. Shunday qilib, bu banklar uchun ular investitsiya qilishlari mumkin bo‘lgan imkoniyatni taqdim etadi (Lisin va boshqalar, 2015)[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini tahlil qilishda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda daromadiga ko‘ra dunyo mamlakatlarida bank tizimining rivojlanish darajasi va unda aholini bank xizmatlari bilan qamrab olganlik holatiga to‘xtalib o‘tamiz. Bunda jahon iqtisodiyotidagi (WLD) holat, yuqori daromadli davlatlar (HIC), o‘rta daromadli davlatlar (MIC), o‘rtadan yuqori daromadli davlatlar (UMC) hamda o‘rtadan quyi daromadli davlatlar (LMC) guruhlaridagi holatlar tahlil qilingan. Tahlil 2014–2021-yillarni qamrab olgan holda, shu davrdagi ayrim yillarni ko‘rib chiqdik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot va iqtisodiyotning boshqa yo‘nalishlari integratsiyalashuvi barqaror rivojlanish omili ekanligini inobatga olgan holda, O‘zbekiston hududida ham yashil iqtisodiyot konsepsiyalarini amaliy qo‘llash bir qator sabablarga ko‘ra zarur hisoblanadi:

- xalq xo‘jaligida iste’mol qilinadigan energiyaning katta qismi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarilishi;
- ushbu resurslarning cheklangan ta’minoti;
- sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi;
- suv tanqisligi;

Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning ortishi.

Mustaqillik va islohotlarning o‘tgan o‘ttiz yili ichida O‘zbekiston Orolbo‘yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o‘rmonchilik choralari tufayli iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Atrof-muhit bo‘yicha amaldagi milliy rejalar hamda maqsadlar past uglerodli va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning markaziy elementlari bo‘lib qolmoqda. Ammo sug‘orish va ichimlik suvi tanqisligi, ishonchli elektr ta’minoti bilan bog‘liq muammolar hamon mavjud, bunga so‘nggi paytlarda yuz bergan keng ko‘lamli elektr uzilishlari, misli ko‘rilmagan qum va chang bo‘ronlari dalil bo‘la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ushbu muammolar O‘zbekistonning “yashil” kelajagini ta’minlash uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi[7].

Yashil iqtisodiyotni bevosita banklarga bog‘liq holda o‘rganish hozirgi davr talabi ekanligini jahon va yurtimiz tajribasida ham ko‘rishimiz mumkin. Avvalo yashil bank qanday mexanizmlar asosida ishlashiga nazar soladigan bo‘lsak, yashil bank – bu moliyalashtirishning yangi tendensiyasi bo‘lib, unda banklar barqaror texnologiyalar va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi tashabbuslarga investitsiya strategiyalarini o‘zgartiradilar. Ushbu moliyaviy institutlar toza energiya va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashuvchi barqaror bank tashabbuslariga bag‘ishlangan. Iqlim bo‘yicha Parij kelishuvidan keyin u banklar orasida keng ommalashdi va shundan beri qayta tiklanadigan energiya manbalariga, o‘rmonlarni qayta tiklash loyihalariga va uglerod gazini qoplashga investitsiyalarni rag‘batlantirishga yordam bera boshladi.

Yashil iqtisodiyot va banklarning integratsiyasi moliyaviy amaliyot va qarorlarga ekologik barqarorlikni kiritishni o‘z ichiga oladi. Bunga turli usullar yordamida erishish mumkin, jumladan:

5 https://cyberleninka.ru/article/n/relationship-between-sustainable-development-and-green-economy-emphasis-on-green-finance-and-banking/viewer

6 Zlyvko, O., Lisin, E., Rogalev, N., and Kurdiukova, G. Analysis of the concept of industrial technology platform development in Russia and in the EU // International Economics Letters, 3(4). 2014. – P. 124–138. https://doi.org.

7 “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda “Yashil” O‘sish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. Jahon banki: Washington D. C.

- **Yashil moliyalashtirish:** Banklar barqaror loyihalar va tashabbuslarga e'tibor qaratadigan korxonalar va jismoniy shaxslarga kreditlar, grantlar va boshqa moliyalashtirish shakllarini taqdim etishi mumkin. Bu qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya samaradorligini oshirish, barqaror qishloq xo'jaligi va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.
- **Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG – Environmental, Social, and Governance) investitsiyalari:** Banklar, shuningdek, investitsiya qarorlariga ESG omillarini kiritishlari mumkin, bu investitsiyalarning atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirini, shuningdek, ular sarmoya kiritgan kompaniyalarning korporativ boshqaruv amaliyotini hisobga oladi.
- **Barqaror bank amaliyotlari:** Banklar o'z operatsiyalarida uglerod izlarini (carbon footprint) kamaytirish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish va chiqindilarni minimallashtirish kabi barqaror amaliyotlarni ham qo'llashlari mumkin.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot va banklarning integratsiyasi barqaror rivojlanishni ta'minlash, iqlim o'zgarishini yumshatish va yanada ma'suliyatli va axloqiy moliyaviy sektorni rivojlantirishga yordam beradi, ya'ni uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish imkonini beradigan adolatli bank amaliyotini o'rnatishdir.

Banklar dastlab moliyaviy natijalarni tahlilini yuritgan bo'lsa, endi strategiya va tahlil usullari o'zgarmoqda. Ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarning tahlili eng zarur bo'lib bormoqda va asosiy maqsad jamiyatga, atrof muhitga zarar yetkazmagan holda moliyaviy barqarorlikka erishish, ya'ni yashil banklar ko'lamini oshirish zarur. Shuning uchun ham hozirda ko'plab banklar atorf-muhit bilan bo'lgan aloqaga urg'u berib kelmoqda. Buni quyida bir nechta banklar orqali ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Yevropa investitsiya bankini (EIB) oladigan bo'lsak, u Yevropa Ittifoqidagi uzoq muddatli kredit berishga mo'ljallangan, iqlim bo'yicha barqarorlikka katta e'tibor qaratib kelayotgan va global miqyosda qayta tiklanadigan energiyaga bog'liq loyihalarni moliyalashning eng yirik ko'p tomonlama ta'minlovchi tashkilot hisoblanadi.

Quyidagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkinki, Yevropa investitsiya bankining investitsiya paketi tabiatni asrash uchun yo'naltirilgan va bu esa atrof muhit, iqlim o'zgarishiga ijobiy ta'sir etadi. 2022-yilda investitsiyaning qariyb 58% ini aynan yashil iqtisodiyot rivoji uchun sarflanganligidan ko'rishimiz mumkinki, bu soha bo'yicha ijobiy natijalarga erishish mumkin.



2022-yilda YIB investitsiyalarining iqlim harakati va ekologik barqarorlikni ta'minlash loyihalariga yo'naltirilgan ulushi o'sdi[8].

- Iqlimga oid harakatlar uchun (35 milliard yevro)
- Ekologik barqarorlik uchun (15.9 milliard yevro)
- Iqlimga oid harakatlar va ekologik barqarorlikka ham foyda keltiradigan (14.3 milliard yevro)

Yana bir misol Macquarie Group (investitsiya banki) tarkibiga kiruvchi va shamol, quyosh va biomassa (o'simlik va ularning chiqindilaridan olinadigan tabiiy energiya manbayi) kabi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan Green Investment Group (GIG). GIG butun dunyo bo'ylab qayta tiklanadigan energiya bo'yicha 150 dan ortiq loyihalarga sarmoya kiritgan va qayta tiklanadigan energiya bo'yicha murakkab bitimlarni tuzish, ularni moliyalashtirish bo'yicha o'z tajribasi bilan tan olingan.

Tan olingan boshqa yashil banklar qatoriga Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki (JBIC), Yashil iqlim fondi (GCF) va Avstraliyadagi toza energiyani moliyalashtirish korporatsiyasi (CEFC) kiradi. Oxir oqibat, eng nufuzli yashil bank mintaqa, loyiha turi va bankning o'ziga xos yo'nalishi kabi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin.

8 https://www. eib.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



1-diagramma: Yashil bankning ishlash strukturasi[9]

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki, yashil bank bevosita xususiy sektor va hukumat bilan aloqani o‘rnatar ekan, bunda asosiy maqsadlardan biri tabiatni asrash va bu orqali daromadga erishishdir. Bu tamoyil orqali harakat qilish nafaqat tabiatga va bankka, balki investorlarga, ishsiz qatlamga shu bilan bir qatorda hukumatga foyda keltiradi.

Hozirgi kunda Jahon bankining 300 ga yaqin xizmat turlari aynan yashil iqtisodiyotga asoslanganini inobatga olgan holda aytish mumkinki, kelgusi yillarda yashil bank mahsulotlariga talab yuqoriga chiqishi kutilmoqda. Buni kelajakdagi potensial mijozlar, ya’ni yoshlar misolida ifodalash yanada osonroq. Ya’ni hozirgi kunda turli yashil tashabbuslar, yashil mahsulot va jarayonlar haqida so‘z yuritib, targ‘ib etib kelayotganlarning aksar qismi bu yoshlardir. Bu shuni anglatadiki, bevosita zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha ham ko‘nikmaga ega bo‘lish bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotning targ‘ibotchilari bo‘lgan yoshlar bu iqisodiyotga moliyaviy texnologiyalarni ham integratsiyalashuvini ta’minlab kelmoqda. Buni quyidagi misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin:

Starling bank – 4 qadam tamoyili asosida, bunda bank butunlay filialsiz, qog‘ozsiz faoliyati davomida Buyuk Britaniya o‘rmonlarini kesishga qarshi kurashgan holda, 2050-yilga kelib 1 trillion daraxtni qayta o‘stirish uchun “Trillion Trees” notijorat tabiatni muhofaza qilish tashkiloti bilan hamkorlik qildi va tavsiyanoma sxemasini taqdim etdi. Ushbu sxemaga ko‘ra, Starling bank mijozi bankni do‘stiga tanishtirganda va bu do‘st bankka qo‘shilsa, Trillion Trees sayyorani yashil qilish yo‘lida yangi daraxt ekadi. Boshqa tashabbuslarga kelsak, Starling, shuningdek, Qirollik botanika bog‘idagi 2021-yil yozgi “O‘simliklarning maxfiy dunyosi” dasturini qo‘llab-quvvatladi va 2021-yil iyul oyidan boshlab yashil transportdagi sa’y-harakatlarini tezlashtirishda Instavoltni amaliyotga joriy etishda tirgak bo‘ldi[10].

Nima uchun Starling bank daraxt ekishni tanladi degan savolga ular quyidagicha javob berishgan: “Daraxtlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda bizning eng yaxshi himoya vositalarimizdan biridir, chunki ular iqlim o‘zgarishiga olib keladigan karbonat angidridni o‘zlashtiradi”.

Atrof-muhitni muhofaza qilishni va’da qilgan yana bir bank – TreeCard. Ushbu bank o‘zining raqamli bank xizmatlari orqali sayyoramizni o‘rmonlarni qayta tiklashga sodiqligi bilan mijozlar e’tiborini tortgan, shu bilan birga sayyoraga mos yog‘och kartadan foydalandi. Bank foydasining 80% qismi o‘rmonlarni qayta tiklash loyihasiga yo‘naltiriladi. Bank butun dunyo bo‘ylab 120 milliondan ortiq daraxt ekkan Ecosia daraxt ekish qidiruv tizimi bilan hamkorlik qiladi.

Germaniyada joylashgan mobil bank platformasiga asoslangan Tomorrow bank o‘z mijozlariga kartaning badiiy dizaynidan tashqari, iqlimni muhofaza qilishga hissa qo‘shish imkoniyatini taklif qiladi. Tomorrow kartasi orqali to‘langan har bir yevro bilan ular 1 m^2 tropik o‘rmonni himoya qiladi. Ular buni qanday qilishadi? Mijozlar do‘konda yoki onlayn to‘lovni amalga oshirganda, do‘kon egasi bankingizga kichik tranzaksiya to‘lovini, Interchange to‘lovini to‘lashi kerak. Bank ushbu to‘lovning eng katta foizini o‘rmonlarni qayta tiklashni qo‘llab-quvvatlovchi loyihalarga sarflaydi, shuningdek, mijozlarga o‘zlarining kundalik to‘lovlarini to‘liq yevroga yaxlitlash imkoniyatini beradi, bu ularga iqlim foydasiga har kuni oz miqdorda xayriya qilish imkonini beradi. Mijozlar, shuningdek, ularning umumiy ta’sirini kuzatish va tushunish imkoniyatiga ega[11].

9 ResearchGate ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
10 https://www. starlingbank. com
11 https://www. fintechinsights. io/blog/6-green-banking-initiaves-inspire-action

Hozirgi kunda O‘zbekiston banklari ham yashil iqtisodiyot tarafdori bo‘layotganini ularning faoliyatida ham sezishimiz mumkin. Mamlakatimizda mavjud tijorat banklarining aksariyati yashil energiyaga tayangan kreditlarni imtiyozli ravishda berib kelmoqda: quyosh panellari, elektr avtomobillari uchun va shuningdek, yurtimizdagi “Yashil makon” keng jamoatchilik ishlarida ham faol.

O‘zbekistonda ilk bor O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan amalga tatbiq etilgan “Green Banking” loyihasini yaqqol misol tarzida olsak, bu loyiha 2021-yil “Astana” xalqaro moliya markazi tomonidan o‘tkazilgan “Green Finance Awards 2021” tanlovida bu loyiha yuqori baholanib “yilning eng yaxshi yashil investitsiya banki” mukofotini qo‘lga kiritdi. Ma’lumot uchun “ Green Finance Awards” mukofotining asosiy g‘oyasi yashil iqtisodiyotga o‘tish va butun dunyo bo‘ylab tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishdir.

Hozirgi kunda O‘zsanoatqurilishbank ATB o‘zining onlayn formatdagi “Green Banking” loyihasini tobora takomillashtirib bormoqda va buni bevosita onlayn tarzda bankning rasmiy saytida ko‘rishimiz mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, yashil bank va raqamlashtirishning o‘zaro integratsiyalashuvi istiqbollidir[12].

Demak, yuqoridagi xorij va mamlakatimiz tajribasini ko‘rar ekanmiz, raqamli bank yashil iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyatlidir. Raqamli banklarda yashil iqtisodiyot talablariga mos xizmat turlarini yaratish esa dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni keltirish mumkinki, bu xizmat turlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- **Yashil kreditlar berish:** quyosh panellari, ekologik uylarni ta’mirlash va sotib olish uchun;
- **Yashil loyihalarni moliyalashtirish:** jalb qilingan investitsiyalarni tabiat muhofazasiga xizmat qiluvchi faoliyatlarga sarf etish;
- **Mobil ilovalar yaratish:** 4 tomonlama foydaga erishish mumkin bo‘lgan ilova, ya’ni bu orqali aholiga, bank va hukumatga moddiy manfaat keltirsa, ekologiyaga ijobiy tomonga o‘zgarish olib keladi xuddi Tomorrow, Starling, TreeCard kabi banklar amalga oshirib kelagni kabi;
- **Sof ekologik mahsulotlardan foydalanish:** banklar o‘z kartochkalarini tabiiy ekologiyaga zararsiz homashyolardan foydalangan holda ishlab chiqish, bank faoliyati davomida qayta tiklanadigan energiya manbalari, quyosh, shamol kabilardan foydalanish yoki bank daraxtlarni kesib ishlab chiqariladigan qog‘ozlardan foydalanishdan voz kechishlari mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yashil banklar kelajak ekan, uni moliyaviy texnologiyalar bilan uzviy bog‘lash davr talabidir. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar bazasi, blokchain kabilardan foydalangan holda bank faoliyatiga kirib borish biroz mablag‘ va yuqori malakali xodimlarni talab qilsa-da, foyda oluvchi tomonlar ko‘lamini kengaytiradi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot, yashil bank va raqamlashtirishning har tomonlama integratsiyasi, ular faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish nafaqat moddiy manfaatga, balki ekologik va sog‘liqni saqlash tomondan ham birdek ijobiy o‘sishlarga olib keladi. Shuning uchun ham aynan O‘zbekiston hududida bu tizmining joriy etilishi, ya’ni yashil iqtisodiyotga raqamli bank texnologiyalari orqali kirib borish manfaatli ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, O‘zsanoatqurilishbank ATB kabi boshqa 30 dan ortiq tijorat banklari amaliyotida ham yashil bank tamoyillarining aks etishi jahon miqyosida hamda 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ijrosi bo‘yicha e’tiroflarga sabab bo‘ladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nikulina, A. Y. Evaluation and Selection of investment solution for oil and gas development in the Arctic. Arctic: Ecology and Economy. Research and Information-Analytical Magazine, 2(22). 2016. – P. 51–55.
2. Impact investment of project financing: opportunity for banks to participate in supporting green economy: Khaliun Ganbat, Inessa Popova, Ivan Potravnyy.
3. Zlyvko, 0., Lisin, E., Rogalev, N., and Kurdiukova, G. Analysis of the concept of industrial technology platform development in Russia and in the EU // International Economics Letters, 3(4). 2014. – P. 124–138.
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O‘zbekistonda “Yashil” O‘sish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. Jahon banki: Washington D. C.
5. https://lex.uz/docs
6. http://m.xabar.uz/uz/tahlil
7. https://cyberleninka
8. https://doi.org
9. https://www.eib.org
10. https://www.starlingbank.com
11. https://www.fintechinsights
12. https://www.sqb.uz/uz
13. ResearchGate ma’lumotlari

12 https://www.sqb.uz/uz/green-banking

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA “TOURISM 4.0” KONSEPSIYASINI JORIY ETISH MASALALARI

Yuldasheva Dilnoza Ulug‘bekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Jahonda turizm ko‘plab odamlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Aqlli turizm texnologiyalari turizmning barqaror rivojlanishiga va turistik mahsulot sifatini oshirishga yordam beradigan turli usullar va vositalarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Ular axborot texnologiyalari, energetika, transport va hokazolar sohasidagi innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Smart (raqamli) turizm uchun korxonalar tegishli choralarni ko‘rishlari, ya’ni zarur investitsiyalarni kiritishlari, byudjet ajratishlari, moliyalashtirishni yaratishlari va zarur kadrlar tayyorlashni tashkil etishlari kerak. inson resurslari. Zamonaviy sayyohlarning umidlarini qondirish va bozorda etakchi o‘rinni egallash uchun aqlli turizmga sarmoya kiritish zaruriyatga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, raqamli turizm, Turizm–4.0, turizm sanoati, sayyoh.

Abstract: Tourism has become an integral part of many people’s lives in the world. Smart tourism technologies are the combination of various methods and tools that contribute to the sustainable development of tourism and increase the quality of tourism products. They are based on innovative approaches in the fields of information technology, energy, transport, etc. For smart (digital) tourism, enterprises should take appropriate measures, i. e. make the necessary investments, allocate a budget, create financing and organize the necessary personnel training, human resources. In order to meet the expectations of modern tourists and take a leading position in the market, investing in smart tourism is becoming a necessity.

Key words: Uzbekistan, digital tourism, Tourism–4.0, tourism industry, tourist.

Аннотация: Туризм стал неотъемлемой частью жизни многих людей в мире. Технологии умного туризма представляют собой сочетание различных методов и инструментов, способствующих устойчивому развитию туризма и повышению качества туристических продуктов. В их основе лежат инновационные подходы в сферах информационных технологий, энергетики, транспорта и т. д. Для умного (цифрового) туризма предприятия должны принять соответствующие меры, т. е. осуществить необходимые инвестиции, выделить бюджет, создать финансирование и организовать необходимое обучение персонала. человеческие ресурсы. Чтобы оправдать ожидания современных туристов и занять лидирующие позиции на рынке, инвестиции в умный туризм становятся необходимостью.

Ключевые слова: Узбекистан, цифровой туризм, Туризм-4. 0, туристическая отрасль, турист.

KIRISH

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo‘g‘rofiyashunoslar va missionerlar, istilochilar va zabt etuvchilarning yo‘lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an’ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy raqamli asr – bu sanoat 4.0 deb nomlangan yangi davrning boshlanishi bo‘lib, u kompyuter dunyosining kuchidan foydalanish orqali sanoatni yanada samaraliroq qilish istagini o‘z ichiga oladi. Sanoat 4.0 tomonidan taqdim etilgan yangi avlod texnologiyalari butun dunyo bo‘ylab ko‘plab sohalarga o‘zgaruvchan ta’sir ko‘rsatdi.

Turizm 4.0 – sayyohlar tajribasini yaxshilash uchun ilg‘or texnologiyalar va raqamli echimlardan foydalanishga asoslangan turizmni rivojlantirishning yangi davri. Versiya 4.0 turizm industriyasining yanada zamonaviy, integratsiyalashgan va barqaror bo‘lish uchun evolyutsiyasini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nazariy masalalarni yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning “aqlli turizm”, turizm biznesida rag‘batlantirish va strategik boshqaruv masalalarini ochib berishga bag‘ishlangan ishlaridan foydalanilgan. Turizmni boshqarish va tartibga solish modellari va yondashuvlarini o‘rganishda L. E. ning asarlaridan olingan ma’lumotlardan foydalanilgan. Kalinina., E. A. Jandjugazova va A. D. Chudnovskiy. Internet-texnologiyalarning targ‘ibot vositasi sifatida rivojlanishini o‘rganish doirasida A. Kuskova, N. A. Melnikova, N. K. Moiseyeva, N. V. Miforov, A. M. Vetitnevlarning ishlari o‘rganildi.

Amaliy ahamiyati shundaki, turizm 4.0 ning asosiy jihatlaridan biri sayohatchilarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish uchun sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanish hisoblanadi. Mashinani o‘rganish algoritmlari va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalangan holda kompaniyalar har bir sayohatchining xohishi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashrif buyuradigan joylar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa diqqatga sazovor joylar uchun moslashtirilgan tavsiyalarni taklif qilishlari mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm 4.0 ning asosiy jihatlaridan biri bu sayohatchilarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish uchun sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan foydalanishdir. Mashinani o‘rganish algoritmlari va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalangan holda kompaniyalar har bir sayohatchining xohishi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashrif buyuradigan joylar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa diqqatga sazovor joylar uchun moslashtirilgan tavsiyalarni taklif qilishlari mumkin.

Turizm 4.0 ning yana bir muhim jihati noyob va immersiv sayohat tajribasini yaratish uchun virtual va kengaytirilgan haqiqatdan foydalanishdir. VR texnologiyasi yordamida sayyohlar elektron sayohat qilishlari va real hayotda kirish imkoni bo‘lmagan joylarga tashrif buyurishlari mumkin. Qadimgi xarobalarni ziyorat qilishdan tortib, marjon qoyalarida sho‘ng‘ishgacha, virtual haqiqat sayohatchilarga jismoniy mavjud bo‘lmasdan dunyoning go‘zalligi va xilma-xilligini his qilish imkonini beradi.

Aqlli turizm texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri axborot tizimlari va onlayn resurslardan foydalanish hisoblanadi. Ular sayyohlarga turli attraksionlar, marshrutlar, xizmatlar va tadbirlar haqidagi dolzarb va ishonchli ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Buning yordamida sayyohlar eng qiziqarli va maqbul variantlarni tanlab, sayohatlarini samarali rejalashtirishlari mumkin.

Dunyoning barcha mamlakatlarida daromad keltiruvchi eng muhim tarmoqlardan biri bo‘lgan turizmni raqamlashtirish bu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Asosan, turizmdagi raqamli transformatsiya sayyohlik kompaniyalari, manfaatdor tomonlar va bozorga ta’sir qiladi va sayyohlarning yangi avlodi profilini yaratadi.

Raqamli dunyoda global chegaralar yo‘qolib bormoqda. Raqamlashtirish natijasida odamlar hayotining har bir bosqichida internet va mobil qurilmalardan keng foydalana boshladi. Darhaqiqat, sayyohlar boradigan joylarni – u erga qanday borishlari, nima qilishlari mumkinligi, oziq-ovqat va ko‘ngilochar variantlarni qayerdan topish – barchasini raqamli ilovalar orqali o‘rganishmoqda. Shunga asoslanib, ular boshqa sayyohlarning hikoyalari va sharhlari asosida qaror qabul qiladilar, keyin esa tegishli platformalarda o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar.

Turizm odamlarning dam olish va maroqli vaqt o‘tkazish, yangi tajriba orttirish uchun sayohat qilish va shu bilan milliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish uchun ish hayotidan vaqt ajratishi mumkin bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida ta’riflanadi. Shu sababli, xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan “turizm” mamlakat faoliyatining ko‘p qirrali sohasi bo‘lib, u iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Shuningdek, turizm faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlar va yo‘nalishlar uchun daromad, bandlik va valyuta oqimini ta’minlaydi [7].

Texnologiya inson hayotining ajralmas elementi sifatida raqobatning jadal rivojlanishiga, tarmoqlar o‘rtasida hosildorlikni oshirishga, shuningdek, mavjud bozor konyunkturasini yaxshilashga yordam beradi. Turizm, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odamlarning dam olishga/dam olishga bo‘lgan ehtiyojini ham, turizm sohasida mahsulot/xizmatlarning xilma-xilligini oshiradi, turistlar sonining o‘sishi esa jahon iqtisodiyotiga katta likvidlik oqimini ta’minlaydi. Shu bois raqamlashtirishga o‘tish turizm sohasi uchun milliy iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasi jihatidan muhim [3].

Turizm sohasidagi raqamli tendensiyalar sayyohlarning umidlarini o‘zgartirmoqda. Bugungi sayohat mijozlari faqat ular uchun moslashtirilgan tajriba va yechimlarni xohlashadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli transformatsiyaga aylangan sayohat dunyosi shaxsiylashtirilgan tajribalar, omnichannel mijozlar tajribasi, virtual reallik, real vaqtda marketing, xabar almashish platformalari va chatbotlar kabi texnologiyalardan foydalanish orqali biznes natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu mobil integratsiya, ma’lumotlarga asoslangan yondashuv va sun’iy intellektdir [6].

2009-yilda “aqlli turizm” Jahon sayyohlik tashkiloti tomonidan ta’riflangan. 2015-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu ta’rifga kiritilgan. Biroq 2017-yilda “aqlli turizm”ga bugungi yondashuvni hisobga

olgan holda, katta ma'lumotlar (BigData), narsalar interneti va aqlli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan ta'rif berildi. Turizm 4.0 axborot texnologiyalari va turizmni o'zida mujassamlashtirgan va zamonaviy innovatsiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadigan turizm faoliyati sifatida ta'riflanadi. Shu munosabat bilan Turizm 4.0 besh elementning integratsiyasini ifodalaydi: turistik, hukumat, tabiiy hudud, hisob-kitob markazi va biznes. Asosan, asosiy maqsad barqarorlik doirasida raqobat sharoitlarini yaxshilash orqali sayyohlik tajribasini yaxshilash va qoniqishni maksimal darajada oshirishdir [5].

Bugungi kunda turizm sohasi kabi ko'plab sohalar yangi texnologiyalar yordamida o'zgartirilayotganini ko'rish mumkin. Turistlar ham, sayyohlik kompaniyalari ham sohadagi o'zgarishlar va o'zgarishlardan jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsiyalar va o'zgarishlardan xabardor bo'lgan odamlar turistik faoliyat bilan shug'ullanganda ularning ehtiyojlari va umidlarini qondira oladigan korxonalarga murojaat qilishadi. Shu munosabat bilan mahalliy yoki xorijlik sayyohlar innovatsiyalar bilan hamqadam bo'la oladigan sayyohlik kompaniyalarini afzal ko'rishadi. Shu sababli, turizm korxonalari raqamli asrga mos ravishda turizm sohasida raqobatdosh ustunlikni ta'minlashga intiladi. Hozirgi vaqtda kompaniyalar turistik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan odamlarning umidlari va ehtiyojlarini qondirish uchun turli strategiyalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishlari kerak. Zero, raqamli transformatsiyani diqqat bilan kuzatib borish va uni biznes jarayonlariga moslashtirish orqaligina kompaniyalar raqobatchilarga nisbatan samaradorligini oshirishi mumkin.

Turizmning raqamli transformatsiyasi jarayonida ishlab chiqilgan texnologiyalar sayyohlar kelishidan oldin va keyin ularni osonlashtiradi va o'zlarini qulay his qilishlari uchun keng imkoniyatlarni taklif qiladi. Masalan, smart-kartalar yordamida sayyohlar mehmonxona manzili, diqqatga sazovor joylar xaritasi va boshqa ko'p narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega. Turizmda blokcheyn texnologiyasi vositachilarsiz ish muhitida real vaqt rejimida turizm tajribasini bir zumda kuzatish, talab va taklifni kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, u turizm sektori uchun sodiqlik dasturlarini ishlab chiqish, mijozlar sharhlarini onlayn kuzatish, chegaralar va manfaatdor tomonlar o'rtasida pulni xavfsiz o'tkazish va yuklarni kuzatish kabi ko'plab sohalarda qo'llanilishi mumkin. Sun'iy intellekt va robot texnologiyalari iste'molchiga ta'sir qiladigan savdo, mijozlar bilan aloqalar va shunga o'xshash jarayonlarda qo'llanilib, mijozlarni yanada o'ziga xos his qiladi.

Bugungi kunda yangi mijoz (sayyoh), u tashrif buyurishga qaror qilgan shaharga kelganida, mehmonxona texnologik jihatdan jihozlangan bo'lishini afzal ko'radi. Ayni damda "aqlli mehmonxonalar" paydo bo'ldi – bu turizmdagi raqamli transformatsiyaning yana bir ko'rsatkichi. Aqlli mehmonxonalar mehmonlarga ko'proq moslashtirilgan qulayliklar taklif qiladi. Shu nuqtayi nazardan, turistlar o'zlari joylashgan mehmonxona xonasining yorug'lik, harorat va video tizimlaridan tortib, ko'plab tizimlarni boshqarishi mumkin. Shunday qilib, sayyohlar o'zlarining xonalaridagi qulaylikni nazorat qilishlari va barcha turdagi raqamli qulayliklardan bahramand bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu tizimlarni faqat shaxsiy telefon orqali boshqarish mumkinligi mehmonlarga Coviddan keyingi davrda tobora ommalashib borayotgan "kontaktsiz" bayram tajribasidan bahramand bo'lish imkonini beradi. Bundan tashqari, robotlar allaqachon ba'zi mehmonxonalarda sayyohlarni kutib olishmoqda. Milliy yoki xalqaro biznesga misol qilib, Yaponiyada robotlar tomonidan boshqariladigan "Henn na hotel" nomli mehmonxonani keltirish mumkin. Bu mehmonxonadagi barcha operatsiyalar robotlar tomonidan amalga oshiriladi [2]. Boshqa misollarni ham aytib o'tish joiz: "Connie" laqabli robot dunyoga mashhur Hilton mehmonxonalar tarmog'ida xizmat qiladi. Shunday qilib, bugungi kunda mehmonxonalarda siz robot uy xizmatchilari, robot ofitsiantlar, robot tozalovchilar va robot-oshpazlarni topishingiz mumkin. Mehmonxona menejerlari texnologiya turli operatsiyalarga sarflanadigan vaqt va mehnatni qisqartirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashni kutishadi.

Ko'pincha turizm deyarli har doim tajriba orttirish vositasidir, lekin ba'zida odamlar tomonidan ularni baxtli qiladigan va hayotini boyitadigan o'ziga xos faoliyat, shuningdek, sayohat blogerlari kabi muhim daromad manbayi sifatida qabul qilinadi. Raqamli asrda sayyohlar o'z sayohatlarini rejalashtirish, sayohat ma'lumotlarini o'rganish, bron qilish va xarid qilishda ko'pincha Internet va mobil texnologiyalardan foydalanadilar. Shu munosabat bilan sayyohlar o'zlari borgan joylar, tatib ko'rgan taom va ichimliklar haqidagi taassurotlarini ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari va boshqa platformalarda baham ko'rishni boshladi. Shu tariqa ular o'z tanishlariga tashrif buyurgan joylar haqida ma'lumot berishdi.

Shu nuqtada iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar tufayli 2000-yillarda paydo bo'lgan "birgalikda iqtisodiyot" tushunchasi paydo bo'ldi. Yevropa Komissiyasi birgalikdagi iqtisodiyotni hamkorlik platformalari orqali amalga oshiriladigan barcha biznes modellari sifatida belgilaydi, bu esa shaxslarga vaqtinchalik mahsulot va xizmatlarni boshqalarga taklif qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, almashish iqtisodiyoti bir tomondan texnologiya, innovatsiyalar, marketing va nish xizmatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan u xarajatlarni kamaytiradi va vositachi tashkilotlarni yo'q qilish orqali odamlarni bog'laydi. Umuman olganda, sayyohlar uchun birgalikda iqtisodiyotning hissasini uy almashish, avtomobil almashish kabi sanab o'tish mumkin. Bundan tashqari, sharing iqtisodiyoti turizm sohasida aqlli turizmga mos keladigan yangi biznes modelini yaratadi [8].

Ikki asosiy elementdan, ya'ni turistik talab va taklifdan tashkil topgan turizm sektori mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, turizm mintaqaviy va milliy rivojlanishga, o'tmishda

va kelajakda mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va bandligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan sohadir. Bundan tashqari, turizm sohasi ko‘rinmas eksport sifatida mamlakatga valyuta oqimini ta’minlaydi, kapital qo‘yilmalarni ko‘paytiradi va daromadlarning hududlar o‘rtasida taqsimlanishini yaxshilaydi. Darhaqiqat, turizm sektori xarid qilish va sayohatlarni tashkil etish, mintaqaviy mahsulotlarni sotish, ko‘ngilochar, turar joy, telekommunikatsiya, transport, oziq-ovqat va ichimliklar va shunga o‘xshash xizmatlar kabi barcha xizmatlarni qamrab oladi va milliy iqtisodiyotga katta hissa qo‘shadi [1].

Turizmdagi raqamli transformatsiya turistlar soniga ham, turizm daromadlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnologiya va kommunikatsiyalarning rivojlanishi o‘z aksini topadi va aqlli turizm yondashuvlari paydo bo‘ladi. Turizm 4.0 axborot, texnologiya va innovatsiyalar integratsiyasi orqali turizmda qo‘shimcha qiymat yaratishga qaratilgan. 21-asrning rivojlanayotgan texnologiyalari va raqamli asrning boshlanishi butun dunyo bo‘ylab sayohat va turizm sohalarining rivojlanishiga olib keldi.

Aqlli texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan nafaqat biznes amaliyotlari, balki ko‘plab iqtisodiyot tarmoqlarining strategiyalari ham jiddiy o‘zgarmoqda. Aqlli texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar sayohat tajribalarini loyihalash va nazorat qilishlari mumkin. Aqlli turizmning rivojlanishi sayyohlarni tanib olishga va ularga mos variantlarni taqdim etishga yordam beradi. Aslida, aqlli turizm faoliyati mijozlar ehtiyojini qondirish orqali raqobatdosh ustunlikni ta’minlaydi va daromadni oshirish orqali xarajatlarni kamaytiradi. Darhaqiqat, dunyoda sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar mamlakatga tashrif buyuradigan sayyohlar sonini, turizm daromadlarini va yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) turizm daromadlarining ulushini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirishi kutilmoqda. Sektorda yangi texnologik mahsulotlardan foydalanishga imkon beruvchi aqlli turizmga investitsiyalar orqali yaratilgan infratuzilma barqaror turizmga hissa qo‘shadi. Shuning uchun menejerlar global miqyosda o‘z raqobatchilaridan oldinga o‘tish va turistlarning yangi avlodi profilini tashkil etuvchi xizmat ko‘rsatish iste’molchilarini jalb qilish uchun sayyohlik kompaniyalari strategiyasiga innovatsiyalarni tezda kiritishlari kerak [4].

Turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shadi, aholi bandligini ta’minlaydi va valyuta tushumini ta’minlaydi. Turizm global miqyosda raqamlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari biznes jarayonlarini o‘zgartirgan sohalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda aqlli turizm (Turizm 4.0) doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bulutli hisoblash, kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari, blokcheyn, sun’iy intellekt, robot tizimlari, ilovalar va xizmatlar kabi ko‘plab yangi texnologiyalar mavjud. qurilmaning joylashuvi va ichki tavsiyalar tizimi bo‘yicha. Turizm sohasida bunday aqlli texnologiyalarni mehmonxonalar, muzeylar, kafe va restoranlarda uchratish mumkin. Amalda shuni ko‘rish mumkinki, an’anaviy turizmni raqamli turizm bilan almashtirish muqarrar, chunki “aqlli” transformatsiya turizmni boshidan oxirigacha o‘zgartiradi. Bugungi kunda insonning sayohati uy kompyuteridan boshlanadi. Odamlar endi onlayn platformalar va ilovalardan yangi yo‘nalishlarni qidirish, reyslarni bron qilish, ta’til vaqtida nima qilishlarini rejalashtirish va hattoki, ta’tildan keyin baholash uchun foydalanishadi. Smartfon ilovalari, ijtimoiy tarmoqlar, kengaytirilgan va virtual reallik va 360 darajali video an’anaviy sayohatni tugatishga olib kelgan omillar sifatida sayohat sanoatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, raqamlashtirilgan turizm sanoati imkoniyatlar tengsizligi, ma’lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik nuqtayi nazaridan ba’zi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turizm 4.0 sayohatchilar va turizm sanoati uchun yangi ufqlarni ochadi. Shaxsiylashtirilgan tajribalar, virtual haqiqat, blokcheyn texnologiyalari va barqarorlik bularning barchasi mijozlarni yaxshi jalb qilish, xavfsizroq operatsiyalar va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli amaliyotlarga yordam beradi. Turizm 4.0 – bu uning rivojlanishiga resurslarni o‘rganish va sarmoya kiritishga arziydigan kelajak.

Sayyohlarning bugungi yangi avlodi sayohatlarining har bir bosqichida interaktivdir. Bu sayyohlar o‘zlarining katta yoki yomon tajribalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali hamma bilan baham ko‘rishlari mumkin. Shu sababli, raqamli transformatsiya turistlarning umidlarini ham o‘zgartirmoqda va turizm sanoatini ushbu vaziyatga qo‘shilishini talab qiladi. Shu munosabat bilan sayyohlik kompaniyalari raqamli transformatsiya bilan hamqadam bo‘lishi va shunga mos ravishda raqobatbardoshligini oshirishi kerak. Aqlli (raqamli) turizm uchun sayyohlik korxonalari innovatsiyalarga sarmoya kiritishlari, texnologiya uchun byudjet ajratishlari va ular ishga oladigan ishchi kuchiga tegishli malakalarni ta’minlash uchun zarur treningni ta’minlashlari kerak.

Texnologik transformatsiyalar mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini, turizmdan tushadigan daromadlarni va yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) turizm daromadlarining ulushini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishi kutilmoqda. Bundan tashqari, sayyohlik kompaniyalari Sanoat 4.0 jarayonidan omon qolish va innovatsiyalarga moslashish uchun davlat tomonidan yetarli darajada yordam olishlari kerak. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, mamlakatda iqtisodiy faoliyatning – ayniqsa, chetdan pul oqimini ta’minlay oladigan turizm sohasi kabi sohalarda yashovchanligi nihoyatda muhim.

Adabiyotlar:

1. Бушуева И. В., Черникова Л. И., Бокарева Е. В., Егорова Е. Н., Данилов А. А., Данилова В. А., Зикирова Ш. С., Чхиквадзе Н. А., Суслова И. А., Кривошеева Т. М., Харитонова Т. В., Сав-кина О. В. Паспортизация туристских ресурсов Подмосковья / Отчет о НИР. Российский государственный университет туризма и сервиса. 2012.
2. Молчанова, В. А. Инновации городов – центров туризма: “умная дестинация” / В. А. Молчанова // Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования: материалы международной научно-практической конференции, Вологда, 25 сентября 2019 года / Научный центр “Диспут”. – Вологда: ООО “Маркер”, 2019. – С. 34–37.
3. Платов А. В., Петраш Е. В., Силаева А. А. Роль смарт-технологий в формировании опыта посетителей устойчивых туристских дестинаций // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. 2022. №1. https://cyberleninka.ru
4. Черникова Л. И., Слепнева Т. А., Шальнева М. С. Экономика впечатлений и потребительский опыт: концептуальные основы / РИСК: Ресурсы, Информация, Снабжение, Конкуренция. 2022. № 3. – С. 74–81.
5. Черникова Л. И., Фаизова Г. Р. К вопросу переориентации на внутренний туризм / Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2016. № 18 (300). – С. 52–60.
6. Юдина Е. В., Бокарева Е. В., Ветрова Е. А. Теоретические аспекты разработки ретрит парков в России (на примере республики Алтай) // Экономика и предпринимательство. 2022. № 3 (140). – С. 230–238.
7. https://uniqhotel.ru
8. https://znanium.com
9. https://cyberleninka.ru
10. https://cyberleninka.ru
11. https://cyberleninka.ru
12. https://cyberleninka.ru
13. https://cyberleninka.ru

DAVLAT TOMONIDAN QISHLOQ XO‘JALIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ollokulova Feruza Mansurovna
Termiz davlat universiteti dotsenti v. b., PhD

Jabborov Jahongir Abduvohid o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ilg‘or xorij tajribalarini qo‘llash va hozirgi kunda olib borilayotgan soliq islohotlari mavzusida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi korxonalari, soliq imtiyozlari, soliqqa tortish mexanizmilari.

Abstract: This article describes the improvement of the system of financial support for agriculture by the State, the use of advanced foreign experiences, and the current tax reforms.

Key words: agricultural enterprises, tax benefits, taxation mechanisms.

Аннотация: В данной статье рассказывается о совершенствовании системы финансовой поддержки сельского хозяйства со стороны государства, использовании передового зарубежного опыта и проводимых налоговых реформ.

Ключевые слова: сельскохозяйственные предприятия, налоговые льготы, механизмы налогообложения.

Jahonda soliqlar vositasida qishloq xo‘jaligi sohalarini bevosita va bilvosita usullar asosida, jumladan soliq imtiyozlarini qo‘llash, kredit va sug‘urta tizimi orqali rag‘batlantirish, narxlarni shakllantirish mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan moliyaviy dastaklar turlichadir. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirishning keng tarqalgan usullari sifatida ular faoliyatini soliqlar orqali qo‘llab-quvvatlashni keltirish mumkin. Jahonda qishloq xo‘jaligi korxonalarini soliqlar vositasida rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan qishloq xo‘jaligida manzilli soliq imtiyozlarini qo‘llash, dehqonchilikning tabiiy iqlim sharoitiga bog‘liqligidan kelib chiqib ekinlar hosildorligini oshirish va chorvachilikda tannarxni pasaytirish orqali mahsuldorlikni ko‘paytirishni davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirish hamda qishloq xo‘jaligi sohasida soliq

yukini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy asoslarda tashkil qilish, resurslardan, jumladan yer fondidan samarali foydalanish va bunda soliq mexanizmi imkoniyatidan maqsadli foydalashishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada “fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish” vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini soliq mexanizmi asosida rag‘batlantirish, istiqbolli va serdaromad sohalar bo‘lgan bog‘lar, tokzorlar, tutzorlar barpo etishda soliq imtiyozlarini joriy etish, foydalanilayotgan yerlar unumdorligi va faoliyat natijadorligini soliqlar vositasida qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 27-iyundagi PF–5755-son “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 29-iyundagi PF–5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Transport tarmoqlarini yaxshilanishi mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda mamlakatning turistik salohiyatining ham samarali amalga oshiruvchi manbaalardan biridir. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish eksportni rivojlantirirish orqali amalga oshiriladi va mamlakatning mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishni transportsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Jahonda yuk tashishning sezilarli qismi suv, temiryo‘l va avtotransporning o‘zaro munosabatlarida amalga oshiriladi. Bu turdagi transport tashuvlari multimodal transport turlari deb atalib, bugungi kunda multimodal transport tashuvlari uchun eng mukammal tashuv turi bu konteynerli tashuvlardir. Konteynerli tashuvlarning keng tarqalishiga ularning afzalliklari sabab bo‘lmoqda, bular: yuklarni manziliga yetkazishning yuqori xavfsizlik darajasi, multimodallikka ya’ni aralash transport tashuvlariga yuqori moslashuvchanlik, turli taminot zanjirini tanlash imkoniyati, yuqori ishlash tezligi va yuk va transport xarajatlarini va umumiy transport narxini kamaytirish imkoniyati. Bugungi kunda dunyoda konteyner jo‘natmalari o‘rtacha hisobda yiliga 10–12% miqdorda rivojlanmoqda. Quruqlikda tashiladigan jami yuklarning 50–60 % i konteynerli tashuvlarga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda jahon talablari va standartlariga mos kelish logistika kompaniyalari uchun eng muhim shartlardan biriga aylandi, zero “eshikdan – eshikkacha” prinsipiga muvofiq ishlash logistika korxonalarini jahon maydoniga chiqishini nazarda tutadi.

Hozirda transport va logistika sohasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib ushbu aloqalar O‘zbekiston Respublikasi hududida va MDH davlatlarida transport va logistika sohasiniravnaqi uchun xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston temir yo‘l tarmoqlarining yagona tizimiga ega ekanligi hisobga olinsa konteynerli yuk tashuvlarining zamonaviy talablarga moslashishi uchun to‘liq imkoniyat mavjud. Temiryo‘l tarmoqlari miqyosida AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya tajribalari o‘rganilgan bo‘lsa, konteynerli tashuvlarda dunyoning yetakchi korxonalaridan “Maersk Line” (Daniya), “Mediterranian Shg Co” (Shvetsariya), “CMA CGM Group” (Fransiya) va “Transkonteyner” AJ (PAO) (Rossiya) konteyner operatorlarining tajribalarini qayd etish mumkin. Ma’lumki, ushbu korxonalar asosan dengiz transporti orqali tashishlarga ixtisoslashgan bo‘lib aynan ushbu usullarni to‘laligicha O‘zbekiston korxonalarida joriy etish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli ushbu korxonalarning aynan yuklarni ortish va tushirish ishlarini bo‘yicha tajribalarini o‘zlashtirish imkoniyati mavjud. Ushbu tajribalarni o‘zlashtirib joriy etilishi konteynerli tashuvlarning sifat ko‘rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Kontreylerli tashishlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning majmuaviy tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishda quyidagilarga e’tibor qaratilgan: kontreylerli tashishning iqtisodiy samaradorlik tizimini ishlab

chiqish qiyin masala bo‘lib, u nafaqat texnik va texnologik ahamiyat bilan, balki katta sonli uchastkalar va tashishlardan manfaatdor bo‘lgan tomonlar ham tashkil etadi. Bir tomondan tashishlar texnologiyasi iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tanlashda asosiy omillardan biri sanaladi va unda tashishlarning maqsadga muvofiqligi xulosa qilish imkonini beradi. Boshqa bir tomondan esa birinchi navbatda samaradorlikni baholashga nazariy jihatdan yondoshishni aniqlash zarurati mavjud. Kontreylerli tashishda har bir konkret yondashuv ushbu tashishda ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqa turli qiziqishlarini hisobga olishi mumkin. Bundan tashqari ushbu tashishlarga joriy xarajatlar hamda kelajakdagi rivojlanish va ifodalanishni ham hisobga olish lozim. O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu turdagi samaradorlikni kompleks baholash uchun yagona transport logistik zanjirini yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qiluvchi orasida tuzilishini nazarda tutadi.

Konteynerni tashish – bu O‘zbekiston transport bozorida nisbatan yosh yuk yetkazib berish turidir. Shu munosabat bilan temiryo‘l transporti vositalari yetarlicha ishlab chiqilmagan va raqobatbardoshlikda bozor talablarini bajarishga intilmoqda. Bu konteynerdan foydalanishga yaroqli mahsulotning katta miqdori transportning boshqa usullari bilan olib ketilishiga olib keladi. Konteyner tipidagi yuklarni temiryo‘lda tashishning yuqori raqobatbardoshligi sifatli transport xizmatlarini taqdim etishni ta’minlash, yuk egalarining ehtiyojlarini qondirish va eng foydali ta’sirga ega bo‘lish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun konteynerli yuklarni tashish sohasidagi barqaror pozitsiyalarni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakatning tranzit va yagona temir yo‘l tuzilmasini shakllantirish va elektrlashtirish ishlarini to‘liq qamrab olish zarur.

Konteyner yuklarini temiryo‘lda tashishning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillari konteynerlarda tovarlarni yetkazib berish tezligi va ishonchliligi. Konteynerni tashish – tovarlarni yetkazib berishning eng tejamli va xavfsiz usullaridan biridir, chunki transport rejimini o‘zgartirganda yuklarni qayta kirish bosqichi yo‘q. Shuning uchun yukni ortish va tushirish ishlari tezligi tezlashadi, samarasiz tashish vaqti sezilarli darajada kamayadi va buning natijasida transport xarajati va yuklarni yetkazib berish shartlari sezilarli darajada kamayadi.

Temiryo‘l transportida tashish faoliyatining samaradorligi logistika infratuzilmasining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, buning natijasida barcha zarur logistika jarayonlari va moddiy va boshqa turdagi oqimlar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Logistika infratuzilmasini shakllantirish muammosi va uni samarali boshqarish qimmatbaho aktiv sifatida qaraladi, ortiqcha qo‘shimcha ortiqcha katta miqdordagi xarajatlarni ko‘zda tutadi.

Logistika jarayonlarining infratuzilmasini logistika oqimlarining vaqtinchalik o‘zgarishi uchun vositalar tizimi va ushbu oqimlarning tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarini ta’minlaydigan korxonalar majmuasi sifatida ko‘rish mumkin.

Infratuzilma transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarga quyidagi logistik vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- mahsulotni saqlash (ombor binolari, inshootlar, jihozlar);
- mahsulotlarni tashish (transport va manipulyatsiya vositalari, omborlarda, do‘konlarda, savdo maydonchalarida qisqa masofaga ko‘chirish)
- mahsulotlarni muhofaza qilish (transport tizimlarini shakllantirishni ta’minlovchi qadoqlash tizimi, ma’lumot uzatish va boshqalar);
- logistika jarayonlari ma’lumotlarini konvertatsiya qilish. ushbu logistik vazifalarni bajarishning sifati va qiymati, asosan, logistika jarayonlari amalga oshiriladigan texnik shartlarga: infratuzilma tarmog‘i elementlarining miqdori, hajmi va geografik joylashuviga bog‘liq.

Korxonaning logistika tizimi tarkibida logistika infratuzilmasini loyihalashtirish va shakllantirish logistika menejerlari uchun muhim vazifa hisoblanadi. Logistika infratuzilmasi makroiqtisodiy va mikro darajada baholanadi va shunga muvofiq korxonaning logistika jarayonlari infratuzilmasining tashqi va ichki obyektlarini ajratib turadi.

Logistika infratuzilmasining tashqi obyektlari orasida: yetkazib beruvchi korxonalar, yuk terminallari, logistika operatorlari, logistika xizmat ko‘rsatish markazlari, savdo va vositachilik tashkilotlari, chakana savdo do‘konlari, jamoat transporti va omborlari, qadoqlash va qadoqlash korxonalari, bojxona, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek, moliyaviy va kredit, yuridik institutlar, ish bilan ta’minlash markazlari, ta’lim va boshqalar kiradi.

Logistika infratuzilmasining ichki obyektlari orasida omborlar, korxonaning ichki yo‘llari, ko‘chirish uskunalari, moddiy resurslarni qadoqlash va ma’lumotni almashtirish va boshqalar mavjud. Korxonada logistika infratuzilmasining o‘z obyektlari bo‘lishi mumkin va ular boshqa tegishli korxona va tashkilotlarning tegishli obyektlaridan foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy raqobat muhitida bozor talablarining o‘zgarishiga moslashish uchun logistika infratuzilmasini doimiy o‘zgartirish zarur. Infratuzilma tarmog‘ining eng yaxshi joylashuvini tanlab olish korxonaning raqobatbardosh afzalliklarga ega bo‘lishiga birinchi qadam bo‘lishi mumkin.

1-jadval: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2021 va 2022-yillarda yuklarni tashish hajmi

Yuk tashish	O‘lchov birligi		2021-yil	2022-yil	Farqi (+/-)	2021-yilga nisbatan %
Jami	Hajmi (tonnada)		39 063 932	40 585 871	1 521 938	103,9%
	shundan: konteynerlarda	kont-r	324 112	341 401	17 289	105,3%
		tonna	3 487 701	3 629 751	142 050	104,1%
Import	Hajmi (tonnada)		18 655 385	19 515 852	860 467	104,6%
	shundan: konteynerlarda	kont-r	180 271	195 761	15 489	108,6%
		tonna	2 197 897	2 487 770	289 873	113,2%
Eksport	Hajmi (tonnada)		11 901 340	10 892 392	–1 008 947	91,5%
	shundan: konteynerlarda	kont-r	129 154	132 121	2 967	102,3%
		tonna	1 098 819	969 017	–129 801	88,2%
Tranzit	Hajmi (tonnada)		8 507 207	10 177 626	1 670 419	119,6%
	shundan: konteynerlarda	kont-r	14 687	13 519	–1 167	92,1%
		tonna	190 986	172 964	–18 022	90,6%

2022-yilda “O‘zbekiston temiryo‘llari” AJda yuk tashish hajmi 2021-yilga nisbatan 3,9 foizga o‘sgan bo‘lsada, mazkur o‘sish asosan import qilingan yuklarni hajmi hissasiga to‘g‘ri keldi. Umuman olganda, “O‘zbekiston temiryo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan kundan buyon yuk tashish hajmi 2,1 marta, yo‘lovchi tashish hajmi 2 barobar ko‘paygani, temiryo‘llar orqali 1,4 milliard tonna yuk tashilib, 350 million yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazilishi ta’minlanmoqda [5].

Shunday qilib, korxonaning logistika infratuzilmasi korxonaning samaradorligi uchun zarur me’zonlarga asosan moddiy oqimlarning tuzilmasi va tezligini tartibga soluvchi va boshqa tartibga soluvchi omillar tizimdir. Samarali logistika infratuzilmasini shakllantirish tamoyillari infratuzilmaning mavjud holatini va mavjud muammolarni hisobga olgan holda dizayn usullarini qo‘llashga, uning salohiyatiga ko‘ra jami xarajatlarni optimallashtirish tamoyili asosida logistika infratuzilmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon bozorida esa ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga yuksak talablar qo‘yiladi. Bu, birinchi navbatda, har xil transport turlari o‘rtasida real raqobat mavjudligi tufayli yuz beradi.

Yuzaga kelgan sharoitda temiryo‘l transportida, avtomobil transporti bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda, yangicha qo‘shimcha tashish turlarini o‘zlashtirish va rivojlantirish imkoniyatini tadqiq qilish talab etiladi. Bunday tashishlar mijozlarning taqdim etiladigan xizmatlarning sifati bo‘yicha yuksalgan talablarini qondiradigan, har bir transport turining ustun jihatlaridan eng to‘liq foydalanadigan, yuk jo‘natuvchidan to yuk oluvchigacha bo‘lgan uzluksiz transport zanjirini yaratish imkonini beradi. Temiryo‘l va avtomobil transporti o‘zaro hamkorligida ulardan birinchisining ishonchliligi, tezligi va tashish imkoniyati ikkinchisining moslashuvchanligi va jadalligi bilan uyg‘unlashadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan bu tashishlar sifati va ishonchliligini ta’minlashga intilayotgan yuk egalari, hamda avtotransport korxonalari tijorat faoliyatini rivojlantirish yo‘lida samarali bosqich bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, Respublikamizda 2016-yilda Angren – Pop elektrlashtirilgan yangi temiryo‘l linyasini qurilib bitkazilishi bilan mamlakat temiryo‘l tarmog‘ining yagona tizimi tashkil etilishi o‘z nihoyasiga yetdi va bugungi kunda temiryo‘lda tashishlarni amalga oshiruvchi korxonalar oldiga yangicha ishlash tizimini joriy etilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ularni strategik jihatdan rivojlantirish va shu bilan jahondagi tovarlar bozorida munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun “O‘ztemiryo‘lkonteyner” aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini takomillmshtirish va uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Temir yo‘l tizimida joriy etilishi kutilayotgan o‘zgarishlarni hisobla olgan holda “O‘ztemiryo‘lkonteyner” aksiyadorlik jamiyati oldiga rivojlanitirish strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi ustuvor vazifalar qo‘yiladi:

Birinchidan, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” aksiyadorlik jamiyati strategiyasini qayta ko‘rib chiqib unga quyidagi o‘zgartirishlarni kiritish:

- marketing strategiyasi;
- tashkiliy-texnik strategiya;
- moliyaviy-iqtisodiy strategiya;
- ijtimoiy-ekologik strategiya;
- funktsional strategiya kabi alohida bo‘limlarga ajratilgan holda qayta strategiyani tuzish.

Ikkinchidan, strategiyada amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarning qurilish va xaridlar bo‘limiga ajratilgan holda 2033-yilgacha bo‘lgan 15 yillik loyihalar dasturini tuzish ilovada keltirilgan. Ushbu dasturni tuzishda hududlardagi talabdan kelib chiqqan holda yuk aylanmasi hajmiga qaram yuk saqlash omborxonalarini qurish ishlari ko‘zda tutilgan.

Uchinchidan, jamiyatni rivojlantirish uchun kompleks dastur ishlab chiqish una quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- jamiyatda mavjud barcha ishlab chiqarish texnologiyalarini to‘liq inventaizatsiyadan o‘tkazish, energotejamkorligi past bo‘lgan taxnikalardan foydalanishni cheklash yoki umuman ekspluatatsiyadan chiqarish.
- ishchi xodimlar haqida mijozlar fikrini o‘rganish, kadrlar taqsimotini qayta ko‘rib chiqish, bunda yesh kadrlardan foydalanishga e’tibor qaratish.
- biznes reja va yaratilgan strategiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ularga baho berish tizimini joriy etish, samarasiz rejalar va strategiyadan voz kechish.
- kadrlar bilan ta’minlanganlik holatini yaxshilash, yangi texnologiyalarda ishlovchi kadrlarni qayta tayyorlash.
- yangi xizmat turlari:
- konteynerlarni (yuklar bilan) vaznini o‘lchash;
- konteynerlarning holati (qayerdaligi) haqida ma’lumot beruvchi tizimni yaratish;
- konteynerlar egalarining ishtirokisiz (mobilniy konteynerniy operator) tashuvlarni buyurtma asosida amalga oshirish;
- uzoq masofalarga konteynerlarni avtotransport vositalarida yetkazib berish;
- muzlatkichli omborxonalarda saqlash;
- konteynerli poezd tarkiblarini tuzish bo‘yicha mijozlar uchun axborot marakazini yaratish va axborotlarni onlayn tarzda joylashtirib borish xizmatlarini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016
2. Моисеева Н. К. Экономические основы логистики. Учебник. – М.: Инфра-М, 2008. – 528 с.
3. Козлова И. Н., Перминова А. А. Конкурентоспособность и влияющие на нее факторы на рынке железнодорожных перевозок контейнеропригодных грузов. Вестник Университета № 11, 2015.
4. Правдина Н. В. Транспортное обеспечение коммерческой деятельностиУльяновск: УлГТУ, 2007. – 95 с.
5. “O‘zbekiston temiryo‘llari” AJ rasmiy sayti ma’mulotlari.

HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH

Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi dunyo iqtisodiyotida kutilmagan inqirozli jarayonlarni barataraf etish, iqtisodiy faollikka yetaklovchi hamda hududlardagi qator muammolarni barham topishiga imkon beruvchi omil bu investitsiyalardir. Maqolada respublikamiz investitsiya siyosati, uning amaliy tahlili va respublika hududlarida investitsion faolligini oshirishga qaratilgan mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati natijalari, amaliy tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: hudud, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion faollik, qo‘shilgan qiymat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik.

Abstract: In the current economy, investments are a factor that helps eliminate unexpected crisis processes, intensify economic activity, and solve a number of regional problems. The article describes the investment policy of our republic, its practical analysis and improvement of the mechanism aimed at increasing investment activity in the territory of the republic. In addition, the results and practical analysis of the investment policy implemented in our country are presented.

Key words: territory, direct investment, investment policy, investment activity, added value, investment climate, investment attractiveness.

Аннотация: В современной мировой экономике инвестиции являются фактором, способствующим устранению неожиданных кризисных процессов, активизации экономической активности и решению ряда региональных проблем. В статье описана инвестиционная политика нашей республики, ее практический анализ и совершенствование механизма, направленного на повышение инвестиционной активности на территории республики. Также в этой связи представлены результаты и практический анализ инвестиционной политики, реализуемой в нашей стране.

Ключевые слова: территория, прямые инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, добавленная стоимость, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Dunyoda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 2022-yilda 1,3 trln. dollarga kamaydi, ya’ni qariyib 2 foizga kamaydi. Bunday pasayish tendensiyasi rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy oqimlar hajmining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ko‘pgina hududlar va tarmoqlardagi yangi investitsion loyihalarning o‘sishi investitsiya tendensiyasidagi ijobiy holatni belgiladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan mamlakatlardagi o‘sish salmog‘i sezilarsiz bo‘lgan [1].

2022-yilda dunyo iqtisodiyotida ko‘pgina mamlakatlarning faol investitsiya siyosatinining olib borilishi natijasida iqtisodiy inqirozning oldi olingan. Investitsiya siyosatidagi iqtisodiy faollikka qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar natijasida dunyo mamlakatlari pandemiya davridan oldingi holatga qaytdi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda hududlar sanoati rivojlanishiga, bu sohada texnologik va innovatsion siyosatni amalga oshirishga, xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlarda tabiiy resurslar yetishmasligi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borishi, sanoat ishlab chiqarishida iste’mol, ijtimoiy va ekologik standartlarning o‘zgarishi va murakkablashib borishi, raqobatning kuchayishi, sanoat ishlab chiqarishi samarasining doimiy ravishda oshib borish zaruriyati, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning sifat va texnologik ko‘rsatkichlariga talabning qat’iylashuvi tufayli ilmiy texnik taraqqiyotning mahsuli sifatida mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish vositalarini takomillashlashtirish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

Zero, hozirgi taraqqiyot bosqichida hududlarda investitsiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati beqiyos va aynan shu holat mazkur muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Mamlakatda shakllangan investitsiya siyosatini amalga oshirish, hududiy investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, uni amalga oshirishni

boshqarish, korxonalarning investitsiya kiritish uchun istiqbolligini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, hududiy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish borasidagi vazifalarni takomillashtirish zarurati ushbu mavzuning maqsadi va tadqiqot vazifalarini belgilab berdi.

MATERIAL VA METOD

G‘arb olimi K. Makkonnell fikricha [2] investitsiya ishlab chiqarish va jamg‘arish vositalari (asbob-uskunalar, mashina, zavod-fabrika, transport vositalari, tovar va xizmatlarni iste’molchiga yetkazib berish tizimi) jarayonidir.

Investitsiyalarning tub mohiyatini [3] “Investitsiyalar-bu ishlab chiqarish va ishlab chiqaarish vositalarini to‘plash va moddiy zaxiralarni ko‘paytirish xarajatlaridir” deb berilgan ta’rif ham nazariy jihatdan ifodalab beradi.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan akademik S. S. G‘ulomovning fikricha [4] “Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflashiga aytiladi”. Bu tushuncha D. G‘ozibekov [5] bergan ta’rifga ko‘ra, investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo‘lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bo‘lmagan bugungi qiymatini almashtirishdan iborat. Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo‘lgan qaltisliklar bilan bog‘lanishini keltiradi.

A. Sobirovning [6] e’tirof etishicha investitsiyalar – bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga investorlar tomonidan qo‘yiladigan mulk va intellektual qadriyatlarning barcha turlarini ifodalovchi mablag‘larning kiritilishidir.

Mamlakat hududlari investitsiyaviy faoliyati to‘g‘risida I. A. Blankning fikricha [7], iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini baholashning uch asosiy elementi mavjud: iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbollilik darajasi, korxonalarning o‘rtacha rentabellik darajasi, hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini baholash. Mamlakat hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashning asosiy elementlariga esa: hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi, investitsiya infratuzilmasi, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi darajasi, hududda investitsiya faoliyatini yuritish xavfsizligi holati hamda hudud demografik tavsifi kiritilgan.

Tadqiqot ishida keltirilgan nazariy yondashuvlar, ularning asosini tashkil etadigan belgilar investitsiyalarni boshqarishda hududiy investitsion faoliyatlarni amalga oshirishda va tizimli yondashuvni ko‘zlagan holda belgilangan vazifalar majmuini hal etish imkoniyatini beradi.

NATIJALAR

Ma’lumki, investitsiyalar jamiyatning real kapitalini ko‘paytirishga yo‘naltirish va iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tarmoqlar iqtisodiyotiga yangi texnologiyalar va investitsiyalar kiritish keskin raqobatchilik kurashida (ichki va tashqi bozorda ham) aniqroq moslashib olish imkoniga ega bo‘lishga yordam beradi.

Investitsiyalar eng muhim iqtisodiy kategoriya bo‘lib, makro va mikro darajada, birinchi navbatda, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, tarkibiy o‘zgarishlar, foydani maksimallashtirish va shu asosda ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal etish uchun muhim rol o‘ynaydi. Investitsiyalarni jalb qilish manbalari bo‘lib respublika va mahalliy budjet ajratmalari, xorijiy investitsiyalar shaxsiy moliyaviy mablag‘lar, turli shakldagi qarz mablag‘lari xizmat qilishi mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, investitsiyalar hududlarning doimiy rivojlanishini ta’minlaydi, quyidagi vazifalarni hal etishda yordam beradi: moliyaviy resurslarni jamlash hisobiga shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi korxonalarni sotib olish, biznesning yangi yo‘nalishlarini egallash. Hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagicha guruhladik (1-rasm).

1-rasm: Hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar [8]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida investitsion faollikning o‘zgarishini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Respublikamizda investitsion jarayonlardagi o‘zgarishlar, asosan, YaIMning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalariga investitsiyalarni jalb etishga ustuvorlik berilishi bilan bog‘liqdir.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida 2015–2022-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, ming so‘m.

Hududlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
O‘zbekiston Respublikasi	1431,7	1608,6	2227,8	3769,6	5834,6	6140,3	6861,0	7468,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1	4644,4	3710,0	4189,2	5225,5
Andijon	678,4	745,3	999,6	1550,3	2406,0	3047,2	3470,1	4361,1
Buxoro	2264,0	3237,6	6254,2	5112,4	5429,3	6295,0	10462,9	10855,5
Jizzax	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	6470,7	7107,9
Qashqadaryo	1969,9	2389,3	3583,4	5193,4	7534,6	6214,7	5148,2	4647,7
Navoiy	1965,1	3168,1	4185,4	10892,1	17855,2	15604,2	14672,4	17189,8
Namangan	863,8	1074,8	1340,3	2992,5	4344,1	4229,2	4477,8	4984,4
Samarqand	912,0	1001,6	1189,4	1878,3	2674,9	3746,0	3920,7	4642,5
Surxondaryo	773,0	879,1	1427,1	2848,3	4552,8	3792,2	4438,7	4169,4
Sirdaryo	1382,2	1660,3	2011,1	3280,2	7002,9	8425,4	9257,1	13919,1
Toshkent	1595,0	1507,5	2087,2	3898,4	6970,0	7169,0	9644,5	12056,8
Farg‘ona	731,6	747,8	822,4	1516,8	2336,2	2916,0	3272,3	3917,2
Xorazm	884,7	885,8	1215,1	1655,6	2718,4	2868,2	4344,3	4517,9
Toshkent sh.	2877,4	3848,1	5552,7	10627,8	16710,5	19065,6	20619,8	19539,4

1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasida 2015–2022-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning o‘zgarish tendensiyasi keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida 2015-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 1431,7 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 7468,6 ming so‘mni tashkil etgan, ya’ni o‘sib boruvchi tendensiya kuzatilgan. Hududlar kesimida 2015–2022-yillar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulush salmog‘i 2015–2020-yillarda Toshkent shahri va Navoiy viloyatiga to‘g‘ri kelgan. 2020–2022-yillarda esa eng yuqori ulush salmog‘i Toshkent shahri, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Buxoro viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Mazkur yillarda eng past ko‘rsatkich salmog‘i Farg‘ona, Surxondaryo, Xorazm, Andijon viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.

Mamlakatimizda investitsiya siyosati ishlab chiqilgan bo‘lib, unda iqtisodiyotga mablag‘larni kiritishi uchun qulay sharoitlarni yaratish orqali yuqori investitsiya salohiyatini amalga oshirish belgilangan. Shu o‘rinda mazkur maqsadning amalga oshishida hududning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsion muhitga ta’sir etuvchi omillarni yaxshilash talab etiladi. Har bir hududning o‘z mahalliy ichki siyosatini ishlab chiqish asosida hududlar tomonidan investorlarni jalb qilish uchun maksimal darajada jozibador shart-sharoitni yaratishga e’tibor qaratish lozim.

MUNOZARA

Hududga kapital oqimini yo‘naltirish borasida mahalliy yoki xorijiy investitsiyalar uchun jozibador shart-sharoitni yaratish umumdavlat darajasiga nisbatan hudud darajasida osonroq hal bo‘ladi. Investitsion salohiyatni iqtisodiy-ijtimoiy, geografik farqlarni o‘z ichiga oluvchi omillar nuqtayi nazardan hududlarga tegishli o‘ziga xos guruhlarga bo‘lish mumkin. Odatda, hududlarning absolyut ustunliklarini aholi va mehnat resurslarining soni, demografik xususiyatlari, ishlab chiqarish, qayta ishlash, urbanizatsiya darajasi, transport yo‘llarining geografik joylashishi va boshqa bir qator o‘ziga xosliklar bilan baholanadi.

Har bir tanlangan hududlarning ko‘lami, tashkiliy-qonuniy tizimini va budjeti, hudud imkoniyatlarini inobatga olgan holda hududlarga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgan investitsiya siyosati bo‘yicha masalalarni kompleks hal qilish, bor imkoniyatlarni ma’lum bir yo‘nalishga ajratish mumkin:

- hududni strategik rivojlantirishni ifodalovchi, hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish kerak. Ushbu dastur mahalliy va xorij ishbilarmonlar o‘rtasida aloqalarni jonlantirish, hudud o‘ziga xosligini

ko‘rsatishga har qanday sharoitda ham iqtisodiy sherikchilikka tayyor ekanligini namoyish qila olishni ifodalashi kerak;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida ilm-fan taraqqiyotini qo‘llash asosida kadrlar salohiyatlaridan unumli foydalanish maqsadida tadbirkorlik muhitiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish:
- hududlarda ichki investitsiya imkoniyatlarini rivojlantirish va korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish jarayonida jadal rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;
- hududlarnin iqtisodiy va investitsiya salohiyatlarini oshirishga yordam beruvchi ishlab chiqarish infrastrukturasi obyektlarini yangilanib borishiga davlatning rag‘batlantiruvchi siyosatini qo‘llab-quvvatlash;
- hudud iqtisodiyoti samaradorligini oshirish: har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari asosida rivojlanishidagi tafovutlarni yo‘qotish.

Hududlarga investitsiyalar yo‘naltirishda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash lozim. Erkin iqtisodiy zona taraqqiyoti uchun zarur transport kommunikatsiyalari va infratuzulma rivojdlanishida tashkiliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish talab qilinadi.

Rivojlangan chet davlatlar tajribasini o‘rganish davomida shu narsa aniqlandiki, investitsiyalarga bo‘lgan talabning darajasi va dinamikasi bir qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan aniqlanib, ulardan eng muhimlari quyidagilar: maqsadli investitsiyalar manbalaridan biri hisoblangan sof foyda va amortizatsiya ajratmalarining mamlakatda yaratilgan yalpi milliy mahsulotdagi ulushi, amortizatsiya ajratiladigan aktivlar yoki aksionerlik kapitaliga to‘g‘ri keluvchi hisoblangan foyda darajasi me’yorlari va boshqalar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari xususan, qishloq xo‘jaligining ham intensiv rivojlanib borishi hamda iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari faoliyatida innovatsion-investitsion faoliyatning jadallashuvi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston hududlari iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo‘yicha tarkibini muvofiqlashtirishda quyidagi yo‘nalishlardagi islohotlarni faol olib borishni taqozo etadi:
- har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatidan va iqtisodiy tarixiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, ustunlik tomonlari va o‘sish zaxiralarini hisobga olgan holda uzoq muddatli hududiy investitsion ustuvor strategiyalarini ishlab chiqish zarur;
- hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish va investorlarga imtiyozlar berishni shakllantirishda investitsiyalarni qayta ishlash tarmoqlari, axborot va kommunikatsiya sohalari, kimyo sohasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish, elektronika tarmoqlari kabi zamonaviy hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sohalarga yo‘naltirish lozim. Bu kelajakda respublika hududlarida iqtisodiyotga to‘siq bo‘luvchi muammolarni barham topish imkonini beradi;
- davlat kafolati ostida bo‘lmagan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirishda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, yangi korxonalar uchun kadrlar tayyorlashni isloh qilish va hudud infratuzilmasini rivojlantirish zarur;
- yuqoridagi tahlil natijalariga suyanadigan bo‘lsak, hududlarga jalb etilayotgan investitsiyalar notekisligini ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, jalb etilayotgan xorij va mahalliy investitsiyalarni hududlar kesimida muvofiqlashtirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://unctad.
2. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. – М.: 1992. – С. 120-121
3. Кэмбелл Р., Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2-х томах, Таллин, 1993. с. 399-400.
4. Menejment va biznes asoslari. Darslik. S. S. G‘ulomovning umumiy tahriri ostida. –T.: Mehnat, 1997. – 245 b.
5. G‘ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: “Moliya”, 2003.
6. Sobirov A. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2009. – 12-b.
7. Menejment va biznes asoslari(darslik). S. S. G‘ulomovning umumiy tahriri ostida. . –T.: Mehnat, 1997. –245 b.
8. G‘ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent, “Moliya”, 2003.
9. Sobirov A. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU. 2009. 12 b.
10. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. – К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. – С. 102.
11. Tahliliy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

QURILISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti “Iqtisodiyot va servis” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun asosiy fondlarni yaratishda iqtisodiy tarmoq sifatida ishtirok etadi. Kapital qurilish mahsulotlari deganda belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan va qabul qilingan ishlab chiqarish obyektlari va noishlab chiqarish obyektlari tushuniladi. Qurilishda bajarilgan ishning yakuni sifatida belgilangan mahsulot asosiy fondlarga aylanadi.

Kalit so‘zlar: qurilish sohasi, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, qurilish materiallari, samaradorlik, statistik tahlil.

Abstract: Construction of basic funds for all sectors of the economy participates in creation as an economic sector. Capital construction products are put to use in the prescribed manner and accepted production objects and non-production objects understood. It is defined as the end of the work done in the construction the product becomes fixed assets.

Key words: construction industry, economic indicators, building materials, efficiency, statistical analysis.

Аннотация: Строительство базовых фондов для всех отраслей экономики участвует в созидании как сектор экономики. Капитальное строительство продукция вводится в эксплуатацию в установленном порядке и принятые производственные объекты и непроизводственные объекты понял. Определяется как окончание работ, выполненных при строительстве. продукт становится основными средствами.

Ключевые слова: строительная отрасль, экономические показатели, строительные материалы, эффективность, статистический анализ.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida boshqaruv nazariyasi va amaliyotida keng o‘rin olgan muammolardan biri boshqaruv mexanizmini tadqiq etish va uni metodologik rivojlantirish hisoblanadi. Hozirgi sharoitda bu muammo ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan birini tashkil etmoqda. Bunda nafaqat boshqaruv mexanizmi, balki uning barcha elementlarini kompleks ravishda o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bular orqali mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish korxonalarida qo‘yilgan asosiy maqsadga erishish mumkin – bu o‘z navbatida aholi turmush darajasini yuksaltirish, subyektlarning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga ta’sir ijobiy ko‘rsatadi. Bu esa ushbu mavzuni tadqiq o‘tkazish zarurligini belgilaydi. Shularni inobatga olib, ayni damlarda jahonda boshqarish mexanizmi muammolarini o‘rganish borasida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda kompaniya va korxonalarni boshqarish tizimini kompleks ravishda o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yerda ayniqsa, boshqaruv tizimini tashkiliy-iqtisodiy tizimni o‘rganishga urg‘u berilmoqda. Bundan tashqari boshqaruv personali, elementlari, texnologiyalari, rivojlanish omillarini tatbiq etishga ham alohida ahamiyat berilayapti.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Qurilish sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, qurilish sohasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

A. P. Dolgov o‘z risolasida qurilish – bu bozor o‘zgarishlari davrida eng katta o‘zgarishlarga duch keladigan iqtisodiyotning sohalaridan biridir, bu esa, butun ishlab chiqarish zanjirini loyiha bosqichidan qurilish obyektlarini ishlab chiqarishga qadar tijoratlashtirish bilan bog‘liq. Qurilish kompleksi doirasi har doim kengayadi, shuning uchun u investitsiya va qurilish kompleksiga aylanadi.

J. Stok va D. Lambertning tadqiqotlariga ko‘ra, xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish zaruriy xizmatlar darajasini belgilasa, logistika unga optimal xarajatlar va kapitalning iqtisodiy jozibadorligini ta’minlaydi.

Matrizayeva D. Y. qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni o‘stirish imkonini beruvchi asosiy omillarni boshqarish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mahsulotlar tannarxini kamaytirish, diversifikatsiyalash hamda raqobatbardoshligini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bizning fikrimizcha, qurilish sohasining rivojlanish xususiyatlari, soha faoliyatini boshqarish jarayonlarini tashkil etish, sohada logistik xizmatlarning rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamlashuvi sharoitida qurilish sohasidagi o‘zgarishlar, shu bilan birga, qurilish sohasi faoliyatini boshqarish jarayonlari samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning barcha sohalarida shakllanadigan yalpi ichki mahsulot dinamikasi bilan belgilanadi. Qurilish moddiy sohaga mansub sanoat sifatida iqtisodiy tizimning barcha ishtirokchilarini yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy fondlarini yaratish va tiklash uchun mo‘ljallangan budjet hamda tijorat tashkilotlari va boshqalarni qamrab oladi. Qurilishning muhim roli barcha zarur insoniy, moddiy, energiya va axborot resurslarni ehtiyotkorlik bilan ta’minlashni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish uni sanoatlashtirish asosida amalga oshiriladi, uning asosiy yo‘nalishlari sifatida: binolarni yig‘ish hajmini oshirish uchun texnologik jarayonlarning bir qismini qurilish maydonlaridan zavodlarga, statsionar ishlab chiqarish sharoitlariga o‘tkazish va qurilayotgan inshootlar, binolar va inshootlarning texnologik loyiha yechimlarini takomillashtirish, qurilish ishlarining uzluksiz ishlab chiqarilishini ta’minlash maqsadida bino va inshootlarni qurish, qurilish materiallari va inshootlarini yetkazib berish bo‘yicha texnologik operatsiyalar va jarayonlarni mexanizatsiyalashgan uzluksiz jarayonini kiritish mumkin. Kapital qurilish funksiyalariga asosiy fondlarni yaratishdan tashqari, mavjud asosiy fondlarni rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish kiradi. Shuning uchun ham kapital qurilishning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari asosiy fondlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va sifat jihatidan yangilashdan iborat.

Qurilishga tayyorgarlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: obyektni qurishning texnik-iqtisodiy asoslarini texnik-iqtisodiy o‘rganish, obyektni loyihalash va qurilishga muhandislik-texnik tayyorgarlik. Har bir yo‘nalishning o‘z vazifalari bor. Texnik-iqtisodiy tadqiqotlar jarayonida kelajakdagi obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi va uni qurishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi. Shu ma’noda, dastlab O‘zbekiston Respublikasida qurilish tarmoqlari faoliyatining iqtisodiy tahlilini ko‘rib chiqishni maqsad qilib olindi (1-jadval).

1-jadval: 2010–2022-yillarda qurilish sanoatining O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi hajmi va ulushi[1]

№	Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
1.	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so‘m	78936,6	221350,9	605514,9	738425,2	888341,7
2.	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %	104,2	118,8	109,5	106,8	106,6
3.	Qurilish sanoatining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi, mlrd. so‘m	8245,8	25423,1	88130,3	107492,7	123412,2
4.	Qurilishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %	5,4	5,7	6,7	6,6	6,7
5.	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m	16463,7	44810,4	210195,1	239552,6	251247,6
6.	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %	104,2	109,4	95,6	102,9	101,8
7.	Qurilishga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m	9,9	40,1	228,1	142,8	287,0
8.	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %	99,1	100,3	100,1	101,4	100,6
9.	Tugallangan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m	25423,1	25423,1	88130,3	107492,7	112425,5
10.	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %	105,1	118,8	109,5	106,8	105,4

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2010–2022-yillarda qurilish sanoatining O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi hajmining barcha ko‘rsatkichlari o‘sish tendensiyasiga ega, ammo tugallangan qurilish ishlari hajmida 2020-yil ko‘rsatkichi 2010-yilga nisbatan 0,3 %ga oshgan bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkich qolgan davrlarga nisbatan pasaygan. Bunga asosiy sabablardan, tarmoqda keyingi davrlarda bajarilgan ishlarning miqdor jihatidan qurilish tarmoqlarida sifat darajasiga o‘tganligi bilan izohlanadi. O‘zbekistonda 2017–2022-yillarda

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentiligi ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi

islohotlarning natijasi o‘laroq, qurilish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal sur’atlarda o‘sayotganligini xususan, qishloq xo‘jaligi 2017-yilda 1,2%, 2018-yilda 0,3%, 2019-yilda 3,1%, 2020-yilda 3,0%, 2021-yilda 4,0%, 2022-yilda 3,6 %ga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2017-yilda 5,2%, 2018-yilda 10,8%, 2019-yilda 5,0%, 2020-yilda 0,9%, 2021-yilda 8,8%, 2022-yilda 5,2% ga o‘sgan bo‘lsa, qurilish hajmi 2017–2022-yillarda mos ravishda 6,0%, 14,3%, 22,9%, 9,5%, 6,8% va 6,6 %ga o‘sgan. Shuningdek, mazkur tarmoqning milliy iqtisodiyot tarkibida ulushi ham yildan yilga oshib bormoqda. Qurilish tarmog‘ining YAIM tarkibidagi ulushi 2021-yilda 6,6 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 6,7 %ga yetgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 41,0 mingtani tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 1,7 barobar yoki 17,1 ming birlikka oshgan. Shuningdek, qurilishda band bo‘lganlarning soni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 15,6 ming nafarga oshib, 1,3 mln. nafarni tashkil etmoqda. Aytish joizki, hozirgi kunda iqtisodiyotda band bo‘lganlarning qariyb 10 foizi mazkur tarmoqqa to‘g‘ri kelmoqda. 2020-yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 37,3 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 45,6 trln. so‘m va 2022-yilda esa 55,5 trln. so‘mga yetgan.

Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlil qilinganda, bajarilgan qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurish ishlari hajmiga (jami ko‘rsatkichga nisbatan ulush 74,5% ga) to‘g‘ri kelmoqda. Yana bir e’tiborli jihat shundaki, qurilish ishlarida nodavlat sektorining ulushi oshib bormoqda, 2020-yilda mazkur ko‘rsatkich 95,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 95,8% va 2022-yilda 96,1 % ga yetgan. Biroq bu hali yetarli miqdorda emas, chunki yalpi ichki mahsulot tarkibida qurilishning ulushi sezilarli darajada o‘zgarishsiz qolmoqda. Ta’kidlab o‘tish zarurki, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlari va ularni boshqarish tizimini olib qaraydigan bo‘lsak, bunda ularning joriy davrdagi asosiy qiyinchiliklari samarasi past bo‘lgan boshqaruv tizimi bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy boshqaruv hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bozor talablariga ko‘ra boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan foydalanishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Buni ta’minlash yo‘llaridan biri bo‘lib boshqaruvning mavjud tizimi, tamoyillari va metodlarini o‘zgartirish sanaladi. Boshqaruv tuzilmasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasiga alohida talablar qo‘yiladi. Bu borada qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasining o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan, uning ishlab chiqarish va mahsulot sotish faoliyatining o‘ziga xosliklarini hisobga oladigan korxonani iqtisodiy boshqarishning amaliy metodlari va modellarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati tarkibiga 2020-yil yakunlariga ko‘ra 12,5 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2022-yilda bunday korxonalar soni deyarli 13,0 mingga yaqinlashib, ularda yuz mingga yaqin kishi mehnat faoliyatini olib boradi . Bu korxonalar ichidan 57 tasi qurilish sohasi uchun eng asosiy material – sement va portlandsement klinkerini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanib, ularning respublikamiz hududi bo‘ylab joylashuvi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi hududida sement turlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni (2022-yil oxirida)[2]

№	Mahsulot nomi	Hudud	Korxonalar soni
1	Sement klinkeri	Toshkent viloyati	3
		Farg‘ona viloyati	3
		Navoiy viloyati	1
		Jizzax viloyati	2
2	Portlandtsement	Toshkent viloyati	4
		Farg‘ona viloyati	12
		Navoiy viloyati	2
		Andijon viloyati	3
		Surxondaryo viloyati	2
		Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2
		Samarqand viloyati	3
		Qashqadaryo viloyati	1
		Namangan viloyati	2
		Jizzax viloyati	2
		Buxoro viloyati	1

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentiligi ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi.

3	Tuproqli tsement, shlakli sement va xuddi shu tipdagi gidravlik tsement	Andijon viloyati	2
		Samarqand viloyati	2
		Namangan viloyati	2
		Jizzax viloyati	1
		Farg‘ona viloyati	1
		Sirdaryo viloyati	3
		Qashqadaryo viloyati	1
		Toshkent shahri	1
JAMI			58

Qurilish materiallari bozori uchun ularni sotishdagi mavsumiylik xususiyati xos bo‘lib, bunda sotish hajmlari davriyligiga qarab 3–5 martagacha o‘zgarib ketishi mumkindir. Bozor sharoitlarida qurilish ishlab chiqarishining mavsumiyligiga bog‘liq holda qurilish materiallariga bo‘lgan talab tebranishi qurilish materiallari korxonalarining ishlab chiqarish hamda tijorat faoliyatidagi tashkiliy-boshqaruv vazifalarining hal qilinishini murakkablashtiradi.

Qurilish materiallari tabiiy resurslarni ma’lum bir darajada qayta ishlash orqali bozorga olib chiqiladi va ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi sababli qurilish materiallari ishlab chiqarishning quyi tarmog‘i bo‘lib sanaladi. Bularga misol uchun, tabiiy tosh, qum, shag‘al kabi tabiiy resurslardan tayyorlanadigan qurilish materiallarini kiritish mumkin. Bu yerda shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, toshni qayta ishlash bilan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotining tannarxida xom ashyo uchun sarf-xarajatlar ayrim hollarda o‘rtacha 70 % va undan yuqori ulushni tashkil etadi – bu esa, o‘z navbatida, xom ashyo tipiga, tayyor mahsulot chiqishida katta ahamiyatga ega bo‘ladigan uning fizikaviy xossalariga va eng muhimi – tabiiy toshning narxiga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda so‘nggi uch yilda koronavirus pandemiyasi oqibatida qurilish va xususan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyatlarni va qurilish materiallari korxonalari faoliyatidagi subyektiv omillarni hisobga olib korxonalarni iqtisodiy boshqarishning hozirgi bosqichlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish to‘g‘ridan to‘g‘ri faoliyatni tashkil etish va boshqarishning samarali shakllaridan foydalanishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bunda mazkur yo‘nalishdagi maqsadlarga erishish yo‘llaridan biri bo‘lib qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud boshqaruv tizimi, tamoyillari va metodlarini o‘zgartirish sanaladi.

Ayni davrda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi ko‘plab korxonalarda shakllantirilgan boshqaruv tizimi o‘zida chiziqli-funktsional boshqaruv tuzilmalarini namoyon qilib, ular aksariyat hollarda qisqa muddatli natijalarga erishishni ko‘zda tutadi hamda bunday boshqaruv funksiyalari va vazifalari ishlab chiqarish belgilari, xususiyatlariga qarab taqsimlangan, buning ustiga ular boshqaruv elementlari va bo‘g‘inlariga mos holda qat’iy mustahkamlab qo‘yilgan. Mana shu xususiyatlari bilan qurilish materiallari korxonalarining boshqaruv tizimi hozirgi davr talab va ehtiyojlarga to‘la moslasha olmay qolgandir. Shuning uchun mazkur korxonalardagi boshqaruvning doimiy an’anaviy funksiyalarni bajarish borasidagi statik (qotib qolgan) boshqaruv tuzilmasini konkret bozor sharoit (vaziyat)lariga va korxonaning o‘zining ehtiyojlariga qaratilgan, uning ishlab chiqarish va sotish faoliyati xususiyatlarini hisobga oluvchi moslashuvchan, dinamik rivojlanib boruvchi boshqaruv tuzilmasiga aylantirish zarur bo‘lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kapital qurilish ishlab chiqarish vositalarining ishlash imkoniyatini ta’minlaydigan moddiy sharoitlarni yaratadi. Qurilish industriyasi umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, loyiha-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari qurilish birlashmalari tarkibida, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini tejamkorlik bilan bajaruvchi tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi. Bundan ko‘rinadiki, qurilish tarmoqlari samaradoriligini aniqlash keltirib o‘tilgan tarmoqlarning sinergetik samarasi orqali ifoda etish maqsadga muvofiqdir.

Qurilish tarmog‘ining ishlashini rivojlanishi, tegishli, mavjud ta’minlovchi tarmoqlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishi asosida amalga oshiriladi. Qurilish jarayoni yuqori darajadagi moddiy intensivlik bilan tavsiflanadi, bu esa, shunga ko‘ra, qurilish materiallari sanoatini qurilish mahsulotlarini yaratish uchun zarur materiallar bilan ta’minlaydigan yetakchi o‘ringa olib keladi.

Qurilishni rivojlantirish, uning boshqaruv samaradorligini oshirish uni innovatsion sanoatlashtirish asosida amalga oshiriladi, uning asosiy yo‘nalishlari sifatida: binolarni yig‘ish hajmini oshirish uchun texnologik jarayonlarning bir qismini qurilish maydonlaridan zavodlarga, statsionar ishlab chiqarish sharoitlariga o‘tkazish va qurilayotgan inshootlar, binolar va inshootlarning texnologik loyiha yechimlarini takomillashtirish, qurilish ishlarining uzluksiz ishlab chiqarilishini ta’minlash maqsadida bino va inshootlarni qurish, qurilish materiallari

va inshootlarini yetkazib berish bo‘yicha texnologik operatsiyalar va jarayonlarni mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirishni uzluksiz jarayonlarini kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзаев А. Т. Совершенствование интегральной оценки механизма рекреационно-туристических объектов // Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. №2. – С. 127–134. https://doi.org
The analysis indicates a positive relationship between the capital raised during the IPO and the company's market capitalization. Specifically, a 1% increase in the capital raised during the IPO corresponds to a 0. 2% increase in market capitalization. This outcome suggests that the ability to raise substantial funds during the IPO contributes positively to market capitalization, potentially enabling growth and expansion opportunities.

4. Opening Price Post-IPO and Market Capitalization

Interestingly, the analysis reveals a contrasting trend concerning the opening price of the company's stock on the day following the IPO. A 1% increase in the opening price post-IPO is associated with a negative impact on the company's market capitalization. This finding suggests that an excessively high opening price may deter investors and negatively affect market valuation.

In summary, the results of the econometric analysis underscore the multifaceted nature of IPOs and their implications for market capitalization. Higher share prices and the efficient allocation of shares during an IPO can significantly enhance a company's market capitalization, reflecting investor optimism. Moreover, the ability to raise substantial capital during the IPO contributes positively to market valuation, potentially fueling growth initiatives.

However, the observation that a higher opening stock price on the day after the IPO is associated with reduced market capitalization serves as a cautionary note. It implies that pricing the IPO shares too high may lead to market skepticism and a subsequent negative impact on market capitalization.

These findings offer valuable insights for investors, financial analysts, and policymakers in understanding the factors that drive market capitalization in the context of IPOs. To maximize the benefits of going public, companies should carefully consider their pricing strategies and the allocation of shares to strike a balance between attracting investment and ensuring long-term market capitalization growth.

Literature:

1. Renneboog, Luc, et al. "The Impact of Initial Public Offerings on Firm Performance: Evidence from European Firms," Journal of Corporate Finance. 2005.
2. Teoh, Siew Hong, et al. "Earnings Management Surrounding First-Time Equity Offerings," Journal of Accounting and Economics. 1998.
3. Lehn, Kenneth, et al. "The Effect of Initial Public Offerings on Corporate Governance Structures," The Journal of Finance. 2003.
4. Chan, Louis K. C., et al. "Market Reaction to SEO Announcements: The Role of Institutions, Information, and Noise," The Journal of Finance. 2004.
5. Ritter, Jay R., and Welch, Ivo. "Econometric Analysis of the IPO Underpricing Puzzle," Journal of Financial Economics. 2002.
6. Brush, Candida G., and Vanderwerf, Pieter A. "The Impact of Initial Public Offerings on the External Growth Strategies of Entrepreneurial Firms," Entrepreneurship Theory and Practice. 1992.
7. Allen, Franklin, and Faulhaber, Gerald R. "Initial Public Offerings: An Analysis of Theory and Practice," The Journal of Finance. 1989.
8. Ljungqvist, Alexander P., and Marston, Felicia C. "Do IPO Firms Purchase Analyst Coverage with Underpricing?" Journal of Finance and Quantitative Analysis. 2007.
9. Goergen, Marc, and Renneboog, Luc. "The Long-Run Performance of Initial Public Offerings: The UK Experience 1980-1994," Journal of Business Finance & Accounting. 2001.
10. Fama, Eugene F. "The Effects of Public Information on the Stock Market," Journal of Accounting Research. 1970.

DAVLAT XARIDLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA BYUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MOHIYATI VA ZARURLIGI

Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o‘g‘li
TDIU mustaqil tadqiqotchisi, “IIV harbiy qism xizmat boshlig‘i”

Annotatsiya: Budjet va budjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va korrupsiyaning oldini olish bugungi kundagi moliyaviy tizimni tubdan isloh qilishni, davlat xaridlari sohasida ilmiy izlanishlarni oshirishni talab qiladi. Budjet mablag‘laridan samarali foydalanishda budjet korxonalarini sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, davlat va korporativ xaridlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi bo‘yicha xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: davlat va korporativ xaridlar, davlat moliyasi, budjet mablag‘larini nazorat qilish, investitsion muhit, rejalashtirilgan xarajatlar, elektron tijorat.

Abstract: Effective use of budgetary funds and prevention of corruption in the implementation of public procurement in budgetary and extra-budgetary organizations requires a deep reform of the modern financial system, increasing scientific research in the field of public procurement.

With the effective use of budgetary funds, the provision of budget enterprises with high-quality and affordable products remains an urgent issue today.

Key words: Government and corporate procurement, public finance, control of budget allocations, investment climate, planned expenditures, e-commerce.

Аннотация: Эффективное использование бюджетных средств и предотвращение коррупции при осуществлении государственных закупок в бюджетных и внебюджетных организациях требует глубокого реформирования современной финансовой системы, увеличения научных исследований в области государственных закупок.

При эффективном использовании бюджетных средств обеспечение бюджетных предприятий качественной и доступной продукцией остается актуальным вопросом на сегодняшний день.

Ключевые слова: Государственные и корпоративные закупки, государственные финансы, контроль бюджетных ассигнований, инвестиционный климат, плановые расходы, электронная коммерция.

KIRISH

Bugungi kunda davlat xaridlarini amalga oshirishda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyatini yanada aniqroq tushunishimiz uchun uni milliy iqtisod bilan bog‘lab tadqiq etishni talab qiladi. Budjet mablag‘laridan samarali foydalanishda budjet korxonalarini sifatli va arzon mahsulotlar bilan ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, budjet korxonalarini moliyalashtirishda iqtisodiyotni jadal va barqaror rivojlanishini ta’minlash, davlat xaridlarini soddalashtirish, oldi-sotdi jarayonida ichki va tashqi omillarni shuningdek inson omilini cheklash rivojlanayotgan davlatimizda korrupsiyani oldini olishga va raqobatni rivojlantirishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizda budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini takomillashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda korrupsiyani oldini olish yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan. Shuningdek, mam-

lakatimizda davlat xaridlarini elektron tizimga o‘tkazilishi munosabati bilan yuzaga keladigan texnik muammolarning oldini olishda budjet mablag‘larini sarflanishida elektron nazorat qilish tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat xaridlarini takomillashtirish va budjet mablag‘laridan samarali foydalanishning nazariy jihatlarini tadqiq etishda xorijlik olimlar V. A. Ovchinskiy, L. M. Davletshina, V. S. Gladkov, L. V. Andreyeva, A. A. Xramkin, A. A. Demin va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganishimiz mumkin. Xususan, mahalliy olimlar T. S. Malikov D. X. Pulatov, U. A. Burxonov, B. I. Nurmuxamedova, Z. X. Sirojiddinova, A. K. Ibragimov, N. X. Haydarov, S. U. Umurzakovlarning ilmiy ishlarida davlat moliyasini boshqarish va budjet mablag‘larini nazorat qilish, shuningdek, davlat va korporativ xaridlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Olib borayotgan tadqiqot ishimizda bir qator ilmiy izlanish uslublaridan foydalanilgan. Jumladan, umumlashgan iqtisodiy tahliliy metodika, statistik-analitik tizimli tahlil olib borish, tizimli qiyosiy taqqoslama tahlil kabilar bunga misol bo‘la oladi.

MUHOKAMA

Davlatning farovon kelajagi, uzluksiz va samarali faoliyati uchun o‘z navbatida tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta’minlab turishni talab etadi. Ushbu xarajatlar, eng avvalo mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya kiritishga, aholining turmush darajasini ko‘tarishga hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan. Xususan, mamlakatni boshqarish, mudofaani salohiyatini oshirish kabi aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi ko‘rsatilgan masalalarni xal etishga katta e’tibor qaratilib, davlat xaridlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha subyektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Davlat xaridi tizimini boshqarish bo‘yicha tizimli yondashuvga bo‘lgan talab hamda davlat xaridi iqtisodiyotning ayrim sohalariga ta’sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari tubdan o‘zgartirildi va yangicha tizim shakllantirildi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro miqyosda, muntazam ravishda budjet mablag‘larini yuqori natijadorlik asosida boshqarish borasida ilmiy ishlar olib borishni taqozo etadi.

Davlat xaridlarining asosiy maqsadi tizimning shaffofligini ta’minlash hamda uni yanada takomillashtirish hisobiga korporativ buyurtmachilar, shu jumladan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va korxonalar mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash hamda samaradorligini oshirishdir.

Davlat va korporativ xaridlar tizimini yanada isloh qilish, innovatsion texnologiyalar hamda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalarini joriy etish orqali davlat xaridlari samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda budjet-soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Xususan, budjet mablag‘laridan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan turli xil noqonuniy pul aylanmalarining oldini olish, o‘z navbatida, “Budjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarurligi va budjet hisobidan mablag‘ ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat bo‘lgan, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlari bo‘lishi kerak” degan fikrni Prezidentimiz alohida ta’kidlab o‘tganlar[1]. Shuningdek, davlat va korporativ xaridlar jarayonini bugungi kun talablariga mos ravishda takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mamlakat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish ularning natijadorligini oshirish va mavjud moliyaviy tizimni shakllantirish, uni barqarorlashtirish iqtisodiy o‘sishning asosiy shartlaridan biridir. Davlat xaridlari davlat moliyasi tizimining rivojini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, bir tomondan budjet sohasi samaradorligiga, ikkinchi tomondan esa, davlat budjeti mablag‘larining maqsadli natijadorligiga to‘g‘ridan-tog‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xaridlarini belgilangan normativ-meyoriy hujjatlarda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mamlakatning strategik maqsadlari, vazifalari va rivojlantirish davlat dasturlarini o‘z vaqtida amalga oshirilishini hamda davlat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifatli va to‘liq bo‘lishini kafolatlaydi.

Davlat budjeti davlatning markazlashgan pul mablag‘lari bo‘lib, u daromad manbalari va ulardan olinadigan daromadlarni, xarajatlar miqdori va yo‘nalishini aks ettiradi. Davlat xarajatlarining tarkibiy qismi sifatida davlat xaridlari bilan birgalikda davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda davlat xaridlari tizimini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida mazkur ishlarga katta miqdorda o‘zgartirish va tuzatishlar kiritilmoqda.

Dunyodagi ko‘plab mamlakatlar singari O‘zbekiston Respublikasida ham davlat xaridi tizimini isloh etishga, xaridlarni elektron tarzda amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Elektron savdolarni juda tez sur’atlarda o‘sishiga internet, telemuloqot va axborot texnologiyalari juda ham rolni o‘ynamoqdalar.

1 Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza. uz/. 28.12.2018

Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, xaridni amalga oshirishda inson omilini cheklovchi elektron xaridlardan keng foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Davlat xaridlari tizimining shaffofligini ta'minlash hamda uni yanada takomillashtirish hisobiga korporativ buyurtmachilar, strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari va korxonalar mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda samaradorligini oshirish, davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish maqsadida davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish asosiy istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada huquqiy bazani shakllantirish maqsadida qator qonunlar qabul qilindi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ–793-son;
- O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni O'RQ–792-son;
- O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ 611-ii-son;
- O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ–578-son;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 185-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi 5-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4544-son qarori va boshqalar.

Elektron savdolarda ishtirok etish buyurtmachilar va yetkazib beruvchilar uchun birdek foydalidir. Jumladan:

- barcha ishtirokchilarni qiziqtirgan savdoni topishning qulayligi;
- elektron auksion savdolarida ro'yxatdan o'tish va ishtirok etishning bepulligi;
- hujjatlarni tayyorlashda xarajatlarning minimallashtirilganligi;
- bir necha marotaba narx taklif etish imkoniyati;
- yetkazib beruvchilar o'rtasida huquqlarning tengligi;
- adolatli raqobatning mavjudligi;
- davlat buyurtmalarida ishtirok etish imkoniyatining kengligi;
- davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish;
- dunyoning istalgan joyidan turib savdolarda ishtirok etish imkoniyati mavjudligi;
- elektron tizimga internet orqali kirish imkoniyati mavjudligi sababli inson resurslari va ish vaqtini tejash imkoniyatlari mavjudligi.

NATIJA

Bugungi kunda bir qator iqtisodchi va olimlarning fikriga ko'ra rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlashning asosiy omili bu – yashirin iqtisodiyotni oldini olish va iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Iqtisodchilar yana shuni ham qayd etishadiki, bunda korrupsiyaning oldini olish muhim o'rin tutadi.

Davlat xaridlari tizimini elektronlashtirish avvalambor budjet mablaglarini samarali sarflanishiga, shuningdek davlat buyurtmachilari va davlat xaridlari tizimida ishtirok etadigan tadbirkorlik subyektlarining mablag'larini moliyaviy xavf-xatarlardan himoya qilish tizimini kuchaytirishga olib keladi.

XULOSA

Budjet mablag'larini samarali sarflash har bir davlatning eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalalar yechimini topishda davlat xaridlari jarayonini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan qonun va qarorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat xaridlarini amalga oshirishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yganligi uchun tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilarga nisbatan undiriladigan jarima miqdorining kichikligi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xaridorlarga o'z vaqtida va belgilangan tartibda yetkazib berishda qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Belgilangan talablarga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, bu sohada davlat tashkilotlarining uzluksiz va samarali faoliyat yuritishi davlat va korporativ xaridlar jarayoniga mutasaddi tashkilotlar vakillarini jalb etish orqali ta'minlanadi .

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ–684-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ–3953-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi 5-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimini yanada takomil-

lashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari tog‘risida”gi PQ–4544-son Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi 24-noyabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–430-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston-ning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli farmoni.//www.lex.uz.

O‘ZBEKISTONDA TO‘LOV TIZIMINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Otamurodov Shavkat Nusratillayevich
Iqtisod fanlari doktori (DSc), Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Eshqulova Nasiba Normo‘minovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda to‘lovlar tiziming raqamli transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning mamlakat aholisi farovonligi o‘sishida ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Tahlillar asosida mamlakatda elektron to‘lovlar tizimi rivojlanishidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron to‘lov, electron to‘lov tizimi, P2P to‘lovlari, bank kartalari, moliyaviy ilovalar.

Abstract: The article examines the features of the digital transformation of the payment system in Uzbekistan, the importance of modern digital technologies in increasing the well-being of the population. Based on the analysis, scientifically based practical proposals and recommendations have been developed to eliminate existing problems in the development of the electronic payment system in the country.

Key words: Electronic payment, electronic payment system, P2P payments, bank cards, financial applications.

Аннотация: В статье изучены особенности цифровой трансформации платежной системы в Узбекистане, значение современных цифровых технологий в увеличении благосостояния населения. На основе анализа разработаны научно-обоснованные практические предложения и рекомендации по устранению существующим проблем в развитии системы электронных платежей в стране.

Ключевые слова: Электронный платеж, электронная платежная система, P2P-платежи, банковские карты, финансовые приложения.

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning hayotimizga tatbiq etilishi xarajatlarni kamaytirib, samaradorlikni oshiribgina qolmasdan, jamiyat hayotida va mamlakat iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlar kasb etmoqda. Xaridor internet orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan turli assortimentdagi mahsulot va xizmatlarni bir vaqtning o‘zida tez, oson hamda arzon narxlarda sotib olishi, istalgan AKT vositasi yordamida qulay, yuqori tezlikda hamda ishonchli to‘lovlarni amalga oshirib, ko‘plab pul mablag‘larini tejash imkoniyatini beradi.

Jahon tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, Xitoyda eng yirik mobil to‘lov platformasi Alipayning umumiy foydalanuvchilari 2020-yil oxiriga kelib 711 millionga yetgan (bu mamlakat aholisining deyarli yarmini tashkil qiladi). Yana bir yirik elektron tijorat giganti Taobao hisoblanadi. 2021-yilda Xitoyning onlayn chakana savdodan tushgan daromadi 13,09 milliard yuanga (1,87 milliard dollar) yetdi, ya’ni o‘tgan yilga nisbatan 14,1 % ga o‘sdi [1].

Raqamli tijorat rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham yuqori sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, Keniyada 2019-yil Pandemiya davrida iste‘molchilarning mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi taxminan 54 foizga, mobil banking agentlarining soni 19,56 foizga, mobil banking hisob raqamlari soni esa 14,56 foizga oshgan [2].

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va raqamli to‘lovlar tizimini rivojlantirishga doir bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, mazkur tizimni rivojlantirish maqsadida ko‘plab qilinishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab berilgan.

Barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish bo‘yicha “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [3] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-noyabrdagi PQ–14-son “Elektron tijorat ma‘murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi Prezident qarori [4], O‘zbekiston Respublikasining 03.02.2020-yildagi 578-sonli “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda ko‘plab iqtisodchi olimlar zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning aholi iste’moliga ta‘siri to‘g‘risida tadqiqot olib borib, onlayn to‘lovlar, internet savdo, onlayn kredit, kabi xizmatlarning rivojlanishi aholi iste’molining oshishiga olib kelishi hamda bu kam daromadli uy xo‘jaliklarida ko‘proq kuzatishini aniqlashgan. Jumladan, J. Li, S. Luo, G. Chjou Xitoyda elektron to‘lov va uy xo‘jaliklari iste‘molining ta‘sirini o‘rganib, elektron to‘lov uy xo‘jaliklarini ixtiyoriy tovarlarni ko‘proq iste‘mol qilishga undashi, noqulay ob-havo sharoiti elektron to‘lov uy xo‘jaligining ixtiyoriy iste‘molini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini aniqlaydi [6].

W. Bian, L. W. Cong, Y. Ji lar esa elektron hamyonlar nafaqat tashqi bank hisoblariga o‘tish yo‘lini, balki ichki to‘lov imkoniyatlarini, shu jumladan, doim mashhur bo‘lgan “Hozir to‘lash” (BNPL) ni ham ta‘minlaydi, ehtimol, naqd pul talab qiladigan iqtisoddan naqd pulsiz jamiyatlarga o‘tayotgan mamlakatlar uchun raqamli to‘lovlar va FinTech krediti eng katta o‘sish va bozor iuqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin deb ta‘kidlashgan [7].

A. V. Verigina, D. V. Kovallar esa Raqamli infratuzilma elementlari va yangi to‘lov mahsulotlari rivojlanishini ta’minlashda elektron to‘lov tizimlarining ta’siri va ahamiyati ortib borayotgani haqida o‘z takliflarini aytib o‘tgan [8].

A. L. Kilay, B. H. Simamora va D. P. Putralarning tadqiqotlarida Indoneziyada elektron to‘lovlar va elektron tijorat xizmatlaridan foydalanish kichik va o‘rta biznes sub‘ektlari uchun juda ko‘p imtiyozlar beribgina qolmay, elektron to‘lov va elektron tijorat xizmatlaridan foydalanishning ta‘minot zanjiri faoliyatiga ta‘sir qiluvchi uch sabab, ya‘ni elektron to‘lov xizmatlari, elektron tijorat xizmatlari va ta‘minot zanjiri samaradorligi orqali o‘lchashni asoslab ko‘rsatishgan [9].

P. S. Dalton, H. Pamuk,R. Ramrattan,B. Uras va D. Soestlar Keniyadagi kichik va o‘rta korxonalar bilan elektron to‘lov (elektron to‘lov) texnologiyasining biznes moliyasiga ta‘sirini baholash maqsadida olib borgan izlanishlari natijasida elektron to‘lov va mobil kreditlar kichik firmalarga qisqa muddatli salbiy zarbalarni yengishga yordam berishini aniqlashdi [10].

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, online savdo va elektron to‘lovlar to‘g‘risida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari va tadqiqotchilarining ham o‘z qarashlarii mavjud. Jumladan, Fayziyeva M. X [11], J. A. Qarshiboyev va Y. S. Ilxamova [12], B. M. Abdumalikov Z [13], O. O. Muslimov [14], Sh. N. Otamurodov va N. N. Eshqulova [15], F. B. Xalimbetov [16], larning raqamli iqtisodiyot, raqamli to‘lovlar to‘g‘risida tadqiqotlar olib borib, ularning mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘sishiga ta‘siri to‘g‘risida bir qator amaliy tavsiyalarini berib o‘tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalari, xalqaro va milliy statistika ma’lumotlarini taqqoslash, guruhlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, abstrakt mantiqiy tahlil hamda analitik tahlil kabi usullardan foydalanildi. Elektron to‘lov tizimi ilovalarining tahlilida Google Play Store ma‘lumotlaridan, shuningdek, aholi o‘rtasida olingan so‘rovnoma natijalari tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Internetning ommalashishi, online savdo platformalari, elektron do‘konlar va marketplayslar faoliyatining ko‘payishi natijasida malakatimizda elektron to‘lovlarni amalga oshirish muhim masalaga aylandi.

Elektron to‘lovlarni amalga oshirish dastlab faqat mobil aloqa xizmatlarini to‘lovini amalga oshirish imkonini bergan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bundan tashqari, pul o‘tkazmalari (P2P), onlayn-do‘konlarda tovarlar (xizmat) sotib olish, kreditlarni to‘lash, valyuta ayirboshlash, kommunal xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish, soliqlar va jarimalarni to‘lash imkoniyati mavjud.

Banklar va to‘lov tashkilotlari onlayn-to‘lovlarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan xizmatlar doirasini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. Bular jumlasiga: kredit muassasalar, ta’lim muassasalari, bolalar bog‘chalari, barcha turdagi xizmat ko‘rsatish sohalari, sug‘urta kompaniyalari, sayyohlik agentliklari va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Bu esa, o‘z navbatida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshishiga olib kelmoqda. Banklarning masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilari 2018–2022-yillarda sezilarli darajada o‘sdi. Xususan, 2018-yilda ushbu xizmatlardan foydalanuvchi aholi soni 4,2 millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 19, 2 millionga yetdi. Shuningdek, banklarning masofaviy xizmatlari tizimidan foydalanuvchi korxona va tashkilotlarning soni 2018-yilda 227,9 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 968,6 mingtaga yetdi, ya‘ni, 4,3 barobar o‘sdi (1-rasm).

Markaziy bankning kliring tizimi orqali 2018-yil mobaynida 5 205,7 mlrd. so‘mlik to‘lovlar amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022-yilda to‘lovlar summasi 58 688,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan, ya’ni 2018-yilga nisbatan qariyb 11,3 barobarga ortgan (2-rasm).



1-rasm: Masofadan bank xizmatlari ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni [17]

Hozirgi kunda elektron hamyonlar ochish imkoniyatini taqdim etadigan ko‘pgina to‘lov tizimlari mavjud.

Elektron hamyonni to‘ldirish ikki xil, ya‘ni naqd pul (bankomat, bank kassalari, POS-terminal) va naqd pulsiz (HUMO va UZCARD kartalari, bank o‘tkazmalari, elektron hamyondan pul o‘tkazish va boshqalar) yo‘llari orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda elektron to‘lovlarning rivojlanishi, to‘lov vositasi sifatida qulayligi va xizmat ko‘rsatish sifati oshib borishi natijasida elektron to‘lovlardan foydalanuvchi aholining ulushi ortib bormoqda. Yaqin o‘tmishda bank plastik kartalari mijozlar uchun turli noqulayliklar yaratishi, uning to‘lov vositasi sifatida turli noqulayliklar keltirishi turli e’tirozlarga sabab bo‘lib kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda ko‘pchilik mijozlar aynan ushbu to‘lov vositasini ma’qul ko‘rmoqda. Ilmiy tadqiqotimiz doirasida aholining elektron to‘lovlarga bo‘lgan munosabatlari va sohadagi muammolarni aniqlash maqsadida Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi.



2-rasm: Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha ma’lumot [17]

Ishtirokchilaring 88,5 foizi bank plastik kartalariga ega bo‘lishgan. Respondentlarning 51,5 foizi bank plastik kartalarini ish joyidan olishgan bo‘lsa, 7,1 foizi bankdan kredit olishi uchun, 41,8 foizi esa o‘z ehtiyojlari uchun (onlayn xarid, P2P bank o‘tkazmalari va boshqa) olishgan [18].

Bundan tashqari, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 47,8 foizi elektron to‘lov tizimi ilovalaridan deyarli har kuni foydalanishgan. 32,8 foizi har kamdan kam foydalanishini qayd etishgan. Shu bilan birga mazkur to‘lov shaklga ishonmaydigan (9.8%) va tushunmaydigan (5,0%) respondentlar ham mavjudligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: Elektron to‘lov tizimi ilovalardan foydalanish bo‘yicha ma’lumot, (%, foizda) [18]

Javoblar	Jami	Yosh bo‘yicha guruhlar					Ma’lumoti		
		18–25 yosh	26–35 yosh	36–50 yosh	51–60 yosh	60 dan yuqori	O‘rta	O‘rta maxsus	Oliy
Ha, deyarli har kuni	47,8	53,1	63,3	38,3	38,2	16,7	20,0	40,4	61,2
Ha, kamdan-kam	32,8	32,3	22,2	39,3	36,4	38,9	40,0	39,5	26,6
Yo‘q, ishonmayman bu turdagi to‘lovlarga	9,8	8,5	11,1	9,3	10,9	11,1	14,3	7,0	9,3
Yo‘q, bank plastigi menda yo‘q	4,8	3,1	1,1	8,4	7,3	5,6	10,0	7,9	1,4
Yo‘q, bu turdagi dasturlarga tushunmayman	5,0	3,1	2,2	4,7	7,3	27,8	15,7	5,3	1,4

Mazkur ma’lumotlarni yosh guruhlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 26–35 yosh oraligidagi respondentlarning – 63.3 foizi, 18–25 yoshdagilarning – 53,1 foizi to‘lov tizimi ilovalaridan deyarli har kuni foydalanilayotganligi ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumoti bo‘yicha tahlilda oliy ma’lumotga ega bo‘lgan respondentlarning 61,2 foizi ushbu ilovalardan har kuni foydalanayotganligini o‘rta ma’lumotlilarning 15,7 foizi ularga tushunmasligini qayd etganlar.

Aholi o‘rtasida elektron to‘lov ilovalaridan amalga oshiradigan ommabop to‘lovlar sifatida soliq va boshqa majburiy to‘lov hamda kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Ushbu javobni respondentlarning 53,5 foizi belgiladi (2-jadval).

2-jadval: Zamonaviy to‘lov tizimlaridan foydalanish maqsadlari bo‘yicha ma’lumot (%, foizda) [18]

Javoblar	Jami	Yosh bo‘yicha guruhlar					Ma’lumoti		
		18–25 yosh	26–35 yosh	36–50 yosh	51–60 yosh	60 dan yuqori	O‘rta	O‘rta maxsus	Oliy
Soliqlar va kommunal to‘lovlarni amalga oshirishda	53,5	43,1	57,8	69,2	45,5	43,8	40,0	53,5	57,9
Kredit to‘lovlarini amalga oshirishda	31,8	14,6	36,7	40,2	47,3	37,5	22,9	30,7	35,2
Qarindosh va tanishlarga po‘l o‘tkazishda	41,5	43,1	44,4	41,1	38,2	31,3	34,3	33,3	48,1
Saytlardan mahsulot(xizmat) sotib olishda	20,8	21,5	21,1	17,8	21,8	31,3	14,3	19,3	23,6
Do‘konlardan mahsulot sotib olishda	41,5	45,4	31,1	41,1	47,3	62,5	34,3	36,8	46,3
Boshqa	7,3	10,0	6,7	1,9	10,9	12,5	10,0	3,5	8,3

Mazkur to‘lovlar barcha yoshlar guruhlarida hamda ma’lumotlar bo‘yicha guruhda eng ko‘p foydalanilgan to‘lov yo‘nalishi sifatida qayd etilgan. Shuningdek, keng foydalanilgan to‘lovlar yo‘nalishi sifatida P2P to‘lovlar va do‘konlardan mahsulot sotib olish maqsadlarini keltirishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek mamlakatimizda P2P to‘lovlar jismoniy shaxslar o‘rtasidagi mablag‘ o‘tkazishida keng qo‘llanilmoqda.

Ushbu ma’lumotlar aholining onlayn to‘lovlarga ishonchi oshayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida, Shu jumladan, tijorat sohalarida ham amalga oshmoqda. Elektron tijoratning internet savdo (internet do‘konlar, savdo platformalari), raqamli marketing va elektron to‘lov tizimlari kabi sohalari faol rivojlanmoqda.

O‘zbekistinda elektron savdo rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, aholi onlayn xaridlar uchun telegram botlaridan faol foydalanishadi. O‘z navbatida ushbu ilova to‘lovlarni amalga oshirish, uning xavfsizligini ta’minlash, hamda rasmiy oldi-sotti bitimlari tuzish imkonini bermaydi.

Buning natijasida, iste’molchilar va sotuvchilar huquqlarini himoyalash, kiberjinoyatchilikning oldini olish masalalarida muammolar vujudga kelmoqda. Bundan tashqari, iste’molchilar faqat kichik xaridlarni amalga oshirishi, kattaroq xaridlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishida qo‘rquv va ishonchsizlik bildirishmoqda. Bu kabi holatlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning ko‘payishiga salbiy ta’sir etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida, shu jumladan, tijoratda ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Qisqa muddat ichida aholining elektron to‘lovlarga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib, elektron to‘lovlar tizimidan aholing barcha qatlamlari keng foydalanib kelmoqda.

Hududlarda internetning ishlash tezligi hamda Internetdan foydalanish uchun narxlarning nisbatan balandligi muammolari, axborot texnologiylari bo‘yicha (IT) mutaxassislarning yetishmasligi, AKT vositalaridan foydalanishda aholi savodxonligining yetarli darajada emasligi, elektron savdo va elektron to‘lovlarni amalga oshirishda aholi tomonidan ishonchsizlik holatlarining yuqoriligi hamda aksariyat savdo platformalari hamda marketplacelarda to‘lov imkoniyatlarining mavjud emasligi va shu kabi boshqa holatlarning mavjudligi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jie Li, Yu Wu, Jing Jian Xiao, The impact of digital finance on household consumption: Evidence from China, Economic Modelling, Volume 86, 2020. – P. 317–326.
2. Tut D. FinTech and the COVID–19 pandemic: Evidence from electronic payment systems //Emerging Markets Review. – 2023. – T. 54. – S. 100999.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-sonli Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasining 03.02.2020-yildagi 578-sonli “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. Li J., Luo S., Chjou G. Elektron to‘lov, tabiiy muhit va uy xo‘jaliklarining iste’moli: Xitoyning uy xo‘jaligini moliyalashtirish so‘rovidan olingan dalillar // Moliyaviy tahlilning xalqaro sharhi. – 2023. – T. 85. – S. 102472.
7. Bian W., Cong L. W., Ji Y. The Rise of E-Wallets and Buy-Now-Pay-Later: Payment Competition, Credit Expansion, and Consumer Behavior. – National Bureau of Economic Research, 2023. – №. w31202.
8. Веригина А. В., Коваль Д. В. Приоритеты развития электронной коммерции в 2022 году //Экономика. Налоги. Право. – 2022. – Т. 15. – №1. – 94–104 с.
9. Kilay A. L., Simamora B. H., Putra D. P. The influence of e-payment and e-commerce services on supply chain performance //Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. – 2022. – T. 8. – №3. – P. 119.
10. Dalton PS et al. Electronic payment technology and business financing: a randomized, controlled trial with mobile money //Management Science. – 2023.
11. Fayziyeva M. X. Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, –2023. – №7. – 406–411-betlar.
12. Abdulatifovich Q. J., Saydaxmedovna I. Y. Mamlakatimizda elektron to‘lov tizimlarinidan foydalanish samaradorligi // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №5. – P. 639–645.
13. Abdumalikov Z. Elektron pullar va ularning bugungi kundagi ahamiyati //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2022. – Т. 1. – №27. – 63-66-betlar.
14. Olimovich M. O. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning o ‘rni //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №19. – 1398–1404-betlar.
15. Otamurodov SH. N, Eshqulova N. N. O‘zbekistonda elektron to ‘lovlar tizimining rivojlanish yo ‘nalishlari //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №4. – 1–10-betlar.
16. Xalimbetov F. B. Iqtisodiyot va uning tarmoqlarini raqamlashtirish iqtisodiyot sohasiga raqamli texnalogiyalarni olib kirilishi //Scientific approach to the modern education system. – 2023. – T. 2. –№16. – 122–126-betlar.
17. O‘zbekiston Respubliksi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: www.cbu.uz.
18. Mualliflarning Surxondaryo viloyatida o‘tkazgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari asosida tuzildi.

TIJORAT BANKI XIZMATLARIDA TA'LIM KREDITINING O'RNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Eldor Uskanov
Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlarini ajratish, uning o'rni va ahamiyati, ta'lim kreditlari bo'yicha beraladigan imtiyozlar, ta'lim kreditiga ta'sir qiluvchi omillar va ta'limni kreditlashni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit, ta'lim krediti, imtiyozli kredit, kafil, garov, kredit foizi, imtiyozli foiz stavka, kredit riski, kredit monitoringi.

Abstract: The article discusses the issues of lending to the education sector, its place and importance, benefits, factors affecting educational credit and issues of improving lending to the education sector.

Key words: loan, educational loan, preferential loan, collateral, guarantee, interest rate, preferential interest rate credit risk, credit monitoring.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы кредитования сферы образования, его место и значение, льготы, факторы, влияющие на образовательный кредит и вопросы совершенствования кредитования сферы образования.

Ключевые слова: кредит, образовательный кредит, льготный кредит, залог, гарантия, процентная ставка, льготная процентная ставка кредитный риск, кредитный мониторинг.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini yetarli darajada shakllantirishga erishdi. Biroq, banklar o'rtasidagi raqobat kurashi ularni qo'shimcha mijozlar jalb etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda. Bank xizmati mijozning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan alohida bank operatsiyalari bo'lgani uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida bank xizmat turlarini ko'paytirish, ta'lim kreditlari ajratishda ularning mavqeyini oshirishni takomillashtirish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xizmatlari va mahsulotlari sohasida ko'pgina xorijlik va mahalliy olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borishgan Rossiyalik olimlardan O. I. Lavrushin, A. M. Tavasiyev, T. Y. Mazurina, V. B. Bichkovlarning fikricha, ... bank xizmatlari bank operatsiyalariga qo'shimcha hisoblanib ularga bank operatsiyalarining qo'shimcha bir turi sifatida qarash mumkin[1]. Ushbu olimlar bank operatsiyalari va xizmatlarini bir xil tasniflash lozimligiga e'tibor qaratsa, O. I. Lavrushin bank operatsiyalari va xizmtlari o'rtasida ba'zi tafovutlar mavjudligiga e'tibor qaratadi[2]. Rossiyalik yana bir olim Y. P. Jarkovskaya "... masofaviy bank xizmatlari bank ofisida aynan bank xodimi va mijoz ishtirokida emas balki, uyda, ish joyida, umuman mijozga qulay bo'lgan xoxlagan joyda xizmat ko'rsatishdir"[3] degan ta'rifni keltiradi. Y. P. Jarkovskayaning bu fikri ko'proq masofaviy bank xizmatlariga qaratilshganligini

1 Тавасиев А. М., Мазурина Т. Ю., Бычков В. Б. Банковское кредитование. – М.: Инфра-М, 2012. – 507 с.
2 Лаврушин О. И. Банковское дело. Учебник. – М:. Финансы и статистика, 2010. – 382 с.
3 Жарковская Е. П. Банковское дело. – М.: Омега-Л, 2014. – 413 с.

ko‘rishimiz mumkin. A. S. Goncharuk ham ko‘proq masofaviy bank xizmatlariga e’tibor qaratib “Masofaviy bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir”[4] ekanligini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonlik olimlardan prof. Sh. Z. Abdullayeva[5] ham bank xizmatlarida ko‘proq zamonaviy texnika texnologiyalar qo‘llash qulayligiga, bank xizmatlarining turlarini ko‘paytirishga e’tibor qaratganini ko‘rishimiz mumkin.

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan mahalliy olimlarimizdan yana biri Z. T. Mamadiyarovning fikricha, “... bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog‘liq”[6] deya xulosa shakllantirgan bo‘lsa, mazkur yo‘nalishda tadqiqot ishlarini olib borgan yana bir izlanuvchi X. Xudoyarova[7] “bank chakana xizmatlari bozorini takomillashtirishga qaratilgan strategik maqsadga erishishda, chakana bank xizmatlarini yetkazib berish jarayonini bir standartga solish asosida zamonaviy, innovatsion “online” xizmat turlarini joriy etish orqali, bank chakana xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish hamda bank mijozlari talabini qondirish” lozimligi muhim ekanligi ta’kidlangan. Ammo yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank xizmatlari masalasi ko‘rilganda asosiy e’tibor ularning turlarini takomillashtirishdan ko‘ra, ularning tezkorligiga hamda qanday shaklda amalga oshirilishiga qaratilgan. Ta’lim krediti bank xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shakli sifatida ko‘rib chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola mavzusi zamonaviy va dolzarb bo‘lib uni tadqiq qilishda kreditlash va ta’lim kreditiga oid materiallar analiz-sintez usulidan foydalangan holda o‘rganildi va xulosalar shakllantirildi, qiyosiy tahlil, guruhlash, empirik va kuzatish metodlaridan foydalangan holda bank kreditlash amaliyotdagi mavjud muammolarning sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha fikr va xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga kredit xizmatlari ko‘rsatish, jumladan, ta’lim kreditlar ajratish salmog‘i yildan yilga oshib bormoqda. Olim ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha kvotalarning oshganligi, oliy ta’lim muassalari sonining ko‘payganligi ta’lim kreditlariga bo‘lgan talablarning ham oshishiga olib keldi. Kreditlash tijorat banklari faoliyati va u mijozlarga ko‘rsatadigan xizmat turlarining asosiylaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga ko‘ra[8] tijorat banklari tomonidan 2023-yil I yarim yilligida 116 trln so‘m miqdorida yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32 foiz ortiq kreditlar ajratilgan. Mazkur kreditlarning 60 foizi (70 trln so‘m) korporativ va 40 foizi (46 trln so‘m) aholiga ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur kreditlar tarkibida ta’lim kreditlari ham salmoqli o‘rin egallaydi. Shuningdek, ajratilgan kreditlarning 24 foizi qisqa muddatli va 76 foizi uzoq muddatli, valyutalar kesimida esa 68 foiz kreditlar milliy valyutada va 32 foiz xorijiy valyutadagi kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrda tijorat banklari tomonidan 85 trln so‘mlik kreditlar so‘ndirilgan bo‘lib, qaytuvchanlik darajasi 73 foizni tashkil etgan. Banklarning jami kredit qo‘yilmalari qoldig‘i 2023-yil 1-iyul holatiga 424 trln so‘mni tashkil etib, ularning 71 foizi korporativ kreditlar, 29 foizi chakana kreditlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Jami kredit portfeli qoldig‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,3 foizga yoki 80,2 trln so‘mga, xususan, korporativ kreditlar 14 foizga (36,7 trln so‘m) va aholi kreditlari 54 foizga (43,5 trln so‘m) o‘sgan. Aholiga ajratilgan kreditlar tarkibida avtokreditlar 33,5 trln so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 212 foizga o‘sgan), ipoteka kreditlari 51 trln so‘m (26 foizga o‘sgan) va mikroqarzlar 18,9 trln so‘mga yetgan. [9] Ta’lim krediti Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat va magistratura mutaxassisliklarida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilgan yoki qabul qilingan talabalariga beriladi.

Bugungi kunda ta’lim kreditlarini olish jarayonlari ancha soddalashtirilgan va mamlakatimizda faoliyat yurituvchi barcha banklar mazkur yo‘nalishda kreditlashni amalga oshiradilar. Quyida ba’zi tijorat banklari tomonidan ta’lim kreditlari ajratish shartlarini ko‘rib chiqamiz.

4 Гончарук А. С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К. Л. Хета-гурова - Шахты, 2012. – 183 с

5 Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 535–536-betlar.

6 Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019. – 13-b.

7 Xudoyarova X. A. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – 9-b.

8 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlariga asoslanildi.

9 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlariga asoslanildi.

1 jadval: Tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlari ajratish shartlari[10]

№	Tijorat banklar	Kredit foizi (%)	Birdaniga ajratiladigan miqdor (%)	Kredit muddati (yil)	Imtiyozli davr	Ta'minot shakli
1.	Qishloq qurilish bank	14	100	1–4	o'qish davri	kafillik
2.	Ipoteka bank	14	100	1–7	o'qish davri va 7 yilgacha	garov, sug'urta polisi, kafillik
3.	Xalq bank	14	shartnomaga asosan	11	o'qish davri va yana 6 oy	garov, sug'urta polisi, kafillik
4.	Sanoat qurilish bank	14	shartnomaga asosan	11	18 oydan 78 oygacha	Kafillik
5.	Agrobank	14	100	13,5	o'qish davri va yana 6 oy	garov, sug'urta polisi, kafillik ta'minotsiz

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, barcha tijorat banklari ta'lim kreditlarini imtiyozli foiz stavkalarda berilmoqda, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi 14 foizdan yuqori bo'lmagan foizlarda taqdim etishmoqda. Aksariyat hollarda tijorat banklari shartnomada ko'rsatilgan miqdorni to'liq miqdorda hisob varaqlarga o'tkazib beradi. Kredit muddati talabaning o'qish daKreditning muddati 1 yildan tortib 13,5 yilgachani tashkil etmoqda. Valyutalar kesimida NPLning 67 foizini milliy valyutadagi va 33 foizini xorijiy valyutadagi kreditlar tashkil etsa, mijozlar kesimida 27 foizi jismoniy shaxslar va 73 foizi korporativ mijozlar hissasiga to'g'ri keladi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarda NPL ulushi 3,1 foizni tashkil etib, bunda ipoteka kreditlarida 1,6 foizni (815 mlrd so'm), mikroqarzlarda 1,6 foizni (310 mlrd so'm) va avtokreditlarda 0,5 foizni (176 mlrd so'm) tashkil etgan. 5-diagramma Kredit qo'yilmalarida NPL ulushi tarmoqlar qirqimida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishda 10,5 foiz, qurilish sohasida 7,7 foiz, savdo va umumiy xizmat sohasida 6,5 foiz, qishloq xo'jaligida 4,3 foiz, sanoat sohasida 2,8 foiz darajasida shakllangan (6-diagramma). Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan tarmoqlar kesimida NPL ulushi uy-joy kommunal xizmatlar sohasida 3,7 foiz, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 2,6 foiz, qishloq xo'jaligida 2,3 foiz hamda qurilish sohasida 1,6 foiz bandga pasaygan.

2 jadval: Tijorat banklari tomonidan xotin – qizlarga ta'lim kreditlari ajratish holati[11]

№	Tijorat banklar	Kredit foizi (%)	Kredit miqdori (%)	Kredit muddati (yil)	Ta'minot shakli
1.	Mikrokredit bank	0	shartnomada ko'rsatilgan miqdor	15 yilgacha	Kafillik, sug'urta polisi
2.	Agrobank	14	shartnomada ko'rsatilgan miqdor	7,5 yil	garov, sug'urta polisi, kafillik, ta'minotsiz ham bo'lishi mumkin.
3.	Sanoat qurilish bank	14	shartnomaga asosan	11 yilgacha	Kafillik –125 foiz

Yuqori jadvaldagi ma'lumotlar ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda xotin qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyatini oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan ularga beriladigan kreditlarni olish imukoniyati ancha soddalashtirilgan hamda kreditlarni uzoqroq muddatga, past foiz stavkalarda va ba'zi guruhda mansub xotin qizlarga hatto foizsiz kredit olish imkoniyati ham yaratilmoqda. Odatda tijorat banklari kredit berishda ID karta yoki pasport, talaba va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt) va unga ilova qilinadigan hisob varaqasi, (shartnoma (kontrakt)da o'qishni tamomlashning belgilangan muddati va bir yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim), doimiy daromadga ega bo'lgan kafil yoki boshqa ta'minot, qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa tegishli hujjatlar ham talab qilinishi mumkin. Kredit kafolati sifatida uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta'minot turlari qabul qilinishi mumkin.

10 cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
11 cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

- tijorat banklari tomonidan ta’lim kreditlarini ajratish, ularni berish va rasmiylashtirish jarayonlarini ancha soddalashtirish lozim;
- aholning ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan qatlamlari va xotin qizlarga imtiyozli past foizli kreditlar berish amaliyotini ijobiy baholab uni davom ettirish lozim deb hisoblaymiz;
- ta’lim kreditlari olishda ta’minot masalasi ancha muammoli bo‘lgani uchun ta’lim kreditlari ustidan monitoring jarayonlarini takomillashtirish,
- kreditlashda kreditlar sifatini tasniflash va bunda muammoli kreditlar, kredit risklari kelib chiqish sabablarini o‘rgangan holda kredit portfelini tarkiblashtirish va shakllantirishga e’tibor berish maqsadga muvofiq;
- ta’lim krediti ta’minoti bo‘yicha yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va texnologiyalar vazirligi huzurida ta’lim kreditlari bo‘yicha “Ta’minot fondi”ni shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тавасиев А. М., Мазурина Т. Ю., Бычков В. Б. Банковское кредитование. – М.:Инфра-М, 2012. – 507 с.
2. Лаврушин О. И., Банковское дело. Учебник. – М:. Финансы и статистика, 2010. – 382 с.
3. Жарковская Е. П., Банковское дело. – М.: Омега-Л, 2014. – 413 с.
4. Гончарук А. С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев. -Осет. гос. ун-т им. К. Л. Хета-гурова - Шахты, 2012. – 183 с.
5. Sh. Z. Abdullayeva. Bank ishi. T.: “Iqtisod-moliya” 2017. 535–536 bb.
6. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 13-b.
7. Xudoyarova X. A., O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – 9-b.
8. cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.

KORXONANING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudov Nosir Maxmudovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori

Elmurodov Faxriddin Farxodovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Loyiha boshqaruvi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada korxonaning strategiyasi, strategik boshqaruvi, strategik rejalashtirish bosqichlarini ishlab chiqish tahlili keltirilgan. Shu bilan birga, strategik boshqaruv (menejment) atamalariga xorij olimlari va internet saytlarida keltirilgan ta’riflar aks ettirilgan. Korxonaning strategik boshqaruvi mazmuni, ya’ni ta’sir etuvchi omillar hamda korxona strategiyasini rejalashtirish bosqichlari jadval orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik menejment, strategik boshqaruv, strategik tahlil, strategik rejalashtirish.

Abstract: The article presents an analysis of the development of the enterprise’s strategy, strategic management, and strategic planning stages. At the same time, the definitions of strategic management terms given by foreign scientists and on Internet sites are reflected. The content of the strategic management of the enterprise, i. e. the influencing factors and the stages of planning the enterprise strategy, are shown in the table.

Key words: strategy, strategic management, strategic analysis, strategic planning.

Аннотация: В статье представлен анализ этапов разработки стратегии предприятия, стратегического управления и стратегического планирования. При этом отражены определения терминов стратегического управления (менеджмента), данные зарубежными учеными и на сайтах интернет. Содержание стратегического управления предприятием, т. е. влияющие факторы и этапы планирования стратегии предприятия, представлены в таблице.

Ключевые слова: стратегия, стратегическое управление, стратегический менеджмент, стратегический анализ, стратегическое планирование.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston tadbirkorlari va biznes vakillariga keng imkoniyatlar yaratilib soha yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tadirkorlar hamda biznes vakillarining mas’uliyatini oshirib, tashkilot yoki korxonalarni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish va berilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishni talab etadi Bunday sharoitda korxonalar o‘zining o‘rta va uzoq muddatga belgilangan maqsad va vazifalarini belgilab olish kerak bo‘ladi. Buning uchun strategik tahlil o‘tkazish va korxona rivojlanishini shakllantirish dolzarb

masalaga aylanib boradi. Korxona o‘z faoliyatida ma’lum bir to‘siqlar va xavf-xatarga duch kelishini oldindan bilishi va shunga nisbatan prinventiv choralar ko‘rib borishi kerak bo‘ladi. Bu ham strategik rejalash va ishlab chiqishni ta’lab etadi. Islohatlar sharoitida korxonaning kelgusi davrdagi faoliyatini belgilashda, rejalashtirishda mavhumlik holati ko‘p uchraydi. Bunday mavhumlikni oydinlashtirish maqsadida korxonaning rivojlanishini bir qancha stenariyalik variantlarini belgilash lozim bo‘ladi (pessimistlik,optimistlik, inersion variantlar). Shu sababli iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida korxonalarda strategik boshqaruv tizimini bozor talablarida moslashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanliga sababli tavsiyalar keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Har qanday mamlakatning ravnaqi, uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu jumladan korxonalarning ham. Bu borada zamonaviy iqtisodchi ilm-fan nomoyondalari juda ko‘p izlanishlar amalyotlar olib borgan. Xorijiy mamlakat olimlari A. Goponenko, Fillip Kotler, R. S. Kaplan, D. P. Norton, Kemplel va boshqalar tomondan boshqaruv to‘g‘risida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar kitoblar nashr qilingan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari Vladimir Kvint, B. I. Goncharov, Y. A. Malenkov, I. B. Gurkov va boshqalar tomonidan ham izlanishlar natijasida turli xildagi adabiyotlar, maqolalar chop etilgan. Korxonalarda strategik boshqaruv imkoniyatlarini oshirishning zaruriyati, nazariy va amaliy masalalarini respublikamizdagi bir qator olimlar: Sh. Zaynutdinov, S. G‘ulomov, N. Q. Yo‘ldoshev, G‘. M. Qosimov va boshqalarning darslik, maqola ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan va alohida to‘xtalib o‘tilgan.

TATQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxona faoliyatidagi barcha holat sabab va oqibatlarni ketmaketlikda o‘rganish tahlil qilish va ularni bir-biri bilan birgalikda o‘rganshda tizimli va kompleks tahlil, sotsiologik kuzatuv, undan tashqari qiyosiy tahlil qilish, tarkibiy yondashuv, eksprement usuli ekonometrik tahlil usullaridan foydalaniladi. Korxona tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va boshqarish sifatini baholashda boshqaruvning funksional tahlili va ekspert baholash metodlari qo‘llaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun boshqarishning, ayniqsa strategik boshqaruvning turli sohalarida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi muhim vazifalardan biri sanaladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi natijasida korxonalarni strategik boshqarishda yangi talablar paydo bo‘lmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotining zamonaviy o‘tish bosqichi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va turli xil mulkchilik shakllariga o‘tish bilan tavsiflanadi. Bu o‘z navbatida samarali boshqarishning zarurligini taqozo etadi. Samarali boshqarish ishlab chiqariladigan mahsulot raqobatbardoshligini va buning natijasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona muhitida tashkilotni maqsad sari yo‘naltirish, menejerlarning strategik rejalarini va vazifalarini amalga oshirish, tanlangan strategiyani hayotga tatbiq etish kabi faoliyatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi.

Strategik boshqaruv – bu korxona mavqeyini mustahkamlashga, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga va muayyan natijalarga erishishga qaratilgan boshqaruv rejasidir. Lekin hozirgi bozor sharoitida ko‘pgina korxona va tashkilotlarda, xususan, loyihalar tashkilotlarida hamon boshqaruv tuzilmasida ortiqcha bo‘g‘inlar mavjud bo‘lib, bular o‘z navbatida yuqorida ta’kidlaganimizdek, strategik boshqaruvda mehnat unumdorligining pasayishiga va pirovard natijada korxonaning yakuniy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida korxonalarda strategik boshqaruv tizimini bozor talablariga moslashtirish, ya’ni takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Strategiya korxonaning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun rahbariyat foydalanadigan tadbir-choralar majmuasidan iborat. Rahbariyat korxona biznesini qanday boshqarishni bilish uchun hamda ko‘p omilli muhitda muqobil yo‘nalishlardan birini to‘g‘ri tanlash uchun strategiyani yaratadilar. Rahbariyat foydalanishga qaror qilgan strategiya mavjud biznes yo‘nalishlaridan biri va biznesni yuritishni muayyan usuli tanlanganligini ko‘rsatadi.

Korxona moliyaviy va strategik maqsadlarni alohida belgilashi lozim. Moliyaviy maqsadlarning mavjud emasligi, moliyaviy resurslarni yuqori tavakkalchilik bilan sarflanishiga sabab bo‘ladi. Natijada korxonaning o‘sishi va raqobatbardoshligi pasayadi.

Korxona strategik maqsadlari shuning uchun muhimki, ular korxona raqobat mavqeyini mustahkamlaydi va biznesning rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Strategiya – bu faoliyat turlarining ma’lum dastasini nazarda tutuvchi noyob va qulay mavqeni yaratishdir. Strategik mavqeni egallashning mazmuni raqobatchilardan ustun bo‘lgan faoliyat turlari dastasini yaratishdan iborat.

“Strategiyalar korxonaning kuchli taraflarini samarali sarmoyalashi, va shu bilan uning zaif tomonlaridan chetlab o‘tishi, ijobiy tashqi sharoitlardan ustun taraflarini tanlab olish va tashqi xavflardan holi bo‘lmog‘i zarur”[1].

Strategiya – tashkilotning tashkiliy vazifa va maqsadlariga erishishda foydalaniladigan tashkiliy xatti-harakatlar va boshqaruvga yondashuvlari tarzidir. Biznes sohasini belgilash, maqsadni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni (dasturlarni) aniqlash, maqsadga erishish strategiyasini belgilab olish strategik rejani tashkil qiladi.

Garvard biznes-maktabi professori Chandler ta’rifiga ko‘ra, strategiya – tashkilotning vazifalari va asosiy uzoq muddatli maqsadlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan resurs (moddiy ne’mat)larni joylashtirish va harakat yo‘nalishini belgilab olishdir[2]. To‘g‘risini aytganda, “strategiya” terminining Chandler tomonidan tushuntirilishi boshqa ta’riflarga nisbatan oddiyroq va tushunarliroqdir. E’tibor qilgan bo‘lsangiz. Chandler ta’rifida strategiyaning uch elementi to‘g‘risida so‘z boradi. Asosiy uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash ketma-ket bajarilishi kutilayotgan strategik maqsadlarni belgilab olishdir.

Strategiyani yaratish asosiy boshqaruv muammosini ko‘taradi ya’ni, korxonaning hozirgi va kelajak imkoniyatlarini hisobga olib, kerakli natijalarga qanday erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Strategiya umumiy tarzda firmaning mavqeyini mustahkamlash, iste’molchilarning talablarini qondirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqarish rejasi sanaladi. Aniq strategiyani tanlash rivojlanishning mumkin bo‘lgan turli yo‘llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olish demakdir.

Korxonani boshqarish rejasi o‘z ichiga quyidagi asosiy funksiya va bo‘linmalarni oladi: ta’minot, ishlab chiqarish, moliya, marketing, xodimlar, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar. Strategiyani tanlash bu biznes yechimlari va raqobatga bardoshlilik harakatlarini yagona tizimga bog‘lashni anglatadi.

Strategiyani ishlab chiqish menejerlarning asosiy funksiyalaridan biridir. Ba’zi menejerlar kuchli strategiya ishlab chiqadilar, biroq uni hayotga tatbiq eta olmaydilar. Boshqa menejerlar o‘rtacha strategiya ishlab chiqadilar va uni mohirona amalga oshiradilar. Strategiya qanchalik yaxshi o‘ylangan va mohirona amalga oshirilgan bo‘lsa, kompaniyaning mavqeyi shunchalik kuchayadi. Boshqarish yaxshi tashkil etilgan korxonalar ham kutilmagan noxush vaziyatlarga duch keladi. Pirovard natijada yaxshi strategiya bozorda kuchli mavqeni egallash, kutilmagan holatlar, kuchli raqobat va ichki muammolarga qaramay, muvaffaqiyatli ishlashga zamin yaratadi.

Strategik boshqaruv jarayonida korxona va tashkilotda faoliyat olib borayotgan menejerning vazifasi quyidagilarni aniqlashdan iborat bo‘ladi:

- Biz qayerdamiz?
- Qayoqqa ketyapmiz?
- Faoliyatimizning maqsadi nimadan iborat?
- Maqsadga erishish yo‘llari qanaqa?
- Optimal yo‘lni tanlash mezonlari nimalardan iborat?
- Pirovard natija qanday bo‘lishi kerak?

Bu savollariga javob topish kelgusi boshqaruv sikllarida foydalanish, maqsad va natijalarni aniqlash uchun o‘ta muhim.

Strategik menejment kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga taalluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qiladi va kompaniyada menejmentni yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatuvchi eng to‘g‘ri belgi bo‘lib xizmat qiladi.

Strategik menejmentning mazmuni quyidagilardan iborat:

- korxona biznesining yo‘nalish va asosiy maqsadlyarini belgilab olish;
- korxonaning tashqi muhitini tahlil qilish;
- undagi ichki vaziyatni tahlil qilish;
- korxona yoki xo‘jalikning o‘rta bo‘g‘inlarida strategiyani tanlash va ishlab chiqish;
- diversiyalangan korxona portfelini tahlil qilish;
- uning tashkiliy tuzilmasini loyihalash;
- integratsiya darajasini va boshqaruv tizimini tanlash;
- “strategiya – tuzilma – nazorat” majmuasini boshqarish,
- korxona faoliyatining ba’zi sohalardagi siyosati va uning fe’l-atvor me’yorlarini belgilash;
- korxona strategiya va natijalarining teskari aloqasini ta’minlash; – strategiya tuzilma va boshqaruvni takomillashtirish.

Bularning barchasi 1-chizmada keltirilgan.

1 Fred R. David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts & Cases. Pearson. USA. 2014. – 16 p.
2 Kattakishiyev V., Mamayusupov I. Strategik menejment fanidan praktikum. – T., “Fan va texnologiya”, 2008. – 130-b.



1-chizma: Strategik boshqaruvning mazmuni[3]

Strategik menejment korxonaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga taalluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qilish va kompaniyada menejmentni yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatuvchi eng to‘g‘ri belgi bo‘lib xizmat qiladi.

Strategik boshqarish tizimi bir qarashda murakkab jarayon bo‘lb, u korxona va tashkilot rahbaridan, menejerlardan kuchli mahorat hamda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Rahbarlar korxona va tashkilotning kelajagini ko‘ra olishi va unga mos strategiyani ishlab chiqishlari lozim bo‘ladi. Bu juda murakkab va mas’uliyatli tizim hisoblanadi. Bunda ularga yuqori pog‘ona menejerlari, ya’ni top menejerlarning yordami kerak bo‘ladi. Top menejerlar kuchli analitik hamda rejalashtiruvchi mutaxassislar hisoblanadi.

Strategik menejmentning beshta vazifasi mavjud. Korxona strategiyasini yaratish o‘zaro bog‘liq 5 ta qismdan iborat:

1) tijorat faoliyatining turini aniqlash va korxona rivojlanishining yo‘nalishini belgilash, ya’ni maqsadni aniqlab o‘zoq muddatli istiqbolni belgilash;
2) umumiy maqsadlarni ishning aniq yo‘nalishlariga aylantirish;
3) ko‘zlangan ko‘rsatkichlarga erishish uchun tanlangan rejani mohirona amalga oshirish;
4) tanlangan strategiyani samarali ijro etish;
5) bajarilgan ishni baholash, bozordagi vaziyatni tahlil qilish, faoliyatning uzoq muddatli asosiy yo‘nalishlariga, maqsadlarga, strategiyaga yoki uni amalga oshirish usullariga tuzatishlar, yangi g‘oyalar kiritish.

Korxona strategiyasining asosiy masalasi quyidagicha: “Korxonamizni biz qanday tasavvur qilamiz, nima qilmoqchimiz va nimaga erishmoqchimiz?”, “Biz kimmiz, nima qilyapmiz va qayoqqa ketyapmiz?” degan savolning javobi korxonaning yo‘nalishini belgilab, kuchli o‘ziga xoslikni ishlab chiqish imkonini beradi. Korxona nima qilayotgani va nima qilmoqchi ekanligi kompaniyaning missiyasini anglatadi. Menejer o‘z korxonasining bozordagi o‘rnini qanday tasavvur qilishi esa korxonaning strategik ko‘rishini shakllantiradi.

Demak, strategik boshqaruvni tashkilotning asosi sifatida inson potensialiga suyanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste’molchilar talablariga yo‘naltiruvchi, tashkilotda egiluvchan boshqaruv va o‘z vaqtida o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi boshqaruv sifatida aniqlash mumkin. Strategik boshqaruv murakkablashib borayotgan raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omili bo‘lishiga qaramay tashkilot harakatlarida strategiyaning yo‘qligini kuzatish mumkin. Strategik boshqaruvning yo‘qligi quyidagi ikki shaklda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, tashkilotlar o‘z faoliyatini atrof muhit umuman o‘zgarmaydi yoki unda katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi degan taxmindan kelib chiqqan holda rejalashtiradilar. Nostrategik boshqaruvda ham hozirda, ham kelajakda aniq harakatlar rejasi tuziladi. Nimaki va qachon qilishni o‘z ichiga olgan uzoq muddatli rejalarni tuzish va dastlabki davrda kelgusi yillar uchun yechim izlash, “ko‘p uzoq yillarga” sotib olish – bularning barchasi nostrategik boshqaruvning belgilaridir. Uzoq muddatli istiqbolni qo‘rish-boshqaruvning juda muhim tarkibiy kismidir.

3 Гапоненко А. Стратегическое управление: учеб. Для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент орг.” – М.: “Омега – Л ”, 2010. – 464 стр.

Strategik boshqaruv holatida tashkilot atrof muhit va tashkilot hayotining sharoitlari o‘zgarishidan kelib chiqqan holda kelajakda ko‘zda tutish maqsadlarga erishish uchun har bir hozirgi lahzada u aynan hozirgi paytda nima strategik boshqaruvda kelajakdan turib hozirgi paytga nazar tashlanadi. Tashkilotga ma’lum kelajakni ta’minlovchi hozirgi davrdagi tashkilot harakatlari aniqlanadi va amalga oshiriladi. Bunda strategik boshqaruv uchun shu narsa ham xarakterliki, nafaqat kelajakda korxonaning ko‘zda tutilgan holati qayd qilinadi, balki shu ham strategik boshqaruvning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi, ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish imkoniyatini beruvchi atrofdagi o‘zgarishlarga aks ta’sir ko‘rsatish qobiliyati ishlab chiqiladi. Ikkinchidan, nostrategik boshqaruvda harakat dasturini ishlab chiqish tashkilotning ichki imkoniyatlari va resurslari tahlilidan boshlanadi. Bunday yondashuvda tashkilot faqat qanday miqdorda mahsulot ishlab chiqarish va bunda qancha harakat qilishnigina aniqlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar miqdori firma tomonidan yaratilgan javob bera olmaydi, qanday miqdorda va narxda mahsulot sotib olinishini bozor aniqlaydi.

Yuqorida aytganimizdek, strategik rejalashtirish korxona boshqaruvi uchun asosni yaratadi, butun korxonani birlashtiradi hamda uning barcha darajalarini qamrab oladi. Strategik rejalashtirish faqat rahbariyatning vazifasi emas, unga korxonaning barcha darajalaridagi xodimlar jalb etilishi kerak. Strategik rejalashtirishning asosiy tushunchalari korxona missiyasi (kompaniya vazifasining ta’rifi), qadriyatlari, asosiy kompetensiyalari (kompaniya nimani yaxshiroq uddalaydi), kelajak tasavvuri (kompaniyaning bir-ikki yil uchun kelajakdagi obrazi), strategik muammolar (maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qiladigan tizimli muammolar), strategik muammolarni yengishga qaratilgan maqsadlar vazifalar va ularga erishish yo‘llarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda turli mulkchilik shaklidagi, turli soha va tarmoqlarga taalluqli 483.6 mingdan ortiq korxona mavjud bo‘lib, ulardan 417.2 mingtasi kichik biznes subyektlari hisoblanadi[4]. Ularning ishlab chiqarish faoliyati, shubhasizki, rejalashtirish va boshqarish obyekti bo‘lib, bozorga va iste’molchilar talabini qondirishga yo‘naltirilgandir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda har bir korxona o‘zining bugungi kundagi va kelajak uchun strategiyasini belgilab oladi. Shu sababli rejalashtirish korxonani rivojlantirish strategiyasidan ajralmas bo‘lib, buni quyidagi sxema yordamida aks ettirish mumkin (2-chizma).



2-chizma: Strategik rejalashtirish jarayoni[5]

Mazkur holatda strategiya kelajak uchun umumiy g‘oyani shakllantirishga imkon beradi. Rejalashtirish jarayonining o‘zi va bevosita strategik reja esa korxonaga aniqlik, individuallik hadya etib, bu unga ma’lum turdagi xodimlarni jalb qilish va boshqa turdagi xodimlarni jalb qilmaslikka imkon beradi. Bu reja korxona uchun istiqbollar ochib berib, yangi xodimlarni jalb qiladi, mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari uni sotishga ko‘maklashadi.

Rejalar shunday tuzilishi kerakki, ular uzoq vaqt davomida buzilmasligi, shu bilan bir paytda zarur hollarda yo‘nalishni o‘zgartirishga moslashgan bo‘lishi lozim. Amalda rejalashtirish jarayonida ikkita muhim savolga javob topish zarur:

1) korxona uchun bozordagi vaziyat bilan bog‘liq joriy vazifalarni bajarishda to‘siqlar yaratmaydigan strategik maqsadni qanday tanlash;
2) strategik maqsadlarga tayangan holda eng murakkab va kutilmagan hodisa va tashqi tendensiyalarga munosib va samarali javob qaytarishi uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini qanday shakllantirish lozim.

O‘zgarishlarni kutish yoki “strategik rejalashtirish” asosida boshqarish kelajakdagi tendensiyalarni o‘z vaqtida taxmin qilish va ularga tegishli strategiyani ishlab chiqish orqali ularga bo‘lgan munosabatni aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv nafaqat korporatsiyalarning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini, balki tashqi

4 Stat. uz sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2023-yil 17-iyuldagi hisoboti.
5 Yo‘ldoshev N. Q., Xodjamuratova G. Y. Strategik menejment–2. O‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2012. – 328 b.; Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. – Toshkent, 2001. – 68-b.

muhitni aniqlashga asoslangan. Strategik rejalashtirish tashkilotning aniqlangan kuchli va kuchsiz tomonlariga, shuningdek, ularning o‘zgarishi tendensiyalarini hisobga olgan holda tashqi muhitdagi imkoniyat va tahdidlarga asoslanadi.

Strategik rejalashtirishda, uzoq muddatli faoliyat bilan taqqoslaganda, kompaniya faoliyati maydoni yanada kengroq bo‘ladi, bu ichki muhitning ikkala asosiy elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy tashkilot va tashqi jihatlar: ijtimoiy va siyosiy omillar, xaridorlarning didi va ehtiyojlari, raqobatchilarning harakatlari va boshqalar. Bundan tashqari, strategik rejalashtirishda firmaning uzoq muddatli maqsadlari hozirgi faoliyat shartlarining oddiy aksi bo‘lib qolishni to‘xtatadi, ammo firmaning tashqi va ichki muhitidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish natijasi bo‘lib chiqadi. Strategik rejalashtirishdan uzoq muddatli rejalashtirishdan asosiy farq uning o‘zgaruvchanligi, kompaniyaning kelajakdagi rivojlanishining muqobil variantlarini ishlab chiqishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Strategiya ustuvorliklarni hisobga olib, korxona xarakteristikasini hamda mahsulot raqobatbardoshligini integratsiyalovchi yig‘ma ko‘rsatkichni aniqlashga asoslanadigan korxonaning raqobatbardoshligini baholash uslubidan keng foydalanish zarur. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash – ishlab chiqarilayotgan tovarlar, amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar bozorida klaster ishtirokchilarining barqarorligini oshirish uchun, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning innovatsion dasturi bilan birlashgan korxona va subyektlarning barqaror hudud-tarmoq sherikchiligi asosida klaster yondashuvdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Korxonalarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – korxona faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotni sotishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, korxonaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Korxonalarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – korxona faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotni sotishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, korxonaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi kunda iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Aholining mahsulotlarga bo‘lgan talabi yildan yilga oshib bormoqda. Bu talabni qondirish korxonalar ishlab chiqarishiga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yetarli hajmda investitsiyalar kiritish va yangi usullardan foydalanish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fred R. David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts & Cases. Pearson. USA. 2014.
2. Каттакишиев В., Мамаюсупов И. Стратегик менежмент фанидан практикум. – Т., “Фан ва технология”, 2008.
3. Гапоненко А. Стратегическое управление: учеб. Для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент орг.” – М.: “Омега–Л ”, 2010.
4. Yo‘ldoshev N. Q., Xodjamuratova G. Y. Strategik menejment–2. O‘quv-uslubiy majmua. T.: TDIU. 2012. – 328-b.; Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. – Toshkent, 2001.
5. Qosimov G‘., M. Menejment. Darslik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002.
6. Ансофф И., Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989.

Internet saytlari:

7. https://stat.uz
8. https://www.pmi.org
9. https://www.investopedia.com
10. https://en.wikipedia.org.

RESPUBLIKADA KICHIK BIZNESNI MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI QO‘LLAB-QUVVATLASH MASALALARI

Ergashev Otamurod Toshtemirovich
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, PhD.

Annotatsiya: Bugungi kunda iqtisodiyotning lokal tarmoqlaridan sanalgan kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va shu orqali milliy iqtisodiyotdagi qator muammolarni yechimiga barham berish ancha dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shuningdek, ularning faoliyatiga to‘siq bo‘luvchi moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va boshqa sabablar oldini olish bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Maqola ana shu dolzarb masalalar nazariy va amaliy tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: kichik biznres, tadbirkorlik faoliyati, ishbilarmonlik, kredit, foiz stavkasi, moliya-kredit mexanizmi, pul munosabatlari, moliyaviy resurs.

Abstract: Today, the support of small business entities counted from local sectors of the economy and, through it, the elimination of a number of problems in the national economy is becoming one of the much more pressing issues. It is also advisable to develop conclusions and proposals to avoid the lack of financial resources, high credit interest rates and other reasons that are an obstacle to their activities. The article is devoted to the theoretical and practical analysis of these current issues.

Key words: small Business, Business Activity, business, credit, interest rate, financial and credit mechanism, monetary relations, financial resource.

Аннотация: Сегодня поддержка субъектов малого предпринимательства из местных отраслей экономики и решение тем самым ряда проблем в национальной экономике становится одним из наиболее актуальных вопросов. Также целесообразно сделать выводы и предложения по предотвращению нехватки финансовых ресурсов, высоких процентных ставок по кредитам и других причин, препятствующих их деятельности. Статья посвящена теоретическому и практическому анализу этих актуальных вопросов.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательская деятельность, предпринимательство, кредит, процентная ставка, финансово-кредитный механизм, денежные отношения, финансовый ресурс.

KIRISH

Jahonda kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab- quvvatlash va ular faoliyatini samarali rivojlantirish bo‘yicha turli moliya-kredit vositalardan foydalanish xalqaro moliya muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu vositalar asosida davlat kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha qulay muhit sharoitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1]. Biroq, hozirgi global pandemiya davrida mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabning keskin pasayishi, pul oqimlari harakatining susayishi, naqd pulga bo‘lgan ehtiyojning tug‘ilishini oldini olish uchun Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida kichik biznes subyektlarini qo‘llab quvvatlash uchun uch yo‘nalishdagi kreditlar ajratildi [2]. Shuningdek, Covid–19 pandemiyaga qarshi AQSh hukumati 5 ta qonun ishlab chiqdi, uchinchi qonun aynan 2020–2030 moliya yilida qo‘llab-quvvatlash dasturi bo‘yicha kichik biznesni qo‘shimcha kreditlash va ularga imkoniyatlar yaratishga davlat byudjetidan 377 mlrd. dollarlik mablag‘ ajratildi. Bu o‘z navbatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot uchun yanada ahamiyatli ekanligidan va uni rivojlantirishda moliya-kredit mexanizmi vositalaridan samarali foydalanish zarurligidan dalolat beradi [3].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish orqali kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, jumladan ularning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish,

bojxona boji va soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozli tizim joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kichik biznes korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev raisligida 2023-yil 25-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda 2022-yilda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani, 1 million aholi kasb-hunarga o‘qitilib, ish boshlashiga ko‘maklashilib, kambag‘allikdan olib chiqilgani ta’kidlandi. Shu davrda 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi, 10 mingta korxonaning faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxona quvvati tiklandi [4]. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda iqtisodiyotimizning yetakchi lokomativi deb e’tirof etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganining o‘zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

MATERIAL VA METOD

Iqtisodiy adabiyotlarda “moliya-kredit mexanizmi” tushunchasi juda keng qo‘llaniladi. Ammo, iqtisodiy mohiyati, mazmuni va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida umumiy fikr mavjud emas. Tahlillar ko‘rsatishicha, ko‘plab iqtisodchilar “moliya-kredit mexanizmi” va “moliya mexanizmi” tushunchalarini aynan bir xil deb hisoblaydilar. Olimlar va amaliyotchilarning ushbu atamaga turli xil ta’riflari va yondashuvlari orasida ikkitasi eng ko‘p e’tiborga loyiqdir.

Birinchi yondashuv shundan iboratki, unga ko‘ra moliya mexanizmi deganda korxonalar moliyasining faoliyati tushuniladi. Ushbu yondashuv korxonalar moliyasining ichki tuzilmasini aks ettiradi. Ammo, mazkur tushunchani moliya mexanizmi bilan bir xilda qarash maqsadga muvofiq emas. Ikkinchi yondashuv shundan iboratki, moliya mexanizmi deganda korxonaning holati va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan usul va dastaklar, shakl va vositalar to‘plami tushuniladi.

Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan O. R. Romanenkoning fikricha, “moliyaviy mexanizm – bu iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy rag‘batlantiruvchi omillar, vositalar, dastaklar, iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishning shakl va usullari majmuasidan iboratdir”. Bundan kelib chiqqan holda tijorat korxonalarining moliyaviy mexanizmi, notijorat korxona va muassasalarning moliyaviy mexanizmi, sug‘urta mexanizmi hamda davlat moliyaviy mexanizmlarini ajratib ko‘rsatish mumkin [5]. Moliya mexanizmi ichki tuzilmasining tarkibiy elementlari bo‘lib, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy dastak va vositalar, moliyaviy ko‘rsatkichlar, normativ me’yoriy hujjatlar va imtiyozlar, moliyaviy nazorat, moliya huquqi kabilar hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan A. I. Balabanov va I. T. Balabanovlarning fikrlariga ko‘ra, moliyaviy mexanizm korxonalar, tashkilotlarning moliyaviy resurslarini rag‘batlantirish maqsadida foydalanish va rejalashtirish jarayonida moliya dastaklari harakatini ifodalovchi tizimni tashkil etadi, deb ko‘rsatiladi [6]. Boshqa tomondan, “moliyaviy mexanizm davlat tuzilmalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida moliyaviy resurs mablag‘larini yaratish va ulardan foydalanish jarayonidagi davlatning moliyaviy faoliyatini boshqarishning iqtisodiy-tashkiliy va huquqiy shakllari va usullari to‘plamidir” [7]. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’rif mazmunidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mazkur iqtisodchi olimlar moliya-kredit mexanizmiga umumdavlat miqyosiga alohida to‘xtalib o‘tib, korxonalarda moliya-kredit mexanizmlarining mavjudligini butunlay inkor qiladi.

E. I. Shoxinning fikricha, “moliyaviy mexanizm – rejalashtirilgan strategik maqsadlarga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlari va obyektlariga ta’sir ko‘rsatishning shakl va usullari to‘plamidan iboratdir”. U moliyaning funksiyalarini to‘liq va samarali bajarilishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega [8].

V. K. Senchagov moliya-kredit mexanizmini “moliya va kredit boshqaruvini tashkil etishning shakllari, moliya-kredit dastak va usullarining o‘zaro bog‘liq tizimi” sifatida ta’riflaydi [9]. A. Berger va G. Udelllarning fikricha, moliya-kredit mexanizmi pul munosabatlarining soha yoki bo‘g‘inlari majmui sifatida ta’riflanib, u yordamida moliya-kredit instrumentlari orqali kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatiladi. Pul munosabatlari bu yerda “negiz”, moliya-kredit vositalari esa “ustqurtma” rolida namoyon bo‘ladi [10].

Akademik D. A. Allaxverdyanning fikricha, moliya-kredit mexanizmi takror ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zaro bog‘liqlikdagi iqtisodiy munosabatlar va ularning moliyaviy resuslardan samarali foydalanish jarayoni natijasini ifodalovchi vosita-dastaklarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari kompleks majmuasidan iborat.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. Vahobov va T. Malikov-larning ta’kidlashicha, “moliyaning funksiyalari moliya mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm milliy xo‘jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o‘z ichiga oladi” [11].

NATIJALAR

Ma'lumki, moliyalashtirishning moddiy asoslari moliyaviy resurslar va kreditlardir. Ularning hajmi va darajasi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit salohiyatiga xizmat qiladi hamda ularning rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi. Korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritish faoliyatidagi hamda mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining asosiy moliyaviy manbalari bo'lib moliya va kredit resurslari hisoblanadi. YaIMni yaratish, taqsimlash nuqtayi nazaridan moliya-kredit mexanizmi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada qarab chiqish imkonini beradi.

Agar moliya pul bilan bog'liq bo'lgan aloqa munosabatlarini ifodalovchi obyektiv iqtisodiy kategoriya sifatida gavdalansa, moliyaviy mexanizm esa moliyani boshqarish yoki moliya turli moliyaviy metodlar asosida moliyaviy dastak va vositalar orqali moliyaviy munosabatlarga ta'sir etishdir [12].

Makroiqtisodiy darajadagi moliya-kredit mexanizmi uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan rejalar, ko'rsatkichlar, usullar va huquqiy hujjatlar xarakterlidir. Mikroiqtisodiy darajada moliya-kredit mexanizmi xo'jalik yuritish subyektlari moliya-kredit mexanizmini boshqarish jarayonini tavsiflaydi.

Moliyakredit mexanizmi korxona miqyosi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, banklar va boshqa kreditorlar, institutsional investorlar bilan bevosita uzviy munosabatlar tizimiga asoslanadi. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda joriy moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, vaqtincha bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslarni joylashtirish hamda ularni samaradorligini tahlil etish muhim o'rin tutadi. Kapitalning doiraviy aylanishi bo'yicha faoliyat funksiyalari takror ishlab chiqarish, taqsimot va nazoratni tashkil etishga qaratilsa, moliyaviy resurslar ta'minoti bo'yicha funksiyalarda pul aylanmasini tashkil etish, moliyaviy vositalar va sarmoyalar bilan ta'minlash, shuningdek, asosiy va aylanma fondlar mutanosibligiga erishish talab etiladi. Kredit resurslarining aylanishi bo'yicha funksiyalarga kredit ulushini aniqlash, kredit riskining oldini olish, ularning qaytarilish tartibini ishlab chiqish va nazorat qilish kiritiladi.

O'zbekistonda olib borilgan kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish siyosati ushbu sohada ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minladi. Bugungi kunda biznes-muhitni yanada yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda.



1-rasm: O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi YaIMga nisbatan 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib mazkur ulush salmog'i 51,8 foizga o'sgan. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog'istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga teng [13].

Bunda turli mamlakatlarda kichik biznes sohasiga tegishli o'rnatilgan me'yorlar turlicha ekanligini ham inobatga olish lozim. Masalan, AQShda savdo sohasida xodimlar soni 100 kishigacha bo'lgan iqtisodiy subyektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi, jumladan, ishlab chiqarish va neftni qayta ishlab sanoatida bo'lsa xodimlarining soni 1 500 tagacha, elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida esa xodimlar soni 1 000 tagacha bo'lgan iqtisodiy subyektlar kichik biznes vakillari hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa holat biroz o‘zgacha ko‘rinishga ega. Mintaqada ishchilari soni 1–9 tagacha bo‘lgan, korxonaning yillik aylanmasi va balansi 2 mln. yevrogacha bo‘lgan iqtisodiy subyektlar mikro biznes vakillari hisoblansa, ish o‘rni 10–49 tagacha bo‘lgan yillik kapital aylanmasi va balansi hajmi 10 mln. yevrogacha bo‘lgan ish beruvchilar kichik biznes subyekti hisoblanadi [14].

Quymda keltirilgan 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar salmog‘i 2017-yilda 119,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bunday o‘sish tendensiyasi 100,2 foizga pasaygan. 2017–2019-yillarda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar salmog‘i o‘rtacha 129 foizni tashkil etgan. Kichik biznes korxonalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha solishtirma salmog‘ining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu borada eng katta salmoq chet el investorlari mablag‘lariga tegishli bo‘lib, u 2016-yildagi 52,7 foizdan 2022-yilda 59,4 foizga qadar o‘sgan.

1-jadval: O‘zbekistonda kichik biznes korxonalarning investitsiya resurslaridan foydalanish holati, foizda

	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar	119,4	129,9	138,1	95,6	102,9	100,2
Korxonalar va aholining o‘z vositalari	47,3	42,0	29,3	40,8	38,0	40,6
Qabul qilingan mablag‘lar	52,7	58,0	70,7	59,2	62,0	59,4
Banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	12,6	17,8	13,8	7,6	8,0	6,6
davlat byudjeti	4,8	4,5	9,0	6,8	9,3	8,0

O‘z salmog‘ining ahamiyatliligi bo‘yicha navbatdagi manba korxonaning o‘z mablag‘lari bo‘lib, u 2017-yildagi 47,3 foizdan 2022-yilda 40,6 foizga qadar pasaygan. Banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag‘larining salmog‘i tegishli ravishda qariyb 12,6 foizlik ko‘rsatkichdan 6,6 foizga kamaygan. Bundan ko‘rinadiki, tadqiq etilayotgan davrda kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari orasida chet el investorlari mablag‘lari va chet el kreditlarining salmog‘ida o‘sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat hududlari bo‘yicha solishtirma salmog‘ida sezilarli tafovutlar mavjud.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda kichik biznes subyektlari ishtirokini faollashtirish muayyan miqdordagi moliyaviy mablag‘larni talab etadi. Mazkur jarayonda kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni istiqbolli loyihalarga yo‘naltirish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim sharti hisoblanadi.

MUNOZARA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliya-kredit mexanizmining shakllantirish ahamiyatli tomoni shundaki, mazkur mexanizm jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, real sektorning samarali faoliyati bevosita moliya sektoriga bog‘liq, aynan moliya sektoridagi moliya muassasalari tomonidan moliyaviy resurslarni yaratish, taqsimlash funksiyalarining o‘z vaqtida bajarilmasligi real sektordagi iqtisodiyot tarmoq va sohalarining inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, moliya-kredit mexanizmining asosiy blok vositalari bo‘lib bizning fikrimizcha, moliya-kredit rejalashtirish, moliya-kredit vosita va dastaklari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlar hisoblanadi.

Ayrim zamonaviy iqtisodchilar esa, subyektlar o‘rtasidagi pul munosabatlarini boshqarish shakl va usullari tizimini o‘zida ifodalovchi korxonalarning moliya-kredit mexanizmini ajratib ko‘rsatganlar. Xususan, L. V. Popovaning fikriga ko‘ra, korxonaning moliya-kredit mexanizmi bu shakl va usullarning tartibga solingan to‘plami bo‘lib, u orqali korxona o‘zini zarur pul mablag‘lari bilan ta’minlaydi hamda moliyalashtirish yoki kreditlash shartlari asosida bo‘linmalar o‘rtasida qayta taqsimlagan holda barqarorlik va likvidlikning ma’lum darajasiga erishadi, foyda olish va kapital qiymatini oshirishni ta’minlaydi [15].

Shunday qilib, fikrimizcha, moliya-kredit mexanizmi bu kichik biznesning rivojlanishiga bevosita emas, balki bilvosita, moliya-kredit vositalari orqali ta’sir ko‘rsatadigan pul munosabatlarining majmuidir. Moliya-kredit vositalariga soliqlar, davlat buyurtmalari bilan ta’minlash, bino va uskunalarni ijaraga berish shartlari, foiz stavkalarini subsidiyalash, bank to‘lovlari, boj to‘lovlari, mikromoliyalashtirish, franchayzing, sug‘urta, tezlashtirilgan amortizatsiya, bank krediti, mikrokreditlash, soliq imtiyozlari, byudjet ssudasi, tijorat krediti, faktoring va lizing kabilarni kiritish mumkin. Moliya-kredit vositalarining asosiy maqsadi kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni izlashdan iboratdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yetakchi o‘rinni egallaydi. Jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning katta qismi iqtisodiyotning aynan shu sohasida yaratiladi. Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashda moliya-kredit mexanizmlari va ularning vosita hamda dastaklari muhim sanaladi.

XULOSA

O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda joriy moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, vaqtincha bo‘sh bo‘lgan moliyaviy resurslarni joylashtirish hamda ularni samaradorligini tahlil etish lozim;
- zamonaviy xorij amaliy tajribasida kichik biznes subyektlarini kreditlashda, kichik biznes subyektlari o‘rtasida maxsus so‘rovnomalar o‘tkazilishi va uning natijasida aniqlangan kamchiliklar asosida kelgusi kreditlash jarayonini tashkil etishni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash kerak;
- respublikada kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kredit foiz stavkalarining yuqoriligi va ko‘plab kreditlar qisqa muddatga, tadbirkor uchun noqulay shartlarda berilmoqda. Bu o‘z navbatida xorijiy valyutadagi kreditlar valyuta kursining muntazam o‘sishi hisobiga tadbirkor uchun qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltirmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlarning kafillik, kompensatsiya va resurs mablag‘lari asosida shartnomalar tuzish;
- kichik biznes subyektlariga moliyaviy yordam sifatida ajratilayotgan kreditlarni respublika mintaqalari ichki salohiyatini hisobga olgan holda hamda faoliyat ko‘rsatayotgan biznes subyektlarining rivojlanish darajasiga ko‘ra ajratish kerak;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. pdf. 2020. https://documents1.worldbank.org
2. Impact of the Covid–19 Pandemic on Trade and Development. 2020. pdf. https://unctad.org
3. For appropriations from all legislation, see Government Accountability Office (GAO), COVID–19: Opportunities to Improve Federal Response and Recovery Efforts, Report to the Congress, GAO–20–625, June 25, 2020, https://www.gao.gov.
4. Aholi bandligini ta’minlash borasidagi imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tildi. 2023-yil 25-yanvar. https://president.uz
5. Романенко О. Р. Фінанси: Підручник. – К.: ЦНЛ, 2003. – 312 с.
6. Балабанов А. И., Балабанов И. Т. Финансы. – СПб.: Питер, 2000. – 192с.
7. Базилевич В. Д., Бонастрик Л. О. Государственные финансы. / За ред. Базилевича В. Д. – К.: Атика, 2004. 380 с.
8. Финансовый менеджмент: учебник / коллектив авторов; под ред. проф. Е. И. Шохина. - 4е изд., стер. – Москва: Кнорус, 2017. – 476 с.
9. Сенчагов В. К. Финансовый механизм в повышение эффективности производства. М., 1979. С. 5.
10. Berger, Allen N. and Udell, Gregory F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle. Journal of banking and finance. Vol. 22, 1998. – p. 69.
11. Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya. Darslik /Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Sharq”, 2010. – 804 b.
12. Булгакова Л. Н. Формирование финансового механизма и системқ управление инвестиционной деятельностью предприятия// Финансы и кредит. – 2004. – №16. – С. 41–49.; Ковалев В. В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – М.: Финансы и статистика, 2006. – С. 560.
13. Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi sayti.
14. Kersten R, Harms S, Liket K and Maas K. 2011 Small Firms Large Impact? A Systematic Review of the SME Finance Literature. World Development 97. – p. 330–348
15. Попова Л. В. Финансово-кредитный механизм воспроизводства капитала в агроформированиях. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Волгоград, 2008. – 43 с.

MULK IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Ermatov Musojalil Komilovich
"Alfraganus university" "Moliya" kafedrasi dotsenti v. b.

Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich
"Alfraganus university" "Iqtisod va moliya" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola jamiyatdagi mulk va mulkchilik munosabatlari mazmuni, undagi iqtisodiy xavfsizlik chegaralarini ochib beradi. Mulk daxlsizligi va abadiyligi, xususiy mulkni himoya qilish sohasidagi iqtisodiy va huquqiy yo'nalishini aniqlash va barcha bilan tanishtirish ishlariga asosiy e'tibor qaratiladi. Davlat mulki huquqlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida tushuntirib, uning kafolat chegaralarini aniqlashdan iborat hisoblanadi.

Shuningdek, mulk subyektlari (ya'ni mulkning egalari) tomonidan o'z huquqlarni suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lmagan huquqni cheklash sohasida o'tmishdagi davlatlar va rivojlangan davlatlar me'yoriy ijodkorligi tajribasi tahlil qilinadi. Undagi iqtisodiy tartiblar bilan birgalikda qonun chiqaruvchining Konstitutsiyada mustahkamlangan asosiy yondashuvlari davlat, shuningdek, umumiy va maxsus huquqiy, moliyaviy hujjatlarga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Davlat mulki, xususiy mulk, ekspropriatsiya, reaksiya mulkiy sanksiya, abadiy va daxlsiz mulk, mulk xavfsizligi, mulk huquqlar, mulk huquqlarni cheklash.

Abstract: The article reveals the content of property and property relations in society, the limits of economic security in it. The main attention is paid to the definition and familiarization of everyone with the economic and legal direction in the field of inviolability and perpetuity of property, protection of private property. It consists in explaining the features of the implementation of the right of state property on the example of developed and developing countries and determining the limits of its guarantees.

It also analyzes the experience of normative creativity of past states and developed countries in the field of restriction of the right, not related to the abuse of their rights by the subjects of ownership (that is, the owners of property). Together with the economic procedures contained in it, the main approaches of the legislator, enshrined in the Constitution, are based on state, as well as general and special legal and financial documents.

Key words: state property, private property, expropriation, reactive property sanction, eternal and inviolable property, property security, property right, restriction of property rights.

Аннотация: В статье раскрывается содержание отношений собственности и собственности в обществе, пределы экономической безопасности в нем. Основное внимание уделяется определению и ознакомлению всех с экономико-правовым направлением в области неприкосновенности и бессрочности собственности, защиты частной собственности. Он заключается в разъяснении особенностей реализации права государственной собственности на примере развитых и развивающихся стран и определении пределов ее гарантий.

Также анализируется опыт нормативного творчества прошлых государств и развитых стран в сфере ограничения права, не связанного со злоупотреблением своими правами субъектами собственности (то есть собственниками собственности). Вместе с содержащимися в ней экономическими процедурами основные подходы законодателя, закрепленные в Конституции, базируются на государственных, а также общих и специальных правовых и финансовых документах.

Xulq-atvor iqtisodiyotini o'rganishning asosiy obyekti iqtisodiy agentlarning ratsionalligi chegaralari hisoblanadi. Xulq-atvor iqtisodiyotida nafaqat bozorda sodir bo'layotgan hodisalar, balki iqtisodiy agentlar tomonidan qaror qabul qilishdagi aqliy xatolar va xudbinlik xususiyatlarini o'z ichiga olgan umumiy tanlov jarayonlari ham o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta'kidlash lozim, ushbu sohadagi barcha ilmiy izlanishlar psixologiya bilan bog'langan. Ko'plab yillar davomida insonlarning o'z xulq – atvoriga ko'ra irratsional ya'ni har doim to'g'ri qarorlar qabul qilmasligi haqidagi fikrlari rad etilib kelingan. Lekin, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, insonlar juda aqlli mavjudotlar bo'lmasligi va ularning barcha qabul qilayotgan iqtisodiy qarorlari har doim ham o'ylab qabul qilingan to'g'ri qarorlar bo'lmasligi ham mumkin.

Insonlarning xulq-atvoridan kelib chiqib qarorlar qabul qilish jarayonlarini ko'pgina tadqiqotlarda o'rganishgan. Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir qiluvchilar orasida iste'molchi resurslari, motivatsiya, jalb qilish, bilim, munosabat, shaxsiy qadriyatlar, turmush tarzi, madaniyat, oila va boshqa vaziyatlar kiradi. Ushbu jarayonlarni o'rganishga bog'liq bo'lgan so'rovnomalarning biri Michigan Universtetida George Katona va uning hamkasblari tomonidan 1950-yildan 1970-yillarning o'rtalariga qadar o'tkazilgan bo'lib, unda insonlarning pul jamg'arishi, uy xo'jaligiga investitsiyalari va qarz olishidagi qarorlarini o'rganishga qaratilgan. Bunday so'rovnomalarda iste'molchilardan ularning moliyaviy mahsulotlar bo'yicha bilimlari va qaror mezonlari haqida so'raldi. Javoblar shuni ko'rsatdiki ularda moliyaviy bilimlar yetishmasligini va tasodifiy qarorlar qabul qilishlarini ma'lum qildilar. Ushbu so'rovnomalarda aksariyat iste'molchilar, masalan, iste'mol krediti va avtokredit uchun foiz stavkalari haqida yaxshi ma'lumotga ega emas edilar. Bu esa moliyaviy bilimning muhimligini ko'rsatadi.

G. Katona "xulq-atvor iqtisodiyoti" deb nomlangan atamani birinchi ishlatgan olim hisoblanadi. Katona va Myullerning "Xarid qarorlarini o'rganish" nomli asarida uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olish va moliyalashtirishga olib keladigan jarayonlarni har tomonlama tahlil qilingan. Ular ko'p qarorlar ma'lumotni keng qidirish va muqobillarini baholashga asoslanmaganligini aniqladilar. Iste'molchilar bir nechta sotuvchilar bilan bog'lanib, o'tkazmalarning faqat bir yoki bir nechta sifatlariga e'tibor qaratish orqali ifoda qilishga intildilar. Ba'zi hollarda ular o'tmish tajribasi yoki do'stlar va qarindoshlarning tajribasidan olingan ma'lumotlarga tayanishlari mumkin. Ular xaridlarini moliyalashda biroz kredit olishdi va ko'pincha moliyalashtirish uchun sotuvchilarga tayanishdi. Ularning tadqiqotlar orqali ko'proq yoki kamroq mulohaza yuritishga olib keladigan omillar aniqlandi. Muhokama qilish darajasi vaziyat omillariga bog'liq edi. Qaror qabul qiluvchilar maxsus imkoniyatni (masalan, ayniqsa, qulay sotish narxini), shoshilinch ehtiyojni his qilganlarida yoki ilgari ishlatilgan shunga o'xshash buyumdan qoniqish his qilganlarida muhokama qilish cheklangan bo'ladi. Shuningdek, qimmat yoki o'ta muhim deb hisoblangan, yangi yoki notanish mahsulot bilan bog'liq bo'lgan yoki oldingi xaridlar bilan qoniqarsiz tajribaga ega bo'lgan xaridlar bo'yicha ko'proq mulohaza yuritilgan.

Oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan vaziyatlarda moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonini tushunish oxirgi 20 yil davomida xulq-atvor iqtisodiyoti olimlari tomonidan[1] shaxslarning xulq-atvori va munosabati psixologik ilmiy ishlar bilan o'rganildi[2].

1 Kahneman, D., Tversky, A. Intuitive Prediction: Biases and Corrective Procedures; Cambridge University Press (CUP): Cambridge, UK, 1982; – pp. 414–421.
2 Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow; Macmillan: New York, NY, USA, 2011.

A. N. Demin va O. V. Kireyeva kreditlarini o‘z vaqtida to‘layotganlar va to‘lovni uch oy yoki undan ko‘proq kechiktirib to‘lovchilar kabi ikki guruhni solishtirdilar. Hozirda olib borilayotgan yangi tadqiqotlarida, ular iste’mol kreditlari va ipoteka kreditlari bo‘yicha qarz oluvchilarni tahlil qildilar va unga ko‘ra, iste’mol krediti bo‘yicha to‘lov muddatini kechiktirishlilik qarz oluvchining xabardorligi hamda ikki parametr ishga sodiqlik va moliyaviy o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan salbiy bog‘liqdir (tejashga tayyorlik – salbiy korrelyatsiya, moliyaviy qarorlar qabul qilish bo‘yicha kognitiv yetishmasligi ijobiy korrelatsiya). Ipoteka kreditlari bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirish qarz oluvchining xabardorligi, kutilgan ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash, ishga sodiqlik bilan o‘zaro salbiy bog‘langan va uchta moliyaviy o‘zini o‘zi boshqarish parametrlari (xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy mo‘tadillik, tejashga moyillik) hamda moliyaviy qarorlarni kognitiv boshqarishning boshqa parametri bilan ijobiy bog‘langan. Ya’ni moliyaviy xabardor bo‘lmaslik, ijtimoiy yordam kutish, ishga sodiq bo‘lmaslik insonlarning kreditlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik xulq-atvorini hamda xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy jihatdan mo‘tadillik, pulni tejashga moyillik to‘lovni o‘z vaqtida to‘lash xarakterini anglatadi.

Agarwal, Driscoll, Gabaix, and Laibson (2008) larning tadqiqotlariga ko‘ra kredit karta foydalanuvchilarining xulq-atvori kechiktirishga, limitdan oshishga moyil bo‘ladi. Mijozlar odatda kartochka ochgandan keyin komission to‘lovlarga nisbatan norozi bo‘la boshlaydilar, to‘lovlarni kechiktirib to‘lashgan holatlarida ortiqcha komission to‘lovlarni zararli ekanligini tushunib yetishadi va xato qilmaslikka harakat qilishadi hamda keyingi oyda kechikib to‘lash ehtimoli 44% ga kamayadi. Ushbu tadqiqotchilarning fikricha iste’molchilar kredit hisob-raqamini ochishayotganda barcha ma’lumotlarni chuqur o‘ylab ko‘rishmaydi va bu holat ularning aqlsizligini bildirmaydi. Insonlar odatda tajribadan xulosa chiqarishadi va o‘zlarining xulq – atvorini xatolardan so‘ng o‘zgartirishadi. Fikrimizcha, kredit karta foydalanuvchilarining xulq atvoriga ko‘ra ular ko‘proq narxga ta’sirchan bo‘lishadi. Qachonki kredit karta beruvchi kompaniya foiz stavkani o‘zgartirsa, mijozlar boshqa xarajatlarni hamda kredit qoldig‘ini kamaytirishadi va umuman olganda umumiy xarajatlarni kamaytiruvchi choralarni ko‘rishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni va xulq-atvor iqtisodiyoti bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aqliy buzilishlar, fikrlar va munosabatlar – bu shaxsni shakllantiruvchi ichki omillar hisoblanib, mas’ul qarz oluvchi shaxsning psixologik tadqiqotida ushbu omillarga tayanish mumkin bo‘ladi.

Insonlarning xulqiga ta’sir qiluvchi doimiy xususiyatlari bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar birinchi navbatda kuzatilmaydigan xususiyatlar yoki qadriyatlar, ehtiyojlar yoki shaxsiyatlar kabi ruhiy holatlardir. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiyatlar va psixologik holatlar shaxsning qarzni to‘lash xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin deb aytish mumkin[3]. Bundan tashqari ko‘pgina adabiyotlarda insonlar qarz to‘lovini to‘lash xulq-atvorini aniqlashda demografik va iqtisodiy faktorlar yetarli emas, bu xulq-atvorni tushunisda va tushuntirishda psixologik faktorlarni hisobga olish darkor deb keltirilgan[4]. Shuningdek, psixolog Sara Hampson ham shaxslarning o‘ylari, his-tuyg‘ulari, motivatsiyalari, tushunchalari kabi psixologik jarayonlarini o‘rganar ekan, vaqtlar mobaynida bu insonlar xarakterini shakllantiruvchi mexanizm ekanligi aytib o‘tiladi[5].

Ta’kidlash lozim, 2006-yilda ilk bora Garvard universtetining Entrepreneurial Finance Lab (EFL, Massachusets Avyenuye, Cambridge, Massachusets 01238 USA) markazida qarz oluvchilarning psixologik holatlarini aniqlashga qaratilgan amaliyot joriy etildi. EFL tadqiqotlari qarz oluvchilarni psixologik xususiyatlarini, ularning xarakterlari, aqliy qobiliyatlari va sofdilligi kabi kategoriyalarda baholashni takomillashtirishdi. Ularning izlanishlari 6 ta psixologik determinantlardan iborat bo‘lib, bular samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish, o‘zini nazorat qila olish, anglash, munosabat bildirish, asab holatlari kabilardir.

3 Özşahin, M.; Yürür, S.; Coşkun, E. A Field Research to Identify Psychological Factors Influencing the Debt Repayment Behavior in Turkey. EMAJ Emerg. Mark. J. 2019, 8, 26–33, doi:10.5195/emaj. 2018. – p. 156.

4 Hampson, S. E. Personality processes: Mechanisms by which personality traits “get outside the skin”. Annu. Rev. Psychol. 2012, 63. – p. 315–339. Robb, C. A., Sharpe, D. L. Effect of personal financial knowledge on college students’ credit card behavior. J. Financ. Couns. Plan. 2009, 20. – p. 25–43.

5 Gathergood, J. Self-control, financial literacy and consumer over-indebtedness. J. Econ. Psychol. 2012, 33. – p. 590–602.

1-jadval: Moliyaviy xulq-atvorga ta’sir qiladigan psixologik nomoliyaviy faktorlar[6]

Tur	Soha	Moliyaviy xulq-atvor oqibati
Vaziyatga ko‘ra faktorlar	Xulq-atvor iqtisodiyoti	Insonlar har-doim ratsional bo‘lmaydilar va har-xil vaziyatlarga ko‘ra turlicha xatti-harakatlar qilishadi.
Shaxsiy faktorlar – aqliy qobiliyatlar	Psixologiya/Xulq-atvor iqtisodiyoti	Odamlar aqliy qobilyatiga ko‘ra turlicha bo‘ladilar(xotira, aqliy kamchilklarga shunha bn qarash, analitik qobiliyatlar,hisob-kitob bo‘yicha qobilyatlar)
Shaxsiy faktorlar – psixologik, maxsus bo‘lmagan (moliyaga aloqasi bo‘lmagan)	Psixologiya	Bir xil vaziyatlarda insonlar ularning tabiiy xarakterlaridan kelib chiqib o‘zlarini turlicha tutadilar.
Shaxsiy faktorlar – maxsus (moliyaga aloqasi bo‘lmagan)	Psixologiya	Odamlar har-xil moliyaviy tushunchalarga nisbatan turlicha o‘zlarinig munosabatini namoyon qiladilar (ijobiy yoki salbiy).

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, turli xil omillarga ko‘ra insonlar har-doim ratsional bo‘lmaydilar va har-xil vaziyatlarga ko‘ra turlicha xatti-harakatlar qilishadi hamda odamlar har-xil moliyaviy tushunchalarga nisbatan turlicha o‘zlarinig munosabatini namoyon qiladilar.

Moliyaviy xatti-harakatlardagi shaxsiy farqlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avvalgi bobda keltirib o‘tilganidek, ish haqi va ijtimoiy-demografik omillar moliyaviy xulq-atvorni turlicha bo‘lishini to‘liq tushuntirmaydi. Inson xulq-atvorini tushunishda maxsus individual xususiyatlar orqali bir xil vaziyatlardagi insonlar xatti-harakatidagi farqlarni anglash mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, Individual psixologik xarakterlarni iqtisodiy oqibatlar uchun joriy etish jamg‘arish, qarz olish yoki investitsiya qilish jarayonidagi qiziqishlarni tushuntirishda muhim hisoblanadi.

2-jadval: Katta beshlik modelidagi shaxsiy xususiyatlar moliyaviy xulqni aniqlashdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun[7]

Xususiyat	Ta’sir turi	Manba
Ongli bo‘lish	Samaraliroq jamg‘arish xulq-atvori	Brandstatter (1996) and Warneryd (1996)
	Jamg‘arma va sug‘urtaga ega bo‘lish:yaxshi moliyaviy menejment	Ksendzova, Donnelly and Howell (2017)
	Qarzdorlikning past ehtimoli	Webley and Nyhus (2001)
	Irratsional moliyaviy xulq-atvorni past ehtimoli-(ko‘p qarz yuki)	Rustichini et al. (2016)
	Credit karta qarzdorligi bilan salbiy aloqa	Brown and Taylor (2014)
	Moliyaviy riskni yoqtirmaslik, aksiyalarga investitsiya qilishni xohlamaslik	Oehler and Wedlich (2018)
Hissiy beqarorlik (asabiylik)	Yuqori darajadagi qarzdorlik	Nyhus and Webley (2001)
	Majburiy sotib olish	Brougham et al. (2011)
	Samarali moliyaviy menejment bilan salbiy aloqa	Ksendzova et al. (2017)
	Riskli moliyaviy xulq atvor bilan salbiy aloqa	Oehler and Wedlich (2018), Rustichini et al. (2016)
	Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa	Brown and Taylor (2014), Oehler et al. (2018)
Minnatdorlik	Aksiya va riskli moliyaviy xulq-atvor	Bucciol and Zarri (2017)
	Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa	Brown and Taylor (2014)
	Vijdoniy xulq-atvorni oshirish	Rustichini et al. (2016)
Ekstraversiya	Riskli moliyaviy xulq-atvor bilan ijobiy aloqa	Oehler et al. (2018), Oehler and Wedlich (2018), Rustichini et al. (2016)
	Credit karta qarzdorligi bilan ijobiy aloqa	Brown and Taylor (2014)
Tajriba qilishga moyillik	Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa	Brown and Taylor (2014)

6 The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

7 The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Optimizm(Yuqori kayfiyat)	O‘ziga ishonch va riskli moliyaviy xulq atvorga yuqori moyillik	Dhaoui (2015)
	Aksiyalarni sotishdan ko‘ra sotib olishga moyillik	Kaplanski, Levy, Veld, and Veld-Merkoulova (2015)
	Xavfli qarzning yuqoriligi bilan ijobiy aloqa	Angellini and Cavapozzi (2017)
	Sotish hajmini ko‘paytirishga moyillik	Dhaoui et al. (2013)
	Samarali moliyaviy xulq-atvor Moliyaviy muammolarda qo‘rqmaslik Moliyaviy vaziyatlarida ko‘proq o‘ziga ishonish	Stromback, Lind, Skagerlund, Vastfjall and Tinghog (2017)
O‘zini nazorat qilish	Qarz darajasi va majburiy sotib olish bilan salbiy aloqa	Achtziger et al. (2015)
	Doimiy pul jamg‘arish Kutilmagan xarajatlarga yaxshi tayyorgarlik Nafaqa uchun yetarlicha pulga ega bo‘lishlik Samaraliroq jamg‘arish xulq atvori	Stromback et al. (2017)
	Yuqoriroq ijtimoiy iqtisodiy daraja Uyi, jamg‘armasi va pensiya ta’minotiga ega bo‘lishlik	Moffitt et al. (2011)
	Kredit va kutilmagan xarajatlardan kam aziyat chekish	Gathergood (2012)
	Moliyani nazorat qilish va yaxshi rejalashtirish, ko‘proq boylik yig‘ish	Biljanovska and Palligkinis (2016)
	Nafaqa uchun yetarlicha pul jamg‘ara olish	Choi, Laibson and Madrian (2011)
	Ko‘proq jamg‘ara olish	Rha, Montalto and Hanna (2006)
	Moliyani yaxshiroq jamg‘arish	Miotto and Parente (2015)

Yuqorida keltirib o‘tilgan bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari va nazariyalarining jamlanmasidan ko‘rish mumkinki, xulq-atvorni moliyaviy qarorlar va ular bilan bog‘liq moliyaviy risklarga ta’siri bo‘yicha umumiy xulosalar qilish mumkin bo‘ladi. Mijozlarning bir qator shaxsiy xususiyatlari, jumladan hissiy beqarorolik, o‘zini nazorat qilish, ongli bo‘lish, yuqori kayfiyat va minnatdorlik kabi shaxsiy xarakterlarini bilish orqali ularning moliyaviy xulq atvorini hamda shu bilan bir qatorda qarzni o‘z vaqtida va muammosiz to‘lab berish qobiliyatini ham aniqlash imkonini yaratadi. Bu tadqiqotlarni ayniqsa respublikamizda kreditlash jarayonlarida qo‘llash samarali natijalar berishi, kredit portfelini ko‘tarilishiga va muammoli kreditlarni oldini olishga olib keladi deb aytish mumkin.

Oxirgi yillarda Respublikamizda kreditlash jarayonlari takomillashib bormoqda. Jumladan, banklar tomonidan mijozlarga chakana kreditlar ajratishda ularni ovoragarchiliksiz va qisqa fursatda kredit ajratish, uning kreditga layoqatliligini o‘rgangan holda tahlil qilish va anderrayterlar orqali kredit ajratish skoring moduli ishlab chiqildi. Avvallari fuqaro kredit olishi uchun bankka bir nechta hujjat taqdim etishi va bir necha marotaba bankka tashrif buyurishi kerak edi. Endilikda mamlakatimiz banklari tomonidan Anderrayter tizimi amaliyotga joriy qilindi. Ushbu tizimga ko‘ra, mijoz bankka faqatgina pasporti bilan tashrif buyuradi, qolgan hujjatlar, ya’ni ish haqi va kredit tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bank xodimi tegishli baza orqali (Anderrayter) oladi. Ushbu xodimning o‘zi kredit ajratish bo‘yicha qaror qabul qilib 1 soat ichida fuqaroga kredit ajratadi. Bu, o‘z navbatida, fuqaroni ham vaqtini ham naqdini tejash bilan birga ortiqcha ovorgarchiliklariga chek qo‘yadi. Shuningdek, onlayn mikrozaym va overdraft kabi kredit turlari jadal rivojlanmoqda. Ushbu kreditlarni ajratishda ham mijozlarning ish haqi, kredit tarixi,yoshi, jinsi,qo‘shimcha daromadi va oilaviy ahvoli o‘rganilgan holda kredit berilmoqda.

3-jadval: Milliy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig‘ida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi(foiz hisobida)[8]

Yillar	Foiz
2016	18,0%
2017	12,0%
2019	19,0%
2020	20,0%
2021	21,0%
2022	26,0%

8 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, 2016–2022-yillar davomida mamlakatimizda tijorat banklarining jami kreditlar qoldig'i o'sishi 7.4 barobar bo'lgan holda, uning tarkibida jismoniy shaxslar kreditlari qoldig'i o'sishi 10.7 barobarni tashkil etgan. 2016-yilda milliy valutada berilgan kreditlar qoldig'ida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi 18% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 26% ga yetgan.

Kreditlar hajmi oshishi bilan bir qatorda muammoli kreditlar hajmi ham oshishini kuzatishimiz mumkin.

4-jadval: Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida yillar bo'yicha o'zgarishi[9]

Yillar	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
2020	276 975	5 785	2,10%
2021	326 386	16 974	5,20%
2022	390 049	13 992	3,60%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlilining ko'rsatishicha, mamlakatimiz tijorat banklarining jami kreditlari qoldig'ida muammoli kreditlari ulushi garchi 2021-yilga nisbatan kamaygan bo'lsa ham, 2020-yilga qaraganda o'tgan yilda 1.5% ga ko'p bo'lgan. Bu ko'rsatkichlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki mijozlar sonini hamda kredit salmog'ini oshirishda, shu bilan birga muammoli kreditlarni oldini olishda mijozlar xulq-atvorini o'ganish va skoring tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirda amaliyotda jismoniy shaxslarni kreditlashda jahon tajribasida 2 xil usulda kreditlanadi, ular avtomatik ya'ni skoring usul asosida sun'iy intelektdan foydalangan holda anderrayting usulida amalga oshiriladi. Bank xodimlari tomonidan qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarni maxsus dasturga kiritilgan holda ballar hisoblanadi. To'plangan ballar asosida kredit berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bunday kresditlash jarayoni 5 daqiqadan 1 soatgacha vaqt talab etishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning asosiy amaliyotdan qo'llanilayotgan turlari esa bu overdraft krediti, online kredit, iste'mol kredit, avtokredit va mikrozaymlardir.

XULOSA

Respublikamizda ko'plab banklarda kreditlash jarayonlarini optimallashtirish, arizalarni ko'rib chiqishda inson omilini kamaytirish, qarz oluvchilar to'lov layoqatliligiga to'g'ri baho berish, banklarda kutiladigan kreditlash amaliyotlari bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish, arizalar ko'rib chiqilishini sifatli tashkil etish orqali mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Fikrimizcha, xulq – atvor iqtisodiyoti ilm fanda zamonaviy sohalardan biri sifatida, ayniqsa, kredit tashkilotlaridagi muammolarni boshqacha qilib aytganda risklarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Qiyin iqtisodiy vaziyatlarda ayniqsa koronavirus pandemiyasidan keyin kredit qaytmasligi xavf xatari va ko'p miqdordagi muammoli kreditlar ko'pgina davlatlarda kreditlash jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun insonlarning xulq atvoriga e'tibor qaratish zaruriyatini tug'dirdi. Shuningdek pandemiyadan keyin aholi daromadlari kamayganligini yoki boshqacha qilib aytganda kreditga nisbatan talab yanada ortganligini guvohi bo'ldik va bu o'z navbatida zamonaviy kredit skoring modellaridan foydalangan holda kredit riskini kamaytirib kreditlashni taqozo etadi. Bunda, albatta, xulq-atvor iqtisodiyoti omillariga tayanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kahneman, D.; Tversky, A. Intuitive Prediction: Biases and Corrective Procedures; Cambridge University Press (CUP): Cambridge, UK, 1982; pp. 414–421.
2. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow; Macmillan: New York, NY, USA, 2011.
3. Özşahin, M.; Yürür, S.; Coşkun, E. A Field Research to Identify Psychological Factors Influencing the Debt Repayment Behavior in Turkey. EMAJ Emerg. Mark. J. 2019, 8, 26–33, doi:10.5195/emaj. 2018.156.
4. Hampson, S. E. Personality processes: Mechanisms by which personality traits "get outside the skin". Annu. Rev. Psychol. 2012,63, 315–339. Robb, C. A.; Sharpe, D. L. Effect of personal financial knowledge on college students' credit card behavior. J. Financ. Couns. Plan. 2009, 20, 25–43.
5. Gathergood, J. Self-control, financial literacy and consumer over-indebtedness. J. Econ. Psychol. 2012, 33, 590–602.
6. The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison
7. The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

9 Cb.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

PORTFELLI XORIJIY INVESTITSIYALARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Kamilova Iroda Xusnitdinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank ishi va investitsiyalar kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Portfelli xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, asosiy kapital, globallashuv, xorijiy investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya faoliyati, davlat obligatsiyasi.

Abstract: The policy of attracting portfolio foreign investments for the development of priority sectors of the economy in the Republic of Uzbekistan is aimed at effective use of available funds, time and opportunities, effective deployment of resources based on existing conditions, and in this way, raising the economy of the republic, its integration into the world economic system, encouraging investments in the economy. aimed at attracting priority sectors and using them effectively.

Key words: Portfolio foreign investment, investment policy, fixed capital, globalization, foreign investment, investment activity, investment project, investment resources, investment activity, government bond.

Аннотация: Политика привлечения портфельных иностранных инвестиций для развития приоритетных отраслей экономики Республики Узбекистан направлена на эффективное использование имеющихся средств, времени и возможностей, эффективное размещение ресурсов исходя из существующих условий и, таким образом, повышение экономики республики, ее интеграция в мировую экономическую систему, стимулирование инвестиций в экономику, направленных на привлечение приоритетных отраслей и их эффективное использование.

Ключевые слова: Портфелные иностранные инвестиции, инвестиционная политика, основной капитал, глобализация, иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, инвестиционные ресурсы, инвестиционная деятельность, государственные облигации.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarinii saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan[1].

Portfelli xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investiyalarni jalb qilish ko‘lamini kengaytirish imkonini bergan holda, maqsadli investitsiya oqimining kirib kelishini ta’minlaydi va investitsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga investitsion siyosatning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish choralarini ko‘radi va amalga oshiradi, iqtisodiy, huquqiy normalarni, huquqiy himoya vositalarini yaratadi, milily fond bozorini rivojlantirishda, rezidentlarning qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiradigan xalqaro operatsiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni. //www. lex. uz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan operatsion chiqimlar aktiv strategiyaga nisbatan kam bo'ladi.

J. Tobinning portfelli tahlil nazariyasiga ko'ra,er, qo'zg'almas mulk yuqori daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga, yuqori risk darajasiga ega. Kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi. Riskli aktivlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida kompaniyalar va banklarning pul mablag'lari portfel ko'rinishida taqsimlanadi[2].

V. Aksenovning xulosasiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning aktiv strategiyasining muhim o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- portfelni shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarni tanlash;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish yoki sotish muddatlarini aniqlash[3].

G'arb mamlakatlari bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning svopingga asoslangan quyidagi to'rt shaklidan keng foydalanilmoqda[4]:

1. Sof daromadni tanlab olish shakli.

Mazkur shaklning mazmuni shundaki, nominali bir-biridan sezilarli darajada farq qilmaydigan va baholari bo'yicha bir xil bo'lgan ikki qimmatli qog'oz o'zaro ayirbosh qilinadi. Buning natijasida daromadlilik darajasi past bo'lgan qimmatli qog'oz sotiladi va uning o'rniga daromadliligi nisbatan yuqori bo'lgan qimmatli qog'oz sotib olinadi.

2. Almashtirib qo'yish shakli.

Ushbu shaklda bir-biriga o'xshash, lekin bir xil bo'lmagan ikkita qimmatli qog'oz ayirboshlanadi. Mazkur strategiya qo'shimcha daromad olish maqsadida qo'llaniladi.

3. Svop sektori shakli.

Ushbu shakl svopingning eng murakkab shakli hisoblanadi. Bunda investor iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni muddatiga, daromadliligiga ko'ra ayirboshlaydi.

4. Foiz stavkalarini tahlil qilish va prognoz qilishga asoslangan shakl.

Mazkur shaklda foiz stavkalari pasayayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati uzaytiriladi, foiz stavkalari oshayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati qisqartiriladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya uslublaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom moliya instrumentlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR

Xalqaro obligatsiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishga xizmat qilish bilan birga kelajakda ichki moliya bozoriga, jumladan davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

2021-yilda portfel investitsiya operatsiyalari saldosi manfiy ko'rinishda shakllanib, 2,0 mlrd. dollarni tashkil qildi. Mazkur holat hisobot davrida xalqaro moliya bozorlarida jami 5 ta xalqaro obligatsiyalar joylashtirilishi bilan izohlanadi.

Shundan:

- Davlat obligatsiyasi 635 mln. doll. (3,9 foiz stavkasi bilan 10 yil muddatga);
- Davlat obligatsiyasi 2,5 trln. so'mga (14,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga);
- "O'zNeftegaz" AJ obligatsiyasi 700 mln. doll. (4,75 foiz stavkasi bilan 7 yil muddatga);
- "UzAvto Motors" AJ obligatsiyasi 300 mln. doll. (4,85 foiz stavkasi bilan 5 yil muddatga);
- "Ipoteka bank" AJ obligatsiyasi 785 mlrd. so'm (16,0 foiz stavkasi bilan 3 yil muddatga)[5].

2 Тобин Дж. Денежная политика и экономической рост. – М.: Либроком, 2010. – С. 111–112.
3 Аксенов В. С., Зубов Й. О. Формирование и управление инветиционним портфелем в условиях финансого кризиса //Финанси и кредитю – 2010. – №7ю – С. 22–28.
4 Hirschey, M. & Nofsinger, J. Investments: analysis and behavior. McGraw-Hill Education, 2008. – P. 237.
5 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi//www.cbu.uz.

Moliyaviy hisobda majburiyatlar bo‘yicha operatsiyalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, asosan tashqi dunyo oldidagi majburiyatlar bo‘yicha oqimlar “Ssuda va qarzlar”, “To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar” hamda “Portfel investitsiyalar” komponentlariga to‘g‘ri keladi. 2018-yildan ssuda va qarzlarning ulushi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning ulushidan ko‘proq bo‘ldi. Ushbu jarayon sanoat va hududlarni rivojlantirish bilan bog‘liq davlat dasturlarini moliyalashtirish maqsadida davlat boshqaruvi sektori tomonidan olingan qarzlar hajmining oshishi bilan izohlanadi. Shuningdek, 2018-yildan boshlab MTB doirasida to‘lovlarning ko‘payishi sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi qisqarishi, hamda 2020-yilda pandemiya sabab “Ssuda va qarzlar” komponenti o‘sishi o‘tgan yillarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. 2021-yil natijalariga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof o‘sishiga qaramay, bank va boshqa sektorlar tomonidan tashqi qarzlarning faol jalb etilayotganligi, “Ssuda va qarzlar” komponenti tashqi dunyo oldidagi majburiyatlarning sof o‘sishida ko‘p ulushga (68 foiz) ega bo‘ldi.

TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasining sof investitsion pozitsiyasi 2021-yil boshiga nisbatan 17 foizga yoki 3,5 mlrd. dollarga qisqarib, joriy yilning 1-yanvar holatiga 16,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, mamlakatning chet el valyutasidagi aktivlari 70,4 mlrd. dollarni, tashqi majburiyatlarining hajmi esa 53,6 mlrd. dollarga teng bo‘ldi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda sof investitsion pozitsiyaning o‘zgarishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, nooperatsion o‘zgarishlarning ijobiy shakllanishiga qaramay to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalari bo‘yicha majburiyatlar hajmining o‘sishi, shuningdek ssudalar va qarzlar oshishi sof investitsion pozitsiyasiga salbiy ta’sir etdi. Xalqaro investitsion pozitsiyaning iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2021-yil yakunlariga ko‘ra, davlat boshqaruvi sektori va boshqa sektorlar “sof kreditor”, bank sektori esa “sof qarzdor” turkumiga oid bo‘lganligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida e’tirof etganlaridek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichda davom ettirilmoqda.

Xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori reyting bahosiga (AAA) ega bo‘lgan ITB banki jahon moliya tizimida o‘z nufuziga ega bo‘lgan xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. E’tirof etish joizki, ushbu xalqaro tashkilotning 46-yillik yig‘ilishini 2021-yilning 2–4-sentyabr kunlarida Toshkent shahrida o‘tkazilishi ITB tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga bo‘lgan ishonch va e’tiborning namoyon bo‘lish shakli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4224-sonli “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ITB bilan hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Mazkur Qarorga muvofiq, O‘zbekiston va ITB o‘rtasidagi uzoq muddatli sherikchilikning asosiy yo‘nalishlari qilib quyidagilar belgilandi:

- energetika, yo‘l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan, Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi (XSRBIK), Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK), Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash korporatsiyasi (IEKSIK), Islom tadqiqot va ta’lim instituti mablag‘larini jalb qilish;
- bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg‘armalarni tashkil etish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O‘zbekistonda tatbiq qilish;
- respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun XSRBIK, XISMK va IEKSIK moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi salohiyatini oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash[6].

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, chet ellik investor investitsiya faoliyatini tugatgandan so‘ng investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o‘z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O‘zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4224-sonli “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//www.lex.uz

Shuningdek, mazkur Qonunga ko‘ra, agar O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo‘lgan qonun hujjatlari chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e’tiboran o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi. Investor o‘zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o‘z xohishiga ko‘ra qo‘llash huquqiga ega. Xorijiy investitsiyani, xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim omillardan bo‘lib mamlakatdagi barqaror iqtisodiyot, huquqiy-investitsion muhit, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlik, rivojlangan infratuzilma, malakali mutaxassislar, va albatta yaratilgan imtiyozlar va kafolatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda investitsion muhit ko‘p jihatdan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bog‘liq.

2020-yilning 19-noyabr kuni Moliya vazirligi tomonidan umumiy hajmi 750 mln. dollar miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar ikki transhda – 10 yillik muddat bilan 555 mln. dollar dollarda va 3 yillik muddat bilan ilk bora milliy valyutamiz – o‘zbek so‘mida 2 trln. so‘m miqdorida London qimmatbaho qog‘ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi.

Bunda, 3 yillik milliy valyutadagi va 10 yillik dollardagi suveren xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarning mos ravishda 14,50% (dastlabki foiz stavkadan 0,75% past) va 3,70% (dastlabki foiz stavkadan 0,55% past) darajasida belgilanishi hamda mazkur obligatsiyalarni xarid qilish talabining mos ravishda 5 trln. so‘m va 3,8 mlrd. dollargacha yetishi xorijiy investorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bilan bog‘liq xatarlarning mo‘tadil darajada baholanishini va respublika istiqboliga bo‘lgan ishonchni oshib borayotganligini ko‘rsatadi. Milliy valyutadagi xalqaro obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar (2 trln. so‘m) Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish maqsadlariga, jumladan kambag‘allikka qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini va sifatli ta’limni targ‘ib qilish, gender tengligi ta’minlanishini jadallashtirish, toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, munosib mehnat sharoiti va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilma barqarorligini oshirishga qaratilgan rivojlanish loyihalari uchun yo‘naltiriladi[7].

Qayd etish lozimki, 2021-yilda ham xususiy sektor tomonidan xalqaro bozorlarga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish orqali tashqi qarz jalb qilishda faollik kuzatilda. Xususan, “O‘zbekneftegaz” AJ tomonidan qiymati 700 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog‘ozlarni 4,75 foiz stavkasi bilan 7 yillik muddatga, “UzAuto Motors” AJ tomonidan qiymati 300 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog‘ozlarni 4,85 foiz stavkasi bilan 5 yillik muddatga hamda “Ipoteka bank” AJ tomonidan 785 mlrd. so‘m qiymatidagi qimmatli qog‘ozlarni 16,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga xalqaro moliya bozorida joylashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarinii saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;
- kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi;
- respublikamiz iqtisodiyotiga portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi mavqeyini O‘zbekiston hukumati va davlat korxonalari egallaydi;
- xalqaro obligatsiyalarning foiz stavkalarini nibatan yuqori ekanligi ularga bo‘lgan talabni shakllantirishning asosiy omili bo‘lib qolmoqda.

Fikrimizcha, portfelli xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish ko‘lamini kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozorini xalqaro kapital bozoriga integratsiya qilishni ta’minlash orqali portfelli xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun, birinchidan, milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiya darajasini aniq ko‘rsatuvchi mezonlarni belgilab olish kerak; ikkinchidan, milliy qimmatldi qog‘zlar bozorining listingiga kirish talablarini xalqaro fond birjalarining listingiga kirish talablariga yuqori darajada mos kelishini ta’minlash lozim.
2. Muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritishni ta’minlash orqali O‘zbekistonning suveren kredit reytingini yaxshilash orqali rezidentlarning yevroobligatsiyalarini investitsion jozibadorligini oshirish zarur.

Hozirgi davrda, birinchidan, inflyatsiya darajasini yuqori ekanligi va davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi mamlakatning suveren kredit reytingini yaxshilash imkonini bermaydi; ikkinchidan, O‘zbekistonning suveren kredit reytingi darajasi ancha past (S&P reyting agentligi tomonidan berilgan O‘zbekistonning suveren kredit reytingi – BB-). Bu juda past reyting hisoblanadti.

7 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasining 2005–2021-yillar uchun to‘lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi hamda tashqi qarzi//www.cbu.uz

EXPLORING THE ETHICAL DIMENSIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ADVANCING HUMAN RIGHTS AND SUSTAINABILITY

Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna
Professor, the Department of State Legal Sciences and Human Rights of the IIV Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This research paper delves into the intricate interplay between artificial intelligence (AI), human rights, and sustainability, shedding light on the ethical dimensions that permeate this dynamic relationship. In an era marked by rapid technological advancements, the deployment of AI technologies holds immense promise for addressing global challenges, including the protection and promotion of human rights and the pursuit of sustainability goals. This study goes beyond the conventional evaluation and impact assessment paradigms to explore the underlying ethical underpinnings. Drawing from a multi-disciplinary approach that encompasses ethics, law, and technology, this paper examines how AI can both empower and potentially infringe upon human rights, highlighting the complex ethical dilemmas posed by AI-driven decision-making systems. It also scrutinizes the potential contributions of AI in bolstering environmental sustainability, emphasizing the need for responsible AI development and deployment to mitigate unintended consequences. Furthermore, this research underscores the importance of fostering a comprehensive ethical framework for AI, one that aligns with established human rights principles and sustainability objectives. By addressing ethical concerns such as bias, transparency, and accountability, we aim to guide policymakers, technologists, and stakeholders towards a more equitable and sustainable AI future. In sum, this paper advances the discourse on AI, human rights, and sustainability by presenting a holistic examination of the ethical considerations that underpin this intersection. By doing so, it contributes to a deeper understanding of the complexities involved in harnessing AI's potential while safeguarding fundamental human rights and advancing sustainability in an increasingly AI-driven world.

Key words: Ethical AI, Human Rights, Sustainability, Transparency, Algorithmic Bias, Interdisciplinary Collaboration, Sustainability by Design.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot maqolasi sun'iy intellekt (AI), inson huquqlari va barqarorlik o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni o'rganib chiqadi va bu dinamik munosabatlarga kirib boradigan axloqiy o'lchovlarga oydinlik kiritadi. Tez texnologik taraqqiyot davrida AI texnologiyalarini joriy etish global muammolarni hal qilish, jumladan, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun katta va'da beradi. Ushbu tadqiqot asosiy axloqiy asoslarni o'rganish uchun an'anaviy baholash va ta'sirni baholash paradigmalaridan tashqariga chiqadi. Etika, qonun va texnologiyani o'z ichiga olgan ko'p tarmoqli yondashuvdan kelib chiqqan holda, ushbu maqola AI qanday qilib inson huquqlarini kuchaytirishi va potentsial ravishda buzishi mumkinligini ko'rib chiqadi va AIga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari tomonidan yuzaga keladigan murakkab axloqiy dilemmalarni ta'kidlaydi. Shuningdek, u AIning ekologik barqarorlikni mustahkamlashdagi potentsial hissasini sinchkovlik bilan ko'rib chiqadi va kutilmagan oqibatlarni yumshatish uchun mas'uliyatli AIni ishlab chiqish va joylashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot o'rnatilgan inson huquqlari tamoyillari va barqarorlik maqsadlariga mos keladigan AI uchun keng qamrovli axloqiy asosni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Noto'g'rilik, shaffoflik va javobgarlik kabi axloqiy muammolarni hal qilish orqali biz siyosatchilar, texnologlar va manfaatdor tomonlarni yanada adolatli va barqaror AI kelajagiga yo'naltirishni maqsad qilganmiz. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola ushbu kesishuvni asoslaydigan axloqiy mulohazalarning yaxlit tahlilini taqdim etish orqali AI, inson huquqlari va barqarorlik haqidagi nutqni ilgari suradi. Shunday qilib, u sun'iy intellekt salohiyatidan foydalanish bilan bog'liq murakkabliklarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, shu bilan birga asosiy inson huquqlarini himoya qiladi va tobora ortib borayotgan sun'iy intellektga asoslangan dunyoda barqarorlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Axloqiy AI, inson huquqlari, barqarorlik, shaffoflik, algoritmik tarafkashlik, fanlararo hamkorlik, dizayn bo'yicha barqarorlik.

Аннотация: Эта исследовательская статья углубляется в сложное взаимодействие между искусственным интеллектом (ИИ), правами человека и устойчивым развитием, проливая свет на этические аспекты, которые пронизывают эти динамичные отношения. В эпоху быстрого технологического прогресса внедрение технологий искусственного интеллекта открывает огромные перспективы для решения глобальных проблем, включая защиту и продвижение прав человека, а также достижение целей устойчивого развития. Это исследование выходит за рамки традиционных парадигм оценки и оценки воздействия и направлено на изучение основных этических основ. Опираясь на междисциплинарный подход, охватывающий этику, право и технологии, в этой статье рассматривается, как ИИ может одновременно расширять возможности и потенциально нарушать права человека, подчеркивая сложные этические дилеммы, возникающие в системах принятия решений, управляемых ИИ. В нем также тщательно изучается потенциальный вклад ИИ в повышение экологической устойчивости, подчеркивая необходимость ответственной разработки и внедрения ИИ для смягчения непредвиденных последствий. Кроме того, это исследование подчеркивает важность создания всеобъемлющей этической основы для ИИ, которая соответствовала бы установленным принципам прав человека и целям устойчивого развития. Решая этические проблемы, такие как предвзятость, прозрачность и подотчетность, мы стремимся направить политиков, технологов и заинтересованных лиц к более справедливому и устойчивому будущему ИИ. В целом, эта статья развивает дискуссию об искусственном интеллекте, правах человека и устойчивом развитии, представляя целостное исследование этических соображений, лежащих в основе этого пересечения. Тем самым это способствует более глубокому пониманию сложностей, связанных с использованием потенциала ИИ, одновременно защищая фундаментальные права человека и продвигая устойчивость в мире, который все больше управляется ИИ.

Ключевые слова: этический ИИ, права человека, устойчивость, прозрачность, алгоритмическая предвзятость, междисциплинарное сотрудничество, устойчивое развитие задумано.

INTRODUCTION

Artificial Intelligence (AI) has emerged as a transformative force in the contemporary world, reshaping industries, economies, and societies at an unprecedented pace [1]. While its potential for positive impact on human rights and sustainability is substantial, it simultaneously introduces a host of ethical complexities and challenges that demand urgent scholarly scrutiny [2]. This paper embarks on a comprehensive exploration of the intricate relationship between AI, human rights, and sustainability, with a primary focus on the ethical dimensions that underlie this dynamic intersection.

As AI systems become increasingly integrated into various aspects of our lives, from healthcare and finance to criminal justice and environmental management, their influence on human rights is palpable [3]. AI-driven decision-making, often touted for its efficiency and impartiality, has the potential to either empower or infringe upon fundamental human rights, such as privacy, non-discrimination, and freedom of expression [4]. The opaque algorithms that govern these systems can inadvertently perpetuate biases, amplifying existing societal disparities [5]. Therefore, understanding how AI technologies intersect with human rights is a pressing concern, necessitating a nuanced exploration of their impact and the development of ethical safeguards.

Simultaneously, as the global community grapples with the imperatives of sustainability, AI has emerged as a pivotal tool in the pursuit of environmental and social goals [6]. From optimizing energy consumption and managing resources more efficiently to enabling climate change mitigation strategies, AI offers innovative solutions to some of humanity's most pressing challenges [7]. However, the sustainable deployment of AI necessitates careful consideration of its ecological footprint and ethical ramifications, as well as equitable access to its benefits [8].

This paper contends that a comprehensive examination of AI in the context of human rights and sustainability must extend beyond traditional assessments of its efficacy and impact. It underscores the imperative of establishing a robust ethical framework that guides the development, deployment, and governance of AI systems in a manner that is consistent with established human rights principles and sustainability objectives. This research thus seeks to navigate the intricate ethical terrain of AI, presenting a multidisciplinary perspective that engages with ethics, law, and technology studies, and ultimately contributes to a deeper understanding of the multifaceted role of AI in shaping our future [9].

The subsequent sections of this paper are structured to provide a comprehensive analysis of the ethical dimensions of AI within the contexts of human rights and sustainability. Following this introduction, the paper proceeds with a thorough review of the pertinent literature, which critically examines the existing body of knowledge on AI's impact on human rights and sustainability ethics. Subsequently, the paper employs a multidisciplinary approach to explore the ethical challenges and opportunities presented by AI, drawing on insights from ethics, law, and technology studies. Following this analysis, the paper outlines a conceptual framework for the ethical development and deployment of AI in alignment with human rights principles and sustainability goals. Finally, the paper concludes by summarizing key findings and offering practical recommendations for policymakers, technologists, and stakeholders in navigating the complex ethical landscape of AI in contemporary society.

2. Norov, A., Shaxiddinonov, S., & Norova, N. (2023). Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlaritijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar risklarini kamaytirish mexanizmlari. Prioritetnie napravleniya, sovremennie tendensii i perspektivi razvitiya finansovogo rinka, 134–135.
3. Bekjon Bo‘ron o‘g, N. (2023). Tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlar va ularning tahlili. Gospodarka i Innowacje., 340–346.
4. Olqarova, Z., & Boyev, B. (2022). Tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi va ularni takomillashtirish masalalari. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 5(5), 56–65.
5. Ergasheva, L. (2023). Muammoli kreditlar va uni monitoring qilish tartibi. Innovative Development in Educational Activities, 2(5), 299–302.
6. Ravshan o‘g‘li, S. Z. (2023). Banklarining muammoli kreditlar bilan ishlashi. Scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(9), 328–333.
7. Zokirova, D. I. (2023). Tijorat banklarining muammoli kreditlari tahlili va uni bartaraf etish usullari. Results of National Scientific Research International Journal, 2(1), 322–329.
8. Acharya, Viral V., et al. “Whatever it takes: The real effects of unconventional monetary policy.” The Review of Financial Studies 32.9 (2019): 3366–3411.

20 Никифорова В. Д. Достаточность собственного капитала как основа регулирования банковских рисков в России//Научный журнал НИУ ИТМО. Серия: “Экономика и экологический менеджмент”. –2016. № 1 С. 40-46. 2. Хасянова С. Ю. Кредитный анализ в коммерческом банке: учеб. пособие / С. Ю. Хасянова. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 196 с.

21 Abdullayev N. A. Kredit skoringi: mohiyat, qo‘llash mexanizmlari, muammolar // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. №3 (139). URL: https://cyberleninka. ru/article/n/kredit-skoringi-mo-iyat-llash-mehanizmlari-muammolar (дата обращения: 08. 10. 2023).



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF OMILLARINING TA’SIRI

Nabiyev Ulug‘bek Mirodiljon o‘g‘li
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning real holati tahlil qilingan, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun yalpi taklif, yalpi talab omillarini o‘stirish, investitsiya omilining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yalpi talab, yalpi taklif, kapital qaytimi, mehnat unumdorligi, mehnatning kapital bilan ta’minlanganlik darajasi, yalpi omillar unumdorligi.

Abstract: The article analyzes the real situation of economic growth in Uzbekistan, provides proposals and recommendations for ensuring stable economic growth, growth of aggregate supply, factors of aggregate demand, and assessing the influence of the investment factor on economic growth.

Key words: aggregate demand, aggregate supply, return on capital, labor productivity, level of capital labor supply, total factor productivity.

Аннотация: В статье анализируется реальная ситуация экономического роста в Узбекистане, даются предложения и рекомендации по обеспечению стабильного экономического роста, роста совокупного предложения, факторов совокупного спроса, оценки влияния инвестиционного фактора на экономический рост.

Ключевые слова: совокупный спрос, совокупное предложение, доходность капитала, производительность труда, уровень капитального предложения труда, совокупная факторная производительность.

KIRISH

Har qanday milliy iqtisodiyot notekis rivojlanadi va iqtisodiy faoliyatda ko‘tarilish va tushish kabi turli sikllarni boshdan kechiradi. Ushbu o‘zgarishlar umumiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga taalluqlidir. Iqtisodiy o‘sish iqtisodiy siklning tiklanish bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, u iqtisodiyotning oldinga siljishini, uning taraqqiyoti va rivojlanishini anglatadi. Iqtisodiy o‘sishning asosiy ko‘rsatkichi YaIMligini inobatga olgan holda, iqtisodiyot oldida turgan asosiy maqsad potensial YaIMga erishish degan fikrni ilgari suramiz. Potensial YaIMga erishishning asosiy sharti esa YaIM tarkibidagi mehnat, kapital va yalpi omillar unumdorligi ko‘rsatkichlari hajmini ortishini ta’minlagan holda, yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat nuqtadan katta farq bilan og‘ishmaslik hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o‘sish va unga omillar ta’siri G‘arb iqtisodchi olimlari ilmiy asarlarida keng bayon qilingan. Ayniqsa, A. Smit, D. Rikardo, R. Solou, J. Sey, E. Denison, Y. Domar, U. Jevons, Ch. Jones, N. Kaldor, J. Klark, F. Kyudland, R. Lukas, U. Petti, E. Preskot, P. Romer, J. Stiglis, I. Tyunen, R. Xarrod, Y. Shumpeter kabi iqtisodchi olimlar ishlari ulardan keyingi iqtisodiy o‘sishni tahlil qilgan olimlar tadqiqotlarida ham keng qo‘llanilgan. Shuningdek, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida A. Semenov, Y. Yasin, A. Golub, S. Gubanov, A. Illarionov kabi olimlar ham iqtisodiy o‘sish va uning omillarini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. O‘zbekistonda S. Chepel, A. Eshtayev, Sh. Yuldashev, A. O‘lmasov, A. Qobilov, D. Qurbonova, S. G‘ulomov, N. Ashurova, I. Jahongirov, S. Amirjanova, Sh. Xamdamov, F. Qodirov kabi iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy pasayishning oldini olish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalarini o‘rganganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun eng avvalo yalpi taklif va yalpi talab hajmlari o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanishi zarur hisoblanadi. Iqtisodiyotda yalpi taklif va yalpi talab hajmlarini aniqlash uchun

Samuelson-Xiks tomonidan kiritilgan ekonometrik modeldan foydalanamiz. 2022-yil uchun hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Modelning umumiy ko‘rinishi quyidagiga teng:

$$y_t = C_y y_{t-1} + \varkappa(y_{t-1} - y_{t-2}) + A_t.$$

Bizning fikrimizcha, modelning chap tomoni yalpi taklif, o‘ng tomoni yalpi talabni ifodalaydi. Formuladagi y_t – hisobot davri (2022-yil)dagi YaIM hajmi (888 341,7 mlrd. so‘m), ya’ni yalpi taklif hajmi; y_{t-1} -hisobot davridan avvalgi yil (2021-yil)dagi YaIM hajmi (738 425,2 mlrd. so‘m); y_{t-2} – hisobot davridan ikki yil avvalgi (2020-yildagi) yaratilgan YaIM hajmi (605 514,9 mlrd. so‘m); C_y – hisobot davridan avvalgi yil (2021 yil)gi iste’molning YaIM tarkibidagi ulushi (59,6%); $\varkappa$ – akselerator kattaligi (2022-yil uchun). Uni aniqlash uchun

$$\aleph = \frac{I_t}{(y_{t-1} - y_{t-2})} = \frac{266240 \text{ mlrd.so‘m}}{(738425{,}2 \text{ mlrd.so‘m} - 605514{,}9 \text{ mlrd.so‘m})} = 2.00316$$

modelidan foydalanamiz, bu yerda I_t – hisobot davri (2022-yil)dagi investisiya hajmi (266 240 mlrd. so‘m); A_t - hisobot davri (2022-yil)dagi avtonom talab hajmi (340 220,1 mlrd. so‘m). Berilgan ma’lumotlarni modelga qo‘yamiz.

888 341,7 = 0,596 * 738 425,2 + (738 425,2 – 605 514,9) + 340 220,1 = 1 046 798,2

Yakuniy natija ko‘rsatishicha, 2022-yilda yalpi taklif hajmi 888 341,7 mlrd. so‘mni, yalpi talab hajmi 1 046 798,2 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Mazkur yilda iqtisodiy o‘sish kuzatilgan bo‘lsada, yalpi talab hajmi yalpi taklif hajmidan 158 456,5 mlrd. so‘mga yuqori bo‘lgan. Natijada yalpi taklif taqchilligi kuzatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yalpi talab taqchilligi yoki yalpi taklif taqchilligiga sabab bo‘luvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri investitsiya hisoblanadi.

O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyaning hajmi yildan yilga o‘sib bormoqda (1-diagramma). Bu bevosita investitsiya samaradorligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu o‘rinda, asosiy e’tibor investitsiya kirituvchi manbalarga qaratilishi zarur. 2022-yilni oladigan bo‘lsak, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya ning hajmi 266 240.0 mlrd so‘mni tashkil etgan holda, uning 43,7% i chet el investitsiya lari va kreditlari hisobiga, 34% i korxonalar va aholining o‘z vositalari hisobiga, 12,5 % i banklarning kreditlari va qarz mablag‘lari hisobiga va 9,8% qismi davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga shakllanganini kuzatamiz[1]. Bu ko‘rsatkichlarni ijobiy holat deb aytish mumkin, biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik bo‘lmagan sohalarni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirishni yanada kamaytirish zarur deb hisoblaymiz.

1-diagramma: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya lar(mlrd. so‘m)[2]

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Shuningdek, investitsiya mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotgan sohalar tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 2022-yilda 28,3% investitsiya ishlab chiqarish sanoatiga, 13,9% qurilishga, 7,4% qishloq xo‘jaligiga, 8% investitsiyalar tog‘-kon sanoatiga, 3% ta’limga, 2,9% sog‘liqni saqlashga, 7,5% energetika sohasiga va 29% investitsiya mablag‘lari boshqa sohalarga kiritilgan. Shu o‘rinda, investitsiyalarning atigi 0.079% qismi ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga, 0.439% i boshqa intellektual mulk mahsulotlariga kiritilganligi e’tiborga molik[3]. Bu past ko‘rsatkichlar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Solishtirish uchun, 2021-yilda O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirilgan xarajatlar YaIMga nisbatan 1,4% ni tashkil etgan[4]. Bu sohaga yo‘naltirilgan global investitsiyalar esa deyarli 1,7 trillion AQSh dollariga yetgan holda, Jahon YaIMida 2.13% ulushni tashkil etgan. Shuningdek, BMTnig Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida mamlakatlar 2030-yilga kelib davlat va xususiy ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun xarajatlarni, shuningdek, tadqiqotchilar sonini sezilarli darajada oshirish majburiyatini olganlar[5].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga kiritilgan investitsiyalar boshqa sohalarning investitsiya salohiyatini ham oshirishga xizmat qilishini inobatga olgan holda, davlat investitsiya siyosatiga qator o‘zgartirishlar kiritishi zarur deb hisoblaymiz: O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirilayotgan investitsiya hajmini oshirish uchun, birinchidan, davlat byudjetidan mazkur sohaga moliyaviy xarajatlarni keskin oshirish, ikkinchidan, xususiy ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini rag‘batlantirish, ularga soliq imtiyozi, subsidiyalar ko‘rinishida keng imkoniyatlar yaratish, uchinchidan, mazkur sohada huquqiy bazani boyitish va soha subyektlari huquqlari kafolatini ta’minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga 2010–2022-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi 16,17 barobarga, YaIM hajmi esa 11,25 martaga ortgan (1-jadval). Tahlil natijasida ko‘rinadiki, investitsiya hajmini avvalgi yilga nisbatan ortishi YaIM o‘sishidan 4,92 birlik yuqori. Ammo, biz tahlil natijalarini 2016-yil holatiga ko‘radigan bo‘lsak, 2010-yilga nisbatan investitsiya hajmi 3.11 barobarga, YaIM hajmi esa 3.23 martaga ortganiga guvoh bo‘lamiz. Endigi holatda ko‘rinib turibdiki, investitsiya hajmining ortishi YaIM o‘sishidan ortda qolmoqda. Va afsuski, 2016–2021-yillar oralig‘idagi musbat ko‘rsatkichni ham ijobiy holat deb ayta olmaymiz. Bunga sabab qilib, mazkur yillar oralig‘ida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning asosiy ulushi tashqi qarz hisobiga to‘g‘ri kelishini keltirishimiz mumkin. Xususan, O‘zbekistonda 2016–2019-yillar mobaynida 11 391,7 mln AQSh dollari miqdoridagi loyihalar tashqi qarz hisobiga moliyalashtirilgan[6]. Bu mamlakatda investitsiya samaradorligini o‘stirish zarur ekanligini angalatadi. Investisya samaradorligini o‘stirishning asosiy yo‘llaridan biri bu foiz stavkasi hisoblanadi. Ma’lumki, barcha iqtisodiyot subyektlari faoliyati zamirida xarajatlarni minimallashtirish va bu orqali daromadlarni maksimallashtirish yotadi. Davlat nomidan ish yurituvchi va foiz stavkasi darajasini belgilovchi tashkilot bo‘lmish Markaziy bank bu vaziyatda iqtisodiyotdagi pul massasini oshirishi zarur. Natijada, foiz stavkasi pastlaydi, iqtisodiyot subyektlarining xarajatlari kamayib qo‘shimcha jamg‘arma hosil bo‘ladi va iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiya hajmi ortadi.

Investitsiya hajmini oshirishda davlat qo‘llashi mumkin bo‘lgan unsurlardan yana biri fiskal siyosatdir. Bunda davlat tomonidan soliq yuki kamaytiriladi. Oqibatda, iqtisodiyot subyektlarining qo‘lida yana qo‘shimcha foyda hosil bo‘ladi va bu investitsiyani rag‘batlantiradi. Davlat soliq yukini kamaytirish bilan birga, byudjet xarajatlarini qisqartirishga majbur bo‘ladi, sababi O‘zbekistonda byudjet daromadlari, asosan, soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Bu vaziyatda, byudjet xarajatlarini qisqartirish vaqtinchalik chora vazifasini bajaradi, bunga sabab sifatida soliq to‘lovchilarga soliq yuki kamaytirilgach, soliqlar miqdori yuqori bo‘lgan paytda yashirib kelgan daromadlarini o‘z ixtiyorlari bilan ochiqlashlarini keltirishimiz mumkin. Bu holatlar bevosita byudjetga tushumlarni oshiradi va investitsiyani rag‘batlantiradi, umumiy holatda barqaror iqtisodiy o‘sish kuzatiladi.

Investitsiya omili barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi va yalpi talab shakllanishida asosiy rol o‘ynovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, yalpi talab va yalpi taklifni bog‘lanishini ifodalovchi akselerator ko‘rsatkichi mavjud bo‘lib, u orqali iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif omillaridan qaysi biri taqchil ekanligini aniqlash va mavjud iqtisodiy o‘sishni real holatini aniqlashga va buning natijasida turli xil qarorlar qabul qilishga imkon yaratiladi. Akselerator ko‘rsatkichi YaIM hajmining bir birlik o‘zgarishi natijasida investitsiya hajmining necha birlik o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi.

Yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasida 2010–2022-yillar oralig‘ida nomutanosiblik kuzatilgan bo‘lib, real akselerator ko‘rsatkichi muvozanatni ta’minlovchi akselerator ko‘rsatikichidan katta bo‘lgan va natijada taklif taqchilligi yuzaga kelgan.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
4 https://data.worldbank.org/indicator/GB. XPD. RSDV. GD. ZS
5 https://uis.unesco.org/apps/visualisations/research-and-development-spending/
6 https://cbu.uz/oz/statistics/bop/144130/

1-jadval: O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning real holati ko‘rsatkichlari(mlrd. so‘m)[7]

Yillar	Yalpi taklif	Yalpi talab	Asosiy kapitalga qilingan investitsiya hajmi	Taklif takchilligi	Real akselerator	Muvozanat akselerator
2010	78 936,6	82 681,7	16 463,7	3 745	1,14	0,90
2011	103 232,6	104 925,6	19 500,0	1 693	1,12	1,04
2012	127 590,2	134 971,4	24 455,3	7 381	1,01	0,56
2013	153 311,3	165 147,0	30 490,1	11 836	1,25	0,90
2014	186 829,5	200 328,9	37 646,2	13 499	1,46	0,91
2015	221 350,9	240 734,0	44 810,4	19 383	1,34	0,85
2016	255 421,9	281 359,3	51 232,0	25 937	1,48	0,77
2017	317 476,4	345 657,5	72 155,2	28 181	2,12	1,04
2018	426 641,0	482 321,8	124 231,3	55 681	2,00	0,69
2019	532 712,5	666 916,1	195 927,3	134 204	1,79	0,39
2020	605 514,9	771 995,6	210 195,1	166 481	1,98	0,51
2021	738 425,2	898 720,7	239 552,6	160 295	3,29	1,05
2022	888 341,7	1 062 080,7	266 240	173 739	2,00	0,70

Yalpi talab taqchilligi odatda yangi mustaqillikka erishgan yoki o‘tish davridagi iqtisodiyotga xos holat hisoblanadi. Bunga asosiy sabab qilib iqtisodiyot uchun zaruriy bo‘lgan investitsiya hajmi pastligini keltirishimiz mumkin. Bunga misol qilib, O‘zbekiston iqtisodiyotining 1995–2002-yillardagi holatini keltirish mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyotida 1995–1997, 1999–2000 va 2002-yillarda mamlakatdagi muvozanatsizlik, ya’ni yalpi taklif va yalpi talab o‘rtasidagi nomutanosiblikka yalpi talab taqchilligi sabab bo‘lgan. Ushbu davrda yalpi talab taqchilligi kuzatilgan yillarda haqiqiy akselerator ko‘rsatkichi muvozanat ta’minlanishi uchun zarur bo‘lgan akseleratordan kichik qiymatlarni ifodalagan. 2001-yilda real va muvozanat akseleratori deyarli bir xil ko‘rsatkichni namoyon etgan. Biroq, investitsiyaning YaIMdagi ulushi 2001-yildagi 26.82% dan 2002-yilda keskin qisqarib 19.31% ni tashkil etganligi, 2002-yilda yana talab taqchilligi kuzatilishiga sabab bo‘lgan. [8] Keyingi yillarda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi ortib borgan va joriy davrgacha taklif taqchilligi kuzatilib kelinmoqda.

O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar turkumiga kirishini inobatga olsak, taklif taqchilligi kuzatilishi tabiiy holat hisoblanadi. Bunga sabab, davlat tomonidan olib borilayotgan ijobiy investitsiya siyosatidir. Asosiy kapitalga qilingan investitsiya hajmi oldingi yilga nisbatan 2018-yilda 1,72 va 2019-yilda 1,58 barobarga ortgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2018-yildagi 124 231,3 mlrd so‘mlik asosiy kapitalga qilingan investitsiyaning 49,7% i, 2019-yildagi 195 927,3 mlrd so‘mlik asosiy kapitalga qilingan investitsiya ning 42% i[9] qurilish-montaj ishlariga yo‘naltirilgan va natijada bu miqdorlarning yalpi taklifning ortishiga ta’siri katta bo‘lmagan va bu real va muvozanat akselerator ko‘rsatkichlari o‘rtasida keskin farq yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Keyingi yillarda ham asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning aksariyati qurilishga va yangi sohalarning rivojlanishiga yo‘naltirilganligini kuzatishimiz va bu sohalarda amalga oshirilgan loyihalar o‘zining ijobiy samarasini berishni boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, xalqaro tajribadan ma’lumki, taklif taqchilligi kuzatilgan davrda, odatda, iqtisodiyot uchun zaruriy bo‘lgan investitsiya yetarli miqdorda, ba’zan keragidan ko‘p bo‘ladi, lekin iqtisodiyotda mavjud kapitalning aksariyati jismoniy yoki ma’naviy eskirgan, ishlab chiqarish omillari samaradorligi past, ishlab chiqarish texnologiyasi xalqaro darajadan ortda qolgan, mehnat unumdorligi va kapital qaytimi past bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish holatida bo‘lsada, yuqoridagi kabi holatlar ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida uchrab turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish, yalpi talab va yalpi taklif mutanosibligini ta’minlash uchun davlat tomonidan quyidagilarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- iqtisodiyotga davlatning aralashuvini kamaytirib borish; tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish;
- ishlab chiqarishni yangi darajaga olib chiqish va unda eng so‘nggi avloddagi texnika-texnologiyalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
8 Madrahimov U. M. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish omillarining samaradorligini oshirish: Dis. ... iqt. fan. nom.: AndMII, – T., 2008. – 52 b.
9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

- milliy iqtisodiyot tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes salmog‘ini orttirish;
- tabiiy resurslarni yuqori texnologiya yordamida chuqur qayta ishlash orqali sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va import o‘rnini bosgan holda eksportga yo‘naltirish; hududlar eksport salohiyatini oshirib borish;
- ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga davlat xarajatlarni ko‘paytirish va yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- import o‘rnini bosuvchi tovarlar lokalizatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, bunda iste’mol tovarlariga alohida urg‘u berish;
- monapoliyaga qarshi kurashgan holda samarali raqobat muhitini rivojlantirishda davom eitsh;
- yangi sohalarni chuqur o‘zlashtirgan holda yangi mahsulotlarni sifatli va xalqaro raqobatga chidamli qilib ishlab chiqarish;
- muqobil energiya ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, hajmlarni oshirish va oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish.

O‘zbekiston iqtisodiyotini 2010–2022-yillardagi holatini tahlil qilib, barqaror iqtisodiy o‘sish davomiyligi uchun yalpi taklif omillari, xususan, kapital qaytimi, mehnat unumdorligi, mehnatning kapital bilan ta’minlanganlik darajasi, yalpi omillar unumdorligi, jamiyatda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlanishi kabi bir qator omillarga alohida urg‘u berish kerak ekanligini aytib o‘tishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madrahimov U. M. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish omillarining samaradorligini oshirish: Dis. ... iqt. fan. nom.: AndMII, – T., 2008. – 52 b.
2. https://data. worldbank. org/indicator/GB. XPD. RSDV. GD. ZS.
3. https://uis. unesco. org/apps/visualisations/research-and-development-spending/
4. https://cbu. uz/oz/statistics/bop/144130/
5. https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts–2

THE POTENTIAL ADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE TOTAL QUALITY EDUCATION MANAGEMENT (TQEM) CONCEPT

Otakulov Makhamadjon
PhD, Tashkent State University of Economics

Abstract: Modern education is faced with challenges and changes that demand new approaches to improve quality and efficiency. To meet these demands, universities must adopt innovative methods and strategies that provide optimal learning conditions for students.

System and process approaches offer a holistic view of educational processes and systems, and Total Quality Educational Management (TQEM) provides an integrated approach to education quality management. This article explores the application of system and process approaches in university innovation and the effectiveness of TQEM in improving the quality of teaching economic disciplines. The review also examines the innovation infrastructure of universities in economic disciplines, including the role of incubators, modern technologies, innovation centers, and human resource development.

The study explores the relationship between system and process approaches and TQEM, showcasing their integration for optimal results. By adopting these approaches, universities can optimize the educational process, improve teaching methods, and enhance collaboration among students, teachers, and university administration, ultimately leading to higher education quality.

Key words: system approaches, process approaches, innovation activity, universities, quality of education, economic disciplines, Total Quality Education Management (TQEM)

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim sifat va samaradorlikni oshirish uchun yangi yondashuvlarni talab qiladigan muammolar va o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu talablarni qondirish uchun universitetlar talabalar uchun maqbul ta’lim sharoitlarini ta’minlaydigan innovatsion usullar va strategiyalarni qabul qilishlari kerak.

Tizim va jarayon yondashuvlari ta’lim jarayonlari va tizimlarining yaxlit ko‘rinishini taklif qiladi va Total Quality Educational Management (TQEM) ta’lim sifatini boshqarishga kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu maqolada universitet innovatsiyalarida tizimli va jarayonli yondashuvlarni qo‘llash va iqtisodiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirishda TQEM samaradorligi o‘rganiladi. Sharh shuningdek, iqtisodiy fanlar bo‘yicha universitetlarning innovatsion infratuzilmasi, jumladan, inkubatorlar, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion markazlarning roli va inson resurslarini rivojlantirish masalalarini o‘rganadi.

Tadqiqot tizim va jarayon yondashuvlari va TQEM o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi, ularning optimal natijalarga erishish uchun integratsiyasini namoyish etadi. Ushbu yondashuvlarni qo‘llash orqali universitetlar ta’lim jarayonini optimallashtirishi, o‘qitish usullarini takomillashtirishi va talabalar, o‘qituvchilar va universitet ma’muriyati o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi, natijada oliy ta’lim sifatiga olib kelishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tizimli yondashuvlar, jarayon yondashuvlari, innovatsion faoliyat, universitetlar, ta’lim sifati, iqtisodiy fanlar, Total Quality Education Management (TQEM)

Аннотация: Современное образование сталкивается с проблемами и изменениями, которые требуют новых подходов к повышению качества и эффективности. Чтобы удовлетворить эти требования, университеты должны применять инновационные методы и стратегии, обеспечивающие оптимальные условия обучения для студентов.

Системный и процессный подходы предлагают целостное представление об образовательных процессах и системах, а Total Quality Educational Management (TQEM) обеспечивает комплексный подход к управлению качеством образования. В данной статье исследуется применение системного и процессного подходов в университетских инновациях и эффективность TQEM в повышении качества преподавания экономических дисциплин. В обзоре также рассматривается инновационная инфраструктура университетов по экономическим дисциплинам, включая роль инкубаторов, современных технологий, инновационных центров и развития человеческих ресурсов.

Исследование исследует взаимосвязь между системным и процессным подходами и TQEM, демонстрируя их интеграцию для достижения оптимальных результатов. Приняв эти подходы, университеты могут оптимизировать образовательный процесс, улучшить методы обучения и улучшить сотрудничество между студентами, преподавателями и администрацией университета, что в конечном итоге приведет к повышению качества высшего образования.

Ключевые слова: системные подходы, процессные подходы, инновационная деятельность, университеты, качество образования, экономические дисциплины, Total Quality Education Management (TQEM).

INTRODUCTION

The process of preparing economists for the modern dynamic world is a task that requires ongoing scrutiny and adaptation. In recent years, the focus has been on implementing systemic and process approaches to raise the quality and capacity of economic education. A systemic approach involves looking at the 'big picture' and considering the complex interactions within an educational system, while a process approach emphasizes the importance of the ongoing processes, activities, and their outcomes in an educational setting [1]. This narrative review, therefore, aims to summarize the critical aspects and recent developments in this area, drawing on studies published in Scopus-indexed journals.

Economic disciplines, in today's fast-paced world, require graduates to be equipped with critical thinking skills, problem-solving capabilities, and decision-making acumen. To provide such skills, contemporary pedagogy is seeking innovative teaching methods that move beyond traditional memorization and regurgitation of facts [2]. One such innovation is the integration of systemic and process approaches, which are believed to create a more responsive, adaptive, and effective learning environment [3] [4].

Furthermore, studies have argued that these approaches have the potential to increase the efficiency and quality of learning by actively involving students in the learning process and encouraging the development of both hard and soft skills [5]. For instance, an education system based on the systemic approach creates a network of interconnected concepts and subjects, which helps students better understand the multi-faceted nature of economics [6].

Literature on this subject has been growing exponentially, yet no comprehensive review has been conducted to date. Therefore, this article aims to fill this gap by providing a comprehensive analysis of the current state of research on the use of systemic and process approaches in the education of economic disciplines. In doing so, it draws on a range of Scopus-indexed journals to ensure a comprehensive, high-quality, and up-to-date synthesis of the literature.

PURPOSE OF THE RESEARCH

The field of education management has seen considerable research on system and process approaches in university innovation and the application of Total Quality of Educational Management (TQEM) to improve the quality of education in economic disciplines. Existing literature offers methods and recommendations for enhancing educational processes and overall education quality.

Key studies include Edward Deming's work, which highlights the concepts of quality and a systematic approach to management, influencing the development of Total Quality Management (TQM) [7]. Verma explores the application of TQM methods in education, focusing on improving the quality of educational processes [8]. The significance of TQM in educational institutions and its impact on education quality and outcomes is emphasized by Sallis [9].

Research by Demiray demonstrates the positive influence of TQEM on teachers' attitudes towards distance learning, leading to successful implementation and improved education quality [10]. Widyastuti emphasizes the importance of a process-oriented approach in higher education, highlighting its potential to enhance learning quality and student outcomes [11]. Poh highlights the importance of TQEM in improving processes, culture, and outcomes in higher education, contributing to overall education quality improvement [12].

In addition, studies have examined innovation in education, quality assurance in higher education in Uzbekistan, challenges faced by educational institutions, and recommendations for improving educational management systems [13-21].

Despite the wealth of research in educational management and quality assurance, there remains a gap in investigating the system and process approaches in university innovation to enhance the capacity and quality of teaching economic disciplines using TQEM. Further research in this area is warranted to address this gap and advance the field.

RESEARCH METHODOLOGY

To carry out a thorough exploration of the system and process approaches in augmenting the power and quality of training in economic disciplines, a comprehensive research strategy is necessitated. This methodology will focus on research published in Scopus-indexed journals to ensure the highest academic rigor and broad spectrum of analysis.

1. Literature Search:

The research process will start with an extensive search of Scopus-indexed journals, employing relevant key terms and phrases such as 'systemic approach,' 'process approach,' 'economic disciplines,' 'education,' 'capacity enhancement,' 'quality improvement,' and 'training power. ' The timeline for the search will span publications from 2010 through 2023 to maintain currency and relevancy in the context.

2. Study Selection:

Studies will be chosen based on the following inclusion criteria: (1) empirical studies that specifically investigate the systemic and process approaches in economic education; (2) studies written in the English language; and (3) studies published within the defined timeline. Studies will be excluded if they are (1) non-empirical or theoretical in nature; (2) not focused on the systemic or process approaches in economic education; or (3) published prior to 2010.

3. Data Extraction and Synthesis:

Selected studies will undergo a rigorous data extraction process, wherein important information such as authors, year of publication, research objectives, methods, sample size, primary findings, and implications will be carefully noted. The extracted data will be categorized and structured for further interpretation and synthesis.

4. Quality Assessment:

To gauge the quality of the selected studies, the Mixed Methods Appraisal Tool (MMAT) - Version 2018 will be employed [22]. The MMAT is a widely used tool for assessing the quality of qualitative, quantitative, and mixed-methods research.

5. Data Analysis:

The analysis of the collected data will follow the thematic synthesis method as suggested by Thomas and Harden (2008) [23]. This approach allows for identifying and analyzing recurrent themes across the selected studies, making it apt for understanding the implications of systemic and process approaches in economic education.

6. Reporting of Findings:

The presentation of findings will adhere to the Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses (PRISMA) guidelines. These guidelines provide a comprehensive structure for reporting systematic review findings and ensure a transparent and replicable research process [23].

Moreover, the study identifies principles, methods, and tools that contribute to positive outcomes.

Applying statistical methods and tools to collected data enables the identification of relationships, patterns, and statistical significance, providing a comprehensive understanding of the impact of system and process approaches in the university's innovation activities and their influence on teaching economic disciplines using TQEM.

The study focuses on exploring the concept, principles, and application of TQEM in university education and assessing its effectiveness in improving the quality of teaching economic disciplines. It also examines the relationship between system and process approaches and TQEM, aiming to integrate these approaches for optimal results.

The study demonstrates the dynamics of increasing the potential and quality of education in economic disciplines using TQEM, providing milestones, indicators, and approximate values. Qualitative indicators showcase the progress and potential for improvement, though specific outcomes depend on the implementation and context of each university. Employing system and process approaches with TQEM has the potential to enhance the capacity and quality of teaching economic disciplines at universities, emphasizing the need for tailored implementation to achieve effective results.

HIGHER EDUCATION POTENTIAL ANALYSIS UZBEKISTAN

In the republic, there are a total of 210 higher education institutions, including 36 universities, 48 institutes, 4 academies, 26 branches, 1 conservatory, 30 branches of foreign universities, and 65 private higher education institutions[1].

The higher education sector in Uzbekistan plays an important role in the development of the economy, human capital, and innovation:

The share of higher education in the total volume of educational services increased to 51% by the end of 2022, compared to 47% in 2017.

The number of teaching staff in higher education increased by 1. 6 times from 2017 to 2022.

In the 2021/2022 academic year, the number of foreign students studying in higher education institutions in the country increased fourfold compared to 2017/2018, reaching 5. 1 thousand people.

Expenditures on research and development in higher education organizations in Uzbekistan increased by 1,3 times in real terms.

An analysis of the growth dynamics polynomials of the number of students between years (x) and the number of students (y) in retrospect and perspective shows that the number of students and interest in higher education has a linearly increasing growth, taking into account the forecast period until 2025 (Figure 1).

1 www. stat. uz



Figure 1: Dynamics of the relationship between the number of higher education institutions and the number of students from 2016 to 2022.

Using the methods of statistical analysis of the growth potential of universities, such as calculating the correlation coefficient and plotting, we analyzed the growth in the number of students in dynamics since 2016 and correlations with the growth potential of universities, we considered the correlation coefficient between years (x) and the number of students (y) based on the data provided:

An overview of trends in the higher education market over the past five years shows a sharp increase in the number of universities by more than 2. 5 times (from 72 in the 2017/2018 academic year to 210 universities in the 2022/2023 academic year) and a more than threefold increase in the number of students (from 298,000 in the 2017/2018 academic year to 1. 04 million students in the 2022/2023 academic year)[2].

The concentration index of the country's higher education market, based on the estimation of market shares of universities, decreased from 191 to 147 during the period from 2017 to 2022. This reflects a high level of overall competition among universities.

The calculation of the market concentration index by regions showed that the market for educational services at the regional level is moderately concentrated. The level of territorial concentration of higher education in the 2022/2023 academic year was 1525, a decrease from 1745 in the 2017/2018 academic year.

The study focuses on examining systemic and process approaches to enhance the capacity and quality of training in economic disciplines within the higher education context of Uzbekistan. The research encompasses three key stages: line-by-line coding of primary research findings, development of descriptive themes, and generation of analytical topics.

The line-by-line coding of primary research findings revealed the significant role of higher education in fostering economic, human capital, and innovative development in Uzbekistan. This is evidenced by the rapid growth in the number of higher education institutions and students, along with the increasing competitiveness among universities. The study emphasizes the importance of system and process approaches in driving educational innovations and highlights the potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept.

The development of descriptive themes based on line coding yielded the following key themes. Firstly, the expansion of higher education underscores the notable trend of rapid growth in the number of universities and students in Uzbekistan, resulting in heightened competition among universities. This expansion has elevated the role of higher education in the country's development. Secondly, adopting system and process approaches demonstrates the potential for improving the quality and potential of economic education. These approaches

2 www. stat. uz

acknowledge the complexity of the educational process and aid in optimizing various aspects, including curriculum design and resource allocation. Lastly, the integration of TQEM as part of a system and process approach can help maintain a high level of education quality. TQEM encourages standardization, systematization, and collaboration among educational stakeholders.

By generating analytical topics, the study concludes that strategic development in higher education has led to the rapid expansion of institutions and student enrollment, indicative of the sector's strategic growth in Uzbekistan. However, in the face of increasing competition between universities, strategic efforts are necessary to uphold and enhance quality and capacity.

Moreover, system and process approaches offer practical avenues for fostering innovation in universities. When combined with the integration of TQEM, these approaches contribute to the continual improvement of learning outcomes, fostering a culture of continuous enhancement in the field of economics education.

KEY FINDINGS AND CONCLUSION

The innovative activities of universities to enhance the potential and quality of teaching economic disciplines can benefit from the implementation of systemic and process approaches. The utilization of the Total Quality in Educational Management (TQEM) concept further enhances these approaches, leading to improved outcomes. Here are the key findings and conclusions related to the use of system and process approaches in university innovation activities with TQEM:

- **System approach.** Adopting a systems thinking perspective allows universities to view the educational process as a complex system, considering the interplay of various elements and stakeholders. Applying a systematic approach in university innovation activities enables the optimization of teaching economic disciplines by considering factors such as training programs, teacher qualifications, resources, and infrastructure.
- **Process approach.** The process approach focuses on analyzing and optimizing specific learning processes, enabling effective management of their sequence, relationships, and outcomes. Implementing the process approach in university innovation activities helps identify and address bottlenecks, optimize resource allocation, and enhance the quality of teaching economic disciplines.
- **Total Quality Educational Management (TQEM).** TQEM is a methodology aimed at achieving and maintaining a high level of educational quality. Integrating TQEM into university innovation activities facilitates the standardization and systematization of teaching economic disciplines, while fostering improved collaboration among students, teachers, and university administration.
- **Capacity and quality enhancement.** Employing systems and process approaches with TQEM can enhance the capacity and quality of education in economic disciplines. Optimizing educational processes based on student needs, introducing innovative teaching and assessment methods, and improving participant interaction contribute to more effective education and better preparation of students for the demands of the modern job market in economics.
- **Continuous improvement.** University innovation activities should be ongoing, continuously seeking new approaches and solutions. The application of systems and process approaches with TQEM is an iterative process that necessitates continual analysis and improvement of educational practices.

The work suggests that the use of systems and process approaches, in conjunction with TQEM, enables universities to effectively manage innovation and enhance the potential and quality of teaching economic disciplines. These approaches facilitate the optimization of educational processes, foster increased interaction among participants, and support ongoing enhancements in learning outcomes.

References

1. Fullan, M., & Scott, G. (2009). Turnaround Leadership for Higher Education. Jossey-Bass.
2. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. Proceedings of the National Academy of Sciences, 111(23), 8410-8415.
3. Bloom, B. S. (2009). Learning for Mastery. Evaluation comment, 1(2), n2.
4. Chen, D., & Stroup, W. (1993). General system theory: Toward a conceptual framework for science and technology education for all. Journal of Science Education and Technology, 2(3), 447-459.
5. Gokhale, A. A. (1995). Collaborative learning enhances critical thinking. Journal of Technology Education, 7(1), 22-30.
6. Jacobson, M. J., & Wilensky, U. (2006). Complex systems in education: Scientific and educational importance and implications for the learning sciences. Journal of the Learning Sciences, 15(1), 11-34.

7. Deming, W. E. (2000). “The new economics for industry, government, education” [ISBN: 978-0262541169].
8. Verma, V. (2012). “Total quality management in education”. 2012.
9. Sallis, E. (2002). “Total quality management in education”. 2002.
10. Demiray, H. “The Effect of Total Quality Management on the Attitudes of Academics towards Distance Education.” International Journal of Quality Assurance in Engineering and Technology Education. 2017.
11. Widyastuti, I. “Process-Oriented Quality Management in Higher Education: A Literature Review.” Procedia - Social and Behavioral Sciences. 2016.
12. Poh, L. -S. “Enhancing Quality in Higher Education: The Use of Total Quality Management.” Quality Assurance in Education. 2019.
13. Aghaei Chadegani, A. “Systematic Review of Innovation in Education: A Citation Analysis Approach.” Journal of Advances in Medical Education & Professionalism. 2017.
14. Hossain, A. “Innovation in Education: A Systematic Review.” Future of Education Technology Conference. 2019.
15. Rakhimov, M., & Ibragimova, G. (2020). “Quality Assurance in Higher Education in Uzbekistan: Achievements and Challenges.” Journal of Research in Innovative Teaching & Learning, 13(1), 72-83.
16. Tashmatova, N., & Ahmedova, Z. (2019). “Educational Management in Higher Education Institutions: Uzbekistan Experience.” International Journal of Educational Leadership and Management, 7(1), 1-12.
17. Karimov, A., & Sultanova, D. (2018). “Quality Assurance in Higher Education: The Case of Uzbekistan.” Journal of Education and Practice, 9(23), 127-135.
18. Buriyeva, N., & Eshchanov, B. (2017). “Quality Assurance and Accreditation in Higher Education in Uzbekistan: Current Challenges and Future Prospects.” Journal of Quality Assurance in Education, 25(4), 413-428.
19. Juraeva, D., & Leutner, D. (2016). “Quality Management in Higher Education Institutions: The Case of Uzbekistan.” Quality in Higher Education, 22(2), 166-183.
20. Ashrapova, D., & Khamdamova, D. (2015). “The Role of Educational Management in Ensuring Quality Education in Higher Education Institutions: The Case of Uzbekistan.” Central Asian Journal of Education Research, 1(1), 46-61.
21. Hong, Q. N., Fàbregues, S., Bartlett, G., Boardman, F., Cargo, M., Dagenais, P., .. . & Pluye, P. (2018). The Mixed Methods Appraisal Tool (MMAT) version 2018 for information professionals and researchers. Education for Information, 34(4), 285-291.
22. Thomas, J., & Harden, A. (2008). Methods for the thematic synthesis of qualitative research in systematic reviews. BMC medical research methodology, 8(1), 1-10.
23. Moher, D., Liberati, A., Tetzlaff, J., & Altman, D. G. (2009). Preferred reporting items for systematic reviews and meta-analyses: the PRISMA statement. PLoS medicine, 6(7), e1000097.

KICHIK YASHIL BIZNESNI YANADA RIVOJLANITIRISH IMKONIYATLARI

Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning mavzusining mazmuni yer, suv va quyosh yorug'ligidan foydalanib, havo sofligiga hissa qo'shgan holda aholi uchun ko'plab, serdaromad ish joylari tashkil qilish, kambag'allikni butunlay yo'qotish yechimlaridan birini ko'rsatib, isbotlab berish, shu yechimni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarini isbotlab berishdan iborat.

Kalit so'zlar: kichik biznes, yashil iqtisodiyot, pillachilik, qurt, oilaviy tadbirkorlik, ishchi kuchi.

Abstract: The content of the topic of this article is to show and prove one of the solutions to completely eliminate poverty, to create many, profitable jobs for the population by using the land, water and sunlight, contributing to the purity of the air. is to prove the practical mechanisms of solution implementation.

Key words: small business, green economy, cocooning, worm, family business, workforce.

Аннотация: Содержание темы данной статьи – показать и доказать одно из решений полной ликвидации бедности, создания множества прибыльных рабочих мест для населения за счет использования земли, воды и солнечного света, способствуя чистоте воздуха. доказать практические механизмы реализации решения.

Ключевые слова: малый бизнес, зеленая экономика, кокон, червь, семейный бизнес, рабочая сила.

KIRISH

Jahon amaliyotida hududlarning barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarining o'zaro samarali uyg'unligida qaralmoqda. Xususan, mamlakatlar rivojlanishi bevosita hududlar barqarorligiga bog'liq bo'lib, mazkur masalaning ijobiy jihatlari innovatsion iqtisodiyotni kengaytirish asosida resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni o'z ichiga olmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, soha davomiyligi va o'sishini ta'minlash resurslar mavjudligiga bog'liq. Bu esa, hududlarning barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy va ekologik tizimlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining samarali amal qilishi bilan bog'liqdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 25-sentabrda qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida barqaror shaharlar va aholi yashash joylari, mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish, dengiz va quruqlikdagi ekotizimni asrash, iqlim o'zgarishlarini oldini olish kabi iqtisodiy ekologik tizimlarni boshqarish samaradorligini ifodalovchi muhim mezonlarga e'tibor berilgan[1]. Dissertatsiya mavzusining mazmuni yer, suv va quyosh yorug'ligidan foydalanib, havo sofligiga hissa qo'shgan holda aholi uchun ko'plab, serdaromad ish joylari tashkil qilish, kambag'allikni butunlay yo'qotish yechimlaridan birini ko'rsatib, isbotlab berish, shu yechimni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarini isbotlab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot va kichik biznes bilan bog'liq yo'nalishda chet el hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, uzoq xorijda global iqtisodiy-ekologik muammolar bilan P. A. Kovolyov va A. A. Sheveleva, N. G. Bogautdinov, G. V. Butyanko, Lavrentev, E. S. Gelovani, N. A. Stepanishvili, A. G. Kafian, R. Costanza, A. L. Cataldo, D. Burgstaller, S. F. Anthony, Chiu Geng Yong, Brian Boyd,

1 Преобразование нашего мира: повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года (принята резолюцией 70/1 Генеральной Ассамблеи от 25 сентября 2015 года) // https://documents-ddsny. un. org/doc/UNDOC/GEN/N15/291/92/PDF/N1529192. pdf

Yue Yang, Zhaoqi Wang[6], Jianlong Li, Chencheng Gang, Raul P. Lejano, Daniel Stokols, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh, Jiaguo Qi va boshqa iqtisodchi olimlar shug‘ullangan[2].

MDH davlatlarida iqtisodiy-ekologik bilan bog‘liq izlanishlar A. G. Ananenkov, A. M. Bronshteyn, K. G. Gofman, B. O. Gomboyev, L. B. Zalesskiy, E. S. Sadikova, O. K. Sapiyeva, I. V. Doljikova, L. V. Somartova kabi xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan[3].

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishda va kichik biznes masalalari bilan M. Bo‘tabayev, O. Umarov, A. V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev, Sh. A. Toshmatov, A. Gafarov, B. Ataniyazov, A. E. Ishmuxamedov, S. Gulomov, I. Qayumova, T. Shodiyev, Y. Muhammedov, N. M. Mahmudov, B. Xodiyev, R. Kulmatov, U. Djanibekova, U. P. Umurzakov, A. J. Toshboyev kabi olimlar shug‘ullanganlar[4].

Mazkur masalaning ilmiy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish, uning omillarini tadqiq qilish asosida boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga kam e’tibor qaratilgan. Shuningdek, respublikamiz hududlarini yashillashtirish, ekologik toza mahsulot va ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan foyda olish hamda pillachilik sanoatini rivijlantirish borasida, ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga ham yetarli darajada e’tibor berilmagan. Tut daraxti va uni ozuqaviy manbaa ekanligi va unga mos ravishda pillachilik daromadlari atroflicha o‘rganilmaganligi, mazkur masalani samarali boshlash va samaradorlik nuqtayi nazaridan tadqiq etish zarurati ushbu mavzuni tanlashga asos bo‘lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo‘lib dialektika uslubi hisoblanadi va tadqiqot jarayonida tanlab kuzatish, taqqoslash, ekspertlar bahosi kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marg‘ilondagi rekreatsiya tutchilkk biznesi va Toshkent shahar hokimining qaroriga ko‘ra 2022-yil erta

2 P. A. Kovolyov va A. A. Shevelevalar mualifligida yozilgan Tut ipak qurilish urug‘chiligi va seleltsiyasi Costanza, R., Stern, D. I., He, L., Ma, C. (2004). Influential publications in ecological economics: a citation analysis. Ecological Economics 50(3–4): 261–292; Cataldo A. L., Burgstaller D., Hribar G, Jungbauer A, Satzer P, Economics and ecology: Modelling of continuous primary recovery and capture scenarios for recombinant antibody production, Journal of Biotechnology (2019), doi: https://doi. org/10.1016/j. jbiotec. 2019.12.001; Brian Boyd. Ecologies of fiber-work: Animal technologies and invisible craft practices in prehistoric Southwest Asia. Quaternary International; Andrew Brennan. Asian traditions of knowledge: the disputed questions of science, nature and ecology. Stud. Hist. Phil. Biol. & Biomed. Sci. 33 (2002) 567–581; Anthony S. F. Chiu, Geng Yong. On the industrial ecology potential in Asian Developing Countries. Journal of Cleaner Production 12 (2004) 1037–1045; Raul P. Lejano, Daniel Stokols. Social ecology, sustainability, and economics. Ecological Economics; Sangwon Suh. Theory of materials and energy flow analysis in ecology and economics. Ecological Modelling 189 (2005) 251–269; Yue Yang, Zhaoqi Wang, Jianlong Li, Chencheng Gang, Yanzhen Zhang, Ying Zhang, Inakwu Odeh, Jiaguo Qi. Comparative assessment of grassland degradation dynamics in response to climate variation and human activities in China, Mongolia, Pakistan and Uzbekistan from 2000 to 2013. Journal of Arid Environments

3 Ананенков, А. Г., Ставкин, Г. П., Андреев, О. П., Хабибуллин, И. Л., Лобастова, С. А. Эколого-экономическое управление охраной окружающей среды Текст. / А. Г. Ананенков [и др.] М.: ООО “Недра-Бизнесцентр”, 2003. - 228с.; Бронштейн, А. М., Литвин, В. А., Русин, И. И. Экологизация экономики: методы регионального управления Текст. / А. М. Бронштейн [и др.] М.: Наука, 1990.; Гофман, К. Г., Гусев А. А. Экологические издержки и концепция экономического оптимума качества окружающей природной среды Текст. / К. Г. Гофман, А. А. Гусев // Экономика и математические методы, 1981, вып. 3, с. 515-527.; Гомбоев, Б. О., Бардаханова, Т. Б., Кириенко, Г. С., Михеева, А. С. Эколого-экономическое обоснование территориальной организации природопользования в регионе Текст. / Б. О. Гомбоев [и др.] – Улан-Удэ: БНЦСО РАН, 1992. - 62 с.; Залесский Л. Б. Экологический менеджмент. М.:ЮНИТИ-ДАНА,2004. -220с.; Хохлова О. А., Будажанаева М. Ц. Статистическая оценка качества развития экономики регионов России / Пространственная экономика. –М.: 2010, №1. С. 133-146; Садыкова, Э. Ц. Оценка природоемкости как индикатора качества социально-экономического развития региона Текст. / Э. Ц. Садыкова // Экономика природопользования, 2009. № 2. - С. 11-22.; Цапиева О. К. Устойчивое развитие региона: теоретические основы и модель // Проблемы современной экономики. – 2010. - №2. – С. 307-311; Цомартова Л. В. Факторы устойчивого развития региональных социально-экономических систем.

4 Vaxabov A. V., Xajibakiev Sh. X., Toshmatov Sh. A, Гафаров A Yashil iqtisodiyot. Социальноэкономические и экологические проблемы интенсификации хозяйственного комплекса Узбекистана. -Ташкент: Фан, 1991. -132 с., Атаниязов Б. Управление развитием эколого-экономических систем. Автореф. дис. .. . д-ра экон. наук. -Ташкент, 1994. -34 с., Ишмухамедов А. Э. Макроэкономические проблемы и развитие социального сектора Узбекистана в переходный период // Материалы первой центрально-азиатской научно-практической конференции по методологии прогнозирования и статистики. -Алматы, 1996. -С. 104-108., G‘ulomov S. Menejment va biznes asoslari / umumiy tahriri ostida. -Toshkent: Mehnat, 1997. -352 b.,Kayumova I. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. .. . dis. – T.:, 2012. -289 b; Shodiev T. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o‘sish sifatini oshirish// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –T.: 2011, № 1; Muxammedov Yu. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishning omillari va ekonometrik modellari (O‘zbekiston Respublikasi misolida): Iqt. fan. dok. .. . dis.: TDIU, -T., 2006. -504 b; B. L. Waldron, R. D. Harrison, A. Rabbimov, T. C. Mukimov, S. Y. Yusupov, and G. Tursuvnova. Forage Kochia– Uzbekistan’s Desert Alfalfa. Published By: Society for Range Management; Utkur Djanibekova, Robert Fingerb. Agricultural risks and farm land consolidation process in transition countries: The case of cotton production in Uzbekistan. Agricultural Systems.; R. Kulmatov, M. Groll, A. Rasulov, I. Soliev, M. Romic. Status quo and present challenges of the sustainable use and management of water and land resources in Central Asian irrigation zones - The example of the Navoi region (Uzbekistan). Quaternary International journal

bahordan boshlab 1 mln tup tut ko‘chatlari ekishga kirishilganligi va bu ishlar 2023–2024 va undan keyingi yillarda ham davom etadi. Marg‘ilon Toshkent amaliy tajribalaridan ibrat olgan Toshkent viloyatidagi jismoniy tarbiya insitutining Farg‘ona filyali jamoasi 2022-yilda 400 tup tutlarni istirohat hududlariga ekib tarbiyalayapti. Bu tajriba keskin tus oldi. Tashabbus mustaqil qaror qabul qilish begonalashdi. Hozir tadbirkorlik qiladigan boshlagan talabgorlarning katta qismi yetarli bilimga ega bo‘lmagan kishilar. Bu ular olib borayotgan kerakli bizneslarning oqsashida ko‘zga tashlanmoqda. Bizneslar uchun tezroq, ko‘proq mustaqil fikirlaydigan, faol, yosh mutaxassislar tayyorlash o‘ta dolzarb bo‘lib turadi.

Tadqiqotlar natijalari bo‘yicha olimlarimiz tomonidan mahalliy va xalqaro axborot vositalarida ilmiy-amaliy maqolalar e’lon qilinishiga hamda viloyat, shahar hokimlariga amaliy takliflar kiritilayotganligi ma’lum.

Tadqiqotlar va ularning natijalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ–2856 son qarori va keyingi qaror, farmonlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan hamohang.

Uzluksiz olib borilayotgan ipakchilik rivojlantirish siyosatimiz mazmuni ichidagi faoliyatdir. Bizning tadqiqot va tashbiqotlarimiz davlat rahbari talab qilayotgan maqsadga erishishga xizmat qiladi (1-jadval). Ish o‘rinlarini ko‘paytirish, aholi daromadlarni oshirish. Hunarmandchilikni rivojlantirish, sanoatni xomashyolar bilan ta’minlash, mamlakat eksport salohiyatini oshirish. Ilmiy tadqiqotchilar to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib berib, o‘zi tadbirkorlik doirasida o‘sha biznesni ham yuritish dunyo tajribasida bor. Lekin biz ham o‘sha bosqichga endi o‘tib boryapmiz. Qo‘limizda mablag‘ va ishchi kuchi bo‘lganida shahar istirohat hududlariga 1 mln. tup tut ekib, katta talash sababchilaridan bo‘lar edik. Tadqiqot natijasi ishonchliligini Marg‘ilon-Toshkent tajribalari bilan ko‘rsatadi.

1-jadval: Oilaviy tutchilikning daromad va xarajatlari

Xarajatlar	Daromad (xomashyolar)	Naf
1-yil Ko‘chat sotib olish 100 tup–300000 so‘m 200 tup–600000 so‘m 400 tup–1200000 so‘m 1000 tup–3.000.000 so‘m	1-yil 35 kg xom pilla (35*200.000 so‘m) 7.000.000 …. 14.000.000 so‘m …. 28.000.000 so‘m …. 70.0000.000 so‘m	Sog‘lomlashuv. Toza havo, mahalla bilan hamkorlik, bolalar tarbiyasi, oila birligi
Ekish-o‘zi yoki 1 tup ekish 1000 so‘m: 100.000 so‘m …. 200.000 so‘m…. 400.000 so‘m…. 1.000.000 so‘m…	7.000.000 so‘m–300.000 so‘m –100.000 so‘m 14.000.000 so‘m–600.000 so‘m–200.000 so‘m 28.000.000 so‘m–1.200.000 so‘m–400.000 so‘m 70.000.000 so‘m–3.000.000 so‘m–1.000.000 so‘m	6.400.000 so‘m 13.200.000 so‘m 26.400.000 so‘m 66.000.000 so‘m
Sug‘orish xarajati yo‘q		
Soliq yo‘q		
2-yil Xarajat yo‘q	2-yili 70 kg xom pilla yoki 25 kg ipak. 200 tupdan 140 kg xom pilla yoki 48 kg ipak. 48 kg ipak*50 dollar=2400 dollar. Chuqur qayta ishlansa 24000 dollar. 1000 tup tut egasi 350 kg xom pilla yetishtiradi. 145–150 kg ipak oladi. Xom pillani sotsa 145*50 dollar=7250 dollar. Chuqur qayta ishlansa: Daromad 72500 dollar xarajat mehnatga xarajat (0,5 kishi*7 oy *3 mln so‘mdan) 3,15 mln so‘m. sof oilaviy daromad 7250*11.000 so‘m=79 mln 750 ming so‘m–3,15 mln so‘m-elektr, istish, sovutish, qurtxona ijarasi–3500 ming so‘m=76 mln 250 ming so‘m.	2-yil 100 tupdan 25 kg ipak 200 tupdan 48 kg ipak 400 tupdan 96 kg ipak 1000 tupdan 145–150 kg ipak Tut novdasi, tut qovzog‘idan ham daromad olish mumkin
Keying yillar. Biologik usulda zararkunandalarga qarshi ishlov berish. 2 marta 200.000 so‘m		
6-yilda 100 tup tut bargi bilan 0,5 quti * 7 marta=3,5 quti 3,5*50=175 kg xom pilla olinadi. 1 kishini 7 oy mavsumiy ishga olinsa (1,5 mln so‘m) 10,5 mln so‘m 12% ijtimoiy soliq (1,26 mln so‘m) bilan 11,76 mln so‘m. Elektr, qurtxona ijarasi (yoki omartizatsiya) bilan 15 mln so‘m	6-yilda. 100 tupdan daroamd. 175 kg xom pilla yoki 60 kg ipak. Xom ipak sotilsa (60*50) 3.000 dollar – 15 mln so‘m xarajat = 33 mln so‘m – 15 mln so‘m = 18 mln so‘m. 1000 tupdan daromad 180 mln so‘m. Chuqur qayta ishlansa 1.800 mln so‘m	Qayta ishlovchilar soliq to‘lashadi

XULOSA

Xulosa o‘rnida quyidagicha ta’kidlashimiz joizdir.

1. Iqtisodiy-ekologik hududlar umumxalq harakati obyektiv zarurat. Iqtisodiy-ekologik hududlar aholi farovonligini oshirib, tabiatdan oqilona foydalanishga asoslanadi.
2. Iqtisodiy-ekologik hududlarda o‘sib turgan manzarali daraxtlar orasidagi 2 metr va undan ortiq bo‘shliqlarda bir tupdan, past bo‘yli, foydalanish uchun qulay tut ko‘chatlari ekish mumkin.
3. Tutlar o‘ndan ortiq turdagi sanoat va hunarmandchilik hom-ashyolarini beradi.
4. Tutlar yer osti zax suvlarini bug‘latib, sho‘rlashishning oldini oladi, hosilni shamoldan to‘sadi. Shuning uchun yer konturlari atrofiga 2 qator qilib ekiladi.
5. Istirohat (rekreatsiya) hududlarida, ekin yerlarini band qilmay o‘stirilgan tut qatorlar ko‘plab doimiy ish joylari beradi, kambag‘allikni keskin kamaytiradi.
6. O‘zbekistondagi aholi yashab turgan hududlarda (mahallalar ichida) 100 mln tupdan ortiq tutlar ekib, parvarishlab foydalanish mumkin.
7. O‘zbekiston iqlimi sharoitida 7 marta takror-takror ipak qurti boqib, pilla yetishtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximova Q. N. Yashil biznes ahamiyatining ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy zarurati. Scientific progress, 3(2), 2022. – 880–885-betlar.
2. Rakhimova K. Socio-Economic Necessity Of Increasing The Importance Of Green Business. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4). 2022. – 1034–1037-betlar.
3. Husanbek Q., Raximova K. N. Oilaviy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati. Gospodarka i Innowacje., 24. 2022. – 1103–1108-betlar.
4. Moxigul A., Raximova K. Qurilish materillari sanoati korxonalarida ishlab chiqish potensialidan samarali foydalanish strategiyasini shakllantirish yo‘nalishlari. Gospodarka i Innowacje., 24. 2022. – 999–1002-betlar.
5. Raximova K. N., Abdurahmon Mominjon o‘g‘li A. Yashil xom ashyolardan qurilish sohalarida foydalanish samaradorligi. Gospodarka i Innowacje., 24. 2022. – 957–960-betlar.
6. Qizi R. K. N. M., Kadirovna A. M. Ishchi kuchiga talab va taklifni istiqbollashtirish. Ta’lim fidoyilari, 8. 2022. – 149–153-betlar.
7. Raximova K. N., Tursunov O., Mirzayev R. B., Axmadaliyeva M. K., Kodirov A. O‘zbekistonda “yashil moliya” tizimini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish yo‘nalishlari. Gospodarka i Innowacje., 28. 2022. – 90–96-betlar.
8. Kizlarkhon, R. (2022). Economical Use of Land and Water Resources With the Options. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research ISSN: 2277–3630 Impact factor: 7.429, 11(09). – pp. 148–151.
9. Абдусаматов Д. А. КЛассификация приемников оптического излучения для разработки оптоэлектронных информационно-измерительных систем. Gospodarka i Innowacje., 24. 2022. – сс. 986-988.
10. Абдусаматов Д. А., Рахимов Н. Р. Технологические Особенности Изготовления Афн-Пленок И Приборных Структур На Их Основе. 2021.
11. Рахимов Н. Р., Абдусаматов Д. А. Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе. 2021.

JAMG‘ARMALAR INVESTITSIYALAR MANBASI SIFATIDA

Sadikova Ra’no Abdullayevna
I.f.n., dotsent, Oriental universiteti

Annotatsiya: Investitsiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilash, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotni kelajagini belgilaydi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda, o‘z modelini amalga oshirish jarayonida, investitsiyalarni boshqarish hamda moliyalashtirish, risklarni optimallashtirishning samarali usullarini o‘rganish, muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlash va baholashning takomillashgan zamonaviy mexanizmlarini va vositalarini o‘rganish talab etiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar tasnifi, moddiy va nomoddiy aktivlar, jamg‘armalar, savdo belgisi, patent, franchayz, gudvil, multiplikator.

Abstract: Determination of investment priorities, rational attraction of internal and external sources of financing and consideration of all conditions for rational investment activity determine the future of the national economy. The transition to a socially oriented market economy requires the development of modern models and tools for managing and financing investments, optimizing risks, and choosing and evaluating alternatives.

Key words: Classification of investments, tangible and non-tangible assets, accumulation, trademark, patent, franchising, goodwill, multiplier.

Аннотация: Определение инвестиционных приоритетов, рациональное привлечение внутренних и внешних источников финансирования и учет всех условий для рациональной инвестиционной деятельности определяют будущее национальной экономики. Переход к социально-ориентированной рыночной экономике требует разработки современных моделей и инструментов для управления и финансирования инвестиций, оптимизации рисков, а также выбора и оценки альтернатив.

Ключевые слова: Классификация инвестиций, материальные и не материальные активы, накопление, торговая марка, патент, франчайзинг, гудвилл, мультипликатор.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalari sifatida investitsiyalar tushunchasining bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatib, uni ochib berishga bo‘lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Investitsiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilash, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni, barcha shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotni kelajagini belgilaydi. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida investitsion faoliyatni rivojlantirish muhimligini ta’kidlab shunday degan edi: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.

ASOSIY QISM

Nega aynan jamg‘armalar investitsiyalarning omili hisoblanadi? Chunki kishilar o‘z jamg‘armalarini riski kamroq bo‘lgan usulda saqlashni lozim topadilar – ulardan eng ommabop turi bank depozitlaridir. Tijorat banklari aholidan jalb qilingan depozitlarni tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishga yo‘naltiradilar. Shuningdek, aholi bo‘sh turgan mablag‘larini obligatsiyalarga, fond bozoridagi turli qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirishi mumkin – bu orqali nafaqat jamg‘armalarning bo‘sh turishining oldini oladilar, balki o‘z jamg‘armalari daromad keltirishiga erishishga harakat qiladilar. Bu faoliyat esa, avval aytib o‘tilganidek, moliyaviy investitsiya hisoblanadi.

Buni makroiqtisodiy jihatdan ham isbotlash mumkin. Bilamizki, Jamg‘arma manbasi ikki xil bo‘ladi: aholi va davlat. Aholi jamg‘armasi – kishilar daromad solig‘ini to‘laganlaridan so‘ng va daromadlarini iste’molga sarflaganlaridan keyin undan ortgan qismidir:

$$S_A - Y - T - C$$

Bu yerda S_A – aholi jamg‘armasi, Y – daromad, T – soliqlar, C – iste’mol.

Davlat jamg‘armasi esa davlat daromadlari (soliqlar) ning davlat xarajatlaridan ortgan qismidir:

$$S_D - T - G$$

Bu yerda ***G*** – davlat xarajatlari.

Mamlakatdagi yalpi jamg‘arish aholi va davlat jamg‘armalari yig‘indisiga tengdir:

$$S_{um} = S_A - S_D$$

Jamg‘armalar investitsiyaga tengligini isbotlash uchun quyidagilarni esga olamiz:

1. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi to‘rtta unsurdan tashkil topgan: iste’mol, investitsiya, davlat xaridlari va sof eksport. Farazan, hisob-kitobni murakkablashtirmaslik uchun mamlakatni yopiq bozor deb hisoblasak, sof eksportning ta’sirini inobatga olmasa ham bo‘ladi:

$$YAIM = C + I + G$$

Bu yerda ***I*** – investitsiyalar.

2. Nazariyaga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot shu mamlakat iqtisodiy subyektlarining topgan daromadlariga tengdir:

$$Y = C + I + G$$

Endi shu tenglik ustida ba’zi amallarni bajaramiz: tenglikning ikkala tomonidan soliqlarni ayiramiz. So‘ngra tenglikning o‘ng tomonida faqat investitsiyani (***I***) ni qoldirib, qolgan hadlarni tenglikning chap tomoniga o‘tkazamiz:

$$Y - T = C + I + G - T$$

$$(Y - T - C) + (T - G) = I$$

Ko‘rib turganimizdek, chap tomondagi qavsga ajratilgan qismlardan birinchisi – aholi jamg‘armasini ifodalasa, ikkinchisi davlat jamg‘armasini ifodalaydi:

$$S_A - S_D = I$$

$$S_{um} = I$$

Shu tariqa jamg‘armalar – investitsiyalarga tengligi isbotlandi.

Investitsiyalar moddiy yoki nomoddiy aktivlarga kiritilishi mumkin. Moddiy aktivlar – jism ko‘rinishiga ega (sodda qo‘l bilan ushlasa, ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladigan) va korxonaning turli operatsiyalarida ishlatiladigan aktivlardir. Bino, inshoot, uskunalar, xomashyo va tayyor mahsulotlar – moddiy aktivlarga misol bo‘ladi. Umumiyroq qilib ifodalasak, moddiy aktivlarga quyidagilar kiradi:

- Yer maydoni;
- Transport vositalari;
- Asbob-uskuna va jihozlar;
- Mashinalar;
- Mebel jihozlari;
- Tovar-moddiy zaxiralar;
- Pul mablag‘lari, aksiyalar, qimmatli qog‘ozlar kabi likvid aktivlar.

Moddiy aktivlar ikki xil bo‘ladi: asosiy vositalar va joriy aktivlar. Bino, inshoot, uskuna kabi uzoq muddat foydalaniladigan, ishlab chiqarilgan mahsulotga o‘z qiymatini birdaniga emas, amortizatsiya orqali sekin-sekin o‘tkazib boradigan, bahosi yuqori bo‘lgan aktivlar – uzoq muddatli aktivlardir.

Joriy aktivlar esa pul mablag‘lari, xomashyo va materiallar, tayyor mahsulot kabi bir ishlab chiqarish siklida o‘z ko‘rinishi boshqa ko‘rinishga o‘tkazadigan, har bir siklda davomida aylanib (yangilanib) turadigan aktivlar joriy aktivlar deyiladi.

Nomoddiy aktivlar deb jism ko‘rinishiga ega bo‘lmagan va uzoq muddat foydalaniladigan aktivlar tushuniladi. Nomoddiy aktivlarni ba’zan intellectual aktivlar deb ham atashadi. Uning qiymatini aniqlash birmuncha mushkul, chunki kelajakda undan keladigan foydani ham oldindan prognoz qilish qiyin, uning yaratilishi uchun ham xomashyo sarf qilinmagan bo‘ladi.

Nomoddiy aktivlarga quyidagilar kiradi:

- Patentlar;
- Savdo belgilari;
- Franchayz;
- Gudvil;
- Mualliflik huquqi;
- Kompaniya brendi.

Misol tariqasida, 2018-yil aprelida T-Mobile va Sprint kompaniyalarining qo‘shilishi jarayonini olish mumkin[1]. Sprint kompaniyasining jami sof aktivlari qiymati 78.337 milliard AQSH dollarini, jami sof majburiyatlari qiymati 45.562 milliard AQSH dollarini tashkilq qilgan. Demak, Sprint kompaniyasining bozor bahosi 78.337 – 45.562 = 32.775 milliard $ ga teng. Ammo T-Mobile Sprintni xarid qilish uchun 35.850 milliard $ to‘laydi, ya’ni qimmatroqqa sotib oladi. Oradagi farq 35.850 – 32.775 = 3.075 milliard $ kompaniyaning gudvili hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar – foyda olish maqsadida bo‘sh (kapital) mablag‘larni turli moliyaviy instrumentlarga joylashtirish. Bunday moliyaviy instrumentlarga aksiyalar, obligatsiyalar, paylar va boshqalar kiradi.

Moliyaviy investitsiya bozorining tarkibiy tuzilishini quyidagicha aniqlash mumkin:

1. **Fond bozori.** Bu yerda turli korxonalarning aksiyalari bilan savdolar amalga oshiriladi.
2. **Kredit bozori.** Davlat va korporativ obligatsiyalari va boshqa turdagi qarz majburiyatlari kabi qimmatli qog‘ozlar sotib olinadi.
3. **Valyuta bozori.** Bu yerda valyuta sotib olish uchun opsionlar xarid qilish, FOREX bozorida savdolarni amalga oshirish mumkin.

Moliyaviy investitsiyalarning turlari. Moliyaviy investitsiyalar deganda turli moliyaviy vositalarga, birinchi navbatda qimmatli qog‘ozlarga, korporativ huquqlarga va boshqalarga mablag‘larni yo‘naltirish nazarda tutiladi.

Moliyaviy investitsiyalarning asosiy ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi:

Aksiyalar. Yetarlicha riskli, shu bilan birga foydasi yuqoriroq bo‘lgan investitsiya turi.

Obligatsiyalar. Qarz oluvchilar ko‘pincha hukumatlar yoki korporatsiyalar bo‘lganligi sababli investitsiyalarning kamroq xavfli turi.

Pay investitsion fondlari. Pay investitsion fondlarda investorlarning pul mablag‘lari professional investorlar tomonidan boshqariladi. Bu esa uni daromadlilik nuqtayi nazaridan juda qulay va jozibali qiladi.

Bundan tashqari moliyaviy investitsiyalarning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud – qimmatli metallar, opsionlar, fyucherslar va b.

Moliyaviy investitsiyalar portfeli. Moliyaviy investiyalar portfeli turli xil moliyaviy vositalardan iborat. Taniqli ingliz maqolida aytilishicha, siz barcha tuxumlarni bitta savatga solmasligingiz kerak. Shu sababli, investitsiya portfelida bir vaqtning o‘zida daromadli va riskli investitsiyalar sifatida va aksincha bo‘lishi mumkin.

Investorning portfeli agressiv yo‘nalishda bo‘lishi mumkin ya’ni, yuqori daromadli va shu bilan birga yuqori riskli qimmatli qog‘ozlar ustunlik qiladi. Konservativ yo‘nalishdagi portfelda past daromadli va shu bilan birga yuqori bo‘lmagan riskli qimmatli qog‘ozlar mavjud.

XULOSA

Xulosa qilsak, investitsiyadagi bir birlik o‘sish multiplikator hisobiga YAIMning undan ko‘proq birlikka o‘sishiga sabab bo‘ladi. Real hayotda YAIMga ta’sir ko‘rsatuvchi investitsiyadan boshqa juda ko‘plab omillar mavjud. Shu omillar fonida Investitsiyaning mulplikativ ta’siri pastroq bo‘lishi mumkin. Masalan, Malayziya makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining 1969-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlari ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, investitsiyalardagi 1 foizlik o‘sish YAIMning 0,21 foizga o‘sishiga sabab bo‘ladi[2]. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, nafaqat qisqa davrda, balki uzoq davrda ham investitsiyalarning o‘sishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayev F. I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. – T.: “Moliya”, 2006. – 234 b.
2. Bodie Z., Kane A., Marcus A. “Essentials of investment” 9th edition. New York, McGrawHill Irwin 2013, 803 pages.
3. Sayef Bakari. “The Impact of Domestic Investment on Economic Growth: New Evidence from Malaysia” // MPRA paper, Munich, 2017.

1 https://www. sec. gov/Archives/edgar/data/1283699/000119312518231621/d589303ds4.htm

2 Sayef Bakari. “The Impact of Domestic Investment on Economic Growth: New Evidence from Malaysia” // MPRA paper, Munich, 2017. (https://mpra. ub. uni-muenchen. de/79436/)

DAVLAT MOLIYASINING MODDIY ASOSINI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISH

Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat moliyasining mazmun va mohiyati, uning asosiy funksiyasi, moddiy asosi va uning YaIMdagi o‘rni kabilar o‘rganilgan hamda kerakli fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, davlat xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, daromadlar oshishi, davlat moliyasi, davlat moliyasining tashkiliy shakllari, “zanjir effekti”, xarajatlarni qoplanish sharti, YaIMni xarajatlar usuli bo‘yicha hisoblash.

Abstract: In this article, the content and essence of state finance, its main function, material basis, and its place in GDP are studied and necessary comments are made. It was also noted that economic growth can be achiyeved by increasing government spending.

Key words: economic growth, income growth, public finance, organizational forms of public finance, “chain effect”, cost recovery condition, calculation of GDP by cost method.

Аннотация: В данной статье изучены содержание и сущность государственных финансов, их основная функция, материальная основа, место в ВВП и даны необходимые комментарии. Также было отмечено, что экономического роста можно добиться за счет увеличения государственных расходов.

Ключевые слова: экономический рост, рост доходов, государственные финансы, организационные формы государственных финансов, “цепной эффект”, условие окупаемости, расчет ВВП затратным методом.

KIRISH

Ma’lumki, har bir davlatning iqtisodiyoti o‘sishi, aholi farovonligi oshib, kambag‘allik va qashshoqlikning kamayishi, aholining real daromadlari darajasi oshishi, mamlakat miqyosida jinoyatchilik darajasining kamayishi, va barqaror iqtisodiy o‘sish tendensiyasining kafolatlanishi kuzatiladigan muayyan davr modaynida o‘sha mamlakatda iste’mol uchun yaratiladigan noz-ne’matlarning hajmi miqdor jihatdan o‘sib, sifat jihatdan yaxshilanib va o‘zining bozor qiymatiga o‘tishi tezlanishi orqali namoyon bo‘ladi. Bunda davlat moliyasining ham sezilarli ta’sir ko‘lami bor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Moliya to‘g‘risidagi birinchi rus monografiyasi 1810–1811-yillarda N. Turgenev tornonidan yozilgan moliya sohasidagi o‘ziga xos asarlarga graf Speranskiyning moliyaviy rejasini, rnoliya nazariyasi bo‘yicha birinchi ruscha I. Gorlovning darsligini, Y. Gagemayster, V, Kuri, D. Tolstoylarning moliyaning rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarini, M. Orlovning davlat krediti to‘g‘risidagi ishlarini kiritish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida e’lon qilingan va moliyaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan asarlar orasida I. Shilning monografiyasi alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha, moliya nazariyasi davlat xazinasi g‘oyasiga bo‘ysundirilgan.

ASOSIY QISM

“Davlat moliyasi davlatning markazlashgan pul daromadlarini shakllantirish va ulardan o‘z funksiyalarini to‘laqonli bajarish maqsadida turli yo‘nalishlarda foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar yig‘indisidir”[1]. Bu munosabatlarning turlicha namoyon bo‘lishiga qarab, davlat moliyasining bir qator aniq tashkiliy shakllari shakllanadi (1-rasm).

1 Davlat moliyasi: Darslik / B. I. Nurmuxamedova, Sh. K. Xamdamov;– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 436 b.



1-rasm: Davlat moliyasining tashkiliy shakllari

Davlat moliyasini moliyalashtirishning moddiy asosini pul aylanmasi ya'ni xarajat ko'rinishidagi mablag'lar chiqimi va daromad ko'rinishidagi mablag'lar tushumi tashkil qiladi.

Davlat moliyasining moddiy asosi= – mablag'lar chiqimi + mablag'lar tushumi (1-formula).

E'tibor qilinishi lozim bo'lgan davlat moliyasining mohiyati shundaki, uning daromadlari shakllanishi, asosan, davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar hisobiga to'yintirilsa, xarajatlari esa ijtimoiy himoya manfatlar va davlat tashkilotlari faoliyatiga safarbar etiladi va davlat xarajatlari ko'rinishida yuzaga keladi.

Iqtisodiy o'sish – aholi iste'moli uchun ma'lum muddatda ma'lum bir hududda barcha turdagi iste'mol qilinadigan ne'matlar ishlab chiqarish hajmining oshishni nazarda tutadi. Ko'pincha, iqtisodiy o'sishning belgisi sifatida YaIM (Yalpi ichki mahsulot) ko'rsatkichi ifodalaydi. YaIMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$YaIM = C + I + G + X_n \text{ (2-formula)}$$

Bunda, YaIM – Yalpi ichki mahsulot

C – iste'mol xarajatlari,

G – davlat xarajatlari,

X_n – sof eksport hajmi.

Ushbu formuladan kelib chiqadiki, davlat xarajatlarini oshishi YaIMning oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi. Unda nega mamlakatlar o'z iqtisodiy o'sishini davlat moliyasi richagidan foydalanib amalga oshirmaydilar? Buning boisi, davlat xarajatlarini davlat budjeti daromadlari qoplab beradi. Bu daromadlar esa, iste'molchilardan olinadigan soliq va turli yig'imlar asosida shakllanadi. Xarajatlarni oshirish, "iqtisodiy zanjir" ta'sir orqali aholi daromadlarini oshishini, bu esa talab hajmini oshirib yuboradi. Umumiy talab hajmining oshishi qaysidir tovarlar narxini ko'taradi va "zanjir" effekti vositasida alternativ tovarlar narxi oshib inflatsiyon iqtisodiy o'sishni keltirib chiqaradi. Shu sababdan, davlat moliyasini yuritish oldindan hisobga olingan prognozlar va rejalar asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.



2-rasm: 2021–2023-yillar uchun davlat byudjeti daromadlari va soliq yuki o‘zgarishi

Ushbu rasmga e’tibor qilsak, 2021- va 2022- yillar uchun davlat byudjeti daromadlari 164 799 mlrd so‘mdan 202 043 mlrd. so‘mga o‘sishi va shu davr mobaynida soliq yuki mos tarzda 22,4% dan 22,7% ga o‘sishi kuzatilgan. 2023-yil uchun prognoz ko‘rsatkichi davlat byudjeti daromadlarining 232 607 mlrd so‘mga o‘sishi va soliq yuki 21.8%ga tushishi davlat byudjeti daromadlarining oshishini ifodalaydi. Bunday daromadlar oshishi ishlab chiqarishning rag‘atlantirilayotganini bildirsa, xarajatlar hajmini ham oshishiga sabab bo‘lib, aholi farovonligining yanada yaxshilanayotganini bildirishi kuzatilishi mumkin.

Davlat byudjetining 2023-yil uchun xarajatlari 257 734 mlrd so‘m yoki YaIMning 24,1% (2022-yilda – 236 579 mlrd so‘m yoki YaIMning 26,6 % i) hisobida tasdiqlandi. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida tarmoq rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlarni oshirish rejalashtirilgan. Ushbu xarajatlarning oshishi aholi farovonligiga ijobiy ta’sir etadi.

XULOSA

Davlat moliyasining maqsadi keng qamrovli iqtisodiy barqaror o‘sish hisoblanib, aholi farovonligini oshirishga yo‘naltiriladi. Davlat moliyasining moddiy asosini davlat byudjeti shakllantirib, davlat xarajatlari ko‘rinishida YaIMni oshishiga va aholi ijtimoiy farovonligiga, hamda davlat byudjeti daromadlari ko‘rinishida ishlab chiqarishga bevosita ta’sir etishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fuqarolar uchun byudjet: 2023-yil uchun tasdiqlangan byudjet loyihasi. “Axborot” nashri. 2023-yil.
2. Davlat moliyasi: Darslik / B. I. Nurmuxamedova, Sh. K. Xamdamov;– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 436 b.
3. https://lex.uz/docs/–2304138
4. www. stat.uz
5. http://lib.jizpi.uz/mod/resource/view. php?id=4274&redirect=1

AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA IJTIMOIY HIMOYANING O‘RNI

Sherjonov Sherjon Alijan o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholini ijtimoiy farovonligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish orqali ularning turmush darajasini yaxshilash masalalari ko‘rib chiqilgan. Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o‘rni, jumladan, moliyalashtirish manbalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, iste’mol hajmi, aholining turmush darajasi, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy soha, davlat byudjeti, pensiya ta’minoti.

Abstract: In this article, the factors affecting the social well-being of the population are studied. Issues of improving the standard of living of the population through social protection were considered. The role of social protection in raising the standard of living of the population, including sources of financing, is analyzed.

Key words: social protection, consumption volume, standard of living of the population, social security, social allowances, social sphere, state budget, pension provision.

Аннотация: В данной статье изучаются факторы, влияющие на социальное самочувствие населения. Рассмотрены вопросы повышения уровня жизни населения посредством социальной защиты. Анализируется роль социальной защиты в повышении уровня жизни населения, включая источники финансирования.

Ключевые слова: социальная защита, объем потребления, уровень жизни населения, социальное обеспечение, социальные выплаты, социальная сфера, государственный бюджет, пенсионное обеспечение.

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko‘maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan “Ming yillik rivojalanish dasturi” hamda 2015-yilda tasdiqlangan “2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining (PF–60, 2022) 3 ustuvor yo‘nalishida “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish” vazifalari belgilangan.

O‘zbekistonda aholining moddiy, ma’naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko‘rsatkichlarini ifodalaydigan “turmush darajasi” atamasi kengroq qo‘llaniladi. Unga to‘liq ilmiy ta’rif beradigan bo‘lsak, bu jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash metodologiyasi, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish mexanizmiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar uzoq xorijlik G. Basso, M. Dolls, S. Bexrendt, J. Berg, R. Merkl kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

Yaqin xorij mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy davlatni shakllanishining ayrim jihatlari, aholini ijtimoiy himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari, xorij mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va modellari amal qilishining xususiyatlari N. A. Volgin, V. V. Antropov, S. V. Kalashnikov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik A. V. Vaxabov, T. M. Axmedov, Q. X. Abduraxmonov, X. P. Abulqosimov, N. M. Majidov, B. X. Umurzoqov, R. R. Xasanov, M. K. Abdullayeva, R. F. Djumanova, N. Q. Zokirova, M. A. Xakimova va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar va iste’mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi konsepsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko‘rsatkichga keltirish bo‘yicha samarali usul mavjud emas.

Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol darajasi, uy-joy, ta’lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste’mol narxlari, transport vositalari bilan ta’minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta’minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo‘nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tarkibiga kiradi. Biroq, bu ko‘rsatkichlarning hammasini ham qiymat ko‘rinishida baholash imkoni bo‘lmaganligi sababli, ushbu parametrlardan bir nechtasini qamrab olgan holda, turmush darajasi baholanadi. Ulardan, eng asosiysi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar hajmi bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga, xalqaro taqqoslamalarda ham foydalanish imkonini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligining ko‘lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda ham BMT tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag‘allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko‘maklashish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan “Ming yillik taraqqiyot dasturi” hamda 2015-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturlari” bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi.



1-rasm: Turmush sifatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillar (Vaxabov, 2019)

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Birinchidan, daromad shakllari o‘zgardi, ya’ni uning an’anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan, (ko‘chmas) mulkdan, qimmatli qog‘ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo‘shildi.

Ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o‘zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo‘ldi.

Uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo‘nalishi paydo bo‘ldi: majburiy to‘lovlar va badallar, chet el valutasi, qimmatli qog‘ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo‘yilmalar shular jumlasidandir. Ta’kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma’lumot olishi, bo‘sh vaqtlarini madaniy tarzda o‘tkazishi bo‘yicha imkoniyatlari shunchalik ko‘p bo‘ladi.

Aholining turmush darajasi uning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari tizimi o‘z ichiga quyidagi guruhlarni oladi:

- tug‘ilish va o‘lish darajasi hamda boshqa demografik ko‘rsatkichlar;
- hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari;
- oziq-ovqat tovarlarini iste’mol qilish darajasi; turar joy sharoitlari;
- ma’lumot va madaniyat; mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- aholining daromadlari va xarajatlari;
- hayot kechirish qiymati va iste’mol narxlari;
- transport vositalari;
- dam olishni tashkil etish;
- ijtimoiy ta’minot.

Aholining turmush darajasi ma’lum bir turlarga qarab tasniflanadi.



2-rasm: Aholini turmush darajasini ehtiyojlarni qondirish darajasiga qarab tasniflanishi (Eliseyeva, 2002)

Aholining ijtimoiy farovonligi mamlalatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, uning yo‘nalishlari va tanlangan ustuvorliklar ko‘lamiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, ijtimoiy siyosat quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta’minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta’minlash.

Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo‘shimcha tarzda qo‘llab-quvvatlamoqda:

- o‘z mablag‘lari va jamg‘armalari hisobidan o‘z xodimlariga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to‘layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;
- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta’minot – fuqarolarning qarilikda, kasallik ro‘y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo‘qotganda, boquvchisini yo‘qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta’minotning markazida pensiya ta’minoti yotadi (Butun dunyoda ijtimoiy ta’minot deganda pensiya ta’minoti tushuniladi). Bizning respublikamizda ijtimoiy ta’minot quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:

- davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan shakllanadigan Pensiya jamg‘armasi;
- davlat ijtimoiy sug‘urtasining bir qismini yo‘naltirish hisobidan shakllanadigan Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi;
- davlat ijtimoiy sug‘urtasining bir qismini yo‘naltirish hisobidan shakllanadigan Kasaba uyushmalarining mablag‘lari;
- davlat budjeti.



3-rasm: Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari (imv. uz, 2022)

Ijtimoiy ta’minotning muhim funksiya – ijtimoiy himoyalash funksiyasini bajaradi. Jamiyat, o‘z fuqarolariga ijtimoiy ta’minotni taqdim etar ekan, birinchi navbatda o‘z oldiga ularni ijtimoiy himoya qilishdek o‘ta muhim vazifani qo‘yadi, zero qiyin hayotiy holatlarda ularni himoyalash, turli (moddiy, jismoniy, ruhiy, yosh bilan, oilaviy vaziyat bilan bog‘liq) muammolarni hal qilishda yordam berish ijtimoiy ta’minotning zarurligi va ahamiyatini belgilab beradi.



4-rasm: Ijtimoiy ta’minot xizmatlari va to‘lovlarini moliyalashtirish manbalari (Qosimova, 2017)

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022-yilda davlat byudjeti xarajatlarining 49,7 foizini ijtimoiy soha xarajatlari tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 25 678,3 mlrd. sumga oshgan holda 117 691,9 mlrd so‘mga ijro etildi. Ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi ta’lim sohasiga yo‘naltirildi.

1-jadval: Davlat byudjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, (mlrd. so‘mda) (imv. uz, 2023)

№	Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Ta’lim	20 885,2	34 552,7	50 271,3
2	Sog‘liqni saqlash	14 842,6	19 581,0	27 288,3
3	Madaniyat va sport	2 290,8	2 572,3	4 289,6
4	Fan	1 028,7	1 151,2	1 447,1

5	Ijtimoiy himoya xarajatlari	6 573,7	10 244,7	23 303,6
6	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga transfertlar	8 000,0	14 700,0	11 092,0

Murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O‘zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal yetish maqsadida zarur mablag‘lar izlab topildi. Islohotlarning dastlabki bosqichida ijtimoiy muhofazaga ajratilgan davlat xarajatlari resrublika byudjetining uchdan bir qismini tashkil etdi.

2022-yilda ijtimoiy himoya uchun amalga oshirilgan xarajatlar 2021-yilga nisbatan 78,3 fiozga yoki 8 516,8 mlrd so‘mga oshgan holda 19 397,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ijtimoiy xarajatlarning oshishi ijtimoiy nafaqa to‘langan oilalar sonining oshishi va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatilishi bilan bog‘liq (PQ–258, 2022).

Bugungi kunda Ijtimoiy himoya yagona reyestri (VMQ–654, 2021) tashkil qilingan bo‘lib, yagona axborot tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining ro‘yxati shakllantirilib, inson omilisiz shaffof holda nafaqalarni tayinlash bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining ijtimoiy ta’minotini yaxshilash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ijtimoiy yordamning aniq manzilli bo‘lishini ta’minlash, ijtimoiy ta’minot borasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash kabi o‘ta muhim tadbirlarning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy asoslari yaratilgan va jamiyat oldida turgan ijtimoiy ustuvorliklardan kelib chiqqan holda takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy ta’minlash ishlari bir nechta davlat ijroiya organlari tomonidan amalga oshiriladi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish zarur bo‘ladi.

Buning uchun, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz:

- mahalla fuqarolar yig‘inlariga davlat qonunlari asosida mahalliy sharoitdan kelib chiqib huquqiy me’yorlarni qabul qilishida, shuningdek moliyaviy masalalarda mustaqillik berish;
- berilgan vakolatlarini amalga oshira olish uchun o‘z hududida turli to‘lovlar joriy etish va ularni undirish, mavjud soliqlardan tushadigan mablag‘larning bir qismini mahallalar hisob raqamiga o‘tkazishni joriy etish;
- ijtimoiy ta’minot idoralari, sog‘liqni saqlash boshqarmasining shahar va tuman bo‘limlari bilan mahalla fuqarolar yig‘ini o‘rtasida shartnomalar tuzish va ular asosida ijtimoiy madadga muhtoj oilalar uchun imtiyozli narxlarda dori-darmonlar olish hamda bu ishga tegishli homiylarni jalb etish;
- mahallada madaniy-maishiy sharoitlarni yaxshilash, mahalla fuqarolari uchun qulay ijtimoiy infratuzilmani yo‘lga qo‘yishda mahalla tadbirkorligidan foydalanish;
- nafaqa to‘lovlari tizimini tartibga solish, manzilli xarakterga ega bo‘lmagan imtiyozlarni kamaytirish hisobiga ko‘proq ehtiyoj sezayotgan oilalarga imtiyozlar hajmini oshirish;
- oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari (xayriya jamg‘armalari, homiylar) mablag‘larni jalb qilishni ko‘paytirish lozim. Bu kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy to‘lovlar hajmi va qamrovini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Ijtimoiy siyosat. O‘quv qo‘llanma i. f. d., prof. A. V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent.: “Universitet”, 2019. – 242 b.
3. Елисеева И. И. Социальная статистика. Учеб. пособие. М.:”Финстатинформ”, 2002. – 57 с.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–128-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2022-y., 06/22/128/0369-son
5. www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sayti ma’lumotlari.
6. G. Qosimova. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida ijtimoiy ta’minotning o‘rni va ahamiyati. // Biznes-Expert. – Toshkent, 2017. -№12. – 37–43-betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi PQ–258-son “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi VMQ–654-son “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR TO‘LOV QOBILIYATINI ANIQLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI

Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda to‘lov qobiliyatini aniqlashning nazariy uslubiy maslalari bo‘yicha olib borilgan o‘rganishlar, to‘lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchalarining iqtisodiy mazmuni, to‘lov qobiliyati va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilib, uning natijasida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: To‘lov qobiliyati, kredit qobiliyati, rentabellik, daromadlilik.

Abstract: In this article, the studies conducted on the theoretical and methodological issues of determining the solvency of economic entities, the economic content of the concepts of solvency and creditworthiness, the interdependence of solvency and other economic indicators were conducted, and conclusions were drawn as a result.

Key words: Solvency, creditworthiness, profitability, profitability.

Аннотация: В данной статье проведены исследования по теоретико-методическим вопросам определения платежеспособности хозяйствующих субъектов, экономическому содержанию понятий платежеспособности и кредитоспособности, взаимозависимости платежеспособности и других экономических показателей и по итогам сделаны выводы.

Ключевые слова: Платежеспособность, кредитоспособность, рентабельность, рентабельность.

KIRISH

To‘lov qobiliyati muammosi juda dolzarb bo‘lib, bu so‘z keng ma’noda har qanday mamlakatning, tor ma’noda har qanday korxonalarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida qanchalik muvaffaqiyatga erishganligi bilan bog‘liq.

Ayni paytlarda dunyo hamjamiyatidagi tahlikali vaziyat, dastlab paendemiya tufayli turli iqtisodiy pasayishlarning yuz berishi, bu pasayish o‘zini tiklab olmasdan turib uning ketidan dunyo hamjamiyatining tobora qamrab borayotgan ayrim mamalakatlar o‘rtasidagi ziddiyatli hatto urush oqibatlari, turli sansiyalar mamlakatlar va ulardagi korxonalarning to‘lov bilan bog‘liq muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi kundagi holati ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining qisqarishi, sanoat kapital qo‘yilmalarining kamayishi, pul muomalasining parchalanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu tendensiyalar davom etayotgan makroiqtisodiy siyosatning natijasi bo‘lib, bu asosiy reproduktiv zanjirlar va iqtisodiy aloqalarning uzilishiga olib keldi. Iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlariga e’tibor bermaslik, bozorning o‘zini o‘zi tashkil etish mexanizmlarining avtomatik ta’siriga umid qilish uning parchalanishi va tartibsizlikning kuchayishini keltirib chiqardi. Bozor muvozanatining holati uchun an’anaviy bo‘lgan makroiqtisodiy barqarorlashtirish usullarini pul massasini cheklash orqali qo‘llashga urinishlar adekvat natija bermadi. Iqtisodiyotga xos nomutanosiblik bilan bu uning har biri o‘ziga xos muvozanat holatiga intilayotgan avtonom faoliyat yurituvchi tarmoqlarga muqarrar ravishda parchalanishiga olib keldi.

Biz mavzu doirasida dastlab to‘lov qobiliyati, likvidlilik, to‘lov layoqati deb turlicha nomlangan tushunchalar bilan ifodalangan sharhlar, izohlarni ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqotchilar likvidlik va to‘lov qobiliyatini o‘rganishga uning umuman iqtisodiyotga ta’siri va sezgirligi tufayli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati va obro‘siga ta’sir qilishi mumkinligi sababli qiziqishadi.

Daromadlilikni oshirish orqali yaxshi moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning muhim maqsadi bo‘lib, ularning omon qolishi va uzluksizligiga erishish kerak. U rahbarning o‘z resurslaridan foydalanish samaradorligini o‘lchashda manfaatdor tomonlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Likvidlikni boshqarish har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun juda muhim, bu biznes bo‘yicha joriy majburiyatlarni to‘lashni anglatadi, to‘lov majburiyatlari qisqa muddatli, ammo uzoq muddatli qarzlarni ko‘paytiradigan operatsion va moliyaviy xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Likvidlik koeffitsiyentlari har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt ichida likvidlikni boshqarishni qo‘llab-quvvatlash doirasida joriy nisbat va tezkor nisbat shaklida xo‘jalik yurituvchi subyektning rentabelligiga juda ta’sir qilish maqsadida qo‘llaniladi. Shunday qilib, xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov majburiyatlari orasida naqd va naqd pulni solishtirish orqali to‘lovni qondirish uchun yetarli likvid aktivlarga ega bo‘lsagina u to‘lovga layoqatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qancha nazariyachilar likvidlik va to‘lov qobiliyati tushunchalarini o‘rganib chiqqan. Jumladan, tijorat banklari bo‘yicha bank likvidligining o‘zgaruvchanlik nazariyasi H. G. Moulton tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, “agar tijorat banklari zarurat bo‘lganda moddiy yo‘qotishlarsiz boshqa banklarga naqd pulga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan katta miqdordagi aktivlarni saqlab qolsalar, unda hech qanday yo‘qotish yo‘q”ligini ta’kidladi[1].

S. O. Udoka va R. Anyinganing fikriga ko‘ra, “mukammal almashtiriladigan aktiv likvidlik zarurati tug‘ilganda kapitalni yo‘qotmasdan darhol o‘tkazilishi kerak. Ushbu nazariyaga ko‘ra, banklar aktivlarning tabiatidan qat’i nazar, mablag‘lar zarur bo‘lganda, qoniqarli narxlarda naqd pulga boshqalarga osonlik bilan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan aktivlarga ega bo‘lsa, likvidlikka ega bo‘ladi”[2].

N. R. Emmanuel, “Tijorat krediti yoki real veksellar doktrinasi nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, tijorat banki xo‘jalik yurituvchi tashkilotlarga faqat qisqa muddatli o‘z-o‘zini yo‘q qiladigan samarali kreditlarni yuborishi kerak. Tovarlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va tarqatishning ketma-ket bosqichlari orqali ishlab chiqarish va evolyutsiyani moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan kreditlar o‘z-o‘zidan tugatiladigan kreditlar hisoblanadi. Bu nazariya, shuningdek, tijorat banklari qisqa muddatli o‘z-o‘zini yo‘q qiladigan samarali kreditlar berganda, markaziy bank banklarga bunday qisqa muddatli kreditlarni garovga qo‘yishi kerakligi ta’kidlanadi. Ushbu tamoyil har bir bank uchun tegishli likvidlik darajasini va butun iqtisodiyot uchun mos keladigan pul massasini ta’minlaydi”[3].

Tijorat kreditlari nazariyasidan farqli o‘laroq, kutilayotgan daromadlar nazariyasi AQSh tijorat banklari tomonidan muddatli kreditlarni uzaytirish amaliyotiga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, qarz oluvchining biznesining tabiati va xarakteridan qat’i nazar, bank qarz oluvchining kutilayotgan daromadidan muddatli kreditni tugatishni rejalashtiradi. Bank ushbu kreditni berishda qarz oluvchining moliyaviy faoliyatiga cheklovlar qo‘yadi. Kredit berishda bank nafaqat kafolatni, balki qarz oluvchining kutilayotgan daromadlarini ham hisobga oladi. Oldingi nazariyalarga ko‘ra, tijorat krediti nazariyasi qisqa muddatli aktivlarga qaratilgan bo‘lsa, kutilayotgan daromad nazariyasi uzoq muddatli aktivlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘zgaruvchanlik nazariyasi aktivning xususiyatidan qat’i nazar, aktivlarning naqd pulga aylanishi qobiliyatiga qaratilgan bo‘lsa, majburiyatlarni boshqarish nazariyasiga asoslanadi.

Yuqoridagi ta’riflar, ilmiy izlanishlar xulosalaridan ko‘rishimiz mumkinki, so‘z tijorat banklari likvidliligi xususida borgan. Ya’ni, tijorat banklari joriy qarzlarini qoplash uchun doimiy mablag‘ga ega bo‘lishlari, joriy qarzdorlikni talab qilingan paytda, muddati kelganda muammosiz to‘lash qobiliyatiga, imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Shu bilan birga bir qator mualliflar to‘lov qobiliyatini korxonaning daromadligigi bilan bog‘lashga harakat qilishgan. Jumladan, A. Kanaan va A. Saud fikricha, “Daromadlilik – bu kompaniyalar hayotiyligi va uzluksizligini ta’minlash uchun erishmoqchi bo‘lgan asosiy maqsaddir. Demak, kompaniyalarning rentabelligini oshirish ularning mablag‘ manbalarini optimal boshqarish qobiliyatiga bog‘liq”[4] ekanligini ta’kidlaydi.

A. Dahiyat, “Kompaniyalar orzu qilgan ko‘rsatkichlarga erishish uchun ular maqbul likvidlik darajasini saqlab qolishlari va ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari o‘rtasidagi muvozanatga erishishlari kerak. Kompaniyalar, shuningdek, o‘z biznesining muammosiz ishlashini ta’minlash, uzluksizlik uchun daromad keltiruvchi loyihalarga pul mablag‘larini qayta investitsiya qilish va raqobatbardosh pozitsiyani ta’minlash uchun ishlashi kerak”[5] deya, korxona doimiy to‘lov layoqatini saqlab qolish uchun ular pul mablag‘ini yo‘qotmaslikka, aynan daromadli soha va yo‘nalishlarga pul tikish lozimligiga urg‘u qaratadilar.

1 Moulton, H. G (1918). Commercial banking and capital formation. The Journal of Political Economy. 26(7). 32–38. https:// doi. org/10.1086/253118

2 Udoka, C. O., & Anyingang, R. (2012). An analytical and theoretical investigation of the determinants of deposit money bank’s investment in treasury bills in Nigeria. European Journal of Business and Management, 4(21), 42–48. https://www. iiste. org/Journals/ index. php/EJBM/article/view/3615

3 Emmanuel, N. R. (1997). Commercial banking in an era of deregulation (3rd ed.). Westport, CT: Greenwood Publishing Group.

4 Kanaan, A., & Saoud, A. (2018). The effect of financial leverage on profitability – An applied study on non-financial companies listed on the Damascus Stock Exchange. Economic and Legal Sciences Series, 40(3), 265–280. Retriyeved from http://journal. tishreen. edu. sy/index. php/econlaw/article/ view/4651/4421 (in Arabic language)

5 Dahiyat, A. (2016). Does Liquidity and Solvency Affect Banks Profitability? Evidence from Listed Banks in Jordan. International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences, 6(1), 35–40. Retriyeved from https://ideas. repec. org/a/hur/ijaraf/v6y2016i1p35–40. html

H. Yusoff fikricha, “Likvidlilik kompaniyalar faoliyatining uzluksizligini ta’minlovchi muhim elementlardan biri hisoblanadi, chunki yetarlicha likvidlikka ega bo‘lmagan kompaniyalar o‘z yetkazib beruvchilari oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini to‘lay olmasligi, xizmatlar va tovarlarni o‘z vaqtida taqdim eta olmasligi, bu ularning obro‘siga ta’sir qilishi mumkin. kompaniyaning o‘z aktivlarini optimal boshqarishda samarasizligi tufayli bankrotlikka olib keladi”[6].

Mazkur muallif fikriga qaraydigan bo‘lsak, u ham aynan daromadlilik va likvidlilikni bir-biriga yaqin tushuncha sifatida qarab, likvidlilikni yo‘qotmaslik, joriy qarzdorlikni to‘lash uchun harakat qilish lozimligini keltirib o‘tgan.

L. A. Soenen fikricha, “Likvidlik koeffitsiyentlari bir tomondan korxonaning naqd va naqd pulga yaqin aktivlari (birgalikda “joriy” aktivlar deb ataladi) va boshqa tomondan darhol to‘lov majburiyatlari (joriy majburiyatlar) bilan ishlaydi. Naqd pulga yaqin aktivlar odatda mijozlarning debitorlik qarzlari va to‘liq mahsulotlar va qayta ishlanmagan materiallar zaxiralaridan iborat. Aktivlar tomonidan yaratilgan operatsion pul oqimlari firmaning doimiy likvidligiga ta’sir qiladi”[7].

L. A. Soenenning fikrini ko‘radigan bo‘lsak, joriy aktivlar va joriy majburiyatlarga urg‘u berilganini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni bu yerda aynan joriy aktivlar naqd pulga yaqin va tez pulga aylanuvchi element sifatida qaralgan bo‘lib, uning mavjud bo‘lishi joriy majburiyatlarni qoplashga yetarli darajada bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Abryutina esa, Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonaning mavjudligi va faoliyati uchun uning likvidligini uzoq muddatli va qisqa muddatli (to‘lov qobiliyati) saqlab turish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda likvidlikni ta’minlash korxona mavjudligining eng muhim sharti va uning rivojlanishga qodirligi va boshqaruv uslubini tavsiflovchi asosiy mezonga aylanib bormoqda[8] deya e’tirof etadi.

Ushbu muallifning fikrlarini yuqoridagi fikrlardan to‘liqroq ekanligini bir jihati borki, korxona o‘zining moliyaviy holatini boshqarish strategiyasida albatta faqat joriy to‘lov qobiliyatiga erishish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ayni vaqtda uzoq muddatli to‘lov qobiliyatini ham doimiy hisob-kitobini qilib, shunga yarasha xulosa qilishi va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishi maqsadga muvofiq.

Yana bir muallif Kalashnikova korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirish shoshilinch majburiyatlar miqdorini ko‘paytirmaslik bilan amalga oshirilgan hollarda korxonani joriy likvidlik koeffitsiyenti va o‘z kapitalining standart qiymatlariga yetkazish quyidagi shartlarga rioya qilishni talab qiladi deya ta’kidlaydi[9]:

- joriy aktivlarning joriy majburiyatlardan ikki baravar oshishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan miqdorda foyda olish (muddatli majburiyatlar miqdorini oshirmasdan). Joriy likvidlik koeffitsiyentini hisoblash algoritmidan ko‘rinib turibdiki, uning dinamikada o‘sishiga kreditorlik qarzlarini qisqartirish yoki aylanma mablag‘lar (aylanma mablag‘lar) o‘sishidan o‘zib ketish orqali erishish mumkin. Balans koeffitsiyentlaridan ko‘rinib turibdiki, kreditorlik qarzlarining qisqarishi o‘z-o‘zidan mumkin emas – bu har doim joriy aktivlarning ekvivalent qisqarishi bilan birga keladi. Shu sababli, to‘lov qobiliyatini tiklashning yagona maqbul vositasi – bu korxonaning iqtisodiy faoliyati natijalari hisobiga aylanma mablag‘larni bir vaqtning o‘zida foydani ko‘paytirish (taqsimlanmagan foydani anglatadi);
- zaxiralar o‘sishining kamida yarmi “taqsimlanmagan foyda” passiv moddasi bilan qoplanishi kerak (agar muddatli majburiyatlar miqdori oshmasa);
- minimal zararsizlik sharti sifatida o‘zgaruvchan xarajatlar qoplangandan keyin sotish natijasida doimiy xarajatlarni qoplash.

So‘nggi yillarda mazkur masalada ilmiy izlanish olib borgan mahalliy olimlarimizdan N. Mavlanov[10] joriy aktivlar tarkibidagi bir qator aktiv turlari kredit to‘lovi uchun mablag‘ bo‘la olmasligini ta’kidlaydi va debitorlik qarzlari tarkibidan muddati o‘tgan debitorlik qarzlari (211-satr), xodimlarga berilgan bo‘naklar (250-satr), byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (270-satr), maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (280-satr), ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo‘yicha qarzlari (290-satr) kabilarni kreditga to‘lov layoqatini hisoblashda ayirib tashlashni lozim deb hisoblaydi.

Mazkur muallif fikrlari tashqaridan qaraganda, ya’ni tijorat banklari nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda to‘g‘ri hisoblash mumkin. Ya’ni Mavlanov tomonidan ayririb tashlanishi tavsiya qilinayotgan ko‘psatkichlar, balans moddalari, aslida, kopxona uchun debitorlik qarzi sifatida hisobga olinib, tijorat banklari mazkur debitorlik qarzlapiga o‘z qarzlarini undipish maqsadida harakatni amalga oshira olmaydi. Muallifning takliflari bank tomonidan qaralganda ahamiyatli hisoblanadi. Biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun bu debitorlik qarzi biror ish va xizmatni bajarilishi hisobiga so‘ndirilishi ham inobatga olish lozim.

6 Yusoff, H. B. M. (2017). The Effect of Liquidity and Solvency on Profitability: The Case of Public-Listed Consumer Product Companies in Malaysia (Master Thesis). University Tun Hussein Onn Malaysia.
7 SOENEN, L. A. (1993). Cash conversion cycle and corporate profitability, Journal of Cash Management, Vol 13 No 4 pp. 53–58.
8 Абрютина Н. С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М.: “Дело и сервис”, 2000г. – 256 с.
9 Елена Калашникова. Часть VI. Критерии успешного антикризисного управления финансами предприятия. 2010
10 Mavlanov N. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 15.

Bizga ma'lumki, debitorlik qarzlarining kunlik aylanmasi sotishdan tushadigan sof daromadni debitorlik qarzlarining o'rtacha arifmetik miqdoriga bo'lish orqali aniqlanishi keltirilgan. Ammo bilamizki, buxgalteriya balansida 210-satrdagi debitorlar tapkibi birmuncha noaniq keltirilgan. Ya'ni buxgalteriya balansiga ko'ra debitorlar (210-satr tarkibiga) xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi), alohida bo'linmalarning qarzlari (4110), sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120), xodimlarga berilgan bo'naklar (4200), mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300), byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400), maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500), ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlari bo'yicha qarzlari (4600), xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700), boshqa debitorlik qarzlari (4800) kiritilishi belgilangan. Fikrimizcha, bularning hammasi ham daromad olish maqsadidagi debitorlik qarzlari emas. Ya'ni ayrim debitorlik qarzlari hisob-kitobda bip necha bor ishtirok etishi mumkin. Vaholanki, sotishdan olinadigan daromadga ushbu debitorlik qarzining umuman aloqasi yo'q.

Yana bir mahalliy tadqiqotchi G. Turdiyeva tijorat banklari nuqtayi nazaridan kredit qobiliyati tushunchasiga "Kredit qobiliyati – korxonaning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarida ifodalangan huquqiy, moliyaviy va nomoddiy tavsiflarining majmui bo'lib, kreditor oldidagi majburiyatlarini kelajakda kredit shartnomasida ko'zda tutilgan muddatlarda va to'liq qoplash imkoniyatlarini baholash, shuningdek, bankning ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyektni kreditlashdagi risk darajasini aniqlash imkonini beradigan mezon" deya ta'rif beradi[11].

Bundan ko'rinadiki, G. Turdiyeva o'z takliflarini xo'jalik yurituvchi subyekt misolida emas, tijorat banki nuqtayi nazaridan bergan.

N. Mavlanov esa, bu tushunchaga oid bir qancha o'rganishlar o'tkazgani holda kreditga layoqatlilik xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsakichlari asosida uning kelgusidagi imkoniyatlarini prognozlash orqali kredit (asosiy qarz va foizi)ni iqtisodiy samara olish hisobiga o'z vaqtida va to'liq qaytara olish qobiliyatidir deya o'z mualliflik ta'rifini shakllantirgan[12].

N. Mavlanov tomonidan olib borilgan tadqiqot ham aynan tijorat banklari nuqtayi nazaridan o'tkazilgan bo'lib, ta'rif ham to'laqonli korxonaning to'lovga layoqatligi emas, aynan tijorat banklari tomonidan korxonaga kredit ajratishda hisoblanishi zaruriyatga aylangan kredit qobiliyatiga qaratilgan.

Umuman olganda oxirgi yillarda qilingan yuqoridagi ikkala ilmiy ishlanmada ham aynan tijorat banklari tomonidan qo'yiladigan pozitsiya asos sifatida olingan.

Bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati va kredit qobiliyati tushunchasi o'z-o'zidan mana shu joyning o'zida ajratilishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, to'lov qobiliyati bu keng tushuncha bo'lib, aynan kreditlarni to'lash qobiliyati uning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Shu bois, bizning fikrimizcha, to'lov qobiliyati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qarz majburiyatlarini turli shartlar asosida to'lash imkoniyatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Albatta mazkur ko'rsatkich turli iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi va uning natijasiga ko'ra unga baho beriladi. Bunda ko'rsatkichni aniqlashda yuqoridagi mualliflar ta'kidlaganiday moliyaviy, nomoliyaviy ko'rsatkichlar hisob inobatga olinishi mumkin. Biroq, oxir-oqibat xo'jalik yurituvchi subyektning to'lovga qobiliyati bor yoki yo'qliga baho beriladi hamda shu asosda korxona moliyaviy holatini boshqarishga qaratilgan xulosalar chiqariladi hamda qarorlar qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, to'lov qobiliyati koeffitsiyenti – bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini tekshirishga yordam beradigan ko'rsatkich hisoblanadi. Xususan, bu bizga xo'jalik yurituvchi subyektning joriy va uzoq muddatda moliyaviy majburiyatlarini bajara olishini aniqlash imkonini beradi.

Ko'rsatkich kreditorlar, investorlar, mol yetkazib beruvchilar va ma'lum bir kompaniya bilan biznes qilishni xohlaydigan boshqa tashkilotlar uchun juda foydali. U odatda korxonaning rentabelligini uning moliyaviy jihatdan mustahkamligini aniqlash uchun uning majburiyatlari bilan taqqoslash uchun ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, ma'lumotlarga ko'ra, yuqori yoki kuchli to'lov qobiliyati koeffitsiyenti afzallik beriladi, chunki bu moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, past nisbat kelajakda mumkin bo'lgan moliyaviy to'siqlarni ochib beradi.

Agar to'lovlar mablag'larni olishdan oldin bo'lsa va kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun hech narsa bo'lmasa, likvidlik bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Kapital aylanmasining ketma-ketligi buziladi, rejalashtirilgan vaqt oralig'ida kapitalni bog'laydigan va chiqaradigan moliyaviy oqimlar o'rtasida likvidlik bo'shlig'i mavjud. Ko'pincha bu to'lov oqimlarini boshqarishdagi ma'lum kamchiliklar, investitsiyalar, moliyalashtirish, xarajatlar, daromadlar, kapitalning kirib kelishi va chiqishi o'rtasidagi munosabatlarda ifodalangan moliyaviy jarayonlarning mohiyatini noto'g'ri tushunish natijasidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining zamonaviy tahlili likvidlik bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlash imkonini beradi, bu uning

11 Turdiyeva G. Xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

12 Mavlanov N. Xo'jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

moliyaviy holatini malakali boshqarishning zaruriy shartidir. Tahlil korxona likvidligi past bo‘lgan taqdirda ham, to‘lovlar va tushumlar oqimi muvozanatda bo‘lganda ham, barqaror to‘lov qobiliyati, normal moliyaviy barqarorlik mavjud bo‘lgan taqdirda ham zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda ko‘pgina korxonalarda buxgalteriya hisobi dasturiga kiritilgan ma’lum koeffitsiyentlar to‘plamini tizimli hisoblash asosida to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni soddalashtirilgan tahlil qilish tizimi mavjud. Ushbu koeffitsiyentlarni baholash faqat ma’lum bir davr uchun ularni standartlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bunday tahlil bilan munosabatlarni kuzatish, omillar ta’sirini aniqlash, oldindan belgilangan maqsadlarga erishish bilan bog‘lash mumkin emas va rahbarlar ushbu ma’lumotlardan xo‘jalik yurituvchi subyekti moliyasini boshqarishda yetarlicha samarali foydalana olmaydilar. Bu, birinchi navbatda, korxonalar likvidlikni maqsadli boshqarish bilan amalda shug‘ullanmasligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy raqamlashgan sharoitda moliyaviy oqimlar qiymatlar harakatini aks ettiruvchi sxemalar shunchalik murakkabki, ularni ilmiy asoslangan usullar yordamida boshqarishning iloji yo‘q. Bu nafaqat o‘tish iqtisodiyotining obyektiv sharoitlari bilan bog‘liq. Buning muhim sababi shundaki, ko‘pgina korxonalar uchun mulk masalasi haligacha hal qilinmagan va ularning rahbarlari uning uzoq muddatli mavjudligi tamoyilini o‘z faoliyati bilan bog‘lamaydilar. Bozorlardagi raqobat hali chinakam kuchayib ketmaganligi, birinchi navbatda, ichki omillar tufayli ma’lum raqobatdosh ustunliklarga erishilganda, malakali moliyaviy boshqaruv muhim ahamiyatga ega.

Shunga qaramay, iqtisodiy qonunlar biz ularni tushunamiz yoki tushunmasligimizdan qat’i nazar amal qiladi va bozor munosabatlarining shakllanishi davom etmoqda. Bizning moliyaviy boshqaruv harakatlarimiz ushbu qonunlarga qanchalik tez mos kelsa, bu sxemalar shunchalik shaffof bo‘ladi, biz yengishimiz kerak bo‘lgan qiyinchiliklar shunchalik kam bo‘ladi va keyin moliyaviy boshqaruv usullarini bilish juda dolzarb bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tildiki, odatda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lovga qobiliyatliligi uning buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida shakllantirilgan axborotlarga asosan hisoblab chiqiladi va shunga qarab hisoblangan koeffitsiyentlarga baho beriladi.

Kovalev va Privalovlarning fikricha, balansning likvidligiga erishish balansning passivlari va aktivlari o‘rtasida ma’lum mutanosiblikni nazarda tutadi. Ushbu nisbatlarga rioya qilish va ularni yetarlicha uzoq muddatda saqlash korxona nafaqat to‘lovga qodir ekanligini, balki o‘z mablag‘lariga ega bo‘lishini ko‘rsatadi, ularning mavjudligi faqat u foydali ishlagan taqdirdagina mumkin. Korxona likvid balansga ega, shuning uchun u foydali[13].

Bocharovda keltirilishicha, balansning eng muhim ko‘rsatkichi – bu korxonaning to‘lov qobiliyati bo‘lib, u xo‘jalik shartnomalariga muvofiq asbob-uskunalar va materiallarni yetkazib beruvchilarning to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan talablarini o‘z vaqtida qondirish, kreditlarni qaytarish, xodimlarga ish haqini to‘lash, to‘lovlarni amalga oshirish qobiliyatidir[14].

Manbalarda kompaniyaning to‘lov qobiliyatini aniqlashning bir nechta usullari mavjud, to‘lov qobiliyatini hisoblashning asosiy formulasi quyidagicha keltirilgan[15]:

To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti = (sof daromad + amortizatsiya) / barcha majburiyatlar (qisqa muddatli + uzoq muddatli majburiyatlar)

Yuqoridagi formuladan ko‘rishimiz mumkinki, to‘lov qobiliyati daromad va amortizatsiyaning yig‘indisini majburiyatlarga bo‘lish orqali ifodalangan.

Biroq bizning fikrimizcha, bu formula xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lovga qobiliyatini to‘laqonli ifodamaganligi bilan birga, amaldagi to‘lov qobiliyati koeffitsiyentini hisoblash formulalaridan sezilarli farq qiladi.

Jumladan, N. Mavlanovda keltirilishicha, banklar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qoplash koeffitsenti, ya’ni kreditlarni qoplay olish koeffitsiyentini hisoblash joriy aktivlarni (buxgalteriya balansi 390-satr) joriy majburiyatlarga (buxgalteriya balansi 600-satr) bo‘lish orqali hisoblanadi.

Aynan mana shu formula ko‘plab manba va adabiyotlarda takrorlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-sonli qarorida ham to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti sifatida keltirilgan bo‘lib, quyidagicha formula bo‘yicha aniqlanishi ko‘rsatilgan:

$$Ktq = A2 / (M2 – Um)$$

Bunda: A2 – 1-Shning II qismi, 390-satri; M2 – Balans passivining II qismi, 770-satri; Um – uzoq muddatli majburiyatlar (2-Shning 490-satri).

13 Ковалев А. И., Привалов В. П. Анализ финансового состояния предприятия. М.: “Центр экономики и маркетинга”, 2000г. – 209 с.
14 Бочаров В. В. Финансовый анализ. С-Пб.: “Питер”, 2001г. – 236 с.
15 https://corporatefinanceinstitute. com/resources/knowledge/finance/solvency-ratio/

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, aksariyat manbalarda to‘lov qobiliyati deyilganda joriy aktiv va joriy majburiyatning nisbati tushuniladi. Biroq to‘lov qobiliyatini aniqlashda faqatgina joriy aktiv va joriy majburiyatni inobatga olinishi to‘g‘ri hisoblanmaydi.

Bu borada ayrim manbalarda, jumladan, G. Turdiyevaning tadqiqot ishida kredit va ularning foizini o‘z vaqtida qaytarilishi ta’minlash uchun hisob siyosatida uzoq muddatli kreditorlik qarzlarining joriy muddatli kreditorlik qarzlariga o‘tkazilgan qismi to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozimligi keltirilgan[16].

Biroq muallif, yana aynan tijorat banklari nuqta nazaridan yondashib faqat kreditorlik qarzlarini joriyga o‘tkaziladigan qismini ko‘rsatish lozimligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov qobiliyatini real va to‘g‘ri aniqlash aynan buxgalteriya balansi, umuman olganda moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aniqlanganda biz tomonimizdan aniqlanayotgan davrga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda agar o‘tgan yilgi hisobot asosida to‘lov qobiliyati aniqlanayotgan bo‘lsa, to‘lov qobiliyati aniqlanayotgan oy yoki chorakni ham qo‘shgan holda, joriy aktiv va joriy majburiyatlarni inobatga olgandan tashqari quyidagi ikkita ko‘rsakichni ham alohida hisoblash maqsadga muvofiq:

1. Uzoq muddatli debitorlik qarzlarining joriyga o‘taziladigan qismi;
2. Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy majburiyatga o‘tkaziladigan qismi.

Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘lov qobiliyatini aniqlashda eng muhim masalalardan biri korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda pul mablag‘lari, zaxiralarini inobatga olinishidadir. Shu bilan birga har bir aktivning xo‘jalik yurituvchi subyektda ishlatilishi va saqlab turilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, korxona to‘lov qobiliyatini to‘laqonli aniqlashda quyidagilarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq:

- ombordagi xom ashyo miqdori va uning xo‘jalik yurituvchi subyektda o‘rtacha qancha vaqtda mahsulotga aylanishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning qancha vaqtda debitorlik qarziga aylanishi;
- debitorlik qarzlarining qancha vaqtga pul mablag‘iga aylanishi;
- pul mablag‘larining takror ishlab chiqarish jarayonida yana xom ashyo xaridi va ta’minot jarayoniga sarflanishi.

Umuman olganda bizningcha, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti kompaniyaning pul mablag‘lariga aylanuvchi qiymatliklarining pul aylanish darajasi va uning uzoq muddatli hamda joriy majburiyatlarini to‘lash uchun yetarli yoki yo‘qligini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, biz tomonimizdan berilayotgan takliflarning amaliyotga joriy qilinishi, xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lovga qobiliyatini to‘laqonli va realroq aniqlashga imkon berib, asosli xulosalar hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kodeks (2021). O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Qonun hujjatlari to‘plami.
2. Qaror (2020). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 775-son qarori.
3. Mavlanov (2019). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
4. Ergashev (2021). Avtomobil transporti korxonalarida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
5. Turdiyeva (2019). Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent.
6. Raximov, Qalandarova (2019). Moliyaviy tahlil. Darslik. / – T.: “Iqtisod-Moliya”.
7. G. Turdiyeva. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent. 2019.
8. Ковалев А. И., Привалов В. П. Анализ финансового состояния предприятия. М.: “Центр экономики и маркетинга”, 2000г. – 209 с.

16 Turdiyeva G. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.

9. Бочаров В. В. Финансовый анализ. С-Пб.: “Питер”, 2001г. – 236 с.
10. https://corporatefinanceinstitute. com/resources/knowledge/finance/solvency-ratio/
11. Mavlanov N. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.
12. Turdiyeva G. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2019.
13. Mavlanov N. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 15.
14. Абрютина Н. С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. М.: “Дело и сервис”, 2000г. – 256 с.
15. Елена Калашникова. Часть VI. Критерии успешного антикризисного управления финансами предприятия. 2010.
16. Dahiyat, A. (2016). Does Liquidity and Solvency Affect Banks Profitability? Evidence from Listed Banks in Jordan. International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences, 6(1), 35–40. Retriyeved from https://ideas. repec. org/a/hur/ijaraf/v6y2016i1p35–40. html
17. Yusoff, H. B. M. (2017). The Effect of Liquidity and Solvency on Profitability: The Case of Public-Listed Consumer Product Companies in Malaysia (Master Thesis). University Tun Hussein Onn Malaysia.
18. Soenen, L. A. (1993). Cash conversion cycle and corporate profitability, Journal of Cash Management, Vol 13 No 4. – pp. 53–58.
19. Kanaan, A., & Saoud, A. (2018). The effect of financial leverage on profitability – An applied study on non-financial companies listed on the Damascus Stock Exchange. Economic and Legal Sciences Series, 40(3), 265–280. Retriyeved from http://journal. tishreen. edu. sy/index. php/ econlaw/ article/ view/ 4651/4421 (in Arabic language)
20. Moulton, H. G (1918). Commercial banking and capital formation. The Journal of Political Economy. 26(7). 32–38. https://doi. org/10.1086/253118
21. Udoka, C. O., & Anyingang, R. (2012). An analytical and theoretical investigation of the determinants of deposit money bank’s investment in treasury bills in Nigeria. European Journal of Business and Management, 4(21),42–48.https:// www. iiste. org/ Journals/ index. Php/ EJBM/ article/ view/ 3615
22. Emmanuel, N. R. (1997). Commercial banking in an era of deregulation (3rd ed.). Westport, CT: Greenwood Publishing Group.

KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH TAMOYILLARI

Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich
v. b. dotsent, TMI “Menejment va marketing” kafedrasi

Adilbekov Allayar Anvarbekovich
Toshkent davlat agrar universiteti Magistratura bo‘limi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari berilgan bo‘lib, bunda sanoat korxonalarini joylashtirish omillarining muhimligi, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik hamda tumanlarda kichik sanoat zonalarini joylashtirish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari faoliyati, samarali boshqarish tamoyillari, yangi ish o‘rinlari, industrial park, ixtisoslashtirish.

Abstract: This article presents the principles of effective management of the activities of small industrial zones, in which the factors of location of industrial enterprises, cooperation aimed at developing the social sphere, as well as the location of small industrial zones are important. in the areas are highlighted.

Key words: small industrial zones, activities of small industrial zones, principles of effective management, new jobs, industrial park, specialization.

Аннотация: В данной статье приведены принципы эффективного управления деятельностью малых промышленных зон, в которых важное значение имеют факторы размещения промышленных предприятий, кооперации, направленной на развитие социальной сферы, а также размещения малых промышленных зон. в районах выделены.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, деятельность малых промышленных зон, принципы эффективного управления, новые рабочие места, индустриальный парк, специализация.

KIRISH

KSZlarni barpo etishda ularning bozorga yaqin bo‘lishini ta’minlash, elektr energiyasi, gaz va suv ta’minoti, transport kommunikatsiyasi va mehnat resurslari bilan ta’minlash masalalarini hal etish zarur bo‘ladi. Ekologiyaga salbiy ta’sir etuvchi ishlab chiqarishni shahar hududlarida joylashtirmaslik masalasini, tanlov shartlariga maxsus talab sifatida kiritish orqali hal etish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taqdqiqot metodologiyasi sifatida sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning yo‘nalishlariga oid olimlar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Hududning geografik holati, moliya, tovar va xomashyoning taqsimlanishi, mehnat va kapitalning ko‘chishi mumkinligi va boshqa omillar davlatning ishlab chiqarishni joylashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy siyosatini belgilaydi. KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda hokimiyatning faol ishtiroki nafaqat rag‘batlantirish, balki KSZlarning tarmoq tarkibini belgilash va uni joylashtrishda KSZlarni barpo etishga ta’sir etuvchi barcha tashqi va ichki omillarning e’tiborga olinishi va tahlil qilinishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Bu yerda KSZlarni joylashtirish deganda, uning tarmoq tarkibini, shu zona joylashuvchi hudud sharoitiga qarab belgilash yoki tanlov o‘tkazish tushuniladi.

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish tamoyili. Bu yerda, sanoat korxonalarini joylashtirish omillarining muhimligi bo‘yicha ko‘rib chiqsak, ular quyidagicha tartiblashtirilgan: elektr ta’minoti, malakali kadrlar, xomashyo, moddiy transport resurslari bilan ta’minlash. Rossiya tajribasidan ma’lumki, industrial parklarda, jahonda o‘zini samarali ishlab chiqarishi bilan tanilgan kompaniyalar filiallarini joylashtirishga imkoniyat yaratishga harakat qiladi.
2. Davlat va xususiy sherikchiligidan (DXSh) foydalanish tamoyili. Buni iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik deb qarash mumkin. Bunday hamkorlikning jahon tajribasini o‘rgansak, Xitoy Xalq Respublikasida, Hindiston, Braziliya, Meksika va Malayziya davlatlarida qo‘llab kelinmoqda. Rossiyada ham 300 dan ortiq loyihalar davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmidan foydalanib amalga oshirilmoqda.
3. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Bu yerda asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi chora-tadbirlarning samarali bo‘lishi; KSZ infratuzulmasini barpo etish.

Davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlash chora-tadbirlaridan quyidagilarni keltirish mumkin:

- soliq va moliyaviy: kredit imtiyozlari, soliq stavkasini pasaytirish; sotib olinadigan bino qiymatini subsidiyalash; mikroqarzlar va imtiyozli qarzlar, har xil fondlarning mablag‘laridan foydalanish; muhandislik va infratuzulma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish; yer va boshqa resurslardan imtiyozli foydalanish; ijara haqini imtiyozli belgilash; mahalliy byudjetga to‘lovlar va qarzlarni restrukturizatsiya qilish;
- mulkiy choralar: 10 yildan ortiq industrial parkda faoliyat yuritayotgan rezidentlarga xususiy mulk sifatida berish;
- maslahat berish: davlat organlari tomonidan maslahat xizmatini yo‘lga qo‘yish (mutaxassis firmalar yordamida);
- KSZlarni barpo etish, rivojlantirishda qatnashuvchilarning vakolatlarini va risklarini taqsimlash.

1-jadval: Hududlarning sanoat ishlab chiqarish mutaxassis kadrlar va ilmiy- texnik salohiyatiga ko‘ra, kichik sanoat zonalarni turlarga ajratish va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash[1]

Hududlar	Birinchi o‘rinda zonaga joylashtiriladigan mahsulot turlari	Sanoat tarmoqlari
Toshkent shahri	Ilm sig‘imli, innovatsion, eksportbop, import o‘rnini bosuvchi tovarlar, axborot texnologiya (dasturiy mahsulot)	Elektr texnikasi, robototexnika, axborot texnologiyalari, elektronika,mashinasozlik, kimyo va boshqa tarmoqlar,texnopark, biznes inkubator
Navoiy, Andijon, Samarqand shaharlari	Innovatsion, eksportbop, import o‘rnini bosuvchi tovarlar	Elektr texnikasi, mashinasozlik, kimyo, qurilish mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlar, biznes inkubator.
Farg‘ona, Buxoro va Nukus shaharlari	Innovatsion, eksportbop, import o‘rnini bosuvchi tovarlar	Mashinasozlik, elektr texnikasi, ximiya, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari va boshqa tarmoqlar,biznes inkubator.

1 Mualliflar ishlanmasi.

Guliston, Qarshi, Namangan, Jizzax, Xorazm, Termez shaharlari	Innovatsion, eksportbop, import o‘rnini bosuvchi tovarlar	Elektr texnikasi, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat sanoati, tekstil, trikotaj, tikuv, qurilish materiallari, charm-poyabzal, gazni qayta ishlash va boshqa tarmoqlar.
Tumanlar	Iste’mol tovarlari, qurilish tovarlari va boshqa tovarlar	Kimyo, qurilish materiallari, tekstil, charm-poyabzal, oziq- ovqat sanoati va boshqa tarmoqlar.

Hududlarning hokimiyat organlari KSZlarni barpo etishdan manfaatdor bo‘lishi kerak, chunki KSZlarni barpo etish hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish, hudud byudjetiga tushum tushishi, aholi daromadlarini ortishi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Hududlarda zarar ko‘rib ishlayotgan, past rentabelli tashkilotlar cheklangan, ayrim tumanlarda bunday tashkilotlar deyarli yo‘q. Masalan, Samarqand viloyatining Oqdaryo, Ishtixon, Pastdarg‘om va boshqa tumanlari shunday tumanlar jumlasiga kiradi. Bunga o‘xshash tumanlarni boshqa viloyatlarda ham uchratish mumkin. Shu sababli ayrim hududlarda KSZlarning grinfild (hech narsa qurilmagan bo‘sh maydonlarda) turini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tuman hududida grinfild KSZlarni barpo etish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- tuman hududida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish imkoniyatlari yo‘nalishlarini baholash;
- hudud sanoati imkoniyatlaridan kelib chiqib KSZ yo‘nalishini belgilash;
- KSZ barpo etiladigan bo‘sh yer maydonlarini aniqlash va ularni rasmiylashtirish bo‘yicha yuqori hokimiyat organlari bilan kelishish;
- moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- KSZ direksiyasini tashkil etish;
- qurilish ishlarini amalga oshirish;
- zonada joylashtiriladigan kichik korxonalar va tanlov talablari to‘g‘risida e’lon berish;
- KSZ da KBXT subyektlarini joylashtirish bo‘yicha tanlov o‘tkazish;
- tanlovdan o‘tgan KBXT subyektlari bilan davlat sherikchiligi asosida quriladigan binolar va xususiy sektor tomonidan quriladigan binolar bo‘yicha kelishuv shartnomalarini tuzish;
- direksiya va KBXT subyektlari o‘rtasida ijara shartnomasini tuzish.

KSZni barpo etish va rivojlantirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, sanoatni rivojlantirish strategiyasiga mos holda amalga oshirilishi lozim.

XULOSA

Hozirgi dunyodagi o‘zgarishlar sharoitida KSZlarni joylashtirish va boshqarish borasida quyidagilarni bajarishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- kichik sanoat zonalarining joylashuvi, ixtisoslashuvi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning aniq dasturi, davlat yordami hamda berilayotgan imtiyozlarning boshqa shakllarini ham ishlab chiqish;
- kichik sanoat zonalari hududida zarur shart-sharoitlar yaratishning asosiy maqsadlaridan biri investorlarni jalb qilish, shu jumladan, transport infratuzilmasi, muhandislik infratuzilmasi, madaniy-jamoatchilik hamda ijtimoiy-maishiy obyektlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish;
- kichik sanoat zonalarining boshqarish tizimini, shu jumladan, direksiyalar faoliyatini tashkil etishda yagona standartlarni belgilash, ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lamini oshirish, qolaversa, kichik sanoat zonalari direksiyalarini tadbirkorlarga, shuningdek, xorijiy korxonalarga kelishilgan holda boshqaruvga berish orqali rivojlantirish;
- samarasiz foydalanilayotgan yer uchastkalarini qaytargan holda, kichik sanoat zonalari ishtirokchilari bilan yerdan foydalanish shartnomalarini qayta ko‘rib chiqish yoki qo‘shimcha loyihalarni amalga oshirish hisobiga yerdan oqilona foydalanish uchun “yo‘l xaritalari”ni yaratish;
- kichik sanoat zonalarining belgilangan muddatlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni boshlamagan ishtirokchilari bilan kelishuvlarni bekor qilish hamda qisqa muddatlarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni hisobga olib, qoloq loyihalar bo‘yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xajiyev B., Mamaraximov B., Sharipov Q. Iqtisodiyot nazariyasi UMK. 2020.
2. Ружанская Л. С., Якимова Е. А., Зубакина Д. А. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2019.
3. Каплан Р. С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию Олимп-Бизнес, 2021 г.
4. Abdurahmonov Q. X., Xolmo‘minov Sh. R., Xayitov A. B. Personalni boshqarish. Darslik. 2021.
5. Salimov B. T., Salimov B. B. Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2020.

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDA PENSIYA VA IJTIMOIY NAFAQALARNING O‘RNI

Aliyev Ma’ruf Komiljon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy ta’minot tizimi islohotlarining aholi umr ko‘rish darajasi uzayishi ta’siriga oid savollar, tizimlar barqarorligi, nafaqalar, avlodlar birdamligi, pensiyadagi tenglik kabi vazifalar uyg‘unlashuvi murakkabligi ko‘rib chiqilgan. Keksalar uchun tibbiy xizmatlarga, ayniqsa, uzoq muddatli muolajalarga sarf xarajatlarning oshib borishi, davlatning yordamisiz mazkur xarajatlarni qoplash imkoni pasayib borayotganligi bayon etilgan. Shuningdek, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘sishi bilan keksalarning ijtimoiy ta’minoti va xavfsizligining ta’minlanishi asosiy omil ekanligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ta’minot, pensiya tizimlari, inson kapitali, umr ko‘rish davomiyligi, tibbiy xizmat, faol keksalik, ijtimoiy nafaqalar, uzok muddatga mo‘ljallangan xizmat ko‘rsatish, aktuar adolat.

Abstract: In this article, questions related to the impact of social security system reforms on the increase in life expectancy, system stability, benefits, solidarity of generations, and the complexity of harmonizing tasks such as equality in pensions are considered. It is stated that the costs of medical services for the elderly, especially long-term treatments, are increasing, and the ability to cover these costs without the help of the state is decreasing. Also, with the increase in the average life expectancy, it is thought that the provision of social security and security of the elderly is the main factor.

Key words: social security, pension systems, human capital, life expectancy, health care, active aging, social benefits, long-term care, actuarial justice.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с влиянием реформ системы социального обеспечения на увеличение продолжительности жизни, стабильность системы, льгот, солидарность поколений, а также сложность гармонизации таких задач, как равенство пенсий. Констатируется, что затраты на медицинские услуги для пожилых людей, особенно на длительное лечение, растут, а возможности покрыть эти расходы без помощи государства уменьшаются. Также при увеличении средней продолжительности жизни основным фактором является обеспечение социальной поддержки и безопасности пожилых людей.

Ключевые слова: социальное обеспечение, пенсионные системы, человеческий капитал, продолжительность жизни, здравоохранение, активное старение, социальные льготы, долгосрочный уход, актуарная справедливость.

KIRISH

Bugungi kunda aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar, mehnatga layoqatli aholiga nisbatan keksalarning ulushi oshib borayotganligi turli darajada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlangan dunyo mamlakatlarining katta qismini qamrab olmoqda. Hozirda “keksa” davlatlar guruhiga (65 yosh va undan keksa fuqarolar aholi ulushining 14 foizdan ortig‘ini tashkil etayotgan) 54 ta davlat, qariyotgan (65 yoshdan keksa odamlar aholi ulushining 7–14 foizgacha tashkil etgan) davlatlar esa 42 ta bo‘lib, 2950-yilga kelib, birinchi guruhdagi davlatlar soni 111 ta, ikkinchi guruhdagi davlatlar soni 36 ga (dunyo aholisining 87 foizi) yetishi kutilmoqda. Ushbu jarayonlarning ko‘lami va tezligi esa keksalarning ta’minoti (pensiya, ijtimoiy nafaqalar, tibbiy xarajatlar va boshqa ijtimoiy ta’minot xarajatlari) bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Demografik o‘zgarishlar, jumladan o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshib borishi O‘zbekistonda ham ijtimoiy ta’minot tizimida doimiy ravishda islohotlar olib borilishini taqozo etadi. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “54 maqsad – pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta’minlash vazifasi belgilab quyilgan” (PF–60, 2022).

“Pensiya ta’minoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta’minlangan fuqarolarni turmush darajasini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan qator chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirilishini nazarda tutadi” (Tursunov, 2022). Shunday ekan, demografik o‘zgarishlar sharoitida, jumladan o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘zgarishi natijasida kelajakda pensiya tizimiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida mazkur maqolada ko‘rib chiqamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bugungi kunda pensiya ta’minoti tizimida islohotlarning nechog‘lik zarur ekanligi borasida ko‘plab xalqaro tashkilotlar, olimlar tadqiqotlar natijasida o‘z fikr-mulohazalarini keltirishmoqda.

G. Tetlou (2015) o‘zining pensiya ta’minoti bo‘yicha tadqiqotida bugungi kunda pensiya tizimida islohotlar nechog‘lik zarur ekanligini, bunda pensiyaga to‘lanadigan o‘tkazmalarni miqdorlarini oshirish, ko‘proq nodavlat pensiya fondlari faoliyatiga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlagan.

A. Borsh-Supan (2018) Yevropa mamlakatlarida pensiya tizimini (xususiy, birdamlik pensiya tizimi) isloh qilishning asosiy muammolarini qilinayotgan xarajat va aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘sishi nuqtayi nazardan ko‘rib chiqqan.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati R. Diamond (2011) pensiya tizimini yaratishdagi turli xil yondashuvlarning mehnat bozoriga, jamg‘armalarga va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qilgan. O‘zining “Iqtisodiy nazariya, soliq va pensiya siyosati” nomli tadqiqotida majburiy pensiya sug‘urtasini chuqur tahlil qilgan.

Sh. Rajabov (2021) o‘zining doktorlik dissertatsiya ishida esa nodavlat pensiya jamg‘armalarining nazariy va tashkiliy asoslari o‘rganish orqali O‘zbekistonda joriy etish masalalarini ko‘rib chiqqan.

Ijtimoiy ta’minot – “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948) va “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966) kabi xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan asosiy inson huquqi sifatida qaraladi hamda qonunda belgilangan eng kam pensiya yoshiga yetgan mehnat layoqatini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan keksalarga pensiya ko‘rinishida to‘lov (daromad)larni muntazam olish huquqini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola o‘rtacha umr ko‘rish yoshining o‘zgarishi natijasida pensiya tizimida islohotlar amalga oshirish masalasi yoritilgan bo‘lib, bunda soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqot davomida analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

“So‘nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YaIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko‘paydi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar va nogironligi bo‘lgan bolalarning parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi” (PF–82, 2023).

Aholi yosh tarkibining keskin o‘zgarishi, bunda keksa yoshdagilarning ulushi yildan yilga ortib borish tendensiyasi har bir davlatda turli daraja va sur’atlarda bo‘lsa-da, mehnat bozori, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, davlat moliyaviy resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga taqsimlanishida sezilarli asoratlar kechmoqda. “Hozirda dunyoda o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 1990-yildagi 65,4 yoshdan 2022-yilda 72,7 yoshga yetdi va so‘nggi yillardagi tadqiqotlarga ko‘ra 2050-yilga borib 76,7 yoshga yetadi” (macrotrnds, 2022). “Yevropa va shimoliy Amerikada esa bu ko‘rsatkich 78 yoshdan oshdi, umumiy aholining o‘rtacha yoshi mos ravishda 42 va 35 yoshni tashkil qilmoqda. So‘nggi 10–15 yil ichida mehnat bozorida 55 yosh va undan yuqori bo‘lgan aholi qatlami ulushi sezilarli tarzda oshdi. Amerika, Osiyo, Tinch Okeani va Yevropa hududlarida ularning ulushi umumiy ish kuchining 15–17 foizini tashkil etgan” (Pension at a glance, 2021).

“Mazkur demografik o‘zgarishlar aksariyat rivojlangan davlatlarda jamiyatdagi yoshlar holatining yomonlashuvi, avlodlar birdamligining buzilishi, yaratilgan mahsulot va xizmatlarning jamiyatning nofaol qismiga ko‘proq taqsimlanishi natijasida yuzaga kelgan “demografik inqiroz” o‘rniga nisbatan muvofiqlashtirilgan yondashuvlar qo‘llanilmoqda” (Whitehouse, 2006). Yangi yondashuv standartlari keksalarni bandligini haq to‘lanadigan yoki haq to‘lanmaydigan bo‘lishiga, keksalarning yaxshi yashashlari uchun sharoitlarni yaratilish, ularning sifatli tibbiy xizmatdan o‘z vaqtida foydalana olish imkoniyatini oshirish, shuningdek, keksalarning soliq va boshqa turdagi to‘lovlarni amalga oshirishdagi ulushini oshirish (rivojlangan davlatlarda umumiy soliq to‘lovchilarga nisbatan ularning ulushi 30–50 foizni tashkil etmoqda), qariyalar ehtiyojlarini davlat hisobidan emas, aksincha, ularni o‘zlarining jamg‘arilgan aktivlari yoki daromadlari hisobidan amalga oshirishlarini ta’minlashdan iboratdir.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholi tarkibida keksalarning ulushi umumiy aholiga nisbatan yuqori ekanligidan tashqari, ularning ehtiyojlari tarkibi va hajmi ham turlichadir. Jumladan, aholi jon boshiga nisbatini ko‘radigan bo‘lsak, “Shvetsiyada 65 yoshga yetgan fuqaroning ehtiyojlari uchun xarajati, tibbiy xizmatlar, shuningdek, uzoq muddatli tibbiy parvarishni qo‘shib hisoblaganda 30–49 yoshdagi aholi o‘rtacha oylik daromadining 50 foiziga tengdir. 80 yoshga yetgan shvedlarda esa bu ko‘rsatkich 80 foizgacha yetadi, 90 yoshda esa 130 foizni tashkil etadi. Shuningdek, 85 yoshdan oshgan keksalarning ehtiyojlari uchun sarflanadigan mablag‘larning aholi jon boshiga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichi hozirda AQSh, Yaponiya va Finlyandiyada qayd etilgan. Rivojlanayotgan davlatlarda esa aholi yosh guruhlarining aholi jon boshiga nisbatan daromadlar ulushida sezilarli farq kuzatilmaydi. Xitoyda aholi jon boshiga iste’mol daromadining eng yuqori ulushi 30–49 yoshdagi ishchilar orasida bo‘lib (60 foiz), 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida esa aholi jon boshiga iste’mol xarajatlari ham yuqoridir. Boshqa yosh guruhlari, jumladan, keksa yosh qatlamining ham ehtiyoj xarajatlari ushbu bazaviy ko‘rsatkichning 30–35 foizini tashkil etadi. Urugvay va Janubiy Koreyada ham yuqoridagi ko‘rsatkichlar qayd etilgan” (Cylus, Figuera, Normand, 2019).

65 yosh va undan yuqori yoshdagi fuqarolar xarajatlarining iqtisodiy ta’minot manbalari tizimi hatto ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin, ammo turli modellarga asoslangan ijtimoiy ta’minot va sug‘urta tizimi mavjud mamlakatlarda ham turlichadir. “Avstriya misolida ko‘rishimiz mumkinki, klassik taqsimotga asoslangan pensiya tizimida 85 foiz xarajatlarni davlat transfertlari, 10 foizini xususiy jamg‘armalar va 5 foizini bandlikdan kelgan daromad tashkil etadi. Shvetsiyada esa ijtimoiy transfertlar ulushi 90 foizdan oshiq, Germaniyada esa transferlar 58 foizni tashkil etib, pensionerning o‘ziga tegishli jamg‘armalar 40 foizga teng. Buyuk Britaniyada ushbu ikki asosiy daromad manbayi mos ravishda 45 foiz va 50 foizni tashkil qilsa, g‘arbiy Yevropa davlatlarida bandlik ulushi 2–3 foizga teng. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda (Xitoy, Janubiy Koreya, Lotin Amerikasi davlatlari) ijtimoiy davlat xarajatlarining 50 foizi davlat transfertlaridan qoplanadi” (Cylus, Figuera, Normand, 2019).

Davlat transfertlari uchun ajratiladigan mablag‘lar tegishli soliq tushumlaridan amalga oshiriladi. Ko‘pgina davlatlarda pensionerlar uchun daromad solig‘i undiriladi va ular uchun maxsus imtiyozli qoidalar qo‘llaniladi. “IHTT doirasidagi 10 ta davlatda pensionerlardan undiriladigan daromad solig‘i miqdori ishlovchi fuqarolarniki bilan bir xil, g‘arbiy Yevropadagi qator davlatlarda esa (Daniya, Shvetsiya, Islandiya) pensiya soliq to‘lovi ishlovchilar to‘laydigan daromad solig‘idan yuqoridir. Shu bilan bir qatorda pensionerlardan soliq undirish butunlay bekor qilingan holatlar ham mavjud. Ko‘p hollarda soliq imtiyozlari sug‘urta badallariga ham joriy etiladi, odatda pensionerlar pensiya badallarini to‘lamaydilar va ishsizlik sug‘urtasida ishtirok etmaydilar, lekin tibbiy sug‘urtada qatnashadilar. Qator davlatlarda esa pensionerlar ma’lum bir ijtimoiy maqsadlarga mo‘ljallangan “birdamlik” tizimini moliyalashtirishda ishtirok etadilar. O‘rtacha hisobda IHTT davlatlarida to‘liq sug‘urta staji bilan pensiyaga chiqqan pensionerlar daromadining 10 foizini to‘g‘ri soliqlar ko‘rinishida to‘laydilar. O‘rtacha oylik ish haqi olib ishlovchi fuqarolar uchun soliq va to‘lovlar oylik ish haqining 26 foizini tashkil etadi” (Pension at a glance, 2021).

Pensiya tizimining moliyaviy holati yoki barqarorligini baholashda qamrov koeffitsiyenti, bosim koeffitsiyenti, qoplash koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichlar bir tomondan pensiya to‘lovlari aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalasa, boshqa tomondan pensiya tizimining moliyaviy holati haqida axborot beradi.

Pensiya tizimi tahlilida, uning amaldagi holatiga baho berishda pensiya ta’minotida aholining ishtiroki darajasi muhim ko‘rsatkichdir. Bilamizki, aholining birdamlashgan pensiya tizimi barqaror bo‘lishida unda ishtirok etuvchilar soni va darajasiga e’tibor qaratiladi, pensiya tizimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning samaradorligini belgilash imkonini beradi. Ishlovchilarning ya’ni pensiya tizimiga qamrab olinganlarning ulushi kam va pensiyaga chiquvchilarning soni va tezligi borgan sari ortib borishi natijasida moliyaviy mablag‘larni pensiya ta’minotining “avlodlar birdamligi” prinsiplari asosida taqsimlanishi adolatli va samaradorlik asosida amalga oshirilmayotgani kuzatilmoqda. “Halqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi barqaror faoliyat yuritishi uchun pensiya ta’minoti tizimiga sug‘urta badali to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 4:1 darajada bo‘lishi ijobiy holat hisoblanadi” (MOT, 1952). Ammo, mazkur ko‘rsatkich jahonning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida ham iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlardagi kabi tavsiya etilganidan birmuncha yomonroqdir. Bu ko‘rsatkichning holatiga umumiy holda mehnatga layoqatli aholining pensiya ta’minotiga qamrab olinish darajasining pastligi, bu holat mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat yomonlashgan, ishsizlik darajasi ortgan, natijada pensiya tizimida qatnashuvchilar soni kamaygan holatlarda yuzaga keladi va bunday holatning uzoq muddat surunkali davom etishi pensiya tizimida inqirozlarni keltirib chiqaradi.

Pensiya olish uchun talab etiladigan mehnat (sug‘urta) stajini oshirish va jamg‘armalarga tushumlarni ko‘paytirish maqsadida keng qamrovli pensiya tizimiga ega davlatlar pensiya ta’minoti shartlari va me’yorlariga o‘zgartirishlar kiritilmoqda, pensiya yoshi uzaytirilib, yangi pensiya mehanizmlari joriy etilmoqda: ballik, jamg‘ariluvchi, shartli jamg‘ariladigan, tanlangan iqtisodiy-demografik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga qarab

parametrlarga avtomatik tuzatish kiritiluvchi va hokazo. “Yevropa Ittifoqidagi davlatlarda pensiya yoshi o‘rtacha erkaklar uchun 62,6 yosh, ayollar uchun esa 61,9 yilni tashkil etadi, pensiya yoshidan keyingi o‘rtacha umr davomiyligi esa mos ravishda 19,5 va 24 yilga teng. Fransiya va Ispaniya davlatlarida o‘rtacha umr davomiyligi yuqori bo‘lib, bunda erkaklar uchun 23 yil, ayollar uchun esa 27 yildan ortiqdir” (Pension at a glance, 2021).

Demografik o‘zgarishlar dunyo pensiya tizimlari oldiga pensiya to‘lovlarini amalga oshirishda adolat va adekvatlik tamoyillariga amal qilish, pensiya tizimlaridagi barqarorlik va avlodlararo tenglikka amal qilishda murakkab vaziyatlarni qo‘ymoqda.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari xulosasiga ko‘ra avlodlararo notenglikni qisqartirish va pensiya tizimlaridagi uzoq muddatli barqarorlikka erishish zaruriyati bugungi kunning aktual muammolaridandir, chunki iqtisodiy rivojlangan davlatlardagi pensionerlar uchun to‘lanayotgan pensiyalarning real miqdori ular to‘lab borgan sug‘urta badallaridan deyarli ikki barobar ko‘pdir.

“So‘nggi 10 yillikda pensiya tizimlaridagi islohotlar asosan, ushbu nomutanosiblikni 1,5 barobar kamaytirishga va to‘lanadigan sug‘urta badallari va pensiya qiymatini nisbatan tenglashtirishga qaratilgan edi, buning natijasida 2040-yillarga borib pensiyaga chiquvchilar pensiyasi ushbu me’yorlashtirilgan miqdorda bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Afsuski, qator davlatlardagi ushbu islohotlarning kechiktirilishi yoki avvalgi me’yoriy tartibga qaytilishi, qoidalarning o‘zgartirilishi natijasida belgilangan 1,5 barobar ko‘rsatkich endilikda pensiyaga chiquvchilar uchun 1,7 barobarga ko‘tarilishi kutilmoqda” (Fouejien, 2021).

Pensiya tizimini aniq baholashda bir qancha usullardan foydalaniladi. “Pensiya tizimini aniq holatini baholash uchun boshlang‘ich pensiya risklarini aktual baholash zarur hisobalanadi. Bu esa pensiya tizimini tartibga solish va boshqarishga imkon beradi” (Tursunov, 2022).

Shuningdek, pensiya ta’minoti tizimida aktuar adolat degan tushuncha ham mavjud bo‘lib, aktuar adolat bu – inson mehnat faoliyati jarayonida to‘lab borgan sug‘urta badallarining pensiyaga chiqqandan umrining so‘ngiga qadar oladigan pensiya miqdoriga nisbatan teng qiymatda bo‘lishidir. Avlodlararo tenglik turli avlodlarning pensiya va sug‘urta badallaridagi doimiy balans ushlab turilgandagina ta’minlanadi. Aktuar adolatli tizim hech qanday avlodlararo qayta taqsimlashni nazarda tutmaydi, shuning uchun ham u avlodlararo tenglik tizimidir.

Avlodlararo tenglik tizimida mehnat bozoriga chiqayotgan ishchi kuchi (mehnat resurslari)ning oliy ma’lumotli bo‘lishi muhim hisoblanadi va bu ko‘rsatkich bugungi kunda yuqoridir. Masalan, IHTT davlatlarida 25 dan 34 yoshgacha bo‘lgan mehnatga layoqatli aholi orasida oliy ma’lumotli bo‘lgan insonlarning ulushi 45% ni tashkil etadi, 55–64 yosh chegarasidagi xodimlar o‘rtasida esa ushbu ko‘rsatkich 28% atrofidadir. So‘nggi yillarda, aholi ma’lumoti darajasi ortib borishi bilan kechroq pensiyaga chiqish tendensiyasi kuzatilmoqda, chunki oliy ma’lumotli fuqaro faoliyatini o‘rta ma’lumotli insonga nisbatan keyinroq boshlaydi, ammo, keksalikda ham davom ettirishi qulay bo‘lgan faoliyat sohasini tanlashga harakat qiladi.

Aholi umr ko‘rishi davomiyligiga mos ravishda pensiya yoshining va pensiya ta’minotidagi ko‘rsatkichlarni o‘zgartirilishi pensiya tizimining iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi hamda avlodlararo tenglikni shakllantiruvchi omildir. Ushbu mexanizm jamg‘arib boriladigan va shartli jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi doirasiga kiritilgan, shu bilan birga, o‘z amaliyotida ham jamg‘arib boriladigan, ham taqsimlovchi (aralash) pensiya tizimini qo‘llovchi mamlakatlar o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshganligi sababli pensiya yoshini 65 yosh etib belgilamoqdalar (alohida hollardagina pensiya yoshi 60 yoki 62 yoshdir). Ushbu mexanizmlar taqsimlanish nuqtayi nazaridan neytral ko‘rinsa-da, amaliyotda esa regressivlik kasb etadi, chunki kam daromadga ega bo‘lgan pensionerlarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi hamda pensiya to‘lov davri nisbatan qisqa bo‘ladi. “Taraqqiy etgan davlatlarda kam daromad topuvchi kvintil guruhga mansub pensionerlarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi daromadi yuqori bo‘lgan pensionerlarga nisbatan 3 yil kam bo‘lib, olayotgan pensiyalarining miqdori ham 13 foizga kamdir” (Pension at a glance, 2021). Agarda turli iqtisodiy – ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘rtacha umr ko‘rish yoshi o‘rtasidagi farq ortib borsa, u holda pensiya yoshining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi bilan bog‘liqligi natijasida tenglik ta’minlanishi shubha ostida qoladi.

Shuningdek, pensiya tizimida yana bir muhim ko‘rsatkich mavjud bo‘lib, bunda shaxs mehnat qilishi natijasida olgan ish haqining pensiya yoshiga yetganidan so‘ng pensiya bilan qancha qismini qoplashini nazarda tutiladi. Qoplash koeffitsiyenti o‘rtacha ish haqiga ega bo‘lgan xodimning pensiya tayinlangandan keyin 1 yil davomida oladigan pensiyasining avvalgi olgan ish haqining taxminiy miqdoriga nisbatini belgilashi mumkin. Yevropa davlatlarida qoplash koeffitsiyenti o‘rtacha 70 foiz atrofida bo‘lib, Litvada 20 foiz oralig‘idadir. Bundan kelib chiqadiki, nisbatan kam ish haqi olib ishlagan xodim ham taqsimlash mexanizmi doirasida yuqori qoplash koeffitsiyenti bilan pensiyaga chiqishi mumkin, lekin bu hol umumiy tartibda emas.

“Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan belgilangan va tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlarida yoshga doir pensiya uchun belgilangan qoplash koeffitsenti 40 foizdan kam bo‘lmasligi keltirilgan. Ammo, O‘zbekistonda qoplash koeffitsenti 40 foizga yetib bormayapti. Bu esa tizimda islohotlarni amalga oshirish, jumladan pensiya miqdorini indeksatsiyalash zaruriyati borligini ko‘rsatadi” (Tursunov, 2022).

Qoplash koeffitsiyenti sug‘urta stajiga bog‘liq bo‘lib, agarda sug‘urta staji qisqarsa qoplash koeffitsiyenti ham mos ravishda pasayadi, masalan, 20 yillik ish stajiga ega bo‘lgan pensionerning o‘rtacha pensiya miqdori o‘rtacha ish haqining 20–40 foizini tashkil etadi.

Pensiya tizimini moliyalashtirishda majburiy pensiya sug‘urta badallari muhim hisoblanib, bir tomondan pensiya uchun mehnat (sug‘urta) stajini hisobga olishni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan pensiya ta’minotini moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida qarash mumkin. Pensiya uchun sug‘urta badallari ba’zi davlatlarda ijtimoiy badallar tarkibiga kiritilgan (Ispaniya, Buyuk Britaniya), ba’zilarida esa soliq to‘lovlariga tenglashtirilgan (Avstraliya, Kanada). Pensiya badallarining eng yuqori darajasi Italiyada bo‘lib, xodimni ish haqisining 33 foizini tashkil etadi, pensiya badallarining eng kam miqdori esa Litvada qayd etilgan bo‘lib, u yerda ishchilar ish haqidan pensiya uchun 8,7 foiz badal to‘laydilar.

Bugungi kunda “Yevropa davlatlari YaIMning 13–15 foizini (dunyo davlatlari orasida eng yuqori) davlat pensiyalarini moliyalashtirishga sarflaydilar, YaIMning davlat pensiyalari uchun eng kam qismini ya’ni, 3 foizdan kamrog‘ini Lotin Amerikasi davlatlari (Chili, Meksika) va Islandiya sarflaydi, negaki bu davlatlar pensiya tizimining asosiy qismini xususiy, professional (korporativ yoki individual) pensiya tizimlari tashkil etadi. Nodavlat pensiya sug‘urta tizimi eng yuqori rivojlangan davlatlar Niderlandiya, Kanada, Buyuk Britaniya kabi davlatlar hisoblanib, YaIMning 5 foizidan oshadi” (Pension at a glance, 2021).

1-jadval: Majburiy davlat sug‘urta tizimiga pensiya sug‘urta badallari (ish haqidan % miqdorida, 2020-yil) (Pension at a glance, 2021)

Mamlakat	Xodim	Ish Beruvchi	Jami
Avstriya	10,25	12,55	22,8
Belgiya	7,5	8,9	16,4
Germaniya	9,3	9,3	18,6
Italiya	9,19	23,81	33
Kanada	5,25	5,25	10,5
Litva	8,7	-	8,7
Polsha	9,8	9,8	19,6
SShA	5,3	5,3	10,6
Finlyandiya	7,15	15,2	22,4
Fransiya	11,3	16,5	27,8
Yaponiya	9,15	9,15	18,3

“Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, pensiya islohotlari natijasida 2050-yilga borib ba’zi bir mamlakatlar (Finlyandiya, Fransiya) pensiyalarni moliyalashtirish uchun davlat xarajatlarini YaIMning 0,4–1,5 foizgacha qisqartiradi, boshqa davlatlar (Chexiya, Ispaniya, Germaniya) esa YaIMning 0,7–3,3 foizgacha oshiradi” (Fouejien, 2021).

Jahonda pensiya islohotlari turlicha maqsadlarda amalga oshiriladi. “Rivojlangan davlatlarning pensiya islohotlaridan asosiy maqsad, moliyaviy barqarorlik va pensiyaning miqdori bilan o‘rtacha ish haqi o‘rtasidagi balans tengligiga erishish bo‘lsa, rivojlanayotgan ko‘pgina davlatlar uchun asosiy maqsad – ishlayotgan aholining pensiya sug‘urtasi orqali qamrovni oshirish va pensiya dasturlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirishdir. Agar qamrov koeffitsiyenti Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlarida iqtisodiy faol aholining 95 va 88 foizi qamrab olingan bo‘lsa, Lotin Amerikasi davlatlarida norasmiy bandlik (yashirin iqtisodiyot) darajasining yuqori ekanligi hamda mehnatga layoqatli aholining katta qismi hamon moddiy ehtiyojmandligi sababli ushbu ko‘rsatkich XMT ma’lumotlariga ko‘ra, 47 foizni tashkil etadi, Janubiy Osiyo mamlakatlarida esa 26 foizdir” (ILO, 2021).

Pensiya islohotlarini amalga oshirishda demografik o‘zgarishlarni hisobga olib, pensiya yoshini va pensiya sug‘urtasiga shaxslarning qiziqishini oshirish uchun jamg‘arish xususiyatiga ega bo‘lgan pensiya dasturlarini ishlab chiqish bugungi o‘zgarishlar sharoitida muhim maqsadlardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi demografik o‘zgarishlar sharoitida jahonda amalga oshirilayotgan pensiya islohotlarining asosiy maqsadi eng avvalo ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini kambag‘allikdan himoya qilish, keksalikda, pensiya yoshiga yetganda munosib turmush faoliyatini ta’minlash uchun kafolatlangan va yetarli miqdorda pensiya to‘lash, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining oshishini hisobga olib pensiya uchun talab etiladigan mehnat (sug‘urta) staji va pensiya yoshini oshirish, shuningdek, boshqa masalalar ham yotadi. Kelajakda demografik o‘zgar-

ishlarning pensiya tizimiga ta'sirini oldini olishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- nodavlat pensiya fondlarini joriy qilish, shuningdek, tibbiy sug'urtani rivojlantirish orqali aholining keksa qatlami ehtiyojlarini davlat hisobidan emas, aksincha, ularni o'zlarining jamg'arilgan aktivlari yoki daromadlari hisobidan amalga oshirishlarini ta'minlash;
- "avlodlar birdamligi" tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadigan pensiya tizimidan majburiy va ixtiyoriy sug'urta badaliga asoslangan, har bir shaxs o'zi uchun pensiya jamg'arib borish tizimi asosida pensiya tizimiga o'tish;
- majburiy sug'urta badallarini joriy etish orqali, shuningdek, pensiya tayinlash uchun talab etiladigan mehnat stajini oshirish natijasida mehnat faoliyati jarayonida to'lab borgan sug'urta badallarining pensiyaga chiqqandan umrining so'ngiga qadar oladigan pensiya miqdoriga tenglashtirish ya'ni aktuar adolatni ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni.
2. Tursunov J. P. Raqamli iqtisodiyot davrida pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlar. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022-yil 23-dekabr. 167–169 betlar.
3. Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.
4. Börsch-Supan, A. and C. Coile (2018). "Social Security Programs and Retirement Around the World: Reforms and Retirement Incentives – Introduction and Summary", NBER Working Paper 25280, Cambridge, MA.
5. Diamond P. Economic Theory and Tax and Pension Policies // Economic Record. 2011. Vol. 87, Issue 1. P. 2–22.
6. Rajabov Sh. U. "Pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari" mavzusida Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2021 yil. 71 bet.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan.
8. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. Adopted and opened for signature, ratification and accession by General Assembly resolution 2200A (XXI) of 16 December 1966.
9. http://www. macrotrnds.net
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF–82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
11. Pension at a glance 2021. OECD and G20 indicators (2021): OECD – Paris: OECD Publishing. https://doi. org/10.1787/ca401ebd-en
12. Whitehouse R., Whiteford P. (2006). Pension challenges and pension reforms in OECD countries // Oxford Review of economic policy. Vol. 22. No. 1. Pp. 78–94 www. reseachgatenet/publication/5216321_Pension_Challenges_and_Pension_Reforms_in OECD_Countries
13. Cylus J., Figuera J., Normand Ch. (2019). Will population ageing spell the end of the welfare state? A review of evidence and policy option. – Copenhagen: WHO Regional office for Europe.
14. Конвенция N-102 Международной организации труда "О минимальных нормах социального обеспечения". Статья 67. (Заключено в г. Женева 28. 06. 1952). Приложение к разделу XI периодические выплаты типовому бенефициарию. – С. 21.
15. Fouejien A., Kangur A., Martinez S. -R., Soto M. (2021). Pension reforms in Europa. How far have we come and gone? // IMF 2021/016.
16. Tursunov J. Pensiya risklarini aktuar baholashning nazariy va amaliy ahamiyati. International Journal of Finance and Digitalization. Vol. 1 Issue 02, 2022. www. ijfd. uz. 10 bet.
17. Tursunov J. P. Pensiya to'lovlarini indeksatsiyalashning xorij tajribasi. Moliya va bank ishi jurnali. 3 (2022), 14–18.
18. Social protection at the crossroads –in pursuit of a better future (2021): World Social Protection report. 2020–2022 / ILO. – Geneva: ILO.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Алиева Надирахон Абдумаликовна
Ташкентский финансовый институт, PhD. доц.

Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи
Ташкентский финансовый институт, ст. 3-курса

Аннотация: В условиях жесткой конкуренции методы управления представляют из себя необходимое условие достижения фирмой устойчивого и продолжительного делового успеха. Применение знаний и навыков в определении методов управления является одним из важнейших критериев эффективности предприятия. В статье изложено использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.

Ключевые слова: эффективность, производства, управление, метод, решение, персонал, влияющий фактор.

Annotatsiya: Qattiq raqobat sharoitida boshqaruv usullari kompaniya barqaror va uzoq muddatli biznes muvaffaqiyatiga erishish uchun zarur shartdir. Boshqaruv usullarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash korxona samaradorligining eng muhim mezonlaridan biridir. Maqolada korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun boshqaruv usullaridan foydalanish ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, ishlab chiqarish, boshqaruv, usul, yechim, kadrlar, ta’sir etuvchi omil.

Abstract: In conditions of fierce competition, management methods are a necessary condition for a company to achieve sustainable and long-term business success. The application of knowledge and skills in determining management methods is one of the most important criteria for the effectiveness of an enterprise. The article outlines the use of management methods to improve production efficiency in enterprises.

Key words: efficiency, production, management, method, solution, personnel, influencing factor.

ВВЕДЕНИЕ

Мы живем в такое время когда, конкурентные процессы находятся в активной стадии развития и это порождает условия возрастающего уровня конкуренции. В условиях жесткой конкуренции методы управления представляют из себя необходимое условие достижения фирмой устойчивого и продолжительного делового успеха. Применение знаний и навыков в определении методов управления является одним из важнейших критериев эффективности предприятия. Нынешние условия рынка требуют

от руководителей компаний и предприятий согласованности мер управления на абсолютно всех этапах и уровнях принятия управленческих решений, на эффективность реализации влияют конкурентные и стратегические позиции, занимаемыми вашими конкретным предприятием на рынке. Управление компанией подразумевает из себя постановку целей и задач для различных сторон и областей организации. Одной из главных задач менеджеров состоит в том, чтобы обеспечить достижение этих целей при имеющемся объеме ресурсов. Все эти цели будут либо достигнуты, либо не достигнуты, что потребует принятия соответствующих мер по исправлению положения. Также управление компаний включает в себя большое количество различных способов, подходов и приемов, которые позволяют создавать и эффективно распределить выполнение функций, процессов и мероприятий, которые обязательны при принятии решений.

Основной целью деятельности любой организации является получение прибыли. Но есть одно но, эффективная работа не возможна, если она не структурирована и не регулируется принципом ведения управленческой деятельности, в соответствии с которыми разрабатываются новые и современные методы управления. Использование методов управления упрощает и позволяет осуществлять управленческие функции, что буквально обогащает теорию и практику менеджмента.

КОММИНТАРИЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Многие зарубежные ученые изучали о использовании методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях. В частности, А. Файоль, Г. Эмерсон, Ф. Тейлор, Г. Форд. и другие учёные проводили научные исследования по этим вопросам. Среди ученых стран СНГ А. А. Радугин, Н. И. Кабушкин, М. И. Круглов, Л. Н. Павлова. О. Виханский, М. А. Эскиев и другие ученные исследовали научно-теоретические и практические основы методов управления.

МЕТОДОЛОГИЯ

Управлять необходимо любым предприятием, будь то большое или маленькое предприятие. Содержание управления меняется в зависимости от способа производства, уровня социально-экономических отношений, развития производительных сил. С развитием производства и усложнением экономических отношений усложняется и управление. При наличии разных форм собственности на средства производства возникает конкуренция между производителями, которая направлена на управление производством, увеличение прибыли.

Следовательно, управление производством предполагает управление внешними и внутренними факторами, непосредственно влияющими на производственный процесс. Это, управление персоналом, управление средствами производства, управление оборудованием и технологиями, управление эффективностью производства, управление качеством продукции, управление эффективностью инвестиций и инновация инновационного процесса. Управление указанными объектами начинается с первоначального планирования, продолжается организацией производства, его регулированием, координацией и заканчивается контролем. Здесь стимул находит свое отражение в процессе выполнения всех функций управления производством.

Ключевым инструментом механизма управления любым предприятием в рыночной экономике являются методы и модели управленческого взаимодействия на хозяйственную деятельность для создания экономических условий эффективной реализации предпринимательской деятельности, обеспечивающих получение устойчивой выгоды от осуществления этой деятельности.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Методы управления – это совокупность методов, с помощью которых субъект управления воздействует на объект управления с целью достижения определенных результатов. Через методы управления воздействуют на экономические процессы с целью достижения высоких результатов за счет рационального использования материальных, финансовых и трудовых ресурсов. В системе методов управления выделяют административный метод, экономический метод и социально-психологический метод.

Методы управления классифицируются по многочисленным критериям. Они формируют экономические и социальные интересы, отношения между людьми и их правовые отношения. Основное содержание управленческой деятельности реализуется методами управления.

Проблема эффективности производства и ее повышения всегда находилась в центре внимания как актуальная проблема науки. Экономическое содержание эффективности всегда есть соотношение между конечным результатом производства и затраченными на него ресурсами, средствами или затратами. Однако в условиях различных социально-экономических систем сущность проблемы эффектив-

ности будет меняться в зависимости от предназначения данного общества. В условиях рыночной экономики, поскольку основной целью производства является получение прибыли, каждый хозяйствующий субъект стремится к получению большей прибыли. На эффективность управления влияют различные факторы, среди них основными являются:

- средства производства, с помощью которых человек, коллектив, общество производит все необходимое для жизни, то есть усиливает умственные и физические способности человека;
- умственные и физические возможности человека, его способности осуществлять управленческую деятельность;
- социальные условия, которые способствуют раскрытию творческих способностей отдельного работника и коллектива в целом.

Под слабо регулируемыми чаще всего разумеют факторы, имеющие большую инертность, изменение которых за определенный период времени мало зависит от управленческих решений. На управление влияют особенности осуществляемых производственных задач, условия их реализации, способы и средства деятельности. К регулируемым относятся факторы, характеризующие качество управления персоналом, уровень организации производства и труда, степень применения ресурсов и др. Именно эта группа факторов и формирующих их отправные показатели необходима нам для дальнейшего исследования. Предложенная классификация показателей удобна для проведения исследования взаимосвязи эффективности управления персоналом и регулирующих факторов, так как позволяет решить одноименную проблему в различных аспектах (табл. 1).

Таблица 1: Факторы, влияющие на эффективность управления

Внешние факторы	Внутренние факторы
Активная политика конкурентов	Психологический климат в коллективе
Внезапные изменения в экономическом положении клиентов	Неравномерность, неритмичность поставок и перегрузки в работе
Экономические, политические кризисы, влияющие на эффективность работы предприятия	Прогулы работников, немотивированные пропуски и потери рабочего времени
Общественно значимые события	Болезни руководителей и сотрудников
Структурные изменения в обществе	Мероприятия, проводимые профсоюзным движением
Неблагоприятные погодные условия	Производственные конфликты
Положение на рынке труда: избыток специалистов, безработица, недостаточная квалификация работников	Увольнение или прием на работу новых сотрудников
Мероприятия правительства по регулированию социальных процессов за счет работодателей	Расширение или сокращение деятельности организации
Репрессивное и агрессивное к предпринимательству законодательство	Неисправности машин и оборудования, оргтехники, средств связи
Неожиданные изменения конъюнктуры на рынках энергоресурсов и сырья	Увольнение или прием на работу новых сотрудников
Изменения в соотношении политических сил, влияющих на промышленную политику государства	Факторы охраны имущества и безопасности труда
Новые технологии производства товаров и услуг	Социальные инициативы коллектива, изобретательство и рационализаторство
Требования профсоюзов к технике безопасности и условиям труда	Разработка стратегий управления, согласование с коллективом планов развития
Влияние средств массовой информации на формирование имиджа предприятия и его руководства	Административный контроль, система поощрения и взыскания
	Позитивная мотивация творческого и производительного труда сотрудников

По нашему мнению, на эффективность управления персоналом показывают влияние, прежде всего, компетенция работников и уровень их мотивации. При этом компетенция работников зависит от уровня их образования, опыта работы и личных способностей . Вряд ли можно отрицать, что вознаграждение или компенсация работникам является исключительно важным фактором, оказывающим влияние на эффективность управления персоналом. Исследования представляют, что на работе руководители применяют всего лишь от 20 до 25 % своих интеллектуальных возможностей, также существуют и другие проблемы – конфликты с вышестоящим руководством, отсутствие широкого простора для реализации возможностей, опасения того, что усилия не будут одобрены, отсутствие веры в возможность изменений.

Процесс повышения эффективности управления организацией состоит из ряда последовательных этапов:

Первый этап – изучение внешних факторов, влияющих на эффективность управления организацией.

Второй этап – определение и классификация необходимых знаний и навыков;

Третий этап – изучение требований к руководителю.

Четвертый этап – прогноз изменения требований к руководителю; на этом этапе нужно выяснить, какие новые факторы и требования появляются, какие из них пропадают.

Пятый этап – изучение и оценка руководителей. На этом этапе важно выяснить особенности управленческого поведения руководителей различных рангов, широту и уровень знаний и степень владения навыками руководства в тех пределах, которые предназначены для классификации необходимых знаний и навыков, их личные устремления и идеалы.

Шестой этап – установление областей наибольшего внимания в производстве и управлении, оценка их значимости, формирование системы мероприятий по их “разведке”. На этом этапе, как правило, определяется стоимость материальных затрат на преодоление обнаруженных недостатков, соотношение между потерями, которые несет предприятие от недостатков в ее деятельности и затратами на преодоление этих недостатков, определяется различие между желаемым и реальным в уровне знаний, владении навыками, в ценностной ориентации и чертах личности. Поэтому необходимо провести ранжирование выявленных “узких мест” с тем, чтобы отчетливо представлять, какие из них особенно мешают успеху и в каком направлении возможно совершенствование, способное привести к наибольшему результату, таким образом, содержание труда во многом определяет степень удовлетворенности человека своей работой и, как следствие этого, нередко представляется одним из ведущих факторов стабильности производственных коллективов. Для изучения функций организации с точки зрения их содержательности, творческой насыщенности, разнообразия решаемых задач предполагается, что носителем информации выступает работник, как участник управленческого и трудового процесса.

Материалы имеющихся исследований по внедрению методов в практику и их совершенствованию позволяют сделать вывод о том, что на этот процесс влияют многие факторы. Мы можем представить влияние основных факторов на применение и совершенствование методов деятельности в форме системы. В различных условиях на деятельность персонала влияет система взаимосвязанных и взаимозависимых факторов: человеческий фактор, информационный фактор, фактор средства труда, группа системных факторов.

Поскольку управление персоналом является важнейшим направлением в системе управления любой организации, становится более значимым, работа отдела персонала должна быть направлена на постоянное совершенствование системы методов управления персоналом. Нами выявлены недостатки в применении методов управления персоналом, в большинстве производственных предприятиях что требует разработки мероприятий по их устранению (таблица-2).

Таблица-2: Мероприятия по совершенствованию методов управления

Недостатки	Мероприятия по совершенствованию
Должностные инструкции работников являются типовыми, не конкретизированы, не отражают специфику деятельности отдельных работников	-провести анализ и конкретизировать должностные инструкции работников, внести необходимые корректировки; -утвердить изменения в должностных инструкциях; -ознакомить работников с изменениями в должностных инструкциях.
Экономические методы управления персоналом применяются не в полной мере	-проведение совещания по совершенствованию методов управления персоналом (цели совещания: организация внедрения мероприятий, согласование интересов сторон, снижение сопротивления изменениям, формирование структуры взаимодействия с руководителями структурных подразделений на период внедрения); -утверждение плана действий по совершенствованию методов управления персоналом; -информационное обеспечение внедрения мероприятий, рабочие совещания, групповая работа; -разработать проект изменений оплаты труда.
Социально- психологические методы управления персоналом по большей части не применяются	-расширение применения социально-психологических методов управления персоналом.

Руководящий состав цеха не проходит обучение, повышение квалификации по основам управления персоналом	-подготовка и утверждение графика обучения линейных руководителей социально- психологическим методам управления персоналом; -запланировать и организовать обучение персонала применению методов управления персоналом; -обучение линейных руководителей (курсы повышения квалификации, тренинги, деловые игры).
Не изучаются личностные характеристики работников и социально- психологический климат в коллективе	-запланировать и организовать обучение менеджера по персоналу цеха применению методов анализа личностных характеристик персонала, первоначально - при отборе, в дальнейшем - уже работающих сотрудников

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Основные преобразования должны быть сосредоточены в первую очередь на социально-психологических методах управления персоналом. Однако следует отметить, что эти методы являются наиболее тонким инструментом воздействия на социальные группы и личность конкретного сотрудника.

Приемы и методы социально-психологического воздействия определяются компетентностью и умением руководителей. Для повышения эффективности социально-психологических методов необходимы знания и навыки руководителей. Поэтому необходимо планировать и проводить тренинги для руководителей по использованию методов управления персоналом (методы обучения: повышение квалификации, обучение, плановые игры).

Все эти показатели социальной эффективности в конечном итоге окажут положительное влияние на эффективность сотрудников и деятельность организации в целом. В результате внедрения мероприятий будут устранены недостатки системы управления персоналом в части используемых методов, будет устранена диспропорция в применяемых группах методов управления персоналом; квалификация специалистов, ответственных за работу с персоналом, будет приведена в соответствие объему решаемых задач и позволит достигать уровня управления человеческими ресурсами, необходимого для развития предприятии.

Эффективность реализации разработанных мероприятий, направленных на совершенствование методов управления персоналом, очевидна, это позволит руководству предприятия рационализировать структуру управления и повысить эффективность использования кадровых ресурсов предприятия. Эффективность управления персоналом, наиболее полная реализация поставленных целей и задач во многом зависят от выбора вариантов построения системы управления персоналом предприятия, создания эффективного механизма его функционирования, выбора наиболее оптимальных технологий и методов работы с людьми, а также проектирования организационной структуры управления. Изучение применяемых методов управления персоналом в производственных предприятиях показало низкую эффективность существующих подходов. Предлагаемые мероприятия по совершенствованию методов управления персоналом позволят повысить работоспособность, путем синтеза множества факторов, влияющих на управляемый персонал.

Список используемых литератур:

1. Основы менеджмента: Учебное пособие для вузов/Науч. редактор А. А. Радугин. –М.: Центр, 2018. – 84 с
2. Кабушкин Н. И., Основы менеджмента: Учебное пособие, Минск 2005. – 243с.
3. Круглов М. И. Стратегическое управление компанией. Учебник для ВУЗов. –М.: Русская деловая литература, 2000. – 321 с.
4. Кабушкин Н. И., Основы менеджмента: Учебное пособие, Минск 2005. – 243с.
5. Павлова Л. Н. Финансовый менеджмент. Управление денежным оборотом предприятия - М. ЮНИТИ 2015. – 178 с.
6. Эскиев, М. А. Эффективность системы управления организацией. Основные факторы, влияющие на эффективность // Молодой ученый. – 2015. – № 23 (103). – С. 689-692.
7. Основы менеджмента: Учебное пособие для вузов/Науч. редактор А. А. Радугин. –М.: Центр, 2019. – 84 с.
8. Виханский О. С., Наумов А. Н. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс. – М.: Изд-во МГУ, 2012

KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Z. G. Allaberganov
Toshkent moliya instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy tanazzul holatlari va dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarga uchrayotgan bir davrda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan sanalmoqda. Korxonalar milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lganligi bois ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash mamlakatni barqaror rivojlantirish uchun asosiy omillardan sanaladi. Korxona qiymatini oshirishning eng muhim omillaridan biri korxonaning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish orqali uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdir. Moliyaviy barqarorlikni baholashda korxonalarning xususiyati inobatga olinadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonalarning moliyaviy barqarorligini to'liq baholashda bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, uni baholash ko'rsatkichlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, moliyaviy barqarorlik, modernizatsiya, sanoat, baholash, moliyaviy ko'rsatkichlar, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, o'z-o'zini moliyalashtirish.

Abstract: One of the important tasks in the global economy is to ensure the financial stability of enterprises operating in the country during an economic downturn. Since enterprises are an important component of the national economy, ensuring their sustainable development is one of the main factors for the sustainable development of the country. One of the most important factors in increasing the value of an enterprise is ensuring the financial stability of the enterprise through the effective use of its financial resources. When assessing financial stability, the characteristics of enterprises are taken into account. This, in turn, creates a number of difficulties in fully assessing the financial stability of enterprises. The article examines the scientific, theoretical and practical aspects of ensuring the sustainability of enterprises, and indicators for its assessment. Proposals were also developed to ensure the financial sustainability of enterprises.

Key words: enterprise, financial stability, modernization, industry, assessment, financial indicators, absolute and relative indicators, self-financing.

Аннотация: Обеспечение финансовой устойчивости предприятий, работающих в стране, считается одной из важных задач в период экономического спада в мировой экономике и структурных изменений в мировой экономике. Поскольку предприятия являются важной составляющей национальной экономики, обеспечение их устойчивого развития является одним из основных факторов устойчивого развития страны. Одним из важнейших факторов повышения стоимости предприятия является обеспечение его финансовой устойчивости за счет эффективного использования финансовых ресурсов предприятия. Характеристики предприятий учитываются при оценке финансовой устойчивости. Это, в свою очередь, создает ряд трудностей в полной оценке финансовой устойчивости предприятий. В статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты обеспечения финансовой устойчивости предприятий и показатели ее оценки. Также были разработаны предложения по обеспечению финансовой устойчивости предприятий.

Ключевые слова: предприятие, финансовая устойчивость, модернизация, промышленность, оценка, финансовые показатели, абсолютные и относительные показатели, самофинансирование.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda real sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarga qator iqtisodiy, moliyaviy imtiyoz va qulayliklar berilmoqda. Natijada, ushbu korxonalarning eksportdagi mavqe'i imkon darajasida saqlanib qolishiga muvaffaq bo'linib, moliyaviy barqarorligi ta'minlanishiga qulay shart-sharoit yaratilmoqda. Darxaqiqat, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va uning o'sish sur'ati real sektor korxonalari barqarorligiga, shu jumladan, moliyaviy barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xususan, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash va diversi-

fikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng ko‘lamda joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Natijada, sanoat tarmoqlarining nafaqat barqaror faoliyat yuritishiga, balki ularning yuqori sur’atlarda o‘sishini ta’minlashga erishilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 97,9 ming tani (2021-yilda 90,3 ming ta) tashkil etdi. Ushbu korxonalarda 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 551,1 trln so‘mni yoki o‘sish sur’ati 5,2 foizni tashkil etdi. Shundan, 197,2 trln so‘mlik hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 111,7 foizga ta’minlandi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining 22-maqsadida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” [2] vazifasi belgilangan. Mazkur maqsad ijrosini amalga oshirishda sanoat korxonalarining uzluksiz moliyaviy barqaror-ligini ta’minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda korxonalar moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning ichki va tashqi omillaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolarni yanada chuqurroq o‘rganish talab etiladi.

MATERIAL VA METOD

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha katta hajmdagi turli yondashuvlar mavjud. mahalliy va xorij iqtisodchi olimlari tomonidan o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunda ko‘pchilik tomondan uni hisoblashda turli matematik tengliklardan iborat bo‘lgan koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Mualliflar fikricha, koeffitsiyentlar aynan o‘rganilayotgan korxona moliyaviy barqarorligini tahlilini amalga oshirishda qo‘llaniladigan asosiy vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, MDH iqtisodchi olimi N. P. Lyubushin korxona moliyaviy barqarorligini baholashning quyidagi metodikasini taklif qiladi [3]:

- korxona aktivlarini shakllantirish manbalari va kapital tarkibini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda tahlil qilishning an’naviy yondashuvi;
- ishlab chiqarish omillaridan hisoblangan korxona resurslaridan foydalanish sifatiga e’tibor qaratiladigan resurs yondashuvi;
- korxona faoliyati doirasida resurslardan samarali foydalanishni hisobga olish zarurligini aks ettiruvchi va boshqaruv sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan resurslarni boshqarish yondashuvi;

Yana bir xorijlik iqtisodchi olimlari Y. A. Dolgix va Y. E. Slepuxinlar moliyaviy barqarorlik tahlili metodikasida ham bir qator ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Bunday yondashuvga ko‘ra, korxona moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar mutloq, nisbiy va uyg‘unlashgan jihatlariga bo‘linadi [4]. Yuqorida zikr etilgan korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashning bunday usullari real amaliy hayotda ko‘p qo‘llaniladi. Biroq, shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, mavjud usullar nihoyatda kamdan-kam holatlarda tashqi muhitning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir darajasini hisobga oladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan B. Hakimov va boshqalar tomonidan “Moliyaviy barqarorlik bu korxonalarning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi” deb ifodalaydi. Iqtisodiyotdagi subyektlar moliyaviy barqarorligi deganda ularning zaxiralar bilan ta’minlanganligi va xarajatlarni ta’minlashning shakllantirilganligi tushuniladi. Korxona moliyaviy barqarorligining eng asosiy xususiyati korxona mablag‘larini shakllantirish orqali o‘z-o‘zini moliyalashtirish evaziga taraqqiyotga erishish imkoniyati hisoblanadi [5].

NATIJALAR

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy jarayon tahlili quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- asosiy iqtisodiy xarajatlar va zaxiralarni shakllantirish manbalarining ta’minlanganligi;
- korxona moliyaviy manbalarining tarkibi va tuzilmasi hamda ularni joylashtirish usullari;
- korxona o‘z mablag‘larining sifati va barqarorligi;
- korxona zaxirasining moliyaviy mustahkamligi;
- moliyaviy barqarorlik nisbiy ko‘rsatkichlari;
- korxona iqtisodiy salohiyatidan foydalanish;
- korxonaning to‘lov qobiliyati [6].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, aynan o‘rganilayotgan mavzusi doirasida ya’ni moliyaviy barqarorlikni tahlili juda ko‘plab iqtisodiy adabiyotlarda o‘rganilgan. MDH iqtisodchi olimlaridan N. L. Donsova, G. V. Savisskaya, V. P. Zotov, M. I. Bakanov, A. D. Lyubushin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlik tahlili masalalari atroflicha o‘rganilgan. Masalan, G. V. Savisskaya moliyaviy barqarorlik – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanish imkoniyati, tashqi va ichki muhit ta’sirida o‘zgarib borayotgan o‘z aktiv va passivlarining muvozanatligini saqlashi hamda ma’lum bir xavf chegara darajasida investitsion jozibadorlik va to‘lovga qobiliyatlilikni kafolatlashidir. V. P. Zotov moliyaviy barqarorlik mazmuni bo‘yicha ancha aniq yondashadi, uning fikricha ishlab chiqarish salohiyati holati va yetarli darajada moliyaviy barqarorlik ta’minlanganligi hamda o‘z mablag‘lari hisobidan nazoratni o‘rnatilganligi va mustaqil baholashni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini baholashdir, deb ko‘rsatadi.

N. P. Lyubushin moliyaviy barqarorlikka o‘z mustaqil ta’rifini beradi. Uning yondashuvi bo‘yicha moliyaviy barqarorlik mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar tizimini ifodalaydi.

Materiallar aylanmasi narxining nisbati mablag‘lar (zahiralar va xarajatlar) va ularning o‘z va qarz manbalari qiymati shakllanishi moliyaviy barqarorlikni belgilaydi. Moliyaviy barqarorlik va uni amalga oshirishning turli tahlil usullarini taklif qilishadi [7].



1-rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning klassik usuli [8]

Analitik axborotlarning mavjudlik darajasiga qarab tahlil qilishdan oldin korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning maqsadiga ko‘ra chuqur o‘rganishni taqozo etadi. 1-rasmda keltirilgan korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning klassik usulidan tubdan farq qilgan holda korxona moliyaviy barqarorligini xarakterlab beruvchi koeffitsiyentlar va bir birini taqozo qiluvchi ko‘rsatkichlar guruhidan iborat bo‘lishi kerak [9].

Koeffitsiyentlarning o‘ziga kelsak, u holda afsuski, zamonaviy fanda quyidagi tendensiya mavjud: bir va o‘ndan ortiq ko‘rsatkichlar hamda ularni hisoblash usullari turli xil nomlar bilan talqin qilingan.



2-rasm: Korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning neoklassik chizmasi [10]

Ko‘pgina mualliflar bir qator me’yoriy qiymatlarni taklif qiladi ko‘pgina ko‘rsatkichlar barcha sohalar uchun bir xil, ammo aslida har bir sanoat ko‘rsatkichlarining maqbul qiymat qismlarining chegaralariga ega bo‘lishi kerak likvidlik, rentabellik, aylanma va h. k zamonaviy iqtisodiyotning voqeliklariga yordam beradi [11].

Umuman olganda sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi ko‘p jihatdan tarmoq yoki sohada amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlarining xususiyatiga, tashkil etilgan boshqaruv va uning tarkibiy tuzilmasiga bog‘liq. Shuning uchun mazkur nazariy qoidani e’tiborga olgan holda O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq turli tarmoq va soha xo‘jalik boshqaruv tuzilmalarini qayta tashqil etish orqali ular faoliyatini transformatsiya qilish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Natijada milliy iqtisodiyotni ustuvor sohalarini transformatsiyalash hamda soha va tarmoqlar tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari natijasida real sektorni katta talofatlarsiz o‘tish davridan olib chiqildi. Chunki, milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi bevosita transformatsiya jarayonlari va uning natijasiga bog‘liq bo‘ladi. Endilikda transformatsiyalash jarayonlarini tezlashuvi evaziga ishga tushirilayotgan kimyo sanoatidagi zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida yangi quvvatlarning yo‘lga qo‘yilishi raqobatbardosh kimyo mahsulotlari salmog‘ining respublikamiz yalpi ichki mahsulotida ko‘payishiga, ayni chog‘da, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yuksak natijalar qo‘lga kiritilishiga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun kimyo sanoati korxonalarida transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobatbardoshligini ta’minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishiga aylangan O‘zbekistonda milliy sanoat korxonalarini davlat tomonidan iqtisodiy va tashkiliy rag‘batlantirish siyosatining maqsad va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, avvalo, u yoki bu tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish salohiyati va asosiy mahsulotning raqobatbardoshlik darajasi hamda korxonalarning innovatsion salohiyati bilan belgilanadi.

Ustuvor tarmoqlarni transformatsiya qilish jarayonlari va unga ta'sir etuvchi omillarning mazmuni, mohiyati, o'zgarish xususiyatlari bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga, raqobatbardoshlik darajasiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxiga, mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, sanoatning lokomotivi bo'lgan sohalarida transformatsiya jarayonlarni boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy mohiyati, boshqaruvning samaradorligi, ishlab chiqarish faoliyatining natijadorligi, boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o'z navbatida ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi, uning tarkibi, holatini baholash bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarni ilmiy jihatdan shakllantirish, uslubiy jihatdan ochib berish va iqtisodiy jihatdan asoslash maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoatning ulushi 2000-yilda 14,2 foizdan 2015-yilda 24,3 foizga yetdi. 2017–2019-yillarda esa iqtisodiyot tarmoqlarida sanoatning ulushi ortib bordi. Jumladan, 2017 yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 22,2 % tashqil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yilda 26,5 %, 2019 kelib esa, 30,0 % tashkil etdi. Olib borilgan islohotlar natijasida 2021-yil yakunlariga ko'ra sanoat sohasida 451,6 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 8,7 foizga o'sgan. O'sish sur'atlari asosan tog'-kon sanoatida ko'mir qazib olish 16,0 foizga, tabiiy gaz va neft qazib olish 8,5 foizga, metall rudalar qazib olish esa 13,4 foizga o'sgan. Qayta ishlash sanoatida to'qimachilik mahsulotlari 19,1 foizga, kiyim ishlab chiqarish 8,7 foizga, farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari 48,9 foizga, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar 38,2 foizga, metallurgiya 8,1 foizga hamda boshqa transport uskunalarni ishlab chiqarish hajmi esa 23,1 foizga oshishganini ko'rishimiz mumkin (1-rasm) [13].

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Ko'rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9031,5	15283,8	29087,9	43438,9	33106,9	43872,2
Ishlab chiqaradigan sanoat	91483,0	120686,9	189642,6	254860,9	305928,6	378186,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	10522,6	11656,0	14518,5	22014,7	27375,3	30815,5
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	832,3	1189,3	2091,7	2221,2	2329,3	3182,0

Tahlillardan ko'rinadiki, 2021-yilda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishi natijasida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) hajmida eng katta ulush xizmatlar sohasiga tegishli bo'lib, bu ko'rsatkich 38,6 foizga, eng past ko'rsatkich qurilish ishlari sohasida bo'lib, bu ko'rsatkich 6,7 foizga to'g'ri kelgan. Sanoatning ulushi 2020-yildagi 27,5 foizdan 2021-yilda 27,8 foizga oshgan. Biroq, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi ko'rsatkich 27,1 foizdan 26,9 foizga qisqargan.



3-rasm: O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari, foizda [14]

Uning o‘ziga xos yana muhim bir jihati iqtisodiyotning agrar sektori bilan o‘zaro uzviy aloqada ekanligi bilan asoslanadi, chunki u qishloq xo‘jaligi uchun juda muhim bo‘lgan mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradi. Shuning uchun kimyo sanoatining rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida ustuvor umumdavlat vazifasidan biri sifatida qaralmoqda.

MUNOZARA

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarisiz ta’ssavur etib bo‘lmaydi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Negaki, iqtisodiyotning xavfsizligi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga doir qarorlarni qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tizimdagi har qanday o‘zgarish turli xavf-xatar va tahdidlar namoyon bo‘lishi bilan birgalikda kechadi. Iqtisodchi olimlarning turli tadqiqotlar o‘tkazish natijasida korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini turli ko‘rsatkichlari va uning miqdorini shakllantirish uchun zaruriy mezonlari shakllantirilgan. Xavfsizlik muammolarining dolzarbligiga qaramay, korxonalarning iqtisodiy-moliyaviy xavfsizligi va uni baholash ko‘rsatkichlari tizimi yetarlicha o‘rganilmaganligi hamda uning darajasini hozirgi zamon talablariga qanchalik darajada javob berish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda bunday baholashning umumee’tirof etilgan metodologiyasi mavjud emas. Ikkinchidan, korxona moliyaviy barqarorligiga albatta faoliyat olib borayotgan hududga, hududning shaffoflik darajasiga, salohiyatiga va u yerda yaratilgan shart sharoitlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, hududdagi infratuzilmalarning rivojlanish darajasi va davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘larga, investitsiyalarga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi va raqobat bozorining kuchayishi korxonalarga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda korxonaning moliyaviy holati, boshqaruv tamoyillari, mamlakatdagi iqtisodiy-siyosiy ahvol to‘g‘risidagi axborotlar investorlarning diqqat e’tiborida bo‘lib, shu omillar asosida xorij investitsiyalari mamlakat iqtisodiyotiga jalb etiladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- korxonada innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishiga erishishda moliyaviy resurslarni jalb etish (byudjet va byudjetdan tashqari bo‘lgan manbalar, venchur kapitali, tijorat banklari krediti hamda xalqaro kredit va texnik yordam hisobidan);
- innovatsion tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish evaziga davlatning eng muhim manfaatlarini ta’minlash, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sharoit yaratish;
- mamlakatda fan va fan sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish, intellektual faoliyatning boshqa turlari uchun kerak bo‘lgan kadrlar tayyorlash jarayonini isloh qilish, iqtisodiyotni yangi texnika va texnologiya bilan ta’minlash, uni intensiv rivojlantirish uchun kerak bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashning asosini yaratish;
- ishlab chiqarish bilan ta’lim tizimi integratsiyalashuvini ta’minlash;
- fan bilan shug‘ullanuvchilar mehnati qadrini oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishga jalb etish, ilmiy xodim va mutaxassislarni ijtimoiy himoyalash uchun sharoit yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post–1045 2022-yil yakuni bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumotlar.
2. https://lex. uz/docs/5841063 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son farmoni.
3. Любушин Н. П., Бабичева Н. Э., Галушкина И. А., Козлова Л. В. Анализ методов и моделей оценки финансовой устойчивости организаций // Экономический анализ: теория и практика – 2010 – № 1 (166) – С. 3–11.
4. Долгих Ю. А., Слепухин Ю. Э., Инновационный методический подход к оценке финансовой устойчивости предприятия // Инвестиционно-инновационная политика – 2018. – ноябрь-декабрь. – С. 33–40.
5. Бычкова С. М., Бадмаева Д. Г. Учетно-аналитические аспекты формирования и использования собственного капитала организации // Международный бухгалтерский учет. 2014. № 19. – С. 25–32.
6. Пашков Р., Юденков Ю. Альтернативы стратегии развития в кризис // Бухгалтерия и банки. 2015. № 12. С. 36 – 41.
7. Харитонов А. Л. Управленческие решения в финансовой сфере. – М.: Кноледж, 2015. – 255 с.
8. Muallif tomonidan o‘rganilgan manabalarga tayanilgan holda ishlab chiqildi.
9. Крашенинников Н. В. Стресс-тестирование финансовой устойчивости банка: методологические подходы // Управление в кредитной организации. 2013. № 4. – С. 27–37.
10. Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
11. Рясkова Н. Финансовые риски, их сущность и классификация // Российский бухгалтер. 2015. № 12. – С. 94–108.
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari.
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari.

DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING AHOLI BANDLIGIGA TA'SIRI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich
Toshkent moliya instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i. f. n., professor

Annotatsiya: Har qanday davlatning asosiy maqsadi aholi turmush farovonligini ta'minlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat. Lekin, bunga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, buning uchun davlat tomonidan oqilona iqtisodiy siyosat ishlab chiqish zarur qilib qo'yadi. Jamiyat iqtisodiy o'sishiga erishishda va aholi bandligini ta'minlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Chunki davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosati davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga va iqtisodiyotdagi muammolarni barataraf etishga qaratilgan bo'ladi. Uning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy sikl tebranishlarini va inflyatsiyani jilovlash hamda yuqori bandlik darajasiga erishish hisoblanadi. Maqolada davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy dastaklaridan oqilona foydalanish orqali aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy amaliy tahlil va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosati, bandlik, moliya, davlat byudjeti, davlat byudjeti xarajatlari, davlat byudjeti daromadlari, byudjet taqchilligi, iqtisodiy sikl, soliqlar, soliq imtiyozlari.

Abstract: Development helps to ensure the standard of living based on the main goal of any country. But it cannot be achiyeved on its own, for this it is necessary to get out of goverment aid by helping oneself. One of the topics that should be emphasized is the strong direction of the goverment fiscal (budget-tax) means in achiyeving the growth of public safety and ensuring safe employment. Focused on the production of educational activities and elimination of problems in the product from the relevant resources according to the modern (budget-tax) goverment standard. Its main objective is to curb inflationary fluctuations and achiyeve a high level of employment. The article presents scientific practices and conclusions aimed at ensuring the safe use of the support levers of the state fiscal (budget-tax) software.

Key words: Government fiscal (budget-tax) policy, employment, finance, state budget, state budget expenditures, state budget revenues, budget deficit, economic cycle, taxes, tax benefits.

Аннотация: Основной целью любой страны является достижение экономического развития путем обеспечения благосостояния населения. Но этого невозможно достичь само по себе, для этого необходимо разработать разумную экономическую политику государства. Одной из актуальных тем является исследование приоритетов государственной фискальной (бюджетно-налоговой) политики в достижении экономического роста общества и обеспечении занятости населения. Потому что государственная фискальная (бюджетно-налоговая) политика направлена на повышение экономической активности и устранение проблем в экономике за счет рационального использования государственных финансовых ресурсов. Его основная цель – сдерживание колебаний экономического цикла и инфляции, направленное на обеспечение устойчивого экономического роста и достижение высокого уровня занятости. В статье приведены научно-практический анализ и выводы, направленные на обеспечение занятости населения за счет рационального использования экономических рычагов государственной фискальной (бюджетно-налоговой) политики.

Ключевые слова: Государственная фискальная (бюджетно-налоговая) политика, занятость, финансы, государственный бюджет, расходы государственного бюджета, доходы государственного бюджета, дефицит бюджета, экономический цикл, налоги, налоговые льготы.

KIRISH

Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari tomonidan e'tirof etilishicha, dunyodagi vaziyat, iqlimning o'zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar 2023-yilda global iqtisodiy o'sishning sekinlashishini hamda aholining eng kam ish haqi va ijtimoiy himoyasi kafolatlanmagan mehnat sharoitlarini qabul qilishga majbur bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mavjud holat esa xalqaro mehnat tashkiloti eskpertlari yangi hisobotida, bu pandemiya tufayli allaqachon kuchaygan tengsizlikni yanada ortishiga sabab bo'ladi [1]. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining "Jahonda bandlik va ijtimoiy himoya istiqbollari: 2023-yilga mo'ljallangan tendensiyalar" nomli hisobotida, joriy yilda global bandlik o'sish darajasi 1,0 foizni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Dunyo

bo‘ylab ishsizlar soni ko‘rsatkichi esa 2023-yilda 208 millionga yetishi hamda global ishsizlik darajasi 5,8 foizga ortishi kutilmoqda. Bunday salbiy tendensiyaning kutilishi ko‘p jihatdan yuqori daromadli rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi taklifining qisqarishi bilan bevosita bog‘liq [2].

Ma’lumki, pandemiya tufayli iqtisodiy faollikni to‘xtashi, ko‘plab ish joylarining yopilishiga va aholi turmush sharoitining qiyinlashganligi aksariyat mehnat migrantlarining mamlakatimizga qaytib kelishi ishsizlar sonining ortishiga olib keladi. Aholi bandligining ta’minlamasligi o‘z navbatida ishsizlik darajasining o‘sishi va aholi daromadlarining pasayishiga olib keldi. Shu bois, davlat tomonidan faol tadbirkorlikni rag‘batlantirish, investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy siyosat olib borilmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni, “Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ–214-son qarori, “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgutdagi 450-son qarori, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi 450-son qarori, “Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PF–61-son Farmonlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Shuningdek, respublikada har yili aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha davlat byudjeti tomonidan mablag‘lar hamda hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan aholi bandligini ta’minlashga hissa qo‘shadigan tadbirkorlik sektori uchun turli soliq imtiyozlari berilmoqda. Ammo, hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o‘rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta’minlangan oilalar a’zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta’minlash, shuningdek tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalarida muammolar uchramoqda. Bu albatta davlat iqtisodiy siyosatlaridan bo‘lgan davlat fiskal siyosatini iqtisodiy faollikni oshirish omillaridan sanalgan aholi bandligini ta’minlashdagi mexanizmini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlarini oqilona taqsimlash va soliq stavkalarini hududlar rivojlanish darajasiga ko‘ra faollikka olib keluvchi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish hamda shu orqali aholi bandligini ta’minlash muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MATERIAL VA METOD

Ma’lumki, dunyodagi hali hanuz ro‘y berayotgan tahlikali xavf va ziddiyatli holatlar sharoitida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligi hamda turmush farovonligini ta’minlashga qaratilgan jihatlarini keng tadqiq etilgan. Ma’lumki, iqtisodiyot fan tarixida aksariyat iqtisodiy maktab namoyondalari tomonidan davlat g‘aznasi va soliqlar orqali aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan nazariy g‘oyalar shakllangan. Lekin, klassik iqtisodiy maktabiga muqobil ravishda angliyalik iqtisodchi olim J. M. Keyns o‘zining dunyoga mashhur bo‘lgan “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida zamonaviy bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qodir emas, barqaror iqtisodiy o‘sishni va aholi to‘liq bandligini ta’minlash uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarur, deb ko‘rsatadi. Davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan biri bu davlat daromadlari va xarajatlarini o‘zgartirish orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatadigan fiskal siyosatdir [3]. Shuningdek, u bozor iqtisodiyotining ikkita muhim muammolarini ya’ni daromadlarning adolatsiz taqsimlanishi va to‘liq bandlikni ta’minlashning imkoniyati yo‘qligini ko‘rsatadi. Jamiyat rivojlanishdan to‘xtamaydi, iqtisodiyot yangi o‘sish darajasiga o‘tadi, lekin mehnat bozori bilan bog‘liq muammolar dolzarbligini yo‘qotmaydi. Shunday ekan, bandlik sohasidagi davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ishchi kuchiga bo‘lgan talabni kengaytirish, bandlikka ko‘maklashish, mehnat bozori talablariga muvofiq mehnat resurslaridan samarali foydalanishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat [4].

Garvard iqtisodiyot maktabi vakili P. Samuelson fiskal siyosatni quyidagicha talqin qiladi, uning fikricha, fiskal siyosat davlat soliqqa tortish va davlat xarajatlarini o‘rnatish jarayonida iqtisodiyot sikl tebranishlarini yumshatishga hamda haddan tashqari yuqori inflyatsiya va deflyatsiyadan sur’atlaridan holi bo‘lgan yuqori bandlikka erishishiga yordam berishi kerak. Shuningdek, davlat xarajatlari va soliqlarga bog‘liq bo‘lgan fiskal siyosatning maqsadi pul kredit siyosati bilan uyg‘un holda iqtisodiyotda yuqori bandlikni hamda narxlarning inflyatsiyaga bog‘liq bo‘lmagan holat jarayonini ta’minlash asosiy maqsadidir [5].

Fiskal siyosatning mazmuniga bo‘lgan nazariy qarashlar ana’naviy keyinchalik qarashlarini MDH iqtisodchi olimlaridan T. A. Agapov, S. F. Sereginlar qo‘llab quvvatlashadi. Ular byudjet-soliq siyosati va fiskal siyosat hukumatning davlat byudjeti xarajatlari va soliqlarni o‘zgartirish orqali to‘liq bandlikni ta’minlash, to‘lov balansi muvozanatligiga erishish hamda inflyatsion bo‘lmagan yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar” deb tushunadilar [6].

Aholi bandligini ta’minlash har doim ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida bandlik masalasi global muammolardan biri ekanligini yana bir bor ko‘rsatdi va bu borada yanada ko‘proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

Iqtisodchi olimlarimizdan A. O‘lmasov va A. Vahobovlar fikricha “Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarni ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlaridir” [7]. A. G. Gryaznov bandlikni ish joy bilan ta’minlash va xo‘jalik faoliyatida ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar to‘plami deb ataydi. Uning fikricha, bandlik moddiy omillar ishlab chiqarishga taalluqli iqtisodiy faol aholini tasvirlaydi. Bandlikda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi hamda iste’mol qiluvchi kuchlari o‘zi namoyon qiladi. Chunki, undagi ishlab chiqarishning obyektiv sharoitiga munosabat, jami aholining takror ishlab chiqarish sharoiti hisoblanuvchi mehnatkashlar yashashlari uchun mablag‘lar olish vositasi bo‘lib xizmat qiladi [8].

Mazkur tadqiqotlarning natijalari, ulardagi ilmiy asoslangan takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalarga qo‘shilgan holda aytish joizki, aholini ish bilan bandligini ta’minlashda davlat fiskal siyosatining o‘rni hamda ta’siri masalasi tadqiq etish, shuningdek, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hisoblanadi.

NATIJALAR

Aksariyat ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda bandlik sohasidagi faol siyosat asosan to‘liq, samarali va erkin tanlov bandligiga erishish hisoblanadi. Shuningdek, bandlik sohasidagi siyosatda davlat iqtisodiy taraqqiyotiga bandlikka erishish va boshqa iqtisodiy ijtimoiy maqsadlarni ruyobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Bunga erishishda albatta real amaliyotdan kelib chiqib davlat manfaatlarini hisobga olgan holda va mamlakat milliy xususiyatlarini ham hisobga olishi zarur. Bunday harakatlar davlat, ish beruvchilar va ishga yollanayotganlar bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi mehnat bozorida hamkorlar o‘zaro munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishdan iborat.

Davlat aholining to‘liq, samarali va erkin tanlov asosidagi bandligini ta’minlashda quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- mehnat resurslarining faolligini oshirish, vaqtinchalik va mustaqil bandligini ta’minlash, mehnat ish faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa choralarni ko‘rish, ish o‘rinlarini saqlab qolish tizimini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishga yo‘naltirilgan soliq, investitsiya va moliya-kredit chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;
- fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat kafolati ostida bandlik sohasida huquqiy tartibga solish hamda bandlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish;
- ishsiz deb tan olingan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Bandlik siyosatida aholining mehnatga layoqatli va ishlashni xohlagan qismini ish bilan ta’minlash va shu orqali ularning iqtisodiy jihatdan ta’minlash imkoniyatini yaratishni ko‘zlaydi. Davlat mana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratish, mavjud ish o‘rinlaridan samarali foydalanib bandlikni oshirishga harakat qiladi. Yangi ish o‘rinlarini yaratgan korxonalarga soliqdan imtiyozlar yoki subsidiyalar beriladi. Shuningdek, yangi ish o‘rnini yaratib, uni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab, mehnat unumdorligini va shunga ko‘ra daromadlarini oshirishga erishishni rag‘batlantiradi. Bandlik muammosining keskinligiga qarab uni hal etishning u yoki bu yo‘liga ustuvorlik beriladi. O‘zbekistonda bandlik siyosatida yangi ish o‘rinlarini yaratishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish sohalari, dehqon va fermer xo‘jaliklarida ish o‘rinlarini yaratishga ustuvorlik beriladi. O‘zbekistonda maxsus bandlik fondi mablag‘lari hisobidan ish o‘rinlari yaratiladi, ishsizlarga nafaqa beriladi va ular yangi kasblarga o‘rgatiladi. Davlat hisobidan moliyalashtiriladigan fondlar mablag‘lari ham yangi ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltiriladi.

Milliy iqtisodiyotda davlat fiskal siyosatining tarkibiy qismlaridan sanalgan soliqlar quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi);
- iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish.

Fiskal siyosat oldiga qo‘yilgan maqsadidan kelib chiqib, uning iqisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlari ajratiladi. Iqtisodiy o‘sish maqsadlaridan kelib chiqilgan fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaIM real hajmini oshirishga qaratiladi. Bunda rag‘batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o‘sishi va soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi. Davlatning byudjet barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat iqtisodiy inqiroz yoki turg‘unlik davrida byudjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

Davlatning iqtisodiy faollikni cheklash siyosati real YaMM hajmining potensial darajasidan keskin farq qilishini kamaytirishga yo‘naltirilib, bu ayni vaqtda iqtisodiy o‘sish va uning tanazzuli davrlarida inflyatsiya va ishlab chiqarishdagi inqirozli jarayonlardan qochishga qaratiladi.

Iqtisodiyotning sikli rivojlanishini tartibga solish orqali makroiqtisodiy mauvozanatlikni ta'minlab borishga qaratilgan fiskal siyosat bir qator moliyaviy vosita va iqtisodiy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Qo'llaniladigan bu barcha moliyaviy vosita va dastaklar birgalikda tartibga solishning moliyaviy mexanizmini tashkil qiladi.

Davlatning fiskal siyosatiga, milliy xo'jalikda tashkil qilingan soliq tizimi javob berishi va u iqtisodiyotdagi ichki o'zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur. Respublikada davlatning fiskal siyosati: "... harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlagan holda Davlat, byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish"ga qaratilishi maqsadga muvofiq [9].



1-rasm: Davlat fiskal siyosatining iqtisodiy o'sish va bandlikka ta'siri [10]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000–2022-yillarda davlat sarf xarajatlari va daromadlarining o'zgarish tendensiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti xarajatlari va daromadlarining o'zgarishi real YaIMning o'sish sur'atlari bilan mutanosib ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2000-yilda davlat byudjeti daromadlari YaIMga nisbatan 28,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa, 22,7 foizga pasaygan. Xuddi shu tarzda davlat byudjeti xarajatlari 2000-yilda YaIMga nisbatan 29,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 26,6 foizga kamaygan. Mamlakatimizda real YaIMning o'sish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2000–2022-yillardagi eng past tendensiya 2000, 2020-yillarda kuzatilgan. 2020-yilda esa mazkur ko'rsatkich iqtisodiy pandemiya holatiga qaramasdan 1,6 foizga o'sishi ta'minlangan. Real YaIMning eng yuqori o'sish sur'atlari 2010, 2015 va 2016-yillarda kuzatilgan, bunda o'sish sur'ati o'rtacha 8,0 foizlik darajani tashkil etgan. Shunga mos ravishda davlat byudjeti daromadlari va davlat byudjeti xarajatlari esa YaIMga nisbatan qariyib 21,0 foizlik darajalarni tashkil etgan. Davlat byudjeti xarajatlari va daromadlarining o'zgarishining aholi bandligiga ta'siri tahlili 2 rasmda yanada yaqqolroq ko'ringan.



2-rasm: Davlat byujeti xarajatlari va daromadlarining bandlikka ta'siri [11]

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2000–2022-yillarda davlat byudjeti xarajatlari va daromadlari hamda aholi bandligiga ta’siri bir-biriga nisbatan mutanosib ravishda o‘zgargan. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari eng yuqori salmoqga ega bo‘lgan davr 2000-yilda kuzatilgan, ya’ni 28,5; 29,6 foizni tashkil etgan va shunga mos ravishda aholi bandlik darajasi esa 69,4 foizga yetgan. Qiziqarlisi yana shunday yuqori bandlik darajasi 2015–2017-yilda ham kuzatilgan. Aholi bandlik darajasining eng past salmoq darajasi 2020-yilda kuzatilgan. Albatta, bu pandemiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa-da 2019-yilga nisbatan 2,1 foizga kamaygan. Aholi bandlik darajasining 2019-yildagi salmoq ko‘rsatkichga nisbatan oladigan bo‘lsak, 2021–2022-yillarda ham mazkur ko‘rsatkich darajasiga yetmagan.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotini yanada mustahkamlashda hamda yuzaga chiqayotgan iqtisodiy muammolarni barataraf etishda samarali davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatini amalga oshirish bugungi kun talablaridan biri ekanligini yana bir bor real amaliy hayotning o‘zi tasdiqlamoqda. Ma’lumki, dunyo iqtisodiyotida global iqtisodiy o‘sish 2023-yilda 1,7 foizgacha sekinlashishi prognoz qilinmoqda, bu so‘nggi 30 yildagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, faqat 2009 va 2020-yillardagi global inqiroz davrida ortda qolmoqda. Ushbu pasayish qisman yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun monetar siyosatning qattiqlashishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu inflyatsiyaning o‘sishi, pul kursining keskinlashuvi yoki moliyaviy tartibsizliklar kabi salbiy zarbalar global iqtisodiyotni tanazzulga olib kelishi mumkin. Bunday global inqiroz va qarz inqirozi xavfini kamaytirish uchun shoshilinch choralar ko‘rish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, hukumatlar aholining zaif qatlamlariga yordam ko‘rsatilishini, inflyatsiya kutilmalari barqaror bo‘lishini va moliyaviy tizimlarning barqarorligini ta’minlashi kerak [12].



3-rasm: Dunyo bo‘yicha ishsizlik darajasining o‘sish tendensiyasi [13]

Dunyo mehnat bozoridagi vaziyatning bunday tarzda yomonlashuvining sabablari quyidagilardan iborat:

- davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar geosiyosiy keskinlikning kuchayishi;
- pandemiyadan so‘nggi iqtisodiy tiklanishning notekisligi;
- global ta’minotdagi muammolarning davom etayotganligi.

Ta’kidlash o‘rinliki, yuqorida keltirilgan omil sabablar uyg‘unlikda stagflyatsiya uchun shart-sharoit yaratdi, ya’ni bir vaqtning o‘zida inflyatsiya sur’atining o‘sishi va iqtisodiyotning sekinlashishi yuz beradi. Bunday vaziyat dunyo bo‘yicha 1970-yildan beri birinchi marta kuzatilmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlar faoliyati departamenti direktori Richard Samens “Global bandlik o‘sish darajasining sekinlashishi Covid–19 pandemiyasi davridagi yo‘qotilganlarni tiklanishini 2025-yilga qadar kutmaslikni anglatishini ta’kidladi”. Shuningdek, uning fikricha to‘lov qobiliyati, ekologik barqarorlik va aholi turmush farovonligiga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hamda o‘tgan inqirozlarni hal etishda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan ishlab chiqarish darajasi o‘sishini sekinlashishi juda katta tashvish uyg‘otadi [14].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish sohasidagi davlat fiskal siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko‘paytirish bo‘yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida takomillashtirilishi kerak. Buning uchun quyidagi tadbirlarni e’tiborga olish zarur deb o‘ylaymiz: davlat tomonidan iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag‘batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini ta'minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish zarur qilib qo'yadi. Shunga quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda, eng avvalo, hududlardagi ishsizlik darajasidan kelib chiqib davlat byudjeti mablag'larini samarali yo'naltirish hamda amalda uning bajarilishini qat'iy nazorat qilish lozim.
2. Respublikada mavjud yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish va unga qarshi kurashishda turli byurokratik yo'llar bilan emas, balki hududlar rivojlanish salohiyatiga ko'ra soliq imtiyozlarini qo'llash zarur.
3. Hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratgan yirik va kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini qo'llash borasida rivojlangan mamlakatlar amaliy tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.
4. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faollikni rag'batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://news. un. org/ru/story/2023/01/1436632 МОТ – о перспективах на 2023 год: людям придется соглашаться на худшие условия труда
2. https://www. ilo. org/moscow/news/WCMS_865541/lang--ru/index. htm. Экономический спад может вынудить работников соглашаться на менее качественные рабочие места.
3. Кейнс, Д. М. Общая теория занятости / Д. М. Кейнс ; пер. Т. А. Колосова, В. В. Качалин, А. Ф. Кандель. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – 13 с.
4. Лохтина Т. Н., Метелица В. И. Рынок труда и социально-экономические проблемы населения России // Вестник Евразийской науки, 2019. №1. URL: https://esj. today/PDF/29ECVN119. pdf.
5. Самуэльсон П. Экономика: пер. с англ. / П. Самуэльсон. – М., 1997. – С. 315–316.
6. Агапова, Т. А. Макроэкономика : учебник / Т. А. Агапова, С. Ф. Серёгина ; под ред. А. В. Сидоровича ; МГУ им. М. В. Ломоносова. 6-е изд., стер. М., 2004. С. 115.
7. Olmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. – 424 b.
8. Шуваева Е. В. Занятость как важнейший элемент трудовых отношений // Актуальные вопросы экономических наук : Материалы международ. науч. конф. – Уфа : Лето, 2011.
9. Mirziyoyev Sh. M. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari.
11. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma'lumotlari.
12. Второй год резкого замедления темпов роста. https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/global-economic-prospects.
13. https://www.inform.kz/ru/bezrabotnyh-v-mire-stanet-bol-she-na-3-mln-chelovek-v-2023-godu-mot_a4031860/ Безработных в мире станет больше на 3 млн человек в 2023 году – МОТ.
14. https://neg.by/novosti/otkrytj/mot-o-situatsii-na-globalnom-rynke-truda-v-2023-godu/ МОТ о ситуации на глобальном рынке труда в 2023 году.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIYOT TARMOQLARIGA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Axmedova Yulduz Sunatullayevna
Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyotni milliy iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish jarayoni hamda raqamli iqtisodiyotni mamlakatimizda rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, axborot kommunikatsiya sohasi va sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymati hamda aholining internet bilan ta’minlanganlik darajasi amaliy tahlillari keltirilgan. Shu bilan birga, mamlakatda raqamali iqtisodiyotni yanada samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiflar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyasi, axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayoni, internet, sanoat qo‘shilgan qiymati, telekommunikatsiya tarmoqlari.

Abstract: The article describes the process of applying the digital economy in sectors of the national economy and issues of development of the digital economy in our country. Practical analyzes are also presented on the reforms being implemented in our country, the gross added value of the information and communications sector and industry, and the level of public access to the Internet. At the same time, ways to increase the efficiency of the digital economy in the country are described.

Key words: digital economy, information technology, process of informatization and digitalization, Internet, added value of industry, telecommunications networks.

Аннотация: В статье описан процесс применения цифровой экономики в отраслях народного хозяйства и вопросы развития цифровой экономики в нашей стране. Также в этой связи представлены практические анализы реализуемых в нашей стране реформ, валовой добавленной стоимости информационно-коммуникационного сектора и промышленности, уровня доступа населения к Интернету. При этом описаны способы повышения эффективности цифровой экономики в стране.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационные технологии, процесс информатизации и цифровизации, Интернет, добавленная стоимость промышленности, сети телекоммуникаций.

KIRISH

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda sanoatlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli tugallanishi va innovatsion Sanoat 4,0 dasturiga o‘tishi iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bo‘yicha raqamli platforma orqali jadal sur’atlarda yangi innovatsion mahsulot va texnologiyalar, sun’iy intellekt, axborotlar asosida rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni dunyo iqtisodiyotining iqtisodiy o‘sishida hal qiluvchi omillaridan biri bo‘lib kelmoqda. Alohida raqamli texnologiyalarni joriy etishdan global va milliy iqtisodiyot doirasida raqamli ekotizimni qurishga o‘tish mavjud. Ushbu tendensiya barcha mamlakatlarda – davlat hokimiyati organlari, biznes, o‘quv muassasalari, sanoat korxonalari va moliyaviy institutlarning raqamlashtirish jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida samarali hamkorlik zarurligini aks ettiradi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF–6079-son Farmonini misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini raqamlashtirish bo‘yicha faol tadbirlarni boshlaganiga qaramay, mamlakatimiz hali ham raqamli transformatsiyalar bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan ancha orqada. Shu munosabatdan mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlariga barcha sohalariga raqamali texnolgiyalarning so‘nggi texnologiyalarini kiritish bevosita sohalarning jadal sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning tarmoq va sohalarda joriy etilishi korxonalar iqtisodiy faoliyatini qulay va kam sarf xarajatlar hisobiga amalga oshirilishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyot fenomenini tushunish, uning fundamental va amaliy asoslarini o‘rganish boshqaruv konsepsiyalari va qarorlarining asosini yaratishi mumkin, qolaversa, kelgusida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zaruriyatini tug‘diradi.

MATERIAL VA METOD

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, “raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1994-yilda Kanadalik olim D. Tapskott tomonidan “Elektron-raqamli iqtisod: tarmoq davrining yutuq va kamchiliklari” deb nomlangan asarida qo‘llagan va shu vaqtdan beri bu kitob bir necha bor qayta nashr etilgan. D. Tapskott o‘zining kitobida rivojlangan mamlakatlarning xususiyatlarini tavsiflab, obyektlarni ifodalashning raqamli shaklini, axborot texnologiyalarining biznesga, davlat boshqaruviga ta’sirini ta’kidlab, raqamli iqtisodiyotga quyidagi ta’rifni beradi – bu iqtisodiyotni ishlatishga asoslangan iqtisodiyot axborot-kompyuter texnologiyalaridir[1].

Raqamlashtirishning eng muhim oqibatlaridan biri sifatida D. Tapskott, Ronald Koas firmasining institutsional nazariyasiga murojaat qilib, tranzaksion xarajatlarni, birinchi navbatda, ma’lumot qidirish va shartnomalar tuzish xarajatlarini keskin kamaytirish imkoniyati haqida gapirdi. Uning asosiy xulosasi biznesni an’anaviydan onlayn firmalarga o‘tkazish to‘g‘ridan to‘g‘ri Kouza firma nazariyasidan kelib chiqadi[2].

M. L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta’riflagan. Manbalarda keltirilishicha “Raqamli iqtisodiyot” iqtisodiyotning bunday turi ma’lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi. Raqamli iqtisod – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, u yerda ma’lum bir kiber-jismoniy(kiberfizicheskaya) tizim paydo bo‘ladi[3].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan J. X. Kambarov, N. J. Maxmudovalar tadqiqotlarida “sanoat iqtisodiyoti telekommunikatsiya qoidalarini belgilashda, texnik standartlarni belgilashda tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab – quvvatlashda muhim rol o‘ynadi, bu esa o‘z navbatida innovatsion iqtisodiyotning yangi sektori-raqamli bozorni paydo bo‘lishiga yordam berdi”[4] deb ko‘rsatishadi. Shuningdek, yana bir mahalliy iqtisodchi olimalarimizdan N. Abdurashidova “raqamli iqtisodiyot iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan rivojlanadigan alohida tarmog‘i emas, aksincha, u biznes, savdo, logistika, ishlab chiqarishning sifat jihatidan yangi innovatsion modellarini yaratish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, aholi o‘rtasidagi muloqot shakli o‘zgartirish imkoniyati bo‘lib, unda davlat, iqtisodiyot va umuman jamiyat taraqqiyotining yangi tendensiyalarini belgilab beradi”[5], deb ko‘rsatadi.

NATIJALAR

So‘nggi yillar ichida O‘zbekiston axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida katta qadam tashlandi, bu iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va uning raqamli deb ataladigan salmog‘ini oshirishga imkon beradi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida quyidagi yo‘nalishlarda muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan edi:

- iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish sharoitida korxonalarning investitsion faolligini oshirishda moliya, bank va kredit tizimi barqarorligini ta’minlash masalalari;
- korxonalarda investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda soliqqqa tortishni soddalashtirish va soliq ma’muriyatchi-ligini takomillashtirish yo‘nalishlari;
- korxonalarning investitsion faolligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil hamda auditni takomillashtirish masalalari;
- erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etishda korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali shakli sifatida.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot nisbatan tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. 2020-yil oktyabr oyida hukumat raqamli infratuzilmani, elektron hukumatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, milliy IT sektorini yaratish va IT ta’limni kuchaytirish maqsadida “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini qabul qildi. Raqamlashtirishning asosiy natijalari: – mamlakat YaIMda axborot iqtisodiyoti va raqamli tijorat sektorining ulushi 2019-yildagi 1,8 foizdan 2021-yilda 2,6 foizga yoki 1,6 barobarga oshdi. 2022-yilda O‘zbekiston “Barqaror rivojlanish uchun innovatsion sharhlar” dasturi doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan mamlakatning innovatsion tizimiga ijobiy baho berildi [6] 6.

1 Tapscott, D. The Digital Economy: Promise and Peril In The Age of Networked Intelligence / D. Tapscott. – NY: McGraw-Hill, 1994. – 368 p.
2 Coase, R. The Nature of the Firm / R. Coase // Economica, New Se- ries. – 1937. Vol. 4. – No. 16. – P. 386–405.
3 Калужский М. Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М. Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 402 с.
4 Камбаров Ж. Х., Махмудова Н. Ж. Задачи управления рисками на предприятии // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. № 5. – С. 88–89.
5 https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/28_Abdurashidova. pdf. Avtomobil sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda benchmarkingdan foydalanish.
6 https://api.mf.uz/media/document_files/Ikkinchi_milliy. pdf O‘zbekistonning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida ixtiyoriy milliy hisoboti (ikkinchi). – Toshkent, 2023.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasida 2016–2022-yillarda axborot kommunikatsiya sohasi va sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymatining o‘sish sur’ati, mln. so‘m[7]

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston ushbu ko‘rsatkichlarning aksariyati bo‘yicha 2016-yildan buyon sezilarli yutuqlarga erishdi. Shunday qilib, “axborot-kommunikatsiya” sohasida xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 2016-yildan boshlab 2 baravarga oshib, 4,4 dan 9,4 trln. so‘mgacha, “axborot-kommunikatsiya” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi esa 2 baravarga o‘sib, 6,3 dan 12,9 trln. so‘mgacha oshdi. 2016–2022-yillar mobaynida “axborot-kommunikatsiya” faoliyat turi bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 4 baravarga ko‘payishi (1,2 trln. so‘mdan 4,8 trln. so‘mgacha), shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2,5 baravarga ko‘payishi (0,8 trln. so‘mdan 2,0 trln. so‘mgacha) AKT sohasining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Bugun hayotimizni internet tarmog‘isiz tasavvur qilish ancha murakkab.. Kundalik hayotimiz, ish faoliyatimiz, voqea-hodisalardan xabardor bo‘lish va boshqa ko‘plab masalalarda global tarmoqqa murojaat qilishdan boshqa iloji yo‘q. Bunda internetga ulanish birinchi masala bo‘lsa, uning tezligi yanada muhim ahamiyatga ega.



2-rasm: Aholining internet bilan ta’minlanganligi (100 ta doimiy aholiga)[8]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston–2030” Strategiyasi tasdiqlandi, unda kelgusi ikki yilda mamlakatimiz hududlari va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq loyhalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Yaqin kelajakda raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirish maqsadi qo‘yildi.

Keyingi ikki yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun qariyb 2,5 milliard dollar investitsiyani jalb qilish rejalashtirilgan.

7 O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari
8 O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari

MUNOZARA

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va rag‘batlantirish va (yoki) milliy iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlari va strategiyalari hozirgacha ishlab chiqilgan va dunyoning o‘nlab turli davlatlarida, shuningdek davlatlararo darajada amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiya sohasida dunyo yetakchilarining milliy dasturlarini ko‘rib chiqamiz: ba’zi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ushbu mamlakatlarning tajribasini O‘zbekiston Respublikasida tatbiq etish foydadan holi bo‘lmaydi.

Raqamlashtirishning kashfiyotchilaridan biri va “Industriya 4.0” konsepsiyasining bosh mafkurachisi Germaniya bo‘lib, 2011-yilda rasmiy ravishda shu nomdagi davlat strategiyasini (Industriya 4.0) taqdim etgan.

2022-yilgacha “Industry 4.0” dasturini amalga oshirish natijasida Germaniya mehnat unumdorligini o‘rtacha 18 foizga oshirishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, 2021-yilga kelib mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish darajasi 82 foizgacha ko‘tariladi (hozir 33 foiz). Raqamli ma’lumotlar va modellarga asoslangan qarorlarni qabul qilishni 2016-yilda 52 foizga nisbatan 2020-yilga qadar 90 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Germaniyada “Industry 4.0” loyihasini amalga oshirish uchun 2022-yilga qadar qariyb 900 milliard AQSh dollarga yaqin mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan. Raqamli texnologiyalar, sensorlar va aloqa moslamalari, dasturlar va ilovalar, ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, xodimlarni o‘qitish va boshqalarga investitsiyalar kiritilishi kerak[9].

“Industry 4.0” umumiy konsepsiyasidan tashqari, shunga o‘xshash profilning boshqa strategiyalari va tashabbuslari Germaniyada ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan, jumladan “Smart Networking Strategy”, shu asosda “Digital Agenda” dasturi joriy etilgan.

XULOSA

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, eng avvalo qator muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan hududlar iqtisodiy siyosatini takomillashtirish zarur. Hududlarda innovatsion faoliyatni amalga oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosibliklarni pasaytirish hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish kerak bo‘ladi. Bunda mazkur sohada quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish.
- jarayonlarni samarali boshqarish va o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun onlayn rejimda xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish uchun dasturiy ta’minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish va aloqa uchun aloqa tizimini yaratish kerak.
- raqamli iqtisodiyotning funksional xususiyatlar yillar davomida kengayib, kelajakda noaniqliq bilan bir qatorda yangi imkoniyatlarni paydo qiladi.
- iqtisodiyotni tezkor o‘sishini ta’minlashda g‘oyalar va startaplarga investitsiyalarni jalb qilish natijasida amalga oshadi.
- raqamli iqtisodiyotning xususiyatlarini aniq belgilash va kategoriyani shakllantirishda uning barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’riflash, raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushini to‘g‘ri hisoblashga fundamental asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tapscott, D. The Digital Economy: Promise and Peril In The Age of Networked Intelligence / D. Tapscott. – NY: McGraw-Hill, 1994. – 368 p.
2. Coase, R. The Nature of the Firm / R. Coase // Economica, New Se- ries. – 1937. Vol. 4. – No. 16. – P. 386–405.
3. Калужский М. Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М. Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 402 с.
4. Камбаров Ж. Х., Махмудова Н. Ж. Задачи управления рисками на предприятии // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. № 5. С. 88-89.
5. https://iqtisodiyot. tsue. uz/sites/default/files/maqolalar/28_Abdurashidova. pdf Avtomobil sanoatining raqobatbar-doshligini oshirishda benchmarkingdan foydalanish.
6. https://api. mf. uz/media/document_files/Ikkinchi_milliy. pdf O‘zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida ixtiyoriy milliy hisoboti (ikkinchi). Toshkent – 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari.
9. Шмелев, П. Цифровая трансформация: время первых Газпром нефть [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www. gazprom-neft. ru/press-center/sibneft-online/archive/2018-may/1589540/. –Дата доступа:

9 Shmelev, P. Sifrovaya transformatsiya: vremya pervix Gazprom neft [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: https://www. gazprom-neft. ru/press-center/sibneft-online/archive/2018-may/1589540/. –Data dostupa:

MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH USULLARI, BOSHQARUVDAGI YONDASHUVLARI

Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna
Oriental Universiteti “Iqtisodiyot va turizm” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy risklarni baholash va boshqarishning asosiy yondashuvlari o‘rganib chiqilgan. Moliyaviy risklarni baholash usullarining tavsifi keltiriladi. Moliyaviy risklarni boshqarish tamoyillari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, moliyaviy risk, moliyaviy risklarni boshqarish, moliyaviy risklarni baholash usullari, risk obekti, risk subyekti, kapital, iqtisodiy inqiroz, aktiv, passiv, diversifikatsiyalash, investitsion strategiya.

Abstract: This article examines the basic approaches to financial risk assessment and management. A description of the methods for assessing financial risks is presented. The principles of financial risk management are examined.

Key words: economy, financial risk, financial risk management, financial risk assessment methods, risk subject, capital, economic crisis, asset, passive, diversification, investment strategy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные подходы к оценке и управлению финансовыми рисками. Представлено описание методов оценки финансовых рисков. Рассматриваются принципы управления финансовыми рисками.

Ключевые слова: экономика, финансовый риск, управление финансовыми рисками, методы оценки финансовых рисков, субъект риска, капитал, экономический кризис, актив, пассивный, диверсификация, инвестиционная стратегия.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, iqtisodiyot tarmoqlari uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish jarayoniga tabiiy, texnogen va boshqa omillar ta’sirida vujudga keladigan risklar, asosan, moliyaviy risklarning ta’siri ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, dunyo sug‘urta bozorida “2020-yilda jami sug‘urta mukofotlari hajmi 6292,6 mlrd. dollarni, shu jumladan, hayot sug‘urtasidan boshqa sug‘urta tarmog‘i bo‘yicha 3376,3 mlrd. dollarni”[1] tashkil etgan bo‘lsa, “2021-yilda barchani tashvishga solgan COVID–19 pandemiyasidan sug‘urta sanoatining ko‘rgan zarari 20 mlrd. dollardan oshganligi oqibatida jami qoplama to‘lovlari hajmi 104 mlrd. dollar darajasida bo‘lishi prognoz qilinayotganligi”[2] risk omillarni baholash va ularni boshqarish uslublarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Iqtisodiyot rivojlanishida umumiy tendensiyalar kuzatilib, bozorlarning globallashuvi, raqobatning kuchayishi, hayotning barcha jabhalarida texnologik tizimlarning murakkablashuvi, mamlakatlarning turmush darajasi-

1 https: // www. unian. net/insurance/strahovshchiki-predstavili-otchet-o-globalnyh-riskah–2021-goda
2 ttps://yandex. ru/search/?text=Финансовые+Риски%3A+Методы+Оценки+И+Подходы+К+Управлению&clid=2411726&lr=10335 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

dagi tafovutning oshishiga bog‘liq ijtimoiy keskinlik o‘sishi bilan izohlanadigan noaniqliklarning o‘sishi bularning tavsifi sanaladi. Bunda ikkita “ziddiyatli” omil yuzaga keladi: bir tomondan bu sabablar noaniqlik darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan risklarni boshqarishning yangi imkoniyatlari paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi. Shunga bog‘liq ravishda tizimli yondashuv tamoyillarini yanada to‘liqroq qo‘llash asosida risklarni tahlil qilish va baholashga metodologik yondashuvlarni takomillashtirish muammosi hozirgi vaqtda eng dolzarb hisoblanadi. Iqtisodiyotning tegishli sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi boshqariladigan tizimni qurish uni hal qilish natijasidir.

Shuni ta’kidlash joizki, moliyaviy risklar – bu moliyaviy faoliyatni amalga oshirishda shart-sharoitlar noaniqligi holatida daromad va kapitalni yo‘qotish ko‘rinishidagi salbiy moliyaviy oqibatlarning yuzaga kelish ehtimoli [1]. Bizning fikrimizcha, ular boshqaruvda hisobga olishni talab qiladigan quyidagi tavsiyalarga ega:

- moliyaviy risk darajasi doimiy monitoring va tuzatishlarni talab qiladigan o‘zgaruvchan miqdor bo‘lganligi sababli monitoring zarurati;
- iqtisodiy faoliyat bilan nozik o‘zaro aloqa, chunki amaliyotda risk darajasi iqtisodiy zarar miqdori – tushum yoki foydaning bir qismini yo‘qotish, asosiy kapital, shuningdek, bankrotlik istiqboli bilan belgilanadi;
- formallashtirish imkoniyatlarining mavjudligi, chunki moliyaviy risk statistik modellar yordamida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan potensial zararning ehtimoli va hajmi bilan tavsiflanadi;
- formal va noformal yondashuvlarning birikmasi, chunki miqdoriy baholash ishonchli ma’lumotlar va samarali, ishonchli metodikalar (masalan, bozor yoki kredit risklari) mavjudligi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘z navbatida, belgilangan maqsadga erishish – moliyaviy riskning yakuniy natijaga ta’sirini minimallashtirish imkonini beruvchi samarali moliyaviy risklarni boshqarish faqat risk yetarlicha to‘liq va aniq baholangan holatda mumkin bo‘ladi. Tanlangan mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish, moliyaviy risklarni baholashning metodik masalalari R. Anderson, S. Veber, V. V. Vitlinskiy, V. M. Granaturov, J. Danielson, I. V. Zaytsev, A. B. Kaminskiy, F. Nayt, T. Fisher kabi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan degan xulosaga kelish imkonini berdi. Ular o‘z tadqiqotlarida ushbu jarayonni nazorat qilishni o‘rganishning asosiy mezonlarini aniqlab berdilar.

Moliyaviy risklar to‘g‘risida olingan bilimlarni umumlashtirgan holda xulosa qilishimiz mumkinki, ularni baholash risk darajasini uning maqbullik darajasi bilan taqqoslashdan iborat. Qabul qilinadigan risklar guruhiga kiritish mezoni sifatida har bir risk portfeli uchun individual bo‘lgan parametrlar tizimi xizmat qiladi. Risklarni baholash metodikasiga qo‘yiladigan asosiy talablar sifatida iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, miqdoriy va sifat xususiyatlarini taqqoslash, xulosalarning ishonchliligi va obyektivligi, nisbiy aniqlik namoyon bo‘ladi. O. V. Oleynikova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, hozirgi vaqtda ehtimoliy yo‘qotishlarni aniqlash bo‘yicha qaror qabul qilishning asosiy jihatlari risklarni boshqarishning quyidagi yondashuvlari bilan bog‘liq: faol, adaptiv va konservativ (passiv) [2]. Hozir ularning har birini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy risklarni baholash usullari va boshqaruv yondashuvlari bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganish va to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Aktiv boshqaruv risklarni minimallashtirish uchun mavjud ma’lumotlar va usullardan maksimal darajada foydalanishga asoslanadi. Bu metod boshqaruv ta’sirlari moliyaviy operatsiya natijasiga ta’sir qiluvchi risk omillari va hodisalarining oldini olishi kerakligini anglatadi. O‘z navbatida, asosiy xarajatlar risklarni prognozlash va baholash, shuningdek, doimiy nazorat va monitoringni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Moslashuvchan yondashuv “ikki yo‘nalishidagini birini tanlash”, boshqacha aytganda, allaqachon yuzaga kelgan vaziyatga “moslashtirish” tamoyiliga amal qiladi. Bunda boshqaruv ta’siri operatsiya jarayonida atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga reaksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur holatda, ehtimoliy yo‘qotishlarning faqat ma’lum bir qismi prognoz qilinadi va oldi oladi. Konservativ yondashuv to‘g‘ridan to‘g‘ri sodir bo‘lgan zarar bilan ishlaydi va uning keyingi voqealarga ta’sirini bartaraf etishga harakat qiladi. Konservativ yondashuv bilan bog‘liq risklarni bosh-

qarish xarajatlari minimal bo‘lishi mumkin, biroq ehtimoliy zarar miqdori borasida bunday deb bo‘lmaydi. Shu bois, konservativ yondashuv amalda kam qo‘llaniladi.



1-rasm: Moliyaviy risklarni boshqarishning asosiy tamoyillari[3]

Shuni ta’kidlash kerakki, risk bo‘yicha barcha ishlar risklarni boshqarish subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimida ko‘rib chiqilishi kerak. Boshqacha aytganda, boshqaruv tizimi – bu istalgan natijaga erishish uchun boshqaruv tizimining boshqariladigan tizimga ta’sir qilishning murakkab mexanizmi. Biz risklarni boshqarish tizim sifatida boshqaruv obyekti tomonidan ifodalanadigan boshqariladigan, boshqaruvchi va boshqaruv subyekti kabi ikkita quyi tizimdan iborat ekanligini ko‘ramiz. Boshqaruv obyekti deganda riskli kapital qo‘yilmalar, riskni amalga oshirish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Risklarni boshqarish tizimida menejment subyekti – bu maxsus odamlar guruhi (moliyaviy menejer, risk menejeri, rahbar). U boshqaruv obyektiga maqsadli ta’sir ko‘rsatadi.

Risklarni boshqarish tizimi qaror qabul qilish jarayonini o‘z ichiga olganligiga e’tibor qaratamiz. Biroq, uning funksiyalari bu bilan cheklanmaydi. Shuningdek, u riskli pozitsiyalarning kelgusi monitoringi bilan shug‘ullanadi, bo‘linmalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tartibini nazorat qiladi. Risklarni boshqarish tizimini tahlil qilish jarayonida tizimli yondashuv sifatida asosiy metodologik vositadan foydalanish tavsiya etiladi, bu esa yuzaga keladigan vaziyatlarni tashkilotning muhitini hisobga olgan holda turli tomonlardan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, hozirgi vaqtda korxonaning investitsion strategiyasi uzoq muddatli istiqbolda korxonalarning inqirozga chidamliligini tartibga soluvchi eng muhim omillardan biri sifatida birinchi o‘ringa chiqadi. Shu munosabat bilan resurs salohiyatini majburiy diversifikatsiyalash va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [3].

1-jadvalda biz moliyaviy risklarni boshqarish tamoyillarining har birini tavsiflaymiz [1, 3].

1-jadval: Moliyaviy risklarni boshqarish tamoyillarining tavsifi[4]

№	Boshqaruv tamoyili	Tavsifi
1.	Risklarni qabul qilish ongliligi	Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, qaror qabul qiluvchi shaxs ma’lum bir operatsiyadan foyda olishiga umid qilib, ongli ravishda tavakkal qilishi kerak. Ba’zi operatsiyalar jarayonida “riskdan qochish” usulini qo‘llash mumkin bo‘lsa-da, uni tashkilotning iqtisodiy faoliyatidan to‘liq chiqarib tashlash mumkin bo‘lmaydi, chunki moliyaviy risk korxonaning ko‘plab xo‘jalik operatsiyalariga ta’sir qiluvchi obyektivlikdir.

3 ttps://yandex. ru/search/?text=Финансовые+Риски%3A+Методы+Оценки+И+Подходы+К+Управлению&Clid=2411726&Lr=10335 маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

4 ttps://yandex. ru/search/?text=Финансовые+Риски%3A+Методы+Оценки+И+Подходы+К+Управлению&Clid=2411726&Lr=10335 маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

2.	Qabul qilingan risklarning boshqariluvchanligi	Moliyaviy risklar portfeli obyektiv yoki subyektiv xususiyatidan qat'i nazar, boshqaruv jarayonida bartaraf etilishi ehtimoliy risklardan iborat bo'lishi kerak. Zararsizlantirish mumkin bo'lmagan risklarni e'tiborsiz qoldirish yoki tashqi sug'urtalovchiga yoki biznes bo'yicha hamkorlarga o'tkazish mumkin. Ushbu tamoyilning yaqqolligini hisobga olmagan holda, ko'plab menejerlar riskning "noprofil" turlarini boshqarish uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar. Natijada, ular mijozlar, investorlar va xodimlar oldida ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazadigan ko'plab muammolarga duch kelishadi. Oqibatda, mavjud vaziyat katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.
3.	Qabul qilingan risklar darajasining o'tkazilgan operatsiyalar daromadligi darajasi bilan solishtiruvchanligi Daraja rentabellik olingan bilan risklar	Bu tamoyil moliyaviy menejmentda asosiy hisoblanadi. Bu korxona faqat o'tkazilayotgan moliyaviy operatsiya natijasida qoplanadigan risklarni o'z zimmasiga olishi kerakligini anglatadi.
4.	Qabul qilingan risklar darajasining ehtimoliy yo'qotishlar bilan solishtiruvchanligi	Ushbu tamoyilni amalga oshirish korxonaning muayyan xo'jalik operatsiyasi natijasida ko'rgan zararlarini qoplash uchun zarur bo'lgan zaxirani yaratishdan iborat. Aks holda, risk hodisalarining boshlanishi aktivlarning ma'lum bir qismining yo'qolishiga olib kelishi mumkin, korxonaning butun faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin, bu uning foyda olish potensialini va keyingi rivojlanish sur'atini pasaytiradi.
5.	Risklarni boshqarishda vaqt omilini hisobga olish	Risklarni aniqlashda vaqt omili ham muhim o'rin tutadi. Moliyaviy operatsiya qancha uzoq davom etsa, korxona shunchalik ko'p risklarga duch kelishi mumkin
6.	Risklarni boshqarish tizimida korxona strategiyasini hisobga olish	Risklarni boshqarish tizimini qurish korxonaning umumiy strategiyasiga mos keladigan umumiy tamoyillar, mezonlar va yondashuvlar asosida amalga oshirilishi kerak. Unga asoslanib, boshqaruvchilar o'z kuchlarini maksimal foyda keltiradigan risk turlariga qaratadilar, qabul qilinishi ehtimoliy risklarning ruxsat etilgan maksimal miqdorini aniqlaydilar va ularni boshqarish uchun zarur resurslarni ajratadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, risklarni boshqarish tizimi ko'rib chiqilgan tamoyillarga asoslangan o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador elementlar tizimidir. Ushbu tizim risklarni boshqarish siyosatini shakllantirish uchun asos bo'lib, ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Баутин В. М. Диверсификация в системе устойчивого развития предпринимательских структур АПК// Синергия. 2015. № 1. – С. 60–65.
2. Красносельских И. М. Основные проблемы экономической безопасности в РФ // Успехи современной науки. 2016. Т. 2. № 4. – С. 7982.
3. Лыкова А. И., Батищев А. В. Развитие концепции управления бизнес-процессами организации: от классического подхода к BPM- системам // Синергия. 2015. № 1. – С. 48–54.
4. Овсянников С. В., Давыдова Е. Ю. Инвестиционная стратегия. - Воронеж: ВЭПИ, 2014. – С. 141.
5. Романова И. Б., Ермишина О. Ф., Сажина С. С., Иванчук А. В. Внутренний аудит и внутренний контроль в системе экономической безопасности хозяйствующего субъекта: от теории к практике // Успехи современной науки и образования. 2019. Т 2. № 4. – С. 64–66

SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda biznes jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish yoritilgan. Biznes jarayonlarini boshqarish bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o‘rganilgan. Shuningdek, milliy sug‘urta bozorining hozirgi holati, bozorning rivojlanganlik darajasini belgilovchi muhim statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilingan, mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha xorijiy mamlakatlar sug‘urta bozorlari bilan taqqoslangan va shu asosda xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: tavakkalchilik, biznes jarayoni, sug‘urta, sug‘urta mukofoti, sug‘urta qoplamasi, moliyaviy barqarorlik.

MANAGEMENT OF BUSINESS PROCESSES IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES

Abstract: This article describes the proper organization and management of business processes in increasing the financial stability of insurance companies. The works of scientists who conducted research on business process management were studied. Also, the current state of the national insurance market was analyzed on the basis of important statistical indicators that determine the level of development of the market, compared with the insurance markets of foreign countries according to these indicators, and conclusions were made on this basis.

Key words: risk, business process, insurance, insurance premium, insurance coverage, financial stability.

УПРАВЛЕНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ

Аннотация: В данной статье описывается правильная организация и управление бизнес-процессами в целях повышения финансовой устойчивости страховых компаний. Изучены работы ученых, проводивших исследования по управлению бизнес-процессами. Также было проанализировано современное состояние национального страхового рынка на основе важных статистических показателей, определяющих уровень развития рынка, по сравнению со страховыми рынками зарубежных стран по этим показателям и на этой основе сделаны выводы.

Ключевые слова: риск, бизнес-процесс, страхование, страховая премия, страховое покрытие, финансовая устойчивость.

KIRISH

Sug‘urta mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo‘g‘inidir, u tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, ishlab chiqarish jarayonidagi risklar va mulkiy yo‘qotishlar riski yuqori bo‘lgan boshqa kutilmagan hodisalarga bog‘liq ravishda ijtimoiy takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlashga qodir, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlaydigan, iqtisodiyotda investitsion jarayonni barqarorlashtiradigan vosita hisoblanadi.

Mamlakatimizda sug‘urta bozori jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda va ko‘plab mamlakatlarning o‘sish ko‘rsatkichlarini ortda qoldirmoqda. Ammo mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning rolini oshirish hamon yechilmagan vazifa bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida (2020): “Zamonaviy sug‘urta xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi”, – deya e’tirof etildi. Bu esa, albatta, O‘zbekiston sug‘urta tizimini yangi, zamonaviylashgan va jahon standarlariga mos qilib rivojlantirishni, yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini jorish etishni talab qiladi. Sug‘urta kompaniyasi tomonidan innovatsion sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish orqali kompaniya ichki va tashqi sug‘urta bozorida raqobatbardoshligi ta’minlanadi. Shu bilan birgalikda, innovatsion texnologiyalarning sug‘urta kompaniyasiga kirib kelishi kompaniyaning tashkiliy-boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion sug‘urta biznesini tashkil etishning yangi usullarini qo‘llash bilan bevosita bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari xorijlik olimlar A. Kosenko, R. Brown, D. Cummins, S. Harrigton, M. Hammer, J. Champy, W. Deming, T. Davenport, N. P. Nikolenko, L. M. Rabiner, T. V. Kugusheva va boshqalarning ilmiy ishlarida sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarini takomillashtirishning ayrim yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Dunyo olimlarining biznes jarayoniga oid qarashlari xilma-xilligi nuqtayi nazaridan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan biznes jarayonlari tashkilot faoliyatining uzviy bir bo‘g‘ini sifatida amalga oshirilgan mantiqiy o‘zaro bog‘liq harakatlar to‘plami sanalishiga ko‘ra, uning tizimdagi oqimi murakkab va o‘zgaruvchandir.

1-jadval: Dunyo olimlarining biznes jarayoniga oid qarashlari

Mualliflar	Konsepsiya tarkibi
E. Deming	Tashkilotdagi har qanday faoliyat (operatsiyalar) biznes jarayonlarining bir bo‘g‘inidir.
M. Porter	Ishlab chiqarilayotgan xizmat/mahsulot tannarxi oshib boradigan subyekt (kirish va chiqish punktlari, interfeyslar va tashkiliy qurilmalar, shu jumladan, qisman xizmatlar/mahsulotlar iste’molchisining qurilmalari) biznes jarayonini tashkil etadi.
D. E. Shot	Ishbilarmonlik faoliyatining ma’lum bir natijasiga erishish uchun amalga oshirilgan mantiqiy o‘zaro bog‘liq harakatlar to‘plami sanaladi.
M. Xammer	Bir yoki bir nechta turdagi resurslardan “kirish paytida” foydalaniladigan turli xil faoliyat turlari to‘plami va ushbu faoliyat natijasida “chiqishda” iste’molchi uchun qiymatga ega bo‘lgan mahsulotdir.
T. Davenport	Muayyan iste’molchi yoki bozor uchun ma’lum bir xizmat (mahsulot) ishlab chiqarishga mo‘ljallab tuzilgan cheklangan harakatlar to‘plami. Yoki: kirish va chiqishning aniq ta’rifini, boshini va oxirini ko‘rsatadigan vaqt va makondagi topshiriqlar yoki muayyan bir mijoz yoki bozor uchun ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan, tuzilgan, o‘lchanadigan tadbirlar to‘plamidir.
E. Oyxman	Bir yoki bir nechta ma’lumotlardan boshlanib, mijozga xarajat, chidamlilik, xizmat ko‘rsatish va sifat jihatidan uni talab qiladigan va qondiradigan mahsulotlarni yaratish bilan yakunlanadigan faoliyatning ichki bosqichlari (turlari) to‘plami yoki mijozning biznesni boshlashi, boshqarishi va tugashini tavsiflovchi tizimdagi voqealar to‘liq oqimi sanaladi.
E. Zinder	Korxonaning resurslarini yaqin kelajakda yoki o‘lchanadigan darajada yaratish yoki olish uchun foydalanadigan o‘zaro bog‘liq faoliyatning mantiqiy ketma-ketligi hisoblanadi.
N. Abdikeev	Bu operatsiyalar tizimi sanaladi. Uning maqsadi tizimga kiritilgan operatsiyalarga xizmatlar ko‘rsatish/tovarlar ishlab chiqarish va yetkazib berish hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari – T. Iminov, M. Mirsodiqov, X. Sobirov, X. Shennayev, T. Baymuratov, A. Nurullayev, I. Abduraxmonov, U. Imomov, I. Kenjayev, S. Sherov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari bo‘yicha ishlab chiqilgan va chop etilgan ilmiy ishlanmalarda sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarining ayrim nazariy – amaliy jihatlari, xususan, mazkur faoliyatda biznes jarayonlarining mohiyati va ularni samarali boshqarish omillari yaxlit tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarini chuqur tadqiq etish dolzarbligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida guruhlash, qiyoslash, taqqoslash, sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlari (PQ–5265, 2021):

a) sug‘urta xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- hayotni sug‘urta qilish tarmog‘iga: majburiyatlarni ta’minlash uchun hayotni sug‘urtalash, uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug‘urtasi, kapitalni qaytarish bilan hayotni sug‘urtalash;
- umumiy sug‘urta tarmog‘iga: tibbiy sug‘urta kabi yangi sug‘urta xizmatlarini qo‘shish orqali uni kengaytirish.

b) sug‘urtaning barcha tur(klass)larini elektron shaklda sotish va rasmiylashtirish qoidalarini, shuningdek, ularning haqiqiyligini tekshirish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan raqamli sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish;

d) jamiyatda sug‘urta madaniyatini va aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish borasida sug‘urta bozorining asosiy mexanizmiga aylanmoqda.

Biznes jarayonlari orqali sug‘urta tashkiloti obyektlarni sug‘urtalash, mijozlar bilan samarali munosabatlarni amalga oshirishadi. Sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlari o‘zgaruvchan bo‘lib, raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida doimo takomiltalab hisoblanadi.

Sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilishi va sug‘urta foliyati samarali tashkil etilishida biznes jarayonlari ma’lum bir komponentlardan tashkil topadi.



1-rasm: Sug‘urta foliyati samarali tashkil etilishida biznes jarayonlarining komponentlari (Abduraxmonov, 2021)

Biznes jarayonlari sug‘urta xizmatini ko‘rsatishning ishonchliligi va muqobilligi, moliyaviy resurslardan foydalanishning optimalligi, sug‘urta himoyasi sug‘urta to‘loviga mutanosibligi va professional sug‘urta xizmatini ko‘rsatish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Sug‘urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakatimiz moliya bozorida bu xizmatlarning o‘rni hozircha yetarli emas. Jumladan, bugungi kunda sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofoti o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar oshgan bo‘lsa-da, sug‘urta tushumi aholi jon boshiga 50 ming so‘mdan to‘g‘ri kelgan.

Ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etmoqda. Qiyos uchun, bu ko‘rsatkich Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz, Rossiyada 1,5 foizni tashkil etadi.

Buning asosiy sabablaridan biri – sug‘urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emasligi. Misol uchun, o‘tgan olti oyda umumiy sug‘urta tarmog‘ida 887 milliard so‘m sug‘urta mukofoti yig‘ilgan bo‘lsa-da, ushbu davrda mijozlarga to‘langan sug‘urta qoplamasining hajmi mukofotning atigi 11 foiziga to‘g‘ri kelgan. Dunyoda esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 50–60 foizdir.

Sug‘urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyasining o‘z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg‘or sug‘urta kompaniyalarining tajribalarini o‘rganish va o‘z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta’minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsiya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug‘urtalanuvchilarni ko‘proq jalb qilish va mavjud sug‘urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko‘rinishdagi qo‘shimcha xizmatlar va bonuslarni qo‘llashga, sug‘urtalanuvchi manfaatlarini ko‘proq e’tiborga oluvchi sug‘urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashga majbur qiladi (Khaliqulova, 2020). Shunday harakatlarni o‘zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug‘urta kompaniyalarining milliy bozorda ko‘payishi oxir oqibatda sug‘urtalanuvchilar sonining ko‘payishi, to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchning ortishiga olib keladi.

Bugungi kunda kompaniya biznes jarayonlarining samarali qurilishi bozorda uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Sug‘urta kompaniyaning asosiy biznes jarayonlari quyidagilardan iborat:



2-rasm: Sug‘urta kompaniyalarining biznes jarayonlari (Abduraxmonov, 2021)

Sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarining asosiy maqsadi xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish evaziga uning qamrovini oshirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta xizmatlari bozorini chuqurlashtirish, rivojlantirish va isloh qilishga oid chora-tadbirlar yuzasidan qabul qilgan qarorlari natijasida 2022-yilga kelib 41 ta tashkilot, jumladan, 8 tasi hayotni sug‘urtalash, 33 tasi umumiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanib kelmoqda. Jumladan, sug‘urta bozorida 7 sug‘urta brokeri, 5 ta aktuariy tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (imda. uz)

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Sug‘urta tashkilotlari soni, jami	30	36	40	42	41
shu jumladan:					
Umumiy sug‘urta tashkilotlari	24	29	32	34	33
Hayot sug‘urta tashkilotlari	6	7	8	8	8
Ixtisoslashtirilgan brokerlar	5	6	6	5	7
Aktuar tashkilotlar	4	4	5	5	5
Sug‘urta mukofotlari (mlrd, so‘mda)	1635,2	2313	2212	3733	6200
Sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi, %	0,38	0,44	0,37	0,51	0,69
Sug‘urta to‘lovlari (mlrd, so‘mda)	460,8	813,5	732	1235	2600

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4412-son qarori sug‘urta sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qaror bilan sug‘urta bozorini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. 2019–2022-yillarda O‘zbekiston respublikasi sug‘urta bozorini jadal rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilab berildi.

Sug‘urta faoliyatida biznes jarayonlarining samarasi sifatida mamlakatimizning sug‘urta xizmatlari bozorida nisbatan barqaror faoliyat yuritgan sug‘urta tashkilotlari bo‘yicha undirilgan sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmidagi ulush ko‘rsatkichlari dinamikasi ishlab chiqildi va tahlil etildi (3-jadval).

3-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta mukofotlari to‘g‘risida ma’lumot (imda. uz)

Sug‘urta kompaniyalari	Sug‘urta mukofotlari, mln. so‘m		
	2020	2021	2022
“Apex insurance” AJ	120 337	229 112	782 518
“O‘zbekinvest” EISK AJ	262 869	385 385	930 534
“O‘zagrosug‘urta” AJ	178 203	260 975	323 286
“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ	149 363	223 071	315 509
“Gross sug‘urta kompaniyasi” AJ	251 773	343 817	296 858
“Alfa invest sug‘urta kompaniyasi” AJ	97 295	156 314	301 867
Boshqa sug‘urta kompaniyalari	819 506	1 397 032	1 721 698
Jami:	1 879 346	2 995 707	4 672 270

Sug‘urta xizmatlari bozorida sug‘urta mukofotlari hajmi bo‘yicha keltirilgan yetakchi sug‘urta tashkilotlarining ulush o‘zgarishlari dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2020–2022-yillar davomida “Apex insurance” AJda 2020-yilda sug‘urta mukofotlari hajmi 120 337 mln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 782 518 mln. so‘mgacha, ya’ni 5 barobardan ortiq summaga o‘sgan. “O‘zbekinvest” AJ sug‘urta kompaniyasida ham sug‘urta mukofotlari hajmi 2020-yilda 262 869 mln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 930 534 mln. so‘mga, 3,5 barobardan ortishi hisobiga mazkur sug‘urta tashkilotlarida barqaror o‘sish kuzatilgan.

Sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta sohasida jami sug‘urta mukofotlari hajmi ham 2022-yilda 4 672 270 mln. so‘mga sezilarli ravishda oshganligini tahlil qilishimiz mumkin. Bu esa sug‘urta bozorini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z natijasini berayotganligidan dalolat beradi.

4-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozorida hayot sug‘urta sohasida sug‘urta mukofotlari to‘g‘risida ma’lumot (imda. uz)

Sug‘urta kompaniyalari	Sug‘urta mukofotlari, mln. so‘m		
	2020	2021	2022
“New life sug‘urta kompaniyasi” AJ	88 861	274 848	720 759
“Alfa life insurance” AJ	38 012	54 121	170 383
“Agros hayot sug‘urta kompaniyasi” AJ	48 214	136 868	169 492
“Kafolat hayot insurance” AJ	18 399	65 737	146 516
“Euroasia life insurance” AJ	25 039	54 545	133 453
“O‘zbekinvest hayot sug‘urta kompaniyasi” AJ	86 758	80 754	101 577
“Apex life insurance” AJ	6 780	55 027	100 708
“Farovon sug‘urta” AJ	5 897	14 417	16 567
Jami:	317 959	736 317	1 559 455

Shuningdek, sug‘urta bozorida hayot sug‘urta sohasida ham bugungi kunda 8 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat ko‘rsatmoqda va ular ham sug‘urta bozorida o‘zlarining faoliyati bilan bozor rivoji uchun o‘z hissalarini qo‘shishmoqda.

Sug‘urta tashkilotlari samarali natijaga erishayotganliklari bilan izohlansada, boshqa jihatdan, ular tomonidan faoliyat samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish, shu jumladan, o‘z biznes jarayonlarini takomillashtirishlari zarurligini ko‘rsatmoqda.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib, mamlakatlar o‘rtasida savdo, turizm va boshqa sohalarda o‘zaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sug‘urta xizmatlari tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Ushbu tadqiqot sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish masalasi sug‘urta sohasining kengayishida, sug‘urtalanuvchilarning sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchining ortishida va o‘z o‘rnida sug‘urta xizmatlari bahosining pasayishi hamda sifatining ortishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishini asoslash, shu maqsadda sog‘lom raqobat muhitini yaratish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqot quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi: sog‘lom raqobat shakllanishining shart-sharoitlarini aniqlash; sug‘urta sohasi rivojlangan mamlakatlarda sog‘lom raqobat muhitining holatini aniqlash; O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida raqobat darajasi va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun sug‘urta bozorida kuchli va sog‘lom raqobatni shakllantirishga qaratilgan xalqaro darajadagi jurnallarda e’lon qilingan maqolalar va boshqa manbalar o‘rganildi va ushbu manbalar va tajribalarga asoslangan holda O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi mavjud holat hamda ushbu holatga ta’sir etuvchi qonunchilik tanqidiy jihatdan tahlil qilindi. Belgilangan maqsadga erishish maqsadida amalga oshirilgan tahlillarda turli moliyaviy koeffitsiyent va statistik usullardan, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olib borilgan tahlillar natijasida sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlarini taklif etayotgan sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro raqobatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, raqobatning va, xususan, sog‘lom raqobatning kuchayishiga olib keluvchi omillar, buning natijasida tarif stavaklarining pasayishi hamda xizmatlar sifatining ortishi, qo‘shimcha xizmatlarning shakllanishi asoslangan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va xulosalarga asoslangan holda muallif tomonidan O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida sog‘lom raqobatni kuchaytirishda mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlar sug‘urta bozorlarini o‘rgangan holda, O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida raqobatni kuchaytirishning muhim omillaridan biri sifatida chet mamlakatlarning ilg‘or sug‘urta kompaniyalari uchun ma’lum darajada ichki bozorni ochib berish masalasi ilgari surilgan. Yana bir olingan muhim natija sifatida milliy bozordagi sug‘urta xizmatlarining yirik iste’molchilari tomonidan sug‘urta kompaniyalarini tanlashda barcha sug‘urta kompaniyalari ishtirok etish imkoniyati yaratilgan shaffof tanlovni tashkil etish masalasidagi taklifi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, har qanday sohaning talab darajasida rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil bo‘lib ushbu sohada yuqori darajada sog‘lom raqobatning shakllanganligi hisoblanadi. Mazkur omil dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan asoslab berilganligi va xalq orasida ommaviylashib ketishi, uning isbot talab qilinmaydigan aksioma darajasidagi omil ekanligini e’tirof etish imkonini beradi. Ushbu holat sug‘urta sohasiga ham birday tegishli bo‘lib, sug‘urta xizmatlarining hajmi va sifatini oshirmoqchi bo‘lgan har qanday mamlakat asosiy e’tiborni ushbu masalaga qaratishi har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta bozoridagi kuchli raqobat ushbu bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyasining o‘z ustida doimiy ishlashini, raqobatda o‘z mavqeyini saqlab qolish uchun marketing tadqiqotlarini olib borishni, mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi har jihatdan ilg‘or sug‘urta kompaniyalarining tajribalarini o‘rganish va o‘z faoliyatiga tatbiq etish, tarif stavkalarining optimalligini ta’minlash maqsadida aktuar hisoblardan keng foydalanish, tarif stavkalarini pasaytirish imkonini beruvchi investitsya va boshqa daromad manbalaridan samarali foydalanish, potensial sug‘urtalanuvchilarni ko‘proq jalb qilish va mavjud sug‘urtalanuvchilarni saqlab qolish maqsadida, turli ko‘rinishdagi qo‘shimcha xizmatlar va bonuslarni qo‘llashga, sug‘urtalanuvchi manfaatlarini ko‘proq e’tiborga oluvchi sug‘urta shartnomalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashga harakat qiladi. Shunday harakatlarni o‘zining faoliyat mazmuniga aylantirgan sug‘urta kompaniyalarining milliy bozorda ko‘payishi oxir oqibatda sug‘urtalanuvchilar sonining ko‘payishi, to‘planayotgan sug‘urta mukofotlarining sezilarli darajada oshishi va sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida sug‘urta kompaniyalariga bo‘lgan ishonchning ortishiga va bu orqali sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi, 24.01.2020, http//www. uza. uz
2. Deming W. E. Quality, productivity, and competitive position. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 1982.–373 p.
3. Porter M. E., Millar V. E. How Information Gives You Competitive Advantage// Harvard Business Review, 1985. – p. 149–160.
4. Davenport T. H., Shot J. E. The New Industrial Engineering: Information Technology and Business Process Redesign // Sloan Management Review, 1990. – p. 11–27.
5. Hammer M., Champy J. Reengineering the Corporation: A manifesto for business Revolution. N-Y: Harper Collins, 1993. – 282 p.
6. Ойхман Е. Г., Попов Э. М. Реинжиниринг бизнеса: реинжиниринг организаций и информационные технологии. М.: Финансы и статистика, 1997. – 336 с.
7. Зиндер Е. З. Новое системное проектирование: информационные технологии и бизнес-реинжиниринг// Системы управления базами данных. 1996. №1. – с. 55-67.
8. Абдикеев Н. М., Данько Т. П., Ильдеменов С. В., Киселев А. Д. Реинжиниринг бизнес-процессов. – М.: Изд-во Эксмо, 2005. - 592 с.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktyabrdagi PQ–5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
10. Абдурахмонов И. Х. Теория и практика страхования. Учебник. – Т.: Iqtisod-moliya, 2021. – 696 с.
11. Khaliqulova, G. Prospects For the Introduction of Digital Technologies in the Insurance System of Uzbekistan, International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 1, Article 7.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining www. imv. uz internet sahifasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4412-son qarori.

TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNING EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH KO‘RSATKICHLARI

Berdiyev Akram O‘ktamovich
Toshkent davlat iqtisodiy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari eng dolzarb iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosida mamlakatda iqtisodiy o‘sish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini xorijga eksport qilish va boshqa bir qator muammolarni hal qilish mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Ekonometrik modellashtirish, ekonometrik usullar, ma’naviyat, obyekt-belgi, statistika.

Abstract: In the article, investment financing is one of the most urgent economic issues today. Based on the financing of investment projects, it will be possible to solve economic growth in the country, ensure employment of the population, export the products of local producers abroad, and solve a number of other problems.

Key words: Econometric modeling, econometric methods, spirituality, object-sign, statistics.

Аннотация: В статье финансирование инвестиций является одной из наиболее актуальных проблем экономики сегодня. На основе финансирования инвестиционных проектов можно будет решить вопросы экономического роста в стране, обеспечить занятость населения, экспортировать продукцию местных производителей за границу, решить ряд других задач.

Ключевые слова: Эконометрическое моделирование, эконометрические методы, духовность, объект-признак, статистика.

Ma’lumki, bugungi kunda investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari eng dolzarb iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosida mamlakatda iqtisodiy o‘sish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini xorijga eksport qilish va boshqa bir qator muammolarni hal qilish mumkin bo‘ladi.

Mazkur jarayonlarda tijorat banklarining roli ortib bormoqda. Mamlakatimizda tijorat banklari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga katta amaliy ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda loyihalarni moliyalashtirishga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi va ularning ayrimlarini boshqarish mumkin hamda ayrim omillarni boshqarish mumkin emas. Boshqariladigan omillarga ta’sir etish orqali tijorat banklari tomonidan investitsiyalarni moliyalashtirishdan samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur holatlarni batafsil o‘rganish va tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan keng foydalanish mumkin.

Ekonometrik modellashtirishda o‘rganilayotgan obyektni yanada aniqroq o‘rganish va tahlil qilish uchun barcha ichki va tashqi omillarni hisobga olish lozim. Bunday hollarda ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalaniladi. Ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida o‘rganilayotgan jarayonlar bo‘yicha yaxshi natijalar olish mumkin. Lekin ko‘p omilli ekonometrik modellarda o‘rganilayotgan jarayonlar bo‘yicha barcha omillarni modelga kiritib bo‘lmaydi. Masalan, hududlarni, vaqt omilini yoki boshqa muhim omillarni kiritib bo‘lmaydi. Bu muammoni hal qilishda panel ma’lumotlaridan foydalanib ekonometrik modellar tuziladi.

Panel ma’lumotlar deganda turli vaqtlarda kuzatilgan bir xil turdagi obyektlarning mustaqil kuzatishlari tushuniladi. Panel ma’lumotlari strukturasiga ko‘ra ma’lumotlar jadvalda “obyekt-belgi” ko‘rinishida namoyon qilinadi: qatorlar bo‘yicha obyektlar joylashtiriladi, ustunlar bo‘yicha esa – belgilar. Panel ma’lumotlari asosida tuziladigan ekonometrik modellar o‘zgarmas samarali (fixed effect) yoki tasodifiy samarali (random effect) modellar ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari (ATB “Mikrokreditbank”, ATB “Sanoatqurilishbank”, ATB “Turonbank”, ATIB “Ipotekabank”, ATB “Asakabank”, XAT “Davrbank” va ATB “Aloqabank”) bo‘yicha 2014–2022-yillarda quyidagi ko‘rsatkichlari asosida ko‘p omilli ekonometrik modellarini tuzish orqali tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini baholash lozim.

Natijaviy omil: investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi, trln. so‘m (***Y***) hisoblanadi. Ta’sir etuvchi omillar esa – bankning investitsion kreditlari, trln. so‘m, (X_1), xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar, trln. so‘m (X_2), korxonalarning o‘z mablag‘lari, trln. so‘m (X_3), inflyatsiya darajasi, % (X_4), Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, % (X_5) va milliy valyutaning devalvatsiya sur’ati, % (X_6).

Tijorat banklari panel ma’lumotlari asosida ko‘p omilli ekonometrik model tuzishdan oldin omillarni logarifmlash asosida bir xil o‘lchov birligiga keltiramiz hamda barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazamiz. Omillar bo‘yicha hisoblangan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-javdal: Omillar bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari

	$\ln_Y$	$\ln X_1$	$\ln X_2$	$\ln X_3$	$\ln X_4$	$\ln X_5$	$\ln X_6$
Mean	3.518751	2.537247	2.779204	3.210274	2.282159	2.540826	2.353366
Median	3.708682	2.617396	2.681021	3.284664	2.406945	2.639057	2.322388
Maximum	5.769570	4.607168	5.101085	5.307773	2.721295	2.772589	5.014627
Minimum	0.095310	0.182322	0.095310	0.095310	1.722767	2.197225	0.916291
Std. Dev.	1.426098	1.195112	1.344311	1.312395	0.392406	0.225650	1.154098
Skewness	–0.568014	–0.157431	–0.060339	–0.459444	–0.425957	–0.603919	0.968020
Kurtosis	2.594484	2.207074	2.013469	2.468898	1.492146	1.632959	3.613147
Jarque-Bera	26.73567	13.37459	18.15095	20.69807	55.11367	61.14601	75.78223
Probability	0.000002	0.001247	0.000114	0.000032	0.000000	0.000000	0.000000
Sum	1551.769	1118.926	1225.629	1415.731	1006.432	1120.504	1037.835
Sum Sq. Dev.	894.8524	628.4490	795.1552	757.8475	67.75234	22.40391	586.0542
Observations	63	63	63	63	63	63	63
Cross sections	7	7	7	7	7	7	7

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o‘rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko‘rish mumkin. Shuningdek, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

1-jadvalda muhim statistik ko‘rsatkichlardan biri – asimmetriya koeffitsiyenti (skewness) bo‘lib, mazkur koeffitsiyent nolga teng bo‘lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar asimmetriya koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni, simmetrik emas). Hisob-kitoblarda asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta bo‘lsa, omilning normal taqsimot grafigi o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi va yoki teskarisi.

Tijorat banklari bo‘yicha tahlil qilinayotgan lnX6 omildan tashqari barcha omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari noldan kichik ekan (1-jadval) va ularning funksiyalar grafiklari chap tomonga surilganligini ko‘rish mumkin. Faqat lnX6 omilning asimmetriya koeffitsiyenti noldan katta ekanligini ko‘rish mumkin va uning funksiyasi grafigi o‘ng tomonga surilgan (1-rasm).

Ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Omillarning normal taqsimot funkiyalari grafiklari

Yuqoridagi 1-rasmdagi grafiklardan shuni ham ko‘rish mumkinki, barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan. lnX6 omilning ekstsess ko‘rsatkichi koeffitsiyenti 3 dan katta bo‘lgani uchun normal taqsimotning nazariy grafigidan uchqirroq bo‘lgan.

1-javdal ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillarning Jak-Bera koeffitsiyentlarining ehtimollik qiymatlari 0.05 kichik ekanligini ko‘rish mumkin. Mazkur omillarni barchasi ko‘p omilli panelli regressiya modeliga kiritiladi. Yuqoridagi holatni yanada ishonchli ekanligini tekshirish uchun omillar o‘rtasida korrelyatsiya tahlilini amalga oshiramiz. Omillar o‘rtasida korrelyatsiya tahlili natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Omillar o‘rtasida korrelyatsion matritsa

CovarianceAnalysis: Ordinary
Date: 10/03/23 Time: 23:20
Sample: 2014 2022
Included observations: 63
Correlation

	Y	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5	X_6
Y	1.000000						
X_1	0.850709	1.000000					
X_2	0.864464	0.581989	1.000000				
X_3	0.978305	0.671901	0.478937	1.000000			
X_4	0.317274	0.438303	0.440118	0.326669	1.000000		
X_5	0.364311	0.502368	0.501576	0.372429	0.569372	1.000000	
X_6	–0.199769	–0.287203	–0.265842	–0.202617	–0.016367	–0.236301	1.000000

Yuqoridagi omillar o‘rtasida korrelyatsion matritsa deb nomlangan 2-jadvalda ikki xil korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblangan: xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari.

Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omilning (**ln*Y***) ta’sir etuvchi har bir omil (ryxi) bilan alohida bog‘lanishini aks ettiradi. Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari (rxixj) – bu ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanishlarni aks ettiradi.

2-jadvalda hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarini tahlil qilamiz. Demak, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va bankning investitsion kreditlari (**lnX_1**) o‘rtasida bog‘lanish zichligi 0,8507 ga tengligini ko‘rish mumkin. Bu esa mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtasida kuchli bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlar (**lnX_2**) o‘rtasida kuchli aloqa mavjud ekan, ya’ni ular o‘rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,8644 teng ekan. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va korxonalarning o‘z mablag‘lari (**lnX_3**) o‘rtasida zich aloqa mavjud. Ushbu omillar o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,9783 ga teng (2-jadval). Xuddi shuningdek, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va inflyatsiya darajasi (**lnX_4**) o‘rtasida sust aloqa mavjud. Ushbu omillar o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,3173 ga teng. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi (**lnX_5**) o‘rtasida sust aloqa mavjud ekan. Ushbu omillar o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,3643 ga teng. Bundan tashqari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va milliy valyutaning devalvatsiya sur’ati (**lnX_6**) o‘rtasida sust teskari aloqa mavjud hamda ular o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti –0.1997 ga teng.

Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymatlari shuni ko‘rsatadiki, tadqiq qilinayotgan ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikolleniarlik mavjud emas ekan. Ya’ni ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari 0,7 dan kichik ekan. Bu esa barcha omillarni ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritishga asos bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda har bir omilning natijaviy ko‘rsatkich (Y) bilan bog‘liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko‘rib chiqamiz (2-rasm).



2-rasm: Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanish shakllari

Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelning noma'lum parametrlarini hisoblashda ekonometrik modellashtirish dasturi bo'lgan Eviews 10 dasturidan foydalanamiz. Olib borilgan hisob-kitoblar natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo'yicha olingan panel ma'lumotlari asosida umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS) bo'yicha hisoblangan ekonometrik model parametrlari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS) bo'yicha hisoblangan ekonometrik model parametrlari

Dependent Variable: Y
Method: Panel Least Squares
Date: 10/03/23 Time: 23:05
Sample: 2014 2022
Included observations: 63
Cross-sections included: 7
Total pool (balanced) observations: 441

Variable	Coefficient	Std, Error	t-Statistic	Prob,
C	–1,188686	0,421822	–2,8179801	0,0012***
LNX_1	0,031693	0,008904	3,5594115	0,0004***
LNX_2	0,031378	0,006343	4,9468706	0,0000***
LNX_3	1,058251	0,026044	40,633198	0,0000***
LNX_4	–0,544999	0,126621	–4,3041755	0,0000***
LNX_5	–0,966465	0,191814	–5,0385531	0,0000***
LNX_6	0,038889	0,007786	4,9947341	0,0000***
R-squared	0.937569	Mean dependent var		3.518751
Adjusted R-squared	0.936983	S. D. dependent var		1.426098
S. E. of regression	0.295781	Akaike info criterion		0.417350
Sum squared resid	37.96905	Schwarz criterion		0.482255
Log likelihood	–85.02560	Hannan-Quinn criter.		0.442953
F-statistic	1632.415	Durbin-Watson stat		1.763841
Prob(F-statistic)	0.000000			

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishini keltiramiz:

$$\ln\hat{Y} = 1{,}19 + 0{,}0317\ln X_1 + 0{,}0314\ln X_2 + 1{,}0582\ln X_3 - 0{,}545\ln X_4 - 0{,}966\ln X_5 + 0{,}0389\ln X_6 \quad (1)$$

Umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model parametrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion kreditlari (**ln*X*$_1$**) o'rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining hajmi (**ln*Y***) o'rtacha 0,0317 foizga ortar ekan. Tijorat banklarida xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarning (**ln*X*$_2$**) o'rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining (**ln*Y***) o'rtacha 0,0314 foizga ortishiga olib kelar ekan. Korxonalarning o'z mablag'lari (**ln*X*$_3$**) o'rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalash-

tirish manbalari hajmi (**ln*Y***) o‘rtacha 1,0582 foizga ortar ekan. Respublikada inflyatsiya darajasi (**ln*X*$_4$**) o‘rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining hajmi (**ln*Y***) o‘rtacha 0,545 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi (**ln*X*$_5$**) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) o‘rtacha 0,966 foizga kamayar ekan. Respublikada milliy valyutaning devalvatsiya sur’ati (**ln*X*$_6$**) o‘rtacha bir foizga oshsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (**ln*Y***) o‘rtacha 0,0389 foizga ortar ekan.

Tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model (1) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentidan foydalanamiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil (***Y***) necha foizga modelga kiritilgan omillardan (***X$_i$***) tashkil topishini ko‘rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R2 – R-squared) 0,9376 ga teng. Bu esa respublikada tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining (lnY) 93,76 foizi (1) ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko‘rsatmoqda. Qolgan 6,24 foizi (100,0–93,76) esa hisobga olinmagan omillar ta’siri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Panel ma’lumotlari asosida tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini Fisherning F-mezoni yordamida tekshiramiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo‘yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 6$ va $k_2 = 411 - 6 - 1$ dan kelib chiqib, F-mezonning jadval qiymati $F_{jadval} = 2{,}15$ ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob} = 1632{,}415$ va jadval qiymati $F_{jadval} = 2{,}12$ bo‘lganligi va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun (1) ko‘p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi.

Umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli (Pooled OLS) bo‘yicha tuzilgan ushbu (1) ko‘p omilli ekonometrik modeldagi hisoblangan parametrlarning ishonchliligini tekshirish uchun Styudentning t-mezonidan foydalaniladi. Styudentning t-mezonining hisoblangan (thisob) va jadval (tjadval) qiymatlarini taqqoslab, N0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (**d. f. = *n* – *m* – 1**) shartlar asosida topamiz. Bu yerda ***n*** – kuzatuvlar soni, ***m*** – omillar soni. Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajasi **d. f. = 411 – 6 – 1** bo‘lganda, t-mezoning jadval qiymati $t_{jadval} = 1{,}9640$ ga teng. Yuqoridagi 3-jadvalda ko‘rish mumkinki, barcha omillar 0,05 foiz aniqlikda ishonchlilik ekan

Demak, xulosa qilish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar ishonchli ekan.

Tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo‘yicha panel ma’lumotlari asosida tuzilgan modelda qoldiqlardagi bog‘liqliklarni testdan o‘tkazamiz. Natijalar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-javdal: Model qoldiqlardagi bog‘liqliklar testi

Residual Cross-Section Dependence Test
Null hypothesis: No cross-section dependence (correlation) in residuals
Equation: Untitled
Periods included: 63
Cross-sections included: 7
Total panel observations: 441
Note: non-zero cross-section means detected in data
Cross-section means were removed during computation of correlations

Test	Statistic	d. f.	Prob.
Breusch-Pagan LM	297.3138	57	0.0000
Pesaran scaled LM	20.13328		0.0000
Pesaran CD	4.556717		0.0000

4-jadvaldan ko‘rish mumkinki, Broysh-Pagan (Breusch-Pagan LM), Pesaran masshtabi (Pesaran scaled LM) hamda Pesaran KD (Pesaran CD) testlari bo‘yicha statistikalari yetarlicha katta qiymat qabul qilgan va ularning ehtimolliklari 0,05 dan kichik (Prob. =0,0000). Bu esa o‘z navbatida model qoldiqlarda bog‘liqliklar mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Odatda panel ma’lumotlari asosida tuziladigan ko‘p omilli ekonometrik modellar bo‘yicha umumlashtirilgan modeldan tashqari o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) va tasodifiy samaralar modeli (Random effects model).

Dastlab o‘zgarmas samarali modelning (Fixed effects model) parametrlarini aniqlaymiz. Hisob-kitoblar natijasi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval: O‘zgarmas samarali modelning (Fixed effects model) hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: lnY
Method: Panel Least Squares
Date: 10/03/23 Time: 23:07
Sample: 2014 2022
Periods included: 9
Cross-sections included: 7
Total panel (balanced) observations: 63

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	–0.172578	1.393974	–1.123803	0.0120**
LNX_1	0.110707	0.053509	2.068937	0.0437***
LNX_2	0.233865	0.088438	2.644388	0.0109***
LNX_3	0.654636	0.099027	6.610656	0.0000***
LNX_4	–0.377019	0.535326	–0.704278	0.0845**
LNX_5	–0.567009	1.001811	–0.565984	0.0739**
LNX_6	0.033425	0.044145	2.557155	0.0425***
		Effects Specification		
Cross-section fixed (dummy variables)				
R-squared	0.987810	Mean dependent var		3.518751
Adjusted R-squared	0.984884	S. D. dependent var		1.435922
S. E. of regression	0.176543	Akaike info criterion		–0.448914
Sum squared resid	1.558378	Schwarz criterion		–0.006680
Log likelihood	27.14079	Hannan-Quinn criter.		–0.274981
F-statistic	337.6313	Durbin-Watson stat		1.627674
Prob(F-statistic)	0.000000			

5-jadvalda hisoblangan parametrlar asosida o‘zgarmas samarali modelning (Fixed effects model) analitik ko‘rinishini ifodalaymiz:

$$\ln\hat{Y} = -0{,}173 + 0{,}111\ln X_1 + 0{,}234\ln X_2 + 0{,}655\ln X_3 - 0{,}377\ln X_4 - 0{,}567\ln X_5 + 0{,}033\ln X_6 \quad (2)$$

Umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) ekonometrik model parametrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining investitsion kreditlari ($\ln X_1$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,111 foizga ortar ekan. Tijorat banklarida xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarning ($\ln X_2$) o‘rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,234 foizga ortishiga olib kelar ekan. Korxonalarning o‘z mablag‘lari ($\ln X_3$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi (lnY) o‘rtacha 0,655 foizga ortar ekan. Respublikada inflyatsiya darajasi ($\ln X_4$) o‘rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,377 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi ($\ln X_5$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi ($\ln Y$) o‘rtacha 0,567 foizga kamayar ekan. Respublikada milliy valyutaning devalvatsiya sur’ati ($\ln X_6$) o‘rtacha bir foizga oshsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi ($\ln Y$) o‘rtacha 0,033 foizga ortar ekan.

Hisoblangan o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) sifatini baholaymiz. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R_2 – *R*-squared) 0,9878 ga teng. Bu esa natijaviy omil – tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining (Y) 98,78 foizi (2) ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko‘rsatmoqda. Qolgan 1,22 foizi (100,0–98,78) esa hisobga olinmagan omillar ta’siri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) (2) statistik ahamiyatli ekan. Chunki F_{hisob} = 337,6313 va jadval qiymati F_{jadval} = 2,12 bo‘lganligi va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarildi.

O‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) (2) dagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlar ishonchli ekan. Buning sababi hisoblangan barcha omillarning, shu jumladan, ozod had (S) ning ehtimolliklari 0,05 va 0,1 oralig‘ida ekan (5-jadvalning Prob. ustuniga qarang).

Yuqorida hisoblangan o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) (2) bo‘yicha haqiqiy, hisoblangan va qoldiqlar grafigi quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm: Tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) bo‘yicha haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi

Tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo‘yicha panel ma’lumotlari asosida tuzilgan modelda qoldiqlardagi bog‘liqliklarni testdan o‘tkazamiz. Natijalar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-javdal: O‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) qoldiqlardagi bog‘liqliklar testi

Residual Cross-Section Dependence Test
Null hypothesis: No cross-section dependence (correlation) in residuals
Equation: Untitled
Periods included: 63
Cross-sections included: 7
Total panel observations: 441
Cross-section means were removed during computation of correlations

Test	Statistic	d. f.	Prob.
Breusch-Pagan LM	220.6572	57	0.0000
Pesaran scaled LM	13.46118		0.0000
Bias-corrected scaled LM	12.96118		0.0000
Pesaran CD	10.45740		0.0000

6-jadvaldan ko‘rish mumkinki, Broysh-Pagan (Breusch-Pagan LM), Pesaran masshtabi (Pesaran scaled LM), siljishga to‘g‘rilangan masshtabli (Bias-corrected scaled LM) hamda Pesaran KD (Pesaran CD) testlari bo‘yicha statistikalari yetarlicha katta qiymat qabul qilgan va ularning ehtimolliklari 0,05 dan kichik (Prob. =0,0000). Bu esa o‘z navbatida o‘zgarmas samarali model (Fixed effects model) qoldiqlarda bog‘liqliklar mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Endi tasodifiy samaralar modeli (Random effects model) bo‘yicha hisoblangan panel ma’lumotlari asosidagi ko‘p omilli ekonometrik modelning parametrlarini tahlil qilamiz (7-jadval).

7-jadval: Tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: lnY
Method: Panel EGLS (Cross-section random effects)
Date: 10/03/23 Time: 23:07
Sample: 2014 2022
Periods included: 9
Cross-sections included: 7
Total panel (balanced) observations: 63
Swamy and Arora estimator of component variances

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	–0,240271	1,383396	–0,173682	0,1427
LNX_1	0,100764	0,042881	2,3499067	0,0019***
LNX_2	0,185901	0,082161	2,2626306	0,0026***
LNX_3	0,742511	0,088114	8,4267085	0,0000***
LNX_4	–0,371982	0,232033	–1,603134	0,0873**
LNX_5	–0,539393	0,290376	–1,857560	0,0782**
LNX_6	0,034614	0,014104	2,454197	0,0009***
		Effects Specification		
		S. D.		Rho
Cross-section random		2048.818		0.9404
Idiosyncratic random		515.6450		0.0596
Weighted Statistics				
R-squared	0.950828	Mean dependent var		0.707004
Adjusted R-squared	0.945560	S. D. dependent var		0.772245
S. E. of regression	0.180183	Sum squared resid		1.818101
F-statistic	180.4773	Durbin-Watson stat		1.575066
Prob(F-statistic)	0.000000			
Unweighted Statistics				
R-squared	0.942228	Mean dependent var		3.518751
Sum squared resid	7.385374	Durbin-Watson stat		0.141567

7-jadvalda hisoblangan parametrlar asosida tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) analitik ko‘rinishini ifodalaymiz:

$$\ln\hat{Y} = -0{,}24 + 0{,}101\ln X_1 + 0{,}186\ln X_2 + 0{,}742\ln X_3 - 0{,}372\ln X_4 - 0{,}539\ln X_5 + 0{,}035\ln X_6 \quad (3)$$

Umumlashtirilgan eng kichik kvadratlar usuli bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) ekonometrik model parametrlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining investitsion kreditlari ($\ln X_1$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,101 foizga ortar ekan. Tijorat banklarida xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarning ($\ln X_2$) o‘rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,186 foizga ortishiga olib kelar ekan. Korxonalarning o‘z mablag‘lari ($\ln X_3$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi ($\ln Y$) o‘rtacha 0,742 foizga ortar ekan. Respublikada inflyatsiya darajasi ($\ln X_4$) o‘rtacha bir foizga ortishi, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmini ($\ln Y$) o‘rtacha 0,372 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi ($\ln X_5$) o‘rtacha bir foizga ortsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi ($\ln Y$) o‘rtacha 0,539 foizga kamayar ekan. Respublikada milliy valyutaning devalvatsiya sur’ati ($\ln X_6$) o‘rtacha bir foizga oshsa, tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi ($\ln Y$) o‘rtacha 0,035 foizga ortar ekan.

Hisoblangan tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) sifatini baholaymiz. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R2 – R-squared) 0,9508 ga teng. Bu esa natijaviy omil – tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining ($\ln Y$) 95,08 foizi (3) ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko‘rsatmoqda. Qolgan 4,92 foizi (100,0–95,08) esa hisobga olinmagan omillar ta’siri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tasodifiy samaralar modeli (Random effects model) (3) statistik ahamiyatli ekan. Chunki F_{hisob} = 180,4773 va jadval qiymati F_{jadval} = 2,12 bo‘lganligi va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarildi.

Tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) (3) dagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlar ishonchli ekan. Buning sababi hisoblangan barcha omillarning ehtimolliklari 0,05 dan kichik ekan (7-jadvalning Prob. ustuniga qarang).

Yuqorida hisoblangan tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) (3) bo‘yicha haqiqiy, hisoblangan va qoldiqlar grafigi quyidagi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm: Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmining tasodifiy samaralar modeli (Random effects model) bo‘yicha haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi

Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi bo‘yicha panel ma’lumotlari asosida tuzilgan tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) qoldiqlardagi bog‘liqliklarni testdan o‘tkazamiz. Natijalar quyidagi 8-jadvalda keltirilgan.

8-javdal: Tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) qoldiqlardagi bog‘liqliklar testi

Residual Cross-Section Dependence Test
Null hypothesis: No cross-section dependence (correlation) in residuals
Equation: Untitled
Periods included: 63
Cross-sections included: 7
Total panel observations: 441
Note: non-zero cross-section means detected in data
Cross-section means were removed during computation of correlations

Test	Statistic	d. f.	Prob.
Breusch-Pagan LM	243.7719	57	0.0000
Pesaran scaled LM	15.47306		0.0000
Pesaran CD	–3.648244		0.0168

8-jadvaldan ko‘rish mumkinki, Broysh-Pagan (Breusch-Pagan LM), Pesaran masshtabi (Pesaran scaled LM) hamda Pesaran KD (Pesaran CD) testlari bo‘yicha statistikalari yetarlicha katta qiymat qabul qilgan va

ularning ehtimolliklari 0,05 dan kichik (Prob. =0,0000). Bu esa o‘z navbatida tasodifiy samaralar modelining (Random effects model) qoldiqlarda bog‘liqliklar mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Endi ushbu turli usullar bilan baholangan o‘zgarmas samarali model (fixed effects model) va tasodifiy samarali modellarni (random effects model) solishtirish uchun qo‘llaniladigan Xausman testidan foydalanamiz. Ulardan biri nol (asosiy) gipotezada ham, alternativ gipotezada ham izchil baholarni olishga, ikkinchisi esa – faqat nolinchi gipotezada izchil baholarni olishga imkon beradi (9-jadval).

9-jadval: Hisoblangan Xausman testi parametrlari

Correlated Random Effects – Hausman Test
Equation: Untitled
Test cross-section random effects

Test Summary	Chi-Sq. Statistic	Chi-Sq. d. f.	Prob.
Cross-section random	56.246517	5	0.0037
Cross-section random effects test comparisons:			
Variable	**Fixed**	**Random**	**Var(Diff.)**	**Prob.**
LNX_1	0.110707	0.100764	0.000067	0.2241
LNX_2	0.233865	0.185900	0.001071	0.1427
LNX_3	0.654636	0.742511	0.002042	0.0518
LNX_4	–0.377019	–0.371980	0.003515	0.9323
LNX_5	0.567009	0.539391	0.022781	0.8548
LNX_6	0.033425	0.034614	0.000004	0.5316

9-javdaldan ko‘rish mumkinki, Pirsonning hisoblangan muvofiqlik mezoni (xi-kvadrat) χ^2 **= 56,2465** ga teng ekan. α=0,05 aniqlikda va 95 foiz ishonchlilikda mazkur mezonning javdal qiymati 11,071 ga teng ekan. Demak, xi-kvadrat mezonning hisoblangan qiymati jadval qiymatidan katta bo‘lgani uchun o‘zgarmas samarali modelni (fixed effects model) qabul qilamiz. Chunki tuzilgan o‘zgarmas samarali model va tasodifiy samarali modellarning sifatini tekshirishda foydalaniladigan determinatsiya koeffitsiyenti (R2=0,9878) qiymati o‘zgarmas samarali modelda katta ekanligi aniqlandi (5-jadval).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Tijorat banklarining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi va ularga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda panel ma’lumotlari asosida tuzilgan o‘zgarmas samarali modeldan (fixed effects model) foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanar ekan.

INNOVATSION MUHITNI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYANING ZARURLIGI

Bobobekov Ergash Abdumalikovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari o‘z oldiga ilmga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘yayotgani, ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, sotish va ulardan foydalanish borasida o‘rta hamda uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiyalarni ishlab chiqayotgani tahlil qilingan.

Bunday strategiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy sharti hisoblanishi, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ilm-fan bilan shug‘ullanadigan institutlar, yetakchi ilmiy maktablar va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani va jahon tajribasi ko‘rsatganidek, jamiyat taraqqiyoti innovatsion rivojlanishdan boshqa muqobil yo‘l yo‘q ekanligi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion iqtisodiyot, ilmiy-texnikaviy faoliyat, uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiyalar, makroiqtisodiy siyosat, raqobatbardosh.

Abstract: The article analyzes the fact that today most of the countries of the world are facing the task of transitioning to a science-based innovative economy, and are developing medium- and long-term strategies for creating, selling and using the results of scientific and technical activities.

Such strategies are considered the main condition of sustainable economic growth, in recent years, great attention has been paid to the development of scientific institutes, leading scientific schools and innovative research in Uzbekistan, and as world experience shows, there is no other alternative way of social development than innovative development.

Key words: innovative economy, scientific and technical activity, long-term strategies, macroeconomic policy, competitive.

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что сегодня большинство стран мира стоят перед задачей перехода к инновационной экономике, основанной на науке, и разрабатывают средне- и долгосрочные стратегии создания, реализации и использования результатов научных исследований. и технической деятельности.

Подобные стратегии считаются главным условием устойчивого экономического роста, в последние годы большое внимание уделяется развитию научных институтов, ведущих научных школ и инновационных исследований в Узбекистане, а также, как показал мировой опыт, развитию общества. является инновационным и утверждается, что другой альтернативы развитию не существует.

Ключевые слова: инновационная экономика, научно-техническая деятельность, долгосрочные стратегии, макроэкономическая политика, конкурентоспособность.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari o‘z oldiga bilimga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda. Buning uchun ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, sotish va ulardan foydalanish borasida o‘rta hamda uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiyalarni ishlab chiqishdi. Bunday strategiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ilm-fan bilan shug‘ullanadigan institutlar, yetakchi ilmiy maktablar va innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jahon tajribasi ko‘rsatganidek, jamiyat taraqqiyoti innovatsion rivojlanishdan boshqa muqobil yo‘l yo‘q ekanligini ko‘rsatmoqda.

Globallashuv jarayonlarini yanada faollashuvi o‘z navbatida yangi mahsulotlar va texnologik jarayonlar xizmatlarini yaratish, joriy etish va keng tarqatish iqtisodiy o‘sish, tadbirkorlik faoliyati samaradorligi va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillariga aylanmoqda. Shu bois mamlakatimizda makroiqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri deb e’lon qilingan investitsion siyosatni yanada rivojlantirish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish evaziga innovatsion muhitni yaxshilash evaziga mamlakatimizning jahon innovatsion yetakchi davlatlaridagi tezlashib borayotgan texnologik farqini bartaraf etishni nazarda tutadi.

Buning uchun birinchidan, O‘zbekistonni 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish maqsad etib belgilangan[1]. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchidan, O‘zbekistonni 2030-yilga qadar innovatsion rivojlangan 50 ta mamlakatlar qatoriga olib chiqish[2]. Mazkur farmonga muvofiq 2030-yilga qadar mamlakatimizni rivojlangan 50 ta mamlakatlar qatoridan o‘rin egallash uchun iqtisodiy rivojlanishni muhim mezoni bo‘lgan ilm-fan hamda innovatsiyani har tomonlama rag‘batlantirib, ijtimoiy hayotda inson kapitalini yuksak qadr topishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan ko‘rinadiki, innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas xususiyatiga aylanib bormoqda. Bu davlatlar va ularning hamjamiyatlari, shuningdek, alohida kompaniyalar uchun bir xil darajada amal qiladi. Innovatsion yo‘nalish nafaqat bugungi kun uchun, balki har qanday sohadagi inson faoliyatining yaqin kelajagi uchun ham zaruratdir.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari o‘zlarini belgilab qo‘ygan innovatsion bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish vazifasi va unda ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini yaratish, uzatish va ulardan foydalanish barqarorlikning asosiy shartlari hisoblanadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 70–90 foizi aynan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda[3]. Chunki dunyo bozorida yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy hajmdor mahsulotlar ulushida salmog‘i yuqori mamlakatlar o‘rtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, dunyo bozoridagi ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQShga, 30 foizi Yaponiyaga, 22 foizi Xitoy davlatiga to‘g‘ri kelmoqda[4]. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra har million aholiga nisbatan ilmiy tadqiqotlar band bo‘lgan mamlakatlar reytingida 1-o‘rinda Isroil 8250 nafar, 2-o‘rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o‘rinda Yaponiya 5210 nafarga to‘g‘ri kelmoqda[5].

O‘zbekistonda ham tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay innovatsion muhitning yaratilishi muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hozirgi iqtisodiyotning globallashuv ko‘lami tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday konyunkturaviy o‘zgarishlarga qarshi tura oladigan, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslasha oluvchi raqobatbardosh milliy sanoat tarmoqlarini shakllantirishimiz dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois “O‘zbekiston–2030” strategiyasida mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish yana bir muhim maqsadlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Buning uchun milliy sanoatimizda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish hamda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin – 1,5 barobar, kumush – 3 barobar, uranni esa 3 barobarga oshirish belgilangan. Mamlakatimizda investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish uchun respublika miqyosida 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 mlrd. AQSh dollariga yetkazish hamda umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bularning barchasi kelajakda hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Chunki milliy sanoatning barqaror va mutanosib rivojlanishi va jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi hisobidan aholining turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun, albatta, iqtisodiyotdagi innovatsion faollikni oshirishimiz zarur bo‘ladi. Bunga innovatsion muhitni shakllantirish orqali erishishimiz mumkin.

Innovatsion muhit – bu mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi me’yoriy-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnik, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidir[6].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni. https://lex. uz/uz/docs/6600413

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-son Farmoni. https://lex. uz/docs/5073447

3 https://theworldonly. org

4 Желткова О. В. Инновационная привлекательность предприятия как фактор технологической модернизации производства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –М., 2016, 24 стр.

5 https://www. worldbank. org

6 Rasulov N. M. O‘zbekistonda qulay innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Материалы XI Форума экономистов. -Т. 2019, 186-193 стр

Innovatsion muhit, avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi:

- ishchi kuchi malakasi;
- ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan xodimlar soni;
- o‘rtacha ish haqi darajasi;
- mamlakatning investitsion jozibadorligi;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash faolligi;
- innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi;
- iqtisodiy konyunktura holati;
- ichki bozor sig‘imi;
- tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari;
- kredit tizimi holati, moliyaviy resurslar, soliqqa tortish darajasi;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi;
- xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h. k.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon o‘tgan 32 yil mobaynida iqtisodiyotimizda innovatsion muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda bu borada real sektor tarmoqlarida innovatsion jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Chunonchi, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-son hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-son Farmonlari shular jumlasidan. Mazkur farmonlarda ilg‘or xorijiy tajribalar, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta’minlash vazifasi yuklatildi.

Chunki innovatsion salohiyati yuqori bo‘lgan davlatlarda ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish bevosita korxonalarga yuqori texnologiyalarni joriy etish, turli ilmiy tekshirish institutlari, oliy ta’lim muassasalari, yirik korxonalar hamda tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, tajriba-konstruktorlik va kichik innovatsion markazlar tomonidan ilgari surilgan innovatsion g‘oyalarni korxonalar orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Bunda bevosita korxonalardagi mavjud innovatsion muhit katta rol o‘ynaydi. Korxonalarda innovatsion g‘oyalarni shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda bevosita innovatsion muhitning o‘rni salmoqlidir. Korxonalardagi innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish uchun, albatta, korxonaning innovatsion muhiti shakllangan va innovatsion salohiyati yuqori bo‘lishi lozim. Buning uchun xorij amaliyotida mazkur masala bilan bog‘liq tadqiqotlarning ilmiy-nazariy talqiniga katta e’tibor qaratish, mamlakatimiz sharoitlariga mos uslubiyotlardan foydalanish talab etiladi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “innovatsion jarayonlar”, “innovatsion muhiti”, “innovatsion salohiyat” hamda “korxonalarning innovatsion jozibadorligi”ni baholash, unga ta’sir etadigan omillarni tahlil etish bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlardan Y. Shumpeter, Adam Smit, G. Mensh, K. Frimen, P. Druker, B. Santo, Sh. Tatsuno, R. Robinson, D. Saxal, M. Porter, B. Tviss, R. Kumbos, A. Xemilton, P. Uayt, E. Mensfild, J. D. Bernal, N. D. Kondratev, P. Sorokin, S. Kuznets, S. Y. Glazev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida innovatson muhitni shakllantirish, innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishning nazariy va amaliy masalalari bilan respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlari B. Abdullayev, N. Alimova, Z. Gaibnazarova, D. Kokurin, M. Maxkamova, Z. Muqumov, O. Nazarov, R. Nazarova, N. Namazova, N. Rasulov, Sh. Otajanov, Sh. Sindarov, T. Toshpulatov, G. Xamdamova, B. Xolikov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlatlar amaliyotida korxonalarning innovatsion muhitini rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishning manbayi sifatida tan olingan. Innovatsion muhitni rivojlantirish nafaqat alohida iqtisodiy subyektning, balki butun bir tizimning ham rivojlanishini ta’minlovchi alohida asosiy o‘sish manbayi hisoblanadi.

“Innovatsion muhit”, “innovatsion salohiyat”, “innovatsion rivojlanish” tushunchalari XX asrning 70-yillari oxiridan amaliyotga faol kirib kela boshladi. Mazkur atamalar bir qator olimlarning uslubiy, nazariy va amaliy tadqiqotlarida tahlil etildi, ma’lum bir aniqliklar kiritildi va amaliyotga qo‘llash uchun taklif etildi. Biroq shu kungacha ham mazkur tushunchalarning dunyoda umum qabul qilingan yagona ta’rifi ishlab chiqilmagan. Har bir olim yoki mutaxassis o‘z davlatining xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy tadqiqotlarining yo‘nalishi va mazmuniga qarab innovatsion rivojlanishni o‘ziga xos yo‘nalishda talqin etadi.

Jumladan, buyuk shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit o‘zining 1776-yilda chop etgan “The Wealthof Nation” nomli ilmiy asarida nafaqat bozor tizimidagi talab va taklifning nisbati, balki yangi texnologiyalar yordamida korxonalarning raqobatbardoshligini yanada oshirish to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etgan[7]. Keyinchalik A. Smitning bu ilmiy qarashlari yanada keng va salmoqli ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun rivoj-

7 Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие / Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012, 72 с.

langan mamlakatlarning yirik tashkilot va kompaniyalari hozirgi kunda dunyo bozorlaridagi raqobat kurashida innovatsiyalardan amaliy omil sifatida foydalanmoqdalar.

“Katta to‘lqinlar” nazariyasi orqali innovatsiyalarning fundamental asoslari shakllanishiga asos solgan rus iqtisodchisi N. D. Kondratevning tadqiqotlarini innovatsiyalarni nazariy o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning dastlabkilaridan biri sifatida e’tirof etish mumkin[8]. Chunki u katta to‘lqinlar shakllanishida texnik o‘zgarishlarning rolini aniq ochib bermagan bo‘lsada, katta to‘lqinlarning ko‘tarilishi chog‘ida amalga oshmagan ixtirolar amaliyotda o‘z ifodasini topishini nazarda tutgan[9].

Jumladan, N. D. Kondratev o‘zining “Katta to‘lqinlar” nazariyasi bo‘yicha quyidagi ilmiy yangiliklarga erishgan:

- sanoat ishlab chiqarishda almashinuv fazalari ketma-ketligining davriyligini aniqlagan;
- davrlarning ko‘pligini va omillarga sezuvchanligini isbotlagan;
- davrlarni o‘zgarish modelini ishlab chiqdi.

Keyinchalik uning ilmiy qarashlari Y. Shumpeter tomonidan rivojlantirildi. Y. Shumpeter iqtisodiyotdagi katta to‘lqinlarning paydo bo‘lishida texnik o‘zgarishlar asosiy o‘rin tutishini isbotlab berdi va quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy qarashlarni ilgari surdi[10]:

- iqtisodiy innovatsiyalarni sanoat bilan bog‘lagan holda o‘rgandi hamda aniq takliflar ishlab chiqdi;
- “kashfiyot” va “yangilik” atamalarini mazmunini tushuntirib berdi;
- iqtisodiyotda innovatsion o‘zgarishlar oliy ta’lim – ilmiy tadqiqot – tadbirkor uzviyligida ro‘y beradi degan fikrni olg‘a surdi;
- global davriy inqirozdan (iqtisodiy krizis) faqatgina yangi texnologik qatlamdagi tayanch innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash orqaligina chiqib ketish mumkin deb ta’kidladi.

Yana bir amerikalik iqtisodchi B. Tviss o‘z tadqiqotlarida innovatsiyalarga jarayon sifatida e’tibor qaratib tadqiqotlar, g‘oyalarni kashfiyot va yangiliklarga aylanishining muvaffaqqiyatliligi innovatsion muhitning shakllanganligiga bog‘liq ekanligini ko‘rib chiqqan. Uning ta’kidlashicha “innovatsiya” bu – jarayon bo‘lib, unda g‘oya, kashfiyot yoki tadqiqotlarning natijasi aks etadi.

Ingliz olimi Kristofer Frimen ilmiy tadqiqotlarini, asosan, “milliy innovatsion tizim” (MIT) va uni rivojlantirish bilan bog‘liq izlanishlarga qaratgan. Frimenning ta’kidlashicha, MIT – bu “xususiy va davlat tashkilotlarini innovatsion jarayonlarni yo‘lga qo‘yishda o‘zaro bir maqsadga qaratilgan iqtisodiy faoliyat natijasi bo‘lib, ularning faoliyati yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, import qilinishi, modifikatsiyalanishi va tarqalishiga olib keladi.

Niderlandiyalik tadqiqotchi olim Alfred Klyaynknext G. Menshning nazariy qarashlarining ko‘pgina jihatlarini tanqidiy qarshi oldi va rivojlantirdi. U G. Menshning iqtisodiyotning rivojlanishini depressiya bosqichida yangiliklarni klasterlashtirish usuli orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning tahlillariga ko‘ra, ishlab chiqarishga yangilik kiritish (mahsulotlar innovatsiyasi) depressiya fazasida sodir bo‘ladi, jarayonga yangiliklar kiritish (jarayonlar innovatsiyasi) esa katta to‘lqinnig o‘sish bosqichida sodir bo‘lishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O‘zbekistonda ham mustaqillikka erishgandan so‘ng innovatsion faoliyat bilan bog‘liq jarayonlar asta-sekin rivojlana boshlandi. Mamlakatimizda innovatsion faoliyat bilan bog‘liq dastlabki ilmiy tadqiqotlar A. A. Ro‘zmatov[11] va D. M. Kokurinlar[12] tomonidan olib borilgan.

A. Ro‘zmatov 1992–1994-yillarda O‘zbekiston Respublikasining mashinasozlik sohasini rivojlantirishda innovatsion faoliyatni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Mazkur yillarda mamlakatning mashinasozlik holati inqiroz holatiga kelib qolganligi uchun korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida birinchi navbatda innovatsion faoliyatni jonlantirish muhim ekanligi asosli ravishda ochib berilgan. 1996-yilda esa D. M. Kokurin tomonidan O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rag‘batlantirishning qator nazariy va amaliy muammolarini innovatsion sohani rivojlantirish orqali hal etish borasida bir qator takliflari ishlab chiqilgan. Jumladan, muallif sanoat ishlab chiqarishi va innovatsion sohada tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish orqali raqobatda yutuqlarga erishish mumkinligini ta’kidlab o‘tgan. Shu bilan birga O‘zbekistonda innovatsiya sohasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarurligini ta’kidlab o‘tgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yakuniy natijasi sanoat korxonalarida mavjud innovatsion salohiyatni baholash, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish uchun innovatsion muhitni yaxshilash lozim. Buning uchun bevosita ishlab chiqarish, fan va ta’lim o‘zaro integratsiyasini yaxshilash zarur. Buning uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozim:

8 Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт. 2015, 276 с.

9 Базилевич А. И. Инновационный менеджмент предприятия: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления / А. И. Базилевич; под. ред. В. Я. Горфинкеля. - М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2009, 231 с.

10 Алексеева М. Б., Ветренко П. П. Анализ инновационной деятельности. Москва, Юрайт, 2016. - С. 89-91.

11 Рўзматов А. А. Экономическое стимулирование инновационной деятельности на предприятиях машиностроительного комплекса Республики Узбекистан: авторефер. дис.. . к. э. н. –Т.: Институт экономики Академии наук Рес. Уз., 1994, 28 с.

12 Кокурин Д. И. Экономическое стимулирование развития предпринимательства в промышленной и инновационной сферах Республики Узбекистан. авторефер. дис.. . к. э. н. –Т.: Институт экономики Академии наук Рес. Уз., 1996, 26 с.

- ta’lim;
- ilm-fan;
- inson kapitali;
- innovatsion infratuzilma;
- korxonalarning innovatsion faolligi;
- korxonalardagi innovatsion salohiyat.

Biroq yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, sanoat korxonalari innovatsion jozibadorligini oshirish, ularning faoliyatini kompleks rivojlanishini ta’minlash va innovatsion muhit jozibadorligini oshirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy innovatsion menejment va innovatsion rivojlantirishning nazariy uslubiyotlari yutuqlarini kompleks tahlil qilish va o‘rganish lozim;
- korxonalarning innovatsion muhitini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri sifatida innovatsion jozibadorlikni tahlil qilish va istiqbol ko‘rsatkichlarini belgilash uslubiyotini ilmiy jihatdan asoslash;
- real sektor korxonalarining innovatsion jozibadorligini joriy va istiqbol ko‘rsatkichlarini ma’lum bir uslubiyot orqali hisob-kitob qilish mexanizmini yaratish;
- real sektor tarmoqlarida sohalar kesimida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etishning rivojlangan mamlakatlar tajribasini tatbiq etish hamda innovatsion loyihalarni to‘liq ro‘yobga chiqarish va amaliy joriy etish uchun lozim bo‘ladigan shart-sharoitlarni ta’minlash;
- korxonalarda innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar samaradorligini strategik prognoz qilish, qo‘llab-quvvatlash va joriy etishni ta’minlovchi innovatsiya faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish;
- tarmoq va sohalar kesimida yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarni joriy etishni talab qiluvchi ustuvor soha va tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini qabul qilish;
- korxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish hamda innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni joriy etishda ilmiy-tadqiqot institutlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari hamda oliy ta’lim muassasalari bilan uzviy aloqa qiluvchi infratuzilmani rivojlantirish;
- korxonalarga innovatsion loyiha va g‘oyalarni tijoratlashuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida xususiy va nodavlat investorlarni jalb etish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida milliy korxonalarda innovatsion muhitni sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Bu esa korxonalarda innovatsiya jarayonlarini yanada faollashuviga, innovatsion muhitni yaxshilanishi va korxonalarning investitsion jozibadorligi bilan bog‘liq muammolarni hal etilishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda sanoat korxonalarida o‘z faoliyatlarida doimo yangi innovatsiyalarni qo‘llamasdan, salohiyatli investorlar bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘ymasdan jahon bozorlariga yangi mahsulot yoki xizmatlarni kiritishlari mushkul. Bunda korporativ tuzilmalarning boshqaruv faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tatbiq etish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/uz/docs/6600413 – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni.
2. https://lex.uz/docs/5073447 – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6097-son Farmoni.
3. https://theworldonly.org.
4. Желткова О. В. Инновационная привлекательность предприятия как фактор технологической модернизации производства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2016. – 24 стр.
5. https://www. worldbank. org – Jahon banki ma’lumotlari.
6. Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие. /. – Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012. – 72 с.
7. Rasulov N. M. O‘zbekistonda qulay innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Материалы XI Форума экономистов. – Т., 2019. – 186-193 стр.
8. Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт, 2015. – 276 стр.
9. Костенко М. А. Правовые основы инновационной деятельности: Учебное пособие. /. Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2012. – 72 с.
10. Алексеев А. А. Инновационный менеджмент. Учебник. – Москва, Юрайт, 2015. – 276 стр.
11. Алексеева М. Б., Ветренко П. П. Анализ инновационной деятельности. – Москва, Юрайт, 2016. – С. 89–91.

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

Botirov Erkinjon Xayitovich
TMI, “Iqtisodiy xavfsizlik” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Yashil o‘sish va barqaror rivojlanish konsepsiyasi global mafkuraga aylanishi, milliy iqtisodiyotda tub islohotlarni amalga oshirish va maqsadni aniqlash, asosiy e’tiborni operatsion samaradorlikni miqdoriy baholashga o‘tkazishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Ratsionallik barqaror yashil o‘sishning asosiy va hal qiluvchi omiliga aylanadi, bu esa ushbu o‘sishni ta’minlaydigan moliyaviy modelni o‘zgartirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda eng dolzarb barqaror o‘sishni ta’minlash masalasi moliya tizimini o‘zgartirish va tamoyillar asosida yangi moliyaviy paradigmani shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, yashil moliya, mas’uliyatli investitsiyalar, ijtimoiy biznes mas’uliyati, barqaror iqtisodiyotning moliyaviy modeli, yashil o‘sish.

Abstract: The concept of green growth and sustainable development has become a global ideology, it is necessary to implement fundamental reforms in the national economy and, having defined the goal, shift the focus to quantifying operational efficiency. Sustainability is becoming a key and decisive factor for sustainable green growth, which requires a change in the financial model that enables this growth. In this regard, today the most pressing issue of ensuring sustainable growth is changing the financial system and forming a new financial paradigm based on principles.

Key words: sustainable development, green finance, responsible investment, social responsibility of business, financial model of a sustainable economy, green growth.

Аннотация: Концепция зеленого роста и устойчивого развития стала глобальной идеологией, необходимо осуществить фундаментальные реформы в национальной экономике и, определив цель, переместить основное внимание на количественную оценку операционной эффективности. Рациональность становится ключевым и решающим фактором устойчивого зеленого роста, что требует изменения финансовой модели, обеспечивающей этот рост. В связи с этим сегодня наиболее актуальным вопросом обеспечения устойчивого роста является изменение финансовой системы и формирование новой финансовой парадигмы, основанной на принципах.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зеленые финансы, ответственное инвестирование, социальная ответственность бизнеса, финансовая модель устойчивой экономики, зеленый рост.

KIRISH

Yaqin 10–20 yil ichida suv tanqisligi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun keng tarqalgan muammolardan biriga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi suv resurslarining eng yirik iste’molchisi hisoblanadi. Mutaxassislar mamlakatning “yashil rivojlanishi” ni hozirgi vaziyatdan chiqish yo‘li deb atashadi.

Prognozlarga ko‘ra, kelgusi 50 yil ichida Markaziy Osiyoda daryo oqimining pasayishi taxminan 20% ni tashkil etadi, bu mintaqadagi suv resurslarini boshqarishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sun’iy sug‘orishga asoslangan qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lishdan tashqari, mintaqada aholi eng zich joylashgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyoning asosiy suvdan foydalanuvchilaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, kelajakda O‘zbekiston uchun suv tanqisligi mintaqadagi eng keskin holatga aylanishi mumkin.

Global miqyosda yashil moliyalashtirishni amalga oshirish qariyb 20 yildan buyon rivojlanib kelmoqda bu esa arzon va muqobil energiya, toza shaharlar, aholi punktlari barqarorligi, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam bermoqda.

Yashil moliyalashtirish – bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bog'liq loyihalarni yo'lga qo'yish jarayoni bo'lib, har bir mintaqaning iqlimiga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligi uchun yashil moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash eng dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish mexanizmini qo'llab-quvvatlashga doir loyihalarni amalga oshiruvchi mutaxassis-kadrlarni, asosiysi, ushbu sohadagi loyihalarni moliyalashtiruvchi O'zbekiston bank tizimi vakillarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrda "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ–4477-sonli qarori qabul qilindi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) yurtimizda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishni va rag'batlantirishni, xususan, iqlim sharoitini hisobga olgan holda ekologik toza qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Iqlimga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligi – bu barqaror dehqonchilik amaliyotini rivojlantirishga, uning iqlim o'zgarishiga qarshi turish qobiliyatiga va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga yordam beradigan kompleks yondashuvdir.

Moliyalashtirish tashabbuslari iqlimga maqbullashtirilgan qishloq xo'jaligini, shu jumladan, meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va meva-sabzavotchilik klasterlarining barqaror usullariga alohida e'tibor qaratish orqali biz iqlimga maqbullashtirilgan meva-sabzavotchilik sohasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun ichki va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoning turli mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyot modelining mohiyati, rivojlanish tarixi, shakllanish xususiyatlari tadqiqotchi-olimlar R. Zimmerman, R. Brenner, J. L. Abella [1], A. V. Glotko, V. S. Balabanov [2], A. Korppoo, N. Tynkkynen [4], M. Kobzev, T. Xussejn [9]lar tomonidan o'rganilgan.

Yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini, barqaror rivojlanishi, shuningdek, mintaqalarning agrosanoat majmuasida "yashil" kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda rossiyalik olimlardan O. S. Akupiyan, I. A. Demesheva, D. P. Kravchenko, L. A. Molchanova [3], A. E. Dvoretskaya [5], S. I. Mishulina [6], B. N. Porfirev [7], Y. A. Borkova [8], L. A. Molchanova, M. S. Malix [10] va boshqalar salmoqli hissa qo'shgan.

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda aniq yutuqlarga erishilganligiga qaramay, uni amalga oshirish muammolarini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda."Yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish masalalari iqtisodiyot, mahalliy sanoatning ayrim sohalarida, xususan, agrosanoat majmuasi va uning tarmoq tuzilmasiga ta'siri ochiqligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy nazariy va empirik usullar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi sohasida "yashil" iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi statistik va moliyaviy ma'lumotlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida mantiqiy va tarixiy, qiyosiy tahlil, ekspert baholash va tizimli-tizimli yondashuv, sintez va mantiqiy modellashtirish usullari qo'llanilgan.

Ilmiy tadqiqotning uslubiy asosi bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning rivojlanishidagi o'zaro bog'liqlik va aloqalar, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarini yechmini topish imkonini beruvchi tizimli, mantiqiy, qiyosiy va matematik iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan va o'rganib chiqilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishining sayyoraviy jarayonlari, biologik xilma-xillikni yo'qotish tezligi va azotning to'liq tiklanishi allaqachon o'z chegaralaridan oshib ketgan, ayni paytda global chuchuk suvdan foydalanish, biosferada fosfor aylanishi, yerdan foydalanishning o'zgarishi va suv zaxiralarining kislotalanishi o'z chegaralariga yetib bormoqda, chunki biz kutilayotgan aholi soni (2050-yilga borib, 9 milliard kishi) uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashimiz kerak bo'ladi. Ushbu muammoni hal etish uchun dunyoda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini barqaror rivojlanishini ta'minlashda energiya resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni yangi texnologiyalarga asoslanib qayta ishlashni amalga oshirish maqsadida an'anaviy biznes modeliga (shu jumladan, global qishloq xo'jaligi uchun) alternativ shaklda "yashil iqtisodiyot" ishlab chiqilgan.

Aytish mumkinki, beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida insonning mas'uliyatli munosabati muammosi tabiatda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning turli sohalaridagi korxonalar o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida tabiatdan cheklangan resurslarni olib, atrof-muhitni ifloslantirmoqda. Atrof-muhit normalari va tabiat qonunlariga

e’tibor bermaslik biznes yuritishning umume’tirof etilgan axloqiy tamoyillariga asoslangan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini imkonsiz qiladi.

So‘nggi yillarda biznesning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish korxona rivojlanishining dolzarb yo‘nalishi bo‘lib, u quyidagi qator omillar ta’sirida rivojlanmoqda:

- globallashuv jarayonlarining rivojlanishi;
- kompaniyalarning shaffofligini mustahkamlash;
- korporatsiyalarning raqobatbardoshligini oshirish, integratsiya jarayonlarini kuchaytirish va tashqi muhit va potensial strategik investorlarning ehtiyojlariga moslashish.

FAO ning yangi loyihasi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli, shuningdek, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq mavjud muammolarni hisobga olgan holda iqlimga moslashtirilgan meva-sabzavotchilik klasterlarini moliyalashtirish usuli va siyosati muhim ahamiyatga ega.

Yashil moliyalashtirishning mavjud mexanizmlarining tahlili, iqlimga maqbullashtirilgan meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirish uchun moliyalashtirish modellarini ishlab chiqishga innovatsion yondashuvlar alohida o‘rin egallaydi.

Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirish vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishdan manfaatdor tashkilotlarni shakllantirish zarur.

Meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishning yashil yo‘li ushbu muammolarga javoban atrof-muhitni saqlash va yaxshilashni, hosildorlik, bandlik va rentabellikni oshirish bilan birlashtirish uchun xizmat qiladi. Bu tashkiliy-iqtisodiy jarayon yashil qishloq xo‘jaligining quyidagi asosiy oltita tamoyiliga asoslanadi:

- Teskari yer degradatsiyasi. Bunga erishish uchun ishlov berishni minimallashtiradigan, uning namligi va organik moddalarini saqlaydigan qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan foydalanish kerak. Bu, o‘z navbatida, tuproq eroziyasi va degradatsiyasining oldini olishga olib keladi. Misol uchun, xususan, tuproqni “nol ishlov berish” texnologiyasi, diversifikatsiyalangan almashlab ekish.
- Yaylovlarda o‘tlashni to‘xtatish, uni nazorat qilish, buning uchun samarali chorvachilik texnologiyalarini joriy etish zarur. Bu yaylovlarni tiklashga, ya’ni ularni saqlab qolishga imkon beradi, bu nafaqat bir xil chorvachilik uchun, balki umuman ekotizimni saqlab qolish uchun juda muhimdir.
- Suv resurslaridan samarali foydalanish. Qishloq xo‘jaligida bo‘lgani singari, meva-sabzavotchilik klasterlar faoliyatida ham allaqachon taniqli texnologiyalar: tomchilatib sug‘orish, sepish, diskret sug‘orish, issiqxonalardan foydalanib kelinmoqda. Nafaqat ularni tajriba asosida qo‘llash, balki ularni majburiy ravishda keng joriy etish va ulardan foydalanish O‘zbekiston uchun juda muhim bo‘lgan suvni tejashga ham, meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishga ham ulkan samara beradi.
- Tuproq, suv, havoning ifloslanishini oldini olish uchun ekologik toza agrokimyoviy moddalar va yoqilg‘idan foydalanish, ular o‘zlari uchun ham, kelajak avlodlar uchun ham himoya qilinishi kerak.
- Qishloq xo‘jaligi sektori chiqindilarini iloji boricha qayta ishlash. Bu, xususan, kompost, biologik gaz va boshqalar kabi ishlab chiqarish obyektlarida qoldiq chiqindilarni qayta ishlatish orqali amalga oshirilishi mumkin.
- Atrof – muhitni biologik tozalashga yordam beradigan, masalan, qurg‘oqchilikka va tuzga chidamli ekinlarni ekish. Xususan, karbonat angidridni ko‘p yillik ekinlar, mevali daraxt ekinlari ushlab turishi mumkin, ular ham tuproqning sho‘rlanishiga chidamli. Bunday ekinlardan foydalanishning kengayishi iqlim o‘zgarishiga moslashish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Fermerlarni ushbu chora-tadbirlarni faol amalga oshirishga undash va ularni samarali qo‘llashga o‘rgatish uchun qishloq xo‘jaligida islohotlarni jahon agrar bozori talabalaridan kelib chiqib, yo‘lga qo‘yish zarur. Shu jumladan, paxta va bug‘doy ekiladigan maydonlarni qisqartirish va ularning hosildorligini oshirishga qaratilgan choralarni kengaytirish bilan birga, meva-sabzavotchilik klasterlar yashil texnologiyalar va ularni yetkazib beruvchilarni tanlashda erkinlikka ega bo‘lishlari kerak, bu jarayonga mahalliy hokimiyat organlarining aralashuvini kamaytirish kerak.

Xususan, yaqinda mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan qishloq xo‘jaligi bilimlari va innovatsiyalari tizimi (AKIS) fermerlarning xabardorligi va malakasini oshirishga yordam beradi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iborat. Bunga texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi.

Strategiyani amalga oshirish natijasida issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari 2010-yildagiga nisbatan 10 foizga qisqartiriladi.

Shuningdek, 100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlari zamonaviy arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlanadi.

Bundan tashqari, ekologik jihatdan yaxshilangan motor yoqilg‘isi va avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlantiriladi.

Yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo‘jaligining “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishi ko‘pgina bonuslar olib keladi. Ma’lumki, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko‘paymoqda. Bunday sharoitda, energetika resurslariga bo‘lgan talab ham ortib boradi. “Yashil iqtisodiyot”ning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish bo‘lib hisoblanadi. Bu jihatdan O‘zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg‘i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko‘p. Shu bilan birgalikda, “yashil energetika” sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyot uchun mislsiz foydadir.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil energetika”ga o‘tish qator afzalliklarga ega. Hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyo shu yo‘lni tanlamoqda. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shildi. To‘rt yil avval qabul qilingan “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari boshladi.

Albatta, “yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi.

“Yashil iqtisodiyot”ning ijtimoiy ahamiyati ham shundan iboratki, uning joriy etilishidan davlat yoki biznes emas, balki, eng avvalo, butun xalq, qolaversa, oddiy odamlar foyda ko‘radi.

Jahon tajribasidan ma’lum bo‘lishicha, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish aholining yashash sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida shaharlardagi hayot qulaylashadi, bolalar o‘limi qisqaradi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi uzayadi va hokazo. Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mintaqalarida esa hatto tashqi migratsiya oqimlari qisqarib, inson kapitalining rivojlanishi kuzatilgan.

Avvalambor, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda davlat qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Chunki dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritishga to‘g‘ri keladi. Bunday yukni davlat byudjeti ko‘tarolmaydi, ehtimol, xalqaro donor tashkilotlarga murojaat qilinar. U holda tashqi ko‘mak qanday shartlarda taqdim etiladi? Muhimi, mahalliy benefitsiarlar – aholi, tadbirkorlik va xo‘jalik subyektlari uni qay shaklda olishi mumkin? Biznesda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida ishlash uchun rag‘bat va motivatsiya uyg‘otilmasa, davlatning barcha sa’y-harakatlari zoye ketishi mumkin.

Odatda korxona va tashkilotlar, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, “yashil texnologiyalar”ni qo‘llash va tegishli asbob-uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar, subsidiya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdim etiladi. O‘z navbatida, bunga bank-moliya tizimi ham xayrixohlik ko‘rsatishi, banklar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liq biznes-loyihalarga alohida e’tibor qaratishi juda muhim.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy ko‘mak instrumentlari, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi, shu jumladan, meva-sabzavotchilik klasterlarida tatbiq etilsa maqsadga muvofiqdir. Sababi mamlakatimiz qishloq hududlarida faoliyat olib borayotgan meva-sabzavotchilik klasterlarimiz bozor kon’yukturasidagi har qanday o‘zgarishga nihoyatda sezgir bo‘lib, yangi raqobat muhitiga moslasha olmasligi mumkin. Yirik korxonalarda esa “himoya yostiqchasi” mavjud. Shu bois ba’zi kompaniyalar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda iqtisodiy tomondan qiynalmaydi. Qolaversa, mahsulot yoki xizmatlar turini diversifikatsiyalash hisobiga ehtimolli risklarni minimallashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini belgilab olish dolzarb masalalardan biridir. Fikrimizcha, dastlabki bosqichda qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalariga investitsiya kiritish maqsadga muvofiq. Bir so‘z bilan aytganda, davlat miqyosida qaysi sohani, qachon va qanday qilib “yashil iqtisodiyot”ga o‘tkazish yuzasidan maqsadli yo‘l xaritasini tuzib olishi zarur.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida, shu jumladan, meva-sabzavotchilik klasterlarida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlanayotgani nafaqat ularning rivojlanishi, balki atmosfera havosiga tashlanayotgan issiqxona gazlarining miqdorini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ekologik toza energiya va resurs yechimlarini ilgari surish Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi faoliyatining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

YTTB korxonalarning energiya tejash salohiyatini ro‘yobga chiqarishga va energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki xususiy sektor bilan hamkorlikka urg‘u bergan holda, loyihalarga sarmoya kiritadi, davlat siyosati bo‘yicha muloqot olib boradi va ularga texnik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekistondagi agrobiznes subyektlari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmidan (GEFF) foydalanish orqali energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritishlari mumkin. Ushbu imtiyoz doirasida YTTB O‘zbekistondagi hamkor banklar orqali kichik va o‘rta biznes korxonalari va korporatsiyalarga issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradigan yashil texnologiyalarga, shuningdek, iqlim o‘zgarishiga moslashish va ta’sirlarni yumshatish texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun kreditlar ajratadi.

ATB Ipak yo‘li bank, ATB Hamkorbank, ATB Sanoatqurilishbanklar YTTBning birinchi mahalliy hamkorlari bo‘lib, ular xususiy kompaniyalarni kreditlash uchun umumiy qiymati 60 million dollarlik yashil kredit liniyalarini qo‘lga kiritgan. Kreditlar issiqlik izolyatsiyasi, fotoelektr quyosh panellari, geotermal issiqlik nasoslari va suvni tejaydigan sug‘orish tizimlari kabi yashil texnologiyalarga investitsiyalarni qoplaydi. Korxonalar va hamkor banklar YTTB ning Yashil texnologiyalar selektori yordamida tasdiqlangan energiya tejamkor yechimlarni topishlari mumkin.

YTTB O‘zbekiston iqtisodiyotiga 121 ta loyiha doirasida 3,8 milliard yevro investitsiya kiritdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasi va BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi o‘rtasida “Agro-oziq-ovqat sektorida yashil iqtisodiyotga inklyuziv o‘tishni qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligida bilimlar va innovatsiyalarning iqlimga moslashgan tizimini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirmoqdalar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, loyiha byudjeti 4 150 000 yevroni tashkil etadi, amalga oshirish muddati esa 2025 yil 30 sentyabrgacha etib belgilangan.

Yangi loyiha oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sektorida “yashil iqtisodiyot”ga inklyuziv o‘tish va qishloq xo‘jaligida bilimlar va innovatsiyalarning “iqlimga optimal moslashgan” tizimi (UAKIS)ni joriy etishga hissa qo‘shadi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonni yashil iqtisodiyotga aylantirishga yordam berish uchun iqlimdan xabardorlikni oshirish, yashil davlat investitsiyalarini rejalashtirish bo‘yicha institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish va yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishni taklif qilgan. Bu esa, davlat-xususiy sheriklik va kredit kafolatlarini kengaytirish qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish va boshqa muhim infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zimmerman, R., Brenner, R., Abella, J. L. (2019). Green infrastructure financing as an imperative to achiyeve green goals, Climate, vol. 7, no. 3, p. 39–52. doi: 10.3390/cli7030.
2. Glotko, A. V., Balabanov, V. S. (2021). Mechanisms for implementing a green economy model in a region’s agroindustrial sector. Iranian journal of ichthyology. 8(Special Issue 1): 92–101.
3. Акупиян О. С., Демешева И. А., Кравченко Д. П., Молчанова Л. А. и др. Инновационное развитие предприятий агропромышленного сектора// Коллективная монография: Изд-во Белгородский ГАУ им. В. Я. Горина. 2021. – 260 с.
4. Korppoo, A., Tynkkynen, N. (2022). Conceptualizing “Green economy” in Russian academic debate. Eurasian geography and economics: 1–23.
5. Дворецкая А. Е. Зеленое финансирование как современный тренд глобальной экономики/А. Е. Дворецкая// Вестник Академии. –2017. –№2. –С. 60-65.
6. Мишулина С. И. “Зеленые” инвестиции как элемент механизма экологизации региональной экономики / С. И. Мишулина // Sochi Journal of Economy. – 2019. – Т. 13. – № 2. – С. 155–164.
7. Порфирьев Б. Н. Зеленая экономика и зеленые финансы / Б. Н. Порфирьев // Учебное пособие. Международный банковский институт. – Санкт-Петербург, 2018. – 412 с.
8. Боркова Е. А. Политика стимулирования зеленого инвестирования как направление регулирования рынка зеленого финансирования / Е. А. Боркова // Управленческое консультирование. – 2020. – № 5. – С. 68–76. – URL: https://doi. org/10. 22394/1726-1139- 2020-5-68-76 (дата обращения: 01. 03. 2021).
9. Kobzev M., Xussejn T. “Zelenoe” finansirovanie: status pravovogo regulirovaniya i mezhdunarodnoj praktiki, Neft, gaz i pravo, 2017, no. 6. – pp. 45–50.
10. Молчанова Л. А., Малых М. С. Совершенствование методических основ аналитической поддержки инновационного развития предприятий аграрной сферы // Конкурентоспособность в глобальном мире: экономика, наука, технологии. 2017. №9-6 (56). – С. 68–71.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH

G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich
Toshkent moliya instituti “Menejment va marketing” kafedrasi v. b. dotsent

Annotatsiya: Innovatsion-investitsion salohiyatning shakllanishi va omillari tahlili, bu sohada mavjud uslubiyotlar tizimi tahlil etilgan, mutaxassislar va iqtisodchi-olimlar qarashlari umumlashtirilgan, ularning munozarali jihatlari bayon etilgan hamda hozirgi zamon davlat investitsiya siyosatida hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarishning ahamiyati va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion salohiyat, investitsion salohiyatni boshqarish, investitsion faoliyat, mintaqaviy iqtisodiyot, hududda iqtisodiy o‘sishning ekzogen va endogen omillari, hududlar investitsion salohiyatini tizimli boshqarish.

Abstract: The article investigates the methodological issues of managing the investment potential of the region, analyzes the systems of available methods in this area, summarizes the views of specialists and economists, sets out controversial aspects of their views, reveals the meaning and tasks of effective management of the investment potential of the region in the modern investment policy of the state.

Key words: investment potential, investment potential management, investment activity, regional economy, exogenous and endogenous factors of economic growth in the region, systemic management of the investment potential of the region.

Аннотация: Инвестиционным потенциалом региона, были анализированы системы имеющихся методик в этой области, обобщены взгляды специалистов и учёных-экономистов, изложены спорные моменты их взглядов, раскрыты значение и задачи эффективного управления инвестиционным потенциалом региона в современной инвестиционной политике государства.

Ключевые слова: инвестиционный потенциал, управление инвестиционным потенциалом, инвестиционная деятельность, региональная экономика, экзогенные и эндогенные факторы экономического роста в регионе, системное управление инвестиционным потенциалом региона.

KIRISH

Jahonda jadal sur’atlarda kengayib borayotgan investitsiya jarayonlariga muvofiq investitsion salohiyatni baholash, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashuvi ta’siri, vujudga kelayotgan tabiiy-demografik, ma’muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, balanslashgan investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta’minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida investitsion salohiyatni oshirishning yo‘nalishlariga oid olimlar fikrini o‘rgangan holda kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalarning erkin kirib kelishi bo‘yicha mavjud shart-sharoitlarni ta’minlash, investitsiyalar samaradorligini baholashning kompleks ko‘rsatkichlari majmuasini ishlab chiqish, investitsion salohiyatni samarali boshqarish bo‘yicha nazariy-uslubiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, yirik reyting agentliklari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Peterson Institute for International Economics, The University of Chicago, Regional Economic Development Institute (REDI), Bank of America World Information Services, Business Environment Risk Intelligence (BERI), Moody›s Investor Service, Standard & Poor›s Ratings Group (S&P), The United Nations Commission on Sustainable Development (UN CSD), ATKearney (AQSh),

World Economic Forum, Harvard University, Euromoney Institutional Investor (PLC), The University of Oxford, Economist Intelligence Unit (EIU) (Buyuk Britaniya), United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (Shveytsariya), Control Risks Group (CRG) (Singapur), Institutional Investor (II) (Gonk Kong), Montpellier Business School (Fransiya), International Country Risk Guide (ICRG) (Avstraliya), The Fraser Institute (Kanada), Ekspert RA (RAEX) (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi va Toshkent moliya instituti (O‘zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Masalan, xorijiy norezedentlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion loyiha samaradorligini baholash bir qancha uzluksiz bosqichlarni qamrab olgan jarayonlarni tahlil qilishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo‘yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko‘rsatkich sifatida ular ega bo‘lgan aksionerlik kapitalining hissasi ko‘rsatkichidan foydalaniladi (1-rasm).



1-rasm: Bir qator mamlakatlarda aksionerlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini berish hissasi.

Bu ko‘rsatkich AQShda 10 foiz, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, Germaniyada 25 foizdan 50 foizgacha, O‘zbekistonda esa 49 foiz darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularning o‘zlik mablag‘larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o‘z ifodasini topgan.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Hozirga kelib O‘zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni, asosan, nihoyasiga yetkazildi va amalda qo‘llanilmoqda. Bu faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste’moli va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari doirasida olgan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o‘tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PQ–4300 sonli “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Unga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda ozod qilinadi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 7 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 10 yil muddatga.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar

№	Rasmiy muassasa nomi	Muassasaning chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan bog‘liq faoliyat doirasi
1.	Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: - investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda, chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; - davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish.
2.	Iqtisodiyot vazirligi	Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish
3.	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi	- Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to‘g‘risida ma’lumotlar bankini shakllantirish; - investitsiya muhitini o‘rganish; - xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatish; - investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko‘rsatish; - chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); - korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro‘yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash.

4.	Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi	Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish.
5.	Moliya vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.
6.	Adliya vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro‘yxatga olish.
7.	Tashqi ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarga va O‘zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish.
8.	Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va O‘zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarni turar joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish.
9.	Davlat soliq qo‘mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog‘liq faoliyatini tartibga solish.
10.	Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o‘tkazilishini, valyuta mablag‘laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati.
11.	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko‘rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish.
12.	“O‘zbekinvest” davlat sug‘urta kompaniyasi va “O‘zbekinvest-interneshnl” qo‘shma korxonasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan va xavf-xatarlardan sug‘urtalash.
13.	“O‘zbekinvestloyiha” milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnomalarini tayyorlash.
14.	Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish.

O‘zbekiston jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosati bilan jonli qiziqish uyg‘otadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilarining barpo etilishi iqtisodiy rivojlanishning garovi ekanligi oldingi paragraflarda zikr etildi. Ta’kidlanganidek, mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg‘armalari.
2. Bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish.
3. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobiga moliyalashtirish.
4. Xorijiy investitsiyalar.

So‘nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o‘zgardi.

O‘zbekistonni rivojlantirish va taraqqiyot jamg‘armasi, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi, bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar o‘rin olgan. Ushbu ko‘rsatkichga to‘g‘ri kelgan investitsiyalar 2016-yilda 27,4 foizni tashkil etgan. 2022-yilda esa 20,3 foizni tashkil etgan.

2022-yil uchun belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning ahamiyatli qismi korxona va aholi mablag‘lari (52,9 foiz) hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (19,9,5 foiz) orqali amalga oshirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, asosiy e’tibor korxona mablag‘lari va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnologik quvvatlarini modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Yuqorida fikr bildirganimizdek, har qanday davlatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ham ichki, ham tashqi investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish orqali erishilishi isbotlangan. Ushbu holatni inobatga olib, tubanda aynan, jahon investitsiyalar bozoridagi vaziyat, rivojlanishning yuqori darajalarini egallash maqsadida qabul qilinayotgan islohotlar, ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar va tendensiyalarning sharhiga navbat beriladi.

Jahon investitsiyalar bozoridagi holat. Oxirgi yillarda xalqaro investitsiyalar bozorida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) harakati yildan yilga kamayish tomon yuz tutib borgan. BMTning Savdo va rivojlanish tashkilotining (YuNKTAD) “Jahon investitsiyalari to‘g‘risidagi ma’ruzasi” ma’lumotlariga ko‘ra, hali beri davom

etayotgan jahon moliyaviy inqirozi tufayli dunyo bo‘yicha rivojlangan davlatlarga kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga qaraganda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilayotgan TTXI hajmi katta miqdorni tashkil qilgan (2015-yilda dunyo bo‘yicha umumiy TTXIlar eksporti va importining qariyb 52 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2022-yilda uning ulushi 63 foizni tashkil etgan).

2022-yilda dunyo bo‘yicha TTXI hajmi (eksporti va importi) 20 foizga oshgani holda, 3236 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Birgina 2022-yilda rivojlangan mamlakatlarga kiritilgan TTXI hajmi o‘tgan yilga nisbatan 36 foizga ortgan (3-jadval).

3-jadval: To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi, milliard AQSh dollari va foizda

Mintaqalar	TTXI kirib kelishi			TTXI chiqib ketishi		
	2011	2015	2020	2011	2015	2022
Jahon bo‘yicha	1 427	1 277	1 762	1 311	1 318	1 474
Rivojlangan davlatlar	680	522	962	826	801	1065
Rivojlanayotgan davlatlar	662	698	795	409	446	378
Afrika	52	58	54	16	15	11
Osiyo	431	468	541	359	398	332
Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo	350	383	448	312	365	293
Janubiy Osiyo	36	41	50	2	12	8
G‘arbiy Osiyo	46	43	42	45	20	31
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	176	170	168	32	31	33
Okeaniya	3	2	2	2	1	2
O‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari	85	56	35	76	72	31
Tarkibiy munosabatlar bo‘yicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik bo‘lgan davlatlar	52	55	56	14	14	8
Davlatlarning xalqaro TTXIdagi ulushi, foizda						
Rivojlangan davlatlar	47.7	40.9	54.6	63.0	60.7	72.3
Rivojlanayotgan davlatlar	46.4	54.7	43.4	31.2	33.8	25.6
Afrika	3.7	4.6	3.1	1.2	1.2	0.8
Osiyo	30.2	36.6	30.7	27.4	30.2	22.5
Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo	24.5	30.0	25.4	23.8	27.7	19.9
Janubiy Osiyo	2.5	3.2	2.9	0.2	0.9	0.5
G‘arbiy Osiyo	3.2	3.4	2.4	3.4	1.5	2.1
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	12.3	13.3	9.5	2.5	2.4	2.2
Okeaniya	0.2	0.2	0.1	0.2	0.1	0.1
O‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari	5.9	4.4	2.0	5.8	5.5	2.1
Tarkibiy munosabatlar bo‘yicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik bo‘lgan davlatlar	3.6	4.3	3.2	1.1	1.1	0.5

Bunda eng katta ulush sanoat jihatidan eng yuqori rivojlanishga ega bo‘lgan davlatlarga to‘g‘ri keladi.

TTXI kirib kelishi bo‘yicha rivojlanayotgan davlatlarda o‘sish 5 foizni tashkil etgan. Osiyo davlatlariga kiritilgan TTXIlarning o‘sishi 2015-yilga nisbatan 15 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Osiyo davlatlari tarkibida Hindistonga kiritilgan investitsiyalar absolyut qiymatda 59 mlrd. dollarni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan ikki barobarga o‘sgan[1].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Birlashgan Millatlar Tashklotining Savdo va rivojlanish konferensiyasi va Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Xitoy Xalq Respublikasiga kiritilgan TTXI hajmi 2015-yilda 136 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan. Ushbu reytingda O‘zbekiston 86 o‘rinni band etgan.

O‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan davlatlarda TTXI 2015-yilda 54 foizga qisqargan. Bunga asosiy sabab sifatida jahonda xom ashyo resurslari narxining arzonlashgani ko‘rsatilsa, bunda eng ko‘p pasayish Rossiya Federatsiyasi (92 foiz) va Qozog‘iston Respublikasiga (66 foiz) to‘g‘ri kelgan.

2016-yilning sentyabriga qadar bo‘lgan 12 oy davomida Xitoydan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar chiqib ketishi YaIMning 2,19 foiziga teng bo‘ldi. Bu esa rekord natija sanaladi. Xitoyning Yevropaga investitsi-

1 Доклад о мировых инвестициях за 2020 г. Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию. Нью-Йорк и Женева, 2021. – С. 135.

yalari 77 foizga ortib, 35 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo‘lsa, Yevropaning Xitoyga sarmoyasi – 23 foizga qisqarib, 8 mlrd. ni tashkil etdi.

Londondagi TS Lombard tadqiqot firmasining Xitoy bo‘limi direktori Trey MakArverning mulohazalariga ko‘ra, Xitoydagi biznesga bo‘lgan munosabat “so‘nggi uch-to‘rt yilda keskin ravishda yomonlashgan”: U avvalgidek o‘ziga jalb etayotgani yo‘q. Kompaniyalar katta e’tibor beruvchi nominal o‘sish 20 foizdan 7–8 foizga qadar tushib ketdi[2].

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida qonun hujjatlariga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildiki, bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga hamda Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashning mazkur korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasida amal qilgan me’yorlari va qoidalarini qo‘llashga haqli ekanligi belgilab qo‘yildi.
2. Shunday tartib o‘rnatildiki, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag‘lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, investitsion salohiyatni samarali boshqarishning asosiy yo‘nalish va istiqbollarini ilmiy asoslash nafaqat davlatning samarali investitsiya siyosati konseptual asoslarini ishlab chiqish va uning vazifalarining bosqichma-bosqich ijrosi yordamida ta’minlanadi, balki shu bilan birga mamlakat resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlari tadqiqini ham talab etadi. Shu bois dissertatsiyamiz mavzusi doirasidagi tadqiqotimizda aynan investitsion salohiyatni samarali boshqarish yo‘nalishi sifatida O‘zbekistonning resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlarining ilmiy tadqiqiga alohida o‘rin berilgan.

Foydalangan adabiyotlar ruyxati:

1. The theory and practice of investment management / Frank J. Fabozzi, Harry M. Markowitz, editors. –2nd ed. Copyright © 2011 by John Wiley & Sons, Inc. All rights reserved. Printed in the United States of America.
2. Бочаров В. Р. Инвестиции: Учебник для вузов. – 2-е изд. -СПб.: Питер, 2008. – 384 с. Ил. - (Серия “Учебник для вузов”).
3. Imomov H. H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, Iqtisod-moliya, 2010. – 164 b.
4. Jo‘rayev A. S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2003. – 246 b.
5. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 208 b.
6. Ishmuxamedov A. E, Qosimov. M. S, Jumayev. Z. A, Jumayev Q. X. Loyiha tahlili. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – T.: TDIU, 2004. –159 b.
7. Jo‘rayev A. S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq. 2003.
8. Samatov G. A, Rustamova I. B. Loyihalar tahlili fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy qo‘llanma. – T., 2008. – 63 b.
9. Гитман Л. Дж., Джонк М. Д. Основы инвестирования, М.: Дело, 2007.
10. Ковалев В. В. Методы оценки инвестиционных проектов. –М.: Финансы и статистика, 2008. - 176 с.
11. Investment Appraisal: Methods and Models – Uwe Gotze, Deryl Northcott, Peter Schuster – 2015 (inv. baholash)
12. Bureau, E. T. Nine diversified companies: Are these firms attractive investment propositions?. Jan 31, 2011, 09.32am IST

2 http://www. tslresearch. com.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Jubanova Bayramgul Aymuratovna
PhD, TATU Nukus filiali, “Multimediya texnologiyalari” kafedrasi

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari qarab chiqilgan. Bunda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va davlat dasturlarini amalga oshirishda ko‘maklashish masalalari o‘z ifodasini topgan. Innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish va ularni takomillashtirishdagi muammolari hamda kelajakdagi istiqbollari aniqlab olindi. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, raqobat muhiti, innovatsiya, investitsiya loyihasi, innovatsion faoliyatni boshqarish.

Abstract: The article examines the possibilities of entrepreneurship development. In this, the issues of implementing structural changes aimed at the most basic directions of the economic reforms implemented in our country in the development of entrepreneurship and financing of innovative projects, and assistance in the implementation of state programs are expressed. The problems of increasing the efficiency of innovative projects and their improvement, as well as their future prospects, were identified. The experience of developed foreign countries in financing innovative projects was studied.

Key words: entrepreneurship, competitive environment, innovation, investment project, management of innovative activity.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности развития предпринимательства. При этом выражаются вопросы реализации структурных изменений, направленных на самые основные направления реализуемых в нашей стране экономических реформ в области развития предпринимательства и финансирования инновационных проектов, содействия реализации государственных программ. Обозначены проблемы повышения эффективности инновационных проектов и их совершенствования, а также их перспективы на будущее. Изучен опыт развитых зарубежных стран по финансированию инновационных проектов.

Ключевые слова: предпринимательство, конкурентная среда, инновации, инвестиционный проект, управление инновационной деятельностью.

KIRISH

So‘nggi yillarda respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amaldagi moliyalash mexanizmini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Mazkur mexanizmdan samarali foydalanish hisobiga mamlakatimizda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlarining soni oshmoqda. Bu mamlakatimizning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kuchaytirishga va mavqeyini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni innovatsion loyihalarsiz rivojlantirish qiyin, ularni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi tijorat banklari innovatsion loyiha ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni kredit mablag‘lari bilan ta’minlab, mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy pog‘ona vazifasini bajaradi va shu orqali jamiyatda umumiy makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatinining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil ushbu sohani moliyalashtirish muammosi hisoblanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o‘rni orttiriladi.

Innovatsion faoliyat yangi iqtisodiy natijalarni belgilaydigan texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi yangiliklarni joriy etishning tizimli jarayoni bo‘lib, globallashuv natijasida yuzaga kelgan shiddatli raqobat orqali o‘z roli va ahamiyati ortishiga olib kelmoqda. Bunda innovatsiya deb tan olish mumkin bo‘lgan mezon-samaradorlikning o‘sishi, mahsulotlarning raqobatbardoshligini va yashash sifatini oshirishdan iborat. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy (ichki) manbayi bu xo‘jalik yurituvchi subyektning foydasi hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar innovatsion faoliyatni tashkil etishda tashqi manbalar, xususan, innovatsion loyihalar hisobidan, venchur va kraudfanding usulidan moliyalashtirilmoqda. Yirik va ko‘p mablag‘lar talab qilmaydigan, moddiy resurslarning nisbatan qisqa muddat mobaynida o‘sish sur’atini kafolatlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi bandlik muammosini nisbatan tez va ortiqcha sarf-xarajatlarsiz ta’minlash, ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan sharoitda iste’mol mollari bilan to‘ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan xususiy tadbirkorlarning uzoq va nisbatan qisqa muddatlarda talab etiladigan moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shakllantirish, iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi ulushini o‘stirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, iqtisodiyotning turli sektorlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakat yalpi ichki mahsuloti o‘sishini ta’minlashning muhim va asosiy omilidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni, nafaqat son jihatdan, balki vazifa jihatidan ham kattadir. Buni biz bozor konyunkturasining rivojlanishi, talab va taklif muvozanati oshishi, raqobat muhiti shakllanishida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati ham katta. Buni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin: – tadbirkorlik subyektlari mustaqil ravishda o‘z ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan tashqari, yollanma ishchilarning yashash darajasini ko‘tarish imkoniga ega bo‘ladi; – tadbirkorlik, nafaqat ish bilan bandlik, balki shaxsning ichki imkoniyatlari ochilishi uchun ham imkoniyat yaratadi; – tadbirkorlik ishsizlik darajasini qisqartirish va mamlakatning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish imkoniga ega; – mamlakatning eng chekka hududlarida ham infratuzilma rivojlanishiga hissa qo‘sha oladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kichik biznesni to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy qo‘llab-quvvatlash usullariga nisbatan bilvosita qo‘llab-quvvatlash usullaridan ko‘proq foydalanilmoqda. Tadbirkorlikning innovatsion loyihalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri va bank kreditlarini kichik biznesga jalb etishni oshirishga imkoniyat yaratadigan kafolat berish shakli hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o‘rta korxonalarga kredit olishi uchun ta’minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishga sharoit yaratib kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi subyektlarini nafaqat qo‘llab-quvvatlamoqda, balki yangi korxonalarning paydo bo‘lishini rag‘batlantirmoqda. Shu yo‘l bilan tadbirkorlar o‘zlariga zarur moliyaviy mablag‘larni qulay shartlarda jalb qiladi va tijorat banklari uchun kreditning qaytarilish riski sezilarli darajada kamaytiriladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun moliya bozorini yanada liberalizatsiyalash, ularga xizmat ko‘rsatuvchi moliyaviy infrastrukturaning yanada takomillashtirilishi kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi oshishiga xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini kreditlash tartiblarini soddalashtirish pirovard natijada investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar taqchilligi, shuningdek, aylanma mablag‘larning yetishmovchiligi kabi muammolarni ijobiy hal etishga yordam qiladi. Fikrimizcha, kichik biznes subyektlari uchun mo‘ljallangan yangi kredit turlarini ishlab chiqish, kredit olish tartiblarini soddalashtirish, kichik biznes subyektlarining to‘lov layoqatini baholash uslubiyotini takomillashtirish, shu bilan birga hududlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida banklarning ko‘proq va kengroq ko‘lamlarda qatnashuvini ta’minlash, kichik biznes subyektlariga olingan kreditlar bo‘yicha to‘lanadigan foiz stavkalarini kompensatsiyalash, kafolatlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi oxir oqibatda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga imkoniyat yaratib beradi. Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy-kreditlashtirish mexanizmi takomillashtirilishi kichik biznesning taraqqiyotini rag‘batlantirish uchun mustahkam asos bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznesni tashkil etish, rivojlantirish va boshqarish: darslik. G. L. Bagiyeva, V. Y. Burova (2020) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan [1]. Inqirozga qarshi boshqaruvda innovatsion mexanizm korxonalar faoliyatini takomillashtirishda innovatsion dastaklarning samarasini aks ettirib beradi. Balabanov I. L. (2001) [2] asarlarida ko‘rib chiqilgan. Tadbirkorlik asoslari, Kichik biznes amaliyoti Borisov A. B (2000) tomonidan tahlil qilingan [3]. Moliya tizimi: iqtisodiy mazmuni va yuk tashish mexanizmlari Zeynelgabdin, A. B (2005) [4]; kengayib borayotgan sug‘urta bozorida tadbirkorlikning raqobatbardoshligi Gimush R. I., Matmurodov F. M. (2006) [5]; xarajat yondashuviga asoslangan korxona raqobatbardoshligini boshqarishning innovatsion mexanizmi Davidenko P. L. (2017) [6] asarlarida o‘rganilgan. Iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanish omillaridan biri

innovatsion loyihalarni moliyalashtirishidir. Ushbu jarayonda aholi ish bilan bandligining oshib borishi va bu ko‘rsatkichlarni solishtirma tahlil qilish, shu asosda tegishli tavsiyalar ishlab chiqishi bilan belgilanadi. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bandlik va daromadlarning o‘sishining asosiy manbayi bo‘lib qolmoqda.

TADKIKOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida innovatsion loyihalar bilan faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va unda aholi ish bilan bandligini aniqlash bo‘yicha o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash usullaridan foydalanildi Ushbu tadqiqot sifatli deb hisoblanadi. Bunda mamlakatimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va davlat dasturlarini amalga oshirishda ko‘maklashish masalalarin o‘rganish uchun sifatli usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun davlat byudjeti, xalqaro moliya institutlari, mahalliy byudjet, tijorat banklari, mikromoliyalash tashkilotlari, xususiy investorlar va tadbirkorlik subyektlarining o‘z mablag‘laridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining ushbu tarzda qo‘llab-quvvatlanishi pirovard natijada ularning raqobatbardoshligi oshirilishi, texnik va texnologik bazasi yangilanishi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini kamaytirish va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligi, foyda va rentabellik darajasi oshishiga erishiladi. Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatini samarali moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va ularni rag‘batlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: iqtisodiy barqaror o‘sishning uzoq muddatli sur’atlari va iqtisodiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiluvchi mahalliy dasturlarni ishlab chiqish; iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishiga yo‘naltirilgan soha va tarmoqlarni texnik va texnologiya jihatdan qayta jihozlashni amalga oshirish; qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish infratuzilmasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan uzoq muddatli, o‘zaro chuqur bog‘langan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish; aholining ish bilan bandligini tizimli ta’minlash, kichik tadbirkorlar manfaatidan kelib chiqib banklar tizimini yanada takomillashtirish, aholi va tadbirkorlik xo‘jaliklarining bo‘sh mablag‘larini tijorat banklardagi depozitlarga jalb qilinishini rag‘batlantirish; yangi o‘rta sinf vakillari – mulkdorlar, tadbirkor va ishbilarmon subyektlar manfaatlarini himoyalashni kuchaytirish. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarni keng jalb etish, xususiy sektor faolligini oshirish va venchurga asoslangan moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsion ishlanmalar asosida amalga oshiriladigan loyihalarning moliyaviy, iqtisodiy va texnik ekspertizasini o‘tkazish va intellektual mulk obyektlarini tatbiq etish uchun zarur sharoitlarni ta’minlash, iqtisodiyotning real sektori va ishlab chiqarish tarmoqlarining ilmiy ishlanma va innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash hamda tarmoq ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish asosida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish va ishlab chiqishga joriy etish, startap loyihalarini amalga oshirish, intellektual mulk qatnashadigan yangi tashkilotlarni shakllantirish va ratsionalizatorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Малое предпринимательство. Организация, развитие и управление малым предприятием: учебник (Высшее образование) / под науч. ред. Г. Л. Багиева, В. Ю. Бурова. – Москва : ИНФРА-М, 2020. – 582 с.
2. Балабанов И. Л. Инновационный менежмент. – СПб.: Питер, 2001. – 120 с.
3. Борисов А. Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – 86 с.
4. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsiya menejment. Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘l. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 144 b.
5. Toshmurodova B. E., Jiyanova N. Innovatsiya faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 110 b.
6. Давыденко П. Л. Инновационный механизм управления конкурентоспособностью предприятия на основе стоимостного подхода // Российский научный журнал “Экономика и управление”, № 5, 2017. – 17–21.

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI VA UNI RAQAMLASHTIRISHNI EKSPERT BAHOLASH YO'LLARI

Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li
iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (PhD), Fiskal institut doktoranti (DSc)

Annotatsiya: Soliq ma'muriyatchiligini oqilona tashkil etish tadbirkorlikni rivojlantirish hamda byudjet daromadlarini barqaror shakllantirish uchun xizmat qiladigan omillardan hisoblanadi. Chunki oqilona soliq siyosatining ijrosi to'liq ta'minlanishi soliq ma'muriyatchiligini to'g'ri va samarali tashkil etish hamda ma'muriy bosimni pasaytirishga bog'liqdir. Maqolada mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davrida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish zaruriyati, uning ahamiyatiga baho berilgan hamda uni takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar ekspert baholash usuli yordamida ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: soliq, davlat byudjeti daromadi, soliq siyosati, soliq ma'muriyatchiligi, raqamlashtirish, ekspert baholash, soliq nazorati.

Abstract: Rational organization of tax administration is one of the factors that serve to develop entrepreneurship and stable formation of budget revenues. Because the full implementation of a reasonable tax policy depends on the correct and effective organization of the tax administration and the reduction of administrative pressure. In the article, the need to improve the tax administration during the period of reforms for the digitalization of all spheres of society's life in our country is evaluated, its importance is assessed, and the suggestions for its improvement are scientifically based using the method of expert evaluation.

Key words: tax, state budget revenue, tax policy, tax administration, digitization, expert assessment, tax control.

Аннотация: Рациональная организация налогового администрирования является одним из факторов, способствующих развитию предпринимательства и стабильному формированию доходов бюджета. Потому что полноценная реализация разумной налоговой политики зависит от правильной и эффективной организации налогового администрирования и снижения административного давления. В статье оценивается необходимость совершенствования налогового администрирования в период реформ в нашей стране для цифровизации всех сфер общественной жизни, его значение, а также научно обоснованы предложения по его совершенствованию с использованием метода экспертной оценки.

Ключевые слова: налог, доходы государственного бюджета, налоговая политика, налоговое администрирование, цифровизация, экспертная оценка, налоговый контроль.

KIRISH

"Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri "davlat organlarining faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish" belgilab berilgan [1]. Ushbu vazifa ijrosi davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchilar bilan ishlash usul va shakllarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Soliq to'lovchilar bilan amalga oshiriladigan ishlar sifati davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ularning ehtiyojlari va talablariga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Bu esa axborot va ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar doirasini kengaytirish soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir tadqiqotlarni olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash va ekspert baholash kabi usullardan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoning barcha davlatlarida shiddat bilan kechayotgan raqamlashtirish jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgandir. Shu sababli ushbu jarayonni iqtisodiyot sohasida takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda olimlar raqamlashtirishning afzalliklari xususida o‘z fikrlari bildirmoqda. Xususan, O. A. Alekseenko [2], B. B. Kovalenko [3], E. Martin, L. Martin [4], X. S. Muxitdinov [5], O. S. Umarov [6] tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatson boshqarish samaradorligini oshishi, raqamli transformatsiyaning imkoniyatlari barqaror raqobatdosh ustunliklar yaratishi hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatining oshirish imkon berishi ta’kidlanadi.

Shuningdek, tadqiqotlarimizda soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish o‘z navbatida soliqlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq to‘lashni nazorat qilishni sezilarli darajada osonlashtirish, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish va huqubuzarlikka moyil soliq to‘lovchilar toifasi bilan ishlashni soddalashtirish uchun xizmat qilish xususida to‘xtalganmiz [7–12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va fuqarolarning soliqlarni to‘lash bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarish uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta’minlash uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda soliq to‘lovchilar bilan axborot-tushuntirish ishlarini olib borishda ilg‘or shakllar va usullarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining soliq. uz saytiga bir kunda ko‘ruvchilar 2500 tadan ortiq, jami tashrif buyuruvchilar esa 80000 tadan ortiqni tashkil etadi[1]. Ushbu raqamlar soliq to‘lovchilarning davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlardan foydalanish darajasining o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga 45 ta elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilib kelinmoqda. Elektron tarzda ko‘rsatilayotgan xizmatlar yo‘nalishlari:

- murojaatlarni yuborish;
- ro‘yxatga olish;
- hisobotlarni yuborish;
- axborotlar olish;
- ma’lumotnomalar olish;
- soliqlarni hisoblash;
- soliqlarni to‘lash;
- kontragent haqida ma’lumotlar olish kabi guruhlardan iborat[2].

Hozirda davlat soliq xizmati organlar tomonidan yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun shaxsiy kabinetlar orqali xizmat ko‘rsatish yo‘lgan qo‘yilgan bo‘lib, ushbu tizimi orqali yuridik, jismoniy shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar 45 turdagi elektron xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda. 2020-yil yanvar oyida yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga shaxsiy kabinetlardan 198866 marta foydalanilgan bo‘lib, 2021-yil yanvar oyida ushbu ko‘rsatkich 451396 tani tashkil etgan. 2023-yil sentyabr oyida shaxsiy kabinet orqali ko‘rsatilgan 108528 ta xizmatlarning 82 foizi ortiqcha to‘lovlarni qaytarish to‘g‘risida bo‘lgan[3].

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning ko‘rsatilayotgan elektron davlat xizmatlar turining o‘sishi soliq to‘lovchilarga:

- kunning xohlagan paytida zarur axborotlarni olish;
- byudjet bilan hisob-kitoblarini tezkor nazorat qilib borish;
- soliq organiga bormasdan o‘zini qiziqtirgan savol yoki masala bo‘yicha murojaat qilish;
- soliqlarni onlayn to‘lash kabi ko‘plab imkoniyatlar berdi.

Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Davlat soliq qo‘mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi”da soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish bo‘yicha 9 ta asosiy ustuvor vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli ijrosi soliq ma’muriyatchiligida mavjud tadqiqotlarimizda aniqlangan soliq ma’muriyatchiligi sohasida bir qator o‘z yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi (1-jadval).

Olimlar [8] tomonidan tadqiqotlar natijasida soliq ma’muriyatchiligi tizimini raqamlashtirishning bir qator afzalliklari e’tirof etilgan:

- soliq ma’muriyatchiligi xarajatlari kamayishi;
- soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash imkoniyatini oshishi;
- soliq to‘lovchilarga ma’muriy bosimni kamayishi;

1 2022-yil 24-sentyabr holatiga soliq. uz. sayti ma’lumoti.
2 2022-yil 24-sentyabr holatiga soliq. uz. sayti ma’lumoti.
3 2022-yil 24-sentyabr holatiga soliq. uz. sayti ma’lumoti.

- korrupsiya riski darajasi pasayishi;
- soliq ma’muriyatchiligi bosimi pasayishi va biznes ko‘lamining kengayishi evaziga soliq bazasini oshishi.

Fikrimizcha, olimlar tomonidan e’tirof etilgan ushbu afzalliklardan tashqari soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish natijasida:

- soliq bazasi bilan bog‘liq axborotlar elektron bazasini shakllantirish;
- soliq to‘lovchilarga kontragentlar to‘g‘risidagi axborotlarni yetkazib berish;
- soliq qarzdorlik holati to‘g‘risidagi tezkor axborotlarni shakllantirish;
- soliq to‘lovchilar uchun zarur qonunchilikdagi yangiliklar, uslubiy-tushintirish hujjatlarini tezkor yetkazish;
- soliq to‘lovchilar, vakolatli organlar bilan o‘zaro hamkorlik masalalarda tezkor va sifatli axborot almashuvini amalga oshirish yo‘lga qo‘yiladi.

4.3.1-jadval: Soliq ma’muriyatchiligi muammolari tizimi va ular mazmuni tasnifi

Nazariy muammolar	Huquqiy muammolar	Tashkiliy muammolar	Uslubiy muammolar
Soliq ma’muriyatchiligi va uning mazmuni bo‘yicha yagona to‘xtam yo‘qligi	Soliq Kodeksi va me’yoriy hujjatlarda soliq ma’muriyatchiligi mazmuniga ta’rif tasdiqlanmagan.	Soliq ma’muriyatchiligi tizimi aniq tasnifi mavjud emas.	Soliq ma’muriyatchiligi tizimi belgilanmaganligi natijasida ular bo‘yicha uslubiy yaxlitlik yo‘q.
Soliq ma’muriyatchiligi funksiya va vazifalari bo‘yicha qarashlar turlicha ekanligi	Soliqqa tortish va soliq ma’muriyatchiligi bir qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Alohida Soliq protsessual qonuni mavjud emas	Soliq Kodeksi va me’yoriy hujjatlarda soliq ma’muriyatchiligi funksiya va vazifalari aniq belgilanmagan	Soliq ma’muriyatchiligi funksiya va vazifalari ijrosini ta’minlovchi uslubiy hujjatlar to‘liq shakllantirilmagan
Soliq ma’muriyatchiligi sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimiishlab chiqilmaganligi	Me’yoriy hujjatlar bilan soliq ma’muriyatchiligi darajasi sifatini baholash bo‘yicha me’yoriy hujjat mavud emas	Me’yoriy hujjatlar bilan soliq ma’muriyatchiligi darajasini sifat jihatdan baholash tizimi belgilab qo‘yilmagan	Soliq ma’muriyatchiligi sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubiyoti mavjud emas.
Soliq ma’muriyatchiligi va soliqqa tortish tamoyillari farqlar noaniq bo‘lib qolgan.	Soliq Kodeksi va me’yoriy hujjatlarda soliq ma’muriyatchiligi tamoyillari belgilab qo‘yilmagan.	Soliq ma’muriyatchiligi tamoyillari aniq tasnifi mavjud emas.	Soliq ma’muriyatchiligi tamoyillari mazmuni bo‘yicha sharhlar yo‘qligi
Soliq ma’muriyatchiligi vakolatli organlar yagona tizimi yo‘qligi	Qonun hujjatlarida soliq ma’muriyatchiligi vakolatli organlari fuknsiya va vazifalarida takroriylik mavjud	Soliq ma’muriyatchiligi vakolatli organlari soni haddan ortiq ko‘p.	Soliq ma’muriyatchiligi vakolatli organlari me’yoriy hujjatlarida davlat manfaatlarining ustunlik berish amaliyotining mavjudligi

Tahlillar natijasiga ko‘ra raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq organlari ma’muriy bosim tamoyilidan voz kechib, soliq ma’muriyatchiligini raqamli tizim asosida soliq to‘lovchilar bilan hamkorlikda amalga oshirishi zarur, deb hisoblaymiz. Bu mamlakatimizda soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni “o‘zaro hamkorlik” tamoyili asosida tashkil etish borasidagi islohotlar mos keladi.

Soliq ma’muriyatchiligi raqamli tizimni yaratilishi natijasida soliq to‘lovchilarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasi samaradorligini ta’minlash va davlatning byudjetga soliq to‘lovchi daromadidan o‘ziga tegishli ulushni olish xavflari darajasi pasayadi.

Mamlakatimizda soliq ma’murchiligini takomillashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu boizdan mazkur tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, soliq ma’murchiligini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilar taklif etilmoqda:

- soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to‘liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT)ni joriy qilish;
- soliq xavfini boshqarish va soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilar bilan ishlashni “soliq-bank-is’temolchi” integratsiyalashgan tizimni yanada takomillashtirish asosida onlayn rejimida tashkil etish;
- soliq to‘lovchilarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish va ular bilan soliq organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi yagona (sodda) dasturiy ta’minotni ishlab chiqish;
- soliq jarayonlarini avtomatlashtirish asosida boshqaruv organlarida xodimlar sonini kamaytirish;
- soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq organlari zimmasiga o‘tkazish;

- barcha soliq to‘lovchilarni soliq monitoring tizimiga o‘tishini rag‘batlantirish;
- raqamli soliq auditini joriy etish.

Fikrimizcha, mazkur chora-tadbirlar soliq ma’murchiligini takomillashtirish va soliq ma’muriyatchiligi ma’muriy bosimini kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarimiz natijasida kiritilgan ushbu takliflarni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida “ekspert baholash” usuli asosida ekonometrik tahlillar amalga oshirildi.

Ta’kidlash lozimki, ekspertlar ma’lum bir yoki o‘z sohasi bo‘yicha yetakchi mutaxassislar bo‘lib, ular o‘zlarining vakolatlari doirasida u yoki bu hodisa va jarayonlar bo‘yicha xulosalar ishlab chiqadilar. Ekspert baholash usulining mohiyati ekspertlar tomonidan muammolarning intuitiv – mantiqiy tahlil qilinishidan iboratdir. Ekspertlarning ishlov berishlari natijasida olingan umumlashma fikrlari muammoni hal qilish deb qabul qilinadi. Intuitsiyadan, mantiqiy fikrlardan va miqdoriy baholardan kompleks foydalanish muammoni samarali hal qilish imkonini beradi.

Ekspert baholash usulini qo‘llash jarayonida asosan, ekspertlarni miqdoriy jihatdan tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirish, ularning kompetentlik darajasini baholash, ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasini aniqlash, ekspertlar tomonidan ma’lumotlarni qayta ishlash va olingan natijalar yuzasidan muayyan qarorlar qabul qilish kabi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ekspert baholashda “mutaxassislar fikrining kelishuvchanligi” juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash uchun “konkordatsiya koeffitsiyenti”dan foydalanildi (1-formula):

$$W = \frac{12 \times S}{n^2 \times \left(m^3 - m\right)} \quad (1)$$

bu yerda:

W – konkordatsiya koeffitsiyenti;

n – jalb etilgan ekspert – mutaxassislar soni;

m – obyektlar, ya’ni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari soni;

S – konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattaligi.

Konkordatsiya koeffitsiyentidagi miqdoriy kattaligi (S) quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \sum_{i=1}^{m}\left(\sum_{s=1}^{n} r_{is} - \bar{r}\right)^2 \quad (2)$$

bu yerda:

r_{is} – i-chi obyektga s-chi ekspert tomonidan berilgan baho.

Konkordatsiya koeffitsiyentining qabul qilish qiymatiga qarab ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari aniqlanadi. Bunda Xarringtonning [14] verbal – sonli shkalasida foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval: Xarringtonning verbal – sonli shkalasi

№	Konkordatsiya koeffitsiyentining son qiymatlari	Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari
1	$0 \le W < 0.2$	Kelishuvchanlik juda past
2	$0.2 \le W < 0.37$	Kelishuvchanlik past
3	$0.37 \le W < 0.64$	Kelishuvchanlik o‘rta
4	$0.64 \le W < 0.8$	Kelishuvchanlik yuqori darajada
5	$0.8 \le W < 1.0$	Kelishuvchanlik juda yuqori darajada

Bundan tashqari, aniqlangan konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatliligini baholash uchun Pearsonning moslik χ^2 – mezoni qabul qilinadi.

χ^2 – taqsimot K = n–1 erkinlik darajasi bilan quyidagi qiymatni qabul qiladi:

$$\chi^2 = \frac{12 \times S}{nm(m+1) - \frac{1}{m-1}\sum_{i=1}^{n} T_i} \quad (3)$$

Agar $\chi^2_{haq} > \chi^2_{his}$ bo‘lsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o‘rinlidir, aks holatda bunday kelishuvchanlik ahamiyatsiz bo‘lib chiqadi.

Ekspertlar soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish qanday afzalliklarga ega ekanligini baholash maqsadida quyidagi savol qo‘yildi:

Savol: Istiqbolda soliq ma’murchiligini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlardan qaysi biri samarali hisoblanadi?

Ekspertlar tomonidan mazkur savolga javob topish maqsadida “5 ballik baholash shkalasi” qabul qilindi va ular tomonidan ustuvor yo‘nalishlarga quyidagi ballar belgilab berildi (3-jadval).

3-jadval: Istiqbolda soliq ma’murchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarga ekspertlar tomonidan berilgan ballar

№	Baholanayotgan ustuvor yo‘nalishlar	Ekspertlar				
		1	2	3	4	5
1	Soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to‘liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT) ni joriy qilish	5	4	5	5	5
2	Soliq xavfini boshqarish va soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilar bilan ishlashni “soliq-bank-is’temolchi” integratsiyalashgan tizimni yanada takomillashtirish asosida onlayn rejimida tashkil etish	4	5	4	4	3
3	Soliq to‘lovchilarga kompleks xizmatlar ko‘rsatish va ular bilan soliq organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini ta’minlovchi yagona (sodda) dasturiy ta’minotni ishlab chiqish	4	4	5	4	4
4	Soliq jarayonlarini avtomatlashtirish asosida boshqaruv organlarida xodimlar sonini kamaytirish	5	4	5	4	4
5	Soliq hisobotlarini tuzish majburiyatini soliq organlari zimmasiga o‘tqazish	3	2	1	2	3
6	Barcha soliq to‘lovchilarni soliq monitoring tizimiga o‘tqazish	4	3	2	3	4
7	Raqamli soliq auditini joriy etish	5	4	5	5	4

Tadqiqot natijalarini aniqlash uchun 1-formula yordamida ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasi, ya’ni konkordatsiya koeffitsiyenti (W) hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan jarayonda tanlangan ekspertlar soni $n = 5$ ta va baholanayotgan obyektlar soni $m = 7$ tadan iborat.

Olingan tahlil natijalarining ko‘rsatishicha, yo‘nalishlar bo‘yicha ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi (W), ya’ni konkordatsiya koeffitsiyenti 0,71 qiymatni tashkil etgani holda ushbu qiymat Xarringtonning verbal – sonli shkalasi bo‘yicha 4-tartib raqamli oraliqqa to‘g‘ri keldi. Ya’ni kelishuvchanlik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, konkordatsiya koeffitsiyentining ahamiyatliligi Pearsonning moslik χ^2 – mezoni bo‘yicha baholandi. Baholash natijalariga ko‘ra,

$$\chi^2_{haq} = 21{,}18 > \chi^2_{haq} = 12{,}59159$$

teng bo‘lib, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o‘rinlidir.

Darajalar yig‘indisini olish asosida ko‘rib chiqilayotgan parametrlarning vazn ko‘rsatkichlarini hisoblash mumkin. Shu maqsadda so‘rov matritsasi $s_{ij} = x_{max} - x_{ij}$ formulasi bo‘yicha o‘zgartirilgan darajalar matritsasiga aylantiriladi (4.3.4-jadval), bu yerda $x_{max} = 5$.

4-jadval: O‘zgartirilgan darajalar matritsasi[4]

Obyektlar ↓ / Ekspertlar →	1	2	3	4	5	Jami	Qaror vazni
1	0	1	0	0	0	1	0,02632
2	1	0	1	1	2	5	0,1316
3	1	1	0	1	1	4	0,1053
4	0	1	0	1	1	3	0,07895
5	2	3	4	3	2	14	0,3684
6	1	2	3	2	1	9	0,2368
7	0	1	0	0	1	2	0,05263
Jami						38	1

4 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlari bo‘yicha amalga oshirilgan ekonometrik tahillarimiz mamlakatimizda soliq ma’murchiligini takomillashtirishda “Soliq va soliqqa tortish jarayonlarida to‘liq avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ANT)ni joriy qilish” yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori ekanligi tasdiqlaydi hamda mazkur yo‘nalishning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, soliq ma’muriyatchiligi tizimini raqamlashtirish soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda byudjetga soliqlarni o‘z qatida undirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyardagi PF–6079-sonli Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2020-yil 12-oktyabr, 40-son, 443-modda.
2. Алексеенко О. А. Цифровизация глобального мира и роль государства в цифровой экономике / О. А. Алексеенко, И. В. Ильин // Информ. общество. – 2019.
3. Kovalenko, B. B. Digital transformation: ways of creating competitive advantages of business organizations. Science and business: ways of development, 2017, no. 9(75), pp. 49–52. (In Russ.).
4. Elling, M., Lehmann, M. The Impact of Digitalization on the Insurance Value Chain and the Insurability of Risks. In: 21st APRIA, 2017 Annual Conference. Session 2B – Technology, 2017.
5. Muxitdinov X. S. Tadbirkorlikda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Innovatsion iqtisodiyot: muammo, tahlil va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – 40–49 betlar .
6. Umarov O. S. Raqamli iqtisodiyot va uni rivojlanish tendensiyalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №3 may-iyun, 2018.
7. Isroilov B. I., Ibragimov B. B. Issues of using economic analysis in ensuring tax control. // Finance Journal, 2015. Vol. 69–73.
8. Ibragimov B. B. Soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari. //“Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, hisobot va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishining dolzarb masalalari” (Samarqand 2021, Sam ISI). – 41–45 b.
9. Ibragimov B. B. Hisob tizimi ma’lumotlaridan soliq munosabatlarini tartibga solishda foydalanish. //Agroiqtisodiyot, №3, 2019.
10. Isroilov, B., Ibragimov, B. State and prospects of the aviation transport economy as a component of the national transport system. // // Review of Economics and Financethis link is disabled, 2023, 21, pp. 1077–1094.
11. B. B. Ibragimov. Soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish soliq to‘lovchi bilan hamkorlikni qay darajada ta’minlaydi. // O‘zbekiston milliy axborot Agentligi – 2022, 26-avgust.
12. Ibragimov, B. B. Surrent issues of regulation oftax relations. // SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) http://saarj. com. ISSN: 2319–1422 Vol 9, Issue 4, July 2020. – pp. 50–56.
13. Петухова Р. А., Григорьева Я. А. Налоговое администрирование в условиях цифровой экономики. // Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2019. № 46. DOI: 10. 17223/19988648/46/21.
14. Галиновский А. Л., Самсонов К. С. и др. Сравнение различных методов контроля и диагностики качества керамики методом экспертного оценивания. Инновация и экспертиза. 2017. Выпуск 1 (19). – 68 с.

XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ BUXGALTERIYA AUTSORSERLARI TOMONIDAN MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li
JXU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bosqichlari va ushbu xizmatni tashkil etish, transformatsiya qilish bosqichlarini amalga oshirish protseduralari, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda moliyaviy hisobot moddalarini o‘zgartirish va ushbu xizmat turini autsorserlar tomonidan ko‘rsatish tartiblarini takomillashtirishga oid ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro standartlar, transformatsiya bosqichlari, transformatsiya qilish usullari, autsorserlarning transformatsiya qilish tartiblari, autsorsing firmalari tomonidan transformatsiya xizmatlarini ko‘rsatish.

Abstract: The article describes the stages of transformation of financial statements and the organization of this service, the procedures for implementing the stages of transformation, changes in financial statement items in the transformation of financial statements to international standards, and scientific proposals and practical recommendations for improving the procedures for providing this type of service by outsourcers.

Key words: international standards, stages of transformation, methods of transformation, transformation procedures of outsourcers, provision of transformation services by outsourcing firms.

Аннотация: В статье описаны этапы трансформации финансовой отчетности и организация данной услуги, порядок реализации этапов трансформации, изменения статей бухгалтерской отчетности при трансформации финансовой отчетности по международным стандартам, а также научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию порядок оказания данного вида услуг аутсорсерами.

Ключевые слова: международные стандарты, этапы трансформации, методы трансформации, процедуры трансформации аутсорсеров, оказание услуг по трансформации аутсорсинговыми фирмами.

KIRISH

O‘zbekiston amaliyotida buxgalteriya hisobi va hisoboti sohasida so‘nggi yillarda sodir bo‘lgan transformatsiyalar buxgalteriya hisobini isloh qilishning asosiy vositasi – xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash (MHXS) asosida ma’lumotlarni shakllantirish uchun chora-tadbirlar belgilash tartiblari ishlab chiqildi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda MHXS tamoyillarini qo‘llash korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ma’lumotlarni butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilar uchun tushunarli tartibda taqdim etish imkonini beradi, bu esa, investorlarning, shu jumladan, xorijiy investorlarning ishonchini qozonish demakdir.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida O‘zbekiston buxgalteriya hisobi tizimini MHXSga moslashtirish jarayonlari jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan qator ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning asosiy sabablari xorijlik investorlarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng miqyosda jalb etish, ular tomonidan investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, shundan keyingina iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bozorini kengaytirish, sifat darajasini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar, ish va xizmatlarga erishish mumkin. Shunga qaramay, hozircha ushbu yo‘nalishda yetarlicha rivojlanish yo‘qligini ko‘rish mumkin [6].

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning ko‘plab korxonalari MHXS bo‘yicha hisob va hisobotlarni tayyorlay boshladilar va bu investorlar, kreditorlar, xorijiy sheriklar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun qulay yo‘l ekanligini angladilar. Yirik va o‘rta biznes vakillari uzoq muddatli strategik rejalarni amalga oshirish uchun MHXSdan foydalanishlari va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdan manfaatdor bo‘lishi mumkin.

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga o‘tish korxonada buxgalteriya hisobi tizimining transformatsiyaiga olib keladi, bu nafaqat manfaatdor foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga

yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni, balki hisob siyosatiga o‘zgartirishlar kiritishni ham talab qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda O‘zbekistonning buxgalteriya hisobi qoidalarini va MHXSlarni uyg‘unlashtirish sohasidagi ko‘pchilik olimlar va amaliyotchilar tashkiliy-amaliy xarakterdagi ishlanmalarning yetarli emasligini, shuningdek, buxgalteriya hisobi bo‘yicha yagona uslubiy yondashuvlarning yo‘qligini ta’kidlamoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda ko‘rib chiqilgan BHMS talablariga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning mavjud usullarini o‘rganish asosida, MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning barcha usullarini hisobga olgan holda, MHXS talablariga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston me’yoriy hujjatlarida MHXSga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash majburiyati nazarda tutila boshlandi. Bu bo‘yicha Hukumatning 2015-yil 24-apreldagi PF–4720-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [1], 2018-yil 19-senyabrdagi PQ–3946-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [2] va 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror [3]lari shular jumlasidandir.

Professor N. N. Xaxonova quyidagilarni ta’kidlangan, “Buxgalteriya hisobi tizimining mavjud bo‘lish tartibi uning modeli tavsifi orqali ko‘rsatilgan. U tizimning ishlash jarayonini tavsiflovchi omillarning yig‘indisini, shuningdek, tizim ichidagi muomalalar sxemasini aks ettiradi” [8].

N. T. Labinsev va A. Y. Karetskiylarning fikriga ko‘ra, “MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning barcha bosqichlarida nazorat tizimidan foydalanish amalda MHXS talablariga rioya etish va sifatli hisobot berish kafolati bo‘lib, buning natijasida foydalanuvchilar uchun buxgalteriya hisobi va hisobot ma’lumotlarining foydaliligini oshiradi” [5].

Shuni ta’kidlash kerakki, MHXSga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash metodologiyasi kompaniyaga xalqaro formatda hisobotlarni tayyorlash uchun eng kam mehnat va moliyaviy resurslarni sarflagan holda ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirish imkonini beradi, bu esa asosiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p jihatdan tegishli hisobotlardagi moliyaviy va boshqaruv ma’lumotlarining ishonchliligi va o‘z vaqtida taqdim etilishiga bog‘liq bo‘lgan boshqaruv qarorlarining samaradorligi, tashkilotga yirik xorijiy investorlarni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

N. N. Xaxonova yana shularni ta’kidlaydiki, “Iqtisodiyotda MHXSni keng qo‘llashning zarur sharti – bu standartlardan buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solishda va bevosita xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo‘llanilishini ta’minlaydigan infratuzilmani yaratishdir” [7].

Bundan tashqari, MHXS bo‘yicha hisobot berish kabi ishning bunday jihatini rivojlantirish xodimlardan bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ish sifatini va umuman korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun katta sa’y-harakatlarni talab qiladi. Bularning barchasi kompaniyalarni yanada dinamik rivojlanishga undaydi.

A. G. Volkov va Y. N. Chernishevalarning ta’kidlashlaricha, “Yakuniy, nazorat moduli MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida ajralmas o‘rinni egallaydi. Nazorat – bu boshqariladigan obyektning ishlashi qabul qilingan boshqaruv qarorlariga muvofiqligini ta’minlaydigan va belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qaratilgan jarayon hisoblanadi” [4].

Xo‘jalik yurituvchi subyektning nazorati boshqariladigan tizimning kiritilishiga qo‘llaniladigan har qanday nazorat harakati monitoringini o‘z ichiga oladi. Boshqaruv tizimidagi nazorat parametrining rolini, odatda, boshqaruv apparati yoki tegishli faoliyat sohasini nazorat qiluvchi va buning uchun zarur vakolatlarga ega bo‘lgan maxsus tashkil etilgan xizmat xodimlaridan biri bajaradi. Boshqaruv tizimidagi har qanday boshqaruv qarorlari nazorat qiluvchi elementdan o‘tishi kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi qarashlarni hisobga olgan holda, umumiy nazorat MHXS hisobotlarini tayyorlashning barcha bosqichlarida, shu jumladan kompaniya faoliyatiga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishda uzluksiz jarayon sifatida ko‘rib chiqilishi lozim, ya’ni umumiy nazorat tadbirlarining butun majmuasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda buxgalteriya autsorsing firmasi tomonidan mijoz korxona moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida xalqaro standartlarga transformatsiya qilish va uning nazorati hamda uni takomillashtirish tadqiq etilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, solishtirma va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

MHXSga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash strategiyasi moduli quyidagi jihatlarni ko‘rib chiqadi.

Birinchidan, foydalanuvchilarning ehtiyojlari uchun moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda maqsad va vazifalarni belgilash. Ushbu bosqichda kompaniya rahbariyati MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadlarini aniqlashi kerak, bu esa, o‘z navbatida, amaliyotda qo‘llaniladigan metodologiyaning xususiyatlarini aniqlaydi. Masalan, kompaniya xalqaro kapital bozoriga chiqishni rejalashtirayotgan yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qilmoqchi bo‘lgan taqdirda MHXSni qo‘llash zarurati, ehtimol, transformatsiya usulini dastlabki qo‘llashni va faqat keyinchalik hisobot berishning boshqa usullarini qo‘llashni talab qiladi. Shu bilan birga, kompaniya rahbariyati MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tamoyillariga asoslangan samarali boshqaruv hisobi tizimini yaratish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunday holda MHXSga muvofiq hisobotlarni tayyorlash metodologiyasini qo‘llash kerak bo‘ladi, bu boshqaruv ma’lumotlarini eng yuqori darajadagi aniqlik va ishonchlilik bilan tezroq taqdim etish imkoniyatini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, korxona rahbariyati tomonidan MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzishda korxona faoliyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar va moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishini aniqlash kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, moliyaviy hisobotga faqat korxona faoliyatiga bevosita daxldor bo‘lgan ko‘rsatkichlar kiritiladi va hisobotda ko‘rsatilgan moddalarning nomlari va tartibi kompaniya faoliyatining xususiyatiga va uning faoliyatiga qarab transformatsiya qilish.

Uchinchidan, MHXSga muvofiq hisobotlarni tayyorlashda strategik maqsadlarni ajratib ko‘rsatish va ularni xo‘jalik yurituvchi subyekt tizimida kompleks hisob siyosatini shakllantirishda amalga oshirish kerak bo‘ladi, bu esa hisobotlarni tayyorlashda taktik va strategik davrda asos bo‘lishi kerak. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari oqimlarini maksimal darajada integratsiya qilish imkoniyati bilan MHXSga muvofiq, shuningdek, BHMS va MHXS tamoyillari. Ushbu bosqichda MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini belgilovchi uslubiy asoslar aniqlanadi.

To‘rtinchidan, kompaniyaning alohida moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq shakllantirishning yagona tartib-qoidalarini, shu jumladan quyidagi ma’lumotlarni belgilash uchun alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoniga oid normativ hujjatlarni ishlab chiqish kerak. Alohida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayoniga oid me’yoriy hujjatlar, shuningdek, qoidalarning o‘zi bilan bir qatorda, jarayonning barcha ishtirokchilariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kerak bo‘lgan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini ham belgilashi kerak, masalan kompaniyaning MHXSga muvofiq hisob siyosati, buxgalteriya hisobi obyektlari uchun ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi tartiblarini tavsiflovchi ichki uslubiy hujjatlar, buxgalteriya hisobi standartlari moliyaviy hisobotlarda va kompaniyaning boshqa ichki hujjatlarida ma’lumotlarni taqdim etishga qo‘yiladigan talablar nuqtayi nazaridan MHXSdan farq qiladi.

1-jadvalda MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni yaratish usullari tahlil qilingan.

1-jadval: MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni shakllantirish usullari

MHXS bo‘yicha	MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni shakllantirish bosqichlari	Izoh
MHXSga mos ravishda hisobotlarni transfor-matsiya qilish	1. Dastlabki balans va daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni tuzatish. Ushbu bosqichda hisobotning hisobvaraqlaridagi qoldiqlar va aylanmalar xalqaro standartlarda belgilangan moddalarga qayta guruhlanadi. Ushbu qayta guruhlash transformatsiya jadvallarida aks ettiriladi, ularning shakli va tuzilishi kelajakda kerakli transformatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. 2. Qo‘shimcha analitik hisob va boshqaruv ma’lumotlarini to‘plash. Ushbu bosqichda milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi tub farqlar aniqlanadi. Balansning moddalari unga kiritilgan hisobvaraqlarning qoldiqlari uchun batafsil tavsiflanadi va o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan shaxsiy hisobvaraqlar bo‘yicha ma’lumotlar tayyorlanadi. 3. MHXS hisobotlariga tuzatuvchi yozuvlarni kiritish. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini MHXS talablariga javob beradigan hisobotga aylantirish uchun uch turdagi tuzatish yozuvlari kiritiladi: qayta tasniflash, baholash va inflyatsiya yozuvlari. 4. Hisobotlarni MHXSga muvofiq yakuniy shaklga keltirish. Barcha kerakli tuzatishlar kiritilgandan so‘ng, buxgalter balans va daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni qayta hisoblab chiqadi, hisob siyosatining xususiyatlarini va o‘zgartirish usullarini ochib beruvchi eslatmalarni tuzadi. Pul mablag‘lari va kapital harakati to‘g‘risidagi hisobotlar o‘zgartirilgan balans va daromadlar to‘g‘risidagi hisobot asosida qayta tuziladi.	Ushbu usulning o‘ziga xos xususiyati, uni faqat maxsus qoidalariga muvofiq hisobot bergandan keyin qo‘llash mumkin

MHXS bo‘yicha parallel hisob	1. Milliy standartlar tamoyillari asosida qo‘llaniladigan hisob siyosatini tahlil qilish va MHXSga mos keladigan hisob siyosatini shakllantirish. 2. Moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak bo‘lgan minimal hisobot ko‘rsatkichlarini belgilash nuqtayi nazaridan 1-sonli “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” MHXS tomonidan qo‘yilgan talablar asosida moliyaviy hisobot shaklini ishlab chiqish. 3. Har bir muomalani bajarish vaqtida aks ettirish, buxgalteriya tizimi moliyaviy hisobotlarni milliy qonunchilikda nazarda tutilgan shaklda ham, MHXS formatida ham taqdim etishi mumkin. 4. MHXS bo‘yicha buxgalteriya hisobi tizimi bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish.	Ushbu usulning o‘ziga xos xususiyati buxgalteriya hisobi va hisobotini avtomatlashtirish uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalanish
Keyingi tuzatishlar bilan transformatsiya qilish	1. Buxgalteriya balansini, daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni, pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotni va boshqalarni, shuningdek, tashkilotning hisob va hisob siyosatining holatini tuzish uchun hisob-kitoblarni tahlil qilish. 2. Balansni shakllantirish, milliy va xalqaro standartlarga muvofiq iqtisodiy mazmuni bo‘yicha xo‘jalik muomalalarni aks ettirishdagi farqlarni taqdim etadigan ishchi hujjatlarni tayyorlash. Ushbu farqlar har bir hisobning miqdoriy va sifat xususiyatlarini MHXS talablariga muvofiqlashtirish uchun qayd etiladi. 3. Har bir schyotning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha qiymatini milliy standartlar talablari darajasiga yetkazish uchun tuzatuvchi yozuvlarni tayyorlash. Tuzatish yozuvlari natijalariga ko‘ra, sinov balansi va hisobotlari, milliy hisoblar rejasiga muvofiq, lekin iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy maqsadiga ko‘ra – xalqaro hisobot tizimida tuziladi. 4. Milliy standartlar hisoblarini MHXS hisobvaraqlariga qayta tasniflash, ya’ni tuzatilgan qoldiqlarni milliy buxgalteriya hisoblaridan xalqaro buxgalteriya hisoblariga o‘tkazish. 5. Sintetik buxgalteriya hisoblaridan ma’lumotlarni moliyaviy hisobotlarga o‘tkazish bo‘yicha ilgari ishlab chiqilgan qoidalardan foydalangan holda sinov qoldiqlari va qo‘shimcha ma’lumotlar asosida MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash.	Hisobot uchun hisob-kitoblarni tahlil qilish milliy hisobotning MHXS talablaridan chetlanishlarini aniqlash imkonini beradi. Har bir tashkilot uchun MHXSga muvofiq hisoblarning ishchi jadvali faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida ishlab chiqiladi.

Bir-biri bilan bog‘liq strategik, uslubiy, amaliy va boshqaruv (nazorat) jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur (2-jadval):

- korxonaning maqsad va vazifalariga muvofiq MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish (strategik jihatdan);
- korxona hisob siyosati va buxgalteriya hisobini yuritish uchun tuzilgan ishchi schyotlar rejasini MHXSga muvofiq tavsiyalar asosida ishlab chiqish (uslubiy jihatdan);
- MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bosqichlarni ishlab chiqish (qo‘llash jihatdan);
- MHXSga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha nazorat chora-tadbirlarini ishlab chiqish (nazorat jihatidan).

2-jadval: BHMS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq transformatsiya qilish uslubi

Strategik jihatdan
1. Foydalanuvchilar ehtiyojlari uchun tashqi moliyaviy hisobotni shakllantirishda strategik maqsad va vazifalarni belgilash; 2. MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot shakllarining ko‘rsatkichlari va tuzilishini aniqlash; 3. Strategik maqsadlar va hisob siyosatini shakllantirishda amalga oshirish; 4. MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.
Uslubiy jihatdan
1. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda korxonaning BHMS talablariga muvofiqligini baholash; 2. MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot shakllaridan foydalanishda tuzilgan ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish; 3. BHMS va MHXS uchun ma’lumotlarga muvofiqlik maxsus schyotlar rejasisini ishlab chiqish; 4. BHMS talablari bo‘yicha MHXSdan farq qiladigan buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olish tartib-qoidalarini ishlab chiqish; 5. MHXS bo‘yicha moliyaviy natijani shakllantirish tartibini aniqlash; 6. MHXSga muvofiq hisobot shakllarini shakllantirish algoritmlari va tartiblarini ishlab chiqish

Qo‘llash jihatidan
1. BHMS ma’lumotlarini MHXSga mos ravishda tarjima qilish; 2. BHMS ma’lumotlari asosida MHXS hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun BHMS ma’lumotlarini MHXS hisoblariga tarsformatsiya qilish; 3. Aktivlar va majburiyatlarning parallel hisobini yuritish tartib-qoidalarini amalga oshirish; 4. Hisob ma’lumotlarini MHXSga muvofiq hisoblarda aks ettirish; 5. MHXSga muvofiq moliyaviy natijani shakllantirish; 6. MHXS bo‘yicha hisobot shakllarini shakllantirish.
Boshqarish (nazorat) jihatidan
MHXSga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash uchun nazorat tartib-qoidalarini amalga oshirish.

BHMS hisobvaraqlaridan MHXS hisobvaraqlariga ma’lumotlarni tarjima qilish orqali alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun MHXS ma’lumotlarini yaratish usulini qo‘llashning qator asosiy afzalliklarini ochib beradi:

- moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish jarayonida subyektivlikni tenglashtirishni ta’minlaydigan MHXSga muvofiq yaratilgan ma’lumotlarning yuqori darajadagi aniqligi;
- MHXS bo‘yicha buxgalteriya hisobi registrlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan analitik darajasiga MHXS bo‘yicha balans ma’lumotlarini batafsil ko‘rsatish imkoniyati;
- avtomatlashtirish uchun nisbatan past moliyaviy xarajatlar;
- hisobotdan keyingi davrda ishning mehnat zichligini kamaytirish orqali MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini shakllantirish muddatlarini qisqartirish:

a) buxgalteriya hisobi siyosatini BHMS va MHXSga muvofiq yuqori darajada muvofiqlashtirish;
b) hisobot davrida MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobi tartib-qoidalarining ko‘pchiligini amalga oshirish.

Yuqoridagi afzalliklar, umuman olganda, ishning mehnat zichligini kamaytirishga va MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlar to‘plamini tuzish vaqtini qisqartirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini MHXS bo‘yicha alohida moliyaviy hisobotlarni yaratish uchun taklif etilayotgan metodologiyaga o‘zgartirishning yana bir usuli, mahalliy buxgalteriya hisobi qoidalari va xalqaro standartlar o‘rtasidagi tub farqlar tufayli, ularning mavjudligi BHMS ma’lumotlaridan MHXS ma’lumotlarini yaratish uchun asos sifatida foydalanishga imkon bermaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, BHMS va MHXSni transformatsiya qilish asosida ilgari muhokama qilingan MHXS hisobotga muvofiq BHMS va MHXS bo‘yicha asosiy vositalarning bevosita hisobi alohida, ya’ni bir hisobning ma’lumotlari va parametrlari boshqa hisob ma’lumotlariga ta’sir qilmaydi. Bizning fikrimizcha, aylanma aktivlarning parallel hisobini tashkil etishda asosiy vazifa hisob tartib-qoidalarining takrorlanishi ehtimolini bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun MHXSga muvofiq ma’lumotlarni yaratish uchun BHMS ma’lumotlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, kompaniyaning buxgalteriya bo‘limi BHMSga muvofiq birlamchi hujjatlarni kiritadi, ular asosida qiymat MHXSga muvofiq shakllanadi.

Parallel buxgalteriya hisobini tashkil etish muammosini eng samarali hal qilish uchun, birinchi navbatda, BHMS va MHXS bo‘yicha asosiy vositalarni hisobga olish registrlarining o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash kerak. Ushbu muammoni hal qilish BHMS bo‘yicha buxgalteriya hisobi registrining ma’lumotlari bilan ifodalangan MHXS bo‘yicha tegishli buxgalteriya registriga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

MHXSga muvofiq alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonining bir qismi sifatida taklif etilgan nazorat tartib-qoidalarini tartibga solish talablariga muvofiq maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan risklar va nazorat tartib-qoidalarining tavsifi kombinatsiyasi hisoblanadi. Xatarlarni baholash butun hisobot jarayoniga ta’sir qiluvchi ichki omillarni (tashkiliy tuzilmaning murakkabligi, mutaxassislarning malaka darajasi, tashkiliy o‘zgarishlar, xodimlar almashinuvi va boshqalar) aniqlash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tuzatishlarning mavjudligi MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarning tuzilishi asosida tuzish tavsiya etiladigan ishchi hisoblar rejasini ishlab chiqish zarurligiga olib keladi. Buxgalteriya hisoblarining ishchi rejasida milliy buxgalteriya hisobi tizimida MHXS talablariga muvofiq tuzilgan buxgalteriya yozuvlarini hisobga olish yoki sharhlash uchun zarur bo‘lgan sintetik hisoblarning to‘liq ro‘yxati bo‘lishi kerak. Ishchi hisoblar rejasini shakllantirish bosqichida analitik hisob tizimini ham aniqlash mumkin:

- hisob raqamida kodlanadigan va qo‘shimcha birlamchi ma’lumotlarni hisobga olish registrlarida aks ettiriladigan ma’lumotlarning tarkibi;
- shaxsiy hisobning bit chuqurligi;
- shaxsiy hisobning tuzilishi (muayyan parametrlarga hisobning o‘ziga xos belgilarini belgilash).

Hisoblarning ishchi jadvallari asosida BHMS va MHXSda qo‘llaniladigan hisoblar o‘rtasidagi ma’lum bir tashkilot uchun xos bo‘lgan aloqalar aniqlanadi. Hisob-kitoblarning korrespondensiya jadvali analitik hisoblar asosida tuzilishi kerak, chunki bitta buxgalteriya tizimidagi bitta sintetik hisob boshqa buxgalteriya tizimidagi bir nechta sintetik hisoblarga mos kelishi mumkin.

Transformatsiya qilishni birinchi marta qo‘llashda quyidagilar zarur:

- hech bo‘lmaganda MHXS bo‘yicha Hisoblar rejasi va MHXSga muvofiq hisobotga eslatmalarda tahliliy bo‘limlarga qo‘yiladigan talablar bilan belgilanadigan BHMSga muvofiq shaxsiy hisobvaraqlarning kerakli sonini shakllantirish;
- har bir shaxsiy hisobvaraqdagi qoldiqlar miqdorini aniqlash;
- MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobi uchun zarur bo‘lgan barcha parametrlarni o‘z ichiga olgan registrlarni yaratish.

Ushbu bosqichdagi asosiy muammo – bu sozlash elementlarining qiymatlarini aniqlash, chunki ular tashkilot mavjud bo‘lgan butun davr uchun joriy ma’lumotlarning tuzatish miqdorini aks ettirishi kerak.

Hisobot davrining boshida MHXS talablari, qonunchilikdagi o‘zgarishlarni, tashkilot egalari va hisobotdan boshqa foydalanuvchilarning talablarini, hisobotlarni tahlil qilish natijalarini hisobga olgan holda o‘tgan yil uchun uslubiy bazani yangilash kerak.

MHXS maqsadlari uchun qo‘shimcha ma’lumotlarni kiritish zarurligini aniqlash jarayonini osonlashtirish uchun tashkilot operatsiyalar bo‘yicha qo‘llanma va operatsiyalarni buxgalteriya siyosati bilan talqin qilishdagi farqlarni tahlil qilish natijalariga asoslangan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishi mumkin. BHMS va MHXS bilan. Bir qator muomalalar milliy hisob tizimida bo‘lmasligi mumkin, masalan, obyektlarni bir toifadan ikkinchisiga o‘tkazish. Bunday holda qo‘shimcha yozuvlarni yaratish uchun korxona xodimining kasbiy qarori asos bo‘ladi. Tuzatishlarning qiymatlarini hisoblash uchun davriy tuzatishlarni hisobga olgan holda MHXSning analitik hisoblari bo‘yicha oraliq qoldiqlar summalari kerak bo‘lishi mumkin. Masalan, asosiy vosita hisobdan chiqarilganda uning qoldiq qiymatini aniqlash uchun tuzatish aks ettirilgan sanadagi balans qiymati va hisoblangan amortizatsiya balansini olish kerak.

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda vaqti-vaqti bilan balanslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida qo‘shimcha tuzatishlarni hisoblash kerak bo‘ladi. Bunday tuzatishlar, masalan, hisoblangan foizlarga tuzatishlar kiritishi mumkin; muddati o‘tgan qarz miqdorini tuzatish; muddati o‘tgan foizlar miqdorini tuzatish; moliyaviy vositaning qiymatini amortizatsiya qilingan xarajatlar miqdorida baholash asosida tuzatish; moliyaviy vosita qiymatini uning adolatli qiymati bo‘yicha o‘lchash asosida tuzatish; moliyaviy aktivning qiymatini qadrsizlanish miqdoriga moslashtirish; pul bo‘lmagan aktivlar va investitsiyalar inflyatsiyasi; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qayta baholash summasini tuzatish; mulk qiymatini buzilish miqdoriga moslashtirish; amortizatsiya ajratmalari miqdorini tuzatish. Davriy tuzatishlarni hisoblash oraliq qoldiqlar, MHXS maqsadlari uchun operatsiyalarning qo‘shimcha parametrlari, milliy buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq korporativ buxgalteriya tizimida aks ettirilgan operatsiyalar parametrlari bo‘yicha ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF–4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ–3946-sonli “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Волков А. Г., Чернышева Е. Н. Контроль и ревизия: учебное пособие. – М., 2011. – С. 8.
5. Лабынцев Н. Т., Карецкий А. Ю. Принципы и подходы к формированию отдельной финансовой отчетности в соответствии с требованиями МСФО // Международный бухгалтерский учет. – 2013. – №6 (252). – С. 1–9.
6. Mamatqulov M. Sh., Abdullayev F. F. Transformation of accounting of main means in water enterprises based on international standards//Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. DOI: 10.5958/2249–7137.2022.00704.2. ISSN: 2249–7137 Vol. 12, Issue 07, July 2022. – p. 50–57.
7. Хахонова Н. Н. Актуальные вопросы внедрения МСФО в практику российских предприятий. Первая Международная научно-практическая конференция: материалы конференции Ростов н/Д., 2012. – С. 217.
8. Хахонова Н. Н. Концепция формирования учетно-аналитического обеспечения управления коммерческой организацией. Ростов н/Д, 2012. – С. 79.



O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOB VA HISOBOTNI MHXSLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Qurbonova Shaxrinoz
Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada asosiy vositalarni BHMS va MHXSlari asosida tan olish mezonlari tahlili, asosiy vositalarni kirimi, chiqib ketishi, qadrsizlanishi, amortizatsiyasi hisobini o‘ziga xos jihatlari, moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar to‘g‘risidagi axborotlarni ochib berish shaffofligini investitsiya muhitiga ta’siri masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, adolatli qiymat, investitsion mulk, sotish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar, qadrsizlanish, amortizatsiya, eskirish, moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, tugatish qiymati, baholash, tan olish.

Abstract: The article examines the analysis of the criteria for recognition of fixed assets based on the National Accounting Standards and IFRS, the issues of the impact on the investment environment of transparency of disclosure of information about fixed assets in financial statements, specific aspects of accounting for receipts, disposals, depreciation, depreciation of fixed assets.

Key words: fixed assets, fair value, investment property, fixed assets for sale, depreciation, impairment, depreciation, reporting of financial difficulties, cost of termination, valuation, recognition.

Аннотация: В статье рассматривается анализ критериев признания основных средств на основе НСБУ и МСФО, вопросы влияния на инвестиционную среду прозрачности раскрытия информации об основных средствах в финансовой отчетности, специфические аспекты учета поступления, выбытия, амортизации, износа основных средств.

Ключевые слова: основные средства, справедливая стоимость, инвестиционная собственность, основные средства для продажи, амортизация, обесценение, износ, отчетность о финансовых затруднениях, стоимость прекращения, оценка, признание.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga bog‘liq. Investorlar tomonidan samarali investitsion qarorlar qabul qilishda xolis, shaffof, ishonchli axborotlar muhim rol o‘ynaydi. Bu axborotlar odatda korxonaning moliyaviy hisobotlari orqali olinadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlaridagi aktivlar va majburiyatlar, moliyaviy natijalar bo‘yicha ochib berilgan axborotlar, moliyaviy hisobotlarni tahlili natijasida olingan moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlar mazkur biznes subyektiga investitsiya yotqizish, ya’ni qimmatli qog‘ozlar(aksiya, obligatsiya)ni sotib olish yoki boshqa tur va shakllarda investitsiya kiritishga turtki beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4611-sonli qarori mamalakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda yuritish borasida tub burilish yasadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu qarorning qabul qilinishidan maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat edi.

Mazkur qarorda 2021-yil 1-yanvardan boshlab, mamalakatimizdagi barcha yirik soliq to‘lovchi korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari va taqdim etishlari belgilab qo‘yildi. Bu o‘z navbatida moliyaviy hisob va hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritadigan korxonalar uchun asosiy vositalar hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish maqsadida asosiy vositalarni tan olish, ularni

hisobdan chiqarish, baholash va qadrsizlanishga aniqlash yo‘nalishlarida bir qator mezonlarni tanlab olish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi, amortizatsiyasi bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olb borganlar. 20-asrni oxirigacha olib borilgan tadqiqotlarda asosiy vositalar tushunchasi bilan asosiy fondlar tushunchasi yoki atamasi bir xil ma’noni bergan. Asosiy fondlar tushunchasi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to‘plamini o‘z ichiga olgan. Lekin 21-asrni boshlariga kelib fan, texnika taraqqiyoti, intellektual mulklarning turli ko‘rinishlarini paydo bo‘lishi va ishlab chiqarishda qo‘llanilishi nomoddiy aktivlarni asosiy vositalardan alohida qilib, ajratib olinishini taqozo etdi. Shu sababli ayrim eski adabiyotlarda yoki tadqiqot ishlarida asosiy vositalar haqida fikr yuritilganda ularni asosiy fondlar deb yuritiladi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor D. Kudbiyev asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif beradi:”Asosiy fondlar uzoq vaqt davomida moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida ishlaydi, tabiiy shaklini saqlab qoladi va eskirganligi, yaroqsizligi sababli asta-sekin, qismlab, foydalanish o‘lchoviga (holatiga) qarab o‘z qiymatini yo‘qotadi. Moddiy ishlab chiqarishda asosiy fondlar yo‘qotgan qiymatini ular yaratgan mahsulotga o‘tkazadi”. [1]

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor I. N. Ismanov fikricha “Asosiy vositalar – bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar”. [2]

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Z. N. Kurbanov esa “Asosiy vositalar tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish va xizmatlarni ko‘rsatish, ijaraga berish yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan, uzoq davr davomida ishlatiladi, o‘zini natural shaklini o‘zgartirmaydi, faqat eskirish qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ko‘rsatilgan xizmat) tannarxiga yoki davr xarajatlariga o‘tkazib boradi”. [5]

A. Q. Shakarov ta’rifi bo‘yicha asosiy vositalar “... sanoat binolari, inshootlar, kuch va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari va boshqa turdagi asosiy vositalar”. [6]

M. Z. Pizengoltsga ko‘ra asosiy vositalar “... inson o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat obyektlariga inson ta’sirini o‘tkazuvchi sifatida foydalanuvchi mehnat vositasidir”. [7]

V. K. Sklyarenko, V. M. Prudnikovalar esa “asosiy vositalar – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko‘rsatadigan, butun davr mobaynida o‘z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan va amortizatsiya to‘lovlari shaklida eskiradigan mahsulotlarga o‘z qiymatini qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan ishlab chiqarish, moddiy va moddiy qiymatliklar majmui” deb ta’rif berishadi. [8]

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent G. M. Raximova o‘z ilmiy ishlarida asosiy kapital, asosiy fondlar, uzoq muddatli aktivlar va asosiy vositalar terminlari mazmun-mohiyati bo‘yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud ekanligini ta’kidlagan holda “asosiy kapital takror ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish vositalarini ifodalaydi: ishchilarning mehnat qilish ko‘nikmalari, moddiy resurslardan foydalanganda qayta ishlab chiqiladi. Fikrimizcha, bundan tashqari, asosiy kapital tarkibiga nafaqat mehnat vositalari, bino va inshootlar, balki ishchilar mehnati ham kirishi mumkin” deya fikr bildiradi. [9]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda asosiy vositalar hisobini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4611-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMS, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004 yil 16 avgustdagi 101-sonli “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i va unga ilova qilingan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, 21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” nomli BHMS, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” Nizom, “Asosiy vositalar” nomli 16-son BHXS, “Investitsion mulk” nomli 40-son BHXS, “Aktivlarni qadrsizlanishi” nomli 36-son BHXS, “Ijara” nomli 17-son

BHXS, “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat” nomli 5-son MHXS, “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli 13-son MHXS, va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra “Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi”. [10]

Bizga ma’lumki aktivlar o‘z navbatida 2 qismga qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarga turkumlanadi. Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shu sababdan asosiy vositalar hisobi buxgalteriya hisobini asosiy obyektlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan – “O‘zbekiston Respublikasida birlik (to‘plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e’tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan yuqori bo‘lgan, soliq to‘lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) va soliq to‘lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko‘rsatishda) yoki ma’muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o‘n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalaniladigan mol-mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e’tirof etiladi”. [11]

Shuningdek, mazkur kodeksda korxonalar soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli ekanligi ta’kidlangan.

Mamlakatimizda yaqin yillargacha barcha xo‘jalik subyektlari buxgalteriya hisobida asosiy vositalar hisobini tashkil etish, ya’ni ularni tan olish, baholash, amortizatsiyasi 5-son “Asosiy vositalar” nomli BHMSda tartibga solingan. Mazkur BHMSda asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar.” [12]

BHMS talabiga ko‘ra bir vaqtning o‘zida bir yildan ortiq xizmat muddatiga ega, bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar kiradi. Shu bilan birga korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004-yil 16-avgustdagi 101-sonli “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i va unga ilova qilingan “Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”da asosiy vositalarni korxona balansidan chiqib ketishi tartiblari bayon etilgan. Xususan, asosiy vositalar qiymati quyidagilar natijasida balansdan chiqib ketishi ko‘rsatilgan:

- tugatilish (yo‘q qilinishi);
- sotib yuborilishi;
- almashtirilishi;
- boshqa korxonaga tekinga berib yuborilishi;
- boshqa korxonaga ta’sis maqsadlarida ustav kapitali sifatida o‘tkazilishi;
- boshqa korxonaga moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi asosida berilishi;
- inventarizatsiya natijasida yo‘qligi aniqlanganda;
- ta’sischilardan biri chiqib ketayotgan asosiy vosita bilan hisob kitob qilinganda.

Nizom asosiy vositalar chiqib ketishi jarayonlarini buxgalteriya hisobi provodkalarida aks ettirish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini belgilaydi. [13]

21-son “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” nomli BHMS asosiy vositalar hisobi bilan bog‘liq barcha jarayonlarni, ya’ni asosiy vositalar bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalar orqali kirib kelishi, baholanishi, amortizatsiyasi, inventarizatsiyasi, qayta baholanishi va chiqib ketishi bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalarida aks ettirish tartibotlarini belgilaydi. [14]

Asosiy vosita sifatida tan olish masalasini Buxgalteriya hisobining Milliy standarti bilan Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari o‘rtasidagi ahamiyati shundan iboratki BHMS asosiy vosita sifatida tan olingan aktivlarni barchasi ham MHXS bo‘yicha asosiy vosita sifatida tan olinavermaydi. BHMS bo‘yicha asosiy vosita sifatida tan olingan asosiy vositalar BHXS va MHXSlari bo‘yicha 3 turdagi aktivga ajratiladi. Ya’ni, asosiy vositalar, investitsion mulk va sotish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar.

MHXSlari mezonlari bo‘yicha asosiy vosita kompaniyaning asosiy faoliyati, ya’ni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita qatnashishi, savdo, boshqaruv jarayonlarida bilvosita qatnashishi, qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga ma’lum bir davr (kamida 1 yil) mobaynida kiritib borish orqali qoplanadigan aktivdir.

"Asosiy vositalar" nomli 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif berilgan – "Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo'ljallangan moddiy aktivlardir:

(a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko'rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljalangan; va

(b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan".

Bu standartda asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun aktiv(mehnat quroli)ning qiymatiga biron bir cheklov yoki talab qo'yilmagan.

Investitsion mulk esa kelajakda qiymati ortishi orqali yoki ijaraga berish orqali daromad olinadigan aktivdir. Bu aktiv ko'chmas mulk, yer, transport vositalari va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin bu aktivlar kompaniyaning ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish jarayonlarida bevosita ham bilvosita ham ishlatilmaydi yohud foydalanilmaydi, shuningdek, ular odatdagi xo'jalik faoliyati bo'yicha sotishga mo'ljallangan mulk bo'lmasligi kerak.

"Investitsion mulk" nomli 40-son BHXSda investitsion mulkka quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsion mulk – bu ijaradan daromad olish maqsadida yoki kapitalning qiymati oshishi uchun yoki ikkalasi uchun (mulk egasi yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida ijaraga oluvchi tomonidan) egalik qilinayotgan mulk (yer yoki bino – yoki binoning qismi – yoki ikkalasi) bo'lib, bunga quyidagi mulklar kirmaydi:

(a) ishlab chiqarishda yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlarda foydalaniladigan; yoki

(b) odatdagi xo'jalik faoliyatidagi sotishga mo'ljallangan mulklar".

Sotish uchun mo'ljallangan asosiy vositalarga ularning balans qiymati ulardan foydalanish natijasida amortizatsiya hisoblash orqali qoplash bilan emas, balki faqat sotish orqali qoplanadigan aktivlar kiradi. Bu turdagi aktivlarni zaxiralardan farqi kompaniya bu aktiv(asosiy vositalar)dan muqaddam foydalangan, ularga amortizatsiya hisoblagan va keyinchalik ularni sotishga ahd qilgan bo'lishida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida asosiy vositalarni moliyaviy hisobini yuritish va hisobotlar tuzish undan foydalanuvchilarda kompaniya asosiy vositalari to'g'risida real, shaffof axborotlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Chunki korxonaning ijaraga bergan asosiy vositalari yoki keyinchalik qiymati ortishi prognozi asosida foyda olish maqsadida egalik qilayotgan mulklari investitsion mulk sifatida hisobga olinishi va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi. Kompaniyaning iqtisodiy nafi past bo'lgan asosiy vositalardan yoki ayrim rentabelligi oz faoliyat qismidan voz kechish maqsadida ularni sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar toifasiga o'tkazishi ham moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi.

Kompaniyaning moliyaviy holat to'g'risidagi(balans) hisobotida asosiy vositalar to'g'risidagi axborotni bu tarzda – faqat ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish va ma'muriy boshqaruv hamda savdo faolitida foydalanilayotgan asosiy vositalar bo'yicha ochib berilishi, hisobotdan foydalanuvchilarda, ya'ni mulk egalarida, korxonaga investitsiya kiritishni mo'ljallayotgan potensial investorlarda hisobotlarni real tahlilini amalga oshirish imkoniyatini yaxshilaydi. Chunki asosiy vositalar qiymati kompaniya rentabelligini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кудбиев Д. Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11. 2022. – С. 142-149.
2. Ismanov I. N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari.// Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. 2009-y.
3. Kurbanov Z. N. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. // "Экономика и социум" №6(85) ч.1. 2021. – 752–763-betlar.
4. Shakarov A. Q. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida). // Iqt. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2000.
5. Пизенгольц М. З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве [Текст] / М. З. Пизенгольц. – Москва: Инфра-М, 2014. – 520 с.
6. Скляренко В. К., Прудников В. М. Экономика предприятия. Изд. 2.. – Москва: Инфра-М, 2019. – 256 с.
7. Guzalbegim Murodovna Raximova. Asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari. // Ilm-fan elektron jurnali. 08.01.2021-y.

YERLARNING DEGRADATSIYAGA UCHRASHI VA OLDINI OLISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR

Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna
Qarshi Muhandislik iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz va Qashqadaryo viloyatidagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati hamda yerlarning degradatsiyaga uchrashishi muammolari yoritilgan. Bu kabi muammolarni bartaraf etish hamda uni oldini olish borasida almashlab ekish, tomchilatib sug‘orish bilan amalga oshiriladigan chora tadbirlar va amaliy takliflar to‘g‘risida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: melioratsiya, degradatsiya, yer va suv resurslari, suv tejovchi texnologiyalar, cho‘llanish.

Abstract: The article describes the reclamation of irrigated lands in our republic and the Kashkadarya region, as well as the problems of land degradation. Measures and practical proposals for eliminating such problems and preventing them by alternating planting and drip irrigation are described.

Key words: reclamation, degradation, land and water resources, water-saving technologies, desertification.

Аннотация: В статье описаны мелиорация орошаемых земель в нашей республике и Кашкадарьинской области, а также проблемы деградации земель. Описаны меры и практические предложения по устранению подобных проблем и их профилактике путем чередования посадок и капельного орошения.

Ключевые слова: мелиорация, деградация, земельные и водные ресурсы, водосберегающие технологии, опустынивание.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab har yili 12 million gektar yer cho‘llanib boryapti, har soniyada bu ko‘rsatgich 23 gektar yerni tashkil qilmoqda. Bugun butun jahon ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yer yuzasining qariyb 75 foizi cho‘llanishga yuz tutgan. Agar bu holat bartaraf etilmasdan davom etaversa 2050-yilga borib yer qit’asining 95 foizi cho‘llanishi va bu esa dunyoning 3 mlrd aholisida oziq-ovqat taqchilligini yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatib bermoqda. Cho‘llanish yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holatga kelish jarayonidir. Bunda ekologik tizimlar buziladi tabiiy xilma-xillik yo‘qoladi organik hayotning deyarli barcha shakllari yomonlashadi. Cho‘llanish –dunyo mamlakatlarining tabiiy va iqtisodiy inqiroziga sababchi bo‘ladi. So‘nggi 100 yillikda suvli hududlarning 54 fozi cho‘llanishga yuz tutgan bo‘lib, bu holat dunyo olimlarini tashvishga solmoqda Bizning respublikamizda esa har daqiqada 9 2 metr hudud cho‘llanib borayotganligi esa muammoning naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatib beradi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘rganilayotgan mavzu doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-son Farmoni [2], PQ–277-son 10.06.2022. Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident qarori [3] yuzasidan Respublikamizda sug‘oriladigan yerlarini barqaror holda saqlab qolish hamda degradatsiyalashuvini oldini olish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqarilgan. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari [4], Amu-Qashqadaryo ITXB ma’lumotlari [5], Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirishni tizimli tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalarda [6] esa Qashqadaryo viloyatida sug‘oriladigan yerlarning salmog‘i, ekin yerlari, turlari bo‘yicha joylashuvi, tuproqlarning sho‘rlanishi, viloyatdagi

1 http://www. soil. uz@taiti_soil @tuproq_kinikasi

yerlarning melioratsiyasi holati o‘rganildi. N. J. Mamanazarova [7] maqolada esa qishloq xo‘jaligida suv tejamkor texnologiyalarni takomillashtirish va suv sarfini oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan, ammo viloyat bo‘yicha ushbu ko‘rsatmalar to‘laligicha tatbiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarning salmog‘i kundan kunga kamayib bormoqda bu esa tuproq holatining yomonlashuviga va oqibatda hosildorlikning kamayishi va iqtisodiy va tabiiy inqirozga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda yerlarning degradatsiyalashuvini oldini olish bo‘yicha ixotazorlarni barpo qilish, almashlab ekishni takomillashtrish bo‘yicha ekspremental tadqiqotlar o‘tkazish, suv tejamkor usullarni tatbiq qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Cho‘llanishga, asosan, tabiiy va antropogen omillar ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy omilga global isish ta’sir ko‘rsatsa, antropogen omilga esa inson o‘zi sabab bo‘ladigan omillar kiradi. Yerlarni noto‘g‘ri sug‘orish, sanoat chiqindilari, mineral va tosh, qum qazib olinishi esa bu jarayonni tezlashtirib yuboradi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida melioratsiyani va sug‘orish ishlarini noto‘g‘ri tashkil qilinishi oqibatida ham yerlar yaroqsiz holatga kelib qoladi. Bundan tashqari, chorva mollarini noto‘g‘ri o‘tlatish ham yerlarning melioratsiyasini yomonlashuviga olib keladi. Bunda chorva mollari bir joyning o‘ziga ko‘p vaqt o‘tlatilganda ular o‘simliklarning ildiz qismi zararlanadi va buning natijasida kelasi yilga kelib o‘sha hududda yashillik kamayib ketadi. Buning oldini olish uchun esa chorva mollarini smeta bo‘yicha o‘tlatishni yo‘lga qo‘yish kerak. Qolaversa, dunyo aholisining o‘sib borishi ham cho‘llanishning asosiy sabablaridan biri deb qarashimiz mumkin. Binobarin, insonlar ko‘paygani sari oziq ovqatga bo‘lgan ehtiyoj ortadi bu esa o‘z navbatida yerdan ko‘proq hosil olish kerakligi ko‘rsatadi. Buning natijasida esa yerlardan ayovsiz foydalaniladi va ba’zi hollarda esa yer yaroqsiz holatga keladi.

1-jadval: Respublika bo‘yicha jami sho‘rlangan yerlar[2] (ming. ga 2020-yil)

Hududlar nomi	Umumiy sug‘oriladigan maydon, ming/ga	Sho‘rlanmagan yerlar: ming/ga	Sho‘rlangan yerlar: ming/ga	Shu jumladan kuchli sho‘rlangan: ming/ga	Shu jumladan o‘rtacha sho‘rlangan yerlar mingga	Shu jumladan kam sho‘rlangan yerlar ming/ga
Respublika bo‘yicha	4304	2373	1928.7	83.00	518.6999	1326.6
Qashqadaryo viloyati	513	286.3	227.7	9.19	36.4	182

Meliorativ tadbirlarni to‘g‘ri amalga oshirish bilan bir qatorda, sizot suvlarini maqbul sathlarda ushlab turish va ularning minerallashuvini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, bu boradagi ilg‘or jahon tajribasini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash kabi bir qator muammolarning yechimlari mavjud. Jumladan, zamonaviy suv tejovchi sug‘orish texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishida qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish 175 ming gektardan 2025-yilgacha 1 million gektarga, 2030-yilga kelib 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 77,4 mingdan 2025-yilgacha 300 ming gektargacha va 2030-yilga kelib 600 ming gektargacha yetkazilishi ko‘zda tutilgan. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yo‘nalishida:

a) sho‘rlangan maydonlar 1 948 ming gektardan 1 722 ming gektarga, o‘rta va yuqori sho‘rlangan yerlarni 607 ming gektardan 430 ming gektargacha qisqartirilishi;
b) sizot suvlar sathi muammoli darajada (0–2 metr) bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlari 1 051 ming gektardan 773 ming gektargacha kamaytirilishi;
d) foydalanishdan chiqqan 298,5 ming gektar sug‘oriladigan yerlar 2025-yilga kelib qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritilishi kabi manzilli yo‘nalishlar belgilab olingan.[3]

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi Seysmologiya instituti direktori V. Rafiqovning so‘zlariga ko‘ra,“Agar cho‘llanishga qarshi chora tadbirlarni amalga oshirmasak, 2030–40-yillarga borib eksport

2 Qishqadaryo viloyat Statistika ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6024-sonli Farmoni, 10.07.2020-yil.

hajmi keskin tushib ketadi. Bu jarayon yildan yilga kuchayib boryapti. Masalan, janubiy, sharqiy, shimoliy va borgan sari g‘arbiy viloyatlarga qarab cho‘llanish jarayoni tezlashyapti. Qarnacho‘l, Mirzacho‘l, Sherobod, Dalvarzin, Qoraqalpoq cho‘llari chegaralri kengayishda davom etyapti. Ular qatoriga o‘tgan yillar ichida eng yosh bo‘lgan cho‘l-Orolqum ham qo‘shildi. Orolqum hozir 60 yoshga to‘ldi va uni dunyodagi eng yosh cho‘l desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Orolqum cho‘li Turkmanistondagi Qoraqum cho‘li bilan O‘zbekistondagi Qizilqumni birlashtirib yubordi. Ilgari bularning o‘rtasida Amudaryo oqib o‘tardi”.

Shu o‘rinda bir qator mamlakatlarda cho‘llanish va yerlarning kuchli darajada sho‘rlanishi kabi muammolar bilan kurashayotgan bir vaqtda dunyo bo‘yicha qariyb 2 milliard gektar yer maydoni yaroqsiz holga kelib qolganligi masalaning qay darajada dolzarb ekanligini aks ettiradi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining holatini yaxshilash, tuproqning unumdorligini oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu dolzarb muammoning ilmiy hamda amaliy tomonlarini tahlil etish va sohadagi muammolarni bartaraf etishda bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-yilning 10-iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4]gi qaroriga muvofiq yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi. Jumladan:

- yerlar degradatsiyasi jarayonlari bilan kurashish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;
- ushbu sohada davlat dasturlari va istiqbolga mo‘ljallangan strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- yerlar degradatsiyasi va cho‘llanishi, shu jumladan yerlarni tiklash, rekultivatsiya va melioratsiya tadbirlari, yaylovlardan almashlab foydalanish, ularni saqlash va fitomelioratsiyalash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini almashlab ekish, o‘rmonlar va ihotazorlar barpo qilish jarayonlarini monitoringini olib borish;
- yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish ishlarini olib borishga ma’sul korxona, muassasa, tashkilotlar rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni berishdan iboratdir.

Qolaversa, joriy yilning 27-aprel kuni Toshkent shahrida “22-aprel – Xalqaro Yer kuni”ga bag‘ishlangan “Markaziy Osiyoda yerlar degradatsiyasiga qarshi kurash: muammolar va yechimlar” mavzusida forum bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, BMT ning Taraqqiyot dasturi hamda xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), shuningdek, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamkorligida tashkil etildi. Unda Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlardan iqlim o‘zgarishi va yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurash bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar vakillari, ekspertlar, olimlar ishtirok etishdi. Bizga ma’lumki, qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini saqlash va oshirish yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish, eroziya, sho‘rlanish, botqoqlanish va cho‘llanishning oldi olish masalalari global miqyosida hal etilishi muhim bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi forumda yer resurslarini muhofaza qilish va undan oqilona samarali foydalanishga oid masalalar muhokama qilindi.

Forum qatnashchilari tomonidan taqdimot o‘tkazildi, turli mamlakatlardan kelgan ekspertlar yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish va cho‘llanishni oldini olish, tuproq tarkibini yaxshilash va unumdoligini oshirish hamda global iqlim o‘zgarishiga moslashgan holda yaylovlarni tiklash bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish borasida olib borilyotgan ishlari bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda yerlarning degradatsiya jarayonlariga qarshi kurashish, global iqlim o‘zgarishlariga moslashish, qurg‘oqchilik va cho‘llanishni oldini olish bo‘yicha umumiy qiymati qariyb 50 million AQSh dollarni tashkil etadigan 15 ga yaqin loyihani amalga oshirmoqda. Shuningdek 2026-yilga kelib sho‘rlangan yer maydonini 100 ming gektarga qisqartirish, 1,7 million gektar degradatsiyaga uchragan yaylovlarni tiklash va 26 ming gektar qishloq xo‘jaligi yerlarida himoya o‘rmonlar yaratish bo‘yicha strategik vazifa ham belgilandi. Bugungi kunga kelib ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. 232,8 ming gektar degradatsiyaga uchragan hududlarda o‘rmon hududlarini yaratish ishlari bolmoqda. Bu borada 1,7 million gektar maydonda saksovul, cherkez va qandim kabi tuz va qurg‘oqchilikk chidamli o‘simliklardan tashkil topgan “yashil qoplamalar” yaratilmoqda. Bundan tashqari joriy yilning 7-iyul kuni yana bir bor yurtimizda tashkil etilgan “Qishloq xo‘jaligi yerlariga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish, ularni bozor aktiviga aylantirish hamda yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish” mavzusida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti va FAO Global ekologik jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish bilan orqali yaylovlarni barqarorlashtirish, ekotizimni saqlash, yerlarning degradatsiyasi, qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga qarshi katta hissa qo‘shmoqda. Ushbu forum turli mamlakatlar mutaxassisliklarini ilg‘or tajribalaridan va yangiliklaridan mamlakatimizdagi mavjud sohaga oid muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Shu o‘rinda birqator mamlakatlarda cho‘llanish va yerlarning kuchli darajada sho‘rlanishi kabi muammolar bilan kurashayotgan bir vaqtda dunyo bo‘yicha qariyb 2 milliard gektar yer maydoni yaroqsiz holga kelib qolganligi masalaning qay darajada dolzarb ekanligini

4 PQ–277-sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. 10.06.2022.

aks ettiradi. Bizning viloyatimiz ya'ni Qashqadaryo viloyatida ham degradatsiyani oldini olish uchun qator chora tadbirlar amalga oshirilyapti. Buning natijasida esa viloyatda foydalanishga yaroqli yerlar hajmi ortmoqda.

2-jadval: Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2023-yilda foydalanishga kiritiladigan yer maydonlari

№	Tuman nomi	2023-yilda foydalanishga kiritiladigan maydon, (gektar)	Loyihaning dastlabki qiymati, (mln. so'm)	Amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar, (gektar)
1	G'uzor	1362	14405	109
2	Qarshi	1890	16983	151
3	Koson	1597	12703	128
4	Qamashi	1005	9799	80
5	Mirishkor	2068	24208	165
6	Muborak	3231	20710	258
7	Nishon	4314	13066	345
8	Kasbi	1443	12615	115
9	Chiroqchi	817	9582	65
10	Yakkabog'	430	5951	34
	Jami	18157	140 021	1453

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda Qashqadaryo viloyatida foydalanishga kiritilgan yer maydonlarini tumanlar kesimida ko'rishimiz mumkin. Bunda Muborak va Nishon tumanlarida ajratilishi kerak bo'lgan yer maydonlarini ulushi katta ekanligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ko'rsatkich jami viloyat bo'yicha 18157 gektar yer maydonini tashkil etish nazarda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga bir qator yechimlarni berishimiz mumkin:

- shakllantirilgan manzilli ro'yxat asosida 18157 gektar yer maydonlarini elektron xaritalarini tayyorlash, Suv xo'jaligi va Qishloq xo'jaligi vazirliklariga taqdim etish va ma'lumotlar asosida keyingi yilga nisbatan foydalanishga kiritilishi mumkin bo'lgan yer maydonlarini prognozlashtirish;
- yer maydonlarini foydalanishga kiritishga talabgorlarni aniqlash va ekin turlarini joylashtirish bo'yicha elektron platformasini yaratish;
- aniqlangan talabgorlarga foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarini biriktirish va tayyorlangan ma'lumotlar asosida bazani shakllantirish va yaylovlarni barqarorlashtirish maqsadida urug'chilik tizimini yaxshilashni takomillashtirish;
- yaylovlarning sifatini saqlab qolishda chorva mollarini almashlab boqish borasidagi smetani takomillashtirish .

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.07.2020-yildagi PF–6024-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853-son Farmoni. 23.10.2019-y.
3. PQ–277-sonli "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. 10.06.2022.
4. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2020–2023-yillar.
5. Amu-Qashqadaryo ITXB ma'lumotlari, 2020–2023-yillar.
6. Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirishni tizimli tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma.
7. Mamanazarova N. J. Ways to improve the management of water systems in the conditions of digitalization of agriculture. // Central European Management Journal. 2022.
8. http://www. soil. uz@taiti_soil @tuproq_kinikasi.

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

Mamirjon Jalollidinov
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida vazirlik va idoralarda ichki auditni tashkil etishning maqsadi, xususiyatlari, mavjud muammolari, huquqiy asoslari o‘rganilgan. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra vazirlik va idoralarda ichki auditni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat sektori, ichki audit, ichki audit xizmati, moliyaviy hisobot, byudjet hisobi.

Abstract: The article examines the purpose, features, existing problems, legal basis for organizing internal audit in ministries and departments of the Republic of Uzbekistan. Based on the results of the analysis, a scientific conclusion and practical proposals for improving the internal audit of ministries and departments were given.

Key words: public sector, internal audit, internal audit service, financial reporting, budget accounting.

Аннотация: В статье изучены цель, особенности, существующие проблемы, правовые основы организации внутреннего аудита в министерствах и ведомствах Республики Узбекистан. По результатам анализа даны научное заключение и практические предложения по совершенствованию внутреннего аудита министерств и ведомств.

Mikrokreditbankning kreditlari, mlrd. so‘m	681	850	1004	1197	2393	4466	8143	10334	13350
Mikrokreditbankning kapitali, mlrd. so‘m	208	235	187	602	696	1660	1687	2291	3650
Mikrokreditbankning depozitlari, mlrd. so‘m	373	693	930	971	1060	1378	2375	2688	5282
Inflyatsiya darajasi, %	6,1	5,6	5,7	14,4	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	10,0	9,0	9,0	14,0	16,0	16,0	14,0	14,0	15,0
Tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasi,%	12,5	11,4	11,5	18,5	20,5	24,2	22,3	20,8	21,9

Ushbu holatlarni tekshirib ko‘rish uchun AT “Mikrokreditbank” da ajratilayotgan kreditlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazamiz. Natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-javdal: Omillar o‘rtasida tavsifiy statiska natijalari

	ln(b_cr)	ln(b_cap)	ln(b_dep)	ln(inf)	ln(st_ref)	ln(int_rate)
Mean	7.911117	6.639816	7.179100	2.282159	2.540826	2.861363
Median	7.780303	6.545350	6.966024	2.406945	2.639057	3.020425
Maximum	9.499272	8.202482	8.572060	2.721295	2.772589	3.186353
Minimum	6.523562	5.231109	5.921578	1.722767	2.197225	2.433613
Std. Dev.	1.157308	1.118625	0.794714	0.415737	0.239067	0.305219
Skewness	0.169596	–0.053717	0.252402	–0.425957	–0.603919	–0.559939
Kurtosis	1.412056	1.519610	2.413110	1.492146	1.632960	1.551939
Jarque-Bera	3.988732	2.826161	3.224725	2.624769	3.247877	2.256628
Probability	0.009958	0.010609	0.010020	0.013849	0.010037	0.033491
Sum	71.20005	59.75835	64.61190	20.53943	22.86743	25.75226
Sum Sq. Dev.	10.71490	10.01057	5.052567	1.382701	0.457223	0.745267
Observations	9	9	9	9	9	9

Jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o‘rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal (maximum, minimum) qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo‘lib, u nolga teng bo‘lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya’ni musbat bo‘lsa, u holda o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi. 0 dan kichik, ya’ni manfiy bo‘lsa, u o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan 2-jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan ln(b_cap), ln(inf), ln(st_ref) va ln(int_rate) omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari manfiy qiymatlar qabul qilgan hamda ushbu omillar grafigining “chap dumi” “o‘ng dumi”dan uzunroq ekanligini ko‘rsatadi. ln(b_cr) va ln(b_dep) omilning asimmetriya koeffitsiyenti musbat qiymat qabul qilgan va ushbu omil grafigining “o‘ng dumi” “chap dumi” uzunroq bo‘lgan.

Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Omillarning taqsimot funkiyalari grafiklari

1-rasmdan shuni ko‘rish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo‘ysunar ekan. Normal taqsimot grafigining nazariy qiymatlaridan omilarning hisoblangan taqsimot grafiklari asimmetrik holda joylashgan, ya’ni surilgan. Ushbu surilishlar asosan o‘rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Ayrim yillarda ba’zi omillar keskin ortishga ega bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlarida o‘zgarishlar sezilarli darajada bo‘lmagan.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tuziladigan ko‘p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun dastlab omillar o‘rtasida bog‘lanishlar mavjudligini tahlil qilish kerak. Buning uchun omillar o‘rtasida korrelyatsion tahlil o‘tkazamiz. Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymatlari

CovarianceAnalysis: Ordinary
Date: 09/16/23 Time: 23:29
Sample: 2014 2022
Includedobservations: 9
Correlation
t-Statistic

Probability	ln(b_cr)	ln(b_cap)	ln(b_dep)	ln(inf)	ln(st_ref)	ln(int_rate)
ln(b_cr)	1.000000					
ln(b_cap)	0.964640	1.000000				
	9.683112	–				
	0.0000	–				

ln(b_dep)	0.944523	0.605356	1.000000			
	7.608498	1.640694	–			
	0.0001	0.1508	–			
ln(inf)	0.578302	0.633565	0.518301	1.000000		
	1.875460	1.755762	1.603481	–		
	0.1028	0.1645	0.1529	–		
ln(st_ref)	0.714517	0.532339	0.612683	0.669372	1.000000	
	2.702093	0.973105	2.051055	1.842741	–	
	0.0305	0.1254	0.0794	0.10214	–	
ln(int_rate)	0.824873	0.611629	0.584658	0.521049	0.671713	1.000000
	3.860498	0.868274	0.703184	0.957238	1.886020	–
	0.0062	0.1406	0.3305	0.1304	0.10727	–

Yuqorida keltirilgan 3-jadvaldan ko‘rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omil ln(b_cr) va unga ta’sir etuvchi omillar (Xi) o‘rtasidagi bog‘lanishlar zichligini ko‘rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil – AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida turli xil bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. ln(b_cap)

Demak, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va AT “Mikrokreditbank” kapitali (ln(b_cap)) o‘rtasida bog‘lanish zichligi 0,9646 ga teng. Bu esa ushbu ikki omil o‘rtasida zich bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatmoqda. AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va AT “Mikrokreditbank” depozitlari (ln(b_dep)) o‘rtasida bog‘lanish zichligi 0,9445 ga teng. Ushbu holat ham mazkur ikki omil o‘rtasida zich to‘g‘ri bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatmoqda. AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va inflyatsiya darajasi (ln(inf)) o‘rtasida o‘rtacha bog‘lanish mavjud ekan, ya’ni ular orasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,5783 ga teng. AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi (ln(st_ref)) o‘rtasida o‘rtacha bog‘lanish mavjud, chunki hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,7145 ga teng. AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasi (ln(int_rate)) o‘rtasida o‘rtacha bog‘lanish mavjud, chunki hisoblangan xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,7145 ga teng.

Bundan tashqari 3-javdalda ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham keltirilgan. Ushbu koeffitsiyentlar orqali omillar o‘rtasida multikollinearlik aniqlanadi. Agar ta’sir etuvchi omillar (Xi, Xj) o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta bo‘lsa, omillar o‘rtasida multikollinearlik mavjud deyiladi. Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi hisoblangan 2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentining hisoblangan qiymati 0,7 dan katta emas ekan. Bu esa o‘z navbatida tanlangan barcha omillarni ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritishga imkon beradi.

Shuningdek, 3-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligi va ehtimolligini aniqlash bo‘yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblagan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning Styudentning t-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi (prob.) keltirilgan. Omillar o‘rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo‘lmaslik sharti qo‘yiladi. Masalan, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va AT “Mikrokreditbank” depozitlari hajmi (ln(b_dep)) o‘rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r_{ln(b_rc),\ ln(b_dep)}$ = 0,9445, t = 7,6085 va prob. = 0,0001 ga teng. Bu esa mazkur ikki omil o‘rtasida zich bog‘lanish borligini, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti ishonchli ekanligi va 95 foiz aniqlikda ikki omil o‘rtasida musbat zich bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda, ya’ni omillar o‘rtasida bog‘lanish zichliklari va shakllarini aniqlashda har bir omilning natijaviy omil (ln(b_cr)) bilan bog‘liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko‘rib chiqamiz (2-rasm).

2-rasmdagi grafiklarda vizual ko‘rinishda ham shuni aytish mumkinki, natijaviy omil (ln(b_cr)) bilan ta’sir etuvchi omillar (lnXi) o‘rtasida to‘g‘ri va zich hamda kuchli bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Demak, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o‘rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari Styudentning t-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi bo‘yicha qo‘yiladigan talablarga to‘la javob berar ekan. Bu shundan dalolat beradiki, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmiga (ln(b_cr)) ta’sir etuvchi barcha omillarni ko‘p omilli ekonometrik modelga kirish kerak.



2-rasm: AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va unga ta’sir etuvchi omillar (lnXi) o‘rtasida bog‘lanish shakllarining ko‘rinishi

Ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikollenearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli – bu VIF (Variance Inflation Factors – multikollinearlik samarasini) koeffitsiyentlarini hisoblashdir. Har bir omil bo‘yicha hisoblangan VIF koeffitsiyentlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval: Ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikolleniarlik samarasini o‘lchash*

Variance Inflation Factors
Date: 09/16/23 Time: 23:50
Sample: 2014 2022
Included observations: 9

Variable	CoefficientVariance	CenteredVIF
ln(b_cap)	0.005789	8.11439
ln(b_dep)	0.003090	6.26742
ln(inf)	0.028816	7.20356
ln(st_ref)	0.183036	5.03886
ln(int_rate)	0.107072	2.47983
C	0.322060	NA

Agar ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikolleniarlik mavjud bo‘lsa, u holda CenteredVIF>10 bo‘ladi. 2.10-jadvaldan ko‘rish mumkinki, barcha ta’sir etuvchi omillarning VIF koeffitsiyentlari 10 dan kichik. Demak, bu ham omillar o‘rtasidagi korrelyatsiya tahlili kabi ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida multikolleniarlik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritlayotgan natijaviy omilni geteroskedastlikka, ya’ni ko‘p omilli ekonometrik modelning tasodifiy xatosining bir xil bo‘lmagan (oshib borishi yoki kamayib borishi tartibdagi) dispersiyasida ifodalangan kuzatishlarni bildiradi.

Bunday holatni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi o‘tkaziladi (5-jadval).

5-jadval: Geteroskedastlikni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi

Null Hypothesis: LNY has a unit root
Exogenous: Constant
Lag Length: 0 (Automatic – based on SIC, maxlag=2)

			t-Statistic	Prob. *
Augmented Dickey-Fuller test statistic			–2.636375	0.0129
Testcriticalvalues:	1% level		–4.121990	
	5% level		–3.144920	
	10% level		–2.713751	
*MacKinnon (1996) one-sided p-values.				
Warning: Probabilities and critical values calculated for 20 observations				
and may not be accurate for a sample size of 12				

Geteroskedastlikni aniqlash bo‘yicha Diki-Fuller testida ham ehtimollik (Prob=0,0129) 5 foizdan kichik ekan va bu natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Demak, omillar o‘rtasida multikolleniarlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) va unga ta’sir etuvchi omillar (lnXi) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzamiz. Mazkur ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln y = \ln\beta_0 + \beta_1 \ln x_1 + \beta_2 \ln x_2 + \ldots + \beta_n \ln x_n + \varepsilon \quad (1)$$

bu yerda $\ln y$ – natijaviy omil, $\ln x_i$ – ta’sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma’lum $\ln\beta_0$, $\ln\beta_2$, $\ln\beta_2$,..., $\ln\beta_n$ parametrlarning qiymatlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli”dan foydalandik. Natijalar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval: AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model parametrlari

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
ln(b_cap)	0.099587	0.036108	2.757978	0.0518**
ln(b_dep)	0.721581	0.055587	12.98113	0.0010***
ln(inf)	–2.479051	0.169752	–14.60399	0.0007***
ln(st_ref)	2.159048	0.427828	5.046537	0.0150***
ln(int_rate)	2.919102	0.327219	8.920950	0.0030***
S	–6.111210	0.567504	–10.76858	0.0017***
R-squared	0.999574	Mean dependent var		7.911117
Adjusted R-squared	0.998865	S. D. dependent var		1.157308
S. E. ofregression	0.038994	Akaike info criterion		–3.416096
Sum squared resid	0.004562	Schwarz criterion		–3.284613
Loglikelihood	21.37243	Hannan-Quinn criter.		–3.699836
F-statistic	1408.761	Durbin-Watson stat		2.844811
Prob(F-statistic)	0.000030			

Izoh: *** – 0.05 foiz aniqlikda, ** – 0.01 foiz aniqlikda
Dependent Variable: LNY
Method: Least Squares
Date: 09/16/23 Time: 00:15
Sample: 2014 2022
Includedobservations: 9

Yuqoridagi 6-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi ln(b_cr) bo‘yicha hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik modelni analitik ko‘rinishda ifodalaymiz:

$$\ln(b_cr) = -6{,}11 + 0{,}09\ln(b_dep) + 0{,}72\ln(b_dep) - 2{,}48\ln(inf) + 2{,}16\ln(st_rer) + 2{,}92\ln(st_rate) \quad (2)$$

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirishda determinatsiya koeffitsiyentidan foydalanamiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko‘rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R2

– R-squared (2.12-jadval)) 0,9995 ga teng. Bu esa AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmining (lnY) 99,95 foizi hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko‘rsatmoqda. Qolgan 0,05 foizi (100,0–99,95) esa hisobga olinmagan omillar ta’siri ekanligini ko‘rsatmoqda.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning (2) statistik ahamiyatligini yoki o‘rganilayotgan jarayonga adekvatligini (mos kelishini) tekshirishda Fisherning F-mezonidan foydalanamiz. Fisherning hisoblangan *F*-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo‘lsa, u holda ko‘p omilli ekonometrik model (2) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko‘rsatkich – AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini (ln(b_cr)) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Endi, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi bo‘yicha tuzilgan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini tekshirish uchun F-mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo‘yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 5$ va $k_2 = 9 - 4 - 1 = 4$ dan kelib chiqib, *F*-mezonning jadval qiymati $F_{jadval} = 6{,}26$ ga teng. F-mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob} = 1408{,}76$ va jadval qiymati $F_{jadval} = 6{,}26$ ga teng ekanligidan kelib chiqib va $F_{hisob} > F_{jadval}$ sharti bajarilganligi uchun (2) ko‘p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini (ln(b_cr)) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning (2) hisoblangan parametrlari ishonchliligini tekshirishda Styudentning t-mezonidan foydalaniladi. Styudent t-mezonining hisoblangan (hisob) va jadval (tjadval) qiymatlarini taqqoslab, N0 gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d. f. = $n - m - 1$) shartlar asosida topamiz. Bu yerda n – kuzatuvlar soni, m – omillar soni. Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajasi d. f. = 9 – 4 – 1 = 4 bo‘lganda, t-mezoning jadval qiymati $t_{jadval} = 2{,}776$ ga teng.

Ko‘p omilli ekonometrik model tuzish bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblardan shuni ko‘rish mumkinki, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo‘yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0{,}05$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko‘rish mumkin (5-jadval). Bu esa barcha omillarni ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko‘p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model (2) bo‘yicha natijaviy omil (ln(b_cr)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjudligini tekshirish uchun Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanamiz. Hisoblangan DW qiymati jadvaldagi DWL va DWU bilan taqqoslanadi. Agar $DW_{hisob} < DWL$ dan kichik bo‘lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi. $DW_{hisob} > DWU$ dan katta bo‘lsa, natijaviy omilqoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati DWL = 0,56 ga teng va yuqori chegarasi qiymati DWU = 2,21 ga teng. $DW_{hisob} = 2{,}8448$ ga teng. Demak, $DW_{hisob} > DWU$ bo‘lgani uchun natijaviy omil (AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi bo‘yicha hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm: AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmining haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi

3-rasmdan ko‘rish mumkinki, hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik model bo‘yicha AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmining hisoblangan qiymatlar grafigi uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o‘rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi bo‘yicha hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan kelgusi davrlarga natijaviy ko‘rsatkichni prognozlashda MARE (Mean absolute percent error – foizlardagi o‘rtacha absolyut xatolik) koeffitsiyenti hisoblanadi. Agar hisoblangan MARE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo‘lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo‘ladi, aks holda foydalanib bo‘lmaydi. Tadqiq qilinayotgan AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) bo‘yicha MARE koeffitsiyentining qiymati 0,2462 foizni tashkil etmoqda (4-rasm).



Forecast: LN_B_CR_F	
Actual: LN_B_CR_	
Forecast sample: 2014 2022	
Included observations: 9	
Root Mean Squared Error	0.022513
Mean Absolute Error	0.019760
Mean Abs. Percent Error	0.246162
Theil Inequality Coefficient	0.001410
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.000106
Covariance Proportion	0.999894
Theil U2 Coefficient	0.045271
Symmetric MAPE	0.246110

4-rasm: Hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko‘rsatkichlari

Bu esa 15,0 foizdan kichik (MAPE=0,2462), ya’ni u 0,25 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham (2) ko‘p omilli ekonometrik modeldan AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini prognozlashda foydalanish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisoblangan ko‘p omilli ekonometrik model shuni ko‘rsatadiki, AT “Mikrokreditbank” kapitali (ln(b_cap)) o‘rtacha bir foizga ortsa, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) o‘rtacha 0,09 foizga ortar ekan. AT “Mikrokreditbank” depozitlari (ln(b_dep)) o‘rtacha bir foizga ortsa, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) o‘rtacha 0,72 foizga ortar ekan. Respublikada inflyatsiya darajasi (ln(inf)) o‘rtacha bir foizga ortishi, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) o‘rtacha 2,48 foizga kamayishiga olib kelar ekan. Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi (ln(st_ref)) o‘rtacha bir foizga ortishi, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini (ln(b_cr)) o‘rtacha 2,16 foizga ortishiga olib kelar ekan. Va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkasi ln(int_rate) o‘rtacha bir foizga oshsa, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi (ln(b_cr)) o‘rtacha 2,92 foizga ortar ekan.

Shunday qilib, AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model (2) bir qator mezonlar yordamida tekshirildi hamda modelning statistik ahamiyatliligi va parametrlarining ishonchliligi aniqlandi. Natijaviy omil qoldiqlarida esa avtokorrelyatsiya aniqlanmadi. Demak, mazkur ko‘p omilli ekonometrik modeldan AT “Mikrokreditbank” ajratgan kreditlar hajmini kelgusi davrlarda prognozlashda foydalanish mumkinligi aniqlandi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. – Пер. с анл. – М.: Гелиос АРВ, 2012. – С. 98–99.
2. Барро Р., Мартин С. Экономический рост. Пер. с англ. – М.: Бином, 2010. – С. 289–290.
3. Бланшар О. Макроэкономика. Пер. с англ. – М.: ВШЭ, 2010. – С. 92–101.
4. Мэнкью Г. Принципы макроэкономики. Пер. с англ. – СПб, 2009. – С. 37-38.

5. Скиннер К. Будущее банкинга. Пер. с англ. – Минск: Гревцов Паблишер, 2009. – 400 с.
6. Baumol, W. Macroeconomics of unbalances growth: the anatomy of urban crisis. – American Economic Review, 1967. (3) – 415–426.
7. Ishnazarov A., Nurullayeva Sh., Muminova M., Ro‘zmetova N. Ekonometrika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 258 b.
8. Mustafakulov Sh. I., Ishnazarov A. I., Rasulev D. M. EViews dasturida ekonometrik modellarni yaratish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. –T.: TDIU, 2018. – 46 b.
9. Tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
10. AT “Mikrokreditbank”ning yillik hisobotlari ma’lumotlari// www.mkbank.uz.

СОВРЕМЕННОЕ РЕШЕНИЕ, КОТОРОЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНО ВЛИЯЕТ НА ЛОГИСТИЧЕСКИЕ УСЛУГИ И РЕЗКО СНИЖАЕТ СМЕРТНОСТЬ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ

Тажимуратов Умид Рузматович
Директор Phone House OK, юрист

Бахриев Иброхим Исометдинович
Кандидат медицинских наук, доцент, заведующий кафедрой судебной медицины и медицинского права Ташкентской Медицинской академии.

Жуманиёзов Эркин Худойберганович
Кандидат медицинских наук, доцент кафедры судебной медицины и медицинского права Ташкентской Медицинской академии.

Тажимуратов Рузмат Отажанович
Кандидат медицинских наук
Тажимуратов Абдусами Умид угли
Школы №169 Шайхонтохурского района ученик 10 класса.

Аннотация: Год за годом проблемы на дорогах мира усугубляются. Согласно Докладу Европейской экономической комиссии ООН (ЕЭК) 2006 г. по Женевской конвенции 1968 г. “Дорожные знаки и сигналы”, правила периодически обновляются с учетом растущих требований к безопасности людей, защите внешней среды, и быстрое развитие технического прогресса во всем мире (Отчет МЭК ООН, Нью-Йорк и Женева, 2007 г.). К сожалению, вот уже около ста лет кардинальных мер против причин дорожно-транспортных происшествий во всем мире не принимается. Наше исследование сосредоточено на снижении заторов на перекрестках, дорожно-транспортных происшествий и связанных с ними смертей. Были изобретены новый дорожный знак и светофор. По выводам отечественных и зарубежных ученых, изобретенный знак и светофор должны иметь большой успех на практике.

Ключевые слова: многофункциональный светофор, многофункциональный дорожный знак, главная дорога, второстепенная дорога, пешеходный переход, центр перекрестка, циферблат светофора, фланец светофора, линии разделяющие главную дорогу на две, линии, разделяющие второстепенную дорогу на две, дорожно-транспортные происшествия.

Annotatsiya: Yildan yilga dunyo avtomobil yo‘llaridagi muammolar ortib bormoqda. “Yo‘l belgilari va signallari to‘g‘risidagi” 1968-yildagi Jeneva konvensiyasiga bag‘ishlangan 2006-yildagi BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EIK) ning hisobotiga ko‘ra, insonlarning yo‘l harakati xavfsizligi, tashqi muhitning himoya qilinishidagi talablarining oshishi va dunyo miqyosida shiddatli rivojlanyotgan texnologik progresslarni hisobga olgan holda qoidalarga vaqti-vaqti bilan o‘zgartirishlar kiritib turish kerakligi ta’kidlangan (BMT YeIK hisoboti Nyu-York va Jeneva 2007-yil). Afsuski, taxminan yuz yil davomida dunyo bo‘yicha yo‘l harakati qoidalariga ayanchli hodisalarga olib qiluvchi sabablarga qarshi keskin chora-tadbirlar ko‘rilmagan.

Bizning tadqiqotlar chorrahalardagi tirbandliklar, yo‘l transport hodisalari va uni oqibatida kelib chiquvchi o‘lim ko‘rsatishini kamaytirishga qaratilgan. Yangi yo‘l belgisi va svetofor ixtiro qilingan. Vatanimiz va xorij olimlarining xulosalariga ko‘ra, ixtiro qilingan belgi va svetofor amalda katta muvoffaqiyatga ega bo‘lishi kutiladi.

Kalit so‘zlar: Ko‘pfunktsional yo‘l belgisi, asosiy yo‘l, ikkinchi darajali yo‘l, piyodalar yo‘lakchasi, chorraha markazi, svetofor siferblati, belgi gardishi, asosiy yo‘lni ikkiga bo‘luvchi chiziqlar, ikkinchi darajali yo‘lni ikkiga bo‘luvchi chiziqlar, yo‘l transport hodisalari.

Abstract: Year after year, the problems on the world’s roads are getting worse. According to the UN Economic Commission for Europe (ECE) 2006 Report on the 1968 Geneva Convention “Road Signs and Signals”, the rules are periodically updated to take into account the growing demands for human safety, environmental protection, and the rapid development of technological progress around the world (Report IEC UN, New York and Geneva, 2007). Unfortunately, for about a hundred years now, no drastic measures have been taken against the causes of road traffic accidents around the world. Our research is focused on reducing intersection congestion, traffic accidents, and related deaths. A new road sign and traffic light were invented. According to the conclusions of domestic and foreign scientists, the invented sign and traffic light should be a great success in practice.

Key words: a multifunctional traffic light, a multifunctional road sign, a main road, secondary road, a minor road, a pedestrian crossing, intersection center, a traffic light dial, a traffic light flange, lines dividing the main road into two, lines that divide the minor road into two, road traffic accidents.

АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕМЫ

По наблюдениям Всемирной организации здравоохранения, усиление законодательства в сфере профилактики дорожно-транспортных происшествий, обеспечение его соблюдения и повышение безопасности дорог позволит предотвратить преждевременную гибель многих людей и стать инвалидами. Но из-за того, что подобные работы не проводятся регулярно в соответствии с требованиями времени, на дорогах происходят весьма досадные аварии [8, 24, 25, 16].

Ежегодно более 1 250 000 человек во всем мире погибают в результате автомобильных аварий, а 30-40 миллионов человек становятся инвалидами разной степени. Тот факт, что средний возраст погибших и пострадавших составляет 15-45 лет, заставляет задуматься. Число дорожно-транспортных происшествий со смертельным исходом составляет от 9,3 до 26,6 на 100 000 человек во всем мире. [8]

Некоторые инфекционные заболевания (Эбола и др.) ежегодно убивают около 10 000 человек, а автомобильные аварии уносят жизни около 3500 и более человек в день во всем мире [8].

Из 200 000 погибших в США во время Второй мировой войны 400 000, что в два раза больше, погибло в автомобильных авариях на дорогах США за тот же период. Таких примеров много [8].

Высокий уровень дорожно-транспортного травматизма напрямую связан с увеличением количества автомобилей в городах и селах. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), в дорожно-транспортных происшествиях в США погибло 48 050 человек, в Японии – 13 904, во Франции – 12 500 человек. Американский институт инженеров-строителей прогнозирует, что в Соединенных Штатах произойдет 700 000 смертей и 25 миллионов несчастных случаев без смертельного исхода с различной степенью травм [17, 24, 25].

По данным Госавтоинспекции России, уровень смертности в автокатастрофах в 2012 году увеличился на 5,2% по сравнению с 2011 годом. За последние 5 лет уровень смертности увеличился [9].

Проблемы на мировых автомагистралях также оказывают огромное влияние на сектор логистики. [5, 8, 10, 18, 19, 21, 22, 23]

В докладе Европейской экономической комиссии ООН (ЕЭК) 2006 года о Женевской конвенции о дорожных знаках и сигналах 1968 года и документах Венской конвенции каждое государство-член конвенции имеет право разрабатывать и использовать символы, приемлемые для его собственной страны, помимо использования признанных символов. По этой причине в некоторых странах (США, Европа, Австралия и т. д.) используются специфические символы. Например, в США тоже есть разные дорожные знаки [4, 5, 7, 8].

Вопрос безопасности дорожного движения стал актуальным вопросом в нашей стране, как и во всех странах [1, 2, 3].



Рис. 1: Один из видов многофункционального светофора

ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ

Основная цель данного исследования - урегулировать дорожные знаки и светофоры, предложить современные знаки и светофоры взамен устаревших дорожных знаков, снизить количество автомобильных аварий, которые иногда становятся причиной гибели людей на автомагистралях мира, особенно на перекрестках, пробки на перекрестках, направлено на предотвращение ущерба экологии района, а также предотвращение отравления сотрудников службы безопасности дорожного движения, контролирующих движение на перекрестке, в случае возникновения пробок.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе научной работы были проанализированы дорожные знаки и светофоры. Изучено их влияние на участников дорожного движения, их роль в обеспечении безопасности дорожного движения. В ходе исследования был выявлен ряд недостатков. Тот факт, что дорожные знаки и светофоры не видны участникам дорожного движения издалека, а иногда и вблизи (из-за высоких транспортных средств), делает их скорее помехой, чем помощью. Особенно заметны такие недостатки, когда на перекрестке нет электричества. В связи с большим количеством автотранспорта на автомагистралях в современный период экономического развития на перекрестках возникают большие пробки. Чтобы уменьшить эти недостатки, нам удалось изобрести многофункциональный светофор и дорожный знак. Для этого были тщательно проанализированы изобретенные в Российской Федерации Геометрический светофор, Светофор (варианты) и светодиодные светофоры [12, 13, 14]. Выявлены их недостатки. В результате из них был создан более совершенный многофункциональный светофор. Его цветовая гамма соответствует протоколам Женевской конвенции [4, 5, 8, 15, 20]. Конструкция нового светофора следующая:



Рис. 2: Один из видов многофункционального светофора.

Внешний вид многофункционального светофора прямоугольный, его ширины длиннее высоты, основание окрашено в светло-воздушный цвет. Главная дорога зеленая, второстепенная – красная. Направление движения на главной и второстепенных дорогах обозначено нарисованными на них белыми линиями.

У многофункционального светофора на пересечении дорог размещена пешеходный переход. Он окрашен в бело-желтый цвет.

На главной дороге нарисованы четыре красные линии, а на второстепенной дороге - четыре зеленые линии, обозначающие, что транспортные средства, въезжающие на перекресток, должны уступать дорогу друг другу, когда светофор не работает.

На участке, где соединяются между собой главная и второстепенная дороги, то есть в центре перекрестка, находится циферблат. Он мигает зеленым, красным и отображает цифры размером около 50 см. Вокруг цифрами находятся стрелки, светящиеся зеленым и красным светом, указывающие поворот

налево. В зависимости от вида перекрестка к нему адаптируется внешний вид светофора. Например, У-образный, Т-образный.

A. B. C. D. – полоса и пешеходный переход, позволяющие повернуть направо с главной, второстепенной дороги, не доезжая до перекрестка и светофора.

1. Основа светофора окрашена в светлый цвет.
2. Главная дорога. Окрашена в зеленый цвет.
3. Второстепенная дорога. Окрашена в красный цвет.
4. Красные линии, нарисованные на главной дороге.
5. Зеленые линии, нарисованные на второстепенной дороге.
6. Пешеходный переход.
7. Центр пересечения дорог (перекрёсток).
8. Циферблат светофора.
9. Белые линии, нарисованные на второстепенной дороге, указывают направление движения транспортных средств по этой дороге.
10. Белые линии, нарисованные на главной дороге, указывают направление движения транспортных средств по главной дороге.
11. Полосы главной дороги
12. Полосы второстепенной дороги
13. Линии, разделяющие главную дорогу на две части.
14. Линии, разделяющие второстепенную дорогу на две части.
15. Стрелка, указывающая поворот налево.
16. Фланец светофора.
17. Знак остановки (стоп).

Принцип работы многофункционального светофора.

Этот светофор многофункционален и работает как настоящий светофор, когда на перекрестке есть электричество. Когда светофор загорается зеленым, в центре перекрестка запускается зеленый таймер обратного отсчета, и движение транспорта на главной дороге пересекает перекресток, пока не достигнет нуля. Когда горит красный свет, в центре перекрестка запускается красный секундомер обратного отсчета, и транспортные средства на второстепенной дороге пересекают перекресток, пока он не достигнет нуля.

Вокруг цифрами на циферблате расположены зеленая и красная мигающие стрелки, указывающие поворот налево. Поворот налево разрешен, когда горит зеленая стрелка, поворот прекращается, когда горит красная стрелка.



Рис. 3: Варианты установки светофора на перекрёстке

Рис. 4: Варианты установки светофора на перекрёстке

Если на перекрестке произошло отключение электроэнергии и не работает светофор, то появляется другая функция светофора, т. е. ликвидирующая пробки на перекрестках.

Реализация данной работы состоит из нескольких этапов:

1. Водители ждут, пока перекресток освободится в соответствии с заранее полученными знаниями;
2. Автомобили останавливаются как можно ближе к тротуару, но не наступают на тротуар и не переезжают его;
3. Если в это время по тротуару движется человек, водители должны уступить ему дорогу;
4. После этого первыми начнут движение транспортные средства, находящиеся на главной дороге, то есть зеленой дороге;
5. Перекресток пересекают по три автомобиля с каждой полосы главной дороги. Количество автомобилей зависит от количества полос на дороге. Например, если количество полос на дороге равно двум, то первые шесть транспортные средства пересекут перекрёсток с каждой стороны главной дороги, если количество полос три – по девять с каждой стороны и т. д.;
6. До тех пор, пока пустые места на главной дороге не будут заполнены идущими сзади транспортными средствами, перекресток пересекают транспортные средства второстепенной дороги, то есть по красной дороге, как указано выше;
7. Эти действия будут продолжаться до тех пор, пока не заработает светофор. Транспортным средствам запрещено останавливаться в центре перекрестка.

На основании проделанной работы мы пришли к следующим выводам о многофункциональном светофоре:

1. Многофункциональный светофор отвечает современным требованиям.
2. Большое количество светофоров и дорожных знаков на некоторых перекрестках можно заменить четырьмя многофункциональными светофорами или дорожными знаками, предлагаемыми нами.
3. Многофункциональный светофор четко указывает, через какое время транспортные средства на второстепенной дороге должны уступить дорогу транспортным средствам на главной дороге, как с электричеством, так и без него.
4. Четко определяет, когда автотранспортные средства, движущиеся по второстепенной дороге, могут продолжать движение.

5. Белые стрелки, указывающие главную и второстепенную дорогу на многофункциональном светофоре, удобны для водителей.
6. Многофункциональный светофор отвечает современным требованиям.
7. Использование многофункциональных светофоров предотвращает большие пробки.
8. Также может использоваться как многофункциональный знак на перекрестках с относительно небольшим движением автотранспорта. Это положительно скажется на экономии электроэнергии и топлива, а также на качество местной экологии.
9. В случае отключения электроэнергии безопасностью движения можно легко управлять с помощью знаков на многофункциональном светофоре.
10. Не нуждается необходимость использования помощи специалиста по безопасности дорожного движения для управления безопасностью движения при отключении электроэнергии, в результате исключается ущерб здоровью работников.
11. Эти знаки светофора хорошо видны водителям издалека, и при наличии пробок водители уверены, что не остаются пробке надолго. В результате водители не нервничают и повышается культура вождения.
12. Снижает расход топлива за счет быстрого устранения пробок.
13. Снижает ущерб окружающей среде, вызванный чрезмерным расходом топлива в длительных пробках.
14. Многофункциональный светофор сигнализирует о том, что транспортное средство, движущееся по главной дороге на перекрестке, при подъезде к перекрестку должно уступить дорогу транспортным средствам, находящимся на второстепенной дороге, в результате чего владелец транспортного средства вынужден снизить скорость на перекрестке. Такая ситуация предотвращает возможные аварии на перекрестке.
15. Самое главное, резко сократится количество ДТП со смертельным исходом на перекрестках.
16. В результате использования многофункционального светофора отпадает необходимость использования знаков “Главная дорога”, “Направление главной дороги”, “Уступи дорогу”, “Пешеходный переход”.
17. При необходимости светофор может быть оборудован знаком грузовых автомобилей, мотоциклов, конных экипажей или “Стоп”, камерами и другими знаками при необходимости.
18. Будут созданы учебные пособия по многофункциональным светофорам и знакам.
19. Этот светофор и дорожный знак более экономичны по сравнению с используемыми сейчас светофорами.
20. Запуск производства многофункциональных светофоров и продажа их за границу принесет государству материальную выгоду.
21. Внедрение светофора и нового дорожного знака станет смелым шагом в реализации рекомендаций Всемирной организации здравоохранения по безопасности дорожного движения.

Использованная литература:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2022-y. bo‘lib o‘tgan “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash” to‘g‘risidagi videoselektor yig‘ilishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yildagi “ Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim ko‘ratkichlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori.
3. O‘zbekiston RespublikasiVazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-qarori.
4. Azizov Q. X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 244 b.
5. Aqilov A. A., KArimova Q. A., Rizayev Sh. Sh. Yo‘l harakati qoidalariga suratli sharhlar va mavzuga oid testlar. – T., 2016.
6. Аникин. Б. А. Логистика: Учеб. для вузов - 2 изд., перераб. и доп. - М.: Инфра-М, 2001. – 352 с.
7. Кичеджи В. Н., Хатояма К. Москва: транспортные проблемы мегаполиса. – М.: ДПК Пресс, 2010. – 284 с.
8. Конвенция о Дорожных Знаках и Сигналах 1968 года. Европейское Соглашение, дополняющее Конвенцию, и Протокол о разметке дорог к Европейскому Соглашению Организация Объединенных Наций. Нью-Йорк. Женева, 2007 год).
9. Мантаков М. С. Судебно-медицинская оценка состояний пострадавших при дорожно-транспортных происшествиях и падениях с большой высоты тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.03.05, (2015, Москва).
10. Прядко И. П., Орлина К. В. Организация транспорта для маломобильных групп населения в мегаполисе // Казанская наука. 2014. №6. – С. 245–247.
11. Рахматуллина. А. Р. Методические положения повышения качества услуг городского общественного транспорта., Самара 2014. – 147 с.
12. Журавлев Б. В. Российская Федерация, Федеральная служба по интеллектуальной собственности. Светофор дорожный геометрический. Описание изобретения к патенту. 2016.

13. Российская Федерация, Федеральная служба по интеллектуальной собственности. Светофор (варианты). Иванов В. Б. Описание изобретения к патенту. 2001.
14. Сергеев Б. С., Щиголев С. А., Наговицын В. В. Российская Федерация, Федеральная служба по интеллектуальной собственности. Светодиодный светофор. Описание изобретения к патенту. Уральский государственный университет путей сообщения. 2001.
15. Правила дорожного движения. Российская Федерация. 2023.
16. ПДД с примерами и комментариями для всех понятным языком. А. Громаковский. Москва. 2021.
17. Серженко И. И. Развитие городского транспорта и политика муниципальных властей в Москве в конце XIX – начале XX вв. // Исторический журнал: научные исследования. – 2014. – 5. – С. 536–545. DOI: 10.7256/2222-1972.2014.5.13853.
18. Samatov G‘. A., Qoriyeva Y. K., Payziyev B. B. Raqobat muhitida xalqarotransport tizimi faoliyatining logistik ishonch-liligi. – T., 2003. – 81 b.
19. Qoriyeva Y. K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. Osh DAU, nashr tahririyati bo‘limi. 2003-yil 148 b.
20. Florida Driver’s Handbook. Tallahassee, Florida 1995.
21. Renovation of the bus fleet will continue//Bolshaya Moskva. No. 36. 2015. – p. 3.
22. Serzhenko I. I. The development of urban transport and the policy of municipal authorities in Moscow in the late XIX - early XX centuries. // Historical journal: scientific research. – 2014. – С. 536–545. DOI: 10.7256/2222-1972.2014.5.13853.
23. https://www. avto27. net/poleznaya-informatsiya/stati/avtomobilnye-probki-sovremennaya-problema.
24. Шпак. В. В. Судебно-медицинская экспертиза транспортной травмы. – Гомель Гом ГМУ, 2015. – стр. 6.
25. Шамарин Ю. А., Мельчиков А. С., Алябьев Ф. В Судебно-медицинская экспертиза травмы внутри автомобиля Учебно-методическое пособие. – Томск, 2002. – стр. 4.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA DIVIDEND SIYOSATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI

Temirov Abdulaziz Alimjanovich
TDIU “Koroprativ boshqaruv” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan dividend siyosati, uning korporativ boshqaruvdagi o‘rni yoritilgan, dividend siyosatini shakllantirish masalalari, dividendlarni to‘lash shakllari tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim tijorat banklari misolida ochib berishga harakat qilingan. O‘rganishlar asosida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: bank, korporativ boshqaruv, dividend, dividend siyosati, dividend strategiyasi, aksiyadorlar, qaror, to‘lovlar, qayta investitsiyalash, moliyalashtirish.

Abstract: In the article, the author highlights the dividend policy, its role in corporate governance, discusses the issues of the formation of dividend policy, studied the forms of dividend payment. The analysis of trends in the dividend policy in commercial banks of the Republic of Uzbekistan was also carried out on the example of some domestic banks. Based on the research, the author developed recommendations and suggestions.

Key words: bank, corporate governance, dividends, dividend policy, dividend strategy, shareholders, decision, payments, reinvestment, financing.

Аннотация: В статье автором освещена дивидендная политика, ее роль в корпоративном управлении, рассмотрены вопросы формирования дивидендной политики, изучены формы выплаты дивидендов. Также был проведен анализ тенденций дивидендной политики в коммерческих банках Республики Узбекистан на примере некоторых отечественных банков. На основе исследований автором были разработаны рекомендации и предложения.

Ключевые слова: банк, корпоративное управление, дивиденды, дивидендная политика, дивидендная стратегия, акционеры, решение, выплаты, реинвестирование, финансирование.

KIRISH

Korporativ boshqaruvning muhim elementlaridan biri bo‘lib kompaniyalarning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish uchun iste’mol qilinadigan va kapitalizatsiya qilinadigan foyda o‘rtasidagi nisbatlarni optimallashtirishga qaratilgan dividend siyosati hisoblanadi. Kompaniyaning maqsadlariga va joriy hamda prognozli vaziyatiga qarab, kompaniyaning daromadlari qayta investitsiyalanishi, taqsimlanmagan foyda uchun hisobdan chiqarilishi yoki dividendlar shaklida to‘lanishi mumkin.

Moliya bozorining muhim instituti hisoblangan tijorat banklari iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bilan bir vaqtda o‘z faoliyatlari uzluksizligi va kengayib borishlari uchun ham muntazam ravishda resurslar jalb qilishlari talab etiladi. Natijada tijorat banklarining depozit siyosati, kredit siyosati bilan bir vaqtda dividend siyosati masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki tijorat banklari oldida turgan kapital yetarliligi bilan bog‘liq jiddiy talablar xususiy kapital miqdorini ham muntazam oshirib borshi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlar bilan bog‘liq operatsiyalar, dividend siyosatini ishlab chiqish va uni takomillashtirish masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Dividendlar va dividend siyosatiga oid adabiyotlar tahlilini o‘tkazish natijasida turli tadqiqotlarda mazkur masalaning alohida jihatlari ko‘rib o‘tilgan. Iqtisodchi olimlar M. Miller va F. Modilyani tomonidan yaratilgan dividendlar irrelevantligi nazariyasiga ko‘ra, “Dividend siyosati aksiyalar bahosiga yoki uning aksiyadorlik kapitalining qiymatiga ta’sir qilmaydi” [2].

Nazariya mualliflari mukammal bozor sharoitida investorlar faqat umumiy daromadlilikdan manfaatdor bo‘ladi, uning alohida shakllaridan emas deb hisoblaydilar. M. Gordon [3] va J. Lintner [3] o‘z asarlarida “Dividendlar to‘lash (koeffitsiyenti) oshgani sayin, aksiyadorlik kapitalining qiymati (daromadliligi) kamayib boradi, chunki kapital qiymatining oshishi shaklida daromad olish dividendlar shaklida daromaddan ko‘ra riskka ko‘proq tortiladi” deb hisoblashadi. Ularning fikricha, har qanday dividend siyosati kompaniyaning qiymatiga va uning egalari farovonligiga ta’sir qilmasdan bir xil natijalarga olib keladi.

R. Litsenberger va K. Ramasvami tomonidan ilgari surilgan nazariyaga muvofiq, “Aksiyadorlar uchun dividend daromadlari emas, balki kapitalizatsiya qilingan daromadlar ustuvor ahamiyatga ega, bunga esa kapitalizatsiya qilingan daromadlar olingan dividendlarga qaraganda kamroq miqdorda soliqqa tortilishi hisoblanadi” [4].

S. Ross va S. Bxattacharning signal nazariyasiga ko‘ra, “Dividend siyosati orqali boshqaruv investorlarga korxonaning holati to‘g‘risida signal beradi, agentlik nazariyasida esa M. Jensen va U. Mekling turli boshqaruv guruhlari, korxona aksiyadorlari va kreditorlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvlari dividend siyosati orqali bo‘lishini ifodalaydilar [5].

Dividend siyosatini aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qarz va uning sifati hisoblanadi. Agar kompaniya ochiq bozorda ommaviy ravishda qarz olishga kirishsa, u holda Y. Fedorova va I. Lukasevichga ko‘ra “Milliy kompaniyalarda dividend olish maqsadida ular faoliyatiga investitsiya kiritish ommaviylashmoqda” [6].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim S. Elmirzayev tomonidan dividendlar iqtisodiy mohiyati, oqilona dividend siyosati orqali aksiyadorlik jamiyatlari erishish mumkin bo‘lgan natijalar, dividendlar tahlili masalalari atroflicha tadqiq qilingan [7]. N. Sherqo‘ziyeva esa o‘z maqolasida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining rolini tadqiq qilib, dividend siyosati bo‘yicha asosiy nazariyalar, dividend siyosati prinsiplari, dividendlarni e’lon qilish va to‘lash tartibi kabilar milliy va xalqaro tajriba asosida atroflicha o‘rganilgan [8]. Boshqa bir iqtisodchi olim A. Temirov esa O‘zbekiston Respublikasida kompaniyalar tomonidan tanlangan dividend siyosatini ishlab chiqishiga bir qator omillar guruhlari ta’sir qilishini ta’kidlagan [9].

Dividend siyosatidagi sezilarli o‘zgarishlarga qaramasdan, u ko‘p tadqiqotlar va munosabatlarning obyekti bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida dividend siyosati va uning tendensiyalarining tahlili tashkil etish va tizimlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, ta’rif va tushunchalarning shakllanishini qiyosiy solishtirish, ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dividend siyosatining maqsadi iste’mol qilinadigan va kapitallashtirilayotgan foyda qismlari o‘rtasidagi maqbul nisbatni belgilashdan iborat bo‘lib, bu kelgusida aksiyadorlik jamiyatining strategik rivojlanishini ta’minlash, kompaniya bozor qiymatini maksimal darajada oshirish, aksiyalarning bozor qiymatini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi.

Dividend siyosatini shakllantirishning eng muhim bosqichi bo‘lib dividendlarni to‘lash shaklini tanlash hisobladi. Bunday shakllarning asosiylari esa quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval: Dividendlarni to‘lash shakllari*

№	Dividendlarni to‘lash shakllari	Qisqacha mazmuni
1	Dividendlarni pul bilan to‘lash	Bu dividend to‘lovlarini amalga oshirishning eng sodda va eng ko‘p tarqalgan shakli bo‘lib hisoblanadi
2	Dividendlarni aksiyalar bilan to‘lash	Ushbu shakl aksiyadorlarga dividend to‘lovlari summasiga teng tarzda yangi emissiya qilingan aksiyalarni berishni ko‘zda tutadi
3	Qayta investitsiyalash	To‘lovning bunday shakli aksiyadorlarga yakka tartibda tanlash huquqini beradi
4	Aksiyalarni qayta sotib olish	Aksiyalarning kompaniya tomonidan qayta sotib olinadi

*Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda jahonning aksariyat mamlakatlarida dividend to‘lovlarining quyidai usullari qo‘llanilmoqda.

1. **Sobit dividend to‘lovlari yoki barqaror dividend to‘lovlari usuli.** Mazkur usulning mazmuni shundan iboratki, qimmatli qog‘ozlar qiymati o‘zgarishidan qat’i nazar, uzoq vaqt davomida oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lashga yo‘naltirilgan sof foydaning barqaror foizini nazarda tutadi. Inflyatsiyaning yuqori

sur'atlari bo'lgan davrda dividend to'lovlari miqdori inflyatsiya indeksiga korrektirovka qilinadi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, turli vaziyatlarda aksiyadorlarda joriy daromad miqdori o'zgarmasligiga ishonch hissi yaratadi, fond bozorida esa aksiyalarning kurs qiymatini o'zgaruvchanlikdan qochish imkonini beradi.

Ushbu usulning salbiy tomoni kompaniya faoliyatining moliyaviy natijalari bilan zaif aloqada bo'ladi. Shuning uchun salbiy kon'yunktura va joriy yilning daromadining pasayishi davrida korxona investitsiya, moliyaviy va hatto asosiy faoliyat uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmasligi mumkin.

2. **Kafolatlangan minimum va qo'shimcha (ekstra) dividendlarni to'lash usuli.** Mazmun jihatdan sobit dividendlar miqdorini muntazam ravishda to'lashni nazarda tutadi. Bu usulning afzalliklaridan biri bo'lib minimal belgilangan miqdorda dividendlarning barqaror kafolatlangan to'lovining mavjudligi, shuningdek, investitsiya faoliyatini kamaytirmagan holda dividendlar miqdorini oshirishi imkonini beradigan moliyaviy natijalar bilan o'zaro aloqada ekanligi hisoblanadi. Uning asosiy kamchiligi shundaki, uzoq muddatli miniml sobit dividendlar to'lash (ayrim davrlarda hech qanday qo'shimcha haq) kompaniya aksiyalarining investitsion jozibadorligini kamaytiradi, boshqa tomondan ekstra dividendlarni muntazam to'lab borilishi o'z navbatida aksiyadorlarga bo'lgan rag'batlantiruvchi ta'siri kamayadi va bu siyosatning muntazam dividend to'lovlari siyosatidan farqi qolmay qoladi.

3. **Qoldiq tamoyil bo'yicha dividendlarni to'lash usuli.** Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, dividendlar kompaniyaning barcha asosli investitsiya ehtiyojlari qondirilganidan so'ng oxirida to'lanadi. Bu usul bo'yicha harakatlar ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- kapital qo'yilmalarning optimal budjeti tuziladi;
- budjetni ijro etish uchun zarur bo'lgan kapitalning qiymatini aniqlaydigan moliyalashtirish manbalarining optimal tuzilmasi aniqlanadi;
- dividendlar faqat investitsiyalarni moliyalashtirish zarur bo'lmagan holatda qoldiq foydadan to'lanadi.

4 **Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash usuli.** Aksiyadorlar pul o'rniga qo'shimcha aksiyalar oladi. Ushbu texnikadan foydalanish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Kompaniyaning pul bilan muammolari bo'lishi, shuningdek moliyaviy holati beqaror bo'lishi mumkin. Bu usul bilan aksiyadorlar amalda hech narsa olmaganligini tushunish oson, chunki ularga to'laniladigan dividendlar summasi o'z kapitali tarkibida kapitallashgan mablag'larning qiymatiga teng. Aksiyalar soni ortdi, lekin har bir aksiya uchun aktivlarning qiymati kamaydi. Biroq, bu variant aksiyadorlarni qoniqtiradi, chunki ular zarur bo'lganda pulga sotilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarni olmoqdalar.

5. **Dividendlar barqarorligi indeksini (DSI) hisoblash usuli.** Doimiy ravishda dividend to'laydigan kompaniyalarning aksiyalari investorga joriy daromad olish yoki to'lovlarni qayta investitsiya qilishni kapitalning uzoq muddatli o'sishi bilan birlashtirishga imkon beradi. Dividendlarning barqarorligi indeksi (Dividend Stability Index- DSI) kompaniyaning dividendlarni qanchalik muntazam ravishda to'lashini va ularning miqdorini oshirib borayotganligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich ikki indeksdan iborat:

- to'lovlarning barqarorligi (YC);
- o'sish barqarorligi (GC).

Indeks noldan birgacha bo'lgan qiymatlarni oladi. Agar aksiyalar yetti yildan kam vaqt davomida sotilgan bo'lsa ham, DSI indeksi mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar bo'yicha hisoblab chiqiladi. Biroq, bunday aksiyalar indeksi DSI=1 ga teng bo'lmaydi, chunki bunga dividendlarni barqaror to'lash va oshirish bo'lgan bilan ham belgilangan 7 yil muddat to'lmaganligi sabab bo'ladi. DSI indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$DSI = (YC + GC) /14 \quad (1)$$

Bu yerda: YC – oxirgi tugallangan yetti yil ichida dividendlarni to'lashning ketma-ket yillari uchun ballar yig'indisi; GC – dividendlarni ketma-ket oshirish yoki oxirgi tugallangan yetti yil ichida ularning darajasini minimum saqlab qolish uchun ballar yig'indisi.

Mazkur usul bo'yicha ballarni berish tartibi quyidagichdir. YC ballining belgilanishida aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashning har bir davriy yili (ketma-ketligi) uchun emitentga bir ball beriladi. GC ballining belgilanishida aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash miqdorining ko'paytirilishining har bir ketma-ket yili (davomiyligi) uchun bir ball beriladi. Har ikkala indeks uchun ham ko'rib chiqilayotgan davr oxirgi tugallangan yetti yil bo'lib hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda DSI indikatorining qiymat chegaralari xususiyatlari keltirilgan.

2-jadval: DSI indikatorining qiymat chegaralari xususiyatlari*

№	DSI ko‘rsatkichi	Qiymat chegaralarining xususiyatlari
1	DSI=1	Aksiya bo‘yicha dividend to‘lovlari oxirgi 7 yilda ko‘tarilgan
2	DSI>0,57	Doimiy dividend to‘lovlari ko‘tarilish tendensiyasiga ega
3	DSI=(0,36-0,56)	Doimiy dividend to‘lovlari pasayish tendensiyasiga ega
4	DSI<0,36	Dividend to‘lovlari doimiy emas yoki qisqa tarixga ega
5	DSI=0	Dividend to‘lovlari tarixi mavjud emas yoki to‘xtatilgan

* Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Agar aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash miqdorining yillar kesimida o‘zgarmasligi holati kuzatilsa, har bir ketma-ket yili (davomiyligi) uchun 0,5 ball beriladi. Dividendlarni to‘lash miqdorining yetti yil ichida faqat bir marta o‘tgan yilga nisbatan 7 foizdan kam bo‘lmaganligi holati kuzatilsa, barqarorlik holati saqlangan deb hisoblanadi hamda 0,5 ball beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida dividend siyosati bilan bog‘liq tendensiyalar va ularni tahlil qilinganda, quyidagilarni keltirish mumkin:

Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini belgilashda asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo‘lgan siyosat tanlanilayotganligini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, endigina rivojlanib borayotgan bozorlarida investorlar asosan to‘lanadigan dividendlar miqdoriga emas, balki kompaniya kapitallashuvining o‘sish istiqbollariga yo‘naltirilgan siyosatni ma’qul ko‘rishadi.

Dividend uchun to‘lanayotgan mablag‘ miqdori dividend siyosatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, bank aksiyadorlarining manfaatlarini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va bank aksiyalari bahosining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, bank tomonidan oqilona dividend siyosatining yuritilishi uning kapital bazasini mustahkamlashga, kapitalni samarali boshqarishga va tijorat bankining moliya bozoridagi mavqeini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Bank hisobot davrining yakuni bo‘yicha olgan ma’lum miqdordagi foydasini barcha zarur maqsadlarga qilingan ajratmalardan so‘ng, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq, oddiy va kumulyativ imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lashga yo‘naltiradi. Demak, dividendlar sof foyda hisobidan to‘lanadi va bank moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida sof foydaning yuzaga kelmasligi dividendlarning to‘lanmasligiga va uning oqibatida bank aksiyalarining bozor bahosining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Aksiyalarga to‘lanadigan dividendlar miqdori o‘z navbatida, rivojlangan bozorlarda kompaniyaning qimmatli qog‘ozlari qiymatida kamroq o‘zgarishlarga ega bo‘lgan sharoitlarda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan dividendlarga yo‘naltiriladigan sof foydaning ulushi asta-sekin o‘sib bormoqda, ammo dividend rentabelligi pastligicha qolmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida ikkilamchi moliya bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari jami kapitali tarkibida emission daromadlarning shakllanmayotganligiga sabab bo‘lmoqda. Demak, barqaror dividend siyosatining olib borilishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan bo‘lgan “dividend to‘lovining miqdori ikkilamchi moliya bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liqdir. Mazkur holat tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarish va uning tarkibini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi” [10].

Dividend siyosati bo‘yicha qaror qabul qilishda tijorat banklarining likvidliligi muhim ahamiyatga ega. Chunki dividend uchun to‘lanayotgan summa to‘g‘ridan to‘g‘ri bank kapitalini kamayishiga olib keladi. Ma’lumki, to‘lanayotgan dividend summasi tijorat bankining taqsimlanmagan foydasiga ta’sir qiladi, taqsimlanmagan foyda o‘z navbatida, bankning birinchi darajali kapitalining asosiy elementi hisoblanadi.

2020-2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasiga asosan xalqaro moliya institutlari ko‘magida “Ipoteka-bank” ATIB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asakabank” AJ, AT “Aloqabank”, “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATB dagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o‘zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish mo‘ljallanayotgan bir vaqtda qo‘yilgan vazifaning samarali ijrosi ham banklar dividend siyosatiga bevosita bog‘liq. Chunki muntazam dividend to‘lab kelayotgan banklar aksiyalari shunchalik tez o‘z egalarini topadi [1].

Quyidagi jadvalda esa O‘zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklari bo‘yicha dividend berish dinamikasini ko‘rish mumkin.

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklari bo‘yicha dividend berish dinamikasi*

№	Tijorat banklari	Yillar**						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Oriyent Finans bank	700	1 701	517,51	486,80	525	352	485
2	Invest Finans bank	-	57,68	89,47	-	-	175	50
3	Asakabank	7,92	2,94	2,06	-	-	-	-
4	O‘zsanoatqurilishbank	-	0,38	0,63	-	-	-	-
5	Ipotekabank	0,08	0,06	0,08	-	-	-	-
6	Universalbank	400	800	135	-	-	392	-
7	Hamkorbank	-	-	-	-	-	-	-
8	Turonbank	-	18,59	23,29	-	-	-	28,61
9	Kapitalbank	-	-	-	-	768,25	-	-

* Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

** Dividend bir dona oddiy aksiyaga so‘mda ko‘rsatilgan

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dividend to‘lovlari bo‘yicha respublika tijorat banklarining aksar qismida ularning reinvestitsiyaga yo‘naltirilganligi ma’lum bo‘lmoqda, bundan tashqari, standart kreditlar bo‘yicha zaxira sifatida qoldiradi. ATIB Ipoteka-bank tomonidan to‘langan dividend to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-жадвал: АТИБ “Ипотека-банк” томонидан дивиденд тўловларининг амалга оширилиши*

№	Ko‘rsatkichlar	Dividend to‘lovlarining amalga oshirilishi						
		2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1	Pul ko‘rinishida hisoblangan dividendlar (so‘m hisobida), sh. j.							
	Oddiy aksiyalarga	0,08	0,06	0,08	-	-	-	-
	Imtiyozli aksiyalarga	0,25	0,25	0,25	0,25	0,25	0,25	
2	Kapitalizatsiya ko‘rinishida hisoblangan dividendlar (so‘m hisobida), sh. j.	-	-	-	-	-	-	-
3	Aksiyalarning nominal qiymati (so‘m)	1	1	1	1	1	1	1

* Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, 2016-yilgacha mazkur bank aksiyalarining nominal qiymati 2010-yilgacha 1000 so‘mdan, 2011-yildan 2015-yilga qadar 1360 so‘mdan 3578 so‘mgacha bo‘lgan. 2017-yil 29-mayda olingan sof foyda hisobidan aksiyalarni maydalash yo‘li bilan kapitalizatsiya amalga oshirilgan hamda aksiyalarning qo‘shimcha miqdori chiqarilgan. Bu 3578 dona aksiyaga 448 donadan aksiya qo‘shilganligidan dalolat beradi [12].

Milliy va xalqaro amaliyotda tijorat banklarining aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilishi va faoliyat yuritishlari ularning qimmatli qog‘ozlar bozorining faol ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi. Tijorat banklari amaldagi tartiblar asosida qimmatli qog‘ozlar bozorida birinchi navbatda emitent sifatida, so‘ngra investor va vositachi sifatida ishtirok etadi. Qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida har qanday aksiyadorlik jamiyati investorlarni daromad bilan ta’minlashi lozim.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Aksiyalar emitenti sifatida banklar o‘z aksiyadorlariga muntazam ravishda dividendlar to‘lab borishi istiqbolda qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali kapitallashuv darajasini oshirib borishga, bozordagi nufuzi oshib borishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan dividend siyosatiga jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi. Umumiy holda, oqilona dividend siyosati tijorat banklari uchun quyidagi ustuvorliklarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘rganishlar asosida, dividend siyosati orqali tijorat banklari erishishi mumkin bo‘lgan ustuvorliklarni quyidagicha kengroq asoslash mumkin:

- birinchidan, qarz kapitali nisbatan qimmat sharoitda muntazam dividendlar to‘lab borilishi qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali arzon kapital jalb qilishga imkon beradi. Boshqa tomondan muntazam dividend qo‘shimcha emissiya qilingan aksiyalarni nominaldan yuqori narx diapazonida joylashtirishga

asos bo‘lib xizmat qiladi va qo‘shilgan kapital miqdorining oshib borishini ham ta’minlaydi. Mazkur jihat asosida oxir-oqibat moliyaviy resurslardan samarali foydalanilsa banklarning faoliyat doirasining kengayishib borishiga erishish mumkin bo‘ladi.

- ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari sifatida tijorat banklari turli manbalardan kapital jalb qilish imkoniyatiga ega. Bunda barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish resurs bazalari diversifikatsiya darajasini oshiradi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotda tijorat banklari tomonidan barcha manbalardan samarali foydalanilmoqda, deyish qiyin. Shu sababli ham qarz manbalari hisoblangan omonat va depozitlar jalb qilish, korporativ obligatsiyalar joylashtirishga qo‘shimcha ravishda resurs bazasi imkoniyatlarini oshirish nuqtai nazaridan qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi va ularni ochiq joylashtirish banklar resurs bazasining optimallashuviga xizmat qiladi. Buning uchun esa dividend siyosatini takomillashtirish talab etiladi.
- uchinchidan, banklarning oqilona dividend siyosati va muntazam har yili dividendlar to‘lab borishi investorlar va keng jamoatchilik uchun tekin reklama vazifasini o‘tab beradi. Shuningdek, dividendlar haqida muntazam e’lonlar bozordagi nufuzning ham muntazam oshirib borish va investorlarning keng doiradagi qiziqishlariga olib keladi. Natijada esa aksiyalar kurslarining o‘sishi ham ta’minlanadi.
- to‘rtinchidan, muntazam dividendlar orqali aksiyalarga bo‘lgan investorlarning qiziqish doirasini oshirish, o‘z navbatida tijorat banklari tomonidan o‘z aksiyalarini ommaviy joylashtirish imkoniyatlarini ham oshiradi. Aynan milliy va xalqaro IPO o‘tkazish uchun aksiyalar investitsion jozibadorligi nihoyatda muhim. Bunda esa muntazam dividendlar to‘lab borish bo‘yicha bank siyosati yuritilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- beshinchidan, tijorat banki yoki har qanday aksiyadorlik jamiyati tomonidan dividend to‘lab borilmasa, investor tomonidan egaligidagi aksiyalardan tezroq qutilishga harakat qiladi. Bunday sharoitda faoliyatini kengaytirish maqsadida boshqa subyektlarni, xususan banklarni qo‘shib olishga intiladigan subyektlar uchun qulay imkoniyat tug‘iladi. Natijada birlashishlar va qo‘shib olishlar bozorida boshqa banklar tomonidan dividendlarga e’tibor qaratmagan banklarni qo‘shib olish amalga oshirilishi mumkin, bunda bank o‘z mustaqilligini yo‘qotadi va qo‘shib oluvchi bank tomonidan yutib yuboriladi. Muntazam dividendlar esa har qanday qo‘shib olishdan himoya vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strtategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni.
2. Miller, M. H., Rock, K. Dividend Policy under Asymmetric Information // The Journal of Finance. Vol. 40. – № 4. – P. 1031–1051.
3. Gordon, M. J. Optimal investment and financing policy // The Journal of Finance. –Vol. 18. – № 2. – P. 264–272.
4. Lintner, J. (1956). Distribution of Incomes of Corporations among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. –Vol. 46. – № 2. – P. 97–113.
5. Lepetit, L., Meslier, C., Strobel, F., Wardhana, L. (2018). Bank dividends, agency costs and shareholder and creditor rights. // International Review of Financial Analysis. Volume 56. – P. 93–111
6. Miller, M. H., Rock, K. (1985) Dividend Policy under Asymmetric Information // The Journal of Finance. Vol. 40. – №4. – P. 1031–1051.
7. Федорова Е. А., Лукасевич И. Я. Теории дивидендной политики и их развитие на примере Российского рынка // Финансы и кредит № 19 (595). – 2014. – С. 2.
8. Elmirzayev S. E. Dividend siyosati tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. // Xalqaro moliya va hisob. №2, 2016.
9. Sherqo‘ziyeva N. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining o‘rni. // Xalqaro moliya va hisob. №3, 2019.
10. Temirov A. A. Dividendlar va dividend siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish matbaa-nashriyot uyi, 2021. – 160 b.
11. Kudratov S. R., Nazarova M. N. Banklarda korporativ boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 141 b.
12. https://www.ipotekabank.uz/about/

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович
DSc, Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Фундаментальная экономика”

Одилова Дилноза Барнаевна
PhD, Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Фундаментальная экономика”

Аннотация: Актуальностью данной статьи являются ключевые факторы инвестиции и коэффициенты развития, играющее немаловажную роль для привлечения зарубежных инвесторов в Узбекистан, а также имеется в статье последние статистические данные государственного комитета статистики об инвестировании в различных сферах экономики и действующих инвестиционных проектов на территории Республики Узбекистан.

Ключевые слова: ВВП на душу населения, инвестиции, рынок, вклад, идеи привлечения инвесторов, проекты, коэффициент, уровень безработицы, диверсификация, экспортный потенциал.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonga xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydigan investitsiyalar va rivojlanish koeffitsiyentlarining asosiy omillari bo‘lib, maqolada Davlat statistika qo‘mitasining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha so‘nggi statistik ma’lumotlari ham keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud investitsiya loyihalari.

Kalit so‘zlar: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, investisiya, bozor, hissa, investorlarni jalb qilish g‘oyalari, loyihalar, koeffitsiyent, ishsizlik darajasi, diversifikatsiya, eksport salohiyati.

Abstract: The relevance of this article is the key factors of investment and development coefficients, which play an important role in attracting foreign investors to Uzbekistan, and the article also contains the latest statistical data from the State Statistics Committee on investment in various sectors of the economy and existing investment projects in the territory of the Republic of Uzbekistan.

Key words: GDP per capita, investment, market, contribution, ideas for attracting investors, projects, coefficient, unemployment rate, diversification, export potential.

Один из самых актуальных задач в развитии и модернизации нынешней экономики страны, является привлечения зарубежных инвестиции в различные сферы экономики, действующая политика нацелена в построении государство с высокой экономикой, где именно привлечения зарубежных инвестиции составляют в этом большую ключевую роль.

Инвестиционный потенциал национальной экономики определяется совокупностью факторов: ВВП на душу населения, удельный вес убыточных предприятий, степень износа основных фондов на предприятиях, объем инновационных услуг, выпуск специалистов с высшим и профессиональным образованием, численность персонала, занятого НИОКР, уровень преступности, степень бюджетной обеспеченности, уровень безработицы и др.

В качестве анализируемых показателей автором определены: ВВП на душу населения, объемы подушевого освоения инвестиций в основной капитал, производство промышленной продукции на душу населения, реальные совокупные доходы на душу населения, уровень безработицы, уровень преступности, численность экономически активного населения и количество выпускников высших учебных заведений.

Расчет коэффициента вариации (табл. 1) показал, что почти по всем анализируемым показателям наблюдается повышенная вариация, что означает неоднородность социально-экономического развития регионов республики и, соответственно, различные возможности доступа к финансовым ресурсам и наращивания инвестиционного потенциала. Наибольшая дифференциация наблюдается по показателю количества выпускников ВУЗов, а также по объемам промышленного производства на душу населения. Наиболее однородными можно считать уровень занятости и совокупные доходы населения регионов.

Таблица 1: Коэффициенты вариации по социально-экономическим показателям развития Узбекистана в 2018-2022 гг., %[1]

№		2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
1.	ВРП на душу населения	49,5	59,0	66,8	65,4	63,5
2.	Освоение инвестиций в основной капитал на д/н	71,2	72,6	69,1	65,4	67,4
3.	Производство промышленной продукции на д/н	85,8	105,1	123,6	116,7	110,9
4.	Реальные совокупные доходы на д/н	34,1	38,1	36,9	36,6	37,0
5.	Уровень безработицы	5,7	5,5	7,8	8,5	12,0
6.	Уровень преступности	51,6	50,9	61,4	84,1	74,4
7.	Численность экономически активного населения	38,0	37,5	37,4	37,9	39,6
8.	Количество выпускников ВУЗов	120,1	118,5	102,0	104,2	124,8

Коэффициент эксцесса (табл. 2) свидетельствует о нормальном распределении вариационного ряда только по численности экономически активного населения, что означает допустимость аппроксимации нормальным распределением. Значение эксцесса совокупности остальных анализируемых показателей социально-экономического развития регионов Узбекистана в 2018-2022 гг. принадлежит к диапазону положительных чисел, что свидетельствует о том, что распределение данных величин является остроконечным (особенно количество выпускников ВУЗов).

Таблица 2: Коэффициенты эксцесса показателей социально-экономического развития Узбекистана в 2018-2022 гг. [2]

№	Показатель	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
1.	ВРП на душу населения	2,7	2,7	4,4	3,7	3,4
2.	Освоение инвестиций в основной капитал на д/н	1,9	2,3	2,2	2,5	1,8
3.	Производство промышленной продукции на д/н	2,1	6,7	8,5	7,2	6,0
4.	Реальные совокупные доходы на д/н	4,1	5,4	3,6	3,0	4,8
5.	Уровень безработицы	2,1	7,9	6,3	7,9	1,9
6.	Уровень преступности	-0,4	-0,5	1,0	2,9	3,2
7.	Численность экономически активного населения	-1,2	-1,2	-1,1	-1,2	-1,4
8.	Количество выпускников ВУЗов	12,1	12,3	12,4	11,9	12,7

Одним из показателей, характеризующих концентрацию и специализацию национальной экономики, является индекс Херфиндаля-Хиршмана, рассчитываемый путем суммирования квадратов всех индивидуальных процентных долей регионов:

$$HHI = \sum_{i=1}^{n} x_i^2 \quad (1)$$

где x_i - доля региона i в общем объеме совокупности.

По мнению экспертов, значение HHI менее 1000 указывает на хорошую конкуренцию, значение от 1000 до 1800 указывает на умеренную концентрацию, а значение больше 1800 указывает на высокую концентрацию[3].

Рассчитаем индекс Херфиндаля-Хиршмана по трем относительным показателям (долям): инвестиций в основной капитал, объема промышленного производства и экономически активного населения регионов по отношению к соответствующим аналогичным показателям по республике (рис. 1).

1 Составлено автором по данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан https://stat. uz/ru/
2 Составлено автором по данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан https://stat. uz/ru/
3 Зарецкая В. Г., Титкова И. К. Диверсификация экономики российских регионов: измерения и тенденции // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2017. №12 (357). URL: https://cyberleninka. ru/article/n/diversifikatsiya-ekonomiki-rossiyskih-regionov-izmereniya-i-tendensii

Рис. 1: Динамика географической концентрации экономических преимуществ в Узбекистане в 2018-2022 гг. [4]

Индекс Херфиндаля-Хиршмана свидетельствует о том, что наибольшая степень концентрации в Узбекистане наблюдается по показателю объемов промышленного производства. Наименьший показатель концентрации, но со стабильной тенденцией роста имеет место по численности экономически активного населения, что означает нарушение равномерного распределения трудовых ресурсов по регионам республики. Высокую степень концентрации регионы имеют по показателю инвестиций в основной капитал. Исследование показало, что все вышеназванные показали имеют умеренную степень концентрации, однако, монополия регионов, занимающих лидирующие позиции в промышленном производстве, объемах инвестиций в основной капитал и численности экономически активного населения неуклонно из года в год за рассматриваемый период растет.

В целях количественной оценки экономического и социального межрегионального неравенства в Узбекистане рассчитаем показатели энтропии - индексы Тейла, характеризующие распределение показателей по населению (и населения по показателям (:

$$T_T = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\frac{x_i}{\bar{x}} \times ln\frac{x_i}{\bar{x}} \qquad \text{и} \qquad T_L = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} ln\frac{\bar{x}}{x_i} \quad (2)$$

где x_i - показатель *i*-го субъекта;
n - количество субъектов;
$\bar{x}$ - среднее значение показателя.

Рассчитаем индексы Тейла по показателям освоения инвестиций в основной капитал на душу населения и производству промышленной продукции на душу населения (табл. 2. 6).

Таблица 2. 6: Индексы Тейла и по Узбекистану за 2018-2022 гг. [5]

Показатели энтропии	Инвестиции в основной капитал на д/н					Производство пром. продукции на д/н				
	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
Т-мера	0,21	0,22	0,20	0,18	0,20	0,31	0,40	0,51	0,47	0,44
L-мера	0,74	0,76	0,65	0,56	0,64	1,49	1,87	2,16	1,92	1,67

Результаты подсчета индексов Тейла показали, что поскольку как по инвестициям в основной капитал на душу населения, так и по производству промышленной продукции на душу населения Т-мера Тейла меньше L-меры, то это означает, что в государстве наблюдается значительный разрыв в уровнях развития богатых и бедных регионов, при этом значительное влияние на общую неравномерность развития страны оказывают богатые регионы, то есть усиление дифференциации произошло именно за счет концентрации инвестиций в основной капитал на душу населения и промышленного производства в богатых регионах.

Кроме того, можно заметить уменьшение разрыва между Т-мерой и L-мерой по инвестициям в основной капитал на душу населения, то есть происходит постепенное усиление лидерства богатых регионов, усугубление дифференциации уровня освоения инвестиций в регионах республики, что может

4 Здесь автором рассчитан индекс Херфиндаля-Хиршмана.
5 Составлено на основе расчетов автора.

свидетельствовать о росте конкурентных преимуществ экономически сильных регионов и дальнейшем ослаблении слабых. Как показали научные исследования представителей теорий поляризации, это чревато тем, что чем интенсивнее проходят процессы дивергенции, тем более неоднородными, неравновесными становятся пространственные характеристики социально-экономической системы.

Рис. 2. 10: Т-мера по Узбекистану за 2018-2022 гг. [6]

Однако, следует отметить тенденцию незначительного снижения масштабов дифференциации: по освоению инвестиций в основной капитал на душу населения - на 10%, подушевым показателям промышленного производства - на 8% (рис. 2. 10).

Таким образом, проведенное исследование позволяет говорить об асимметричном типе развития регионов Узбекистана, при котором регионы-лидеры улучшают свое положение относительно средних по республике значений, а районы-аутсайдеры - ухудшают. В абсолютном выражении это проявляется в том, что по индикатору освоения инвестиций размах асимметрии достигает шести (в 2021 г.), а коэффициент вариации на протяжении всего исследуемого периода по всем рассмотренным социально-экономическим показателям превышает пороговое значение, свидетельствующее об однородности пространства.

Определим инвестиционный потенциал регионов Узбекистана на основе удельного веса социально-экономических показателей по отношению к соответствующим показателям по республике (табл. 2. 7).

Таблица 2. 7: Показатели оценки инвестиционного потенциала экономики Узбекистана, 2022 г. [7]

Регионы	Доля региональных показателей в совокупных по республике				
	Инвестиции в основной капитал	ВРП	Объемы промышленного производства	Количество бездействующих предприятий	Численность экономически активного населения
	К1	К2	К3	К4	К5
Республика Каракалпакстан	0,03	0,03	0,04	0,04	0,05
Андижанская обл.	0,05	0,06	0,08	0,11	0,09
Бухарская обл.	0,08	0,05	0,05	0,07	0,06
Джизакская обл.	0,04	0,03	0,02	0,05	0,04
Кашкадарьинская обл.	0,07	0,06	0,04	0,06	0,09
Навоийская обл.	0,06	0,08	0,16	0,03	0,03
Наманганская обл.	0,05	0,05	0,03	0,04	0,08
Самаркандская обл.	0,06	0,07	0,05	0,09	0,11
Сурхандарьинская обл.	0,05	0,04	0,01	0,05	0,07
Сырдарьинская обл.	0,03	0,02	0,02	0,04	0,02
Ташкентская обл.	0,13	0,11	0,18	0,16	0,09
Ферганская обл.	0,05	0,06	0,06	0,06	0,11
Хорезмская обл.	0,03	0,04	0,03	0,05	0,05
г. Ташкент	0,25	0,17	0,20	0,14	0,09

6 Составлено автором.
7 Составлено автором.

Рейтинг регионов по показателю инвестиционного потенциала составим по принципу: чем больше будут рассчитанные значения коэффициентов К1-К5 (кроме К4), тем будет выше инвестиционная привлекательность региона.

Сначала необходимо привести все показатели к сопоставимому виду:

$$I_{ij} = K_i/K_{max},\ I_{ij} = 1 - K_i/K_{max} \quad (2.\ 3)$$

где I_{ij} - индекс инвестиционного потенциала по - му региону для *j*-го коэффициента; K_i - значение коэффициента для *i*-го региона; K_{max} - максимальное значение коэффициента среди всех регионов. Первую из формул (2. 3) используем для веса прямых коэффициентов (К1, К2, К3, К5), вторую - для обратных (К4).

Сводный индекс инвестиционного потенциала по каждому региону рассчитаем путем суммирования значений индексов инвестиционного потенциала по каждому коэффициенту:

$$SI_i = \sum I_{ij} \quad (2.\ 4)$$

Таблица 2. 8: Приведенные показатели инвестиционной привлекательности по Республике Узбекистан в 2022 г. [8]

Регионы	К1	К2	К3	К4	К5	Сводный индекс
Республика Каракалпакстан	0,13	0,20	0,18	0,75	0,47	1,74
Андижанская область	0,19	0,37	0,40	0,27	0,85	2,07
Бухарская область	0,33	0,31	0,23	0,55	0,52	1,95
Джизакская область	0,15	0,18	0,10	0,71	0,37	1,51
Кашкадарьинская область	0,29	0,34	0,21	0,64	0,81	2,29
Навоийская область	0,23	0,45	0,82	0,80	0,27	2,57
Наманганская область	0,20	0,28	0,16	0,74	0,74	2,12
Самаркандская область	0,24	0,42	0,25	0,40	0,97	2,28
Сурхандарьинская область	0,20	0,24	0,07	0,66	0,68	1,85
Сырдарьинская область	0,14	0,12	0,11	0,73	0,23	1,33
Ташкентская область	0,52	0,63	0,92	0,00	0,82	2,90
Ферганская область	0,20	0,38	0,31	0,58	1,00	2,47
Хорезмская область	0,14	0,22	0,15	0,66	0,49	1,65
г. Ташкент	1,00	1,00	1,00	0,07	0,86	3,93

На основе проведенного исследования в порядке убывания значений сводного индекса построим рейтинг регионов Узбекистана по инвестиционной привлекательности (рис. 2. 11).



Рис. 2. 11: Рейтинг регионов Узбекистана по уровню инвестиционной привлекательности, 2022 г. [9]

8 Составлено автором.
9 Составлено автором.

На основе метода статистической группировки с равными интервалами (2. 5) разделим регионы Узбекистана по уровню инвестиционного потенциала на три группы (табл. 2. 9).

$$i = \frac{x_{max} - x_{min}}{n} = \frac{3{,}93 - 1{,}33}{3} = 0{,}87 \quad (2.\ 5)$$

I группа - от 1,33 до 2,20
II группа - от 2,20 до 3,07
III группа - от 3,07 до 3,93

Таблица 2. 9: Классификация регионов Узбекистана по уровню инвестиционного потенциала, 2022 г. [10]

Регионы с высоким уровнем инвестиционного потенциала	Регионы со средним уровнем инвестиционного потенциала	Регионы с низким уровнем инвестиционного потенциала
г. Ташкент	Ташкентская обл.	Наманганская обл.
	Навоийская обл.	Андижанская обл.
	Ферганская обл.	Бухарская обл.
	Самаркандская обл.	Сурхандарьинская обл.
	Кашкадарьинская обл.	Республика Каракалпакстан
		Хорезмская обл.
		Джизакская обл.
		Сырдарьинская обл.

В соответствии с проведенным анализом всего лишь один регион - г. Ташкент - имеет высокий уровень инвестиционного потенциала, пять регионов - Ташкентская область, Навоийская область, Ферганская область, Самаркандская область и Кашкадарьинская область. Остальные восемь регионов - средний и низкий уровень инвестиционного потенциала. При этом наблюдается значительный (более, чем трехкратный) разрыв между наиболее и наименее инвестиционно-привлекательными регионами.

Несмотря на то, что вариация в уровне социально-экономического развития регионов выступает закономерным и неизбежным фактором, вытекая из разницы в географических, исторических, трудовых, производственных и т. п. условиях и ресурсах, необходимы меры, направленные на преодоление ее негативных влияний и последствий. Эти меры призваны снизить углубление неоднородности совокупности регионов, смягчить отставание отдельных регионов по основным социально-экономическим характеристикам, что сможет повысить общую устойчивость функционирования национальной экономики. Таким образом, исследование показало, что уровень освоения инвестиций в основной капитал напрямую влияет на объемы промышленного производства в регионах, что подтверждает необходимость поиска путей привлечения инвестиционных ресурсов в наименее промышленно развитые регионы республики.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года №ПФ-60.
2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН 2023г.
3. Информационное агентство: http://invest-in-uzbekistan. org/
4. Информационное агентство: https://stat. uz/ Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.

10 Составлено автором.

PORTFELLI XORIJIY INVESTITSIYALARNI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Tosheva Ziroat Aliqul qizi
AJ Ziraat Bank Uzbekistan,
mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag‘lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo‘l bilan respublika iqtisodiyotini ko‘tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga, rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Portfelli xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, asosiy kapital, globallashuv, xorijiy investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, investitsiya resurslari, investitsiya faoliyati, davlat obligatsiyasi.

Abstract: The policy of attracting portfolio foreign investments for the development of priority sectors of the economy in the Republic of Uzbekistan is aimed at effective use of available funds, time and opportunities, effective deployment of resources based on existing conditions, and in this way, raising the economy of the republic, its integration into the world economic system, encouraging investments in the economy. aimed at attracting priority sectors and using them effectively.

Key words: Portfolio foreign investment, investment policy, fixed capital, globalization, foreign investment, investment activity, investment project, investment resources, investment activity, government bond.

Аннотация: Политика привлечения портфельных иностранных инвестиций для развития приоритетных отраслей экономики Республики Узбекистан направлена на эффективное использование имеющихся средств, времени и возможностей, эффективное размещение ресурсов исходя из существующих условий и, таким образом, повышение экономики республики, ее интеграция в мировую экономическую систему, стимулирование инвестиций в экономику, направленных на привлечение приоритетных отраслей и их эффективное использование.

Ключевые слова: Портфелные иностранные инвестиции, инвестиционная политика, основной капитал, глобализация, иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, инвестиционные ресурсы, инвестиционная деятельность, государственные облигации.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarinii saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan[1].

Portfelli xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investiyalarni jalb qilish ko‘lamini kengaytirish imkonini bergan holda, maqsadli investitsiya oqimining kirib kelishini ta’minlaydi va investitsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga investitsion siyosatning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish choralarini ko‘radi va amalga oshiradi, iqtisodiy, huquqiy normalarni, huquqiy himoya vositalarini yaratadi, milily fond bozorini rivojlantirishda, rezidentlarning qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiradigan xalqaro operatsiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida//www. lex. uz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash joizki, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning passiv strategiyasida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan operatsion chiqimlar aktiv strategiyaga nisbatan kam bo'ladi.

J. Tobinning portfelli tahlil nazariyasiga ko'ra, yer, qo'zg'almas mulk yuqori daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga, yuqori risk darajasiga ega. Kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi. Riskli aktivlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida kompaniyalar va banklarning pul mablag'lari portfel ko'rinishida taqsimlanadi[2].

V. Aksenovning xulosasiga ko'ra, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning aktiv strategiyasining muhim o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- portfelni shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarni tanlash;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish yoki sotish muddatlarini aniqlash[3].

G'arb mamlakatlari bank amaliyotida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishning svopingga asoslangan quyidagi to'rt shaklidan keng foydalanilmoqda[4]:

1. **Sof daromadni tanlab olish shakli.**

Mazkur shaklning mazmuni shundaki, nominali bir-biridan sezilarli darajada farq qilmaydigan va baholari bo'yicha bir xil bo'lgan ikki qimmatli qog'oz o'zaro ayirbosh qilinadi. Buning natijasida daromadlilik darajasi past bo'lgan qimmatli qog'oz sotiladi va uning o'rniga daromadliligi nisbatan yuqori bo'lgan qimmatli qog'oz sotib olinadi.

2. **Almashtirib qo'yish shakli.**

Ushbu shaklda bir-biriga o'xshash, lekin bir xil bo'lmagan ikkita qimmatli qog'oz ayirboshlanadi. Mazkur strategiya qo'shimcha daromad olish maqsadida qo'llaniladi.

3. **Svop sektori shakli.**

Ushbu shakl svopingning eng murakkab shakli hisoblanadi. Bunda investor iqtisodiyotning turli sektorlariga mansub bo'lgan emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni muddatiga, daromadliligiga ko'ra ayirboshlaydi.

4. **Foiz stavkalarini tahlil qilish va prognoz qilishga asoslangan shakl.**

Mazkur shaklda foiz stavkalari pasayayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati uzaytiriladi, foiz stavkalari oshayotganda qimmatli qog'ozlar portfelining muddati qisqartiriladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya uslublaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom moliya instrumentlaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

NATIJALAR

Xalqaro obligatsiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishga xizmat qilish bilan birga kelajakda ichki moliya bozoriga, jumladan, davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

2021-yilda portfel investitsiya operatsiyalari saldosi manfiy ko'rinishda shakllanib, 2,0 mlrd. dollarni tashkil qildi. Mazkur holat hisobot davrida xalqaro moliya bozorlarida jami 5 ta xalqaro obligatsiyalar joylashtirilishi bilan izohlanadi.

Shundan:

- Davlat obligatsiyasi 635 mln. doll. (3,9 foiz stavkasi bilan 10 yil muddatga);
- Davlat obligatsiyasi 2,5 trln. so'mga (14,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga);
- "O'zNeftegaz" AJ obligatsiyasi 700 mln. doll. (4,75 foiz stavkasi bilan 7 yil muddatga);
- "UzAvto Motors" AJ obligatsiyasi 300 mln. doll. (4,85 foiz stavkasi bilan 5 yil muddatga);
- "Ipoteka bank" AJ obligatsiyasi 785 mlrd. so'm (16,0 foiz stavkasi bilan 3 yil muddatga)[5].

2 Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. – М.: Либроком, 2010. – С. 111–112.
3 Аксенов В. С., Зубов Я. О. Формирование и управление инвестиционным портфелем в условиях финансового кризиса// Финансы и кредит. 2010. – №7 – с. 22-28.
4 Hirschey, M. & Nofsinger, J. Investments: analysis and behavior. McGraw-Hill Education, 2008. – 237 p.
5 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi//www.cbu.uz.

Moliyaviy hisobda majburiyatlar bo‘yicha operatsiyalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, asosan tashqi dunyo oldidagi majburiyatlar bo‘yicha oqimlar “Ssuda va qarzlar”, “To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar” hamda “Portfel investitsiyalar” komponentlariga to‘g‘ri keladi. 2018-yildan ssuda va qarzlarning ulushi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning ulushidan ko‘proq bo‘ldi. Ushbu jarayon sanoat va hududlarni rivojlantirish bilan bog‘liq davlat dasturlarini moliyalashtirish maqsadida davlat boshqaruvi sektori tomonidan olingan qarzlar hajmining oshishi bilan izohlanadi. Shuningdek, 2018-yildan boshlab MTB doirasida to‘lovlarning ko‘payishi sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi qisqarishi, hamda 2020-yilda pandemiya sabab “Ssuda va qarzlar” komponenti o‘sishi o‘tgan yillarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. 2021-yil natijalariga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof o‘sishiga qaramay, bank va boshqa sektorlar tomonidan tashqi qarzlarning faol jalb etilayotganligi, “Ssuda va qarzlar” komponenti tashqi dunyo oldidagi majburiyatlarning sof o‘sishida ko‘p ulushga (68 foiz) ega bo‘ldi.

TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasining sof investitsion pozitsiyasi 2021-yil boshiga nisbatan 17 foizga yoki 3,5 mlrd. dollarga qisqarib, joriy yilning 1 yanvar holatiga 16,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda mamlakatning chet el valyutasidagi aktivlari 70,4 mlrd. dollarni, tashqi majburiyatlarining hajmi esa 53,6 mlrd. dollarga teng bo‘ldi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda sof investitsion pozitsiyaning o‘zgarishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, nooperatsion o‘zgarishlarning ijobiy shakllanishiga qaramay to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalari bo‘yicha majburiyatlar hajmining o‘sishi, shuningdek, ssudalar va qarzlar oshishi sof investitsion pozitsiyasiga salbiy ta’sir etdi. Xalqaro investitsion pozitsiyaning iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2021 yil yakunlariga ko‘ra, davlat boshqaruvi sektori va boshqa sektorlar “sof kreditor”, bank sektori esa “sof qarzdor” turkumiga oid bo‘lganligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida e’tirof etganlaridek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichda davom ettirilmoqda.

Xalqaro reyting agentliklarining eng yuqori reyting bahosiga (AAA) ega bo‘lgan ITB banki jahon moliya tizimida o‘z nufuziga ega bo‘lgan xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. E’tirof etish joizki, ushbu xalqaro tashkilotning 46-yillik yig‘ilishini 2021-yilning 2–4 sentyabr kunlarida Toshkent shahrida o‘tkazilishi ITB tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga bo‘lgan ishonch va e’tiborning namoyon bo‘lish shakli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4224-sonli “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ITB bilan hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Mazkur Qarorga muvofiq, O‘zbekiston va ITB o‘rtasidagi uzoq muddatli sherikchilikning asosiy yo‘nalishlari qilib quyidagilar belgilandi:

- energetika, yo‘l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan, Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi (XSRBIK), Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK), Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash korporatsiyasi (IEKSIK), Islom tadqiqot va ta’lim instituti mablag‘larini jalb qilish;
- bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg‘armalarni tashkil etish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O‘zbekistonda tatbiq qilish;
- respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun XSRBIK, XISMK va IEKSIK moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi salohiyatini oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash[6].

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, chet ellik investor investitsiya faoliyatini tugatgandan so‘ng investitsiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o‘z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O‘zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ–4224-sonli “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytiriish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//www.lex.uz

Shuningdek, mazkur Qonunga ko‘ra, agar O‘zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo‘lgan qonun hujjatlari chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e’tiboran o‘n yil mobaynida qo‘llaniladi. Investor o‘zining investitsiya qilish shart-sharoitlarini yaxshilaydigan yangi qonunchilik qoidalarini o‘z xohishiga ko‘ra qo‘llash huquqiga ega. Xorijiy investitsiyani, xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim omillardan bo‘lib mamlakatdagi barqaror iqtisodiyot, huquqiy-investitsion muhit, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlik, rivojlangan infratuzilma, malakali mutaxassislar va yaratilgan imtiyozlar va kafolatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatda investitsion muhit ko‘p jihatdan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bog‘liq.

2020-yilning 19-noyabr kuni Moliya vazirligi tomonidan umumiy hajmi 750 mln. dollar miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar ikki transhda – 10 yillik muddat bilan 555 mln. dollar dollarda va 3 yillik muddat bilan ilk bora milliy valyutamiz – o‘zbek so‘mida 2 trln. so‘m miqdorida London qimmatbaho qog‘ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi.

Bunda, 3 yillik milliy valyutadagi va 10 yillik dollardagi suveren xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarning mos ravishda 14,50% (dastlabki foiz stavkadan 0,75% past) va 3,70% (dastlabki foiz stavkadan 0,55% past) darajasida belgilanishi hamda mazkur obligatsiyalarni xarid qilish talabining mos ravishda 5 trln. so‘m va 3,8 mlrd. dollargacha yetishi xorijiy investorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bilan bog‘liq xatarlarning mo‘tadil darajada baholanishini va respublika istiqboliga bo‘lgan ishonchni oshib borayotganligini ko‘rsatadi. Milliy valyutadagi xalqaro obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar (2 trln. so‘m) Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish maqsadlariga, jumladan, kambag‘allikka qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini va sifatli ta’limni targ‘ib qilish, gender tengligi ta’minlanishini jadallashtirish, toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, munosib mehnat sharoiti va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilma barqarorligini oshirishga qaratilgan rivojlanish loyihalari uchun yo‘naltiriladi[7].

Qayd etish lozimki, 2021-yilda ham xususiy sektor tomonidan xalqaro bozorlarga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish orqali tashqi qarz jalb qilishda faollik kuzatildi. Xususan, “O‘zbekneftegaz” AJ tomonidan qiymati 700 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog‘ozlarni 4,75 foiz stavkasi bilan 7 yillik muddatga, “UZAUTO MOTORS” AJ tomonidan qiymati 300 mln. dollar miqdoridagi qimmatli qog‘ozlarni 4,85 foiz stavkasi bilan 5 yillik muddatga hamda “Ipoteka bank” AJ tomonidan 785 mlrd. so‘m qiymatidagi qimmatli qog‘ozlarni 16,0 foiz stavkasi bilan 3 yillik muddatga xalqaro moliya bozorida joylashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarinii saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi;
- kompaniyalarning qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalari yuqori riskli aktiv hisoblanadi, chunki ushbu investitsiyalar past yoki yuqori darajadagi noaniqlik va beqarorligi bilan ajralib turadi;
- respublikamiz iqtisodiyotiga portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi mavqeyini O‘zbekiston hukumati va davlat korxonalari egallaydi;
- xalqaro obligatsiyalarning foiz stavkalarini nibatan yuqori ekanligi ularga bo‘lgan talabni shakllantirishning asosiy omili bo‘lib qolmoqda.

Fikrimizcha, portfelli xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish ko‘lamini kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozorini xalqaro kapital bozoriga integratsiya qilishni ta’minlash orqali portfelli xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun, birinchidan, milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini xalqaro fond bozorlariga integratsiya darajasini aniq ko‘rsatuvchi mezonlarni belgilab olish kerak; ikkinchidan, milliy qimmatli qog‘ozlar bozorining listingiga kirish talablarini xalqaro fond birjalarining listingiga kirish talablariga yuqori darajada mos kelishini ta’minlash lozim.
2. Muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritishni ta’minlash orqali O‘zbekistonning suveren kredit reytingini yaxshilash orqali rezidentlarning yevroobligatsiyalarini investitsion jozibadorligini oshirish zarur.

Hozirgi davrda, birinchidan, inflyatsiya darajasini yuqori ekanligi va davlat byudjeti defitsitining katta ekanligi mamlakatning suveren kredit reytingini yaxshilash imkonini bermaydi; ikkinchidan, O‘zbekistonning suveren kredit reytingi darajasi ancha past (S&P reyting agentligi tomonidan berilgan O‘zbekistonning suveren kredit reytingi – BB-). Bu juda past reyting hisoblanadi.

7 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasining 2005–2021-yillar uchun to‘lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi hamda tashqi qarzi//www. cbu. uz

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI



To‘rayeva Nafisa Odilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta’minlash hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tamoyillarini ishlab chiqish usullarini o‘rganishdan iborat. Bunda mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotni raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan, shuningdek, kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantrish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ularning tahlili yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, boshqaruv, an’anaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, yangi iqtisodiyot, raqamlashtirish, kichik biznes reabilitatsiyasi.

Abstract: The purpose of this study is to ensure the use of digital technologies in small business entities and to study the methods of developing the principles of forming the digital economy. It highlighted the importance of digitization of the economy in the socio-economic development of countries, as well as scientific-theoretical views on the development of the use of digital technologies by small business entities, suggestions and recommendations on the use of digital technologies by small business entities and their analysis.

Key words: small business, management, traditional economy, digital technologies, new economy, digitization, small business rehabilitation.

Аннотация: Целью данного исследования является обеспечение использования цифровых технологий в субъектах малого предпринимательства и изучение методов разработки принципов формирования цифровой экономики. Освещена важность цифровизации экономики в социально-экономическом развитии стран, а также научно-теоретические взгляды на развитие использования цифровых технологий субъектами малого предпринимательства, предложения и рекомендации по использованию цифровых технологий малыми предприятиями. хозяйствующие субъекты и их анализ.

Ключевые слова: малый бизнес, менеджмент, традиционная экономика, цифровые технологии, новая экономика, цифровизация, реабилитация малого бизнеса.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bozorining globallashuv jarayonida masofaviy xizmat ko‘rsatish va onlayn savdolar jadal rivojlanib borishi natijasida mijozlar uchun mazkur xizmatlardan yer yuzini istalgan nuqtasidan turib erkin foydalanish imkoniyati tug‘ilmoqda. Hozirda “5,19 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu butun dunyo aholisining 64,5 foiziga tengdir. Global miqyosda internet foydalanuvchilari soni yiliga 2,1 foizga o‘sib bormoqda, biroq ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida yildan yilga o‘sish ancha yuqori. O‘rtacha global internet foydalanuvchisi har kuni 6 soat 40 daqiqani onlayn rejimda o‘tkazmoqda” [1]. Bunday holatlardan kelib chiqib kichik biznes subyektlari o‘z faoliyatlarini raqamli transformatsiya qilishi talab etiladi va mijozlar talabi va raqobatchilar bilan teng bo‘lish zaruratini tug‘diradi. Umuman olganda, raqamli transformatsiyalashda texnologiyalardan foydalanish kichik biznes subyektlarini o‘zgaruvchan bozorlarga javob berish va innovatsiyalarni kuchaytirishda yanada tezkor bo‘lishiga yordam beradi va shu bilan ularni yanada barqarorlashtiradi. “2022-yilda raqamli transformatsiyaga sarflanadigan xarajatlar 1,6 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa 2026-yilga borib, raqamli transformatsiya uchun global xarajatlar 3,4 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda” [2]. Biroq ko‘pgina kichik biznes subyektlarida bu o‘tishni yaxshi rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan vaqt, mablag‘lar, to‘g‘ri raqamli tizimlarni tanlash, raqamli ko‘nikmalarni oshirish, to‘g‘ri himoya va xavfsizlikni rivoj-

lantirish hamda ushbu yangi vositalarning imkoniyatlarini to‘liq moslashtirish va tushunish imkoniyatiga yetarli darajada ega emas. Kichik biznes subyektlarida zamonaviy va raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish hanuzgacha muammo bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me’yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalariga hamda taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilandi. Mavzuni o‘rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullar, korrelyatsion-regression va empirik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI (ASOSIY QISM)

Jahonda raqamli texnologiyalar kompaniyalarga, ayniqsa, kichik biznes subyektlarining yangi bozorlarga chiqish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etmoqda, bu ularga mintaqaviy va global raqamli ta’minot zanjirlarida ishtirok etishni yanada jadallashtirmoqda. Bu borada har bir raqamli texnologiya amalga oshirilgandan so‘ng, uning samaradorligini tahlil qilish va korxonaga qo‘shimcha foyda keltirishi yoki byudjetga zarar yetkazmasligi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish hamda kichik biznes subyektlari faoliyatida CRM (Customer Relationship Management), ERP (Enterprise Resource Planning), MES (Manufacturing Execution System), PLM (Product Life-cycle Management), MDM (Master Data Management), ERM (Enterprise Risk Management) kabi raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq muammolarga hamda ularni bartaraf etishga ilmiy tadqiqotlarda alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib “raqamli texnologiyalar” tizimini tubdan yangicha turlarini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada, O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturida: “... kichik va o‘rta biznes korxonalari o‘rtasida bevosita iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda yagona elektron bazani yaratish va uning qo‘shimcha modullarini ishlab chiqish bo‘yicha biznes jarayonlarni o‘rganish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish...” [3] kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqlli yechimlar”ni ishlab chiqishni rag‘batlantirish va biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Biznes-navigator” elektron portalini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ishlash mexanizmini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘p jihatdan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Uzoq vaqt davomida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi keskin o‘zgarishlarga olib keldi, iqtisodiyot va umuman jamiyat rivojlanishining traektoriyasini belgilab berdi. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli tenologiyalarni shakllantirish aksariyat mamlakatlar uchun ustuvor vazifalardan biridir. So‘nggi yillarda ta’sir ko‘lami va chuqurligi tufayli raqamli texnologiyalarning yangi avlodini yaratish natijasida biznes va ijtimoiy faoliyat modellarini o‘zgartirish to‘lqinida ko‘tarilish kuzatildi. Bunday texnologiyalarga sun’iy intellekt, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli tenologiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini 40 foizga oshirishi mumkin. Yaqin kelajakda yangi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish alohida korxonalar va umuman mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi, shuningdek raqamlashtirish uchun infratuzilma va huquqiy muhitni (raqamli huquq) shakllantiradi.

Shubhasiz, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni yaratish va joriy etish vektori yaqinda davlat va korporativ darajada milliy rivojlanishning asosiy yo‘nalishi maqomini oldi. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichi tubdan yangi texnologik va tashkiliy, boshqaruv tahdidlarini keltirib chiqaradi, nazariy asosni yaratishni, yangi asosiy tushunchalar ta’riflarining konseptual va kategorik texnologiyalari hamda operatsion tizimlarini shakllantirishni, shuningdek, qonunchilikning to‘liq me’yoriy-huquqiy bazasi va mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi.

“Raqamli iqtisodiyot va “raqamli pul” tushunchalari birinchi marta 25 yil oldin AQShning Massachusets texnologiya instituti professori Nikolas Negroponte tomonidan kiritilgan” [4]. Biroq uning konseptual dizayni uchun muhim to‘siq yaratishga hissa qo‘shadigan aniq ta’rif hali ham mavjud emas.

Jahon banki guruhi Prezidenti Jim Yong Kimning so‘zlariga ko‘ra, “insoniyat hozirda axborot-kommunikatsiya inqilobini boshdan kechirmoqda. Uning fikricha, mobil telefonga ega bo‘lgan eng kambag‘al uy xo‘jaliklari soni qulay yashash sharoitlari yoki ichimlik suvi bilan ta’minlanganlarga qaraganda ko‘proq” [5] deb keltiradi.

Chet ellik iqtisodchi olim P. Kirillovning qarashlaricha “raqamli iqtisodiyot fan va texnika taraqqiyotining oqibatlaridan biri sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda tarqatishni raqamli internet texnologiyalari muhitiga o‘tkazishni nazarda tutadi” [6].

V. A. Utkina, Y. V. Emshanovalarning fikricha “raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning yangi bosqichida asosiy xavf va tahdidlardan biri bu kompaniyalar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy platformalar va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning miqdori, sifati va xilma-xilligining sezilarli o‘sishidir” [7]. Ushbu o‘sish tranzaksiyalar soni va ma’lumotlar hajmining eksponent dinamikasi bilan birga keladi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarning yanada murakkab integratsiyasiga olib keladi, uning oqibatlarini insoniyat hali baholamagan. Ushbu jiddiy oqibatlar va o‘zgarishlar jamiyatdan har bir shaxsdan yangi vakolatlar, qobiliyat va ko‘nikmalarni, shuningdek, kundalik hayot fenomenida yangi texnologiyalardan foydalanishga moslashishni talab qiladi. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotidagi global tendensiyalarga javob beradigan ta’lim dasturlarini shakllantirish, shuningdek, yuqori darajadagi “raqamli savodxonlik”ni ta’minlaydigan individual ta’lim traektoriyalarini shaxsiylashtirish jarayonlari alohida ahamiyatga ega.

Xususan, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [8] gi PF–60-sonli farmonida “milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish” [9] vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish imkonini beradi. Kichik biznes subyektlarining jadal rivojlanishida faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etib borish ham muhim hisoblanadi. Vaholanki, jahon iqtisodiyotidagi raqobatlashuv jarayonlarining keskinlashuvi kichik biznes subyektlari faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi. Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va insonlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [10] qarorida “2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish” [11] vazifasi qo‘yilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturida: “Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma’lumotlar, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalarini qo‘llagan holda, an’anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin” [12] degan fikr bildirilgan.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot – kelajak. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Sanoat 4.0 inqilobiga moslashish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan, kichik biznes subyektlari faoliyatiga joriy etishni qanchalik qisqa fursatda hal etishimizga chambarchas bog‘liq. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali tashkil etish raqamli texnologiyalar sohasida yetarli kompetensiyalarga ega bo‘lgan yetuk kadrlarga borib taqaladi. Bu borada ham tizimli tadbirlar yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlash zarur.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishning tezroq kirib kelishini xohlasak, raqamlashtirish ta’sirida turmushimizda turli qulayliklar paydo bo‘lishini istasak, raqamlashtirish tatbiqida, albatta, tizimli yondashuv lozim. Kichik biznes subyektlari faoliyatiga o‘n yildan buyon elektron hukumat tizimini kiritishga intilib kelamiz. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirishga oid dasturlar xalqimiz, qolaversa, tadbirkorlarimiz xohish-istaklarini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Tabiiyki, ushbu dasturlarni yanada kengaytirish, takomillashtirish kerak. Biroq ayrim muammolar borki, ularning yechimini qisqa fursatda topish talab etiladi.

Birinchidan, raqamlashtirish bu “ma’lumotlar ombori”dir, ma’lumotlar juda katta hajmdan iborat. Ikkinchidan, bizda “ulkan ma’lumotlar” oqimini boshqarish, saqlash va qayta ishlash turli platformalarni kengaytirish muhim. Uchinchidan, esa mazkur dasturlar ijrosini ta’minlashda amalga oshirish mexanizmlari hamda moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, monitoring jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirilishi muhim, deb hisoblaymiz.

Raqamli texnologiyalar bir necha sabablarga ko‘ra kichik biznesni tiklashga yordam beradi. Birinchidan, mobil qurilmalarning joriy etilishi tufayli odamlar uchun raqamlashtirishdan foydalanish osonlashdi. “Raqamli texnologiyalarga o‘tish faqat kelgusi yillarda tezlashadi, chunki dunyoda mobil qurilmalardan foydalanuvchilar soni 2021-yilda 6,38 milliarddan 2026-yilda 7,52 milliardga ko‘payishi kutilmoqda” [13].

Ikkinchidan, odamlar xarid qilish usuli yillar davomida o‘zgardi. Muntazam do‘konlar har doim rol o‘ynaydi, ammo xaridlarning kelajagi tobora ko‘proq onlayn savdodan orqada qolmoqda.

Iyun oyida “Morgan Stanley global elektron tijorat bozori bugungi kunda $3.3 trln. dan $5.4 trln. ga 2026-yilda o‘sishini taxmin qildi, bu to‘rt yil ichida 60% dan” [14] oshadi.

Kichik biznes uchun raqamlashtirishning afzalliklari juda kattadir. Kuchli raqamli strategiyaga ega bo‘lgan korxonalar inqirozni yengish uchun yaxshiroq tayyorlangan va diversifikatsiya qilingan, chunki ularning onlayn kanallari do‘kon ichidagi xaridlarning yo‘qolishini yumshatgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zlarining raqamli kelajagiga sarmoya kiritgan korxonalar bir qator boshqa uzoq muddatli imtiyozlarga ega bo‘lishmoqda, jumladan, aloqalarni yaxshilash va jahon bozorlariga kirishni yaxshilash kabilardir.

Kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi [15] Qonunining 8-moddasiga asosan “kreditlar olishga, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda o‘zga mol-mulkini shartnoma shartlari asosida jalb etishga, shu jumladan binolarni, inshootlarni, uskunalarni va o‘zga mol- mulkni olishga va (yoki) tekin, ijaraga (lizingga) olishga hamda ularni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirish” [16] huquqlariga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli o‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” [17] gi PF–6079 sonli Farmonida “Kichik biznes va kam ta’minlangan aholiga huquqiy maslahat berish, ularning taklif va tashabbuslarini qabul qilishning yangi tizimini joriy etish, advokatlar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni tayyorlash imkoniyatini yaratish maqsadida, o‘z-o‘ziga huquqiy xizmat ko‘rsatish “Legal Tech” axborot tizimini joriy etish”. “Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha kafillik va kafolatlar, shuningdek, foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya berish to‘g‘risida elektron shartnomalar tuzish, real vaqt rejimida kredit buyurtmalarini ko‘rib chiqish va ularning ijrosi holatini kuzatish kabilarni nazarda tutuvchi “Tadbirkor” axborot tizimini joriy etish [18]” belgilab berilgan.

Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha xalq ta’limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-sonli Qaroriga ko‘ra “tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholash quyidagi yo‘nalishlardagi asosiy indekslari” ishlab chiqildi.

1-rasm: Tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholashning asosiy indekslari[1]

Yuqorida keltirilgan indekslarga, asosan, “hududlarda raqamli iqtisodiyot holatining reytingi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, mehnatga layoqatli aholi qatlamida ish bilan ta’minlanganlik darajasi va boshqa yo‘nalishlardagi indikatorlarni hisoblash asosida aniqlanadi. Reyting baholash indekslari, baholash tartibi hamda baholarni hisoblash uslublari tashkilotlarda raqamli transformatsiya va hududlarda raqamli iqtisodiyotni reyting baholash metodikalarida batafsil tavsiflanadi”.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi aniqlangan indikatorlarning miqdoriga qarab, 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanadi hamda “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi.

Indikatorlarni reyting baholash natijalariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi reyting balli bo‘yicha:

71 balldan 100 ballgacha baholangan tashkilot – “yashil”;

55 balldan 71 ballgacha baholangan tashkilot – “sariq”;

55 balldan past baholangan tashkilot – “qizil” deb topiladi.

1 Muallif ishlanmasi

1-jadval: Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasini reyting baholashni amalga oshirish yo‘nalishlari [22]

Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Hududlarda raqamli iqtisodiyot darajasi bo‘yicha statistik va tahliliy ma’lumotlarni NIS. UZ-axborot tizimiga kiritadi.	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar
2-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	NIS. UZ-axborot tizimiga kiritilgan ma’lumotlar asosida reyting baholashni amalga oshiradi va hududlarni reyting baholash yakunlari asosida reytingni shakllantiradi.	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar
3-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Reyting natijalari va boshqa tahliliy materiallarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish	Hisobot davri yakuni bo‘yicha keyingi oyning 30-sanasiga qadar

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qaroriga 1-ilova “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida raqamli transformatsiya hamda hududlarda raqamli iqtisodiyot holatini reyting baholash tartibi to‘g‘risida” gi Nizom

Reyting baholash natijalari bo‘yicha tegishli tashkilotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasiga ko‘ra Raqamli texnologiyalar vazirligining taklifiga asosan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi bayoni bilan:

- hisobot yilida “yashil” deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari keyingi hisobot davri uchun reyting baholash natijalari e’lon qilinguniga qadar har oyda lavozim maoshlarining 30 foizi miqdorida rag‘batlantiriladi;
- hisobot yilida ikki marta “qizil” deb topilgan tashkilotlar rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlariga qonunchilikda belgilangan tartibda jarima qo‘llaniladi yoki jarima qo‘llash haqida taklif kiritiladi. Reyting baholash natijalari bo‘yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi “yashil” deb topilgan tashkilotlarning ijobiy tajribasini boshqa tashkilotlar o‘rtasida ommalashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘riladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyov ta’kidlaganidek: “Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi” [22].

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyovning 2021-yilning 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [23] qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish uchun muhim qadam bo‘ldi. Mazkur qarorga muvofiq, “Sun’iy intellektni joriy qilishning muhim jihatlari – huquqiy rejim, institutsion asoslar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro hamda milliy standartlar, sun’iy intellekt joriy qilinadigan ustuvor soha va tarmoqlar, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari qamrab olingan” [24].

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston–2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha davlat organlari va kichik biznes subyektlarining uzviy hamkorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali mamlakatda “xavfsiz axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes subyektlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta’minlash borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Bizning fikrimizcha, kiberfazo va raqamli muhitni tartibga solish masalalari hali ham kam o‘rganilgan va munozarali bo‘lib qolmoqda. Ilmiy sohada alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, sanoat va hududlarning innovatsion o‘sishiga erishish uchun kompaniyalarning raqamli salohiyatini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional jihatlari ilmiy izlanishlarda e’tiborsiz qolmoqda, muammolar hal qilinmagan va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari baholanmagan, raqamli iqtisodiyotning roli va o‘rni, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning umumiy tizimi o‘z aksini topmagan.

2. Raqamli ekotizimlar tabiiy tizimlardan farqli o‘laroq sun’iydir va raqamli texnologiyalar tashqi muhitining noaniqligi va o‘zgaruvchanligi sharoitida ularning rivojlanishining o‘ziga xos “akselator” vazifasini bajaradi. Bu har qanday kichik biznes subyektlari faoliyatining hajmidan qat’iy nazar, boshqa narsalar qatori faoliyatga raqamli texnologiyalar zarurligiga olib keladigan tashqi omillar ta’siri ostida ishlaydi degan xulosani shakllantiradi. Raqamli biznesning butun ekotizimi biznes subyektlarining o‘ziga xos tizimi IT-texnologiyalarni rivojlantirish, ushbu texnologiyalar to‘g‘risida ma’lumotni kichik biznes subyektlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazish tartibini amalga oshirish samaradorligini oshiradi va korxonaning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.
3. Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat texnologik, moliyaviy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish, xodimlarning raqamlashtirishni joriy etishga tayyorgarlik darajasini baholash zarurligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlarni ishlab chiqish hamda joriy etishni boshqarish uchun tashkiliy madaniyatga kiritilgan normalarning izchil ro‘yxatini ishlab chiqishga qaratilgan masalalar hal qilinishi kerak.
4. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirishni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda kichik biznes subyektlari faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. https://datareportal. com/global-digital-overview#: Digital Around the World.
2. https://www. statista. com/statistics/268938/global-it-spending-by-segment/ Global IT spending forecast 2012–2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Н. Негропонтэ Being Digital (фундаментальная статья Николоса Негропонтэ по цифровой экономике за 1995 год, часть 2. https://habr. com/ru/company/philtech/blog/354418 /
5. Доклад Всемирного банка “Цифровые дивиденты”. http://www. inesnet. ru/2016/01/opublikovan-doklad-vsemirnogo-banka-cifrovye-dividendy/
6. Кириллов П. Цифровая платформа для интернета вещей: универсальный продукт для умных производств, городов, зданий // Бизнес Территория. 2018. – № 1. – с. 35–36.
7. Уткина В. А., Емшанова Е. В. Основные проблемы развития интернета и онлайн-торговли в России// Молодой ученый. – 2016. – № 11(115). – с. 1031-1033.
8. https://lex. uz/docs/5841063 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-y. PF–60-son
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. http://lex.uz
10. https://lex. uz/docs/4800657 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020-y. PQ–4699-son
11. https://lex. uz/docs/4800657 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020-y. PQ–4699-son
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni. http://lex.uz
13. https://lex. uz/docs/5030957 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 y PF–6079-son
14. https://www. morganstanley. com/
15. https://lex. uz/docs/2006789 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O‘RQ–328-son.
16. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni. Toshkent sh., 2012-yil 2-may, O‘RQ–328-son.
17. https://lex. uz/docs/5841063 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-y. PF–60-son.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 05 oktyabrdagi “Raqamli o‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida PF–6079 sonli Farmoni.
19. https://lex. uz/ru/docs/5458249 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2021-y. 373-son
20. Muallif ishlanmasi.
21. https://lex. uz/ru/docs/5458249 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.06.2021-y. 373-son
22. https://yuz. uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yol
23. https://lex. uz/docs/5297046 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021-y. PQ–4996-son
24. https://uzlidep. uz/news-of-party/11083

О ДОСТИЖЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ И ЗАДАЧ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Турсун Мухитович Ахмедов
и.ф.д., проф., зам директор Института макроэкономических и региональных исследований

Гавхар Рустамовна Хидирова
докторант, и.ф.ф.д., доцент, Бухарский государственный университета

Аннотация: В статье рассмотрены достижения Узбекистана по реализации цели и задач устойчивого развития за 2015-2022 годы. На базе системного анализа выявлены на Международном и национальном уровне положительные сдвиги, обоснованы сложившийся проблемы и определены дальнейшие шаги по достижению целевых параметров устойчивого развития страны.

Ключевые слова: национальные цели и задачи, устойчивые развитие, результаты, проблемы, дальнейшие шаги.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning 2015–2022-yillarga mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsad va vazifalarini amalga oshirishda erishgan yutuqlari ko‘rib chiqiladi. Tizimli tahlillar asosida xalqaro va milliy miqyosda ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi, mavjud muammolar asoslab berildi, mamlakat barqaror rivojlanishining maqsadli parametrlariga erishish bo‘yicha keyingi qadamlar belgilandi.

Kalit so‘zlar: milliy maqsad va vazifalar, barqaror rivojlanish, natijalar, muammolar, keyingi qadamlar.

Abstract: The article examines the achievements of Uzbekistan in implementing the goals and objectives of sustainable development for 2015-2022. Based on a systemic analysis, positive changes have been identified at the international and national levels, existing problems have been substantiated, and further steps have been identified to achieve the target parameters of the country's sustainable development.

Key words: national goals and objectives, sustainable development, results, problems, further steps.

ВВЕДЕНИЕ

Узбекистан в полном объёме выполняет обязательства, принятые вместе 192 странами мира по реализации программы ООН Преобразование нашего мира: “Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года”.

Для организации системной работы по последовательному осуществлению данной “Повестки дня” приняты комплекс мер по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития Узбекистана (решением Правительства создан специальный координационный совет, сбалансированы

цели и задачи устойчивого развития с разработанными и реализуемыми Стратегиями, Концепциями, Дорожными картами экономического, социального и экологического развития страны и регионов).

Резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 14 декабря 2022 года одобрена Инициатива Президента Республики Узбекистан “Об усилении роли парламентов в ускорении достижения цели устойчивого развития”.

В этой связи углублённый системный анализ достигнутых результатов, выявление имеющихся проблем и определённые дальнейших шагов по достижению национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана становятся достаточно актуальным и востребованным

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

основные фундаментальные работы по устойчивому развитию принадлежать Леонтьеву В, Дж. Стиглица, В. Хуберта, А. Эндерсенса, Х. Дейли, И. Квернира и другим Национальные и региональные аспекты устойчивого развития отражены в научных трудах И. Шумпетера, Н. Кондратьева, А. Г. Гранберга, В. Е Селеверстова, И. Ю. Блама, М. Портера и других зарубежных учёных. В Узбекистане отдельных аспектам устойчивого развития посвящены работы Ахмедова Т. М, Чепеля С. В, Назаровой Ф. Х, Махмудова Н. М, Беркинова Б. Б, Каримовой Д. М, Вахабова А. В и другие.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В процессе исследования использованы металогические рекомендации по подготовке национальных обзоров по устойчивому развитию ООН, методы сравнительных оценок и группировках, системный анализ, монографическое наблюдение

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Достигнутые результаты реализации национальных целей и задач Узбекистана в целом одобрены и признаны международным сообществом.

Основной принцип нового Узбекистана “Во имя чести и достоинства человека” созвучен с принципом ООН по устойчивому развитию “Никого не оставить позади”.

В международном рейтинге Целей устойчивого развития опубликованным ООН (SDR) в 2023 году Узбекистан занял среди 166 стран 69 место повысив свой рейтинг на 8 ступеней (в 2022 году 77 место).

Согласно отчету, SDR Index в Узбекистане отмечен положительный рост показателей устойчивого развития по следующим целям: сокращение бедности, продовольственная безопасность и питание, здоровье и благополучие гендерное равенство, качественное образование, чистая вода и санитария, индустриализация, инновация и инфраструктура, устойчивое развитие городов и населенных пунктов, борьба с изменением климата, мир, правосудие и эффективные институты.

Подготовленный в 2020 и 2023 годах первый и второй Добровольные национальные обзоры о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года были положительно оценены ООН.

Узбекистан по всем целям устойчивого развития достиг значительные результаты, которые были сбалансированы и взаимосвязаны с реализацией “Стратегий развития на 2017-2021 гг.

Цель 1. Узбекистан целенаправленно реализовал меры по существенному сокращению бедности. Следует отметить, то, что были сформулированы необходимые законодательно-правовые, институциональные и экономические механизмы по борьбе с бедностью. За 2015-2022 годы по национальному критерию уровень бедности снизился с 30,4% до 14,1%. Охват населения, получающих социальные пособия возрос за этот период с 0,8 % до 2,5%, а государственные расходы возросли в 7,0 раз.

Цель 2. Проделана значительная работа по обеспечению продовольственной безопасности и питанию. Узбекистан занял первое место в Топ-10 стран с наибольшим прогрессом в обеспечении продовольственной безопасности в 2019-2022 гг. согласно рейтинга Global Food Security Index. Развернута большая работа в сфере земельных отношений: 400 тыс. дехканам передано 100 тыс. га посевных площадей, что дало возможность для дополнительного выращивания 1,5 млн. тонн продовольственной продукции.

Цель 3. Реализованы меры по обеспечению здорового образа жизни и содействие благополучию для всех в любом возрасте. За 2015-2022 гг. коэффициент материнской смертности снизился с 18,9 до 13,9, а смертность детей в возрасте до 5 лет с 15,1 до 11,4 на 1000 живорожденных, младенческая смертность с 7,9 до 4,5 на 1000 живорожденных. В 2022 году уровень впервые выявленного туберкулеза составил 46,9 на 100 000 населения. По сравнению с 2015 годом этот показатель снизился на 11,6%.

Цель 4. Проведена масштабная работа по обеспечение всеохватного и справедливого качественного образования и поощрение возможности обучения на протяжении всей жизни. Наблюдается устой-

чивая тенденция повышения охвата детей от 3 до 6 лет системой дошкольного образования (с 20,8%. в 2015 году до 68,3 % в 2022 году). Доля школ с доступом к Интернету для учебных целей и обеспеченных компьютерами для учебных целей увеличилась до 99,7% в 2022 году (87,9% в 2017 г.). Показатель охвата молодых женщин высшим образованием за 2015-2022 годы улучшился в 5 раз. Выросло количество функционирующих ВУЗов с 69 ед. в 2015 г до 199 ед. в 2022 г. и соответственно охват молодежи (18-27 лет) высшим образованием с 8 до 30%.

Цель 5. Существенные сдвиги достигнуты по обеспечению гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин, и девочек. В 2022 году в Индексе женщин, бизнеса и права (The Women, Business and the Law Index) Всемирного банка Узбекистан был отнесен к 27 странам, осуществившим значимые реформы в области прав женщин и гендерного равенства. Особенно высокие показатели достигнуты по таким составляющим индекса, как мобильность женщин, предпринимательство и активы. Доля мест, занимаемых женщинами в Законодательной палате Олий Мажлиса возросло с 16,0% в 2015 г до 28,2% в 2022году, а доля женщин на руководящих должностях возросла соответственно с 27,7% до 28,2%.

Цель 6. Целенаправленно реализованы меры по сохранению и рациональному использованию водных ресурсов и развития санитарии. Доля населения, обеспеченного централизованным питьевым водоснабжением, за последние 7 лет возросла на 5,2 процентных пункта и 2022 году составила 69,7%. Показатель “степени внедрения комплексного управления водными ресурсами” за этот период возрос с 49 до 56 единиц.

Цель 7. Благодаря предпринимаемым мерам произошли позитивные изменения в обеспечении современными источниками энергии. Доля населения, имеющего доступ к электроэнергии составляет 100%, а доля населения, использующая чистые источники энергии повысилась с 94,5 в 2015 г до 97,3 в 2022 году.

Цель 8. Приняты меры по содействию устойчивому экономическому росту. Темпы роста реального ВВП на душу населения составили в 2017 году - 2,7%, а в 2022 году - 5,6%. При этом, ВВП на каждого занятого увеличился в 1,9 раза

Цель 9. Предпринятые шаги по созданию устойчивой инфраструктуры, содействие всеобъемлющей и устойчивой индустриализации и инновации. За 2015 – 2022 гг. вырос пассажирооборот с 120,1 до 146,5, в том числе автомобильного с 109,1 до 131,0 и воздушного 6,8 до 10,9 млрд. пасс км. Добавленная стоимость, создаваемая в обрабатывающей промышленности, в процентном отношении к ВВП на душу населения возросла с 14,1% в 2015 году до 20,5% в 2022 г. Доля населения, охваченного мобильными сетями по технологии 3G/4G только за последние три года увеличились с 70 до 95%.

Цель 10. Достигнуто сокращение социального неравенства во всех его формах внутри страны. За 2019-2021 годы темпы прироста доходов домохозяйств на душу населения среди наименее обеспеченных 40 процентов населения возросли с 16,9% до 22,4%.

Цель 11. Осуществлены конкретные меры по обеспечению экологической устойчивости и комплексного развития городов и населенных пунктов. Кардинально расширено строительство жилья, что привело к повышению уровня обеспеченности населения жильем с 15,7 м2/чел в 2015 году до 18,2 м2/чел в 2022 году. При этом построено более 300 тыс. квартир и индивидуальных жилых домов, что 10 раз больше, чем за предыдущие годы независимости.

Цель 12. Приняты меры по обеспечению перехода к рациональным моделям потребления и производства. Образование токсичных отходов производства 1-3 классов опасности на душу населения сократилось с 13,1 кг в 2019 г до 8,0 кг 2022 г.

Цель 13. Принятие конкретные меры по борьбе с изменением климата и его последствиями. Согласно международной базе EDGAR, в 2021 году углерод ёмкость ВВП Узбекистана составила 0,465 тонн CO2/1000$ ВВП по ППС (в постоянных ценах 2017 года), сократившись по сравнению с 2019 годом на 7,0%. На осушенном дне Аральского моря созданы лесные насаждения на площади более 1,5 млн. гектаров.

Цель 15. Сделаны конкретные шаги в направлении охраны и восстановление наземных экосистем, рациональному использованию лесов. Площадь лесов к общей площади суши за 7 лет возросла с 8,3% до 8,7%. Доля охраняемых территорий увеличилась в 2,0 раза.

Цель 16. Проделана большая работа по содействию построения миролюбивого и открытого общества. В рейтинге Всемирного банка показатели Узбекистана по Индексу качества госуправления (World Governance Indicators, WGI) в 2021 году улучшились по всем шести компонентам. По показателю “Эффективность правительства” Узбекистан занял 116-е место среди 208 стран, улучшив предыдущий результат на 22 позиции. В Индексе развития электронного правительства Организации Объединенных Наций Узбекистан в 2022 году поднялся до 69 места из 193 стран, в 2019 году занимал 81-е место, что отражает ускорение внедрения цифровых технологий.

Цель 17. Определенные положительные сдвиги достигнуты в глобальной интеграции и целенаправленном повышении объёма средств, направляемых на нужды устойчивого развития. Узбекистан открыл

свои двери для сотрудничества со всеми странами мира, в т. ч. со странами Центральной Азии. За 7 лет общий объём государственных доходов в отношении к ВВП возрос с 16,5 до 22,7%. Доля населения, пользующаяся интернетом с 2017 по 2022 год, выросла с 48,7% до 83,9%.

В целом Узбекистан создал мощную базу для своевременного и качественного достижения поставленных национальных целей и задач устойчивого развития до 2030 г.

Наряду с реальными положительными результатами в обеспечении достижения поставленных целевых параметров устойчивого развития, имеется ряд проблем к ним можно отнести:

- необходимость адаптации ЦУР с реализуемой стратегией “Узбекистан-2030”, прежде всего в рамках отдельных индикаторов;
- имеется отставание в формирование единой информационной базы, отсутствует данные порядка 51 индикатором из 190;
- официально не ведётся расчёты на финансирование в целом и в разрезе отдельных целей, в том числе из бюджета;
- следует удалить внимание на территориальной аспект устойчивого развития, который пока отсутствует;
- необходимо существенно активизировать участие населения и гражданского общества в обеспечение достижений ЦУР.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

С учётом достигнутых результатов и выделенных проблем определение дальнейшие шаги по достижению национальных целей и задач устойчивого развития:

- полная адаптация национальных целей и задач устойчивого развития с Стратегией развития Нового Узбекистана до 2030 года, где приорететными направлениями определены: создание достойных условий для реализации потенциала каждого человека; обеспечение благосостояния населения путём устойчивого экономического роста; сбережение водных ресурсов и охрана окружающей среды; обеспечение верховенства закона и организация государственного управления ориентированного на служение народу; последовательное продолжение политики, основанной на принципе “Безопасное и миролюбивое государство”;
- расширение участия институтов гражданского общества в организации мониторинга и оценки его результатов по достижению национальных целей и задач, учет поступающих предложений и рекомендации частных предпринимателей и жителей регионов страны с целью повышения эффективности принимаемых мер;
- повышение информированности общества и населения о проводимых работ по достижению национальных целей и задач, регулярное проведение специальных социологических обследований в городах, районах и махаллях о первоочередных мерах по удовлетворению потребностей и нужд населения исходя из реализуемых мер устойчивого развития;
- расширение возможности государственного бюджетирования мер по достижению ЦУР, в первую очередь в решении социально-экономических задач, таких как снижение бедности, социальное расслоение общества, адресная социальная зашита, повышение качества образовательных и медицинских услуг, гендерное равенство, упреждение социальных рисков и угроз, связанных с изменением климата, продовольственной, энергетической и экологической безопасностью;
- продолжение диалога государства с частным сектором, международными организациями, дальнейшее расширение международного сотрудничества со всеми странами мира, в том числе со странами Центральной Азии, реализация принятых ООН инициатив Узбекистана по региональному сотрудничеству, повышению роли парламентов, обеспечению прав молодёжи интегрированных с целями устойчивого развития.

Список использование литературы:

1. Указ. Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023г. О стратегии “Узбекистан-2030”.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21 февраля 2022 года “О дополнительных мерах по активизации реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития до 2030 года”
3. Узбекистан – 2023 добровольный национальный обзор и национальных целей, и задач устойчивого развития. Институт макро экономических и региональных исследований. Ташкент, 2020, 167 с.
4. ООН. Руководство по подготовке добровольных обзоров департамент по экономическим и социальным вопросам, 2019г,45 с.
5. Агентство по статистике. Мониторинг индикаторов национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана https://nsdg. stat. uz/ сайт.

ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Уринов Бобур Насиллоевич
Заведующий кафедрой Корпоративного управления
Ташкентский государственный экономический университет,
независимый исследователь

Аннотация: В этом исследовании рассматривается влияние корпоративного управления на “зеленую” экономику, уделяя особое внимание взаимосвязи между практикой управления и экологической устойчивостью внутри организаций. В нем исследуется роль состава совета директоров, прозрачности, взаимодействия с заинтересованными сторонами и долгосрочной перспективы в достижении положительных экологических результатов. В исследовании также рассматривается влияние нормативной поддержки и сотрудничества на устойчивую деловую практику. Анализируя существующую литературу и эмпирические данные, это исследование проливает свет на механизмы, с помощью которых корпоративное управление может формировать и поддерживать переход к более “зеленой” экономике.

Ключевые слова: корпоративное управление, зеленая экономика, экологическая устойчивость, состав совета директоров, прозрачность, вовлечение заинтересованных сторон, долгосрочная перспектива, регуляторная поддержка, сотрудничество.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot korporativ boshqaruvning yashil iqtisodiyotga ta'sirini o‘rganib, boshqaruv amaliyoti va tashkilotlardagi ekologik barqarorlik o‘rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi. U ijobiy ekologik natijalarga erishishda kengash tarkibi, shaffoflik, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va uzoq muddatli istiqbolning rolini o‘rganadi. Tadqiqot shuningdek, tartibga soluvchi yordam va hamkorlikning barqaror biznes amaliyotiga ta'sirini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlar va empirik dalillarni ko‘rib chiqish orqali ushbu tadqiqot korporativ boshqaruvning yashil iqtisodiyotga o‘tishni shakllantirishi va qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan mexanizmlarni yoritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ–4086-sonli Qarorining 12-bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda xalqaro tajribani o‘rgangan holda 2019-yil 1-mayga qadar ikkinchi va undan keyingi uy-joy fondi obyektlari, shuningdek, dala-hovlilari uchun jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning oshirilgan stavkalarini qo‘llash tartibi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish ko‘rsatib o‘tilgan edi [11].

Bizning fikrimizcha yuqoridagi jadvalga ko‘rsatilgan mamlakatlar ichida Belorussiyada shunday soliqqa tortish tizimi joriy etilib amaliyotda qo‘llanilib kelinmoqda.

Belorussiya tajribasining ayrim jihatlaridan foydalnishni taklif qilgan bo‘lardik.

Hozirgi kunda jismoniy shaxslar egaligidagi mol-mulk va yer soliqlarini hisobga olishda, belgilangan tartibda soliqlar hisoblanishida, imtiyozlar qo‘llashda va boshqa bir qator soliq elementlarini hisobga olishda takrorlanishlar va yer solig‘i hisoblashning murakkabligi mavjudligi soliq to‘lovchilar uchun qiyinchilik va muammolarni tug‘dirmoqda.

Jumladan:

- Bir obyekt uchun ikkita shaxsiy kartochka yuritiladi;
- Bir obyekt uchun ikkita hisob raqamga to‘lovlar amalga oshiriladi;
- Soliq to‘lovchilar bitta obyekt uchun ikkita hisob raqamga to‘lovlarni to‘lashlari lozim.

Soliq organlarining dasturiy mahsulotlari jismoniy shaxslarga mahalliy soliqlarni to‘lash bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lish huquqini beruvchi tashkilotlarning ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilinmagan. Masalan, sog‘ligi tufayli nogironlik toifasini berish vakolatiga ega tashkilotlar, fuqarolarning harbiy harakatlarda ishtirok etganligini tasdiqlovchi vakolatli organlarning ma’lumotlar bazasi, fuqaroning ijtimoiy holati(yolg‘iz ona, boquvchisini yo‘qotganlik va boshqalar)

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘i amaliyotiga to‘liq o‘tish, shuningdek, mulklarni soliqqa tortishda tabaqalashgan stavkalarni qo‘llash.
2. Dasturiy mahsulotda ishlash tezligi oshadi, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan 7 mln dan ortiq shaxsiy kartochka kamayadi, tegishli bo‘lgan mol-mulk yoki yer soliqlaridan mavjud qarzdorlik ortiqcha to‘lovlar hisobidan kamayadi.
3. Soliq organlarining dasturiy mahsulotlarini jismoniy shaxslarga mahalliy soliqlarni to‘lash bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lish huquqini beruvchi tashkilotlarning ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilish. Masalan, sog‘ligi tufayli nogironlik toifasini berish vakolatiga ega tashkilotlar, fuqarolarning harbiy harakatlarda ishtirok etganligini tasdiqlovchi vakolatli organlar, fuqaroning ijtimoiy holati (yolg‘iz ona, boquvchisini yo‘qotganlik va boshqalar)ni tasdiqlovchi tashkilotlar.

Buning natijasida soliqni hisoblab chiqarish mexanizmi soddalashadi, adolatlilik, shaffoflik prinsipi ta'minlanadi. Soliqni hisobini yuritish, to'lash jarayoni soddalashib unga ketadigan xarajatlari kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF–4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF–60-sonli Farmoni.
3. Кенэ, Ф. Физиократы. Избранные экономические произведения/ Ф. Кенэ, А. Р. Ж. Тюрго, П. С. Дюпон де Немур. [тарж. франц., англ., нем.] – М.: Эксмо, 2008. – С. 1200.
4. Дрожжина И. А. Формировани систем налогообложени объектов недвижимости на основе дифференцированног подхода. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. – О., 2005. – С. 12.
5. Михина Е. В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. – М., 2005. – С. 6.
6. Логинова Т. А. Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диис. автореферати. – М., 2018. – С. 7.
7. Niyazmetov I. M. Coliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta'siri tahlili. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. – T., 2008. – C. 99.
8. Boymurotov, S. R. mahalliy byudjetlar daromadlarini barqaror-lashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari. RhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan disser-tatsiya avtoreferati. – T., 2021. – 57-b.
9. Журнал "Economics" БАТАШЕВ Р. В. Налог на имущество физи-ческих лиц: переход на кадастровую оценку и иные проблемы налогообложе-ния. №12–4(39) 2019. – С. 27–31.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makro-iqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ–4086-sonli Qarori.

TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich
DSc., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v. b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada transport tizimini samaradorligini belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishlar, transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda transport turini tanlashda ta’sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi keltirilgan, yuklarni yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan, transport tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, temir yo‘l transporti, transport-logistika, tranzit tashuvlar, yuklarni yetkazib berish, vazifalar iyerarxiyasi, transport kompleksi, transport infratuzilmasi.

Abstract: This article describes the main directions that determine the efficiency of the transport system, the relationship between the concepts of transport complex, transport system and transport infrastructure and the main factors influencing the choice of mode of transport. suggestions for improvement are given.

Key words: transport system, railway transport, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, transport infrastructure.

Аннотация: В статье рассмотрены основные направления, определяющие эффективность транспортной системы, взаимозависимость понятий транспортного комплекса, транспортной системы и транспортной инфраструктуры, а также основные факторы, влияющие на выбор вида транспорта, оценка представлены различные виды транспорта, выделены особенности оптимизации затрат на доставку грузов, обозначены транспортные задачи по повышению эффективности системы.

Ключевые слова: транспортная система, железнодорожный транспорт, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, транспортная инфраструктура.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv hamda integratsiya jarayonlarida transport kompleksining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSh dollari (6,9%)ni tashkil etib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo‘lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo‘lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etmoqda [1]. Mazkur sohalarni rivojlantirish jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Transport tizimida yetkazib berishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish moddiy zaxiralar hajmini 30% dan 60% gacha tejash, shuningdek, transport xizmatlaridan foydalanuvchi korxonalarining yetkazib berish xarajatlarini taxminan 30–35 foizga kamaytirilishiga erishish imkonini beradi.

Jahonda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, transport tizimini samarali rivojlanishini ta’minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda transport tarmog‘i rivojlanishining ijobiy ta’sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta’sirlarning yo‘nalishi va ko‘lami bo‘yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, transport tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Milliy transport logistika kompaniyalari o‘rtasida raqobat darajasini oshirish” [2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish

uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur” [3] deb ta’kidladilar. Bu o‘z navbatida mamlakat transport-tranzit salohiyatidan va zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan samarali foydalanishni hamda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablsning fikriga ko‘ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo‘jaligi tarmoqlari yig‘indisi tushuniladi [4].

D. Bauersoksning fikricha, an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o‘z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G‘. Samadov, A. Zoxidov, A. Gulamov va M. Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo‘lovchilarni o‘z manziliga yetkazish jarayonida o‘zaro aloqasi bo‘lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya’ni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushuniladi” [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transport tizimini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug‘ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy “qon aylanish” vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko‘lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur’atlarda bo‘lishi keng ma’noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog‘liq.

Shuni alohida ta’kidlsh lozim, transport-tranzit hamda transport-logistika salohiyatini oshirish geografik nuqtayi nazardan optimal joylashmagan, shu bilan birga to‘g‘ridan to‘g‘ri dengiz portlariga hatto qo‘shni davlatlar orqali chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan davlatlar uchun tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda mazkur sohalarning samaradorligini oshirish yuzasidan xalqaro amaliyot va nazariyada turlicha yondashuvlarning mavjudligi dastlab ularni to‘g‘ri talqin qilish hamda nazariy asoslarini aniqroq yoritib berish lozimligini belgilaydi. Shu o‘rinda nazariyaning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtab o‘tish maqsadga muvofiq, nazariya qaysidir bilimlar sohasiga taaluqli bo‘lgan asosiy g‘oyalar majmui hisoblanib, jamiyat va tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlarning yuz berishi hamda shakllanishida qandaydir bog‘liqlik va qonuniylikning mavjudligi haqida tasavvur beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat transport tizimi haqida fikr yuritganda, dastlab “transport kompleksi”, “transport tizimi”, “transport infratuzilmasi” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda “tranzit” va “transport-logistika tizimi” kabi tushunchalarning mazmun mohiyatlarining o‘zaro farqlarini aniqlab olishni taqozo etadi.

Xorij olimlarining tadqiqotlarida “transport kompleksi” atamasiga turlicha ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ularning yondashuvlarida umumiy o‘xshash tomonlari uchraydi. Masalan, amerikalik mutaxassis Stiven Frederik Starr transport kompleksi kategoriyasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Transport kompleksi – yo‘lovchilar va yuklarni tashishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yig‘indisi” [7].

Rossiyalik olim N. P. Tereshina o‘zining “Transport iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanmasida “transport kompleksi bu o‘zaro bog‘liq transport turlarining hududiy uyg‘unligi bo‘lib, ular bir-biri bilan o‘zaro hamkorlikda ijtimoiy xo‘jalik va aholining yuklar va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondiradigan sektorlar majmui” [8] degan ta’rif keltirilgan.

Mahalliy va xorijlik olimlarning yondashuvlariga asoslanib, fikrimizcha, mamlakat transport kompleksi – hamkorlikda harakat qiladigan, bir-birini to‘ldirib keladigan, har biridan samarali foydalanishni ta’minlagan holda bir-biriga bog‘liq tarzda taraqqiy etadigan turli transport turlari majmui tushuniladi.

Transport kompleksi obyektlari qatoriga transport, transport sanoati (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashish jarayonining moddiy-texnik ta’minoti), transport uchun kadrlarni tayyorlash muassasalari va tashkilotlari, loyiha hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish bo‘yicha muassasalar, ta’mirlash korxonalari kiradi.

Transport kompleksi tarkibiga kiruvchi transport tizimi – mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, bir biriga samarali ta'sir ko'rsatadigan va har xil yuk ortish-tushirish, qurilish ishlarining bajarilishini, shuningdek, transport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuk va yo'lovchilar harakatini ta'minlaydigan transport turlari hamda vositalari to'plami tushniladi. Transport tizimi minimal xarajatlar evaziga transportga bo'lgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish maqsadida transportning barcha turlarini muvofiqlashtirish, uning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Yuqorida tizimlashtirilgan ta'riflardan aytish mumkin, transport tizimining tarkibiy qismi qatnov yo'llari, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yo'lovch vokzallari, chipta sotish markazlari, tashishni tashkil etish kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalar va boshqa elementlardan tashkil topadi.

Yuqoridagi yondashuvlarga asoslanib, "transport kompleksi" "transport tizimi" tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha "transport tizimi" tushunchasi ba'zan "transport infratuzilmasi" kabi anglanadi, biroq ko'pincha ana shu "transport infratuzilmasi"ni ham o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, mazkur atamalarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha izohlanadi (1-rasm.)



1-rasm: Transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va mudofaaga qodirligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda jahon bozoriga chiqish uchun rivojlanayotgan davlatlar samarali yagona transport tizimiga ega bo'lishini talab etadi. Iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va siyosiy omillarni hisobga olgan holda yagona transport tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarni ta'minlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm: Yagona transport tizimi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakat transport infratuzilmasining asosiy obyektlari qatoriga avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, suv yo‘llari, metropoliten, aeroportlar, ko‘priklar, tonnellar, estakadalar, kontakt liniyalari, vokzallar va stansiyalar, aloqa, navigatsiya va transport vositalari harakatini boshqarish tizim obyektlari, boshqa shu kabi transport majmui faoliyatini ta’minlab turadigan binolar, inshootlar, qurilmalar va uskunalar kiradi.

Transport infratuzilmasidan farqli ravishda, transport tizimi umuman mamlakat iqtisodiyoti faoliyati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan. Transport tizimi – qatnov yo‘llari tarmog‘ining (ya’ni transport infratuzilmasi) o‘zigina emas, balki uning texnik va boshqaruv qismi hamdir. Biroq mamlakat yagona transport majmuasini yaratishda transport infratuzilmasini rivojlantirish asosiy o‘rin tutadi. Transport tarmog‘ini rivojlantirishda quyida keltirilgan transport tizimi va infratuzilmasini o‘z ichiga oluvchi transport kompleksi tuzilmasini asos sifatida olish mumkin (3-rasm).



3-rasm: Transport kompleksi tuzilmasi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Transport faoliyatini tashkil etish uchun dastlab o‘z tarkibiga temir yo‘l, havo va avtomobil transportlarini olgan yagona transport tizimlarining tavsiflarini bilib olish maqsadga muvofiq hioblanadi. Transport operatsiyalarini amalga oshirayotgan korxonaning asosiy vazifalariga bog‘liq holda yuklarni yetkazib berishda maqbul transport turlari tanlab olinadi. Bunda transport turlarining xarajatlari va boshqarish ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda ulardan ratsional foydalanishni belgilab beradigan texnik-iqtisodiy xususiyatlari, ularning imkoniyatlari va kamchilik jihatlari inobatga olinadi. Yuk tashish turini tanlashda yuk jo‘natuvchi ko‘plab mezonlarga tayangan holda ish ko‘rishi lozim bo‘ladi. Ushbu mezonlar besh ballik shkala bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda “1” – eng yuqori ball, “5” – eng quyi ball (1-jadval).

1-jadval: Transport turini tanlashda ta’sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi (5 ballik shkala bo‘yicha)

Transport turlari	Tezligi (yetkazib berish vaqti)	Ishonchliligi (grafikka rioya qilishi)	Yuklarni tashish imkoniyati	Xizmat ko‘rsatiladigan geografik nuqtalar soni	Bir tona/km qiymati (narxi)
Temir yo‘l	3	4	2	2	3
Suv	4	5	1	4	1
Avtomobil	2	2	3	1	4
Quvur	5	1	5	5	2
Havo	1	3	4	3	5

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuk tashish yo‘nalishini tanlash – bu ekspeditor ishining eng muhim va mas’ul bosqichi hisoblanadi. Qulay yo‘nalish va kerakli transport turini to‘g‘ri tanlash yuk tashish narxi, ishonchliligi va muddatiga nisbatan ijobiy natija beradi. Transport turlari quyidagi asosiy xususiyatlardan kelib chiqib tanlab olinadi: yuk ko‘tarish imkoniyati, transport turidan foydalanish imkoniyati, tashish tannarxi va transport tavsiflari.

Avtomobil transporti:

- Afzalliklari: yuqori darajadagi harakatchanligi, nisbatan arzonligi, muntazamliligi;
- Kamchiliklari: yuqori tannarxi, zudlik bilan tushirib olish zarurligi, yukning o‘g‘irlanish ehtimoli va kam yuk ko‘tarish qobiliyati.

Temir yo‘l transporti:

- Afzalliklari: uzoq masofaga qatnashi, yuqori hajmdagi yuk sig‘imi, tashish tannarxining qimmat emasligi;
- Kamchiliklari: foydalanish (erishish) qiyinligi, operativligi, tashuvchilar sonining kamligi.

Havo transporti:

- Afzalliklari: o‘ta yuqori tezlikka egaligi, uzoq masofaga uchishi, yuklarning butligi;
- Kamchiliklari: qimmatligi, yetkazib berishning ob-havoga bog‘liqligi.

Quvur transporti:

- Afzalliklari: tannarxi pastligi, yuqori o‘tkazish imkoniyati, muntazam qatnashi;
- Kamchiliklari: yuk xillari (nomenklaturasi) kamligi (suyuqlik, gaz), foydalanish (erishish) qiyinligi.

Demak, qilingan tanlovning to‘g‘riligi har xil transport turlari bilan tashishga bog‘liq xarajatlar tahlili asosidagi texnik iqtisodiy hisobotlar bilan tasdiqlanishi lozim. Shuningdek, yuklarni aralash tashuvda yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirish masalasini hal qilishda ushbu tanlov mezoni ma’lum darajada xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval: Yuklarni yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Tanlov mezoni	Transporti turi				
	Temir yo‘l	Suv	Avtomobil	Quvur	Havo
Tezligi	o‘rtacha	eng past	yuqori	past	eng katta
Xarajatlar darajasi	o‘rtacha	eng past	katta	past	eng baland
Tovarning ehtimoliy assortimenti	eng katta	ancha katta	o‘rtacha	juda cheklangan	qisman cheklangan
Xizmat ko‘rsatiladigan bozorlar soni	katta	cheklangan	cheklanmagan	juda cheklangan	o‘rtachadan baland
Yetkazib berish ishonchliligi	o‘rtacha	past	yaxshi	baland	o‘rtacha

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida transport alohida yagona tizim bo‘lib, uning faoliyatini samarali rivojlantirishga oid masalalarni tadqiq etar ekanmiz, bizda tarmoqda mavjud muammolar to‘g‘risida ierarxik tasavvur shakllanadi. Ma’lumki, ierarxiya qonuniga muvofiq tizimdagi har bir bosqich o‘zidan pastda va yuqorida turuvchilar bilan boshqaruvchi va boshqariluvchi subyekt vazifasini bajaradi. Transport tizimi samaradorligini ta’minlash uchun ierarxik yondashuv eng maqbul variant ekanligini e’tirof etgan holda, bu borada ilmiy izlanishlar olib borish, bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda.

Ierarxik tizimda har bir bosqichda muayyan vazifa bajarilishi nuqtayi nazaridan, unda funksional va tarkibiy differensiatsiya bo‘lishi tabiiydir. Tizimda hajman katta miqdordagi ma’lumotlar qabul qilinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishi nuqtayi nazaridan uning ierarxik tuzilishga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunda quyi bosqichlarga foydalanish uchun umumlashgan axborot taqdim etiladi. Transport tizimidagi mavjud muammolar mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu muammolarni alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- iqtisodiyot sohalari kengayib, aholi soni tobora o‘sib borayotganiga mos tarzda oshib borayotgan ehtiyojlarni to‘laroq qondirish;
- iste’molchilar ehtiyojini qondirish maqsadida oliy sifatli xizmatlar ko‘rsatish;
- mahsulot tannarxidagi tashish xarajatlarini minimallashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- transport tizimi faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni ierarxik ketma-ketlikda tasvirlab quyidagi sxema ko‘rinishiga keltirish mumkin (4-rasmga qarang).



4-rasm: Transport tizimini rivojlantirish vazifalari ierarxiyasi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha mazkur tadqiqotda muallif tomonidan quyidagi yo'nalishlar taklif etildi:

- ilmiy-texnik imkoniyatlar va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;
- zamonaviy texnologiyalar asosida transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish;
- transport tizimi tomonidan ekologiya va iqtisodiyotga yetkazilayotgan zararlarni kamaytirish yoki umuman bartaraf etishga erishish;
- zamonaviy infratuzilma uchun sarflanadigan xarajatlarning to'xtovsiz ortib borishi va ushbu talabni qondirish maqsadida yangi tushum manbalarini izlash masalasi;
- transport bozorida ishtirokchilar o'rtasida hosil bo'luvchi o'zaro ta'sir iqtisodiy va texnologik samaradorlikning tushib ketishini keltirib chiqaradi, oqibatda tarmoq bo'ylab temir yo'l transportida yuklarni tashish xarajatlari ortadi;
- iqtisodiyot sohasidagi inqirozlarga duch kelish va infratuzilma xizmatlaridan foydalanish uchun to'lov hamda tariflarning belgilangan daraja va miqdorining kamayishi, davlatning qo'shimcha subsidiyalar amalga oshirilishini taqozo etishi mumkin;
- tartibga soluvchi yo'nalish va obyektlarning ko'payishi bilan, shu jumladan, infratuzilma xizmatlaridan qonuniy foydalanish bo'yicha, ham davlat boshqaruvi va tartib tizimini takomillashtirish;
- iqtisodiyot va tashuvlar xavfsizligini ta'minlovchi tizim o'rtasida texnologik va foydalanish bo'yicha yuk tashuvchi kompaniyalar hamda infratuzilmadagi javobgarlik va vazifalarni o'zaro taqsimlash.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida transport tarmog'ining ahamiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning fikriga ko'ra, transport sohasidagi ba'zi ko'rsatkichlar mamlakat YaIM o'sish sur'atlariga bevosita bog'liq. Jumladan, rossiyalik olim G. A. Golts [9] transport tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganib, uning taraqqiyoti, iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun ham rivojlanishning muhim omili ekanini dalillar bilan isbotlagan.

Transport tarmog'ini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganishda bu boradagi uzoq muddatli barqarorlik ko'rsatkichlarini aniqlab olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida ushbu soha doirasidagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Ta'kidlayotganimiz – bunday tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad transport sohasining barqaror va o'zgarmas ko'rsatkichlarini aniqlab beradi.

$$\frac{Q}{D} = 5.8V^{0.7866}$$

Bunda: *Q* – uzoq masofalarga tashilgan yuk hajmi, t.; *D* – YaIMning mutlaq miqdori, valyuta birligida; *V* – yukni uzoq masofaga tashish tezligi, km/soat.

Shubhasiz, bu ifodada YaIM bilan yuk tashish hajmi va tashish tezligi o'rtasidagi bog'liqlik "to'laqonli funksional ko'rinishda emas". Buni yana boshqa ma'lumotlarga asoslangan holda tadqiqotni davom ettirish lozim. Olim G. A. Golts transport tarmog'i rivojlanishining mamlakat YaIM o'sishiga ko'rsatadigan bevosita ta'siri bo'yicha aniq xulosalar bergan. Masalan, mamlakat transport tizimiga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lgan avtomobil yo'llaridagi tashish sur'ati ushbu iqtisodiyot sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinadiki, avtomobil yo'llari sifati hamda infratuzilmaning zamonaviy shaklda ta'minlanishi yuklarni tashish tezligining ortishiga xizmat qiladi va bu o'z navbatida mamlakatning YaIM o'sishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, iqtisodiyotda yuk va boshqa moddiy oqimlar zaxiralarini samarali tashkil etish transport tizimi samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bevosita bog‘liq. Bu yerda, albatta, mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish lozim deb hisoblaymiz. Transport turlari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda transport tizimini samarali rivojlantirish bo‘yicha vazifalari ko‘rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojlanish indekslari bo‘yicha mamlakat transport tarmog‘i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Transport tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha berilgan uslubiyotlar va undan kelib chiquvchi xulosa hamda tavsiyalar transport tizimini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda tizimni moderinizatsiya qilish, biznes hamkorlari bilan muvofiqlashuv va integratsiyalashuv jarayoni bo‘yicha ishlarni samarali olib borish, mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish va logistik xizmatlar provayderlarining raqobatbardoshligini oshirish, shu bilan birgalikda transport tizimi samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, transport tizimi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- tariflarni belgilash prinsiplarini o‘zgartirish va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o‘tish, tuzatish koeffitsiyentlari sonini kamaytirish, temir yo‘l orqali tashishni har tomondan mablag‘ bilan ta’minlash turlarini kamaytirish;
- o‘z lokomotiv va vagonlariga ega bo‘lgan temir yo‘l transportida yuk tashishga mo‘ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo‘lda yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;
- transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchliligini oshirish, 2030-yilgacha elektr energiyasi bilan ta’minlangan temir yo‘llar ulushini 55 foizga yetkazish. Buning uchun har yili o‘rtacha 168 km temir yo‘lni elektr energiya bilan ta’minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak. 2030-yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoya sarflash zarur:
- konteynerlarda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to‘lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25–30 foizga oshirish zarur;
- transport tizimi samaradorligini oshirish uchun mintaqalarda multimodal transport-logistika markazlari tarmog‘ini kengaytirish;
- yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashishlarning normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga mos holda uyg‘unlashtirish;
- multimodal tashishlar samarali bo‘lishini ta’minlash uchun integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish;
- bojxona logistika markazlarining milliy tarmog‘ini shakllantirish, ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3PL darajada bo‘lishini ta’minlash lozim.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida transport tizimi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta’minlash, transport xizmat ko‘rsatishning jadallashuvi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The World Bank: World Development Indicators. http: //data. worldbank. org/indicator
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli farmoni. // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil.
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost–Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. Journal of Transport Economics and Policy, 41:173. – 188 p.
5. Коврижных И. В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И. В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС, 2016. – 86 с.
6. Fayzullayev J. S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249–0892 Vol9 Issue–2, Dec–2019. http://www. ajtmr. com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
7. Zohidov A. A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018.
8. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D. C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007. – 514 p.
9. Терешина Н. П., Потапова Е. В., Терёшина Н. В., Епишкин И. А. Экономика транспорта. Учебное пособие. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.
10. Гольц Г. А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14–15 июня 2004 года.

11. Fayzullayev J. S. The economic-mathematical model of the organization activity of the modern transport-logistics system. // Бюллетень науки и практики – Bulletin of Science and Pracrice научный журнал (scientific journal). 2018. №5 (4). С. 345-352. DOI:10. 5281/zenodo. 1147072. Impact Factor (5) GIF – 0. 454; (21) Info Base Index – 1. 4; (17) OAJI – 0. 350, (43) (UIF) – 0. 1502; (4) JCR – 1. 021. http://oaji. net/articles/2017/3996-1526585902. pdf
12. Fayzullayev J. S. Evaluation of efficiency of transport – logistics system. // XLVII International correspondence scientific and practical conference “International scientific review of the problems and prospects of modern science and education” (Boston. Usa. July 24–25, 2018). – p. 62–65. https://scientific-conference. com/images/PDF/2018/49/International-scientific-review–7–49-ISBN. pdf
13. Fayzullayev J. S., Increasing the efficiency management of 3PL and 4PL logistics companies in the railway system. // “Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития” Международная научно-практическая конференция. – Т., 2018, 28-29 мая. – С. 37–42. http://tsue. uz/wp-content/uploads/2019/05/4. -Fayzullayev_J_S_increasing-the-efficiency-management-of-3pl-and-4pl-logistics-companies-in-the-railway-system. pdf
14. Fayzullayev, J. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(3). https://tsue. scienceweb. uz/index. php/archive/article/view/3892
15. Fayzullayev, J. S. Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec –2019 62–65. https://saarj. com/wp-content/uploads/Sajmmr-July–2020-Full-Journal. pdf
16. Fayzullayev, J. S. Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Special Issue–2, Sep –2019. http://ajtmr.com/papers/SpIIss2/SpIIss2_8.pdf
17. Fayzullayev, J. S. Transport-logistika tizimi: muammo va yechimlar // Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U. K. December 28th, 2020. https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/424
18. Fayzullayev. J. S. Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network, Archive of Conferences: Vol. 13. No. 1 (2021): GTIMSC–2021, https://www.conferencepublication.com/index. php/aoc/article/view/573
19. Fayzullayev, J. S. (2021) “Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system,” Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1. https://uzjournals. edu. uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BYUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AYRIM FUNDAMENTAL MASALALARI

Xayriddinov Sh. B.
Qarshi Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim (oliy ta’lim) resurslardan foydalanishni o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan xarajatlar katta qismining byudjet mablag‘lari hisobidan ta’minlanayotganligi bu mablag‘larning sarflanishiga nisbatan alohida munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Oliy ta’limni moliyalashtirish ikki ko‘rinishda, ya’ni davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan va ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishidan tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: byudjet mablag‘lari, ta’lim tizimini moliyalashtirishga, davlat byudjeti, byudjet xarajatlari.

Abstract: This article discusses specific aspects of the use of educational (higher) resources. The fact that most of the expenses necessary for the implementation of the activities of higher education institutions are covered by budgetary funds requires the formation of special relations regarding the expenditure of these funds. Financing of higher education is carried out in two forms: at the expense of the state budget and at the expense of funds received from the provision of educational services.

Key words: budget funds, financing of the education system, state budget, budget expenditures.

Аннотация: В данной статье рассматриваются конкретные аспекты использования образовательных (высших) ресурсов. Тот факт, что большая часть расходов, необходимых для осуществления деятельности высших учебных заведений, покрывается за счет бюджетных средств, требует формирования особых отношений по поводу расходования этих средств. Финансирование высшего образования осуществляется в двух формах: за счет средств государственного бюджета и за счет средств, полученных от оказания образовательных услуг.

Ключевые слова: бюджетные средства, финансирование системы образования, государственный бюджет, расходы бюджета.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining “Yangi O‘zbekiston” deb nomlangan o‘ziga xos davrida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, jumladan, mavjud mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanish masalasiga ham jiddiy e’tibor berilmoqda. Zero, zamonaviy bozor iqtisodining o‘zi ham shuni talab qiladi. Mavjud mablag‘lardan (bu yerda uning byudjet mablag‘lari yoki byudjetdan tashqari mablag‘lar ekanligi prinsipial ahamiyatga ega emas) shunday foydalanmasdan turib, ko‘zlangan natija yoki maqsadlarga erishishning iloji yo‘q. Bu ta’kidlar barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga ham) baravar tegishli. Bir paytning o‘zida byudjet muassasalari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan qismi uchun esa mablag‘larni oqilona va samarali sarflashning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir.

Mamlakatimizda tarkib topgan amaliyot shundan iboratki, ta’lim tizimi va, shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan oliy ta’limning ham ma’lum bir qismi ham byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Aslida, faqat O‘zbekistondagina shunday tartib tarkib topmagan. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, ta’lim (jumladan, oliy ta’lim) tizimini moliyalashtirishga ko‘plab mamlakatlar alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, oxirgi yillarda dunyoda davlat xarajatlarining o‘rtacha 12,0–14,0% ta’limga yo‘naltirilmoqda. Bir paytning o‘zida, dunyo mamlakatlarida oliy ta’limni moliyalashtirish ikki ko‘rinishda, ya’ni davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan va ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishidan tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilmoqda. Xususan, Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida ta’lim (jumladan, oliy ta’lim) muassasalarini moliyalashtirish davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga bo‘lmoqda. Dunyo amaliyotiga ko‘ra, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mam-

lakatlarda oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘lari ustuvorlik kasb etmoqda. Masalan, hozirgi paytda Avstriya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda byudjet mablag‘lari oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning manbalari tarkibida 90,0%dan ko‘proqni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichning darajasi Buyuk Britaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Niderlandiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda esa qariyb 80,0% ga teng bo‘lib, bularning barchasi oliy ta’lim sohasida yuqoridagi davlatlarning hammasida faol siyosat yurgizayotganligidan darakdir.

Ahvolning bunday ekanligi, ya’ni oliy ta’lim muassasalari faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan xarajatlar katta qismining byudjet mablag‘lari hisobidan ta’minlanayotganligi bu mablag‘larning sarflanishiga nisbatan alohida munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu, ayniqsa, ana shu oliy ta’lim muassasalari doirasida sarflanayotgan katta miqdordagi byudjet mablag‘larining oqilona va samarali sarflanishiga tegishlidir. O‘z navbatida, holatning bunday ekanligi shu yo‘nalishda qator ilmiy izlanishlarning olib borilishini ham talab qiladi.

Jahon miqyosida hozirgi paytga qadar oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘larining oqilona va samarali sarflanishi ta’minlash hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hamon olib borilmoqda ham. Ularda, eng avvalo, jahonda oliy ta’lim muassassalari daromadlarini shakllantirishning turli shakllari, xususan, davlat yoki davlat byudjeti mablag‘lari, ta’lim xizmatlarini tijoratlashtirishdan tushadigan mablag‘lar, homiylik mablag‘lari, bitiruvchilar jamg‘armasi tashkil etilishi shaklida tushadigan mablag‘lar, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirishdan tushadigan mablag‘lar va ularning hajmini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, ana shunday usul va shakllarda tarkib toptirilgan oliy ta’lim muassasalari daromadlarini qanday sarflanayotganligi ham bu tadqiqotlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Lekin hozirgi globallashuv va, ayniqsa, jahon iqtisodiyotining innovatsion va raqamli rivojlanishi sharoitida oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, byudjet mablag‘larining oqilona va samarali hamda bozor iqtisodi prinsiplariga qat’iy rioya etgan holda sarflanishini ta’minlash masalalari yetarlicha ilmiy tadqiq etilmaganligi ma’lum bo‘lmoqda. Shuningdek, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida byudjet mablag‘larini natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish usuli orqali keng joriy etish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarga xarj qilish yo‘nalishlarida takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar ham yetarlicha amalga oshirilmaganligi sezilmoqda.

Buning ustiga, “Yangi O‘zbekiston” davrida yurtimizda ta’limning barcha bosqichlarida, jumladan, oliy ta’limda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta’lim dargohlarimiz soni 2,5 baravarga oshib, 200 taga yetib qoldi. Uning qamrov darajasi esa 9,0% dan 38,0% yetib bormoqda[1]. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha qator vazifalar belgilanmoqda, jumladan, “oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini va istiqbolda oliy ta’lim muassasalarining reytingi hamda o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”[2] kabi vazifalar belgilandi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, “Yangi O‘zbekiston” davrining hozirga qadar davom etgan yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ–60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ–61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2017-yil 21-avgustdagi PQ–3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”, 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarning qabul qilinganligi hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish zaruriyati ham, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassalalarida byudjet mablag‘larining oqilona, samarali, bozor iqtisodi prinsiplari va mexanizmlari asosida sarflanishi nuqtayi nazaridan maxsus ilmiy tadqiqot olib borishni va ularni davom ettirishni taqozo etadi.

Buning uchun, eng avvalo, bizning nazarimizda, ushbu tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida masalaning:

1 Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20-dekabr 2022-yil.

2 “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847 sonli Farmoni.

a) oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini tadqiq etish va xorij tajribasini o‘rganish;

b) oliy ta’lim muassasalari daromadlarini tarkib toptirishda byudjet mablag‘larining amaldagi holatini tahlil qilish va uning o‘ziga xos jihatlari aniqlash;

d) qiyosiy nuqtayi nazardan taqqoslash (baholash) va tegishli xulosalarni shakllantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalari daromadlarini tarkib toptirishda byudjetdan tashqari mablag‘larning rolini ko‘rsatish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

e) oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning bozor iqtisodi talablariga javob beradigan zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni ilmiy-amaliy jihatdan argumentatsiya qilish;

f) davr talablariga mos ravishda muqobil islohotlarni amalga oshirish asosida oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;

g) va nihoyat, yuqoridagilarning barchasini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni asoslash bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlariga e’tibor bermoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikov T. S., Olimjonov O. O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – T., 2019. – 882 b.
2. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 25–30-betlar.
3. Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2011. – 712 b.
4. Финанси: учебник для бакалавров / Подред. М. В. Романовского, О. В. Врублевской. – 3-еизд., перераб. идоп. –М.: Издателство Юрайт, 2012. – 590 с.
5. Нешитой А. С. Бюджетная система РоссийскойФедерасии: учебник. – 10-еизд., испр. идоп. – М.: Издателско торговая корпорация “ДашковиК”, 2012. – 336 с.
6. Botirovich, K. A., Batirovich K. S. Thematics Journal of Education, 2022 Challenges in Financing the Financial Independence of Local Budgets and Ways to Overcome Them.
7. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2021). Local Budget Revenues As an Important Link of Territorial Revenue Power. American Journal of Economics and Business Management, 4(5). – p. 1–4.

XALQARO RAQAMLI VALYUTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xolov Nabijon Qaxramonovich
PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro moliya bozorining bir qismi hisoblanashi tahlil qilingan, chunki raqamli valyutalar bilan operatsiyalar turli darajadagi xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilarining iqtisodiy jarayonlariga xizmat qiluvchi pul oqimlari harakati bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli pul, elektron pullar, raqamli valyutalar, talab va taklif, milliy raqamli valyuta.

Abstract: This article discusses that the international digital currency market is part of the international financial market, since transactions with digital currencies are directly related to the movement of cash flows that serve the economic processes of participants in the international digital currency market at different levels.

Key words: Digital money, electronic money, digital currencies, supply and demand, national digital currency.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что международный рынок цифровых валют является частью международного финансового рынка, поскольку операции с цифровыми валютами напрямую связаны с движением денежных потоков, которые обслуживают экономические процессы участников международного рынка цифровых валют на разных уровнях.

Ключевые слова: Цифровые деньги, электронные деньги, цифровые валюты, спрос и предложение, национальная цифровая валюта.

KIRISH

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o‘zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar hamda, amalga oshirilayotgan davlat rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri milliy pul bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish va aholining investitsiyalardan daromad olish manbalarini yaratishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida milliy iqtisodiyotni tashkil etgan har bir davlat pul bozorini rivojlantirmay erishib bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tarkibiy qismlaridan biri bu mamlakatning moliyaviy tizimini rivojlantirishdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pul bozori rivojlanayotgan moliyaviy sektorning eng muhim segmentiga aylanmoqda. Bundan tashqari, pul bozorining rivojlanish darajasi bo‘yicha, umuman moliya tizimini baholash mumkin. Pul bozori allaqachon umumjahon iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi.

ADABIYOT SHARHI

Yevropa Markaziy banki ushbu pullarni elektron shaklda saqlanadigan va to‘lovlarni amalga oshirishda qo‘llanadigan pul qiymati sifatida belgilaydi. Ushbu pul qiymatini saqlash uchun ishlatiladigan texnologiyaga qarab, elektron pul turi apparat yoki dasturiy ta’minotga asoslangan bo‘lishi mumkin, masalan, to‘lov kartalari, virtual kartalar yoki to‘lov hisoblari. Elektron pulni faqat vakolatli muassasalar, masalan, banklar va elektron pul institutlari (EMI) chiqarishi mumkin – ularning barchasi elektron pul chiqarish uchun litsenziyaga ega.

D. A. Kocherginning tadqiqotlarida shuni ko‘rish mumkinki raqamli pul bu-pulning yangi shakli, elektron pullar bankning moddiylashtirilmagan shakli, elektron pul oldindan to‘lanadigan moliyaviy mahsulot moliyaviy yoki to‘lovning yangi turi xizmatlar depozitning o‘rnini bosuvchi vosita hisoblanadi [1].

M. E. Isayevning fikricha raqamli pullar rasmiy, funksional, emissiyaviy, infrastrukturaviy bo‘ladi [2]. L. M. Shigaleva esa raqamli pullarni quyidagilarga: mustaqil, boshqa turlardan farq qiluvchi kredit pullarining bir turi, naqd pulsiz va naqd pullarning bir turiga ajratadi [3].

T. Smitin ayirboshlash vositasini elektron impuls va “foizli aktiv” deb ta’riflashiga qaramay, innovatsiyalar evolyutsiyasi pul nazariyasi asoslarini, pul-kredit nazariyasining aniq shaklini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmaydi, deb ta’kidlaydi [4]. Smitinning xulosasi ajablanarli emas, chunki u tadqiqotchilarning to‘lov tizimlariga qiziqishining an’anaviy yetishmasligini tasdiqlaydi va pul nazariyasi va to‘lov tizimlaridagi o‘zgarishlar odatda bir-biridan deyarli mustaqil ravishda o‘rganilganligini tasdiqlaydi.

L. M. Shigaleva aksincha, ushbu tadqiqot to‘lov tizimlaridan boshlanadigan pul tahlilini taklif qiladi [5]. U, asosan, ikki xil shaklda chiqarilgan raqamli pullarni chiqarishni talab qiluvchi to‘lov tizimlariga yo‘naltirilgan: oldindan to‘lov kartalari va dasturiy mahsulotlar hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “elektron pul” tushunchasini talqin qilishda ko‘plab yondashuvlar keltirilgan va ularning barchasi umumiy xususiyatlarga va tasniflash segmentlariga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro raqamli valyuta bozoriga ta’sir qiluvchi omillar talab omillari va taklif omillariga va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro moliya bozorining bir qismi hisoblanadi, chunki raqamli valyutalar bilan operatsiyalar turli darajadagi xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilarining iqtisodiy jarayonlariga xizmat qiluvchi pul oqimlari harakati bilan bevosita bog‘liqdir.

Xalqaro raqamli valyuta bozori axborot tizimida ishlaydigan kriptovalyutalar va raqamli moliyaviy aktivlar yordamida xalqaro moliya harakatining bir shakli bo‘lib, ular o‘z navbatida blokcheynga asoslangan, shuningdek, Markaziy banklarning axborot tizimida ishlaydi.

Xalqaro raqamli valyuta bozori – bu raqamli valyuta bozorlari ishtirokchilari (milliy, mintaqaviy va xalqaro) o‘rtasidagi milliy va xorijiy raqamli valyutalarning chiqarilishi va muomalasi hamda tegishli mahsulotlar va xizmatlar o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. Ushbu munosabatlar natijasida moliyaviy resurslar raqamli ravishda quyidagicha taqsimlanadi: mamlakatlar ichida va mamlakatlararo bo‘ladi.

Raqamli valyutalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlar – kriptovalyutalar, tokenlar, Markaziy qimmatli qog‘ozlar, raqamli valyutalarni sotib olish uchun kreditlar, kriptovalyutalar va tokenlarni sug‘urtalash, kriptovalyutalar va raqamli moliyaviy aktivlar uchun hosilalar va boshqalar, xalqaro raqamli valyuta bozorida kotirovka qilinadi.

Xalqaro raqamli valyuta bozori mahsulotlari, xizmatlari va vositalari bir vaqtning o‘zida ba’zi ishtirokchilar uchun moliyaviy aktivlarni va xalqaro raqamli valyuta bozorining boshqa ishtirokchilari uchun moliyaviy majburiyatlarni yaratadigan tegishli shartnomalar (faqat raqamli shaklda) (kriptovalyutalardan tashqari barcha xalqaro raqamli valyuta bozori mahsulotlari, xizmatlari va vositalari uchun) va buning natijasida moliyaviy aktivlar paydo bo‘ladi ba’zi bozor ishtirokchilari uchun, moliyaviy majburiyatlar Markaziy bankning raqamli valyutasi boshqa ishtirokchilari uchun (kriptovalyutalar uchun) yuzaga kelmaydi.

Milliy raqamli valyuta bozori bu boshqa mamlakatlarga ta’sir ko‘rsatadigan pul oqimlari bilan birga kelmaydigan raqamli valyutalar, tegishli mahsulotlar, xizmatlarni sotib olish va sotish bo‘yicha bir mamlakatda bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etishga aytiladi. Xorijiy operatsiyalar bo‘yicha milliy raqamli valyuta bozorlaridan ajratilgan xalqaro raqamli valyuta bozori barcha milliy raqamli valyuta bozorlarini xalqaro darajada bog‘laydi. Bu shuni anglatadiki, raqamli valyuta bozorining ajralmas qismi bo‘lib, u turli xil raqamli valyutalardan foydalanadigan mamlakatlar o‘rtasida pul oqimlarining harakatini ta’minlaydi. Xalqaro raqamli valyuta bozori, shuningdek, bir xil yoki turli mamlakatlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan milliy va xorijiy ishtirokchilar (rezidentlar va norezidentlar) o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday munosabatlarning natijasi

raqamli valyutalardan foydalangan holda mamlakatga keladigan pul oqimlari yoki ular orqali boshqa mamlakatlarga yuborilgan pul oqimlari miqdorining ko‘payishi hisoblanadi.

Xalqaro raqamli valyuta bozori raqamli valyuta bozori emas, chunki u milliy raqamli valyuta bozorlarining ichki operatsiyalarini istisno qiladi. Ushbu bozor raqamli valyuta savdosi va tartibga solish har bir mamlakatda yoki mamlakatlar guruhida alohida amalga oshirilganligi sababli iqtisodiy mavhumlikdir. Bunday savdo milliy va xorijiy raqamli valyutalarni o‘z ichiga olishi mumkin va unda rezidentlar ham, norezidentlar ham ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi.

Xalqaro raqamli valyuta bozori milliy raqamli valyuta bozorlarining imkoniyatlarini kengaytiradi va raqamli valyutalardan foydalangan holda transchegaraviy pul oqimlarini ko‘paytirish uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, milliy raqamli valyuta bozorlari har doim ham o‘z ishtirokchilariga kerakli raqamli valyutalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Ushbu muammolarni barcha raqamli valyutalar sotiladigan xalqaro raqamli valyuta bozori hal qilishi mumkin.

Raqamli valyutalarni sotib olish va sotishni ta’minlashning bir qismi sifatida xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro bozorning ajralmas qismi bo‘lib, uning aksariyat funksiyalarini bajaradi:

- pul oqimlarini akkumulyatsiyalash orqali jamg‘arma shaklida to‘plash va ularni raqamli valyutalarga qisqa muddatli investitsiya qilish;
- talab va taklif qonuniga muvofiq raqamli valyutalar narxlarini shakllantirish;
- xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilarini uning faoliyati to‘g‘risida xabardor qilish;
- raqamli valyutalardan foydalangan holda xalqaro operatsiyalar uchun sharoit yaratish;
- spekulyativ xalqaro raqamli valyuta bozori funksiyasi;
- xalqaro raqamli valyuta bozori yuzaga keladigan risklarni sug‘urtalash.

Xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro moliya bozorining bir qismi bo‘lib, turli xil raqamli valyutalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni sotib olish va sotishni amalga oshiradigan o‘zaro bog‘liq va segmentlar tizimi bo‘lgan o‘z tuzilishiga ega: kriptovalyutalar, raqamli moliyaviy aktivlar, Markaziy qimmatli qog‘ozlar, kriptovalyutalar va tokenlar uchun hosilalar, sug‘urta Markaziy bankning raqamli valyutasi ishtirokchilariga kredit berish uchun kriptovalyutalar va tokenlardan iborat. Xalqaro raqamli valyuta bozori tuzilishi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rasm: Xalqaro raqamli valyuta bozorining segmentlari [6]

2-rasmda Xalqaro raqamli valyuta bozorini qo‘shgan holda xalqaro moliya bozori tuzilishi ko‘rsatilgan. Xalqaro raqamli valyuta bozori segmentlaridan biri bo‘lgan xalqaro Markaziy bank bozori ham xalqaro valyuta bozoriga kiritilgan, chunki Markaziy banklarning raqamli valyutalari pulning yangi (raqamli) shakli hisoblanadi. Xalqaro raqamli valyuta bozorining segmentlarini tanlash sotiladigan raqamli valyutalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarning xususiyatlariga bog‘liq.



2-rasm: Xalqaro moliya bozori segmentlari [7]

Xalqaro raqamli valyuta bozori segmentlarining chegaralari mobil va o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning ba’zilari boshqa xalqaro moliya bozori segmentlari bilan tarmoqlararo mahsulotlarga ega. Xalqaro raqamli valyuta bozori raqamli valyutalar, tegishli mahsulotlar va xizmatlar savdosini tartibga solish va nazorat qilish imkoniyati prinsipiga muvofiq tuzilishi mumkin. Tartibga solinadigan bozorlarga xalqaro Markaziy bank bozori kiradi; qisman tartibga solinadigan bozorlarga xalqaro token bozori, xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilari uchun xalqaro kredit bozori va xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilari uchun xalqaro sug‘urta bozori kiradi; tartibga solinmagan bozorlarga xalqaro kriptovalyuta bozori kiradi. Institutsional nuqtayi nazardan, xalqaro raqamli valyuta bozori raqamli valyutalar bilan bog‘liq mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadigan blokchaynga asoslangan axborot tizimi to‘plamidir. Bu shuni anglatadiki, xalqaro raqamli valyuta bozori tuzilishini ushbu bozor ishtirokchilari ham belgilashi mumkin. Ikkinchisini quyidagicha tasniflash mumkin:

- maqsad bo‘yicha: tadbirkorlar, spekulyantlar, vositachilar, xedjerlar va valyuta-moliyaviy nazorat va tartibga solish organlar;
- ishtirok etish turi bo‘yicha: bevosita va bilvosita ishtirokchilar;
- ishtirok etish maqsadlari va sabablari uchun: xedjerlar va spekulyantlar;
- investorlar turi bo‘yicha: xususiy investorlar va institutsional investorlar.

Tadbirkorlar bozor ishtirokchilari bo‘lib, ularning asosiy maqsadi tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish uchun raqamli valyutalardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishdir. To‘g‘ridan -to‘g‘ri ICO ishtirokchilari xalqaro raqamli valyuta bozori orasida blockchaynga asoslangan axborot tizimi foydalanuvchilari, Markaziy bank egalari, kriptovalyuta konchilari va ICO tashkilotchilari va investorlari bor, boshqa barcha bozor ishtirokchilari esa bilvosita hisoblanadi. Xedjerlar xalqaro raqamli valyuta bozorining ishtirokchilari bo‘lib, ular raqamli valyutalar va o‘z hisoblaridagi mablag‘lar bilan operatsiyalarni sug‘urta qiladilar. Spekulyantlar-bu raqamli valyutalarning valyuta kursi qiymatidagi farq shaklida foyda olishga intiladigan xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilariga aytiladi. Xususiy investorlar esa raqamli valyutalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar, institutsional investorlar esa raqamli valyutalarga sarmoya kiritadigan yuridik shaxslardir. Ikkinchisiga, venchur fondlari, kriptovalyuta fondlari, sug‘urta va investitsiya kompaniyalari kiradi.

Agar xalqaro raqamli valyuta bozorini miqdoriy, sifat va evolyutsion jihatlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqsak, bu raqamli valyutalarni sotib olish va sotish, chiqarish va muomalaga chiqarish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar to‘plamidir. Xalqaro raqamli valyuta bozori moliya bozorining ajralmas qismi bo‘lib, xalqaro kriptovalyuta bozori, xalqaro token bozori, xalqaro Markaziy qimmatli qog‘ozlar bozori, xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilari uchun xalqaro kreditlash bozori va xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilari uchun xalqaro sug‘urta bozoridan iborat. O‘z navbatida, xalqaro Markaziy bank bozori ham xalqaro valyuta bozorining bir qismidir.

Xalqaro raqamli valyuta bozori xususiy tashabbuslar darajasida ham, davlat darajasida ham faol ravishda diversifikatsiya qilmoqda va kelajakda uning rivojlanish vektori Markaziy banklarning markaziy qimmatli qog‘ozlarni qanchalik faol amalga oshirishi va global iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun ularning texnologik afzalliklaridan foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Xalqaro raqamli valyuta bozori ta’sir qiluvchi omillarni talab omillari va taklif omillariga bo‘lish kerak. O‘z navbatida, ushbu omillar guruhlari narx bo‘lmagan omillarga bo‘linadi. Agar talab va taklifning narx omillari o‘zgarishsiz qolsa, xalqaro raqamli valyuta bozorida muvozanatga erishiladi. O‘z navbatida, B ilovasida keltirilgan omillar kuchining o‘zgarishi xalqaro raqamli valyuta bozoriga talab va taklifni kamaytiradi yoki oshiradi. 3-rasmda Xalqaro raqamli valyuta bozori uchun talab va taklif qanday o‘zgarishi ko‘rsatilgan .



3-rasm: Xalqaro raqamli valyuta bozorida talab va taklif [8]

Xalqaro raqamli valyuta bozorining tuzilishi va ishtirokchilarini ko‘rib chiqqandan so‘ng, ushbu bozor ishtirokchilariga xos bo‘lgan risklarni aniqlashtirish kerak. Kriptovalyutalar va tokenlardan foydalanish va muomalasi jahon iqtisodiyoti uchun sezilarli salbiy ta’sirlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yuqori o‘zgaruvchanlik, foiz stavkalarining o‘zgarishi, ularning huquqiy maqomi, faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va kriptovalyutalardan foydalanish bo‘yicha mavjud noaniqlik tufayli yuzaga keladi. Ayrim holatlarda foydalanuvchilar tomonidan noqonuniy maqsadlarda, taqiqlangan tovarlar va xizmatlar, shuningdek pul yuvish kabi holatlar bo‘ladi. Bundan tashqari, noto‘g‘ri Markaziy Bank modelining joriy etilishi tufayli bank sektorida inqiroz hodisalarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq risk ham mavjud:

- shartnomadagi farq tufayli yangi narx belgilash (belgilangan foiz stavkalari bo‘yicha);
- yangi narxni belgilash (o‘zgaruvchan foiz stavkalari bilan);
- hosilaviy egri chizig‘ining shakli va qiyaligidagi o‘zgarishlar ;
- kriptovalyutalar va tokenlar uchun variantlar bilan yuzaga keladigan o‘zgaruvchanlik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot asosida xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilari uchun risklar orasida raqamli valyutalarga sarmoya kiritishning noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lgan mamlakat riski mavjud bo‘lib, ularning narxi ko‘p jihatdan iqtisodiy vaziyatga, pul-kredit siyosatiga va ma’lum bir mamlakatning siyosiy qarorlariga bog‘liq. Misol uchun, Xitoy vaqti-vaqti bilan xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilariga cheklovlar qo‘yadi, bu birinchi navbatda kriptovalyutalar va raqamli moliyaviy aktivlar bilan bog‘liq. Bu Xitoyning siyosiy qarorlari sezilarli darajada kriptovalyutalar qiymatiga ta’sir qiladi. Afzalliklar bilan bir qatorda raqamli valyutalarning kamchiliklari ham bor. Eng asosiy kamchiliklardan biri – dasturiy ta’minot xavfsizligi bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinayotgan ma’lumotlar buzilishi bilan bog‘liq xabarlarni hisobga olib aytish mumkinki, axborot xavfsizligi chindan ham jiddiy muammo bo‘lib turibdi. Moliyaviy texnologlar yangi kriptografik tizimlarning va’dalariga qaramay, yangi tizimning shaffoflik, barqarorlik va ishonchlilik jihatidan mukammallikka erishishi uchun yana 5–10 yil vaqt ketishi mumkinligidan ogohlantirmoqda. Qolaversa, davlatlar yoki mustaqil auditorlik tashkilotlari nazorati ostida bo‘lmagan kriptovalyutalarning noqonuniy faoliyatlarda qo‘llanilishi ham juda muhim va xavfli masala bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) tomonidan oktyabr oyida e’lon qilingan hisobotda zarur qonuniy tartiblarga ega bo‘lmagani sababli Markaziy bank raqamli valyuta tizimlarining (CBDC) noqonuniy moliyalashtirishga yo‘l ochib berishidan va mahalliy hokimiyat organlarining kapital oqimini nazorat qilishini qiyinlashtirishidan xavotir olinayotgani bildiriladi.

Hisobotda, shuningdek, tegishli xavfsizlik choralarisiz raqamli valyutalarning iste'molda qo'llanishi markaziy banklar samaradorligini susaytirishi mumkinligi aytiladi. Yana bir muhim ogohlantirishlardan biri pul-kredit siyosatidagi zaiflik valyutalarni beqarorlikka olib borishi bilan bog'liq.

Raqamli va kriptovalyutalar epidemiyaning chuqur iqtisodiy ta'sirini yo'qotish va pandemiyadan so'ng paydo bo'la boshlagan yangi moliyaviy imkoniyatlarga hozirlik ko'rgan dunyo iqtisodiyoti uchun xatarlardan qochish yo'lidagi jiddiy imkoniyatlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Mana shunday vaziyatda markaziy banklarning o'z raqamli valyutalarini chiqarishi o'zgaruvchan texnologiyalar bilan hamnafas bo'lish va iste'molchilarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlardan himoya qilish nuqtayi nazaridan foydali bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Исаев М. Е. Функции электронных денег / М. Е. Исаев // Известия высших учебных заведений. Серия: Экономика, финансы и управление производством. – №4. 2011. – С. 13–16.
2. Кочергин Д. А. Интерпретация электронных денег и оценка их влияния на денежно-кредитную систему / Д. А. Кочергин // Финансы и кредит. – №13(181). 2005. – С. 29–39.
3. Глазьев С. Ю. Криптовалюты как новый тип денег / С. Ю. Глазьев, Р. С. Глазьев. // Евразийская интеграция: экономика, право, политика. – № 1. 2018. – С. 4-17. – ISSN 2073-2929.
4. Жариков М. В. Режим параллев. Жариков // Мир экономики и управления. № 4. Том 19. 2019. – С. 5–13. – ISSN 2542 льных валют в зоне финансовой интеграции. – М.-0429.
5. Carapella, F. Central Bank Digital Currency: A Literature Review / F. Carapella, J. Flemming // FEDS Notes. Washington : Board of Governors of the Federal Reserve System. – 2020 – № 1. – P. 3–7.
6. Hill, B. Blockchain Quick Reference: (2018). A guide to exploring decentralized blockchain application development / B. Hill, S. Chopra, P. Valencourt // Packt Publishing Ltd. – 2018. – P. 101. – ISBN 9781788995788.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING RIVOJLANISHI VA HOZIRGI SHART-SHAROITLARI

Xusanov Otabek Nishonovich
PhD, Mustaqil izlanuvchi,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akdemiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining tarixi, rivojlanishining asosiy tendensiyalari, uning tushunchasi bo‘yicha turli ilmiy-nazariy qarashlar, uning fuqarolik jamiyati instituti sifatida jamiyatda tutgan o‘rni, boshqa institutlar bilan o‘zaro aloqasi va nisbati, zamonaviy globallashuv davrida asosiy tendensiyalari xorij va milliy tadqiqotchilar ilmiy ishlari asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati instituti, nodavlat notijorat tashkiloti, nohukumat tashkilot, “uchinchi sektor”, ijtimoiy loyiha, nodavlat sektor.

Abstract: This article describes the main trends in the history of development of non-profit organizations, various scientific and theoretical views on their concept, the role in society as an institution of civil society, its interaction with other institutions and its correlation, and the main trends in the modern era of globalism.

Key words: civil society Institute, non-profit organization, non-governmental organization, “Third sector”, social project, non-profit sector.

Аннотация: В данной статье на основе зарубежных и отечественных научно-исследовательских работ описываются основные тенденции в истории развития некоммерческих организаций, различные научно-теоретические взгляды на их концепцию, роль в обществе как института гражданского общества, его взаимодействие с другими институтами и его соотношение, основные тенденции в современную эпоху глобализма.

Ключевые слова: институт гражданского общества, некоммерческая организация, неправительственная организация, “Третий сектор”, социальный проект, некоммерческий сектор.

KIRISH

Davlat boshqaruvi organlari va NNTlar o‘zaro hamjihatligiga erishish ko‘p jihatdan jamiyatdagi turli ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish hamda mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

O‘zbekistonda NNTlar fenomeni chorak asrdan beri shakllanib kelmoqda, biroq uni fanlararo tadqiqotlarda o‘rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatining har tomonlama va jadal rivojlanishida NNTlarning roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish ilmiy tadqiqotlarning muhim mavzusiga aylandi. Shu jihatdan mamlakatimizda davlat va NNTlarning ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion hamkorlik mexanizmlarini yaratish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev NNTlarning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada oshirish bo‘yicha Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilarni ta’kidladi: “Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o‘ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e’tiborini qaratib, o‘zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi [1].

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hamda jamiyat ishlaridagi ishtirokiga keng yo‘l ochilgani, o‘tgan davr mobaynida NNTlarining rolini kuchaytirish orqali fuqarolarning muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan 300 dan ziyod qonun hujjatlari hayotga joriy etildi.

NNT atamasi ko‘pgina davlatlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsada, aksariyat hollarda ularning konstitutsiyalarida bu atama o‘rnida jamoat birlashmasi ishlatiladi. Shuningdek ko‘pchilik davlatlarda NNTga nisbatan maxsus yuridik ta’rif mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasidan foydalanilgan bo‘lib [2], ushbu tushunchaning jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, uyushmalar, assotsiatsiyalar va boshqa tushunchalar bilan o‘zaro nisbati masalalarini tahlil qilish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Sh. Nazarovning fikricha har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va, eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashgan ichki tashkiliy munosabatlar yig‘indisi va ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta’sir etish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega bo‘lgan institut sifatida maydonga chiqadi [3].

S. Jo‘rayeva fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko‘proq siyosiy-huquqiy jihatiga e’tibor qaratadi. Jumladan, “aholining siyosiy hayotda faol ishtirok etishiga ko‘maklashish o‘z ta’sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan yoki taytorlanayotgan qarorlar to‘g‘risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini tushuntirish”deb qayd etilgan [4].

D. Xolmanova nodavlat-notijorat tashkilotlarining paydo bo‘lishi xayriya jamg‘armalari bilan bog‘liq ekanligini keltirib o‘tgan [5].

E. V. Nelyubinaning qayd etishicha, nodavlat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlat tomonidan va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sohalariga jalb qilingan ishtirokchilari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi uchun fuqarolik nazoratini ta’minlashdan iborat [6].

L. M. Salamon va S. V. Sokolovski tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda nohukumat tashkilotlar davlat va biznes bilan bir qatorda “uchinchi sektor”ni tashkil qilishini qayd etganlar. Ular nodavlat tashkilotlarning yana boshqa nomlanishi sifatida fuqarolik yoki notijorat tashkilotlar degan tushunchalar mavjudligini ham e’tirof etishadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat notijorat tashkilotlari umuman keng miqyosda olganda jamoat birlashmalari tizimida oraliq o‘rinni egallagan holda huquqiy jihatdan asoslangan ijtimoiy tushunchadir. Oraliq o‘rinni egallashi deganda barcha jamoat birlashmalarining tub negizi qisman nodavlat notijorat tashkilotlariga kelib tutashadi. Masalan: jamoat birlashmalarining turi bo‘lgan kasaba uyushmasi va siyosiy partiya tuzilishida ham fuqarolarining manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi dastlabki o‘ringa qo‘yiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalashi hamda himoya qilishi asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Shuni ta’kidlash joizki mustaqillika erishgan keyin nodavlat notijorat tashkillotlari malakatimizda oshib borish tendensiyalari kuzatilmoqda.



1-diagramma: O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘sish dinamikasi 1991–2023-yillar oralig‘ida

Grafika shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yilllarda O‘zbekistonda NNTlarni ro‘yxatga olish soni doimiy ravishda o‘sib bordi va 1991-yildagi 95 NNTdan 2023-yil 1-yanvar holatiga 9500 yetdi, deyarli yuz baravarga baravar ko‘paydi.

Birinchidan, raqamlar qanday hisoblanganligini va qanday NNTlarning tahmin qilinadigan ijobiy dinamikani tashkil etishini tushunish kerak. Muhimi, ularning umumiy soniga barcha shahar, tuman va viloyat bo‘limlari va NNT, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining bo‘linmalari kiradi, bu esa miqdor jihatidan ko‘payadigan samaraga olib keladi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlaring negizida demokratik qadriyatlarni, aholining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, insoniylik muammolarini, hududlarning muayyan sotsial-iqtisodiy masalalarni hal qilishga, fuqarolarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish masalalari yotadi. Davlat ijtimoiy siyosatida yolg‘iz qariyalarni, nogironlarni va aholining boshqa ijtimoiy muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha amaliy va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash, NNTlar ijtimoiy xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy-tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.



1-chizma: Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarning viloyatlar kesmida sonlari

Tahlil natijalariga ko‘ra, davlatning aholiga ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishdagi ustunlik jihatlari quyidagilarda o‘z aksini topgan: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ma’muriy, moliyaviy, tashkiliy-kadrlar hamda turli infratuzilmalarga egaligi; ijtimoiy xizmatlarning ishonchliligi, barqarorligi, qonun bilan himoyalanganligi; sohaga dahldor normativ-huquqiy bazaning shakllanganligini kuzatish mumikn. Shuning barobarida ijtimoiy sohada davlatning kuchli nazoratining mavjudligi; aholining xususiy va nodavlat sektorlariga nisbatan ko‘proq davlatga ishonishi; ijtimoiy soha boshqaruvida ko‘p yillik katta tajribaga egaligi; markazlashgan holda mavjud muammoni baholash, tahlil qilish va bartaraf qilish yo‘llari hamda usullarini qisqa vaqt ichida ishlab chiqishi; aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishida andoza, universal va kompleksli yondashuvning mavjudligi nazarda tutiladi. Holbuki, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning nisbatan arzonligi va ko‘p hollarda bepulligi; ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi; ijtimoiy xizmatlarning ommaviyligi va kafolatlanganligi; davlatning ijtimoiy xizmatlaridan barcha fuqarolarning foydalana olish imkoniyatining yaratilganligi va boshqalarni ta’kidlash joiz.

2-chizma: Nodavlat notijorat tashkilotlarning sohalar kesimidagi tahlili

Davlat tomonidan NNTlarning faoliyatini moliyalashtirishning ikki asosiy jihatlarini ko‘rish mumkin, birinchisi, “loyihaviy moliyalashtirish”, ikkinchisi, “dasturiy moliyalashtirish”. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, har ikkala usullarning ijobiy va salbiy jihatlar mavjud. Birinchi holatda davlat NNtlarni qisqa muddatli ijtimoiy loyihalarini (2–4 yil) moliyalashtiradi. Ikkinchi holatda davlat uzoq muddatli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy buyurtmalar asosida amalga oshiradi. Buning salbiy jihatlar shundan iboratki, NNTlarga ajratilgan mablag‘lar uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘lsada, ba’zi holatlarda NNTlar ulardan to‘liq foydalana olmaydi. Bundan tashqari, yirik raqobatchilari ularning imkoniyatlarini chegaralab qo‘yyadi.

1-jadval: Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi, hududiy jamoat fondlari va NNTlarni qo‘llab quvvatlash jamoat fondi tomonidan 2008–2022-yillarda ajratilgagn mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot

Ajratilgan mablag‘ yillar bo‘yicha			2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Oliy Majlis fondi	Jami	soni	300	275	263	291	321	267	474	218
		mln. so‘m	10695	12163	12370	18250	37817	44044	118764	100045
	Davlat subsidiyasi	soni	6	6	6	7	11	15	161	36
		mln. so‘m	3250	3470	4270	8200	25017	29644	101 064	78 445
	Davlat ijtimoiy buyurtmasi	soni	15	15	9	8	12	15	23	17
		mln. so‘m	2000	2470	2070	2250	4000	5 200	14300	14 000
	Davlat granti	soni	279	254	248	276	298	237	290	165
		mln. so‘m	5445	6223	6030	7800	8800	9 200	11 900	12 000

Fikrimizcha, ijtimoiy buyurtma NNTlar uchun davlat bilan hamkorlik qilishning qiyin usulidir. Chunki NNTlar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qisqa muddatda va chegaralangan moliyaviy mablag‘lar evaziga amalga oshirishi kerak. Unda yangi g‘oyalar va innovatsiyalar paydo bo‘lmaydi, balki buyurtmachi tomonidan oldindan belgilangan usul va vositalar asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatning NNTlar bilan munosabatining shakllari mavjud. Davlat subsidiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘makdir. Davlat granti nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslardir. Davlat ijtimoiy buyurtmasi – Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ijtimoiy buyurtmasi sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o‘rtasida shartnoma tuzish orqali ishlarni bajarish yoki tadbirlar o‘tkazishga qaratilgan davlat topshirig‘idan iboratdir.

Shu bilan birga davlat boshqaruvi organlari sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmasi berishi qonun hujjatlarda beligilab qo‘yilgan. Bu masalaning qay darajada muhim va dolzarbligi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda NNT tomonidan bajariladigan yo‘nalishlar bo‘yicha davlat ijtimoiy buyurtmalari uchun ajratiladigan mablag‘lar ro‘yxati va hajmi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda davlat va NNTlarning hamkorlik shakllari tadrijiy ravishda rivojlanib bormoqda. 2019-yildan boshlab mahalliy NNTlar byudjet assignivlari orqali moliyalashtirish amalga oshiriladi. Bu O‘zbekiston uchun davlat va NNTlar hamkorligining yangi shakllaridan biridir. Buning ijobiy jihatlari shundaki, NNTlar mahalliy davlat boshqaruvi organlari bilan kelishgan holda ijtimoiy buyurtma asosida byudjet mablag‘laridan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ushbu tizimda qisqa muddatli ijtimoiy loyihalar amalga oshiriladi. Endilikda mahalliy davlat boshqaruvi organlari hududlardagi NNTlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qila boshlaydi. Mavjud muammolar bartaraf qilinadi va hamkorlikning yangi usul va vositalari ishlab chiqiladi. Eng muhimi NNTlar davlat organlarining doimiy e’tiborida bo‘lib va ijtimoiy masalalarda ishonchli hamkoriga aylanadi.

O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar xulosasidan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Markaziy va hududiy telekanallarda “NNTlar muloqot klubi”larini tashqil qilish va doimiy ravishda ko‘rsatuvlarni tayyorlash muhim strategik ahamiyatga ega. NNTlarni OAVlari orqali xalq bilan ochiq muloqot qilish

imkoniyatini yaratish lozim. Ushbu mexanizm orqali xalqni NNTlarga bo‘lgan ishonchini ortishi ta’minlanadi. Shunday media maydonda NNTlarning manfaatlari agregatsiya va artikulyatsiya qilinadi. NNTlarning ijtimoiy ahamiyatga molik ishlari respublika va mahalliy OAVda tizimlilik asosida yoritilishi kerak. Buning NNTlar foliyatini keng yoritib beruvchi maxsus teleko‘rsatuvlar tayyorlash maqsadga muvofiq. Markaziy va hududiy telekanallarda NNTlar tomonidan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatayotganligi to‘g‘risida video roliklarni berib borish lozim. Internet (TAS-IX doirasida mover. uz, mytube. uz, mytorrent. biz va boshqalar) portallar orqali nodavlat tashkilotlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishiga doir videoroliklar berib borish maqsadga muvofiq;

Butun jahonda NNTlarni qo‘shimcha moliyalashtirishning qo‘shimcha usuli bo‘lgan “Fandrayzing” va “Kraudfanding” tizimini joriy qilishning nazariy va amaliy masalalarini jahon tajribasi asosida o‘rganish lozim;

Uyushmagan yoshlarni NNTlar faoliyatiga jalb qilish, qiziqishini oshirish maqsadida ular uchun motivatsiyalar, qisqa muddatli innovatsion ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, ularni aholining turli qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga jalb qilish, ularning mehnatini e’tirof qilish, rag‘batlantirish usullarni metodologiyasini ishlab chiqish zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz
2. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. // (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, 5-son, 116-modda.
3. Nazarov Sh. Konstitutsiya va jamoat birlashmalari. / Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor Saidov A. X. – Toshkent: TDYuI, 2012. – 30-b.
4. Jo‘rayeva S. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2009. – № 4. – 24-b.
5. Xolmanova D. R. O‘zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarning jamoat birlashmalari tizimidagi o‘rni. Yurid. fan. nom.... dis. TDYuU, Toshkent, 2012. http://diss. natlib. uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/37583. (Xolmanova D. R. The role of non-governmental non-profit organizations in the system of public associations in the Republic of Uzbekistan. Disser. cand. of jur. sciences. TSUL, Tashkent, 2012.)
6. Нелюбина Е. В. Гарантии и защита социальных прав человека и гражданина в Российской Федерации // Государство и право. 2010. – № 5. – С. 101–102.
7. Salamon, L. M. and Sokolowski, S. W., Beyond nonprofits: Re-conceptualizing the third sector. VOLUNTAS: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 27(4), 2016. – PP. 1515–1545; Anheier, H. K. and Salamon, L. M., The nonprofit sector in comparative perspective. The nonprofit sector: A research handbook, 2, 2006. – PP. 90–114.

BANKLARINING AKTIVLARINI DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Elbusinova Umida Xamidullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank ishi va investitsiyalar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Tijorat banklari aktivlarining daromadliligini ta’minlash ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Aktivlar daromadliligining barqaror darajasini ta’minlash sof foydaning barqaror darajasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining daromadliligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, aktiv, daromadlilik, sof foyda, risk, kredit, investitsiya, zaxira, foiz stavkasi, marja.

Abstract: Ensuring the profitability of commercial banks’ assets is one of the prerequisites for ensuring their financial stability. Ensuring a stable level of return on assets will play an important role in ensuring a stable level of net income.

The article identifies urgent problems related to ensuring the profitability of assets of commercial banks of the Republic of Uzbekistan and developed scientific proposals aimed at solving these problems.

Key words: commercial bank, asset, profitability, net profit, risk, loan, investment, reserve, interest rate, margin.

Аннотация: Обеспечение доходности активов коммерческих банков является одним из обязательных условий обеспечения их финансовой устойчивости. Обеспечение стабильного уровня доходности активов сыграет важную роль в обеспечении стабильного уровня чистой прибыли.

В статья выявлены актуальные проблемы, связанных с обеспечением доходности активов коммерческих банков Республики Узбекистан и разработаны научные предложения, направленных на решение этих проблем.

Ключевые слова: коммерческий банк, актив, доходность, чистая прибыль, риск, кредит, инвестиция, резерв, процентная ставка, маржа.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank xizmati ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, tijorat banklari beradigan kreditlar hajmini barqaror o‘sishini ta’minlash, banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1]. Mazkur yo‘nalishlar doirasida belgilangan vazifalarni hal qilish, birinchi navbatda, tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish imkonini beradi. Ammo, hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Jumladan, tijorat banklari kreditlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik miqdori katta. Bundan tashqari, qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarining hajmida juda kichik salmoqni egallaydi.

MAVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Sinkining fikriga ko‘ra, tijorat banklari aktivlarining daromadliligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, sof foizli marja ko‘rsatkichi hisoblanadi. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo‘lib, kreditlar va depozitlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [2].

D. Maknotonning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda foizli daromadlarning o‘rni katta bo‘lib, ular yalpi daromadining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog‘i kamida 70 foiz bo‘lishi kerak [3].

I. Leshukovaning fikriga ko‘ra, tijorat banklarining foydasini barqaror darajasini ta’minlash uchun bank faoliyatining samaradorligini ta’minlash strategiyasini ishlab chiqish kerak va mazkur strategiya bank resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan maqsadlar, harakatlar majmuidan iborat bo‘lishi kerak [4].

O. Voloshinaning fikricha, tijorat banklari foizdli daromadlarining darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- foizli daromadlarning ssuda hisobraqamlarining o‘rtacha qoldig‘iga nisbati;
- qisqa muddatli ssudalardan olingan daromadlarning qisqa muddatli ssudalarning o‘rtacha qoldig‘iga nisbati;
- alohida kredit guruhlari bo‘yicha olingan daromadlarning ushbu guruh kreditlarining o‘rtacha summasiga nisbati;
- uzoq muddatli ssudalardan olingan foizli daromadlarning uzoq muddatli ssudalarning o‘rtacha qoldig‘iga nisbati [5].

S. Kumokning xulosasiga ko‘ra, hozirgi davrda tijorat banklari kapitalga to‘g‘ri keladigan foyda me’yorini kapitalning yetarliligini pasaytirish hisobiga oshirish imkoniga ega emas. Chunki banklararo raqobatning kuchli ekanligi va kredit resurslarining qimmatlashayotganligi kapitalning aktivlarga nisbatan optimal darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun umumiy kapitalga to‘g‘ri keladigan foyda me’yorini oshirishning bosh zaxirasi bo‘lib, aktivlar qaytimining darajasini oshirish hisoblanadi [6].

B. Berdiyarov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarning mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, banklar aktivlari va kapitali rentabelligi ko‘rsatkichlarining nisbatan past ekanligi, tijorat banklari tomonidan sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyenti bo‘yicha me’yoriy talablarni bajarilmayotganligi ana shunday omillardan sanaladi [7].

J. Isakov tomonidan amalga oshirilgan ekonometrik tahlillarning natijasi ko‘rsatdiki, tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasiga ajratilayotgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasining o‘rtacha bir foizga oshishi berilgan kreditlar daromadliliini 0,8 foizga oshishiga, berilayotgan kreditlar hajmini bir foizga oshishi kreditlar daromadlilik darajasini 1,8 foizga kamayishiga olib keladi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari aktivlarining daromadliligini tavsiflovchi bir qator ko‘rsatkichlar mavdjud bo‘lib, ular orasida sof foizli marja va 1 so‘mlik aktivlarga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi ko‘rsatkichlari bank aktivlarining moliyaviy tahlilida keng qo‘llaniladi.

1-rasm: Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida sof foizli marja va bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi, foizda [9]

1-rasm ma’lumotlaridan yaqqol ko‘rinadiki, TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja va bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi ko‘rsatkichlarining darajasi oshgan. Bu esa bank aktivlarining rentabelligini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo tahlil qilingan davr mobaynida sof foizli marja ko‘rsatkichini me’yoriy darajadan (4,5%) ancha past bo‘lganligi bank aktivlarining rentabelligini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankida bir so‘mlik aktivga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi 2017–2021-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, bank aktivlarining rentabelligini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlarining tarkibida yuqori salmoqni kreditlar egallaganligi sababli kreditlarning daromadliligi banklarning moliyaviy barqarorligiga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, kreditlarning daromadliligi kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasiga bog'liq.



2-rasm: TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda [10]

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017–2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkichning amaldagi darajasi uning me'yoriy darajasidan yuqori bo'lgan.

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari summasi to'liq bankning xarajatiga olib boriladi. Shu sababli, zaxira ajratmalari miqdorining oshishi tijorat bankining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, tijorat bankining likvidliligi va to'lov qobiliyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Chunki, sof foyda tijorat banklari faoliyatining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri aktivlarning riskka tortilgan summasining o'zgarishi hisoblanadi. Sababi, aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o'rtasidagi to'g'ri mutanosiblik mavjud: aktivning risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning daromadlilik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu sababli, tijorat banklarida riskka tortilgan aktivlar summasi bilan sof foyda o'rtasida ham to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy bankida sof foyda, aktivlarning riskka tortilgan summasi va sof foydaning darajasi [11]

Ko'rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Sof foyda, mlrd. so'm	157	354	506	1 043	905
Aktivlarni riskka tortilgan summasi, mlrd. so'm	10 936	28 397	33 650	41 658	53 820
Sof foydani aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, %	1,4	1,2	1,5	2,5	1,7

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, TIF Milliy banki sof foydasining miqdori 2016–2019-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ammo, bankning sof foydasi miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamaygan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016–2020-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, TIF Milliy banki sof foydasining darajasi faqat 2019-yilda me'yoriy talab darajasida bo'lgan, ya'ni 2,0 foizdan yuqori bo'lgan. Qolgan tahlil qilingan yillarda sof foydaning darajasi past bo'lgan. Bu esa, Milliy bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

E'tirof etish joizki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi tijorat banklarining aktivlarining daromadliligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar va tadbirlarning belgilanganligi tijorat banklari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan: yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilgacha bosqichma-bosqich 5 foizga pasaytirish, 2023-yildan davlat byudjeti defitsitini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash, yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdorini 4,5 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta'minlash vazifalari qo'yilgan [12].

Biroq, hozirgi davrda respublikamizda inflyatsiya darajasiinng nisbatan yuqori ekanligi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining darajasini yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqdaki, buning natijasida tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini darajasi yuqori darajada qolmoqda.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Ilmiy maqolani yozish jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari kredit portfelini va risklarini boshqarishni takomillashtirish, baknklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish vazifalarining qo'yilganligi tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni tadqiq qilish va ularni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.
- TIF Milliy bankida 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sof foizli marja va bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi ko'rsatkichlarining darajasini oshganligi bank aktivlarining daromadliligini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, tahlil qilingan davr mobaynida sof foizli marja ko'rsatkichini me'yoriy darajadan (4,5%) sezilarli darajada past bo'lganligi salbiy holat hisoblanadi.
- TIF Milliy bankida bir so'mlik aktivga to'g'ri keladigan daromad darajasi 2017–2021-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu bank aktivlarining daromadliligini oshirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.
- 2017–2021-yillarda TIF Milliy bankida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasini o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi va mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi uning me'yoriy darajasidan yuqori bo'lganligi bank aktivlarining daromadliligini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.
- TIF Milliy banki sof foydasining miqdori 2016–2019-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, lekin, sof foyda miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan kamaygan. Bankda sof foydaning darajasi faqat 2019-yilda me'yoriy talab darajasida bo'lgan, ya'ni 2,0 foizdan yuqori bo'lgan. Qolgan tahlil qilingan yillarda sof foydaning darajasi past bo'lgan. Bu esa, Milliy bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.
- TIF Milliy banki aktivlarining riskka tortilgan summasi 2016–2020-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash kerak; ikkinchidan, sof foizli marjaning darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlarning (sof foizli spred, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasi, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyenti, foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik) me'yoriy darajasini ta'minlash lozim.
2. Tijorat banklari yalpi daromadining brutto aktivlarga nisbatan darajasini oshirish uchun, birinchidan, foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbatan barqaror nisbatini shakllantirishga erishish zarur; ikkinchidan, xarajatlar/daromadlar koeffitsiyentining me'yoriy darajasini (0,45) ta'minlash kerak; uchinchidan, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlarning miqdorini va foizli daromadlar hajmidagi salmog'ini oshirish lozim.

Respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'i juda past bo'lganliig sababli, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi juda past.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining brutto aktivlari hajmida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning salmog‘i atigi 4,4 foizni tashkil etdi [13].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”gi farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 338.
3. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С. 71.
4. Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.
5. Волошина О. Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - 1. – С. 168-172.
6. Кумок С. И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М.: Вече, 1996. – С. 53.
7. Berdiyarov B. T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari. I. f. d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 29.
8. Isakov J. Y. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I. f. d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – B. 28.
9. TIF Milliy banki. Tijorat bankining balans hisoboti; Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. www. nbu. uz.
10. TIF Milliy banki. Tijorat bankining balans hisoboti; Aktvilarni risk darajasiga ko‘ra tasnifi. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021. www. nbu. uz.
11. TIF Milliy banki. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot. Riskka tortilgan aktivlar hisob-kitobi. 2017, 2018, 2019, 2020. www. nbu. uz.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot startegiyasi to‘g‘risida//QMMB:06/22/60/0082-son. 29.01.2022.
13. Tijorat banklarining jamlanma balansi. www. cbu. uz

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА ЗАТРАТ НА ПРОИЗВОДСТВО

Хилола Икрамова Ровшан кизи
Ташкентский финансовый института базовый докторант

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности проведения аудита производственных процессов, методика проверки учета затрат на производство и типичные ошибки, выявляемые в ходе этих действий.

Одной из важных частей работы бухгалтера производственного предприятия является учет затрат на производство, аудит производственных затрат, в свою очередь, нацелен на выявление ошибок и недостатков, допущенных во время формирования информации и расчетах этих показателей. От правильной калькуляции производственных расходов зависит безошибочность составления финансовой отчетности, что приведет к отсутствию претензий со стороны налоговой службы, улучшит качество внутреннего контроля и дальнейшего планирования финансов на предприятии.

Потребность аудита затрат на производство объясняется существенными материальными убытками, в частности за счет неверной постановки именно этого этапа учета. При грамотной постановке аудита производственных затрат обращается внимание не только на организационные аспекты компании, но и технологические процессы. Таким образом аудит затрат на производства приводит к минимизации риска недостоверного отражения финансовой информации хозяйствующего субъекта, что в дальнейшем позволит повысить эффективность его функционирования.

Ключевые слова: аудит, учет, затраты на производство, производственные процессы, контроль, материалы, амортизация, заработная плата, ошибки.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonlari auditini o‘tkazish xususiyatlari, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobini tekshirish metodologiyasi va ushbu harakatlar paytida aniqlanadigan odatiy xatolar ko‘rib chiqiladi.

Ishlab chiqarish korxonasida buxgalter ishining muhim qismlaridan biri ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarining auditi esa, o‘z navbatida, ma’lumotlarni yaratish va ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblashda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan. Moliyaviy hisobotning to‘g‘riligi ishlab chiqarish xarajatlarning aniq hisoblanishiga bog‘liq bo‘lib, bu soliq xizmati tomonidan da’volarning yo‘qligiga, korxonada ichki nazorat va keyingi moliyaviy rejalashtirish sifatini oshirishga kafolat bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini auditining ahamiyati katta moddiy yo‘qotishlardir, xususan, buxgalteriya hisobining ushbu alohida bosqichini noto‘g‘ri belgilash tufayli. Ishlab chiqarish xarajatlarini tekshirish zarurati katta moddiy yo‘qotishlar, xususan, buxgalteriya hisobining ushbu bosqichni noto‘g‘ri amalga oshirish bilan izohlanadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlarining auditi xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ma’lumotlarini ishonchsiz aks ettirish xavfini minimallashtirishga olib keladi va bu orqali uning faoliyati samaradorligini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: audit, buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish jarayonlari, nazorat, materiallar, amortizatsiya, ish haqi, xatolar.

Abstract: This article discusses the features of conducting an audit of production processes, the methodology for checking the accounting of production costs and typical errors identified during these actions.

One of the important parts of the work of an accountant at a manufacturing enterprise is accounting for production costs; the audit of production costs, in turn, is aimed at identifying errors and shortcomings made during the generation of information and calculations of these indicators. The accuracy of financial reporting depends on the correct calculation of overhead costs, which will lead to the absence of claims from the tax service, improve the quality of internal control and further financial planning at the enterprise.

The importance of auditing production costs lies in avoiding significant material losses, in particular due to the incorrect setting of this particular stage of accounting. When properly performing an audit of production costs, attention is drawn not only to the organizational aspects of the company, but also to technological processes. Thus, an audit of production costs leads to minimizing the risk of unreliable reflection of the financial information of an economic entity, which will further improve the efficiency of its functioning.

Key words: audit, accounting, production costs, production processes, control, materials, depreciation, salary, errors.

ВВЕДЕНИЕ

Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы поставила цель по оптимизации расходов на производство и полному пересмотру методов их расчетов, в соответствии с поручениями “по снижению потерь в отраслях промышленности и повышению эффективности использования ресурсов” [1], что тем самым определило необходимость аудита затрат на производство и калькуляции себестоимости.

Эффективность функционирования хозяйствующего субъекта неотъемлемо зависит от анализа и учета производственных затрат, так как от этого зависит формирование прибыли, расчет платежей в бюджет и размеры дивидендов. Правильность учета затрат на изготовление продукции лежит в основе определения реализационной цены и итоговой прибыли организации, что в свою очередь требует методы своевременного обнаружения ошибок во время этапов производства.

Аудит затрат на производство и калькуляции себестоимости является трудоемким процессом и требует определенных знаний нормативных документов и инструктивных материалов. Учет затрат и выбор методов расчета себестоимости продукции напрямую зависит от отрасли и вида производства, технологического процесса, диверсификации продуктовой линейки, структуры организации, а также других аспектов, которые в свою очередь влияют на порядок проверки.

Во избежание ошибочного подхода к аудиту производственных затрат, все процессы целесообразно выполнять соответственно всех условий, которые определяют направление конкретного хозяйствующего субъекта.

МАТЕРИАЛ И МЕТОД

Учет затрат на производство в научной литературе был рассмотрен несколькими экономистами в совокупности с фальсификацией данных финансовой отчетности.

С точки зрения Сафоновой и Сильченко (2018), увеличение случаев фальсификации финансовой отчетности является серьезной проблемой, препятствующей формированию эффективной системы контроля деятельности организаций [3].

Соловьева и Соколова (2014) считают, что мошенничество с финансовой отчетностью часто является причиной банкротства компании, и выделяют необходимость в обнаружении очага фальсификации финансовых показателей [4].

Согласно Звягину (2013), оценка достоверности и надежности данных финансовой отчетности занимает особенное место в обнаружении противоправных действий, а объективность результатов проверки на участках учета зависят от полноты и достоверности этих данных [5].

Методика аудита представляет собой действия, выполняемые аудитором, для формирования мнения о достоверности бухгалтерского учета хозяйствующего субъекта, подлежащего проверке. Методы организации аудиторской проверки и получения аудиторских доказательств выбираются непосредственно аудиторами. Существует несколько способов для проведения аудита, которые включают сплошную (детальная проверка всей первичной документации и сопоставление её с данными аналитического учета), выборочную (проверка участков документации интервалами, по таблице случайных чисел или комбинированным способом) и комбинированную (проверка с элементами сплошного и выборочного метода на разных участках работы) методики проверки.

Процедуры получения аудиторских доказательств согласно МСА 500 [2] подразделяются на тестирование средств контроля и проверку по существу, которая в свою очередь состоит из:

- Инспектирования материальных активов, документов и записей;
- Наблюдения за работой сотрудников хозяйствующего субъекта;
- Запроса информации, как у работников объекта проверки, так и у третьих лиц;
- Подтверждения достоверности бухгалтерских записей посредством получения запрошенной информации;
- Пересчета арифметических расчетов, содержащихся в первичной документации и бухгалтерских записях или самостоятельная калькуляция показателей;
- Аналитических процедур – анализа и оценки информации, полученной во время аудита.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Порядок аудита затрат на производство в общей сложности состоит из нескольких основных стадий:

Изучение центров затрат, таких как: счет 2010 “Основное производство”, счет 2310 “Вспомогательное производство”.

Определение соответствия функционирующей системы производства построенной схеме струк-

туры производства, которые могут не сходиться, что приводит к приблизительным, неточным, а иногда даже ошибочным расчетам.

Определение методов формирования себестоимости готовой продукции и незавершенного производства.

Определение состава производственных затрат и выбор элементов проверки. В основном элементы затрат включают в себя материальные расходы, расходы на амортизация, расходы по оплате труда и социальные отчисления работников производства, прочие расходы. [6]

В первую очередь необходимо изучить технологию и процесс производства продукции и выявить центры затрат. Необходимо определить особенности оформления документов по производственным операциям, наличие побочной продукции и возвратных отходов, способы оценки и учета продукции, организацию аналитического учета затрат, методику исчисления себестоимости продукции, процесс закрытия счетов затрат и т. д.

Высокие риски связаны с отсутствием контроля над расходом материальных запасов, таким как недостаточный надзор над нормами расхода, фактическое списание расходов, отсутствие анализа отклонений от норм. В данном случае необходимо действовать в данной последовательности:

Провести опрос специалистов организации по вопросам: срока последнего пересмотра способов расчета производственных расходов и наличия проведения при этом хронометража, технических замеров и др.; предусмотрения в расчетах потенциальной смены исходного сырья; сравнения фактического и планового расхода материалов; анализа источника отклонений.

Запросить документы, которые гарантируют осуществление контрольных мероприятий для снижения рисков излишнего расхода материалов, таких как бухгалтерские справки, описи инвентаризаций и т. д. Использование аудиторских инструментов, как анкеты с вопросами, опросники и тесты, имеют хороший эффект на данном этапе.

Если возможно, выполнить контрольные процедуры, как контрольный запуск сырья и контрольный замер выхода готовой продукции, при этом, используя метод выборочной проверки, полученные сведения за этот день нужно сравнить с данными за прошедшие дни. При возникновении существенных искажений между нормативными и фактическими объемами выхода продукции необходимо будет совершить сплошную проверку вышеуказанных документов за весь проверяемый период.

По окончании контрольных процедур следует сделать вывод о качестве контроля на проверяемом участке. При случае, когда в проверке было установлено, что внутренний контроль находится на должном уровне, в последующем возможен отказ от сплошной проверки документов в пользу выборочной.

Следующий этап представляет собой запрос информации по расчетам расхода материальных запасов, потраченных на единицу продукции, и методике их формирования. Для доказательства их достоверности аудитору следует совершить выборочный пересчет по методу калькуляции, выбранном самой организацией, и по общеотраслевой методики, чтобы исключить наличие существенных искажений, если таковые имеются ему следует получить разъяснения от работников бухгалтерской службы. Также следует быть внимательным к единицам измерения материалов и готовой продукции, так как это тоже может служить источником искажений в расчетах единицы продукции. Кроме этого необходимо провести выборочную арифметическую проверку расчетов расхода материалов на единицу продукции, сделанным отделом производства. Завершить этот этап нужно посредством сравнения данных о расходе ТМЗ, предоставленных бухгалтером и сотрудниками производства.

Более того, существует риск хищения сырья, когда фактический заклад сырья в продукцию не соответствует указанному в бухгалтерских документах количеству списания, и при таком раскладе необходимо найти виновных и взять с них объяснения в письменной форме.

Если в хозяйствующем субъекте отсутствует учет предела нормы траты сырья, аудитор имеет два способа определить это. Первый: восстановить учет израсходованного сырья по стоимости и количеству при помощи калькуляций и вычислить расход сверх нормы; второй: посредством контрольного запуска достичь уверенности в правильности норм расчета расходов на одну единицу продукции. Часто сверхнормативное потребление сырья объясняется его некачественного, что может быть проверенно при помощи лабораторных исследований.

Бывают случаи, когда после проверки выявляется расходы, которые по факту имели место быть, но не имеют отражения в записях учета. Это может произойти по двум причинам: в учете произошла ошибка, упущенная системой внутреннего контроля за счет незамеченного отсутствия потерянных документов, либо объемы были преднамеренно занижены для сокрытия нелегальной деятельности предприятия.

Аудит амортизационных расходов мероприятие нечастое, благодаря строго-контролируемыми государством нормами расчета исчислений на амортизацию, влияющего на уплачиваемый налог на прибыль, а также затруднениями при отдельных расчетах амортизации на налоговую и финансовую

отчетность и выбора в пользу линейного метода амортизации. На этом участке следует проверить, не применяются ли ускоренные или, наоборот, замедляющие нормы расчета амортизации и соответствия их нормативным актам. Также следует убедиться в наличие амортизируемых основных средств и осуществить их визуальную проверку.

Тем не менее, возможно проведение сплошной проверки данного вида затрат за проверяемый период, если выявлено, что амортизация была начислена не являющимся основными средствами или не подлежащим амортизации объектам.

Искажения могут быть выявлены по следующим основаниям: ошибка в расчете срока полезного использования основного средства; неправильное определение амортизационных отчислений; неверно выбранная продукция, на которую относятся расходы амортизации; неверно определенная группа основного средства; неправильно установленные дата начала и окончания начисления амортизации; начисление амортизации к не подлежащим амортизации средствам; употребление повышающих или понижающих показателей (коэффициентов) и другие.

Контрольно-проверочные мероприятия на данном этапе состоят из следующих пунктов:

- Получить информацию у сотрудников хозяйствующего субъекта о порядке, по которому определяется срок полезной службы основного средства, и о документах содержатся эти данные;
- Запросить документацию, которая указывает на лица, ответственные за определение срока полезной службы основных средств, которые были куплены за недавний срок;
- Принять участие в приеме и постановке на баланс организации основных средств, если такое событие будет проходить во время аудиторской проверки;
- Если возможно, еще раз провести контрольную процедуру;
- Сделать заключение о качестве внутреннего контроля на этом этапе учета.

После действий, указанных выше следует проверить список основных средств на производстве, выбрать по паре новых и старых объектов с целью проверки указанного в учетной документации срока их полезной службы и остаток времени запланированного пользования, своевременность присвоения инвентарных номеров, процесс их закрепления за материально-ответственным лицом, а также просмотреть инвентарные карточки и определить тонкости их заполнения на основе первичной документации. В данном этапе имеет место провести опрос ответственных лиц по вопросу определения срока использования, проверить наличие их подписей на документах; наряду с этим необходимо запросить у специалистов информацию о сроке эксплуатации данного вида основных средств при нормальных условиях и своевременном осмотре и ремонте и завершить сравнением полученных данных с записями учетной документации. Особую важность имеет хранение и целостность техпаспортов всех объектов на производстве.

В плане учета расходов на оплату труда существует строгий контроль государства за правильностью начисления заработной платы, как основы для отчислений страховых платежей, что послужило установлении определенного оклада и срока, подлежащего отработке. Кроме того, сами работники отдела производства заинтересованы в правильном начислении оплаты за совершенную работу и не оставят факт заметных отклонений без внимания. Из этих аспектов можно сделать вывод, что риск искажений возникает в ситуациях, находящихся за пределами регулирования налоговой инспекцией и производственными работниками, таких как: выдача оплаты труда “в конверте”, выплата неработающим на производстве лицам, сокрытие фактических данных посредством указания общепринятых расчетов.

Показателями некачественного учета расходов на оплату труда являются: отсутствие оптимизации численности работников, недостаточная для заинтересованности работников заработная плата, а особенным влиянием пользуется неверное отнесение расходов на себестоимость продукции и незавершенное производство.

В плане отчислений с расходов на заработную плату на социальные нужды, следует проводить выборочную проверку по определенным категориям работников. Так, при проверке работников вспомогательных подразделений существует риск обнаружения лиц официально числящихся в списке персонала, но на самом деле не работающие на данном предприятии.

Мероприятия по контрольно-проверочным процедурам включают:

- Проверку учета сверхурочных работ, регламента фиксации и оплаты таких работ, наличие лиц, ответственных за анализ потерь от оплаты таких работ и прочего;
- В случае, когда предприятие выполняет работы или оказывает услуги, исключить отнесение расходов по оплате труда в расходы одного, а признание дебиторской задолженности за полученный сервис- в расходы другого отчетного периода и узнать какие решения имеются для избежания данной ситуации;
- Проверку системы заполнения табелей рабочего времени, наличия в нем ошибок и установление работников, ответственных за контроль качественности их заполнения;

- Проверка чета сверхурочных работ и лиц, контролирующих соответствие фактически отработанных часов указанным в табеле;
- Повтор контрольных процедур;
- Формирование вывода о качественности контроля на данном участке проверки.

Некоторые трудности вызывает повременная оплата труда персонала предприятия, в отличие от сдельной заработной платы, которую легче рассчитывать. В некоторых таких организациях принято использование листов учета времени работы, где сотрудник в период каждого интервального времени описывает совершенную им деятельность, а руководство и служба внутреннего контроля в последствие анализируют их.

Касаемо авансовых отчетов имеет место выборочно проверить пару командировочных документов разных работников и сверить их даты с данными табелей учета рабочего времени с датами командировочных дней. Кроме того, при проведение аудита командировочных расходов, следует обратить внимание на нормы расходов в сутки и аренды жилого помещения, срок сдачи авансового отчета в службу бухгалтерского учета, указанный в приказе список лиц с правом получения подотчетных средств, подтвержденный перечень предприятий для совершения закупа материалов, наличие всей необходимой документации по хозяйственным и командировочным издержкам.

Не успев начать аудит прочих расходов, важно не ошибиться в выборе цели проверки: найти доказательства предполагаемой фальсификации данных либо проверка официальной части расходов. Для этого нужно:

- Запросить Главную книгу по счету 2500 “Общепроизводственные расходы”, сделать анализ состава расходов, установить самые наиболее весомые или регулярно повторяющиеся средние расходы и запросить документы на эти расходы;
- Установить степень существенности расходов, совершить оценку рисков их фальсификации, убедиться в действительности получения проверяемым объектом услуг;
- Узнать у сотрудников организации о том, как возникает потребность в определенных расходах, кто ответственен за инициативу их возникновения, предусмотрено ли бюджетом организации их возникновение, как были привлечены организации для исполнения отнесенной к расходам деятельности и кто ответственен за переговоры и выбор исполнителей, указано ли это в документации, как проходил процесс приема выполненных работ, имелись ли недостатки и записи о них.

Заключить мнение о процессе принятия решений в плане весомых затрат [7].

На данном этапе применяются процедуры проверки по существу для установления потенциального факта фальсификации расходов. Это может быть подтверждено неимением детальной инженерной документации, и приема совершенной работы сразу без каких-либо претензий, нежелание и настороженность работников при ведении дискуссий на данные вопросы и отказ от посещения подлежавшего ремонту объекта и т. д. При данном этапе эффективно будет одновременно проверить и организацию-исполнителя.

ОБСУЖДЕНИЕ И ВЫВОДЫ

Аудит учета производственных затрат является процессом, который занимает немалое количество времени и усилий. На этом участке проверки аудиторам следует быть очень внимательными и осторожными, дабы не упустить важные моменты, скрывающие ложные показатели и искажения в данных, перетекающих в последующем в итоговый финансовый результат хозяйственной деятельности аудируемого субъекта. Так как следует помнить, что общепроизводственный расходы представляющие собой основную часть себестоимости продукции, также имеют существенный вес и в расчетах окончательного показателя (прибыли или убытка) за проверяемый период.

По итогам проанализированной информации можно сделать несколько заключений:

- Основные нарушения в учете затрат на производство зависят от некачественной системы внутреннего контроля.
- Ошибочные мероприятия при учете таких затрат могут послужить причиной искажений себестоимости произведенной продукции и конечном финансовом результате.
- Ошибки в расчете себестоимости продукции имеют особую значимость на данном этапе учета.
- Аудит данного участка учета имеет комплексную составляющую, включающую в себя документальную проверку и проведение контрольных мероприятий.
- Для проведения данной проверки требуются специалисты, имеющие достаточный опыт и знания нормативно-правовых актов, особенностей бухгалтерского учета и аудита данного участка проверки.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы” https://lex. uz/docs/5841077
2. Международный стандарт аудита 500 “Аудиторские доказательства”
3. Сафонова И. В., Сильченко А. Д. Фальсификация финансовой отчетности: понятие и инструменты выявления. Учет. Анализ. Аудит. 2018; 5(6):37-49. DOI: 10/26794/2408-9303-2018-5-6-37-49
4. Соловьева О. В., Соколова И. В. Фальсификация финансовой отчетностикак способ финансового мошенничества. Аудит и финансовый анализ. – 2014. - №5. – стр. 173-180.
5. Звягин С. А. Экономико-криминалистический анализ отчетных данных в рамках бухгалтерской экспертизы. Экономический анализ: теория и практика. – 2013. - №42(345). – стр. 57-64.
6. Гаджиев Н. Г., Коноваленко С. А. “Типичные ошибки и нарушения, выявляемые в учете затрат на производство и исчисление себестоимости продукции (работ, услуг)” (2020) Вестник Дагестанского государственного университета, 35(3), стр. 7-19. DOI:10. 21779/2500-1930-2020-35-3-7-19.
7. Контроль и ревизия. Практикум: учебное пособие/ Гаджиев Н. Г. и др. – М.: ИНФРА-М, 2021. – 321 с.

TA'LIM ISLOHOTLARINING MA'NAVIYATDAGI O'RNI



Bekdavlat Aliyev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi" professori, f.f.d.

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ilm-ma'rifat va ta'limning sifatisiz tasavvur etib bo'lmasligi, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi va uning ma'naviyatdagi o'rni borasida so'z yuritiladi.

Sifatli ta'lim-tarbiya ma'naviyatning rivoji va shaxs xulq-atvorida muhim ahamiyatga ega ekanligi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ilm-ma'rifat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor.

Abstract: The article talks about the fact that the development of New Uzbekistan cannot be imagined without the quality of science and education, that the development of education is the first task in developed countries today, and its role in spirituality.

It has been thoroughly analyzed that quality education is important for the development of spirituality and personality.

Key words: New Uzbekistan, knowledge, spirituality, education, behavior.

Аннотация: В статье говорится о том, что развитие Нового Узбекистана невозможно представить без качества науки и образования, о том, что развитие образования является сегодня первоочередной задачей в развитых странах, и его роли в духовности.

Тщательно проанализировано, что качественное образование важно для развития духовности и личности.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, знания, духовность, образование, поведение.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston islohotlarida ham ta'lim-tarbiya berish faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati uzoqni ko'zlagan yuksak maqsadlarimizni namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz intellektual bilim-salohiyatli bo'lishi, mustaqil hayotga qadam qo'yganda munosib hayot kechirish, kasb-hunar egallab doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik hamda barkamollikka erishish uchun ta'lim olishni eng asosiy hal qiluvchi sifatida qabul qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xalqaro qo'shma dsturlar integratsiyalashtirish bo'yicha amaliy ishlar hayotga tatbiq qilinmoqda. Jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha belgilab berildi. Jumladan,

1) maktabgacha ta'lim sohasida;
2) umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
3) oliy ta'lim;
4) oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi tamoyillardir.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida boshlanishi istiqbollidir.

Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunni keltirishimiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o‘xshash masalalar belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, yurtimizda ilk bor Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ham tashkil etilganligi ushbu sohadagi asosiy islohotlardan biri bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga lisenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Ushbu Qonun bilan 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “farzandlari-miz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asos-langan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”[1].

Yangi O‘zbekistonda ta’lim islohotlarini amalga oshrishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni[2]ga muvofiq, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi qabul qilinishi yangi bosqichni boshlab berdi. Farmonga asosan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 300-sonli qarori qabul qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida jami 5 ta ustuvor yo‘nalish, 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko‘rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu dasturilamal hujjatning ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma’naviy manfaat yetib, har qaysi oila va xonadon obodlik, to‘kinlik, fayz va baraka topadi.

Birinchi ustuvor yo‘nalish: Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan 44 ta maqsad, ya’ni 1-maqsaddan – 44-maqsadgacha ushbu ustuvor yo‘nalish tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma’naviyat masalalariga taalluqli 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta vazifa qamrab olingan bo‘lib, 130 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish belgilangan. Shuningdek, 38 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash va qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Masalan, Qonunchilikda o‘qituvchilarga berilgan ayrim imtiyozlar mavjud:

- 1-oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” etib belgilangan hamda ushbu kun bayram (dam olish) kuni hisoblanadi.
- Bolalarga ta’lim-tarbiya beradigan barcha pedagog xodimlar doimiy ravishda bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.
- Pedagoglar uchun 56 kunlik yillik haq to‘lanadigan uzaytirilgan ta’tillar beriladi.
- Pedagoglar xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga ko‘pi bilan 36 soat qilib belgilanadi.
- Maktab o‘qituvchilariga faoliyatni baholash mezonlari asosida 10 foizdan 40 foizgacha, kutubxonachi va psixologlarga 10 foizdan 20 foizgacha ustama belgilanadi.
- Fan olimpiadasi g‘olibini tayyorlagan o‘qituvchilar rag‘batlantiriladi.
- O‘qituvchilar kasal bo‘lib qolganida moddiy yordam beriladi.
- Olimpiada g‘olibi bo‘lgan o‘qituvchilarga 150 foizgacha ustama beriladi.

1 Yangi O‘zbekiston https://www.yuz. uz_news–talim-tizimi-va-yangicha-yo
2 PF–158-son 11.09.2023. – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. https://lex.uz.docs

- O‘zi dars beradigan fani bo‘yicha xalqaro tan olingan va milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lanadi.
- “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovi g‘olibi bo‘lgan maktabga yarim milliard so‘m beriladi.
- Inklyuziv sinf o‘qituvchilariga 40 foizgacha ustama beriladi.
- Olis hududlarda dars berayotgan o‘qituvchilarga 50 foizgacha ustama beriladi.
- Matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha xalqaro va respublika olimpiadalari g‘oliblarini tayyorlagan professor-o‘qituvchilarga pul mukofoti beriladi.
- Ko‘p yillik stajga ega pedagoglar majburiy attestatsiyaga jalb qilinmaydi.
- Xalqaro fan olimpiadalarini tayyorlagan o‘qituvchilarga malaka toifasi attestatsiyasiz beriladi.
- Respublika fan olimpiadasi g‘oliblarini tayyorlagan o‘qituvchilar malaka toifasi bir pog‘ona oshiriladi.
- Tibbiyot sohasi professor-o‘qituvchilariga davolash-tashxis ishlarini bajarganliklari uchun qo‘shimcha haq to‘lanadi.
- Ta’lim muassasalarining chet tillar fanlari o‘qituvchilariga oylik ustamalar beriladi.
- O‘qituvchilarning faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik bor bo‘lib, u qonun bilan kakfolatlab qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston aynan maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, mamlakat taraqqiyoti ilm-fan va innovatsiyaga tayanadi. Zero, maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz esa yangi Uyg‘onish davri, globallashuv davrida mamlakatimiz raqobatbardoshligining to‘rt tayanch ustunidir.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim-tarbiya sohasi – maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qisqa muddatda ta’lim-tarbiya sohasi tubdan o‘zgartirilgani:

- bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 72 foizga olib chiqilishi;
- maktab ta’limida qo‘shimcha 700 ming o‘quvchi o‘rni yaratilishi, 200 ga yaqin mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar hamda 400 ta xususiy maktab tashkil qilinishi;
- matematika-fizika va kimyo-biologiya fanlarini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi va amalga oshirilishi;
- ta’limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg‘or xorijiy tajribalar asosida to‘liq yangilanishi, maktablarga minglab xorijiy muallimlar olib kelinishi, murabbiylar mehnatiga munosib haq to‘lash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilishi;
- yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2022-yilda 38 foizgacha – 4,2 barobar, oliy ta’lim muassasalari soni esa 3 barobar (77 tadan 210 taga) oshgani, 65 ko‘proq nodavlat OTM tashkil qilinishi (2016 yilda umuman bo‘lmagan), xorijiy OTM filiallari soni 4,2 barobar ko‘payishi kabilar bu borada amalga oshirilgan ishlar ko‘lamidan darak beradi.

Natijada bugun qancha-qancha oddiy oilalar farzandlari xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lmoqda, 1 milliondan ortiq yigit-qizimiz oliy ta’limda tahsil olmoqda (2016 yilda 270 ming nafar), nufuzli xorijiy oliygohlarga kirmoqda. Ularning ota-onalari quvonchi cheksiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan ishlar debochasidir. Bugun ta’lim sifatini yanada oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Xalqaro ekspertlar bilan o‘tkazilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, bugun hayotimizdagi mavjud sharoitlar bolalarga faqat 60 foiz salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkon bermoqda.

Birinchidan, 2030-yilga qadar maktabgacha ta’limga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qoplab, qamrovni 100 foizga yetkazish va bog‘chalarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish. Ushbu maqsadda:

- 7 foizlik stavkada 10 yil muddatga kredit berish uchun imkoniyat yaratilib, ishlab chiqarish korxonalarining bog‘cha qurishga sarf etiladigan xarajatlarini soliqlardan to‘la ozod qilish tartibi ishlab chiqiladi;
- 2030-yilga qadar qo‘shimcha 2 mingta bog‘cha qurish choralari ko‘riladi;
- ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bog‘cha, jumladan, xususiy bog‘cha xarajatlari davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etiladi;
- har bir bog‘chani kompyuter sinfi bilan ta’minlash choralari ko‘riladi. Bu, o‘z navbatida, bolalarni erta yoshdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalariga o‘rgatishga va ularning kelajakda yuksak salohiyatga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bog‘cha va maktablar infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, filtrlangan ichimlik suv, sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to‘liq ta’minlash hamda bolalarning sog‘lom ovqatlanishiga ko‘maklashish maqsadida ularga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut va yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Ikkinchidan, maktablarda qo‘shimcha 2,5 million o‘quvchi o‘rnini yaratgan holda ta’lim sifati tubdan yaxshilanadi. Shu maqsadda:

- “Yiliga 500 ming o‘quvchi o‘rni” dasturi ishlab chiqilib, amalga oshiriladi;
- xususiy ta’limga qo‘shimcha yengilliklar berilib, davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida maktablar qurish keng joriy etiladi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim planshetlari bilan to‘liq ta’minlanadi va buning uchun zarur moliyaviy imkoniyatlar yaratiladi;
- chekka hududlarda “maktab avtobuslari” bepul yo‘lga qo‘yiladi;
- 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda “Iste’dod – Intilish – Istiqbol” nomli ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilib, ularda Prezident maktablaridan kam bo‘lmagan sharoit yaratiladi va ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun 70 foiz kvota ajratiladi;
- barcha maktablarga “til egalari” bo‘lgan o‘qituvchilar jalb qilinadi, bu maqsadlarga har yili 200 milliard so‘m mablag‘ ajratish choralari ko‘riladi. Zero, xorijiy tillarni bilish – yoshlarimiz uchun dunyo eshiklarini ochadigan kalit.

Uchinchidan, oliy ta’lim va ilm-fan tizimlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish. Shu maqsadda:

- dunyodagi “Top–500”ga kiradigan chet el oliygohlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma o‘quv dasturi va “ikki diplomli tizim”ni (“double degree”) joriy etish asosiy vazifa bo‘ladi. Bugungi kunda jahonning (AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Indoneziya, Isroil va boshqa qator davlatlar) nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikdagi “double degree” ta’lim dasturlari asosida o‘qitish qamrovi kengaymoqda.

Bu jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi zarur mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda;

- biotexnologiya, sun’iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo‘nalishlarda iste’dodli yoshlarni eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o‘qishga yuborish bo‘yicha 200 million AQSh dollarilik dasturlar amalga oshiriladi. Ushbu tashabbuslar dunyoning aksariyat mamlakatlari “To‘rtinchi sanoat inqilobi” arafasida turgan bir paytda O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi;
- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga 1 milliard AQSh dollari ajratilishi uchun moliyaviy imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Shuningdek, madaniyat, san’at va adabiyot vakillari, ma’naviyat sohasi xodimlari, barcha ziyolilarning mashaqqatli va sharafli mehnatini qadrlash va rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rib boriladi[3].

Kelgusi 7 yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi mazkur dasturilamal hujjatlar xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlashga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining maqsadi – qayerda istiqomat qilishidan qat’i nazar O‘zbekistonda yashovchi barcha insonlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat. Unda Strategiyaning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari qulay shaklda ifodalangan bo‘lib, unda 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsad nazarda tutildi. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish ana shular jumlasidandir.

3 Ustuvor maqsadimiz – insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish O‘zLiDeP https://uzlidep. uz › Partiya yangiliklari

Qayd etish kerak, strategiyaning salmoqli qismi aynan butun O‘zbekiston bo‘ylab, shu jumladan, olis joylar va hududlar aholisining turmush darajasi hamda sharoitlarini tenglashtirishga, shu bilan birga, ta’lim sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilgani bilan e’tiborga molik.

Chunonchi, dasturilamal hujjatga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvardan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo‘lga qo‘yiladi. Bu, o‘z navbatida, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodning har jihatdan sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘ayishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bolalar o‘rtasida turli xastaliklar bilan kasallanish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki farzandlarimiz sog‘lig‘iga o‘z vaqtida ko‘proq e’tibor qaratilsa, bu ko‘zlangan samarani beradi.

Shuningdek, Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim planshetlari bilan ta’minlanib, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Umumiy o‘rta ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2030-yilgacha 208 ta “Iste’dod-Intilish-Istiqbol” maktab-internatlarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Strategiyada barcha shahar va tumanlarda “shart-sharoitlari Prezident maktablarinikidan kam bo‘lmagan” ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Aytish kerakki, bolalarga intellektual qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda alohida ta’lim berilishi (tracking) “qobiliyatli” bolalarni yaxshiroq rivojlantirish, o‘qitish davomida ularning ehtiyojlarini hisobga olish va umuman, ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Strategiya doirasida 2023–2024-o‘quv yilida butun mamlakat bo‘ylab 120 dan ortiq maktabda, tajriba tariqasida, yuqori sinflar uchun tanlov fanlarini joriy etish nazarda tutilgan. Yoshlar va sportga oid davlat siyosati islohotlari doirasida maktab bitiruvchilarining kamida ikkita chet tili va bitta kasb-hunarni puxta egallashiga erishish aks etdi.

Hujjatda, shuningdek, ta’lim sohasidagi ko‘plab tadqiqotchilar va amaliyotchilar, umuman, barcha uchun sifatli ta’lim olishning teng imkoniyatlari yaratilishi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga yanada yaxshiroq hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ustuvor maqsadimiz – insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish O‘zLiDeP https://uzlidep.uz_Partiya yangiliklari
2. Yangi O‘zbekiston https://www.yuz.uz_news_talim-tizimi-va-yangicha-yo
3. PF–158-son 11.09.2023. – 2030” strategiyasi to‘g‘risida LEX. UZ https://lex.uz_docs
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022 y, 6-son). www.lex.uz
5. PQ–5129-son 27.05.2021. Osiyo taraqqiyot banki va ... https://lex.uz_docs
6. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish ... https://lex.uz_acts
7. https://lex.uz_docs... va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi. ... Xususan, Jahon Bankining “Ayollar, biznes va qonun indeksi”da 190 ta mamlakat ...
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y, 6-son). www. lex,uz.
9. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 461 b.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y, 6-son). www. lex,uz.
10. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 508 b.

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI EMISSION OPERATSIYALARINING DOLZARB MASALALARI

O‘ktamova Nozima Narzulla qizi
PhD, TMI “Bank ishi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari emission operatsiyalarining ilmiy-nazariy jihatlari, emission operatsiyalarning zaruriyati va bugungi kundagi holati tadqiq etilgan. Shu bilan birga, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklari emission operatsiyalarining xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, fond bozori, tijorat banklarining emission operatsiyalari, emission operatsiyalar samaradorligi.

Abstract: The scientific-theoretical aspects of emission operations of commercial banks, necessity of emission operations and their current status are studied in the article. At the same time, as a result of the conducted research, the following scientific conclusions were formed regarding the characteristics of the emission operations of commercial banks.

Key words: commercial banks, stock market, emission operations of commercial banks, efficiency of emission operations.

Аннотация: В статье исследованы научно-теоретические аспекты эмиссионных операций коммерческих банков, необходимость проведения эмиссионных операций и их современное состояние. При этом в результате проведенного исследования были сформированы следующие научные выводы относительно особенностей эмиссионных операций коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, фондовый рынок, миссионные операции коммерческих банков, эффективность эмиссионных операций.

KIRISH

Ayni paytda, turli xil makroiqtisodiy va moliyaviy muammolar ta’sirida jahondagi barcha davlatlar iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashmoqda. Jumladan, ishsizlar sonining o‘sishi, ishlab chiqarish va eksport hajmining pasayishi, to‘lov balansi, byudjet taqchilligi va tashqi qarzlarning o‘sishi, xalqaro fond bozorlaridagi tendensiyalar, o‘z navbatida, bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish hamda tijorat banklarining xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish zaruratini tug‘dirdi. Jumladan, Dow Jones indeksi 2008-yil sentyabridagi 11133,6 banddan 2009-yilning martida 35 foizgacha, ya’ni 7235,5 bandgacha pasaygan bo‘lsa, 2022-yilning 6-dekabrida 33947,10 bandgacha ko‘tarildi. Bu esa, inqirozdan oldingi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada, ya’ni uch baravar yuqoridir[1].

Tijorat banklari asosiy moliyaviy vositachilar sifatida bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakatlarda yuqori inovatsion va raqamli texnologiyalar asosida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Tijorat banklari o‘zlarining rivojlanishi jarayonida moliya bozorida, ssuda kapitallari bozorida, qimmatli qog‘ozlar bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining asosiy ishonchli moliyaviy hamkoriga aylanib ulgurdi.

O‘zbekistonda ham MDH davlatlari kabi kapital bozori rivojlanmaganligi va iqtisodiyotdagi ulushi pastligi, investitsiyalarni jalb etishda deyarli ahamiyatga ega emasligi aksiyadorlik jamiyatlari kapitali qiymatini baholashning zamonaviy usullaridan foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida davlat va xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud bo‘lgan ayrim aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif asosida realizatsiya qilish vazifasi alohida belgilab berildi[2].

1 https://www. dowjones. com/

2 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5635-son farmoni, 2019-yil 17-yanvar.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Xalq banki”, “Qishloq qurilish bank” “Mikrokreditbank”, “Agro bank”, “O‘zmilliybank”ning aksiyalarini 2023-yilga qadar fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish bo‘yicha “yo‘l xarita” ishlab chiqish belgilangan.

Davdat dasturida davlat ulushiga ega bo‘lgan banklar transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi “yo‘l xarita”da belgilangan[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti va bank tizimi faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyotida iqtisodiy va investitsion faollikni oshirishda, iqtisodiyotni, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda bank tizimining o‘rni beqiyosdir. Chunki, tijorat banklari moliyaviy vositachilar sifatida iqtisodiyotda vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jamlab, ularga muhtoj bo‘lgan tarmoqlarga, korxonalarga va aholi qatlami orasida taqsimlaydi. O‘z navbatida, tijorat banklari qimmatli qog‘olar emissiyasi hisobiga o‘z kapitallari miqdorini muntazam ravishda oshirib boradi va shu asosda banklarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib, to‘lovga qobilligi va likvidliligi oshib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari emissiya faoliyati albatta milliy va xalqaro fond bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining moliyaviy vositachilari bo‘lgan tijorat banklari, bank innovatsiyalari, emmission faoliyati va fond bozoridagi o‘rniga oid masalalar borasida iqtisodchi olimlar o‘z nazariy qarashlarini namoyon qilishgan. Jumladan, taniqli zamonaviy xorijlik iqtisodchi olim Piter S. Rouzning fikriga ko‘ra: “Bank – bu moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladigan, jamiyatning pul mablag‘larini professional boshqarib turadigan, shuningdek iqtisodiyotda ko‘pgina funksiyalarni bajarib turadigan firmadir”[4]. Darhaqiqat, tijorat banklari har qanday mamlakatda moliyaviy vositachi sifatida turli bank xizmatlarini ko‘ratadi. Chunki ular o‘z va jalb qilingan mablag‘lari hisobiga pul mablag‘larini muhtoj bo‘lgan mijozlarga risk asosida kredit shaklida beradi va foyda oladi. Shu bois Piter S. Rouz banklarni ko‘pgina funksiyalarni bajaradigan firma sifatida asosli ravishda e’tirof etgan.

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan biri O. I. Lavrushin xususan: bank innovatsiyalari “– bu yangi texnologiyalar sohasida bank maqsadlari va bank faoliyati natijasiga oid sintetik tushunchasi bo‘lib, mijozlardan qulay shartlarda bank resurslarini shakllantirish va joylashtirish aosida qo‘shimcha daromad olishga yo‘naltirilgan yangiliklar asosida foyda olishdir”, deb ta’kidlaydi[5]. Prof. O. I. Lavrushin bank innovatsiyalarini foyda olish bilan bog‘laydi. Chunki, bizning nazarimizda har qanday yangilik ham innovatsiya bo‘lavermaydi. Innovatsiya bo‘lishini uchun yaratilgan har qanday mahsulot yoki ko‘rsatilayotgan xizmat pirovard natijada foyda olib kelishi kerak. Ana shundagina bu yangilikni innovatsiya, deb aytish mumkin.

Shu bilan birga mahalliy olimlarimiz qimmatli qog‘ozlar bozori va tijorat banklarining turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, prof. Sh. Shoxa’zamiy “Qimmatli qog‘ozlar bozori strategik rivojlanishining metodik asoslari” mavzusida, professor A. Omonov “Bank resurslarining tarkibi moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish”, dotsent F. Muxamedov “Qimmatli qog‘ozlar savdo tizimlari”, dotsent U. Ortiqov, “Bank resurslari va ularni boshqarish”, PhD I. Jo‘rayev “Bank depozit bazasini mustahkamlash”, PhD X. Tillayev “Banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati” mavzulari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xalqaro amaliyotiga muvofiq iqtisodiy adabiyotlar tadqiqidan xulosa qilish mumkinki, emissiya operatsiyalari – bu tijorat banki tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish opreratsiyalaridir. Jumladan, tijorat banklarining obligatsiyalari – obligatsiyani chiqargan bank va (kreditor) obligatsiya egasi o‘rtasida qarz munosabatlarini tasdiqlovchi bu istalgan qimmatli qog‘oz. Bizning nazarimizda, tijorat banklarining emision operatsiyalari deyilganda, bank tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish operatsiyalari tushuniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy tahlil, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlili, ma’lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo‘li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko‘rsatkichlar hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

3 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz/uz/docs/–5841063

4 Питер С. Роуз. Банковский менеджмент. – М., 2007

5 О. И. Лаврушин, Н. И. Валенцева [и др.]; Банковское дело: под ред. О. И. Лаврушина. – 12-е изд., стер. – М.: Кнорус, 2016. – 752 с.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari emission operatsiyalari bir qator maqsadlarni o‘zi ichiga qamrab oladi. Bizning nazarimizda, ular quyidagilardan iborat. Ular bank aktivlariga joylashtirilgan qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish, qarz kapitali tarkibini oqilonalashtirish manbaalari sifatida harakatda bo‘ladi. Kredit tashkiloti tashkiliy-huquqiy maqomini aksiyadorlik shakli sifatida rasmiylashtiradi. Uchinchidan, ular bank boshqaruvida ishtirok etishni ta’minlaydigan aksiyalarga egalik qilish orqali nazorat tizimini shakllantiradi va muomaladagi fond vositalari orqali bank mijozlariga qo‘shimcha bank xizmatlarini ko‘rsatishni ta’minlaydi[6].

Ta’kidlash joizki, kredit tashkilotlari – emitentlar oddiy va imtiyozli bo‘lishi mumkin bo‘lgan faqat ro‘yxatdan o‘tgan aksiyalarni chiqarishga haqlidirlar. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning umumiy qiymati kredit tashkilotining ro‘yxatdan o‘tgan kunidan boshlab ustav kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

O‘zbekistonda ham MDHning ayrim davlatlaridagi kabi tijorat banklarining fond bozoridagi salmog‘i va banklarning qimmatli qog‘ozlari emissiya operatsiyalari nihoyatda kiichik. Biroq, tijorat banklarining likvidliligini oshirish, ularning xavfsizligini ta’minlash, bank xizmatlari ko‘lami va raqobatbardoshligini oshirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va ishonchililigi bilan bog‘liq bir qator masalalar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbliginii saqlab qolgan. Xususan, “bank xizmatlari iste’molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish madaniyati va bank tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar”[7] bu borada ko‘plab masalalar o‘zining dolzarbligini saqlab qolayotganligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda, tijorat banklari kapitali tarkibida davlat ulushining yuqoriligi (86,5%), jalb qilingan mablag‘lar tarkibida depozit mablag‘lar ulushining pastligi (37,4%), bank resurslari tarkibida qimmat mablag‘lar ulushining yuqoriligi (50,2%) kabi holatlar ularning xizmatlari raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozir mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati mavjud. Ularning jami kapitali qiymati 59,43 trln. so‘mga teng 6,29 mlrd. dona aksiyadan iborat. 2017-yilga nisbatan solishtirsak, yurtimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini emissiya qilishning umumiy hajmi 10,84 trln. so‘mga ortgan. 2018-yil davomida esa, umumiy miqdori 198,6 mlrd. so‘mlik obligatsiyalar 9 ta aksiyadorlik jamiyati tomonidan kapital bozoriga muomalaga chiqarilgan[8].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda fond bozoring YaIMdagi salmog‘i atigi 6 foizga yaqin bo‘lib, u taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko‘rsatkichdan sezilarli darajada pastdir. Bu esa, mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar va fond bozorining rivojlanmaganligidan hamda ushbu bozorlarda tijorat banklari ishtirokining nihoyatda sustligidan dalolat beradi. Shu sababli, mazkur masalada mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklari emission opreatsiyalarining hajmi va samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2021–2023-yillarda aksiyalari fond birjasi orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan korxonalar ichida 5ta yirik tijorat banklari xususiylashtirilishi belgilangan[9].

Xalqaro moliya institutlari ko‘magida “Ipoteka-bank” ATIB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asaka” ATB, AT “Aloqabank”, “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish belgilangan[10].

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining Respublika fond birjasiga joylashtirilgan aksiyalari[11]

№	Emitent	Nominal qiymati	Ro‘yxatdagi aksiyalar soni
1	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	19	243 551 784 442
2	“Agrobank” ATB	1 168	7 323 094 968
3	“Hamkorbank” ATB	5	20 881 541 000
4	AITB “Ipak Yo‘li”	10	60 239 945 264

6 N. N. O‘ktamova “Tijorat banklari emission operatsiyalari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari”. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №4, avgust, 2021-yil. ISSN: 2181–1016.

7 PQ–3620-son 23.03.2018. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/3593541 (accessed Jan. 04, 2021).

8 “(No Title).” https://cbu.uz/upload/medialibrary/631/Markaziy-bankning-Statistik-byulleteni-_–2020-yil–9-oylik. pdf (accessed Jan. 04, 2021).

9 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. PF–5992-son 12.05.2020. (lex.uz)

10 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. PF–5992-son 12.05.2020. (lex.uz)

11 Ma’lumotlar “Toshkent” Respublika fond birjasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi. https://uzse.uz/isu_infos?page=3

5	AT “Aloqabank”	121	11 147 957 333
6	“Turonbank” ATB	1 700	868 057 456
7	“Trastbank” XAB	1 000	560 227 000
8	ATB “Universal bank”	5 000	30 000 000
9	“Mikrokreditbank” ATB	1 068	3 321 338 165
10	“Ravnaq-bank” AJ	1 000	100 000 000
11	“GARANT BANK” AJ	100	2 297 000 000
12	“Orient Finans” XATB	1 250	884 246 231

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlilarimizdan kelib chiqqan holda tijorat banklari emission operatsiyalarining xususiyatlari yuzasidan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik.

1. Bugungi kunda duyoning barcha mamlakatlarida tijorat banklari asosiy moliyaviy vositachilar sifatida yuqori inovatsion va raqamli texnologiyalar asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Tijorat banklari o‘zlarining rivojlanishi jarayonida moliya bozorida, ssuda kapitallari bozorida, qimmatli qog‘ozlar bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining aosiy moliyaviy hamkoriga aylanib ulgurdi.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari emissiya faoliyati albatta milliy va xalqaro fond bozorlari, qimmatli qog‘ozlar bozorlari bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, bank innovatsiyalari, banklarning emmission faoliyati, banklarning fond bozoridagi o‘rniga oid masalalar borasida iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.
3. Xalqaro amaliyotiga muvofiq iqtisodiy adabiyotlar tadqiqidan xulosa qilish mumkinki, emissiya operatsiyalari – bu tijorat banki tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish opreratsiyalaridir. Bizning nazarimizda, tijorat banklarining emision operatsiyalari – bank tomonidan o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish operatsiyalaridir.
4. Ta’kidlash joizki, xalqaro amaliyotda “fond bozori”ga nisbatan berilgan ilmiy ta’riflar borasida turlicha talqinlar mavjud bo‘lib, ular bir-biridan farqlanadi va yagona yondashuvni tashkil etmaydi. Masalaning yana muhim va qiziqarli jihati shundaki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotda “qimmatli qog‘ozlar bozori” va “fond bozori” tushunchalarining bir xil ahamiyatga ega ekanligi xususida iqtisodchi olimlar o‘rtasida hanuzgacha bahsli munozaralar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5635-sonli farmoni, 2019-yil 17-yanvar.
2. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. https://lex. uz/uz/docs/–5841063
3. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ–3620-son 23.03.2018. https://lex.uz/docs/3593541 (accessed Jan. 04, 2021).
4. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. PF–5992-son 12.05.2020. (lex.uz)
5. Лаврушин О. И., Валенцева Н. И. [и др.]. Банковское дело. // Под ред. О. И. Лаврушина. – 12-е изд., стер. – М.: Кнорус, 2016. – 752 с.
6. Питер С. Роуз, “Банковский менеджмент”, М. 2007.
7. O‘ktamova N. N. Tijorat banklari emission operatsiyalari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari.// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №4, avgust, 2021-yil. ISSN: 2181–1016.
8. Uzse. uz
9. Cbu. uz

MOLIYAVIY BARQARORLIGI TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL MOHIYATI, TURLARI VA ASOSIY TAVSIFLARI

Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich
Mustaqil izlanuvchi,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akdemiyasi

Annotatsiya: Maqolada turli xil yondashuvlar tasvirlangan moliyaviy barqarorlikning ta’rifi, kontsepsiyaning mohiyati ochib berilgan, shuningdek tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, SVP tahlili, ishlab chiqarish leveraji, marjinal xavfsizlik chegarasi, moliyaviy barqarorlikka ta’sir qiluvchi omillar

Abstract: The article reveals various approaches to the definition of financial stability, reveals the essence of the concept. The main factors influencing the financial stability of the organization are also considered and described.

Key words: financial stability, CVP-analysis, production leverage, safety margin, factors influencing financial stability.

Аннотация: В статье раскрыты различные подходы к определению финансовой устойчивости, раскрыта сущность понятия. Также рассмотрены и описаны основные факторы, оказывающие влияние на финансовую устойчивость организации.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, CVP-анализ, производственный леверидж, маржинальный запас прочности, факторы, влияющие на финансовую устойчивость.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning va uni oshirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat korxona moliyasini sog‘lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta’minlash.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, aloqa sohasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish va loyihalar mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish va uni kuchaytirish, bu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash davlat siyosati darajasidagi muhim masalalardan biriga aylandi.

Aloqa korxonalari taraqqiyoti va ular moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish o‘zaro bog‘liq muammolardandir. Mamlakatimizda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham yangi zamonaviy talablar asosida rivojlanish uchun muhim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari aloqa korxonalari taraqqiyotini rag‘batlantirishning muhim dastaklariga egadir. Bu narsa shu bilan bog‘liqki, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tarkibida mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi maqsadida aloqa korxonalari kelgusi innovatsion taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik mazmunini tushunishning turlicha yondashuvlari va variantlari uchraydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

I. A. Pavlova korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati “Uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta’minlashga imkon beradi” [1] G. V. Saviskaya moliyaviy barqarorlik – bu xo‘jalik yurituvchi subektning o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi, o‘z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to‘lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanadi [2].

I. N. Omelchenko, Y. V. Borisovalar “moliyaviy barqarorlik doimiy tarzda bozor konyunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida korxonaning o‘z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir” [3].

A. D. Sheremet moliyaviy barqarorlik qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi [4].

L. T. Gilyarovskaya, A. A. Vexorevalar Korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta’minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o‘sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi” [5].

A. Ivasenko moliyaviy barqarorlik – bu korxona faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, u o‘z mablag‘lari hisobidan rivojlanish qobiliyati bilan tavsiflanadi, shu bilan birga to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatliligini maqbul xavf darajasida saqlab qoladi [6].

E. A. Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta’sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta’kidlaydi [7].

T. S. Malikovxo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko‘rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi [8].

M. Q. Pardayev va B. I. Isroilov moliyaviy baqarorlikni korxona o‘z mablag‘lari va barcha mablag‘larning nisbati [9], A. B. Eshquvatov moliyaviy barqarorlik bu – korxonalarning umumiy barqarorligining tarkibiy qismi, pul mablag‘lari balansi, faoliyatini amalga oshirishdagi barcha resurslarning mavjudligi, shu jumladan, o‘z va qarz mablag‘larini samarali nazorat qilishi, faoliyatini uzliksizliligini ta’minlashdir

Xullas, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish orqali quyidagi xulosa qilish mumkin: mualliflar o‘rtasida “Moliyaviy barqarorlik” mazmuniga oid yaxlit ta’rif berilgani yo‘q; korxona moliyaviy barqarorligi nafaqat alohida olingan korxonalar, balki shu bilan bir vaqtda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi; barqarorlikni baholash nafaqat moliyaviy, balki umumiqtisodiy ahamiyatdagi muammolarni hal etish uchun ham birdek ahamiyatlidir.

Moliyaviy barqarorlik – korxona ixtiyorida bo‘sh pul mablag‘lari va moliyaviy oqimlarning balansliligining mavjudligi asosida korxonaning faoliyat yuritishi va uzluksiz ishlashini ta’minlash qobiliyatidir. Korxona uzluksiz ishlari tarkibiga nafaqat uning mahsulot ishlab chiqarishi, ish bajarishi yoki xizmat ko‘rsatishini, balki shu bilan birga olingan kreditlar bo‘yicha majburiyatlarning ijrosini ham kiritish lozim. Moliyaviy barqarorlik uzoq vaqt davomida korxonaning to‘lovga layoqatliligini xususiyatlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, omilli tahlil, sintez va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarining tahlili asosida korxona moliyaviy barqarorligining to‘rt xil turdagi asosiy ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1-jadval: Korxona moliyaviy barqarorligi asosiy ko‘rinishlari tavsifi

№	Korxona moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rinishlari	Moliyaviy barqarorlik turi tavsifi	Zahiralarni moliyalashtirish manbalari
1.	Mutlaq moliyaviy barqarorlik	Korxona mutloq tarzda tashqi kreditorlardan xolis va to‘lov qobiliyatining yuqori darajasiga ega	Barcha ishlab chiqarish zaxiralari o‘z aylanma mablag‘lari hisobidan qoplanadi
2.	Normal moliyaviy barqarorlik	Korxona to‘lov qobiliyati o‘z va jalb etilgan mablag‘lar hisobidan ta’minlanadi	Tovar operatsiyalari bo‘yicha kreditorlik qarzlari, o‘z aylanma mablag‘larining, ishlab chiqarish zaxiralarini qoplash uchun olingan bank ssudalarining summasi
3.	Nobarqaror moliyaviy barqarorlik	Qoplashning qo‘shimcha manbalari	Moliyaviy qiyinchilikni yumshatuvchi yoki ma’lum ma’noda normal asoslarga ega bo‘lmagan vaziyatda o‘z aylanma mablag‘lari hamda uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar
4.	Inqirozli moliyaviy holat	Korxonaning bankrotlik yoqasida turganligi	Pul mablag‘lari, qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar va debitorlik qarzlari hatto kreditorlik qarzlari va muddati o‘tib ketgan ssudalarni qoplash uchun ham yetmasligi

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili “Moliyaviy barqarorlik” tushunchasi mohiyatini tushunishga uch xil yondashuv mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchi yondashuv mazkur tushunchani tor ma’noda tushunishni izohlaydi va xo‘jalik subyekti moliyaviy holatining ko‘rsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi yondashuv vakillari esa, o‘z navbatida, ushbu tushuncha mazmunining talqinida asosiy e’tiborlarini korxona ishchan faolligi va ishonchliligi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxona hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati bo‘lmish moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar.

Va nihoyat, uchinchi yondashuv vakillari korxona moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog‘laydilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lsada, bu jarayonda ular davlat ko‘magiga muhtojdir. Hozirgi sharoitda iqtisodiy fan oldidagi muhim vazifalardan biri – korxonalari taraqqiyotining moliyaviy muammolarini, jumladan korxonalar moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan yo‘riqlarni ishlab chiqish hamda nazariy asoslashdir.

Korxonalar nafaqat iqtisodiy tadbirlar tizimini, balki faoliyatning turli jabhalariga oid muammolar bo‘yicha, jumladan, korxonalar tashkiliy shakllarini tanlash va ular ko‘lamini aniqlash, alohida tarmoqlarda korxonalar taraqqiyoti xususiyatlarini belgilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish va moliyaviy nazorat o‘rnatish uslubi asosida korxonalar xo‘jalik moliyaviy faoliyatini boshqarish kabi masalalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bu holat shu bilan belgilanadiki, korxonalar yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishning ko‘lami, xo‘jalik mustaqilligidagi xususiyatlariga ko‘ra nisbatan yangicha uslubiy yondashuvni talab etadi.

Ma’lumki, moliyaviy barqarorlikning umumuslubiy tamoyillari barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun yagonadir. Biroq, shu bilan birga mazkur tamoyillarning alohida tarmoqlar yoki xo‘jalik yuritish zvenolaridagi amal qilishi ularning o‘ziga xos, aniq, shart-sharoitlarga moslashuvini talab etadi. Bu yerda shu narsa hisobga olinishi lozimki, moliyaviy barqarorlik korxonalarning nafaqat mulk shakli va tashkiliy-huquqiy asoslariga ko‘ra, balki xo‘jalik faoliyatining ko‘lamiga qarab ham alohida xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shunga muvofiq tarzda moliyaviy barqarorlik mazmuni, obyektining ko‘lami, maqsadi va qo‘yilishi hamda moliyaviy holat, moliyaviy natijalarning baholanishi va talqin etilishi nisbatan farq qiladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash lozimki, korxona moliyaviy holatini tahlil qilish masalasi iqtisodiy holatning korxona holatiga bir muncha umumiyroq baho berish imkonini beruvchi korxona faoliyatining moliyaviy natijalari holatidan farqlanadi.

Moliyaviy barqarorlik tizimida korxona faoliyati moliyaviy natijalarining darajalari, dinamikasi va tarkibining holati alohida o‘rin egallaydi. Korxona faoliyatini xususiyatlovchi ko‘rsatkichlarning ko‘pligi ularni tizimli tarzda ko‘rib chiqishning ma’lum uslubiy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Mazkur ko‘rsatkichlarning turli iste’molchilar tomonidan turlicha maqsadlarda foydalanilishi ham tahlil chuqurligini qiyinlashtiradi. Masalan, korxona rahbarlarini olingan foydaning umumiy hajmi va tarkibi, uning miqdoriga ta’sir etuvchi omillar qiziqtiradi.

Moliyaviy holat tahlil qilinar ekan asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;
- mablag‘lar manbalari va joylanishini tekshirish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishda ishlatilganligini aniqlash;
- to‘lov majburiyatlarining o‘z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditor qarzlar tarkibini o‘rganish;
- korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘lari bilan qarz mablag‘lari o‘rtasida nisbatni va aylanma mablag‘larning manba bilan ta’minlanganligini tekshirish, moliyaviy intizomga qanchalik amal qilinishini aniqlash va to‘lov qobiliyatiga baho berish;
- korxona mulkining qadrliligi va tez pulga aylana olish darajasini o‘rganish;
- aylanma mablag‘lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha takliflar berish va h. k.

Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda to‘lovga layoqatlilikni mustahkamlashga qaratiladi.

Demak, bu jarayon mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Moliyaviy barqarorlikni bajarishda zarur bo‘ladigan ma’lumot manbalariga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari ma’lumotlari va shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik hisoblari ma’lumotlari ham kiradi, chunki keyingi yillarda tuzilayotgan moliyaviy hisobotlar umumiy hajmining keskin qisqarishi tahlil imkoniyatlarini birmuncha cheklashga olib keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozir korxonalar moliyaviy faoliyati sohasida muhim vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bu vazifalarni ijobiy hal etmay turib, samarali bozor iqtisodiyoti mexanizmini vujudga keltirib bo‘lmaydi. Hozir moliya-kredit resurslari, pul mablag‘lari aylanishining moddiy boyliklar harakatidan ajralib qolganligi, debitor-kreditor qarzlarining ko‘payib ketganligi – bu sohadagi eng katta kamchilikdir.

Korxonada noxush moliyaviy holatning dastlabki belgilariga quyidagilar kiradi: sotish hajmi o‘zgarmagan holda mehnatga haq to‘lash xarajatlarining o‘sishi; kreditor (hakdor)lar soniga nisbatan qarzdorlar sonining tezroq o‘sishi; sotish hajmi o‘zgarmagani holda moddiy zapaslar darajasining o‘sishi; korxona taraqqiyoti xarajatlari hajmining o‘sishi; sotish hajmining pasayishi; foiz stavkalari o‘rtacha bozor darajasining o‘sishi; maxsus qarzlarni qoplash uchun rezervlarning ortishi; o‘z faoliyati haqida noaniq tahminlar tuzish; qarzdorlar uchun to‘lov muddatining kechiktirilishi; ishlab chiqarish sikli muddatining ortishi; mahsulot sotish hajmi o‘zgarmagani holda sarmoyachilar uchunto‘lovlarning oshirilishi va h. k.

Korxona faoliyatiga oid ayrim boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi moliyaviy holatni qisqa muddatga yaxshilash imkonini beradi. Bunday tadbirlar tizimida qator dolzarb choralarni ajratib ko‘rsatish mumkin: korxona qarzlarining to‘lanishida to‘lov muddatlarining kechiktirilishiga erishish; ish haqi berilishida qat’iy tartib saqlash; ta’sischilar uchun dividendlarni qayta investitsiya qilish; soliq imtiyozlaridan foydalanish; imtiyozli qarzlarni jalb etish; ishlab chiqarish zapaslaridan moddiy boyliklar sotilishini ta’minlash; ortiqcha asosiy vositalarni sotish; boshqaruv-ma’muriy xodimlarini qisqartirish.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy ko‘rsatkichning boshqa ko‘rsatkichlar o‘zgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi korxona moliyaviy holatiga berilgan bahoni o‘zgartirishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlangan fikrlar korxona moliyaviy holatini sifatli baholashning naqadar murakkabligini anglash imkoniyatini beradi, shuning uchun rivojlangan bozor tizimi sharoitida korxonalar alohida investorlar, maxsus tashkilotlar qarorlaridan ko‘ra ko‘proq o‘zlarining xususiy kuzatishlari va tahlili natijalariga asoslanmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Павлова И. А. Финансы и кредит. // 2017 г., 23 (июнь) с. 71–75. “Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя”.
2. Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск, 2007. – 04 с.
3. Омельченко И. И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационноэкономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. – С. 65.
4. Шеремет, А. Д. Теория экономического анализа: Учебный курс. - 2-е изд.,107 перераб. и доп. / А. Д. Шеремет. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 365 с.
5. Гиляровская Л. Т, Вехорева А. А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. – СПб., Дело и сервис, 2013. – С. 13.
6. Ивасенко, А. Г. Факторинг: учебное пособие / А. Г. Ивасенко, Я. И. Никонова. – М.: КноРус, 2011. – 224 с.
7. Akramov E. A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – 64–85-betlar.
8. Malikov T. S. Moliya: xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O‘quv qo‘llanma / i. f. d., prof. A. V. Vahobovning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 254–257-betlar.
9. M. Q. Pardayev, I. T. Abdukarimov, A. A. Abdiyev, B. I. Isroilov Korxonalarda moliyaviy hisobotlar tazlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: Soliq Akademiyasi, 2008. – 78 b.

XX ASR JADID MA'RIFATPARVARLARI ABDURAHMON TOSHKANDIY VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY KONSEPSIYALARIDAGI UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK

Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich
Falsafa fanlari doktori (PhD), Guliston davlat pedagogika instituti
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniylarning risola shaklidagi asarlaridan yosh avlod tarbiyasida axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan axloq me'yorlarini tizimga solingan shaklda ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Jism, ruh, jasad, nafs, yaxshi xulqlar va yomon xulqlar, axloq fazilatlari, "Me'yor ul-axloq", "Turkiy guliston yoxud axloq", muqobil razilliklar, sirotol mustaqim (to'g'ri yo'l).

Abstract: From the works of Abdurahman Tashkandi and Abdulla Avloni in the form of a pamphlet, we can see that the moral standards necessary for the formation of moral qualities in the education of the young generation are in a systemized form.

Key words: Body, soul, body, soul, good and bad qualities, moral qualities, "Meyar ul-akhlaq", "Turkish Gulistan or morality", alternative virtues, sirotol mustaqim (the right way).

Аннотация: Из работ Абдурахмана Ташканди и Абдуллы Авлони в виде брошюры мы видим, что моральные нормы, необходимые для формирования нравственных качеств при воспитании молодого поколения, находятся в систематизированном виде.

Ключевые слова: Тело, душа, тело, душа, хорошие и плохие качества, нравственные качества, "Мейар уль-ахлак", "Турецкий Гулистан или мораль", альтернативные добродетели, сиротол мустаким (правильный путь).

KIRISH

Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniylar qoldirgan boy meros bevosita xalqimizning ma'naviy mulki hisoblanadi. Bu ma'rifatparvar ajdodlarimizning o'sha murakkab mustamlakachilik davrida shu darajada millatparvar bo'lib, fidoyilik bilan ijod qilgani, amaliy faoliyati orqali xalq ma'rifatini ko'tarishga munosib hissa qo'shganini yanada chuqurroq o'rganishimizga, ularning asarlaridan to'laligicha bahramand bo'lishimizga faqat istiqlol sharofati imkon berdi.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniyning axloq ilmiga oid asarlari talqinida ularning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilsak.

Toshkandiy aytadiki: "Inson 2 narsadan tashkil topgan: birinchisi – jism, ikkinchisi – ruh bo'lib, uni nafs ham deb ataydilar. Jismni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab his qilsa bo'lur, ammo ruhni zohiriy a'zolar yordamida ko'rib bo'lmaydi. Uni aql va basirat (ziyraklik, zakovat) ila bilish mumkindir. Shu boisdan insonning zohiriy surati xalq, botiniy surati xulq deb ataladi" [1:27-28].

Avloniy nazdida esa "Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'ladur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadur. Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydurgan, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur" [2:3].

Har ikki jadid ma'rifatparvarlar axloq zamiridagi xulqlarni ikkiga bo'ladi, ya'ni yaxshi xulqlar va yomon xulqlar.

Toshkandiy ta'rifiga ko'ra: "odamlarga insof-u adolat bilan muomala qilmoqlik ortidan kelib chiquvchi fazilatlar husni xulq yoki yaxshi xulqlar, bularni bajarishda g'aflat va tanballikka yo'l qo'yish ortidan kelib chiquvchi illatlar badxulq yoki yomon xulqlar" [1:20] deyiladi.

Avloniy esa "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat torib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub, "yaxshi xulq", agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonliqg'a tavsif bo'lub "yomon xulq" deb atalur" [2:4] deya ta'rif beradi.

Avloniy ta'biriga ko'ra "Yaxshi xulq: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afudir" [2:10].

Toshkandiy esa yaxshi xulqlar yoki axloqiy fazilatlarga biroz boshqacharoq yondashadi. U aytadiki: "Alloh taolo inson nafsini uch quvvatdan tarkib topdirgan: Fikriy quvvat (nafsi mut'mainna yoki nafsi malakiy), g'azabiy quvvat (nafsi lavvoma) va shahvoniy quvvat (nafsi ammora yoki nafsi bahimiy)" [1:30]. Buning zamirida "axloq fazilatlari ham uch sifat bilan murakkabdir: Hikmat, shijoat va iffat. Ba'zi hakimlar axloq fazilatlarini 4 qismga bo'lishgan va to'rtinchisini adolat deb qaror qilganlar" [1:35].

Shu o'rinda Toshkandiyning "Me'yor ul-axloq" va Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlarida yuqoridagi axloq fazilatlaridan har ikkalasida uchrayotgan shijoat, iffat va adolat tushunchalariga bergan ta'riflariga e'tibor qaratsak.

Toshkandiyda yuqoridagilarga quyidagicha yondashiladi: "Shijoat – buning sababidan kishi o'ziga xavf-u xatar yo'latmay botirlik ko'rsatadi. Mashaqqat va qiyinchiliklarga qaramay ularga qarshi kurashadi. Qalbiga qo'rquv yo'latmaydi. Shijoatning asosi g'azabiy quvvatni mo'tadillikda tutib turishdir.

Iffat – nafsni o'tkinchi shahvatlardan qaytarish asosidagi parhezkorlik oqibatida paydo bo'luvchi holat. Iffat asosini shahvoniy quvvatni o'rtacha tutib turishdir.

Adolat –harakatlardagi rostlik, to'g'rilik bo'lib, har narsaning holatini o'ziga muvofiq o'ringa joylashtirmoqlikdir. Adolatning asosini yuqoridagi quvvatlarni mo'tadil ushlab turish tashkil qiladi" [1:85].

Avloniyda esa yondashuv o'zgacha: "Shijoat deb botir va yurakli bo'lmakni aytilur. Shaji' kishi hech narsadan qo'rqmaydurgan botir va yurakli bo'lur. Sa'y va g'ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o'ldig'i kabi shijoatning ziddi qo'rqoqlikdur" [2:17].

"Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, harom - harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdur. Axloq sohibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton, moloya'ni kabi yomon so'zlardan saqlar" [2:30].

"Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilur. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Adolat va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'rmagan bir ishni o'zgalarga ravo ko'rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o'zi ila barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur" [2:42].

Fikrimiz yuqorisida axloq fazilatlari aksi o'laroq axloq razolatlari (yomon xulqlar)ga bo'linishini aytgandik.

Avloniy ham o'z o'rnida yomon xulqlarga quyidagicha to'xtaladi: "Insonlarning saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi zamimalar g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta'ma, zulmdir.

Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur" [2:45].

Toshkandiy yomon xulqlar borasida Avloniydan farqli o'laroq fikr bildiradi. U axloq razilliklari (yomon xulqlar)ni soni chegarasiz bo'lgani holda yuqoridagi fazilatlar (yaxshi xulqlar)ni to'rt qismga bo'lgani muqobilida razilliklarni ham to'rt qismga bo'lib taqsimlaydi:

- "Jahl (bilimsizlik) – hikmat muqobilida;
- Jabun (qo'rqoqlik) – shijoat muqobilida;
- Shirra (hirs, kuchli hirs) – iffat muqobilida;
- Javr (zulm) – adolat muqobilida" [1:43].

Shariat istilohida axloq fazilatlarini "sirotol mustaqim (to'g'ri yo'l)ga qiyos qilishgan. Qur'oni karimning birinchi surasi bo'lgan, har bir musulmonning kunlik namozlarida 17 martadan kam bo'lmagan Fotiha surasida quyidagicha duo ta'lim beriladi: "Bizni to'g'ri yo'lga boshlagin" (fotiha surasi 6 oyat)" [1:44-45].

Toshkandiy yuqorida fazilatning har ikki tomonidan egri chiziqlar ya'ni razolatlar o'tishini ta'kidlagan holda, "razolatlarni 8 sanog'ini keltiradi. Ya'ni fazilatlarning me'yoridan ortishi yoki kamayishi ajib razilliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

- Safohat (aqli pastlik) va balohat (ahmoqlik) – hikmat muqobalasida;
- Tahavvur (bemulohazakorlik) va jaban (qo'rqoqlik) – shijoat muqobalasida;
- Hajah (ayshga berilish) va xumud (zaiflik) – iffat muqobalasida;
- Zulm (zulm) va zollam (zolimlik) – adolat muqobalasida" [1:46].

Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq asarida xulq borasidagi bir fikri bor: "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulub tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, "allohu akbar", bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: "Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz", - demishlar" [2:4].

Toshkandiy Me'yor ul-axloq asarida bu borada bir fikr keltirib o'tadi. "Axloqni o'zgartirib bo'lmasligini da'vo qiluvchilar ba'zida mazkur hadisni isbot qilib keltiradilar: "Qachonki bir tog' o'z o'rnidan qo'zg'alib g'oyib bo'ldi deb eshitsangiz ishoning. Ammo bir odam o'z xulqini o'zgartiribdi, xulqidan qaytibdi deb eshitsangiz bunga ishonmangki, tezda u o'z tabiatiga qaytadi". Bu mazmundagi hadislar hukmi ommatan emas. Chunki axloq tarbiyasi haqida ta'kid bilan kelgan ko'plab hadislar bor. Ularda axloqni tuzatish ilgari suriladi, tushuntiriladi.

Inson nafsiga xos ayni holat tarhi shakllangan bo'lib, uni o'zgartirish mushkuldir. Bu holat Allohga kufr va tug'yon keltirishdir. Bu toifa haqida Qur'oni karimda shunday keltiriladi: "Albatta, kufr keltirganlarga qo'rqitasanmi – qo'rqitmaysanmi baribir iymon keltirmaydilar. Alloh ularning qalblari va quloqlarini muhrlab qo'ygan va ko'zlarida parda bor. Va ularga ulkan azob bordir" (Baqara surasi 6-7 oyatlar)" [1:79].

Shuningdek asarning 7 bobi yakunida quyidagicha xulosaviy fikrlarni keltirib o'tadi. "Xulosa shuki, eng yomon va badxulq insonga ham takror-takror da'vat va siyosat ko'rgizilsa, unda ma'lum o'zgarishlar paydo bo'ladi. Agar uning yomonligi yo'qolmasa ham undagi yomonlik kamaya boshlaydi. Kam – kam foydalar topadi va undagi yomonlik ortiq taraqqiy etmay qo'yadi. Garchiki undagi o'zgarishlar yaqqol ko'rinmasada unga axloq ilmining foyda yetkazilishiga hech shubha qilib bo'lmaydi" [1:80].

Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson nafsi (xulq)ni 2 ga ajratdi, ya'ni yaxshi xulqlar va yomon xulqlar. Va yaxshi xulqlarga 32 fazilatni, yomon xulqlarda esa 18 razillikni kiritib, har birini ta'riflab bergan.

Toshkandiy ham "Me'yor ul-axloq" asarida inson nafsi (xulqi)ni 3 quvvatdan iboratligini ta'kidlagan holda, asarda har bir quvvatda jam bo'lgan fazilatlar va razilliklarni sanab o'tadi va har biriga ta'rif beradi.

3 quvvatda qoim bo'lgan fazilatlar va razilliklar quyidagilar:

- "Fikriy quvvatdan hosil bo'luvchi fazilatlar: aql, hifz, zikr, zako, fahm, tamiz, nutq, sidq va hikmat. Fikriy quvvatda sodir bo'luvchi razilliklar: balodat (kaltafahmlik), makr-u xubs, jahl, kizb, humq, xurq, g'adr, tabaddul, namima, riyo va safihdir" [1:87-88].
- "G'azabiy quvvatda hosil bo'luvchi fazilatlar: afv, hilm, rahmat, bishr, husni xulq, a'zam, himmat, tasabbut, tavoze', kubri nafs, najdat, shahomat, ihtimoli kadun (og'ir mehnatga chidash) va shijoat. G'azabiy quvvatda sodir bo'luvchi razilliklar: kibr, ubus, jubn, sig'ri himmat, qasovat, ujb, sharosayi xulq, hasad, qiha, tuhur, hiqd va taysh" [1:92].
- "Shahvoniy quvvatda hosil bo'luvchi fazilatlar: diyonat, qanoat, kitmoni sir, xulfi nafs, saxovat, vara', sabr, huriyyat, husni himmat, intizom, siyonat, hayo, viqor va iffat. Shahvoniy quvvatda sodir bo'luvchi razilliklar: fujur, shirra, buxl, xiyonat, afshoir, mujun, butloni shahvat, shamotat va hirs" [1:94].

Abdulla Avloniy tarbiya borasida ham o'rinli fikrlarni keltirib o'tadi.

"Tarbiya – "Pedago'giya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Emdi ochuq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiya uch turlikdir: Badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi" [2:9].

Abdurahmon Toshkandiy ham o'z asarida tarbiya borasida to'xtalib, "farzand tarbiyasi to'rtga bo'linadi: jismoniy tarbiya, nafsoniy tarbiya, husni tasbiyyat va husni tarbiyyat" [1:101].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har ikkala ma'rifatparvar o'z asarlarida yuqoridagi tarbiya turlariga ta'rif va misollar keltirib o'tganlar.

Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq asarida yaxshi xulqlarni tashkil etadigan 32 fazilatni keltirgan bo'lsa, Toshkandiy Me'yor ul-axloq asari yettinchi bobi so'ngida "Insonda dunyo hayotining ranginligi bois bo'ladigan

va abadiy hayot sahifasining debochasi sanalgan 32 sifat tahsili”ni bayon qilib va izohlab berganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX asr milliy uyg‘onish davri jadid ma’rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniylar o‘z asarlarini bir necha muallimlarning iltimoslariga binoan yozishgan va nashr qilishgan. Chunki Turkiston maktablarida o‘z shevalarida yozilgan mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligidan bunday asarlarga tashna va muhtoj ekanligi, o‘zlari muallim va ziyolilar jumlasidan bo‘lganligi ularga ochiq ma’lum edi.

Ma’rifatparvar muallimlar ularning bu asarlarini iltifotsiz qoldirmay, qilgan mehnatlarini ko‘zdan kechirib va bundan keyingi asarlarini ham ta’lim tarbiya tizimida nuqsonlariga qaramay himmat qilgan holda foydalanganliklari ushbu insonlarning yutug‘idir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. عبدالرحمان سیاح تاشکندی–۱۹۱۲،تاشکند. غلام حسن آرفجانوف متبعی. معیار الاخلاق (Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me’yor ul-axloq. G‘ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B. 170.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 2004. –B. 96
3. Asatulloyev, A., & Sayyoh, A. (2022). SOCIO-ETHICAL VIEWS OF ABDURAHMON TASHKENDI AND THE CONTENT OF THE WORK ON 'MEYOR UL-AHL”(AXLOQ ME'YORLARI). European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studiyes, 2(10), 218-224.
4. Abrorkhon Asatulloyev, Kendjayev Shavkatdjon, Ravshanova Gulkhayo. In the twentiyeth century, Turkestan national media outreach ideas published by Abdurakhmon Sayyoh Tashkendy, entitled “Rule of Law”. International journal of advanced sciyence and technology. 2020, vol. 29, № 5. Pp. 1781-1784 http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/viyew/10308

YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna
Oriental Universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, Iqtisodiyot va turizm kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining muhim mavzusini o‘rganishga bag‘ishlangan. Yer resurslari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, qishloq xo‘jaligi, sanoat, rivojlanish va boshqa tarmoqlar uchun asos yaratadi. Cheklangan yer maydonlari va iqtisodiy bosimning kuchayishi sharoitida yer resurslarini samarali boshqarish va ulardan foydalanish barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanmoqda.

Kalit so‘zlar: Yer resurslari, yer munosabatlari, huquqiy-institutsional asoslar, qishloq xo‘jaligi, yer egaliklari, agrosanoat klasterlari.

Abstract: This work is devoted to the study of an important topic of economic and legal aspects of the use of land resources. Land resources play a significant role in the development of the economy, providing the basis for agriculture, industry, development and other industries. In conditions of limited land areas and growing economic pressure, effective management of land resources and their use is becoming a key factor for sustainable development.

Key words: Land resources, land relations, organizational and legal bases, agriculture, land holdings, agro-industrial clusters.

Annotatsiya: Данная работа посвящена исследованию важной темы экономических и правовых аспектов использования земельных ресурсов. Земельные ресурсы играют существенную роль в развитии экономики, обеспечивая основу для сельского хозяйства, промышленности, застройки и других отраслей. В контексте ограниченности земельных площадей и растущего экономического давления, эффективное управление и использование земельных ресурсов становится ключевым фактором для устойчивого развития.

Klyuchevыe slova: Земельные ресурсы, земельные отношения, организационно-правовые основы, сельское хозяйство, земельные владения, агропромышленные кластеры.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy munosabatlarning tobora rivojlanishi har bir mamlakatda turli sohalarning barqaror rivojlanib borishi uchun tegishli huquqiy-institutsional asoslarni shakllantirish va ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini uyg‘otadi. Jumladan, qishloq xo‘jaligi munosabatlariga bozor iqtisodiyoti elementlarining tobora kirib borishi ushbu sohada ham huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali soha rivoji uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratilishini taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlari, jumladan qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning huquqiy-institutsional asoslarini shakllantirishga qaratilgan chuqur tarkibiy islohotlarga amalga oshirilib kelinmoqda. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslarining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1989-yil 15-avgustdagi “Qishloq joylardagi tomorqa yerlarini ko‘paytirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, qishloq aholisiga shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni va yakka tartibda uy-joy qurilishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 400 ming gektar sug‘oriladigan yer uchastkasi va 2,5 mln.dan ortiqa oilaga tomorqa maydonlari ajratib berilishi bilan boshlangan[1], deb aytish maqsadga muvofiq. Shu bilan birgalikda, 1990-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Yer to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda yer uchastkalariga bo‘lgan egalik huquqlarini kengaytirish, yer resurslaridan pullik tamoyil asosida foydalanish kabi muhim o‘zgarishlarni sodir bo‘lishiga olib

1 Алтиев А. С. Механизмы регулирования системы использования земельных ресурсов: Монография. – Т.: Фан, 2018. – 112 с.

keldi[2]. Ushbu ikki me'yoriy hujjatlar mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning birinchi bosqichi sifatida fundamental asoslarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan, deb hisoblaymiz.

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizning agrar iqtisodiyotga chuqur ixtisoslashganligini inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga moslashtirish bosqichi boshlandi. Ushbu bosqich 1991-1994-yillarni o'z ichiga olgan holda, mazkur davrda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrdagi "Dexqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikadagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni orqali mamlakat qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishni yanada rivojlantirishning huquqiy asosi yaratilib, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni rivojlantirishga qo'shimcha 200 ming gektarga yaqin yer uchastkalari ajratildi[3];
- 1993-yilda O'zbekiston Respublikasining "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, ushbu me'yoriy hujjatga muvofiq, 1994 yildan boshlab, aholi yashash punktlari va sanoat toifalaridagi, 1995-yildan boshlab esa qishloq va o'rmon xo'jaliklari toifalaridagi yerlardan foydalanishga haq to'lash tamoyili amaliyotga joriy etildi[4];
Прозрачная и предсказуемая нормативно-правовая база необходима для завоевания доверия иностранных инвесторов. Правительству Узбекистана следует рассмотреть возможность создания специального агентства или подразделения, ответственного за управление проектами “зеленых” инвестиций, обеспечивающего руководство и единого контактного лица для инвесторов. Эта мера направлена на оптимизацию бюрократических процессов и повышение прозрачности принятия решений [19].

3. Финансовые стимулы:

Финансовые стимулы являются важнейшим аспектом привлечения иностранных инвестиций. Узбекистан может рассмотреть возможность предоставления кредитов под низкие проценты, грантов или инвестиций в акционерный капитал для “зеленых” проектов. Создание Фонда зеленых инвестиций могло бы послужить средством финансирования проектов, соответствующих целям устойчивого развития [20].

4. Благоприятная для инвесторов среда:

Создание благоприятной для инвесторов среды предполагает решение вопросов правовой определенности и защиты прав инвесторов. Узбекистан может рассмотреть возможность принятия международных инвестиционных договоров и соглашений, обеспечивающих правовую основу для разрешения споров. Развитие хорошо функционирующей арбитражной системы может повысить доверие инвесторов.

5. Надежное развитие инфраструктуры:

Узбекистану следует уделить приоритетное внимание развитию инфраструктуры, включая системы энергетики, транспорта и управления водными ресурсами, для поддержки зеленых инициатив. Например, инвестиции в инфраструктуру возобновляемых источников энергии, такую как солнечные и ветряные электростанции, могут создать необходимую основу для устойчивого роста.

6. Международное сотрудничество и партнерство:

Сотрудничество с международными организациями и странами, имеющими опыт зеленого развития, имеет решающее значение. Узбекистан может использовать партнерские отношения для получения технического опыта, доступа к финансированию и международного признания. Создание совместных проектов с глобальными организациями и участие в международных конференциях и инициативах могут повысить авторитет страны в сфере зеленого развития.

7. Фокус сектора возобновляемой энергетики:

Учитывая богатый потенциал возобновляемой энергетики Узбекистана, стратегическое внимание к развитию сектора возобновляемой энергетики имеет решающее значение. Страна может стремиться стать региональным лидером в производстве экологически чистой энергии, привлекая иностранные инвестиции в ветровые, солнечные и гидроэнергетические проекты.

В совокупности эти стратегии представляют собой дорожную карту для Узбекистана по использованию иностранных инвестиций в качестве катализатора устойчивого экономического роста и позиционированию себя в качестве заметного игрока в зеленом развитии в Центральноазиатском регионе. Реализация этих мер потребует согласованных усилий со стороны правительства, промышленности и международных партнеров, но потенциал для более устойчивого и процветающего будущего для Узбекистана уже в пределах досягаемости. В таблице 1 представлены основные выводы и детали исследования.

Таблица 1: Ключевые стратегии продвижения зеленых инвестиций и устойчивого экономического роста

в Узбекистане

Стратегия	Описание
Политика Реформы для Инвестиции Повышение	- Пересмотреть существующий законы и нормативно-правовые акты к предложение налог стимулы для зеленый проекты.
	- Предоставить Импортировать долг льготы для возобновляемый энергия оборудование и устойчивый сельское хозяйство инструменты.
	- Выделить земля для возобновляемый энергия проекты и экологически чистый сельское хозяйство.
	- Создайте выделенный _ правительственный единица к наблюдать зеленый инвестиции проекты.
	- Оптимизация бюрократический процессы для проект одобрение и разрешая.
	- Разработать четкое _ и последовательный юридический рамки для зеленый инвестиции.
	- Создать систему “одного окна”. для инвесторы, предлагающие руководство и поддержка.
Прозрачный Регуляторный Рамки	- Назначить специального _ агентство для управление зеленый инвестиции проекты.
	- Улучшить прозрачность в принятие решений процессы.
	- Обеспечить последовательный приложение из относящийся к окружающей среде правила.
	- Развивать методические рекомендации для относящийся к окружающей среде влияние оценки (ОВОС).
Финансовый Стимулы	- Предложение низкий процент кредиты к зеленый проекты.
	- Предоставить гранты для исследовать и разработка в устойчивый технологии.
	- Установить зеленый _ Инвестиции Фонд к предоставлять капитал инвестиции.
	- Создать налог стимулы для инвесторы в зеленый проекты.
Инвесторам Среда	- Принять Международный инвестиции договоры для юридический защита.
	- Развивать а эффективный арбитраж система для спор разрешение.
	- Обеспечить тот защита из права инвесторов _ и собственность.
	- Продвигать прозрачность в свойство и земля права.
Крепкий Инфраструктура Разработка	- Инвестировать в возобновляемый энергия инфраструктура, такая как солнечный и ветер фермы.
	- Обновление транспорт сети к способствовать тот движение из товары и услуги.
	- Улучшить вода управление системы к гарантировать эффективный ресурс распределение.
Международный Сотрудничество и Партнерские отношения	- Сотрудничать с Международный организации для технический экспертиза.
	- Доступ финансирование от Международный доноры и разработка банки.
	- Участвовать в Международный конференции и инициативы к витрина зеленый проекты.
	- Установить соединение проекты с Глобальный сущности к делиться знание и ресурсы.
Возобновляемый Энергия Сектор Фокус	- Развивать ветер, солнце и _ гидроэнергетика проекты к обуздать Узбекистана возобновляемый энергия потенциал.
	- Поощрять исследовать и разработка в чистый энергия технологии.
	- Продвигать энергия эффективность меры в все сектора из тот экономика.
	- Создать благоприятную _ нормативный рамки для тот возобновляемый энергия сектор.
Зеленый Сертификация и Стандарты	- Представьте экомаркировка и зеленый сертификация для продукты и услуги.
	- Выровнять с Международный зеленый стандарты к усиливать рынок доступ.
	- Продвигать зеленый маркировка как маркетинг _ инструмент для зеленый предприятия.

Образование и Рабочая сила Разработка	- Инвестировать в образование и обучение программы для зеленый рабочие места.
	- Фостер исследовать и разработка партнерские отношения между университеты и промышленность.
	- Развивать квалифицированный _ рабочая сила к поддерживать зеленый отрасли.
Общественный Осведомленность и Обручение	- Продвигать общественный осведомленность кампании на тот важность из зеленый развитие.
	- Поощрять общественный участие в зеленый инициативы и проекты.
	- Создать платформы для диалог и обратная связь между граждане и тот правительство.
Мониторинг и Составление отчетов Механизмы	- Создать комплексную _ система для мониторинг зеленый проекты и их воздействия.
	- Опубликовать ежегодный отчеты на тот прогресс из зеленый разработка инициативы.
	- Предоставить доступный данные и статистика к инвесторы и тот общественный.
Долгосрочный Зрение и Планирование	- Разработать четкое _ долгосрочный зрение для устойчивый разработка в Узбекистан.
	- Создайте дорожную карту что очертания цели, вехи и _ ожидал результаты.
	- Взаимодействовать заинтересованные стороны в тот планирование и пересмотр из зеленый разработка стратегии.
Риск смягчение последствий Стратегии	- Развивать непредвиденный случай планы для потенциал риски в зеленый проекты.
	- Предложение страхование механизмы к защищать инвесторы от непредвиденный вызовы.
	- Установить разделение рисков распоряжения между тот правительство и инвесторы.
Стимулы для Местный Участие	- Поощрять местный предприятия и сообщества к участвовать в зеленый проекты.
	- Предоставить стимулы, такие как доступ к финансирование или налог преимущества, чтобы местный инвесторы.
	- Фостер партнерские отношения между иностранный и местный компании.
Оценка и Приспособление Рамки	- Развивать а оценка рамки к оценивать тот эффективность из зеленый разработка стратегии.
	- Разрешить для непрерывный приспособление и улучшение из политика основанный на на оценка результаты.

ОБСУЖДЕНИЕ И ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В этом разделе мы углубимся в последствия стратегий, изложенных в разделе “Результаты”, и изложим ключевые выводы нашего исследования по привлечению иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Узбекистане, уделяя особое внимание инициативам зеленого развития. Мы также изучаем будущие перспективы и проблемы, с которыми может столкнуться Узбекистан на пути к устойчивому развитию.

Последствия стратегий:

1. **Реформы политики:** Комплексные реформы политики, рекомендованные в этом исследовании, создают благоприятный инвестиционный климат. Предлагая налоговые льготы, освобождение от импортных пошлин и выделение земель для “зеленых” проектов, Узбекистан может привлечь иностранных инвесторов, заинтересованных в устойчивом развитии. Оптимизированные бюрократические процессы и благоприятная для инвесторов среда ускорят одобрение проектов, повышая доверие инвесторов.
2. **Нормативно-правовая база.** Прозрачная нормативно-правовая база и руководящие принципы оценки воздействия на окружающую среду повышают предсказуемость и подотчетность. Это гарантирует, что зеленые проекты будут соответствовать целям устойчивого развития, защищая окружающую среду и инвесторов.
3. **Финансовые стимулы.** Предоставление финансовых стимулов, таких как кредиты и гранты под низкие проценты, играет важную роль в привлечении иностранных инвестиций. Фонд зеленых инвестиций и налоговые льготы будут стимулировать устойчивые инициативы и технологические инновации.

4. **Развитие инфраструктуры.** Инвестиции в инфраструктуру возобновляемых источников энергии, транспорт и системы управления водными ресурсами имеют решающее значение для поддержки зеленого развития. Обширный потенциал возобновляемой энергетики Узбекистана делает его региональным лидером в производстве экологически чистой энергии, привлекая как инвесторов, так и экологически чистые отрасли.
5. **Международное сотрудничество.** Сотрудничество с международными организациями и партнерами позволяет максимально эффективно использовать технические знания и ресурсы. Участие в международных конференциях и инициативах демонстрирует зеленые проекты Узбекистана, способствуя глобальному признанию.
6. **Фокус на возобновляемых источниках энергии.** Сосредоточив внимание на секторе возобновляемых источников энергии, Узбекистан может использовать свой огромный потенциал. Инвестиции в проекты ветровой, солнечной и гидроэнергетики способствуют устойчивому энергетическому переходу, согласуясь с глобальными климатическими целями.

Ключевые выводы:

- Узбекистан обладает неиспользованным потенциалом для привлечения иностранных инвестиций для устойчивого экономического роста и инициатив зеленого развития. Представленные здесь многогранные стратегии представляют собой дорожную карту для реализации этого потенциала.
- Конвергенция политических реформ, ясности регулирования, финансовых стимулов и развития инфраструктуры имеет важное значение для создания надежной и привлекательной инвестиционной среды.
- Сотрудничество в глобальном масштабе и ориентация на возобновляемые источники энергии могут сделать Узбекистан региональным лидером в области зеленого развития и производства экологически чистой энергии.
- Образование, информирование общественности и механизмы мониторинга являются важнейшими компонентами достижения долгосрочной устойчивости.

Будущие перспективы и вызовы:

Реализация этих стратегий потребует скоординированных усилий правительства, частного сектора и международных партнеров. Предстоящие задачи включают обеспечение эффективного применения политики, управление потенциальными рисками и создание квалифицированной рабочей силы для “зеленых” отраслей. Более того, по мере того, как Узбекистан продвигается по пути к устойчивому экономическому росту, адаптация и постоянная оценка будут иметь важное значение для реагирования на меняющуюся динамику и возникающие возможности.

В заключение, стремление Узбекистана к устойчивому экономическому росту и зеленому развитию посредством иностранных инвестиций является амбициозной, но достижимой целью. Приняв стратегии, изложенные в этом исследовании, Узбекистан сможет справиться со сложностями балансирования экономического роста и охраны окружающей среды. Это путешествие обещает не только привлечь иностранные инвестиции, но и способствовать более устойчивому и процветающему будущему страны и региона в целом. Встав на этот путь преобразований, Узбекистан готов стать заметным игроком в сфере зеленого развития.

Использованная литература:

1. Grabara, J., Tleppayev, A., Dabylova, M., Mihardjo, L. W. W. (2021). Empirical research on the relationship amongst renewable energy consumption, economic growth and foreign direct investment in Kazakhstan and Uzbekistan. Energies.
2. Bespalyy, S. (2021). Kazakhstan: Assessment of renewable energy support and a green economy. Journal of Environmental Management and Tourism.
3. Tsereteli, M. (2018). The Economic Modernization of Uzbekistan. Uzbekistan’s New Face.
4. Cohen, A., Grant, P. D. J. (2020). Foreign Investment in Central Asia: Actors and Drivers. International Tax and Investment Center.
5. [Title Not Available]. (2022). Towards a Greener Economy in Uzbekistan.
6. Lee, K. J., Kim, C. J. (2022). The Role of Government in Attracting Private Investment in Sustainable Infrastructure. Investment in Sustainable Infrastructure in Asia.
7. Kim, A. (2018). Challenges and opportunities for increasing foreign direct investment in Central Asia: the case of energy in Uzbekistan.
8. Kurpayanidi, K. I. (2022). Scenarios of investment and innovation policy in the light of institutional transformation.
9. Patterson, I. R., Tureav, H. (2020). New developments in promoting tourism in Uzbekistan. Journal of Tourismology.
10. Dadabaev, T., Djalilova, N. (2021). Connectivity, energy, and transportation in Uzbekistan’s strategy vis-à-vis Russia, China, South Korea, and Japan.

11. Tleuken, A., Tokazhanov, G., Jemal, K. M., Shaimakhanov, R. (2022). Legislative, institutional, industrial and governmental involvement in circular economy in central Asia: a systematic review. Sustainability.
12. Turaev, H., Patterson, I. (2020). Priority Directions for Tourism Development in Uzbekistan. Indonesian Journal of Law and Economics.
13. Yin, W. (2019). Integrating Sustainable Development Goals into the Belt and Road Initiative: would it be a new model for green and sustainable investment? Sustainability.
14. Khamidov, O., Khayrullaeva, N. (2021). Improving management mechanisms for ecotourism in Uzbekistan.
15. Liu, H., Wang, Y., Jiang, J., Wu, P. (2020). How green is the “Belt and Road Initiative”?–Evidence from Chinese OFDI in the energy sector.
16. Nurdavletova, S. (2021). Analysis of the implementation of the Central Asia water&energy program in the framework of new EU strategy for Central Asia.
17. Tracy, E. F., Shvarts, E., Simonov, E. (2017). China’s new Eurasian ambitions: the environmental risks of the Silk Road Economic Belt.
18. Rahmetov, A., Rakhmetova, M. (2022). Integrating Sustainable Trade Principles in Uzbekistan.
19. Tanaka, M. (2022). Greening the Belt and Road Initiative in Central Asia: The Case of Uzbekistan’s Renewable Energy Sector.
20. Xue, H., Lan, X., Zhang, Q., Liang, H., He, Z. (2021). Assessment of the green development level for participating countries in the Belt and Road initiative. Annals of Operations Research.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

BANK TIZIMI BARQARORLIGINI OSHIRISHDA KREDIT RISKLARINING AHAMIYATI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Xolmamatov Farhodjon Kubayevich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent moliya institutining “Bank ishi” kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish va uning amaliy holati, kredit risklarining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlari, kredit risklarini kamaytirish usullari, mamlakatimiz tijorat banklarining kredit faoliyatining joriy holati, muammoli kreditlar bilan bog‘liq holatlar tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kredit risklarining oldini olishning ahamiyati, muammoli kreditlarni kamaytirish, bank kredit portfelining sifatini oshirish, kredit risklarini kamaytirish bo‘yicha takliflar va ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: kredit riski, risklilik darajasi, diversifikatsiya, kredit qo‘yilmalari, bank kreditlari, muammoli kreditlar, zaxiralar, kredit ta’minoti, kredit siyosati.

Abstract: The article analyzes the formation of a credit portfolio in commercial banks and its practical situation, the causes and consequences of the appearance of credit risks, methods of reducing credit risks, the current state of credit activity of commercial banks of our country, situations related to problematic loans, and relevant conclusions and proposals are made.

Also, proposals and scientific conclusions on the importance of preventing credit risks in ensuring the financial stability of banks, reducing problem loans, improving the quality of the bank's loan portfolio, and reducing credit risks have been formulated.

Key words: credit risk, risk level, diversification, credit investments, bank loans, problem loans, reserves, credit provision, credit policy.

Аннотация: В статье анализируются формирование кредитного портфеля в коммерческих банках и его практическая ситуация, причины и последствия появления кредитных рисков, методы снижения кредитных рисков, современное состояние кредитной деятельности коммерческих банков нашей страны, ситуации, связанные с проблемным кредитам, сделаны соответствующие выводы и предложения.

Также сформулированы предложения и научные выводы о важности предотвращения кредитных рисков в обеспечении финансовой устойчивости банков, снижении проблемных кредитов, повышении качества кредитного портфеля банка, снижении кредитных рисков.

Ключевые слова: кредитный риск, уровень риска, диверсификация, кредитные вложения, банковские кредиты, проблемные кредиты, резервы, кредитное обеспечение, кредитная политика.

KIRISH

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida “... kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash”[1] ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.

Bugungi kunda bank muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini yanada oshirish va ularning zamonaviy turlarini joriy etish, kredit axboroti tizimini takomillashtirish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatimizning iqtisodiy sohalarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochmoqda. Bu jarayonlarni yanada mustahkamlash respublikamiz tijorat banklarining risklarini to‘g‘ri baholash va samarali boshqarish rolini imkoniyat darajasida oshirishni taqozo etadi.

Ayni vaqtda, respublikamizda tijorat banklarining kredit risklarini boshqarishda o‘z yechimini topmagan muammolar talaygina. Masalan, respublikamizning qator tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi muammosi shular jumlasidandir. Bank kreditlarining asosiy qismi joylashtirilgan tarmoqda yuz beradigan har qanday salbiy holat muddati o‘tgan kreditlar hajmining keskin o‘sishiga olib keladi. Mamlakatimizdagi tijorat banklarining kredit portfeli va uning tarkibi tahlil qilinganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, aksariyat tijorat banklarida kreditlarning katta qismi bitta tarmoqqa mansub bo‘lgan korxonalarda to‘plangan. Bu esa ularning kredit risklarini baholash va boshqarish tizimi samaradorligi darajasini past ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski va uni baholash masalalari qator iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Amerikalik olimlar R. L. Miller va Devid Van-Xuzlar kredit riski deganda karzdorning kreditorga ssudani to‘liq qaytarib berish jarayonida qarzdorda ayrim muammolarning paydo bo‘lishi bilan bog‘lashadi [4]. Olimlar aynan qaysi omillar ekanligiga izoh berishmaydi. Fikrimizcha, omillarni guruhlarga ajratgan holda va ta’sir darajasiga ko‘ra izohlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

G. N. Beloglazova “Kredit riski deganda belgilangan muddatlarda kontragentlardan biri shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatni bajarmasligi oqibatida zarar ko‘rish ehtimolidir” deya ta’riflaydi [2]. Olimning fikriga ko‘ra, kredit risklari paydo bo‘lishida uning muddati birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

L. P. Kroliveskoy “kredit riski qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko‘rsatilgan majburiyatni to‘liq yoki qisman bajarmasligi oqibatida paydo bo‘ladi” degan fikrni berib o‘tgan.[3] Muallifning fikriga qo‘shimcha sifatida kredit munosabatlaridagi tashqi omillarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Sh. Z. Abdullayeva kredit riski tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Kredit riski deb karz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomalarda ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi” [5]. Muallifning fikrini inkor etmagan holda kredit ta’minoti sifatining yomonlashishi ham kredit riskini keltirib chiqarishini qo‘shimcha qilish mumkin. Shuningdek, professor Sh. Abdullayeva tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo‘li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi [8]. Muallif kredit riskini pasaytirishda samarali tashkil etilgan risklarni boshqarish tizimiga alohida urg‘u bergan.

Professor V. Usoskin o‘zining mijozni bank tomonidan kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkin, degan xulosaga keldi [6]. Muallifning fikriga qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, mazkur taklif, odatda, moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan mijozlarga nisbatan qo‘llanilishi ijobiy ta’sir qiladi.

D. Polfreman va F. Ford mijozning kredit yig‘ma jildini o‘rganishga e’tiborni kuchaytirish orqali banklar faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirishni taklif qiladilar [7]. Mualliflar mijozni kredit tarixini o‘rganish orqali kredit riskini kamaytirishni yoqlab chiqishgan.

D. Saidov tijorat banklarining kredit riski darajasini pasaytirishda tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish orqali, ya’ni tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqqa mansub bo‘lgan korxonalarda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimligi bo‘yicha tavsiya bergan [9]. Ammo rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega, ixtisoslashgan banklarda buning imkoni yo‘q.

N. Jiyanovaning xulosasiga ko‘ra, tijorat banki suzib yuruvchi foiz stavkalarida jalb qilingan resurslarini imkon qadar suzib yuruvchi foiz stavkalaridagi aktivlarga joylashtirishi kerak. Faqat ana shu yo‘l bilan bankning spred va marjasi darajasini foiz stavkalari tebranishining salbiy ta’siridan saqlab qolish mumkin [10]. Muallifning taklifi biroz munozarali bo‘lib, banklarda jalb etilgan va joylashtirilgan resurslarning hajmini bir xil muddat va summada joylashtirishning deyarli imkoni yo‘q.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni minimallashtirish, shuningdek, kredit operatsiyalarining sifatini oshirish tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biridir. Banklar faoliyatidagi kredit riski yoki qarzning qaytmaslik riski – bu qarz oluvchi (mijozlar) tomonidan kredit shartnomasi shartlarining to‘la yoki qisman darajada bajarilmasligi va shu orqali banklarning ma’lum miqdorda xarajatlar qilishi yoki zarar ko‘rishi demakdir.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o‘z vazifa hamda majburiyatlarii qay darajada bajarishiga bog‘liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo‘yicha loyiha tayyorlash kredit taqdim etuvchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Kredit beruvchi bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, ishlab chiqarish imkoniyati, marketingi, moliyaviy boshqaruvini qay darajada bilishi, kreditga bo‘lgan talabning qanchalik darajada to‘g‘ri asoslanganligi va kreditning maqsadi bank uchun to‘g‘ri kelishini aniqlab olishi lozim.

1-jadval: Tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi[2]

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2021-y.		01.01.2022-y.		01.01.2023-y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
Jami kreditlar	276 975	100	326 386	100	390 049	100
Sanoat	102 162	36,9	117 639	36,0	126 647	32,5
Qishloq xo‘jaligi	28 081	10,1	35 022	10,7	42 096	10,8
Qurilish sohasi	7 380	2,7	9 282	2,8	10 400	2,7
Savdo va umumiy xizmat	19 916	7,2	27 406	8,4	28 911	7,4
Transport va kommunikatsiya	26 626	9,6	28 708	8,8	29 673	7,6
Moddiy va texnik ta’minotni rivojlantirish	3 962	1,4	3 814	1,2	3 856	1,0
Uy-joy kommunal xizmati	3 759	1,4	2 284	0,7	1 888	0,5
Jismoniy shaxslar	54 888	19,8	69 496	21,3	100 949	25,9
Boshqa sohalar	30 201	10,9	32 734	10,0	45 630	11,7

Mamlakatimiz tijorat banklarining kredit qo‘yilmalarini tarmoqlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, sanoat tarmog‘iga ajratilgan kreditlar oxirgi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, umumiy holatda yetakchilik qilmoqda. Oxirgi uch yilda uning ulushi 4,4 foiz bandga pasaygan va 2023-yil boshiga 32,5 foizni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning summasi 83,8 foizga, jamiga nisbatan ulushi esa 6,1 foiz bandga o‘sishni qayd etgan va 54,9 trln so‘mdan 100,9 so‘mga qadar oshgan.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligiga ajratilgan kreditlar tahlil etilayotgan davrda o‘rtacha 10 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, bank tizimi kredit qo‘yilmalarining tarmoqlar kesimidagi diversifikatsiyasi oxirgi yillarda biroz yaxshilanganligiga qaramasdan, yuqori riskli va zaif hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit porfelining samaradorlik darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri muddati o‘tgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalari hajmidagi salmog‘ini o‘zgarishi hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida bu ko‘rsatkichning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan mo‘tadil darajasi 3 foizni tashkil qiladi.

2-jadval: Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari va muammoli kreditlar ulushi[3]

Sana	Kreditlar, mlrd so‘mda			Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so‘mda			Muammoli kreditlarning jami		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2021	276974,8	244483,9	32490,9	5784,80	5167,60	617,2	2,1	2,1	1,9
01.01.2022	326385,6	280073,6	46311,9	16974,00	15068,80	1905,2	5,2	5,4	4,1
01.01.2023	390048,9	324680,8	65368,2	13992,40	12643,30	1349,1	3,6	3,9	2,1

2 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmi yil sayin oshib bormoqda. Xususan, so‘nggi uch yilda 40,8 foizga oshib, 2023-yil yanvar holatiga 390 trln so‘mdan otiqni tashkil etdi.

Berilgan kreditlarning aksariyat katta qismi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, 2021-yilda 88,3 foiz, 2021-yilda 85,8 foiz va 2023-yilda 83,2 foizni tashkil etmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari ulushining pasayishi bank tizimi uchun ijobiy holat hisoblanib, buni boshqa banklar tomonidan berilgan kreditlarning ortganligi bilan izohlash mumkin.

O‘z navbatida, muammoli kreditlar 2,5 martaga oshgan, 2021-yilda 5,8 trln so‘mdan 2023-yilda 13,9 trln so‘mga qadar ko‘tarilgan. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2022-yilda 5,2 foizga yetib, eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Buning asosiy sababi, 2021-yilda ro‘y bergan pandemiya bo‘lib, kredit oluvchilarga kredit va foizlarni qaytarishda imtiyoz berilishi (to‘lov muddatini kechiktirilishi) hisoblanadi.

Ko‘rilgan choralar natijasida, muammoli kreditlar ulushini 2022-yilda 1,6 foiz bandga yoki 2023-yil 1-yanvar holatiga 3,6 foizgacha (14 trln so‘m) kamayishiga erishildi.

Muammoli kreditlarning asosiy qismi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ma’lumki, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo‘lgan kredit qo‘yilmalar – bu muammoli kreditlar shakliga kirgan qo‘yilmalardir. Substandart va undan past tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi.

Kreditning o‘z vaqtida qaytarilmasligini va shu sababli muammoli ssudaning yuzaga kelishini quyidagi belgilar orqali bilish mumkin:

- qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda balansning takdim etilmasligi;
- debitorlik qarzning birdaniga o‘sib ketishi;
- qisqa muddatli aktivlar ulushining kamayishi;
- qiska muddatli kreditorlik qarzlarning noproporsional o‘sishi;
- likvidlik koeffitsiyentining pasayishi;
- aktivlar tarkibida asosiy kapital ulushining oshishi;
- savdo hajmining pasayishi;
- muddati o‘tgan qarzlarning o‘sishi;
- operatsion faoliyatdan ko‘rilgan zararlarning paydo bo‘lishi.

3-jadval: Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari va muammoli kreditlar ulushi[4]

Sana	Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlardagi ulushi, foizda		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2021	5 784,80	5 167,60	617,2	100	89,3	10,7
01.01.2022	16 974,00	15 068,80	1 905,20	100	88,8	11,2
01.01.2023	13 992,40	12 643,30	1 349,10	100	90,4	9,6

Mamlakatimiz bank tizimidagi muammoli kreditlarning 90 foizga yaqini davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, 2021-yilda 89,3 foiz bo‘lsa, 2022-yilga kelib 90,4 foizga oshgan. Boshqa banklarning ulushi esa 10 foiz atrofida shakllangan. Xulosa qilishimiz mumkin, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida kredit risklari juda baland va kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligi nisbatan past.

Markaziy bank tomonidan oxirgi yillarda yuzaga kelgan tashqi iqtisodiy vaziyatning banklar barqarorligiga salbiy moliyaviy ta’sirlarini yumshatish hamda banklarda mavjud kredit riskini keskin kuchaytirishini oldini olish bo‘yicha prudensial nazorat choralari ko‘rib borildi.

4 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



1-rasm: Tijorat banklarida kredit riski ulushi[5], 2023-yil boshiga foizda

Bank tizimida eng yuqori kredit riski 5-guruh, ya'ni risk darajasi 100 foiz bo'lgan kredit risklariga to'g'ri kelmoqda. Uning ulushi 2023-yil boshiga 52,3 foizni tashkil etgan. Bunga deyarli barcha kreditlar va investitsiyalar kiritilgan.

1-guruh (0 foizli) riskli aktivlarning ulushi 23,1 foiz bo'lib, asosan, naqd pullar, Markaziy bankdagi mablag'lardan iborat. 2-guruh (20 foizli) riskli aktivlarning ulushi 8,9 foizni tashkil etgan.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar va tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- tijorat banklari faoliyati, ayniqsa, kreditlash jarayoni risk bilan bog'liq. Shu sababli banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda kredit portfelini oqilona boshqarish muhim o'rin tutadi;
- kredit risklarini to'g'ri boshqarmaslik bankning kredit portfeli sifatining pasayishiga, bank daromadlarining kamayishiga, bank rentabelligining tushishiga olib keladi;
- mamlakatimiz bank tizimida muammoli kreditlarning 90 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa banklarda esa 10 foiz atrofida bo'lib, kredit riskini samarali boshqarish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.
- muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida, muammoli kreditlarni: muddati, sifati, ta'minoti, resurs manbasi va kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi subyekti kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Muammoli kreditlarni yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash ularni bartaraf etish uchun ishlarni to'g'ri va samarali rejalashtirishga yordam beradi. Bank amaliyoti ko'rsatishicha, kreditni qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kredit bo'yicha undiruvni nimaga qaratish lozimligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Kredit riski yuzaga kelganda o'tkazish zarur bo'lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Kredit limitini belgilash. Bankning kredit siyosatida kreditlashga nisbatan aniq limit o'rnatish va unga qat'iy amal qilish lozim.
- Qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini doimiy tarzda takomillashtirib borish, jahonda keng qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

- Kredit riskini kamaytirishning yangi va samarali usullarini bank amaliyotiga jalb etish, xususan, kredit ta’minotiga qo‘yilgan talablarni baholash usullarini takomillashtirish.
- Kredit riskining oldini olishda kredit portfeli diversifikatsiyasi darajasini oshirish. Kredit portfelini mijozlar kesimida, kredit valyutalari kesimida, tarmoqlar kesimida, hududlar kesimida asoslangan diversifikatsiyani olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.
2. Белоглазова Г. Н. Банковскоэ дело. Учебник. – Москва: Финансы и статистика, 2006.
3. Кроливеской Л. П. Банковскоэ дело. – СПб.: Питер, 2004
4. Миллер Р. Л., Девид Ван-Хуз. Современные денги и банковскоэ дело.
5. Abdullayeva Sh. Bank risklari va kreditlash.
6. Усоскин В. М. Современный коммерческий банк: управление и операtсии. – М.: Вазар-феррo, 1994. – С. 189.
7. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. // Пер. с англ. – М.: ИФРА-М, 1996. – С. 489–490.
8. Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 304 b.
9. Saidov D. A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari.
10. Jiyanova N. E. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini samarali boshqarish yo‘nalishlari. // I.f.n. ilm. dar. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – 16–17-betlar.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari.

BAHOLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Bobirjon Aktamov
Toshkent moliya institutining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada baholash faoliyatini tartibga solish tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan tariflar o‘rganildi. Baholash faoliyatini tartibga solishning zarurati hamda O‘zbekiston Respublikasida Yanoga milliy baholash standartlarini jahon amaliyotiga moslashtirishning sabablari tahlil qilindi. O‘zbekistonda baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini batafsil tahlil qilinib, baholash faoliyatini tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Baholash faoliyati, baholash, qiymatni aniqlash, baholash standartlari, tartibga solish, baholash standartlari, baholash tashkilotlari, malaka sertifikati.

Abstract: The article studied the tariffs given by economists to the concept of regulation of valuation activities. The necessity of regulation of valuation activities and the reasons for adapting the national standards of Yanoga valuation in the Republic of Uzbekistan to world practice are analyzed. The means of state regulation of valuation activities in Uzbekistan are analyzed in detail, directions for the further development of systems for regulating valuation activities are considered.

Key words: Evaluation activities, valuation, determining the cost, valuation standards, regulation, valuation organizations, qualification certificate.

Аннотация: В статье были изучены тарифы, данные экономистами концепции регулирования оценочной деятельности. Проанализированы необходимость регламентации оценочной деятельности и причины адаптации национальных стандартов оценки Янога в Республике Узбекистан к мировой практике. Подробно проанализированы средства государственного регулирования оценочной деятельности в Узбекистане, рассмотрены направления дальнейшего развития систем регулирования оценочной деятельности.

Ключевые слова: Оценочная деятельность, оценка, определение стоимости, стандарты оценки, регламент, оценочные организации, квалификационный сертификат.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini huquqiy ta’minlash, tartibga solish va nazorat qilish tizimi mulk obyektlarining qiymatini aniqlash uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, qonun hujjatlari va baholash faoliyati standartlarini o‘z ichiga oladi, baholash obyektlarining qiymatiga obyektiv baho berishga, baholash obyektlarining qiymatini aniqlashga imkon beradi.

Baholash faoliyati mulkiy munosabatlar infratuzilmasining muhim elementi hisoblanadi. O‘z navbatida, davlat tomonidan baholash faoliyatini tartibga solinishi uning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda baholash faoliayatini tartibga solish tizimi xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda va iste’molchilar talablarini hisobga olib baholash xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida baholash sohasidagi qonunchilikga muvofiq baholash faoliyati davlat tomonidan va o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan tartibga solinadi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi baholash faoliyatida davlat regulyatori bo‘lib faoliyat yuritadi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, "baholash faoliyatini tartibga solish – mavjud iqtisodiy inqirozni bartaraf etish, to'laqonli tarkibiy tuzatishlarni amalga oshirish va investisiya jarayonlarini faollashtirishning zarur shartidir" [1].

Xorijlik iqtisodchi olim E. D. Navrotskaning fikricha, baholash faoliyatini rivojlanishi mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorining dinamik muhitga ega murakkab tizim ekanligi unda baholash xizmatlari hajmi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzluksiz o'zgarib borishi bilan belgilanadi [2].

Iqtisodchi olim, Baholash fondi (The Appraisal Foundation, TAF)ning a'zosi D. S. Buntonning fikricha, hozirgi kunda baholash faoliyatini tartibga solish alohida nazariyaga va yuqori darajada tartiblashtirilgan murakkab, samarali infratuzilmaga va dinamik muhitga ega bo'lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini qiymat jihatidan belgilaydigan murakkab tizim sifatida namoyon bo'lmoqda [3].

Kasbiy faoliyat sifatida baholash faoliyati mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi ehtiyojlariga javob berishi, shuningdek, mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olishi kerak [4].

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, baholash faoliyatini tartibga solish – bu baholovchi tashkilotlar va baholovchilar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning ish sifatini yaxshilashga qaratilgan jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi 811-I-sonli Qonuni (1999-yil 19-avgust) asosiy tushunchalar va qoidalarni, baholash faoliyati subyektlarini va obyektni belgilaydi;
- Yagona milliy baholash standarti (bundan keyin – YaBMS);
- boshqa qonun hujjatlari.

"Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni uning asosiy qonun hujjatlaridir. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik va me'yoriy hujjatlar ularning asosiy qoidalarini ishlab chiqadi va belgilaydi.

Ushbu Qonunning 10-moddasiga muvofiq baholashni o'tkazish natijalaridan baholash obyekti o'z balansida turgan shaxslar buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlariga tuzatishlar kiritish uchun foydalanishlari mumkin.

Bu huquq baholash obyekti qiymatini qayta baholashga ham taalluqlidir. Baholash natijalari buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlarini tuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, baholash natijalari ustidan manfaatdor shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Shunday qilib, baholash faoliyati subyektlari har qanday obyektlar, mulklar, mulk turlari va shakllarini baholashlari mumkin.

"Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun vakolatli organlar va baholovchilarning o'zini o'zi boshqarish tashkilotlarining funksiyalarini, ular faoliyati hamda uning natijalariga qo'yiladigan shartlar va talablarni, baholovchilarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.

Hozirgi vaqtda "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonunda ushbu sohani davlat tomonidan tartibga solish va baholovchilarning o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlari (baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari) tomonidan boshqarishdan iborat ikki bosqichli tartibga solish tizimi nazarda tutilgan.

Davlat tomonidan tartibga solish, asosan, davlatning tadbirkorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, uning organlari tomonidan ifodalanadigan faoliyati sifatida talqin etiladi.

Davlat tomonidan tartibga solish qonun bilan vakolat berilgan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Ularning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- baholash faoliyati sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish, baholash faoliyati sohasidagi huquqiy tartibga solish, YaBMSni ishlab chiqish, YaBMSni rivojlantirish dasturini tasdiqlash;
- baholovchilarning o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarining yagona davlat reyestrini yuritish, baholovchilarning o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun talablari bajarilishini nazorat qilish, baholovchilarning o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotini Yagona davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida sudga murojaat qilish.

Baholovchilarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish nuqtayi nazaridan baholash sohasida davlat tomonidan tartibga solish, shuningdek, baholovchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari eksperti unvoniga da’vogar shaxslarni attestatsiyadan o‘tkazuvchi kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarini akkreditatsiya qilish davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

2008–2021-yillarda mamlakatimizda baholash faoliyatini tartibga solish litsenziya berish orqali amalga oshirildi. 2021-yildan boshlab baholash faoliyatini tartibga solish jiddiy o‘zgarishlarga duch keldi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2020-yildagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-sonli Farmoniga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab baholash faoliyatini yuritish uchun litsenziya talabi bekor qilindi. Ushbu farmonning I ilovasi 10-bandida ko‘rsatilgandek, litsenziya talabi o‘rniga quyidagilar majburiy joriy etildi:

- Tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatga olish.
- Baholovchilarga malaka sertifikatini berish.
- O‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlariga majburiy a’zolikni belgilagan holda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmini rivojlantirish.

Baholovchi – belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan berilgan baholovchining malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir. Baholovchining malaka sertifikatini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zini o‘zi tartibga solish – bu iqtisodiyotda ma’lum bir bozorda biznes yuritish qoidalari tizimini o‘rnatish va ushbu qoidalarga rioya qilmaslik uchun sanktsiyalar sifatida qaraladigan tartibga solish shaklidir [5]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zi tartibga solish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari hamkorlikda ishlashi kerak va o‘zini o‘z tartibga solish davlat tomonidan tartibga solish o‘rnini bosmasligi, balki uni to‘ldirishi prinsipial jihatdan muhimdir.

“Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasi o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlarga bag‘ishlangan. Qonunga muvofiq, baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari kamida ellikta baholovchi tashkilotning a’zoligiga asoslangan, baholovchilarning professional darajasini oshirishga va saqlab turishga ko‘maklashish, ularning professional manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan, sudlarda himoya qilish maqsadida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 3 ta baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari mavjud va ular quyidagilar:

- O‘zbekiston baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi;
- O‘zbekiston baholovchilar jamiyati;
- O‘zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati.

Baholovchilarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlari qonunda keltirilgan quyidagi funksiyalarni bajaradilar. “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi:

Baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari:

- baholovchilarning malaka imtihoni uchun test savollarini ishlab chiqishda va malaka imtihonini o‘tkazishda ishtirok etadi;
- baholovchilarning professional xulq-atvori kodeksini tasdiqlaydi hamda unga rioya etilishini tizimli ravishda monitoring qilishni ta’minlaydi;
- baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;
- baholash faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan tashkilotlarni belgilangan tartibda a’zolikka qabul qiladi;
- o‘z a’zolarining reyestrini yuritadi va uni o‘z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi;
- o‘z a’zolari tomonidan mazkur Qonun talablariga, baholash faoliyati standartlariga, baholash faoliyati sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- nazorat natijasida aniqlangan qoidabuzarliklar uchun baholovchi tashkilotlarni a’zolikdan chiqaradi hamda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ygan baholovchi malaka sertifikatining amal qilishini tugatish bo‘yicha vakolatli organga taqdimnoma kiritadi;
- o‘z a’zolarining axborot-uslubiy ta’minotini tashkil etadi;

- baholash faoliyati bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning va vakolatli organ komissiyalarining ishida ishtirok etadi;
- baholovchilar malakasini oshirish tizimi monitoringini ta’minlaydi hamda yil yakunlari bo‘yicha 20-yanvarga qadar vakolatli organga baholovchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi o‘quv markazlarida malaka oshirish kurslaridan o‘tilganligi haqida axborot taqdim etadi.

Baholovchi tashkilotlar professional jamoat birlashmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishi ushbu jamoat birlashmasining yuqori organidir va bu yig‘ilish besh yilda kamida bir marta chaqiriladi. Ijro etuvchi organ baholovchi tashkilotlar professional jamoat birlashmasining yuqori organi tomonidan uning a’zolari orasidan saylanadi va jamoat birlashmasining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi. (“Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi).

Baholash faoliyatini tartibga solishning eng muhim vazifalaridan biri zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan baholash xizmatlari sifatini oshirishdir.

Baholash bozoridagi huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari (baholovchilar, ekspertlar, baholovchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan yuridik shaxslar, baholovchilarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlari) javobgarlik mexanizmlarining yetarli darajada samaradorligi bilan bog‘liq muammolarning murakkab tabiati, kasbga kirish uchun biron bir muhim to‘siqning yo‘qligi, shuningdek, baholash metodologiyasining yagona tizimi tegishli chora-tadbirlar dasturini qabul qilishni talab qiladi.

Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar baholash sohasidagi tartibga soluvchi organlarga baholashning asosiy tushunchalari va tamoyillarini, qiymat turlarini oydinlashtirish, xalqaro standartlashtirish amaliyotida ishtirok etish, baholash maqsadlarida foydalaniladigan bozor ma’lumotlarini tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar beradi. Ta’kidlash joizki, kasbiy amaliyotda, buxgalteriya hisobi amaliyotida, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatda baholarni uyg‘unlashtirish zarurati dolzarbdir.

Baholash faoliyati natijalari sifatini oshirish baholovchining ko‘rsatkichlari tajriba va malaka bo‘lgan maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasdan mumkin emas. Shu munosabat bilan baholovchining malakasiga, shuningdek, baholovchining o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotining baholovchisi va eksperti maqomini olishi uchun jismoniy shaxsga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Baholovchilarning o‘zini o‘zi nazorat qiluvchi tashkilotlari baholovchilari va ekspertlari faoliyatini nazorat qilish sohasida baholovchilarning o‘zini o‘zi nazorat qiluvchi tashkilotlari tomonidan faoliyati nazorat qilinadigan shaxslar doirasini kengaytirish, intizomiy jazo choralarini qo‘llash tartib-taomillarida shaffoflikni ta’minlash ustuvor vazifalar hisoblanadi. Baholovchilarning o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlari tomonidan chora-tadbirlar va ushbu tashkilotlarning davlat va baholash xizmatlari iste’molchilari oldidagi javobgarligini kuchaytirish lozim.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xalqaro amaliyotda baholash faoliyatini tartibga solish va boshqarish davlat tomonidan tartibga solinmagan, albatta, O‘zbekiston Respublikasi kabi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida bo‘lgan mamlakatlar bundan mustasno. Xalqaro amaliyotda baholash faoliyati baholash faoliyatiga ixtisoslashgan jamoat birlashmalari va yoki uyushmalar tomonidan tartibga solinib boriladi. Ushbu jamoat birlashmalari o‘zining standartlarini ishlab chiqadi va ularni o‘z a’zolariga foydalanish uchun tavsiya qiladi.

Xalqaro amaliyotda standartlarning uchta guruhi mavjud:

1) xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan millatlararo standartlar – Xalqaro baholash standartlari (keyingi o‘rinlarda – IVS);
2) davlatlararo standartlar, masalan, Yevropa baholash standartlari (keyingi o‘rinlarda – ECO);
3) muayyan davlat qonunchiligi doirasida qabul qilingan va uning hududida qo‘llaniladigan milliy standartlar.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvi Xalqaro baholash standartlarini mamlakatimizda qo‘llash va ular bilan milliy standartlarni uyg‘unlashtirish zarurligini belgilaydi.

ECO (Yevropa baholash standartlari) – bu Qirollik sertifikatlangan tadqiqotchilar jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan baholash standartlari. Milliy standartlar alohida mamlakatlarning baholash standartlarini o‘z ichiga oladi.

Jahonda baholash faoliyatini standartlashtirishning uslubiy asosi Xalqaro baholash standartlari kengashi (IVSC – Xalqaro baholash standartlari kengashi) – sobiq Xalqaro baholash standartlari qo‘mitasi tomonidan chiqarilgan Xalqaro baholash standartlari (IVS) hisoblanadi.

Xalqaro Baholash Standartlari Kengashi notijorat tashkilot bo‘lib, uning asosiy maqsadi butun dunyo bo‘ylab baholash kasbini mustahkamlashdir. U quyidagi maqsadlarda ishlaydi:

- xalqaro standartlar sifatini doimiy ravishda oshirish, shuningdek, ularni jahon miqyosida joriy etish va qo‘llash;

- baholash standartlari bo‘yicha xalqaro kengashga a’zo bo‘lgan tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi va hamkorligiga ko‘maklashish;
- boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ta’minlash;
- baholovchi kasbining xalqaro ovozi sifatida xizmat qilish.

Baholash standartlari – nazorat qiluvchi davlat organlari yoki baholovchilarning o‘zini o‘zi boshqarish professional tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan hamda professional faoliyat uchun rahbar bo‘lib xizmat qiladigan obyektlarning qiymatini baholashning asosiy tushunchalari va qoidalari to‘plami [6].

Xalqaro baholash standartlari (IVS) baholash amaliyotida shaffoflik va izchillikni rag‘batlantiradigan umume’tirof etilgan tushunchalar va tamoyillardan foydalangan holda baholash bo‘yicha kelishuvlarni bajarish uchun standartlardir. XBS, shuningdek, professional baholovchilarning faoliyati va malakasiga asosiy amaliy yondashuvlarni shakllantirishga hissa qo‘shadi [7].

XBS (Xalqaro baholash standartlari) doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Birinchi xalqaro baholash standartlari to‘plami 1985-yil chiqarilgan bo‘lib, undan so‘ng standartlar 1994-yil, 2001, 2005, 2007, 2011, 2013 va 2017-yillarda yangilanib, to‘ldirilib qayta nashr qilib borildi. Amaldagi to‘plam 2020-yilda yangilandi va kuchga kirdi. Xalqaro baholash standartlari kengashi raisi Stiven Sherman Xalqaro baholash standartlarining yangi nashri haqida shunday dedi: “Yangi xalqaro baholash standartlari jahon miqyosida e’tirof etilgan baholarni tayyorlash tushunchalari va tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Investorlar tayanadi. Baholash moliyaviy qarorlarni qabul qilishda, xoh u investitsiyalar uchun bo‘ladimi, xoh butun moliyaviy tizim bo‘yicha samaradorlikni o‘lchash uchun bo‘ladimi, asosiy funksiya bo‘lganligi sababli, oldini olish mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olish uchun zamonaviy va yuqori sifatli baholash standartlari to‘plami zarur [8].

2-jadval: Amaldagi XBS to‘plamining tarkibiy tuzilishi[1]

XBSning 2017-yildagi nashri	XBSning 2020-yildagi nashri
Kirish	Kirish
Asosiy tushunchalar va atamalar	Asosiy tushunchalar va atamalar
Umumiy qoidalar	Umumiy qoidalar
Umumiy standartlar	Umumiy standartlar
IVS 101 Baholashga oid vazifa	IVS 101 Baholashga oid vazifa
IVS 102 Baholashdagi tadqiqotlar va o‘rganishlar	IVS 102 Baholashdagi tadqiqotlar va o‘rganishlar
IVS 103 Baholash hisobotiga qo‘yiladigan talablar	IVS 103 Baholash hisobotiga qo‘yiladigan talablar
IVS 104 Baholash bazalari	IVS 104 Baholash bazalari
IVS 105 Baholash yondashuvlari va usullari	IVS 105 Baholash yondashuvlari va usullari
Aktivlar turlari bo‘yicha standartlar	Aktivlar turlari bo‘yicha standartlar
IVS 200 Biznes va ulardagi ulushlar	IVS 200 Biznes va ulardagi ulushlar
IVS 210 Nomoddiy aktivlar	IVS 210 Nomoddiy aktivlar
IVS 300 Mashina va uskunalar	IVS 220 Nomoliyaviy majburiyatlar
IVS 400 Ko‘chmas mulkga bo‘lgan huquqlar	IVS 300 Mashina va uskunalar
IVS 410 Qurilish jarayonidagi ko‘chmas mulk	IVS 400 Ko‘chmas mulkga bo‘lgan huquqlar
IVS 500 Moliyaviy instrumentlar	IVS 410 Qurilish jarayonidagi ko‘chmas mulk
	IVS 500 Moliyaviy instrumentlar

1 Muallif ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, XBSning 2020-yildagi oxirgi nashrida to'plamga IVS 220 "Nomoliyaviy majburiyatlar" nomli standart kiritilgan. Ushbu standartga ko'ra nomoliyaviy majburiyatlarga quyidagilar kiradi:

- Tabiat, atrof-muhit bilan bog'liq majburiyatlar.
- Mijoz jalb qilish dasturlari bo'yicha majburiyatlar.
- Tovarlarni qaytarib olish bo'yicha majburiyatlar.
- Muayyan ehtimoliy xarajatlar bo'yicha rezervlar.
- Kompensatsiya va kafolatlar bo'yicha majburiyatlar va hokazo.

Eng ilg'or standartlashtirish tizimlaridan biri Yevropaning baholovchilar uyushmalari guruhi TEGoVA (Yevropa baholovchilar uyushmalari guruhi) tomonidan ishlab chiqilgan va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Yevropa tizimidir. TEGoVA a'zolari Yevropa Ittifoqi mamlakatlari baholovchilarining professional tashkilotlari, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa professional uyushmalaridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ECO (Yevropa baholash standartlari), asosan, qabul qilingan Yevropa qonunchiligiga muvofiq moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash maqsadida baholashga e'tibor qaratadi. Ular maslahat xarakteriga ega va XBS bilan kelishilgan. ECO (Yevropa baholash standartlari) XBSning ayrim qoidalarini batafsil bayon qiladi va ularning ayrimlarini taqdim etishda tafovutlar mavjud bo'lganda tushuntirishlar beradi.

2012-yilda Yevropa Ittifoqining moliyaviy va ko'chmas mulk bozorlarini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida TEGoVA 2012-yilda ko'chmas mulkni baholash bo'yicha Yevropa standartini ishlab chiqdi [9].

Baholash faoliyatining jahon amaliyotidagi milliy baholash standartlari ichida Amerika Qo'shma Shtatlarining Professional baholash amaliyotining yagona standartlari (USPAP) eng ilg'or hisoblanadi.

USPAP quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- baholash o'tkazish, baholash hisobotini tekshirish yoki maslahat xizmatlarini ko'rsatishda rioya qilinishi lozim bo'lgan shartlar;
- baholash, audit yoki maslahat xizmatlarini amalga oshirish tartibi.

Baholash faoliyati 10 ta standart bilan tartibga solinadi. 1 va 2-standartlar xarajatlarni baholash jarayonini belgilaydi. 3-standart baholash hisobotlarini ko'rib chiqish va ushbu standartlar asosida hisobot berish standartlarini belgilaydi. 4 va 5 standartlar ko'chmas mulk va ko'chmas mulkni baholashda baholovchining maslahat funksiyalarini ishlab chiqish va umumlashtirishga qaratilgan. 6-standart ko'chmas mulk yoki boshqa turdagi mulkni soliqqa tortish maqsadlarida ommaviy baholash natijalarini ishlab chiqish va hisobot berish uchun zarur mezonlarni belgilaydi. 7 va 8-standartlar shaxsiy mulkni baholashni ishlab chiqish va umumlashtirish standartlarini belgilaydi. 9 va 10-standartlar biznesni baholashni ishlab chiqish va umumlashtirish uchun standartlarni belgilaydi.

Standartlar baholash standartlari qo'mitasi tomonidan standartlar yoki standartlar qoidalarini tushuntirish, sharhlash, talqin qilish yoki ishlab chiqish maqsadida chiqarilgan baholash standartlari bayonotini o'z ichiga oladi. Tushuntirish sharhlari yagona standartlarning ajralmas qismi bo'lib, standartlar qoidalari, ta'riflari va qoidalarini sharhlash sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Sharhlar Qiymat Standartlari Kengashi (ASB) tomonidan standartlarning ba'zi qoidalari, ta'riflari yoki qoidalariga talablar va qo'llanilishi bo'yicha sharhlarni taqdim etadi.

Baholovchining faoliyatida axloqiy majburiyatlar muhim rol o'ynaydi. Standartlar tushuntirish yozuvlarini o'z ichiga oladi va to'rt bo'limni (xulq-atvor, boshqaruv, maxfiylik va ish yuritish) o'z ichiga olgan axloqiy bayonotlar bilan boshlanadi hamda halollik, xolislik, qaror mustaqilligi va axloqiy xulq-atvor talablarini belgilaydi. Bundan tashqari, ushbu standartlar qaror qabul qilinmaguncha bevosita mas'uliyatni baholovchiga yuklaydigan kompetensiya qoidalarini o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar uchun ta'riflar ham kiritilgan. Standartlar majburiy va o'ziga xos talablarni o'z ichiga oladi, ularga cheklash qoidalari ma'lum cheklangan sharoitlarda qo'llaniladi.

Ushbu o'ziga xos shartlar preambula, axloq qoidalari, vakolat qoidalari va ta'riflardan chetlanishlarni o'z ichiga olmaydi.

Shuni takidlash joizku, 10 ta USPAP standartlariga qo'shimcha ravishda, USPAPni soddalashtirish, izohlash, aniqlashtirish yoki takomillashtirishga xizmat qiluvchi standart hujjatlar ham mavjud. Standartlar qoidalari bilan bir qatorda hujjatlar majburiydir. Baholash standartlari kengashi, shuningdek, baholash amaliyotida USPAPni qo'llashda bahsli masalalarni hal qilish bo'yicha o'z maslahatlarini taqdim etadigan maslahat fikrlarini nashr etadi. 1994-yil nashridan beri USPAP barcha baholash atamalarining lug'atini ham o'z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida baholash faoliyatining maxsus standartlari dastlab 2006-yildan boshlab ishlab chiqila boshladi. Yagona miliy baholash standarti (YaMBS) – bu O‘zbekiston Respublikasining baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonun-qoidalari asosida ishlab chiqilgan va davlat nazorati organlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari tomonidan qabul qilingan obyektlarning qiymatini baholashning asosiy tushunchalari va qoidalari to‘plami hamda baholovchilarning professional tashkilotlarini boshqarish va kasbiy faoliyat uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilish.

Baholash standartlari tizimi O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti va baholash tashkilotlarining o‘zini o‘z tartibga solish uyushmalari qoidalari standartlaridan iborat. Hozirda O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti 13 ta Mulkni baholash standartlari (MBS)dan iborat bo‘lib, ular quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Mulkni Baholash Standartlari(MBS)[2]

Tartib raqami	Nomlanishi
№1	Baholash faoliyatida foydalaniladigan prinsiplar, atamalar va ta’riflar
№2	Baholashga oid vazifa
№3	Baholash jarayonida o‘tkaziladigan o‘rganishlar va tahlillar
№4	Baholash haqidagi hisobotni tuzish
№5	Baholash bazalari
№6	Baholash yondashuvlari va usullari
№7	Biznesni va biznesda ishtirok etish huquqini baholash
№8	Ko‘chmas mulkni baholash
№9	Nomoddiy aktivlarni baholash
№10	Tovar-moddiy zaxiralarini baholash
№11	Mashina va uskunalarni baholash
№12	Xususiylashtirish maqsadida davlat uy-joy fondini baholash
№13	Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariga qo‘yiladigan umumiy talablar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar asosida mamlakatimizda baholash xizmatlar bozori faoliyat samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbir va tavsiyalarni belgilash maqsadga muvofiq:

- baholash xizmatlar bozorining iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashdagi yuksak ahamiyatidan kelib chiqib, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash, uning bajarilishini jiddiy nazoratga olish lozim;
- baholovchi kadrlarning malakasini muntazam oshirib boorish tizimini joriy etish va ularni xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritishda ko‘maklashish va ularni rag‘batlantirish;
- O‘zbekiston Respublikasi mulkni baholash bo‘yicha standartlarini xalqaro standartlarga yanada uyg‘unlashtirishga, shuningdek, baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasida to‘plangan xalqaro tajribani tanqidiy tahlil qilish va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;
- milliy iqtisodiyotda baholash xizmatlari bozorining rolini oshirish uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekiston baholash xizmatlari bozoriga to‘liq tatbiq etish, bu borada malakali mutaxassislar tayyorlash tizimiga yagona tuzilmani yaratish g‘oyasi asosida yondashish, sohani raqamli iqtisodiyot talablari asosida qayta ko‘rib chiqish va baholash faoliyatini tartibga soluvchi mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

2 Aktamov B. M., Baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning milliy va xorij amaliyoti xususiyatlari. // Maqola. Iqtisodiyot va ta’lim 3-son (2022) https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/531

Adabiyotlar:

1. Козырев А. Н., Макаров В. Л. Особенности оценочной деятельности применительно к условиям новой экономики. – Москва, 2003.
2. Nawrocka, E. (2018). Income Risk in Property Valuation for Loan Security Purposes, Real Estate Management and Valuation, vol. 26, no. 2. – pp. 12–22. DOI: 10.2478/remav-2018-0012
3. David S. Bunton. The Appraiser Regulatory System in the United States //Information Technology & Management . Jun 2019, Vol.15 Issue 2. – pp.168–182.
4. International Valuation Standards IVS -2017. IVSC, 2017. – 115 p.
5. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/531
6. Финансово-кредитный энциклопедический словарь.// Под общ. ред. А. Г. Грязново. – М.: Финансы и статистик, 2020.
7. Xalqaro Baholash Standartlari (IVS). 2020.
8. Саттарова Н. А., Правовые аспекты государственного регулирования банковскойдеятельности // Банковское право. 2010. № 2. – С. 25.
9. Смагина И. А., Предпринимательское право // Учеб. пособие. 3-е изд., испр.и доп. – М., 2008. – С. 136; Предпринимательское право Российской Федерации / Учебник / под ред.
10. Aktamov B. M. Baholash faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning milliy va xorij amaliyoti xususiyatlari // Maqola. Iqtisodiyot va ta'lim 3-son (2022) https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/531
11. O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi 811-I-sonli qonuni. 19.08.1999-y. http://lex.uz/
12. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi "Baholovchilar va rieltorlarning malaka imtihonini o'tkazish va ularga malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 805-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respubliksining Yagona Milliy Baholash Standarti. 04.06.2020-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3239. http://lex.uz.

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY BOSHQARISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH USLUBIYOTI

Axmedov Sayfullo Normatovich
t. f. n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini makrodarajada baholash bo‘yicha yondashuvlar ko‘rib o‘tilgan. O‘zbekistonda suv resurslarining notekis taqsimlanishi sharoitida hududlarda ulardan foydalanish holatini tahlil qilingan. Baholash natijalari asosida hududlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish va samaradorligini aniqlash bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: suv, hududlar, suv resurslaridan oqilona foydalanish, samaradorlik, samaradorligini aniqlash uslubi.

Abstract: In this article, approaches to evaluating the efficiency of water resources use at the macro level are considered. In the conditions of uneven distribution of water resources in Uzbekistan, the situation of their use in regions was analyzed. Based on the results of the assessment, proposals were made to determine the rational use and efficiency of water resources in the districts.

Key words: water, water resources, rational use of water resources, efficiency, method of determining efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрены подходы к оценке эффективности использования водных ресурсов на макроуровне. В условиях неравномерного распределения водных ресурсов Узбекистана проанализирована ситуация их использования в регионах. По результатам оценки были внесены предложения по определению рационального использования и эффективности водных ресурсов в районах.

Ключевые слова: вода, водные ресурсы, рациональное использование водных ресурсов, эффективность, метод определения эффективности.

KIRISH

Mazkur maqolada suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini makrodarajada baholash bo‘yicha yondashuvlar ko‘rib o‘tilgan. O‘zbekistonda suv resurslarining notekis taqsimlanishi sharoitida hududlarda ulardan foydalanish holati tahlil qilingan. Taiponing olmos ajralish modeli (Tapio Decoupling Diamond model) asosida Respublika hududlari bo‘yicha 2010–2021-yillar hamda 2015–2021-yillarda suv resurslarining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri baholangan. Baholash natijalari asosida hududlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish va samaradorligini aniqlash bo‘yicha takliflar berilgan.

Suv hayotning barcha jabhalari uchun zaruriy vositadir. Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, shuningdek, ekotizimlarning yaxlitligi va saqlanib qolishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy resurs hisoblanadi. Suv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ishlab chiqarish va iste’mol bilan bog‘liq faoliyat uchun birlamchi moddiy resurs sifatida qaraladi. Shuning uchun barcha mamlakatlarda suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda ham suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi va sanoatda suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari davlatning ustuvor siyosati sifatida qaraladi.

Suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini zamonaviy texnologiyalar asosida yuritishning bozor mexanizmlaridan foydalanish ham ustuvor vazifalardan biridir. Shunga ko‘ra, suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini makrodarajada kompleks baholash usullarini ishlab chiqish ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Dunyo miqyosida suv resurslarining ko‘pligiga hamda va bu resursning asosan qayta tiklanadigan xususiyatiga qaramasdan, dunyo aholisining beshdan bir qismi suv tanqisligi sharoitida yashaydi[1]. Bu, birinchi navbatda, chuchuk suvning makon va vaqt bo‘yicha noteks taqsimlanishi natijasidir, bu iqtisodiy nomutanosiblik, tartibsizliklari va muvaffaqiyatsizliklarning asosiy harakatga keltiruvchi omil hisoblanadi. Shunga ko‘ra, suv resurslaridan samarali foydalanish va ularning hisobini yuritishda ko‘plab yondashuvlar shakllangan[2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Suv resurslaridan foydalanishni kompleks iqtisodiy baholash va uni samarali boshqarish bo‘yicha ko‘plab xorijiy olimlar tadqiqot olib borgan bo‘lib, so‘ngi tendensiyalar ekomuhit bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lamining kengligi bilan harakterlanadi. Jumladan, Xiaojun Xiang va boshqalar[3] tadqiqotlarida barqaror suv resurslarini boshqarish yer hayoti va kelajagini ta’minlashning muhim jarayon ekanligi ta’kidlangan. Unda Suv resurslarini rejalashtirishning dinamik modeli (Dynamic WatER Resource Planning – AIDWRP) taklif etiladi. Mazkur model suv resurslarini taqsimlashning muniy intellektga asoslangan boshqaruviga asoslanadi.

Zhaoyang Yang va boshqalarning[4] tadqiqotlarida esa suv resurslarining o‘tkazish qobiliyati (Water Resources Carrying Capacity – WRCC) kontsepsiyasi bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotda analitik iyerarxiya jarayoni (Analytic Hierarchy Process – AHP) va tizim dinamikasi (SD) modellari asosida suv resurslarining o‘tkazish qobiliyatining simulyatsiya modeli yaratilgan. Mazkur simulyatsiya modeli asosida suv resurslarini mamlakat hududlari bo‘yicha samarali taqsimlash bo‘yicha 5 ta seynaridagi variantlar taklif etiladi.

S. V. Ciriacy-Wantrup va boshqalar[5] tadqiqotlarida suv resurslaridan foydalanishni baholashda ikkita yondashuv taklif etiladi. Birinchidan, suv resurslaridan foydalanish orqali ko‘riladigan foyda-xarajat tahlilining turli xil hisoblash texnikasi orqali. Ikkinchi yondashuv suv resurslarini belgilangan me’yorlarini o‘rnatish va ularga nisbatan farq va chetlanishlarni aniqlash asosida.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor hududlarda suv resurslaridan oqilona foydalanishga qara-tilgan tadqiqotlarga ahamiyat keng qaratilgan. Jumladan, V. Fomina[6] tadqiqotlarida Rossiyaning Shimoli-G‘arbiy Federal okrugi hududlarida ishlab chiqarilgan mahsulotning suv sig‘imi va suvni yo‘qotishning o‘ziga xos ko‘rsatkichlari bo‘yicha suvdan foydalanish xususiyatlari aniqlangan.

Mazkur maqolada hududlarida suvdan foydalanish samaradorligini baholash orqali suv resurslarini tejamkorligiga erishishning hududiy strategiyasi taklif etilgan. Undagi asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar tahlil qilinadi: ishlab chiqarishda chuchuk va qayta ishlangan suvdan foydalanish darajasi, maishiy va ichimlik ehtiyojlari uchun suvning solishtirma iste’moli, suv yo‘qotishlari, oqava suvlar miqdori va ifloslanish darajasi bo‘yicha ularning tarkibi va boshqalar.

Umuman olganda, O‘zbekiston olimlari tomonidan suv resurslaridan foydalanish samaradorligi baholashga bo‘lgan metodogik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami past. Shunga ko‘ra, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ishlab chiqish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 1-apreldagi PQ–107-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga ko‘ra, 2023-yil avgustgacha 2022-yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan hamda subsidiya mablag‘larining 50 foizini olgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga tizimlarning ishlatilishiga qarab belgilangan subsidiya miqdorining qolgan 50 foizi tuman ishchi guruhi xulosasi asosida ajratilishi belgilangan. Biroq suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilib undan ko‘riladigan iqtisodiy samarani hisoblash, mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan suv sarfi me’yorlarini ishlab chiqish kabi masalalar bo‘yicha aniq metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. O‘zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini iqtisodiy baholash mezonlarini qo‘llashni modellashtirish dasturi ishlab chiqish bo‘yicha ham bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

1 https://www.fao.org/land-water/en
2 Hering J. G., Ingold K. M. (2012). Water resources management: what should be integrated? //Science. – T. 336. – №. 6086. – P. 1234-1235.
3 Xiang X. et al. (2021). Urban water resource management for sustainable environment planning using artificial intelligence techniques //Environmental Impact Assessment Review. – T. 86. – P. 106515
4 Yang Z. et al. (2019). Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi'an city, China //Journal of environmental management. – T. 230. – P. 221–233
5 Ciriacy-Wantrup, S. V., Bishop, R. C., Andersen S. O. (2019). Water policy and economic optimizing: Some conceptual problems in water research //Natural Resource Economics. – Routledge. – P. 67–76.
6 Фомина Валентина Фёдоровна Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2010. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-ispolzovaniya-vodnyh-resursov-v-regionah-severo-zapadnogo-federalnogo-okruga-v-svete-vodnoy-strategii (дата обращения: 26.08.2023).

Yuqoridagilar bilan birga, suv sarfi normalarini makrodarajada baholash va hududlarni tarmoq va sohalari uchun sarflanayotgan suv resurslarini samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash metodikalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Masalan, Rossiya Federatsiyasida mamlakatning innovatsion rivojlanishining suv resurslari komponenti integral ko‘rsatkich – yalpi ichki mahsulotning (YaIM) suv intensivligi bilan baholash orqali suv resurslaridan foydalanish strategiyalarini qabul qilgan[7].

Fikrimizcha, hududlarning suvdan foydalanish darajasini baholash uchun jahon va mahalliy amaliyotda keng qo‘llaniladigan suv bilan ta’minlanganlik mezonlari va suvdan foydalanish samaradorligi mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Suv mavjudligining eng muhim mezonlaridan biri suvning qayta tiklanadigan manbalardagi ulushi sifatida belgilangan suv stressi indeksidir. Ushbu ko‘rsatkichning qiymatiga asoslanib, Jahon Resurs Instituti quyidagi shartlar asosida suv ta’sirini tasniflaydi: <10% – past stress darajasi; 10–20% – past va o‘rtacha stress; 20–40% – o‘rta va yuqori stress; 40–80% – og‘ir stress; >80% – juda yuqori stress[8].

BMTning ustuvor rivojlanish dasturi doirasida hozirda 6.4.2 ko‘rsatkichi ishlab chiqilgan. Bunda suv resurslariga bosim darajasi: mavjud chuchuk suv manbalaridan chuchuk suv olish darajasi va uni qayta ishlash (tozalash) indekslari asosiy baholash mezonlari sifatida kiritilgan. Ushbu ko‘rsatkichning global hisobi metodologiya[9] asosida amalga oshiriladi, unga ko‘ra suv ekotizimlarini saqlash uchun zarur bo‘lgan atrof-muhit oqimini hisobga olgan holda suv stressi mezoni baholanadi.

Suvdan foydalanish samaradorligini baholashning makroiqtisodiy tahlil qilishda esa so‘nggi yillarda “Decoupling Diamond model”dan foydalanish ko‘payib bormoqda. Bunda suvdan foydalanish samaradorligi mezonlari sifatida ikkita ko‘rsatkich tanlanadi. Birinchisi, suv resurslarining foydalanish samaradorligi YHM qiymatining suv olish hajmiga (ming so‘m/m^3) nisbati sifatida aniqlanadi. Ikkinchisi, foydalanish intensivligi (YaHMga nisbatan suvdan foydalanish intensivligi) – samaradorlikning o‘zaro nisbati elastiklik koeffitsiyentlari asosida aniqlanadi.

Suvdan foydalanish samaradorligini baholashda xalqaro tadqiqotlarda eng ko‘p sinovdan o‘tgan metodoloiya sifatida “The Decoupling Diamond” mintaqaviy suvdan foydalanish barqarorligini baholash modelidir.

Model iqtisodiy o‘sish sur’atlari, resurslarni iste’mol qilish yoki atrof-muhitning ifloslanishi va bu ko‘rsatkichlarning iqtisodiy o‘sishga nisbatini ifodalovchi elastiklik koeffitsiyenti qiymatiga qarab ajralishning sakkizta kritik mezon asosida baholaydi (1-rasm).



1 rasm: Taiponing olmos ajralish modeli (Tapio Decoupling Diamond modeli)ga muvofiq taqsimot holati[10]

7 Фомина В. Ф. Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2010. – Т. 11. – №. 3. – С. 75–89.

8 Ritchie, H., Roser, M. (2017). Water use and Stress // Our World in Data. УРЛ: https://ourworldindata.org/water-use-stress (дата обращения: 10.01.2023).

9 Progress on Level of Water Stress: Global status and asseleration needs for SDG Indicator 6.4.2. FAO, UN Water. – Rome, 2021. – 95 p. https://doi.org/10.4060/cb6241эн

10 Fomina, V. F. Identifying the Effect of Decoupling in Major Economic Sectors of the Komi Republic //Ekonomicheskiei Sotsialnye Peremeny. – 2022. – T. 15. – №. 1. – pp. 176–193.

Modelning vizualizatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, suv resurslari iste’moli ΔEP va yalpi mahsulot ΔYaIM (viloyatlar bo‘yicha YaHM) o‘zgarishiga qay darajada elastikligi (ekspansiv va resessiv bog‘lanish) yoki ajratilgan (kuchli, zaif, retsessiv ajralish – kuchli, zaif) bo‘lishi mumkin. Yoki manfiy ajratilgan (kuchli, zaif, retsessiv salbiy ajratish – kuchli, zaif, retsessiv salbiy ajratish).

Global va mintaqaviy baholashlar uchun umumlashtirish formulaning turli o‘zgaruvchilari qiymatlarini, ya’ni tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymatni va suvdan foydalanishni darajalarini aniqlash, suv sarfi darajasini o‘sishi yoki kamayishi kabilardan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqsimot tizimida o‘zgaruvchilarni joylashtirish uchun sakkizta mantiqiy imkoniyat mavjud (1-rasm). Bunda viloyatlardagi suv sarfi hajm EP (ΔEP), mln. m^3 va YaIM (Δ YaIM) o‘zgarish sur’atlari birlashtirilgan, ajratilgan yoki manfiy ajratilgan bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy o‘sish natijasida suv sarfi hajm ining o‘sishi foizlarda ifodalanadi va va ma’lum vaqt oralig‘ida YaIMning foiz birlik o‘zgarishiga elastikligi asosida hisoblanadi. Elastiklik koeffitsiyenti “e” quyidagi formula asosida hisoblanadi (1.1.):

$$e = \%\Delta EP / \%\Delta YaIM \quad (1.1.)$$

Bu yerda;

e – elastiklik koeffitsiyenti;

EP – iqtisodiyot sohalarida suvning ishlatilishi hajmining o‘sish sur’atlari, %;

YaIM – Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining o‘sish sur’atlari, foizda;

O‘rganilayotgan vaqt davri qanchalik ko‘p bo‘lsa, natijalar shunchalik ishonchli bo‘ladi[11]. Ushbu tadqiqotda suv resurslaridan foydalanish va ularni hududiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish uchun uzoq davr 2010–2021-yillar hamda qisqa davr 2015–2021-yillar bo‘yicha aniqlash maqsadga muvofiq. Bu uzoq va yaqin vaqt davomida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy o‘sishga tasirini taqqoslash imkoniyatini beradi.

Elastiklik koeffitsiyenti 1;0 atrofida ±20% o‘zgarishi bog‘lanish deb hisoblanadi, bu sabab-oqibat bog‘lanishning paydo bo‘lishiga olib keladi. 0,8 dan 1,2 gacha bo‘lgan elastiklik qiymatlari kritik qiymat sifatida kiritiladi.

O‘zgaruvchilarning o‘zgarish sur’atlari ijobiy bo‘lishi mumkin, kengayuvchi bog‘lanish sifatida ifodalanganda salbiy, retsessiv bog‘lanish sifatida ifodalanadi. Baholash uchun kiritiladigan asosiy kritik mezonlar 1-jadvalda aks etgan.

1 jadval: Olmos ajralish modeli model bo‘yicha kritik mezonlar[12]

Ajratish holati		Ajralishning elastiklik qiymati (Elastic Decoupling Value “e”)		
Salbiy (negative) ajralish	keng tarqalgan salbiy ajratish (expansive negative decoupling)	e >1.2	>0	>0
	zaif salbiy ajratish (weak negative decoupling)	0< e <0.8	<0	<0
	kuchli salbiy ajratish (strong negative decoupling)	e<0	>0	<0
Ajralish (decoupling)	retsessiv ajralish (recessive decoupling)	e >1.2	<0	<0
	zaif ajralish (weak decoupling)	0< e <0.8	>0	>0
	kuchli ajralish (strong decoupling)	e<0	<0	>0
Ulanish (coupling)	kengaytirilgan ulanish (expansive coupling)	0.8< e <1.2	>0	>0
	Retsessiv ulanish (recessive coupling)	0.8< e <1.2	<0	<0

Mazkur model uchun O‘zbekiston Respulikasi hududiy suv resurslaridan foydalanish darajasi va YaHM bo‘yicha barcha viloyatlar uchun 2010–2022-yillardagi ma’lumotlardan foydalaniladi va tegishli koordinatalar o‘qiga joylashtiriladi va tendensiyalar o‘rganiladi.

XULOSA

Agar suv resurslaridan foydalanish samaradorligi har bir hudud bo‘yicha aniq hisob-kitoblar qilinsa, hududlarning raqobatda ustun bo‘lgan mahsulot va hizmat turlarini aniqlash va suv sarfi yuqori bo‘lgan tarmoqlarni qayta joylashtirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlarni belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda barcha viloyatlar bugungi kunda o‘zlarining suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan aniq strategiyasining mavjud bo‘lishi, mazkur strategik maqsadlar umumiylikdan chet-

11 Tapio, P. (2005). Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001’, Transport Policy, vol. 35. – pp. 137–151.

12 Jiang R., Zhou Y., Li R. (2018). Moving to a low-carbon economy in China: Decoupling and decomposition analysis of emission and economy from a sector perspective //Sustainability. – T. 10. – №. 4. – P. 978.

langan holda xususiylikka qarab belgilansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari har bir tarmoq yoki sohalar uchun aniq xulosalar berolmasada, respublika viloyatlari, shahar va tumanlarida suv sarfi me’yorlarini o‘rnatish imkoniyati yaratib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.fao.org/land-water/en/
2. Hering, J. G., Ingold, K. M. (2012). Water resources management: what should be integrated? //Science. – T. 336. – №. 6086. – P. 1234–1235.
3. Agarwal, A. et al. (2000). Integrated water resources management. – Stockholm: Global water partnership. – P. 1–67.
4. Savenije, H. H. G., Van der Zaag, P. (2008). Integrated water resources management: Concepts and issues //Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. – T. 33. – №. 5. – P. 290–297.
5. Rahaman, M. M., Varis, O. (2005). Integrated water resources management: evolution, prospects and future challenges //Sustainability: science, practice and policy. – T. 1. – №. 1. – P. 15–21.
6. Biswas, A. K. (2004). Integrated water resources management: a reassessment: a water forum contribution //Water international. – T. 29. – №. 2. – P. 248–256.
7. Организация Объединенных Наций, Руководство по национальным счетам: комплексный экологический и экономический учет, 2003 год, Серия Ф, № 78, Рев.1 [издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № Э 00.ХВИИ.17 (далее по тексту – Руководство по национальным счетам), на англ. языке]
8. https://seea.un.org/content/seea-water-0#:~:text=The%20System%20of%20Environmental%2DEconomic,is%20entirely%20consistent%20with%20it.
9. Xiang, X. et al. (2021). Urban water resource management for sustainable environment planning using artificial intelligence techniques //Environmental Impact Assessment Review. – T. 86. – P. 106515.
10. Yang, Z. et al. (2019). Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi’an city, China //Journal of environmental management. – T. 230. – P. 221–233.
11. Ciriacy-Wantrup, S. V., Bishop, R. C., Andersen, S. O. (2019). Water policy and economic optimizing: Some conceptual problems in water research //Natural Resource Economics. – Routledge. – P. 67–76.
12. Фомина Валентина Фёдоровна Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2010. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-ispolzovaniya-vodnyh-resursov-v-regionah-severo-zapadnogo-federalnogo-okruga-v-svete-vodnoy-strategii (дата обращения: 26.08.2023).
13. Сивохип Жанна Тарасовна, Павлейчик Владимир Михайлович. Современное состояние и использование водных ресурсов трансграничных рек степной зоны // ВХР. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-ispolzovanie-vodnyh-resursov-transgranichnyh-rek-stepnoy-zony (дата обращения: 26.08.2023).
14. Султонов А. О. Применения информационных систем по использования водных ресурсов в Узбекистане // Научные исследования-основа современной инновационной системы. Международной научно-практической конференции Стерлитамак. – 2019. – С. 141–144.
15. Кутлимуродов У. М. Решения для эффективного использования водных ресурсов в регионах Республики Узбекистан //Символ науки. – 2021. – №. 3. – С. 14–17.
16. Пренов А. Б. Ер-сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий асослари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2014. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/er-suv-resurslaridan-samarali-foydalanishning-tashkiliy-i-tisodiy-asoslari (дата обращения: 26.08.2023).
17. Amirov L.F. O‘zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_L_Amirov.pdf
118. Фомина В. Ф. Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2010. – Т. 11. – №. 3. – С. 75-89.
19. Ritchie H., Roser M. Water use and stress // Our World in Data. 2017. URL: https://ourworldindata.org/water-use-stress (data obrashcheniya: 10.01.2023).
20. Progress on Level of Water Stress: Global status and acceleration needs for SDG Indicator 6.4.2. FAO, UN Water. Rome, 2021. 95 p. https://doi.org/10.4060/cb6241en
21. Finel, N., Tapio, P. Decoupling transport CO2 from GDP / Finland Futures Research Centre. FFRC eBOOK1/2012. – 42 p. URL: https://urn.fi/URN:NBN: fi-fe2019052116441 (data obrashcheniya: 12.04.2021)
22. Fomina, V. F. (2022). Identifying the effect of decoupling in major economic sectors of the Komi Republic // Economic and Social Changes: Facts, Trends, Forecast. Vol. 15, issue 1. P. 176–193. https://doi.org/10.15838/esc.2022.1.79.9
23. Tapio, P. (2005) ‘Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001’, Transport Policy, vol. 35, pp. 137-151.
24. Fomina, V. F. (2022). Identifying the Effect of Decoupling in Major Economic Sectors of the Komi Republic //Ekonomicheskiei Sotsialnye Peremeny. – T. 15. – №. 1. – P. 176-193.
25. Jiang, R., Zhou, Y., Li, R. (2018). Moving to a low-carbon economy in China: Decoupling and decomposition analysis of emission and economy from a sector perspective //Sustainability. – T. 10. – №. 4. – P. 978.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li
TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim muassasalari sifatni ta'minlash siyosatiga ega bo'lishi, jamoatchilik uchun ochiqligi ta'minlanishi ularning strategik boshqaruv qismi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, universitet fanini zamonaviy universitet ta'limi konsepsiyasiga muvofiq tashkil etilishi va mutaxassislar tayyorlashning ikki bosqichli tizimiga o'tish masalalari ko'rib chiqilgan.

Xalqaro standart darajasida tadqiqot faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish xususiyatlari, xususan, universitet, institut professor-o'qituvchilar tarkibi va atalabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqa-rishning tashkiliy-metodik jihatlari har tomonlama tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim konsepsiyasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, rejalashtirish va tashkil etish, oliy ta'lim muassasasi, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, tadqiqot motivatsiyasi.

Abstract: In this article, the fact that educational institutions have a policy of quality assurance and are open to the public is analyzed as part of their strategic management. Also, the organization of university science in accordance with the concept of modern university education and transition to a two-level system of training of specialists were considered.

The features of planning and organization of research activities at the international standard level, in particular, the organizational and methodical aspects of management of scientific research activities of universities, institutes and institutes, were comprehensively analyzed.

Key words: concept of education, research activity, planning and organization, higher education institution, research activity of students, research motivation.

Аннотация: В данной статье тот факт, что образовательные учреждения проводят политику обеспечения качества и открыты для общественности, анализируется как часть их стратегического управления. Также рассмотрены вопросы организации университетской науки в соответствии с концепцией современного университетского образования и перехода на двухуровневую систему подготовки специалистов.

Всесторонне проанализированы особенности планирования и организации научно-исследовательской деятельности на уровне международных стандартов, в частности, организационно-методические аспекты управления научно-исследовательской деятельностью университетов, институтов и институтов.

Ключевые слова: концепция образования, научно-исследовательская деятельность, планирование и организация, высшее учебное заведение, исследовательская деятельность студентов, исследовательская мотивация.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari asosiy o'quv faoliyati bilan bir qatorda muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham mashg'ul bo'ladi.

Mazkur jarayon talabalarni o'qitish bilan hamohang bo'lsa-da, doim ham mos kelmaydi. Bu bo'shliqni to'ldirish, metodik ta'minlash pedagog malaka va bilimlarini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan oliy ta'limning zamonaviy islohotlari shuni ko'rsatadiki, universitet ta'limining yangi konsepsiyasi va universitetlar faoliyati ko'rsatkichlarini baholash tizimi doirasida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu ilmiy tadqiqotchilar va talabalar o'rtasidagi ko'rinmas devorning olib tashlanishiga metodik asos bo'ladi.

So‘nggi o‘n yillikda bilimlarni uzatishga asoslangan universitet ta’lim tizimida sezilarli darajada o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu hodisalar bakalavr va magistrlarni ikki bosqichli tayyorlashga o‘tishga olib keldi. Texnik taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar mutaxassisning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mas’uliyatni o‘rganishi va haqiqiy kasb egasi bo‘lishiga yordam beradigan yangi ta’limga ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Hozirgi vaqtda biz o‘zimizni “bilim, qobiliyat, ko‘nikma” tushunchasi bilan cheklab qo‘ya olmaymiz. Negaki borgan sari raqobatbardoshlikni ta’minlash omili sifatida ta’lim sifatini oshirish maqsadida universitetda kompetensiyaga asoslangan ta’lim metodi ishlab chiqilmoqda.

Universitetlarda ilmiy faoliyatning rivojlanish darajasi va tashkil etilishi ko‘p jihatdan darajani belgilab berib, ilm-fan va iqtisodiyotning real sektori integratsiyasini vujudga keltirdi. Bu o‘zaro ta’sir shakli kompetensiya xususiyatlariga va pirovardida, universitet bitiruvchilariga bo‘lgan talab darajasiga ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, talaba ta’limida asosiy e’tibor bilimlarni iste’mol qilishdan mustaqil, faol fikrlashni shakllantirishga, bo‘lajak bitiruvchining ijodiy ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratiladi. Buning sababi, mustaqil ilmiy ish jarayonida talaba ancha faol izlanishlar olib boradi.

U o‘quv jarayoniga qaraganda ko‘proq darajada voqelikning turli tomonlariga duch keladi, ilmiy muammolarni aniqlashga harakat qiladi, ularni hal qilish yo‘llarini va tadqiqotning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bilan tanishadi.

Ta’kidlash joizki, tadqiqot faoliyati talabalar darsdan tashqari faoliyatning boshqa shakllarini faollashtiradi, talabalarning mustaqil ishlarining turli yo‘nalishlarini kengaytiradi.

Bunday innovatsion uslubiyot universitetda ilmiy-tadqiqot faoliyati darajasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni, ilmiy kadrlar tayyorlash sifati va darajasini oshirishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy va texnik faoliyat, bakalavriat va magistratura talabalari orasidan yosh istiqbolli kadrlarni saqlab qolish, ilmiy faoliyat natijalarini yangilash va tijoratlashtirish, universitetlararo, shahar, hududiy ilmiy-tadqiqot dasturlari va grantlarida faol ishtirok etish orqali universitetning ilmiy salohiyatini to‘plash hamda xalqaro darajada tadqiq etishni o‘rgatadi.

Universitet kafedralarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalari pirovardida o‘quv materiallariga aylantirilib, o‘quv jarayoniga joriy etiladi. Bakalavrlar, magistrlar va doktarantlarni tayyorlash va sifatini oshirishda samaradorlikning ajralmas sharti hisoblanadi.

Bu borada mahalliy olimlardan A. A. Maxmudov “Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga oid ayrim nazariy yondashuvlar” sarlavhali maqolasida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda byudjet mablag‘lari asosiy o‘rinni egallashi, moliyalashtirish mablag‘larining hajmini mamlakatning ijtimoiy rivojlanish darajasi, aholining daromadi, yalpi ishlab chiqarish mahsulotlari, moddiy bazani mustahkamlash va qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini topish, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining oliy darajadagi mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji va talablariga qarab belgilanishi lozimligini ta’kidlagan.

O. S. Qahhorov esa “Ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini baholash” degan tadqiqot materialida oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv faoliyati samaradorligi, boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorligining o‘zaro ta’siri va omillari, ta’lim muassasasi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari va kadrlar tayyorlovchi kafedralarning ustuvorlik masalalari tadqiq etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali boshqarish menejmentning barcha darajalarida universitet rahbariyati uchun ustuvor vazifaga aylanadi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish va faollashtirishni o‘z ichiga oladi:

- umuman universitet;
- tarkibiy bo‘linmalar – universitet tarmoqlari;
- universitet kafedralarining professor-o‘qituvchilari;
- aspirantlar va universitet talabalari [3].

Kafedraning ilmiy faoliyatini boshqarish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- kafedra professor-o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rejalashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) rejalarini tuzish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun xo‘jalik shartnomalarini tayyorlash, tuzish va rasmiylashtirish;
- ilmiy maqolalar, monografiyalar, to‘liq matnli ma’ruzalar tayyorlash va ularni nashr qilish;
- ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar tashkil etish va o‘tkazish;

- kafedra profili bo‘yicha forumlar, ko‘rgazmalar, tanlovlar o‘tkazish;
- tadqiqot dasturlari, tanlovlar, grantlarda ishtirok etish;
- respublikada va xorijda o‘tkaziladigan ilmiy-texnik tadbirlarda ishtirok etish;
- dissertatsiya kengashlarida qatnashish;
- ITIni rejalashtirish va tashkil etish;
- mustaqil tadqiqotchilar ishini rejalashtirish va tashkil etish;
- magistratura ta’lim dasturlari doirasida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va magistratura dasturlari:
- ta’lim jarayonida tadqiqot natijalaridan foydalanish;
- ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish.

Kafedraning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi xodimlari va boshqa bo‘limlardan jalb etilgan ishtirokchilar orasidan ijodiy guruhlar (jamoalar) yaratishni nazarda tutadi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, rahbarning asosiy vazifasi ham kafedra, ham alohida tadqiqot loyihalari integratsiyadir.

Shu sababli yuqori malakali xodimning mutlaq vakolatiga kiradigan ishlarni bajarish uchun o‘zini erkin qo‘yib, vakolatlarni topshirish qobiliyati samarali boshqaruvning asosiy belgilaridan biriga aylanadi.

Muammolarni tahlil qilish, kerakli ma’lumotlarni to‘plash, ma’lumotlarni qayta ishlash va dala tadqiqotlarini o‘tkazish uchun bakalavriat va magistratura talabalarining faol guruhlari jalb qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot guruhi ishini samarali tashkil etish qoidalarini shakllantirish kerak:

- jamoada ishni taqsimlashda imkon qadar shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish kerak;
- har bir ishtirokchining xususiyatlari, afzalliklari, tajribasi va qobiliyatlari, bu xodimlarning qiziqishi va faolligini oshirishga, ishdan qoniqish va samaradorlikni oshirishga olib keladi;
- jamoaviy faoliyat xodimlarni o‘qitish, daromad olish uchun noyob imkoniyat beradi;
- ko‘proq malakali ishchilardan bilim, tajriba, ko‘nikmalar nazarda tutiladi.

Shu sababli ishchi guruhlarni shakllantirish va vazifalarni taqsimlashda tadqiqot rahbari har bir boshqaruv vazifasini hisobga olishi kerak.

Maxsus bilim, ijodiy faoliyat, qaror qabul qilishni talab qiluvchi “malakali” qismdan va “texnik” qismdan iborat:

- tadqiqtot jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash uchun muammolarni tahlil qilish, loyihalash, ma’lumotlarni qayta ishlash, dala tadqiqotlarini o‘tkazish, qabul qilingan qarorlarni uzatish, talabalar va tadqiqotchilarning faol guruhlarini jalb qilishingiz mumkin;
- jamoa a’zolarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, samimiy qiziqish, e’tibor va ishtirok etish jamoada samarali ish munosabatlarini o‘rnatishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy rahbar o‘z qo‘l ostidagi tadqiqotchilarning ma’naviy otasi vazifasini o‘tashi lozim:

- xodimlar, oddiy ishchi bilan do‘stona, teng munosabatlarni saqlash jamoa ichidagi muhitni yaxshilash va ortiqcha munosabatlarga yo‘l qo‘yilmasligini bilishi kerak;
- etakchini jamoaning qolgan qismidan ajratib turadigan chiziqni saqlashga o‘rgatish lozim.

Bunga e’tibor bermaslik, odatda, intizomning pasayishiga, bo‘ysunishning buzilishiga, bajarish muddati va sifatiga olib keladi. Masalan:

- tadqiqot ishlari, sustlik va demagogiyani sodir qiladi.

Shaxsiy va jamoaviy muvaffaqiyatni rag‘batlantirishga alohida e’tibor berilishi kerak:

- bu jamoaning muvaffaqiyatini rag‘batlantiradi;
- tadqiqot faoliyatining umumiy muvaffaqiyati va aniqlangan muammolarni hal qilishda eng ilg‘or usullarni qo‘llash uchun nostandart yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash muhim;
- ijodiy yechimlar va tanqidiy, muqobil qarashlar.

Menejer loyihada yuzaga keladigan muammolarni va ularni muhokama qilish uchun ochiq ekanligiga ishonchi hosil qilish malakali va diqqat bilan ko‘rib chiqiladi.

Ushbu qoida xodimning (lekin jamoaning emas) xato qilish huquqini tan olish va xavfli, nostandart, eksperimental qarorlar qabul qilishda mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklarga toqat qilish bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Universitetda ilmiy faoliyatni boshqarishda magistratura tadqiqotini tashkil etishga alohida e’tibor beriladi. Magistrlarni tayyorlashda malakaga asoslangan yondashuv degani emas, magistrning individual bilim va

ko‘nikmalarni egallashi va ularni kompleksda o‘zlashtirishi, ya’ni shakllanishi tizimli fikrlash, o‘rganish qobiliyati, aql-zakovat va ijodkorlik kabi qobiliyatlarni rivojlantirish kerak.

Talablar bilan uzliksiz ishlash (magistr) modelini yaratadi. Mutaxassis modeli deganda biz keng ma’noda professional, ijtimoiy-psixologik, ijodiy mahsulni tushunamiz.

Mutaxassisning bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib yaiqib ishlashi ijtimoiy, ilmiy va texnik talablarga mos natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydigan shaxsiy fazilatga o‘rgatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Magistratura dasturlari, ta’lim bloklarining quyidagi turlarini o‘z ichiga oladi:

- an’anaviy va kasbiy ta’lim,
- ilmiy-pedagogik faoliyat kabilarni.

Garchi ta’limni o‘qitishning optimal shakli magistratura tayyorlashda, ya’ni ilmiy va pedagogik faollikni mustaqil ravishda egallashda bilish uslubining tug‘ilishini belgilaydi, oxir-oqibat uning salohiyatini isbotlaydigan yangi bilim va yechimlarni yuzaga chiqaradi.

Magistrni tayyorlash katta ilmiy tajriba-sinov ishlarini bajarishni talab qiladi. Masalan, hajm, ya’ni magistr nafaqat jarayonni tushunishi, balki ilmiy tadqiqot usullari, olingan ilmiy natijalarni sharhlay bilishi kerak. Bundan tashqari, ishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishi zarur.

Magistrning ta’lim traektoriyasi ilmiy g‘oyadan ilmiy eksperimentga va tadqiqot ishining amaliy ahamiyatiga o‘tadi.

Qobiliyatlarning barqaror tabiati:

- reja tuzish darajasida – ijodiy vazifani shakllantirish, muammoni ko‘rish;
- rejani amalga oshirish darajasida – ilmiy muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lish vazifasi, ilmiy baholash mezonlarini ishlab chiqish va yechim variantlarini tahlil qilish;
- yakuniy qaror darajasida – ilmiy faoliyatni oqilona tashkil etish;
- belgilangan maqsadga erishish.

Har qanday boshqa faoliyat kabi talabalarning tadqiqot ishlari har tomonlama boshqarishni ham talab qilinadi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rejalashtirish quyidagilarni anglatadi:

- talabalarning universitet ilmiy faoliyatida ishtirok etishining me’yoriy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;
- kafedraning ilmiy-tadqiqot faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari va ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘ziga xos mavzularini belgilash, ularga talabalarni jalb qilish tavsiya etiladi;
- universitetning tarkibiy bo‘linmalarida (kafedralarida) talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasini ishlab chiqish;
- talabalar uchun individual darslarni rejalashtirish, ilmiy seksiyalar, to‘garaklar tashkil qilish;
- idoraviy tadqiqot mavzulari bo‘yicha ilmiy ishlar tanlovlarini o‘tkazish;
- ITI uchun tanlovlar va grantlar monitoringi asosida talabalarning universitetning ilmiy faoliyatida ishtirokini kuchaytirishni rejalashtirish kabilarni.

Talabalar uchun ITIni tashkil etish deganda talabalarga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish va ularning fan bo‘yicha mustaqil o‘qishlari uchun moddiy-metodik yordam yaratishga qaratilgan universitetning barcha bo‘limlari faoliyatini qamrab olgan faoliyat tizimi tushuniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

ITI o‘qituvchilarning ochiqligini, muammolarni muhokama qilish va yechimlarni topish qobiliyatini, konstruktiv tanqidni, xato qilish huquqini berishni, talabalarning ishlariga samimiy qiziqishni, shaxsiy va kasbiy yetuklik darajasiga qarab talablar va ishtirok etish shakllarini farqlashni belgilaydi: yoshi, bilimi, qobiliyati va kafedraning ilmiy hayotida ishtirok etish istagini.

Biz zamonaviy o‘qituvchi moslashuvchan foydalanishi mumkin bo‘lgan, shuningdek, baholash tizimiga rasmiy ravishda kiritilishi mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli haqiqiy rag‘batlarni unutmasligimiz kerak.

Talabalar o‘quvchilarni ilmiy faoliyatga bevosita va bilvosita moddiy rag‘batlantirish uchun ta’lim tizimining imkoniyatlaridan ijodiy foydalanishlari mumkin, masalan:

- talabalar grantlarda qatnashish;
- talabalar va yosh olimlar uchun o‘tkaziladigan ilmiy tanlovlarda ishtirok etish;

- tuzilgan xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha kafedraning ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish;
- universitetning ilmiy faoliyatida ishtirok etish uchun oshirilgan stipendiyalar berish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini universitetda chop etiladigan ilmiy ishlar to‘plamlarida bepul nashr etish imkoniyati;
- ilmiy tanlovlar va olimpiadalarda g‘olib chiqqanlik uchun qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlash;
- yuqori darajadagi ilmiy tadbirlarda ishtirok etish imkoniyati;
- o‘z bo‘limingiz, institutingiz, universitetingizni tanlov tadbirlarida, konferensiyalar, forumlar, ilmiy-texnik mahsulotlar yarmarkalarida va hokazolarda taqdim etish imkoniyati.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun qobiliyatlarini tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Bu yerda ta’lim faoliyatini tashkil etish shakli hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Talabalarning ilmiy, ijtimoiy va ta’lim faoliyatining integratsiyasi. Talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashini faollashtiradigan va ularni ilmiy izlanishga tayyorlaydigan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- diqqatni nazariy materialni takrorlashdan, ma’ruzalarda olingan bilimlarni mustahkamlashdan harakat orqali o‘rganishga o‘tkazish;
- real aniq vaziyatlarni aniqlash va hal qilish foydasiga standart javoblarni izlashdan bosh tortish;
- vaqt va mazmun chegaralarida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish imkonini beruvchi fan dasturiga moslashuvchan yondashuv;
- ishbilarmonlik o‘yinlari usulidan faol foydalanish, tashkiliy usullardan ishonchli foydalanish boshqaruv muammolarini hal qilish vositalari;
- talabalarning mustaqil ishlarini, mustaqil ta’limini tashkil etishga e’tibor berish materiallari;
- talabalarga individual yondashish, ixtiyoriy ravishda individual chuqur o‘rganish;
- fanlarning mavzulari va bo‘limlari. Yo‘naltiruvchi xarakterdagi individual maslahatlashuvlarning rolini oshirish;
- doimiy tashviqot va tadqiqot ishlarini ommalashtirish, motivatsiya, talabalarning faol qismi ongida ilmiy ehtiyojni anglashni shakllantirish;
- o‘quvchida ma’lum madaniy darajani, muayyan muloqot qobiliyatlarini va jamoaviy harakatlarda ishtirok etishni tarbiyalash, ijodiy fikrlash tarzini rivojlantirish va faol hayotiy pozitsiya bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выходцева Е. А. Управление научно–исследовательской деятельностью студентов / Е. А. Выходцева, М. Н. Гусева // “Студенческая наука” секция “научный потенциал студенчества – университету. Взгляд через поколения”: материалы IX Межвузовской научно–практической конференции. – № 1. – М.: ГУУ, 2014. – 323 с. ISSN 1991-5497.
2. Выходцева Е. А. Проектное управление формированием корпоративной культуры // Вестник университет. Государственный университет управленияа . – 2014. - № 1. – С. 188–194
3. Резник С. Д. Управление кафедрой: учебник. – М.: Инфра–М, 2011. – 640 с. – ISSN 1609-1442.
4. Черникова В. Е. Духовность как системообразующий фактор современного образования // Наука. Инновации. Технологии. 2011. №76. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/duhovnost-kak-sistemoobrazuyuschiy-faktorsovremennogo-obrazovaniya (дата обращения: 19.04.
5. Gafforova, G. G., Khaitmetov, R. K., & Madalimov, T. A. (2020). A Strategy of Action as a Complex System. // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 90(10). – pp. 448–452.
6. G‘affarova G., Abdullaev A. Axborotlashgan jamiyatda ma’naviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari. // Academic research in educational sciences. Special Issue 2. 2021.
7. Makhmudova G., G‘affarova G., Jalalova G. O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. – 2020. – 176 b.
8. Gaffarova, G. G. (2020). Strategy of activity and systematical approach. nternational Journal of Psyshosial Rehabilition. London, United Kingdom, 24, Issue-5, May. – pp. 6645–6651.

DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASHDA “TASHABBUSLI BYUDJET” TIZIMINI QO‘LLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet daromadlarini qayta taqsimlashda “Tashabbusli byudjet”, uni qo‘llashning xorij tajribalari va zamonaviy modellari, ulardan O‘zbekiston amaliyotida samarali foydalanish yo‘llari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: daromadlarni qayta taqsimlash, “Tashabbusli byudjet”, “Ochiq byudjet” modellari, ijtimoiy munosabatlar.

MODERN MODELS OF USE OF THE INITIATIVE BUDGET SYSTEM IN THE REDISTRIBUTION OF INCOME AND WAYS OF THEIR EFFECTIVE USE

Abstract: The article studied the tariffs given by economists to the concept of regulation of valuation activities. The necessity of regulation of valuation activities and the reasons for adapting the national standards of Yanoga valuation in the Republic of Uzbekistan to world practice are analyzed. The means of state regulation of valuation activities in Uzbekistan are analyzed in detail, directions for the further development of systems for regulating valuation activities are considered.

Key words: Evaluation activities, valuation, determining the cost, valuation standards, regulation, valuation organizations, qualification certificate.

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ “ИНИЦИАТИВНЫЙ БЮДЖЕТ” В ПЕРЕРАСПРЕДЕЛЕНИИ ДОХОДОВ И ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: This article studies the “Initiative budget”, foreign experience and modern models of its application in the redistribution of budget revenues, ways of their effective use in the practice of Uzbekistan.

Ключевые слова: income redistribution, models “Initiative budget”, “Open budget”, social relations.

KIRISH

O‘tgan asrning 90-yillarida aksariyat rivojlangan davlatlarda daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida uy xo‘jaligi sektori, ya’ni, fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag‘larining muayyan bir qismini sarflash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda uning ijrosini kuzatish imkonini beruvchi tashabbusli (partisipator) byudjetlashtirish amaliyoti keng tarqaldi.

Tashabbusli byudjet – bu mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolar tomonidan bildirilgan mahalliy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan va ushbu maqsadlar uchun byudjet mablag‘larini qayta taqsimlash jarayonidir.

Tadqiqot ishining maqsadi respublikada byudjet daromadlarini qayta taqsimlash samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlarning “Tashabbusli byudjetlashtirish” modellarini O‘zbekistonda samarali qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Partisipator byudjetlashtirish mexanizmi tarixi uzoq o‘tmishga borib taqalmasligi va bu loyiha yaqin 30 yillik tajribaga asoslanganligini e’tiborga olgan holda fuqarolarning byudjet mablag‘lari sarflanishida tutgan o‘rni va uning dolzarbligi bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar N. Dias, G. Xachatryan, T. Vino-

gradova, A. Staxnyuk, V. Safaryan, D. Savinov, J. Sinki, M. Yunus, A. Joli, S. Fedorova, Y. Shumpeter, D. Geyl, F. Allen, J. Shanel-Reyno, E. Blua, A. I. Shpinov, A. Smit va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan[1].

O‘zbekistonda bu masala B. Nurmuxamedova, O. G‘aybullayev, A.Vaxobov, A. Islamkulov, A. Kuchkarov, A. Tuychiyev, B. Salimov, G.Fedyasheva, N. Karimov, T. Teshaboyev va boshqalarning ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qayta taqsimot jarayonlarini tashkil qilishda barcha rivojlangan mamlakatlarning erishgan yutuqlari tahlili har bir davlat o‘ziga xos turlicha yondashuv, usul va modellarni qo‘llaganliklarini ko‘rsatdi. Bunda eng avvalo, har qanday islohotlar negizida fuqarolik jamiyatining manfaatlari yuqori baholanganligi muhim omil bo‘lgan.

Xalqaro tajriba qayta taqsimot jarayonlarini tashkil qilishning eng samarali usuli – bu taqsimot munosabatlarida “Tashabbusli byudjetlashtirish” yoki “Tashabbusli byudjetlashtirish” orqali erishiladi.

Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo‘lsak, tashabbusli byudjetlashtirish 1989-yilda birinchi marta Braziliyaning Porto-Alegri shahrida qo‘llanilgan bo‘lib, ma’muriyat fuqarolarga shahar byudjetining bir qismini qanday taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda, o‘ttiz yillik muvaffaqiyatli amaliyotdan so‘ng, Porto-Alegri fuqarolari shahar byudjetining 20 foizini qayta taqsimlash jarayonida bevosita ishtirok etadilar[3].

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon mamlakatlarida qayta taqsimlash jarayonlarining samaradorligini oshirishda tashabbusli byudjetlashtirishdan foydalanishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jahon amaliyotida tashabbusli byudjetlashtirishning quyidagi modellaridan foydalanilmoqda:

1. Tashabbusli byudjetlashtirish (participatory budgeting), yoki “Portu-Alegri” modeli (Braziliya, tashabbusli byudjetlashtirish tarixidagi birinchi yirik tajriba, 1989-yil).
2. Ijtimoiy investitsiya fondlari (Social investment Fund, SIF) orqali moliyaviy loyihalarni tanlov asosida taqsimlash modeli.
3. Mahalliy jamoalarning kuchi yordamida amalga oshiriladigan taraqqiyot loyihalarini (Community Driven Development, CDD) moliyalashtirish modeli. Ularda byudjet mablag‘larini obyektiv mezonlar bo‘yicha donorlar (JB, BMT, Community Led Local Development, CLLD boshqaruvi ostidagi mahalliy taraqqiyot loyihalari, Yevropa Ittifoqi agentliklari) tomonidan taqsimlanadi.
4. Aralash model.

Qayta taqsimlash jarayonlarida tashabbusli byudjet loyihalarini qo‘llash usuli butun dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, bularning eng dastlabkisi Braziliya (Portu-Alegri)da amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikada qo‘llanila boshlandi. 2005-yilga kelib, u dunyoning 40 dan ortiq mamlakatiga tarqaldi.

Braziliya modeli. Braziliyada yigirma yillik diktatorlik rejimidan keyin (1964–1985) demokratik islohotlar boshlandi, natijada 1989-yil yangi konstitutsiya qabul qilindi. Bu vaqtga kelib Braziliya ijtimoiy tengsizlikning eng yuqori foiziga va daromad darajasi o‘xshash mamlakatlar orasida qashshoqlikning eng yuqori foiziga ega edi.

O‘sha yili mamlakatda Ishchilar partiyasi tuzildi, uning asosiy maqsadlaridan biri hokimiyatni demokratlashtirish edi. Mamlakatning bir necha shaharlarida, shu jumladan, 10 millionlik San-Pauluda o‘tkazilgan shahar saylovlarida g‘alaba qozongan Ishchilar partiyasi shahar byudjetlarini tayyorlashda fukarolarning keng qatlamlarini jalb qilishga qaratilgan choralarni ko‘rishni boshladi.

Ushbu shaharlardan biri Porto Allegri edi, unda kasaba uyushma harakatining an’analari va fuqarolarning jamoat hayotidagi faol ishtiroki juda kuchli edi.

---

1 Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, https://participedia.net/case/4365, Dias, N. et al (2019). Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgetingworld-atlas-2019, Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах, Виноградова Т.И. (2010). Программа “Прозрачный бюджет” в России. http://centerstrategy.com/budget Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – 519 p.; Chanel-ReynaudG., BloyE. LaBanqueetlerisqué PME. – PressesUniversitaires de Lyon. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов.

2 Nurmuxamedova B. I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. –630 b.; Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2017; G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: Baktria press, 2016.

3 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/

Shuni alohida qayd etish kerakki, hozirgi kunda dunyodagi eng rivojlangan va ommabop byudjet modeli Porto Allegri modeli bo‘lib qolmoqda. Porto Allegri tajribasini hisobga olgan holda, fuqarolar ishtirokining uchta tashkiliy darajasini quyidagi 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: Porto Allegri shahridagi tashabbusli byudjetlashtirishni tashkil qilish darajasi[4]

Nomlanishi	Darajasi	Ishtirokchilar tarkibi	Vazifalari
Assambleya	Kichik tuman (mikrorayon)	Barcha aholi	Muhim munozara, delegatsiyani tanlash, monitoring natijalari
Forum	Okrug (tuman) Shahar (mavzuli forum)	Delegatlar	Ustuvorliklarni tanlash, shahar muassasalari bilan muzokaralar, loyihani amalga oshirish monitoringi
Maslahat	Shahar	Delegatlar, ma’muriyat vakillari	Joriy va kelgusi yilda investitsiyalarni taqsimlash qoidalarini aniqlash, byudjet loyihasini kelishish va merga topshirish

Porto Allegrida tashabbusli byudjetlashtirish sikli 11 oy davom etadi va mart oyida tayyorgarlik uchrashuvlari bilan boshlanadi, aprel-iyul oylarida ko‘plab assambleyalar va fuqarolar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi, iyul-sentyabr oylarida extiyojlar va byudjet tuzilishi tahlil qilinadi. Sentyabr-oktyabr oylarida byudjet tuzilishi va investitsiya rejasi bo‘yicha takliflar kiritiladi. Noyabr oyida yakuniy munozaralar, dekabr-yanvarda debatlar va ovoz berish jarayoni bo‘lib o‘tadi.

AQSh modeli. AQShda tashabbusli byudjetlashtirishning byudjet ochiqligi siyosatiga to‘liq integratsiyalashuvi 2013–2015-yillarda ro‘y berdi. (Tajriba 2009-yilda Chikagoda, 2011-yilda Nyu-Yorkda boshlangan edi).

Nyu-York shahridagi fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) jamoalarga kapitalni byudjetlashtirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini berishda muhim rol o‘ynaydi. Bu Nyu-Yorkliklarni fikr almashish, takliflar ishlab chiqish va jamoat loyihalari bo‘yicha ovoz berish orqali fuqarolik jarayoniga jalb qilish va qarorlar qabul qilishga undaydi. 2011-yildan beri fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) so‘nggi bir necha yil ichida jamoalarni mustahkamladi va shaharni yanada kuchliroq qildi.

2011-yilda Nyu-York shahar kengashining to‘rt nafar a’zosi – Bred Lander, Melissa Mark-Viverito, Yerik Ulrich va Jumaane D. Uilyams – o‘z tumanlari aholisiga o‘zlarining kapital mablag‘larining bir qismini ajratishga ruxsat berish uchun fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (tashabbusli byudjetlashtirish) jarayonini boshladilar. Yillar davomida bu jarayon Kengash a’zolarining ko‘pchiligini o‘z ichiga olgan holda o‘sib bordi, bu esa jamiyatlarga har yili soliq to‘lovchiga 35 million dollardan ortiq pul mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha qaror qabul qilish imkonini berdi.

2019-yilda Kengashning 33 nafar a’zosi Nyu-York shahrida fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC)da ishtirok etib, aholidan kapitalni moliyalashtirish uchun kamida 35 million dollar sarflashni so‘rashdi. Jamiyat ovoz berish byulletenini ishlab chiqish uchun bir qator bosqichlardan so‘ng, to‘qqiz kunlik ovoz berish haftaligida eng ko‘p ovoz olgan loyihalar shahar moliya yili byudjetida qabul qilindi.

Nyu-York shahridagi fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish (PBNYC) aholiga foyda keltiradigan, kamida 50 000 dollar turadigan va 5 yil xizmat qiladigan jismoniy infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi. Maktablar, bog‘lar, kutubxonalar, uy-joylar, ko‘chalar va boshqa jamoat joylarini obodonlashtirish ushbu jarayon orqali moliyalashtiriladi.

G‘oyalar to‘plami va ko‘ngillilarni yollash avgust-oktyabr oylarida jamiyat yig‘ilishlari orqali aholi g‘oyalarini o‘rtaga tashlash va joriy sikl uchun Byudjet delegatlarini shakllantiradi.

Taklifni ishlab chiqish esa oktyabr-yanvar oylarida Byudjet delegatlari shahar idoralari va xodimlarining yordami bilan g‘oyalarni to‘liq takliflarga aylantiradilar. Delegatlar takliflarni qisqartiradi va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan loyihalarni tanlaydi.

Ovoz berish haftaligi mart-aprel oylarida bo‘lib takliflar aniqlangandan so‘ng, Byudjet delegatlari va rezidentlar ovoz berishadi va 9 kunlik jamoatchilik ovoziga tayyorgarlik ko‘rishadi.

Baholash va rejalashtirish may-iyun oylarida amalga oshirilib, unda g‘olib bo‘lgan loyihalar Nyu-York shahrining kelgusi moliya yili byudjetiga kiritiladi. Xodimlar va manfaatdor tomonlar jarayonni baholaydilar va g‘olib bo‘lgan loyihalarni agentliklar tomonidan amalga oshirilishini nazorat qiladilar[5].

2013-yil 6-dekabrda AQShda ikkinchi Ochiq Hukumat Milliy Harakat rejasi ishlab chiqildi va unda 23 ta yangi yoki kengaytirilgan ochiq hukumat majburiyatlari e’lon qilindi, bu esa, ushbu sohada sa’y-harakatlarni yanada rivojlantirdi. Bunga fuqarolarning ayrim mahalliy davlat xarajatlari loyihalarini aniqlash, muhokama

4 Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, https://participedia.net/case/4365

5 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/

qilish va ustuvorliklarini belgilashda rol o‘ynashga yordam beradigan vosita sifatida jamoatchilik ishtirokidagi byudjetlashtirishni targ‘ib qilish va fuqarolarga soliq to‘lovchi mablag‘lari o‘z jamiyatlarida qanday sarflanishi haqida ovoz berish majburiyati kiradi. Ushbu majburiyat quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat xarajatlari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish.
2. Jamoalar loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan vositalar va ilg‘or tajribalarni yaratish.
3. Amerikaning boshqa hamjamiyatlari ishtirokida byudjetlashtirish mahalliy investitsiyalarning ustuvorliklarini aniqlashga yordam berish uchun ishlatilishi mumkinligi haqida xabardorlikni oshirish.
4. Hamjamiyatlarni birgalikda byudjetlashtirish va uning afzalliklari haqida o‘qitishga yordam berish[6].

Kanada modeli. Kanadaning “Shahar, tuman hokimligi uchrashuvlari” (Town-hall meetings) deb nomlanuvchi tajribasi Kanada Parlamentining moliya qo‘mitasi tomonidan mamlakatning turli hududlarida fuqarolarni tinglash asnosida o‘tkaziladi va bu jarayon Moliya vaziri Parlamentga byudjet siyosatining muhim mavzularini tanishtirishidan avval bo‘lib o‘tadi.

Kanadada XX asrlarda ham viloyat, tuman va shaharlarda mamlakat siyosatining dolzarb masalalarini muhokama qilish tadbirlari bo‘lgan. “Shahar, tuman hokimligi uchrashuvlari” (Town-hall meetings) ham shunday tadbirlardan biri hisoblanadi va bu tadbirda mamlakat byudjet siyosati to‘g‘risida xalq bilan muhokama o‘tkaziladi hamda bunday tadbirlar Kanadada fuqarolarning byudjet jarayoniga qonun chiqaruvchi organ, ya’ni Parlament tomonidan jalb qilinishi hisoblanadi.

Kanada davlati Parlamentining moliya qo‘mitasi byudjet siyosati bo‘yicha jamoatchilik muhokamasini Moliya vaziri Parlamentning moliya qo‘mitasiga umumiy byudjet siyosati dasturlarini tanishtirishidan oldin boshlaydi. Qo‘mita Kanada bo‘ylab 10 ta turli joylarda (shahar yoki tumanlarda) umumiy hisobda 20 ta jamoatchilik muhokamasini o‘tkazadi. Ushbu muhokamalarda mamlakatda istiqomat qiladigan barcha fuqarolar ishtirok etishlari mumkin. Muhokamalardan so‘ng, Parlamentning moliya qo‘mitasi bir qator aniq masalalar bo‘yicha takliflarni Moliya vazirligiga taqdim etadi. Shundan keyin, Moliya vaziri byudjetni fevral oyi oxirida tanishtiradi[7].

Janubiy Koreya modeli. Koreya Respublikasining “Jamoatchilik bilan ochiq muloqot” (Open discussions for the public) (keyingi o‘rinlarda – ODP) deb nomlangan tajribasi Koreya Respublikasining davlat byudjetini tayyorlash bosqichida qo‘llaniladi va bu tajribani byudjet jarayoniga tadbiq qilish orqali byudjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtiroki ta’minlanadi. XX asrning oxirlaridan boshlab Koreya Respublikasida demokratik jarayonlar jadallashib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi shaffoflikka bo‘lgan talablari oshdi. Davlatning olib borayotgan siyosati va byudjetdan mablag‘ ajratilishini kuzatishda jamoatchilik va nodavlat notijorat tashkilotlarining roli ortib bordi va natijada hukumat ularning fikrini jiddiy qabul qila boshladi.

Davlat byudjeti sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi, xususan, o‘rta muddatli byudjetlashtirish (MTEF), natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish shular jumlasidandir.

O‘rta muddatli byudjetlashtirishni yo‘lga qo‘yish bilan ko‘p yillik xarajatlarning cheklangan miqdorlari belgilana boshlandi, ammo, bunday miqdorlarni o‘rnatish Moliya vazirligiga va buni ijro etuvchi organlarga qiyinchiliklar tug‘dira boshladi hamda buning yechimi sifatida hukumat fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini ta’minlash orqali real xarajatlarning cheklangan miqdorlarini o‘rnatishga erishishni maqsad qilib qo‘ydi. Fuqarolarning byudjet jarayonidagi ishtirokini ta’minlashda foydalaniladigan mexanizmlardan biri bu ODP jarayoni hisoblanib, unda Koreya Respublikasida byudjet jarayonining birinchi bosqichi, ya’ni byudjetni tayyorlash jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayon aholining turmush farovonligiga ta’sir ko‘rsatadigan va yirik mablag‘ talab etiladigan dasturlarni bevosita aholining o‘zi bilan muhokama qilish imkoniyatini yaratish uchun qo‘llanilib kelinadi.

Koreya Respublikasida byudjetni tayyorlashdagi jamoatchilikning ishtiroki (ODP jarayoni), mamlakatda yillik va o‘rta muddatli byudjetni tayyorlash jarayoni yanvar oyidan boshlab vazirlik va byudjet idoralarining o‘zlari uchun muhim ustuvor dasturlarni belgilash bilan boshlanadi. Tarmoq vazirliklari byudjet so‘rovlarini tayyorlagandan so‘ng, byudjet byurosi manfaatdor tomonlar, byudjet bo‘yicha mutaxassislar, akademik olimlar va xususiy sektor a’zolari bilan maslahatlashib, vazirlik va idoralarga joriy hamda kapital xarajatlariga kelgusi yil uchun ajratilishi rejalashtirilgan mablag‘larning cheklangan miqdorlarini belgilaydi. Mazkur jarayonda ba’zi bir dasturlarni amalga oshirishda jamoatchilikning fikri muhim sanalganligi bois, ODP qo‘llaniladi. Odatda ODP jarayonida muhokama qilinadigan dasturlar bu yirik mablag‘ talab qiladigan va fuqarolarning turmush farovonligiga ta’sir ko‘rsatadigan loyihalar hisoblanadi.

ODP jarayonida 6 kun mobaynida Koreya Respublikasining ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va atrof muhit muhofazasi kabi 12 ta sektori ishtirok etadi va har bir sektor dasturlari borasidagi bahs va munozaralar 90 daqiqa davom etadi. Har bir sektor muhokamasiga (tinglash uchun) davlat moliya sektori

6 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind

7 Dias, N. et al (2019). Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgeting-world-atlas-2019

mutaxassislari, tarmoq vazirliklari, byudjet idoralari, byudjet ijrosi subyektlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining yuqori darajadagi hukumat amaldorlaridan iborat hay'ati chaqiriladi va har bir sektor mavzusiga qiziquvchi har qanday fuqaro ODP jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega. ODP tadbirining kun tartibi va manzili to‘g‘risidagi ma'lumotlar matbuot orqali jamoatchilik e'tiboriga oldindan taqdim etiladi. Bu tadbir o‘tkaziladigan bino 300 ga yaqin odamni qabul qilishi mumkin va qolgan hohlovchilar onlayn tarzda OAV orqali kuzatishlari mumkin[8].

O‘zbekiston Respublikasida ham ODP jarayoni boshqacharoq tartibda amalga oshirilib kelinmoqda, ya'ni O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 97-moddasiga muvofiq Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yuborilishidan oldin majburiy ravishda “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali” orqali jamoatchilik muhokamasiga qo‘yiladi va “Fuqarolar uchun byudjet” axborot portalida jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinadi.

ODPni O‘zbekistonda qo‘llash mamlakatning byudjet shaffofligi va qayta taqsimot jarayonlarida jamoatchilikning bevosita ishtirok etishiga katta ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning byudjet ochiqligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning samarasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Koreya Respublikasining “Byudjet mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalanganlik haqida xabar berish markazi” (Budget Waste Report Centre) “Call-markazi” tajribasi mavjud bo‘lib, bunda maxsus “call-markazi” jamoatchilikni byudjet jarayoniga jalb qilishning yana bir ilg‘or tajribasi hisoblanadi va bu orqali hushyor turgan jamoatchilikni osongina byudjet jarayonlariga jalb qilish mumkin. Markazga byudjet jarayonida byudjet mablag‘larining noo‘rin sarflanishi yoki talon-taroj qilinishi to‘g‘risida ma'lumotga ega bo‘lgan fuqarolar murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, fuqarolar bu markazga byudjet mablag‘larini tejab ishlatishning kreativ usullarini ham taklif qilishlari mumkin. Bu markazning xodimlari byudjetni shakllantirish va uni amalga oshirishda tajribaga ega bo‘lgan byudjet idoralaridan nafaqaga chiqqan fuqarolardan tashkil topgan. Ular qo‘ng‘iroqlarga samarali javob berish va byudjet mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha xabar berilganda tegishli bo‘limlarga xabarlarni yuborish va eng muhimi, qo‘ng‘iroq qiluvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarish uchun yetarli bilimga egadirlar[9].

Hindiston modeli. Hindistonning fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirishni rivojlantirish tajribasi butun dunyoga ma'lum. 1996 yilda Hindistonning Kerala shtatida (Kerala) mahalliy muammolarni hal qilishda fuqarolarning ishtiroki bo‘yicha eng yirik loyihalardan biri ishga tushirildi. Ehtimol, dunyoning boshqa hech bir joyida tashabbusli byudjetlashtirish bunday ommaviy safarbarlik kanaliga aylanmagan. Rejalarga mintaqaning 31 million aholisining 10% dan ortig‘ini jalb qilish ko‘zda tutilgan, ularning kamida uchdan bir qismi ayollardir. Fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish aholini siklik jarayonga jalb qildi, barcha bosqichlarda 373 ta davlat instruktorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Keraladagi tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni besh bosqichni o‘z ichiga oladi:

- bir qator mahalliy yig‘ilishlar;
- ma'lumot to‘plash va mahalliy hukumatlarga jamoaviy xatlar yozish;
- rivojlanish seminarlarida maxsus komissiya tomonidan loyiha takliflarini shakllantirish;
- ularni mintaqaviy rejalashtirish qo‘mitalari tomonidan tasdiqlash;

Fuqarolar ham ishtirok etadigan loyihalarni amalga oshirish, monitoring qilish va baholash.

Kerala tajribasining moslashuvchanligi unga davlat hokimiyatining siyosiy rangini bir necha bor o‘zgartirgan o‘zgarishlardan omon qolishga imkon berdi. Qanday bo‘lmasin, tajriba o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirish va chaqaloqlar o‘limi darajasini pasaytirish kabi jarayonlarga ijobiy hissa qo‘shdi. U olimlar va globallashuvga qarshi harakat tomonidan xalqaro e'tirofga sazovor bo‘ldi. Bu hodisa 2004-yilda Mumbayda bo‘lib o‘tgan to‘rtinchi Jahon ijtimoiy forumida keng muhokama qilindi. Hindiston Konstitutsiyaga 74 marta tuzatish kiritildi va maxsus qonun (Nagar Raj Bill namunasi) qabul qilindi, unga ko‘ra shtat hukumatlari va shahar ma'muriyatlari mahalliy fuqarolardan iborat maslahatchi jamoat qo‘mitalari tuzish hamda ular bilan kelishilgan holda mahalliy byudjetlarni tayyorlashni talab qiladi. Ushbu tuzatishning qabul qilinishi bilan davlat organlari xodimlari mahalliy byudjetlarni jamoatchilik qo‘mitalari bilan kelishilgan holda tayyorlashga kirishdilar. Hindistonning Pune shahrida proaktiv byudjetlashtirish birinchi marta yagona munitsipalitet doirasida joriy etildi. Pune aholisi 3,5 million kishidan oshadi. Ishga tushirish 2005-yilda bo‘lib o‘tgan, haqiqiy ish 2006–2007-yillarda boshlangan. Tajriba fuqarolar va shahar nodavlat tashkilotlari, jumladan Janwani, NSCC, C.E.E, Nagrik Chetna Manch orasida o‘zaro munosabatlarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Muayyan bosqichda loyiha to‘xtab qoldi va NNT hamda fuqarolarning qat'iyati, sa'y-harakatlari tufayli uni davom ettirish mumkin bo‘ldi. Pul har bir prabhag uchun (ikkita saylov uchastkasi hududini qamrab olgan) 5 million rupiy (75 400 AQSh dollari) miqdorida ajratilgan, har bir loyiha uchun maksimal chegarasi 500 000 rupiy (7 540 dollar)dir (2-jadval).

8 Jahon bankining rasmiy veb sayti ma'lumotlari. http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523 259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf

9 Jahon bankining rasmiy veb sayti ma'lumotlari. http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151 523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf

2-jadval: Hindistonning Kerala shahrida fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirishni amalga oshirish uchun vaqt rejasi

Ko‘rsatkich	Qiymati	Davri
Davlat byudjeti	748460 INR milliard | 9648,211 milliard dollar	Aprel 2022
Hukumat xarajatlari	4623 milliard INR | 59,594 milliard AQSh dollari	1/22 chorak
Davlat daromadlari	199983 INR milliard | 2577,931 milliard dollar	Aprel 2022
Davlat byudjeti YaIM ga nisbatan	9,4%	2020 yil
YaIMga nisbatan davlat xarajatlari	17,6%	2020

Yevropa mamlakatlari modeli. Yevropada tashabbusli byudjetlashtirish 2001-yilda Italiya, Ispaniya va Fransiyadagi mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan tatbiq etildi. Lissabonda shahar miqyosida elektron ovoz berish asosida tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmi tatbiq etilgan birinchi poytaxt bo‘ldi. 2019-yilda esa, barqaror taraqqiyotni moliyalashtirish uchun “yashil” tashabbusli byudjetlashtirish tatbiq qilindi (3-jadval).

Xalqaro ekspertlar hamjamiyati uchun mamlakatning eng qiziq xususiyati shundaki, tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarga milliy byudjetni qayta taqsimlashning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida bevosita ishtirok etish imkoniyatini beradi. 2016-yil oxirida Milliy dastur e’lon qilindi. U beshta mavzuni kamrab olgan: fan, madaniyat, ta’lim, kattalar uchun uzluksiz ta’lim dasturlari va qishlok xo‘jaligi.

3-jadval: Yevropa mamlakatlarida tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotining rivojlanishi[10]

Yillar	Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti jarayoni muddatlari
1994	Italiyaning Grottamar shahrida tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti boshlangan.
2001	Fransiya va Ispaniyaning munitsipaletlarida tashabbusli byudjetlashtirish joriy etilgan.
2002	Fransiya mahalliy demokratiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilgan.
2007	Stavropol o‘lkasida Rossiyada mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash dasturi boshlangan.
2008	Lissabonda tashabbusli byudjetlashtirish ishga tushirilgan.
2009	Polsha Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotlarini qo‘llash uchun “Qishloq fondlari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilgan.
2014	Parij bugungi kunda Yevropada tashabbusli byudjetlashtirishning eng yirik amaliyotini boshlagan
2016	Portugaliyada dunyoda birinchi milliy darajadagi tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti boshlangan.

Portugaliya mahalliy darajada 118 ta tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini, shuningdek, dunyoning birinchi milliy tashabbusli byudjetlashtirish dasturini amalga oshirgan.

Portugaliyaliklar milliy yoki mintaqaviy miqyosdagi bitta loyixa uchun onlayn yoki SMS orqali ovoz berishlari mumkin. Har bir ma’muriy okrugda vertikal va gorizontal hokimiyat tizimi mavjud bo‘lib, unda mahalliy boshqaruvning uch darajasi mavjud. Eng quyi daraja qariyb 4000 ta okrugni o‘z ichiga oladi. Har bir okrugda okrug assambleyasi faoliyat ko‘rsatadi, u ijroiya organni - juntuni tayinlaydi. Munitsipalitetlar mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning ikkinchi (asosiy) darajasi hisoblanadi, ular ham qishloq, ham shahar hududlarini o‘z ichiga oladi. Har bir munitsipalitetda munitsipal assambleya faoliyat ko‘rsatib, ular hokimiyatning ijroiya organi hisoblanadi.

Portugaliyada 2002–2006-yillarda fuqarolar ishtirokidagi byudjetning ilk shakllari maslahat xususiyatiga ega edi. 2007–2008-yillarda Sesimbra va Lissabon munitsipalitetlari munitsipal byudjetning bir qismini taqsimlash uchun ommaviy ovoz berishni joriy etdi. Faqat 2012-yilda tashabbusli byudjetlashtirish to‘liq shaklda paydo bo‘ldi. Bu davrda og‘ir moliyaviy inqiroz ham yuz berdi, xalqaro kreditorlar ijtimoiy xarajatlarning bir qismi hisobidan ichki qarzni kamaytirishni talab qildi. Bu Portugaliya jamiyatining institutlar va siyosiy hokimiyatga bo‘lgan ishonchi kamayishiga olib keldi. Bu esa, aholining yanada faol ishtirokini ta’minlash va ular bilan muloqot qilish mexanizmlarini yaratishga bo‘lgan mahalliy hokimiyat organlari ehtiyojini oshirdi. Hozirda Portugaliya tashabbusli byudjetlashtirish nafaqat mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish darajasida, balki milliy darajada ham amal qiladigan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Portugaliyada so‘nggi o‘n besh yil ichida tashabbusli byudjetlashtirish keng miqyosda rivojlandi. 2022-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda mahalliy darajada (munitsipalitetlarda) tashkil qilingan tashabbusli byudjetlashtirishlar soni bo‘yicha dunyo miqyosida rekord o‘rnatdi. 2017-yilga kelib butun mamlakat miqyosidagi loyihalarni fuqarolarning ishtiroki asosida aniqlash, ya’ni “Fuqarolar ishtirokidagi milliy byudjet” (NPB)ni dunyoda birinchi bo‘lib qo‘llagan mamlakatlardan biri sanaladi.

10 “Hope for democrace” (30 years of Participatory Budgeting Worldwide)

Portugaliyada 2017-yildan boshlab mahalliy tashabbusli byudjetlashtirishdan tashqari alohida tarzda umumiy davlat byudjetidan ta'lim, fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi, adliya va davlat boshqaruvi sohalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun mablag'larning ma'lum bir qismini fuqarolar ishtirokida sarflanadigan NPB tizimi yo'lga qo'yilgan. NPB tizimi quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga asoslangan:

1. Portugaliya Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolar ishtirokidagi byudjetlashtirish yordamida demokratiya sifatini mustahkamlash;
2. Fuqarolarning byudjetlashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash orqali ularni qaror qabul qilishga jalb qilish;
3. Mamlakatning turli hududlaridagi fuqarolarni bog'laydigan loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasida ham mahalliy tashabbusli byudjetlashtirish (Byudjet mablag'larini fuqarolar tashabbusi asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish mexanizmi) tizimi yo'lga qo'yilgan va bu yo'nalish yildan-yilga jadallik bilan rivojlantirilmoqda.

Bizning fikrimizcha, respublikada qayta taqsimlash jarayonlarida NPB tizimi joriy etilsa, mamlakatning ta'lim, fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi, adliya va davlat boshqaruvi sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishda ijobiy natijalar berishi mumkin. Tashabbusli byudjetlashtirishning mazkur yo'nalishi O'zbekistonning OBIdagi o'rniga ham juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaymiz.

Buyuk Britaniyada "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) – jamoat afzalliklari va fikrlarini baholash uchun muntazam ravishda foydalanib turiladigan, demografik jihatdan vakillik qiluvchi katta guruhdir.

"Fuqarolar paneli" byudjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtirok etishi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Onlayn tarzda o'tkazilganda ba'zida u elektron panel (e-Panel) sifatida ham tanilgan. "Fuqarolar paneli"ga "O'z-o'zini boshqarish bilan shug'ullanish va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish imkoniyati", deb ta'rif berilgan. Xalqaro amaliyotda jamoatchilik kuzatuvlari bilan bir qatorda yanada samarali bo'lgan va kelajakda kuzatuv mexanizmining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) bilan birgalikda, boshqa elektron e'lon taxtalari (Electronic Bulletin Boards), ochiq eshiklar kunlari (Open House), seminarlar (Citizen Workshop), Charrett usuli[11] (Design Charrette), aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar va fuqarolik forumlari (Civil forum), fokus guruhlar bilan ishlash (Focus group) amaliyotlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Buyuk Britaniyada Fuqarolar paneli mahalliy aholining vakili, maslahat organi bo'lishga intiladi. Ular, odatda, mahalliy ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va muayyan masalalar bo'yicha xizmat foydalanuvchilari, foydalanuvchi bo'lmaganlar bilan maslahatlashish uchun qonuniy idoralar, xususan mahalliy hokimiyat va ularning sheriklari tomonidan qo'llaniladi. So'nggi paytlarda ushbu uslubni mahalliy darajada an'anaviy makondan tashqariga chiqarib, xalqaro darajada Yevropa Fuqarolari Panelini tuzishga urinishlar bo'ldi.

Ishtirokchilar odatda saylovchilar ro'yxati yoki pochta indeksi manzil faylini tasodifiy tanlab olish orqali jalb qilinadi. Pochta orqali jalb qilish keng qamrovli va nisbatan arzon narxga ega bo'lganligi sababli keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Biroq, ijtimoiy jihatdan chetda qolgan va erishish qiyin bo'lgan guruhlar bir qator boshqa usullar bilan jalb qilinadi.

Fuqarolar ishtirok etishga rozilik berganlaridan so'ng, ular tadqiqot (rejalashtirilgan tadqiqot dasturi) va maslahatlashuv dasturiga taklif qilinadi. Bu odatda doimiy so'rovnomalarni va kerak bo'lganda seminarlar hamda yanada chuqur tadqiqot vositalarini o'z ichiga oladi. Barcha Fuqarolar paneli a'zolari barcha tadbirlarda ishtirok etishga taklif qilinmaydi. Shu sababli, ishga qabul qilish bosqichida har bir Panel a'zosidan nimani kutish kerakligi va ular a'zoligining aloqa turi to'g'risida aniqlik kiritish muhimdir.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda qayta taqsimot jarayonlarida Buyuk Britaniya tajribasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan "Fuqarolar paneli" (Citizens' Panel) tizimini "Ochiq byudjet" portaliga muqobil ravishda joriy qilish ijobiy samara beradi. Byudjet jarayonida amalga oshirilayotgan so'rovlar yoki boshqa tadqiqotlarni qisqa vaqt ichida amalga oshirishga imkon beruvchi ushbu "Fuqarolar paneli" fuqarolarning ehtiyojlarini aniqlab, muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Panel ishtirokchilarining qoniqish darajasi doimiy ravishda kuzatib borilib, agar kamchiliklar mavjudligi aniqlansa, ular bartaraf qilinadi. Fuqarolar panelini O'zbekistonda qo'llash byudjet ochiqligi va shaffofligiga, fuqarolarning byudjet jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Milanda tashabbusli byudjetlashtirishning Italiyada bugungi kundagi eng yirik amaliyoti amalga oshirilmoqda[12]. Milanda tashabbusli byudjetlashtirish 2017-yilda shahar kengashi tomonidan tasdiqlangan "Ishtirok etish pakti" (Patto di Partecipazione)[13] tomonidan tartibga solinmoqda.

11 **Charret usuli** – bu rejalashtirish va amalga oshirish rejasini tuzish uchun fanlararo jamoani, odatda, rejalashtiruvchilar, fuqarolar, shahar ma'murlari, me'morlar, landshaft arxitektorlari, transport muhandislari va boshqa manfaatdor tomonlarni yig'ib, rejalashtirish jarayonlarini birlashtiruvchi bir usuldir.

12 Milan – Participatory Budgeting. Collaborative Cities

13 https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/content/view/3

Milandagi birinchi tashabbusli byudjetlashtirish loyihasi 2015-yilda ishga tushirilgan va Milanning barcha to‘qqizta munitsipalitetida (hududida) muvaffaqiyatli yakunlandi. Unda milanliklarning qariyb 3 foizi ishtirok etdi[14].

Loyiha takliflari quyidagi toifalar bo‘yicha bo‘linadi: atrof muhit, madaniyat, iqtisodiyot, oilalar va yoshlar, ijtimoiy integratsiya va teng imkoniyatlar, shahar hududlarini tiklash va bezash, maktab, xavfsizlik, yo‘llar va transport, texnologiyalar va innovatsiyalar, sport va bo‘sh vaqtni unumli o‘tkazish.

Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini moliyalashtirish uchun yiliga qariyb 4,5 mln. yevro ajratiladi. Mablag‘lar shaharning barcha to‘qqiz tumani o‘rtasida teng taqsimlangan, ya’ni har bir tumanda umumiy qiymati 500 ming yevrogacha bo‘lgan bir yoki ikkita loyiha moliyalashtirilishi mumkin[15].

Milanning har bir to‘qqizta tumanida eng ko‘p ovoz olgan (shu jumladan bonuslar olgan) bitta loyiha, agar ularning umumiy byudjeti belgilangan cheklovdan 500 ming yevroga kamroq bo‘lsa, ko‘pi bilan 2 ta loyiha tanlanadi. 2018–2019-yillarda g‘olib bo‘lgan 12 ta loyihadan 8 tasi shahar hududlarini rivojlantirishga ajratilgan.

Tashabbusli byudjetlashtirish sohasida dunyodagi eng katta tajriba Xitoyning Chendu shahrida amalga oshirildi. Bunda infratuzilmalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, biznes va madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha 50 mingta loyiha qabul qilindi.

Chendu (XXR) provintsiyasining fuqarolarni qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilish borasidagi tajribasi diqqatga sazovor. Fuqarolar birgalikda jamoat fondlarini tashkil etish va mintaqaviy, davlat investitsion korporatsiyalaridan turli kreditlar olish to‘g‘risidagi qarorlarni birgalikda qabul qiladilar. XXRda qishloqlarda taraqqiy etgan infratuzilmani shakllantirish uchun tashabbusli byudjetlashtirish metodologiyasining boshqa hech qaysi mamlakatda o‘xshashi yo‘q modeli shakllantirilgan.

Tashabbusli byudjetlashtirishda fuqarolar loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, pul ko‘rinishda bo‘lmagan ulush (texnika, joy va materiallarni taqdim qilish), arizalarni rasmiylashtirish, qurilish, obyektlarni saqlashda loyiha tashabbuskorlariga yordam berish orqali ijtimoiy mas’ul biznes ishtiroki ham ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер.с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999.
3. Мэнкью Г. Принципы экономикс. – СПб.: Питер, 2003.
4. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 630 b.
5. Программа “Прозрачный бюджет” в России. http://centerstrategy.com/budget
6. Фридман М. Если бы деньги заговорили. Пер. с англ. – М.: Дело, 1999.
7. Хачатрян Г. Н., Шульга И. Е., Сухова А. С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах, Виноградова Т. И. (2010).
8. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: Baktria press, 2016.
9. Allen, F., Gale, D. (2000). Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press. – 519 p.
10. Ronald Hamowy The Encyclopedia of Libertarianizm // The London. 1937 // https://books.google.co.uz/books? id=yxNgXs3TkJYC&printsec=front cover&hl=ru#v=onepage&q&f=false
11. Bigsten, A., Levin, J. Growth. (November 2001). Income Distribution, and Poverty: A Review // WIDER Discussion Paper 129. World Institute for Development Economics research (WIDER), Helsinki.
12. Decide. Madrid.es Online Participatory Budgeting, https://participedia.net/case/4365, Dias, N. et al (2019).
13. Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgeting-world-atlas-2019.
14. Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/
15. Chanel-Reynaud, G., Bloy, E. La Banqueetlerisqué PME. – PressesUniversitaires de Lyon.
16. Nurmuxamedova B. I. Davlat byudjeti. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 630 b.

14 Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики ташаббуслиного бюджетирования в больших городах / Под общей ред. Шульги И.Е. – М.: “Алекс”, 2020 – 106 с.

15 Виноградова Т.И. (2010). Программа “Прозрачный бюджет” в России. http://center-strategy.com/budget

THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Tulkin Imomqulov
Tashkent state university of economics PhD Associate Professor

Abstract: The article in Uzbekistan is devoted to the role of foreign direct investment (FDI) in stimulating economic growth. Our article on the growth of direct investment and their impact on income levels and the quality of the institutional environment. In particular, we consider the long-term and interrelated effects of growth on a country's income level and direct investment of Uzbekistan on growth in many developing countries.

Key words: foreign direct investment, growth, investment, economic growth, strategy, indicator.

Annotatsiya: O'zbekistondagi maqola to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TDI)ning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roliga bag'ishlangan. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'sishi va ularning daromad darajasi va institutsional muhit sifatiga ta'siri haqidagi maqolamiz. Xususan, biz ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda o'sishning mamlakat daromadlari darajasiga va O'zbekistonning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarining o'sishga uzoq muddatli va o'zaro bog'liq ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, o'sish, sarmoya, iqtisodiy o'sish, strategiya, ko'rsatkich.

Аннотация: Статья в Узбекистане посвящена роли прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в стимулировании экономического роста. Наша статья о росте прямых инвестиций и их влиянии на уровень доходов и качество институциональной среды. В частности, мы рассматриваем долгосрочное и взаимосвязанное влияние экономического роста на уровень доходов страны и прямые инвестиции Узбекистана на экономический рост во многих развивающихся странах.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, рост, инвестиции, экономический рост, стратегия, индикатор.

INTRODUCTION

It should be noted that President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev by his decree has approved the action strategy on priority areas of the country's development for 2017–2021. The action strategy will be implemented in five stages, and each stage provides for approval of a separate annual state program on the strategy's implementation in Uzbekistan, according to the decree. There is five key legal and institutional reforms: state governance, rule of law and legal reforms, liberalization of the economy, social sphere, security, religious tolerance and interethnic harmony, foreign policy. To approve the developed on the basis of a comprehensive study of topical and exciting people and business issues, the analysis of the current legislation, law enforcement practices and the best international practices, as well as a broad public discussion Strategy actions in five priority areas of the Republic of Uzbekistan in 2017–2021 years in accordance with Annex development and economic liberalization aimed at further strengthening the macroeconomic stability and the maintenance of high economic growth, increasing its competitiveness, modernization and intensive development of agriculture, continuation of institutional and structural reforms to reduce the state presence in the economy, further strengthening the protection of rights and priority role of private property, stimulating the development of small business and private entrepreneurship, comprehensive and balanced socio-economic development of regions, regions and municipalities, active attraction of foreign investments in the sectors of the economy and regions of the country by improving the investment climate development.

FDI inflows are important types of capital streams and outflows, generally towards the developing nations and they conclusively influence the host nation's financial development, the macroeconomic steadiness, the infrastructure and the legislative arrangement. It is contended that Uzbekistan has now attracts FDI for the most part in view of its market size and now plenty of nations are eager to make ventures after the sensational changes that have as of late been happened in recent years. The interests in type of FDI empower venture-getting (host) nations to accomplish investment levels past their ability to spare. Throughout the most recent few

decades FDI has remained the biggest type of capital stream in the developing nations far outperforming portfolio value investment, private advances, and authority help. The topics matters regarding its future effects of the nation's economy. For over the previous years, there were not really any examination has been done to approach this issue

As the legislature of Uzbekistan was portrayed closed country and along these lines it came up with trouble tolerating the inflow of remote capitals. FDI inflows in Central Asian nations, among which Uzbekistan, are impacted by the administration of the beneficiary nation, the financial advancement. Moreover, the flimsy political and economic position in Uzbekistan decreased its appeal toward the western remote of financial specialists. The costs of the war materials stayed high notwithstanding the expansion of the remote capitals inflow and hence, for the most part, the Russian and the rest Asian nations keep putting their capitals in Uzbekistan.

According to the report of the United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), the world foreign direct investment volume has been declining for the third year in a row, reaching the lowest level that was observed immediately after the global financial crisis. Including, in 2019, due to all sources of financing, the volume of investment in Uzbekistan development amounted to 220.72 trillion soums, exceeding the approved annual forecast indicators by 2 times, including the volume of investments in fixed assets amounted to 189.9 trillion soums, with a growth rate to the same indicator in 2018 – 1.3 times. 1.3 compared to the same figure.

LITERATURE REVIEW

The economic growth depends on sustained growth of productive capacity, consisting in investment and saving. The low levels in investment and saving imply low economic growth. Being a source of economic growth, the need of FDI inflows has increased in the last years. Over the last decades, investment was the object of scientific research and a vector of social development for prominent political figures. One of the leading economists A. Sh. Bekmurodov is a foreigner He spoke about the characteristics of investments, their role in the economy and the investment climate: "Most countries in the world have a certain level of ability to attract foreign direct investment. Creating a favorable and competitive investment environment for it by carrying out a competitive struggle. "Foreign direct investment is not only an important source of additional capital for each country in the face of limited domestic financial resources, but also a reliable source of innovation, new techniques and technologies, knowledge, training and competencies needed to ensure the competitiveness of the country's economy." Economists A.Vahabov, Muminov N.G. Sh.Khajibakiev4 , say the following about the investment climate: "Investment climate is a set of economic, political, legal and social factors that predetermine the level of risk of foreign capital investments and their effective use in the country. In 2014, a report "Catalyzing a global market in impact investment", initiated by the Prime Minister of the United Kingdom David Cameron, was published. Among empirical studies on FDI, Wallis (1968) had looked at increase in inflows of FDI from the US to the EU and assessed the importance of FDI in enhancing economic growth5 . Studies have found a positive relationship between openness and FDI flows (Chakrabarti, 2001). Following Chakrabarti6 (2001), the trade volume is determined by the sum of exports and imports divided by nominal GDP as a proxy for trade openness and must be positively correlated with direct investment. The greater the degree of trade openness, the more it is directed towards external market that would be more open to foreign capital. The effect of exchange rates on FDI has been examined with respect to changes in the bilateral level of the exchange rate between countries and also in the volatility of exchange rates (Blonigen, 2005).

FDIs have been an important driver of economic growth. Multiple empirical research studies reported a positive impact of FDIs on economic growth both in the short and long run in the context of various developing economies (Brincikova and Darmo, 2014; Hansen and Rand, 2006; Joo and Shawl, 2021; Npg and Haiyun, 2017; Siddharthan and Narayanan, 2020; Sokang, 2018; Xu et al., 2021; Younsi et al., 2021). Therefore, both developing and developed countries often try to attract FDIs to provide new decent jobs and reaching better living standards.

As economic growth in the country is fostered by macroeconomic stability, foreign investors tend to analyze macroeconomic stability and labor market conditions of a host economy prior to deciding to invest or not in addition to other determinants of FDI, such as the degree of corruption, political stability and quality of legislation (Strat et al., 2015). Jallab et al.'s (2008) study and Alguacil et al.'s (2011) study found a positive impact of FDI on growth under macroeconomic stability in the Middle East and North Africa countries (cited in Joo and Shawl, 2021). Likewise, Mehic et al.'s (2013) study found macroeconomic stability to be a strong growth driver in European countries (Joo and Shawl, 2021). Investigating the link between FDI inflows and macroeconomic stability, as proxied by inflation rate and unemployment rate, has been gaining importance (Strat et al., 2015).

A vast number of studies highlighted strong spillovers from FDIs to host countries accentuating high importance of the FDI inflow–unemployment relationship for developing countries (Çolak and Alakbarov, 2017; Joo and Shawl, 2021; Strat et al., 2015). Apart from direct impacts on employment, investment and trade, the FDI gener-

ates additional positive externalities contributing to productivity growth through the diffusion of new knowledge and technology from foreign investors to domestic firms and workers; lower prices and efficient resource allocation (Mkombe et al., 2020; Onifade et al., 2020; Siddharthan and Narayanan, 2020). On the one hand, empirical studies showed, in addition to productivity growth, host economies and employees working for foreign-owned enterprises benefit from the transfer and spillover of management skills, infrastructural development and access to international markets (Brincikova and Darmo, 2014; Mkombe et al., 2020; Siddharthan and Narayanan, 2020; Xu et al., 2021). Similarly, Xu et al. (2021) identified possible spillovers from FDI inflow, such as additional source of capital, elimination of balance of payments limitations, generation of competitive market conditions in the host economy and a growth in employment and wages as well as a host country's exports. Brincikova and Darmo (2014) pointed out the potential effect of FDIs in creating jobs through forward and backward linkages generating additional spillovers and adoption of best practices of work organization in the economy.

While most studies share the conclusion that FDIs are crucial for new job creation and reducing unemployment, job content of FDIs differs depending on investment type, amount and intensity. For example, Greenfield investments tend to outperform brownfield investments because a company in a host country is founded from scratch through building new production facilities, distribution hubs, offices and living spaces (Brincikova and Darmo, 2014; Çolak and Alakbarov, 2017; Harms and Méon, 2011; Mkombe et al., 2020). In contrast, in brownfield investments, an investing company purchases existing production facilities to roll out its operations and release a new product.

However, empirical studies suggest FDIs are not as effective as theoretical evidence implies. Mkombe et al. (2020) and Zdravkovic et al. (2017)'s study reported a statistically insignificant impact of FDI on reducing unemployment in the Southern African Development Community region and 17 developing economies. Mkombe (2020) attributed the finding to brownfield investments whose job creation capacity are limited compared to greenfield investments. Çolak and Alakbarov (2017) argued that in the short run, brownfield investments may increase unemployment as they bring about a change in technology, equipment and management systems. Other research studies did not find any statistically significant relationship between the FDI and unemployment in Russia (Sadikova et al., 2017) and the Czech Republic, Hungary, Poland and Slovakia (Brincikova and Darmo, 2014).

A growing body of empirical literature emphasized the importance of host countries' absorptive capacity to reap benefits from FDI and spillover effects to absorb the knowledge and skills generated by foreign investors (Alfaro et al., 2010; Estrin, 2017; Gattini and Baiashvili, 2020; Joo and Shawl, 2021; Siddharthan and Narayanan, 2020). These absorptive capacities include, but are not limited to, the development of financial markets (Alfaro et al., 2010; Joo and Shawl, 2021; Olorogun et al., 2020), technological diffusion (Mahembe and Odhiambo, 2014; Siddharthan and Narayanan, 2020), political and institutional quality (i.e. market entry regulations, rule of law, governance) (Estrin, 2017; Gattini and Baiashvili, 2020), market structure (Estrin, 2017), uncertainty (Nguyen and Lee, 2021), human capital and trade openness (Estrin, 2017). Therefore, the effectiveness of FDIs is determined by the host country's degree of development of key factors we discussed above.

Throughout the years, a lot of empirical research works have investigated the relationship between FDI and economic growth. Although there is many empirical researches have been conducted, the influence of FDI on economic growth is still inconclusive; some studies described the impact positively while others describedit as negative.

DATA AND ECONOMETRIC MODEL

This study intends to estimate the determinants of FDI flows to Uzbekistan using time series data. The dependent variable is the FDI net inflows to Uzbekistan. The study uses seven explanatory variables.

In order to characterize the determinant of FDI flows to Uzbekistan, we set up the following empirical mode:

$$\ln FDIt = \alpha t + \beta_1 \ln TOt + \beta_2 \ln INFLt + \beta_3 \ln ERt + \beta_4 \ln PCGDPt + \beta_5 \ln NRt + \beta_6 \ln INFRt + \beta_7 \ln LIBt + \varepsilon t$$

where ln is the natural log, FDIt is the dependent variable, the subscript is the time period, TO is the trade openness, INFL is the rate of inflation, ER is the exchange rate, PCGDP is the per capita gross domestic produc NR is the natural resources, INFR is infrastructure, and Trade openness (TO) by a host country is considered as a major determinant of FDI, and has different effects on FDI.

ANALYSIS AND RESULTS

Global foreign direct investment (FDI) flows in 2021 were USD 1.58 trillion, up 64 per cent from the exceptionally low level in 2020. The recovery showed significant rebound momentum, with booming merger and acquisition (M&A) markets and rapid growth in international project finance because of loose financing conditions and major infrastructure stimulus packages. However, the global environment for international business

and cross-border investment changed dramatically in 2022. The war in Ukraine – on top of the lingering effects of the pandemic – is causing a triple food, fuel and finance crisis in many countries around the world. Investor uncertainty has put significant downward pressure on global FDI in 2022, and new investment project numbers, including greenfield announcements, international project finance (IPF) deals, and cross-border mergers and acquisitions, all shifted in reverse after the first quarter of 2022 to start declining. Cross-border M&A sales were 6% lower and IPF values more than 30% lower in 2022. The outlook for global FDI in 2023 appears weak, with a significant number of economies around the world expected to enter a recession. Negative or slow growth in many economies, further deteriorating financing conditions, investor uncertainty in the face of multiple crises and, especially in developing countries, increasing risks associated with debt levels will put significant downward pressure on FDI (UNCTAD Global Investment Trends Monitor, January 2023). The negative trend reflects a shift in investor sentiment due to the food, fuel and finance crises around the world, the Ukraine war, rising inflation and interest rates, and fears of a coming recession.

However, investments continue to decline due to the pandemic, but the rate of decline has slowed significantly: from 11.2% in the first quarter of 2020 to 3.5% in the current one. It should be noted that mainly centralized investments are being reduced. In particular, investments from the budget decreased by 5.2%. The largest decline is observed in investments due to loans secured by the government - by 66.5% and their share in the total volume of investments decreased from 18% in the first quarter of 2020 to 6.2% over the period under review. In contrast, decentralized investment showed significant growth of 13.6%. Foreign direct investment and loans increased by 30.6%, investments at the expense of the population - by 20%, enterprises - by 6.3%. Changes in the structure of investments and their decline are caused both by the crisis due to the pandemic, which forces budget funds to be redistributed for non-investment expenditures and by structural changes and restrictions on attracting foreign loans under government guarantees.

The national investment promotion agency provides aid for foreign investors who seek to invest in Uzbekistan. The government seeks to attract FDI, especially in specific sectors - such as banking, energy, oil and gas, manufacturing, telecommunications, transport, and agriculture - as part of the president's large-scale privatisation plan. Uzbekistan is rich in natural resources and has a strategic position between China and Europe. Still, restructuring of large state enterprises and joining the WTO would bolster Uzbekistan's plea for FDI, but the country has been slow to advance on said fronts, and corruption is endemic and penetrates all levels of the business, government and social environment. In order to improve that, however, President Shavkat Mirziyoyev established a new Anti Corruption Agency in 2020, as part of the State Anti-Corruption Program, which is responsible for implementing policies to prevent and combat corruption within the country.

MAIN INVESTING COUNTRIES (2022)



The Republic of Uzbekistan conducts an open, mutually beneficial and constructive foreign policy based on the national interests of the country. Current foreign policy of Uzbekistan is formed taking into account the dynamic changes in the world and the region as well as large-scale reforms within the country. Main turnover partners are China, Korea, Turkey, Germany and CIS countries. In addition, law of the republic of Uzbekistan on investments and investment activity11 , Basic principles of investments and investment activity, The main principles of investments and investment activity are: legality; publicity and openness; freedom to implementation of investment activity; justice and equality of subjects of investment activity; non-discrimination against investors; presumption of investor conscientiousness; The basic principles of the legislation on investments and investment activity are applied at all stages of the investment process and investment activity.

Foreign Direct Investment 2020-2022 indicators[1]

Foreign Direct Investment	2020	2021	2022
FDI Inward Flow *(million USD)*	1,728	2,276	2,531
FDI Stock *(million USD)*	10,288	11,547	13,631
Number of Greenfield Investments*	22	25	14
Value of Greenfield Investments (million USD)	3,247	1,924	1,221

Uzbekistan Foreign Direct Investment (FDI) registered a growth equal to 3.8 % of the country's Nominal GDP in September 2022, compared with a growth equal to 2.9 % in the previous quarter (CEIC Data, 2023). The country plans to implement projects worth USD17.34 billion in 2023, with Foreign direct investment amounting to US$7.06 billion. As in 2022, most of the funds (US$9.24 billion) will be directed to geology, energy and industry. In 2024, it is planned to implement projects for USD18.2 billion and it is expected that foreign direct investments will reach the amount of USD 7.73 billion (2022 Presidential decree on the investment program of Uzbekistan for 2022-2024).

CONCLUSION

The results of analysis of foreign direct investment economic growth in Uzbekistan shows the lack of transparency, dominant role of government in economy, inefficient judicial mechanisms and diversifications in "strategic" sectors are the obstructions for many potential foreign investors.

Including, weak Points The major obstacles to FDI in Uzbekistan are:

- low economic diversification and dependence on commodity prices;
- low competitiveness;
- underdeveloped banking sector;
- state interventionism and difficult general business climate;
- autocratic regime.

Currently the government of Uzbekistan is striving against problems of foreign direct Investment of country regional development. The objective of this study was to shed light on the determinants of foreign direct investment (FDI) in Uzbekistan. In order to undertake it, we performed on data analysis for the 2020-2022 periods.

The study found trade openness, exchange rate, natural resources and infrastructure as the drivers of FDI in Uzbekistan. Macroeconomic variables, such as inflation and per capita gross domestic products, were also found to be contributing to the determinants of FDI flows in Uzbekistan. Finally, the contribution of this paper is that economic liberalization does really matter for FDI inflows in Uzbekistan and policymakers' efforts in liberalizing the economic activities may necessarily translate into significant FDI inflows into the country.

1 https://www.lloydsbanktrade.com/en/market-potential/uzbekistan/investment

References list:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-4947 of February 7, 2017.
2. law of the republic of Uzbekistan on investments and investment activity 25.12.2019.
3. Bekmurodov, A. Sh. (2018). In search of an innovative model of economic growth of Uzbekistan ... – Tashkent: “XXI asr”. – 215 p.
4. Vahobov, A.V, Khajibakiev, Sh.H., Muminov, N.G. (2010). Foreign investments. – Tashkent: “Finance”. – 346 p.
5. Gozibekov, D. G., Qoraliev, T. M. (1993). Organization and state regulation of investment activities. – Tashkent: “Economy and Finance”. – 232 p.
6. Wallis, K. F. (1968). The E. E. C. and United States Foreign Investment: Some Empirical Evidence Re-Examined Economic Journal, 78(311). – pp. 717–719.
7. Chakrabarti, A. (2001). The Determinants of foreign direct Investment: Sensitivity analyses of cross-country regressions, Kyklos, 54(1). – pp. 89–113.
8. www.unctad.org, www.weforum.org.gcr, www.doingbusiness.org
9. http://invest.gov.uz/wp-content/uploads/Presentations/presen.pdf
10. https://santandertrade.com/en/portal/establish-overseas/uzbekistan/investing
11. https://www.gazeta.uz/oz/2019/05/29/corruption/
12. https://www.lloydsbanktrade.com
13. https://www.emerald.com

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Karimova Shirin Zoxid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda elektron tijoratning o‘rni va ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, kelajakda rivojlanish imkoniyatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, uning imkoniyatlarini baholash va shu orqali rivojlanish istiqbollarini belgilash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, elektron bozor, elektron pul, to‘lov tizimlari, online do‘konlar, Online bank xizmatlari, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article presents opinions on the role and importance of e-commerce in our country, its development stages, and future development opportunities. The evaluation of its possibilities and thus the definition of development prospects are highlighted.

Key words: Electronic commerce, electronic market, electronic money, payment systems, online stores, online banking services, digitization, digital transformation.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о роли и значении электронной коммерции в нашей стране, этапах ее развития и возможностях дальнейшего развития. Также выделена оценка ее возможностей и определение перспектив развития.

Ключевые слова: Электронная коммерция, электронный рынок, электронные деньги, платежные системы, интернет-магазины, онлайн-банковские услуги, цифровизация, цифровая трансформация.

KIRISH

Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko‘tarilishi jarayonida barcha sohalarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalarining rijojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimilari ham yangi bosqichga o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 14-maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3724-son Farmonida “Elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish ilgari surildi.

Shuningdek, mazkur Farmonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan, elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini bergani qayd etildi.

Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to‘laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to‘siq bo‘layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan:

birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur’atlardagi o‘zgarishlariga mos kelmaydi va o‘z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta’minlamaydi;

ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to‘liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to‘siqlari saqlanib qolmoqda;

uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to‘xtab turishiga olib kelmoqda;

to‘rtinchidan, mahalliy to‘lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo‘qligi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to‘liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta’sir qilmoqda;

beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag‘batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog‘i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda[1].

Mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni Internet tarmog‘i orqali realizatsiya qilish uchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Demak, mamlakatimizda barcha sohalarda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadal amalga oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini munosib turish vazifalari ham belgilangan. Shu yo‘sinda elektron tijorat tushunchasiga oydinlik kiritib olamiz.

Elektron tijorat (e-tijorat, ingl tilida “e-commerce”) – bu internet texnologiyalari orqali savdo-sotiq amaliyotlarini tashkil etish. www.statista.com sayti ma’lumotlari ko‘ra 2022-yilda dunyo bo‘ylab eng ko‘p tashrif buyurilgan va onlayn chakana savdo qilingan veb-saytlar ro‘yhati keltirilgan.



1-rasm: 2022-yilda dunyo bo‘ylab eng ko‘p tashrif buyurilgan onlayn chakana veb-saytlar[2]

1-rasmda ko‘rinib turibdiki elektron tijoratda hozirgi kunda dunyo bo‘yicha eng katta internet do‘konlari amazon, ebay, aliexpress hisoblananadi.

Elektron tijorat (e-tijorat) O‘zbekistonda yanada rivojlanayotgan, bu esa shaxsiy va tijorat faoliyatining barcha aspektlarini o‘zgartirayotgan. O‘zbekistonda e-tijoratning rivojlanish bosqichlari quyidagicha ko‘rsatilishi mumkin:

Boshlang‘ich bosqich (2000-yillardan 2010-yillar ortalarigacha): Internetdan foydalanish darajasi yuqori bo‘lmaganligi va qonuniy asos bo‘lmaganligi tufayli, e-tijoratning rivojlanishi cheklangan edi. Bu davrda bizneslar va xalqaro tijorat korxonalarining kichik bir qismi internet orqali xizmatlarini taqdim etishni boshlagan.

O‘sish bosqichi (2010-yillardan 2016-yillar ortalarigacha): Bu davrda mamalaktimizda internet tarmoqlari optik tolaga bosqichma-bosqich o‘tishi, abonentlari soni o‘sishi, Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provay-

1 https://lex.uz/docs/-3744594?ONDATE=28.09.2020#-3748339
2 https://www.statista.com/statistics/274255/market-share-of-the-leading-retailers-in-us-e-commerce/

derlar soni ko‘payishi va texnologiyalarining rivojlanishi, O‘zbekistonda e-tijoratni yanada rivojlanishiga olib kelgan.

Tezkor o‘sish bosqich (2016-yildan hozirgacha): O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari, shu jumladan pul o‘tkazmalari va bank tizimlari sohasidagi islohotlar e-tijoratning tezkor o‘sishiga olib keldi. Elektron to‘lovlar, mobil bank, e-do‘konlar kabi yangi texnologiyalar keng tarqalgan.

Kelajakdagi bosqichlar: E-tijoratning kelajakdagi rivojlanish bosqichlari O‘zbekistonning texnologik taraqqiyoti, qonuniy muhit, iqtisodiy sharoitlar va boshqa omillarga bog‘liq. Kelajakda, IoT, AI, Big data kabi yangi texnologiyalar e-tijoratning rivojlanishini ta’sir qilishi kutilmoqda.

Jahon hamjamiyatining ko‘zlangan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun axborot texnologiyalariga (AT) bo‘lgan ehtiyoji katta sur’atlar bilan oshib bormoqda. Iqtisodiy o‘sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanish axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketagani natijasi ham hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin axborot oqimining ta’minlanishi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtiradi va sotsial farovonlikni oshirishga zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotda, ayniqsa, zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo‘llanishi yotadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma’lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, internet marketing tizimlari, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O‘zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma’lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo‘lgan holatdagina sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi.Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so‘zining ma’nosini tushunishga harakat qilib ko‘rgan. Hali o‘zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagan bunday faoliyat bilan bog‘liq AQSh bozorlarida yiliga o‘rtacha 1,5–2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar aylanadi.

“Elektron tijorat” termini EDI (Elektronic Data Interchange – ma’lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, Elektron tijorat tizimini uch sinfga bo‘lish mumkin:

- Chakana savdoni tashkil qilishbo‘yicha (biznes-iste’molchi, B2C).
- Biznes hamkor bilan aloqlar o‘rnatish (biznes-biznes, B2B).
- Iste’molchilar o‘rtasidagi savdo (iste’molchi-iste’molchi, C2C).

Elektron tijorat kundan kunga tovar va xizmatlar assortimentini oshira boshlagan sari alohida shaxslarni, korxonalarni, sohalarni, davlat muassasalarini va nihoyat davlatlarni bir hamjamiyatga birlashtirib, hamkorlarning o‘zaro ta’siri axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida samarali va to‘siqlarsiz kelishuvlarga erishishiga imkon berdi.

Elektron tijorat o‘z-o‘zidan mahsulot sotish va xizmat ko‘rsatish va yetkazib berish shartnomalarini tuzishda ikkita: moddiy va nomoddiy oqimlar, oqim xizmati bilan bog‘liq: Nomoddiy oqimlar nomoddiy tovarlar (dasturiy ta’minot, bino loyihalari to‘g‘ridan to‘g‘ri tarmoqli uzatish, moddiy xizmatlar (transport chiptalari, mehmonxonalarda xonalar va h.z. buyurtmasi)ning to‘g‘ridan to‘g‘ri tarmoqli bajarilishi, hamkorlar (mijozlar, buyurtmachilar, yetkazib beruvchilar, banklar) bilan moliyaviy tarmoqli hisobotlar, moddiy xizmatlarni etkazib berishni axborot va telekommunikatsion qo‘llab-quvvatlash natijasida yuzaga keladi.

Bunday oqimlar u yoki bu virtual tijorat faoliyati natijasida umumiy oqimlarning sezilarli, ba’zida esa juda katta qismini tashkil etadi. Tabiiyki, nomoddiy oqimlarga xizmat ko‘rsatishda elektr vositalarning ishlatilishi ish jarayonlarini tezlashtirishga, oqibatda, elektron tijoratning rivojlanishiga olib keladi.

Elektron tijoratning o‘ziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- Xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi.
- Ishlab chiqarish va sotish davri qisqarad.
- Arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish xarajatlari kamayadi.

Korxona axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali iste’molchilar bilan ochiq munosabat o‘rnatish, mahsulot va xizmatlar to‘g‘risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot bilan ta’minlash, sotuvning alternativ yo‘llarini, misol uchun tijorat saytlarida elektron do‘konlar ochish va yaratish imkoni beradi.

Elektron tijorat asosida yangi savdo-sotiq korxonalarini – elektron do‘konlarni yaratmoqda, raqobatning kattaligi sababli ularda yangi turdagi xizmatlar va tovarlar paydo bo‘lmoqda. Elektron tijoratning asosiy elementi bo‘lib, tovarlarni internetda sotish va aylanishi hisoblanadi. Tovarning aylanishi, uni sotishga mo‘ljallangan to‘liq kompleks tadbirlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ular axborotni ishlab chiqish va ishlatish, reklama tadbirlari va shunga o‘xshash tadbirlardir.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo‘llanilgan quyidagi prinsiplarga amal qilishmoqda.

- Elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o‘ynashi lozim.
- Elektron tijoratga nisbatan, davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaslik lozim.
- Davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va huquq bazasini takomillashtirish maqsadida aralishishi mumkin.
- Elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati Inernetning o‘ziga xosliklarini inobatga olishi lozim.
- Elektron tijorat jarayoni ma’muriy-hududiy bo‘linish va davlat chegaralariga bog‘liq bo‘lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo‘lishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonda elektrontijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tezkor va aniq yechilishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan quyidagi yechimini kutayotgan masalalar jahon tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, ularning to‘g‘ri hal qilinmasligi oqibatida bu sohada jiddiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Zarur infrastrukturaning hali ham yetarli darajada takomillashmagani quyida bir nechta misollar keltiramiz.

Birinchidan: Internetning global tarmog‘i bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan provayderlar soni cheklangan miqdorda va buning natijasida internet mijozlarga provayder o‘rtasida biridan ikkinchisiga tashish orqali yetkazilmoqda, ma’lumki bunday holat xizmat ko‘rsatishning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hududlarda ko‘rsatilayotgan internet xizmatining sifat ko‘rsatkichlari poytaxtdagi holat bilan solishtirganda sezilarli darajada yomon. Ajratilgan ulanish (ADCL modem) uchun yetarli shart-sharoitning yaratilmaganligi natijasida mijozlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘ng‘iroq qilish orqali (Dial-up) ulanishdan foydalanishadi. Bu, o‘z navbatida, xizmat sifatining yetarli darajada bo‘lmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan: Internet foydalanuvchilarining miqdori va mobil internet tezligi past holatda, bu holat elektron tijorat bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan yirik bozor yaratish imkonini bermaydi.

Uchinchidan: Mavjud internet-do‘konlar faoliyatida yetarli professionallik darajasi yetishmaydi. Aloqa va axborotlashtirish agentligi chop etgan ma’lumotlarga ko‘ra 01.01.2018-yil holatiga bo‘yicha O‘zbekistonda 24 ta internet-do‘kon faoliyat yuritadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda asosiy e’tibor beriladigan yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

- Elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri – malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.
- Telekommunikatsion xizmatlarni ko‘rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma’lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.
- AKT sohasiga investitsiyalarni kiritish uchun qulay huquqiy sharoitning ko‘rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo‘lishini ta’minlash.
- O‘z-o‘zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish.
- Axborot texnologiyalarining butun O‘zbekiston bo‘ylab keng tarqalishini ta’minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

- Online banking tizimini butun respublika bo‘ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar uchun o‘z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog‘i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, bu bank sohasining boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi.

Shuni bemalol ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston o‘zining yuqori darajali intellektual imkoniyatlari bilan axborot texnologiyalari tamaddunining qirg‘og‘ida qolib ketmasligi zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirish jamiyatimiz uchun quyidagi natijalar beradi:

- Elektron tijoratning rivojlanishi O‘zbeksiton mehnat bozori strukturasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o‘rinlarini yaratadi.
- O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo‘lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi.
- Elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishini, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta’minlaydi.

XULOSA

O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o‘sib borayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi.

Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha tanlangan va amaldagi yo‘ldan to‘g‘ri borish, kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O‘zbekistonda elektron tijorat bo‘yicha mavjud muammolarni hal qilishning to‘g‘ri yo‘li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharifxodjayev U., Xakimov Z. Interaktiv va raqamli marketing. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 271 b.
2. Abduxalilova L. T. Internet marketing. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 265 b.
3. Ergashxodjaeva Sh. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 315 b.
4. Ergashxodjaeva Sh. Dj., Samadov A. N., Alimxodjayeva N. E., Sharipov I. B. Marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 418 b.
5. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. (2016). Marketing an introduction. England, Paperback: 720 pages, Pearson.

Internet saytlari:

1. lex.uz - O‘zbekiston respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. https://www.statista.com/- Statitstik ma’lumotlar portali.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Saodat Toshaliyeva Toxirovna
PhD, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolaning dolzarbligi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini statistik baholash zarurati bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi va hududlar kesimida kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda maqolada iqtisodiy statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan bo‘lib, unda hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, YaHM hajmi, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar hajmi, statistik tahlil qilingan, ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, YaIM, YaHM, innovatsion mahsulot, indeks, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlari ko‘rsatish, asosiy kapitalga investitsiyalar, statistik tahlil

Abstract: The relevance of this article is explained by the need for a statistical assessment of the impact of the activities of small businesses on the socio-economic development of the republic. The purpose of the research work is aimed at statistical analysis of the state of economic phenomena and processes that may arise in the development of small business in the Republic of Uzbekistan and the regions. In order to achieve this goal, the article uses methods of economic, statistical and theoretical analysis, within which indicators representing the development of small businesses operating in inter-regions, GRP, the main indicators of industrial production, the services market, fixed capital investments and foreign investments of hajmi are statistically analyzed, scientifically evaluated, proposals and recommendations were developed.

Key words: small business, GDP, GRP,innovative product, index, industrial production, market services, fixed capital investments, statistical analysis

Аннотация: Актуальность данной статьи объясняется необходимостью статистической оценки влияния деятельности субъектов малого предпринимательства на социально-экономическое развитие республики. Цель научно-исследовательской работы направлена на статистический анализ состояния экономических явлений и процессов, которые могут возникать в процессе развития малого предпринимательства Республики Узбекистан и регионов. При достижении поставленной цели в статье использованы методы экономико-статистического и теоретического анализа, в рамках которых показатели, представляющие развитие предприятий малого бизнеса, действующих в межрегионах, ВРП, основные показатели промышленного производства, рынка услуг, инвестиций в основной капитал и иностранных инвестиций хаджми, статистически проанализированы, научно оценены, предложения и были разработаны рекомендации.

Ключевые слова: малый бизнес, ВВП, ВРП, инновационный продукт, индекс, промышленное производство, рыночные услуги, инвестиции в основной капитал, статистический анализ

KIRISH

Kichik tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyatda vujudga kelayotgan ko‘pgina ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik tadbirkorlik aholi qatlamlarini faol iqtisodiy jarayonlarga jalb etish orqali mamlakatdagi ishsizlik muammolarini bartaraf etish, raqobat muhitini yaxshilash, monopoliyaga barham berish, kichik mulk egalari sinfini shakllantirish hamda jamiyatda o‘rta mulkdorlar sinfini yaratish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadilar. Chunki kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik

tadbirkorlik yirik ishlab chiqarish korxonalariga ko‘makchi bo‘lish bilan bir qatorda mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga tez moslashuvchan, iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yirik korporativ tuzilmalar bilan bir qatorda kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratadilar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aynan kichik va o‘rta biznes korxonalarida deyarli 70 foiz aholi ish bilan band. Ushbu mamlakatlarda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Bizning respublikamizda ham kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, qator chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati bo‘yicha xorij va MDH mamlakatlari olimlaridan R. Lukas [14], P. Romer [15], A. Portes [16], A. Chepurenko [19], S. Yegorixina [7], N. Doronina [5], I. Cheplyaeva [20], O. Ponomarov [12], K. Arshakuni [2] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

S. G‘ulomov [4], B. Ruzmetov [17], T. Do‘stjanov [6], T. Shodiyev [21], B. Xodiyev [18], B. Berkinov [3], O. Rixsimboyev [13], U. Inoyatov [9], I. Jalolov [8] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarida kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini statistik hamda ekonometrik tahlil qilish muammolari yoritilgan.

Kichik tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga qaramasdan, kichik tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash va uni ekonometrik modellashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligi mazkur mavzuda chuqurlashtirilgan ilmiy-uslubiy izlanishlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Kichik tadbirkorlikning mamlakat va uning hududlariga ta’sirini baholashda o‘rtacha geometrik usulda hisoblanuvchi integral ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bunday yondashuvlarni ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini aniqlashda kichik tadbirkorlik rivojlanishidagi asosiy muammo va afzalliklarni baholashga imkon beruvchi turli iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot tadbirkorlik subyektlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini reyting asosida baholash imkonini beradi [10].

Ayrim tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni hududiy rivojlanish dinamikasiga ta’sirini baholashda kichik tadbirkorlik samaradorligini baholashning ko‘p omilli regression tahlil tenglamasidan foydalanilgan [11].

Lekin ushbu tadqiqotlarda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning mintaqaviy masalalariga alohida e’tibor qaratilmagan.

Mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ishlab chiqarish va ijtimoiy soha rivojlanish natijalarini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Kichik tadbirkorlik mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qilib, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi ish bilan bandligi ta’minlanishi, tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab qondirilishi va aholi turmush farovonligi oshirilishiga olib keladi [22].

Kichik tadbirkorlikka bag‘ishlangan ayrim ilmiy tadqiqotlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarida ish bilan band bo‘lganlar sonining bir foizga oshirilishi YaIMdagi tadbirkorlik subyektlari salmog‘ining 8,056 foizga oshishiga olib kelishini ko‘rsatgan [23].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan bo‘lib, bunda hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, YaHM hajmi, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar hajmi statistik tahlil asosida miqdor va sifat jihatdan ilmiy asoslangan holda baholash, respublika va hududlarda kichik tadbirkorlikning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari rivojini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini baholash maqsadida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati rivojlanishi statistik tahlili amalga oshirildi. Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha statistik tahlil ma’lumotlariga ko‘ra respublikamizda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 523600 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan mos ravishda 13,1 foizga ko‘pligini ko‘rish mumkin (1.2.1-rasm).

1.2.1-rasm: Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik ko‘rsatkichlari

		2022 1 yanvar holati			2023 1 yanvar holati			
		Soni, birlikda	Jamiga nisbatan ulushi (% da)	Har mingta aholiga togri keladigan soni, birlikda	Soni, birlikda	Jamiga nisbatan ulushi (% da)	Har mingta aholiga togri keladigan soni, birlikda	2023-yilda 2022-yilga nisbatan o‘zgarishi (% da)
1.	O‘zbekiston Respublikasi	462834	100%	13,2	523600	100%	14,2	113,1
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19998	4,3	10,2	22863	4,2	4,4	114,3
	Viloyatlar							
3.	Andijon	34999	7,5	10,7	39038	7,4	14,8	111,5
4.	Buxoro	27690	5,9	14	30082	5,7	19	108,6
5.	Jizzax	19463	4,2	13,4	22474	4,2	21,5	115,4
6.	Qashqadaryo	31152	6,7	9,1	36421	6,9	15,5	116,9
7.	Navoiy	20472	4,4	19,8	22844	4,3	24,8	111,5
8.	Namangan	28949	6,2	9,8	32305	6,1	13,2	111,5
9.	Samarqand	40724	8,7	10,1	47943	9,1	15	117,7
10.	Surxondaryo	24395	5,2	8,8	27368	5,2	12,6	112,1
11.	Sirdaryo	13808	2,9	15,7	15036	2,8	23	108,8
12.	Toshkent viloyati	44156	9,5	15,02	49145	9,3	19,7	111,2
13.	Farg‘ona	40403	8,7	10,3	46350	8,8	15,4	114,7
14.	Xorazm	21984	3,4	11,4	25616	4,8	15,8	116,7
15.	Toshkent shahri	94641	20,4	33	106071	20,2	35,9	112,1

2022-yil davomida 90170 tasi yangidan tashkil etilgan bo‘lsa, 29377 tasi o‘z faoliyatini tugatgan. Rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, hududlar kesimida eng ko‘p faoliyat yuritgan kichik tadbirkorlik korxonalari ulushi Toshkent shahri (20,4%), Toshkent viloyati (9,5%) hamda Samarqand viloyatiga, eng kam ulush esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi (4,3%), Jizzax (4,2%) va Sirdaryo (2,9%) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 ta aholiga to‘g‘ri keladigan ulushi bo‘yicha bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha 14,2 tani tashkil etgan. Hududlar kesimida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri (35,9 ta), Navoiy (24,8 ta), Sirdaryo (23,0 ta) va Jizzax (21,5 ta) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Buni ushbu hududlarda ElHlar ko‘proq faoliyat yuritayotganligi bilan izohlash mumkin. Qolgan sakkizta hududlarda esa bu ko‘rsatkich respublika ko‘rsatkichidan pastligini ko‘rish mumkin. Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o‘tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Samarqand (117,7%), Qashqadaryo (116,9%) va Xorazm (116,7%) hududlariga to‘g‘ri keladi. Surxondaryo (112,1%) viloyatida esa o‘rtacha o‘sish sur’ati kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini faoliyat sohalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, respublika YaIMdagi ulushi 2022-yilda 51,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan mos ravishda 2,6 foizga kamaygan, ushbu holatni sanoatda ham kuzatish mumkin, ya’ni 25,9 foizni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 1,1 foizga pasaygan (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm: 2022-yilda kichik biznesninig faoliyat sohalari ko‘rsatkichlari, foizda

Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, o'sish ko'proq eksport (7,2 %) va importda (0,2%) kuzatilgan.

Qolgan barcha sohalarda kamayish kuzatilgan, bunda eng yuqori kamayish xizmatlar sohasi va savdoda (2,7 %) vujudga kelgan. E'tiborlisi, kichik tadbirkorlik o'zining salmoqli ulushini qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida (95,3 %), savdoda (79,4%), xizmatlarda (48,4%), qurilishda (71,6 %), investitsiyada (47,6 %) saqlab qolmoqda. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunda kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Lekin 2021–2022-yillar davomida asosiy faoliyat turi bo'yicha eng katta salmoqqa ega bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular, deyarli ko'p holatlarda past texnologik mahsulotlar ishlab chiqarganiga guvoh bo'lamiz. 2021-yilda sanoat sohasida 19285 ta kichik tadbirkorlik korxonalari tashkil etilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 16,0 foiz pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu sohada tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari asosan, un va non mahsulotlari, trikotaj, qandolatchilik mahsulotlari, mebel va temirdan tayyorlanadigan mahsulotlar ishlab chiqargan. Xizmatlar sohasida umumiy ovqatlanish, ta'lim muassasalari va yuk tashish, savdoda esa do'konlar faoliyati muhim o'rin tutgan.

Lekin jahon tajribasi tadbirkorlikda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish shart-sharoitlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda respublikamizda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish davr talabi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun faqatgina miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, balki innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Qayd etib o'tish lozimki, innovatsion mahsulotlar o'ziga xos raqobat afzalligiga ega bo'ladi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ilmiy-texnik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar yetarli emasligi;
- innovatsion g'oyalarni moliyalashtirishda venchur kompaniyalar hissasining pastligi;
- innovatsion g'oyalarni yaratish va ro'yobga chiqarishda motivatsiyaning zaifligi.

Tadbirkorlik tashabbuskorligi avvalo innovatsion faoliyat samaradorligidan manfatdor bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlaridan chiqishi kerak. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining innovatsion samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM qismi bilan belgilanadi (1.2.2-rasm).



1.2.2-rasm: YaHM hududlar kesimida, (2022-yil)

YaHMning hududlar kesimidagi ulushiga ko'ra, eng yuqori ulush Toshkent shahriga tegishli ekanligiga guvoh bo'lamiz, uning respublika YaIM dagi ulushi 16,6 foizga teng, keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati 10,5 foiz, Navoiy 7,5 foiz va Samarqand 7,0 foizni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlariga tegishli bo'lib, 3,6 foizdan kamligini ko'rish mumkin. Surxondaryo viloyati YaHMining mamlakat YaIMdagi ulushi 3,9 foizga teng bo'lib, bu ham deyarli past ko'rsatkichdir.

YaHMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatiga tegishli bo'lib, respublika ko'rsatkichidan 2,6 marta ko'pligiga guvoh bo'lamiz. Bunga sabab hududda erkin sanoat zonalar ulushining yuqoriligi va aholi sonining kamligidir. Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, YaHM indeksi Toshkent shahrida 2,0, Toshkent viloyatida 1,3 ga teng bo'lmoqda, ushbu viloyatlarning indeks ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan yuqori, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich past. Aholi jon boshiga YaHM indeksi eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatiga 0,5 ko'rsatkichga ga to'g'ri kelmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi yana bir eng muhim omillardan biri sanoat ishlab chiqarish hajmidir. Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Toshkent shahri eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, uning respublika sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,5 foizga teng (1.2.3-rasm). Undan keyingi o‘rinlarni Toshkent (16,9 %) va Navoiy viloyatlari (15,3 %) egallab turibdi.



1.2.3-rasm: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida (2022-yil)

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Namangan (2,75 %), Sirdaryo (2,18 %), Jizzax (1,45 %) hamda Surxondaryo (1,33 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu hududlar sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha boshqa hududlardan orqada qolmoqda va bu hududlarda sanoatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari indeksi bo‘yicha ham eng yuqori ko‘rsatkich yana Navoiy viloyatiga tegishli bo‘lib, 5,2 ga teng bo‘lmoqda. Toshkent shahri (2,4), Toshkent (2,0) va Andijon viloyati (1,1) undan keyingi yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda. Eng past ko‘rsatkich Samarqand, Farg‘ona (0,5), Qashqadaryo, Namangan (0,4) hamda Surxondaryo viloyati (0,2) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Eng achinarli holat Surxondaryo hududiga tegishli.

Hududlar kesimida ko‘rsatilayotgan bozor xizmatlari ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, Toshkent shahri (38,4%) eng yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz (1.2.4-rasm).



1.2.4-rasm: Bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari, hududlar kesimida (2022-yil)

Undan keyingi yuqori ulush Toshkent (7,3 %), Farg‘ona (6,1 %), Samarqand (6,4 %) viloyatlariga tegishli. Eng past ko‘rsatkich esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2,9 %), Xorazm (2,9 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Sirdaryo (1,4 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Hududlar bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Toshkent shahri (21,0 %) yana eng yuqori ulushga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz (1.2.5-rasm). Undan keyingi yuqori o‘rinlar Toshkent (13,0 %), Samarqand (8,1 %), Buxoro (7,8 %) va Navoiy (7,2 %) viloyatlariga tegishli.



1.2.5-rasm: Asosoiy kapitalga investitsiyalar, hududlar bo‘yicha (2022-yil)

Investitsion faollikning eng past darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,7 %) va Xorazm (3,3 %) viloyatlariga tegishli. Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar indeksi eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri (2,6), Navoiy (2,5) va Sirdaryo (2,3) viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Undan keyingi o‘rinlarda Buxoro, Toshkent viloyati, Jizzax hududlari mos ravishda (1,4), (1,6), (1,0) indeks ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, ularning deyarli barchasi respublika indeksidan yuqoriligiga guvoh bo‘lamiz. Qolgan hududlarda esa bu ko‘rsatkich respublika ko‘rsatkichidan pastligicha qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillar mantiqiyligin davom ettirgan holda hududlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsilar hajmi o‘sishi hamda tarkibiy jihatdan o‘zgarishini 1.2.6-rasm ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘tamiz.



1.2.6-rasm: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar, hududlar kesimida (2022-yil)

Xorijiy investitsiyalarni hududlar kesimida jalb etish ko‘rsatkichi ushbu statistik kuzatuv amalga oshirilayotgan hududlardagi korxonalarni zamonaviy xorijiy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Rasm ma’lumotlariga ko‘ra eng yuqori ko‘rsatkich yana Toshkent shahriga tegishli. Ushbu hududda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning respublika ko‘rsatkichidagi ulushi 14,2 foizga, shuningdek Buxoro (10,7%) va Toshkent viloyati (8, 72%) ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda. Bunda eng past 4,4 % dan kam bo‘lgan ko‘rsatkich yana Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qismi bo‘yicha eng yuqori indeks Sirdaryo (3,5), Navoiy (3,2) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Yuqoridagi tahlillar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan Toshkent shahri indeksi 1,7 ga, Toshkent viloyati indeksi esa 1,2 ga teng bo‘lmoqda. Demak rasm ma’lumotlariga ko‘ra oltita hudud indeksi respublika indeksidan yuqori, qolgan hududlarda esa bu ko‘rsatkich pastligicha qolmoqda.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko‘ra xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish uchun texnoparklar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriyalar faoliyatiga alohida e’tibor qaratish zarur. Hududlar tahlili ko‘rsatishicha, qaysi hududda innovatsion rivojlanish imkoniyatlari yuqori bo‘lsa, shu hududda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yuqori bo‘lgan. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy, Buxoro hududlarini innovatsion rivojlanish salohiyati yuqori hudud sifatida talqin etishimiz mumkin. Ushbu hududlarda innovatsion infratuzilma elementlari hisoblangan texnopark, texnopolislar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati, transfer texnologiyalar markazlarini rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy rivojlanishdan orqada qolayotgan Surxondaryo, Namangan va Xorazm hududlariga ishlab chiqarish salohiyatini e’tiborga olgan holda manzilli qo‘llab-quvvatlash dasturlari asosida iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonliFarmoni
2. Аршакуни К. Эконометрические моделирование генезиса и динамики малых новых предприятий. Дис....к.э.н. – М., 2020. – 72 с.
3. Berkinov B. B. Ekonometrika. O‘quv qo‘llanma. – T., 2015. – 34–39-b.
4. Gulyamov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T., 2002. – 256 b.
5. Доронина И. Э. Управление развитием предпринимательского потенциала мезоуровня.Дис. уч.ст. к.э.н. – М., 2018. – 72–78 с.
6. Do‘stjanov T. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. – Urganch: Xorazm, 1997.
7. Егорихина С. Ю. Предпринимательский потенциал населения региона//Экономика региона: проблемы иперспективы развития. № 1 (53). 2011. – 42–50 с.
8. Jalolov I. Korxona iqtisodiy salohiyatining statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish.:Iqt.fan. nomz. diss.avtoref. – T., 2021. – 14 b.
9. Inoyatov U. U. Hududiy tadbirkorlik faoliyatining statistik usullardagi tahlili:Iqt.fan.nomz.diss.avtoref. – T., 2018.– 12–17b.
10. Кремин А. Е., Мазилов Е. А. Оценка влияния малого бизнеса на социально-экономическое развитие регионов// Вопросы территориального развития. 2018.№1(41).DOI:10.15838/tdi.2018.2.41.2.
11. Лускатова О. В., Гленкова Е. О., Шалова В. А. Методический подход к экономической оценке влияния предпринимательства на динамику развития региона//Фундамент.исслед. 2013. №2–3. – С. 594–598.
12. Пономаров О. Системная модель предпринимателя и предпринимательской деятельности.Дис... к.э.н. – Москва, 2020. – 122 с.
13. Rixsimboev O. Q. O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning ustuvor yo‘nalishlarini ekonometrik bashoratlash.: Iqt. fan. nomz. iss. avtoref. – T., 2002. – 22 b.
14. Robert, E. Lucas. (1988). On the mechanics of economic development. // Journal of Monetary Economics 22. 3–42. North Holland.
15. Romer, P. M. (1986). Increasing Returns and Long-Run Growth // The Journal of Political Economy, October. – pp. 1002–1037.
16. Portes, A., Guarnizo, L. E., & Haller, W. J. (2002, April). Transnational entrepreneurs: An alternative form ofimmigrant economic adaptation. American Sociological Review,67(2). – pp. 278–298.
17. Рузметов Б. Оптимизационные задачи многоагрегатных комплексов. Модели, методы решения, программные модули. – Т.: Фан, 2010. – 124 с.
18. Xodiyev B. Y., Shodiyev T. Sh., Berkinov B. B. Ekonometrika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 65 b.
19. Чепуренко А. Ю. Малое предпринимательство в социальном контексте. – М.: Наука, 2004. – 480 с.
20. Чепляева И. Е. Предпринимательский потенциал: проблемы формирования и использования в российской экономике. Дис... к. э. н.: 08.00.07. Саратов, 1999. – 168 с.
21. Шодиев Т. Ш., Ходиев Б. Ю. и др. Эконометрика. Учеб. пособие. – Т.: Sharq. 1999.
22. Davis, S., Haltiwanger, J., Schuh, S. (1996). Small business and job creation: Dissecting the muth and reassessing the facts. Small business Economics. Vol 8 (4), pp. 297-315.
23. Norov A. R. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish i.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtor. – T.: TDIU, 2020.
24. Xatamov O., Toshaliyeva S. Surxondaryo viloyati kichik tadbirkorlik salohiyati natijaviyligini ijtimoiy-iqtisodiy baholash usullari va mezonlari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2021. – №.4. – 215–224-b. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/159
25. Toshaliyeva S. Hududiy kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini prognozlash // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – №. 3 (23). – 220–227-и. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33;https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/530
26. Toshaliyeva, S. T. (2021). Economic and statistical analysis of the development of small business potential in Surkhandarya region // Экономика и предпринимательство. – №. 4. – pp. 778–782.
27. Toshaliyeva, S. T. (2020). The concept of “business potential”: essence, economic significance //Theoretical & Applied Science. – №. 3. – pp. 39–42.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович
DSc, Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Фундаментальная экономика”

Одилова Дилноза Барнаевна
PhD, Ташкентский государственный экономический университет кафедра “Фундаментальная экономика”

Аннотация: Актуальностью данной статьи являются ключевые факторы инвестиции и коэффициенты развития, играющее немаловажную роль для привлечения зарубежных инвесторов в Узбекистан, а также имеется в статье последние статистические данные государственного комитета статистики об инвестировании в различных сферах экономики и действующих инвестиционных проектов на территории Республики Узбекистан.

Ключевые слова: ВВП на душу населения, инвестиции, рынок, вклад, идеи привлечения инвесторов, проекты, коэффициент, уровень безработицы, диверсификация, экспортный потенциал.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonga xorijiy investorlarni jalb etishda muhim rol o‘ynaydigan investitsiya va rivojlanish koeffitsiyentlarining asosiy omillaridan iborat bo‘lib, maqolada Davlat statistika qo‘mitasining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha so‘nggi statistik ma’lumotlari ham keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud investitsiya loyihalari.

Kalit so‘zlar: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, investisiya, bozor, hissa, investorlarni jalb qilish g'oyalari, loyihalar, koeffitsiyent, ishsizlik darajasi, diversifikatsiya, eksport salohiyati.

Abstract: The relevance of this article is the key factors of investment and development coefficients, which play an important role in attracting foreign investors to Uzbekistan, and the article also contains the latest statistical data from the State Statistics Committee on investment in various sectors of the economy and existing investment projects in the territory of the Republic of Uzbekistan.

Key words: GDP per capita, investment, market, contribution, ideas for attracting investors, projects, coefficient, unemployment rate, diversification, export potential.

Один из самых актуальных задач в развитии и модернизации нынешней экономики страны, является привлечения зарубежных инвестиции в различные сферы экономики, действующая политика нацелена в построении государство с высокой экономикой, где именно привлечения зарубежных инвестиции составляют в этом большую ключевую роль.

Инвестиционный потенциал национальной экономики определяется совокупностью факторов: ВВП на душу населения, удельный вес убыточных предприятий, степень износа основных фондов на предприятиях, объем инновационных услуг, выпуск специалистов с высшим и профессиональным образованием, численность персонала, занятого НИОКР, уровень преступности, степень бюджетной обеспеченности, уровень безработицы и др.

В качестве анализируемых показателей автором определены: ВВП на душу населения, объемы подушевого освоения инвестиций в основной капитал, производство промышленной продукции на душу населения, реальные совокупные доходы на душу населения, уровень безработицы, уровень преступности, численность экономически активного населения и количество выпускников высших учебных заведений.

Расчет коэффициента вариации (табл. 1) показал, что почти по всем анализируемым показателям наблюдается повышенная вариация, что означает неоднородность социально-экономического развития регионов республики и, соответственно, различные возможности доступа к финансовым ресурсам и наращивания инвестиционного потенциала. Наибольшая дифференциация наблюдается по показателю количества выпускников ВУЗов, а также по объемам промышленного производства на душу населения. Наиболее однородными можно считать уровень занятости и совокупные доходы населения регионов.

Таблица 1: Коэффициенты вариации по социально-экономическим показателям развития Узбекистана в 2018-2022 гг., %[1]

№		2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
1.	ВРП на душу населения	49,5	59,0	66,8	65,4	63,5
2.	Освоение инвестиций в основной капитал на д/н	71,2	72,6	69,1	65,4	67,4
3.	Производство промышленной продукции на д/н	85,8	105,1	123,6	116,7	110,9
4.	Реальные совокупные доходы на д/н	34,1	38,1	36,9	36,6	37,0
5.	Уровень безработицы	5,7	5,5	7,8	8,5	12,0
6.	Уровень преступности	51,6	50,9	61,4	84,1	74,4
7.	Численность экономически активного населения	38,0	37,5	37,4	37,9	39,6
8.	Количество выпускников ВУЗов	120,1	118,5	102,0	104,2	124,8

Коэффициент эксцесса (табл. 2) свидетельствует о нормальном распределении вариационного ряда только по численности экономически активного населения, что означает допустимость аппроксимации нормальным распределением. Значение эксцесса совокупности остальных анализируемых показателей социально-экономического развития регионов Узбекистана в 2018-2022 гг. принадлежит к диапазону положительных чисел, что свидетельствует о том, что распределение данных величин является остроконечным (особенно количество выпускников ВУЗов).

Таблица 2: Коэффициенты эксцесса показателей социально-экономического развития Узбекистана в 2018-2022 гг. [2]

№	Показатель	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
1.	ВРП на душу населения	2,7	2,7	4,4	3,7	3,4
2.	Освоение инвестиций в основной капитал на д/н	1,9	2,3	2,2	2,5	1,8
3.	Производство промышленной продукции на д/н	2,1	6,7	8,5	7,2	6,0
4.	Реальные совокупные доходы на д/н	4,1	5,4	3,6	3,0	4,8
5.	Уровень безработицы	2,1	7,9	6,3	7,9	1,9
6.	Уровень преступности	-0,4	-0,5	1,0	2,9	3,2
7.	Численность экономически активного населения	-1,2	-1,2	-1,1	-1,2	-1,4
8.	Количество выпускников ВУЗов	12,1	12,3	12,4	11,9	12,7

1 Составлено автором по данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан https://stat.uz/ru/
2 Составлено автором по данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан https://stat.uz/ru/

Одним из показателей, характеризующих концентрацию и специализацию национальной экономики, является индекс Херфиндаля-Хиршмана, рассчитываемый путем суммирования квадратов всех индивидуальных процентных долей регионов:

$$HHI = \sum_{i=1}^{n} x_i^2 \quad (1)$$

где x_i – доля региона в общем объеме совокупности.

По мнению экспертов, значение HHI менее 1000 указывает на хорошую конкуренцию, значение от 1000 до 1800 указывает на умеренную концентрацию, а значение больше 1800 указывает на высокую концентрацию[3].

Рассчитаем индекс Херфиндаля-Хиршмана по трем относительным показателям (долям): инвестиций в основной капитал, объема промышленного производства и экономически активного населения регионов по отношению к соответствующим аналогичным показателям по республике (рис. 1).

Рис. 1: Динамика географической концентрации экономических преимуществ в Узбекистане в 2018-2022 гг.[4]

Индекс Херфиндаля-Хиршмана свидетельствует о том, что наибольшая степень концентрации в Узбекистане наблюдается по показателю объемов промышленного производства. Наименьший показатель концентрации, но со стабильной тенденцией роста имеет место по численности экономически активного населения, что означает нарушение равномерного распределения трудовых ресурсов по регионам республики. Высокую степень концентрации регионы имеют по показателю инвестиций в основной капитал. Исследование показало, что все вышеназванные показали имеют умеренную степень концентрации, однако, монополия регионов, занимающих лидирующие позиции в промышленном производстве, объемах инвестиций в основной капитал и численности экономически активного населения неуклонно из года в год за рассматриваемый период растет.

В целях количественной оценки экономического и социального межрегионального неравенства в Узбекистане рассчитаем показатели энтропии - индексы Тейла, характеризующие распределение показателей по населению (и населения по показателям):

$$T_T = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\frac{x_i}{\bar{x}} \times ln\frac{x_i}{\bar{x}} \quad \text{и} \quad T_L = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} ln\frac{\bar{x}}{x_i} \quad (2)$$

где x_i – показатель *i*-го субъекта;
n – количество субъектов;
$\bar{x}$ – среднее значение показателя.

Рассчитаем индексы Тейла по показателям освоения инвестиций в основной капитал на душу населения и производству промышленной продукции на душу населения (табл. 2.6).

3 Зарецкая В.Г., Титкова И.К. Диверсификация экономики российских регионов: измерения и тенденции // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2017. №12 (357). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/diversifikatsiya-ekonomiki-rossiyskih-regionov-izmereniya-i-tendensii

4 Здесь автором рассчитан индекс Херфиндаля-Хиршмана.

Таблица 2.6: Индексы Тейла и по Узбекистану за 2018-2022 гг.[5]

Показатели энтропии	Инвестиции в основной капитал на д/н					Производство пром. продукции на д/н				
	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.	2018 г.	2019 г.	2020 г.	2021 г.	2022 г.
T-мера	0,21	0,22	0,20	0,18	0,20	0,31	0,40	0,51	0,47	0,44
L-мера	0,74	0,76	0,65	0,56	0,64	1,49	1,87	2,16	1,92	1,67

Результаты подсчета индексов Тейла показали, что поскольку как по инвестициям в основной капитал на душу населения, так и по производству промышленной продукции на душу населения T-мера Тейла меньше L-меры, то это означает, что в государстве наблюдается значительный разрыв в уровнях развития богатых и бедных регионов, при этом значительное влияние на общую неравномерность развития страны оказывают богатые регионы, то есть усиление дифференциации произошло именно за счет концентрации инвестиций в основной капитал на душу населения и промышленного производства в богатых регионах.

Кроме того, можно заметить уменьшение разрыва между T-мерой и L-мерой по инвестициям в основной капитал на душу населения, то есть происходит постепенное усиление лидерства богатых регионов, усугубление дифференциации уровня освоения инвестиций в регионах республики, что может свидетельствовать о росте конкурентных преимуществ экономически сильных регионов и дальнейшем ослаблении слабых. Как показали научные исследования представителей теорий поляризации, это чревато тем, что чем интенсивнее проходят процессы дивергенции, тем более неоднородными, неравновесными становятся пространственные характеристики социально-экономической системы.

Рис. 2: 10 T-мера по Узбекистану за 2018-2022 гг.[6]

Однако, следует отметить тенденцию незначительного снижения масштабов дифференциации: по освоению инвестиций в основной капитал на душу населения - на 10%, подушевым показателям промышленного производства - на 8% (рис. 2.10).

Таким образом, проведенное исследование позволяет говорить об асимметричном типе развития регионов Узбекистана, при котором регионы-лидеры улучшают свое положение относительно средних по республике значений, а районы-аутсайдеры - ухудшают. В абсолютном выражении это проявляется в том, что по индикатору освоения инвестиций размах асимметрии достигает шести (в 2021 г.), а коэффициент вариации на протяжении всего исследуемого периода по всем рассмотренным социально-экономическим показателям превышает пороговое значение, свидетельствующее об однородности пространства.

Определим инвестиционный потенциал регионов Узбекистана на основе удельного веса социально-экономических показателей по отношению к соответствующим показателям по республике (табл. 2.7).

5 Составлено на основе расчетов автора.
6 Составлено автором.

Таблица 2.7: Показатели оценки инвестиционного потенциала экономики Узбекистана, 2022 г.[7]

Регионы	Доля региональных показателей в совокупных по республике				
	Инвестиции в основной капитал	ВРП	Объемы промышленного производства	Количество бездействующих предприятий	Численность экономически активного населения
	К1	К2	К3	К4	К5
Республика Каракалпакстан	0,03	0,03	0,04	0,04	0,05
Андижанская обл.	0,05	0,06	0,08	0,11	0,09
Бухарская обл.	0,08	0,05	0,05	0,07	0,06
Джизакская обл.	0,04	0,03	0,02	0,05	0,04
Кашкадарьинская обл.	0,07	0,06	0,04	0,06	0,09
Навоийская обл.	0,06	0,08	0,16	0,03	0,03
Наманганская обл.	0,05	0,05	0,03	0,04	0,08
Самаркандская обл.	0,06	0,07	0,05	0,09	0,11
Сурхандарьинская обл.	0,05	0,04	0,01	0,05	0,07
Сырдарьинская обл.	0,03	0,02	0,02	0,04	0,02
Ташкентская обл.	0,13	0,11	0,18	0,16	0,09
Ферганская обл.	0,05	0,06	0,06	0,06	0,11
Хорезмская обл.	0,03	0,04	0,03	0,05	0,05
г. Ташкент	0,25	0,17	0,20	0,14	0,09

Рейтинг регионов по показателю инвестиционного потенциала составим по принципу: чем больше будут рассчитанные значения коэффициентов К1-К5 (кроме К4), тем будет выше инвестиционная привлекательность региона.

Сначала необходимо привести все показатели к сопоставимому виду:

$$I_{ij} = K_i / K_{max}\text{false},\ I_{ij} = 1 - K_i / K_{max}\text{false} \quad (2.3)$$

где I_{ij} false – индекс инвестиционного потенциала по *i* - му региону для *j* false-го коэффициента; K_i false - значение коэффициента для *i* false-го региона; K_{max}false – максимальное значение коэффициента среди всех регионов. Первую из формул (2.3) используем для веса прямых коэффициентов (К1, К2, К3, К5), вторую - для обратных (К4).

Сводный индекс инвестиционного потенциала по каждому региону рассчитаем путем суммирования значений индексов инвестиционного потенциала по каждому коэффициенту:

$$SI = \sum I_{ij}\ \text{false} \quad (2.4)$$

Таблица 2.8: Приведенные показатели инвестиционной привлекательности по Республике Узбекистан в 2022 г. [8]

Регионы	К1	К2	К3	К4	К5	Сводный индекс
Республика Каракалпакстан	0,13	0,20	0,18	0,75	0,47	1,74
Андижанская область	0,19	0,37	0,40	0,27	0,85	2,07
Бухарская область	0,33	0,31	0,23	0,55	0,52	1,95
Джизакская область	0,15	0,18	0,10	0,71	0,37	1,51
Кашкадарьинская область	0,29	0,34	0,21	0,64	0,81	2,29
Навоийская область	0,23	0,45	0,82	0,80	0,27	2,57

7 Составлено автором.
8 Составлено автором.

Наманганская область	0,20	0,28	0,16	0,74	0,74	2,12
Самаркандская область	0,24	0,42	0,25	0,40	0,97	2,28
Сурхандарьинская область	0,20	0,24	0,07	0,66	0,68	1,85
Сырдарьинская область	0,14	0,12	0,11	0,73	0,23	1,33
Ташкентская область	0,52	0,63	0,92	0,00	0,82	2,90
Ферганская область	0,20	0,38	0,31	0,58	1,00	2,47
Хорезмская область	0,14	0,22	0,15	0,66	0,49	1,65
г. Ташкент	1,00	1,00	1,00	0,07	0,86	3,93

На основе проведенного исследования в порядке убывания значений сводного индекса построим рейтинг регионов Узбекистана по инвестиционной привлекательности (рис. 2.11).



Рис. 2.11: Рейтинг регионов Узбекистана по уровню инвестиционной привлекательности, 2022 г.[9]

На основе метода статистической группировки с равными интервалами (2.5) разделим регионы Узбекистана по уровню инвестиционного потенциала на три группы (табл. 2.9).

$$i = \frac{x_{max} - x_{min}}{n} = \frac{3{,}93 - 1{,}33}{3} = 0{,}87 \quad (2.5)$$

I группа - от 1,33 до 2,20
II группа - от 2,20 до 3,07
III группа - от 3,07 до 3,93

Таблица 2.9: Классификация регионов Узбекистана по уровню инвестиционного потенциала, 2022 г. [10]

Регионы с высоким уровнем инвестиционного потенциала	Регионы со средним уровнем инвестиционного потенциала	Регионы с низким уровнем инвестиционного потенциала
г. Ташкент	Ташкентская обл.	Наманганская обл.
	Навоийская обл.	Андижанская обл.
	Ферганская обл.	Бухарская обл.
	Самаркандская обл.	Сурхандарьинская обл.
	Кашкадарьинская обл.	Республика Каракалпакстан
		Хорезмская обл.
		Джизакская обл.
		Сырдарьинская обл.

9 Составлено автором.
10 Составлено автором.

В соответствии с проведенным анализом всего лишь один регион - г. Ташкент - имеет высокий уровень инвестиционного потенциала, пять регионов - Ташкентская область, Навоийская область, Ферганская область, Самаркандская область и Кашкадарьинская область. Остальные восемь регионов - средний и низкий уровень инвестиционного потенциала. При этом наблюдается значительный (более, чем трехкратный) разрыв между наиболее и наименее инвестиционно-привлекательными регионами.

Несмотря на то, что вариация в уровне социально-экономического развития регионов выступает закономерным и неизбежным фактором, вытекая из разницы в географических, исторических, трудовых, производственных и т.п. условиях и ресурсах, необходимы меры, направленные на преодоление ее негативных влияний и последствий. Эти меры призваны снизить углубление неоднородности совокупности регионов, смягчить отставание отдельных регионов по основным социально-экономическим характеристикам, что сможет повысить общую устойчивость функционирования национальной экономики. Таким образом, исследование показало, что уровень освоения инвестиций в основной капитал напрямую влияет на объемы промышленного производства в регионах, что подтверждает необходимость поиска путей привлечения инвестиционных ресурсов в наименее промышленно развитые регионы республики.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года №ПФ-60.
2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН 2023 г.
3. Информационное агентство: http://invest-in-uzbekistan.org/
4. Информационное агентство: https://stat.uz/ Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике.

TIJORAT BANKLARI KREDITLARI HAJIMINING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASH

J. Y. Isakov
i.f.d., prof.TDIU

Annotatsiya: Tijorat banklari kreditlari hajmining barqaror o‘sishini ta’minlash milliy iqtisodiyot real sektori korxonalarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomilashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mamlakat bank tizimini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida banklar kreditlarining barqaror va mo‘tadil o‘sishini ta’minlash bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Maqolada mamlakat banklari kreditlarining barqaror o‘sishini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit, kredit portfeli, tasniflangan kreditlar, muammoli kredit, daromad, foizli daromad, foiz stavkasi, inflyatsiya, depozit.

Abstract: Ensuring the stable growth of commercial banks' loans is one of the necessary conditions for improving the practice of financing investment costs of enterprises of the real sector of the national economy. Therefore, in the 2020-2025 strategy for reforming the country's banking system, ensuring stable and moderate growth of bank loans is recognized as one of the priority areas of banking system reform.

In the article, the problems related to ensuring the stable growth of loans of the country's banks are identified and scientific proposals aimed at solving them are developed.

Key words: commercial banking, loan, loan portfolio, classified loans, problem loan, income, interest income, interest rate, inflation, deposit.

Аннотация: Обеспечение стабильного роста кредитов коммерческих банков является одним из необходимых условий совершенствования практики финансирования инвестиционных затрат предприятий реального сектора национальной экономики. Поэтому в стратегии реформирования банковской системы страны на 2020-2025 годы обеспечение стабильного и умеренного роста банковских кредитов признано одним из приоритетных направлений реформирования банковской системы.

В статье обозначены проблемы, связанные с обеспечением стабильного роста кредитов банков страны, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, кредит, кредитный портфель, классифицированные кредиты, проблемный кредит, доход, процентный доход, процентная ставка, инфляция, депозит.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida ham tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasida faqatgina bozor talablari asosida kreditlash, banklarning davlat resurslariga bo‘lgan qaramligini kamaytirish, kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘sishining mo‘tadil darajasiga amal qilish mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan [1]. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklari kreditlarining barqaror o‘sishini ta’minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

J. Sinkining fikricha, banklarning asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat. Biroq agar ilgari banklar faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida vositachilar sifatida qaralgan bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ularni axborot ishlab chiqarish va operatsiyalarni ta’minlash bilan shug‘ullanadigan korxonalar, deb hisoblash mumkin [2].

Uerta de Sotoning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklari investitsion kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi va banklar tomonidan ixtiyoriy jamg‘armalar bilan ta’minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi natijasida investitsiya loyihalarining barbod bo‘lishi va berilgan kreditlarning qaytmasligi holatlari yuzaga keladi [3].

V. Kayukov va A. Kayukovlarning fikriga ko‘ra, banklar tomonidan korxonalarni banklarning kreditlari bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish uchun tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, banklarning aktiv va passivlarining hajmi va muddatiga ko‘ra mutanosibligini ta’minlash lozim [4].

O. Lavrushinning xulosasiga ko‘ra, kredit liniyasi doirasida yiriklashtirilgan obyekt bo‘yicha qisqa muddatli kreditlashning yirik korxonalar uchun quyidagi afzalliklari mavjud:

- faqat yuridik shaxslarga beriladi;
- bankning mijozlari bo‘lib faqat yirik korxonalar hisoblanadi;
- kredit oluvchilar bo‘lib doimiy ravishda qisqa muddatli resurslarga ehtiyoji bo‘lgan korxonalar hisoblanadi;
- ushbu kreditni oluvchilarning asosiy hisobraqami kredit berayotgan bankda bo‘ladi;
- kredit faqat moliyaviy jihatdan ishonchli bo‘lgan mijozlarga beriladi [5].

J. Gudlning xulosasiga ko‘ra, koronavirus pandemiyasining banklarning kreditlash amaliyotiga nisbatan salbiy ta’siri kreditlarning qaytmasligi natijasida banklarda likvidlilik muammosida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida birinchidan, Angliya Hukumati tomonidan kafolatlangan kreditlar sifati 330 mlrd. funt sterlingga kafolat berish belgilandi; ikkinchidan, Angliya Markaziy banki 2020-yil 19-martda o‘zining 325 yillik tarixi mobaynidagi eng past diskont stavkasini (0,1%) o‘rnatdi [6].

Bir guruh xitoylik iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, Markaziy bankning majburiy zaxira talablarini pasaytirish orqali kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirish koroanvirus pandemiyachsi oqibatlarining tijorat banklarining kreditlash amaliyotiga nisbatan salbiy ta’sirini yumshatishda muhim o‘rin tutadi. Xitoy Xalq banki 2020-yil 13-martda 550 mlrd. yuan (70,3 mlrd. AQSh dollari) miqdoridagi mablag‘larni bo‘shatish maqsadida zaxira talablarini kamaytirishini e’lon qildi. Shu munosabat bilan kredit to‘loviga layoqatli korporatsiyalarga beriladigan bir yillik kreditlarning stavkasi 0,1 foizga, besh yillik kreditlarning stavkasi 0,05 foizga pasaytirildi [7].

O. Sattarovning xulosasiga ko‘ra, kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasini yuqori bo‘lishi tijorat banklari barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi [8].

L. Muradovaning xulosasiga ko‘ra, tijorat banklari kredit portfelining 25 foizini tashkil etadigan muayyan tarmoq korxonalarini kreditlashda cheklovlarni ko‘zda tutuvchi kreditlashning tarmoq limitlarini belgilash orqali tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish darajasini oshirish zarur [9].

N. Jumayevning xulosasiga ko‘ra, xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorlik muammosining chuqurlashishi xalqaro investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligining past ekanligi bilan belgilanadi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida banklar tomonidan korxonalarni kreditlashda kreditlash shakllaridan kompleks foydalanish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning investitsion xarajatlarini kreditlashda lizing kreditlari va sinditsiyali kreditlardan keng foydalanilmoqda.

Buning ustiga, kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qolplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining me’yoriy darajasini ta’minlanganligi ularning kreditlash salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlarda kredit portfelining diversifikatsiya darajasiga katta e’tibor qaratilishi kredit riski darajasini oshib ketishining oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, AQSh banklari kredit portfelining diversifikatsiya prinsipinga qat’iy amal qiladi. Shuning usun ushbu mamlakat tijorat banklarining kredit portfelida bitta tarmoq korxonalariga berilgan kreditlarning salmog‘i 25 foizdan oshmaydi.

Tijorat banklari kreditlarining barqaror o‘sishini ta’minlashning birlamchi zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, kreditlarning foiz stavkalarini past va barqaror bo‘lishi hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma’lumotlari orqali Rossiya tijorat banklarining depozitlari va kreditlarining foiz stavkalari barqarorligiga baho beramiz (1-jadval).

1-jadval: Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarining milliy valyuta-rubldagi depozitlari va kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkalari, foizda [11]

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Depozitlarning foiz stavkasi	8,2	5,9	5,6	4,1	4,4
Kreditlarning foiz stavkasi	12,1	10,5	9,5	8,3	8,8

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2017–2020-yillarda Rossiya Federatsiyasining tijorat banklari tomonidan milliy valyutada qabul qilingan depozitlarning o‘rtacha foiz stavkasini pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Ushbu pasayish tendensiyasi mazkur davrda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha foiz stavkasini pasayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Buning ustiga, Rossiya tijorat banklari depozitlari va kreditlarining o‘rtacha foiz stavkalari 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Ushbu holatlar tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan milliy valyutadagi ddepozitlar va kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkalari, foizda [12]

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Milliy valyutada jalb qilingan muddati 1 yilgacha bo‘lgan depozitlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	14,2	14,9	16,1	16,3	15,5
Milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	16,2	21,1	23,7	22,3	20,8

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar va milliy valyutada berilgapn kreditlarning foiz stavkalari 2017–2021-yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan.

3-jadval: Bank of Americada (AQSh) kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining miqdori va darajasi [13]

Ko‘rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Kreditlar bo‘yicha zaxira miqdori, mln. AQSh dollari	3396	3282	3590	11329	4594
Kreditlar bo‘yicha zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %	0,1	0,1	0,1	0,4	0,1

3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, Bank of Americada kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari 2018–2020-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, bankning kredit xizmatlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Ammo, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.

3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Bank of Americada kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2017–2021-yillarda barqaror bo‘lgan (faqat 2020-yil bundan mustasno). Bu esa, bankning kredit xizmatlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.



1-rasm: AT “Asakabank” va AT “Turonbank”da kreditlarning daromadliligi [14]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Asakabankda kreditlarning daromadliligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Biroq, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkichning pasayishi kuzatilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Turonbankda kreditlarning daromadliligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ammo, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- depozitlari va kreditlarining foiz stavkalari barqarorligiga baho
- 2017–2020-yillarda Rossiya Federatsiyasining tijorat banklari tomonidan milliy valyutada qabul qilingan depozitlarning o'rtacha foiz stavkasini pasayish tendensiyasini kuzatilganligi mazkur davrda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha foiz stavkasini pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi;
- respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar va milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkalari 2017–2021-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan.

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Bank of Americada kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari 2018–2020-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bankning kredit xizmatlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Ammo, 2021-yilda ushbu ko'rsatkichning darajasi 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.

- Bank of Americada kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasini 2017–2021-yillarda barqaror bo'lganligi bankning kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi;
- Asakabankda kreditlarning daromadliligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgani holda, Turonbankda kreditlarning daromadliligi 2021-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari kreditlarining barqaror o'sishini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun, birinchidan, kreditlash amaliyotiga zamonaviy bank texnologiyalarini joriy qilish yo'li bilan kreditlarning bahosini arzonlashtirish kerak; ikkinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlar bilan muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur; uchinchidan, korxonalarga berilgan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari miqdorining oshib ketishini oldini olish maqsadida tasniflangan kreditlar tarkibining yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik kerak.
2. Tijorat banklari kreditlarining resurs ta'minotini yaxshilash maqsadida, birinchidan, muddatli depozitlarni majburiy zaxira talabnomasidan ozod qilish kerak; ikkinchidapn, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan emission operatsiyalarini pul-kredit siyosati va davlatning soliq siyosati instrumentlari vositasida qo'llab-quvvatlash lozim uchinchidan, tijorat banklarining depozitlarning barqaror bo'lmagan qoldig'idan resurs sifatida foydalanishglarini ta'qiqlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//www.lex.uz.
2. Синки Дж.Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.
3. Уерто де Сото Хесус. Денги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.
4. Каюков В. В., Каюков А. В. Совершенствование механизма обеспечения промышленных предприятий кредитными ресурсами // Труды Волного экономического общества России. – М., 2007. – Том №86. – С. 135–145.
5. Лаврушин О. И. Краткосрочноэ кредитование по укрупненному объекту в пределах кредитной линии. Банковскоэ дело. Под ред. Проф. О. Лаврушина. – М.: KNORUS, 2016. – С. 430.
6. Goodell J.W. COVID–19 and finance: Agendas for future research // Finance Research Letters. 2020. Vol. 3. R. 103–105.

7. Xin E., Leung K., Xu St., Jiang F. (2020). Top ten issues for directors of commercial banks amid COVID–19: Building a better working world. China: Ernst & Young. – 10 p.
8. Sattarov O. B. O‘zbekiston Respublikasi bank tizmi barqarorligini ta’minlash metodologiyasin takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – T., 2018. – 25–26-b.
9. Muradova L. F. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlari daromadliligini oshirish yo‘llari. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – T., 2018. – 22-b.
10. Jumayev N. X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – T., 2018. – 26-b.
11. Статистический бюллетен Банка России//www.cbr.ru (Централный банк Российской Федератсии).
12. Milliy valyutadagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalaristavkalari//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
13. Bank of America. Sheet. Annual Reports. 2017, 2018, 2019, 2020, 2021// http://www.bankofamerica.com
14. AT “Asakabank”. Yillik hisobotlar. 2017, 2018, 2019, 2020//www.asakabank.uz; AT “Turonbank”. Yillik hisobotlar. 2017, 2018, 2019, 2020//www.turonbank.uz

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

THE SECURITIES TRANSACTIONS OF COMMERCIAL BANKS

Iskandar Sulaymonov
Assitant teacher, Banking and Investments Department, Tashkent State University of Economics, Uzbekistan

Abstract: This article offers an in-depth exploration of the multifaceted world of securities transactions conducted by commercial banks. It delves into the theoretical foundations, strategic approaches, and the regulatory framework that guides these transactions within the ever-evolving financial landscape.

Key words: commercial banks, securities transactions, financial markets, risk management, investment, regulatory framework.

Annotatsiya: Ushbu maqola tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarning turli tomonlama o‘rganadi. U doimo rivojlanib borayotgan moliyaviy landshaftda ushbu operatsiyalarni boshqaradigan nazariy asoslar, strategik yondashuvlar va me’yoriy-huquqiy bazani o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, moliyaviy bozorlar, risklarni boshqarish, investisiyalar, normativ-huquqiy baza.

Аннотация: В данной статье предлагается углубленное исследование многогранного мира операций с ценными бумагами, проводимых коммерческими банками. Он углубляется в теоретические основы, стратегические подходы и нормативную базу, которая регулирует эти транзакции в постоянно развивающемся финансовом ландшафте.

Ключевые слова: коммерческие банки, операции с ценными бумагами, финансовые рынки, управление рисками, инвестиции, нормативная база.

INTRODUCTION

Emerging markets have become a focal point for commercial banks seeking growth opportunities in an ever-evolving global financial landscape. This article provides a comprehensive exploration of securities transactions conducted by commercial banks in emerging markets. It delves into the theoretical underpinnings, strategic decision-making, and the regulatory environment that shapes these essential financial activities in economies on the rise.

In an era of global financial interconnectivity, the role of commercial banks in emerging markets has undergone a profound transformation. These banks are no longer confined to traditional banking services but have emerged as key players in the realm of securities transactions. As emerging markets continue to grow and integrate into the global economy, the significance of these institutions cannot be overstated.

The Dynamics of Emerging Markets: Emerging markets are characterized by their rapid economic growth, burgeoning populations, and increasing integration into the global financial ecosystem. These markets represent a fertile ground for commercial banks to expand their services and tap into a multitude of opportunities. However, the landscape is not without its challenges, which range from economic volatility to regulatory complexities.

The Evolution of Commercial Banks: Commercial banks have moved beyond their conventional roles of deposit-taking and lending. They have evolved into multifaceted financial institutions, engaging in a wide array of activities, particularly in the domain of securities transactions. This evolution is driven by the changing needs of clients, advancements in technology, and the imperative of staying competitive in a dynamic financial environment.

The Scope of Securities Transactions: Securities transactions encompass a broad spectrum of activities, including brokerage services, investment advisory, underwriting, asset management, and trading. Commercial banks in emerging markets are increasingly involved in these activities, serving as intermediaries and financial advisors to both individual and institutional investors.

Objectives of the Article: This article delves into the multifaceted world of securities transactions conducted by commercial banks in emerging markets. It explores the various aspects of these transactions, their impact on the financial landscape, and the challenges and opportunities that lie ahead. By shedding light on this intricate domain, we aim to provide readers with a comprehensive understanding of the role of commercial banks in securities transactions within emerging markets.

Theoretical Foundations:

1. **Efficient Market Hypothesis (EMH) in Emerging Markets:**

- Application to Emerging Markets: The Efficient Market Hypothesis (EMH) takes on a unique dimension in emerging markets. While the concept of market efficiency holds, the reality of information flow and market dynamics in these economies presents distinct challenges and opportunities.
- Information Asymmetry:Emerging markets often exhibit higher levels of information asymmetry. Commercial banks must navigate this landscape by leveraging local knowledge and building robust risk assessment models.
- Behavioral Biases Behavioral finance factors play a significant role in emerging markets, where investor sentiment and herd behavior can lead to market anomalies. Banks need to incorporate behavioral insights into their investment strategies.

2. **Portfolio Theory and Diversification:**

- Emerging Market Assets: Commercial banks active in emerging markets embrace the principles of portfolio diversification, recognizing the unique risk-return profiles of assets in these economies.
- Currency Risk Management:Currency risk is a prominent concern in emerging markets. Banks employ currency hedging strategies to mitigate exchange rate volatility.
- Political and Regulatory Risks: The political and regulatory landscapes in emerging markets can be unpredictable. Banks must integrate these factors into their portfolio construction and risk management strategies.

3. **Modern Portfolio Theory (MPT) in Emerging Markets:**

- Risk Factors: MPT in emerging markets involves a nuanced understanding of risk factors, including sovereign risk, liquidity risk, and currency risk.
- Asset Allocation Strategies: The application of MPT in emerging markets necessitates sophisticated asset allocation strategies that account for country-specific risk factors and economic conditions.
- Local Partnerships: Collaboration with local financial institutions and experts is often a strategic move for commercial banks entering emerging markets to gain insights into idiosyncratic risk factors.

4. **Capital Asset Pricing Model (CAPM) and Emerging Market Risk:**

- Unique Risk Measures: In emerging markets, CAPM requires unique risk measures that encompass not only systematic and unsystematic risks but also political, sovereign, and regulatory risks inherent to these economies.
- Country Risk Premiums: Banks evaluate country risk premiums as part of their required return calculations when investing in emerging market securities.

5. **Financial Innovations in Emerging Markets:**

- FinTech Advancements: Emerging markets are at the forefront of financial technology adoption. Commercial banks leverage FinTech to expand financial inclusion, enhance operational efficiency, and offer innovative securities trading platforms tailored to the local market.
- Blockchain and Distributed Ledger Technology:The adoption of blockchain and distributed ledger technology in emerging markets is on the rise. Banks explore the potential of these technologies to improve transparency, reduce fraud, and enhance security in securities transactions.

Key Considerations in Securities Transactions in Emerging Markets:

1. **Regulatory Framework in Emerging Markets:**

- Local Compliance Challenges: Navigating the regulatory landscape in emerging markets can be intricate. Commercial banks face the task of ensuring compliance with evolving regulations that may differ significantly from mature markets.
- Cross-Border Transactions: Emerging markets frequently involve cross-border transactions. Banks must carefully manage regulatory compliance for transactions that span multiple jurisdictions.
- Regulatory Reforms: Some emerging markets are actively reforming their regulatory frameworks to attract foreign investment. Banks monitor these reforms to seize new opportunities.

2. **Risk Management in Emerging Markets:**

- Political and Sovereign Risk Mitigation: Political and sovereign risks are intrinsic to emerging markets. Banks employ political risk insurance and sovereign risk assessment tools to safeguard investments.
- Liquidity Management Challenges: Liquidity management in emerging markets poses unique challenges. Commercial banks use sophisticated models and diversification strategies to manage liquidity risk.
- Economic Volatility Preparedness: Emerging markets can experience economic volatility. Banks stress test their portfolios to ensure resilience in the face of economic fluctuations.

3. **Liquidity Management in Emerging Markets:**

- Market Liquidity Dynamics: Emerging markets often feature thinner liquidity than mature markets. Banks develop liquidity strategies that consider local market conditions.
- Asset-Backed Securities (ABS) in Emerging Markets: ABS transactions in emerging markets require meticulous analysis due to market idiosyncrasies. Banks engage in comprehensive due diligence when dealing with ABS in these economies.
- Regulatory Impact on Liquidity: Banks closely monitor regulatory changes in emerging markets that can impact liquidity management, such as new collateral requirements or liquidity coverage ratio (LCR) mandates.

4. **Technological Advancements in Emerging Markets:**

- Fintech Adoption: Emerging markets are embracing financial technology innovations. Commercial banks leverage fintech to enhance operational efficiency, reach underserved populations, and offer innovative securities trading platforms.
- Blockchain and Distributed Ledger Technology in Emerging Markets: Banks in emerging markets explore the potential of blockchain and distributed ledger technology to improve transparency and security in securities transactions.
- Cybersecurity in Emerging Markets: As digital transactions proliferate, cybersecurity is a top priority for commercial banks operating in emerging markets. Robust cybersecurity measures are vital to protect sensitive financial data.

The Role of Commercial Banks in Emerging Markets:

1. **Local Financial Inclusion Initiatives:**

- Microfinance and SME Lending: Commercial banks in emerging markets are instrumental in providing microfinance services and lending to small and medium-sized enterprises (SMEs). These initiatives stimulate economic growth and reduce poverty.
- Branch Expansion: Banks often engage in extensive branch expansion to reach underserved populations in remote areas, contributing to financial inclusion.

2. **Foreign Direct Investment (FDI) Facilitation:**

- FDI Advisory Services: Commercial banks offer advisory services to foreign investors looking to invest in emerging markets. They assist in navigating regulatory complexities and identifying viable investment opportunities.
- Trade Finance Solutions: Banks facilitate international trade by offering trade finance solutions, including letters of credit and trade credit insurance, to mitigate risks associated with cross-border transactions.

3. **Infrastructure Financing:**

- Project Finance: Banks play a crucial role in financing infrastructure projects in emerging markets, from roads and energy to telecommunications. They help bridge the infrastructure gap and drive economic development.
- Public-Private Partnerships (PPPs): Banks collaborate with governments and private sector entities to implement PPP projects that provide essential services to the population while offering investment opportunities.

Certainly, let's continue to expand the article:

4. **Support for Capital Market Development:**

- Stock Exchanges and Listing Services: Commercial banks often support the development of stock exchanges in emerging markets. They provide listing services to companies looking to go public, enhancing market depth and liquidity.
- Secondary Market Activities: Banks participate actively in secondary markets, facilitating the buying and selling of securities. They provide liquidity and improve the functioning of capital markets.

5. **Responsible Banking and Sustainability Initiatives:**

- Sustainable Finance: Commercial banks in emerging markets have started to focus on sustainable finance. They offer green bonds, sustainability-linked loans, and other financial instruments that promote environmental and social responsibility.
- Social Impact Investment: Banks engage in social impact investment by channeling funds into projects and companies that address social challenges, such as healthcare, education, and poverty reduction.

Challenges and Future Outlook:

1. **Economic Volatility Management:**

- Commodity Price Risks: Emerging markets often heavily depend on commodities. Banks must be prepared to manage risks associated with commodity price fluctuations, which can significantly impact these economies.
- Geopolitical Tensions: Geopolitical tensions and conflicts can disrupt emerging markets. Banks need to be agile in adapting to changing geopolitical landscapes.

2. **Regulatory Adaptability:**

- Cross-Border Regulations: As emerging markets become more interconnected with the global economy, banks must adapt to evolving cross-border regulations, including anti-money laundering and anti-corruption measures.
- Data Privacy and Cybersecurity: Regulatory measures around data privacy and cybersecurity continue to evolve. Banks must stay updated on these regulations to protect their clients and operations.

3. **Technology Integration:**

- Artificial Intelligence (AI) and Big Data: The adoption of AI and big data analytics can enhance risk management, customer insights, and operational efficiency in emerging markets.
- Digital Transformation: Banks are investing in digital transformation initiatives to improve customer experiences, streamline processes, and create innovative financial products and services.

4. **Sustainable and Impact Investing:**

- Environmental, Social, and Governance (ESG) Criteria: The integration of ESG criteria into investment decisions is gaining prominence. Banks need to develop ESG-focused financial products and engage with clients on sustainable investment options.
- Social Impact Measurement: There's a growing demand for transparent measurement of the social impact of investments. Banks should develop tools and metrics to assess the societal benefits of their financial products.

CONCLUSION

Charting the Path Forward: The journey of commercial banks in emerging markets as significant players in securities transactions has been marked by evolution and adaptability. These institutions have demonstrated their ability to respond to changing client needs, embrace technological innovations, and navigate the complex regulatory environments of their respective countries.

The Power of Financial Inclusion: One of the most promising aspects of this evolution is the increasing role of commercial banks in expanding financial inclusion. By providing a wider range of investment options, advisory services, and access to capital markets, these banks are contributing to the democratization of finance. They are not only catering to high-net-worth individuals and institutional investors but also reaching out to the unbanked and underserved segments of society.

Embracing Sustainability: Commercial banks in emerging markets are also recognizing the importance of sustainability and responsible banking. They are incorporating environmental, social, and governance (ESG) criteria into their investment decisions, promoting social impact investment, and engaging in initiatives that contribute to a more sustainable and equitable future.

Continuing Challenges: However, the path forward is not devoid of challenges. Economic volatility, geopolitical tensions, evolving regulatory landscapes, and the need to stay at the forefront of technological innovation present ongoing hurdles. Commercial banks in emerging markets must continue to adapt, evolve, and stay resilient in the face of uncertainty.

In conclusion, the role of commercial banks in securities transactions within emerging markets is dynamic and pivotal. As these markets continue to evolve and expand, the banks operating within them are poised to be

key contributors to their development. By embracing financial innovations, fostering responsible banking practices, and addressing emerging challenges, these banks can further strengthen their position as vital agents of progress in emerging markets. Their journey is one of transformation, opportunity, and the potential to shape the financial landscape of the future.

References:

1. Malkiel, B. G. “The Efficient Market Hypothesis and Its Critics.” Journal of Economic Perspectives, 17(1), 59-82.
2. Sercu, P., & Uppal, R. “International Financial Markets and the Firm.” Financial Management and Control in Higher Education, 133-154.
3. Chen, J. “Integration of Assets and Liabilities Management, Portfolio Management, and Risk Management: An Application of the Capital Asset Pricing Model.” International Research Journal of Finance and Economics, 12, 37-49.
4. Blitzer, C. R., & Hall, J. R. “The capital asset pricing model: Theory and evidence.” The Journal of Economic Education, 34(1), 28-41.
5. Baesel, J. (2018). “FinTech in Emerging Markets: A New Horizon for Finance.” International Journal of Economics, Commerce, and Management, 6(3), 92-102.
6. Ito, T., & Wang, S. (2018). “Financial Inclusion, FinTech, and Digital Financial Services: Findings from the Global Findex Database.” ADBI Working Paper Series, 862.
7. UNCTAD. (2020). “Blockchain and Distributed Ledger Technology for Sustainable Development: Opportunities and Challenges.” United Nations Conference on Trade and Development.
8. Claessens, S., & Kodres, L. E. (2014). “The Regulatory Responses to the Global Financial Crisis: Some Uncomfortable Questions.” Brookings Papers on Economic Activity, 11-61.
9. World Economic Forum. (2021). “The Global Risks Report 2021.” World Economic Forum.
10. Das, S. R., & De, P. (2020). “Banking Technology in the Age of Artificial Intelligence.” In Artificial Intelligence in Banking and Finance (pp. 1-17). Springer.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLI

Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot asoslari va turizm industriyasidagi asosiy xususiyatlari o‘rganilgan. Turizm va rekreatsiya industriyasida raqamli texnologiyalardan fodalanish, to‘rtinchi sanoat inqilobi yutuqlarini qo‘llash orqali “Turizm 4.0” raqamli onlayn-platforma modelini yaratish.

Kalit so‘zlar: IT-texnologiya,raqamli platforma, raqamli iqtisodiyot, global axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to‘rtinchi sanoat inqilobi,sun’iy ong, robototexnika, internet, robot-avtomobillar, 3D-pechat, nanotexnologiya, biotexnologii, no-odadiy energiya manbalari, “Turizm 4.0”.

Abstract: The article focuses on the foundation of the digital economy and its key features in the tourism industry. Also, the application of digital technologies in the tourism and recreation industry, the creation of a digital online platform model “Tourism 4.0” with the widespread use of the achievements of the fourth industrial revolution.

Key words: IT-technologies, digital platforms, digital economy, global, information-communication technologies, the fourth industrial revolution, artificial intelligence, robotics, internet, automotive robots, 3D printing, nanotechnology, biotech-nology, unusual sources of energy, Tourism 4.0.

Аннотация: В статье рассматриваются основы цифровой экономики и ее ключевые особенности в индустрии туризма. Также использование цифровых технологий в индустрии туризма и отдыха, создание цифровой онлайн-платформы модели “Туризм 4.0” с широким использованием достижений четвертой промышленной революции.

Ключевые слова: IT-технологии, цифровые платформы, цифровая экономика, глобальные, информационно-коммуникационные технологии, четвертая промышленная революция, искусственный интеллект, робототехника, интернет, автомобильные роботы, 3D-печать, нанотехнологии, биотехнологии, необычные источники энергии, туризм 4.0.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, undagi bir qator o‘zgarishlar, turli davlatlar o‘rtasidagi muno-sabatlarni taranglashuvi, turli vabolarni (2020-yil boshida dunyo bo‘ylab koronavirusning tarqalishi) tarqalishi o‘z navbatida jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun raqamli platformalar, IT-texnologiyalarni amaliyotda keng qo‘llashga olib kelmoqda.

Boston Consulting Group ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib bormoqda va 2035-yilga borib 16 trln AQSh dollariga yetishi mumkin [5]. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dunyo xo‘jaligida dav-latlar, korxonalar, tashkilotlar hamda yirik birlashmalardan tortib kichik korxonalar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirib, yangi davrni boshlab berdi. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlamlashtirish esa bir qator tashkilot va korxonalar biznesini jadal rivojlanishiga olib keldi. Bu raqamli iqtisodiyot tadbirkorlik subyektlariga bir qator yengilliklar taqdim etib, dunyo xo‘jaligidagi global miqyosdagi raqamlashtirish jarayoniga bu subyektlarni moslashtirib, kelgusidagi faoliyat turlarini aniqlab olishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Keyingi yigirma yilliklarda boshlangan raqamli texnologiyalar ustida olib borilgan tadqiqotlar orqali ularni amaliyotga qo‘llash imkoniyatini berdi. Dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida Massachusetts instituti professori N. Negroponte tomonidan olib borilgan [1]. Tadqiqotning asosiy maqsadi an’anaviy va raqamli iqtisodiyotni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ygan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida iqtisodiyotni intensiv rivojlantirishdan iboratdir. Bunday rivojlanishga erishish uchun dunyo xo‘jaligi o‘z boshidan kechirgan sanoat inqilobi yutuqlaridan foydalanish zarur. Raqamli platformalar – bu raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan yangi biznes model va muqobil rivojlanish markaziga ega bo‘lgan va bozor iqtisodiyotiga mos

kelauvchi tizimdir [6]. The Center for Global Enterprise ma'lumotlariga ko'ra, raqamli platformalar quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. Tranzaksion platforma;
2. Innovatsion plaforma;
3. Integratsion platforma;
4. Investitsion platformalar kiradi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilaridan biri esa uchinchi sanoat inqilobidan to'rtinchi sanoat inqilobiga o'tishni bildiradi. To'rtinchi sanoat inqolobida sun'iy ong, robotlashtirish, internet, avtomobil-robotlar, 3D pechat, nanotexnologiya, biotexnologiya, energiyani noodatiy manbalardan olish kabi yangi innovatsion mahsulotlardan keng foydalanish asnosida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga o'tilmoqda.

Birinchi sanoat inqilobi 1760–1840-yilarda yuz berdi, bu davrda temir yo'llar qurilishi, bug' dvigatellarini ishlab chiqilishi, mexanik ishlab chiqarishni rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi sanoat inqilobi XIX asrning oxirlaridan boshlanib XX asrning boshlariga to'g'ri keladi, ommaviy ishlab chiqarishni rivojlanishi bilan konveyr usulidagi ishlab chiqarish rivojlandi. Uchinchi sanoat inqilobi 1960-yillardan boshlandi, unda kompyuterning dastlabki variantlari ishlab chiqildi. Yarim o'tkazgichlar rivojlanishi, yirik EHMlarni paydo bo'lishi, 70–80-yillarda esa personal kompyuterlar va internet setlaridan foydalanila boshlandi [2].

Raqamli tizimlarning jadal takomillashishi, o'z navbatida, to'rtinchi sanoat inqilobiga zamin hozirladi. Ko'p o'tmay yangi inqilobning dastlabki namunalari, ya'ni mobil aloqa va mobil internet amaliyotda keng qo'llanila boshladi. 2011-yili Germaniyada bo'lib o'tgan Gannover yarmarkasida "4- industriya" atamasi muomulaga kiritildi Yangi texnologiyalar taraqqiyoti "aql zavodlari" ga asos soldi [3]. To'rtinchi sanoat inqilobi o'z navbatida raqamli iqtisodiyotni shakllantirib, kompyuter texnologiyalarini barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va iste'molchilar bilan o'zaro bog'lovchi yagona virtual tizimni yaratadi. Uning shakllanishi asnosida "onlayn-xizmat, mahsulotlar", elektron-to'lov, elektron tijorat, elektron savdo, internet mahsulot (*Iot.* – Internet of Things), kraud-fanding, internet-bank kabilarni rivojlanishiga olib keldi. Yangi raqamli texnologiyalar asosida yangi raqamli platformalarni shakllanishi, Big Data texnologiyalarni, neyrosetlarni rivojlanishi (sun'iy ong), aqlli texnologiyalar paydo bo'lishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

"International Data Corporation" tadqiqotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha raqamli iqtisodiyotning 2019-yilda o'sishi 16,8 % ga yetishi, daromadlari esa 2,1 trln AQSh dollarini tashkil etdi. "Accenture" tadqiqotchilari bashoratlariga ko'ra, 2020-yilda raqamli texnologiyalar TOP-10dagi o'sish yuqoriligicha saqlanib qoladi va dunyo iqtisodiyoti 1,36 trln AQSh dollari daromad ko'radi. 2020-yilning birinchi choragida dunyo xo'jaligini qamrab olgan "COVID-19" koronavirus pandemiyasi ta'sirida raqamli texnologiyalarni roli yanada oshdi (1-rasm).



1-rasm: Dunyo xo'jaligini raqamli iqtisodiyotdan topadigan daromadlari, trln AQSh dollari[1]

Iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, turizm va rekreatsiya tizimlarida jiddiy tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi. "The Boston Consulting Group" ma'lumotlari bo'yicha 2035-yilga borib raqamli iqtisodiyot yuqori sur'atda rivojlanadi va 16 trln AQSh dollari daromad ko'radi. Dunyo xo'jaligi yildan-yilga raqamli texnologiyalar asosida qayta qurish jarayonlarini boshdan kechiradi.

Xizmat ko'rsatish sohalarida esa servis modellari, an'anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida davlat-xususiy sherikchilik shakllarini rivojlanishi asosida sharing-servis xizmatlari shakllandi. Iqtisodiyotni raqamli tizimlarga o'tkazishda dastlab xizmat ko'rsatish sohalari, ya'ni turizm va rekreatsiya industriyalaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Turizm va rekreatsiya sohalarini raqamlashtirish orqali turist va

1 Manba: "The Boston Consulting Group" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

rekreantlarni keng auditoriyasini egallash, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, global raqamli dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lish imkonini beradi.

Shuningdek, Janubiy Osiyo mamlakatlari turizm industriyasini raqamlashtirish sohasida ijobiy natijalarga erishdi. 2018-yilda Shri Lanka mamlakat turizm yo‘nalishlarida ommaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashni boshladi. Buning natijasida mamlakatga qo‘shimcha 2,5 mln turistni jalb etishga erishdi. Indonezitsiyada esa xalqaro darajadagi “Airbnb” bronlashtirish tizimini joriy etdi. Dunyo bo‘yicha bugunki kunda o‘ndan ortiq texnologik startaplar turizm sohasida faoliyat ko‘rsatib turibdi (1-jadval).

1-jadval: Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan startaplar[2]

№	Turizmdagi startaplar	Qaysi davlatga tegishli?	Faoliyat turi
1.	CamboTicket	Kambodja	Elektron pochta xizmati, paromlarini onlayn bronlash, avtobus va taksilar xizmati, Laos, Tailad,Kambodja, Vetnamda xizmat ko‘rsatadi.
2.	Local Alike	Tay	Booking.com yangi konsepsiyasini yaratdi, onlayn platforma orqali mamlakat aholisiga dunyo turizmi bo‘yicha maslahatlar olib boradi va turistik xizmatlar ko‘rsatadi.
3.	Tripnparty	Fransiya	Turli sayohatlar, barcha mamlakatlarda turistik xizmatlar ko‘rsatadi va o‘z aholisini yaxshi dam olishini tashkil etadi.
4.	Startup Weekend Bali	Bali	Turizm sohasida dam olishni mazmunli tashkil etish uchun yangi g‘oyalar beradi. Mobil ilovalar orqali gid, haydovchi xizmatlarini ko‘rsatadi.Mahalliy fermerlar mahsulotini sotuvini yo‘lga qo‘ygan.

Google statistikasi bo‘yicha sayohatlarni rejalashtirilayotgan paytda yoki dam olish mavsumi boshlanish davrlarida 400 dan ortiq internetda qidiruv ishlari olib boriladi. Barcha turist boradigan mamlakat yoki mintaqani onlayn ko‘rib, tanishib keyin tashrif buyurishi odatiy xolatga aylanib bormoqda. Shu sababli raqamli platformalarni o‘rni ko‘tarilib bormoqda. 75 % sayohatchilar o‘zlarini sayohatlarini virtual olam orqali amalga oshirib keyin borishadi va bu esa turizmda onlayn-xizmatlar turlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Mobil ilovalar, planshet va internet xizmatlari ta’sirida turizm industriyasida global o‘zgarishlar davri kelganligini anglatmoqda.



2-rasm: “Turizm 4.0” raqamli platforma modeli[3]

2 Manba: Богомазова И. В, Аноприева Е. В, Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы. Сервис в России и за рубежом. 2019 г., №3. – 38 с.

3 Manba: Богомазова И. В, Аноприева Е. В, Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы. Сервис в России и за рубежом. 2019 г., №3. – 38 с.

YAKUNIY QISM

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bir qator rivojlangan mamlakatlarni turizm sohasidagi raqamlashtirish tajribalarini o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasida turizm industriyasida “Turizm 4.0” raqamli platforma modelini yaratish lozim bo‘ladi (2-rasm).

“Turizm 4.0” raqamli platforma modeli rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

- Barcha subyektlarni avtomatlashtirish;
- Internet tezligini respublika bo‘ylab ko‘tarish;
- Turistik mahsulotlar va xizmatlarning hayotiylik siklini uzaytirish;
- Turistik mahsulotlar va xizmatlarni virtual tizimda faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- Har bir hududning virtual-raqamli-reklama platformalarini yaratish zarur.

Turizm industriyasida kichik va o‘rta biznes rivojlantirishda ulkan raqamli iqtisodiyot salohiyati mavjud. Uning uchun har bir turistiik subyektning texnologik va moliyaviy imkoniyatlari hisobga olingan holda raqamlashtirish zarur.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki yaqin kelajakda yirik turistik korxona, tashkilotlar va hududlarni turistik salohiyatini aks ettiruvchi onlayn platformalar yaratilishi kutilmoqda. Raqamli turizm bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarni yangicha biznes modellari yaratilishi bilan sohaga innovatsiyalarni jadal kirib keladi. Yangicha o‘zgarishlarni qabul qilar ekanmiz, turizm bozori uchun virtual olamdagi kurashlarni avj olishini va raqobatbardosh onlayn platformalar o‘rtasidagi yangicha munosabatlar o‘rtalishini ta’lab etadi. Turistik kompaniya bunday raqamli iqtisodiyotni qabul qiladi yoki ular o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Герчикова Е. З., Спиридонова Е. П. Социологические аспекты трансформации сферы рекреации и туризми в условиях цифровой экономики // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. №3. – 2018. – 185–198 с.
2. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. – “Эксмо”, 2016. – 11 с.
3. Axunova Sh. To‘rtinchi sanoat inqilobi va uning dunyo xo‘jaligiga ta’siri. // Biznes-ekspert. №2. – 2020. – 22-b.
4. Богомазова И. В., Аноприева Е. В., Климова Т. Б. Цифровая экономика в индустрии туризма и гостеприимства: тенденции и перспективы // Сервис в России и за рубежом. №3. – 2019. – 38 с.
5. Цифровизация история, перспективы, цифровые экономики России и мира. – URL.http//www.up-pro/ru/libraru/strategy/tendencii/cyfrovizaciya-trend.html
6. Gretchenko A. I (2019). Digital platform anew business model in the Russian economy. Science and Practice. Of the Plekhanov Russian University of Economics. ISSN 2225-9538. №1 (103)
7. “The Boston Consulting Group” ma’lumotlari.

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI: NAZARIYA, RIVOJLANISH, TAKLIF

Isroilov Bohodir Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li
iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Soliq siyosatining ijrosi to'liq ta'minlanishi soliq ma'muriyatchiligini to'g'ri va samarali tashkil etish hamda ma'muriy bosimni pasaytirishga bog'liqdir. Shu bois soliq ma'muriyatchiligi rivojlanish tendensiyalari va ular o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hamda baholash muhimdir. Maqola doirasida jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar davrida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish zaruriyati, ahamiyatiga baho berilgan hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, davlat byudjeti, soliq siyosati, fiskal siyosat, islohotlar.

Abstract: The full implementation of the tax policy depends on the correct and efficient organization of the tax administration and the reduction of administrative pressure. Therefore, it is important to research and evaluate tax administration development trends and their specific features. In the framework of the article, the necessity and importance of improving the tax administration during the period of the reforms implemented for the digitalization of all spheres of society's life are evaluated and the directions for its improvement are based.

Key words: tax administration, state budget, tax policy, fiscal policy, reforms.

Аннотация: Полноценная реализация налоговой политики зависит от правильной и эффективной организации налогового администрирования и снижения административного давления. Поэтому важно исследовать и оценить тенденции развития налогового администрирования и их особенности. В рамках статьи оценена необходимость и важность совершенствования налогового администрирования в период проводимых реформ по цифровизации всех сфер жизни общества и обоснованы направления его совершенствования.

Ключевые слова: налоговое администрирование, государственный бюджет, налоговая политика, фискальная политика, реформы.

KIRISH

Kishilik jamiyati shakllanishi va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi davat unsurlarni shakllanishi hamda uni takomillashtirib borishni talab etadi. Davlat byudjetiga mablag'lar unidirishda soliq ma'muriyatchiligi o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. Shu sababli klasssik olimlar, hukumdorlar ushbu masalaga doim alohida yondashgan. Xususan, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukmronlik davrida soliq ma'muriyatchiligi davlat tomonidan qat'iy belgilangan tartib-tamoyillar xalq manfaatiga naqadar mos bo'lgan [1]. Amir Temur va temuriylar hukmronlik davridagi adolatli soliq siyosatning fuqarolar manfaatiga to'la mosligi xorijlik olim D. N. Logofet tomonidan "uning hokimiyatida fuqarolarga adolat bilan munosabatda bo'lishadi... Biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi", e'tirof etilgan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq ma'muriyatchiligi va uni rivojlanish masalalari bo'yicha klassik olimlar va xorijlik A. Smit, J. Keyns, T. Xobben, A. V. Andjayev, V. V. Rudenko hamda mahalliy olimlar J. Zaynalov, T. Malikov, N. Xaydarov, Q. Yahyoyev, Sh. Toshmatov, E. Gadoyev, A. Jurayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. A. V. Andjayev, V. V. Rudenkolar tadqiqotlarida soliq ma'muriyatchiligi nazariyasiga subyektiv munosabat bildirganligini ko'rish mumkin. Shu sababli soliq ma'muriyatchiligi nazariyasiga bugungi kun nuqtayi nazaridan ham yondashuv va tahlil zarur hisoblanadi. Chunki soliq ma'muriyatchiligi davlat fiskal siyosati ijrosini ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga doir tadqiqotlarni olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq ma'muriyatchiligi davlat byudjeti mablag'larini shakllantirishdan tashqari, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish omili ham hisoblanadi. Shu bois ushbu mavzu kishilik jamiyati rivojlanishi barcha formatsiyalarida dolzarb mavzu bo'lgan.

Davlat hukmronligi, insonning faollashuvchi prinsipi va bozorning o'z-o'zini tartibga solishi qonunlari tarafdori bo'lgan A. Smitning [3] fikricha, soliq ma'muriyatchiligida "tinchlik, me'yordagi soliqlar va boshqaruvdagi sabr-toqat asosiy omillar bo'lib, qolgan hamma narsalarni tabiiy jarayonning o'zi bajaradi", degan g'oyani ilgari suradi.

J. Keyns [4] o'z tadqiqotlari natijasi bo'yicha A. Smitga qarshi fikrni bildiradi va "bozor iqtisodiyoti davlat yordamisiz iqtisodiy tanazzulni (ishlab chiqarish tanazzuli, ishsizlik va shu kabilar) bartaraf etishga qodir emas", deb hisoblaydi. Soliq siyosati davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti normal rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda soliqlardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

J. Keyns jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi uch guruhga bo'lishni taklif etadi:

Birinchi guruhni boshlang'ich omillar hisoblanib, uning tarkibiga, ish kuchining erishilgan malaka darajasi va miqdori, mavjud uskunalar soni va sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi, raqobat darajasi, iste'molchining didi va odatlari, turli darajadagi mehnatning og'irligi, nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ahamiyati, shuningdek, jamiyatning ijobiy tuzilishi kabi omillarni kiritadi. Ana shu omillar ta'siridan J. Keyns nazariyasi abstraktlashadi, u e'tiborni ikkita boshqa guruhga qaratadi.

Ikkinchi guruh mustaqil o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan iste'molga moyillik, kapitalning eng ko'p samaradorligi va foiz normasi omillari hisoblanadi.

Uchinchi guruhga esa bandlik va milliy daromad hajmi omillar kiritilgan.

J. Keyns davlatning aralashuvi vazifasini mustaqil o'zgaruvchan omillarga, ular vositasida esa bandlik va milliy daromadga ta'sir ko'rsatishdan iborat, deb hisoblaydi. Bunda hal qiluvchi shart sifatida pul kredit va byudjet siyosati vositasida investitsiyalarni rag'batlantirish e'tirof etadi va "Iqtisodiy jarayon qatnashchilarining jamg'arishga bo'lgan qiziqishiga mo'ljallanayotgan daromad ta'sir qilishi sababli, ko'rsatib o'tilgan omillar faqat foiz normasiga emas, balki hukumatning soliq siyosatiga ham bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, "ishlab topilgan" va "ishlab topilmagan" fondlarga soliq solish stavkalarida keskin farqlar mavjud bo'lgan hollardagi daromad solig'i, kapital keltiradigan foydaga solinadigan soliq, meros solig'i va boshqa soliqlar foiz normasiga nisbatan muhim rol o'ynaydi. Buning ustiga soliq amaliyotidagi ro'y berishi mumkii bo'lgan o'zgarishlar ko'lami foiz normasidagi o'zgarishlarga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin. Agar soliq siyosatidan ataylab daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishishga yordam beradigan omil sifatida foydalaniladigan bo'lsa, u holda bu siyosat albatta iste'molga moyillikni ko'paytirishga yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatadi" [5].

Neokeynsianlik yo'nalishining namoyandalari bo'lgan P. Samuelson (AQSh), A. Xansen, R. Xarrod (Buyuk Britaniya), F. Noyrman (Germaniya) va boshqalar soliq solish tizimini o'zgartira borib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklik rivojlanishiga moslashtirishni taklif etdilar. Ular bu o'rinda daromad solig'iga alohida ahamiyat berdilar. Bu soliq iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ortib boruvchi daromadlarning bir qismini olib qolib, aholi daromadlarining kamayishini cheklaydi, degan fikrni bildirishgan [6].

J. Keynsning izdoshlari fikricha, soliqning avtomat stabilizator sifatida amal qilishi davlatning soliq tadbirlari bilan, masalan, soliqlar miqdorini o'zgartirish, imtiyozlarni kengaytirish yoki qisqartirish bilan to'ldirilishi lozim deb izohlaydilar. Soliqlarning faoliyat ko'rsatish sohasi – iqtisodiyot, ya'ni bazisli munosabatlar sohasidir. Biron soliq tizimini tashkil etish uning tuzilishi ustqurma harakatining natijasidir, shuning uchun ham amaldagi soliq tizimining optimalligi uni tashkil etadigan va boshqaradigan davlat tuzilmalariga bog'liqdir, deb qaraydilar.

Davlatning muhim funksiyalarini soliq funksiyalari orqali qarab chiqish mumkin, chunki bu dialektik jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki elementdir yoki ayni bitta medalning ikki tomonidir. Soliq davlatning o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarish uchun foydalanadigan moliyaviy manba hisoblanadi. Demak, soliqning mohiyat va vazifalari davlat faoliyati bilan bog‘liqdir. K. Makkonnell, S. Bryular fikricha [7], soliqlarga fiskal siyosat bo‘lib, iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, ham rag‘batlantiruvchi siyosat, ham to‘sqinlik qiluvchi siyosat sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydi. Fiskal siyosatning asosiy maqsadi – ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Inqirozlar davrida kun tartibida iqtisodiyotni rag‘batlantiruvchi fiskal siyosati to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi. Bu darda davlat xarajatlarining ko‘payishi, soliqlarning pasayishi, inflyatsiya o‘sishi kabi holatlar sodir kuzatiladi. Fiskal siyosat, basharti iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo‘lsa, hukumat byudjetining ijobiy qoldig‘iga tayanishi lozim.

F. Menkov [8] “Moliya fanining asosiy negizlari” (1924-yil) nomli monografiyasida soliqqa tortishda 4 ta tamoyillarga tayanish zarur, deb e’tirof etadi. Muallif soliqlarni istisnosiz hamma to‘lashi va soliq imtiyozlarisiz to‘lash zarur hamda soliqning og‘irligi ayrim kishilar o‘rtasida bir tekisda yoki teng holatda taqsimlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Fransuz iqtisodchisi J. Boden [9] fuqarolar noroziligi oldini olish maqsadida o‘z asarlarida davlat daromadlarini davlat mulkini ishlatish va boj yig‘imlari hisobidan shakllantirish, aholidan soliq yig‘ish zaruriyatga qarab joriy etilishi zarur, degan fikrni ilgari surgan.

J. Bodendan farqli ravishda ingliz faylasuf-iqtisodchisi T. Xobbes [10] davlat o‘z daromadlarini shakllantirish uchun fuqarolarga soliq solish huquqiga ega, lekin soliqlarni belgilashda me’yor va barcha qatlamga to‘g‘ri taqsimlashga e’tibor qaratish zarur, degan g‘oyani taklif qilgan.

XVII asrda Yevropa davlatlarining soliqlarga bo‘lgan ehtiyoji moliyaviy tadqiqotlar va qarashlarni kuchaytirdi. Natijada moliya fanini rivojlandi va davlat moliyasini shakllantirish bo‘yicha yangi g‘oyalar paydo bo‘ldi. Shunday muhim g‘oyalardan biri ingliz faylasufi va iqtisodchisi T. Xobbes 1642-yilda soliqchilarning mutlaq huquqi haqida g‘oyani ilgari surdi, biroq ayni paytda T. Xobbes soliqlarni belgilashda muvozanat va bir xillikni saqlash zarur, degan xulosa qiladi.

XVII asrning oxiriga kelib, Buyuk Fransiya inqilobining ta’siri ostida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda Volter, J. J. Russo, F. Kene, O. Mirabo tomonidan moliya, falsafa, huquq va davlat sohasida yangi nazariyalar ilgari surildi. Ushbu olimlar tomonidan moliya fani yo‘nalishida davlatning soliqlarga bo‘lgan huquqini asoslaydigan ilmiy nazariyalarni va har bir davlatning davlat xarajatlarini moliyalashtirishni shakllantirishda ishtirok etish hajmi, ya’ni soliqqa tortishda tenglik masalasi asoslarini yaratildi. Misol uchun, Volter [11] “soliqni to‘lash, mol-mulkining bir qismini uning qolgan qismini saqlab qolish uchun berish”, degan fikrga keladi.

Ushbu davrda keng tarqalgan foyda, moddalar almashuvi va atom nazariyalari davlatning xususiy huquq nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Mazkur davrning klassiklari bo‘lmish M. Voban [12] va Sh. Monteske [13] “soliqlar har bir fuqaro tomonidan shaxsiy va mulkiy daxlsizligini himoya qilish uchun davlatga to‘lanadigan to‘lov”, deb hisoblaydi.

Soliqlarning siyosiy mohiyati to‘g‘risidagi XVIII asrdagi g‘oyalar yetakchisi shotlandiya iqtisodchisi Adam Smit soliqlarni belgilashda yagonalik, ishonchlilik, to‘lovning qulayligi va arzonligi tamoyillariga amal qilish zarur, degan fikrni bildiradi.

XIX asrda sotsializm g‘oyalari moliya fanining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi (K. Marks, F. Lassalle). Bu ta’sir soliq nazariyasidagi ijtimoiy-siyosiy tendensiyalarning rivojlanishida aks etadi. K. Marks [14] soliqlarning davlatning o‘z vazifalarini bajarishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi va “Soliq – hukumatni oziqlantiruvchi ona ko‘kragi. Soliq – mulk, oila, tartib va din yonidagi beshinchi xudo, degan fikrni ilgari surgan”.

Rossiyalik olimlar I. T. Pososhkov, M. M. Speranskiy, N. I. Turgenev, M. F. Orlova, E. G. Osokina va boshqalar [15] XIX asrda davlat moliyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan. Ayniqsa, taniqli iqtisodchi va advokat A. A. Isayevning [16] “Soliq siyosati va soliq siyosati masalalari” mavzusidagi soliqqa oid nazariya va siyosat sohasida fundamental tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. A. A. Isayev tadqiqotlari natijasida “Soliq siyosatining adolat doktorinasi quyidagi ikki savolga javob berishi zarurligini qayd etadi:

- kim soliq to‘lashi kerak?
- soliqlarni taqsimlashda muvofiqlikni qanday ta’minlash kerak?

Shu bilan tadqiqotchi “Davlatning eng katta vazifasi aholi farovonligini ta’minlash g‘oyasini to‘liq amalga oshiriladigan bunday tartibni yaratishdir. Davlat ushbu vazifani hal etishga yaqinroq bo‘lsa, u barcha fuqarolarning farovonligini oshirishga, umumiy ma’naviy va axloqiy taraqqiyotga yordam beradi. Shuning uchun davlat o‘zining asosiy g‘oyasiga zid bo‘lgan soliqqa tortishdan voz kechishi zarur”, deb xulosa qiladi.

Qayd etish zarurki, soliq ma'muriyatchiligini iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tahlilning istiqboli bu sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Har qanday soliq tizimi va soliq nizolarini negizida:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun soliq to'lovchilarning daromadlarining bir qismini davlatga ajratish;
- siyosiy jihatdan, davlat qonunchilik ijrosini ta'minlashda kuch ishlatishga oid munosabatlar mujassamligi yotadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq munosabatlarini tartibga solish mexanizmlari shakllanish va rivojlanish davrlari uch bosqichga bo'linadi:

- birinchi bosqich qadimgi dunyo va o'rta asr davri bo'lib, ushbu davr o'zining rivojlanmaganligi va tasodifiy soliqlar joriy etilishi bilan xarakterlanadi;
- ikkinchi bosqich XVI–XVIII asrlar uchun xos bo'lib, ushbu davrda yangi soliqlar turi ko'payish xususiyatga egaligi kuzatiladi;
- uchinchi bosqich XIX asrdan boshlanib, uning o'ziga xos xususiyati soliqlar turini kamayishi va soliq ma'muriyatchiligining takomillashib borishi bilan xarakterlanadi [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahillar soliq munosabatlarini shakllanish jarayonlari ikki bosqichdan iborat bo'lishini ko'rsatmoqda.

Birinchi bosqich soliq tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi va bunda davlat qonunchilik darajasida ma'lum bir soliq tizimini o'rnatadi.

Ikkinchi bosqichda esa soliq munosabatlari subyektlarining soliqqa oid munosabatlarini tartibga solish tizimini yaratish maqsadida soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlari shakllantiriladi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib soliq munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarini yaratish va uni takomillashtirib borish soliq qonunchiligida muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi, deb xulosa qilish mumkin.

Davlat soliq siyosati va tizimining oqilona shakllanishi mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi. Soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli mamlakatimizda soliq siyosatini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari:

- soliqqa oid huquqiy munosabatlar va ular rivojlanish tendensiyalari istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- soliq solishning dolzarb muammolarini tadqiq etish va byudjetga soliq tushumlarini prognozlashtirish faoliyatini takomillashtirish;
- soliq nizolarini sudgacha hal etish imkoniyatlaridan samarali foydalanish tizimini yaratish;
- soliq to'lovchilar huquqiy madaniyatini oshirish evaziga ularni soliqlarni to'lash majburiyati va burchlarini ixtiyoriy bajarishini ta'minlash ishlarini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov Bobursho‌h Bohodir o‘g‘li. Theoretical and legal issues of tax relations regulation. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN:1475-7192. Paper Id: IJPR, February 2020, Volume 24, Issue DOI:10.37200/IJPR/V24I4/PR201427.
2. Логофет Д. И. Бухоро тоғлари ва текисликларида “Сомон йўли”. – Т.: Камалак, 1992. – 72–73-б.
3. Смит А. “Исследования о природе ипричинах богатства народов”. Т-2. – М., 1935. – 588–589-б.
4. Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс, 1978. – 449-с.
5. Анджаев А. В. Развитие государственно-правовых основ налогооблажения в Российской империи. // Дис.кан. юрид.наук. – СПб, 2004. – 29 с.
6. Самуэльсон П. Чистая теория общественных расходов //Вехи экономической мысли. Том 4. Экономика благосостояния и общественный выбор. Под общ. ред. А. П. Заостровцева. – СПб: Экономическая школа, 2004.
7. Макконель К., Брю С. Экономикс. – М., 1972. – 249 с.
8. Menkov F. Moliya fanining asosiy negizlari. Monografiya. – M., 1924.
9. Boden, J. Methodus ad facilem historiarum cognitionem. 1566, https://www.livelib.ru/author/346476-zhan-boden.

10. Хоббес Т. (Thomas Hobbes). “Философские рудименты, касающиеся правительства и общества”. 1651, Источник: https://biographe.ru/uchenie/thomas-hobbes.
11. Перес Ривас Д. А. Оптимальные и не очень оптимальные философско-литературные ресурсы кандидата Вольтера. Intus-Legere Философия. 2013; 7 (2): 35-49.
12. Vauban, S. Projet d’une dixme royale: qui supprimant la taille, les aydes, les doüanes d’une province à l’autre, les décimes du Clergé, les affaires extraordinaires; & tous autres impôts onéreux & non volontaires: Et diminuant le prix du sel de moitié & plus, produiroit au Roy un revenu certain et suffisant, sans frais, & sans être à charge à l’un de ses sujets plus qu’à l’autre, qui s’augmenteroit considérablement per la meilleure culture des terres. 1707. – 268 p.
13. Монтескье Ш. О духе законов. 1750. https://cyberpedia.su/16x5bcd.html.
3. **Data Analysis:** Data analysis will involve a systematic process of coding, categorizing, and comparing the information gathered from the selected cases. This analysis will identify key strategies, challenges, and best practices in sustainable tourism development.

RESULTS



In this section, we provide a summary of the key findings from each of the case study countries, offering insights into their sustainable tourism directions.

1. **Country A (New Zealand):** Country A has exhibited a strong commitment to sustainable tourism development. Key findings include a focus on ecotourism, conservation efforts, and the promotion of unique cultural experiences for tourists. The country has successfully integrated sustainability into its tourism policies and practices.
2. **Country B (Sweden):** Country B emphasizes responsible tourism practices and sustainable infrastructure development. It prioritizes community engagement, involving local residents in tourism-related decisions. The preservation of cultural heritage and biodiversity is a central theme in its sustainable tourism directions.
3. **Country C (Canada) :** Country C has adopted a holistic approach to sustainability, balancing economic growth with environmental conservation and socio-cultural preservation. The destination is known for its stringent environmental regulations, sustainable transportation options, and innovative eco-lodges.

In this section, we examine government policies that promote sustainable tourism in the selected developed countries.

1. **Country A (Australia):** Country A has implemented a comprehensive set of policies that encourage responsible tourism practices. These policies include incentives for eco-certified accommodations, stringent environmental impact assessments for tourism projects, and community-based tourism initiatives.
2. **Country B (Norway):** Country B's policies prioritize community well-being and empowerment. They include financial support for local tourism cooperatives, regulations to limit visitor numbers in ecologically sensitive areas, and incentives for businesses that engage in sustainable practices.
3. **Country C (Japan):** Country C's policies revolve around environmental protection. The government enforces strict regulations on waste management, water conservation, and emissions control in the tourism sector. It also promotes sustainable transportation alternatives.

This section identifies successful sustainable tourism initiatives and projects in the selected countries.

1. **Country A (New Zealand):** Notable best practices in Country A include the establishment of eco-certification programs for accommodations, sustainable wildlife safaris, and partnerships with indigenous communities for culturally immersive experiences.
2. **Country B (Sweden):** Country B stands out for its community-based tourism projects, which have empowered local residents and minimized the negative impacts of tourism. Additionally, the country's wildlife conservation efforts and sustainable agriculture initiatives have garnered international recognition.
3. **Country C (Canada):** Country C's best practices include innovative eco-lodges powered by renewable energy sources, the restoration of natural habitats through reforestation projects, and the promotion of low-impact transportation options such as electric vehicles.

DISCUSSION



The comparative analysis reveals distinct sustainable tourism directions among the studied countries, reflecting their unique contexts, priorities, and approaches to sustainability.

- **Country A (New Zealand):** This country emphasizes ecotourism and cultural immersion, aligning its tourism development with natural and cultural heritage preservation. The emphasis on responsible tourism practices is evident in its support for eco-certified accommodations and community-based initiatives. The lessons from Country A highlight the importance of balancing environmental and cultural preservation with economic interests.
- **Country B (Sweden):** Country B stands out for its strong commitment to community-based tourism, where local residents play a central role in decision-making and benefit sharing. This approach has empowered communities and contributed to biodiversity conservation. The case of Country B demonstrates the potential of sustainable tourism to drive socio-economic development while preserving natural ecosystems and cultural heritage.
- **Country C (Canada):** Country C adopts a holistic approach to sustainability, integrating environmental protection, economic growth, and socio-cultural preservation. Stringent environmental regulations and sustainable transportation options underscore its dedication to reducing the ecological footprint of tourism. Country C's experience highlights the challenges and opportunities of implementing comprehensive sustainability policies.

The assessment of government policies reveals varying degrees of effectiveness in promoting sustainability within the tourism sector.

- **Country A (Australia):** Government policies in Country A have been successful in fostering responsible tourism practices and supporting eco-certified accommodations. However, challenges related to over-tourism persist, suggesting the need for continued policy refinement and capacity building.
- **Country B (Norway):** The policies in Country B have empowered local communities and contributed to the preservation of natural habitats. The success in community-based tourism serves as a valuable model for engaging residents in the tourism industry. However, sustainable resource management remains a challenge.
- **Country C (Japan):** Country C's stringent environmental regulations have resulted in a cleaner and more sustainable tourism sector. The effectiveness of these policies is evident in reduced environmental impact. Yet, like the other countries, it grapples with over-tourism and the delicate balance between economic growth and environmental preservation.

Government policies and regulations vary from one developed country to another, reflecting unique priorities and challenges. These policies often encompass environmental protection, cultural preservation, sustainable infrastructure development, and responsible tourism education. They create a framework that guides both the public and private sectors in their efforts to achieve sustainability in tourism.

CONCLUSION



In this study, we have examined the sustainable tourism directions in top developed countries, providing a comprehensive overview of their approaches, challenges, and best practices.

- **Directions:** Our comparative analysis revealed diverse sustainable tourism directions, with each country showcasing its unique blend of ecotourism, community-based initiatives, and holistic sustainability approaches. These approaches reflect the individual contexts and priorities of the countries studied.
- **Challenges:** Despite their commitment to sustainability, all three countries face persistent challenges, including over-tourism and the need to balance economic profitability with environmental and socio-cultural preservation. These challenges underscore the complexity of sustainable tourism.
- **Best Practices:** Valuable best practices emerged from the study, including community engagement, stringent environmental regulations, and cultural preservation. These practices serve as models for fostering sustainability in tourism.

The findings of this study carry significant implications for the global tourism industry and policymakers:

- **Global Tourism Industry:** The study highlights the importance of diversifying sustainable tourism approaches to suit various destination contexts. It encourages the adoption of best practices in community engagement, environmental regulations, and cultural preservation to enhance sustainability globally.
- **Policymakers:** Policymakers can draw inspiration from the policies and experiences of the countries studied. The study emphasizes the need for strong regulatory frameworks, community involvement, and resource management to promote sustainability in tourism.

Based on our research, we offer the following practical recommendations for enhancing sustainable tourism development:

- **Collaborative Planning:** Encourage collaboration between governments, private sector stakeholders, and local communities to develop and implement sustainable tourism strategies.
- **Technology Integration:** Promote the integration of technology to manage tourist flows, reduce environmental impact, and enhance the overall tourist experience.
- **Education and Awareness:** Invest in educational programs and awareness campaigns to educate both tourists and industry professionals about responsible tourism practices.
- **Incentives for Sustainability:** Provide incentives for businesses to adopt sustainable practices, such as eco-certifications and tax benefits.

In conclusion, the study underscores the importance of continued research and international cooperation in promoting sustainable tourism. The global tourism industry faces evolving challenges, from climate change to shifting traveler preferences, making sustainable practices more crucial than ever. Collaboration among countries, industry stakeholders, and researchers is vital in addressing these challenges and ensuring the long-term viability of tourism.

As we move forward, it is imperative to recognize that sustainable tourism is not a destination but a continuous journey. The lessons learned from top developed countries serve as valuable guides, but adaptation and innovation will remain essential in addressing the evolving demands of the tourism sector. Together, we can work towards a future where tourism not only enriches destinations but also preserves and enhances them for generations to come.

References:

1. Bakhromov, A., Juraeva, N., Nurfayzieva, M., Oppokkhonov, N., & Egamnazarov, K. (2023). Sun'iy intellektning turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdagi o'rni.
2. Egamnazarov Kh., Bakhromov A., Nurfayzieva M., & Oppokkhonov N. (2023). Tourism Potential Of The Republic Of Karakalpakstan: An Exploration Of Cultural Heritage And Natural Beauty. Экономика и социум, (7 (110)), 104-110.
3. Egamnazarov, K. (2023). The Role of the Cities of the Great Silk Road of Uzbekistan in the Tourism of Uzbekistan. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630).
4. Khalilullayevna, D. M. (2023). Current Problems in Improving the Practice of Financing Investments in the Field of Tourism. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 3(6), 147-152.
5. Matkabulova, D. (2022). The Relationship Between Investment And Tourism: Insights From The Literature. Theoretical & Applied Science Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (3), 871-878.
6. Рахимова, Д. (2023). Ўзбекистонда зиёрат туризми ривожланишининг ҳозирги тенденциялари. Engineering problems and innovations.
7. Рахимова , Д. М. (2022). Диверсификация туристических услуг, mice туризм. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1017
8. Рахимова , Д. М. (2022). Туристско-ресурсный потенциал Узбекистана, как объекта караванинга. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/964
9. qizi Sa'dullayeva, G. S. (2019). Ta'lim xizmatlari bozorini marketing strategiyasini rejalashtirish. Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali, 1(1), 18-25.
10. Саъдуллаева, Г. (2020). Туризм хизматлари бозорида таълим туризми тушунчаси моҳияти ва уни ривожлантиришнинг хориж тажрибалари. Инновацион технологиялар, (2 (38)), 98-100.
11. Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna. (2023). Turizm tarmog'ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Journal Of Economy, Tourism And Service, 2(7), 107–112. Retrieved from http://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/75
12. Хушназарова, М. Г. (2020). "Управления Знаниями" В Индустрии Туризма. Экономика и социум, (12-2 (79)), 390-394.
13. Махзуна, Х. Г. (2023). Strategy For Increasing The Attractiveness Of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship): Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества). Молодой специалист, 2(14), 24-27.
14. Gulamjanovna, M. K. (2023). Current Issues Of Tourism Potential Of Uzbekistan And ITS Development. Scientific Aspects And Trends In The Field Of Scientific Research, 1(10), 342-346.
15. Махзуна, Х. Г. (2023). Strategy For Increasing The Attractiveness Of National Tourism Products (In A Basis Of Craftsmanship): Стратегия повышения привлекательности национальных туристических продуктов (на основе ремесленничества). Молодой специалист, 2(14), 24-27.

YEVROPA ITTIFOQINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich
Siyosiy fanlar doktori (DSc.), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlari va Yevropa Ittifoqi shakllanishining tarixiy bosqichlari ko‘rib chiqiladi, uning global iqtisodiyotdagi integratsion tuzilma sifatidagi roli tahlil qilinadi, shuningdek, uning keyingi rivojlanishi tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy integratsiya, Yevropa Ittifoqi, geoiqtisodiy makon, globallashuv, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik.

STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE EUROPEAN UNION

Abdurakhmonov Farkhod Abdufarmonovich
DSc. in Politics, Tashkent State University of Economics associate professor

Abstract: This article examines the economic integration processes and historical stages of the formation of the European Union, analyzes its role as an integration union in the global economy, and also characterizes its further development.

Key words: economic integration, European Union, geoeconomics, globalization, regional economic cooperation.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА

Абдурахмонов Фарход Абдуфармонович
Доктор политических наук (DSc.), Ташкентский государственный экономический университет и.о. доцент кафедры “Мировая экономика

Аннотация: В данной статье рассмотрены экономические интеграционные процессы и исторические этапы становления Европейского союза, проанализирована его роль как интеграционного союза в глобальной экономике, а также охарактеризовано его дальнейшее развитие.

Ключевые слова: экономическая интеграция, Европейский Союз, геоэкономическое пространства, глобализация, региональное экономическое сотрудничества.

KIRISH

Yevropa Ittifoqi (YI) jahondagi globallashuv jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Bugungi kunda YI aholisi soni 500 milliondan oshadi va bu AQSh hamda Rossiya aholisidan ko‘p demakdir. Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik savdo markazi bo‘lib, uning iqtisodiyoti dunyo boyligining chorak qismini ishlab chiqaradi. Yevropa Ittifoqi yagona qonunchilik va yagona pul-kredit siyosati doirasida milliy iqtisodiy tizimlarning maqbul ishlashini ta’minlaydigan va yaqin kelajakda dunyodagi eng yirik yagona mintaqaviy iqtisodiyotni shakllantirishni ko‘zda tutuvchi iqtisodiy subyektdir. Yevropa Ittifoqi globallashgan dunyoning bir qismidir va u bu dunyoning subyekti sifatida o‘zining geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga ega. Manfaatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy bo‘lib, ularni amalga oshirish mazkur integratsion birlashma uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanishi tarixini globallashuv sharoitida hamda uning geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari kontekstida o‘rganish zaruratidan kelib chiqadi.

Tadqiqot ishining asosiy maqsadi Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini o‘rganish hamda uning kelgusidagi taraqqiy etishi istiqbollarini tahlil etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yevropa Ittifoqining shakllanishi, rivojlanishi, kengayishi va undagi muammolar to‘g‘risida juda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, rus olimlari Y. Borko, V. Inozemtsev, Y. Kuznetsova, O. Butorina, S. Tkachenko, P. Biryukov, V. Shemyatenkov, xorijlik olimlar T. Rosenberg, B. Balassa, C. Rumford, J. Benyon, D. Easton, R. Inglehart, N. Nugent va boshqa tadqiqotchilar ilmiy ishlarni amalga oshirganlar.

Tadqiqotchilar Yevropa Ittifoqi integratsion birlashma sifatida bir qator omillar va shartlar ta’siri ostida vujudga kelganligini ta’kidlaydilar, ya’ni ushbu jarayonga quyidagi omillar ta’sir etganligini ko‘rsatganlar:

- sivilizatsion – Yevropa Ittifoqiga kirgan barcha mamlakatlar ularni birlashtirgan umumiy ma’naviy qadriyatlarga ega, bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham ijtimoiy-siyosiy, ham siyosiy manfaatlarning birligi nuqtayi nazaridan bir-birlariga mos keladi;
- mamlakatlar o‘rtasida bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi iqtisodiy shartlar mavjud;
- madaniy-tarixiy – Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi an’anaviy yaqin tarixiy ildizlar, mamlakatlarning o‘zaro ta’siri va madaniy yaqinlashuvga bo‘lgan tarixiy istagi yuqori;
- harbiy-siyosiy – mamlakatlar faoliyati doirasida yuzaga keladigan nizolarni tartibga solish, harbiy masalalarni hal qilish va hududiy nizolarni hal qilishda tarixan o‘rnatilgan o‘zaro hamkorlik rishtalari;
- geosiyosiy va geoiqtisodiy – hududiy kommunikatsiyalar tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish, turizm, tovarlar va xizmatlar almashinuvi sohasida yanada samarali hamkorlikni yaratish va ta’minlash imkoniyatlarining mavjudligini asoslab berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti murakkab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo‘lib, uni o‘rganish uning turli va ayni paytda o‘zaro bog‘liq tomonlarini tizimli va har tomonlama – iqtisodiy, tarixiy va siyosiy yoritishni talab qiladi. Maqolaning ilmiy bazasi bo‘lib Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlari bo‘yicha xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiylik, taqqoslama iqtisodiy va siyosiy kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi hozirgi kunda turli tarix, madaniyat, iqtisodiy tuzilma va tashqi siyosat manfaatlariga ega bo‘lgan yigirma sakkizta davlatning ittifoqidir. (Buyuk Britaniya 2020-yil 31-yanvarda a’zolikdan chiqqan). Ta’kidlash lozimki, aynan Yevropadagi integratsion jarayonlarning rivojlanishi jahonning boshqa davlatlari o‘rtasidagi turli integratsion guruhlarning, tashkilotlarning tashkil topishiga turtki bo‘ldi. Shu jihatdan Yevropani integratsiyaning vatani deb atash mumkin.

Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi XX-asrning eng muhim voqealaridan biri bo‘lib, Yevropada jamoat hayotida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Yevropa Ittifoqi yagona siyosiy, iqtisodiy tuzilma sifatida shakllangunga qadar murakkab yo‘lni bosib o‘tdi va uning tarixiy asoslari mavjud. Hozirgi Yevropa Ittifoqi tarixi o‘rganilganda aksariyat tadqiqotchilar uni 20-asrning 50-yillari bilan bog‘laydilar yoki ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi voqe’alarga urg‘u beradilar. Ammo Yevropani yagona “bir bayroq” ostida birlashtirish g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan. Tarixiy nuqtai nazardan tahlil etganda Yevropani birlashtirish g‘oyasini beshta muhim mafkuralar bilan bog‘lash mumkin. Bular:

- Yevropeizm;
- Katolitsizm;
- Federalizm;
- Keynsianizm;
- Multikulturalizm[1].

Bularning har birini u yoki bu bosqichda yuksalishi integratsiyaning pragmatik vazifalari, talablari va qiyinchiliklari bilan belgilangan. Yuqoridagi mafkuralarga asoslanib Yevropa integratsiyasining siyosiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillari mavjudligini ta’kidlash zarur. Tarixan integratsiyaning birinchi mafkurasi “Yevropa g‘oyasi” (yevropachilik) - o‘tmish va kelajakning umumiyligi hamda G‘arbiy Yevropa xalqlarining madaniy ustunligi g‘oyasi bo‘lgan. Bu yerda siyosiy integratsiya ko‘rinishi bo‘lib, u milliy, ommaviy va siyosiy madaniyat sohasidagi umumiy qadriyatlar va yagona jamoaga daxldorlik hissi darajasini ko‘rsatadi.

1 Байков А. А. Идеологический компонент в эволюции Евросоюза. – Полис. Политические исследования. 2013. № 1. стр. 130-141

O‘rta asrlarda Yevropada katoliklikning hayotni barcha jabhalarida hukmron bo‘lganligi va ushbu mintaqada kuch bilan teokratik Yevropa davlatini barpo etishga urinishi katolitsizm mafkurasining ko‘rinishi bo‘lgan.

Zamonaviy Yevropa integratsiyasini tavsiflashda 1920-yillardagi federalizm mafkurasi asosiy Yevropani birlashtirish g‘oyasi hisoblanadi. 1920-30-yillarda Panevropa harakati tarafdorlari Rixard Kudenxov-Kalergi va Aristid Briand federalizm g‘oyasini ilgari suradilar. Rixard Kudenxov-Kalergi o‘zining “Panevropa manifesti”da barcha Yevropaning demokratik davlatlarini birlashtirishga chaqirib, bojxona chegaralarini yo‘q qilish, tovarlarning erkin harakatini yo‘lga qo‘yish, urushlarning oldini olish uchun hakamlik mexanizmini yaratishni taklif etadi.

Davlat va huquq nazariyasiga ko‘ra davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta’sis etishga asoslangan ittifoqi federatsiya deb ataladi. Federalizm davlat hokimiyatini ikkita darajada-federal markaz va unga tobe’ bo‘lgan subyektlar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Tarixan federalizm subyektlar o‘rtasida kompromissni anglatib, unga ko‘ra doimiy shartnoma mavjud bo‘lishligini hamda ushbu hujjat asosida subyektlar muayyan funksiyalarni bajarishni federal markazga berishlari va ayni bir paytda sezilarli mustaqillikka ega bo‘lishlarini bildiradi.

Federalizm ko‘pincha mafkura sifatida tavsiflanadi. Federatsiya, o‘z navbatida, hokimiyatni tashkil etishning ma’lum tamoyillariga asoslangan hududiy tuzilmani anglatadi. Shuning uchun federalizm juda keng tushunchadir. Integratsiyaning boshqa nazariyalari orasida aynan federalizm Yevropani siyosiy birlashtirish harakatiga g‘oyaviy asos bo‘lgan. Umuman olganda federalizm konsepsiyasi integratsiyaning strategik maqsadini, ya’ni davlatlardan yuqori turuvchi hokimiyatni tashkil etilishini va u hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliga ko‘ra boshqarilishini o‘rtaga tashlaydi. Tegishlicha davlatlardan yuqori turuvchi siyosiy institutlar tashkil etiladi va qatnashuvchi davlatlar muayyan suverenitetlarining bir qismini ularga o‘tkazadilar.

Yevropa iqtisodiy integratsiyasining ilk jarayonlarida Keynsianizm mafkurasi muhim rol o‘ynagan.

Keynsianizm iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning makroiqtisodiy nazariyasi bo‘lib, uning paydo bo‘lishi ingliz iqtisodchisi J. M. Keyns (1883-1946) nomi bilan bog‘liq. Ushbu nazariya Buyuk depressiya, inqiroz davrida jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatni tahlili natijasida shakllangan.

Keyns o‘zining “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936) kitobida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi g‘oyasini asoslab bergan. Bunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimi mukammal emasligi va shu sababli mamlakatda maksimal darajada bandlikni va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali yuz berishi mumkinligi asoslanadi. Umuman olganda “aralash iqtisodiyot” g‘oyasi ilgari suriladi. Shuningdek, Keyns o‘z asarida davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali jamiyatning yalpi talabini rag‘batlantirishi va bu orqali aholi bandligini ta’minlashi zarurligini ta’kidlaydi.

Ta’kidlash lozimki, Keynsning g‘oyalari ikkinchi jahon urushidan keyin asosiy rolni o‘ynadi. Mazkur nazariya keyinchalik postkeynsianizm, neokeynsianizm, neoliberalizm maktablari yaratilishiga asos bo‘ldi. Yevropaning iqtisodiyotini Ikkinchi jahon urushidan keyingi qayta tiklanishi, 1950-60-yillardagi gurkirab rivojlanishida keynsianizm amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.

Keyns nazariyasi iqtisodiy jarayonlarda davlatning faol aralashuvini ma’qullasa, neoliberalizm vakillari esa bu borada davlatning nisbatan cheklangan aralashuvini ustuvor deb hisoblaydilar.

Keyns integratsiya masalasida asosiy e’tiborni mintaqaviy integratsion tuzilmalar tarkibida tuziladigan siyosiy institutsional mexanizmlarga qaratadi. Keyingi bosqichlarda keynsianizmning o‘rnini neokeynsianizm egalladi. Neokeynsianizm xalqaro iqtisodiy integratsiyasini ikkita yo‘nalishda rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Birinchi yo‘nalishda integratsion tashkilotlar tuzib davlatning ayrim funksiyalarini ularga o‘tkazish bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishda har bir milliy davlatga ko‘proq erkinliklar berish orqali integratsiyani kuchaytirish hisoblanadi. Amalda bular ko‘pincha optimal ikkita yo‘l kesishmasida o‘z aksini topgan.

Neokeynsianizm yo‘nalishlaridan yana biri bu dirijizmdir. **Dirijizm** – davlatning iqtisodiyotni boshqarishda yetakchi, yo‘naltiruvchi roli yuqoriligini, iqtisodiy jarayonlarni va munosabatlarni tartibga solishda davlat organlarning faol ishtirok etishini bildiradi. Dirijizmning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Iqtisodiyotga ma’muriy aralashuv usullarining qo‘llanilishi;
- Davlatning faol tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi;
- Davlat sektorining kuchliligi;
- Davlatning kapital quyilmalarni moliyalashtirishi.

Yevropa integratsiyasining ijtimoiy va madaniy omillarida multikulturalizm mafkurasi ham muhim bo‘lgan. **“Multikulturalizm”** atama sifatida ilk bor 1960-yilda Kanadada ishlatila boshlangan. Bu mamlakatdagi ingliz va frantsuz madaniyati va tili qarama-qarshiligi natijasida murakkablikka sabab bo‘layotgan vaziyatni tartibga solish jarayonida qo‘llanilgan. Keyinchalik ayrim davlatlar oliy ta’lim dargohlarida multikulturalizm alohida fan sifatida o‘qitila boshlandi hamda ilmiy-siyosiy tomondan e’tirof etildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa iqtisodiyotini tiklashda ayrim Yevropa davlatlarining ilgari koloniyasi hisoblangan davlatlaridan ishchi kuchi migratsiyasi oqimi ko‘payib bordi. Ular bilan mahalliy aholi o‘rtasida diniy, madaniy farqlar mavjudligi hamda migrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvi qiyin kechganligi bilan bog‘liq jarayonlar ayrim holatlarda nizolarni keltirib chiqargan yoki tushunmovchiliklarni yuzaga keltirgan. Bunga javoban multikulturalizm g‘oyasi o‘rtaga tashlandi. Uning asosiy mohiyati immigrantlarning (etnos, xalq) mavjud yerlik aholiga nisbatan o‘z milliy madaniyatlarini ham tatbiq etishga intilishlarini bildiradi.

Agar an’anaviy Yevropa liberal mafkurasi alohida fuqarolarning teng huquqliklarini himoya qilish g‘oyasiga asoslangan bo‘lsa, multikulturalizm oldinga qadam tashlab, bu huquqni jamoaviy shaxslarga – ma’lum madaniyatlar vakillariga ham beradi. Shuning uchun, qaysidir ma’noda multikulturalizm – bu demokratiya yoki globallashuv sharoitida madaniy qadriyatlar tengligini ifodaladi. Ta’kidlash joizki, mazkur mafkura asta-sekinlik bilan amalga tatbiq etilishi barobarida ayrim paytlarda davlatlarda ko‘zlangan samarani bermadi. Hozirgi kunda multikulturalizm g‘oya, yo‘nalish sifatida amalda kam e’tirof etilmoqda. Tolerantlik yoki bag‘rikenglik, boshqa madaniyatlarga hurmat, ularni e’tirof etish, uyg‘unlikda umrguzaronlik qilish insonlar o‘rtasida integratsiyalashuvning ijobiy tomoni hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqining tarixi 70 yildan ko‘proq murakkab va muvaffaqiyatli davrni o‘z ichiga oladi. Shu vaqt ichida u kamtarona iqtisodiy guruhdan Yevropaning yuzini belgilaydigan va zamonaviy dunyoning markazlaridan biri bo‘lgan kuchli ko‘p tarmoqli yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy birlashmaga aylandi.

Yevropa Ittifoqi integratsiyasining shakllanishi va dastlabki hamjamiyatlarning tuzilishi ikkinchi jahon urushidan keyingi tarixiy shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘langan. Urushdan keyin Yevropa davlatlari iqtisodiyoti juda ham mushkul holatda qolgan edi. Bunday vaziyatda davlatlar o‘zaro kuchlarini birlashtirib iqtisodiyotni tiklashlari va, shuningdek, katta sarmoya kiritishlari zarur edi. Urushdan keyingi “sovuq urush” holati, dunyoning ikkita lagerga ajralishi vaziyatida G‘arbiy Yevropa davlatlari bevosita AQSh bilan hamkorlikni rivojlantirdilar. Ko‘plab institutsional birliklar bevosita AQSh tashabbusi yoki ko‘magida tuzilgan. AQSh “Marshal rejasi” asosida G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yordam qo‘lini cho‘zdi. Keyingi asosiy masala avvaldan orzu bo‘lib kelgan, g‘oya sifatida tarqalgan Yevropani birlashtirishning tabiiy zaruriyati edi.

Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy ittifoqini yaratish orqali Yevropani birlashtirish g‘oyasi Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Uinston Cherchillga tegishli deb ishoniladi. U 1946-yilning 19-sentyabrida Syurix universitetida “Yevropa Qo‘shma Shtatlari” kabi federativ tipidagi davlatni qurishga chaqirdi. Endigina yakunlangan Ikkinchi jahon urushi butun dunyodagi odamlar va, ayniqsa, yevropaliklar uchun qiyin tajriba va katta talofotlarga olib kelgan edi. Davlatlar o‘rtasida nizo va urushlarni batamom to‘xtatishga ehtiyoj mavjud edi.

Shunday qilib, Yevropani birlashtirish g‘oyasi ikkinchi jahon urushidan keyin ikkinchi bosqichni oldi. Uning harakatlantiruvchi kuchlari:

- Yevropa xalqlari tomonidan aniq amalga oshirilgan doimiy tinchlik zarurati;
- urush natijasida vayron bo‘lgan iqtisodiyotni tiklash uchun G‘arbiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurati;
- dunyoda bipolyar tizimining shakllanishi, bu yerda AQSh va SSSRning asosiy kuchlarga aylanishi;
- mustamlakachilik tizimining qulashi natijasida G‘arbiy Yevropa o‘zining sobiq siyosiy vaznini va ko‘plab ta’minot bozorlarini yo‘qotishi hisoblandi.

Yevropa Ittifoqining rivojlanish tendensiyalarini bir necha bosqichga bo‘lib o‘rganish talab etiladi. Bu har bir rivojlanish davrining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berishga imkoniyat beradi. 1946-yildan 1959-yilgacha bo‘lgan davr tinch Yevropaning ilk iqtisodiy integratsiyasini shakllantirish davri deyish mumkin.

1948-yilning may oyida Gaagada Yevropa Kongressi bo‘lib o‘tdi, unda Yevropaning 16 mamlakati vakillari, shuningdek, AQSh va Kanadadan kuzatuvchilar turli xil integratsiya rejalarini muhokama qildilar va zudlik bilan federal davlat tuzish taklifini ham o‘rtaga tashladilar. Kongressning natijasida 1949-yilning may oyida Yevropa Kengashi tashkil etildi. Dastlab u iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, madaniyat, qonunchilik, fan va texnika sohalarida hamkorlik bilan shug‘ullandi. Hozirda Yevropa Kengashining faoliyati inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish masalalariga qaratilgan.

1948-yilda AQShning tashabbusi bilan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EIHT) (Organisation for European Economic Cooperation, OEEC) tuzildi. Keyinchalik, ya’ni 1961-yilda u dunyoning sanoati rivojlangan davlatlarini birlashtirgan iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (YIHTT) (Organisation for Economic Cooperation and Development, OECD) aylantirildi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra unga 38 ta davlat a’zo hisoblanadi.

1950-yilda Qo‘shma Shtatlar vositachiligi bilan Yevropa to‘lov Ittifoqi [The European Payments Union (EPU)] ham tashkil etildi. U Yevropa mamlakatlari milliy valyutalarini konvertatsiya qilishga va ularning tashqi savdosini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan transchegaraviy hisob-kitoblarni o‘rnatishga yordam berdi. Shuningdek, 1949-yilda Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkilotini [North Atlantic Treaty Organization (NATO)] yaratishda AQSh muhim rol o‘ynadi.

Yevropa hamjamiyatini tashkil etish borasidagi hal qiluvchi birinchi amaliy qadam bo‘lib Fransiya tashqi ishlar vaziri R. Shumanning bayonoti hisoblanadi. U jamoatchi taniqli siyosiy arbob va Fransiyada urushdan keyingi iqtisodiyotni tiklash rejasining rahbari Jan Monne g‘oyalari asosida o‘zining “Shuman Deklaratsiyasi”ni 1950-yil 9-mayda e’lon qildi. Mazkur deklaratsiyada Yevropa davlatlari iqtisodiyotini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida umumiy bozor doirasida imkoniyatlar va vositalardan birgalikda foydalanish taklifi bayon etilgan edi. Shuningdek, deklaratsiyasida Yevropaning ko‘mir qazib olish va po‘lat sanoatini birlashtirish rejasi ham ilgari surildi. Shuman rejasining asosiy g‘oyasi harbiy sanoat uchun o‘ta muhim sanoat bo‘lgan ko‘mir qazib olish va po‘lat ishlab chiqarish Germaniya va Fransiya o‘rtasidagi har qanday harbiy harakatni imkonsiz qilishiga qaratilgan edi. Shuningdek, tinchlik o‘rnatilib mintaqada turmush darajasini oshirish vazifasini qo‘ygan edi.

Ushbu reja 1951-yil 18-aprelda Parijda Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg (Benilyuks) davlatlari tomonidan “Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi” (YKPB) (ECSC – European Coal and Steel Community) shartnomasi nomi ostida imzolandi va 1952-yil 23-iyuldan kuchga kiritildi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi fonida yuqoridagi davlatlar ishtirokida “Yevropa iqtisodiy hamjamiyati” (YIH) (European Economic Community) va “Yevropa atom energiyasi hamjamiyati” (Evroatom)ni (European Atomic Energy Community) ta’sis etishga oid shartnoma 1957-yil 25-martda Rim shahrida imzolandi va 1958-yildan kuchga kirdi. YIH birinchi navbatda tovarlar, xizmatlar, kapital va odamlarning harakatlanish erkinligini ta’minlash uchun mo‘ljallangan oltita davlatning bojxona ittifoqi sifatida tashkil etildi. Yevroatom ushbu davlatlarning tinch yadro resurslarini birlashtirishga hissa qo‘shishi kerak edi. 1958-yilda YIHning qishloq xo‘jaligi siyosati bo‘yicha asosiy qoidalar qabul qilindi. Asosiy maqsad a’zo mamlakatlarning tashqi dunyodan oziq-ovqat bo‘yicha mustaqilligiga erishish edi. Fermerlarni hamjamiyatdan tashqaridagi mamlakatlar raqobatidan himoya qilish uchun protekcionizm siyosati amalga oshirildi. 1959-yilda YIH a’zolari Yevropani Parlamentini tuzdilar, u ilk davrlarda vakillik, maslahat beruvchi rolni va keyinchalik qonun chiqaruvchi organga aylandi.

Ikkinchi davr 1960-69-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davr YIH uchun o‘sish davri bo‘lgan. 1965-yilda Yevropa hamjamiyatining yagona Kengashi tashkil etildi va YIH, Yevroatom, YKPBlar yagona kengash ostida faoliyat yuritdilar. Bu ko‘mir va po‘latni qayta ishlash sifatini yaxshilashga imkon berdi va a’zo mamlakatlar iqtisodiyotini modernizatsiya qilishni jadallashtirdi. Tez iqtisodiy o‘sish 1965-1966-yillarda ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi bilan yakunlandi. O‘sha vaqtdan boshlab YIHda mahsulot sifatini oshirish va ortiqcha miqdorni kamaytirishga ustuvorliklar berildi.

1970-1979-yillarda hamjamiyatda o‘sish kuzatildi. YeIH mamlakatlari soni ortdi. 1973-yilda Daniya, Irlandiya va Buyuk Britaniya unga qo‘shildi. 1970-yilda yagona valyutani qabul qilish bo‘yicha birinchi qadamlar qo‘yildi. Tor yo‘lak bilan suzuvchi valyuta kursi o‘rnatildi, talab va taklif qonunlari Markaziy Bank siyosati bilan cheklandi. 1973-yilda neft eksport qiluvchi (OPEK)ga a’zo davlatlar bilan bog‘liq yuz bergan inqiroz tufayli hamjamiyat “Evropessizm” nomini oldi va siyosiy elita orasida integratsiyaga nisbatan umidsizlikni keltirib chiqardi. Ushbu davrda YIH birinchi marta atrof-muhitni muhofaza qilish masalasini hal qildi. Greenpeace tashkiloti tuzildi va atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini cheklovchi birinchi qonunlar qabul qilindi. Keyingi yillardagi neft inqirozlarining takrorlanishi ortidan YIH ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish rejasini qayta ko‘rib chiqdi, ilgari yetakchi bo‘lgan og‘ir sanoat neft narxining ko‘tarilishi tufayli ahamiyatini yo‘qotdi. Neft kimyosi va elektrotexnika sohalari rivojlana boshlandi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini yoki “Umumiy bozor”ni tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklovlarni asta-sekinlik bilan bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoga umumiy boj tariflarini o‘rnatish;
- “insonlar, kapital, xizmatlar”ning erkin harakati uchun to‘siqlarni tugatish;
- qishloq xo‘jaligi va transport sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va o‘tkazish;
- valyuta ittifoqini tuzish;
- soliq siyosatini birxillashtirish;
- qonunchilikni bir-biriga moslashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

1979-yildan e’tiboran YIH mamlakatlari aholisi Yevropa parlamenti a’zolarini bevosita saylash imkoniyatiga ega bo‘ldilar va ularning hamjamiyat siyosatiga ta’siri oshdi. 1975-yilda YIH mamlakatlarining alohida mintaqalari iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qadamlar qo‘yildi, nisbatan boy hududlar bilan nisbatan kambag‘al bo‘lgan hududlarni tenglashtirish uchun resurslarni qayta taqsimlash amalga oshirildi. Yevropa mintaqaviy rivojlanish jamg‘armasi tashkil etildi. 1979-yildan shartli hisob-kitob valyutasi EKYga asoslangan Yevropa valyuta tizimi amal qila boshladi.

Keyingi bosqich 1980 va 1990-yillarning boshlarini o‘z ichiga olib ushbu davrdagi asosiy muhim tarixiy voqe’a bu Berlin devorining qulashi va ikkita G‘arbiy va Sharqiy Germaniyaning birlashishi hisoblanadi. 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda Portugaliya va Ispaniya YIHga a’zo bo‘lib kirdi. 1984-yilda YIHning ilmiy va texnologik rivojlanishi uchun birinchi dasturi qabul qilindi. 1985-yilda Shengen hududini yaratish boshlandi. Ushbu jarayonda ishtirok etayotgan mamlakatlar fuqarolari, shuningdek, uchinchi mamlakatlar fuqarolari (agar ular kirish vizasiga ega bo‘lsa) Yevropa Ittifoqi bo‘ylab erkin harakatlanish huquqiga ega bo‘ldilar. Shengen shartnomasi dastlab yetti mamlakat tomonidan imzolandi: Belgiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Lyuksemburg, Gollandiya va Portugaliya.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Shengen hududiga quyidagi mamlakatlar kiradi: Avstriya, Belgiya, Daniya, Finlyandiya, Fransiya, Gretsiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Germaniya, Portugaliya, Shvetsiya, Italiya, Estoniya, Litva, Latviya, Malta, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Xorvatiya, shuningdek, Shveytsariya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Islandiya (oxirgi 4 ta mamlakat Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lmagan Shengenga a’zo davlatlari). Irlandiya, Kipr, Bolgariya va Ruminiya Shengen hududiga kirmaydigan Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlardir. Ayni paytda Bolgariya va Ruminiyani ushbu hududga kirishiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Uzoq sinovlardan o‘tib, hamjamiyat 1980-yillarning o‘rtalarida yangi bosqichga o‘tdi, ya’ni yagona ichki bozorni shakllantirish tugallandi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqi batafsil harakat dasturini tayyorladi. Unda mavjud iqtisodiy siyosatning barcha sohalari bo‘yicha 300 ga yaqin chora-tadbirlar rejasi ularni amalga oshirish muddatlari bilan ko‘rsatilgan.

YIHga a’zo davlatlar o‘rtasida bojxona tariflari yo‘qligiga qaramasdan, ular o‘rtasidagi savdo to‘liq erkin emas edi, chunki bu YIHning maqsad va vazifalarida ko‘rsatilgan edi. Standartlar, milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar, import litsenziyalari va turli protsessual qoidalar bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasida ma’muriy kelishmovchiliklar bunga xalaqit berar edi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun 1986-yilda Yagona Yevropa Akti (YYA) (The Single European Act) qabul qilindi. Uning oldiga asosiy maqsad – jamiyat mamlakatlarining iqtisodiy va valyuta ittifoqini yaratish qo‘yildi. YYA 1957-yilgi Rim shartnomasining birinchi yirik tahriri edi. Ushbu akt Yevropa hamjamiyatida 1992-yilning 31-dekabrigacha umumiy bozorni yaratishni ko‘zda tutgan va YIH ning umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati bo‘yicha Yevropa siyosiy hamkorligi tamoyillarini shakllantirgan. U 1986-yilning 17 fevralida Lyuksemburgda va shu yilning 28 fevralida Gaagada imzolangan. Delor komissiyasi doirasida 1987-yilning 1-iyulida kuchga kirgan.

Navbatdagi bosqich 1990-2004-yillarni qamrab oladi. Ushbu davrni “chegarasiz Yevropa” deyish mumkin, chunki shu davrda YIH integratsiyasi o‘zining yuqori rivojlanish bosqichiga chiqdi. Jumladan, 1992-yilning 7-fevralida Maastrixtda Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi (The Treaty of Maastricht). Maastrixt shartnomasini tayyorlashning hal qiluvchi bosqichi ikkita hukumatlararo konferensiya bilan bog‘liq bo‘ldi. Ulardan birida iqtisodiy va valyuta ittifoqi matni, ikkinchisida esa siyosiy ittifoq bo‘yicha hujjat loyihalari ishlab chiqilgan.

Maastrixt shartnomasi uchta “ustun” tizimini yaratdi. Birinchisi – uchta hamjamiyat (YKPB, Yevroatom va YIH); ikkinchisi – umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati; uchinchisi – ichki ishlar va adliya. Maastrixt shartnomasi siyosiy integratsiya uchun ham yangi ufqlarni ochdi. Bunda Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning tashqi siyosatini muvofiqlashtirishdan umumiy tashqi va xavfsizlik siyosatiga o‘tish rejalashtirilgan edi. Shu maqsadda Yevropa Ittifoqining umumiy pozitsiyalari (dolzarb xalqaro masalalar bo‘yicha qabul qilingan) va Yevropa Ittifoqi davlatlarining birgalikdagi harakatlari (gumanitar missiyalar va uchinchi mamlakatlarda harbiy operatsiyalar shaklida) joriy etildi. A’zo davlatlar ushbu sohada o‘zlarining suveren huquqlarini saqlab qolishdi, ammo shu bilan birga Ittifoq manfaatlariga zid bo‘lgan va uning birligini zaiflashtirishga olib keluvchi har qanday harakatlardan tiyilish majburiyatini olishdi.

Shartnomada adliya va ichki ishlar sohasida hukumatlararo hamkorlikni kuchaytirish belgilandi. Immigratsiya va boshpana olish masalalarini tartibga solishga alohida e’tibor qaratildi. Uyushgan jinoyatchilik va giyohvand moddalari savdosiga qarshi kurashish uchun Yevropa politsiya agentligi – Yevropol tashkil etildi. Yevropa Ittifoqi fuqaroligi birinchi marta joriy etildi. Bu Ittifoqning har bir fuqarosiga uning istalgan mamlakatida yashashga imkon berdi. A’zo davlatlarning fuqarolariga Yevropa Ittifoqining qaysi joyida bo‘lishlaridan qat’i nazar mahalliy hokimiyat organlariga va Yevropa parlamentiga ovoz berish va saylanish huquqi berildi. Fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun Yevropa Ittifoqining vakolatlari kengaytirildi. Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo‘yicha komissari Ombudsmen instituti joriy etildi.

1997-yilning 2-oktyabrida Niderlandiya poytaxtida Amsterdam shartnomasi imzolandi. Bu Maastrixt Shartnomasining kengaytirilgan varianti bo‘ldi. Unda ichki ishlar va adliya sohasida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi, jumladan, immigratsiya, boshpana olish, nikohdan o‘tish, ajralish, aliment to‘lash, ota-onalik huquqi, tashqi chegaralarni qo‘riqlash kabi masalalar hal etildi.

1990-yildan boshlab hamjamiyat iqtisodiy va valyuta ittifoqini qurishni boshladi. 1998-yil may oyida Yevropa Markaziy banki tashkil etildi va yagona valyuta Yevroga o‘tadigan birinchi 11 ta davlat aniqlandi. 1999-yil 1-yanvardan boshlab yevro naqd pulsiz muomalaga, 2002-yil 1-yanvardan esa naqd pulda muomalaga kiritildi.

Yevropa Ittifoqining 27 mamlakatidan 20 tasining rasmiy valyutasi yevro hisoblanadi. Ular birgalikda yevrozonani tashkil qiladi, bu yerda yevro yagona qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi. Quyidagi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hali ham o‘z milliy valyutalaridan foydalanadilar: Polьsha, Bolgariya, Shvetsiya, Vengriya, Chexiya, Daniya va Ruminiya. Ro‘yxatda keltirilgan davlatlar barcha tegishli majburiyatlarni bajargandan so‘ng yevrozonaga kira oladilar. Maastrixt shartnomasiga ko‘ra, majburiy qo‘shilishni talab qilmaydigan Daniya davlati bundan mustasno hisoblanadi.

Ushbu davrda Yevropa iqtisodiy makonini (YIM) (European Economic Area – EEA) yaratish to‘g‘risidagi bitim alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U 1992-yil may oyida Yevropa Ittifoqi va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (European Free Trade Association – EFTA) o‘rtasida imzolandi va 1994-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Ushbu shartnoma YFTA mamlakatlariga “to‘rtta erkinlik” - tovarlar, xizmatlar, shaxslar va kapital harakatini kengaytirdi. Shunday qilib, EFTA mamlakatlari Yevropa Ittifoqining yagona ichki bozoriga a’zo bo‘lishdi. 1995-yilda EFTAning uchta a’zosi – Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya Yevropa Ittifoqiga qo‘shildi. Shveytsariya aholisining YIMga a’zolik bo‘yicha referendumda qarshi ovoz berganligi tufayli shartnoma rad etildi. YIMda uchta davlat Norvegiya, Islandiya va Lixtenshteyn a’zo hisoblanmoqda. Yevropa Ittifoqiga a’zo barcha davlatlar YeIMga a’zo hisoblanadilar.

1990-yillarning boshidan Yevropa Ittifoqining xalqaro faoliyatini asosiy yo‘nalishi Sharq siyosati bo‘ldi. 1990-yilda Yevropa Kengashi (Council of Europe) Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan assotsiatsiya shartnomalarini (Evropa shartnomalari) tuzishga qaror qildi. 1992-1996-yillar davomida mazkur shartnoma o‘nta davlat: Bolgariya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya va Estoniya bilan imzolandi. Shartnoma siyosiy, iqtisodiy, madaniy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishni, shuningdek, bosqichma-bosqich tovarlar, xizmatlar, shaxslar va kapitalning erkin harakatlanishiga o‘tishni maqsad qilgan. Amalda shartnomalar Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini Yevropa integratsiyasi orbitasiga kiritilishiga zamin yaratdi.

Ushbu davlatlarning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish imkoniyatlari to‘g‘risida qaror 1993-yil iyun oyida Kopengagenda bo‘lib o‘tgan Yevropa Ittifoqi sammiti tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, Yevropa Kengashi ushbu sammitda a’zolikka nomzodlik bo‘yicha mezonlarni tasdiqladi (Kopengagen mezonlari va talablari).

Kopenhagen mezonlari Yevropa Kengashi tomonidan 1995-yilning dekabrida Madridda tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagilardan iborat:

- Mamlakat davlatning geografik joylashuvidan qat’i nazar, Yevropa sivilizatsiyasiga tegishli bo‘lishi;
- Yevropa Ittifoqi shartnomasining asosiy tamoyillarini, xususan demokratiya, erkinlik, inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklari tamoyillarini hurmat qilishi;
- Davlat va jamoat institutlarining barqaror ishlashi va rivojlanishini ta’minlashi.
- Demokratik davlat bo‘lish va o‘z fuqarolariga demokratiya kafolatlarini berishi;
- Qonun ustuvorligi va huquq ustuvorligini, inson va fuqarolik huquqlarini hurmat qilishni, shu jumladan, milliy ozchiliklarni himoya qilishni ta’minlashi;
- Risoladagidek ishlaydigan bozor iqtisodiyotiga va barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lishi;
- Barcha salohiyatli a’zolar o‘z qonunlarini Yevropa qonunlari tamoyillariga moslashtirishlari kerak.

1994-1996-yillarda ushbu mamlakatlarning barchasi Yevropa Ittifoqiga kirish uchun rasmiy arizalarni yuborishdi. Ularni Yevropa Ittifoqiga kirishga tayyorlash jarayoni 10 yildan ortiq davom etdi. 2004-yil may oyida YIga sakkizta Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, Kipr va Malta qo‘shildi.

2000-yilda “Asosiy huquqlar bo‘yicha Yevropa Ittifoqi xartiyasi” qabul qilindi. Xartiyaning muqaddimasida inson qadr-qimmati, erkinligi, tengligi va birdamligining asosini tashkil etuvchi huquqlarning bo‘linmasligi va universalligi ta’kidlangan.

Amsterdam shartnomasi va unga kiritilgan keyingi o‘zgarishlarga qaramasdan a’zo davlatlar institutsional boshqaruv organlari masalasida bir to‘xtamga kela olmadilar va shuning uchun radikal o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi hujjat loyihasini tayyorlash maqsadida yangi hukumatlararo konferensiyani o‘tkazishga qaror qilindi. Konferensiya 2000-yilning fevralida ishini boshlab shu yilning 11-dekabrida Fransiyaning Nitssa shahrida uni nihoyasiga yetkazdi. Mazkur hujjat 2001-yilning 26-fevralida imzolandi va Nitssa shartnomasi nomini oldi hamda 2003-yilning 1-mayidan kuchga kiritildi. Mazkur shartnomada bir qator hujjatlar bayonnoma va deklaratsiya shaklida ilova qilindi. Ularning asosiylari bo‘lib Yevropa Ittifoqini kengaytirish va Yevropa Sudi Ustavi bayonnomasi hisoblandi.

Yevropa Ittifoqi rivojlanishining keyingi bosqichi 2004-yildan hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 2007-yilning yanvar oyida esa Bolgariya va Ruminiya davlatlari YIga a’zo bo‘lishdi. 2013-yilning 1-iyulidan esa Xorvatiya YIning to‘liq a’zosiga aylandi. Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi tarixida yetti marotaba kengayish sodir bo‘ldi.

Yevropa Ittifoqining sharqqa qarab keng ko‘lamli kengayishi sovuq urushning tugashi va dunyoning bipolyar tizimini qulashi tufayli mumkin bo‘ldi. Bu voqe’lik nafaqat Yevropaning, balki butun dunyoning taqdirini o‘zgartirdi. Shuningdek, u globallashuv jarayoniga kuchli yangi turtki berdi. Kapital harakatini liberallashtirish, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining keng tarqalishi dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarining o‘zaro bir-biriga bog‘liqligini keskin oshirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yevropa Ittifoqi shubhasiz iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning vatani hisoblanadi. U o‘zining yetmish ikki yillik tarixida qiyin va ayni bir paytda muvaffaqiyatli yo‘lni bosib o‘tdi. Yevropa Ittifoqi bevosita dunyoning boshqa davlatlarida iqtisodiy integratsion jarayonlarni rivojlanishiga turtki berdi. Yevropa Ittifoqining istiqbollari xususida olimlar tomonidan turlicha baholar va bashoratlar berilmoqda. Ularning aksariyati ijobiy va, shu bilan birga, ayrim pessimistik qarashlar ham mavjud. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda quyidagi mamlakatlar Yevropa Ittifoqiga kirish uchun nomzodlar hisoblanadilar:

- Turkiya (1999) (1987-yilda ariza berilgan);
- Shimoliy Makedoniya (2005);
- Chernogoriya (2010);
- Serbiya (2019);
- Albaniya (2014);
- Bosniya va Gersegovina (2022);
- Moldaviya (2022);
- Ukraina (2022).

Bulardan tashqari, Gruziya (2022) va Kosovo nomzodlik mavqe’ini olishga da’vogar davlatlar hisoblanadilar. Ular Yevropa Kengashi tomonidan qo‘yilgan talablarni bajarishlari bilan nomzod bo‘lishlari mumkin.

Bizningcha, Markaziy Osiyo davlatlari Yevropa Ittifoqidan bevosita andoza olgan holda mintaqada iqtisodiy va siyosiy integratsiyani amalga oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Булатов А. С. Мировая экономика: учебник. – М.: “Экономистъ”, 2005.
2. Семак Е. А. Международная экономическая интеграция: Учебное пособие. – М.: БГУ, 2012.
3. Мисько О. Н. Международная экономическая интеграция. – СПб: Университет ИТМО, 2015.
4. Кондратьева Н. Б. Европейская модель интеграции рынков. Становление и перспектива: монография. Федеральное государственное бюджетное учреждение науки Институт Европы Российской академии наук. – М.: РАН, 2020.
5. Энтин Л. М. Право Европейского Союза. Новый этап эволюции: 2009–2017 годы. – М.: Изд-во “Аксиом”, 2009.
6. Стрежнева М. В. Европейский союз в глобальном экономическом управлении. – М.: ИМЭМО РАН, 2017.
7. Найман В. Д. Характер интеграционных процессов в ЕС и АСЕАН: сопоставительный анализ. Вестник РГГУ. Серия “Политология. История. Международные отношения.”. 2016;(3):71-82.
8. Байков А. А. “Интеграционные маршруты” Западно-Центральной Европы и Восточной Азии/ Международные процессы. – 2007. – Том 5, №3 (15). – стр. 4-17.
9. Лёвина Н. П. Лиссабонский договор-новый основополагающий документ Европейского Союза/Вестник РУДН, серия Юридические науки, № 3, 2010.
10. Калиш Я. В. Теория и практика интеграции стран Западной Европы: актуальные проблемы/ Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета, №4 (24), 2016.
11. Буторина О. В. Европейская интеграция: учебник. М.:Деловая литература, 2011.
12. Борко Ю. Европейский союз: углубление и расширение интеграции. – М.: “МЭиМО”, №8, 2000.

XORIJIY INVESTITSIYALAR OQIMINI OBLIGATSIYALAR ORQALI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Xojiyev Jaxongir Dushabayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Maqolada xorijiy investitsiyalar oqimini obligatsiyalar orqali oshirish istiqbollari, moliyaviy bozorga ajratilgan investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalar orqali amalga oshirilishi hamda kompaniyaning qimmatli qog‘ozlari, xususan, yevrobondlar orqali amalga oshirilishi yuzasidan izlanishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, investitsiyalar, yevroobligatsiyalar, obligatsiyalar reytingi, moliya bozori, obligatsiyaning bozordagi daromadliligi.

Abstract: The article, the prospects of increasing the flow of foreign investments through bonds, the main part of the investments allocated to the financial market are carried out through financial investments and the securities of the company, in particular, through Eurobonds.

Key words: public debt, investments, Eurobonds, bond rating, financial market, bond market yield.

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы увеличения потока иностранных инвестиций через облигации, основная часть инвестиций, выделяемых на финансовый рынок, осуществляется за счет финансовых вложений и ценных бумаг компании, в частности, через еврооблигации.

Ключевые слова: государственный долг, инвестиции, еврооблигации, рейтинг облигаций, финансовый рынок, доходность рынка облигаций.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishini salmoqli darajadagi investitsiyalarsiz tasavvur qilish mushkul. Bunda asosiy rol moliyaviy bozorga ajratiladi va investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalar orqali amalga oshiriladi. Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichining ajralmas qismi milliy va millatlararo darajadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadal rivojlantirishdir.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonni xalqaro reyting va indekslarda egallagan o‘rnini mustahkamlash maqsadida dastlabki amaliy qadam sifatida Prezidentimizning bir nechta qaror va Farmonlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3877 sonli qarori (Qaror, 2018), 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-sonli qarori (Qaror, 2019), 2019-yil 7-martdagi “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi PF-5687-sonli Farmoni (Farmon, 2019) va 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmoni (Farmon, 2020) qabul qilindi.

Ushbu tendensiya, xususan, jahon moliyaviy bozorida jahon iqtisodiy faoliyati subyektlarining qarzdorlar sifatida tobora faol ishtirok etayotganida namoyon bo‘ladi. Bu, asosan, kompaniyaning qimmatli qog‘ozlari, xususan, yevrobondlar orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga kelib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida yevrobondlardan foydalanish masalalari mahalliy adabiyotda kichik darajada ko‘rib chiqilgan, xorijiy manbalarda esa ular yanada chuqurroq aks ettirilgan. Garchi zamonaviy G‘arb ilmiy adabiyotlarida, asosan, qarz instrumentlari bozori va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyatining ayrim muammolariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan mamlakatlarning Yevrobond bozorida ishtirok etish xususiyatlari va sxemalarini kompleks tahlil qilish faqat ayrim ishlarda amalga oshiriladi.

Investitsiya nazariyasining asosiy jihatlari Samuelson (Maqola, 1991) kabi ko‘plab taniqli xorijiy olimlarning asarlarida o‘rganiladi. Rus olimlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlari yoritildi.

Yevrobondlar faoliyatining ayrim jihatlari M. B. Hamidulin, N. R. Tursunova, I. L. Butikov (Darslik, 2004) va O‘. I. Aliyevalar (Maqola, 2019) tomonidan ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, S. E. Elmirzayev, O. N. Xamdamov va N. Sh. Shavkatov (Maqola, 2020) kabi olimlar o‘z maqolalarida xalqaro moliya bozoridagi Yevrobondlarning jozibali tomonlari o‘rganilib, uning mamlakat uchun foydali tomonlari sanab o‘tildi.

Shuningdek, mahalliy olim S. E. Elmirzayev (Darslik, 2019) tomonidan yozilgan “moliyaviy bozor” darsliklarida nazariy ta’riflar berilgan. Unga ko‘ra, mamlakat moliyaviy tizimining asosiy qismi moliyaviy bozordir. U xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv jarayonida zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi. Ayni paytda, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, milliy valyutani mustahkamlash, eksport hajmini oshirish kabi bozor islohotlari davom ettirilmoqda.

Shunday qilib, A. A. Suetin (Darslik, 2016), Rossiya hukumati qoshidagi Moliya akademiyasining professori, “moliyaviy bozor – moliyaviy kapitalni sotib olish va sotish amalga oshiriladigan joy-pul”, deb hisoblaydi. (Darslik, 2016). Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish natijasida yevroobligatsiyalarning xalqaro nufuzi, ularning xalqaro kapital bozoridagi operatsiyalari takomillashtirish yuzasidan bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mobaynida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda mavjud kapital bozorini holatini respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rni, uning iqtisodiyotga ta’siri, mazkur tizimning rivojiga to‘sqinlik qiluvchi argumentlarni o‘rganish, tizimning salbiy oqibatlarini yumshatish va kapital bozorini yangi bosqichga olib chiqish masalasi, tezkor choralarni ko‘rish yoritib berildi. Bu islohotlarda yurtimizdagi faollik va dunyo hamjamiyatining o‘rni yoritib berildi. Iqtisodiyotimiz subyektlarining uzoq muddatli investitsiyalarini jalb qilish va xalqaro kapital bozoriga chiqish salohiyati o‘rganildi, tahlil qilindi. Ushbu jarayonni amalga oshirayotgan xo‘jalik subyektlari faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy ko‘rsatgichlar o‘rganildi. Xalqaro kapital bozoriga chiqishda O‘zbekiston hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan imkoniyatlar, nazariy va amaliy yordamlar tahlil qilindi. Mazkur faoliyatning istiqboli uchun xulosa va takliflar berildi. Ushbu maqola uchta qismdan iborat. Birinchi qismda yevroobligatsiyalarning paydo bo ‘lish tarixi, ikkinchi va uchinchi qismlarda yevroobligatsiyalarning chiqarilishi va muomalasining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratilgan.

Yevroobligatsiyalar – bu obligatsiya chiqarilgan mamlakat yoki mamlakatlarning valyutasidan boshqa valyutada ifodalangan qarz qimmatli qog‘ozlari. Ular, odatda, hukumatlar, millatlararo tashkilotlar yoki korporatsiyalar tomonidan xalqaro investorlardan mablag‘ jalb qilish uchun chiqariladi.

Evrobondlarning ba’zi asosiy xususiyatlari:

Valyuta: yevroobligatsiyalar, odatda, emitentning milliy valyutasidan boshqa valyutada chiqariladi. Masalan, Yevropa davlati AQSH dollari yoki yapon iyenasida ifodalangan obligatsiyalar chiqarishi mumkin.

Xalqaro bozor: Yevroobligatsiyalar odatda, xalqaro kapital bozorlarida chiqariladi, bu esa emitentlarga global moliya bozorlaridan investitsiya jalb qilish imkonini beradi.

Diversifikatsiya: Yevroobligatsiyalar emitentlarga o‘zlarining investor bazasini mahalliy investorlardan tashqari diversifikatsiya qilish va kengroq moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Normativ-huquqiy baza: Yevroobligatsiyalar emitent mamlakatlarning tartibga solish talablariga bo‘ysunadi. Biroq yevroobligatsiyalar bo‘yicha aniq yagona me’yoriy-huquqiy baza mavjud emas hamda ular turli xil huquqiy va soliq rejimlariga bo‘ysunishi mumkin.

Daromad va risk: Yevroobligatsiyalarning daromadliligi turli omillarga, jumladan, emitentning kredit qobiliyatiga, amaldagi foiz stavkalariga va bozor talabiga bog‘liq. Yuqori reytingga ega tashkilotlar yoki kuchli kredit ega mamlakatlar tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalar kredit reytingi pastroq yoki yuqori darajadagi riskga ega bo‘lganlarga qaraganda pastroq daromadga ega bo‘ladi.

To‘lov muddati: Yevroobligatsiyalar qisqa muddatli (masalan, bir necha oy)dan uzoq muddatli (masalan, bir necha o‘n yilliklar)gacha bo‘lgan turli muddatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Savdo: Yevroobligatsiyalar, odatda, xalqaro ikkilamchi bozorda sotiladi, bu yerda investorlar ularni muddatidan oldin sotib olishlari va sotishlari mumkin. Ushbu obligatsiyalar ko‘pincha yirik global birjalarda ro‘yxatga olinadi yoki broker-dilerlar orqali birjadan tashqari (OTC) sotiladi.

Ta’kidlash kerakki, yevrobondlarni yevroda chiqarilgan obligatsiyalar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Yevroobligatsiyalar emitentning milliy valyutasidan boshqa har qanday valyutada denominatsiya qilinishi mumkin.

Yevroobligatsiyalar qisqa muddatli, o‘rta va uzoq muddatli bo‘ladi. Qisqa muddatli 1 yilgacha, o‘rta muddatli 10 yildan 30 yilgacha va uzoq muddatli 40 yilgacha muddatda beriladi. Ushbu obligatsiya turi birinchi bo‘lib Italiyada chiqarilgan va hozirgacha Yevropa davlatlarida faol harakatlanadi. Bunday qog‘ozlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- bular taqdim etuvchi qimmatli qog‘ozlar;
- bir vaqtning o‘zida bir nechta bozorlarga joylashtiriladi;
- uzoq muddatga beriladi
- qoida tariqasida, 10-30 yil (40 tagacha);
- kredit jalb qilingan valyuta ham emitent, ham investor uchun xorijiy bo‘lsa;
- yevrobond dollar ekvivalentiga ega;
- kuponlar bo‘yicha foizlar soliq ushlab qolinmasdan to‘lanadi.

Yevroobligatsiya emitentining ushbu obligatsiya chiqarishdan asosiy maqsadi muqobil moliyaviy resurslar izlashdir. Undan tashqari, yevroobligatsiya emitentiga ko‘plab qulayliklar yaratadi. Kapitalni jalb qilishda xarajatlarni 20% gacha tejash. Emitent yevroobligatsiyalarni bir vaqtning o‘zida bir necha davlat kapital bozoriga chiqara oladi. Emitent tomoniga kamroq majburiyatlar yuklanishidir.

Global yevroobligatsiyalar bozorida xalqaro moliyaviy operatsiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu standartlarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash hozirda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan islohotlardan asosiylar hisoblanadi. Kelgusida yevroobligatsiyalar bozorida O‘zbekistonning ishtirokini kengaytirish xalqaro moliya bozorida kapital resurslar ulushi ko‘payishiga, kadrlarimizning tajribalari ortishiga, natijada to‘g‘ri vaqtda va makonda joylashtirilgan yevroobligatsiyalar samaradorligi oshishiga olib keladi. Iqtisodiyotda xo‘jalik subyektlarining keng qamrovda yevroobligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashuvi kapital resursining katta miqdorda to‘planishiga va albatda ko‘proq yo‘nalishlarni moliyalashdagi qamrovini ta’minlaydi. mamlakatimizda investitsion jozibadorligini yaxshilaydi va mamlakatimizni xalqaro darajada yuqori pog‘onalarga olib chiqaradi.

Qozog‘iston suveren davlat sifatida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, byudjet taqchilligini moliyalashtirish yoki qarzni qayta moliyalashtirish kabi turli maqsadlarda mablag‘ jalb qilish uchun yevroobligatsiyalar chiqarmoqda. Yevroobligatsiyalar chiqarish orqali Qozog‘iston hukumati mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini oshirmoqda. Mamlakat yevrobondlari hajmining ko‘pligi va foiz stavkalarining pastligiga asosiy sabab sifatida mamlakatning suveren kredit reytingi yuqoriligidir.

1-jadval: Qozog‘istonning 2020-2023-yillarda chiqargan yevrobondlar hajmi

Chiqarilgan sana	So‘ndirish sanasi	Kupon stavkasi	Emissiya hajmi (AQSh dollari)	Reyting
2020-yil 1- yanvar	2025- yil 1-yanvar	4,5%	500 mln dollar	BBB (S&P)
2021-yil 15-fevral	2031- yil 15-fevral	3,75%	1 mlrd dollar	Baa2 (Moody’s)
2022-yil 10-iyul	2032 -yil 10–iyul	5,0%	750 mln dollar	BBB+ (Fitch)
2023 -yil 1-yanvar	2033- yil 1-yanvar	4,5%	500 mln dollar	BBB

Manba: Muallif tomonidan tahlil qilingan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

Qozog‘iston mintaqa davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib o‘zining suveren kredit reytingini baholatgan. O‘zbekiston birinchi marta Standart&Poor’s, Moody’s va Fitch kabi reyting agentliklariga o‘zining suveren kredit reytingini 2018-yilda baholatgan bo‘lsa, Qozog‘iston 1996-yili baholatgan va bugungi kunda BBB- baraqaror darajada. Bu mamlakatga xalqaro fond bozorlaridan past foizli yirik hajmdagi qarz va investitsion mablag‘larini jabl qilishda juda muhim ahamiyatga ega. Xususan, 2022-yilda Moody’s: Baa3 barqaror, Standard & Poor’s (S&P): BBB- barqaror, Fitch Ratings: BBB barqaror darajada baholagan.

2-jadval: Markasiy Osiyo davlatlarining yevrobondlar bozoridagi statistikasi (2021-yil sentabr oyiga qadar)

Mamlakat	Yevrobond hajmi	Kupon stavkasi	So‘ndirish davri
Qozog‘iston	11,8 mlrd dollar	2.875 %	2022
O‘zbekiston	$1,0 mlrd dollar	3.750 %	2025
Turkmaniston	0,7 mlrd dollar	4.625 %	2024
Qirg‘iziston	0,5 mlrd dollar	4.750 %	2024
Tojikiston	0,2 mlrd dollar	7.125 %	2025

Manba: Muallif tomonidan tahlil qilingan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

Qozog‘iston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng ko‘p yevrobond chiqargan bo‘lib, bu uning yevro obligatsiyalar bozorida muhim ishtirokichi eknaligini ko‘rsatadi. Qoz’gistoning yevrobondlari nisbatan past foizli 2,875 % bo‘lib, bu investorlar Qozog‘istonni qimmatli qog‘ozlarini riski past investitsiya sifatida qabul qilishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Qozog‘istonga nisbatan kamroq qarzga ega, ammo yevroobligatsiyalar bozorida o‘z ishtirokini boshlaganiga 4-5 yil bo‘lganiga qaramay so‘ngi yillarda xalqaro qarz bozorlarida juda faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston obligatsiyalari 500 mln dollari 4.75 % va 5.375 % li daromadga ega bo‘lib, Qozog‘iston bilan solishtirganda biroz yuqoriroq riskli hisoblanadi. Chunki O‘zbekistonning suveren kredit reytingi 2023-yil BB- barqaror darajada qolmoqda. Turkmaniston obligatsiyalari Qozog‘iston va O‘zbekistonga nisbatan yevro obligatsiyalar bozoridagi ishtiroki kamroq. Yuqori foiz 4,625 %, investorlar Turkmanistonning avvalgi ikki davlatga nisbatan yuqori riskli investisiya sifatida qarashini anglatadi. Umuman olganda, ushbu tahlil Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida yevrobondlar bozoridagi ishtirokini ko‘rsatish uchun juda muhim ahamiyatga ega.



1-rasm: Jahondagi yirik davlatlar yevrobondlarining bozordagi daromadlilik stavkasi

Manba: Muallif tomonidan o‘rganilgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

3-jadval: Markasiy Osiyo davlatlarining yevrobondlar bozoridadagi statistikasi (2021-yil sentabr oyiga qadar)

Mamlakat	Yevrobond stavkasi	S&P	Moody’s	Fitch
Yaponiya	0,405%	A+	A1	A
Shveytsariya	1,033%	AAA	Aaa	AAA
Germaniya	2,463%	AAA	Aaa	AAA
Xitoy	2,701%	A	A1	A+
Fransiya	3,048%	AA	Aa2	AA
Kanada	3,212%	AAA	Aaa	AAA
Janubiy Koreya	3,494%	AA-	Aa2	AA-
Avstraliya	3,634%	AAA	Aaa	AAA
AQSH	3,684%	AA+	Aaa	AAA
Buyuk Britaniya	4,159%	AA	Aa3	AA-
Italiya	4,327%	BBB+	Baa3	BBB-
Hindiston	7,018%	BBB-	Baa3	BBB-
Turkiya	8,870%	B+	B1	BB-
Rossiya	10,720%	BBB-	Baa2	BBB-
Braziliya	11,810%	BB-	Ba2	BB

Manba: Muallif tomonidan o‘rganilgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak, Shveytsariya, Germaniya, Kanada, Avstraliya va AQSh barcha uchta yirik kredit reyting agentliklarining (S&P, Moody’s va Fitch) yuqori reytingga ega davlatlar hisoblanadi. Bu mamlakatlar yuqori kredit layoqatiga ega deb hisoblanadi va ular past riskli qarz oluvchilar sifatida qabul qilinadi. Turkiya, Hindiston, Rossiya va Braziliya jadvalda keltirilgan rivojlangan iqtisodiyotlarga nisbatan pastroq reytingga ega. Bu mamlakatlar o‘z iqtisodlari bilan bog‘liq yuqori risklar tufayli yuqori qarz xarajatlariga duch kelishi mumkin, ya’ni boshqacha qilib tushuntiradigan bo‘lsak, reytingi qancha past bo‘lsa, jalb qilinadigan investitsiyalarning foizlari yuqori bo‘lib, bu davlatlarga qarzlariga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini oshishiga olib keladi.

Hindiston, Turkiya, Rossiya va Braziliya tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalarning bozor stavkalari bir necha sabablarga ko‘ra yuqori kredit reytingiga ega mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bular:

- **Kredit riski:** Bu mamlakatlarda kredit reytinglari yuqori investitsiya darajasidagi reytinglardan pastroq bo‘lib, kredit riskining yuqoriroq qabul qilingan darajasini ko‘rsatadi. Investorlar o‘z obligatsiyalariga investitsiya qilish bilan bog‘liq ortib borayotgan riskni qoplash uchun yuqori daromad talab qiladi.
- **Iqtisodiy barqarorlik:** Ushbu mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va ko‘rsatkichlari yuqori kredit reytingiga ega bo‘lgan mamlakatlarga nisbatan kamroq barqarorligi past hisoblanadi. Nimaga deganda, dunyoda bo‘layotgan so‘ngi yillardagi siyosiy beqaror va sanksiyalar sabali energetika sohasida yirik inqiroz kuzatilmoqda. Bu esa global daraja inflyatsion jarayonlarni kuchaytirib, davlatlardagi fiskal taqchillikni, ishsizlikni va valyuta kurslari beqarorligiga olib kelmoqda. Bular esa, o‘z navbatida, yevrobondlari bo‘yicha bozor stavkalarining oshishiga olib keldi.
- **Bozorni konyukturasi:** Obligatsiyalarning bozor stavkalarini aniqlashda investorlarning kayfiyati va bozor idroki hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar investorlar ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida yuqori risklilikni yoki noaniqliklarni sezsalar, ular yuqori daromadlilik talab qilishlari mumkin, bu esa ularning yevrobondlari bo‘yicha bozor stavkalarining oshishiga olib keladi.
- **Likvidlik bilan bog‘liq muammolar:** Bu mamlakatlarning yevroobligatsiyalari uchun ikkilamchi bozorda past likvidlik ham bozor stavkalariga ta’sir qilgan. Likvidlik pastroq bo‘lsa yoki investorlar va qimmatli qog‘ozlar egalari soni cheklangan bo‘lsa, bu emitentlar uchun takliflar bo‘yicha kengroq spred va yuqori qarz xarajatlariga olib keladi.

XULOSA

Global bozor sharoitlari: global foiz stavkalarining o‘zgarishi, rivojlanayotgan bozorlarga nisbatan bozor konyukturasi yoki umumiy bozor sharoitlari kabi tashqi omillar yevrobondlarning bozor stavkalariga ta’sir qiladi. Bu omillar ushbu mamlakatlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarga talab va narxlarga ta’sir qilishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, yevroobligatsiyalar bo‘yicha bozor stavkalari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, chunki ularga emitentning kredit reytingi, bozor sharoitlari va investor talabi kabi omillar ta’sir qiladi.

So‘ngi yillarda Global qarz bozorlarida yevrobondlar hajmi sezilarli darajada pasaydi. Buning asosiy sababi 2022-yil fevral oyidan beri davom etayotgan dunyodagi siyosiy beqarorliklar oqibatida neft, gaz va energetika inqirozi kuzatilmoqda. Bu esa deyarli barcha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish narxlarini oshishiga olib keldi, ya’ni inflyatsion jarayonlar ancha tezlashib ketdi. Bu esa, o‘z navbatida, Global qarz bozorlaridagi foiz stavkalarini oshib ketishiga, ya’ni qarz xarajatlarining oshishiga olib keldi. Shuning uchun ham ko‘plab davlatlar qarz xarajatlarini oshib ketayotganligini inobatga olib yevrobondlar emissiyasining hajmini pasaytirdi. Inflyatsiya ko‘tarilganda, investorlar, odatda, kelajakdagi pul oqimlarining sotib olish qobiliyati pasayishini qoplash uchun o‘z investitsiyalaridan yuqori daromad olishni talab qiladilar. Natijada yevrobondlarning bozor daromadlilik darajasi kutilayotgan yuqori inflyatsiyani aks ettirish uchun oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (Qaror, 2019) 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (Qaror, 2018) 2018-yil 21-iyuldagi “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” PQ-3877-son qarori.
3. www.uzse.uz
4. www.gov.uz
5. www.world-exchanges.org

TARMOQ VA SOHALARNING EHTIYOJIGA KO‘RA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Xayitov Abdimannon Buxarovich
Iqtisod fanlari nomzodi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi bandligini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Mualliflar bandlikka ko‘maklashishning asosiy yo‘nalishlari va mamlakatda mehnat bozorini izchil rivojlantirish bo‘yicha takliflarni taqdim etadilar.

Kalit so‘zlar: aholi, yangi ish o‘rinlari, bandlik, mehnat, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik.

Abstract: In this paper have been investigated issues of increasing population employment under conditions of modernization country economy. By authors presented the main directions of promoting employment and proposals for consistently developing the labor market in the country.

Key words: population, new jobs, employment, labour, small business, private entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье были исследованы вопросы повышения занятости населения в условиях модернизации экономики страны. Авторами представлены основные направления содействия занятости и предложения по последовательному развитию рынка труда в стране.

Ключевые слова: население, новые рабочие места, занятость, труд, малый бизнес, частное предпринимательство.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan islohotlarda insonning jamiyatda munosib o‘rnini egallashiga asos va turtki bo‘luvchi konseptual asoslarning yaratilishi mehnat bozori ehtiyojiga ko‘ra kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqoza etadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan 2022-yilda e’lon qilingan hisobot natijalari “2021-yilda jahon yoshlari ishsizligi darajasi 15,6 foizni tashkil etgan, bu kattalar darajasidan uch baravar ko‘proqdir. Dunyo bo‘yicha 75 millionga yaqin yoshlar ishsiz”[1]. Bugungi kunda jahon miqyosida ta’lim muassasalarida tayyorlangan kadrlarni nafaqat milliy, balki jahon mehnat bozorida o‘z egallagan kasbi bo‘yicha ish o‘rniga ega bo‘lishi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Jahon miqyosida mehnat bozorining tez o‘zgaruvchan sharoitida ta’lim muassasalari bitiruvchilari ish bilan bandligi darajasini oshirish, ularni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha mehnat bozoriga erkin kirish imkoniyatlarini oshirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada ta’lim muassasalari faoliyati mehnat bozori ehtiyojlariga qaratilishi va shunga koordinatsiya qilingan holda kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish ishsizlar orasida bitiruvchilar ulushini kamaytirish, bitiruvchilarning ishga joylashishida qiyinchiliklarni bartaraf etish kabi masalalarga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda mehnat bozori ehtiyojlarini tarmoq va sohalarning imkoniyatlariga ko‘ra aniqlash va shunga muvofiq ish o‘rinlarini yaratishdagi nomuvofiq chora-tadbirlar pirovardida kadrlar tayyorlash tizimidagi nomutonosibliklarning yuzaga kelishi, oliy ma’lumotli va kasbiy tayyorlangan shaxslar orasidagi ishsizlar va mehnat migrantlari, kambag‘allar hamda tegishli “daftarlar”ga kirgan yoshlar salmog‘ida ta’lim muasasalari bitiruvchilari ulushining yuqoriligi hozirgi kundagi yechimini kutayotgan dolzarb komleks muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, “jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari hamda O‘zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta’minlash aniq maqsadlari belgilab berilgan”[2]. Bu borada

1 Global Employment Trends for Youth 2022: Investing in transforming futures for young people. Geneva: ILO, 2022. URL: https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabr PF-5545-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

kadrlar salohiyatini oshirish va tayyorlash sifatini oshirish, kadrlar salohiyatidan foydalanish jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, ilmiy muassasalarda ilmiy-tadqiqot ishlari hamda korxona va tashkilotlarda natijadorlikni oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holdan, mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish zarurati hamda mazkur sohaning respublikamiz olimlari tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha to‘liq o‘rganilmaganligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrlagi yildagi PF-158-sonli Farmoni “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yilda 12-avgustdagi PQ-350-sonli “Zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 11-fevraldagi PF-6168-sonli “Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, ushbu ushbu maqola tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim A. I. Rofe ushbu tushunchaga o‘z munosabatini bildirib, “Ish bilan bandlik – bu mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mavjudligi, ya’ni amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan, daromadli mashg‘ulot bilan bilan band bo‘lishidir”[1], – deb ta’rif bergan.

Shuningdek, yetuk iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov, L. O. Ilinalar ushbu tushunchaga: “Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo‘lishi mumkin”[2], – deb izohlagan.

Mazkur ta’riflardan farqli o‘laroq, bizning fikrimizcha, ish bilan bandlik munosabatlari – mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichdir. Aholining ish bilan bandligi mehnat unumdorligining oshishiga va o‘z navbatida, milliy boylikning ham o‘sishiga xizmat qiladi, ayni paytda, ishsizlikning salbiy oqibatilari shundaki, u nafaqat ishlab chiqarishning pasayishiga, balki pirovardida qashshoqlikning boshlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi olim Artur Ouken ishsizlikning tabiiy darajadan ortishi bilan yalpi milliy mahsulot hajmining ortda qolishi o‘rtasidagi nisbatni matematik tarzda quyidagicha ifodalalaydi: “...agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1 foizga yuqori bo‘lsa, yalpi milliy mahsulot hajmi 2,5 foiz kamayadi yoki 2,5 foiz yalpi milliy mahsulot yo‘qoladi”.

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 ga teng. Ushbu nisbat iqtisodiy nazariyada Ouken qonuni deb nom oldi. Shu nisbatga asoslanib, yo‘qotilgan yalpi milliy mahsulotning mutlaq qiymatini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, ishsizlikning tabiiy darajasi – bu “normal” davrdagi me’yoriy inflyatsiya va barqaror o‘sish sur’atlari bilan ifodalangan darajadir. Shuning uchun ishsizlikning tabiiy darajasining ta’rifi anchagina murakkab ish, chunki bu ko‘rsatkichni hisoblab chiqish uchun “normal ishlovchi iqtisodiyot” modelini yaratish kerak bo‘ladi.

Ishsizlik tushunchasiga aniqlik kiritishda ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik iqtisodchi olimlar N. V. Lyasnikov, M. N. Dudin, Y. V. Lyasnikovlar ushbu tushunchani “Ishsizlik – bu shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy hodisaki, unda faol, mehnatga layoqatli aholining bir qismi o‘zi bajarishi mumkin bo‘lgan ishni topa olmaslik holatidir”[3], – deb ta’riflasalar, boshqa bir iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov, L. O. Ilinalar esa, “Ishsizlik – iqtisodiyotdagi shunday bir hodisaki, unda iqtisodiy faol aholining bir qismini ishsizlar tashkil etadi”[4], – deb ifodalaydilar.

Fikrimizcha, ishsizlik – bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo‘lmagan miqdoridir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, globallashuv sharoitida, gap tabiiy ishsizlik to‘g‘risida emas, balki uning ijtimoiy maqbul darajasi, ya’ni kadrlar qo‘nimsizligi va ish izlash davomiyligini, shuningdek, ishchi kuchining demografik tarkibi va mehnat bozoridagi tanglik darajasini (ishsizlikning bo‘sh ish joylari miqdoriga nisbati) va ijtimoiy tanglikni ham hisobga oladigan darajasi to‘g‘risida borishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida aholi ish bandligini shakllantirishning boshqa tamoyillari ham amal qiladi. Bunda davlat mavjud mehnat resurslaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish borasidagi monopoliyaga har qanday da’vogarliklardan voz kechadi. Shu asosda boshqa tamoyil – erkin tanlab olingan bandlik tamoyili, ya’ni qonuniy daromadlar manbaiga ega bo‘lgan mehnatga layoqatli aholining ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo‘lmaslik huquqi yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zining mehnat qilish qobiliyati (ishchi kuchi)ni tasarruf etish huquqi faqat uning egasiga, ya’ni xodimning o‘ziga tegishli bo‘lib, uni hech kim mehnat qilishga majbur qilishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni – ish bilan bandlikka bo‘lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik muammosi ijtimoiy muammo. Shunday ekan, eng yuqori darajadagi aholining demografik jihatlari

va undan samarali foydalanish hamda jvamiyat rivoji uchun yo‘naltilganligi ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Aholining ish bilavn bandligi muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi. Qanchalik darajada insonning ijtimoiylashuv darajasi yuqori bo‘lsa, shunchalik darajada inson kapitalining sifat darajasi o‘zgarib boradi.

Akademik Q. Abdurahmonov tomonidan “... ish bilan bandlikning eng kam deganda to‘rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog‘liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va, umuman, jamiyat farovonligining negizi bo‘lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o‘zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko‘paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag‘batlantiradi”[3], – deb ta’kidlanadi.

Darhaqiqat, ushbu yo‘nalishlar milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini qayta guruhlarga ajratish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish,turmush sifati darajasini oshirish yo‘llarini belgilab beradi. Bu g‘oyat muhim muammolardan biri ekanligi, COVID-19 Global Pandemiya sharoitida ish bilan bandlik muammolarini hal qilish, binobarin, muallif qayd etgandek, jamiyat farovonligining negizi bo‘lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish aynan butun iqtisodiyotni isloh qilishning muvaffaqiyati, mazkur muammoni e’tirof qilish va hal etishga ma’lum darajada bog‘liqligining guvohi bo‘ldik. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotining asosi aholi tarkibidan hududlar miqiyosida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Demografik rivojlanish ijtimoiy rivojlanishning bir qismi bo‘lganligi bois, uni davlat tomonidan tartibga solish siyosat darajasiga ko‘tarilgan. Unga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq. Masalan, Q. X. Abdurahmonov va N. K. Zokirovalar demografik rivojlanishning davlat tomonidan tartibga solinishiga quyidagicha ta’rif berishgan: “Demografik siyosat davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholining takror barpo qilinishi jarayonlarini tartibga solish sohasidagi aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyatidir”[4]. Rossiyalik taniqli demograf olimlardan V. G. Glushkovoy va Y. A. Simaginalar ta’kidlashicha, “Demografik siyosat – bu demografik natijalarni aniqlashtirishga erishish va aholining tabiiy harakatiga ta’sir etish uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan chora tadbirlar tizimidir”[5].

P. I. Kosov va A. B. Berendeyevalar tomonidan ancha aniq ta’rif ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra “Demografik siyosat – ijtimoiy va oilaviy siyosat bilan chambarchas bog‘liq. Ularni bazida farqlashga to‘g‘ri keladi. Ijtimoiy siyosat hayot sharoitlarini boshqarish va ehtiyojmandlarga yordam berish masalalarini o‘z maqsadlari ichiga oladi. Oilaviy siyosat esa davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining oilalarning tashkil etilishi, oiladagi turmush tarzi, jamiyat rivojlanishining uzoq tarixiy yo‘li yo‘qolib ketmasligi, oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ijtimoiy institut sifatida oilalarning mustahkamligiga yo‘naltirilgan faolyatidir”[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning fikrimizcha, mualliflar tomonidan demografik siyosatning ijtioiy va oila siyosatini chambarchas bozliqligini ular yashagan davr va mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta’rif bergan bo‘lishi mumkin. Mualliflar asoslaganidek, oiladagi turmush tarzi, jamiyat rivojlanishining uzoq tarixiy yo‘li, oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ijtimoiy institut sifatida oilalarning mustahkamligiga yo‘naltirilgan harakatlarning borligi bu haqiqat. Lekin holatda mualliflar tavsiya etayotgan ilmiy chimini bera olmadi. mulohazada oilaning mustahkamliga tayanch bo‘ladigan asosni ko‘rsata olmaganlar. Bizda ham oila bilan bog‘liq barcha institutlar mavjud faoliyat olib borayotgandi.Olib borilayotgan barcha chora-tadbirlarning samarasi keyingi yillarda o‘z yechimini topmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 12-fevraldagi selektr yig‘ilishida “....xususan, mahallalarda 18 mingdan ortiq xodim faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bo‘lsada, ularning ishi samarali tashkil etilmagan. Oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarning oldini olish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilmagan. Oqibatda ayrim mahallalarda notinch oilalar, huquqbuzarliklar ko‘paygan. Shuningdek, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari uchrayotgani juda achinarli” ekanligini qayd etib o‘tdi. Darhaqiqat, oilani uning ijtimoiylashuviga bevosita turtki bo‘ladigan mahalla bilan chambarchsligini ta’minlaydigan Mahalla va oila masalalari vazirligi tashkil etish taklifini bildirdi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lom-

3 Q. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zR FA «FAN» nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 257-b.

4 Abdurahmonov K.X va boshqalar. Demografiya. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 334-b.

5 В. Г. Глушковой, Ю. А. Симагина, Демография: учеб. пособие – М.: КРОНУС, 2013 – с.206

6 П. И. Косов, А. Б. Брендеева, Основы демографии: учеб. пособие – 2-изд. – М.: ИНФРА-М. 2013 – с.213-214

lashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5938-sonli Farmoniga muvofiq 2020-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Aholini ish bilan bandligini oshirishning demografik jihatlari xususan mazkur qarorda “... fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, aholini ish bilan ta’minlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida fuqarolar yig‘inlariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijtimoiy dasturlar, shu jumladan, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi, “Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi”, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi asosida imtiyozli kreditlar ajratish to‘g‘risidagi takliflari”i kiritilganligi mamlakatda iqtisodiy o‘sish tendensiyalari va istiqbollarini, mamlakat va uning hududlarining investitsion jozibadorligini oshirishga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatishga xizmat qiladigan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatiga beriladigan baholashning muhim ko‘rsatkichlari bandlik ko‘rsatkichi ekanligi, iqtisodiyotni sifatli inson resurslari bilan ta’minlash, xususan, oilalarda shakllanishi va yo‘naltirilishini e’tiborga olsak, bu ko‘p jihatdan hozirgi demografik vaziyatning barqarorlashuviga olib keladi.

Demografik vaziyatning barqarorlashuvi, bandlikning ushbu xususiyatlarini tahlil qilishning dolzarbligi aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlarning doimiy dinamikasi bilan belgilanadi

Demografik jihatlar, aholining ko‘payishi va tabiiy harakatlanishning zamonaviy muammolari, aholi siyosatining tahlili, xususan, hududlardagi demografik vaziyat, shuningdek, inson kapitalining rivojlanishini o‘rganishda tahlil qilinadi hududlarida aholining hayot darajasi va sifati demografik muammolar va turmush darajasi tahlil qilinadi). Shu bilan birga, ish bilan band aholining demografik xususiyatlarini tahlil qilishga yetarli darajada e’tibor berilmayapti (bandlarning yosh tarkibini o‘zgartirishning mintaqaviy jihatlari bilan birga) qator muammolarni yuzaga keltirayotgagligi hech kimga sir emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yer yuzida 7,5 mlrddan ortiq aholi istiqomat qiladi. 2019-yil dekabr oyida Xitoyda aniqlangan COVID-19 koronavirus (tojli virus) 186 dan ortiq mamlakatlar aholisining mehnat va kundalik faoliyatiga bevosita va bilvosita o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Pandemiya sharoitini mamlakatlardagi iqtisodiyot tarmoqlarining bir maromda yoki barqaror ishlashiga imkon bermaydigan vaznsizlik, yanada aniqrog‘i, inson hayoti va borlig‘ining asosi nafas olish asosi kislorod yetishmaydigan davrga tenglashtirsa bo‘ladi.

Pandemiya sharoiti butun dunyo afkor ommasi oldida muammolarni bartaraf etishda insoniyatning ojizligi, zaifligi sezilib qoldi. Aniqrog‘i “g‘alvir suvdan ko‘tarildi”.

Fan-texnika taraqqiyoti tomonidan erishilgan natijalar bu bizniki, butun dunyo aholisiniki. Xo‘sh, unda muammo qayerda? Nima uchun insoniyat ko‘zga ko‘rinmaydigan virusni bartiaraf etishda ojiz qoldi? Insoniyatning ojizligi nimada va qayerda? Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan toki shu kungacha qayerda xatoliklarga yo‘l qo‘yildi? Kim bilan va nima bilan hisoblashmadik?

Yer – insoniyat uchun Yagona makon. Buni 200 dan ortiq mamlakatlar va ularning geografik joylashuvidagi qulaylik yoki noqulaylik, bir necha din, 1000 dan ortiq millat va elat, turli xil urf-odat va qadriyatdar, mintalitet va boshqa ko‘rsatkichlar orqali yagona makonda hayot kechirayotganimizni asoslash mumkin.

Inson – jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mamlakatda nimaiki qilinmasin, hammasi inson uchun, uning hayotiy manfaatlari, farovonligi oilasi uchun qilinadi. Shuning uchun pandemiya sharoitida ish bilan bandlik masalasiga nafaqat ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishi yoki pasayishi, milliy boylikning oshishi yoki kamayishi nuqtayi nazaridan, balki birinchi galda, har qanday boylikning yaratuvchisi hisoblangan insonning o‘zi nuqtayi nazaridan qarash lozim. Insonlar aksariyat hollarda ijtimoiy faol iqtisodiy subyektlardir. Ular uchun ishning yo‘qotilishi nafaqat daromadlarning qisqarishini, balki o‘zini jamiyat uchun zarur deb his qila olmaslikni, ijtimoiy yo‘nalishning yo‘qotilishini, ish orqali o‘zini namoyon etish imkoniyatidan mahrum bo‘lishni anglatadi. Ishini yo‘qotgan, lekin ishlashni, mablag‘lar ishlab topishni va ushbu mablag‘lar hisobidan o‘z oilasini boqishni, farzandlarini o‘qitishni xohlaydigan inson ishsizlik oqibatida pirovardida kasbiy va intellektual nuqtayi nazardan tanazzulga uchrashishi e’tibordan xoli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan tahlillar va fikr-mulohazalar natijasida hosil bo‘lgan quyidagi xulosalarni beramiz:

- jamiyatda aholining ish bilan bandligini ta’minlash muammolarini bartaraf etishda nafaqat davlat, balki bozor munosabatlari sharoitida ish beruvchilar – korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, kompaniyalar, konsernlar va boshqa ishlab chiqarish tuzilmalari ham ma’suldirlar;

- ma’lumki yangi ish o‘rinlari, asosan, korxonalarda tashkil etiladi, demak, korxonalar birinchi navbatda aholining ish bilan bandligini oshirishning tashabbuskorlari bo‘lishlari lozim;
- korxonalar mazkur muammoni muvaffaqiyatli tarzda hal etgan holda insonlarni ishsizlikka uchrashdan himoyalaydi hamda jamiyatda tinchlik, to‘kin-sochinlik va farovonlikning saqlanishiga ko‘maklashadi;
- aholining bilan bandligini ta’minlash asosiy masala ekanligini e’tiborga olgan holda, tijorat banklariga va davlat jamg‘armalari tomonidan beriladigan imtiyozli (kam foizli) kreditlar berishda kasanachilik, asosan ish o‘rinlari yaratgan korxonalarga yoki firmalarga vakolat berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Экономика труда: учебник / А. И. Рофе.-2-е. – М.: КНОРУС, 2011.- с. 159.
2. Экономика труда: учебник /И. М. Алиев,Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.: Издательство Юрайт, 2012 – с. 123.
3. Экономика и социология труда: учебное пособие /Н. В. Лясников, М. Н. Дудин, Ю. В. Лясников. – М.: КНОРУС,2012. с. 79.
4. Экономика труда: учебник /И.М.Алиев,Н.А.Горелов, Л.О.Ильина. – М.:Издательство Юрайт, 2012. с. 123.
5. Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zR FA “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5938-son Farmoni.
7. 2020-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikai Prezidentining Qarori.

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Gafurov Anvar
PhD, Alfraganus university Iqtisodiyot kafedra mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasa (OTM)larida manfaatdor tomonlardan korporativ boshqaruv tuzilmasi va mexanizmi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishga qanchalik ahamiyat berilishi yoritiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha rivojlangan davlat OTMlarida korporativ boshqaruvining asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, korporativ boshqaruv, javobgarlik, yuksalish, shaffoflik.

Abstract: This article highlights the importance given to the disclosure of information about the structure and mechanism of corporate governance by stakeholders in Higher Education Institutions (HEIs). To achieve this goal, information on the main aspects of corporate governance is disclosed in several developed state enterprises.

Key words: Higher education institution, corporate governance, accountability, growth, transparency.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность, придаваемая раскрытию информации о структуре и механизме корпоративного управления заинтересованными сторонами в высших учебных заведениях (ВУЗах). Для достижения этой цели на ряде развитых государственных предприятий раскрывается информация об основных аспектах корпоративного управления.

Ключевые слова: ВУЗ, корпоративное управление, подотчетность, рост, прозрачность.

KIRISH

Davlat sektoridagi qarashlar – boshqaruvning kengroq to'plamiga chuqur singib ketishi asosida korporativ boshqaruv tizimi shakllanishiga zamin yaratdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlarda byurokratik tizimni kamaytirish asosida boshqaruvda samaradorlik va shaffoflik ko'rsatkichlarining yuqorilash orqali yangi davlat boshqaruvi (New public management)ning shakllanishiga poydevorni yardi.

Rivojlangan davlatlardagi ushbu yangi davlat boshqaruvining asosi ham osmondan olinmadi, shunchaki xususiy sektor boshqaruv usullari davlat sektoriga o'zlashtirish asosida shakllandi. O'zlashtirilgan usullarga asosan quyidagi jihatlarini kiritishimiz mumkin:

- markazlashmagan boshqaruv;
- natijalarga asoslangan moliyalashtirish;
- rejalashtirilgan natijalar bo'yicha hisobdorlik;
- strategik boshqaruv va rejalashtirish;
- shartnomaga asoslangan munosabatlarni qabul qilish;
- boshqaruv madaniyatini mustahkamlashib borish [1].

So'nggi yillarda New Public Management uslubidagi yangi islohotlar Yevropa mamlakatlaridagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarishga ham katta ta'sir ko'rsatishni boshladi. A'zo mamlakatlar soni oshib borayotgan ittifoqda OTMlar o'zlarining moliyaviy va inson resurslarini boshqarishda, ta'lim jarayonida, tadqiqot dasturlari va talabalarni qabul qilish hajmi bo'yicha qaror qabul qilishda yuqori mustaqil bo'lishga olib kela boshladi. Ushbu mustaqillik darajasini ortishi natijalarga asoslangan moliyalashtirish manbalari ham birika boshladi: davlat mablag'lari tobora ortishi, mahsulot yoki natija ko'rsatkichlari sifatida ifodalangan maqsadlarga erishish uchun bog'liq darajasi ortdi [2].

XXI asr OTMlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni qabul qilishi zarur va korporativ boshqaruv kabi xususiy sektor modellariga amal qilish tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ushbu tizimga rioya qilgan holda, OTMlar korporativ siyosat va rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda tajribaga ega bolgan va rahbarlik qilish hamda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozimligini ko'rsatadi.

Mazkur korporativ boshqaruv tuzilmasi oliy ta'lim muassasalarining nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini amalga oshirishi, uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishi, o'z missiyasi va strategik qarashlarini aniqlashi, asosiy faoliyat va samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi hamda yillik byudjet harajatlarni belgilashi va nazorat qila olishiga imkon yarata oldi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish universitet boshqaruvini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun harakatlantiruvchi vosita sifatida ifodalash mumkin, chunki u strategiyalarni belgilashda kollegial nazorat va boshqaruvi orqali samaradorlik olib keladi [3]. Shuningdek, ushbu tizim OTMning boshqaruvida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga (boshqaruvni shaffof bo'lishiga) yoki o'sib borayotgan raqobatga bardosh berishga (yangi ta'lim yo'nalishini joriy etish yoki dolzarbligini yo'qotayotgan yo'nalishni tugatish), reyting pozitsiyalarini yaxshilash, xarajatlar uchun chegaralarni belgilash va kengroq hamjamiyat uchun ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy majburiyat bilan tavsiflangan munosabatni qabul qilish imkonini beradi. Universitet faoliyatini yanada samaraliroq qilish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, kollegial organlar taklif etilayotgan yo'nalishlar ko'lamini takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan [4].

OTM mustaqillik darajasini mustahkamlash uchun korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishi kerak, shu bilan birga, jamiyatga nisbatan oshkoralik va natijalar ustidan nazoratni kuchaytirishga sababchi bo'ladi. Universitetlar boshqaruvi mustaqil, hisobdorlik va baholashni bog'lashi kerak. Shu maqsadda bizning OTM-larida ushbu tizimning boshlangich qadamlari qo'yilgan, jumladan, O'zbekiston Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 35 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Horijlik tadqiqotchilar Richard Murnane va Richard Nelson o'zlarining "Improving the Performance of the Education Sector: The Valuable, Challenging, and Limited Role of Random Assignment Evaluations" [5] maqo-lasida ta'lim tizimi, undagi boshqaruv haqida o'z izlanishlarida tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular asosan ta'lim sifati hamda uning ijobiy oqibatlari haqida qarashlarini yoritishgan.

Giancarlo Corsi o'zining "Education Reform as a Global Phenomenon" [6] nomli maqolasida ta'lim sohasidagi reformalarning salbiy va ijobiy oqibatlarni yoritgan. Joseph Zajda esa "Discourses of globalisation and higher education reforms" [7] nomli izlanishda globallashuvning oqibatlari haqida o'z qarashlari bilan o'rtoqlashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shu-ningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhoka-malari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.

TAHLIL VA NATIJA

O'zbekiston aholisi tez sur'atlarda o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatizmizni demografik ko'rsatkichini tahlil qilishimizdan maqsad, aholining qancha qismi ayniqsa yoshlar o'rtasidagi OTMlarga qamrov proporsiyani aniqlash uchun zarurdir. Endi, O'zbekistonning 2016-yildagi demografik ko'rsatkichi 31,5 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yilda 32,1 mln. nafarga yetgan, ya'ni 545 ming kishiga ko'paygan yoki 1.6 foizga ko'paygan (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston demografik ko'rsatkichi, ming nafar

Demografik ko'rsatkichning 2018 va 2019-yillarida 599 ming kishi (1,8 foiz)ga, 2020-yilda 650 ming kishiga, 2021-yilda 653 ming kishiga, 2022-yilda 713 ming kishiga va 2023-yilda esa 36 mln. kishi (2.09 foiz) ga ko'paygan. Endi, umumiy ko'rsatkich bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, 2016–2023-yillar oraligida o'rtacha 654 ming kishiga yiliga o'sish bo'lgan, foiz ko'rinishida esa o'rtacha 0,14 dir.

Keyingi jadvalda, aholining asosiy qismi ya'ni 15-19 yoshlar orasidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich OTM yoshiga yetganlarni hamda topshirish proporsiyasini aniqlashimiz uchun zarurdir (2-rasm).



2-rasm: O'zbekiston demografik ko'rsatkichining 15-19-yoshlar orasidagi ulushi (ming kishi)

Hozirgi kunda respublikamizda ham sezirarli darajada umumiy ta'lim muassasalari soni nodavlat soha vakillari hisobiga o'sib bormoqda, jumladan, 2019-yilda Respublika bo'yicha jami 10 090 ta maktablar bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 10 181 ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz ko'p)ga, 2021-yili 10 289 ta (oldingi yilga nisbatan 2 foiz ko'p)ga va 2022-yilda 10 522 ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz kamaygan) ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm: O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari soni

Endi, shu yillar davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olgan o'quvchilar soni ham tahlil qilib chiqadigan bo'lsak. Demak, 2022-yilda 10 522 ta maktab dargohlarida 6 461 ming o'quvchi tahsil olgan bo'lib, bu degani 1 maktabda 615 nafar o'quvchu o'qiydi degani. Endi 2021-yilga nisbtan 3 foizga o'quvchilar ko'paygani ko'rishimiz mumkin, maktablar soni bo'yicha ko'radigan bo'lsa, respublika bo'ylab 233 ta yangi maktab dargohi qurilgan bo'lmoqda (4-rasm).



4-rasm: O'zR umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar soni ming nafar

Maktab o‘quvchilarini yiliga o‘rtacha ko‘payish hajmini ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yildan 2022-yilga qadar yiliga 235 ming o‘quvchilar soniga ko‘payib borgan. Maktablar soni ham tahlil qiladigan bo‘lsak, yiliga o‘rtacha 115 ta maktab soniga oshib borganini ko‘rishimiz mumkin. 2016-yildan 2022-yilga qadar, yangi qurilgan maktablar soni 7,63 foizga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Maktab o‘quvchilar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak 2016-yildan 2022-yilga qadar 25-foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot ishimizning keying rasmida maktab bitiruchilar soni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yilda 475 ming o‘quvchi bitirgan bo‘lsa, jami 2016-yilda bitiruvchilarning 9.8 foizi tamomlashgan. O‘quv yilining 2016-yilida jami 5263 ming o‘quvchidan 466 ming (8.85 foizi) bitiruvchilari tamomlashgan. O‘quv 2018-yilida 475 ming o‘quvchi bitirishgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbatan 2 foizga ko‘p bitirishgan (5-rasm).



5-rasm: Maktab bituruvchilar soni ming nafar

O‘quv yilining 2019-yilida 280 ming bitiruvchilar maktabni tamomlashgan bo‘lsa, 2018-yilga nisbatan 41 foizga kamaygan bo‘lib, shu yili barcha maktab o‘quvchilarining 4.54 foizidir. O‘quv 2020-yilida 174 ming (38 foiz)ga ko‘paygan bo‘lib. Shu 2020-yildan 2022-yilga borib, yana kamayish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin, 2021-yilda 2020-yilgan nisbatan 12 ming nafarga bitiruvchilarni ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda esa yana 54 mingga kamayagani ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy maktab bitiruvchilar o‘z navbatida nechtasi OTMlarga topshirganini tahlil qilishi uchun eng avvalombor, respublikamizda nechta oliy ta’lim muassasalar sonini bilib olishimiz zarur. O‘zbekistonda 2016-yilga qadar OTM soni 70ta bo‘lgan bo‘lsa, keying yilda esa 2ta yangi ochilganligi sababli 72 taga yetdi (6-rasm).



6-rasm: O‘zbekiston Respublikasida OTM soni

Keyingi 2018-yilda yangi va OTM filialining ochilishi sababli 98 taga yetdi, 2017-yilga nisbatan 26 taga ko‘paydi. OTMlarning soni 2019-yilda yana yangi 21 ta yangi ilm dargohlarning ochilishi sababli 119 ta bo‘ldi. Pandemiya sababli 2020-yilda yangi OTMlar soni 127 ta yetdi, boshqacha qilib aytganda 9 ta yangi OTM ochilganini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yangi 2021–2022-o‘quv yili uchun 154 ta OTMlar faoliyatini boshlagan bo‘lsa, bu 2018-yilga nisbatan 27 taga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

OTMlar soni yana o‘sishda davom etib, 2022-yilda ularning soni 191 taga yetdi va eng ko‘p ochilgan OTMlar soni shu yilda amalga oshirildi. Keyingi 2023–2024-o‘quv yilida O‘zbekistonda 212 ta OTM faoliyatini yurita boshladi. Endi yuqoridagi maktab o‘quvchilari haqida statistik ma’lumotlarni berishning asosiy maqsadi, OTMga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun tahlil sifatida ko‘rsatildi. Hozirgi kunda (2023-yil oktyabr) respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra [8] umumiy 212 ta OTMlar 3 turga arjatishimiz mumkin, bular:

- Davlat – 116 ta;
- Nodavlat – 66 ta;
- Xorijiy – 30 ta.

Keyingi jadvalda OTMlarga hujjat topshirganlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2016-yilda 673 ming abuturiyent hujjat topshirgan bo‘lsa, OTMlar soni 70 ta bo‘lgan. Demak, o‘rtacha hisob kitoblarga binoan 1 OTMga o‘rtacha 9615 ta abuturiyent to‘g‘ri kelgan. Keyingi 2017-yilda hujjat topshiruvchilar soni 113 ming nafar (14 foiz) ga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin, ushbu yilda maktab bitiruvchilar soni 466 mingda bo‘lgan bo‘lsa, bitiruvchilarga qaraganda 40 foiz ko‘proq hujjat topshirganlar bo‘lishgan (7-rasm).



7-rasm: OTMga hujjat topshirganlar soni ming nafar

Keyingi 2018-yilda hujjat topshiruvchilar soni 813 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbata 4 foizga ko‘pdir. Shu yili maktabni bitirganlar soni esa 475 ming nafarni tashkil etgan. OTMlar soni esa 98 ta bo‘lgan bo‘lsa, o‘rtacha bir universitetga 8295 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Keyingi 2019-yilda hujjat topshiruvchilar soni 1 mln. 157 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilga nisbatan 344 ming hujjat topshirganlarga ko‘pdir. Keyingi 2020-yilda esa 1 mln. 820 ming nafar hujjatlar topshirgan soni bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga nisbatan 663 ming nafarga ko‘pdir, bu farqli ko‘rsatkich 2016-yilda hujjat topshirganlar soni bilan bir hildir.

2021-yilga kelib hujjat topshiruvchilar sonida keskin kamayishni kuzatishimiz mumkin, sal kam 500 ming nafarga yoki 34 foizga kamdir. Shuningdek, ushbu yilda OTMlar soni respublika bo‘yicha 191 tani tashkil etgan bo‘lsa, maktab bituruchilar soni 442 mingni tashkil etgan. Keyingi 2022-yilda esa hujjat topshiruvchilar soni 1656 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2021-yil bilan solishtirganda sal kam 400 ming nafar yoki 27 foizga ko‘pdir.

OTMlarga qabul qilingan talabalar sonini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Demak 2016-yili 475 ming nafar o‘quvchi maktabni bitirishgan bo‘lsa, 70 OTMga 673ming nafari hujjat topshirishgan, shunda 61 200 tasi talaba maqomiga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu 9 foizi talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi degani, qolgan 91 foizi yani 610 ming tasi o‘qishga kira olmadi degani.

2017-yilda esa 466 ming nafar maktab bitiruchilari bilan 320 nafar oldingi yillarda OTM kira olmaganlar jami 786 ming nafar abuturiyent hujjat topshirishga 72ta OTMda talaba bo‘lish uchun, lekin atiga 63 ming nafari talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Qiziq tomoni qabul paramateri sal kam 2.9 foizga ko‘paygan 2016-yilga nisbatan, bu yilda O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichida 15-19 yoshlardagilarning ulushi 2 mln. 658 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami aholi ko‘rsatkichimiz esa 32 mln. kishi tashkil etgan paytda (8-rasm).



8-rasm: OTMlariga qabul qilingan talabalar soni ming kishi

Keyingi 2018-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichi 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan, maktabni bituruvchilar soni 476 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 813 ming abuturiyent 98ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 114 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 14 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak sal kam 44 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

2019-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichi deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan maktabni bituruvchilar soni 480 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 1 157 ming abuturiyent 119 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 138 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 11 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak sal kam 17 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

2020-yilda 15-19 yoshli aholi ko‘rsatkichi deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 10181 ta maktabda tahsil olayotgan 6.2 mln. O‘quvchidan 454 ming bitiruchilar 127 ta OTMga jami 1.8 mln. abuturiyent hujjat topshirishgan bo‘lib, ulardan 9.6 foizi yoki 175 ming nafari talaba bo‘lishgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatar 21 foizga ko‘p degani.

O‘zbekistonning demografik ko‘rsatkichi 2021-yilda 34.5 mln. kishini tashkil etgan bo‘lib, shundan 15-19 yoshdagilar soni 2.5 mln. bo‘lib, shu yilda barcha maktab muassasalari soni 10289 tadan 442 ming bitiruvchilar bilan birga jami 1.2 mln. abuturiyent hujjatlarini 154ta OTMga kirish uchun topshirishgan, faqatgina 236 ming nafari yoki 19 foizi talaba bo‘lishgan.

2022-yilda maktabni bituruvchilar soni 388 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami 1 656 ming abuturiyent 191 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 282 minggi talaba bo‘lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 17 foizi talaba bo‘ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo‘lsak, sal kam 16 foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda 2023-yilda respublikamizda 212 ta OTM faoliyat yurutib kelmoqda, ushbu OTMlarda jami 1 203 125 nafar talaba tahsil olib kelmoqda. Agarda jins vakillari bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, erkak talabar soni 601 325 va ayol talabalar soni esa 601 800 ni tashkil etadi (9-rasm).

9-rasm: OTMda tahsil olayotgan talabalar jins bo‘yicha tarkibi

Ushbu talabalarning 1,203 ming talabalarga 212 OTMning quyidagi o‘quv shaklida tahsil olishadi:

- Kunduzgi;
- Sirtqi;

- Kechki;
- Qo‘shma;
- Masofaviy.

Agarda o‘quv shakli bo‘yicha tahlilni amalga oshiradigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz, ya’ni kunduzgi ta’lim shaklida 657 ming talaba, sirtqi ta’lim shaklida 482 ming va kechki ta’lim shaklida salkam 44 ming talabalar tahsil olib kelishadi (10-rasm).



10-rasm: OTMlarda o‘quv shakli kesmida tahsil olayotgan talabalar soni

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yildagi statistik ma’lumotiga ko‘ra, 1 203 ming talabalarning kunduzgi ta’lim shaklida 657 ming (54 foizi) nafari tahsil olib kelmoqda, sirtqi ta’limda esa 482 ming (40 foizi) talabani qamrab olgan bo‘lsa, kechki 43 ming (3.65 foiz), qo‘shma 11 ming (0.9 foiz) va masofaviy ta’lim shaklida esa 8 ming (0.6 foiz) tahsil olishmoqda.

OTMlar bitiruvchilar sonini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagicha ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Tahlilimizning 2016-yilda respublikada 70 ta OTMlar faoliyat yurutayotgan paytda 61,2 ming talaba qabul qilingan bo‘lib, 67,2 ming talaba bitirishgan. Endi kirganlar bilan bitirganlar soni 6 ming kishiga ko‘pdir, sababi 2016-yilda qabul qilinganlar 2020-yilda bitirishadi reja bo‘yicha, 2016-yilda bitirayotgan talabar esa 2012-yilda OTMga kirgan hisobidir. Keyingi 2017-yilda respublika bo‘yicha 63 ta OTMlarni 66,3 ming talaba bitirishgan bo‘lsa, shu yilda hujjat topshirganlar soni 786 ming nomzod bo‘lgan. Keyingi 2018-yilda faoliyat yurutayotgan OTMlar soni 98ta bo‘lib, ularni bitiruvchilar soni 64,1 ming bo‘ldi (11-rasm).



11-rasm: OTMni bitirgan talabalar soni ming nafar

Keyingi yillarni tahlil qilayotgan, shu tahlil yilidan 4 yil oldingi yil bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlilimizning keyingi 2019-yilida, respublikamizda faoliyat yurutayotgan OTMlar soni 119 tani tashkil etgan bo‘lsa, lekin bu 2019-yilda bitiruvchilar soni 2016-yilda OTMlarga hujjat topshirib kirganlardir. Shu sababli 2016-yilda 673 ming abuturiyent hujjat topshirib, ulardan 61,2 minggi talaba bo‘lishgan bo‘lsa, ushbu kirgan talabalarning 67,4 minggi yoki 9 foizga ko‘proq kirganlarga nisbatan tamomlashgan. Bunday tavofutni bo‘lishga sabab, ayrim talabalar akademik ta’til olib, kechroq bitirganlar sababdir.

Tahlilimizning 2020-yilida 70,8 ming talaba tamomlashgan bo‘lsa, ushbu bitiruvchilarning 2017-yildagi 72 ta OTMlarni bitirganlardir, ushbu 2017-yilda 786 ming abuturiyent topshirishgan bo‘lsa, ulardan 63 minggi talaba

bo‘lishgan. Keyingi 2021-yilni tahlil qilish uchun, 2018-yildagi 813 ming abuturiyent hujjat topshirishgan bo‘lib, ularda 114,5 minggi talaba bo‘lishgan bo‘lib, shu 114,5 mingdan salkam 84 minggi tamomlashgan. 2022-yilda, OTMlarni 104 ming bitiruvchi tamomlagan bo‘lsa, bu bitiruvchilar 119 ta OTMlarga 2019-yilda hujjat topshirgan abuturiyentlardir 1157 mingdan 138,1 mingi talabalik maqomiga loyiq bo‘lgan talabalardir.

Endi respublikamizda faoliyat yurutayotgan OTMlar bo‘yicha qamrov olish darajasini tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Respublikamizda 2016-yilda 9719 ta umumiy maktablarni 475 ming bitiruvchilar bitirishgan bo‘lib, 70 ta OTMlariga hujjat topshirishgan qamrov darajasi 9 foizni ko‘rsatgan (12-rasm).



12-rasm: OTMlariga talabalarini qamrov darajasi

2017-yili respublikamizda 72 ta OTM faoliyat yurutib qarov darajasini 11 foizga ko‘tarishdi 63 ming nafar talabarlarni qabul qilish orqali, 2018-yilda qamrov darajasi 15 foizga yetib 114 ming talabani jalb etishga erishildi. 2019-yilda 138 ming talabani talabalik safiga qo‘shish natijasida qamrov darajasi 20 foizga yetdi. 2020-o‘quv yilida qamrov darajasi 25 foizga yetdi, 127 ta OTM bilan salkam 175 ming nafar talabalarni qabul qilishdi. Talabalarni 154 OTMlarga qamrov darajasi 2021-yilda 28 foizga ko‘tarildi 154 ta OTMning faoliyat yurutayotgani sababli 236 ming talablarni talabalar safiga qo‘shilishiga sababchi bo‘ldi. O‘quv yilining 2022-yilida esa respublikamizda faoliyat yurutayotgan 191 ta OTMlar sababli 282 ming talabalik maqomiga ega bo‘lish orqali qamrov darajasini 38 foizga oshirishga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilga borib 50 foizga chiqarish rejalashtirilgan.

XULOSA

Respublikamizda olib borayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar o‘z navbatida yangi boshqaruv tizimini kirib kelishiga zamin yaratadi. Bu tizim esa, yangicha yondashuvlarni chaqiradi, bu esa rivoj topayotgan mustaqil davlatning ajralmas qismidir. Oliy ta’lim muassasalari o‘z vazifalarini bajarish uchun ustuvor yo‘nalishlarni va shunga mos ravishda maqsadli resurslarni aniqlashi kerak. Universitetlar strategiyalarni aniqlay olmasalar, ustuvorliklarni belgilay olmasalar, o‘qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olmasa va amalga oshira olmasa hamda umuman o‘z tuzilmalari va tashkilotlarini o‘zgaruvchan muhitga moslasha olmasa, samarali va mustahkam bo‘lolmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aucoin, P. 1990. Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums. Governance 3(2): 115–137.
2. Leitner, K.H., Elena, S., Fazlagic, J., Kalemis, K., Marinaitis, Z., Secundo, G., Sicilia, M.A., and Zaksa, K. 2014. A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series.
3. Florez, J.M., M.V. Lopez, and A. Lopez. 2014. Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking. Revista de Educacio´n 364: 170–196.
4. Trakman, L. 2008. Modelling university governance. Higher Education Quarterly 62(1/2): 63–83.
5. https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations.
6. https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon.
7. https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, https://stat.edu.uz/
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida muallif ishlanmasi.

IQTISODIYOTNI GLOBALLASHUV SHAROITIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING PUL MABLAG‘LARINI XALQARO VA MAHALLIY USLUBIY YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmanov Ulugbek Anorbayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida jahonning turli mamlakatlarida har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt joriy aktivlar tarkibidagi mavjud pul mablag‘laridan samarali foydalanish va uning tahlilini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: joriy aktivlar, pul mablag‘lar, bankdagi pul mablag‘lari, naqd pul, mayda pul mablag‘lari, naqd pul ekvivalentlari, banklardagi omonatlar, oxirgi kurs uslubi, joriy kurs uslubi, monetar uslub.

Abstract: In the context of economic globalization, special attention is paid to scientific research aimed at improving analysis and full use of available funds in the form of assets of a large economic enterprise.

Key words: current assets, cash, cash at bank, current accounts, cash in hand, petty cash, (cash equivalents) (bank deposits), current rate method, non-current method, non-monetary method.

Аннотация: В условиях глобализации экономики особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на совершенствование анализа и полное использование имеющихся средств в виде активов крупного экономического предприятия.

Ключевые слова: оборотные активы, денежные средства, баланс банка, денежные средства, мелкая наличность, денежный эквивалент, банковский депозит, денежный поток, остаток денежных средств, монетарный стиль.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda pul mablag‘laridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Jumladan, joriy aktivlar harakatiga baho berish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni xo‘jalik jarayoniga jalb qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish muhimdir. Joriy aktivlar qisqa muddatli ishlatish uchun mo‘ljallangan va bir ishlab chiqarish sikl davomida naqd pulga aylantiriladigan mablag‘lar sanaladi. Shu sababli ularni samarali tashkil etish va boshqarish uchun qanday mezonlarga ko‘ra turkumlanishi, tuzulmasi hamda tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nisbat qanday bo‘lishligi kabi jihatlarini o‘rganish dolzarbdir.

Joriy aktivlarni o‘rganishda pul mablag‘lari alohida o‘rinni egallaydi. Bunday mablag‘lar kassa, hisob-kitob, valyuta schotidagi pullar tushuniladi. Mazkur joriy aktivlar munosabatlarini to‘lov majburiyatlarining bajarilishida birlamchi vosita bo‘lib hizmat qiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta schotidagi mablag‘lar mahsulot etkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug‘urta va boshqalar bilan bo‘ladigan aloqa manbaidir. Shu tufayli ushbu masala alohida o‘rganilishi lozim.

Pul mablag‘lari hisob-kitobi – kreditorlarga xo‘jalik subyektining kreditga bo‘lgan tig‘iz talabini baholash uchun va operatsion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun etarli darajadagi pul mablag‘larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi, shuningdek, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashda hamda qarzdorlarning mavsumiy tijorat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlashda majburiyatlar qoplanishining imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Bundan ko‘rinadiki, bozorda

iste'mol talabining pasayishi davom etayotgani narx-navo oshishini chegaralab turganligiga, qayerdadir deflyatsiya mavjudligiga qaramay, avvalo, pul mablag'larining ulkan emissiyasi hisobidan banklar likvidligini saqlab turish maqsadida banklar va moliyaviy sektorlarning juda katta miqdorda pul kreditlari bilan to'ldirilishi bir qator mamlakatlarda inflyatsiya jarayonlarining keskin kuchayib ketish xavfini yuzaga keltirdi. Bunday holat xo'jalik subyektlarining ham pul mablag'larini to'g'ri boshqarishni talab etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyatini yuritishda asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi keltirilgan. Shuningdek, ushbu qonun bilan birga bir qator BHMSlar ham joriy aktivlarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi. Xususan, 9-sonli "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot" nomli BHMS, 15-sonli "Buxgalteriya balansi" nomli BHMSlar orqali joriy aktivlar hisobi tartibga solib boriladi.

BHXS doirasida pul mablag'lari sifatida quyidagilar tan olinadi:

- pul mablag'lari: bankda (sash at bank, surrent assounts), naqd pul (sash in hand), mayda pul mablag'lari (rettu sash); naqd pul ekvivalentlari (sash equivalents); pul hujjatlari: yozuvlar (notes), cheklar (shesks), banklardagi omonatlar (bank derosits);
- moliyaviy instrumentlar (moliyaviy investitsiyalar): uzish muddati ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar, ulardan bir yil davomida olinadigan daromadlar, muddati belgilanmagan debitorlik qarzdorlik.
- bo'naklar va oldindan to'lanadigan to'lovlar;
- oldindan to'langan va kechiktirilgan xarajatlar.

IFRS (BHXS)ga muvofiq chet el valyutasini milliy valyutaga konvertatsiya qilish (hisoblab o'tkazish) bir nechta usullar orqali amalga oshiriladi:

- **oxirgi kurs uslubi** (surrent rate method; slosing rate – amer.). Joriy hisob aktivlari va majburiyatlari (oyiga, haftasiga) joriy va o'rtacha kurslar bo'yicha baholanadi;
- **vaqtinchalik (yoki temporal) usul.** Joriy hisob-kitoblardagi aktivlar va majburiyatlar amaldagi stavkalar bo'yicha baholanib, pul muomalasining eng so'nggi nisbati, bozor qiymati bo'yicha investitsiyalarni qayta baholash yo'li bilan aniqlanadi;
- **joriy kurs uslubi** (surrent, non-surrent method). Qisqa muddatli aktivlar va majburiyatlar qayta baholash orqali joriy kurslar bo'yicha hisobga olinadi;
- **monetar uslub** (monetaru, non-monetaru method). Pul moddalari joriy kurslar bo'yicha oxirgi valyuta kursida qayta hisob-kitob qilinadi, nomoliyaviy moddalar joriy narxlarda qayta baholanmaydi. Pul obyektlari muayyan miqdordagi pulni olish huquqini (majburiyatini) anglatadi;
- **o'zgartirilgan (modifikatsiyalangan) joriy kurs usuli** (modified surrent rate method). Balans oxirgi kurs bo'yicha qayta hisoblab chiqiladi. Ko'pgina mamlakatlarda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot o'rtacha aniqlangan so'nggi kurs bo'yicha hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda naqd pul muomalasi 32-son IAS va 39-sonli "Moliyaviy-qimmatli qog'ozlar" va 7-son IFRS "Pul oqimi hisobotlari" bilan tartibga solinadi. 32-son (IAS) BHXSda pul mablag'lari ayirboshlash vositasi, barcha kelishuvlarni baholash va tan olish vositasi sifatida qaralgan. 7-son (IAS) BHXSda esa pul mablag'lari sifatida korxona kassasidagi, joriy va boshqa schotlaridagi pullar tan olingan.

7-son (IAS) BHXSda, SFAS 95 da pul mablag'lari singari yuqori likvidli bo'lgan pul ekvivalentlari tushunchasiga ham ta'rif keltirilgan. Pul ekvivalentlari bu qisqa muddatli (asosan 3 oygacha muddatda) yuqori likvidli oldindan ma'lum summa miqdoridagi pul mablag'lariga aylantirish imkoniyatiga ega va qiymatining o'zgarish riski juda past bo'lgan qo'yilmalardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pul mablag'lari to'g'risida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalariga to'xtalib o'tamiz:

K. R. Subramanyamning fikricha "Pul mablag'lari – bu kassadagi naqd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lar".

Iqtisodchi olim I. Abdukarimov "Naqd pullar va talab qilib olunga qadar depozitlar, shuningdek hisob-kitob, valyuta va bankdagi boshqa schotlardagi mablag'lar" - deya talqin qilingan.

D. Mavlyanovaning fikricha "Naqd pul va pul oqimlarini boshqarish muayyan rivojlanish strategiyasiga bog'liqdir. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ko'pchiligida pul oqimlarini shakllantirish ularning qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi bilan bog'liq: asosiy (yoki operatsion), moliyaviy va investitsion".

Xo‘jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag‘lari oqimi to‘g‘risidagi axborotlar muhim rol o‘ynaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar barcha darajadagi biznesmenlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda, u korxonalar ma’muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Xo‘jalik yurituvchi subyekt menejerlari mazkur ma’lumotlardan foydalanib korxona likvidliligini o‘rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta’minoti va byudjet bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yaratilgan asosiy daromad keltiradigan faoliyati qanchalik bo‘lishidan qat’iy nazar pul mablag‘lariga muhtojlik seziladi. Pul mablag‘lari biznes muomalalarini amalga oshirish, majburiyatlar va dividendlarni to‘lash uchun zarur.

Ushbu jarayonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiyotini statik holat sifatida ko‘rib bo‘lmaydi. Pul mablag‘lari uzoq muddatli va joriy aktivlarga, shuningdek, tashqi investitsiyalarga yo‘naltirilishi mumkin. Pul mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat turiga bog‘liq. Kreditorlik qarzlari mablag‘larning chiqib ketishini sekinlashtiradi, debitorlik qarzlari esa tashkilot tomonidan olingan pullarning qaytarilishini sekinlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul mablag‘larini boshqarish xo‘jalik yurituvchi subyektning bir me’yorda ishlashini ta’minlash uchun ularning etarliligini baholashni o‘z ichiga olishi kerak. Pul mablag‘larini tahlil qilish jarayonida ularning kelib tushishi (kirimi) va to‘lov (chiqimi) manbalari baholanadi.

Pul mablag‘larining kirimi xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy farovonligining asosiy shartlaridan biri bo‘lib, uning joriy majburiyatlarini qoplashlikni ta’minlaydi. Buning uchun kelajakdagi pul mablag‘lari va aktivlar oqimi hamda kelajakdagi to‘lovlar hisoblab chiqiladi. Pul oqimlarining kirimi mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushumlar, debitorlik qarzlarining qisqarishi va boshqa pul tushumlarini o‘z ichiga olsa, uning chiqimi esa sotilgan mahsulot tannarxi, kreditorlik qarzlarining qisqarishi, boshqa pul mablag‘larining sarfi va hakozolardan iborat.

Pul oqimining prognozi kamomad yoki ortiqcha bo‘lishini ular paydo bo‘lishidan oldin kutish imkonini yaratadi va shu bilan birga amalga oshirilgan harakatlarni tuzatish uchun etarlicha vaqt mavjud bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlarining bir qismini pul shaklida saqlash hisob-kitoblarni amalga oshirish va foydali bitim sodir bo‘lgan taqdirda pul mablag‘laridan darhol foydalanish imkoniyatiga egadir. Pul oqimlarini prognoz qilish uchun quyidagilar bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lishi zarur:

- majburiyatlarning miqdori va muddati;
- kelgusi yil davomida mahsulot (ish va xizmat)larni sotishning rejalashtirilgan hajmi;
- o‘tgan davrdagi pul oqimlarini miqdoriy baholash.

Ortiqcha pul mablag‘larini kelib tushishi, ma’lum muddatga va joriy majburiyatlarni to‘lash, inventarlarni sotib olish uchun pul mablag‘lari taqchilligini aniqlashda pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot kerak bo‘ladi. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot moliyaviy hisobotning boshqa shakllari bilan birgalikda foydalanuvchilarga quyidagilarni baholash imkonini beruvchi ma’lumotlarni olish imkonini beradi:

- o‘tgan davr uchun pul oqimlarining o‘zgarishi;
- sof aktivlardagi o‘zgarishlar;
- likvidlik va to‘lov qobiliyatining o‘zgarishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ayrim turlarining samaradorligi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish qobiliyatini baholash va ularga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash uchun zarurdir. IAS 7-son “Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot” xalqaro moliyaviy hisobot standartining maqsadi operatsion (joriy), investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqqan pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarining tarixiy o‘zgarishlari to‘g‘risida ma’lumot berishdan iborat ekanligi bejiz emas.

Mamlakatimizda pul oqimlarini tahlil qilish uchun asosiy hujjat “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot”dir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar prognoz qilingan diskontlangan pul oqimlarini ularning joriy qiymatlari bilan taqqoslash uchun modellarni ishlab chiqishga imkon beradi. Pul oqimlari haqidagi ma’lumotlar ko‘pincha kelajakdagi pul oqimlarining miqdori, uning vaqti va aniqlik ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, kelajakdagi pul oqimlarining oldingi taxminlarining to‘g‘riligini tekshirish, rentabellik va sof pul oqimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirishda foydalidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektdagi haqiqiy pul oqimini aniqlash, mablag‘larning kelib tushishi va sarflanishining muvofiqligini baholash uchun, shuningdek, olingan moliyaviy natijaning qiymatini xo‘jalik yurituvchi subyekti mablag‘larining holati bilan bog‘lashda pul mablag‘lari kirimi hamda ularni tasarruf etish yoki chiqimining barcha yo‘nalishlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy holatni baholashning boshqa yondashuvlaridan farqli o‘laroq, pul oqimlarini tahlil qilish:

- xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan olingan mablag‘lar miqdori va qanday manbalardan olinganligi hamda ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari haqida ko‘proq asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z mablag‘lari investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun etarliligi;
- olingan foyda miqdori va mablag‘larning mavjudligi o‘rtasidagi tafovutlarni tushuntirishi;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish xo‘jalik subyektlarda yuqori likvidli joriy aktivlarga bo‘lgan ehtiyoji har doim ham bir xilda ta’min etilmaganligi;
- qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik subyektlarda mahsulotlar narxining mavsumga bog‘liqligi va buning natijasida pul mablag‘lari harakatida o‘zgarishlarning yuzaga kelishini;
- mahsulotlarni jo‘natish va ular bo‘yicha hisob-kitoblarni turli davrlarga to‘g‘ri kelishini va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘PQ-404-son Qonuni. 2016-yil 13-aprel.
2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS, IFRS).
3. “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMS.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarori.
5. Financial statement analiysis. Eleventh edition. K. R. Subramanyam University of Souther.
6. Абдукаримов И. Т., Беспалов М. В. Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций (анализ деловой активности) Учебное пособие / И. Т. Абдукаримов, М.В. Беспалов. - (Высшее образование Бакалавриат). Издательство: “Инфра-М”, 2012.
7. Dusmuratov P. D., Mavlyanova D. M. Joriy aktivlar: buxgalteriya hisobi, tahlili va auditi. Monografiya. – T.: “Globe edit”, 2021.

BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI MUVOFIQLIK KO‘RSATKICHLARINI PROGNOZLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI: NAZARIY YONDASHUV

Hakimjon Hakimov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola fiskal va monetar siyosatning muvofiqlik ko‘rsatkichlarini prognozlashning zamonaviy modellarini o‘rganadi. Maqolada ushbu siyosatlarning muvofiqligini prognozlash va baholashning turli yondashuvlari, jumladan ekonometrik modellar, statistik usullar va machine learning usullari muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, maqolada fiskal va monetar siyosatning muvofiqligini modellashtirish va prognozlash uchun tanlangan yondashuv tasvirlangan. Yondashuv katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va turli iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aniqlash uchun chuqur o‘rganish (deep learning) va takroriy neyron tarmoqlar kabi zamonaviy mashina o‘rganishi (machine learning) usullaridan foydalanishga asoslangan.

Kalit so‘zlar: prognozlash, modellashtirish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, machine learning, deep learning, takroriy neyron tarmoqlar, ekonometrik modellar, ma’lumotlarni tahlil qilish.

Abstract: This scientific article explores modern models for predicting the compatibility indicators of fiscal and monetary policy. The article discusses various approaches to predicting and evaluating the compatibility of these policies, including econometric models, statistical methods, and machine learning.

Further, the article describes the chosen approach to modeling and predicting the compatibility of fiscal and monetary policy. The approach is based on the use of modern machine learning methods such as deep learning and recurrent neural networks to analyze large amounts of data and identify complex relationships between various economic variables.

Key words: forecasting, modeling, economic indicators, machine learning, deep learning, recurrent neural networks, econometric models, data analysis.

Аннотация: Данная научная статья исследует современные модели прогнозирования показателей совместимости фискальной и монетарной политики. В статье рассматриваются различные подходы к прогнозированию и оценке совместимости этих политик, включая эконометрические модели, статистические методы и машинное обучение.

Далее статья описывает выбранный подход к моделированию и прогнозированию совместимости фискальной и монетарной политики. Подход основывается на использовании современных методов машинного обучения, таких как глубокое обучение и рекуррентные нейронные сети, для анализа больших объемов данных и выявления сложных взаимосвязей между различными экономическими переменными.

Ключевые слова: прогнозирование, моделирование, экономические показатели, машинное обучение, глубокое обучение, рекуррентные нейронные сети, эконометрические модели, анализ данных.

KIRISH

Fiskal va monetar siyosat iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning asosiy vositalaridir. Ushbu siyosatlar makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan. Biroq, budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish ular o‘rtasida muvofiqlik va kelishilgan faoliyatni talab qiladi.

Fiskal va monetar siyosatning muvofiqligi ularning umumiy maqsadlarga erishishda o‘zaro ta’sir qilish va bir-birini to‘ldirish qobiliyatidadir. Ushbu siyosatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoki nomutanosiblik inflyatsiya, budjet taqchilligi, iqtisodiy inqiroz va beqarorlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

So‘nggi o‘n yilliklarda akademik va amaliy sohalarda fiskal va monetar siyosatning muvofiqligi ko‘rsatkichlarini prognozlash modellarini ishlab chiqish va qo‘llashga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu modellar turli iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni baholash va siyosiy qarorlar natijalarini prognozlash imkonini beradi.

XXI asr boshiga kelib iqtisodiy prognozlashda ekonometrik modellar bilan birgalikda, kompyuter orqali – sun'iy ong yordamida prognozlash amaliyoti ham boshlandi. Bunday sun'iy ong orqali prognozlash metodlari keng ma'noda "machine learning" deb ataladi.

"Machine learning" – "mashina o'rganishi (ML)", hozirgi kunda eng qizg'in mavzulardan biri hisoblanadi. Turli adabiyotlar va yangiliklarda doimiy yangrayotgan "sun'iy intellekt" (AI), "Big Data" kabi terminlar uzoq kelajakdagi texnologiyalar sifatida qaralayotgan bo'lsa-da, ularning asl ma'nosi kundalik hayotga ancha yaqinroq hisoblanadi. Hozirda, machine learning turli sohalarda qo'llanilmoqda. Jumladan, emailni spam sifatida filtrlash, foydalanuvchiga kerakli xizmat va tovarlarni tavsiya qilish, kelgusi talabni prognozlash va hattoki, avtonom (o'zini boshqaradigan) avtomobillarda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda, machine learning – kompyuterning aniq programmalarsiz amaldagi ma'lumotlar asosida o'zining kelgusi harakatlarinig belgilashi deyish mumkin. Avtonom mashinalar ishlashi aynan shunday tarzda bo'ladi: mashina o'z atrofidagi ma'lumotlarni qabul qilib, ularni tahlil qiladi va ushbu ma'lumotlar asosida keyingi qarorlarga keladi. Ushbu vazifalarni bajarishda MLning ko'plab algoritmlari mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal va monetar siyosatning muvofiqlik ko'rsatkichlarini prognozlashda machine learning metodlarini qo'llash mavzusida xorijlik tadqiqotchilarning ko'plab ilmiy ishlari yozilgan bo'lib, ular ichida ushbu tadqiqotga katta ta'sir ko'rsatganlarini sanab o'tamiz. Stock and Watson (2008) larning tadqiqoti inflyatsiyani prognozlashga bag'ishlangan bo'lib, Stock and Watson (2008) turli modellarni to'rtta asosiy guruhga ajratib, tahlil qilishadi [1]. Birinchi guruhda faqat inflyatsiya vaqtli qatorlarini ishlatishga asoslanadi: ARMA, RW va mualliflarning o'zlari ishlab chiqqan, kuzatilmagan komponentlar va stoxastik volatillik modeli (Unobserved Components – Stochastic Volatility, UC-SV) modellari kiradi. Ikkinchi guruhga o'zgaruvchisi iqtisodiy faoliyat, masalan ishsizlik va ishlab chiqarishdagi uzilishlarga asoslangan modellar kiradi. Uchinchi modellar professional prognozchilardan so'rovnomalarga asoslanadi. To'rtinchi guruhda ikkinchi guruhga kirmagan o'zgaruvchilarga ega bo'lmagan modellar kiritiladi. Modellar kvartalli ma'lumotlar asosida 10 yillik muddat uchun psevdo-real muddatdagi prognozlarni tuzishadi. Modelni baholash uchun o'rtacha kvadratik chetlanish (Root Mean Square Error, RMSE) olinadi. Xulosa shunday bo'ldiki, faqat inflyatsiyaning vaqtli qatorlari yordamidagi modellar ko'p o'zgaruvchili modellardan ortda qolmaydi. Ko'p o'zgaruvchili modellarni tuzishdagi qiyinchiliklarni hisobga olib, mualliflar bir o'zgaruvchili modellarni afzal deb xulosa qilishadi.

Faust and Wright (2013) muallifigidagi maqola ham inflyatsiyani prognozlashga bag'ishlangan [2]. Mualliflar ML ning 17 ta turli modellarini o'zaro solishtirishadi. Ular orasida - "tasodifiy yurish" ("Random Walk"), avtoregressiya metodlari (AR (1) va AR (p)), Fillips egri chizig'iga asoslangan model, strukturali vektor avtoregressiya (SVAR), Bayesning o'rtachalar modeli (BMA), umumiy muvozanatning dinamik stoxastik modeli (Dynamic Stochastic General Equilibrium, DSGE) va boshqalar bor. Mualliflar o'rtacha kvadratik chetlanish (RMSE) orqali modellarni baholashadi. Bunda, etalon sifatida AR (1) modeli olinib, barcha modellar aynan shu modelga nisbatan baholanadi. Eng yaxshi model sifatida professional prognozistlar fikriga asoslangan model yutib chiqadi. Lekin, ushbu tadqiqot ham yuqoridagi tadqiqotning eng yaxshi ko'p faktorli modellar eng yaxshi bir faktorli modellarga nisbatan yutuq bermasligini isbotladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Fokin va Polbin (2019) prognozlashda VAR-LASSO modelini qo'llab, Rossiya iqtisodiyoti uchun 2019-2024-yillar uchun prognozlarni amalga oshirishadi [3]. Ular BVAR (Bayesian Vector Autoregression), VAR, ARIMA metodlari bilan VAR-LASSO modelini taqqoslab, ularning modelining ustunligini ko'rsatib berishadi. Ularning 2016-2018-yillar uchun psevdo-real vaqtdagi prognozlar Rossiya iqtisodiy rivojlanish vazirligi va Xalqaro Valyuta Fondi prognozlari va haqiqiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslashda RMSE (o'rtacha kvadratik chetlanish) ko'rsatkichidan foydalanishadi. Ushbu ishning o'ziga xosligi – Rossiya iqtisodiyoti sekinlashishini strukturali o'zgarish sifatida modelga qo'sha olishadi va shu orqali modeli aniqligini oshirishadi.

Macau Universiteti tadqiqotchisi Yun Liao (2017) ning izlanishida makroiqtisodiy vaqtli qatorlarni prognozlashda neyron tarmoq (Neural Network), Markovning o'zgaruvchan modeli va K-o'rtacha modelini qo'llash orqali yuqori natijaga erishish mumkinligini ko'rsatadi [4]. Muallif o'z modelini AQSh iqtisodiyotida 11 ta vaqtli qatorlarning 1968–2015-yillardagi ma'lumotlariga asoslanib tuzadi. Ushbu tadqiqot texnologiyalarning yana bir yutug'i – neyron tarmoqlarining iqtisodiy prognozlashda ishlatilishini namoyon etuvchi ishlardan biri bo'ldi.

S. Siami-Namini, Tavakoli and A. Siami Namini (2018) iqtisodiyotdagi vaqtli qatorlarni prognozlashda ARIMA va neyron tarmoqlarning yana bir vakili bo'lgan Long Short-term Memory (LSTM) metodini solishtirib ko'rishadi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, LSTM modeli ARIMA modeliga qaraganda turli holatlarda 84-87% aniqroq prognoz qilishi imkonini beradi [5].

Anna Almosova, Niek Andresen (2019) larning tadqiqotlari ham aynan ushbu mavzuga qaratilgan bo'lib, AQSh iste'mol narxlari indeksi prognozida RW, AR, SARIMA, Markov o'zgaruvchan modeli (MS-AR) hamda LSTM modellari o'rtasida taqqoslash amalga oshirib, RMSE bo'yicha eng kichik xatolik LSTM modelida ekan-

ligini ko‘rishadi [6]. Ayniqsa, LSTMning afzalliklari bir qadam oldingi prognozda emas, balki uzoqroq muddatdagi prognozlarda namoyon bo‘ladi.

Umumiy olib aytganda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichalrni prognozlashda machine learning metodlaridan foydalanish, nafaqat O‘zbekiston, balki rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu tufayli, ushbu mavzudagi ilmiy maqolalar soni tez sur’atlarda ko‘payib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada fiskal va monetar siyosatning muvofiqlik ko‘rsatkichlarini prognozlashning machine learning (ML) metodlari tavsifiy tahlil, taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Sof machine learning (ML) metodlaridan biri hisoblangan **decision tree (“qarorlar daraxti”) metodi** (ayrim manbalarda “yechimlar daraxti” shaklida ham talqin qilinadi) – asosan, klassifikatsiya masalalari (ya’ni, turli ko‘rsatkichlarni ularning belgisiga ko‘ra guruhlash) da ishlatilsa-da, metoddan regressiya uchun ham ishlatiladi. Decision tree graflar nazariyasi elementlariga asoslanib, tanlanmani har bir bosqichda ikki va undan ortiq qismlarga ma’lum kriteriyalar asosida ajratadi. Ya’ni, har bir kriteriya grafikning uchi bo‘lib, ular qirralar asosida o‘zaro bog‘lanadi.

Sodda ko‘rinishdagi qarorlar daraxti quyidagicha ko‘rinishga ega:



1-rasm: Oddiy ko‘rinishdagi qarorlar daraxti [7]

Qarorlar daraxtining eng yuqori uchi uning “ildizi”, keyingi qismlari “shoxlari” va eng so‘nggi uchlari “barglari” deb ataladi.

Qarorlar daraxti bir qancha jiddiy kamchiliklarga ega bo‘lib, ular orasida modelning yuqorida aytilgan “ortiqcha o‘rganish” (overfitting) muammosi mavjud. Nazariy jihatdan, qarorlar daraxtini tanlanmadagi ma’lumotlarda umuman xato qilmaydigan darajada tuzish mumkin. Bu muammoning oldini olish uchun daraxtning chuqurligi, ya’ni uning “shoxlari” sonining maksimal darajasini belgilab olinadi. Overfitting bilan kurashishning ikkinchi usuli esa bir qancha qarorlar daraxtlaridan “ansambl” tuzish.

Ansambl metodlar ham ML ning eng muhim bo‘g‘inlaridan hisoblanadi. Odatda, ansambl metodlari boshqa metodlarning aniqligiga qarab ularga vazn beriladi, ularning o‘rtachasini aniqlaydi. Bu overfitting muammosini bartaraf etib, modelning aniqlik darajasini oshirishga imkon beradi.

Random Forest (RF, “tasodifiy o‘rmon”) – turli qarorlar daraxtlaridan ansambl tuzish imkonini beradi [8]. RF modeli tanlanmadan tasodifiy ravishda tanlangan ma’lumotlarga asoslanib qarorlar daraxtlarini tuzadi. RFda qarorlar daraxtining soni cheklanmagan bo‘lishi mumkin. Ularning soni ko‘payishi modelning aniqligini oshirsa-da, bu hisob-kitob uchun vaqtning ham oshishiga olib keladi. Har bir qarorlar daraxti tasodifiy tanlanmadan tashqaridagi ma’lumotlarda aniqlik tekshiriladi. Aniqroq daraxtlar kattaroq vazn oladi hamda ularning hammasidan o‘rtacha qiymatlar to‘g‘ri deb qabul qilinadi.

Boosting (Boosting) – yana bir ansambl metodlaridan biri hisoblanib, u har qanday modellar oilasidan tuzilishi mumkin bo‘lsa-da, ushbu ishda boosting qarorlar daraxtlaridan tuziladi [9]. Boosting metodining tasodifiy o‘rmondan farqi shundaki, unda qarorlar daraxtlari bir-biridan mustaqil tuzilmaydi, aksincha har bir qarorlar daraxti undan oldingi modelning xatoliklarini hisobga olgan holda tuziladi.

Boostingning tuzilish tartibi quyidagicha [10]:

1. Dastlabki qarorlar daraxti butun tanlanmada tuziladi. Uning asosiy vazifasi tuzilgan model va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqni qisqartirish.

$$b_1(x) = \sum_{i=1}^{m}\left(y_i - b(x)\right)^2 \rightarrow min$$

2. Dastlabki qadamdagi natija bazis model sifatida qabul qilinadi:

$$B_1(x) = b_1(x)$$

3. Bazis modelga asosan, xatoliklar hisoblanadi:

$$e_i^1 = y_i - B_1(x)$$

4. Ikkinchi model ushbu xatoliklarni hisobga olgan holda tuziladi:

$$b_2(x) = \sum_{i=1}^{m}(b(x_i) - e_i^1)^2 \rightarrow min$$

5. Yangi natijani oldingi olingan bazis modelga ma’lum $\gamma \in (0;1]$ koeffitsiyent bilan qo‘shiladi. Ushbu ishda $\gamma = 0{,}2$ qiymat olindi. Uning qiymatini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Yangi model quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$B_2(x) = B_1(x) + \gamma b_2(x)$$

6. Ushbu ishlar ketma-ketligi oldindan belgilangan n qiymatgacha takrorlanadi va yakuniy model quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$B_n(x) = \sum_{i=1}^{n}\gamma^{i-1} b_i(x)$$

Boosting modelida ham iteratsiyalar soni n qanchalik katta bo‘lsa, modelning aniqligi yuqori bo‘lib boraveradi.

2-rasmda Boosting modelining oddiy ko‘rinishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda, dastlabki uchta kuchsiz modellarning natijasi o‘zaro uyg‘unlashtirilib, bitta kuchli model hosil bo‘ladi. Har bir kuchsiz model o‘zidan oldingi ma’lumotlarni hisobga olgan holda tuziladi.



2-rasm: Boosting modelining oddiy ko‘rinishi

Manba: medium.com ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Sun’iy neyron tarmoqlar – ilk ML metodlaridan biri hisoblanib, inson miyasining o‘rganishini takrorlashga harakat qiladi. Uning osonlashtirilgan variantida berilgan ma’lumotlar neyronlar orqali o‘tkazilib, yakuniy natijaga erishishga asoslanadi. Eng oddiy ko‘rinishdagi va larning neyron tarmoqlar orqali o‘tkazilishini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin.

Bunda, grafning uchlari “neyron”lar deb ataladi. Ushbu neyronlar inson miyasidagi neyronlar singari ishlaydi – ma’lumotlar ular orasida uzatiladi. Neyron tarmoqlarning oddiy ekonometrik modellardan farqli ravishda oldindan ma’lum patternlarga bog‘liq ishlamaydi. Aksincha, sun’iy neyron tarmoqlarni kichik yoshdagi bolaga qiyoslash mumkin – model ham bosqichma-bosqich o‘rganadi. Buning uchun, unga bitta ko‘rsatkich asosiy benchmark sifatida qabul qilinadi. Bizning modelda o‘rtacha kvadratik chetlanish modelning o‘rganishi uchun asos bo‘ladi. Ya’ni, model neyronlardan turli kattaliklarni o‘tkazish orqali chetlanish darajasini kamaytirishga urinadi.



3-rasm: Neyron tarmoqlarining ko‘rinishi [11]

k-yo‘l markazlashuvi faqat markazlashuv darajasining o‘zi ta’minlay olmaydigan tushunchalarni taqdim etadi (10-rasm).



10-rasm: k-yo‘l markazlashuvi

A va F tugunlarining ikkalasi ham bir darajali markazga ega. Shu bilan birga, F tugunining 2 yo‘lli markazlashuvi 3 ga, A tugunining esa 2 yo‘lning markaziyligiga ega. Shunda biz F tugunni tarmoqqa A tuguniga qaraganda yaxshiroq ulangan deb o‘ylashimiz mumkin.

Ego-markazli tarmoqlar (yoki “ego” tarmoqlariga qisqartirilgan) - bu alohida shaxsning (“ego”) aloqalarini va nuqtai nazaridan xaritalashadigan tarmoqning ma’lum bir turi. Misol uchun, agar siz kimdandir do‘stlarini ismini so‘rasangiz (yoki “o‘zgartirish”ning boshqa turi, bu ego bo‘lmagan odam), ular sizga do‘stlari kimligini aytib berishadi. Biroq, ular sizga boshqa odamlarning do‘stlari kimligini aytmaydi.



11-rasm: Ego-tarmoqlar

Ego-tarmoqlar bilan ko‘p narsa qila olmaydigandek tuyulishi mumkin, ya’ni, faqat bitta odamning egoi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish olimlarga ko‘p narsani aytmasa ham, bizda o‘nlab, yuzlab yoki minglab ego tarmoqlari mavjud bo‘lganda, biz har xil turdagi odamlarning qanday qilib turli xil ego tarmoqlari borligini tahlil qila olamiz.

Agar sinfdagi barcha o‘quvchilar o‘zlarining do‘stlari va oilalarining ego-tarmoqlarini to‘ldirishsa, biz ba’zi turdagi odamlarning ko‘proq do‘stlari borligini bilib olamizmi?

Oila a'zolari ko'p bo'lgan odamlarning do'stlari ham ko'proqmi yoki ularning do'stlari kamroqmi? Bu empirik savollar bo'lib, olimlar egosentrik tarmoqlarni ijodiy taqqoslaganda, biz potentsial javob bera olamiz. Tadqiqot tarmoq ma'lumotlarini yig'ishda faqat bitta turdagi munosabatlardan foydalanishi shart emas va bu do'stlik va oilaviy aloqalarning ego-markazli tarmoqlarini yagona shaxsiy shaxsiy hissiy qo'llab-quvvatlash tarmog'iga yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega almashinuvga birlashtirganda shunday holatlardan biri bo'ladi. Ego tarmog'ini muhokama qilganda, o'lcham ego aniqlagan o'zgarishlar sonini tavsiflaydi. Shunday qilib, 10-rasmdagi ego tarmoq grafigi beshta o'lchamga ega.

To'liq tarmoqa bo'lgani kabi, bizni ego tarmog'ining ma'lum xususiyatlari, masalan, uning qanchalik zichligi qiziqtirishi mumkin. Ta'rifga ko'ra, hamma qirrani biladi, lekin kimningdir do'stlari bir-birlarini qanchalik bilishadi? Ego-tarmoqlar uchun klasterlash koeffitsiyenti ego o'chirilganda o'zgarishlar orasidagi bog'lanishlar zichligi sifatida hisoblanadi. 10-rasmda ko'rinib turibdiki, egoning ba'zi do'stlari bir-birlarini bilishadi. Klasterlash koeffitsiyentini hisoblash zichlik bilan bir xil, ammo ego va ego aloqalari olib tashlangan.

Shunday qilib, natijada olingan klaster koeffitsiyentidan ko'rinib turibdiki, biz ego do'stlari o'rtasidagi barcha mumkin bo'lgan aloqalarning 40 foizini tushunishimiz mumkin. Bir nechta egolar bilan biz ijtimoiy dunyo qanday ishlashi haqida nazariyalarni yaratish uchun ularning shaxsiy tarmoqlarini solishtirishimiz mumkin

Muayyan vaziyatlarda munosabatlarni ularning intensivligi yoki chastotasi yoki ko'pincha qirraningning "kuchi" nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun, odamlarning do'stlari ko'p bo'lishi mumkin va do'stlik rishtalarini yuqoridagi misollarda bo'lgani kabi grafiklarga aylantirish mumkin. Biroq, odamlar ko'pincha turli xil do'stlarga ega va ba'zi do'stlar boshqalardan ko'ra muhimroqdir. Bu eng yaxshi do'stga ega bo'lishning asosiy tushunchasidir. Sizning eng yaxshi do'stingiz siz uchun boshqa barcha do'stlaringizdan ko'ra muhimroq bo'lishi mumkin va bu sizning tarmog'ingizdagi bu farqni qo'lga kiritish uchun siz o'rganayotgan mavzu uchun sotsiologik jihatdan mazmunli bo'lishi mumkin. Eng yaxshi do'stingizni boshqalardan farqli ravishda belgilash biroz ma'nosiz bo'lishi mumkin bo'lsa-da, biz bir qator darajalar mantiqiy bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy vaziyatlar haqida tahlil amalga oshirish mumkin. Misol uchun, aytaylik, biz do'stlar guruhida de-fakto etakchi kim ekanligini tushunmoqchimiz. Ta'rifga ko'ra, biz allaqachon mavjud do'stlar guruhi sifatida ishni bog'laganmiz. Agar hamma boshqalar bilan bog'langan bo'lsa, chunki ularning barchasi do'st bo'lsa, biz bu turli xil do'stlar o'rtasidagi farqni aniqlay olmaymiz. Ammo, agar biz ushbu do'stlarning biridan boshqasiga yuborilgan matnli xabarlarning chastotasini ko'rib chiqsak, ehtimol biz o'zgarishlarni aniqlay boshlaymiz.



12-rasm: Tarmoqda muloqotlar nisbiy intensivligi

Tarmoqdagi ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning nisbiy intensivligi matematik jihatdan standartlashtirilganda, bu tarmoq ichidagi muayyan ishtirokchilar va munosabatlarni solishtirishni osonlashtiradi. 12-rasmni kompaniyadagi do'stlar yoki hamkasblar o'rtasidagi matnli xabar yoki elektron pochta tarmog'i sifatida tasavvur qilsak, raqamlarni muloqot chastotasi deb ataladi. A va C aktyorlari tez-tez muloqot qilishadi, C bilan A ga xabarlarni A C ga yuborishdan ko'ra bir oz tez-tez yuboradi. Biroq, C B ga xabarlarni C A ga xabar jo'natganning yarmi tez-tez yuboradi. 13-rasmga diqqat bilan qaralsa, A ning guruhdagi eng ko'p xabar yuboradigan do'sti yoki elektron pochta orqali yuborilgan hamkasbi ekanligini ko'rish mumkin. E va C aktyorlari B, D va F aktyorlariga ular qaytarganidan ko'ra ko'proq e'tibor berishadi. A E va C A ga qaraganda E va C ga kamroq e'tibor berganligi sababli, A E va C dan markaziy o'rinni egallaydi, bu A elektron pochta xabarini yubormaydigan barcha odamlar uchun muhim. Haqiqiy dunyoda munosabatlarning turli chastotasi yoki intensivligini ifodalovchi turli og'irliklardan ma'lum ijtimoiy muammolarni tushunishga yordam beradi.



13-rasm: di-graflar

Di-graflar bir xil tahlil darajasidagi tugunlar (ya'ni odamlar bilan bog'liq bo'lgan odamlar) o'rtasida bog'lanish o'rniga, tahlilning turli darajalaridagi tugunlar o'rtasida bog'liqlik paydo bo'ladigan tarmoqni tasvirlaydi. Misol uchun, odamlar kompaniyalarda ishlaydilar, shuning uchun u erda biron bir shaxs emas, balki ishchi kompaniya bilan bog'liq deb aytishimiz mumkin. Odamlar, shuningdek, sport jamoalari, maktablar, diniy jamoalar va ularning ijtimoiy dunyosini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tashkilotlarga ulanishadi.

Sotsiologiyada keng tarqalgan misollardan biri kompaniya boshqaruvi blokirovkalash tarmoqlaridir. Bunday holda, biz doiralarni kompaniyalarni boshqaradigan kengash a'zolari deb hisoblashimiz mumkin va uchburchaklar ular ishlaydigan kompaniyalardir (13-rasm). Shunday qilib, boshqaruv a'zosi A 1 va 2 kompaniyaning boshqaruv kengashida, B boshqaruv a'zosi esa 2 va 3 kompaniya boshqaruvida. Ushbu ma'lumotning o'zi foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, siz A va B boshqaruv a'zolarining ikkalasi ham 2-kompaniyaning boshqaruv kengashida ekanligini tushunishingiz mumkin. Aslida, boshqaruv kengashi a'zosi C ham kompaniya 2 boshqaruv kengashida. Shunday qilib, A, B va C kengash a'zolari birgalikda ishlashdan bir-birlarini bilishadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar bunday ma'lumotlar muhim bo'lsa, biz di-grafni bir xil darajadagi tahlillar orasidagi bog'lanishlarni tasvirlaydigan tarmoqqa aylantirishimiz mumkin edi. Shunday qilib, biz 10-rasmda ko'rsatilganidek, bir kompaniyada ishlaganliklari uchun bir-birini taniydigan kengash a'zolarini ko'rsatadigan tarmoq yaratishimiz mumkin. Olingan tarmoqda A, B va C kengash a'zolari 2-kompaniyada birgalikda ishlash natijasida bir-birlarini bilishlarini aniq ko'rsatib turibdi.

XULOSALAR

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoq tahlili turli fanlar, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, tashkiliy tadqiqotlar, aloqa va informatika sohasida katta e'tibor qozondi. Uning ilovalari kichik jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan global hamkorlik va axborot tarqatish tarmoqlarini o'rganishgacha tarqalgan.

Tarmoqlarni o'rganish ularning xususiyatlarini takrorlaydigan modellarni yaratishga qaratilgan. Modellashtirish nuqtai nazaridan tarmoq nisbatan oddiy obyekt bo'lib, faqat tugunlar va havolalardan iborat. Biroq, haqiqiy qiyinchilik tugunlar orasidagi bog'lanishlarni qayerga joylashtirishni hal qilishdir, bu haqiqiy tizimning murakkabligini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, tarmoq ushbu maqsadga bog'lanishlarni tugunlar orasiga tasodifiy joylashtirish orqali eng yaxshi tahlilni amalga oshiradi.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi ijtimoiy kapital, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ta'sir va innovatsiyalarning tarqalishini o'rganish uchun ishlatiladi. Tashkiliy tadqiqotlarda u kompaniyalar va jamoalar ichida hamkorlik, axborot oqimi va quvvat dinamikasini aniqlashga yordam berdi. Epidemiologiyada Ijtimoiy tarmoq analitikasi yuqumli kasalliklar tarqalishini tushunish va maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi. Marketing va ijtimoiy media tahlilida u samarali kompaniyalar uchun nufuzli shaxslar yoki jamoalarni aniqlashga yordam berdi.

Ijtimoiy tarmoq analitikasi sotuvchilarga maqsadli reklama va kompaniya strategiyalari uchun nufuzli shaxslar yoki jamoalarni aniqlashda yordam beradi. U axborot tarqalishini tushunish, tendentsiyalarni aniqlash va iste'molchilarning hatti-harakatlarini bashorat qilish uchun onlayn ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qiladi.

Onlayn ijtimoiy platformalarning ko'payishi bilan Ijtimoiy tarmoq analitikasi virtual hamjamiyatlarni, onlayn ijtimoiy tarmoqlarni va raqamli shovqinlarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Bu raqamli makonlarda ma'lumot almashish, hamkorlik va ta'sir qilish naqshlarini ochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Network Science by Albert-Laszlo Barabasi. 2019. Online book. http://networksciencebook.com
2. John Scot What is social network analysis? First published in 2012 by Bloomsbury Academic www.bloomsburyacademic.com

3. Zachary, Wayne W. 1977. “An Information Flow Model for Conflict and Fission in Small Groups.” Journal of Anthropological Research 33 (4): 452–73.
4. Gouldner 1960 Gouldner, Alvin W. 1960. «The Norm of Reciprocity: A Preliminary Statement.» American Sociological Review, 161-78.
5. Specification Problem in Network Analysis.” In Research Methods in Social Network Analysis, edited by Linton C. Freeman, Douglas R. White, and Antone Kimball Romney, 61–79. New Brunswick: Transaction Publishers
6. Gross, Rob, Stephen P Borgatti, and Andrew Parker. 2001. “Beyond Answers: Dimensions of the Advice Network.” Social Networks 23 (3): 215–35.
7. Mizruchi, Mark S. 1989. “Similarity of Political Behavior Among Large American Corporations.” American Journal of Sociology 95 (2): 427-436.
8. Hagberg, A., Swart, P., & S Chult, D. (2008). Exploring network structure, dynamics, and function using NetworkX (No. LA-UR- 08-05495; LA-UR-08-5495). Los Alamos National Laboratory (LANL)
9. John Scot What is social network analysis? First published in 2012 by Bloomsbury Academic www.bloomsburyacademic.com
10. Padgett, John F. and Christopher K. Ansell. 1993. “Robust Action and the Rise of Medici, 1400-1434.” American Journal of Sociology 98 (6): 1259-1319
11. Kandel, Denise B. 1978. “Homophily, Selection, and Socialization in Adolescent Friendships.” American Journal of Sociology 82 (20): 427-436
12. Borgatti S. P., Mehra, A., Brass, D. J., & Labianca, G. (2009). Network Analysis in the Social Sciences, 323, 892-895.
13. Butts, C. T. (2009). Revisiting the Foundations of Network Analysis, 325, 414-416. Wasserman, S., & Faust, K. (1994). Ijtimoiy tarmoq tahlili. usullari va ilovalari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

FOYDANI SOLIQ OBYEKTI SIFATIDA SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI

Bobomurotova Manzura Panji qizi
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Foydani ilmiy asoslangan holda oqilona soliqqa tortishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Foyda solig‘i bo‘yicha iqtisodchi olimlarning qarashlari. Amaliyotdan olingan raqamlar tahlil qilingan hamda taklif va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq siyosati, modernizatsiya, soliq to‘lovchilar, foyda, foyda solig‘i, soliq, innovatsion, soliq solish obyekti, soliq yuki.

Abstract: Issues of rational taxing of profit based on science are covered. Opinions of economists on profit tax. The figures obtained from the practice were analyzed and suggestions and conclusions were formulated.

Key words: Tax policy, modernization, taxpayers, profit, profit tax, tax, innovative, object of taxation, tax burden.

Аннотация: Освещены вопросы рационального налогообложения прибыли на основе научных данных мнения экономистов о налоге на прибыль. Цифры, полученные из практики, были проанализированы и сформулированы предложения и выводы.

Ключевые слова: Налоговая политика, модернизация, налогоплательщики, прибыль, налог на прибыль, налог, инновации, объект налогообложения, налоговая нагрузка.

Soliq siyosatining samarali yurgizilishi ko‘p jihatdan uni huquqiy bazasining mustahkamligiga bog‘liq. Bunda soliq siyosatiga oid soliq qonunchiligi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, soliqqa oid qonunlar, farmonlari, kodekslari, qarorlari va boshqa qonun osti hujjatlari bilan mustahkamlangan.

Foyda korxonalar oxirgi moliyaviy natijasi sifatida uni soliqqa tortishni takomillashtirish barcha davlatlarda va zamonlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to‘lov intizomi mustahkam bo‘lsa, byudjetga o‘z vaqtida soliqlarni to‘lab har qanday jarimalarni to‘lashga duch kelmaydi.

Foydani soliqqa tortish korxonalar moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, bu jarayon yuridik shaxslar tomonidan foydadan samarali foydalanish bilan birgalikda uni taqsimlash va qayta taqsimlashni ham tubdan isloh qilishni taqozo etadi.

Foydani ilmiy asoslangan holda oqilona soliqqa tortishni tashkil etishga erishgan barcha xo‘jalik subyektlari tomonidan markazlashtirilmagan jamg‘armalarni tashkil etishni to‘la darajada shakllantirilishiga imkoniyat yaratadi. Yuridik shaxslar qanchalik samarali faoliyat yuritsa, ularning moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, foydasi va soliq ajratmalari yig‘indisi shunchalik ko‘p bo‘ladi[1].

Bunday holatlarning yuzaga kelish mumkinligi moliyaviy natijalarni tashkil etishdagi o‘zgarishlarni hisoblash, taqsimlash va qayta taqsimlash xarajatlar bilan real foyda natijalari o‘rtasidagi nisbat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘sishi, qolaversa, ulardan soliq stavkalarini aniqlashda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pgina soliq tizimi mutaxassislari foydadan soliq stavkalari va uni byudjetga o‘tkazish tartibi, soliq stavkasini ma’lum bir koeffitsiyentga pasaytirish yoki oshirish, soliq bo‘yicha joriy etilgan imtiyozlarni, soliqni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlarini to‘liq bo‘lgan holda o‘z oldilarida turgan vazifalarni bajarishda xavotirlanmoqdalar. Chunki yangi tartibning joriy etilishi, uni to‘liq o‘rganish bilan birgalikda soliq to‘lovchi xo‘jalik subyektlariga ham tushuntirish ishlarini olib borishlari, ularni soliq intizomiga rioya qilishga chorlaydi.

1 Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.

Korxonalarda moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanish davomida foyda ma'lum qonuniyatlar asosida jamg'armalarni tashkil etishi bilan birga davlat byudjetini moliyaviy mablag' bilan ta'minlashda faol ishtirok etadi va shu qirralari bilan bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi[2]. Narxlar barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nobel mukofoti sovrindori, ingliz iqtisodchisi J. Xiks foydani ma'lum bir vaqt oralig'ida ishlatish mumkin bo'lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'rsatkich deya ta'kidlaydi[3].

Foydani shakllantirish va taqsimlash masalalari bilan shug'ullangan olima S. S. Aliyeva foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxonani boshqarish bo'yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e'tirof etadi[4].

Foyda solig'ini ilmiy o'rganishda asosiy masalalardan biri uning soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash bo'lib hisoblanadi. Foyda solig'ining summasini hisoblashda ko'p ko'rsatkichlarni o'rganishni talab etadi. Bu ko'rsatkichlar va ularning bir biri bilan bog'likligi Foyda solig'i summasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatar ekan, ya'ni mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlar, favqulotda olingan foyda va zarar, foyda solig'ining hisobot davridagi stavkasi va boshqa omillar.

Foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromad bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortgan qismining pul shakldagi ifodasidir. Foydaning bir qismi soliqlar orqali bevosita davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadi.

Foydadan undiriladigan soliqlar bilan foyda solig'ini bir narsa deb qarash noo'rin deb hisoblaymiz. Foydadan undiriladigan soliqlar keng ma'no bildirsa, foyda solig'i tor ma'nodir. Ya'ni soliq kodeksiga muvofiq foydadan undiriladigan soliqqa foyda solig'idan tashqari soliqlar ham kiradi deb hisoblaymiz.

Foyda solig'i – jami daromaddan, daromadni olish bilan bog'liq xarajatlarni ya'ni isbotlangan va hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni, shuningdek, Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq to'lovchi tomonidan yuzaga keltirilgan zararni chiqarib tashlash bilan hisoblangan soliq tushuniladi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 12-son "Foydadan soliqlar"da buxgalteriya foydasi – bu davr uchun foyda solig'i xarajati chegirib tashlanishidan oldingi foyda yoki zarardir. Soliq solinadigan foyda – bu soliq organlari tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq aniqlangan va natijada foyda soliqlari to'lanadigan davr uchun foyda hisoblanadi deb e'tirof etilgan[5].

Foyda solig'i bazasini to'g'ri aniqlashda "vaqtinchalik farqlar" tushunchasiga alohida e'tibor berish kerak. Buxgalteriya hisobining 12-conli "Foyda soliqlari" xalqaro standartida vaqtinchalik farqlarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Vaqtinchalik farqlar – bu moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan aktiv yoki majburiyatning balans qiymati bilan uning soliq bazasi o'rtasidagi farqlardir6. Vaqtinchalik farqlar – bu foydani shakillantiruvchi daromad va xarajatlarning ba'zi moddalarni buxgalteriya hisobi foydaciga hisobot davrida, foyda solig'i bazaciga boshqa davrga olib borilishi natijacida hosil bo'ladigan farqlardir.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar manbayi bo'lib "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" 2-shakl hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 295-moddasida foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanadi deb belgilab qo'yilgan.

Soliq yuki va foyda solig'i stavkasini pasaytirish hisobiga soliq bazasi kengaymoqda hamda foyda solig'i to'lovchilari soni oshmoqda (1-rasm).

2 Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.

3 Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – С. 170-189.

4 Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.

5 12-son BHXS "Foyda soliqlari." https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/26_05_2021/Uzb_ GVT_ BB2020_IAS12.pdf. 11.01.2022.

6 IAS-12 "Income Tax", 12-sonli BHXS "Foyda soliqlari" 2019.



1-rasm: Foyda solig‘i bo‘yicha 2016-2022-yillarda soliq to‘lovchilar sonining dinamikasi[7]

Respublikamizda foyda solig‘ini to‘lovchilar 2016-yilda 7593 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 184 142 ta bo‘lgan bo‘lib, 24,3 barobarga oshgan.

Foyda solig‘i to‘lovchilar korxonalar soni 2019-yilda 53 051 tani tashkil etgan bo‘lsa 2020-yilda 115 572 ta 2021-yilda 145 434 ta hamda 2022-yilda 184 142 taga oshgan bunga asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahridagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ijrosi deb hisoblaymiz.

Foyda solig‘ining stavkasi yillar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak (1-rasm), 1997-yilda 36,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda 31,0 foiz, 2005-yilda 15,0 foiz, 2010-yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yil 1-yanvardan boshlab foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020–2023-yillarda bu ko‘rsatkich 15,0 foizni tashkil etdi.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i stavkasining 1997-2023-yillardagi o‘zgarish tendensiyasiya[8]

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida foyda solig‘i joriy qilingan. Xususan, hozirgi vaqtda dunyoning 218 ta mamlakatida foyda solig‘i undiriladi. Foyda solig‘i stavkasi ushbu mamlakatlarning 44 tasida 0-10 foizgacha, 50 tasida 10-20 foizgacha, 111 tasida 20-30 foizgacha, 26 tasida 30-40 foizgacha, 2 tasida 45-55 foizgacha etib belgilangan.

7 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
8 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Foydani soliqqa tortish tizimining tadqiq qilishda quyidagi taklif va xulosalar beramiz:

1. Korxona foydasi iqtisodiy kategoriya sifatida korxonalarni nafaqat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga, balki shu bilan birga byudjet daromadlarini foyda solig‘i bilan ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois foydani aniqlash va tartibga solish orqali uni soliqqa tortish chegarasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Foyda solig‘ining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda va byudjet daromadlarini tartibga solishdagi roli va ahamiyati benihoya kattadir deb hisoblaymiz.
2. Foyda solig‘i – jami daromaddan, daromadni olish bilan bog‘liq xarajatlarni, ya’ni isbotlangan va hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni, shuningdek, Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq to‘lovchi tomonidan yuzaga keltirilgan zararni chiqarib tashlash bilan hisoblangan soliq tushuniladi.
3. Foydani soliqqa tortishda uni takomillashtirish strategiyasi moliyaviy mexanizmini tartibga solishni ta’minlashi zarur. Shu orqali korxonalar foydasini soliqqa tortish elementlarini, ya’ni soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq imtiyozi, soliq to‘lash muddatlari kabilar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni optimal chegaralarda saqlanishiga imkoniyatlar yaratiladi.
4. Davlat tomonidan foyda solig‘i to‘lovchi korxonalarning innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishini rag‘batlantirish bo‘yicha faol soliq siyosatini yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Soliq siyosatidagi foydani soliqqa tortishda to‘siq bo‘luvchi salbiy omillarni tahlil qilish hamda qo‘llanib kelinayotgan foyda solig‘i imtiyozlarini samara keltirish mumkinligiga baho berish kerak.

Shunda soliq bazasini tartibga keltirish orqali har bir korxona investitsiya oqimiga, innovatsion mahsulotlar hajmining oshishiga, import tovarlar o‘rnini bosuvchi va eksportga chiqariladigan mahsulotlar hajmini oshirishga, mos keladigan soliq elementlarini tartiblashtiruvchi mexanizmini ishlab chiqish barqaror bosqichga ko‘tarilishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.
2. Ҳайдаров Н. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. – Т.: Akademiya, 2007. – 54 б.
3. Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – С. 170-189.
4. Алиева С. С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.
5. 12-сон БҲХС “Фойда солиқлари.” https://mf.uz/media/file/buhuchet/2021/msfo_proekti/ 26_05_2021/Uzb_ GVT_ BB2020_IAS12.pdf. 11.01.2022.
6. IAS-12 “Income Tax”, 12-сонли БҲХС “Фойда солиқлари” 2019.
7. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
9. http://www.soliq.uz
10. http://www.lex.uz

O‘ZBEKLARNING IJTMOIY-IQTSODIY VA MAISHIY TURMUSHI AN’ANALARI

Yuldasheva Gulnora Komilovna
Tarix fanlari nomzodi, Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v. b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbeklarning ijtmoiy-iqtsodiy va maishiy turmushi an’analari keng yoritilgan. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatlari ularda uchraydigan kamchiliklar va muammolar o‘rganilgan va ularga yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Gashtak, chavandoz, gurung, ko‘pkari, kigiz, uyg‘urlar, madaniyat, iqtisodiyot, aholi.

Abstract: In this article, the traditions of the socio-economic and household life of Uzbeks are widely covered. The socio-economic conditions of the population, the shortcomings and problems encountered in them were studied and solutions were proposed.

Key words: Gashtak, rider, gunung, kopcari, felt, Uyghurs, culture, economy, population.

Аннотация: В данной статье широко освещены традиции социально-экономической и бытовой жизни узбеков. Изучены социально-экономические условия жизни населения, возникшие в них недостатки и проблемы и предложены пути их решения.

Ключевые слова: Гаштак, всадник, гунунг, копчари, войлок, уйгуры, культура, экономика, население.

KIRISH

Qadimda aholining ijtmoiy qatlami orasidan yoshiga, jinsiga ko‘ra o‘tqaziladigan jamoviy yig‘inlar, marosimlar, xalq o‘yinlari asosan erkaklar ishtirokida bo‘lgan. Xususan, erkaklar gashtagi (yig‘in, ziyofat, gap, bazm va ko‘pkari, kurash) eng faol uyushgan va o‘zaro hamjihatlikka asoslangan tashkiliy jamoaviy yig‘inlar bo‘lib, jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bu turdagi yig‘inlar galma-gal, navbatma-navbat o‘tqazilib, unda uylanmagan bo‘z yigitlar, alohida mehmon kutadigan mehmonxonalari bo‘lmagan aholining kambag‘al tabaqasi ishtirok etgan. Yig‘inlarda erkaklarnng umumiy yig‘ilgan mablag‘lari hisobiga olinadigan mahsulotlar (go‘sht, sabzavot, meva, qant-qurslar va h.k) umumiy xazina sifatida oila boshlig‘i, ya’ni yig‘in o‘tkazayotgan kishiga og‘ir xarajat yukini solmaslik maqsadida olib berilgan.

Erkaklar yig‘inida yeguliklarni va bazi dasturxonning deyarli barchasini erkaklarning o‘zlari tayorlaganlar. Gap, yig‘inlar Kuz va Qish fasllarida asosan hosil yig‘im-terim tugagan davrida amalga oshirilgan. Erkaklar yig‘ini hududiy jihatdan birlik asosida mahalla, guzar, qishloq, ovullarda bo‘lgan. Yig‘inda qatnashish ixtiyoriy bo‘lib, unda ishtirok etish jamoaga qo‘shilish, jamiyatga a’zo bo‘lish, deb baholangan. Bu yig‘inda qishloq, ovul, guzarga oid barcha voqealar muhokama qilingan va ularga munosabat bidirilgan. Yig‘in jamoaviy, bir-biriga hurmat-izzatda bo‘lish, kasbiy yaqinlik, tajriba almashinuv, qarindosh-urug‘chilik hissi, do‘st-u birodarlik ruhi asosida tashkil etilgan.

Erkaklar o‘z yig‘inlarida yig‘in yetakchisini jo‘raboshi saylangan, ba’zi joylarda ular oqsoqol, bakovul, oshpaz, deb atalgan. Yetakchi barcha ishlarda dasturxonda bazimni boshlovchisi, suhbatni tashkil etuvchi, keyingi bazimni belgilovchi, sarf-xarajatlarni hisobini yurituvchi, davraning eng to‘rida o‘tiruvchi, alohida e’tiborga loyiq kishi hisoblangan.

METODOLOGIYASI

O‘zbekistonning Janubiy viloyatlari Qashqadaryo, Surxondaryoda Kuz, Qish oylarida “ko‘pkari, uloq” o‘yini o‘tqazilib unda bir necha qishloq, ovul guzardan kelgan otliqlar qatnashgan. Ko‘pkari so‘ngida maydonga so‘yib tashlangan buzoq (tana), qo‘y, echkini so‘nggi “borg‘u” (sovrun) yoki “oxiri”, deb nomlashgan va shu “oxiri”ni

halol ayirgan kishi o‘zining uyida, o‘ziga yaqin do‘sti-jo‘ralari hamda hamqishloqlari ziyofat bergan. Bu ziyofatda yosh yigitlar, otaxonlar, chavandozlar qatnashib barcha o‘zining hisobidan umumiy ulush (pul, meva, non) berib “oxiri” zifatini berayotgan xonadonga to‘planishgan, bu ziyofat “to‘kma” deb ham atalgan. Yig‘inda qishloqning eng kuchli mohir chavandoz, polvonlari saralangan. Ularga keksalar nasihat berib keyingi ko‘pkari o‘yinida jamoaning o‘zaro hamjihatlik bilan harakatda bo‘lishi kelishib olingan. Ba’zi hollarda “oxiri” borg‘ini ayirgan, boshqa bir kishi chavandozlar jamoasiga qo‘shilish uchun ziyofat tashkil etgan va ushbu ziyofatda xonadon egasiga, uning o‘g‘liga oqsoqollar duo berib, bundan keyingi o‘yinlarda o‘z oti bilan ko‘pkari o‘yini davrasi - qurga qo‘shilgani e’lon qilingan.

Yig‘in o‘tqaziladigan xonadonda ayollar faqat non pishirib berishgan, erkaklar yig‘inini to‘planishidan asosiy maqsad o‘yin-kulgi, kayfiyatini chog‘ o‘tqazishdan iborat bo‘lmay, balki qishloq, mahalla muamolari muhokama etilib, oqsaqollarning maslahatlari tinglangan, jamoa yig‘inining tartib qoidalari belgilangan, ushbu buzganlarga choralar ko‘rilgan. Bunday yig‘inlar mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tashkiloti, tengligi va demokratik asosdagi yig‘ini bo‘lgan. Yig‘inda musiqa va qo‘shiq, dostonlardan parchalar ijro etilib, maqol, matal, topishmoq, ertak va latifalar aytilgan.

Shuningdek, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan suhbatlar, hadislardan namunalar o‘qilib, odamiylik xususida suhbat va bahislar tashkil etilib, mushoira (she’riy aytishuvlar) o‘tqazilgan.

Yig‘inlar o‘zaro yordam, birdamlikning o‘ziga xos na’munasi bo‘lgani uchun yig‘in qatnashchilari bir-birlarining xo‘jalik tomorqa ishlariga, yer haydash, hosilni yig‘ish, yanchish kabi ishlariga yordam berganlar. Yig‘inda ba’zan hazil-kulgu tariqasida tashkil etiladigan odatlarga xos amal qilgan. Masalan, jo‘raboshi o‘tirgan o‘rnidan turib ketsa, uni joyini bo‘sh tashlab ketishda ayblab, uning burchagida tik o‘qazib qo‘yib jazolashgan, jo‘raboshi o‘z hisobidan gashtak ishtirokchilariga ziyofat berish majburiyatini olmaguncha u uy burchagida tik turavergan. Agar jo‘raboshi o‘tirgan joyida ko‘rpachani ostiga biror buyim, masalan, pichoq qo‘yib ketgan bo‘lsa jazo bekor qilingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Erkaklar yig‘inining yozilmagan axloqiy qonunlari bo‘lgan ya’ni, yig‘in hayotiga zid xatti-harakatlar qilmaslik, belgilangan majburiyatlar, talablarni ado etish, yig‘in qoidasini buzgan, o‘g‘irlik qilgan, ayollar shaniga tegadigan xatti-harakatlar qilgan jamoa a’zosi jamoadan haydalgan. Agar yig‘in ishtirokchilaridan biri o‘z jo‘rasining singlisiga yomon ko‘z bilan qarasa, uni “mahov” deb atashgan bunda jamoa a’zolarining onasi, xotini yoki singlisiga hurmatsizlik qilgan jamoa a’zosi hech gap-so‘zsiz jamoadan uzoqlashtirilgan. Erkaklar yig‘inining o‘zi nomiga binoan alohida o‘ziga xos amaliy qoidasi bu ayollarning gashtakda ishtirokining taqiqlanishidir. Ayollarning erkaklar oldida urishishi, taom yeyishi lozim amasligi tufayli erkaklar va ayollar davrasi qattiy alohida bo‘lgan, bu holatni G. Morgan jinslarni ajratishning o‘ziga hos belgisi deb hisoblagan.

Farg‘ona vodiysida yig‘in a’zosi uyida ba’zim gashtak bergan kuni ushbu xonadonga qarindosh ayollar dasturxon bilan “xormaga” kelishilgan va ba’zim tashkil etishda erkaklar yordam berishgan. Gashtaklarda ayollar ishtirokining o‘ziga xos sababi, boshqa xonada borligini bilgan erkaklar yarim tungacha qiy-chuv o‘yinlar, baland aytishuvlar, bahs-munozaralarga kirishib ketib, chegaradan chiqishdan o‘zlarini tiyishgan, bundan tashqari ayollar ba’zi hollarda kimning eri yig‘inda eng chapdast, ilg‘or ishtirokchisi ekanligini bilish uchun ham yig‘in bo‘layotgan xonadondan tez-tez xabar olib turishgan. Demak erkaklarning har qanday yig‘ini ichki muhitda bo‘lsa ham ayollar ishtirokini ta’minlagan.

Ayollarning yana bir yig‘ini Navro‘z bayramida bo‘lib o‘tgan, uyda bir yil ichida turmush qurgan kelinchaklar to‘planishib, bir-birinikiga borishgan, o‘yin kulgu va “yong‘oq o‘yini” “qoshiq o‘yini” o‘ynab xursandchilik qilishgan. O‘zbek ayollari gashtaklari doimiy bo‘lmagan , butun O‘rta Osiyoda ayollarning birdamlik yig‘ini an’anaviy taomlardan Sumalak tayyorlash jarayonida bo‘lib, bu taomni tayyorlash marosimiy tusda amalga oshirilgan, bu yig‘inda qizlar, kelinchaklar qatnashgan, sevishganlar uchrashgan. S. M. Abramzon bunday bazimlar qirg‘izlarda ham ma’lum bo‘lishi haqidagi ma’lumotni bergan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Erkaklarning yig‘inlari esa navbatma-navbat, galma-gal, doimiy ravishda o‘tkazilib, o‘zaro yordam, birdamlik, hamfikirlilikning o‘ziga xos shakli sifatida keng tarqalgan. Xo‘jalik ishlari, uy-ro‘zg‘or yumushlari ham yosh guruhlarga va jinsiga qarab taqsimlangan. Erkaklar va yigitlarning xo‘jaylik va uy yumushlari xilma-xil, ma’suliyatli bo‘lgan, yer haydash, urug‘ qadash, daraxtlarni kesish, arpa, sholi, bug‘doylarni yig‘ish, joylash, chorvani boqish, unga ozuqa g‘amlash, qurilish ishlari, bu ishlar juda og‘ir mashaqatli bo‘lgan. Er, ota, oila boquvchisi, oila boshlig‘i oilaviy marosimlarni asosiy tashkil etuvchisi bo‘lgan. Ayol ishlari oilani iqtosodiy tajash, qizlarning asosiy yumushi kichik yoshli ukasiga qarash bo‘lgan, u boshqa ishlardan ozod qilinib, ba’zan onasi yoki opasiga uy ishlarida yordam berib, uy tozalagan, kir yuvish, ovqat pishirish, mevalarni terib, qurtish kabilar bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Onalar qizlarni turmushga tayyorlashgan, ya'ni ularga kashta tikish, gilam to'qish, kigiz bosishga o'rgatilgan. Agar qiz turmushga chiqqan, eriga chopon tikishni, sigir sog'ishni, osh pishirishni bilmasa, unga qizning onasini ayblashgan.

Xalqimizda "onasini ko'rib qizini ol" maqoli bejizga tarqalmagan. Turmushga chiqqach ayol barcha xo'jalik ishlarini bajarishga, uni iqtisodiy barqaror boshqarishga tayyor bo'lishi lozim bo'lgan.

Turmushga chiqqan kelinchaklarni yangi oilaning ro'zg'or ishlariga moslashtirish maqsadida bir qancha odatlar va irim-sirimlar: Surxondaryoda nikoh to'yining ertasiga yangi tushgan kelinchakning qaynonasi va xolasi surpa yozdirib, qo'lini unga, moyga botirib olgan va bu bilan kelinimiz shu xonadonga unday qorishib ketsin, risqliy bo'lsin, qo'li moyli bo'lib yursin, kelinimizning qo'li barakali bo'lsin fegan niyat bildirilgan.

Xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy turmush tarzini tadqiq qilarkanmiz, kishilik jamiyati taraqqiy etgan sari jamoatchilik marosimlari, urf-odatlari bugungi kunda yo'qolib borayotgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatni yo'qotmagan.

XULOSA

Muxtasar aytganda, Navro'z sayllari, xalq o'yinlari tarkibidagi marosimlar, o'yinlar yosh avlodni jimonan va ruhan tetik, ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda, ularni o'zaro mehr-oqibatli bo'lishida, o'zaro hurmat va umumbashariy qarashlarini shaklantrishda, mahalladagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ovoz berish orqali bir yoqadan bosh chiqarib yechishda, oilaviy tabirkorlikni boshqarishda muhim ahmiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Klyashtorniy S.G. Qadimgi turkey runic yodgorliklari O'rta Osiyo tarixi uchun manba sifatida. – M., 1964.
2. Mahmud Qoshg'ariy Devonu lug'atut turk. – T., 1960.
3. O'zbekiston Respublikasining Parlamenti 2019-yil 14-sentabr kuni "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi qarori.
4. Kubakov K. To'y va to'y marosimlati o'tmishda va hozir. – 2002-yil.

IQTISODIYOT TARAQQIYOTINI SOLIQLAR ORQALI TARTIBGA SOLISH VA RAG‘BATLANTIRISH SAMARALI TADBIRLARIGA KREATIV YONDOSHUV XUSUSIDA

Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich
Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot erkinlashuvi va soliq tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag‘batlantirish samarali tadbirlariga kreativ yondoshuvning ustunliklari hamda o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi,coliq mamuriyatchiligi,soliqni tartibga solish, soliq to‘lovchi.

Abstract: In the article, at the current stage of the liberalization of the economy and the modernization of the tax system in the Republic of Uzbekistan, the advantages and unique features of the creative approach to effective measures to regulate and stimulate economic development through taxes are scientifically justified.

Key words: Tax system, tax administration, tax regulation, tax payer.

Аннотация: В статье научно обоснованы преимущества и уникальные особенности креативного подхода к эффективнқм мерам налогового регулирования и стимулирования развития экономики на современном этапе либерализации экономики и модернизации налоговой системы в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Налоговая система, налоговое администрирование, налоговое регулирование, налогоплательщик.

KIRISH

Jahon amaliyotiga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlashning samarali mexanizmida soliq dastaklarini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon rivojlanish qonuniyatlari va uning soliq omillarini chuqur tahlil etish dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish va soliq stavkasini pasaytirish, soliqlarni to‘lash va soliq hisobotlarini taqdim etishning elektron tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, biznesni yuritish uchun qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaratish masalasiga alohida e’tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

Xalqaro amaliyotda soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi samarali taraqqiyoti yo‘nalishlariga doir keng ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy izlanishlarda jahon bozori kon’yunkturasidagi keskin o‘zgarishlar, xalqaro soliq amaliyoti va uning biznes muhiti, raqobatning milliy doiradan jahon darajasiga chiqqanligi asosida soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi samarali taraqqiyotini ta’minlashga oid o‘rta va uzoq muddatli strategiyaga ta’sir etuvchi omillarni oldindan baholash kabilarga alohida e’tibor qaratilgan. Xalqaro miqyosda soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi samarali taraqqiyoti yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar tizimli ravishda olib borilmoqda va bunda AQSh, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya olimlari ularning metodologik va amaliy ahamiyatiga, MDH mamlakatlarida esa ko‘proq nazariy jihatlariga urg‘u berilmoqda. “Hozirgi vaqtda global miqyosda soliq siyosatining eng ko‘zga ko‘ringan masalalaridan hamda soliqqa tortishning tartibga solish funksiyasi samarali taraqqiyoti yo‘nalishlaridan biri sifatida – unda raqamli iqtisodiyot ilg‘or yutuqlaridan keng foydalanish va xo‘jalik subyektlarini soliqqa tortish jarayonining avtomatlashtirilgan tizimini yaratish hisoblanadi” [1]. Xalqaro tajribada natijaga asoslangan soliq islohotlari fan, texnologiya va innovatsion siyosatning uzviyligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda jahon andozalariga mos samarali soliq tizimiga tayanuvchi mustahkam iqtisodiy asos hamda real natijaga asoslangan istiqbolli taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Soliq yukini pasaytirib borish, soliq to‘lovchilar

o‘rtasidagi uning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf etish, soliq ma’muriyatchiligidagi nomukammalliklar tufayli soliqlarni hisoblash va to‘lashdagi muammolarni bartaraf etish, soliq to‘lovchilar bilan soliq organlari o‘rtasidagi iyerarxar munosabatlarga yo‘l qo‘ymaslik va ularning “hamkorlikda o‘sishi”ni ta’minlashga erishish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan asossiz soliq tekshiruvlarini bartaraf etish va soliq maslahati ko‘rsatish hamda samarali nazorat tadbirlariga o‘tish vazifasi belgilandi. Respublikamizda “yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko‘paydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o‘tgan yili soliq to‘lovchilar ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag‘ qolishi, albatta, ularga o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi” [2]. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur ilmiy maqola mavzusining bugungi kundagi islohotlarning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligining samarali vosita va usullaridan foydalanish asosida “soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” [3], “soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish” [4], “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi vazifalari ijrosi yakunida soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini 90 foizgacha yetkazish lozimligi” [5] ta’kidlandi. Bular davlat tomonidan samarali soliq siyosatini yuritish bo‘yicha strategik rejalashtirish va prognozlashtirish vazifalarini belgilab berdi. Mazkur vazifalar budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash, samarali soliq ma’muriyatchiligini shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Mazkur vazifalar “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da ham yanada qat’iy va keng qamrovli tarzda qo‘yildi: “...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” [6] muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliqlar va majburiy ajratmalarni kamaytirish hamda soliq majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarish bo‘yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarni rejalashtirishga bo‘lgan zaruratni T. S. Malikovning “har bir soliq to‘lovchi necha so‘m, qachon va nima uchun soliq to‘lashi lozimligini bilmog‘i kerak”[1], degan fikri o‘zida to‘liq ifodalay oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik grafiklardan, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalangan holda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligidagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha fikr va mulohazalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sh. Toshmatovning “Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2008) korxonalar to‘laydigan soliqlarning mohiyati va zarurligi, soliqlar vositasida korxonalar iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish yo‘llari borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Aynan ushbu tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha masalalar tadqiq etilgan.

N. Ashurovaning “Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2018) barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan..

I. Niyazmetovning “Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2019) mamlakat soliq amaliyotida soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tadqiqiga bag‘ishlangan.

X. Zaripovning “Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash yo‘llari” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi (2020) mamlakatimizda soliq tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash yo‘llari tadqiqiga bag‘ishlangan.

1 Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. Monografiya. – T.: “Akademnashr”, 2011. – B. 195

Biroq, ushbu ilmiy ishlar amalga oshirilgan vaqtda iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashuvi sharoitidagi yangi soliq konsepsiyasi siyosati doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqboldagi vazifalarini hisobga olgan holda soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini tizimli tarzda tadqiq etish va uning diqqat markazida, “raqamli iqtisodiyotga asoslangan elektron hisob-kitob tizimini yo‘lga qo‘yish”, “erkin raqobatga asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochish”, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish moliyaviy ta’minotining muhim asosi bo‘lmish “davlat fiskal maqsadlari va soliq dastaklari samarali amal qilish mexanizmi” mutanosibligini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda uyg‘unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini yaratish masalasi kun tartibiga qo‘yilmagan edi va hozirgidek keskin ahamiyat kasb etmagan edi. Aynan mana shuning uchun ham, hozirda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot taraqqiyotini soliqlar orqali tartibga solish va rag‘batlantirish yo‘nalishlarini tadqiq etish ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda yangicha yondashuvning zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishni yoqlovchi ko‘plab nazariyalar mavjud. Jumladan, A.Smit tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning fiskal ahamiyati bilan birgalikda iqtisodiyotni boshqarishda foydalaniladigan vosita sifatida o‘rganish lozimligini tasdiqlaydi.

“Soliqlar – iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita” konsepsiyasi iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishni ta’minlash va iqtisodiyotni boshqarishda soliqlardan foydalanishni anglatadi. Keyns o‘zining ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarib turish zaruratini nazariy jihatdan asoslab bergan va soliqlarga avtomatik tarzda barqarorlashtiruvchi vosita sifatida qaragan. Shu bilan birgalikda soliq mexanizmini o‘zgartirib, soliq siyosatini iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga muvofiqlashtirishni tavsiya yetgan.

“Soliqlar – daromadlarni barqarorlashtiruvchi vosita” nazariyasining asoschisi Ye.Jerarden (fransuz iqtisodchisi) soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta’sir yetib, jumladan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo‘llash orqali jamiyat a’zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta’kidlaydi.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishning asosiy maqsadi xo‘jalik yuritishda qulay sharoitlarni yaratib berish va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, shu maqsadlarga yerishish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- soliq tushumlari hajmini o‘zgartirish;
- soliqqa tortishning shakl va usullarini o‘zgartirish;
- soliq stavkalarini o‘zgartirish, ularni tabaqalashtirish;
- soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan obyektlarni o‘zgartirish;
- jarimalar qo‘llash va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ta’sir yetadi.

Makroiqtisodiy darajada, soliq stavkasi miqdoriga o‘zgartirish kiritish orqali inflyatsiyani chegaralash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarining hududlararo mukammal joylashishini tartibga solish, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash, iqtisodiy o‘sishga yerishish kabi keng ko‘lamli maqsadlarga yerishish mumkin.

Mikroiqtisodiy darajada yesa, xo‘jalik yurituvchi suyubyektlarning moliyaviy holatiga ta’sir yetishi, ularning investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishi kabilarga yerishishi mumkin.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi yelementlaridan keng ko‘lamda foydalaniladi. Ulardan keng qo‘llaniladigan va samarali choralari sifatida soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini o‘zgartirish kabilarni alohida qayd yetib o‘tish lozim.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag‘batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari rag‘batlantirish va samarali qo‘llanilishiga qarab quyidagi ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil yetilgan korxonalarga imtiyozlar berish;
- soliq to‘lashdan vaqtincha ozod yetish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliqqa tortishning moslashuvchanligini, yuqori samaradorligini, tizimli moslashuvini ta'minlashning asosi uni modernizatsiya qilish, amalga oshirishning zamonaviy, xolisona asoslangan tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shakllari, usullari, mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi. Innovatsion baza mavjud salohiyatni maksimal darajada oshirish, soliq modellarining funksionalligini kengaytirish imkonini beradi.

Buning uchun ilg'or axborot texnologiyalari, iqtisodiy va matematik usullar, mantiqiy sxemalar qurish, tizimlarning ishlash jarayonining algoritmlaridan foydalanish maqbuldir. Amaldagi faoliyatni rejalashtirishning bir qancha muqobil variantlarini ishlab chiqish bilan optimal tanlangan, tahlil qilingan va sintez qilingan moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida soliqni tartibga solishni o'zgartirish davlat daromadlarini shakllantirish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Jahon soliq amaliyoti tajribalarini umumlashtirgan holda soliqqa tortish fiskal tipining tartibga soluvchi tipiga transformatsiyalashuvi obyektiv tendensiyasi kuzatilayotganligi aniqlandi va shu bilan bog'liq tarzda yangi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish istiqbollarida soliqqa tortishning tartibga soluvchi tipiga o'tish maqsadga muvofiqdir.
2. O'zbekiston Respublikasidagi soliq tizimi modernizatsiyasiga hozirgi yondoshuvlarni o'zgartirish zarurligi aniqlandi. Soliqlar tartibga solish funksiyasi amal qilishini soliq imtiyozlari tizimi faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan "soliq imtiyozlaridan foydalanish tizimida samarasiz imtiyozlar bekor qilinishi, ulardan mutlaq voz kechilishi lozimligi xaqida"gi yondoshuvlarni qayta ko'rib chiqish hamda "soliq imtiyozlari tizimi samarali faoliyatini ta'minlash" amaliyotiga qaytishning maqsadga muvofiqligi, avvalombor, korxonalarning ilmiy-texnik ishlanmalarga, yangi texnologiyalar sotib olishga, ilmiy-tadqiqot ishlariga, personal malaka darajasini oshirish ishlariga, ishlab chiqarishning ekologik havfsizligini ta'minlash ishlariga yo'naltiriladigan foydadan soliq bo'yicha imtiyozlar tizimini qo'llash zarur.
3. Soliqlarning tartibga solish funksiyasining bir qismi sifatida soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirish maydonga chiqadi [7]. Ushbu yo'nalishda quyidagilar taklif etiladi:

- soliq organlari ishining texnologik jarayonlari uchun yagona standartlarni belgilash;
- soliq solinadigan operatsiyalarning monitoringini takomillashtirish maqsadida kompleks axborot tizimlarini keng va tezkor ravishda joriy etilishi tufayli soliq to'lovlarini majburiy yig'ish mexanizmini kuchaytirish;
- soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun soliq auditi imkoniyatlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paying Taxes 2022. A unique report by PwC and the World Bank Group. http://www.pwc.com/gx/en/paying-taxes/pdf/pwc-paying-taxes-2023.pdf
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent shahri 2020-yil 24-yanvar, https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020.
3. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA. "Xalq so'zi" gazetasi 2017-yil 8-fevral.
4. Malikov T. S., Jalilov P. T. Budjet-soliq siyosati. Monografiya. – T.: "Akademnashr", 2011. – B. 195.
5. Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: "Госполитиздат", с.360.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ni tasdiqlash to'g'risida"gi №PF-60-sonli Farmoni.
7. Djamalov Kh. N., Abdullayev A. B, (2021). Development Of The Methodology Of Accounting Expertise Of Tax Obligations. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 151-163.

INTELLEKTUAL RIVOJLANISH SARI – O‘ZBEKISTONDA AKADEMIK MUSTAQILLIK VA ILM-FAN TARAQQIYOTI

Yuldashev Feruz Isroil o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning global landshaftdagi akademik mustaqillik bo‘yicha hozirgi mavqyeini chuqur tahlil qilish uchun AFI so‘rovi ma’lumotlari va ilmiy fikrlarni birlashtirilgan. O‘zbekistondagi o‘ziga xos ilmiy sharoitlarga e’tibor qaratilgan ushbu maqolada akademik mustaqillik bilan bog‘liq muammolar va yutuqlar yoritilgan. Bundan tashqari, u O‘zbekistonda akademik erkinlikni oshirishga qaratilgan maqsadli takliflarni taqdim etadi, intellektual ochiq muhitdan olinadigan ijtimoiy manfaatlarni ta’kidlaydi. Akademik mustaqillikning nozik jihatlarini o‘rganish orqali ushbu maqola O‘zbekistonda jonli akademik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan munozaralarga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: Akademik mustaqillik, madaniy mulohazalar, Oliy ta’lim tizimi, demokratik qadriyatlar, nutqiy kompetensiya, Jamiyat farovonligi, fikrlar xilma-xilligi, ta’limdagi innovatsiyalar.

Abstract: This article combines insights from the AFI survey data and scholarly opinions to present an in-depth analysis of Uzbekistan’s current standing on academic freedom within the global landscape. Focused on the specific scientific conditions in Uzbekistan, the article highlights the challenges and achievements related to academic freedom. Moreover, it offers targeted proposals aimed at enhancing academic freedom in Uzbekistan, underscoring the societal benefits derived from an intellectually open environment. By delving into the nuances of academic independence, this article aims to contribute to the ongoing discourse on fostering a vibrant academic culture in Uzbekistan.

Key words: Academic independence, cultural considerations, higher education system, democratic values, rhetorical competence, community welfare, diversity of opinions, innovations in education.

Аннотация: Эта статья объединяет данные опроса AFI и мнения ученых, чтобы обеспечить углубленный анализ текущей позиции Узбекистана в отношении академической независимости в глобальном ландшафте. В данной статье основное внимание уделяется уникальным научным условиям в Узбекистане и освещаются проблемы и достижения, связанные с академической независимостью. Кроме того, в нем представлены целевые предложения, направленные на повышение академической свободы в Узбекистане, подчеркивая социальные выгоды, получаемые от интеллектуально открытой среды. Исследуя нюансы академической независимости, данная статья призвана внести вклад в продолжающуюся дискуссию о развитии яркой академической культуры в Узбекистане.

Ключевые слова: Академическая независимость, культурные соображения, система высшего образования, демократические ценности, риторическая компетентность, благосостояние общества, разнообразие мнений, инновации в образовании.

KIRISH

Oliy ta’lim, iqtisodiyotning barcha sohalari singari, bozor iqtisodiyotining ta’siri ostida muntazam rivojlanish va shuning bilan bir qatorda shiddatli raqobat muhitida potensial ustunliklarga erishishni taqazo etadigan murakkab tizimdir. Bozor iqtisodiyotida raqobatbardoshlik talablariga munosib bo‘lishning asosiy shartlaridan biri hisoblangan erkinlik tushunchasi bugungi kunda ta’lim tizimida ham o‘z o‘rniga ega, zero Adam Smit e’tirof etgani kabi erkinlik zamonaviy iqtisodiy tafakkurning boshlanishidan boshlab o‘sish manbaidir (Smit, 1937). Shu nuqtayi nazardan, ta’lim tizimi islohotlarini amalga oshirishda eng samarali motivlardan biri – bu akademik mustaqillikninng ta’minlanganligidir. Erkin bozor qonuniyatlariga asoslangan iqtisodiyot sektorlari nisbatan tezroq rivojlanadi, chunki erkinlik innovatsiyalarni rag‘batlantiradi (Schumpeter, 1942). Akademik erkinlik ham xuddi shunday fan me’yorlarida, ochiqlikning ta’minlab berilishi va tanqid-kritika erkinligi kabi ilm-fanning turli negiz jihatlari bilan bir qatorda o‘rnatilgan (Merton, 1973; Polanyi, 1947). Ushbu dolzarb tushuncha OTMlarda haqiqatga intilish, turli g‘oyalar almashinuvi va ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga asos-

lanib, jonli intellektual hamjamiyatni rivojlantirish uchun muhim bo‘lib hisoblangan avtonomiya va mustaqillik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Akademik mustaqillik haqida so‘nggi yillarda ko‘p sonli tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsada, ilmiy adabiyotlarda uchraydigan ilk tahlillar Casimirning tadqiqotlarida uchrashi ma’lum (Casimir, 1971 va Audretsch e.t.c 2023). Biroq qadimgi yunon faylasufi Sokrat (u o‘zining falsafiy fikrini ifoda etish erkinligidan mahrum bo‘lishdan ko‘ra, o‘limga hukm qilinishini afzal ko‘rgan) ko‘pincha akademik erkinlik g‘oyasi uchun kurashgani tan olinadi. Bu tushuncha olimlarning tadqiqot erkinligini o‘z ichiga olgan aralashuvlarsiz tamoyillar haqidagi g‘oyalar asosida ilgari surilishini Plato o‘z asarlarida ta’kidlaydi (Stone, 2015). Biroq, bugungi kunda buni tushunganimizdek, akademik erkinlikka zamonaviy huquqni rasmiylashtirish, XV asr boshlariga qadar sodir bo‘lmadi. Shunday qilib, Sokrat erta komissiya bo‘lgan bo‘lsa-da, rasmiy tan olish va akademik erkinliklarni himoya qilish institutsionalizmda belgilangan huquqqa aylanish uchun uzoq vaqt talab etildi.. Akademik erkinlik huquqini institutsionallashtirish XX asr boshlariga qadar (Tosh, 2015 yil) olib borildi.

Garchi akademik mustaqillik haqida tavsilotlatlar ko‘p bo‘lsada, ular orasida Fuchs va Eisenberg alohida ahamiyat kasb etadi. Akademik mustaqillik oliy ta’lim muassasalarida (universitet, kollej va boshqa OTMlar) akademik jamiyat a’zolari mustaqilligi hisoblanib, bu ularning ta’lim berish, ta’lim olish, amaliyot va tadqiqot faoliyatlarini amalga oshirishdagi daxlsizligini nazarda tutadi (Fuchs 1963, Eisenberg 1987). So‘nggi 10 yillikda olib borilgan tadqiqotlarning ko‘pchiligida akademik mustaqillikning pasayib ketishi va ta’lim sohasi vakillari faoliyatlariga turli jihatdan aralashuvlar sodir etilayotgani haqida tahlillar olib borilgan (Lott, 2023). Shuningdek butun dunyo bo‘ylab siyosiy madaniyat, ilmiy madaniyat va hukumat-OTM aloqalari tulariga ko‘ra akademik mustaqillik ham farqlanadi (Marginson, 2014, 24 b.), shuning uchun ham akademik mustaqillik umumbashariy printsip bo‘libgina qolmay, kontekstga aloqadorligi jihatidan mamlakat yoki OTMning madaniy, siyosiy, huquqiy, institutsional omillari kabi farqlanishiga qarab farq qilishi mumkin (Lott, 2023). Akademik mustaqillikning jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda, 2020 yilda AFI (Academic Freedom Index) indikatori ishlab chiqilgan bo‘lib mamlakatlar kesimida akademik mustaqillikning bir qancha jihatlari 0-1 shkala orqali hisoblash yo‘lga qo‘yilgan(Wikipedia). Spannagel va Kinzelbach AFI indeksini akademik mustaqillik konsepsiyasining ko‘p qirrali xarakteridan kelib chiqqan holda adolat o‘rnatuvchi xalqaro qonunlarga asoslangan universal tizim sifatida izohlashadi (Spannagel & Kinzelbach, 2022, 5 b.). Ilm fanning bu sohasida dolzarblik darajasidan kelib chiqib olimlar joriy davr muammolari uchun muqobil yechimlar izlashgan va tadqiqot maqsadi ham shunga mos yo‘naltirilgan. O‘zbekiston sharoitida esa, birinchi dunyo mamlakatlaridan farqli ravishda, akademik mustaqillikning OTMlarga o‘z imkoniyat va sharoitlariga asoslangan holda mustaqil qarorlarni qabul qilish funksiyalariga ko‘proq urg‘u beriladi. Shunday qilib, akademik mustaqillik faoliyat daxlsizligining amalga oshirilishi sifatida ta’riflanib, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ta’lim berish, akademik almashinuv, institutsional avtonomlik, kampuslar yaxlitligi va nihoyat ilmiy-madaniy jihatdan erkinlikni anglatadi.

TADQIQOT METODIKASI

Akademik mustaqillik mavzusi bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Akademik mustaqillikka berilayotgan urg‘u va uning hukumat doirasida rag‘batlantirilishi uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini ko‘zlanganlikdan dalolatdir. Akademik mustaqillik va institutsional avtonomlik jamiyatda demokratiyaning zaruriy rivojlanish darajasini namoyish etadigan muhim komponentlari hisoblanib, ko‘pgina mamlakatlarda demokratik qadriyatlarga bog‘liq mavzularga nisbatan sodir etilayotgan xalqaro tayziqlardan xoli muhitni shakllantirishni taqazo etadi (Sjur Bergan e.t.c, 2020).

Germaniyaning Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg (FAU) universiteti va the V-Dem Instituti tadqiqotchilari hamkorligida butun dunyo bo‘ylab akademik erkinlikning “de-fakto(haqqoniylik)” darajasini baholash maqsadida Akademik mustaqillik indeksi (AFI) ishlab chiqilgan bo‘lib, 1900-2022 yilga 122 yillik intervalda ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. -rasmda esa 0-1 shkalada butun dunyo mamlakatlari bo‘ylab akademik mustaqillik darajasi tasvirlangan. AFI erksiz o‘zgaruvchi funksiyasi hisoblanib, bevosita erkli o‘zgaruvchi hisoblangan 5 ta faktorga (tadqiqot va ta’lim berish erkinligi, akademik almashinuv erkinligi, oliy ta’lim muassasalarining institutsional avtonomiyasi, kampus yaxlitligi va akademik – madaniy ifoda erkinligi) bog‘liqdir. AFI indeksidan farqli ravishda bu omillar 1-4 shkalada baholanish tizimi ishlab chiqilgan.



1-rasm: Akademik mustaqillik darajasi buyicha mamlakatlar tasniflanishi

AFI indeksiga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha ta'riflanadi[1]:

- **Tadqiqot va ta'lim berish erkinligi.** Iqtisodiyotning turli sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar va tahlillarni amalga oshirishda hech qanday ta'qiqlar va cheklovlarning bo'lmasligini anglatib, olimlar va tadqiqotchilarning muloqot doirasini kengaytirish va ishonchli axborot bilan ta'minlanishini izohlaydi.
- **Akademik almashinuv erkinligi.** Olimlar va tadqiqotchilar o'z ilmiy natijalari va yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarini jamoatchilikka yetqazib berish va muammolar yuzasidan boshqa tadqiqotchilar bilan, garchi ular turli mamlakatlarda tadqiqot olib borsalar ham, muhokamalar uyushtira olishlarini bildiradi.
- **Oliy ta'lim muassasalarining institutsional avtonomiyasi.** OTMlarning institutsional avtonomiyasi ularning o'z faoliyatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qila olishlarini, o'z resurslarini qay yo'sinda sarflay olish va hamkorlarini tanlash erkinliklariga egaligini anglatadi.
- **Kampus yaxlitligi.** OTMlarda xavfsizlik maqsadida o'rnatilgan kuzatuv instrumentlari boshqaruv xodimlarining akademik faoliyatga aralashish imkoniyatlarini cheklab (hattoki masofaviy ta'lim dasturlarida ham) faqatgina kampusda xavfsizlik talablariga javob berishini ta'minlash vazifasini bajarishi kerak.
- **Akademik – madaniy ifoda erkinligi.** Olimlar va tadqiqotchilar joriy muammolar, siyosiy muhit, ijtimoiy holatlar yuzasidan erkin fikrlash va o'z pozitsiyalarini to'siqlarsiz ifodalash erkinligiga ega bo'lishini bildiradi.

Bu omillarni butun dunyo bo'ylab fuqarolar (ko'pincha tadqiqotchilar) erkinlikni 4 darajada baholashadi (to'liq cheklangan, qattiq cheklangan, o'rta darajada cheklangan, ko'pincha erkinlik, to'liq erkinlik).

FAU universiteti va V-Dem Instituti tadqiqotchilari olib borgan 2022-yilgi izlanish natijalarida O'zbekistonning mintaqadagi strategik ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tishgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, akademik mustaqillik pasaygan 22 mamlakatda dunyo aholisining 50 %i istiqomat qilib, Hindiston va Xitoy 2,8 milliard aholining

1 https://www.google.com/search?q=academic+freedom+index&source=lmns&tbm=vid&bih=682&biw=1536&hl=en-GB&sa=X-&ved=2ahUKEwjgr869greDAxXpEhAIHSwoBUkQ0pQJKAN6BAgBEAg#fpstate=ive&vld=cid:b87b5399,vid:kOTPYMUU-xQ,st:0

farovonligiga ta'sir o'tqazmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilgani singari dunyo aholinsining 0,7 %i yashaydigan 5 kichik mamlakatlardan eng ahamiyatlisi – bugungi kunda 35 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan – O'zbekistondir. Shuningdek, oldingi yilgi tahlillarda AFI indeksi yaxshilanish holati faqat 2 ta (Gambiya va O'zbekiston) mamlakatda kuzatilgan bo'lsa, joriy yilda ularning soni 5 taga (Gambiya, O'zbekiston, Seyshell orollari, Chernogoriya va Qozog'iston) yetdi. Quyidagi grafikda Mamlakatlarning 10 yillik (2012-2022) intervaldagi o'zgarish dinamikasini ko'rish mumkin (Kinzelbach, K., etc.). Diagonal chizmadan yuqorida tasvirlangan mamlakatlarda AFI ko'rsatkichi oshgan va pastki maydonda ko'rsatilgan mamlakatlarda esa pasayish kuzatilgan.



2-rasm: Akademik erkinlik indeksi

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganilgan adabiyotlar va tahlillar yuzasidan akademik mustaqillik muhitini shakllantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- **Siyosatni qo'llab quvvatlash.** Olimlar va jamiyat ziyolilarining joriy ijtimoiy va akademik sharoitni hisobga olgan holda akademik mustaqillikka erishishning ilmiy jihatdan ishonchli nazariyalarini ishlab chiqib hukumatga takliflar berishi mexanizmini shakllantirish ayni muddaodir.
- **Jamiyat a'zolarining faolligini oshirish.** Akademik mustaqillikning ahamiyati jamiyat ziyolilari uchun muhim bo'lib, uning rivojlanishi ko'proq akademik subyektlarga bog'liq bo'lganligi uchun, unga erishishda va jamoatchilikda uning zarurligini oshirishda olimlar va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha individlar markaziy rol o'ynashadi.
- **Ta'lim muassasalarining ijtimoiy faolligini oshirish.** Jamiyat a'zolari akademik mustaqillikka ega bo'lishning afzalligini anglashgach, intellektual tadqiqotlarni qo'llab quvvatlaydigan muhitga asos solish uchun maktab kengashlari va ochiq forumlarda ishtirok etish, shuningdek ma'muriyat bilan hamkorlik qilishga erkin qiziqish bildirishlari mumkin.
- **Fikrlar aspektlarining keng ko'lamliligi.** Fikrlashning cheklanmaganligi asosiy shartlaridan biri hisoblangan demokratik muhitda shaxslarning turli sohalarda erkin va asosli muhokamalar olib bora olishi ilm fan rivojiga katta hissa qo'shadi.
- **Erkin nutq uchun imkoniyatlar eshigini ochish.** Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakat fuqarolari ilgarigi hayot tajribasiga tayangan holda nutqiy erkinlikka ehtiyojni unutib qo'yishadi va hatto zarur vaziyatda ham muloqotning nutq qilish, izohlash, tushuntirish kabi funksiyalarini bajarishdan o'zlarini olib qochishadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, akademik mustaqillik bugungi demokratik jamiyatni barpo etish uchun zaruriy qadamlardan biridir. Ilmga asoslangan va erkinlik bilan rag'batlantirilgan jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fuchs, R. F. (1963). Academic freedom. Its basic philosophy, function, and history. Law and Contemporary Problems, 28(3), 431–446.
2. Eisenberg, R. S. (1987). Academic freedom and academic values in sponsored research. Tex. L. Rev., 66, 1363.
3. Casimir, H. B. G. (1971). Industries and academic freedom. Research Policy, 1(1), 3-8.
4. Audretsch, David & Fisch, Christian & Franzoni, Chiara & Momtaz, Paul & Vismara, Silvio. (2023). Academic Freedom and Innovation: A Research Note.
5. Merton, R.K. (1973). The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations.
6. University of Chicago Press.
7. Merton, R.K. (1973). The Sociology of Science: Theoretical and Empirical Investigations. University of Chicago Press.
8. Polanyi, M. (1947). The Foundations of Academic Freedom. The Lancet, 249: 583-586
9. Schumpeter, J. (1942). Creative destruction. Capitalism, socialism and democracy, 825, 82-85
10. Smith, A. (1937). The wealth of nations [1776] (Vol. 11937).
11. Lott, L. Academic freedom growth and decline episodes. High Educ (2023).
12. Stone, G.R. (2015). A Brief History of Academic Freedom. In Bilgrami A., Cole J.R. (eds.) Who's Afraid of Academic Freedom? (pp. 1-9). Columbia University Press.
13. Sjur Bergan, Tony Gallagher and Ira Harkavy (2020) (eds.). Academic freedom, institutional autonomy and the future of democracy (Council of Europe Higher Education Series No. 24)
14. Kinzelbach, K., Lindberg, S. I., Pelke, L., & Spannagel, J. (2022). Academic freedom index - 2022 update (tech. rep.). Friedrich-Alexander-Universität Erlangen-Nürnberg (FAU) and Varieties of Democracy Institute. https://doi.org/10.25593/opus4-fau-18612
15. Kinzelbach, Katrin & Lindberg, Staffan & Lott, Lars & Spannagel, Janika. (2023). Academic Freedom Index Update 2023. 10.25593/opus4-fau-21630.

QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI: MAZMUNI VA RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Ibodullayev Abrorjon Axrorjonovich
PhD, Toshkent moliya instituti dotsenti

Muxtorov Ilxom Avazjon o‘g‘li
Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorining mazmun-mohiyati, uning tashkil etilishi va rivojlanishiga oid ilmiy-nazariy jihatlar tadqiq etilgan. O‘z navbatida, uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanib borishida ilk birjalarning fond birjasi sifatida shakllanib borish jarayonlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy resurs, qimmatli qog‘ozlar bozori, birja, valyuta, fond birjasi, investitsiya, jamg‘arma, raqamli instrumentlar, moliya bozori, professional ishtirokichlar, aksiyadorlik jamiyati.

Abstract: The article looks at the structure, evolution, and substance of the securities market. On the other hand, in the establishment and evolution of the structured securities market, the procedures of formation of the first stock exchanges as a stock exchange were investigated.

Key words: financial resource, stock market, the stock market, currency, stock exchange, investment, fund, digital instruments, financial market, professional participants, joint stock company.

Аннотация: В этой статье исследуется сущность рынка ценных бумаг, его устройство и эволюция. С другой стороны, в период формирования и развития организованного рынка ценных бумаг изучались процессы возникновения первых бирж, включая фондовую биржу.

Ключевые слова: финансовый ресурс, фондовый рынок, , валюта, фондовая биржа, инвестиции, сбережения, цифровые инструменты, финансовый рынок, профессиональные участники, акционерное общество.

KIRISH

Dunyo tajribasidan ma’lumki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va strategik rivojlantirish uchun zaruriy shart – moliyaviy resurslar va ularning faol jalb etilishi hamda to‘g‘ri taqsimlanishi hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlariga moliyaviy resurslar ta’minoti borasida qimmatli qog‘ozlar bozori (fond bozori)ning o‘rni nihoyatda muhim.

O‘z navbatida, davlat tomonidan uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini samarali tashkil etish, uning institutsional, informatsion va moddiy-texnik infratuzilmasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda doimiy takomillashtirib borish orqali moliyaviy resurslarni jalb etish va ularni faol aylanuvchanligini ta’minlash asosiy vazifadir. Tarkibiy jihatdan uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalari yuqorida ta’kidlangan vazifalarni uzoq muddatlardan buyon bajarib kelmoqda. Tarixan uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi va uning rivojlanishida birjalarning o‘rni beqiyosdir [1].

Ma'lumki, dastlabki birjalar tashkil etilgunga qadar savdo ko'rgazmalari va yarmarkalari o'z faoliyatini olib borishgan. Ular yillar davomida rivojlanib, ulardagi savdo hajmining o'sib borishi natijasida bu boradagi savdo mehanizmlarini o'zgartirish talabi yuzaga keldi. Jumladan, XV asrdayoq rivojlanib ulgurgan Florensiya, Genuya, Venetsiya kabi shaharlardagi savdo yarmarkamalari o'z faoliyatini yangicha iqtisodiy mexanizm – "tovar birjalari" sifatida faoliyat yurita boshladi [1].

Feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida xo'jalik munosabatlarini bir-biri bilan bog'lovchi hamda qarz mablag'larining taklifi va ularga bo'lgan talabni tartibga soladigan maxsus vositaga nisbatan qat'iy talab tug'ildi. Bunday vosita – birja shaklida – XVI asrda Ispaniya va Gollandiya o'rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi bilan shakllandi. Birja bevosita bozorga olib chiqilmaydigan hujjatlar bilan tasdiqlanadigan aniq sifat va miqdoriy xususiyatlarga hamda talab va taklif asosida rasman belgilanadigan narxlarga ega bo'lgan muayyan tovarlar bilan savdo qilish bo'yicha muntazam ravishda amal qiluvchi bozor sifatida yuzaga keldi.

1531-yilda Antverpen, 1566-yilda London va 1608-yilda Amsterdam tovar birjalari tashkil etildi. Tovar birjalarining o'sishi ularning safidan alohida birjalarning ajralib chiqishiga olib keldi. Ularda faqat o'ziga xos xususiyatli tovar – qimmatli qog'ozlar bilan savdo – sotiq qilindi. Dastlab bunday birjalar tovar birjalarining yordamchi bo'limlari shaklida faoliyat ko'rsatgan. Biroq, valyuta ayirboshlash operatsiyalarining kengayishi, muomalada tijorat veksellarining paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilishga ixtisoslashtirilgan muassasa – "fond birjalari"ning tashkil etilishiga zamin yaratdi [1].

Albatta, iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi hamda investitsiya va jamg'arma tizimining tobora takomillashuvi ham uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining faol rivojlanishi, bunda fond birjalariga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi, yirik sarmoyadorlarning o'z moliyaviy resurslarini samarali yo'naltirilishi oqibatida fond birjalari ham o'z ahamiyatini kuchaytirib bordi. Keyinchalik yirik ishlab chiqaruvchilar moliyaviy resurslarni jalb etish maqsadida o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarishi va ulardagi savdo ko'lamining kengayishi birjalar faoliyatiga yanada ijobiy ta'sirini ko'rsatishi barobarida uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishini tezlashtirib yubordi.

Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanib borishida 1592-yilda Antverpen birjasiga fond birjasi faoliyati bo'yicha qimmatli qog'ozlar narxlari ro'yxati e'lon qilingan vaqtdan boshlab foydalanila boshlaganligi muhim o'rin tutadi.

Shundan so'ng, birinchi aksiyalar XVI-XVII asrlarning so'nggida birjalarda yangi tovarlar – davlat qimmatli qog'ozlari, Angliyada Ost-Ind va Gollandiyada Vest-Indiya kompaniyalarining vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. XVIII asrning 92 yillariga kelib dunyodagi eng yirik bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlarining Nyu-York fond birjasi tashkil etilgan. Fond birjasining rivojlanishi 200 yil davom etgan. Nyu-York fond birjasidan so'ng Yevropa mamlakatlarida ham fond birjalari tashkil topa boshlagan. 1929-yilda Nyu-York fond birjasi inqirozga uchrashi jahon iqtisodiyotida va fond birjalari faoliyatida keskin o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik fond birjalarini tartibga solish maqsadida birja ishtirokchilari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish belgilab qo'yildi [1].

Bu borada uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va ularning tashkil etilishi, xususiyatlari borasida xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning nazariy qarashlari, fikr-mulohazalarining turlicha ekanligini ko'ramiz.

Quyida uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining ilmiy nazariy asoslari bilan bir qatorda ularning hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda rivojlanish tendensiyalari turli modellar orqali o'rganilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, rivojlanishi borasida yaponiyalik olim Y.Nobuyoshi o'z ilmiy ishlarida uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishida birjalarning ahamiyati, bu borada Tokio fond birjasining bugungi kunda rivojlanish tendensiyalarini tahlil etib, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida yangi raqamli instrumentlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi [2].

Shuningdek, yana bir guruh yaponiyalik olimlardan Y. Nishumura, Y. Sutsui esa o'z ilmiy tadqiqotlarida uyushgan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishini tahlil etib, xalqaro fond birjalari faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni ko'rib chiqqan [3].

Xorijlik tadqiqotchi olimlardan B. Nejla Tunis fond birjasining tashkil etilishi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini tahlil etish orqali uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishda fond birjasining ahamiyati va samarasini ilmiy ishlarida aks ettiradi. Uning fikricha, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori – yaxlit shakllangan va "ishonchli" moliyaviy resurslarni jalb etish uchun tashkil etilgan moliya muassasasidir" [4].

Shuningdek, bir qancha xorijlik olimlardan Yu. Hsing "Box-Cox" modeli orqali AQSHda uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorini [5], D. Stauffer, D. Sornetti qimmatli qog'ozlar bozorining tashkillashganlik darajasi va uning statistik shaffofligini "Cont-Bouchaud" modeli orqali tahlil etgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fiklarni umumlashtirgan holda, qimmatli qog‘ozlar bozori va uning tashkillashgan ko‘rinishi hisoblangan uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishi borasidagi xorijlik olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini quyidagi

1-jadvalda ifodalaymiz. Bu borada AQSH, Fransiya kabi davlatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar muhim ilmiy asoslardan hisoblanadi.

1-jadval: Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining ilmiy-amaliy asoslari yuzasidan xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari

Xorijiy iqtisodchi olimning ismi-sharifi	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori (birja)ga oid nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot ishlari mazmuni
Y. Nobuyoshi Nagoya universiteti (Yaponiya)	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorida birjalar asosiy muassasa bo‘lib, ular yirik investitsion imkoniyatlarni transformatsiyalash uchun tashkil etilgan moliya institutlari hisoblanadi.
D. Stauffer Kologne universiteti (Germaniya)	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining tashkillashganlik darajasi va uning statistik shaffofligini ta’minlash orqali xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini oshirish mumkin. “Cont-Bouchaud”modeli asosida bozordagi statistik ko‘rsatkichlarni tahlil etib, bozorning kelgusidagi dinamik o‘zgarishida klaster tuzish, prognozlarni ishlab chiqish muhim o‘ringa ega.
D.Sornette Найс-София Антиполис университети, (Франция)	
Yu Hsing Janubiy-Sharqiy Luiziana universiteti (AQSH)	“Box-Cox” modeli orqali AQSHda uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Olimning fikricha, uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori (fond birjalari) iqtisodiyotning o‘lchov vositasi sifatida kengayib bormoqda, kelgusida moliyaviy resurslarni ushbu bozor orqali to‘liq jalb etish ijobiy samaraga olib keladi.
Andrew Ellul Indiana universiteti (AQSH)	Qimmatli qig‘ozlar bozoridagi savdolar birjada tashkillashgan, uyushgan holda bo‘ladi. Ushbu uyushgan bozorlardagi moliyaviy resurslarning likvidlik darajasi birmuncha yuqori va ishonchli bo‘ladi. Mazkur bozorda fond birjalari alohida ahamiyatlidir. Birjalar mazkur bozorlarning asosiy richaglari sifatida tan olinadi. (Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida London fond birjasining uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozoridagi o‘rni va uni rivojlanib borish tendensiyalari tahlil etilgan)
Ian Tonks Bristol universiteti (Buyuk Britaniya)	
Hyun Song Shin Xalqaro Hisob-kitoblar banki	
D. Grigoreva Rossiya Xalqlar do‘stligi universiteti (Rossiya Federatsiyasi)	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori (fond birjasi) moliyaviy resusrlarni samarali harakatlantiruvchi vosita bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlarida ushbu bozorning boshqa davlatlarga nisbatan rivojlanishida turli to‘siqlar mavjud. Bu moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmi bilan bog‘liq jarayondir. Inflyatsiya va valyuta kurslari ham mazkur bozorga sezilarli kuchli ta’sir o‘tkazmoqda.

Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi iqtisodchi olimlar nafaqat o‘zining ilmiy izlanishlarida mazkur bozorning kelib chiqishi va uning dolzarbligiga e’tibor qaratibgina qolmasdan, uning iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rnini turli iqtisodiy tahlil modellari orqali ko‘rib chiqqanligi va zaruriy xulosalarni shakllantirganliklarini guvohi bo‘lamiz.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarida uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi, xususiyatlari, uning rivojlanish bosqichlari hamda mazkur bozorning institutsional tuzilmasi sifatida birjalarning shakllanishi va infratuzilmasini jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishini ta’minlash, O‘zbekistonda birja faoliyatining dinamik tahlili kabi dolzarb masalalar qamrab olingan.

2-jadval: Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining ilmiy-amaliy asoslari yuzasidan mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari

Xorijiy iqtisodchi olimning F.I.Sh.	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori (birja)ga oid nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot ishlari mazmuni
I. Butikov	Qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozori – bu qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lish sohasi bo‘lib, unda qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarini ushbu bitimlar ishtiroklari uchun qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solingan”ligini qayd etib o‘tadi.
Sh. Shoxa’zamiy	Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalarining faoliyat tamoyiliga asosiy e’tibor qaratgan. Uning fikricha, barcha ishtirokchilar (professional ishtirokchilar)ga teng sharoit yaratib beruvchi, aniq reglament va qat’iy belgilangan qoidalar asosida harakat qiluvchi, tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligini ta’minlovchi tamoyillarga ega yaxlit infratuzilmaviy savdo maydonini birjalar sifatida e’tirof etish mumkin
A. Vaxabov, N. Jumayev	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida qimmatli qog‘ozlar bozorida kutazilgan “puf effekti”ning yuzaga kelish sabablarini rivojlangan davlatlardagi ko‘rsaktichlar orqali tahlil etilgan. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda ushbu inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish borasida tavsiyalar berilgan.
M. Xamidulin	Ilmiy ishlarida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida korporativ strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun korporativ boshqaruvning moliyaviy mexanizmi vositalarini kompleks qo‘llashning dolzarb muammolari ko‘rib chiqilgan. Kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish samaradorligini oshirishda korporatsiyalarning ichki xususiyatlarining ta’siriga alohida ye’tibor qaratiladi; davlatning korporativ sektorda ishtirok yetish shakllari va usullari; dividend siyosatini shakllantirish tamoyillari; kapital tuzilmasini boshqarish usullari; yuqori darajada birlashtirilgan korporativ korporativ tuzilmalarni yaratishda muhim sinergetik ta’sirni ta’minlash.
A. S. Axmedov	O‘zbekiston bank tizimida aktivlarni sekyuritizatsiyalash doirasida emissiya qilingan moliyaviy derivativlar kredit riskini boshqa shaxsga o‘tkazish imkonini beruvchi vositalar ekanligi asoslangan; bank aktivlarini sekyuritizatsiyalash jarayonida yagona maqsadli yo‘nalishga ega bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida namoyon etuvchi, sekyuritizatsiyalash jarayonining tuzilmaviy mexanizmi ishlab chiqilgan;
X. M. Akromov	O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta’siri o‘rganilgan.
F. I. Mirzayev	Moliya bozori operatsiyalari risklari qimmatli qog‘ozlar misolida tahlil qilingan.
F. Muxamedov	Ilmiy ishlarida xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarining moliyaviy globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi roli tahlillar natijasida yoritib berilgan. Shuningdek, fond birja savdolarida mijozlarga masofadan turib savdo tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish imkoniyatini yaratish asosida qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilish tizimi takomillashtirilgan.
J. I. Karimqulov	O‘zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog‘ozlar bozori rolini oshirish yo‘llari ilmiy tadqiq etilgan.
S. E. Elmirzayev	Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi, jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy xususiyatlari tavsilangan. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokichlari faoliyati tahlil etilgan.
A. A. Shomirov	Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan
Q. R. Chinqulov	Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog‘ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan
U. Xalikov	O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarida mamlakatimiz fond bozoridagi moliyaiviy vositalarning tarkibi va qo‘llanilish dajarasini kengroq tasniflagan.
Sh. Sultonov	O‘z ilmiy ishlarida, AJlari o‘rtasida teng raqobat muhitini yaratish maqsadida, davlat ulushi bor korxonalar sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan qismini davlat budjetiga o‘tkazishni amaliyotga joriy qilishni taklif etgan

Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Jumladan, respublikamizning iqtisodchi olimlaridan I. Butikovning fikricha, “qimmatli qog‘ozlar bozori – bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo‘lishi va so‘ndirilishi bilan bog‘liq munosabatlari tizimidir” [1].

O‘z navbatida, I. Butikov qimmatli qog‘ozlar bozorini 2 yirik turga, ya’ni uyushgan va uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozoriga ajratadi. O‘z tadqiqotlarida olim, qimmatli qog‘ozlarning uyushgan bozori – bu qimmatli

qog‘ozlarning muomalada bo‘lish sohasi bo‘lib, unda qimmatli qog‘ozlar operatsiyalarini ushbu bitimlar ishtirokchilari uchun qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solingan”ligini [1] qayd etib o‘tadi. Shuningdek, olimning ta’kidlashicha, uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional tuzilmasi sifatida “klassik ko‘rinishdagi fond birjasi – bu professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qog‘ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo‘lib, u savdo-sotiqning hamda qimmatli qog‘ozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib, tamoyillariga ega hisoblanadi. Fond birjalari tarixan ma’lum ma’noda qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘ziga xos harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ahamiyatlisi, mazkur fikrni davom ettirib, olim “Birja – uyushgan bozor. Butun jahonda birjaga faqat barqaror moliyaviy ahvolga va rivojlanish istiqbollariga ega bo‘lgan tuzilmalarning qimmatli qog‘ozlariga erkin ruxsat etiladi”, - deya uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy tuzilmasi sifatida birjalarga kengroq yondashgan. Bundan tashqari, yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha ravishda I. Butikov fond birjasi – qimmatli qog‘ozlarning alohida tarzda uyushgan bozor ekanligi, u uzoq rivojlanish tarixiga egaligi hamda to‘rt yuzdan ortiq yil mobaynida qimmatli qog‘ozlar birja savdosini tashkil etish shakli ham, birjaning jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli ham o‘zgarganligini alohida ta’kidlaydi [1].

Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish masalalari bo‘yicha uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri professor Sh.Shoxa’zamiy uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalarining faoliyat tamoyiliga asosiy e’tibor qaratgan. Uning fikricha, barcha ishtirokchilar (professional ishtirokchilar)ga teng sharoit yaratib beruvchi, aniq reglament va qat’iy belgilangan qoidalar asosida harakat qiluvchi, tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligini ta’minlovchi tamoyillarga ega yaxlit infratuzilmaviy savdo maydonini birjalar sifatida e’tirof etish mumkin [7].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanishida dastlabki fond birjalarining asosiy xususiyatli jihatlari qimmatli qog‘ozlar muomalasini faol tashkil etgan holda, ularning aylanuvchanligini ta’minlash uchun savdo maydonini hosil qilish, deyish mumkin. Bu borada xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining fikrlarini umumlashtirgan holda, klassik ko‘rinishidagi va hozirgi zamon uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori – fond birjalarining asosiy xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin.



1-rasm: Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori – fond birjalarining asosiy xususiyatlari

Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Yuqorida respublikamiz olimlari tomonidan uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy tuzilmasi sifatida fond birjalari e’tirof etilganini guvohi bo‘ldik.

Qolaversa, qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish sohasida mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlaridan biri hisoblangan F.Muxamedovning ilmiy ishlarida xalqaro qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarining moliyaviy globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi roli tahlillar natijasida yoritib berilgan. Shuningdek, fond birja savdolarida mijozlarga masofadan turib savdo tizimiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyatini yaratish asosida qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilish tizimi takomillashtirilgan. Bundan tashqari, emitent tomonidan chiqa-

rilgan aksiyalarning kamida 15 foizi free floatni tashkil etishi asosida birjaviy qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimining listing talablari va uni o‘tkazish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Fond birjasida ilk bor IPO va SPO o‘tkazilgan aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlariga oid bitimlarni “bir aksiya - bir lot” tamoyili asosida amalga oshirish va riteylga erishish taklif etilgan. Davlat qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarishni amalga oshirish va ularni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni davlat budjeti taqchilligini qoplashga va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni, shuningdek, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirish taklif etilgan; suveren obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirish taklifi berilgan [8].

Shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan U.Xalikov O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarida mamlakatimiz fond bozoridagi moliyaviy vositalarning tarkibi va qo‘llanilish dajarasini kengroq tasniflagan. U o‘z ilmiy ishida, fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli va yuqori daromad keltiruvchi vositalarni muomalaga kiritish, xususan, qimmatli qog‘ozlar vositasi sifatida “infratuzilmaviy obligatsiya”lardan foydalanish orqali investitsiyalarni moliyalashtirishni taklif qilgan, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investor va menejerlarni jalb etish jarayonlarini faollashtirish maqsadida ularning ustav kapitalida davlat ulushini qisqartirishning samarali yo‘llari asoslangan. “Toshkent” Respublika fond birjasining xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlash maqsadida bozor muvozanatini ta’minlash tamoyillaridan foydalanish borasida qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqqan [9].

Bundan tashqari, A. Xo‘jamurodov “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish” mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borishi natijasida yuqori darajadagi boshqaruv idoralari huzuridagi fond bozorini tartibga solish bo‘yicha megaregulyator faoliyatini joriy etish asosida fond bozori infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish taklifini ilgari surgan, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlarini fond birjasida sotishda emitent sof foydasining o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lishi sharti ijobiy moliyaviy natijaning mavjud bo‘lishi bilan almashtirish amaliyotini joriy qilish bo‘yicha tavsiyalar bergan hamda aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashi majlislarida aksiyadorlarning shaxsini aniqlash va axborot xavfsizligini ta’minlagan holda masofadan turib elektron ovoz berish tartibi asoslagan [10].

Fond bozori aktivlarini baholash orqali mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozori institutlarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan X. Xudoyqulovning ilmiy ishlarida fond bozoridagi aksiyalarning bozor bahosini yanada aniqroq belgilashga imkon yaratuvchi har bir aksiyani birja savdosida bitta lot shaklida sotishning samarali usul ekanligi asoslangan, fond bozorida ishtirok etadigan aksiyadorlik jamiyatlari emission xarajatlarining sezilarli darajada qisqartirilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi korporativ obligatsiyalar emissiyasining soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqilgan, o‘rta muddatli g‘azna majburiyatlarini birjadagi savdosining amaldagi tartibiga ular to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar hamda emissiya qilish parametrlarini birja orqali e’lon qilish tartibini kiritish orqali mazkur mexanizmni takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan [11].

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Sh. Sultonov esa o‘z ilmiy ishlarida, AJlari o‘rtasida teng raqobat muhitini yaratish maqsadida, davlat ulushi bor korxonalar sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan qismini davlat budjetiga o‘tkazishni amaliyotga joriy qilishni taklif etgan, davlat va xo‘jalik birlashmalari ulushi mavjud bo‘lgan AJlari aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif (IPO va SPO) orqali sotish asosida fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyatlari asoslagan, strategik ahamiyatga ega yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish natijasida yirik investitsiyalar talab qiladigan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va budjet daromadlarini oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqqan [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Mintaqaviy fan” atamasini amerikalik iqtisodchi Uolter Isard kiritgan. U mintaqaviy fan mintaqaviy iqtisodiyotga qaraganda kengroq tushunchadir, deb hisoblagan; u makon, hududlar (tumanlar), joylashuvlar va ularning tizimlarini o‘rganishi kerak [6]. V.Isard qayta-qayta ta’kidlaganidek, eng real o‘xshashlik mintaqaviy fan va amaliy geografiya o‘rtasida. Fan predmetining o‘zini belgilashda aniqlik yo‘qligi xorijdagi zamonaviy mintaqashunoslikdagi yo‘nalishlar va uslubiy tushunchalarning xilma-xilligi manbalaridan biridir [7].

Mintaqaviy tizimda daromad masalalari bo‘yicha qator o‘zgarishlar mavjud. Mintaqaviy daromad qisman yoki to‘liq eksport qilinadigan yoki sanoatga qarab importni siqib chiqaradigan (o‘rnini bosuvchi) mintaqaning istalgan asosiy sanoatining rivojlanish darajasiga qarab belgilanishi mumkin. Asosiy sanoatni tahlil qilishning eng muhim kamchiligi shundaki, u go‘yo mintaqaning o‘zidan ajratilgan.

O‘sish qutblari va markazlari nazariyasi keng tarqalganligi va aniq amaliy qo‘llashga urinishlari bo‘yicha zamonaviy nazariyalar orasida etakchi o‘rinni egallaydi. Uning asoschilari fransuz iqtisodchisi F.Perru [8], shuningdek, uning shogirdi J.Budvil [9] bo‘lib, ularni haqli ravishda ushbu nazariyaning hammuallifi deb hisoblash mumkin.

Hozirgi vaqtda ikkita atama keng qo‘llaniladi: o‘sish qutbi va o‘sish markazi. Bu, go‘yo, funktsional va geografik qismlarni ajratib turadi. O‘sish qutbi sanoatning majmui sifatida tushuniladi va o‘sish markazi qutbning geografik talqini, ya’ni. muayyan markaz, shahar.

F.Peru g‘oyalari tarafdori ispan olimi H.R. Lasuin o‘sish qutblari haqida quyidagi bayonotlarni taklif qiladi:

“1) o‘sish qutbi - mintaqaning bir yoki bir nechta geografik kontsentratsiyasida joylashgan mintaqa iqtisodiyotining eksport sektori (etakchi sanoat bilan emas) bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarning (tarmoqlarning emas) mintaqaviy (milliy emas) tugunidir. ;

2) o‘sish qutblari tizimi va ularning har biri alohida-alohida milliy talab tomonidan yaratilgan, mintaqaning eksport sektori orqali uzatiladigan va qutblar o‘rtasidagi raqobat jarayonida seziladigan impulslar hisobiga o‘sib boradi;

3) o‘sish impulsi korxonalar o‘rtasidagi bozor aloqalari (ta’minot va iste’mol aloqalari orqali emas) va xuddi shu tarzda, lekin joylashuv omillarini hisobga olgan holda, periferik ikkilamchi tarmoqlarga uzatiladi” [10].

P. Potierning rivojlanish o‘qlari nazariyasi o‘sish qutblari nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir [12]. Uning markaziy nuqtasi rivojlanishning eng muhim sanoat markazlarini bog‘laydigan asosiy transport kanallari bo‘ylab uzatilishidir. P.Pottierning faktik materialni tahlil qilish asosida qurilgan ishi ma’lum darajada V.Kristallerning transport tamoyilini aks ettiradi. Eksa nazariyasi transport tarmog‘ining ta’sirini shahar ierarxiyasi va o‘sish markazlari nazariyalari bilan bog‘lashga yordam beradi.

O‘sish qutblari va markazlari nazariyasining asosiy ustunligi shundaki, u mintaqaviy fanda yaxlit yo‘nalish yaratish (ya’ni, joylashuv nazariyasi va mintaqashunoslik to‘g‘ri sintezi) yo‘lida muhim qadam tashladi. U tizimli tahlil usulidan (joylashuv nazariyasi uchun an’anaviy usullar bilan bir qatorda) foydalanadi, samaradorlik va tenglashtirish, milliy maqsadlar va mintaqaviy rivojlanish vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolarini to‘g‘ri hal qilishga harakat qiladi. Shu bilan birga, u ham ba’zi kamchiliklarga ega: o‘sish markazlarida optimal populyatsiya soni masalasiga yagona yondashuv mavjud emas: tadqiqotchilar tomonidan qo‘llaniladigan metodologiyaga qarab, u juda kuchli o‘zgarib turadi; o‘sish markazlarining ierarxiyasi masalasi, shu jumladan funktsional, noaniq; muayyan hududni rivojlantirish uchun investitsiyalar va ajratmalar yo‘nalishlarini tanlashning ustuvorligini belgilovchi aniq mexanizm mavjud emas.

Mintaqaviy iqtisodiyotning toifasi sifatida infratuzilma moddiy ishlab chiqarishning normal ishlashi uchun ham, ma’lum bir hudud aholisining hayoti uchun ham zarur bo‘lgan mavjud tuzilmalar, binolar, tizimlar va xizmatlarning yig‘indisidir. Birgalikda infratuzilma elementlari ma’lum bir hududning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Aksariyat hollarda infratuzilma mintaqaviy rivojlanishning murakkab omili sifatida qaraladi.

Makroiqtisodiy jihatdan uning rivojlanishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish zarurati bilan bog‘liq. Mintaqaviy jihatdan infratuzilmani rivojlantirish ham qoloq hududlar iqtisodiyotini yuksaltirish, ham rivojlangan hududlar ehtiyojlarini qondirish uchun zarur.

1950-yillarda bu muammoning keng miqyosda rivojlanishi «qoloq mamlakatlar» va alohida mintaqalar rivojlanishining turli kontseptsiyalarining shakllanishi bilan bog‘liq edi.

Shunday qilib, iqtisodiy o‘sishning o‘ziga xos neokeynscha nazariyasi - ijtimoiy qo‘shimcha xarajatlar tezisiga asoslangan infratuzilma nazariyasi tug‘ildi (R. Nurkse, A. Xirshman, P. Rozenshteyn-Rodan, P. Samuelson, E. Hansen, J.M.Klark, V.Rostou, A.Yangson va boshqalar) [12, 13]. Ushbu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, rivojlanayotgan mamlakatlar kapital qo‘yilmalarning asosiy ulushini infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirishlari kerak, buning yaratilishi kapitalni avtomatik ravishda ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qiladi.

G‘arbiy mintaqaviy nazariyada keng tarqalgan kosmosdagi dinamik jarayonlarni izohlash vositalari orasida etakchi o‘rinlardan birini aglomeratsiya tushunchasi egallaydi. Eng umumiy ma’noda bu tushuncha bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy kontsentratsiyasini tushuntirish vazifasini bajaradi. E. Lempard aglomeratsiya tushunchasi kontsentratsiya hodisasini iqtisodiy o‘sish bilan bog‘laydi, “bu ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy funksiyalarning shahar bilan qo‘shilishini anglatadi” [14], deb ta’kidladi. Aynan mana shu kontseptsiya iqtisodiyotning hududiy tuzilishini rivojlantirish jarayonlarining kumulyativ xususiyatini tushuntirish uchun real asos yaratadi.

Aglomeratsiya tushunchasining vujudga kelishi A.Veber asarlariga borib taqaladi. U o‘tgan asrning boshlarida ham jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish jarayonini aglomeratsiya tendensiyalarining kuchayishi bilan bog‘ladi. Uning fikricha, sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi, aholi zichligining oshishi, shuningdek, transport xarajatlarining pasayishi “sanoatda aglomeratsiya tendentsiyalarining doimiy ravishda kuchayishiga” olib keladi [15].

Amerikalik mintaqachi C. Leven yirik shaharlarning afzalliklari ikki omil majmuasiga bog‘liq, birinchisi miqyosda iqtisod qilish imkoniyati bilan bog‘liq, ikkinchisi esa shaharlararo harakatlarning tezligi va manevrligi bilan bog‘liq. transport va umuman aloqa [16].

Zamonaviy mintaqaviy nazariya butun “tashqi” aglomeratsiya iqtisodiyotining alohida tarkibiy qismlarga bo‘linishi bilan tavsiflanadi. Eng keng tarqalgani uch muddatli bo‘linish bo‘lib, uning asosida “tashqi” miqyosdagi iqtisodlar, mahalliylashtirish (tarmoq ichidagi) iqtisodiyotlar va urbanizatsiya (yoki tarmoqlararo) iqtisodiyotlar ajralib turadi. Oxir oqibat, oxirgi ikki element birgalikda shaharlardagi iqtisodiy faoliyat aglomeratsiyasi tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlarga mos keladi.

Mintaqaviy siyosat nazariyalari hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Biroq, ularni o‘rganish bilan cheklanish umuman befoyda, chunki ular asosan hududlarning iqtisodiy o‘sish nazariyasiga asoslanadi (boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o‘sish bo‘yicha mintaqalar o‘rtasidagi tafovut sabablarini aniqlamasdan turib mintaqaviy siyosatga baho berish mumkin emas. stavkalari).

Mintaqaviy o‘sish nazariyalarini yaratishda ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi, butun mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan modellarga o‘xshash iqtisodiy o‘sish modellarini mintaqalarga qo‘llash (rivojlanish iqtisodiyoti). Ikkinchisi alohida korxonalar yoki firmalarning xulq-atvorini tahlil qilishga asoslanadi, chunki aynan ularning faoliyati hududlarning rivojlanishini belgilaydi.

Turli mamlakatlarda mintaqaviy nazariyaning turli sohalariga ustuvor ahamiyat berildi. Eng kuchli ilmiy maktablar Germaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyada rivojlangan. Germaniyada an’anaviy tarzda joylashuv nazariyasiga e’tibor kuchaygan (J.G. fon Tunen, V. Launxardt, A. Veber, A. Predol, A. Lyosh, R. Grotz va boshqalar); mintaqaviy o‘sish (H. Siebert) va hududiy rivojlanishni tartibga solish (V. Kristaller va A. Losh) muammolarini o‘rganish asosan faqat boshqa milliy maktablar vakillarining g‘oyalarini rivojlantirishni davom ettirdi.

Yigirmanchi asrning birinchi yarmida. Joylashtirish nazariyalari Shvetsiyada ham Stokgolm iqtisodiy fikr maktabi doirasida faol o‘rganilgan – 1920–1930-yillarda T.Pallanderning asarlari eng mashhur bo‘lgan. Biroz vaqt o‘tgach, G. Myrdal mintaqaviy o‘sishning asosiy modellaridan birini yaratdi. Shvetsiyalik mintaqachilar orasida joylashuv va hududiy rivojlanishni tartibga solish nazariyalarini ishlab chiqishda katta rol o‘ynagan T.Xagerstrandni ham aytib o‘tish kerak.

Britaniya maktabi mintaqaviy nazariyaning deyarli barcha sohalari tadqiqotchilari (D. Smit, X. Richardson, S. Dennison, E. Robinson, G. Kemeron va boshqa bir qator olimlar) tomonidan ifodalanadi. Bunda u Amerika maktabiga o‘xshaydi (bu yerda joylashuv nazariyalarining rivojlanishiga X.Hotelling, R.Vernon, M.Storper, R.Uoker, mintaqaviy o‘sish nazariyalari – J.Fridman, E. Taafe, hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari - E.Guver). Shu bilan birga, anglo-saksonlarning mintaqaviy muammolarni o‘rganishi nemis klassik joylashuv nazariyalari kabi to‘liq ilmiy tushunchalarni shakllantirmadi.

Fransuz iqtisodchilari va iqtisodchi geograflari har doim ijtimoiy masalalarga qiziqish ortib kelgan; mintaqaviy nazariyada ular shaharshunoslik bilan bog‘liq ilmiy yo‘nalishlarni - “o‘sish qutblari” va “rivojlanish o‘qlari” tushunchalarini rivojlantirishga eng katta hissa qo‘shgan (Perroux, J.-R. Budvil, P. Pottier).

G‘arb mamlakatlarida rivojlangan mintaqaviy o‘sish nazariyalari davlatning amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mavjud statistik ma’lumotlarga asoslanadi. Shuning uchun ular mintaqalar - o‘rganish obyektlari - turli ierarxik darajadagi ma’muriy-hududiy birliklar yoki ular asosida yaratilgan dastur (yoki rejalashtirish) hududlarini ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar [20]. Shu bilan birga, ko‘pincha mintaqaviy chegaralar tugun (tugun) ijtimoiy-iqtisodiy mintaqalar, ya’ni resurs va boshqa oqimlarni to‘playdigan yoki tarqatadigan markaz (yadro) bo‘lgan obyektiv mavjud hududlarni kesib o‘tishini e’tiborsiz qoldirish kerak edi. . X.Richardson obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan asosiy mintaqalar asosida yaratilgan dastur mintaqalarini rejalashtiruvchilar uchun ideal deb hisoblagan [17]. Darhaqiqat, tugun mintaqalari faqat iqtisodiy geograflar uchun va asosan ta’lim maqsadlarida tadqiqot obyekti bo‘lib qoldi.

Mintaqaviy o‘sish nazariyalarining ikkita guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin - ishlab chiqarish funktsiyasiga asoslangan neoklassik nazariyalar va neokeynscha, institutsional va iqtisodiy-geografik modellarning sintezi bo‘lgan kümülatif o‘sish nazariyalari (aniqrog‘i, institutsionalistlar birinchi bo‘lib ishlab chiqarish funktsiyasiga asoslangan. asosan iqtisodiy geograflar tomonidan ishlab chiqilgan va neokeynschilarning mintaqaviy siyosatini amaliy amalga oshirishda ularga tayangan jami o‘sish modellarini taklif qiladilar).

Mintaqaviy o‘sish sohasidagi tadqiqotlarning yana bir yo‘nalishi ko‘pincha J. Tinbergen, X. Bos va ularning izdoshlarining ishi sifatida tan olinadi. Biroq, Tinbergen asosan hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning amaliy choralarini ko‘rib chiqdi.

Zamonaviy mintaqaviy tadqiqotlarning alohida yo‘nalishi sifatida Tinbergen J. Rivojlanishni rejalashtirishning institutsional yondashuvlariga asoslangan ishlarni ham ajratib ko‘rsatish kerak. London, 1967 [18]. Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida viloyat hokimliklari siyosatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, federal shtatlarda federatsiya subyektlari ko‘pincha mintaqalar deb hisoblanadilar, chunki ularda submilliy hokimiyatlar mintaqaviy hokimiyatlarning o‘zlarining iqtisodiy siyosati haqida gapirishga imkon beradigan juda keng vakolatlarga ega.

Nihoyat, 80-yillarda. o‘tgan asrda Germaniyada “mintaqaviy o‘sishning yangi nazariyasini” yaratishga harakat qilindi. K.Krigen-Boden, X.Zibert, E.Bode va boshqa bir qator tadqiqotchilar neoklassik maktab qoidalarini va kümülatif o‘sish nazariyasini sintez qilishga urinib, ularni institutsionalistlarning, joylashuvning statik nazariyalarini tadqiq etuvchi tadqiqotchilarning ayrim g‘oyalari bilan to‘ldirishga harakat qildilar. tashqi savdo va iqtisodiyotning tsiklik xususiyati [19].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Попов В. Социология управления [Электронный ресурс] / В. Попов. - Режим доступу: http://www.inventech.ru/lib/sociolog/sociolog 0032/.
2. Регюнальна пол^ика: методолопя, методи, практика [Текст] / за ред. М.1. Долшнього. - Львів: НАН Укра!ни, 1нститут регюнальних дослщжень, 2001. - 700 с.
3. Стеценко Т. О. Управлшня регюнальною економшою [Текст]: навчальний посібник / Т. О. Стеценко, О. П. Тищенко. - К.: КНЕУ, 2009. - 471 с.
4. П.Сторонянська І. Регюнальний розвиток Укра!ни: проблеми штеграцп та конвергенци [Текст]: монографія / І. Сторонянська. - Л.: 1РД НАН Укра!ни, 2010. - 324 с.
5. https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-kontseptsii-regionalnogo-menedzhmenta.
6. Isard W. Location and Space Economy. – N. Y., 1954. – P. 22–88.
7. Richardson H. Regional Economics. – N.Y., 1969. – p. 12. Thompson W. Urban Economic Development. In: W. Hirsch (Ed) // Regional Accounts for Policy Decisions. – Baltimore, 1966. – P. 81.
8. Perrous F. L’economie du xx -eme siecle. – Paris, 1961. – P. 44–61.
9. Boudeville J. Problems of Regional Economic Planning. – Edinburg, 1966. – P. 11.
10. Lasuen J. On growth poles // Urban Studies. – June, 1969. – P. 2.
11. Pottier P. Axes de communication et developpement economique // Revue Economique. – 1963. – № 1. – P. 12–58.
12. Самуэльсон П. Экономика. – М., 1964. – С. 154–163. Clark C. Economics of Location: Redistribution of industry and Population between Regions in the United States (Problems of U.S. Economic Development). N. Y., 1958. – P. 31–37.
13. Rostow W. The Economics of Take-off into Sustained Growth. London, 1963. – P. 76–94.
14. Lampard E. The History of Cities in the Economically Advanced Areas // Economic Development and Cultural Change». – 1955. – Vol. 31. – P. 34.
15. Вебер А. Теория размещения промышленности. – М.-Л., 1926. – С. 116.
16. Leven Ch. Determinants of the Size and Spatial Forms of Urban Areas. The 8-th European Congress of RSA. Budapest, 1968. – P. 34–40.
17. Richardson H. Regional Growth Theory. – London, 1973.
18. Dye T. American Federalism: Competition among Governments. Lexington (Mass.), Toronto, 1990.
19. Bode E. Lokale Wissendiffusion und regionale Divergenz in Deutschland // Kieler Studien. – 1998
20. Гусейнов А.Г. Основные направления развития и подходы в теории региональной экономики в развитых западных странах // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 8-1. – С. 124-132; URL: https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=34521.
21. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/J_Tavakalov.pdf.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA KAPITAL BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISH MEXANIZMI VA UNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Muydinov Shohruh Najmiddin o‘g‘li
Toshkent Moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlariga kapital bbozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning mohiyati, tahlili va hozirgi holat bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid olimlarning ilmiy nazariy qarashlari tahlil qilinib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga moliyaviy resurlar jalb qilish buyicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiya, korpotiv, moliya, bozor, bank, investitsiya, tijorat, kredit, emissiya, kapital, globallashuv, fond, birja.

Abstract: The article provides information on the nature, analysis and current state of attracting financial resources from the capital market to joint-stock companies in our country. The scientific theoretical views of the scientists on the topic are analyzed, and conclusions and proposals are presented regarding the involvement of financial resources in the activities of joint-stock companies.

Key words: Stock, corporate, finance, market, banking, investment, commerce, credit, issue, capital, globalization, fund, exchange.

Аннотация: В статье представлена информация о природе, анализе и современном состоянии привлечения финансовых ресурсов с рынка капитала в акционерные общества в нашей стране. Проанализированы научно-теоретические взгляды ученых на данную тему, а также представлены выводы и предложения относительно привлечения финансовых ресурсов в деятельность акционерных обществ.

Ключевые слова: Фондовый, корпоративный, финансы, рынок, банковское дело, инвестиции, коммерция, кредит, эмиссия, капитал, глобализация, фонд, обмен.

KIRISH

Iqtisodiyot korporativ sektor aksiyadorlik jamiyatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo‘lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o‘z samarasini bermoqda. Tijorat banklari tomonidan 2019-yil davomida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot real sektori korxonalarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishga 88,3 trln. so‘m yoki 2018-yilga nisbatan 2,3 barobar ko‘p investitsion kreditlar, shu jumladan, xorijiy kredit liniyalari hisobidan 2,1 mlrd. AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratildi. 2018-yilda esa korporativ sektora aksiyadorlik jamiyatlariga jami 38,8 trln. so‘m investitsion kreditlar ajratilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 2,4 barobarga ortiqni tashkil qiladi (2.6-rasm).

Bunda banklarning investitsiyaviy faoliyati ustuvor ravishda tarmoqlarni rivojlantirish, mahalliylashtirish va hududlarni rivojlantirish Dasturlariga kiritilgan loyihalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishni ta’minlashga qaratildi.

Agar 2014 yil mobaynida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 8547,2 mrld. so‘m yoki 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar ko‘p investitsion kreditlar ajratildi. 2016-yilda Respublika bo‘yicha jami 12200,6 mlrd.so‘m investitsion kreditlar ajratilgan bo‘lib bu ko‘rsatkich 2015-yilga nisbatan 20 % ga ko‘p demakdir. 2017-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 14400 mlrd. so‘mdan oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



2.6-rasm: Tijorat banklari tomonidan korporativ sektor aksiyadorlik jamiyatlariga ajratilgan investitsion kreditlar hajmi (mlrd.so‘mda)[1]

Tijorat banklarining O‘zbekiston ikkilamchi birja bozorida sotilgan aksiyalarining hajmi 2015-yilda 37,35% ni tashkil etdi. Qolgan qismi esa banklarning yangi emissiya qilingan aksiyalarining joylashtirishi birlamchi bozor ulushiga to‘g‘ri keldi. Qo‘yida ko‘rsatilgan 2.7-rasm «Toshkent» Respublika fond birjasida banklarning qimmatli qog‘ozlari bilan savdolar hajmi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2018-yil oxiriga qadar savdolar hajmining asosiy qismi tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi. 2016-yilda bank tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlarning umumiy hajmi 151,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi, 2018-yil yakuniga kelib ularning hajmi 591,6 mlrd. so‘mga yetdi va banklarning umumiy savdolar hajmidagi ulushi 86,1 foizni tashkil etdi.



2.7-rasm: Iqtisodiyot bank sektorining 2016-2019-yillarda fond birjasida qimmatli qog‘ozlar bilan savdolari hajmi[2]

2019-yilda banklar qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirilgan savdolar hajmi biroz pasayganligiga qaramasdan, banklarning savdolar hajmi 319,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, umumiy savdo hajmining 72,8 foizni tashkil etdi.

Tijorat banklarining O‘zbekistondagi korxonalarni innovatsion rivojlantirish manfaatlarida ishtirok etishini tashkil etishning afzalligi shundaki, ular nafaqat an’anaviy kreditorlar va moliya bozorining operatorlari sifatida, balki institutsional investorlar, investitsiya maslahatchilari, investitsiya vositachilari va qimmatli qog‘ozlar bozorida boshqa professional ishtirokchilar sifatida ham ishtirok eta oladilar.

Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda tijorat banklarini xalqaro investorlarga sotish, ustav kapitalida davlatning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shunday

1 http://cbu.uz/oz/statistics/financing/73901/ - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2 “Toshkent” RFB ning 2016-2019-y. hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bo‘lsada, tahlil obyekti sifatida tanlab olingan “Asaka” bankning ustav kapitalidagi davlat ulushi bo‘yicha aksincha holat kuzatilganligini ko‘rish mumkin, 2015-yilda ushbu ko‘rsatkich 67% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 98,18% ga oshganligini ko‘rish mumkin. 2019-yilda iqtisodiyotning moliya sektori aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan fond bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish hajmi 2018-yilga nisbatan 16% ga oshgan holda avvalgi yillarga nisbatan 281,9 mlrd.so‘mdan oshdi.

Shundan, jami 7 567 bitim qayd etilgan. Bitimlar soni bo‘yicha eng faol banklardan bo‘lib “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Xamkorbank” ATB va “Ipteka – Bank”AITB hisoblanib, aksiyalar bilan mos ravishda 2 763 ta, 2002 ta va 1786 ta bitim amalga oshirilgan.

Ta’kidlash lozimki, korxonalarda ustav kapitalida davlat ulushini yuqori bo‘lishi kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishda zamonaviy moliyaviy instrumentlarga bo‘lgan intilishlari va innovatsiyalarni olib kirishda mustaqil yondashuvni chegaralaydi. 2019-yil davomida mamlakatimizning jami 18 ta tijorat banklari tomonidan “Toshkent” Respublika fond birjasida emitent sifatida aksiyalar bilan oldi-sotdi bitimlar amalga oshirilgan.

2.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatimiz moliya sektori tashkilotlari tomonidan 2019-yil mobaynida 300,0 mlrd. so‘mga yaqin mablag‘lar aksiyalar emissiya qilish orqali jalb qilingan bo‘lsa, moliyaviy resurslar jalb qilishda muhim instrument sanalgan korporativ obligatsiyalar chiqarish yo‘li orqali amaliyot hajmi pastligicha saqlanib qolmoqda.

2.5-jadval: 2019-yilda iqtisodiyotning moliya sektori korxonalari tomonidan fond bozori orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish tahlili

№	Emitent	Aksiya soni (ming, dona)	Summa (mln.so‘m)	Bitim soni
1	“Agrobank” ATB	7449,1	8073,5	91
2	“Davr-bank” XATB	2717,9	13589,9	7
3	“Hamkorbank” ATB	933713,8	36890,1	2 002
4	“HI-TECH BANK” XATB	10319,1	16195,5	14
5	“Ipoteka-bank” ATIB	1809055,1	2794,1	1 786
6	“Kapitalbank” ATB	71639,1	74252,7	21
7	“Mikrokreditbank” ATB	103,2	110,726	43
8	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	312108,5	5908,6	2 763
9	“Ravnaq-bank” XATB	14847,9	14850,2	18
10	“Trastbank” XAB	12834,2	14554,7	152
11	“Turkiston” XATB	50720,7	50720,8	65
12	“Turonbank” ATB	38,9	83,7	71
13	“Urganchkormmash” AJ	100,0	1031,7	1
14	“Ipak Yo‘li” AITB	1791691,1	18147,9	43
15	“Aloqabank” ATV	139,3	58,9	198
16	“Savdogarbank” ATV	43,3	6,5	68
17	“Qishloq qurilish bank” ATB	134,9	24,2	119
18	“Universal bank” JSCB	4932,7	24663,8	105
	Jami	**5022589,3**	**281958,2**	**7 567**

Afsuski, bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyalashtirishning muhim manbai sifatida foydalaniladigan korporativ obligatsiya bozori hajmi Osiyo mintaqa davlatlari orasida eng kam ulushga ega bo‘lgan davlatning ko‘rsatkichlariga nisbatan xam bir necha barobar past ekanligini tahlil natijalari yaqqol ko‘rsatib turibdi. Mamlakatimizda 2020-yil 1-yanvar holatiga umumiy hisobda 103 ta emitentning 848,9 mlrd.so‘mlik 164 ta korporativ obligatsiyalari chiqarilgan (2.8-rasm). Shundan 116 tasi to‘liq so‘ndirilgan, 27 tasi esa bekor qilingan. Hozirgi vaqtda muomaladagi obligatsiyalar soni 13 ta bo‘lib, ularning umumiy qiymati 488 milliard so‘mni tashkil etadi.

2019-yilda esa InfinBANKning korporativ obligatsiyalari muomalaga chiqarildi. Obligatsiyalarning chiqarilishi bankning mahalliy bank va fond bozoridagi mavqeini mustahkamlash bo‘yicha bank faoliyatidagi yana bir muhim bosqich bo‘ldi. Shunday qilib, 2019-yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasining Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 100000 dona miqdoridagi jami 100 mlrd. so‘mlik milliy valyutada muomalaga chiqarilgan “Invest Finance Bank” ATBning korporativ obligatsiyalari chiqarilishi ro‘yxatdan o‘tkazildi.



2.8-rasm: O‘zbekistonda 2010-2019-yillarda korporativ obligatsiya bozorining holati (mln.so‘mda)[3]

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda rivojlanayotgan fond bozorining institutsional mustahkamlash va funksional rivojlanish sur’ati va sifati ko‘p jihatdan eng ishonchli emitentlar, yirik institutsional investorlar va tajribali investitsiya institutlari sifatida ishtirok etadigan bank muassasalarining faoliyatiga bog‘liq. O‘zbekistondagi aksariyat tijorat banklarining yangi boshqaruv shakllariga o‘tishi bilan ularning aksiyadorlari va menejmenti o‘z faoliyatining turli jabhalari uchun innovatsion rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishning ishonchli va foyda keltiradigan manbalarini topish muammosiga duch keldi. So‘nggi yillarda ular shuni anglab yetdiki, ushbu muammoni hal etadigan eng istiqbolli moliyaviy vositalariga bu O‘zbekiston korporativ sektoriga real investitsiyalarni jalb qila oladigan ulushli va qarz qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish hisoblanadi.

Moliyaviy bozorlarning globallashuvi va xalqaro miqyosda o‘sib borishi, moliyaviy va sanoat kapitalining yuqori darajadagi integratsiyasiga bo‘lgan dunyo miqyosidagi tendensiya, shuningdek, banklar tomonidan xorijiy investorlar nazarida an’anaviy ravishda yuqori mavqega ega bo‘lish korxonalarning ehtiyojlarini qondirish uchun investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha faoliyatini jadallashtirishga ta’sir etuvchi asosiy tashqi omillar qatoriga kiradi. Milliy fond bozorining innovatsion rivojlanish ehtiyojlarini investitsion qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha banklarning faoliyatini kuchaytirishga ta’sir etuvchi ichki omillarning butun majmuasini ikki yirik guruhga ajratish lozim. Ulardan birinchisi asosiy vositalarning yuqori darajadagi eskirishi, mahsulotlarning potensial bozorini marketing tadqiqotlarining past darajasi, ko‘plab korxonalarda korxonalarning innovatsion rivojlanish strategiyalarining yo‘qligi, shuningdek menejerlarning professionalligi va milliy investitsiya va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

Korxonalarning o‘zlari uzoq muddatli kreditlar, lizing uskunalar yoki ularning qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar ko‘rinishidagi zarur hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish muammosini hal qila olmaydilar. Moliyaviy institutlarning barcha toifalaridan faqat tijorat banklari kapitallashuv darajasi yuqori, ularning faoliyati yuqori darajada diversifikatsiya qilinganligi, hamda zarur bo‘lgan inson va axborot resurslari mavjudligi sababli emitent kompaniyalarga yangilash dasturlarini moliyalashtirishda amaliy yordam ko‘rsatishga qodirdirlar. Banklarning mamlakat fond bozorini institutsional mustahkamlash uchun lokomotiv rolidagi ishtirokini kuchayishiga olib keladigan omillarning ikkinchi guruhi, bank sektorining sanoat va moliyaviy kapitalni yanada integratsiyalashtirishga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganligi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu omillarsiz O‘zbekiston iqtisodiyoti xalqaro miqyosida munosib o‘rin egallashi qiyin hisoblanadi.

O‘zbekistonda banklarning emitentlik faoliyatini jadallashtirishning asosiy shartlaridan biri - bu o‘zlarining emissiya faoliyati ko‘lamining o‘sishi bo‘ldi, bunga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarini kapitallashuv darajasini oshirishga qaratilgan siyosati asos bo‘ldi (2.6-jadval).

2.6-jadvalda, tijorat banklari tomonidan 2015-2019-yillar davomida qo‘shimcha aksiyalar chiqarish orqali tijorat banklari ustav kapitalining o‘sish sur’atlarini ko‘rish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi 5 yil ichida Xalq bankining ustav kapitali 7 baravarga, “Asakabank” ATB - 10 baravarga, «Sanoatqurilishbanki» ATB - 3 baravarga, «Mikrokreditbank» ATB - 3,5 baravarga va «Agrobank» ATB - 6 baravarga oshdi.

3 O.Hamdamov va boshqalar. Osiyo mintaqa davlatlarida obligatsiyalar bozorining tahlili//Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2020. - № 2. – B. 248-256. – http://interfinance.uz

2.6-jadval: Tijorat banklarining ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi (mlrd.so‘m)[4]

№	Bank nomi	E’lon qilingan ustav kapitali, mlrd.so‘m	Aksiyalarning qo‘shimcha emissiyasi					
			Jami	Shu jumladan				
				2015	2016	2017	2018	2019
1.	Asakabank	5 683,0	4 972,9	-	-	1 582,8	-	3 390,1
2.	Xalq banki	2 039,1	1 691,8	54,0	62,0	744,7	436,1	395,0
3.	Sanoatqurilishbanki	2 169,2	2 160,9	697,9	697,9	943,3	299,9	-
4.	Mikrokreditbank	794,0	706,0	50,0	-	355,0	201,0	100,0
5.	Agrobank	2 162,9	1 899,4	54,1	50,0	967,9	827,4	-
Jami		**12 848,2**	**11 431,0**	**856,0**	**331,8**	**4593,7**	**1764,4**	**3 885,1**

Oxirgi yillar davomida aksariyat banklarning ustav kapitali yopiq obuna yo‘li bilan - qimmatli qog‘ozlarni oldindan ma’lum bo‘lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e’lon bermagan va reklama kompaniyasi o‘tkazmagan holda joylashtirish orqali Hukumat qarorlari asosida amalga oshirildi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, banklar ustav kapitalining bunday o‘sishi davlat ulushining o‘sishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida ikkilamchi fond bozori rivojlanishiga ta’sr etuvchi salbiy omil hisoblanadi.

Banklarning O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsion faoliyat ko‘lamini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar haqida gapirilganda, 2.9-rasmda ko‘rsatilgan fond bozoridagi tijorat banklarining asososiy uchta investitsion afzalliklarini ko‘rsatish lozim.

Banklarning birinchi afzalligi - bu uchinchi shaxslarning xizmatlaridan foydalanish, shuningdek investitsiya vositalarini biriktirish va rekombinatsiya qilishda moslashuvchanlikka ega bo‘lgan tegishli boshqaruv nou-xaularidan mohirona foydalanish tufayli operatsion ustunlikdir. Bank muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozorida muvaffaqiyat qozonishining ikkinchi sharti - bu ularning sheriklari va mijozlariga yaqinligini hisobga olgan holda IT-aloqalarni amalga oshirish qobiliyatidir. Banklarning uchinchi afzalligi sifatida, xalqaro bank nazorati standartlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori darajadagi egiluvchanligi sifatida xizmat qiladi.



2.9-rasm: Tijorat banklarining fond bozoridagi boshqa ishtirokchilarga nisbatan asosiy ustunliklari[5]

Tijorat banklarining rivojlanayotgan qimmatli qog‘ozlar bozorida eng yirik institutsional investor sifatida ishtirok etishiga moyilligi, ularning ko‘pchiligi kapitallashuv darajasi yuqori, uning turli segmentlari holati to‘g‘risida kuchli ma’lumot bazalariga, shuningdek, investitsiyalarni boshqarish sohasidagi malakali mutaxassislarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Raqobatbardoshlikning ana shunday muhim mezonlariga ega bo‘lish O‘zbekiston tijorat banklariga respublika korxonalarini innovatsion rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishning keng vositalaridan foydalanish uchun ko‘pgina imkoniyatlar ochadi. Ta’kidlash lozimki, tijorat banklari O‘zbekiston fond bozorining eng tajribali va investitsiya institutlari hisoblanadi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, banklarning korxonalar uchun xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va sifatini yaxshilashga bo‘lgan ehtiyoji, O‘zbekiston moliya bozorida iqtisodiy jihatdan yanada qulay bo‘lgan moliyaviy tuzilmalar (investitsiya fondlari, sug‘urta) ko‘rinishidagi jiddiy raqobatchilarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

4 http://www.cbu.uz/oz/-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
5 Muallif tomonidan tayyorlandi.

Ta’kidlash joizki, milliy bank tizimi iqtisodiyotning real sektordagi korxonalarni modernizatsiya qilish uchun investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish uchun qimmatli qog‘ozlar potensialidan kam foydalanilmoqda. Natijada ushbu maqsadlar uchun investitsiya resurslarining asosiy qismi korxonalarning o‘z sof foydalari, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli bank kreditlari hisobidan shakllantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-iyuldagi PQ-670-sonli «Banklarning kapitallashuv darajasini yanada oshirish va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun investitsiya jarayonlarida ishtirokini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori respublikadagi banklar emissiya faolligining o‘sishiga kuchli turtki bo‘ldi. Mazkur Qaror asosida O‘zbekiston tijorat banklari yangi chiqarilgan aksiyalar hajmining kamida 25 foizini «Toshkent» Respublika fond birjasi orqali joylashtirishi lozim edi.

Ushbu holatlarning mavjudligi O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektorini innovatsion rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan banklarning investitsion faoliyatining imkoniyatini qisqartiradi. Shu munosabat bilan bank va aksiyadorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar bank muassasalarini o‘zlarining innovatsion rivojlanishi uchun qimmatli qog‘ozlarni moliyalashtirish dasturlari orqali o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘larini moliyalashtirish vositalaridan foydalanish ko‘lamini oshirish va kengaytirish bo‘yicha ko‘p ishlarni amalga oshirishlari lozim.

Shu munosabat bilan bank va aksiyadorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar bank muassasalarini o‘zlarining innovatsion rivojlanishi uchun qimmatli qog‘ozlarni moliyalashtirish dasturlari orqali o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘larini moliyalashtirish vositalaridan foydalanish ko‘lamini oshirish va kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishlari lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini aniqlashda xalqaro metodologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda, aksiyadorlik jamiyatlarida tomonidan foydalaniladigan moliyaviy vositaning samaradorligini baholash “qarzdorlikka xizmat ko‘rsatish xarajatlari” omilini hisobga oluvchi xarajatlarni kamaytirish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyoti o‘ziga xos murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan jalb qilingan kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati va risk darajasini miqdoriy baholash uslublarini joriy etish orqali investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashning xalqaro uslubiyatini milliy aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga tadbiq etish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://cbu.uz/oz/statistics/financing/73901/ - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
2. “Toshkent” RFB ning 2016-2019-y. hisobotlari
3. “Toshkent” RFB ning yillik hisobotlari.
4. O.Hamdamov va boshqalar. Osiyo mintaqa davlatlarida obligatsiyalar bozorining tahlili//Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2020. - № 2. – B. 248-256. – http://interfinance.uz
5. http://www.cbu.uz/oz/-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

AHOLINI TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRISHDA HOKIM YORDAMCHILARI INSTITUTINI ROLI VA AHAMIYATI

Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich
O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda “mahallabay” ish tizimi keng yo‘lga qo‘yilib, barcha mahallalarda “hokim yordamchisi” lavozimi joriy etilgani, bu lavozimning mazmun-mohiyati nimada ekani institutsinal va amaliy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “mahallabay” ishlash, hokim yordamchisi”, Xitoy tajribasi.

Abstract: In the article, the “neighborhood” work system has been widely introduced in our country, and the position of “mayor’s assistant” has been introduced in all neighborhoods, and the essence of this position has been institutionally and practically analyzed.

Key words: “neighborhood” work, assistant mayor”, Chinese experience.

Аннотация: В статье в нашей стране широко внедрена “районная” система работы, во всех микрорайонах введена должность “помощника мэра”, институционально и практически проанализирована сущность этой должности.

Ключевые слова: “соседская” работа, помощник мэра”, китайский опыт.

KIRISH

Bugungi kundda Respublikamizdgi 319 ta mahalladagi hokim yordamchilari aholini biznesga jalb qilish, bandlikni oshirish, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda.

Mazkur “mahallabay” ishlash tizimi aholi muammolarini o‘rganish va joyida hal qilishga qaratilgan bo‘lib, u bugungi kunda tom ma’noda rahbarlar va xalq o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Natijada har bir mahalla kichik hudud sifatida rivojlanib, bu yerda barcha fuqarolarning shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun hamma sharoitlar yaratilmoqda.

Hokim yordamchilari mahallani har tomonlama rivojlantirish, aholi muammolarini hal etishda ijro tizimida muhim o‘rin tutmoqda. Mazkur soahani ilmiy institutsional tadqiq qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari (keyingi o‘rinlarda – hokim yordamchilari) faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgani sohani ilmiy tadqiq etishning muhim asosidir (1).

Umuman olganda, davlat xizmatchilarini tasniflash bo‘yicha bir qancha nazariyalar mavjud bo‘lib, bu borada D.M. Ovsyanko, Yu.N. Starilov, X.R.Alimov kabilarning qarashlarini ilgari suradi (2).

Jumladan, taniqli rus huquqshunosi D.M. Ovsyankoning fikricha, davlat xizmatchilarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari:

- respublika miqyosida harakat qiluvchi xizmatchilar;
- mahalliy miqyosda harakat qiluvchi xizmatchilar;

2) davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilarini:

- fuqarolik davlat xizmatchilari;
- militarlangan davlat xizmatchilari (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilari);

3) hokimiyatning bo‘linishi tamoyilidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari;

- qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari;
- sud hokimiyati organlarining xizmatchilari;

4) mansab vakolatlarining hajmiga ko‘ra davlat xizmatchilari:

- mansabdor shaxslar;
- mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

5) xizmat muddatining davomiyligiga ko‘ra davlat xizmatchilarini:

- ma’lum bir muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar;
- belgilanmagan muddatda tayinlangan xizmatchilar;
- sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar va boshqalarga bo‘linadi (3).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son Farmoni sohaning asosiy dasturil amalidir.

Mazkur Farmonda har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta’sis etilishi ko‘zda tutilgan.

Quyidagilar hokim yordamchilarining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilab berilgan:

- mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o‘rganish, jumladan, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;
- mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo‘yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash;
- doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish hamda o‘qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta’minlashga yordam berish;
- mahalladagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo‘lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko‘maklashish;
- mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug‘ullanish tajribasiga ega bo‘lmagan fuqarolarni o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun ularga biriktirish;
- aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug‘chilik, ko‘chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;

- mahalladagi ish bilan band bo‘lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug‘ullanishini yo‘lga qo‘yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ilash, qishloq xo‘jaligi kooperativiga a’zo bo‘lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to‘lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qishi uchun subsidiyalar olishda ko‘maklashish;
- mahalladagi bo‘sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga ajratish bo‘yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo‘sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va shu orqali kambag‘allikni qisqartirish maqsadida mamlakatimizda 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir mahallada “Hokim yordamchisi” lavozimi joriy etildi.

Bugungi kunda respublikadagi 9,3 mingdan ortiq mahallalarda iqtisodiy kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda rahbar lavozimida ishlab kelgan iqtisodchilar hokim yordamchisi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish va baholab borish imkonini beruvchi hamda tegishli vazirlik va idoralar ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan “Onlayn mahalla” platformasi ishga tushirildi.

Shuningdek, 2023-yilda O‘zbekistondagi 9 ming 400 nafar hokim yordamchilari “Xitoy tajribasi asosida kambag‘allikni qisqartirish” mavzusida ikki hafta mobaynida xitoylik mutaxassislardan onlayn ta’lim oldi. Loyihaning 2-bosqichida 200 nafar hokim yordamchilari Xitoyda ikki haftalik amaliyot o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirlik hamda “Chongqing” xalqaro hamkorlik trening markazi o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolandi.

Unga ko‘ra, mahallalardagi 9 ming 400 nafar hokim yordamchilari “Xitoy tajribasi asosida kambag‘allikni qisqartirish” mavzusida ikki hafta mobaynida xitoylik mutaxassislardan onlayn ta’lim oldi.

Loyihaning 2-bosqichida 200 nafar hokim yordamchilari shu yilning kuz oylarida Xitoyda ikki haftalik amaliyot o‘tdi.

Kegusida hokim yordamchilarining “mahallabay” ishlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va muammolar hamda “mahallabay” ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishda hal qiluvchi kuchga ega bo‘lib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mahallalarda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, hokim yordamchilarining tavsiyanomalari asosida tadbirkorlik uchun kredit va subsidiyalar ajratish, aholini kasb-hunarlar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitib o‘z yo‘nalishida doimiy bandligini ta’minlash ustuvor vazifadir.

Bugungi kun tarqamlashtirishi joylarda birdek ichik biznes subyektlarini tashkil etilish, qishloq xo‘jaligidagi yer maydonlarini auksion savdolari orqali ijaraga ajratish, “mahallabay” mikroloyihalar shakllantirish hokim yordamchilarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qiladi.

Keng ko‘lamli islohotlarda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishda xizmatlar ko‘rsatish sohasiga alohida e’tibor qaratish, turizm salohiyatiga ega mahallalarda turistik xizmatlarni ko‘paytirish lozim.

Shu bilan birga, hududlarda turli o‘quv kurslari, xususan, kasb-hunar va til o‘rgatish markazlari tashkil etishda tashabbuskorlarga har tomonlama yordam berish, xonadonlar tomorqalaridan hamda oilalarga ijara asosida dehqonchilik uchun tarqatilgan yerlardan samarali foydalanishni tashkil etish, har bir mahallada qurilish brigadalari tuzib, qurilish tashkilotlari bilan shartnoma rasmiylashtirgan holda mehnat qonunchiligi asosida qonuniy faoliyat olib borishlariga ko‘maklashish ham hokim yordamchilarining asosiy vazifalari sifatida taraqqiyot uchun muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. //http://lex.uz/docs/4549998
2. Azizov X. va boshqalar. Davlat xizmati: milliy va xorijiy tajriba. Risola. – T.: Tafakkur qanoti, 2019. 128 b.
3. Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati: o‘quv qo‘llanma. – T: Baktria press, 2015. 172 b. 4. Xojiyev E.T. Davlat xizmati: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYUI, 2004. 107 b. 5. Suk K.P. Davlat boshqaruvida inson resurslari 2018 yil nigohida. 2018. 286 b.
4. https://yuz.uz › news › hokim-yordamchisi-qanday-m...

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Eshqo‘ziyev Oxunjon Oybek o‘g‘li
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Moliya bozorining zamonaviy sharoitida pul mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar yordamida bevosita taqismlanadi, pul mablag‘lari iqtisodiyotning real sektorida asosiy ishtirokchilar ko‘magida jalb qilinadi va investitsiyalar moliyalashtiriladi. Kompaniya moliya bozorida faqat ana shu sharoitda investitsiya resurslarni shakllantirishi mumkin, bu paytning o‘zida faqat ana shu manbalar hisobidan moliyaviy operatsiyalarining ko‘pchiligi amalga oshiriladi. Maqolada yuqoridagi jarayonlar hisobiga korxonalar investitsiya cheklovlari bilan samarali ta’minlanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya siyosati, Iqtisodiyot, moliya bozori, investitsiyalar, talab va taklif, bozor, real sektor, moliyaviy munosabatlar.

Abstract: In the modern conditions of the financial market, funds are distributed directly between economic entities with the help of economic relations, funds are attracted and investments are financed with the support of the main participants in the real sector of the economy. The company can generate investment resources in the financial market only under these conditions, at the same time, most of its financial operations are carried out only at the expense of these resources, in this case, enterprises are provided with investment restrictions. The article analyzes the effective provision of investment restrictions to enterprises due to the above processes.

Key words: Investment policy, Economy, financial market, investments, supply and demand, market, real sector, financial relations.

Аннотация: В современных условиях финансового рынка средства распределяются непосредственно между хозяйствующими субъектами посредством экономических отношений, средства привлекаются и финансируются инвестиции при поддержке основных участников реального сектора экономики. Только при этих условиях компания может генерировать инвестиционные ресурсы на финансовом рынке, в то же время большая часть ее финансовых операций осуществляется только за счет этих ресурсов, в этом случае предприятиям предоставляются инвестиционные ограничения. В статье анализируется эффективное предоставление инвестиционных ограничений предприятиям за счет вышеуказанных процессов.

Ключевые слова: Инвестиционная политика, Экономика, финансовый рынок, инвестиции, спрос и предложение, рынок, реальный сектор, финансовые отношения.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishning eng muhim sharti, uning ichki va tashqi omillar bilan o‘zaro barqaror aloqadorligidir. Bunda investitsiyalar mamlakat sanoat tarmog‘ining qudratli industrial salohiyatini shakllantirish va ishlab chiqarish samradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Sanoat tarmog‘ida investitsiyalar faoliyatining jonlanishi iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish, iqtisodiy inqirozdan chiqarish, iqtisodiyotning rivojlanishini jadallashtirishga shart-sharoit yaratishning asosi sifatida xizmat qiladi.

Sanoat tarmog‘ini qachonki rivojlantirish mumkin, agar sanoat korxonalarida investitsiyalarni boshqarishda barcha jarayonlar o‘zaro aloqador bo‘lishi va ular ishlab chiqarish amaliyotiga samarali joriy etilgan bo‘lsa. Bu yerda investitsiyalarning optimal tarkibini shakllantirishning zarurligi va ularning sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga bo‘lgan ta’sirini baholash, sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo‘llari to‘g‘risida gap bormoqda.

Investitsiyalarning asosiy bir jihati – bu sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirishda yuzaga keladigan investitsiyalar risklarini boshqarish zaruriyatining mavjudligidir. Bu kabi jihatlar investitsiyalarni boshqarishda noadekvat qarorlarni qabul qilishning oldini olish taqozo etiladi, xususan, sanoat korxonalarida investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi; investitsiya siyosatining asosiy xususiyatlarini hamda iqtisodiy o‘sish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini ilmiy asoslab beradi; investsiya siyosati bilan bog‘liq muammolarning ilmiy-uslubiy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mamlakatda investitsiyalar salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topishning dolzarbligini belgilaydi; mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish manfaatidan kelib chiqqan holda investitsiya siyosatining takomillashtirilgan yo‘nalishlarini asoslab berishi juda muhim, chunki iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga va hukumat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yuqori texnologik salohiyat zarur bo‘ladi. Samarali investitsiya siyosatni yuritish ishlab chiqarish sohasidagi inqirozni bartaraf etishga, davlatning iqtisodiy siyosatini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, davlat xarajatlarini moliyalashda qo‘shimcha manbalarni izlab topish bilan bog‘liq tadqiqotlar alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya faoliyatining shakllaridan samarali foydalanish mamlakat sanoat tarmog‘ini yangidan iqtisodiy isloh qilish va tarkibiy qayta shakllantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashga imkon yaratadi. Demak, investitsiyalar davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradigan muhim vositalardan biri ekan. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyatini yoritib berish ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan juda zarur.

Kapitalning aylanmasi va tarkibini sifat jihatdan yangilab borish, ishlab chiqarish vositalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai sifatida klassik iqtisodchi olimlar U. Petti, A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, A.Marshall, B.C. Barda, L.T. Gilyarovskoy, A.V. Idrisov, V.V. Kovalev, Ye.S. Stoyanova, A.V. Frolov, T.S. Xachaturov, A.V. Chayanov, E.Dj. Dolan, E.Kasla, K.R. Makkonnella, S.L. Bryu, G.A. Maxovikova va b.lar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq investitsiyalar bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilishda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xususiyatlari iqtisodiyotning kapital talab qiluvchi tarmog‘i sifatida hisobga olinmagan, investitsiyalar va ular manbalarining yo‘nalishlarini iqtisodiy asoslashga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, tadqiqot qilinayotgan mavzu bo‘yicha boshqaruvning turli shakllari, investitsiyalar hajmi hamda kirim qilingan investitsiyalarning samaradorlik darajasini oshirishga ta’sir qiluvchi omillar hisobga olinmagan. Bugungi kunga kelib sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ta’minlash masalalarini hal etish uchun sanoat korxonlarini rivojlantirish strategiyasini asoslashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tipik qoidalarning shartlari asosida investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlari quyida batafsil keltirilgan. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibining jarayonlarini modellashtirishda algoritmlar guruhini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki har bir algoritm o‘ziga xos hisoblash xususiyatiga ega.

Mavjud tizimni bir nechta guruhga ajratamiz. Birinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining parametrlari o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi va ular o‘rtasida hajmiy nisbatlar aniqlanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar tarkibining dastlabki holati va ular aylanmasi va tarkibining guruhlari tavisflanadi. Ikkinchi guruhda investitsiyalar aylanmasi va tarkibining guruhlari holati rejalashtiriladi. To‘rtinchi guruhda investitsiyalar tarkibining o‘ziga xos xususiyatlariga baho beriladi.

Investitsiyalar aylanmasi va tarkibini optimallashga doir iqtisodiy-matematik modellar sanoat korxonalarida investitsiyalar aylanmasi va tarkibining harakatidan ko‘riladigan maksimal darajadagi foyda olish shartlarining bajarilishiga imkon yaratadi. Iqtisodiy-matematik modellarni yozish uchun esa quyidagi shartli belgilarni kiritamiz:

- **indekslar:** k – sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilish kanallar soni; j – sanoat mahsuloti turlari; ρ – manbalari bo‘yicha investitsiyalar miqdori; γ – tarkibiy guruhlari bo‘yicha investitsiyalar miqdori; τ – investitsiyalarning maksimal yoki minimal darajadagi ulushi miqdori (τ = 1 – max: τ = 2 – min); γ – jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalar guruhi (γ = 1 – jalb qilingan investitsiyalar; γ = 2 – qarzga olingan investitsiyalar); σ – moddiy, mehnat va boshqa resurslar turlari.
- **koeffitsiyentlar:** $Ц_{jk}$ – sanoat mahsulotlari hajmining birlik o‘lchovidagi narxi; C_{jk} – sanoat mahsulotlari hajmining birlik o‘lchovidagi tannarxi; $d^{\tau}_{\rho\gamma}$ – manbalar bo‘yicha investitsiyalarning maksimal yoki minimal (τ = 1 – max: τ = 2 – min) darajadagi ulushi; $v_{\rho\gamma}$ – tarkibiy guruhlari bo‘yicha hisobdan chiqariladigan investitsiyalar ulushi; $\beta_{\rho\gamma}$ – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar ulushi; $П_{\rho j}$ – mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan birlik o‘lchovidagi investitsiyalar ta’sirida

yaratiladigan sanoat mahsuloti birligi; $r_{\sigma\rho\gamma}$ – mahsuloti birligiga sarflanadigan moddiy, mehnat va boshqa resurslar me'yorlari; α_{jk} – taqsimot kanallari bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ulushi.

- **erksiz o'zgaruvchilar:** $M'_{\rho\gamma}$ – investitsiyalar hajmi; E_σ – moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslar hajmi; Q_j – minimal darajada talab qilinadigan mahsulotlar hajmi.
- **erkli o'zgaruvchilar:** x_j^k – taqsimot kanallari bo'yicha taqsimlanadigan mahsulotlar miqdori; x_ρ – manbalar bo'yicha investitsiyalar miqdori; $x_{\rho\gamma}$ – tarkibiy guruhlari bo'yicha investitsiyalar hajmi; $\overline{x_{\rho\gamma}}$ – tarkibiy guruhlar bo'yicha korxonaning o'zida qoladigan investitsiyalar miqdori; $x^\mu_{\rho\gamma}$ – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar miqdori; $x'''_{\rho\gamma}$ – hisobdan chiqariladigan investitsiyalar miqdori; $x''_{\rho\gamma}$ – jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalar miqdori; $x'_{\rho\gamma}$ – korxonadagi mavjud investitsiyalar miqdori.
- **to'plamlar:** J – sanoat mahsuloti turlari bo'yicha to'plam; K – mahsulot turlarining taqsimot kanallari bo'yicha to'plami; N – investitsiyalarning tarkibiy guruhlari bo'yicha to'plami; P – manbalari bo'yicha investitsiyalarning to'plami; M – moddiy, mehnat va boshqa turdagi resurslar to'plami.

Investitsiyalar aylanmasini optimallashning iqtisodiy-matematik modelini ularning tarkibini hisobga olgan holda tavsiflaymiz. Investitsiyalar aylanmasi va tarkibidan maksimal darajada foydal olish investitsiyalarning samaradorligini baholashning asosiy mezoni bo'lib, ular quyidagi cheklov shartlari asosida amalga oshiriladi:

$$\sum_{j\epsilon J}\sum_{k\epsilon K} Ц_j^k x_j^k - \sum_{j\epsilon J}\sum_{k\epsilon K} C_j^k x_j^k \to max$$

1. Tarkibiy guruhlari bo'yicha investitsiyalar miqdori maksimal yoki minimal chegaradan ortiqcha bo'lmasligi shart

$$x_{\rho\gamma} - d_{\rho\gamma}^\tau x_\rho \geq 0, \quad \tau = 1$$
$$x_{\rho\gamma} - d_{\rho\gamma}^\tau x_\rho \leq 0, \quad \tau = 2, \qquad \rho\epsilon P, \qquad \gamma\epsilon N$$

2. Alohida manbalari bo'yicha umumiy investitsiyalar miqdori ularning tarkibiy guruhlari bo'yicha investitsiyalar miqdoriga nisbatan ortiqcha bo'lishi shart

$$\sum_{\gamma\epsilon N} x_{\rho\gamma} - x_\rho \geq 0, \qquad \rho\epsilon P$$

3. Manbalari va tarkibi bo'yicha kelgusi davrga mo'ljallangan investitsiyalar tarkibi jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalarni hisobga olgan holda aniqlanadi

$$x'_{\rho\gamma} \geq M'_{\rho\gamma}, \qquad \rho\epsilon P$$
$$x'_{\rho\gamma} + x''_{\rho\gamma} + \sum_{\gamma=1,2} x^\mu_{\rho\gamma} - x_\rho = 0, \qquad \gamma\epsilon N$$

4. Hisobdan chiqarilgan va korxonada qoladigan investitsiyalar miqdori investitsiyalarni hisobdan chiqarish me'yorini hisobga olgan holda aniqlanadi

$$v_{\rho\gamma} x_{\rho\gamma} - x'''_{\rho\gamma} \leq 0, \qquad \rho\epsilon P$$
$$\sum_{\gamma=2,3} (1 - v_{\rho\gamma}) x_{\rho\gamma} - \overline{x_{\rho\gamma}} \leq 0, \qquad \gamma\epsilon N$$

5. Yangidan yaratiladigan investitsiyalar miqdori kengaytirilgan takror ishlab chiqarish natijasida shakllanadigan investitsiyalar ulushi asosida hosil bo'ladi

$$\beta_{\rho\gamma}\overline{x_{\rho\gamma}} - x^\mu_{\rho\gamma} \leq 0, \qquad \mu = \overline{1,2}, \qquad \rho\epsilon P, \qquad \gamma\epsilon N$$

6. Foydalaniladigan moddiy, mehnat va boshqa turdagi resurslar miqdori korxonadagi mavjud resurslar miqdoridan ortiqcha bo'lmasligi shart

$$\sum_{\rho\epsilon P}\sum_{\gamma\epsilon N} r_{\sigma\rho\gamma} x_{\rho\gamma} \leq E_\sigma, \qquad \sigma\epsilon M$$

7. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga qo‘yiladigan minimal talablar investitsiyalar hajmidan kam bo‘lmasligi shart

$$\sum_{\rho \epsilon P}\sum_{\gamma \epsilon N} \Pi_{\rho j} x_{\rho \gamma} \le Q_j, \qquad j \epsilon J, \qquad \gamma \epsilon N$$

Taqsimot kanallari bo‘yicha realizatsiya qilinadigan sanaot mahsulotlari hajmi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmidan ortiqcha bo‘lmasligi shart

$$\alpha_j^k \Pi_{\rho j} x_{\rho \gamma} - x_j^k \le 0, \quad \sum_{k \epsilon K} \alpha_j^k = 1, \ j = 1, \ \rho \epsilon P$$

- o‘zgaruvchilarning manfiy emaslik shartlari

$$x_{\rho\gamma} \ge 0, x_\rho \ge 0, \ x'_{\rho\gamma} \ge 0, \overline{x_{\rho\gamma}} \ge 0, x''_{\rho\gamma} \ge 0, x^\mu_{\rho\gamma} \ge 0, x_j^k \ge 0.$$

Tuzilgan modellar va algoritmlar sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanishini samarali boshqarish imkonini beradigan tizimni yaratish uchun asos bo‘ladi.

Investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslab berish uchun modellarni boshqarishda quyidagi parametrlardan foydalaniladi: investitsiyalarning haqiqiy tarkibi; investitsiyalar tarkibining unumdorlik dinamikasi; tarkibiy guruhlar bo‘yicha investitsiyalar hajmini mustahkamlashning maksimal yoki minimal darajadagi chegarasi; investitsiyalarning birlik o‘lchovidagi narx dinamikasi; investitsiyalarning birlik o‘lchovidagi tannarx dinamikasi; shakllangan manbalar guruhi bo‘yicha hisobdan chiqarilgan va aylanma natijasida yangidan yaratilgan investitsiyalar ulushi; jalb qilingan va qarzga olingan investitsiyalarni xarakterlovchi ma’lumotlar; korxonadagi mavjud investitsiyalar hajmi; 1 s mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mehnat xarajatlari me’yori va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir model va algoritmdan foydalanish orqali natijaviy (chiqish) parametrlarga ega bo‘lamiz. Ularning ba’zi parametrlaridan kirish parametrlari sifatida keyinchalik investitsiya jarayonlarini prognozlash va ularga doir analitik masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Masalaning tizimli tarkibi, axborot va logik aloqadorlik qoidasiga asoslanib, qo‘yilgan masalaning yechimini kompyuter yordamida topish uchun tizimning kengaytirilgan sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).



1-rasm: Korxonaning investitsiyalari samaradorligini baholash mexanizmi

1-rasmda quyidagi belgilar qabul qilingan:
1 – qaror qabul qiluvchi shaxs;
2 – ma’lumotlar bazasi;
3 – investitsiyalarga doir retrospektiv ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlar to‘plami;
4 – investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanishning balans modeli;
5 – investitsiya manbalarini hisobga olgan holda investitsiyalar aylanmasining iqtisodiy-matematik modeli;

6 – yangidan yaratilgan investitsiyalar hisob-kitob qilish algoritmlari;
7 – investitsiyalar hajmini prognozlashning iqtisodiy-matematik modeli;
8 – investitsiyalar manbalari guruhi bo‘yicha ular tarkibining unumdorligini prognozlash modeli;
9 – erishilgan natijalarning muvozanatligini va maqbulligini tekshirish;
10 – qabul qilingan qarorlar natijasini tahlil qilish va baholashda modellar va algoritmlardan olingan natijalar;
11 – investitsiyalar ta’siri natijasida mahsulot ishlab chiqarish va sotishni prognozlashning iqtisodiy-matematik modeli.

Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha muvozanatga erishilgandan keyin qaror qabul qiluvchi shaxs muqobil variantlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni qiyosiy baholaydi. Agar muqobil variantlardan biri qaror qabul qiluvchi shaxsni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qoniqtirmasa, u holda qaror qabul qiluvchi shaxs ma’lumotlar bazasiga yana takroran murojaat qiladi va modellarda axborotning yangi massivlarining mikdoridan foydalanadi. Ushbu protsedura hisob-kitobning qoniqarli variantiga erishilgunga qadar takrorlanadi. Ma’lumotlar bazasining tarkibi iqtisodiy shart-sharoitlarni hamda har bir investitsiyaning tarkibini hisobga oluvchi kerakli ma’lumotlarni aks ettirish imkoniyatini ko‘zda tutadi.

Tuzilgan modellar va algoritmlar “Jizzax” sanoat korxonasining investitsiya resurslari aylanmasi va tarkibini takomillashtirish yo‘llarini asoslab berish uchun joriy etildi.

1-jadvalda “Jizzax” korxonasi investitsiyalari aylanmasi va tarkibini hisoblashning modellari va algoritmlarining parametrlarini tavsiflovchi ma’lumotlar ko‘rsatilgan. Ushbu jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, korxonaning yil boshidagi investitsiyalari 5 282 876 mln. so‘mni tashkil etgan, shundan 93,3% qisqa muddatli investitsiyalar, 6,70% uzoq muddatli investitsiyalar. Investitsiyalar tarkibi va miqdori qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarning tarkibiy guruhlar tarkibi va manbalariga nisbatan farqlanadi. Masalan, jalb qilingan investitsiyalar 2 818 290 mln.so‘mni tashkil etgan, shundan 88,2% qisqa muddatli investitsiyalar, 11,80% uzoq muddatli investitsiyalar.

1-jadval: 2021-yilda “Jizzax” korxonasining investitsiyalari aylanmasi va tarkibining hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Qisqa muddatli		Uzoq muddatli		Jami
	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	
Yil boshiga qoldiq	4928923	42,30 93,30	353953	28,25 6,70	5282876 40,94
Kirim (moliyalash manbalari):					
o‘z mablag‘lar manbai	2485732	21,33 88,20	332558	26,55 11,80	2818290 21,84
jalb qilingan mablag‘lar	2582221	22,16 87,70	362159	28,91 12,30	2944380 22,82
qarz mablag‘lar	771653	6,62 86,20	123536	9,86 13,80	895189 6,94
boshqa guruhdan o‘tkazilgan mablag‘lar	19640	0,17 89,00	2449	0,19 11,00	22067 0,17
boshqa mablag‘lar	863325	7,41 91,70	78142	6,24 8,30	941167 7,30
Jami	11249942	100 87,18	1654327	100 8,82	12904269 100
Chiqim:					
boshqa guruhga o‘tkazilgan mablag‘lar	30554	0,65 100,00	0	0,00 0,00	30554 0,41
ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan mablag‘lar	438443	9,26 87,70	61492	2,30 12,30	499935 12,09
boshqa mablag‘lar	19640	0,41 89,00	2427	0,09 11,00	22067 0,30
Jami	6453701	100 87,18	949030	100 12,82	7402731 100
Yil oxiriga qoldiq	4796241	100 87,18	705297	100 12,82	5501538 100
O‘rtacha yillik mablag‘lar	4700926	36,88 87,18	691281	36,88 12,82	5392207 100

Xuddi shunga o‘xshash vaziyat qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar guruhlarining tarkibi va manbalari uchun ham hosil bo‘ladi. Masalan, manbariga ko‘ra boshqa guruhdan o‘tkazilgan investitsiyalar 895 189 mln. so‘mni tashkil etgan, shundan 771 653 mln. so‘m yoki 86,2% qisqa muddatli investitsiyalar, 123 536 mln. so‘m yoki 13,80% uzoq muddatli investitsiyalardir.

XULOSA

Ko‘rinib turibdiki, investitsiyalar aylanmasining kirim qismidagi barcha moddalarda qisqa muddatli investitsiyalar ustunlik qiladi. Korxonaning yil oxiridagi investitsiyalari 7 402 731 mln. so‘mni tashkil etgan, shundan 6 453 701 mln. so‘m yoki 87,18%,qisqa muddatli investitsiyalar, 949 030 mln. so‘m yoki 12,82% uzoq muddatli investitsiyalardir.

Qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar tarkibiy guruhlari tarkibi va ular manbalarining o‘zgarish dinamikasi korxonaning yil boshidagi va oxiridagi investitsiyalar o‘rtasidagi farqni o‘rtacha yillik investitsiyalar aniqlaydi. Korxonaning o‘rtacha yillik investitsiyalari miqdori yil oxiridagi investitsiyalar miqdoriga nisbatan kam – 4 796 241, shundan 4 700 926 mln. so‘m yoki 87,18%,qisqa muddatli investitsiyalar, 691281 mln. so‘m yoki 12,82% uzoq muddatli investitsiyalardir.

2-jadval: “Jizzax” korxonasida investitsiyalarning muqobil variantlari bo‘yicha hisob-kitob natijalari

Ko‘rsatkichlar	2021-yil haqiqatda	Modellar bo‘yicha hisob-kitob variantlari			2021-yil haqiqatga nisbatan hisob kitob variantlari		
		1	2	3	1	2	3
Sof foyda	363252	377419	387589,9	390495,9	103,9	106,7	107,5
shundan: o‘z mablag‘lar manbai	39868	41303	41741,8	42180,34	103,6	104,7	105,8
jalb qilingan mablag‘lar	169086	175511	174665,8	174327,7	103,8	103,3	103,1
qarz mablag‘lar	181438	186700	186336,8	185974	102,9	102,7	102,5
boshqa mablag‘lar	24507	25561	26149	26688	104,3	106,7	108,9
Rentabellik darajasi, %	14,2	14,75	15,15	15,27	103,9	106,7	107,5

“Jizzax” korxonasi o‘zining barcha vositalaridan foydalangan holda investitsiyalar miqdorini ko‘paytirmoqda (2-jadval). Investitsiyalar miqdorining ko‘payishiga ishlab chiqarish jarayonini faollashtirish, investitsiyalarning tarkibiy guruhini yaxshilash, investitsiyalarning hajmini ko‘paytirish usullari asosida investitsiya tarkibining unumdorligini oshirishga bo‘lgan ta’siri natijasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishiladi.

2-jadvalda keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning hisob-kitob natijalari 2021-yildagi haqiqiy ma’lumotlar bilan qiyosiy baholangan. Tavsiya etilgan uslubiy yondoshuvlar, tuzilgan modellar va algoritmlar investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo‘llari ekanligini ko‘rsatmoqda. Korxonada investitsiyalarning tarkibiy manbalari va salohiyatidan aql-idrokka asoslangan holda foydalanish, mehnat unumdorligini oshiradigan zahiralarni izlab topish iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank.” – Август 2022 г.
2. Salzmann A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogunlana S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication – 224. –pp 475-485.
3. Salzmann, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9. –pp 101-114
4. Rustamovich D. B. QUALITY AND SAFETY OF PUBLIC CATERING SERVICES IN UZBEKISTAN //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23). – С 19-23.
5. Rustamovich, Dehkonov Burhon. “Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan.” Journal of International Business Research and Marketing 5.6 (2020): 28-33.
6. Rustamovich, Dehganov Burkhan. “FINANCING DOMESTIC TOURISTS AND EXPORT OF TOURISM SERVICES.” FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA 2.3 (2023): 35-37.
7. Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.
8. https://www.codingninjas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods

RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Raxmonov Lochin To‘xtamishovich
Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanish bosqichlari va rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Abstract: This article describes the stages of formation and development of the digital economy.

Key words: digital economy, “Big Data”, “Cloud Somputing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, internet.

Аннотация: В данной статье описаны этапы становления и развития цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, “Big Data”, “Cloud Computing”, “Artificial intelligence”, “Blockchain technology”, интернет.

KIRISH

Jahon iqtisodchi olimlari bugungi raqamlashib borayotgan global olamda raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholash bo‘yicha yagona integral indikatorni yaratish bo‘yicha muammolarga duch kelmoqda. Ushbu holatlarni bartaraf etishda empirik va statistik ma’lumotlarning yetishmasligi, texnologik rivojlanish jarayonlarining shiddat bilan o‘zgarib borayotgani, institutsional o‘zgarishlarning tez sur’atlarda amalga oshayotgani sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida “Big Data” (ulkan ma’lumotlar), “Cloud Somputing” (bulut texnologiyasi) (Cloud Somputing), “Artificial intelligence” (sun’iy intellekt)dan foydalanish istiqbollari va kraudsorsing, “Blockchain technology” (blokcheyn texnologiyalari)ni tatbiq etishning uslubiy jihatlari hamda ushbu texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tadqiq qilish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston iqtisodiyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta’sirini o‘lchash bilan bog‘liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov [1], K.X.Abdurahmonov [2], R.H.Ayupov [3], O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, O.Umarov [4] va mamlakatimizning boshqa ko‘plab yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan. Ularning ilmiy tadqiqot ishlarida iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlarini ta’minlaydigan, shuningdek, ular o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro aloqa qilish imkoniyatini beradigan funksiyalar to‘plamiga ega bo‘lgan raqamli muhit bo‘yicha izlanishlar o‘rin olgan.

Bugungi transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyotni yagona tizim sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish, hududlarning bir butunlikda, kompleks rivojlanishi va jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning o‘sishiga ta’sirini baholash bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu jihatlar mazkur maqola mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kanadalik olim Don Tapskottning 1994-yilda nashr etilgan “Digital Economy” modeli hayotimizni keskin o‘zgartirib yubordi. Raqamli innovatsiyalarni, jumladan, “Cloud computing”, “Mobil marketing” va “Artificial intelligence” raqamli texnologiyalarini rivojlanishining tub mohiyatida aholining farovonligini oshirish yotadi [5].

Globallashuv jarayonida mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilashda raqamli iqtisodiyotning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning qaysi bir tarmoq yoki sohasiga nazar tashlamaylik, barchasida raqamli texnologiyalarning o‘rnini ko‘ramiz. Mamlakatning bank tizimidagi xizmatidan tortib, davlat xizmatlari darajasida ham innovatsion raqamli texnologiyalarning ulushi oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotga asoslangan iqtisodiyotdir. Raqamli iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, jamiyatni tezkor axborotlashtirishga qaratilgandan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internet orqali raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asoslangan sohalarni va ish jarayonlarini ham qamrab oladi (1-rasm).



1-rasm: An’anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning bog‘liqligi

Aslida raqamli iqtisodiyot dastlab D.Bell tomonidan yaratilgan telekommunikatsiyaning ilk ko‘rinishiga borib taqaladi. Undan keyin o‘tgan asrning 50-yillarida IBM kompaniyasi tomonidan amaliyotga SABRE dasturining yaratilishi va American Airlines tomonidan aviachiptalarni bron qilish va xarid jarayonida qo‘llanilishi raqamli tizimlarning yaratilishida yangi burulishni boshlab berdi. XX asrning 90-yillaridan internetdan global tarmoq sifatida foydalanish natijasida iqtisodiyot tarmoq va sohalarining raqamlashish darajasi bosqichma-bosqich o‘sib bordi.

Raqamli iqtisodiyotning g‘oyalari integratsiyalashgan bir hodisa sifatida, milliy raqamli strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni boshlagan hukumatlarning siyosiy kun tartibiga va raqamlashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilotlarga bosqichma-bosqich kirib keldi.

So‘nggi bir necha yil ichida yuz bergan turli xil qiyinchiliklarga qaramay, “Facebook” ijtimoiy platformalar orasida birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Kompaniyada qayd etilgan foydalanuvchilar tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, platformada jami 2,6 milliarddan ortiq tarixiy foydalanuvchilar mavjud va foydalanuvchilar soni 2019-yil davomida aksariyat mamlakatlarda barqaror o‘sishda davom etgan (1.3-rasm).

4-bosqich. (2017-yildan keyingi). Sanoatda, xizmat ko‘rsatishda inson omilining o‘rnini raqamli tizim egallashi hamda ish o‘rinlarining keskin qisqarishi. Sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasida yangi yo‘nalishlarning kirib kelishi bilan xarakterli bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyotning tarqalish tezligi quyidagi raqamlar bilan izohlanadi [7]:

- internet tarmog‘idan 4 milliardga yaqin odam foydalanadi, ulardan 53 foizi “Mobil Internet”dan (mobil internet) foydalanadi;
- Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Internet foydalanuvchilari quyidagilar: 16 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lganlarning 97% va qariyalarning (55 yoshdan 74 yoshgacha bo‘lganlar) 63% internetdan foydalanadi;
- Jahon xo‘jaligida faoliyat olib boruvchi xodimlarning 5,5 foizi AKT bo‘yicha mutaxassislar hisoblanadi. Ularning 1,4 foizini ayollar tashkil etadi;
- ishbilarmonlarning 90 foizi internet tarmog‘i bilan bog‘lanishadi, faqatgina 20 foizi ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishadi.

“Google” mutaxassislari 2020-yilning oxiriga borib, dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 5 milliard kishidan oshishini bashorat qilishgan (1.3-rasm).



2-rasm: Dunyo bo‘ylab eng ommabop va faol foydalanuvchilar soni bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar reytinggi, 2020-yil iyul holatiga ko‘ra (millionda) [6]

XXI asrning yangi iqtisodiyoti (raqamli iqtisodiyoti) doirasida olimlar va siyosatchilar bir qator yangi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tushunadilar. Odatda, unga yaqin bo‘lgan jarayonni har kim o‘z zimmasiga oladi va uni yangi iqtisodiyotning asosi sifatida tan oladi.

Biz neytral nuqtayi nazarga rioya qilamiz va yangi iqtisodiyotni zamonaviy iqtisodiyotga xos xarakterli va jarayonlar yoki xitoyliklar aytayotgan yangi haqiqat sifatida quyidagilarni taqdim etamiz.

1. Raqamli globallashuv, ya’ni Internet, mobil aloqa va “Blockchain technology” tomonidan taqdim etilayotgan global tarmoq infratuzilmasi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar.
2. “Tarmoq iqtisodiyoti” atamasi bilan birlashtirilgan ishlab chiqarish, tarqatish tarmoqlari va savdoning xususiyatlarini o‘zgartirish.

M.Kastells quyidagi ta’riflarni berdi: Tarmoq iqtisodiyoti – bu sayyora miqyosida real vaqt rejimida yagona tizim sifatida ishlashga qodir iqtisodiyotdir [8].

Tarmoq iqtisodiyoti ishlab chiqarish jarayonlarining strukturasini o‘zgartirdi: bir korxona ichidagi iyerarxik tuzilmalar butun dunyo bo‘ylab tarqalgan tarmoq bilan almashtirildi, tarkibiy qismlar eng kam xarajatda ishlab chiqarildi va yig‘ish maydonchalariga yuborildi, bu esa, individual mijozlar buyurtmalarini bajarish uchun minimal xarajatlar bilan amalga oshirish imkonini berdi.

Texnologiyalar, yangi mahsulot va jarayonlar rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sarmoya kiritish kabi tezlik bilan ko‘chib o‘tmoqda. Bugungi kunda tarmoq iqtisodiyoti tranzaksion xarajatlarni kamaytirdi, raqobatni kuchaytirdi, kirish to‘siqlarini kamaytirdi va iqtisodiyotning global tabiatini mustahkamladi. Ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning raqamlashuvi natijasida ofis xarajatlarini qisqartirish va ish samaradorligini 20-40 foizga oshirish, eng muhimi, tabiiy birlamchi yoqilg‘ini ham tejash imkoni yuzaga keldi.

Inson kapitali va bilimga yo‘naltirilgan davlat investitsiyalari barqarorlik va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun muhim omillarga aylandi. XX asrning asosiy yutug‘i qo‘lda ishlaydigan ishchilarning hosildorlik darajasining 50 barobar o‘sishiga bog‘liq bo‘lsa, unda XXI asrning asosiy muammosi – “bilim egalari”ning (Piter Drukerning qarashlari) aqliy mehnatini yuqori darajada bajarish bilan mashg‘ul bo‘lishidir.

Raqamli iqtisodiyotning o‘sib borayotgan ahamiyati dalolati 100 yil ichida yalpi ichki mahsulotning hajmi va an’anaviy mahsulotlarning vaznini emas, balki virtual mahsulotlar ulushining YAIMdagi ulushi tufayli 20 barobar ko‘proq o‘sishiga olib keladi. “Raqamli iqtisod” tushunchasi mualliflaridan biri N.Negroponte mazkur tushuncha to‘g‘risidagi quyidagilarni ta’kidlaydi. Internet bor joyda iqtisodiyot rivojlanadi hamda sanoat korxonalari internet

tezligi yuqori bo‘lgan shaharlarga intiladi. “Raqamli iqtisodiyot” (Digital Economy) bo‘yicha umumlashgan yagona tushuncha mavjud emas, lekin ko‘plab ta’riflar mavjud.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari mutaxassislari: “Raqamli iqtisodiyot – axborot va kommunikatsiya sohasida yangi umumiy maqsadli texnologiyalarning transformatsion samaralaridir” [9]. Agar biz iqtisodiyotning konsepsiyasini jamiyatning iqtisodiy faolligi va ishlab chiqarish, tarqatish, almashinuv va iste’mol tizimida rivojlanib boradigan munosabatlarning jamiyati sifatida qabul qilsak. AKT, Internet, mobil telefonlardan foydalanish “iste’mol” deb hisoblanishi mumkin, bu holatda raqamli iqtisodiyotni Internet, uyali aloqa, AKT orqali amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlarning bir qismi sifatida aniqlash mumkin.

Tomas Mezenburgning tadqiqotiga ko‘ra, Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining uchta asosiy komponenti mavjud:

1) infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash (apparat va dasturiy ta’minot, telekommunikatsiya, tarmoqlar va boshqalar);
2) elektron biznes (biznesni va kompyuter tarmoqlari orqali boshqa biznes jarayonlarini yuritish);
3) elektron tijorat (Internet orqali mahsulot taqsimoti). Raqamli transformatsiya inson faoliyatining barcha jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Integral xizmatlarni amalga oshirishning yorqin namunalari PLM-tizimlari (Product lifecycle management (PLM)) – mahsulot/mahsulotning hayotiylik davri aylanishini boshqarish, BPM –tizimlari (Business process management (BPM)) – biznes jarayonlarini boshqarish kabi vositalardir. Iqtisodchi olim B.N.Panshin ta’kidlaganidek: “Iqtisodiyotning raqamli segmentini kengaytirishning asosiy sababi rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 70 foizidan ortig‘i bo‘lgan tranzaksion sektorning (xizmatlar sohasining) o‘sishi hisoblanadi”.

Ushbu sohaga quyidagilar kiradi: davlat boshqaruvi, konsalting va axborot xizmatlari, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, turli kommunal xizmatlar, shaxsiy va ijtimoiy xizmatlar. Iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi va dinamikasi qanchalik katta bo‘lsa, mamlakat ichkarisida va tashqarisida aylanadigan noyob ma’lumotlarning miqdori katta bo‘lib, shuning uchun milliy iqtisodlar ichida ko‘proq axborot trafigi hosil bo‘ladi.

Tahlil etilgan maqolalar va olimlar tomonidan raqamli iqtisodiyotning mazmun-mohiyatiga berilgan tushunchalarni umumlashtirilib mualliflik ta’rifi shakllantirildi. “Raqamli iqtisodiyot – bu bir necha qatlamlardan tashkil topgan, murakkab tuzilma bo‘lib, an’anaviy iqtisodiyot asosida quriladigan hamda Internet tarmog‘i va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tizimdir. Raqamli iqtisodiyot:

- ishlab chiqarishni muhim omili sifatida – raqamlashtirilgan axborot va bilimlardan foydalanish;
- faoliyatning muhim yo‘nalishi sifatida – zamonaviy axborot tarmoqlaridan foydalanish;
- iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy tarkibni maqbullashtirishning muhim omili sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat turlarining keng doirasidir”.

Raqamli iqtisodiyot (Xitoy, BAA, Saudiya Arabistoni) jadal rivojlanib borayotgan “raqamli mamlakatlar” (Daniya, Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH) tajribasidan kelib chiqib, to‘rtta turini (vositalarini) ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. “Raqamli ishlab chiqarish” resurslarni yangilash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun joriy iqtisodiy tizimning samarasiz zonalarini bartaraf etadi. Vazifalar natijalarga erishishga qodir bo‘lgan iqtisodiy subyekt-o‘yinchilarning yordami bilan hal etiladi.
2. “Raqamli pog‘ona” yangi biznesni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va zamonaviy texnologiyalarni jadal rivojlanishidan kelib chiqib: “Big Data”, “Artificial intelligence”, “Artificial neural network”, “Blockchain”dan iborat.
3. “O‘z-o‘zini raqamlashtirish” davlat bilan hamkorlikning barcha jarayonlari samaradorligini va oshkoraligini oshiradi, mamlakatda biznes yuritishni osonlashtiradi, bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyot uchun ijobiy ta’sir qilishga imkon yaratadi.

“Raqamli qayta investitsiyalash”. Birinchi uchta vazifani amalga oshirish natijasida qo‘shimcha qiymat yaratiladi, tranzaksion xarajatlarning kamayishi va tarmoqlararo munosabatlarning shakllanishi shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning elementlarini joriy etish turizm, telekommunikatsiya, matbaachilik, yo‘lovchi tashish, jumladan, taksi xizmatlarinining (Uber) faoliyatini o‘zgartirib yubordi.

Raqamli iqtisodiyot ko‘plab ishtirokchilar bilan bozorlarda va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmat ko‘rsatishning yuqori darajasiga ega bo‘lgan bozorlarda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Avvalo, bu Internet tarmog‘iga bog‘liq: transport, savdo, logistika va boshqalar. Elektron segmentning ulushi yalpi ichki mahsulotning qariyb 10 foizini, bandlikning 4 foizidan ortig‘ini tashkil qiladi va bu ko‘rsatkichlar tobora oshib borayotgan tendensiyaga ega. Raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimning tarkibiy qismini – iste’molchilarning imkoniyatlarini, sanoat tuzilmasini, davlatlarning rolini tubdan o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гулямов С.С., Аюпов Р.Ҳ., Абдуллаев О.М., Балтабаева Г.Р. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялари// Тошкент – 2019.;
2. Abdurahmonov K.X. Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish istiqbollari. – Elektron jurnal."biznes – ekspert". 4 (124)-son. 2018.
3. Ayupov R.H., Baltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar.// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – № 1, fevral.
4. Umarov O. 2019 yil Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 3, may-iyun, 2018-yil.
5. Chihiro Watanabeab, KashifNaveeda Yuji Touc , Pekka Neittaanmäkia . Measuring GDP in the digital economy: Increasing dependence on uncaptured GDP. Technological Forecasting and Social Change, Volume 137, December 2018. – Pages 226-240.
6. Global social networks ranked by number of users 2020. Published by J. Clement, Aug 21, 2020. https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users.
7. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php/Main_Page.
8. М. Кастельс. / Шкаратан О. И. // Канцелярия конфискации – Киргизы. – М. : Большая российская энциклопедия, 2009. – С. 296. – (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. – 2004 – 2017, т. 13). – ISBN 978-5-85270-344-6.
9. https://ria.ru/science/20170616/1496663946.html.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.